O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“O‘RTA OSIYODAN ANADO‘LIGACHA: TURKIY XALQLAR TILI, TARIXI, MADANIYATI VA ETNOGRAFIYASI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya MATERIALLARI TO‘PLAMI

2023- yil 19-oktabr

I-KITOB



Navoiy-2023

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING
TASHKILIY QO‘MITASI

B.B.SOBIROV	Navoiy davlat pedagogika instituti rektori, texnika fanlari doktori, professor
NECATI DEMIR	Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) direktori; Anqara G‘azi Universiteti professori
	A’ZOLAR:
T. O‘TAPOV	Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektoriv.b., pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
X. QURBONOV	Navoiy davlat pedagogika instituti yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektori, tarix fanlari nomzodi,dotsent
G‘. YODGOROV	Navoiy davlat pedagogika institute o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori, informatika fanlari nomzodi, dotsent
S.XUDOYBERDIYEV	Navoiy davlat pedagogika instituti moliya va iqtisodiy ishlar bo‘yicha prorektori
D. HAMROYEVA	Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) O‘rta Osiyo-O‘zbekiston bo‘limi mas’uli
A. ALLABERDIYEV	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani, f.f.f.d., dotsent
A. XOLMURODOV	Navoiy davlat pedagogika institute O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori
N. SADINOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
M. NORQOBILOV	Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasi dotsenti v.b, fal.f.f.d.
F.RAXIMOV	Navoiy davlat pedagogika instituti ATM TB bo‘limi boshlig‘i tel: 0(436)225-19-23 E-mail: navgospi_inbox.ru Web-sayt: www.nspi.uz

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYANING TAHRIR HAY’ATI

Mas’ul muharrir N. SADINOVA

1-Sho‘ba	
N.SADINOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
N.RAXMONOV	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
M. AXMEDOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi
2-Sho‘ba	
S.MUQUMOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
F.YULDOSHEV	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)
3-Sho‘ba	
M.XUDOYOROVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
Z.AXMEDOVA	Navoiy davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.
4-Sho‘ba	
V.CHO‘LIYEVA	Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)
SH. ASHUROV	Navoiy davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maqola va tezislarning ilmiy saviyasi, ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar

Ассалому алайкум, халқаро конференция иштирокчилари, хонимлар ва жаноблар! Бугунги халқаро илмий-амалий конференцияда Сиз азизларни кўриб турганимдан хурсандман. Хуш келибсизлар!

Бугунги глобаллашув даврида туркий тилли давлатларнинг яқинлашуви нафақат иқтисодий-сиёсий, балки маънавий-руҳоний жиҳатдан ҳам аҳамиятлидир. Азаз-азалдан улар бир дин, бир маслак бўлиб, бир ариқдан сув ичиб яшаб келган. Маданий-маърифий қарашлари, тили ва адабиётидаги муштарак жиҳатлар ҳануз сақланиб қолмоқда.

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев бугунги глобаллашув жараёнида Инсониятни маънавий таназзуллардан асраб қоладиган ягона куч адабиёт экани, миллий меросини асраб қолиш ва тарғиб этиш заруратини таъкидлайди: "Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавиятини кўрсатади. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак. Аждодлар меросини ўрганиш, буюк маданиятимизга муносиб буюк адабиёт яратиш учун ҳамма шароитларни яратамиз".

Ҳар бир халқнинг ўзига хос шаклланиш жараёни мавжуд. Туркий қавмларнинг ҳам бир неча миллат сифатида шаклланиши шундай хусусиятга эга. Бугун дунё тамаддунига бешик бўлган Шарқ ўзининг бой ўтмиши, яшаб ўтган улуғ сиймолари билан ҳақли равишда фахрланади. Жумладан, дунё цивилизациясининг бошланиши қадим – шумер давлатчилиги эканлиги, улар томонидан яратилган "Билгамиш" достони эса жаҳон ёзма адабиётининг илк намунаси эканлиги бугун илм аҳлига яхши маълум. Туркий тиллий халқлар тили ва адабиёти Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Аҳмад Яссавий, Юнус Эмро, Алишер Навоийдан тортиб Абдулла Қодирий, Азиз Несин, Рашод Нури Гунтекин ва бошқа кўплаб ижодкорлар асарларида ўз ифодасини топган.

Жаҳон ва туркий халқлар адабиёти – инсоният маданиятининг муштарак бир бўлаги. Шарқ цивилизацияси – тараққиётнинг маънавий асосларидан бири– инсонни улуғлаш, унинг камолотини ички ва ташқи дунёсини уйғунликда қарашдан иборатдир.

Ҳар бир миллат тили ва адабиёти дунё бадиий тафаккурининг ажралмас қисмини ташкил қилади. Жаҳон халқларининг қизиқиши ва ўқиши бадиий адабиёт аҳамиятини белгиловчи асосий мезонлардан ҳисобланади. У ёки бу халқнинг жаҳонда танилиши, энг аввало, ўша халқ маданияти, санъати ва адабиётининг қандай миқёсда тарқалиши ва тан олинишига боғлиқдир. Бирон бир халқ маънавиятига хос қадриятларнинг бошқа халқлар томонидан тан олиниши, табиийки, ана шу халқ тарихига нисбатан чуқур ҳурмат ифодасидир. Бундай эътироф халқнинг ғурур ва ифтихори, миллий ўзлигини юксалтиришга хизмат қилади.

Жаҳон халқларининг маънавий-маданий йўналишда ҳамжиҳатликка интилиши, бир-бирларининг адабиёти ва санъатини ўрганишга қизиқиши аллақачон табиий жараёнга айланган. Шарқнинг ижтимоий-сиёсий, маданий-маърифий ҳаётини етарли даражада билиш эҳтиёжи, тилшунослик ва адабиётшунослик илми тараққиётидаги асосий омиллардан бири бўлган.

Кейинги йилларда илмий-адабий тафаккур кундан-кунга янгиланмоқда, ўзбек тили ва адабиётининг халқимиз, жамиятимизнинг маънавий ривожида, замонавий илм-фан тараққиётида тутган ўрни ва роли билан боғлиқ долзарб мавзуларда муҳим илмий тадқиқотлар амалга оширилмоқда. Бугунги ташкил этилган халқаро миқёсдаги илмий-амалий конференция ҳам ана шу хайрли ишларнинг давоми.

Конференция ишига муваффақият тилайман.

Эътиборингиз учун раҳмат!

Баҳодир СОБИРОВ,
техника фанлари доктори, профессор
Навоий давлат педагогика институти ректори

OĞUZ TÜRKLÜĞÜ'NÜN NEVAî (NUR-I BUHARA) ŞEHRİNDEN ANADOLU'YA YÜRÜYÜŞÜ

Prof. Dr. Necati DEMİR*
Institut fur die Welt der Turken (Germaniya) direktori;
Anqara G‘azi Universiteti professori

Giriş

Oğuzlar, VIII. yüzyılda Seyhun Nehri boyu ve Aral Gölü çevresinde bir devlet kurmuşlardır. Bu devlete kendilerinin ne ad verdiği bilinmemektedir. İbnü'l-esir, "*Oğuz kavmi*", Kâşgarlı Mahmud ve İbn Hurdadbih, Gerdizî "*Oğuzlar*", İdrisî ve İstahrî "*Oğuz Ülkesi*" olarak anmışlardır. Ancak son yüzyılda çağdaş tarih araştırmaları anlayışıyla araştırmacılar bu devlet için "*Sirderya Oğuz Yabgu Devleti"* ve "*Oğuz Yabgu Devleti*" adını uygun görmüşlerdir.

Oğuz Yabgu Devleti; 765-783 yılları arasında, muhtemelen 776'da Seyhun Nehri boylarında ve Aral Gölü çevresinde kurulmuş, son yabgusu ya da hanı Şah Melik diğer adı ile Kılıç Arslan'ın 1042'de ölmesi ile tarih sahnesinden silinmiştir. Yaklaşık 266 yıl hüküm sürmüş bu Oğuz devleti hakkında bilgiler ve belgeler son derece azdır. Mevcut kaynakların çoğu da rivayetlere dayanmaktadır ve bilimsellikten uzaktır.

1.Selçukluların Tarih Sahnesine Çıkışı ve Danişmendliler

Selçuklu Ailesi, Oğuz Yabgu Devleti vatandaşlarıdır. X. yüzyılda Oğuz Yabgu Devleti'nde Subaşı (ordu kumandanı) olan Selçuk Bey'in Oğuz yabgusu ile aralarında anlaşmazlık çıkar. 961 yılında Selçuk Bey, Oğuzların kışlık merkezi Yenikent'ten ayrılıp Türk ülkeleriyle İslâm ülkeleri arasında bir uç şehri ve Oğuzların yazlık merkezi Cend (<Can kend) şehrine göç etmiştir.

Oğuz yabgusundan ayrı hareket eden Selçuk Bey, 985'te İslamiyeti kabul etmiştir. Selçuklu hanedanından İslâmiyeti kabul eden ilk şahıs Selçuk Bey‘dir. O gayri müslim Türklerle yaptığı savaşlar sebebiyle *el-Melikü‘l Gazi* unvanıyla anılmıştır. 961 yılından sonra Oğuzlar arasında İslamiyet hızla yayılmıştır.

Selçuk Bey, Buhara ve Harezm‘den din adamları davet etmiş, bu vesile ile İslamiyet Oğuzlar arasında hızla yayılmaya başlamıştır.

İslamiyet Oğuzlar arasında yayılmaya devem ederken Oğuz yabgusu, Cend şehrine yıllık vergi toplamak üzere memurlar gönderdi. Cend'de yaşayan Oğuzlar "kâfirlere haraç vermeyiz" diyerek memurları kovarlar. Bu, Selçukluların merkezi yönetim ile mücadele edebilecek güce geldiğini göstermektedir. Böylece Selçuklu Devleti'nin temelleri yayaş yavaş şekillenmeye başlar.

2. Selçukluların Nur-ı Buhara'ya Asker Göndermesi

993-994'te Karahanlılar, Samanîlere ait olan Buhara'yı aldı ve burada oturmaya başladı. Bu şehrin havası ona iyi gelmedi, hasta oldu. Bu yüzden Buhara'dan ayrıldı ve Türk topraklarına gitti. Buğra Han, Buhara'dan ayrılınca halk ayaklandı ve geride kalan askerleri öldürdüler. Samanilerin hükümdarı II. Nuh, Selçuk Bey'den yardım istEdi. Selçuk Bey oğlu Arslan'ı Samanîlere yardıma gönderdi. Karahanlılara karşı Oğuzlar da savaşa katıldı[1]. Samanîler, Selçuklulara Karahanlı sınırındaki Nur-ı Buhara'yı (günümüzde Nevaî ili Nurata ilçesi) verdiler.

999'da Karahanlı Devleti tarafından Semerkand valiliğine atanan Karahanlı Ali Tigin, Zerefşah Nehri'nin Semerkand Köprüsü yakınlarında Oğuzlar ile savaştı. Oğuzlar onu yendi[2].

1002'de Samanîlerin son hükümdarı Ebu İbrahim İsmail el-Muntasır, kaybettiği toprakları Karahanlılardan almak için yeni bir mücadeleye girdi. Bu mücadelede Oğuz yabgusu ile iş birliği yapmak istedi. Akrabalık kurdular. Böylece Oğuz yabgusu da İslamiyeti kabul etmiş oldu[3].

Karahanlı Hakanı Nasr İlig Han, Buhara'yı ele geçirip Samanî hanedanından geriye kim kaldıysa Özkent'e getirip hapsetti. Samanî İsmail Mansur, kadın kıyafeti giyerek hapisten kaçmayı başardı. Tekrar ordu toplayıp defalarca Karahanlılar ve Gazneliler ile savaştı. 1002 yılında Gazneliler, Samanî emiri İsmail'i ağır bir yenilgiye uğrattı. 1003 yılında Ebiverd'de[4] Oğuzlara sığındı. Oğuzlar toplantı sonucunda İsmail'in

---

* Gazi Üniversitesi Gazi Eğitim Fakültesi Öğretim Üyesi Ankara-Türkiye necatidemir@gazi.edu.tr ORCID: 0000-0003-0762-410X

1 İbnü'l-Esir, *el-Kamil Fi't-Tarih Tercümesi,* C. 9, s. 86.

2 Ekber N. Necef, *Karahanlılar*, İstanbul 2005, s. 301-302.

3 Abdülkerim Özaydın, "Türklerin İslamiyeti Kabulü", *Türkler Ansiklopedisi,* C. IV, Ankara 2002, s. 256.

4 Günümüzde İran ile Türkmenistan arasında yer. Horasan bölgesi içerisindedir.

tarafında savaşa girmeye karar verdiler. Oğuz yabgusu da Müslüman oldu. Oğuzların asker birlikleri 1003 yılında Buhara'ya tekrar saldırıp aldılar, sübaşı Tigin'i kaçmak zorunda bıraktılar. Haberi alan Nasr İlig Han, (Mayıs-Haziran) Ağustos 1003'te Buhara yakınlarına kadar geldi. Savaşın olacağı gece Oğuz yabgusu, Karahanlılara hücum edip ordularını dağıttı, 18 büyük komutanı da esir aldı[5]. Oğuzlar komutanları fidye karşılığında Karahanlılara vermek isteyince İsmail ile araları açıldı. Oğuzlar ile İsmail'in çekişmesinden yaralanan Nasr İlig Han, Buhara'yı geri aldı. 1004'te İsmail tekrar asker toplayarak Karahanlıların üzerine yürüdü. Oğuzlar da ganimet elde edebilmek için İsmail'in yanında yer aldılar. Mayıs 1004'te Karahanlılar ile tekrar savaştılar. Karahanlılar mağlup oldu. Savaş sonunda beklediklerini alamayan Oğuzlar, İsmail'den ayrılarak yurtlarına döndü. İsmail'i zayıf anında yakalayan Karahanlılar onu Mirza Çöl yakınlarında yendiler. İsmail bir süre daha kaçtı. 1005'te Merv yakınlarında sığındığı Arap kabileleri tarafından öldürüldü. Böylece Samanî Devleti tarihe karışmış oldu[6].

3. Selçukluların Tamamının Nur-ı Buhara'ya Göçmesi

Selçuk Bey, 1009'da yaklaşık 100 yaşında iken öldü. Onu Cend'e defnettiler. Dört oğlu vardı: Arslan Yabgu, Yusf İnal, Musa İnanç ve küçük yaşta ölen Mikail. Selçuk Bey'in yerine Arslan Yabgu geçti.

Selçuk Bey'in ölümünden sonra baskılara dayanamayan Selçuklu ailesi, Samanîler tarafından kendilerine bağışlanan Nur-ı Buhara'ya (günümüzde Nevai iline bağlu Nurata ilçesi) taşındılar[7]. Cend boşaldıktan sonra buraya Ali Han'ın oğlu Şah Melik, diğer adı ile Kılıç Arslan gelip yerleşti.

Samanoğulları Devleti 999'da yıkıldı. Bu arada Gazneli Devleti güçlendi. Kargaşa içerisinde kalan Selçuklular önce Karahanlılara sığındılar. Maveraünnehr hanı Ali Tiğin ile Musa Yabgu anlaştı. Selçuklular Nur-ı Buhara'da kalmaya devam ettiler. Ali Tigin 1034'te ölünce çocukları Selçuklulara kötü davrandı. Onlar bu defa tekrar Oğuz Yabgu Devleti'nin güney sınırına yakın yerlere göçmek zorunda kaldılar.

Oğuz yabgu ailesinden Alpkara Baranî, 1029'da Selçuk Bey'in oğlu Yusuf Yınal'ı öldürdü. Tuğrul Bey ve Çağrı Bey, uygun zamanı gözleyip 1030'da Alpkara Baranî'yi yakalayıp ölürdüler. Böylece Oğuz Yabgu Devleti - Selçuklu ilişkileri daha da kötüye gitti. Aslında Oğuz yabgusu Ali Han ve Alpkara Baranî Karahanlılar ile iş birliği hâlinde olduklarına bakılırsa Müslüman oldukları açıktır. Konu bir din mücadelesi değil gibi görünmektedir.

Gazne Devleti tarihçisi Beyhakî, gözlemlerine dayanarak Tarih-i Beyhak'i başlıklı bir eser oluşturduğundan daha önce bahsetmiştik. O, eserinde zaman zaman Oğuz Yabgu Devleti ile ilgili de çok değerli bilgiler sunmuştur. 1030'lı yıllarda bölgenin beş aktif tarafı vardı: Harzemşahlar, Karahanlılar, Gazneliler, Selçuklular ve Oğuz Yabgu Devleti. Bunlar sürekli iletişim içindeydiler. Dost gibiydiler, fakat hiç biri diğerine güvenmemekteydi. Daima birbirlerinin zayıf anını gözlüyorlardı. Sürekli birbiri ile savaşıyorlardı.

XI. yüzyılın başlarında Oğuzların büyük çoğunluğu Müslüman olmuştu. Ancak yılına gelindiğinde Maveraünnehir'in doğusu ve kuzeyindeki bozkırlarda yaşayan ve Müslüman olmayan göçebe Türkler de vardı. 1043-44 yılında Balasagun ve Kaşgar civarında 10.000 çadırdan (yaklaşık 50-60 bin kişi) oluşan Türk halkının da Müslüman olmasıyla Türklerin çok büyük bir çoğunluğunun İslâmiyeti kabul ettiği söylenebilir.

Samanoğulları devleti 999'da yıkıldı. Bu arada Gazneli Devleti güçlendi. Kargaşa içerisinde kalan Selçuklular önce Karahanlılara sığındılar. Onlarla geçinemeyince 1012-1013'te çöle çekildi.

4. Selçukluların Nur-ı Buhara (Nevaî) Şehrinde Kalan Kültür Varlıkları

Selçukluların Nur-ı Buhara'daki asıl merkezi Özbekistan'ın Nevaî şehrinin 30 km batısında bulunan Hazara köyü idi. Burada bulunan Karakol Kale (Karakol Tepe), Degaron Camisi ve mezarlığın bir bölümü Selçuklulardan kalmadır.



Fotoğraf: Özbekistan Nevaî İli Hazara Köyü Karakol Tepe (Fotoğraf: Necati Demir)

---

5 İbnü'l-Esir, *el-Kamil Fi't-Tarih Tercümesi,* C. 9, s. 131-132; V.V. Barthold, *Moğol İstilası Döneminde Türkistan*, Ankara 2020, s. 268.

6 Necef, *Karahanlılar*, s. 277-281.

7 Ahmed Bin Mahmud, *Selçuk-name; C. II,* (Haz. Erdoğan Merçil), İstanbul 1977, s. 24.

Özbekistan'ın Nevaî şehrinin 30 km batısında Hazara köyü, Selçukluların çıkış yeri olan Nur-ı Buhara ya da Nurata'dan kuş uçumu yaklaşık 50 km'dir. Belli ki Selçukluların buraya göçtüklerinde Hazara da Nur-ı Buhara'ya bağlıydı veya Selçuklular Hazara'dan Nur-ı Buhara'ya kadar olan sınırı korumakla görevliydiler.

Degaron Camisi, dört ayaklı, merkezi kubbelidir. Bu bakımdan bilinen ilk örnektir. Degaron Camisi, Mimari özellikleri açısından Özbekistan'da ve Özbekistan çevresinde kendine mahsus özellikleri ile tek örnektir.



Fotoğraf: Özbekistan Nevaî İli Hazara Köyü Degaron Camisi (Fotoğraf: Necati Demir)

Muhtemelen Degaron Camisi de Selçuklular tarafından yapılmıştır. Zira yapı Selçuklular tarafından inşa edilen Amul Harzem yolundaki *Day Hatun Kervansarayı* ve Türkmenistan Serhas'ta bulunan *Ebû Fazıl Türbesi* ile benzerlik göstermektedir.

5.Nevaî-Anadolu Kültür Köprüsü

1080-1090 yılları arasında Tokat'ın Pazarcık mahallesine Danişmend Gazi bir cami yaptırmıştır. Evkaf defterlerinde Melik Danişmend Gazi Camii olarak geçmektedir. Garipler Camii olarak da bilinmektedir. Bu Anadolu'da temelden itibaren Türkler tarafından yapılan ilk cami olarak kabul edilmektedir.



Danişmend Gazi Camisi'nden Görünüş
(https://www.fikriyat.com/galeri/islam/anadolunun-en-eski-islami-eseri-tokat-garipler-camii/2)

Degaron Camisi ile Danişmend Gazi Camisi, dört ayaklı ve merkezi kubbeli olmak bakımından birbirine çok benzemektedir. Bu şaşırtıcı benzerlik, pek çok bakımdan yolumuzu aydınlatmaktadır. Belli ki Danişmendliler Degaron'da Selçuklular ile birlikte idi. Bu caminin planınını yanlarında getirdiler ve ilk fethettikleri illerden olan Tokat'ta yenisini yaptılar.

6. Selçukluların Anadolu'ya Yolculuğu

Selçuklu Devleti kurulmadan önce Selçuklu ailesi ve ona bağlı Oğuz Türkmenleri, Maveraünehr Bölgesi'nde Karahanlı Devleti ve Gazneli Devleti'nin takibi ve baskısı altında zor şartlar altında yaşamaktaydılar. Bu durumda yaşayamayacağını anlayan Oğuz Türkleri / Selçuklu Türkmenleri, yeni bir vatan arayışına girdiler.

Selçuklu Tuğrul Bey, Alparslan'ın babası Çağrı Bey'e Anadolu'yu keşif görevi verdi. Çağrı Bey, yanındaki üç bin atlı ile 1015 yılında Gazneliler yönetiminde olan Horasan'dan Acem Irak'ı geçerek Azerbaycan yoluyla Doğu Anadolu topraklarına girdi. Çağrı Bey komutasındaki Oğuz Türkleri / Selçuklu Türkmenleri 1020'den önce Doğu Anadolu topraklarına girdiğinde burada bulunan Ermeniler ve Gürcüler sürekli birbirileriyle savaşıyorlardı[8].

[8] Ali Sevim, *Anadolu'nun Fethi, Selçuklular Dönemi*, Ankara 1993, s. 38-39.

1020 yılında Selçuklular, Ermenilerin yaşadığı *Ani* ve *Van-Ahlat* sınırına dayanırlar. O yıllarda Türk akınları karşısında direnemeyen Ermeni kralı *Senekerim Jan*, Bizans kralı II. *Bazil*'e (Badileios) başvurarak Van Gölü çevresindeki *Vaspuragan* şehrini Bizans'a bırakır. Vaspuragan ile Sivas ve çevresi geçici olarak takas yapılır[9].

Senekerim Jan, on dört bin[10] civarındaki vatandaşı ile Sivas, Amasya, Tokat ve Tokat yakınlarında yer alan *Kuman* Türklerinin yaşadığı *Komana* / *Kumana* şehrine gelip yerleşti. Orta Anadolu ve çevresi insanları ile Ermenilerin ilk tanışmaları bu şekilde başlamış oldu[11].

Oğuz Türkleri Ahlat ve çevresini 1020'den önce fethedip kontrol altına almıştır. Elli yıla yakın bir zaman süresinde burada teşkilatlandıkları anlaşılmaktadır.



Fotoğraf: Ahlat'ta Selçuklu Dönemi'nden Kalma Mezar Taşları
(Fotoğraf: Necati Demir)

Çağrı Bey, 1021 yılında yeniden Maveraünehr'e dönerek yaptığı keşifler ve Anadolu'daki güçlerin yetersizliği hakkında bilgi verdi.

Karahanlı ve Gazneli devletlerinin takibi ve baskısı altında zorlukla yaşayan ve Anadolu'nun verimli toprakları konusunda bilgi sahibi olan Oğuz Türkleri / Selçuklu Türkmenleri, artık yönünü batıya dönmüştü. Oğuz Türkleri / Selçuklu Türkmenleri, kitleler hâlinde Azerbaycan yolu ile akınlar yapmaya başladı. Bizans'ın karşı koyması ile zaman zaman Azerbaycan'a ve İran'a geri dönmek zorunda kalmışlardır. Ancak sürekli bir mücadele ile günden güne Anadolu içine doğru ilerlemekteydiler.

Sonuç

Selçuklu Beyliği bu arada 24 Mayıs 1040'da Gazneliler ile Dandanakan Savaşı'nı yapmış ve zaferle elde etmiştir. Bu savaşın sonucunda Gazneli Devleti yıkılmış, Selçuklu Devleti kurulmuştur. Selçuklu Devleti kurulduktan sonra Anadolu'ya yapılan akınlar artık bir fetih harekâtı hâline dönüşmüştü.

Öyle görünmektedir ki; *Saltuklular* (1072-1202), Erzurum merkez olmak üzere Yukarı Fırat'a'; *Mengücüklüler* (1080-1228) Aşağı Fırat'a, Erzincan-Şebinkarahisar şehirleri arasına; *Danişmendliler* (1080-1178) Sivas başkent olmak üzere Orta- Anadolu'ya; *Yınaloğulları* (1098-1183) Diyarbakır ve çevresine; *Çubukopulları* (1085-1113) Harput'a, Van Gölü, Ahlat ve Malazgirt çevresine yerleşip teşkilatlandılar. Yönetimler kurup küçük devletçikler hâline geldiler.

Demleçoğulları (1084-1393) Bitlis ve Erzen'e; *Sökmenliler* (Ahlatşahlar) (1110-1207) Van Gölü havzasına; *Artuklullar* (1102-1409) Hasankeyf, Mardin ve Harput merkez olmak üzere Güneydoğu-Anadolu'ya, büyük bir ihtimalle, 1071'den önce kalıcı olarak yerleşmişlerdi.

Bahsedilen bu beylikler içerisinde Danişmendliler Orta Anadolu'da diğer beyliklere göre çok geniş bir alanı fethettiler. Daha sistemli bir biçimde teşkilatlanıp devlet hâline geldiler.

---

9 Ernst Honigmann, *Bizans Devletinin Doğu Sınırı*, (Tercüme eden: Fikret Işıltan), İstanbul 1970, s. 171.

10 Bazı kaynaklarda kırk bin kişi (Sevim, age.s. 40). .

11 *Urfalı Meteos Vakayi-namesi (952-1136) ve Papaz Grigor'un Zeyli (1136-1162)*, (Türkçeye çeviren: Hrant D. Andreasyan), TTK yay., Ankara 1987, s. 12; Adnan Mahiroğulları, "Vaspuragan-Sivas Takası", Tarih ve Medeniyet, S. 42, Eylül 1997, s. 62-63.

ТУРКИЙ ТИЛЛАРНИНГ УМУМИЙ ГРАММАТИКАСИНИ ЯРАТИШ – ДАВР ТАЛАБИ

Бахтиёр Менглиев (Тошкент АФУ)

Бугунги миллатларнинг, хусусан, қардош халқларнинг жадал ва чуқур интеграцияси катта аҳамиятга эга. Айниқса, туркий давлатларнинг бу борада олиб бораётган ишлари алоҳида эътиборга молик.

Миллий грамматик назария миллат маданиятининг ажралмас қисмидир. Демак, маданиятларимиз, тилларимиз муштарак экан, умумтуркий грамматик таълимотни яратиш ҳам туркий халқлар интеграциясида бажарилиши лозим бўлган долзарб вазифадир. Ҳозирги кунда дунё туркийларининг грамматик қурилиши жуда яқин бўлса-да, улар турли грамматик мактаблар таълимотлари асосида шаклланган. Бу ушбу тилларни ўрганишга катта тўсиқ бўлмоқда.

Глобаллашув шароитида умумий туркий грамматика турли туркий тиллар ўртасидаги интеграцияни ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Умумий туркий грамматиканинг яратилиши бу тиллардаги асосий грамматик тузилмаларни бирлаштириш ва стандартлаштиришга ёрдам беради, бу эса бу тилларда сўзлашувчилар учун уларнинг қариндош тилларни ўрганишлари ва ўзаро тушунишини қулай ва самаралироқ қилади.

Умумий туркий грамматиканинг асосий афзалликларидан бири турли туркий халқлар ўртасида тил тўсиқларисиз ахборот, фикр, маданият ва билим алмашиш имкониятидир. Бу эса маданий ва иқтисодий алоқаларнинг янада яқинлашишига, туркий дунёқарашнинг кенгайишига ва бу халқлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар жараёнини енгиллаштиришга хизмат қилмоқда.

Умумий туркий грамматика яратиш учун мавжуд туркий тилларнинг асосий грамматик тузилмаларини қиёсий таҳлил қилиш зарур. Ана шундай таҳлил натижасида бу тиллар грамматикасида умумий хусусият ва қолиплар топилади. Бу умумий хусусият ва қолиплардан умумий туркий грамматика асосини ташкил этувчи стандарт грамматик қоидаларни яратишда фойдаланилади.

Умумий туркий грамматикани яратишда турли туркий тиллар ўртасидаги фонетик тизим ва луғат таркибидаги фарқларни ҳам ҳисобга олиш керак. Бу ерда муштарак туркий грамматика барча туркий халқлар учун мақбул бўлиши, уларнинг тил ва маданий ўзига хослигини бузмаслиги учун муроса ечимини топиш муҳим аҳамиятга эга.

Умумий туркий грамматика яратиш мураккаб ва узоқ давом этадиган жараён. У тилшунос олимлар, филологлар ва турли туркий тилларда сўзлашувчиларнинг ҳамкорлиги ва иштирокини талаб қилади. Бу жараён натижасида туркий халқлар ўртасидаги алоқа ва алоқаларнинг сезиларли даражада соддалашишини кутиш мумкин, бу уларнинг бир-бирини чуқурроқ тушунишига ва бутун туркий маданиятнинг янада ривожланишига хизмат қилади.

TÜRK DİLLERİNİN GENEL GRAMERİNİN OLUŞTURULMASI ÇAĞIN İHTİYACIDIR

Bakhtiyor Mengliyev (Taşkent UFÜ)

Günümüz milletlerinin, özellikle de kardeş milletlerin hızlı ve derin entegrasyonu büyük önem taşımaktadır. Bu konuda Türk ülkelerinin çalışmaları özellikle dikkat çekicidir.

Ulusal gramer teorisi bir ulusun kültürünün ayrılmaz bir parçasıdır. Dolayısıyla kültürlerimiz ve dillerimiz ortak olduğundan tüm Türkçe gramerinin oluşturulması Türk halklarının entegrasyonunda yerine getirilmesi gereken acil bir görevdir. Günümüzde dünya Türk dillerinin gramer yapıları birbirine çok benzese de farklı gramer ekollerinin öğretileri temel alınarak oluşturulmuştur. Bu durum bu dilleri öğrenmenin önünde büyük bir engeldir.

Küreselleşme koşullarında farklı Türk dilleri arasındaki entegrasyonun gelişmesinde ortak Türkçe dil bilgisi önemli bir rol oynamaktadır. Ortak bir Türk dilbilgisinin oluşturulması, bu dillerin temel dilbilgisi yapılarının birleştirilmesine ve standartlaştırılmasına yardımcı olur, bu da bu dilleri konuşanların birbirlerini öğrenmesini ve anlamasını daha kolay ve verimli hale getirir.

Ortak Türkçe dilbilgisinin temel avantajlarından biri, farklı Türk halkları arasında dil engeli olmaksızın bilgi, fikir, kültür ve bilgi alışverişinin mümkün olmasıdır. Bu, kültürel ve ekonomik ilişkilerin yakınlaştırılmasına, Türk dünya görüşünün genişletilmesine ve bu halklar arasındaki karşılıklı ilişki sürecinin kolaylaştırılmasına hizmet etmektedir.

Ortak bir Türk gramerinin oluşturulabilmesi için mevcut Türk dillerinin temel gramer yapılarının karşılaştırmalı bir analizinin yapılması gerekmektedir. Böyle bir analiz sonucunda bu dillerin gramerlerinde

ortak özellikler ve kalıplar bulunur. Bu ortak özellikler ve kalıplar, ortak Türkçe dil bilgisinin temelini oluşturan standart dil bilgisi kurallarını oluşturmak için kullanılır.

Genel bir Türkçe grameri oluşturulurken farklı Türk dilleri arasındaki fonetik sistem ve söz varlığı farklılıklarını dikkate almak gerekir. Burada ortak Türkçe dilbilgisinin tüm Türk halkları için kabul edilebilir olması ve onların dilsel ve kültürel kimliklerini zedelememesi için uzlaşmacı bir çözüm bulmak önemlidir.

Ortak bir Türkçe dilbilgisi oluşturmak karmaşık ve uzun bir süreçtir. Dilbilimcilerin, filologların ve çeşitli Türk dillerini konuşanların işbirliğini ve katılımını gerektirir. Bu sürecin sonucunda, Türk halkları arasındaki iletişim ve ilişkilerin önemli ölçüde basitleşmesini bekleyebiliriz; bu, onların birbirlerini daha iyi anlamalarına ve tüm Türk kültürünün daha da gelişmesine hizmet edecektir.

ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ ТУРКИЙ ЛИСОНЛАР ЎРТАСИДАГИ ЎРНИ ВА МАВҚЕИ

Султонмурод ОЛИМ, филология фанлари доктори,
Тошкент амалий фанлар университети профессори,
Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими.

Инсонни бошқа жонзотлардан ажратиб, уларнинг баридан устун қилиб, мукаррам айлаб турадиган бирламчи неъмат – тил. Чунки ақл-тафаккур, аввало, тил бўлгани учун шаклланади. Ҳар қандай миллатнинг бирламчи белгиси ҳам – унинг тили. Адабиёт – халқнинг дили. У ҳам айнан тил орқалигина намоён бўлади. Тил адабиёт учун асосий қурол бўлгани каби, адабиёт ҳам тил равнақига беқиёс ҳисса қўшади. Бошқача айтганда, тилни тил қиладиган энг асосий қурол – адабиёт. Рост, тилсиз адабиёт, адабиётсиз эса тил ривожини тасаввур қилиш – мушкул. Ҳар қандай халқ учун бу иккисидан кўра миллийроқ, бундан азизроқ бойлик йўқ.

Бироқ тилнинг ҳам, адабиётнинг ҳам чинакамига камол топиши учун ҳокимият шу тил ва адабиётнинг эгаси ҳисобланган халқнинг ўз қўлида бўлиши, бу соҳалар тараққиётини ҳаммадан бурун ҳукмрон сиёсат кўпроқ исташи керак.

Бу – доҳий шоиримиз Алишер Навоийнинг фикри.

Модомики, ҳар бир халққа, аввало, унинг тили ва адабиёти тараққиёт даражасига қараб баҳо бериш анъанаси мавжуд экан, биз – киммиз?

Биз – қадим ва гўзал тили, шу тилда яратилган жуда бой, дунёдаги манаман деган адабиётлар билан беллашадиган сўз санъати бор халқмиз. Туркий эллар орасида тили ва адабиёти биздагидек бой халқ бошқа йўқ. Буни бутун дунё билади, тан олади.

Биргина Алишер Навоий яратган буюк мероснинг кўламию юксаклик даражасини кўз олдимизга келтирсак ҳам, тилимизнинг қандай улкан ва оламшумул мавқе-мақомга эга экани аёнлашади-қолади.

Баралла айтиш мумкинки, ўзбек тили – Ер юзидаги 40 тача туркий тил орасида энг юқори мавқелардан бирига эга. Бундай дейиш учун етарли даражада асослар бор.

Б и р и н ч и д а н, тилимиз форсий, арабий сўзлар миқдори жиҳатидан дунёдаги барча туркий тиллардан ажралиб туради. Алишер Навоий тилида ҳам, ҳозирги ўзбек адабий тилида ҳам, масалан, араб лисонидан кириб келган сўзларнинг умумий миқдори 25 – 30 фоиз атрофида. Албатта, XV асрда ишлатилган айрим калималар ҳозир фаол эмас, лекин ҳозир кўп қўлланаётган баъзи арабча сўзлар Навоий давридаги тилимизда унча фаол бўлмаган. Биз учун форсий-арабий лексик қатлам ўзимизникидай бўлиб кетган. Бу ҳақда Ўзбекистон Қаҳрамони, халқ шоири, раҳматли устод Эркин Воҳидов бундай деб ёзадилар: *“Ўзбек тили уч дарёдан сув ичган. ...Кўпгина сўзларнинг ўзбекчаси ҳам, арабчаси ҳам, форсчаси ҳам тилимизда баробар ишлатилади. Арабча* ***“Аллоҳ”*** *ёнида форсча* ***“Худо”,*** *туркий* ***“Тенгри”*** *сўзларимиз бор.* ***“Юрак”*** *ҳам,* ***“қалб”*** *ҳам,* ***“дил”*** *ҳам деймиз*[12]*. Арабча* ***“исм”,*** *форсча* ***“ном”,*** *ўзбекча* ***“от”*** *– учови ҳам ўзимизники.* ***Тил, забон, лисон*** *бизда шу сабабдан беқиёс бой ва рангин”*[13]. Фақат бир-бирига яқин маънода ишлатиладиган, келиб чиқиши турли тилларга мансуб бу сўзларнинг ҳар бирига ўзига хос услубий вазифа юклатилади, албатта. Тил шундай нарсаки, у бошқа тилдан сўз ё ифода қабул қилса, халқ уни бемалол ишлатаверади, энди чет ифода ҳам шу тилнинг ўз сўзига айланади, гапираётган ёки ёзаётган киши ўзи ишлатаётган калималарнинг қайси тилдан кириб келгани билан иши ҳам бўлмаслиги мумкин.

[12]Шу синонимлар қаторига кирадиган *“кўнгил”* деган соф туркий (ўзбекча) сўзимиз ҳам бор.
[13]*В о ҳ и д о в Э.* Сўз латофати – Т.: “Ўзбекистон” нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2014. 10-бет.

Айрим туркий тилларда арабий ва форсий қатламга тегишли сўзлар йўқ ёки жуда кам даражада. Баъзи туркий тилларда (масалан, турк тили) туркийлаштириш сиёсати юритилгани оқибатида сунъий равишда арабий-форсий сўзлар сиқиб чиқарилган.

И к к и н ч и д а н, ўзбек тилида туркий дунёдаги уч лаҳжа гуруҳи – қорлуқ-чигил-уйғур, қипчоқ ва ўғуз лаҳжа гуруҳларига тааллуқли кўплаб шевалар мавжуд. Юқорида таъкидланганидек, агар оғзаки нутққагина таяниладиган бўлса, тилимиз амалда ана шу уч гуруҳ таркибига ҳам киради. Лекин ўртада бир адабий тил бўлишига ҳамиша кучли эҳтиёж бўлган ва бўлаверади. Таниқли тилшунос Абдуваҳоб Мадвалиев тўғри қайд этганидек: *"Бу лаҳжа гуруҳлари таркибидаги кўплаб шевалар... фонетик, лексик ва қисман морфологик жиҳатдан ўзаро фарқланса-да, уларнинг барчаси ҳам миллий ўзбек тилининг, адабий ўзбек тилининг шаклланишида у ёки бу даражада иштирок этган"*[14].

Ўзбек адабий тили тарихан, асосан, қорлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси шевалари асосида шаклланган ва ҳозир ҳам ана шу анъанага қатъий амал қилинади. Соддароқ қилиб айтилса, қайсидир шевамизда *"жетти", "жилон"* дейилса ҳам, адабий тилда уларни *"етти", "илон"* деб, *"қилған"* дейилса, *"қилган"* деб ёхуд *"дош"* дейилса, *"тош", "гулдим"* дейилса, *"кулдим"* деб ифодалаймиз.

Бироқ адабий тил ҳамма вақт ана шу уч лаҳжа гуруҳидаги шеваларга суянавериши, ўзига керакли ниманидир улардан олавериши мумкин. Масалан, ўзбек адабий тилидаги қаратқич келишигининг *"-нинг"* қўшимчаси ўзбек тилининг қорлуқ-чигил-уйғур лаҳжаси гуруҳи ва ўғуз лаҳжаси гуруҳи аксар шеваларида тушум келишигининг қўшимчаси(*"-ни"*)га тенглашиб қолган. Аммо қипчоқ шеваларида у оғзаки нутқда ҳам айнан мавжуд. Демак, адабий тил бу борада қатъий тарзда қипчоқ лаҳжаси гуруҳи шеваларига суянади. Худди шундай, *"ўрламоқ"* (тепаликка – тоққа чиқиб кетмоқ) ҳамда *"энмоқ"* (пастга тушиб кетмоқ) сўзлари ҳам адабий тилимизга қипчоқ лаҳжаси гуруҳи шеваларидан олинган. *"Жўнамоқ"*нинг ўзаги *"жўл"* (яъни *"йўл"*). *"Жўланмоқ" – "жўналмоқ" – "жўнамоқ"* тарзида шаклланган. *"Жўналиш келишиги"* деганда ҳам қипчоқча шакл адабий меъёр ҳисобланган. *"Йўналиш"* деган сўзимиз ҳам бор. Асли бир бўлгани билан, ҳозирги пайтда *"жўналиш"* тушунчаси билан *"йўналиш"* тушунчасининг вазифалари алоҳида-алоҳида бўлиб улгурган. Адабий тилимизда шу ўзакдан ясалган *"жўналмоқ", "жўналтирмоқ", "жўнатилмоқ" ("жўнатилиш"), "жўналмоқ" ("жўнатма", "жўнатув")* каби сўзларимиз ҳам бор. *"Жилмоқ", "жилға"* сўзлари ҳам адабий тилга қипчоқ шеваси варианти билан ўтган. Ўзаги – *"жил"* (қорлуқ-чигил-уйғур гуруҳида: *"йил" – "ил"*). *"Илғор", "илон" ("йилон"), "илгари", "илмоқ", "илдам"* сўзларининг ўзаги ҳам – аслида, ўша *"жилмоқ", "жилға"* сўзлари ўзаги билан бир. Фақат улар қорлуқ-чигил-уйғур гуруҳи, булар қипчоқ гуруҳи талаффузига мос равишда олинган, холос. *"Жир"* (Навоийда *"йир"*), *"жиров", "жун" ("юнг")* каби вариантлар ҳам адабий тилга айнан қипчоқча талаффузга мос равишда олинган[15]. Ёхуд *"келажак (авлод)", "бўлажак (режалар)", "ўқилажак (китоблар)", "қилинажак (ишлар)"* каби сўзлар шакли айнан ўғуз гуруҳига оид шеваларимиздан адабий тилга қабул қилинган.

Лаҳжа ва шеваларнинг адабий тилни бойитиши жараёни асло тўхтамайди. Яхши биласизки, ёғда пишириладиган сомса тури бор. Тошкент шаҳрида, айниқса, унинг қорин, жигар, ўпка ва шу каби гўшт маҳсулотларидан тайёрланадиган хилини пиширив сотиш кенг урф бўлган. Рус тилида бу сўз, асли, *"пирожок"* дейилади. Биз уни ўзимизга мослаб *"пирожка"* қилиб олганмиз. Ҳатто, икки жилдли "Русча-ўзбекча луғат"да (1984) ҳам бу сўз айнан шундай таржима қилинган. Лекин халқ тилида бу сўз *"перашка"* тарзида талаффуз қилинар эди. Истиқлол йилларида бу сўзнинг ўзбекча муқобилини излашга тушдик. Излаб-излаб, Хоразмдан топдик. У ерда бу нарса *"гумма"* дейилар экан. Шуни олдик. Фаол ишлата бошладик. Халқ кўникди. Ҳозир ҳамма *"гумма"* дейди.

Шеваларимизда ҳали адабий тилга ўтиб, фаоллашиб кетиши керак бўлган шунчалар кўп сўз ва шакл борки, шунинг ўзинигина ҳисобга олганда ҳам, биз қанчалар бой тилга эга эканимиз ойдинлашади-қолади. Лаҳжа ва шеваларимиз худдики захираси ҳеч қачон тугамайдиган ерости бойлигига ўшайди. Зарур пайтда қазиб олиб, ишлатаверамиз.

У ч и н ч и д а н, туркий адабий мероснинг катта қисми, энг аввало, ўзбек тилида ёхуд унга тарихан асос бўлган тилда яратилган. Ўрхун-Енисей ёдгорликлари тили ҳам, XI асрда яратилган

---

[14] *М а д в а л и е в А.* Ўзбек тили. // "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 10-жилд, Т.: 2005, 432-бет.

[15] Шунинг учун айрим олимларнинг: *"Шўро даврида қипчоқ гуруҳи вакиллари шеваси ўзбек адабий тилидан дискриминация қилинди, яъни сиқиб чиқарилди",* – деган қараши тўғри эмас. Ўзбек халқ мақолларининг ярмидан кўпи айнан милатимизнинг шу қатламидан ёзиб олинган. Достончилигимизнинг жуда катта қисми, ўзбек халқ оғзаки лирикасининг сезиларли қисми ҳам шулар ижодининг маҳсули сифатида меросимизга айланган.

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида келтирилган туркий парчалар тили ҳам, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари тили ҳам, XIV аср ёдгорликлари бўлган Хоразмийнинг “Муҳаббатнома”си, Қутбнинг “Хусрав ва Ширин”и, Сайфи Сароий асарлари, Носириддин Рабғузийнинг “Қисас ул-анбиё” асари тили ҳам, ўзида қипчоқ гуруҳига оид хусусиятларни ҳам акс эттиргани билан, бугунги ўзбек ва уйғур тилларига энг яқин келади. Бошқача айтганда, бугунги ўзбек адабий тили айнан ана шу тарихий асарлар тили базасида шаклланиб, тараққий этган ва бугунги ҳолатга етиб келган.

Т ў р т и н ч и д а н, Алишер Навоий ижоди жаҳонда мавжуд туркий тилдаги умумий мероснинг энг баланд чўққиси ҳисобланади. Жаҳон туркийшунослигида Навоийнинг тили туркий тиллар ичида айнан бугунги ўзбек тилига энг яқин экани исботланган. Навоийдан кейинги уйғур, озарбойжон, турк, туркман, қорақалпоқ ва бошқа туркий адабиётлар ривожини бу улкан мероснинг катта таъсирисиз тасаввур қилиш – мушкул. Биргина озарбойжон шоири Муҳаммад Фузулий ёки туркман шоири Махтумқули Фироғий асарларининг тилини Алишер Навоий асарлари тилига солиштирганда ҳам бу масала ярқ этиб ойдинлашади.

Б е ш и н ч и д а н, Марказий Осиёда бизга қардош туркий халқлар ўз тилларида ёзув ва адабий тил шаклланиб, кенг ёйилгунга қадар ва ундан кейин ҳам бир муддат ўзбек тилидан адабий тил сифатида фойдаланиб келишган. Юртимиздаги мадрасаларда, асосан, арабий, қисман, форсий матнлар ўрганилган бўлса ҳам, дарс жараёни ўзбек тилида олиб борилган. Чунки бу таълим даргоҳларида Марказий Осиёдаги қардош халқлар вакиллари ҳам ўқиган. Ёки Қорақалпоғистон ҳудудида ўтган асрлардан сақланиб қолган айрим қабр тошларига айнан ўзбек тилида матнлар битилган. Ўзбек тили уч хонлик даврида бу ерларда яшовчи барча миллат ва элатлар учун бозор тили ҳам бўлган.

О л т и н ч и д а н, тил равнақи – сиёсат билан чамбарчас боғлиқ. Шу нуқтайи назардан қараганда, темурийлар салтанатидек катта империя тузган халқнинг тили жадал ривож топиши учун барча объектив ва субъектив омиллар мавжуд эди. Темурийлар давлатидан кейинги асрларда то рус чоризми босқинига қадар ҳам Ўрта Осиёни пойтахти ҳозирги Ўзбекистон ҳудудида жойлашган, ҳокимият тепасида айнан ўзбек уруғлари вакиллари бўлган сулолалар ҳукмронлик қилди. Чунки шайбонийлар, аштархонийлар (Бухоро хонлиги), манғитлар (Бухоро амирлиги), қўнғиротлар (Хива хонлиги) ва минглар (Қўқон хонлиги) ҳукм сурган давлатлар айнан ўзбек миллий давлатчилигининг таркибий қисмлари ҳисобланади. Ҳукмрон халқнинг тили ҳамиша ривожланиш учун катта имкониятга эга бўлаверади.

Ўрни келгани учун бир муҳим жиҳатни алоҳида таъкидлаб ўтиш керак. Гарчи XIX аср иккинчи ярмига қадар Ўрта Осиёда учта давлат (Бухоро амирлиги, Хива хонлиги, Қўқон хонлиги) ҳукм сурган бўлса ҳам, шу уч давлатда яшайдиган асосий аҳоли, яъни ўзбекларнинг ягона адабий тили мавжуд эди. Айтайлик, Қўқонда Амирий, Увайсий, Нодира қайси тилда асарлар ёзган бўлса, Хивада Мунис, Огаҳий, Комил, Бухорода Мужрим Обид ҳам айнан шу адабий тилда ижод қилган.

Биз бу даъволаримизни исботлаш учун кўпдан-кўп илмий манбалардан факт, далил ва иқтибослар келтириб ўтирмадик. Билдирилган фикрларимизни бир тезис сифатида қабул қилганда ҳам, ўзбек тилининг туркий оламдаги ўрни ва мавқе-мақомини кўз олдимизда тўла гавдалантира оламиз.

Хуллас, тил равнақи бевосита унинг эгаси бўлган халқнинг умумтараққиёти билан чамбарчас боғлиқ ҳолда юз беради. Ўзбекистонимизнинг халқаро майдондаги ўрни ва мавқе-мақоми ошиб борган сайин ўзбек тилининг жаҳондаги, айниқса, туркий тиллар орасидаги ўрни мустаҳкамланиб, обрўйи янада ортиб бораверади.

Бу – қонуният.

TURKIY TILLARNI QIYOSLAB O‘RGANISH – DAVR TALABI

Abdiyev Murodqosim, professor,
filologiya fanlari doktori, SamDU
Dilmanov Ilya, dotsent,
filologiya fanlari nomzodi, Nukus DPI

Jahon ilm-fanida nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ularni yoshlar ongiga singdirish orqali milliy g‘ururni shakllantirish, milliy o‘zlikni anglash va tadqiq etishda turkiy xalqlar tipologiyasiga doir tadqiqotlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, turkiy xalqlarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va diniy-mafkuraviy sathlarda qardosh xalqlar o‘rtasida qiyosiy-tarixiy va tipologik jihatdan tadqiq etish

ularning uyg‘un va farqli jihatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Zero, xalqning asrlar davomidagi turmush-tarzi, hayotiy tajribalari, axloqiy qarashlari, kundalik muammolarini o‘zida ifodalaydigan leksik birliklar har bir xalq hayot tarzi taqozosidan kelib chiqib yaratilganligi, ma’lum bir xalqning genezisi va tarixiy shakllanish jarayonining tipologik o‘ziga xosliklarini belgilashda alohida o‘rin tutadi.

Hozirda dunyo filologiya ilmida madaniy meroslarni yangicha, sof ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish keng shakllandi. Natijada janrlar tipologiyasi va ularning nazariy-amaliy ahamiyatiga doir fundamental asarlar yuzaga keldi. Ularda olib borilgan tadqiqotlarda xalq ma’naviy boyligining uning o‘ziga xos janriy xususiyatlari, tasnifi, badiiyatiga alohida e’tibor qaratilgan. Biroq turkiy xalqlar ijtimoiy hayotidagi o‘rni, genezisi, motivlari va tasnifini qiyosiy o‘rganish masalalari, tipologik jihatdan bugungi kun tipologiya fanining mezonlari asosida tadqiq etish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bu jarayon uzoq yillar bir hududda yashagan turkiy xalqlar epik an’ana va tarixiylik tamoyillari bog‘liq holda ularning tillarini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganish masalalarni tadqiq qilish asosida jahon filologiya fani uchun muayyan ilmiy xulosalarni beradigan vazifalarni bajarishni taqozo etadi. Ayniqsa “Turkiy davlatlar tashkiloti”ning tuzilishi bu boradagi dastlabki qadamlardan biri bo‘ldi. Tashkilotning Istambul, Samarqand, Cho‘ponota singari shaharlarida o‘tkazilgan majlislarida ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hamkorliklarini kengaytirish hamda yagona yozuvga, ya’ni lotin alifbosiga o‘tish va yozuv va imlolarni bir-biriga yaqinlashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yilganligi fikrimizga dalili bo‘la oladi. Shu yilning 20 –23- sentabr kunlari Qirg‘izistonning Bishkek shahrida o‘tkazilgan “Turkiy tilli xalqlarning xalqaro til forumi” da ham shu masala muhokama qilindi. Forum qatnashchilari tomonidan qabul qilingan rezolutsiyada mazkur masalani hal etish alohida qayd etildi.

Eng muhimi shundaki, nafaqat noqardosh, balki qardosh tillar materiallarini qiyosiy tahlil qilish tillar o‘rtasidagi mushtaraklik hamda o‘zgachaliklarni aniqlash imkonini tug‘diradi: bu esa muhim amaliy metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki tillar o‘rtasidagi o‘zgachaliklarni bilish lisoniy interferensiyani yengib o‘tish, ya’ni tillarni oson o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Bunday ishlarni tarjimachilik qonuniyatlarini linvistik asoslashga xizmat qila olishini ham unutmaslik kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, B.Karimov va Sh.Mutalovlarning
“... hozirgi davrda shakllanib bo‘lgan turkiy millatlar faqat erkin umumiy faoliyat natijasida yotsiramay, borgan sari yaqinlashishi mumkin, chunki bizlarning turkiy tilimizni, madaniyatimizni, ma’naviyatimizni, dunyomizni rivojlanitirish kabi ko‘plab fundamental umumiy maqsadlarimiz va porloq istiqbollarimiz bor” [1., 15], - degan fikrlari masalaning mohiyatini to‘laroq ochib berishga xizmat qiladi.

Keyingi qator turkiy adabiy tillar tez qadamlar bilan rivojlana boshladi. Shu sababli tillarda, xususan, ularning leksikasida fan va texnika, iqtisodiyot, ijtimoiy siyosiy va hokazo sohalarda ko‘plab yangiliklar paydo bo‘ldi. Bularning barchasi maxsus terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. “Shuning uchun turkiy adabiy tillarning hozirgi terminologiyasi muammolarini ishlab chiqish hamda terminlarga ilmiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baho berish nafaqat nazariy bilim jihatidan, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi, terminologik ishlarni yanada takomillashtirishga imkon tug‘diradi” [2., 6]

Turkiyshunos olim K.Musayevning e’tirof etishicha, “… hozirgi bosqichda turkiyshunoslikning rivojlanishida, umuman turkiy tillar leksikologiyasini ishlash borasida qoloqlik yuz bermoqda; ayniqsa, fonetik, morfologik va sintaktik muammolarni ishlab chiqishga qaraganda qiyosiy ham tarixiy leksikologiyani tadqiq qilish ancha orqada qolmoqda “ [2.,3].

Ma’lumki, turkiy tillar leksikasini boyitish asosan ichki resurslardan foydalangan holda so‘z usulidan va boshqa tillardan leksemalar o‘zlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. So‘z yasash mohiyati va uning hilma-xil usullari (sintetik, analitik, leksik), o‘zlashtirmalarning ahamiyatiga yetarli baho bera olish va ulardan chiqadigan umumlashmalar bo‘yicha nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Shu jihatdan qaraganda, ayrim tillar leksikasini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq nafaqat qardosh bo‘lmagan tillar, balki qardosh tillar leksikasini ham tarixiy va qiyosiy-chog‘ishtirma metodda tadqiq qilish o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, turkiyshunoslikda u yoki bu leksik qatlamni qiyosan o‘rganish muommolari ancha ilgari boshlanganini va u muayyan darajada davom ettirilayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada I.Ismailovning 1966-yilda nashr ettirgan monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi. [3.,40]. Muhimi shundaki, mazkur ishda o‘zbek va uyg‘ur tillardagi “qon-qorindoshlik terminlari” (ota, ona, aka, tog‘a, xola, buvi, amma, nabira), “nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari” (er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ota, qayin ona, quda), nihoyat, “tutingan so‘zi bilan ifodalangan yaqinlik nomlari” (tutingan ota, tutingan ona, tutingan o‘g‘il, tutingan opa, tutingan aka-uka) ning bir-biridan farqi, o‘xshash jihatlari, bunday terminlarning paydo bo‘lishi va amalda qo‘llanish me’yorlari atroflicha tahlil etilgan. Muallifning o‘zi qayd etganidek, “o‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining bir-biridan farqi, shuningdek, ularning tarixiy taraqqiyoti, shevalardagi ko‘rinishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu

tillardagi umumturkiy birlik va har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari, bir-biridan farqlari tahlil etiladi” [3., 45].

Muhim dalil sifatida shuni alohida ta’kidlab o‘tamizki, keyingi yillarda turkiy tillarning ayrim leksik qatlamlarini qiyosiy yo‘sinda o‘rganishga bag‘ishlangan yana bir nechta monografiyalar yuzaga keldi. Shulardan biri “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasining taraqqiyoti”[4., 58-60] deb nomlanadi. D.X.Bazarova va K.Sharipovalar tomonidan yozilgan monografiyada Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillar va ularning ayrim shevalarida qo‘llanilgan zoologik terminlar, jumladan, otlar, tuyoqli yovvoyi hayvonlar, ushoq mollar, qoramollar, cho‘chqalar va ular bilan aloqador o‘nlab leksemalar tadqiqot obekti qilib olingan. Muhimi shundaki, bunday terminlarning o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, uyg‘ur tillarida qo‘llanish doirasi, leksik-semantik xususiyatlari yetarli dalillar asosida isbotlab berilgan. Biroq, yana ta’kidlaymiz, ishning nomi dabdabali, ya’ni keng qamrovli ekanligidan ko‘z yuma olmaymiz. Chunki ishda faqat qayd etilgan obyektlarning terminlari tahlil qilingani holda, uni “O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi turkiy tillar leksikasining taraqqiyoti” deb nomlashni to‘g‘ri, deb ayta olmaymiz. Shuningdek, mazkur ishda “termin”, “so‘z” (slovo), “nom” (nazvanie) kabi leksemalar aralash holda ishlatilaverganini ham ko‘rsatib o‘tishni lozim, deb hisoblaymiz. Shunga qaramay, mazkur ish ham turkiy tillar leksikasini o‘rganish muammolariga bag‘ishlangan muhim monografiya sifatida o‘ziga xos o‘ringa ega .

1990- yili I.Ismoilov, K.Meliyev, M.Saparovlar tomonidan “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillar leksikasidan tadqiqot [5.] nomli monografiya maydonga keldi. Ushbu tadqiqot ham turkiy tillar leksikasini qiyosiy rejada tahlil qilishga bag‘ishlangan muhim ishlar. Unda “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hududlaridagi turkiy tillar so‘z boyligining maxsus atamalari: uy-ro‘zg‘or buyumlari, mevali daraxt va poliz ekinlari nomlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda regiondagi turkiy tillarning so‘z boyligi, sohalar leksikasi, ularning shakllanishi, taraqqiyoti va o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq hamda turkman tillarining o‘zaro munosabati, ularning bir-biriga ijobiy ta’siri” kabi jihatlar yetarli dalillar orqali atroflicha yoritilgan.

O‘zbek terminologiyasida asrimizning 50-yillaridan keyin qator ilmiy ishlar amalga oshirilganligi, yani nomzodilik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlanganligi, monografiyalar va risolalar chop etilganligi, yuzlab maqolalar e’lon qilinganligi ma’lum [6.,15]. Ammo turkiy tillar qiyosiga bag‘ishlangan ishlar barmoq bilan sanarli darajada amalga oshirildi.

Xullas, yashash huddudi bir-biriga yaqin bo‘lgan turkiy tillar: o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur tillarining nafqat adabiyotini, balki tillariga xos u yoki bu terminologik tizimlariga doir tadqiqot ishlarini olib borish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Каримов Б. Муталов Ш. Ўрта турк тили. – Тошкент: Меҳнат, 1992.
2.Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков. – М.: Наука, 1992.
3.Исмоилов И.Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. –Тошкент, 1966.
4.Қаранг: ЎТА. –Тошкент,1992. –№2. –Б. 58-60.
5.Мирзаев М. Советско – интернациональные слова в узбекско периодической печати (1945-1950): Автореф. дис ……. канд. филол. наук. – Ташкент, 1951; Жамолхонов.Х.А. Ўзбек ботаника терминологиясининг таркиб топиши ва ривожланиши тарихидан: филол. фан. канд.дист..... – Тошкент. –1969; Хотамов Н.Т. Совет даврида Ўзбек адабиётшунослиги терминологиясининг тараққиёти: филол. фан. канд.дист..... – Тошкент.–1971; Досмухамедов Д.Ж. Общая характеристика терминов политэкономии и основные способы их образования в современном. – Ташкент,1974; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Автореф. дис..... док. филол.наук . – Ташкент, 1988.
6. Дадабоев Ҳ.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIУ вв.: Авто реф. дис.... докт.филол.наук. – Ташкент,1992.

ҲУДУДИЙ ТИЛДА СИНТАГМАТИК МУНОСАБАТ
(Наманган вилояти Мингбулоқ тумани Гуртепа шеваси мисолида)

Иброҳим Дарвишов, НамДУ доценти, PhD

Лисоний бирликлар нутқ жараёнида турли вариантларда намоён бўлиши мумкин. Бунга бирликларнинг синтагматик муносабатда қўшни бирликлар таъсирига берилиши сабабдир. Ўзбек тили материаллари таҳлилларидан маълумки, ундошлар унлиларнинг артикуляцион-акустик жиҳатларига таъсир ўтказиб, сифат ва миқдор белгисини ўзгартириши мумкин [3.15-30].

Наманган вилояти Мингбулоқ тумани Гуртепа шевасида унлилар ундошларнинг хусусиятларини белгилаб бериши мумкинлиги кузатилади.

Шева тор унлиларининг ўзига хос хусусиятларини қуйидагича таҳлилга тортиш мумкин:

И – тил олди, лабланмаган, тор унли. Шевада сўзнинг исталган жойида келади. Сўз бошида таянч шаҳар шевасидаги [*и*] га нисбатан турғун ва аниқроқ талаффуз этилади [2.76;4.149;5.64].

Қуйидаги позицияларда умумтуркий [и] дек тўлиқ талаффуз қилинади:

1. Сўз бошида очиқ бўғин ташкил қилганда: [*ичәк*] ичак, [*итәр*] итар, [*иръң*] йиринг, [*иръкән*] жирканмоқ, [*инъ*] ука, [*илък*] суяк ичидаги суюқлик: илик, [*ийън//ийнъ*] елка, [*ичъ*] қорин бўшлиғи каби.

2. Й ундошидан олдин келиб очиқ ёки ёпиқ бўғин ташкил қилганда: [*ийъл*] эгилмоқ, [*ийлә*] аралаштир, [*ийәк*] ияк, энгак (подбородок), [*ийдъш*] идиш, [*ийъндъ*] сигирни ийдириб соғилган сут, [*тийън*] омоним: майда танга, тўхта, тегинмоқ, [*бийлә//бэвлэ*] қўлга олмоқ, [*сийлэ*] яхшилик қилмоқ.

3. Тил олди, тил ўрта *й* ва бурун ундоши *н* билан бўғин ҳосил қилиб, урғу олганда: [*йэвчи//сэвчи*] совчи, [*тэвасинъ*] тепасини, [*әкәсъни*] акасини, [*дўссинъ*] дўстини, [*сэссиды*] сасиди, ачиди каби.

И ундоши қуйидаги ҳолатларда талаффуз қилинмайди:

1. Бир сўз таркибида урғусиз бўлганда, сандхи ҳолатларда “й”ловчи, “ж”ловчиловчи шевасида ҳам редукцияга учрайди ёки бутунлай тушиб қолади. “Й”ловчиларда: [*бўлэдгэн*] бўладиган, [*бўлэркән//бўлйэпткән*] бўлади экан, бўляпди экан, [*әйтвәр*] айтиб юбор каби; “Ж”ловчиларда: *жүтптъ* ютибди, [*жүрвәр*] юриб юбор, юриб қўй, [*бўлдкән//пўлдкан*] бўлди экан, [*кўрьпткән//гўрьпткән*] кўрибди экан, [*сөрэйэпткән*] сўраяпти экан, [*келйапткан*] келяпти экан каби.

2. Феъллардаги *-ди* шакли таъкид юкламаси *-да* билан қўлланганда: [*бэрэттә*] боради-да, [*чьқэттә*] чиқади-да, [*кэәттә*] келади-да, [*эзәттә*] эзади-да, [*тэқэттә*] тақади-да, [*чэқырэттә*] чақиради-да каби.

3. Шевадаги феълларга кўплик иккинчи шахс-сон қўшимчаси *-сиз* қўшилганда: [*бэрэс*] борсиз, [*кўрәс*] кўрасиз, [*әләс*] оласиз, [*шәйдәмъс*] шу ердамисиз каби.

Ареал қипчоқ шевасига мансублиги учун айрим [*эккъ*] икки, [*эккәләң//экөвъң*] иккаланг, икковинг, [*эҳтъйәръң*] ихтиёринг каби сўзларда *и* унлиси сўз бошида *э* унлисига алмашади, фонематик белгиларга эга эмас.

[ъ] – тил олдига нисбатан орқароққа силжиб, қисқа талаффуз этила-диган, талаффузда бир оз заифлашадиган, лекин турғун ва аниқ и фонемасининг варианти.

1. Сўз бошидаги ёпиқ бўғин таркибида: [*кэлъллəръ*] келинлари, [*ънтьқ*] интиқ, [*ъкър-чъкьр*] икир-чикир, [*ътқы*] отмоқ, ирғит, [*ъзь*] изи, [*ъттъ*] итни, [*ъндэқэ//ънэқэ*] ана шунақа, [*ълпьс*] секин қимирлайдиган, ишида унум йўқ одам, [*ъннәй*] ундан кейин, сўнг каби.

2. Сўз бошида ўзи бўғин ҳосил қилганда ва сўзнинг исталган жойида очиқ бўғин ҳолатида: [*ъмьллэқ//ъмылдърық*] [*ълпьс*] нинг синоними: секин қимирлайдиган, ишида унум йўқ одам, [*ъръган*] иримоқ, [*ъмътхэн*] имтихон, [*ънәвәт// ънәпәт*] Инобат (қизлар исми), [*ънъйәт*] Иноят (қизлар исми) каби.

[ь] – и фонемасининг инлаут ҳолатда ўта кучсизланадиган, бироқ ўрни-ни йўқотмайдиган варианти: [*чьҳтъ//чьқэрдъ//чьҳвәрдъ*] чиқмоқ: чиқди, чиқарди, чиқиб юборди, [*бьр*] бир, [*бьрәртәсь*] биронтаси, [*мьнән//мьнәм*] билан, [*сьз-бьзләдъ*] ялинди, алдашга уринди, авради, [*кьр*] кирмоқ, [*чьқ*] чиқмоқ, [*мьҳлэдъ*] боплади, адабини берди каби. Гуртепа шевасидаги *и* фонемасининг бундай ҳолати Хоразм шевасидаги [*ьгь, ьбь, ьйэ*] каби сўзлардаги [*ь*] вариантига мос келади [1.32].

ы – шевадаги [*и*] фонемасининг тил орқа, лабланмаган, тор унли варианти. Диалектал ареал қипчоқ лаҳжасидаги шохобчаларнинг ҳар икки: “й”ловчи ва “ж”ловчиловчи гуруҳ шевасида, асосан, тил орқа *нг*[*ң*], *қ, ғ, х* ундошлари билан, айрим ҳолатларда эса тил олди, сирғалувчи *ш* ва сирғалувчи-портловчи *ч* ундошлари билан бир бўғин таркибида синтакматик муносабат ҳосил қилиб, ёнма-ён – контакт ҳолатда қўлланади: [*шығыл*] шиғил мева, [*чығырық*] чиғириқ каби.

Шевада сингармонизм қонунияти амалдалиги учун *ы* варианти алоҳида аҳамиятга эга. У сўзнинг исталган бўғинида, сўз ясовчи ва сўз ўзгартирувчи қўшимчалар таркибида ҳам қўлланади.

1. Сўз бошида: [*ыңқиллэди*] ингради, [*ытқы//ыхты//ытқывәр*] ирғит, от, ирғитиб юбор, [*ыхлэс*] қаттиқ ишонмоқ, [*ылҳэқ*] ҳавотир олмоқ, [*ышқър*] ортиқча бақириш, [*ычқырънды: ичымдән ычқырънды ўтъп кэттъ*] ичқиринди: ичидан ичқиринди ўтмоқ – кўрқмоқ, таҳликага тушмоқ каби.

2. Сўз ўртасида: [*йэқын*] яқин, [*бықыръп*] ўта семирмоқ, [*қырчылэңэн*] роса тоза, тозаланган, [*тўқым*] тўқим, [*қышън-йэзын*] қишин-ёзин каби.

3. Сўз охнрида: [*мөйңы//бўйңы*] бўйин, [*кечэғы*] кеча кунги, [*бўлды*] тамом, [*ўрэғы*] ўроғи, [*дўққы*] қўпол одам, [*тутүрүғы*] тутуруғи йўқ каби.

У – умумтуркий юқори кўтарилишдаги тор унли. Гуртепа шевасида [*у*] [*ү*] фонемалари мавжуд бўлиб, адабий тил унлилари тизимидан фарқ қилади. Шева талаффузида [*у*] [*ү*] фонемасига нисбатан очиқроқ бўлиб, барча ўзбек лаҳжаларининг ўғуз ва қипчоқ шевалардаги [*у*] га мос келади [1.35-36]: [*улэқ*] улоқ, [*йумъш*] иш, [*муш*] мушт, [*унэқэ-мунэқэ*] ундай-бундай, [*қучэқ*] қучоқ, [*улы*] ўғли, [*йумэлэқ // думэлэқ*] думалоқ, [*қулуп*] қулф, [*сулэқ*] очофат, [*қумэқ*] омоним: майда, қумли ер каби.

Гуртепа шевасида [*у*] фонемасининг қўлланиш доирасн адабий тил ва марказий шаҳар шевасига нисбатан кенгроқ бўлиб, сўзнинг иккинчи, учичи бўғинларида ҳам кела олади [5.19]: [*туруқ*] турх, афт, [*бурун//мурун*] омоним: илгари, аввал, бурун (рус т. нос), [*қурут*] омоним: қуритилган қатиқ, ҳашарот: қурт-қумурсқа каби.

Ү – олдинги қатор, юқори кўтарилишдаги тор унли. Бу унлининг таянч шаҳар шевасида тарқалиши чегараланган. Гуртепа шевасида эса *ү* унлисининг қўлланиш доираси сингармонизм қонуни ҳамда *[в]* ундошинипг таъсири билан учинчи ва сўнгги бўғинларга, ҳатто аффикслар таркибига ҳам ўтиши мумкин: [*үч*] омоним: найзанинг учи, учмоқ [*устүн*], [*чэқүрүв*] чақирди – маросим номи, [*үвүттъ*] ивитди, [*күйдүргъ*] яра номи, [*үйүш// тэртъш*] томирнинг тортилиши, уюшиши – мускулларнинг контрактураси.

Гуртепа шевасида [*у*] ва [*ү*] унлилари фонема сифатида мавжудлигига кўра, адабий тилдан фарқ қилади. Маъно фарқлайди. Шу хусусиятларига кўра адабий тил ва бошқа шевалардан фарқ килади. [*У*] ва [*ү*] бир хил қуршовда ўзаро ўрин алмашиб, сўз маъносига таъсир этади:

адабий тилида	**орқа қатор**	**олд қатор**
Уч	*уч* (сон, рақам)	*үч* (учмоқ, нарсанинг учи)
Уй	*уй* (яшаш жой)	*үй* (уймоқ)
бур	*бур* (бурмоқ)	*бүр* (айлантирмоқ)
Ун	*ун* (русча *мука*)	*үн* (унмоқ, ўсмоқ, овоз)
тут	*тут* (дарахт)	*түт* (ушламоқ)
туз	*туз* (русча соль)	*түз* (тузмоқ)
куймоқ	*куйди* (чўғ ёки оловда)	*күйдъ* (ҳафа бўлди)
куйдирги	*куйдыргъ* (енгил сўкиш)	*күйдүрги* (яра номи)

Гуртепа шеваси фонетик-фонологик сатҳида ҳам адабий тилнинг ёки ҳудудий ёндош – бир ареалдаги шеваларнинг бир-бирига кўрсатадиган таъсири натижасида турли фонетик жараёнлар кузатилади. Бу таъсир шеваларнинг, қолаверса, адабий тилнинг фонетик тараққий этишида муҳим омил ҳисобланади. Ўз-ўзидан аёнки, ареал нуқтаи назардан бир биридан узоқда бўлган турли диалект ҳудудлари орасида бундай алоқаларнинг бевосита юзага чиқиши мумкин эмас. Чунки ўзбек шеваларининг ҳар бири ёки ҳар бир гуруҳи узоқ даврлардан бери ўзларига хос ва шунга мувофиқ тарқалиш ареалларига эга. Шевага хос хусусиятларининг бир қисми ана шу чегара, уларнинг тарқалиш, жойлашиш ўрни – ареали билан боғлиқ бўлиб, улар шу ареалдагина пайдо бўлган ва ривожланган.

Адабиётлар:

1. Абдуллаев Ф.А. Фонетика хорезмских говоров. – Ташкент, 1967. – С. 35-36.

2. Боровков А.К. О некоторых очередных вопросах Узбекского литературного языка. ЗИВ. АН СССР, VI. – С. 76;

3. Отамирзаева С. Экспериментально-фонетической исследование Наманганского говора узбекского языка. – Ташкент: Фан, 1974. – Б. 15-30.

4. Решетов В.В. Узбекский язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1959. – С. 149;

5. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 64.

NUROTA TOPONIMIYASINING LUG‘AVIY ASOSLARI

Oripov O‘ralboy, NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.
Safarova Musallam, NavDP Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Toponimiyada lug‘aviy asos tushunchasi toponimlarning turli qirralarini, jumladan, makro va mikrotoponimlar hamda ularga tegishli bo‘lgan oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, etnonimlar, zoonimlar, fitonimlar va boshqalar ham chuqur o‘rganiladi va har tomonlama tahlil qilinadi.
Kalit so‘zlar: Toponimlar, lug‘aviy asos tushunchasi, makro va mikrotoponimlar: oykonimlar, gidronimlar, oronimlar, etnonimlar, zoonimlar, fitonimlar.

Olib borilgan kuzatish va tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, atoqli otlar o‘zining alohida mustaqil lisoniy materialiga ega bo‘lmaganligi tufayli, tildagi mavjud lug‘aviy boylik zaminida yasaladi.

Nurota toponimiyasi bo‘yicha biz olib borgan kuzatishlar ushbu toponimlar zaminida ham o‘zbek tilining va boshqa bir qator tillarning lug‘aviy materiallari yotishini ko‘rsatdi. Bu toponimlarni, avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

I. Turdosh so‘z toponegizlar.

II. Atoqli ot toponegizlar.

Toponegizlarni tahlil qilishdan oldin Nurota toponimiyasining xarakteri, to‘plangan materialning hajmi, funksional belgilarini aniqlash, namoyish qilish maqsadida toponimlarni ular qanday obyektning atoqli oti bo‘lib kelayotganiga ko‘ra qisqacha tasniflash va ta’riflashni lozim topamiz.

Toponimlarni ular qanday obyektning atoqli oti bo‘lib kelayotganiga ko‘ra tasnif qilish onomastik materialni tasniflashning usullaridan biridir[=] va ushbu usul o‘rganilayotgan hududda toponimlarning qanday tiplari uchrashi, ularning nominativ funksiyasi va miqdoriy xususiyatlarini belgilashga imkon beradi.

Biz Nurota va uning atroflari hududidan 300 dan ortiq makro va mikrotoponimlarning materiallarini to‘pladik. Ushbu material yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz nom qanday obyektning atoqli oti ekaniga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linishini ko‘rsatdi:

1. Shahar, qishloq, ovul va shaharcha (posyolka)lar nomi.

Nomshunoslikda ushbu tipga kiruvchi nomlar: astionimlar -har qanday aholi yashaydigan joy nomi, komonimlar – qishloq va ovul tipidagi joylar nomi va ular umumiy tarzda oykonimlar deb yuritilmoqda. Oykonimlar aholi istiqomat qiluvchi har qanday joy, obyektning atoqli otidir[16]. Oykonimlarga o‘zbek tilida shahar, qishloq, ovul, shaharcha (posyolka), mahalla va guzarlar nomi kiradi. Ushbu obyektlarning nomlari o‘zbek toponimikasida ancha qoniqarli o‘rganilgan, hatto maxsus tadqiqotlar ham yozilgan[17]. Ammo shunga qaramasdan, O‘zbekiston oykonimiyasi materiallari Respublikaning barcha hududlari bo‘yicha sinchiklab to‘plangan va o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Ushbu fikr Nurota etnonimiyasi uchun ham tegishlidir.

Nurota shahrining nomlanishi haqida biz yuqorida batafsil to‘xtalgan edik. Qishloq nomlarining aksariyati juda qadimiy nomlardir: Saroy, Bog‘ojat, Sirtisuluv, Sarigul, Tikonli, Qadoq, Qunish, Anna, Jadir, Ilonli, Sariqqishloq, Qizilcha va b.

Nurotaning qadimiy qishloqlari, ularning nomlanish sabablariga oid turli afsonalar keng tarqalgan.

Nurota hududidagi qishloq va ovullar nomining aksariyati etnonimlar yoki antroponimlardan yasalgandir. Joyning fizikaviy-jo‘g‘rofiy xususiyatlarini ifoda etuvchi nomlarning aksariyatini gidronimlar yoki oronimlar tashkil qiladi.

2. Mahallalar nomi.

Mahallalar nomi oykonimlarning tarkibiy qismi bo‘lib, aholi yashaydigan joyning ma’lum qismlarga bo‘lingan bo‘linmalarining atoqli otidir. Odatda bunday bo‘linmalar shaharda, qishloqlarda mavjud bo‘ladi. Mahallalar nomi haqida ba’zi ishlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, toponimlarning ushbu tipi hali qoniqarli o‘rganilgan emas.

Nurota shahridagi mahallalar nomining bir qismi Jarma, Burqut, Turkmanlar, Turko, Yetimcha, Eshonto‘pi kabi etnonimlardan yasalgandir.

3. Korizlar nomi

[16] Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. - M.: Nauka, 1988. 80-bet..
[17] Nayimov S.O. Oykonimы Buxarskoy oblasti.// - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1984. 31-bet.

Korizlar yerosti suv inshooti bo‘lib, suvni tashqariga oqib chiqadigan suv qurilmasidir. Korizlar suv obyekti bo‘lgani uchun ularning atoqli oti gidronimlar tarkibiga kiradi. Koriz so‘ziga shunday izoh mavjud: “Bir necha quduqlarni birlashtiruvchi yerosti kanali, bir-biri bilan birlashtirilgan quduqlar sistemasi”[18].

O‘zbekiston hududida qadimdan korizlarga juda boy bo‘lgan yer - Nurota bo‘lgan. “O‘zbek sovet ensiklopediyasi”da Koriz maqolasiga dalil sifatida Nurota korizlari keltirilgani bejiz emas: “Korizlari ko‘p rayonlardan biri Nurotadir. Uning qadimgi korizlaridan ko‘pi ko‘milib ketgan. Mastak, Ko‘nchi, Bekli, Toyloq singari urug‘ nomlariga asoslangan korizlardan yil davomida suv oqib turadi. Nurotada korizlar milodning boshidan XVII-XIX asrlargacha qazilgan. Korizlarning nomidan ularning qazilish tarixi, yili chiqadi. Masalan, Zulm korizining nomidagi harflar yig‘indisidan abjad hisobida hijriy 970-milodiy 1533-1534 yillar va Zulfiqor korizidan hijriy 1118–milodiy 1706 yoki 1707 yil raqamlari chiqadi[19]. Ushbu manbada aytilishicha, Maston korizining 280 ta qudug‘i bo‘lib, bosh qudug‘ining chuqurligi 14 m va lahimining uzunligi 3 km bo‘lgan.

Nur shahrining qadimiy tarixiga ega ekanligining yana bir dalili bu viloyatda 360 ta koriz bo‘lib, ularning bir qismi Iskandar Zulqarnayn nomi bilan bog‘langan. Ular quyidagilar: Tobboy, Qaynar, Boshkoriz, Mozor, Quvondiq, Al-Buxoriy, Sotilgan, Miri, Yaloq, Toyloq, Sulton, Maston, Mastak, Komboy, Zulfiqor, Kalta koriz va boshqalardir.

4. Quduqlar nomi.

Quduqlar nomi suv obyekti inshootlariga tegishli bo‘lgani uchun gidronimlar, mayda gidronimlarning atoqli oti bo‘lgani uchun mikrotoponimiyaning mikrogidronimlar guruhiga mansubdir. Nurota quduqlarining ko‘pchiligi korizlar qazilishi bilan bog‘liqdir.

Nurotaning o‘tmishini yaxshi biladigan ba’zi keksalarning aytishicha, Nurotadan Qo‘chotgacha 9 ta koriz bo‘lib, bu korizlarning uch yuzdan ortiq qudug‘i bo‘lgan.

Biz to‘plagan toponimik materiallarimiz orasida urug‘ nomlariga asoslangan quduqlar nomlariga ham duch keldik. Ajinagiyon qudug‘i, Qansari quduq, Adilboy quduq va b.

Yuqorida keltirilgan quduqlar nomi, darhaqiqat, Nurota hududida quduqlar juda ko‘p bo‘lganini to‘la tasdiqlaydi.

5. Tog‘, cho‘qqi va qoyalar nomi.

Ma’lumki, tog‘lar, cho‘qqilar, qoyalar nomi – yer yuzasidagi relef bilan bog‘liq tabiiy obyektlar atoqli oti sifatida *oronimlar*[20] sistemasiga mansubdir.

Nurota tog‘lar o‘lkasidir. Shu sababli Nurota toponimiyasida tog‘ va cho‘qqilarning, qoyalarning nomlari anchaginadir. Biz Nurota tog‘larida chorvachilik bilan shug‘ullarngan qabilarning nomi bilan ataluvchi aytim tog‘ nomlarini aniqladik. Bular quyidagilar: Tutak, Toz, Uyron va b.

Ba’zi tog‘larning nomi ularning uzoqdan ko‘rinishi yoki ba’zi belgilariga qarab nomlangan. Masalan, Baxiltog‘ - suvi, o‘simlik va hayvonot dunyosi kam bo‘lgani uchun; Oqtog‘ – baland tog‘ bo‘lib, uzoqdan oqarib ko‘ringani uchun; aksincha, Qoratog‘ past qirliklardan iborat bo‘lib, qorayib ko‘ringani tufayli ana shunday nomlangan.

Biz yuqorida Nurota toponimiyasida uchraydigan nomlarning miqdoran yirik guruhlariga to‘xtaldik. Qayd qilinganlardan tashqari, ba’zi miqdoran kamroq uchraydigan mikrotoponimlar ham mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardir:

– daralar nomi: Alqorli darasi.

– yaylovlar, otarlar, o‘tloqlar nomi (drimonimlar): Temirqovoq (otar),

Yuqorida Nurota mikrotoponimiyasining asosiy tiplarini tahlil qildik. Ushbu toponimlarning har biri bitta yoki birdan ortiq toponegizlardan yasalgan atoqli otlardir. Ammo ushbu toponegizlarning ba’zilari toponimiya tarkibida faqat bir marta uchrasa, ba’zilari bir necha marta ishtirok etadi, ayrimlari esa ko‘plab nomlar tarkibida uchraydi. Demak, ushbu qonuniyatga ko‘ra, toponimlarni hosil qiluvchi negizlar toponimlar miqdoridan kam bo‘ladi.

O‘zbek tilida so‘zlar ko‘p, ammo bu so‘zlarning barchasidan ham toponimlar yasalmaydi.

Bundan xulosa shuki, o‘zbek tilidagi toponimlarni hosil qilishda toponimiya sistemasi talab va ehtiyojlarini qondira oluvchi ma’lum miqdor so‘zlar qatnashadi. Mana shu so‘zlar majmui nomshunoslikda toponimik leksika, toponegiz, topoleksema deb yuritilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Doniyorov X.A. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.

[18] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II tom. - M.: Russkiy yazık, 1981. – 39-bet.

[19] O‘zbek sovet ensiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent, 1975. 45-bet.

[20] Podolskaya N.V. Slovar russkoy onomasticheskoy terminologii. - M.: Nauka, 1988. 99-100-bet.

2. Do‘simov Z. Toponimlarning yasalishi masalasiga doir. Toshkent. O‘zbek tili va adabiyoti. – 1980. - № 2.
3. Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Mamatov N. O‘zbek tilida Qo‘shma so‘zlar. – Toshkent. Fan, 1982.
5. Qilichev E. O‘zbek tilining praktik stilistikasi. Toshkent. O‘qituvchi.-1985
6. Qorayev S. Toponimika. -Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2006.

“BOBURNOMA”DAGI UNVON VA MANSAB NOMLARINING MA’NO XUSUSIYATLARI

Oripov O‘ralboy Axmedovich-NavDPI,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, f.f.n., dotsent.
Xudjanazarova Saboat Fayzullayevna NavDPI,
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi

Asoslov: Boburning “Boburnoma” asari jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik hisoblanib, o‘zbek adabiyotidagi dastabki nasriy- memuar va tarixiy- ilmiy asardir. Asardagi nafaqat unvon va mansab nomlarini, balki asardagi har bir tarixiy so‘zni tahlil va talqin qilish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: memuar asar, leksikologiya, tarixiy leksika, hozirgi leksika, so‘zlarning ma’no xususiyatlari, unvonni bildituvchi so‘zlarning ma’no xususiyatlari, mansab bildituvchi so‘zlarning ma’no xususiyatlari.

“Boburnoma” XVI asrdan boshlab hozirgacha dunyoning ko‘p tillari, jumladan: ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha martalab tarjima qilindi, qolaversa, sharh-izohlari bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afg‘oniston, Turkiya, Yaponiya kabi o‘nlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida “Boburnoma”ning insoniyat yaratgan o‘lmas obidalar qatorida alohida o‘rinda turishi ta’kidlanadi. “Boburnoma”ning jahonga mashhur bo‘lishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta bo‘ldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi to‘liq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J.Leyden va V.Erskin amalga oshirdi. F.Talbot esa mazkur nashr asosida 2 marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A.Beverij “Boburnoma”ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning o‘zida “Boburnoma” tarjimalari 9 marta nashr etildi.

Asarda uchraydigan unvon va mansab nomlarining ma’no xususiyatlarini tarixiy va hozirgi manbalarga tayangan holda turlicha tahlil va talqin qilish mumkin.

Jumladan:

1. Amir (arabcha) hokim, hukmdor (boshliq);

I *tarixiy*. Buxoroda va ba’zi musulmon mamlakatlarida: xonlik, podsholik unvoni hamda shu unvon egasi. *Amirning oshidan faqirning mushti yaxshi (maqol). Zarbof choponlar, zardo‘zi etiklarni faqatgina amir-u amirzodalar kiyishgan (“Fan va turmush”)*

Amiri lashkar Temuriylar davrida va keyinchalik Turkiston xonliklarida: eng yuqori harbiy unvon; umuman: lashkarboshi, qo‘shin boshlig‘i. *Uning (Azizbekning) orqasidan ko‘zlari ichiga botiqroq bir kishi kelar edi. Bu kishi Azizbekning amiri lashkari… edi. (Abdulla Qodiriy. “O‘tkan kunlar”)*

II Amir erkaklar ismi.[21]

2. A’lamdor (arabcha-forscha) bayroqqa ega bo‘lgan, bayroqdor.

I *eskirgan.* Bayroq, tug‘ ko‘taruvchi; bayroqdor.[22]

3. Bek *(tarixiy)*

I Turkiy xalqlarning ba’zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo‘lgan shaxs. *Boshlab hudaychi ot ustidan bir kimxobto‘nni olib, qo‘rg‘onbegiga kiydirdi. (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”) Atrof shahar va qishloq beklari… aksar Musulmonqulning o‘z odamlaridan. (Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”) Aslida bu otni, Ulug‘bek Mirzo Samarqand taxtiga chiqqanda, Buxoro begi tuhfa etgan edi. (Mirmuhsin “Me’mor”)* **Beklarbegi. Bek oyim//begoyim.** Bekning onasi yoki xotini va ularga murojaat shakli. *Hasanali tanitdi: -Mana bu kishi qayin onangiz-bek oyim bo‘ladilar.*

II Erkaklar ismining tarkibiy qismi. *Yo‘ldoshbek, Otabek, Yusufbek.*

III (1-shaxs egalik shaklida) o‘z begi yoki xo‘jayiniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatilgan so‘z. *Qayg‘urma, begim! Hasanali otang bu to‘g‘rida ham seni yodidan chiqarmaydi.*

[21] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent. 2006. 1-jild 78-bet.
[22] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent. 2006. 1-jild 66-bet.

(Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar") Eski vaqtda yer-suv egalarining xizmatkorlari xonlar zamonidagi ram-rusumni qilib, o'z xo'jayinlarini "begim", "xonim"," oyim"deb hurmatlar edilar (M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari)

O'zi(ga) xon , o'zi(ga) bek har kim o'ziga xon , o'ziga bek (maqol)

Bek II berk, yopiq. [23]

4. Bakovul, bukovul

I. (*eski tarixiy)* Podshoh , xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi mansabdor; bosh oshpaz (XV asr va undan keying davr) *Naql qilishlaricha, ushbu taom ajabsanda Bobur saroyining bakovullari ijodiga mansub emish (K.Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari) –Gunoh shulkim,-dedi Bobur qat'iy ohangda,-bakovullarimiz sizdan qattiq ranjibdirlar: tortgan taomlaridan loaqal bir luqma tanavvul etmas emishsiz. ("Yoshlik") Bakovul bo'shashgancha bir chekkada turardi. ("Sharq yulduzi")*

II. *(tarixiy)* Oltin O'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor.

III. *(shvedcha)* To'ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazanda. *Yuzlari tandirdan endi uzilgan nondayin qip-qizil, mo'ylovli bir odam bakovul bo'ldi. ("Yoshlik")*

IV. To'y va bayram (hayit) munosabati bilan o'ykaziladigan kurash, poyga, uloq, ko'pkari kabi musobaqalarni boshqaruvchi. *Bular to'yga bakovul ham bo'ladi. Har kim qo'ldan kelganini qiladi. ("Intizor") Ahmadjon ota, Meliqo'zi va bakovullar muzika sadolari ostida o'rtaga tushdilar. ("Yoshlik")*

Tayyor oshga bakovul. Tayyoriga ayyor, qulay vaziyatdan foydalanib qoluvchi odam. *Qiz bo'yiga yetkandan keyin, Mamasaid "tayyor oshga bakovul" bo'ldi: "Men eng yaqin tog'aman, shuning uchun ota o'rniga otaman" deb da'vo qildi. (P. Tursun, O'qituvchi) Tayyor oshga bakovul, deb shuni aytarkanlar-da! (S.Zunnunova, Olov)*[24]

5. Dorug'a

(tojikcha-forscha, mo'g'ulcha darga-rais, boshliq; darax-tobe qilmoq, engmoq) *tarixiy.* Shahar posbonlari sardori; bosh mirshab, shahar idorasi boshlig'i. *Anov qashqa yo'rg'ada jilpanglagan amaldor shahar dorug'asining amakivachchasi Shodi bedoddir. (Oybek, Navoiy) Niyatingiz tahsinga sazovor, janob Hasanbek. Ammo siz dorug'asiz. Siz avval shahardagi g'uluni bartaraf qiling, fitnaning uyasini toping… (P.Qodirov, Yulduzli tunlar)*

Dorug'a haqi aynan dorug'ona. *Bu xirmondan… sizga o'ndan uch tegadi. Buning ustiga… dorug'a haqini ham sizga o'tkazaman. (S.Ayniy, Qullar)*[25]

6. Devonbegi

(fors-tojikcha mahkama, devon boshlig'i) *tarixiy.*

I Buxoro va Xiva xonliklarida devonning boshlig'i. *Xosxonada Muhammad Rahimxon, vaziri akbar Matmurod devonbegi, qozikalon, mufti-to'rtovlon choy ichib o'tirishardi. (S.Siyoyev, Yorug'lik) Maslahatim yaxshi anglab turinglar: Otaliqni devonbegi qilinglar. ("Murodxon")*

II Xon saroyida kirim-chiqimni, pul va oziq-ovqat hisobini olib boruvchi amaldor. *Devonbegilar avlodiga mansub bo'lgan… Shernazarboy Islomxo'jani ich-ichidan yomon ko'rar, azaldan adovati bor edi. (J.Sharipov, Xorazm)*[26]

7. Darvozabon

(darvoza-forscha, bon- qarovchi) *tarixiy.*

I Shahar yoki xon saroyi darvozasining qorovuli yoki soqchisi. *Hirot darvozalariga darvozabonlardan tashqari yana otliq sarbozlar qo'ydi. (Mirmuhsin, Me'mor) Darvozabon bekni tanib, qo'l qovushtirdi. (A. Qodiriy, O'tkan kunlar)*

II Sportga oid so'z. Darvozani himoya qiluvchi o'yinchi. *Darvozabonni aldab o'tib, to'pni darvozaga kiritmoq.* [27]

8. Darbon

(forscha-eshik, darvozani kuzatib turuvchi, darvozabon) *tarixiy.*

I Qal'a, saroy darvozasini kuzatib turuvchi, darvoza qorovuli; darvoza posboni. *Ark darvozasi oldida amir darbonlari, zarbof to'nli qushbegi va boshqalar saf tortib turar edilar (S. Karomatov, Bir tomchi qon) Darbonning chehrasi yorishdi va darhol eshikni ochib berdi. (Gazetadan)*

---

[23] O'zbek tilining izohli lug'ati Toshkent 2006. 1-jild 214-bet .
[24] O'zbek tilining izohli lug'ati Toshkent 2006. 1-jild 145-bet .
[25] O'zbek tilining izohli lug'ati Toshkent 2006. 1-jild 649-bet .
[26] O'zbek tilining izohli lug'ati Toshkent 2006. 1-jild 588-bet .
[27] O'zbek tilining izohli lug'ati Toshkent 2006. 1-jild 561-bet .

II Badavlat xonadonlarda, ayrim muassasalarda eshik oldida turuvchi shaxs, darvoza qorovuli; shveysar. *Restoran eshigi yonidagi sersoqol darbon chol unga pisandsiz nazar tashladi. (H. Temirov, Xiyobondagi odam)*[28]

9. Kotib

[arabcha (xat) yozuvchi, (kitob) ko‘chiruvchi] *tarixiy.*

I Ro‘yxat tuzish, qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan shaxs; mirza. *Navoiyning kotiblarga homiyligi asosan 1469-yildan, ya’ni u davlat arbobi vazifasiga ko‘tarilib, kotiblarga homiylik qilish uchun moddiy imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilanoq boshlangan. (“O‘ta”)*

II Idora va muassasalarda, lavozimli kishilar, yozuvchilar va shu kabi shaxslar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xodim, shaxs. *Kotib o‘tiradigan stol tepasidagi “Papiros chekma!” degan yozuv ostiga kimdir pistako‘mir bilan “Nosvoy chekaver!” deb yozib qo‘yibdi. (S. Ahmad, Hukm) Bu xatlarni u shaxsan o‘zi va kotibi yordamida o‘rganib, aksariyatiga erinmay javoblar yozgan. (Gazetadan)*

III Idora, muassasa va shu kabilar kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas’ul xodim. *Fanlar akademiyasining bosh ilmiy kotibi. Institutning ilmiy kotibi.*

IV Maxsus kengash, yig‘inlarning bayonnoma va shu kabi yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi shaxs. *Dissertatsiya himoyalari bo‘yicha ilmiy kengash kotibi. Majlis kotibi.*[29]

10. Lashkar

(forscha- qo‘shin, armiya) *eskirgan harbiycha.*

Davlatning qurolli kuchlari majmui yoki uninh bir qismi; qo‘shin, armiya. *Butun lashkar va sipohiylar isyon tug‘ini ko‘tarib, huzuringizga keldi. (M.Osim, Ibn Sino qissasi)*

Lashkar tortmoq qo‘shin bilan hujumga bormoq. *U Ahmadnagar ustiga lashkar tortib boradi. (S.Karomatov, Oltin qum)*

Xalq lashkari xalqdan ko‘ngilli suratda tuzilgan yordamchi qo‘shin. *Morozov rotasi xalq lashkarlari kovlab qo‘ygan okoplarga ikki vzvodni joylab, qolgan vzvod bilan tankka qarshi mudofaa choralarini ko‘ra boshladi. (I. Rahim, Chin muhabbat)* [30]

11. Muhrdor

Tarixiy. Xon, amirlar saroyida muhr saqlovchi amaldor. *Maktubni xon otaliqqa, otaliq muhrdorga beradi. (U. Ismoiliy, Saylanma)*[31]

12. Muhtasib

(arabcha tarozi va o‘lchovlar noziri) *tarixiy.*

O‘rta asr musulmon davlatlarida din va jamoat tartibini saqlovchi, diniy urf-odatlar, amallarga rioya qilinishini nazorat etuvchi amaldor. *Darvozada ularga qo‘lida qamchi tutgan, ikki yonida ikki mulozim ergashtirgan muhtasib uchradi. (S.Siyoyev, Yorug‘lik)*[32]

“Boburnoma” asaridagi mansab va unvon nomlarini boshqa asarlardagi variantlariga nisbatan qiyosan o‘rganganimizda, shunga amin bo‘ldikki, ushbu asarlarda qo‘llangan tarixiy so‘zlar ma’no jihatdan bir-biriga yaqindir. Biz yuqorida “Boburnoma” asaridagi faqatgina mansab va unvon nomlarining ma’no xususiyatlari to‘g‘risida o‘z fikr va mulohazalarimizni bildirdik. Kelgusi ishlarimizda “Boburnoma” asarini har tomonlama chuqur o‘rganish va tahlil qilish bizning asosiy vazifalarimizdan biri deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Z.M.Bobur “Boburnoma” Toshkent. “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2012-yil
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 1-jild
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 2-jild

“MA’NAVIYAT” LEKSIK KATEGORIYASINING SEMANTIK STRUKTURASI

Yuldashev Farrux Haqberdiyevich, f.f.d. (DSc)
Navoiy, O‘zbekiston

Annotation. Mazkur maqolada “ma’naviyat” leksik kategoriyasining lingvistik konsepsiyasi va uning mohiyati haqida so‘z boradi. Mazkur konsepsiyaning tuzilishi, qurilishi, shakllanishi, ichki sistemasi, kategoriya tarkibidagi leksemalarning semantik munosabati haqida fikr-mulohazalar keltirilgan.

[28] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 1-jild 560-bet .
[29] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 2-jild 413-bet .
[30] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 2-jild 491-bet .
[31] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 2-jild 665-bet .
[32] O‘zbek tilining izohli lug‘ati Toshkent 2006. 2-jild 666-bet .

Key words: milliy istiqlol g‘oyasi, milliy ma’naviyat, leksik kategoriya, “ma’naviyat” sistemasi, semantik struktura, leksik paradigma, leksemalarning tarkibiy qismlari, differensial va integral semalar

Mustaqillik yillarida milliy ma’naviyatimizni tiklash, uning diniy va dunyoviy ma’nolariga e’tibor qaratish dastlabki islohatlarda namoyon bo‘la boshladi. Bu esa uzoq yillardan beri sho‘ro mustamlakasida bo‘lgan millatning ma’naviy ehtiyojlari va milliy-madaniy qarashlarini qayta tiklashga zamin bo‘ldi. Sababi sobiq sho‘ro tuzumi davrida insonlarning siyosiy, iqtisodiy, milliy-ma’naviy qarashlari tuzum manfatlari “ummon”iga cho‘kib ketgan edi. “Milliy istiqlol mafkurasining yaxlit konsepsiyasini yaratishga umumnazariy va metodologik masalalarni hal qilish bilan bir qatorda ijtimoiy hayotning har bir sohasi – davlat qurilishi va demokratiya, iqtisodiyot, turmush tarzi, madaniy meros va milliy ma’naviyat jamiyat taraqqiyotiga sezilarli tasir etishi[33] haqida fikr-mulohazalar berilgan. “Sababi jamiyatning vakili bo‘lgan har bir shaxs shu muhitdan “oziqlangan” va tabiiyki, salbiy ta’sir etgan edi. Zotan, mamlakatimizda xalqlarning tili, urf-odatlari, an’analaridan qat’i nazar, teng huquqlikni, sog‘lom turmush madaniyatini ta’minlash, buyuk ishlarni amalga oshirish o‘sib borayotgan ma’naviy barkamol yosh avlodga bog‘liq. Albatta, “Bizning milliy g‘oyamiz-mustaqilligimizni mustahkamlash, mamlakatda tinchlik va barqarorlik, xalq farovonligiga erishish yo‘lida ijodkorona mehnat qilishdir[34]”. To‘g‘ri, ko‘zlangan yuksak maqsadlarga erishish o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Bu borada barcha fanlar qatori tilshunoslikning ham o‘rni muhim hisoblanadi. Zero har qanday yangilik tilda o‘z aksini topadi. Avvalo, ma’naviyatimiz tarixi, uning bosqichlari[35], ulardagi milliylik va xalqimizga xos milliy qarashlar asosida tarbiyalash muhim. Olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda dunyo tamadduni ham tezlik bilan o‘zgarmoqda. Zero, milliy istiqlol mafkurasining shakllanishida matbuotning o‘rni[36] naqadar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi davrda internet ommaviy madaniyatning “yetakchi” targ‘ibotchisiga aylandi. Buning natijasida milliy e’tiqod, milliy ma’naviyat, madaniyat va axloqqa tayangan ijtimoiy hayot o‘rnini “zamonaviy milliy e’tiqod, zamonaviy milliy ma’naviyat, zamonaviy madaniyat va zamonaviy axloq”qa tayangan ba’zi holatlarga guvoh bo‘lmoqdamiz. “Bugungi globallashuv jarayonida ma’naviyat masalasi milliy o‘zlikni saqlab qolishga intilayotgan xar bir xalq uchun jiddiy masala bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda “... ko‘plab fanlar ma’naviyat masalasidan yiroqlashdi. Xususan, tilshunoslik o‘zining eng yaqin muammosiga yaqinlashmasdanoq begonalashdi. Holbuki, ma’naviyatga eng yaqin hodisa tildir. Til – ma’naviyatning ifodalovchisi va saqlovchisi, boyituvchisi va uzatuvchisidir[37]”.

Bugungi kunda juda ko‘pchilik turli millatlarning ma’naviy qarashlari, urf-odatlari, turmush tarzi bilan bog‘liq tadqiqotlar olib boriladi. Bu esa olamning lisoniy manzarasida har bir millatning qiyofasi leksik tasviri orqali namoyon bo‘ladi. Olam va undagi hodisalar shunday tizimki, ular o‘zaro a’loqador bo‘lgan ma’lum guruhlarga bo‘linadi. Ushbu guruhlar esa bir-birini taqazo etadigan elementlar munosabatidan tashkil topgan yagona tizim siftida shakllanadi. Ana shu yagona tizim kichik qismlarga bo‘linish imkoniyati mavjud. Bunday bo‘linishlar soddadan murakkabga qarab bo‘linuvchi va ayni holatda birlashuvchi xususiyatga ega tizimdir. Bu tizim barcha yo‘nalishlarda bo‘lgani kabi zamonaviy tilshunosligimizda ham o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilshunosligida zamonaviy yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda belgilangan tadqiqot obyektining inson lisoniy manzarasida aks etishi va uning lingvistik sathda namoyon bo‘lishi ushbu tizimning mahsuli hisoblanadi. O‘zbek tilshunoslari ham tadqiqotlarda leksemaning lisoniy mohiyati, leksik sath tizimi, leksemalarning izchil dialektik qonuniyatlarga tayangan holda o‘rganib kelmoqdalar.

“Ma’naviyat” sistemaviylik tabiatiga ega leksik-semantik kategoriya sifatida til tizimida erkin yashaydi. Uning mazmun-mohiyati tarkibiy qismlarga ajratish yo‘li bilan ochiladi. “Ma’naviyat” umumiy ma’noli til birliklari, uning tarkibiga kiruvchi milliy lisoniy ifodalar – so‘zlar, maqollar, matallar, iboralar uzoq yillar davomida xalqimiz nutqiy boyligi sifatida boyib kelgan va yozma hamda og‘zaki ijodida faol qo‘llangan. Tilning leksik sohasi keng, ko‘p funksiyali bo‘lib, u turli sohalarda namoyon bo‘ladi va sohaning keng qamrovli ekanligi leksik sathda aks etadi. Til birliklarini tavsiflash va o‘rganishda qo‘llaniladigan leksik-semantik kategoriya tilni tizim sifatida idrok etishga, tildagi leksik elementlar o‘rtasidagi turli xil aloqa va munosabatlarni tushunishga yordam beradi.

---

[33] Бу ҳақида қаранг. Абдураҳим Эркаев. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: “Маънавият”, 2022. – Б. 13.

[34] Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 140.

[35] Бу ҳақда қаранг: Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. – Тошкент: Маънавият, 1996. – Б. 25.

[36] Бу ҳақда қаранг: Тошбоев О.Ш. Миллий истиқлол мафкурасининг шаклланишида матбуотнинг ўрни: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 152.

[37] Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида // “Маърифат” газетаси, 2018 йил,25- апрель,33-сон.

Ularning tadqiqotlarida leksema va so‘z, atov birliklar, leksemaning ma’no taraqqiyoti, uning mazmun-mundarijasi, sistemasi, leksikografik xususiyati, leksemalarning tarkibiy qismlari, differensial va integral semalar, paradigmatik qatorlari hamda munosabatlari kabi masalalar atroflicha tekshirila boshlandi. Ushbu konsepsiyaning mohiyati va tuzilishi keng bo‘lib uning ayrim jihatlarini ko‘rib o‘tamiz.

1. “Ma’naviyat” sistemasining yaxlit tizim ekanligi. Ushbu tizimning nafaqat ichki sistemalarini ifodalash, balki ular o‘rtasidagi leksik bog‘lanishlarni muvofiqlashtirish masalasi.

2. “Ma’naviyat” sistemasining murakkab tizim ekanligi. Ushbu semantik kategoriyasining iyererxik manzarasi, tizimiy munosabatlari, differensial va integral semalar, sistemasining yadrosi, sistemasining markazi, sistemasining periferiyasi kabi alohida bo‘limlardan iborat bo‘lib, ularning yana ichki qismlardan iborat ekanligi.

3. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriya sifatida “O‘TIL”da va “O‘zME”da va maxsus lug‘atlarda ma’naviyatga oid leksemalarning berilishi masalasi.

4. “Ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarini til korpuslarida teglash masalasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarining ekstralingvistik razmetkasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklarini semantik teglash masalasi, “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi birliklari birlamchi birikuvchilarini modellashtirish masalasi muhimligicha turibdi.

5. “Ma’naviyat” kategoriyasining sistemali xarakteri. Bu tizimdagi har bir elementlarning bevosita va bilvosita a’loqada ekanligi tadqiq qilinadi.

Shu nuqtayi nazardan “ma’naviyat” tushunchasi va uning dunyodagi lisoniy manzarasi ilmiy tasvirini leksik jihatidan tadqiq qilish, uni o‘zbek tilshunosligida leksik-semantik kategoriya sifatida o‘rganish, tizimli tahlil qilish, semantik yoritish orqali mohiyati yanada ravshanlashadi.

O‘zbek tilidagi “ma’naviyat” kategoriyasini tavsiflash, tasniflash, sistemaga solishda leksik-semantik kategoriya sifatida yondashish uni tizim sifatida tushunishga, til elementlari orasidagi turli bog‘lanish va munosabatlarni yoritishga yordam beradi. Bunday tahlil asosida “ma’naviyat” umumiy semali birliklar orasidagi leksik munosabat ham yoritiladi. Milliy til orqali xalqlarning nimaga qiziqishini, til sohiblarining dunyoqarashini, shu xalqning ma’naviy sifatlarining darajasini, jamiyatning qanday darajada ma’naviy yuksalayotganligi yoki ma’naviy qoloqligini bilib olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдураҳим Эркаев. Миллий ғоя ва маънавият. – Тошкент: “Маънавият”, 2022. – Б. 13.
2. Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвомаънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида // “Маърифат” газетаси, 2018 йил,25 апрель,33-сон.
3. Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б. 140.
4. Имомназаров М. Миллий маънавиятимизнинг такомил босқичлари. – Тошкент: Маънавият, 1996. – Б. 25.
5. Тошбоев О.Ш. Миллий истиқлол мафкурасининг шаклланишида матбуотнинг ўрни: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 152.

TURKIY HUJJATLARNING TARIXIY ILDIZLARI

Sadinova N.U.
NavDPI dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turkiy hujjatchiligining tarixiy ildizlari, turkiy tilning rasmiy doiralardagi mavqei haqida so‘z yuritilib, turkiy hujjatchiligi an’analarining qardosh xalqlar tiliga ham ta’sir ko‘rsatganligi yoritilib berilgan va manbalardan keltirilgan misollar vositasida asoslangan*.

Abstrakt: *This article talks about the historical roots of Turkish documentary, the position of the Turkish language in official circles, the fact that the traditions of Turkish documentary have influenced the language of the neighboring nations is highlighted and based on the examples given from the sources.*

Kalit so‘zlar: *arxiv, bitig, daftardor, devonxona, yorliq, unvon*.

Key words:*archive, document, notebook, registry office, label, title.*

Turkiy hujjatchiligi uzoq tariximizning ilk davrlaridayoq paydo bo‘lib, o‘ziga xos an’analar, o‘ziga xos shakl va uslublarda rivojlanib kelgan. O‘zbek tilshunosligida tarixiy hujjatlar, ularning tili va uslubi, terminologiyasi bevosita yoki yondosh terminologik tizimlar leksikasi bilan bog‘liq holda Hamidulla Dadaboyev, Qosimjon Sodiqov, Qudratilla Omonov, Qodirxon Ergashev va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Ma’lumotlarga qaraganda, Markaziy Osiyoda arxiv (hujjatlar to‘plami) yozuv bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan.[1;3.] Demak, hujjatchilik sohasi qadimiy xalqimiz madaniyati, tarixi, tilining ajralmas qismi sifatida asrlar osha rivojlanib kelgan. Hujjatlar millatimizning uzoq va murakkab o‘zgarishlarga boy tarixini o‘zida aks ettirgan. Qadimgi Tuproqqal’a xarobalaridan topilgan, Xorazm shohlariga tegishli, III – IV asr

boshlariga oid hujjatlardan iborat arxiv qoldiqlari, 1930-yil boshlarida qadimgi So‘g‘diyona davlatining Mug‘ tog‘i xarobalaridan topilgan Devashtich arxivi, Qo‘qon va Xiva xonliklari arxivlari, Buxoro amirligining Qushbegi arxivi fikrimizning dalilidir. [1;3.]

Ba’zi manbalarda hujjatlar tarixi bundan ham qadimiyroq ekanligi ta’kidlanadi: “So‘nggi xulosalarga ko‘ra, turkiy yozuv eramizdan oldingi I ming yillikda yuzaga kelgan. Turk xoqonliklari Vizantiya, Xitoy, Eron kabi davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatganlar.” [6;20.] Tarixiy manbalarda turk xoqoni Istamining Vizantiya imperatori YUstin II ga maktub jo‘natganligi qayd etilgan: demak, o‘sha paytlardayoq davlat hujjatlari, ish qog‘ozlari tuzilgan, bunday hujjatlarni bituvchi, idora ishlarini yurituvchi maxsus kishilar bo‘lgan. [4;32.]

VII–VIII asrlarda bitilgan turkiy toshbitiglarda (Kultigin, To‘nyuquq bitiktoshlari) qo‘llangan *bitig* termini o‘zbek kitobatchilik terminlarining shakllanishida eng muhim davr hisoblangan XI–XV asrlarga oid yozma manbalarda ham ko‘plab uchraydi. Bu davrlarda *bitig* termini “kitob”, “noma”, “maktub”, “xat”, “yozuv”, **“hujjat”** kabi ma’nolarda qo‘llangan. [7;11.]

Q. Ergashevning ta’kidlashicha, Abulg‘ozixon Movarounnahr, Xuroson, Iroq va Xitoyda devon ishlari turkiy tilda olib borilgani, ish yurituvchilar ko‘proq turklarning uyg‘ur urug‘idan bo‘lgani, uyg‘ur xalqida o‘qigan kishilar ko‘pligi, ular daftardorlik va devon hisoblarini yaxshi bilgani, shuningdek, Chingizxon o‘g‘illari va nabiralari ham kotib va daftardorlarni uyg‘ur xalqidan qo‘yishi, shuning uchun ham Chingizxon o‘g‘illari va nabiralari zamonida Movarounnahr, Xuroson va Iroqda kotiblar va daftardorlarning barchasi uyg‘ur bo‘lgani haqida ma’lumot beradi. [6;20.] Olimning fikriga tayanib aytish mumkinki, bu holat turkiy til va yozuv taraqqiyotidagina emas, ish yuritish sohasi taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomilini maxsus tadqiq etgan Q. Omonovning fikriga ko‘ra, o‘rta asrlarda mo‘g‘ul, fors, xitoy, rus tillarida bitilgan hujjatlarning matn komponentlari shakllanishiga turkiy hujjatchilik samarali ta’sir ko‘rsatgan. Tilshunos bu fikrini asoslashda aynan hujjatlarning unvon qismida qo‘llanuvchi “s*o‘zim*” yoki “*so‘zimiz*” jumlasiga tayanadi. Mo‘g‘ulcha hujjatlarda qo‘llangan “*ugi manu*” birikmasi Chingizxon davrida davlat mahkama ishlarida yetakchi ishlarni bajargan turkiy xalqlar tomonidan kiritilgan bo‘lib, ular o‘z ota-bobolari rasmiy matnlaridagi unvonlar va hujjat tuzish shaklini mo‘g‘ulcha hujjatlarda tarjima shaklida qo‘llay boshlaganlar. O‘rta asrlarda bitilgan forscha yorliqlar unvonining andozasi ham turkiy hujjatchilikdan o‘zlashtirilgan bo‘lib, ular turkiy tilda, turkiy davlatlar devonxonasida qo‘llangan shaklda berilgan. Turkiy hujjatchilik an’anasi o‘rta asr rus davlat mahkamachiligiga ham ta’sir etib, rus knyazlari 1492-yildan e’tiboran o‘z hujjatlarida turkiy unvonlarga xos bo‘lgan *so‘zim* shaklini *slovo moye* shaklida qo‘llay boshlaganlar. [2;91.]

Q.Omonov turkiy hujjatlar tili rasmiy uslub tizimining yuqori darajada sayqallanganligi bilan xarakterlanishini, bunda til vositalarining muayyan tartibdagi me’yoriga amal qilinganligi, shuningdek, bunday tizimni yaratish bir necha avlod bitikchilarining tajribasi asosida yuzaga kelganini ta’kidlaydi. [3;87.] Shuningdek, turkiy tilning rasmiy doiralardagi mavqei qardosh xalqlar tiliga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatganligini kuzatish mumkin. Xususan, tojik tili yuridik terminologiyasini tadqiq qilgan T. Shokirov Temuriylar, Saljuqiylar va Shayboniylar hukmronligi davrida arabcha so‘zlar o‘rniga mo‘g‘ulcha va turkiycha so‘zlarning ko‘proq ishlatilganini, ayniqsa, Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi tizimida turkiy so‘zlar faollashganini va bu o‘sha davr tojik tili leksik qatlamiga ham sezilarli ta’sir etganini qayd etadi. [5;29.]

Turkiy rasmiy uslubning shakllanishini maxsus tadqiq etgan Q.Omonov Amir Temurning 1401 yilda bitilgan forscha yorlig‘ining unvon qismi turkiy unvon (Temur Kuragan sozimiz) bilan boshlanishini, forscha yorliqlarda turkiy unvonning qo‘llanishi forscha hujjat tuzish uslubining cheklanganidan emas, balki fors devon mahkamachiligi amaliyotida ham turkiy ish yuritish an’anasi yuqori bo‘lganidan dalolat berishini qayd etadi. [2;92.]

Shubhasiz, bu ham turkiy tilning (o‘sha paytda bunday nom bilan atalmagan bo‘lsa ham) rasmiy uslubi erishgan yutuqdir.

M.Xolbekovning “Amir Temurning yevropa qirollari bilan yozishmalari” nomli risolasida sohibqiron Amir Temur maktublarida dastlab ularning kim tomonidan va kimga yozilgani, keyin matn va sana, ba’zi maktublarda qayerda yozilgani, muhr berilganini qayd etadi. Muhr hujjatning rasmiy kuchga egaligini bildirgan. Keltirilgan dalillar muhrlar hujjatlarning tarkibiy kismi bo‘lib, ularning rasmiyligini ta’minlovchi vosita ekanligini va ularning shakllari o‘sha davrlardayoq doira, uchburchak va to‘rtburchak ko‘rinishida bo‘lganini ko‘rsatadi.

Umuman, turkiy hujjatchiligida hujjatlarning tarixiy ko‘rinishi hujjatning kim tomonidan, kimning nomiga ekanligi, matn, muhr, sana kabi qismlardan tuzilgan va o‘zbek hujjatchiligida bugungi hujjatlarda ham ushbu qismlar saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:
1. Alimov I., Ergashev F., Bo‘tayev A. Arxivshunoslik. – Toshkent: Sharq, 1997.– B. 3.
2. Omonov Sh. Eski turkiy rasmiy matnlar diplomatikasining qo‘shni mamlakatlar hujjatchiligiga ta’siri // O‘zbek tili va adabiyoti, 2017. – №6.–B. 91-92.
3. Omonov Q. Qadimgi hujjatlar leksikasiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti, 2014. – №6. – B.87.
4. Rahmonov N. Turk xoqonligi. – Toshkent, 1993. – B. 32.
5. Shokirov T. Formirovaniye i razvitiye yuridicheskix terminov tadjikskogo yazыka: Avtoref. diss.... dok. filol. nauk. – Dushanbe, 2011. – S.29.
6. Ergashev Q. Takallum rishtasin chekma uzun... // Sog‘lom avlod uchun, 2001. – № 2. –B. 20.
7. Yuldashev I.J. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tartibga solish: Filol. fan. d-ri... diss. avtoref. – Toshkent. 2005. – B.11.

NAVOIY VILOYATI O‘ZBEK SHEVALARIDA KO‘PLIK SHAKLLARI

Raxmonov Navro‘z,
NavDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida ko‘plik shakli dialektal ko‘rinishlarining arealogik tavsifi berilgan.

Kalit so‘zlar: Sheva, ko‘plik shakli, areal, qipchoq, qarluq, so‘zning morfologik tuzilishi

Mazkur hudud o‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘ziga xos xususiyatlar mavjud. Bu, albatta, u yoki bu sheva tarqalgan hududning joylashish o‘rni, tarixiy sharoitlari, etnik xilma-xillik, aholi migratsiyasi, shuningdek, qo‘shni hudud o‘zbek shevalarining ta’siri kabi omillar bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Mazkur hudud o‘zbek shevalarida morfologik shakllarni qo‘llashda o‘zbek tili va boshqa o‘zbek shevalaridan ma’lum darajada farqlanadigan xususiyatlarni so‘z turkumlarining grammatik formalarida, sheva so‘zlarining fonetik va morfologik tuzilishida, yasalishida ham ko‘rish mumkin.

O‘zbek shevalarida ko‘plik shaklining ko‘plab variantlari mavjud. A.Ishayevning ko‘rsatishicha, o‘zbek shevalarida *-lar* ko‘plik qo‘shimchasining *-lar // -lər // -ləy; -la // -lə; -tar // -tər; -ar // -ər // -er; -ə (-zə); -na // -nə; -nar // -nər; -dar // -dər; -tar // -tər; -zar // - zər; -sar //-sər* tarzidagi 31 xil to‘liq va qisqargan varianti mavjud. Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida ham ko‘plik qo‘shimchasining *-lar // -lər; -la // -lə; -a; -ar; -nar // -nər; -zar // -zər; -dar // -dər; -tar // -tər* variantlari mavjudligi aniqlandi. *-la* shakli *-lar* shakli so‘ngidagi *r* undoshining tushishi natijasida hosil bo‘lgan: *ɣydəg‘lə, me:mənlə* kabi. Qarluq tipli shevalarning ta’siri natijasida qipchoq tipli Dovtepa, Simitan, Gumbaz, Uchtepa, Mang‘iton, Tortuvli, Polvonota, Avoxli, Oltinsoy, Chilosh, Burqut, Qangli shevalarida ham *-la* ko‘plik shaklining qo‘llanilishi kengayib bormoqda. Mazkur shevalarda *-lə* ko‘plik qo‘shimchasi, adabiy tildagidek, hurmat, chama-taxmin, jamlash-umumlashtirish kabi ma’nolarda ham ishlatiladi: *əkəmlə keldilə, ɔnəmləni əyting* (hurmat); *Mɔllədən sɔvət ɔltilədə xabar ɔllim* (chama-taxmin); *Ənɔrələni ɣyi* (jamlash-umumlashtirish) kabi.

-ə shaklining qo‘shilishi faqat *biz* kishilik olmoshi bilan chegaralangan bo‘lib, asosan, tadqiq etilayotgan hududning qarluq va aralash tipli shevalariga xos. G‘ard. *B’zən’k’gə kel’ng*. Bu qo‘shimchaning *biz* kishilik olmoshiga qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan *b’zə* ko‘rinishi YAngiyo‘l, SHahrisabz, Jizzax, Kattaqo‘rg‘on, Yuqori Qashqadaryo (shahar tip), Xorazm (qipchoq-o‘g‘uz), Hazorasp, Qo‘qon, Qorako‘l, Buxoro shevalarida keng tarqalgan[38]. Shuningdek, Navoiy viloyatining qipchoq tipli o‘zbek shevalarida *-ar* ko‘plik shakli *-a* shakli singari *biz* kishilik olmoshigagina qo‘shilgan holda qo‘llaniladi: *bizə* // *bizər* kabi. *B’zər* shakli Qashqadaryo, Chimkent, Xorazm, Samarqand qipchoq shevalarida ham uchraydi. Ko‘plikning *-lar* ko‘rsatkichi kelishik qo‘shimchalari bilan kelsa ham, to‘liq *-lər* tarzida talaffuz etilmaydi: *bizəni ɣy; mevələdən ket’r’nglə* kabi. Faqatgina *-lə* qo‘shimchasidan so‘ng egalik qo‘shimchasi qo‘shilgandagina ko‘plik qo‘shimchasi *-lər* tarzida to‘liq talaffuz qilinadi. *Qыzləri jydə køp edi*.

Mahmud Koshg‘ariy XI asrdayoq *o‘g‘uz* va qipchoqlarda “Talaffuzning yengillik bo‘lishi uchun...” og‘zaki nutqda ba’zi tovushlarning tushirib qoldirilishini qayd etgan edi[39]. Ta’kidlash o‘rinliki, o‘zbek xalq shevalarida ham ayrim qo‘shimchalar va so‘zlarning birikishida talaffuzda qulaylik talabiga ko‘ra soddalik, tejamlilik tamoyillari amal qiladi. Bu fikrimizni tadqiq etilayotgan hudud shevalaridagi ko‘plik shaklining qisqargan *-lə, -ar, -a* shakllari ham quvvatlaydi.

Tadqiq etilayotgan hudud qipchoq tipli shevalarida esa ko‘plikning *-lar // -lər; -ar; -nar // -nər; -zar // -zər; -dar // -dər; -tar // -tər* shakllari mavjud. Navoiy viloyatining Do‘rman, Qorajon, Burqut, Telman shevalarida *-lar // -lər, -la // -lə, -ar // -ər, -a // -ə* ko‘plik shakllarining

[38] Ўзбек шевалари морфологияси. –Т.:Фан, 1984. –Б.45.
[39] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. –Тошкент, 1960. I жилд, –Б.69.

uchrashini shevashunos M.Mirzayev o‘zining o‘zbek tili Buxoro guruh shevalari tadqiqiga bag‘ishlangan ishida ham qayd etgan[40].

Navoiy viloyatining qipchoq va aralash tipli shevalarida uydagi yaqin qarindoshlarning salomatligini so‘rashda *Uychilar yaxshimi?* jumlasi ishlatiladi. *Uychilar* so‘zi *uy ichilar* birikmasining qisqargan shakli bo‘lib, bu o‘rinda -lar shakli jamlik, umumlashtirish ma’nosini ifodalagan. Ma’lumki, Navoiy viloyati hududida o‘zbek va qozoq xalqlari azaldan yonma-yon, ba’zi hududlarda esa aralash yashab keladi. Albatta, bu u yoki bu millat vakilining tiliga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Jumladan, Nurota tumanining Qizilcha; Konimex tumanining Sho‘rtepa, Kenagas qishloqlari shevalarida qozoqlar bilan aralash yashaydigan o‘zbeklar nutqida ko‘plik shaklining *-dar // -dər, -tar // -tər* shakllari uchraydi. Bunda *-lar* shakli **z, l, m, n, ng** kabi jarangli undosh tovushlar bilan tugagan so‘zlardan keyin *-dar // -dər* shaklida keladi. Ken. *S’zdərd’ əytd’. Mɔldərdi suvərdi*. Ko‘plik qo‘shimchasining *-tar // -tər* shakli esa **p, s, t, sh, q** singari jarangsiz undoshlardan so‘ng ishlatiladi. Qiz. *Ɜttərd’ bəyləd’ngmə?* Ko‘plik shaklining *-dar // -dər* variantlari Namangan viloyatining Yangiqo‘rg‘on, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanlaridagi shevalarda ham uchraydi. Ko‘plik shaklining *-dar // -dər, -tar // -tər* shakllari qozoq, qirg‘iz, boshqird, tuva, oltoy tillarida ham mavjud[41].

Nurota tumanining qipchoq tipli Baroq, Qadoq shevalarida *-nar* shakli **n** undoshi bilan tugagan ba’zi so‘zlarga qo‘shilib keladi: *Me:mɔnnər keld’. Ɵtinnərdi b’r jerg‘a jыg‘di*. Shuningdek, Andijon, Yuqori Qashqadaryo (qipchoq), G‘arbiy Farg‘ona (qipchoq), Chimkent (qipchoq), Jo‘sh, Qirq, Baxmal, Laqay singari qipchoq shevalarida qo‘llaniladigan ko‘plik affiksining **n** bilan boshlanuvchi ko‘rsatkichlari qoraqalpoq, xakas, shor, tuva, yoqut tillarida mavjud[42]. Tojikistondagi o‘zbek shevalarida ham ko‘plik qo‘shimchasining *-nar // -nər* variantlari uchraydi[43]. Janubiy Qozog‘iston va Turkmanistondagi o‘zbek shevalarida esa ko‘plik qo‘shimchasining *-dər // -dar, -nər // -nar, -tər // -tar* kabi variantlari mavjudligi qayd etilgan[44]. Tadqiq etilayotgan hududning qipchoq tipli Qizilcha, Cho‘ya shevalarida ko‘plik shaklining *-zər // -zar* variantlari, asosan, *biz, siz* olmoshlariga qo‘shilgan holda *[biz+zar, siz+zar* tarzida] qo‘llaniladi. Shuningdek, bu shakl mazkur hududga qo‘shni bo‘lgan Jo‘sh shevalarida ham uchraydi[45].

Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida ko‘plik shaklining turli xil fonetik variantlarda qo‘llanilishi, tadqiq etilayotgan hudud shevalarining o‘zbek tilli boshqa shevalar bilan umumiy, mushtarak jihatlarga egaligini ko‘rsatish bilan birga, ayni paytda o‘ziga xos ichki taraqqiyot yo‘li, dialektal asoslari mavjudligini ham ko‘rsatadi.

ЯЗЫКОВАЯ ВАРИАТИВНОСТЬ КАК УНИВЕРСАЛЬНОЕ СВОЙСТВО ЯЗЫКА

Leksik ma’noning eng kichik tashkil etuvchisi sema bo‘lib, semalar yig‘indisi leksik ma’no (semema) butunligini tashkil etadi. Leksik маъно atov (denotativ, ideografik, nominativ) va konnotativ (emotsional-ekspressiv, uslubiy kabi) ma’nolar tizimidan iborat. Leksik ma’nolardan tashqari grammatik, so‘z yasalish ma’nolari ham mavjud. Hozirgi davrda leksik ma’noning genetik, hosila, nominativ, figural, erkin, bog‘li kabi turlari ajratilib, ularga eng kichik ma’noviy (komponent) qismlar (arxisema, integral sema, differentsial sema) [2:48-69] nuqtai nazaridan yondashilmoqda. Logikaning tushunchalar, lingvistikaning leksik ma’nolar tasniflari, ajratilgan turlari shuni ko‘rsatadiki, ma’no va tushuncha umumiy jihatlarga, shuningdek, o‘z sifati, strukturasi, xususiyatlariga ega bo‘lgan nisbiy mustaqil birliklardir[1:8-12]. Shuning uchun ham ular (ma’no va tushuncha) har xil fanlarda o‘rganilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комлев Н.Г. Компоненты содержателной структуры слова. – М.: КомКнига, 2006. – С. 8-12.
2. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. - Тошкент: Mumtoz so‘z, 2010. – Б 31
3. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. - Тошкент, Университет, 2010. – Б. 54-55.
4. *Rahimova, Maftuna. Ma’no, Tushuncha, Predmetlarning o‘zaro Munosabati. Namangan davlat universiteti axborotnomasi, 2023.*
5. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи. 1990. – Б. 54

SO‘ZLASHUV NUTQIDA PRAGMATIK MA’NONING IFODALANISHI

Yuldosheva Mashhura,
NamDU doktoranti,
Namangan xalqaro universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida shakllanayotgan pragmatika yo‘nalishi, leksemaning ichki mazmuniy tomoniga e’tibor berilgan, uning nutqdagi pragmafunktsional belgilari, so‘zning ma’nolarining nutqda namoyon bo‘lishi pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Pragmatika, leksema, nomema, pragmatik sema, informative sema, emotsional sema, vulgarizm, konnotativ sema, diskursiv marker.

Абстрактный. В данной статье направление прагматики, которое формируется как отдельный отдел языкознания, обращено внимание на внутреннее содержание лексемы, анализируются ее прагмафункциональные признаки в речи, проявление значений слов в речи. с прагматической точки зрения.

Ключевые слова. Прагматика, лексема, номема, прагматическая сема, информативная сема, эмоциональная сема, вульгаризм, коннотативная сема, дискурсивный маркер.

Abstract. In this article, the direction of pragmatics, which is being formed as a separate branch of linguistics, is paid attention to the internal content of the lexeme, its pragma-functional signs in the speech, the manifestation of the meanings of the word in the speech are analyzed from a pragmatic point of view.

Key words. Pragmatics, lexeme, nomeme, pragmatic sema, informative sema, emotional sema, vulgarism, connotative sema, discursive marker.

Ma’lumki, leksemaning tashqi shakliy jihati uning mohiyati uchun ahamiyatsiz bo‘lib, sistem tilshunoslik leksemalarning ichki mazmuniy tomoniga asosiy e’tiborni qaratadi va xususiyliklarning umumlashmasi sifatida shakl va mazmun aloqadorligini tahlil qiladi. Bu fikr nazariy adabiyotlarda ham alohida ta’kidlanadi. Jumladan, “tashqi nutqning aniq moddiy shakli nutq vaziyati bilan, so‘zlovchining maqsad va imkoniyatlari bilan belgilanadi... Sistem-tilshunoslik nomemalarga ko‘p ahamiyat bermaydi.

Nomemaning aniq shakli nutq sharoiti bilan belgilanadi va u leksemaning mohiyatiga ta’sir etmaydi. Leksemaning mohiyati uning ichki tomoni - semema orqali va shunga ko‘ra leksemaning boshqa til birliklari bilan munosabatga, aloqaga kirishuvi orqali belgilanadi”. [1. 55] Tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida shakllanayotgan psixolingvistika, kommunikativ tilshunoslik, ijtimoiy tilshunoslik lingvogeografiya va uslubshunoslik sohalarini umumlashtiruvchi lingvistik pragmatika yo‘nalishi, asosan, leksemaning ichki mazmuniy tomoniga e’tibor berib, uning nutqdagi pragmafunktsional belgilarini tadqiq etadi. Shu jihati bilan pragmatika sistem-tilshunoslik yo‘nalishi bilan uzviy bog‘lanadi. Leksemaning ichki mazmuniy tarkibi lingvistik pragmatika uchun moddiy baza hisoblanadi, lingvistik pragmatika ham asosan leksema sememalari yuzasidan ish ko‘radi.

So‘zning ma’nolar jilosi nutqda namoyon bo‘ladi. Chunki so‘z imkoniyat sifatida tilda mavjud bo‘lsa, faoliyat sifatida nutqda ishtirok etadi. [2. 46]

So‘z semantikasidagi pragmatik sema haqida M. Mirtojiyev quyidagi fikrlarni bildiradi: Semalar so‘z sememasi tarkibida tutgan o‘rni va subyekt xabari jihatidan ham tilshunoslikda mantiqan ikki tipga bo‘linadi: informativ sema, pragmatik sema. Bu semalar, L.A.Kiseleva ta’biricha, eng yuqori darajadagi semalar bo‘lib, eng yuqori darajadagi umumlashtiruvchi ekanliklari bilan xarakterlanadi. I n f o r m a t i v sema sememaning denotatni bildiruvchi va u haqdagi munosabatlarni bildiruvchi uzvi hisoblanadi, ya’ni informativ sema sememaning denotatni bildiruvchi uzvi bilan egalik va makon, shuningdek , muayyan turkumga xoslikni bildiruvchi uzvlarini o‘z ichiga oladi. Demak, semalar so‘z sememasi tarkibida tutgan o‘rni va subyekt xabari nuqtayi nazaridan mantiqan informativ sema va pragmatik semalarga bo‘linadi. Informativ sema o‘z ichiga nomlovchi sema va relyativ semalarni oladi. Pragmatik sema tarkibida esa ham emotsional, ham ekspressiv semalar bor. Emotsional sema subyektning obyektga bo‘lgan ijobiy yoki salbiy munosabatini ifoda etsa, ekspressiv sema semema ifodasini yo kuchaytirib, yo ozaytirib ko‘rsatadi. [3.63] Masalan, so‘zlashuv nutqida faol qo‘llanuvchi ***tuzuk, binoyi, binoyiday, nozanday, poshshaxon, qoyilmaqom, tag‘in, ketvorgan, barvasta*** kabi so‘zlar ijobiy emotsional munosabatni ifodalasa, so‘zlashuv nutqiga xos boshqa so‘z va iboralardan farqlanadigan, biroq ba’zan salbiy munosabatni bildiruvchi so‘zlar, masalan: ***surbet, muttaham; ahmoq, noinsof, mechkay, naynov, so‘tak, bachchag‘ar, boytevat, xomkalla, iblis, juvonmarg, go‘rso‘xta, zumrasha, xumpar, yashamagur, lavang, tirrancha*** kabilarda denotatga nisbatan norozilik, mensimaslik, nafrat kabi ottenkalar sezilib turadi.

So‘zlashuv uslubida ijobiy yoki salbiy emotsional munosabat bildiruvchi pragmatik semaga ega leksemalar talaygina. Jumladan, dag‘al so‘z va iboralarni qo‘llanish doirasiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

a) kishilarning xarakteri va mijozidagi ojizlikni ifodalovchi vulgarizmlar. Bunday so‘z va iboralarda, so‘zlovchining tinglovchiga nisbatan salbiy munosabati, ichki hayajoni, nafrati kuchlidir: *buzuq, xumpar, xomkalla, noinsof, sotqin, majmag‘il, ammamning buzog‘i, bir pul, kekirdagini cho‘zmoq, ko‘ngliga urmoq, mazasi yo‘q* kabi. Masalan, e*shigimga oyoq qo‘ysin-chi, buzuq* (A. Muxtor); - *O‘lguday lattachaynar, majmag‘il odam ekansan-da! (H. G‘ulom);-SHuncha imo qilsam ham tushunmaysan, a n q o v* (Tuyg‘un); *Bu ishga’ sen aralashma. Kampir mazasi yo‘q ayol* (Said Ahmad);-*Muncha serrayasan, yigitmisan, ammamning buzog‘imisan?!* (Yu.Shomansur).

Keltirilgan misollardagi *buzuq* so‘zi axloqiy nosozlik, razil, chaqimchi ma’nosida, *majmag‘il so‘zi* betayin, lanj ma’nosida, *anqov* so‘zi bo‘sh, lapashang ma’nosida; *mazasi yo‘q* iborasi fe’l-atvori bo‘lmag‘ur, yomon ma’nosida, *ammamning buzog‘i* iborasi landavur, lapashang, bo‘sh ma’nosida qo‘llanilgandir;

b) kishilarning tashqi kamchiligini ko‘rsatuvchi vulgarizmlar. Bunday so‘z va iboralar biror predmet nomiga nisbat berish, yaqinlashtirish, o‘xshatish natijasida paydo bo‘ladi. Chunonchi, *mechkay, ko‘ppak, qarg‘a, so‘tak, ayronbosh, gumbaz, qovoqbosh, kal, so‘loqmon, quti uchdi, bir oyog‘i erda bo‘lsa, bir oyog‘i go‘rda* kabi. Masalan: -*Mahallaga sir berib qo‘yibsan-da, ayron bosh* (“Sharq yulduzi”)

v) so‘kish-koyish bilan -bog‘liq bo‘lgan vulgarizmlar. Bunday so‘z va iboralarda suhbatdoshlarning ichki hayajoni, ruhiy holati, g‘azabi kuchli bo‘ladi: *xoin, sotqin, vijdonsiz, ablah, iblis, isqirt, la’nati, benomus, iflos; esi* og‘moq *(telbalanmoq), og‘zi katta (kibr-havoli), nazari ilmaydi (mensimaslik)* kabi. Masalan:—*Qoch vijdonsiz! Yo‘qol, iflos! Yuviqsiz!—dedi Muqaddam qichqirib* (O‘.Hoshimov); *Qoratoy Mirzakarimboyning Gulnorga uylanmoqchi bo‘lganligini eshitgach, jahli chiqib bunday dedi:- “Ha, noinsof, ha ko‘ppak, iflos qarg‘a!”* (Oybek); *Bilsang, seni nazarimga ham ilmas edim.Sen bilan birga yurgani odamlardan uyalardim* (Said Ahmad);-*U kishi ilgari “Men Qamishkapaning ustuniman” deb chirangan og‘zi kattalardan* (P.Tursun)

Masalan, o‘zbek so‘zlashuv nutqida qo‘llaniluvchi **jigar** so‘zi (to‘g‘ri ma’noda inson, hayvon organizmining bir turi) umumnutqqa xoslangan so‘z bo‘lib, ko‘chma ma’noda “yaqin o‘rtoq”, “do‘st”, “jo‘ra”, “yaqin qarindosh”, “haqiqiy o‘zbek” kabi ma’nolarida oddiy so‘zlashuv nutqiga xoslangan birlikdir.

So‘zlashuv uslubining o‘ziga xos leksik xususiyatlaridan biri unda ijobiy yoki salbiy bo‘yoqdor so‘zlarning keng qo‘llanishi, subektiv munosabatni ifodalashga alohida e’tibor qaratilishidir. Ma’lumki, ma’nodosh so‘zlar til lug‘at tarkibida muhim o‘rin tutuvchi birliklardan, tilning ifoda imkoniyatlari kengligini ko‘rsatuvchi vositalardan sanaladi. Sinonimik qatorni tashkil etuvchi birliklarning qo‘llanishida uslubiy xoslanish kuzatiladi. Masalan, tilimizda “**yig‘lamoq”** ma’nosini ifodalovchi bir qator so‘zlar mavjud. Bulardan **obidiyda qilmoq** so‘zi so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, salbiy munosabatni ifodalaydi. Masalan: Bir mahal eshikka yaqinroq joyda xotin kishi **hiqilladi:**

— Ochilim, bolaginam...

Bashor opaning zardali tovushi jimjit zalda qattiq yangradi:

— O‘g‘lingiz ish ko‘rsatganiga suyunish o‘rniga **obidiyda qilasiz**-a, Lazakat xola!(O‘. Hoshimov)

So‘zlashuv uslubida ayollar nutqida o‘ziga xos erkalash ifodalovchi birliklar faol qo‘llanadi. So‘zlashuv nutqida shunday fe’llar borki, o‘zining tub ma’nosidan yiroqlashgan holda, faqat ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiladi, faqat pragmatik funktsiya bajaradi. **Tushkur, tushmagur, qurgur, qurmagur, quling o‘rgilsin, xarom o‘lgur, aylanay, o‘rgilay kabi. Masalan:** — **O‘rgilay** ovsinjon! Cholim o‘lgir yomon ish qildi. Shokirim bilan Zokirim urushga ketamiz degan ekan, xovliqma deb yo‘lga solish o‘rniga o‘zi yetaklab voenkomatga oboribdi. Hech kimga aytmay jo‘natib keldi. Bolalarim bilan rozi-rizolik ham tilasholmay qoldim. Ovsinjon!

Oyim uni yupatishga urindi. — Nafasingizni issiq qiling **aylanay**. Yurtga kelgan to‘y, mana Kimsanim ham ketdi-ku! O‘tiribman yaratganga topshirib...(O‘. Hoshimov) Yoki: - **Voy, ammang aylansin! Voy, ammang o‘rgilsin sendan!** (O‘. Hoshimov)

Qurgur // qurmagur so‘zi birikma tarkibida qo‘llanib norozilik ma’nosini hosil etadi: Bundan tashqari, ***mosh qurg‘ur,*** bilmadim, qaysi toshloqda bitgan ekanki, hadeganda ochila bermadi. (G‘. G‘ulom) Yigit **qurg‘ur** sezib qoldi, poylab turib shartta bilagimdan ushladi−da, ma’shuqasiga qaradi. (G‘. G‘ulom)

So‘zlashuv nutqida iboralar faol qo‘llanadi. Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat- holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalari hisoblanadi. Masalan: Niyatingiz yaxshi-ku, **holva degan bilan og‘iz chuchimaydi-da, o‘rtoq Xo‘jayip** (O‘. Hoshimov). **Chuchvarani xom sanabsan,** Oqsoqol! (O‘. Hoshimov).

So‘z sememasidagi konnotativ sema ham pragmatikada alohida ahamiyatga ega. Jumladan, so‘zlashuvda keng qo‘llanuvchi *jigar, asal, shakar, bo‘taloq, qo‘zichoq* kabi so‘zlar konnotativ ma’nosi bilan denotatga nisbatan ijobiy munosabatni ifodalaydi va pragmatic funksiya bajaradi. Bular konnotativ ma’no bo‘lganligi uchun ifoda semalari tarkibiga kiritiladi. Chunki “ifoda” so‘zining lug‘aviy ma’nosida har qanday sotsial kontekst mazmunini anglash mumkin. Ifoda semalari ham leksema paradigmasidan aniqlanuvchi semalar qatoriga kiritilib, bular pragmatikaning fundamental asosi hisoblanadi. Bu ifoda semasiga xos uslubiy bo‘yoq, munosabat maonolari bilan pragmatik maydonda umumlashadi. So‘zlashuv uslubida o‘zining barcha uslubistik bo‘yog‘i bilan ajralib turadigan lug‘aviy birliklar so‘zlashuv nutqining asosiy qatlamini tashkil etadi.Ularda soddalik, ta’sirchanlik, erkinlik, vaziyatboblik sezilib turadi. [4. 47]

Pragmatik tilshunoslikda «diskursiv marker» tushunchasi mavjud. Diskursiv marker deganda shaklan so‘z yoki so‘z birikmasi, hatto gap tuzilishiga ega bo‘lib, shu diskursda matnda o‘z denotativ (va propozitsion) informativ qiymatini yo‘qotib, eng avvalo, matnni jonlantirish, uni harakatdagi jarayon sifatida berish, shu bilan birga, uning butunligini ta’minlash, turli xildagi subyektiv emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshirish, adresantning individual uslubi xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladigan hosilalar tushuniladi. Diskursiv markerlar matnda harakatchanlik bo‘yog‘ini berish bilan birga ifodalanayotgan matn va diskursning o‘tgan qismi orasidagi munosabatlar haqida xabar beradi (ya’ni, matn aloqadorligini ta’minlaydi) hamda kommunikatsiya paytida so‘zlovchi va adresatning o‘zaro munosabatini, so‘zlovchi ichki (ruhiy) holatini ta’sirchan shaklda aks ettiradi.

Xorij tilshunoslari diskursiv markerlar sirasiga yuklamalar, bog‘lovchilar, modal so‘zlar, undovlar, ravishlar kabi ko‘plab morfologik-sintaktik birliklarni kiritishadi. Yuqorida eslatib o‘tilgan sabablarga ko‘ra, bunday birliklarning soni tez ko‘payib boryotganligi ularning o‘rganilishiga bag‘ishlanib ko‘plab ishlarning yuzaga keltirgan. [5.4] Bu ishlarda diskursiv markerlarning ko‘rinishlari, so‘z turkumlariga mansubligi, shakllanish va rivojlanish yo‘llari haqida ham bahs boradi.

Diskursiv markerlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ta’sir doirasi, odatda, gap yoki mikromatn chegarasidan chiqadi, katta kontekstlar bilan hatto metamatn – matndan tashqarida turgan holatu vaziyatlar, so‘zlovchining zotiy (ontologik) xislatlari, ruhiy holati, ijtimoiy mavqei, madaniy saviyasi, bayon etilayotgan fikr va muloqot jarayoniga munosabati, muloqot jarayonining boshqa turdagi xilma-xil tarkibiy qismlarining xususiyatlari bilan ham aloqador bo‘loladi. Diskursiv markerlarni rus tilida [6.3] va ingliz tilida [7. 643]qo‘llanilishi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar bunday birliklarning matnni va diskurs (muloqot

jarayonini) shakllantirish kabi struktur vazifa bilan birga har xil emotsional-ekspressiv ta’sirchanlik xususiyatlariga, so‘zlovchi ontologik xislatlari va muloqot jarayonidagi ruhiy holatini aks ettirish qobiliyatiga ega ekanligini alohida uqtirishadi.

O‘zbek tilida ham nutq jarayonida faol ishtirok etib, turli-tuman pragmatik vazifalar - eng avvalo, matnni jonlantirish va butunlashtirish, har xil konnotativ ma’nolar ifodalashga xizmat qiladigan nutqiy hosilalar (so‘z, so‘z birikmalari, gap qurilishi) juda ko‘p. Ularning qaysi so‘z turkumi (modal so‘zlarmi yoki undovlarmi, yuklamalarmi yoki bog‘lovchilarmi) tarkibiga kiritish har xil munozaralarga sabab bo‘ladi, zeroki, ular bir xususiyati bilan modal so‘zlarga o‘xshasa, boshqa qirrasi bilan undovlarga yaqinlashadi. Biz shunday so‘zlarni **«diskursiv yuklamalar»** atamasi ostida birlashtirdik. Bizningcha, o‘zbek tilidagi diskursiv yuklamalar sirasiga quyidagi hosilalarni kiritishimiz mumkin: ***bale, bu, zab, hali, labbay, mayli, mana, ana, tuzuk, e, qani endi, qani, ishqilib, aytmoqchi, nega desang, baribir, o‘lgur, qurgur, qurmagur, tushgur, tushmagur, bo‘lgani bo‘ldi, aytgin-aytgin, boringki, qo‘yingki, kel, kelib-kelib, deyman, bu deyman, degin, shunday deng, yaxshisi, kimsan, bilasizmi, bormi, shunday, endi, savil, ha, bo‘pti, xo‘sh, xudo xohlasa, aytmaysizmi*** kabilar. Bu qatorni yana uzoq davom ettirish mumkin. Bu so‘zlar, yuqorida aytib o‘tganimizdek, olmosh, modal, undov, yuklamalar tarkibiga yoki so‘z turkumlari tizimida ajratilishi mutlaqo asossiz bo‘lgan kiritmalar sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. O‘qituvchi. Toshkent, 1995. B. 55.
2. A.Nurmonov. Tanlangan asarlar. III jild, Andijon, 1992 yil 46-b.
3. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi.-Toshkent, 2008. 63-b.
4. Hamidov Z. G‘afur G‘ulom prozasi leksikasi.− 47-b.
5. Баранов А.Н., Плугян В.А., Рахилина Е.В. Путеводитель по дискурсивным словам русского языка. - М.,1993; Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998. 4−б.
6. Дискурсивные слова русского языка: опыт контекстно-семантического описания / Ред. К.Л.Киселёва, Д.Пайар. – М., 1998. 3−б.
7. Трауготт Э.С. Конструстионс ин грамматисализатион // Тҳе ҳандбоок оф ҳисторисал лингустисс / эд. Бй Б.Д. Жозепҳ, Р.Д.Жанда. Оҳфорд: Бласкwелл, 2003. п.643.

O‘ZBEK TILIDAGI FORS-TOJIKCHA O‘ZLASHMALARDA FONETIK MUVOFIQLASHUV

Alimova Zarifaxon,
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilning lug‘at boyligi, bir tildan ikkinchi tilga leksik birliklarning o‘tishi, o‘zbek tilidagi o‘zlashmalarda uchrab turadigan fonetik hodisalar, nutqdagi tovushlarning kombinator va pozitsion holatga ko‘ra o‘zgarishi, forscha-tojikcha o‘zlashmalarda vokalizmlar o‘zgarishlari haqida so‘z boradi.

Аннотация: В данной статье речь идёт о словарном запасе языка, о прохождении лексических единиц от одного языка к другому, фонетических явлениях, встречающихся в заимствованных словах узбекского языка, об изменении звуков в речи в зависимости от комбинаторного и позиционного состояния, об изменении вокализма персидско-таджикских заимствований в узбекском языке.

Annotation: This article discusses language vocabulary, lexical richness of a language, the transition of lexical units from one language into another, the phonetic phenomena that occur in the borrowings of Uzbek language, the combinatorial and positional changes of sounds in speech and changes in vocalisms in Persian-Tajik dialects.

Kalit so‘zlar: tilning lug‘at boyligi, leksik birliklar, o‘zlashmalar, fonetik hodisalar, tovush, vokalizm.

Ключевые слова: словарный запас языка, лексические единицы, заимствованные слова, фонетические явления, звук, вокализм.

Key words: lexical richness of a language, lexical units, borrowings, phonetic phenomena, sound, vocalism.

Fonemaning turli ko‘rinishlari real talaffuz etiladigan turli tovushlar kabi fonema orqali ifoda etiladigan alohida hodisadir. Aynan L.V. Shcherba o‘zidan avval o‘tgan tadqiqotchilarning izlanishlarini

umumlashtirib, fonema deb atalgan lisoniy hodisa haqidagi bilimlarni tartibga soldi va fonema tahlili bo‘yicha asoschi bo‘ldi [3;14].

N.A.Muhamedovaning qayd etishicha, fonema morfemalar va so‘zlarni farqlash uchun ishlatiladigan tovush tizimining eng kichik birligidir. Taqqoslang: fors tilida ***bod*** “*shamol”* va ***bad*** *“yomon*”, ***pul*** “*pul”* va ***po‘l*** “*ko‘prik”, **sang*** *“tosh” va* ***tang*** *“tor”* [7; 3]. .

A.M.Sherbakning “Sravnitelnaya fonetika tyurkskix yazikov” [11; 204]. nomli ilmiy monografiyasi turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy fonetikasi va morfologiyasini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

N.Mahmudovning ta’kidlashicha, boshqa tildan so‘z olganda, albatta, muayyan me’yor saqlanishi shart, shubhasizki, bu me’yor tilning yaxlit so‘z zaxirasini mehvaridan chiqarib yubormaslik uchun xizmat qiladi. Shuni ham alohida ta’kidlamoq joizki, boshqa tildan me’yorni saqlagan holda olinadigan so‘z oluvchi tilning fonetik qonuniyatlariga moslashtirilishi maqsadga muvofiq [6; 4].

O‘zbek adabiy tilining dastlabki davrlarida unli tovushlarning batafsil tavsifi, unlilar sistemasi, ularning fonetik variantlari haqidagi muhim ma’lumotlarni Alisher Navoiyning “Muhokamatul- lug‘atayn” asarida uchratish mumkin. XVI asrda Husayn Boyqaro buyrug‘i bilan Tole’ Hiraviy tomonidan, asosan, forsiy tilda yozilgan “Badoeul-lug‘at”, Mirza Mahdiyxonning “Maboinul-lug‘at” grammatikasi va “Sangloh” lug‘ati, Fathali Kojariyning “Lug‘ati atrokiya”, usmonli turk tilida XV asrda yozilgan “Abushqa” lug‘ati, Shayx Sulaymonning “Lug‘ati chig‘atoiy va turkiy usmoniy” asarlaridagi eski o‘zbek tili so‘zlarining talaffuz xususiyatlari haqida berilgan izohlardan ham o‘zbek tili tarixiy fonetikasi bo‘yicha muhim ma’lumotlarni olish mumkin.

Eski o‘zbek tili haqida gapirganimizda, undagi qat’iy qoidani ta’kidlash joiz: arabcha va forscha so‘zlar manba tili yozuvida qanday yozilsa, turkiy matnlarda ham shunday yozilgan.

Nutqdagi turli omillar natijasida tovushlar bir-biriga ta’sir qiladi. Talaffuzda yengillik va soddalikka intilish, nutq tovushlarining o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar fonetik hodisalar deyiladi.

Tilda nutq tovushlarining o‘zgarishi deyarli ikki holatda sodir bo‘ladi:

1**)** pozitsion holatga ko‘ra; 2) kombinator holatga ko‘ra.

Pozitsion holatga ko‘ra tovush o‘zgarishi nutq tovushining so‘zdagi o‘rnashishiga ko‘ra o‘zgarishidir. O‘zbek tilidagi so‘z o‘zaklari undosh+unli+undosh ko‘rinishida bo‘ladi. Ya’ni so‘z markazida unli bo‘lgani holda anlautda ham, auslautda ham bir undosh joylashadi. Ba’zan o‘zak oxirida qo‘sh undosh kelib qolishi kuzatiladi: *ort, tort, qirq, ayt, qayt, sinch* kabi.

Nutqdagi tovushlarning kombinator holatga ko‘ra o‘zgarishi so‘zdagi biror tovush ta’sirida boshqa tovushning o‘zgarishidir. N.Uluqovning ta’kidlashicha, nutqda tovushlarning kombinator o‘zgarishlariga *akkomodatsiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, diereza, epenteza, gaplologiya, proteza, metateza* kabi fonetik hodisalar kiradi [10; 85].

Tovushlar talaffuzi orqali kishilar o‘rtasida kommunikativ aloqa o‘rnatiladi. “Ma’lum tovush yoki tovushlar kompleksida ma’no yoki maqsadning ifoda topishi lug‘aviy birlik, leksika hisoblanadi. Shu leksikaning ma’lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikatsiyaga kirishuvi nutq, ya’ni tildir. Bu o‘rinda tilning uch bosqichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai - tovushlar; shu material manbaini so‘z vositasida tashishi – leksika, lug‘at; o‘sha leksikaning kishilar muloqoti uchun o‘zaro kommunikativ aloqada bo‘lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir”[6; 5].

A.K.Borovkovning tilshunoslikka qo‘shgan munosib hissasi shundaki, u o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro munosabati, o‘zbek shevalarining tavsifi, o‘zbek dialektlari fonetikasiga oid ma’lumotlar keltirgan [2;165]. F.Abdullayev ham o‘zbek tili fonetikasi, dialektikasi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borib, o‘zbek shevalarida nutq tovushlari, ularning o‘zgarishlari hamda urg‘u borasida to‘xtalib o‘tgan [1; 65].

Forscha-tojikcha so‘zlar o‘zbek tiliga o‘zlashib, singib ketganini ko‘rsatuvchi muhim belgilardan biri bu tillardagi so‘zlarning shaklan yaqin va o‘xshashligidir. Tojikcha o‘zlashmalarning bir qatori o‘zbek adabiy tilining orfoepik va orfografik normalariga bo‘ysundirilgan. Masalan, e > i: *gelos >gilos, daler>dalir, pareshon> parishon* kabi [12;110]. H.Ne’matovning qayd etishicha, ko‘pgina forscha so‘zlarda *ū* o‘rta keng unlisi *e* ga o‘tadi: *būxabar> bexabar, būg‘am >beg‘am, mūva> meva, nūk> nek, shūr> sher, andūsha >andesha, darvūsh> darvesh* va hokazo [8; 29].

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarning ba’zilarida yuz bergan fonetik muvofiqlashuv ularning orfoepiyasida o‘z aksini topadi. Quyida o‘zlashmalarning tovush o‘zgarishlari haqida so‘z boradi. Xususan, unli tovush o‘zgarishlarini quyidagi chizma ko‘rinishida ifodalash mumkin:



Chizmaning chap tomonidagi harflar fors-tojik so‘zlaridagi unli tovushlar bo‘lib, ular ishtirokida kelgan ayrim leksemalar o‘zbek tiliga o‘zlashganda chizmaning o‘ng tomonidagi tovushlarga almashingan. Ularni quyidagi ketma-ketlikda tahlil qilish mumkin:

a) А → О (*a* ning *o* ga almashinishi):

S.Zokirovaning ta’kidlashicha, ikki tilning unli hamda undosh tovushlar tizimi chog‘ishtirilganda, tovushlarning miqdori, ularning akustik, artikulyatsion xususiyatlari, nutq tovushlarining farqliligi tadqiq etiladi [4;36].

Ombor (**انبار** *oziq-ovqat, asbob-anjom saqlanadigan bino*) leksemasi fors-tojik tilida ***anbor*** shaklida yoziladi, lekin ***ambor*** tarzida o‘qiladi. Bunday o‘zlashmalarni o‘zbek tilida ko‘plab uchratish mumkin. M.Mirtojiyevning ta’kidlashicha, so‘zdagi assimilyatsiyalovchi tovush assimilyatsiyalanuvchi tovushni faqat artikulyatsiya o‘rniga ko‘ra bir xil qilib oladi. Masalan: *sunbul >sumbul, tanbal>tambal* va hokazo [6; 290]. Shuningdek, *shanba>shamba, dunba>dumba, anbur>ombur* leksemalari ham bunga misol bo‘ladi. O‘zbek tiliga o‘zlashgan ***ombor*** leksemasi ham mazkur qoidaga asoslangan holda lug‘at tarkibidan joy olgan.

Xirmon (**خرمن** *hosil yig‘iladigan joy*) leksemasi orqali yetilgan hosilni yig‘ib to‘planadigan joy tushuniladi. Quyidagi misolda *xirmon* so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan: *Ishq - yashindir, aqlu din* ***xirmon****ini kuydiradi, u bo‘rondir, kuyganlarning kulini ko‘kka sovuradi* (T.Malik, Odamiylik mulki). Farhangi tafsisrii zaboni tojiki (FTZT)da ushbu leksema *xirman*, fors tilida *xarman* va *xerman* tarzida uchraydi. Ushbu leksemaning tojikcha shaklidagi *a* tovushi *o(ā)* tovushiga almashtirib olingan [9; 239]. O‘zbek tilida *a* tovushining *o* tovushiga o‘zgarishiga quyidagilarni ham misol qilish mumkin: ***shabdar >shabdor*** *- yo‘ng‘ichqaning bir turi*, ***shalg‘am>sholg‘om***.

b) А → I (*a* ning *i* ga almashinishi):

Dushoxi (**دوشاخه** *ikki shoxli, yog‘och panshaxa*) leksemasi orqali “*milliy naqsh turlaridan biri”* ma’nosi anglashiladi. Fors-tojik tilida *dushoxa* shaklida yoziladigan ushbu leksemaning “*ikki shoxli; yog‘och panshaxa”* kabi ma’nolari mavjud, lekin “*milliy naqsh turlari”* ma’nosi keltirilmagan. FTZTda ham ushbu ma’nolar bilan birga “*daraxtning ikki tarafga o‘sgan shoxi”* ma’nosi keltirilgan, lekin naqsh turi haqidagi ma’no uchramaydi.

Shingarf (**شنگرف**) leksemasi “*qizil rangli mineral”, “oltingugurtli simob”* kabi ma’nolarni ifodalaydi. Mazkur leksema fors tilida ***shangarf*** tarzida uchraydi hamda “*kinovar’” (qizil rangli mineral, simob rudasi; shu mineraldan tayyorlangan qizil bo‘yoq*) ma’nosini ifodalaydi. FTZTda ham ***shangarf*** shaklida ifodalanadi. Ushbu leksemaning birinchi bo‘g‘inidagi *a* tovushi o‘zbek tiliga *i* tovushiga o‘zgargan holda o‘zlashgan.

v) А → U (*a* ning *u* ga almashinishi):

O‘zbek tilidagi tojikcha so‘zlarni o‘z qatlamdan, shuningdek, o‘zlashma qatlamning boshqa tillarga xos so‘zlaridan ajrata olish ma’lum lingvistik tayyorgarlikni, ilmiy malakani talab qiladi. Buning uchun fors-tojik tiliga xos so‘zlarning o‘ziga xos fonetik va grammatik belgilarini bilish alohida ahamiyatga ega.

Buromad **(** **برامد** *chiqish, xarajat, chiqim*) leksemasi *chiqim, sarf-xarajat* kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ushbu leksema fors-tojik tilida ***baromad*** shaklida ifodalanadi. *Baromad* leksemasi *bar omadan – chiqmoq* fe’lidan hosil bo‘lgan o‘tgan zamon asosidir:

Daromadga qarab ***buromad***. ***Buromad*** *bo‘lmasa, daromad bo‘lmas* (Maqol).

Suvora **(سواره** *otliq, ot-ulovga mingan holda*) leksemasi fors-tojik tilida *savora* (PRS. II.64) shaklida ifodalanib, o‘zbek tiliga *suvora* tarzida o‘zlashgan (5.III.579). Ushbu leksema *savor sho‘dan – (otga) minmoq* fe’lidan olingan bo‘lib, undan *savora – “otliq”* leksemasi hosil bo‘lgan.

g) О→А (*o* ning *a* ga almashinishi):

O‘zlashmalar ichida *o* tovushining *a* tovushiga o‘zgarishiga misollar ko‘p uchraydi. Jumladan, ***karvon*** (**کاروان** *tuya va boshqa yuk tashuvchi hayvonlar qatori*) leksemasi bunga misol bo‘ladi va quyidigi ma’nolarni ifodalaydi: 1.*Uzoq joylarga yuk va odam tashuvchi, izma-iz boruvchi hayvonlar, aravalar va ularni boshqaruvchi shaxslar to‘dasi, qatori.* 2.*Savdogarlar karvoni*. 3.*Tuyalar karvoni* (5.II.320). Mazkur o‘zlashma tojik tilida *korvon*, fors tilida *korvon, korevon* tarzida uchraydi. Ushbu o‘zlashmaning birinchi

bo‘g‘inidagi *o* tovushi *a* tovushiga almashgan: *Ittifoqo, biyobonda qimmatbaho mollar ortilgan bir* ***karvon*** *Misr sari ketib borardi* (T.Malik, Odamiylik mulki).

Zo‘ravon (**زورآور** *botir, polvon*) leksemasi fors-tojik tilidagi ***zurovar*** leksemasining o‘zbek tiliga o‘zlashgan shaklidir: *Kitobxon mehrini* ***zo‘ravonlik*** *bilan ham, yalinib ham, pul berib ham sotib olib bo‘lmaydi* (O‘.Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar).

Mazkur o‘zlashma ***zur*** *“kuch”*, “*zo‘rlik”* va *ovardan (keltirmoq)* fe’lining hozirgi zamon asosi ***ovar*** qismidan hosil bo‘lib, *“zo‘rlik keltiruvchi”* degan ma’noni ifodalaydi. O‘zbek tilida ***zo‘ravon*** leksemasining “*jismonan baquvvat”,“botir”; “zolim”, “zulm o‘tkazuvchi hukmdor”* kabi ma’nolari keltiriladi. Fors-tojik tilida shunday leksemalar borki, ular o‘zbek tiliga o‘zlashganda bir emas, bir necha fonetik o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. *Zurovar* leksemasining *-ovar* qismi o‘zbek tiliga *-avon* tarzida o‘zlashgani ham fikrimizning dalilidir. Vaholanki, *-avon* o‘zbek tilida hech qanday tarjimaga ega emas.

d) O→I (*o* ning *i* ga almashinishi):

Badkir (**بدکار** *yomon amalli*) leksemasi orqali o‘zbek tilida *yomon, razil ishlar qiluvchi* degan ma’no anglashiladi. Ushbu o‘zlashma fors-tojik tilida ***badkor*** tarzida uchraydi:

Baxtsizlikka uchragan odamga yetti yot begona xiyonat qilmaydi...Bu ***badkir****dorliklar yaqin kishilardan chiqadi* (T.Malik, Odamiylik mulki, 192-bet).

e) U → I (*u* ning *i* ga almashinishi):

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *u* tovushining *i* tovushiga almashinishiga misollar ko‘p uchraydi: *angushtvona, angushtpona> angishvona, bunafsha >binafsha, doru> dori, doruxona> dorixona, tarozu> tarozi* va boshqalar.

Dori (**دارو** - *dori-darmon, malham*) leksemasi fors-tojik tilida ***doru*** ko‘rinishida uchraydi: *R.B.S.Bodli o‘zining “Sahroi Kabir shamoli” nomli kitobidagi “Allohning jannatida yashadim” degan maqolasida ... mana shu e’tiqodga amal qilib, umr bo‘yi baxtli yashab kelayotgani, undagi bu iymon barcha* ***dori****-darmonlardan yaxshi ekanini yozgan ekan* (Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mukammal saodat yo‘li).

Tarozi (**ترازو** *vazn o‘lchash asbobi*) leksemasi fors-tojik tilida ***tarozu*** tarzida uchraydi. O‘zbek tilida so‘z oxiridagi *u* tovushi *i* tovushiga almashgan: *Mo‘min-musulmon kishi qiyomat kuni* ***tarozi*** *bo‘lishiga va unda har bir odamning bu dunyoda qilgan amallari o‘ta aniqlik bilan tortilishiga jazm ila e’tiqod qilmog‘i lozim* (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Mukammal saodat yo‘li).

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, o‘zbek tilining besh tomli izohli lug‘atida fors-tojik tilidan o‘zlashgan leksemalar ko‘p uchraydi. Ular tilimizga shunday o‘zlashganki, ularning o‘zga tildan kirib kelgani deyarli sezilmaydi. Chunki bunday o‘zlashmalar o‘zbeklarga xuddi o‘z so‘zlaridek singigan. Fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan qiyoslanganda, tovushlarning miqdori, ularning akustik va artikulyatsion xususiyatlarini aniqlash imkoni bo‘ladi. Fors-tojik tilidan o‘tgan o‘zlashmalarning ba’zilarida yuz bergan fonetik muvofiqlashuv ularning orfoepiyasida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев Ф. А. Фонетика. – Тошкент: Фан, 1967.
2. Боровков А.К.Таджикско-узбекское двуязычие и вопрос о взаимовлиянии таджикского и узбекского языков // Учен. зап. института востоковедения. – № IV. – Москва, 1952.
3. Джуманова Д. Сўзнинг тил алоқа жараёнидаги фонологик модели. Ф.ф.д. дисс... автореф. – Тошкент, 2016.
4. Зокирова С. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни. Ф. ф.ф. д. (PhD) диссертацияси.-Фарғона, 2017.
5. Маҳмудов Н. Ўзбек тилида ўзлашма сўзлар: меъёр ва миллийлик // Ўзбек тили ва адабиёти.-Тошкент, 2010.-№ 6.-Б. 4.
6. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси.-Тошкент: Фан, 2013.
7. Мухамедова Н.А. Теоретическая грамматика персидского языка. –Ташкент, 1994.
8. Неъматов Н. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.-Тошкент: Ўқитувчи,1992.
9. Раҳматуллаев Ш.Ўзбек тилининг этимологик луғати. III жилд. -Тошкент: Университет, 2009.
10. Uluqov N. Tilshunoslik nazariyasi. –Toshkent: Barkamol fayz mediya, 2016.
11. Щербак А.М. Сравнительная фонетика тюркских языков. – Ленинград: Наука, Ленинградское отделение, 1970.
12. Ўзбек тили лексикологияси. –Тошкент: Фан, 1981.

NUROTA ETNOTOPONIMLARINING LISONIY TAHLILI

Oripov O‘ralboy, NavDPI,
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Asoslov: Nurota qadimiy joy nomi bo‘lgani uchun nafaqat uning etnonim va etnotoponimlarini, balki oykonimlarini, oronimlarini, gidronimlarini, qolaversa, xalqning tarixiy an’analarini hamda urf-odatlarini izchil o‘rganish, har bir milliy qadriyatlarimizni, bebaho boyligimiz hisoblanmish ma’naviy merosimizni har tomonlama tahlil va tadbiq qilish bugungi kunda oldimizda turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.
Kalit so‘zlar: Toponimiya, toponimika, toponimlar, lug‘aviy ma’no, etnonim, etnotoponimlar hamda etnotoponimlarning morfologik tarkibi va hosil bo‘lish yo‘llari.

Etnik nomlar – etnonimlarga urug‘, qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar “Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar”,-ya’ni “Etnotoponimlar” deb yuritilmoqda.

Nurota tumani hududidagi etnotoponimlarni tahlil qilishdan oldin bitta masalaga, ya’ni etnonimlarning atoqli ot sistemasiga munosabati muammosiga qisqacha to‘xtab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Chunki biz o‘z ishimizda etnonimlarni atoqli otlar guruhida talqin qilmoqdamiz, ammo bu masalada nomshunoslikda turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar etnonimlarni atoqli ot deb hisoblashadi. Chunonchi V.A. Nikonovning yozishicha, etnonimlarning atoqli ot ekani yoki atoqli ot emasligini hal qilish ushbu nomlar haqidagi nazariyaga yetarli ravishda aniqlik kiritish bilan bog‘liqdir[48]. A.V. Superanskaya etnonimlarni “Onomastika doirasiga kirmaydigan lug‘aviy birliklar kategoriyasiga mansub”, — deb biladi[49]. Ushbu masala o‘zbek nomshunosligida ham hal etilmagan.

O‘zbekcha matnlarda etnonimlarning goh bosh, goh kichik harflar bilan yozilayotganligi ham bu masalada ikkilanish mavjudligidan darak beradi. Umuman, ushbu muammo alohida tekshirishlarni talab qiladi. Ammo bitta masala aniqki, etnonimlar toponegizlar orasida yetakchi o‘rin egallaydi.

Turkiy, jumladan, o‘zbek etnonimlari to‘g‘risida tarixchilar, etnograflarning asarlarida juda ko‘p ma’lumotlar mavjud. O‘zbek etnonimiyasini tadqiq qilish ishiga keyingi yillarda X.D.Doniyorov[50] va S.S.Gubayevalar[51] katta hissa qo‘shdi.

Professor T.Nafasov Qashqadaryo viloyati hududidan 400 ta etnotoponimlarni to‘plaganini[52], T.Rahmatov Samarqand va uning atroflari hududida 200ga yaqin etnotoponimlar mavjudligini yozishgan edi[53]. S.Qorayev O‘zbekiston hududidagi aholi istiqomat qiluvchi joy nomlarining 10/30 foizi etnotoponim ekanini aytgan[54]. S.S.Gubayevaning fikricha esa, Farg‘ona vodiysida bu miqdor ba’zi joylarda 30-50 foizgacha, ayrim hududlarda esa 10-11 foizni tashkil qiladi[55].

O‘zbek toponimikasida etnotoponimlar maxsus tadqiq qilingan ishlar ham yuzaga keldi. Biz bu o‘rinda A.Otajonovaning Xorazm etnotoponimlariga, A.Turobovning Samarqand viloyati etnooykonimlariga bag‘ishlangan ishlarini ko‘zda tutmoqdamiz. Har ikkala tadqiqotda o‘rganilayotgan hudud toponimiyasidagi etnonimik negizlar asosida yasalgan nomlar atroflicha tahlil qilingan.

O‘zbekistonning turli hududlarga mansub etnonimlar tahlili shuni ko‘rsatganki, toponimlarning bu tipi yuzaga kelishiga ko‘ra ikki belgisi bilan ajralib turadi:

1. Etnonimlar ko‘proq aholi istiqomat qiluvchi hududlarda uchraydi.

2. Etnotoponim ko‘chmanchi aholi yashagan yoki ularning avlodlari yashayotgan joylarda uchraydi.

Biz Nurota tumani hududidan to‘plagan etnonimlarning miqdori 300 dan ortiq bo‘lib, shundan etnotoponimlar miqdori 40 ga yaqin.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga ko‘ra (toponegiziga) ikkiga bo‘lish mumkin:

1) Negizida xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar: Arab (q.), Qozoqovul, Turkmanlar (q), Turkmanariq, Qoraqalpoq, Burqut(q) kabi.

---

[48] Nikonov V.A. Etnonimiya // Etnonimы. – Moskva: Nauka, 1970. 5-bet.
[49] Superanskapya A.V. Obshaya teoriya imeni sobstvennogo. – M.: Nauka, 1973. 205-bet.
[50] Doniyorov X.A. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
[51] Nafasov T. Toponimы Qashkadarinskoy oblasti. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. -11-bet.
[52] Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Moskva, 1973. 21-bet.
[53] Qorayev S. Opыt izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. 8-bet.

2) Negizida urug‘, qabila va ularning mayda shaxobchalari nomi yotgan etnotoponimlar: Baroq (qq), Oltibek (qq), Qunush (qq), Sirtsiluv (qq), Qovchin (qq), Qiyot (qq), Bolg‘ali (qq.), Bahrinto‘p (qq.), Qo‘shtamg‘ali (qq.), Jilontamg‘ali (qq), Anna (qq), Targ‘ul (qq), Kerayit arig‘i kabi.

Toponimning etnotoponim ekanini, ya’ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba’zan qiyinchilik tug‘diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba’zi ko‘rsatkichlarga e’tibor berish lozim bo‘ladi. Odatda tarkibida quyidagi belgilar uchrasa, toponim etnonimdan yasalgan bo‘ladi.

1) Nom tarkibida to‘p (to‘b), to‘pi (to‘bi) so‘zlari uchraydi. Bu so‘zlar aslida etnonimik indikatorlardir. X.Doniyorov shodmonto‘pi, shodito‘pi, yashig‘to‘pi, qozoqto‘pi kabi etnonimlarni qayd etgan[56]. S.Gubayeva tarkibida to‘p, to‘plar so‘zlari mavjud nomlar etnotoponim degan xulosaga kelgan va Kaltato‘pi, Xolmonto‘p, Eshboyto‘p, Urto‘p, Taqchito‘p, Shayitto‘p kabi nomlarni dalil sifatida keltirgan edi[57]. Nurota toponimiyasida ham tarkibida ushbu komponent bor bo‘lgan toponimlar mavjud: Bahrinto‘p (qq.), Erganakto‘p (qq.), Eshonto‘p (qq.), Xon to‘p(ko‘cha), Usta to‘p (ko‘cha), Boy to‘p (ko‘cha), Qashqa to‘p (ko‘cha), Qari to‘p (ko‘cha), Toyto‘bi (ko‘cha) , Oqto‘bi (qir) , Toyto‘bi (soy) kabi.

2) Oxirida -li, -di, -ti (lahjaviy) qo‘shimchalari mavjud ba’zi toponimlar etnotoponimlardir: Jilontamg‘ali, Kovushli, Taroqli, Qo‘shtamg‘ali, Qoziyoqli, Bolg‘ali, Tug‘ali, Keshtali (Kashtali), Cho‘michli, Choriqli, Qaychili, Chiroqli, Ilonli, Sarkali, Junli kal, Jezli, Qunuli, Chelakli, Tikonli, Chillikli, Bugajili, Qang‘li, So‘fiali, Toshkandi va b.

3) Oxirida -chi qo‘shimchasi mavjud ba’zi nomlar etnotoponimlardir: Polvonchi (qq.), Tuyachi, Tuyachitepa, Cho‘pchi (qq.), Korizchi, Taqchi, Ko‘nchi, Dukchilar, Qaroqchilar, Halvochilar, Qaroi cho‘michi, Otko‘chimlar, Tokchilar kabi.

4) Tarkibida -lar qo‘shimchasi kelgan nomlar etnotoponimlardir. X.Doniyorov beklar, boylar, yortilar, kallalar, parchalar, xo‘jalar, qirqlar, qoralar, qullar kabi etnonimlar borligini qayd etgan[58]. S.Gubayeva -lar affiksli Pillakashlar, Arablar, Xastalar tipli nomlarni etnotoponim deb hisoblaydi[59]. S.Qorayev fikricha esa, -lar, -on, -obod so‘zli nomlar etnotoponimlarga kiradi[60]. Nurota toponimiyasida -lar qo‘shimchasini olgan quyidagi nomlar mavjud: Minglar, Cho‘rilar, Ko‘salar, Zarkokillar, Gadoylar, Ulug‘lar, Garruklar, Arablar (aq.), Kulollar, Qirg‘izlar, Bahrinlar, Oq boshlar, Sorilar , Halollar, Tagallar , Cho‘pkadilar, Sayyidlar, Po‘pishlar, Devbandlar, Ko‘ppaklar, Koleganlar, Mashrablar va b.

5) Tarkibida -on, -yon, -giyon qo‘shimchalari mavjud nomlar etnotoponimlar hisoblanadi. Ko‘plik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affikslar o‘zbekcha -lar qo‘shimchasiga to‘g‘ri keladi. Ushbu qo‘shimchalar O‘zbekiston hududidagi tojikcha toponimlar tarkibida uchraydi. Chunonchi, Nurota hududida Tabar ba kifton, Hojigiyon, Qirmigiyon, Baxmalliyon, Eshboygiyon, Ajinagiyon, Narzigiyon, Pistakiyon, Ko‘ragiyon etnotoponimlari uchraydi.

6) Oxiri -i qo‘shimchasi bilan tugovchi ba’zi nomlarni ham etnotoponimlarga kiritish mumkin: Ajinabegi, Qoraxoni kabi. Ushbu model Nurota toponimiyasida siyrak uchraydi.

Etnotoponimlarning ma’nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba’zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma’no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma’no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo‘shilish qiyin. Aslida etnotoponimlarning ma’nosi soddadir, ya’ni har qanday etnotoponim o‘zi mansub bo‘lgan hududda o‘tmishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Nurota qadimiy joy nomi bo‘lgani uchun nafaqat uning etnonim va etnotoponimlarini, balki oykonimlarini, oronimlarini, gidronimlarini, qolaversa, xalqning tarixiy an’analarini hamda urf-odatlarini izchil o‘rganish bugunning talabidir. Yuqoridagilardan kelib chiqib, toponimlarning Nurota hududi bilan bog‘liq nomlarini va jonajon xalqimizning tarixiy ildizlarini, milliy qadriyatlarini hamda betakror va jahonga mashhur bo‘lgan an’analarini o‘rganish, ularni har tomonlama tahlil qilish galdagi vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Doniyorov X.A. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968.
2. Nikonov V.A. Etnonimiya // Etnonimы. – Moskva: Nauka, 1970. 5-bet.
3. Nafasov T. Toponimы Qashkadarinskoy oblasti. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1968. -11-bet.

[56] Doniyorov X.A. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968-63-bet.

[58] Doniyorov X.A. O‘zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968- 82-bet.

[59] Qorayev S. Opыt izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. - 23-bet.

4. Raxmatov T. Toponimiya goroda Samarkanda i yego okrestnostey. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Moskva, 1973. 21-bet.
5. Qorayev S. Орыт izucheniya toponimii Uzbekistana. - Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. - Tashkent, 1969. 8-bet.
6. Shavkat Ismoilzoda, Rustam Axmedov. Shayx Abul Hasan Nuriy. Nurota. –Toshkent.: Tamaddun. 2013. 9-bet.

BUXORO O‘G‘UZ SHEVALARIDA EGALIK VA KO‘PLIK KATEGORIYASI

Allaberdiyev Alijon,
NavDPI dotsenti, PhD, O‘zbekiston

Annotatsiya: *Maqolada Buxoro o‘g‘uz shevalarida egalik va ko‘plik kategoriyasining qo‘llanishi va ularda morfologik xususiyatlari ifodalanishi va shevaga o‘zbek adabiy tilining ta’siri va so‘z tarkida da kelish o‘rinlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *birlik, ko‘plik, shaxs, affiks, uslubiy vazifa, singormanizm, kategoriya, morfologik ko‘rsatkich.*

Аннотация: *В статье изучено употребление притяжательных и множественных категорий в огузских диалектах Бухары, их морфологические особенности и влияние узбекского литературного языка на огузских диалектах.*

Ключевые слова: *единственное, множественное число, лицо, аффикс, стилистическая задача, сингармонизм, категория, морфологический показатель.*

Abstract: *In the article, the use of the possessive and plural categories in the Oghuz dialects of Bukhara, their morphological features, the influence of the Uzbek literary language, and the places of occurrence in words were studied.*

Key words: *singular, plural, person, affix, stylistic task, singormanism, category, morphological index.*

O‘zbek adabiy tilida ot so‘z turkumlari ichida xilma-xilligi, shevalarda turli tillardan o‘zlashgan leksik birlik va morfologik ko‘rsatgich ko‘p qismini tashkil etishini qayd etish lozim. Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham egalik va ko‘plik kategoriyasi qo‘llanishida adabiy va boshqa o‘zbek shevalaridan ba’zi o‘rinlarda farqlanish va umumiylik kuzatiladi. Ayniqsa, bunda singormanizmning o‘rni ham ajralib turadi.

Egalik kategoriyasi. Egalik kategoriyasini hosil qiluvchi shakllar o‘zining singormanistik ko‘rinishini inobatga olinmasa, shakl va ifoda xususiyatiga ko‘ra adabiy til meyoridan butunlay farq qilmaydi. Egalik kategoriyasining I va II shaxs so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida bo‘lsa, III shaxs muloqotdan tashqari holatni ifodalaydi.

Egalik qo‘shimchasi Buxoro o‘g‘uz shevalarida qo‘yidagicha ko‘rinishlar bilan uchraydi:

Unlilar bilan tugagan so‘zlarda

Shaxs	*Birlik*	*Ko‘plik*
I	-m	-mız, -mïz
II	-ŋ	-ŋız, -ŋïz, -lərıŋ, -larïŋ
III	-sı, -sï, -yı, -yï	-ı, -ï

Undoshlar bilan tugagan so‘zlarda

Shaxs	*Birlik*	*Ko‘plik*
I	-ım, -ïm	-ımız, -ïmïz
II	-ıŋ, -ïŋ	-ıŋız, -ïŋïz, -lərıŋ, -larïŋ
III	-ı, -ï	-ı, -ï

Buxoro o‘g‘uz shevalarida ot so‘z turkumiga tegishli egalik kategoriyasining ifodalanishi shu turkumdagi boshqa birliklardan asosiy farqi qo‘shimchalar unli yoki undosh bilan yakunlashiga qarab qo‘shimchalar qo‘shilishi muhim vazifa belgilaydi.

1. “Egalik affikslari I va II shaxslarda narsaning qaysi shaxsga mansub ekanligini aniq ko‘rsatib turadi. Shu sababli qaratuvchi vazifasidagi kishilik olmoshini keltirish talab qilinmaydi”.[61] I shaxs birlik va ko‘plik ko‘rinishi *-m, -ım, -ïm, -mız, -mïz, -ımız, -ïmïz* shakllari qo‘llanadi: *şışəm* (shisham), *tɔğaram*

[61] Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 359-бет.

(tog‘oram), *pışıgım* (mushugim), *tovuğïm* (tovug‘im), *geçımız* (echkimiz), *qoyïnïmïz* (qo‘yimiz), *baydağïmïz* (bayrog‘imiz), *өyımız* (uyimiz) kabi.

2. II shaxs birlik va ko‘plik *-ŋ, -ıŋ -ïŋ, -ŋız, -ŋïz, -lərıŋ, -larïŋ, -ıŋız, -ïŋïz, -lrpıŋ, -larïŋ* qo‘shimchalari bilan ifodalanadi: *ɔlmaŋ* (olmang), *şərvəŋ* (sho‘rvang), *bɔğïŋ* (bog‘ing), *məlıŋ* (moling), *gөjəŋız* (go‘jangiz), *baǯaŋïz* (bojangiz), *dəkənıŋız* (do‘koningiz), *qarmağïŋïz* (qarmog‘ingiz), *daraxlarïŋ* (daraxtlaring), *gəplərıŋ* (gaplaring), *tuxumlarïŋ* (urug‘laring) kabi.

3. II shaxs birlik va ko‘plik *-ı, -ï -sı, -sï, -yı, -yï* qo‘shimchalar bilan keladi: *kıtəvı* (kitobi), *qalampïrï* (qalampiri), *sovgısı* (sevgisi), *qarmasï* (ovqat turi), *bəhəyı* (bahosi), *paxtayï* (paxtasi) kabi.

Ko‘plik kategoriyasi. Otlarning son shaklini qabul qilishi o‘zbek shevalarida turli xil ko‘rinishga egaligini ta’kidlash lozim. Ko‘plik kategoriyasi haqida to‘xtalganda, “birlik formasidagi otlar bir jinsdagi predmetlarning bittasini anglatadi. O‘zbek tilida otning birligini ko‘rsatuvchi maxsus affiks yo‘q. So‘zning predmet tushunchasini ifoda qiluvchi affikssiz holatining o‘zi, ya’ni nol ko‘rsatkichli formasi birlikdir”[62].

Birlik shakli adabiy tilda nol ko‘rsatkichga ega bo‘lgani kabi Buxoro o‘g‘uz shevalarida ham nol forma ko‘rsatkichga ega hisoblanadi: *ɔdɔm* (odam), *tïlpɔn* (telefon), *yerseped* (velosoped), *yɔvɔq* (chorshaxa), *mı:mɔn* (mehmon), *mə:lım* (muallim), *şopïr* (shofyor) kabi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida ko‘plik shaklining qo‘rsatkichi adabiy tildan tubdan farq qilmaydi. Jumladan, shevada *-lər, -lar, -ler* qo‘shimchalari ishlatiladi: *yəllər* (yo‘llar), *gıyımlər* (kiyimlar), *bɔğlar* (bog‘lar), *tɔğlar* (tog‘lar), *eller* (ellar), *ınekler* (sigirlar) kabi.

Buxoro o‘g‘uz shevalarida ko‘plik *-lar* qo‘shimchasi grammatik vazifadan tashqari uslubiy vazifa ham bajaradi. Hurmat ma’nosida *enemlər* (onamlar), *bɔvɔmlar* (bobomlar), *ɔtɔmlar* (otamlar); donalab sanalmaydigan narsalarga nisbatan tur ma’nosida: *sülər* (suvlar), *buğdɔylar* (bug‘doylar), *maşlar* (moshlar); atoqli otlar: *Ɔydoğdï* (Oyto‘g‘di), *Bɔvaǯan* (Bobojon), *Sɔdïq* (Sodiq) kabi. Bulardan kishi nomlari *-lar* affiksi bilan qo‘llansa, shu nom bildirgan shaxs va u bilan birga bo‘lgan kishilar guruhi ma’nosi ifodalanadi: *Şükürlər* (Шукурлар), *Qɔdïrlar* (Qodirlar); ma’noni kuchaytirib, uslubiy vazifada: *əsəblərım* (asablarim), *ɔrzïlarïm* (orzularim) kabi.

Shuningdek, ko‘plik kategoriyasi o‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, grammatik ko‘rsatkichsiz ham ifodalanadi: *el* (el), *xalq* (xalq), *xalɔyïq* (xaloyiq) kabi.

Xulosa qilganda, эгалик ва кўплик категорияси Buxoro o‘g‘uz shevasida turkman tili hamda boshqa o‘zbek o‘g‘uz shevalari bilan tarixiy umumiylikni yuzaga keltirgan.

Unli va undoshlar transkripsiyasi:

ı – til oldi unlisi, **ï** – til orqa unlisi, **ü** – til oldi unlisi, **u** – til orqa unlisi, **ə** – til oldi unlisi, **a** – til orqa unlisi, **ө** – til oldi unlisi, **o** – til oldi unlisi, **e** – til oldi unlisi, **ɔ** – til orqa unlisi, **ğ** – g‘ undoshi, **ŋ**– ng undoshi, **ç** – ch undoshi, **ş** – sh undoshi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. II луғат. Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1961. – 348 б.

2. Абдуллаев Ф. Қарноқ шевасининг фонетикасидан//Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. – №6. – Б.16–22.

3. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент: Фан, 1978. –144-б.

4. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008. 62-bet.

5. Аразкулыев С. Говоры туркмен Турткулского района Каракалпакской АССР. Автореф.дисс… канд.филол.наук. – Ашгабат, 1962. – 30 сах.

6. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. 44-бет;

7. Түркмен дилиниң сөзлүги. – Ашгабат: Ылым, 1962. – 866 сах.

8. Шихиев А. Говоры туркмен Бухарской области Узбекской ССР. Автореф. дисс...канд. филол. наук. –Ашхабад, 1983. – 23 с.

[62] Шоабдураҳмонов А., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 217-бет.

ЎЗБЕК ВА РУС ТИЛЛАРИДА ФЕЪЛНИНГ ИНФИНИТИВ ВА ТУР ТУШУНЧАЛАРИ

Б.М.Мусаева, Навоий давлат педагогика институти рус тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада рус ва ўзбек тилларида фе’л мустақил сўз туркуми сифатида ҳаракат ёки ҳолатни билдириши, рус тилида инфинитив фе’л формалари тизимига тегишли бўлиб, ўзига хослиги билан ажралиб туриши, ўзбек тилида замон формалари ҳар қанча аниқ бўлса ҳам, уларда рус тилидагидек феълнинг турига боғлиқ чекланишлар йўқлиги ҳақидаги фикрлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: инфинитив, формал кўрсаткичлар, замон, тур, турлар жуфтлиги.

Annotation: In this article, the fact that in Russian and Uzbek the verb denotes an action or case as an independent word category, belongs to the system of infinitive verb forms in Russian, the fact that it is distinguished by its originality, the forms of the tense in Uzbek every How much is clear even if they do not have restrictions on the type of verb, as in Russian opinions about are highlighted.

Keywords: infinitive, formal indicators, tense, type, pair of types.

Ўзбек тилида ҳам, рус тилида ҳам феъл мустақил сўз туркуми сифатида ҳаракат ёки ҳолатни билдиради, аммо ўзининг морфологик хусусияти ва синтактик функциялари билан улар ўзбек ва рус тилларида бир-бирдан маълум даражада фарқ қилади. Масалан, ўзбек тилида рус тилига нисбатан замон шакллари кўпроқ, айни пайтда рус тилидаги инфинитив билан ўзбек тилидаги ҳаракат номи ўртасида ҳам жиддий тафовутлар мавжуд. [1.15].

Ҳаракат номи ва инфинитив (имя действия и инфинитив), ўзбек тилида ҳаракат номи туб ёки ясама феълга -моқ, -ш (иш), -в (-ув) аффиксларидан бирини қўшиш билан ясалади: чиз +моқ - чизмоқ, чиз+иш - чизиш,
чиз+ ув - чизув, қара + моқ — қарамоқ, қара + ш, турт + моқ — туртмоқ, турт +
иш — туртиш ҳайдов каби. Ҳаракат номининг ҳам феъллик, ҳам отлик хусусиятлари бор. Маъно жиҳатидан у ҳаракатни ҳам, предметни ҳам билдиради, Лекин отга ўхшаб турланади, от каби турли қўшимчаларни қабул қилади: ёзиш, ёзишим, ёзишда, ёзишга, ёзув, ёзувнинг каби.

Ўзбек тили луғатларида феъллар -моқ аффикси билан берилади: ёзмоқ, ишламоқ, ёздирмоқ, келтирмоқ, ишлатилмоқ каби. Феълларнинг туб ёки ясама шаклидан майл, замон, шахс сон ва бошқа феъл шакллари ясалади: ёз-а-ман (напишу), кетса (если он уйдет), ўқи-ётир-ман (я учусь), ўйла-ган-сан (ты думал) каби. Рус тилидаги феълнинг инфинитив (ноаниқ) формаси -ть, -ти қўшимчалари билан шаклланади. Уларнинг маъноси ўзбек тилида, асосан, -моқ аффикси билан ясалган феъл формаси орқали берилади: работать — ишламоқ, приходить — келмоқ, пойти — бормоқ каби. Ўзбек тилида рус тилидаги инфинитивга тўлиқ мос келадиган феъл шакли йўқ. Рус тилида инфинитив феълнинг дастлабки шакли бўлиб, феъллар луғатда шу шаклда берилади. Рус тилида феълларнинг инфинитив шакли шахс-сон ва замон аффиксларини олмайди; улардан ть, -ти суффикслари олиб ташланса, инфинитив негизи қолади: чита-ть, писа-ть, виде-ть, гуля-ть, нес-ти, пой-ти каби.[1.132]

Ҳақиқатан, рус тилида инфинитив- феъл формалари тизимига тегишли бўлиб, ўзига хослиги билан ажралиб туради. Инфинитив (неопределенная форма) семантик жиҳатдан ҳаракат маъносидаги именительный падеждаги от сўз туркумига аналог ҳисобланади: ловить –ловля, купить –купля ва ҳ.к. ловить и ловля ҳаракат маъносини англатади лекин, ловля от сўз туркуми предмет сифатида ҳаракатни, ловить феълнинг ноаниқ формаси эса жараён сифатида тушунилади. Феъл ва ноаниқ шакли ўртасида морфологик ва синтактик чамбарчас боғлиқлик мавжуд: бунга турларнинг фарқлари, (делать –сделать) переходность и непереходность (видеть – сидеть), возвратность и невозвратность (купать–купаться) ва ўтимлилик-ўтимсизлик ҳолатлари таалуқли бўлади. Бу барча категориялар сўз ўзгартирмайди,шунинг учун инфинитив феълнинг ўзгармайдиган формаси ҳисобланади.

Инфинитив ўзининг формал кўрсаткичлари -аффиксларига эга–ть, -ти, -сти, (-сть), -чь. Инфинитив кўрсаткичлари гуруҳларга ҳар хил ажратилади: -ть, -ти суффикслар сифатида (худди инфинитив), ва қўшимча (окончание) сифатида ҳам аниқланади. (яъни феъл формалари ясалишида тушиб қолади ва асосга кирмайди) бу каби ҳолатлар илмий ва ўқув адабиётларда ўз аксини топган. Масалан, Академ.грамматика (1980), В.А.Белошапкова таҳрири асосида дарсликда «Современный русский язык» (1981), инфинитив кўрсаткичлари мактаб дарсликларида ҳам қўшимча сифатида қаралади. Н.И.Шанский ,А.Н.Тихоновларнинг (1981), «Современный русский язык» ҳамда П.А.Лекантнинг дарсликларида эса– суффикс сифатида қайд этилади. Худди шундай –чь суффикси буйича ҳам олимлар орасида ҳар хил қарашлар кузатилади. Баьзи илмий адабиётларда –чь асоснинг бир бўлаги, яъни форма ясовчи -нулевой аффикс сифатида таъкидланади: масалан,беречь,стеречь.

Л.Ю.Максимованинг «Русский язык» (19870) дарслигида -чь ўзакнинг бўлаги сифатида кўрсатиб ўтилган.

Инфинитивнинг энг муҳим морфологик белгиларидан бири бу–тур (вид)ҳисобланади. Тур–ҳаракатнинг натижасига бўлган муносабатини ифодаловчи -феъл категориясидир. Бу категория рус тилидаги барча феълларга тегишли бўлади. Иккала турдаги феъллар турлар жуфтлигини пайдо қилади, уларнинг лексик маънолари бир хил лекин, тур маъноси билан фарқ қилади. Айниқса рус тилида гаплар тузилишида ёки оғзаки нутқимизда турларнинг нотўғри ажратиш оқибатида гапларнинг маъноси ўз ўрнини топмаган ҳолатлар учрайди. Масалан, *помочь* ҳамда *помогать* феълларини ишлатилишида ҳаракатнинг тугалланганлиги ёки тугалланмаганлиги аҳамиятли ҳисобланади. Я *сейчас* тебе помогу-? ёки помогаю- ? Худди шундай Я *постоянно* помга-ю маме? ёки Я *постоянно* помог-у маме? Бу ерда феъл билан келаётган *сейчас* ва *постоянно* иборалари ҳаракатнинг, вақтнинг чегараланганлиги ёки давом этаётганлигига ишора қилинаётганлиги кўрсатилмоқда. Кўпинча гапларда *каждый день, каждый час, каждый месяц, иногда, часто, ежедневно,* всегда сўзлари тугалланмаган феъл турини ишлатишини билдириб туради. Он каждый день *летает* на самолёте. Сегодня он *летит* в Москву каби. Айрим жуфтлик турларда феъл ҳар хил ўзакли бўлиб келади, лекин бир хил лексик маъно англатади. Взять-брать, говорить-сказать, положить-класть, поймать-ловить каби . Бундан ташқари рус тилида шундай жуфтликлар борки,(омографлар) улар фақатгина сўз бўғинида урғуларнинг бошқа бўғинларга тушиши билан фарқланади разр’езать- разрез’ать, зас’ыпать- засып’ать, отр’езать-отрез’ать каби.

Проф. О.Азизов таъкидлаганидек,Ўзбек тилида замон формалари ҳар қанча аниқ бўлса ҳам, уларда рус тилидагидек феълнинг турига боғлиқ чекланишлар йўқ. Рус тилида феълларнинг тугалланган тури эса, юқорида айтиб ўтилганидек, икки замонда (ўтган ва келаси замонда) қўлланади, унинг ҳозирги замон шакли йўқ. Булардан ташқари, рус тилида организовать, ранить, женить, крестить, казнить,обещать, воздействовать каби феъллар ҳам борки, уларнинг турини шу феълларнинг ўзидан аниқлаш қийин. Бу хилдаги феъллар ана шу хусусияти билан ўзбек тили феълларига ўхшаб кетади. Уларнинг тур маънолари контекстдагина аниқланади. Масалан: *Уполномоченный еженедельно телеграфировал о ходе заготовок овощей (Вакил сабзавот тайёрлашнинг бориши ҳақида ҳар ҳафта телеграмма берар эди).* Бу гапда телеграфировал феъли тугалланмаган тур маъносида қўлланган. *Вчера он телеграфировал о выполнении плана заготовок овощей (Кеча у сабзавот тайёрлаш планининг бажарилгани ҳақида телеграмма берди).* Бу гапда эса телеграфировал феъли тугалланган тур маъносида ишлатилган. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, рус тилида тугалланмаган тур феълларнинг маъносини ўзбек тилида турли феъл шакллари билан бериш мумкин. Масалан: *Я учился в Москве два года.— Мен Москвада икки йил ўқидим (ўқиганман, ўқиган эдим). Студент ходит на консультацию.— Студент консультацияга қатнайди (қатнаб юрибди, қатнаяпти, қатнаётир).*

Умуман, рус тилида тур феълларининг кўпчилиги тугалланмаган шаклда ишлатилади. Тугалланган шаклда қўлланадиган тур феълларга дать, сесть, встать, лечь, стать каби жуда кам сўзлар киради. Феълларнинг тугалланган тури тугалланмаган турига қуйидаги воситаларни қўшиш билан ясалади: 1. в-(ва-), вз-(вс-) ви-, до-, за-, из-(ис-). на-, над- (надо-), о-(об-, обо-), от-(ото-), пере-, по-, под-(подо-), при-(про-), раз-(разо-, рас-), с-(со-) каби маҳсулдор приставкаларни қўшиш билан: вписать, вогнать, взлететь, выписать, донести, заготовить, издать, найти, надписать, надорвать, описать, прочитать, обогнать, отдать, отогнать, передать, побежать, подобрать, прилететь, провести, раздать, разобрать, расставить, списать, собрать, улететь. 2. -ну суффиксини қўшиш билан: крикнуть, пригнуть, свистнуть каби. 3. -а суффиксини -и- суффиксига алмаштириш билан: решать — решить, пускать — пустить, изучать — изучить, лишать — лишить каби.

Юқоридаги таҳлиллардан шуни хулоса қилиш мумкинки, ҳақиқатан ҳам рус тилида тур категориясининг ўзи мураккаб грамматик жараён ҳисобланади, ўзбек тилида унга мос категория бўлмаса ҳам, ўзбек тилида бу тур категорияси билан ифодаланадиган энг гўзал тушунчаларни ва гапларни бера олиш имконияти олимларимиз томонидан кўрсатиб ўтилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.О.Азизов,А.Сафаев,Ҳ.Жамолхонов. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси.(Фонетика,лексика,морфология ва синтаксис)Ташкент “Ўқитувчи”1986.

2.Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009. – 391 б

3.Қаландар Сапаев. Ҳозирги ўзбек тили (морфемика,сўз ясалиши ва морфология) Тошкент -2009

4.Л.Э.Кузнецова. Сравнительная типология английского и русского языков. Учебно-методическое пособие. Армавир 2021

SO‘Z YASALISH MA’NOSI VA MOTIVATSIYA MUNOSABATINING BOSHQA MA’NO TURLARIDAN FARQI

Tursunov Akmal,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti “O‘zbek va chet tillar” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Keyingi yillarda fan taraqqiyoti bilan bog‘liq holda so‘z yasalishi ma’nosining talqini ancha chuqurlashdi, ayrim masalalar bo‘yicha fikrlar xilma-xilligi yuzaga keldi. Ma’lumki, kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deganda, odatda, qo‘shma so‘zlar nazarda tutiladi. Qo‘shma so‘z deganda esa, mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birdan ortiq komponentdan tashkil topgan so‘z nazarda tutiladi. Tilda so‘z va shakl yasalishi jarayonlari, bu jarayonlarning o‘zaro nisbati kabi masalalarning o‘rganilishi uzoq tarixga ega.

Kalit so‘zlari: formant, so‘z, lug‘aviy, qarashlar, bog‘liq, fikrlar, komponent, leksik, hodisa, ta’limot, frazeologik, leksik-semantik, o‘xshashlik, morfema.

Ключовая слова: формант, слово, лексический, взгляды, связанные, мысли, компонент, лексический, событие, учение, фразеологический, лексико-семантический, сходство, морфема.

Keyword: formant, word, lexical, views, related, thoughts, component, lexical, event, doctrine, phraseological, lexico-semantic, similarity, morpheme.

Ma’lum bir so‘z yasalish tipiga kiruvchi motivlangan so‘zlarni ularning motivlovchilaridan farq qiluvchi umumiy ma’no ushbu tipga oid so‘zlarning so‘z yasalish ma’nosi hisoblanadi. Masalan: ***pishiqchilik, to‘kinchilik, qimmatchilik, qurg‘oqchilik*** kabi ***-chilik*** qo‘shma affiksi yordamida yasalgan so‘zlarda asosdan anglashilgan narsa-hodisaning borligi ma’nosi so‘z yasovchi formant orqali ifodalanadi. Demak, so‘z yasalish ma’nosi so‘z yasalish formantiga xos ma’no bo‘ladi, shu formant bilan ma’noni reallashtiruvchi so‘z yasalish asosiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ***no-*** affiksining otlarga qo‘shishdan hosil bo‘lgan ***noumid, noiloj, nomunosib, noahil*** kabi sifatlarga xos so‘z yasalish ma’nosini qiyoslasak, bularning har biri so‘z yasalishining alohida tiplari hisoblanishi aniq bo‘ladi.

Ana shunday masalalardan biri so‘z yasalish ma’nosi tushunchasidir. Keyingi yillarda fan taraqqiyoti bilan bog‘liq holda so‘z yasalishi ma’nosining talqini ancha chuqurlashdi, ayrim masalalar bo‘yicha fikrlar xilma-xilligi yuzaga keldi. So‘z yasalish ma’nosining tabiatini aniqlash sohasidagi qarashlar quyidagicha guruhlanishi mumkin: so‘z yasalish ma’nosi morfem-morfologik, lug‘aviy, lug‘aviy-frazeologik, sintaktik, uslubiy-konnontativ kabi ma’no tiplari bilan dialektik aloqadadir.

Affiks yordamida so‘z yasalish usullarini morfologik usul deb atashda affiksning morfema ekanligi, morfemaning esa, morfologik birlik ekani nazarda tutiladi. Bu jihatdan affiksatsiya usulini morfologik usul deb atash juda asoslidek ko‘rinadi. Biroq barcha affikslar va ular bilan bog‘liq hodisalar morfologiyaning tekshirish ob’ekti bo‘lavermaydi. So‘z yasovchi affikslar va ular bilan bog‘liq hodisalar tilshunoslikning maxsus bo‘limi – so‘z yasalishida o‘rganiladi. [1;18].

Shunday ekan, so‘z yasovchi affikslarni morfologiya bilan bog‘lash, ular yordamida so‘z yasalish usulini morfologik usul deb atash yetarli asosga ega emas. Bu usulni so‘z yasalishining affiksatsiya usuli deb atash esa hodisaning mohiyatiga to‘la mos keladi.

Ma’lumki, kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi deganda, odatda, qo‘shma so‘zlar nazarda tutiladi. Qo‘shma so‘z deganda esa, mustaqil leksik ma’no ifodalay oladigan birdan ortiq komponentdan tashkil topgan so‘z nazarda tutiladi. Lekin qo‘shma so‘zni tashkil etuvchi bu komponentlar hamma vaqt o‘zakka, ya’ni morfemaga teng bo‘lavermaydi. Bu komponentlar yasama leksemalarga, hatto so‘z formasiga teng bo‘lishi mumkin. Masalan: tinchliksevar ***(tinch-lik+sev-ar),*** betgachopar, ***(bet-ga+chop-ar)***, ustabuzarmon ***(usta+buz-ar-mon)*** va boshqalar. O‘z-o‘zidan, bunday qo‘shma so‘zlarni morfologik usul bilan yasalgan so‘zlar deb bo‘lmaydi.

Komponentlari o‘zak morfemaga teng bo‘lgan qo‘shma so‘zlar o‘zbek tilida anchagina miqdorni tashkil etadi: atirgul, belbog‘, vatangado, guldasta, ko‘zoynak (va b.), lekin bu so‘zlarni morfologik usul bilan yasalgan so‘zlar deyish mumkin emas. Chunki o‘zak morfologiyaning o‘rganish obyekti bo‘lgan birlik (morfologik birlik) emas. [2;7].

Mustaqil leksik ma’noli birdan ortiq birlikning qo‘shilishi bilan so‘z yasalish usulini kompozitsiya usuli deb atayvergan ma’qul.

A. G‘ulomov ishida so‘z yasash usullarining belgilanishi va nomlanishi bir muncha boshqacharoq. Muallif yozadi: “Demak, so‘z yasash: 1. Grammatik so‘z yasash (affiks yordami bilan yasash – affiksatsiya, so‘z qo‘shish yo‘li bilan yasash - kompozitsiya, so‘zni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga, boshqa turkumga ko‘chirish, kategoreal ko‘chish yo‘li bilan yasash konversiya). 2. Leksik-semantik so‘z yasash. 3. Fonetik so‘z yasash.

Lekin bu uch xil so‘z yasalishning birortasida ham grammatik usul yo‘q. Affiksatsiya va kompozitsiya usullari haqida gap borganda bu narsa yuqorida aytildi. Uchinchi usul deb keltirilayotgan hodisa o‘zbek tilida yo‘q, ya’ni bir turkumdan boshqa turkumga ko‘chirib so‘z yasalish usuli yo‘q. Leksik-semantik usul bilan hosil bo‘lgan so‘z esa o‘z turkumi doirasida qolishi yoki boshqa turkumga mansub bo‘lishi mumkin.

So‘z yasalish ma’nosi so‘z yasalishining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham so‘z yasalish ma’nosi boshqa ma’nolaridan o‘ziga xos belgilari bilan farq qiladi. Bundan ko‘rinadiki, so‘z yasalishi alohida sath bo‘lib, o‘zining birlik va tushunchalariga ega.

Demak, birinchidan, so‘z yasalishi sohasining obyekti, asosiy birligi va tushunchalarini aniqlash zarur.

Ikkinchidan, so‘z yasalishining asosiy ma’no tipining boshqa ma’no tiplari - morfem-morfologik ma’no, lug‘aviy ma’no, frazeologik ma’no, sintaktik ma’no va konnotativ ma’nolardan farqini aniqlash zarur. Anglashiladiki, so‘z yasalishining asosiy birligi va tushunchalari haqida hali ko‘plab yangi tadqiqotlar qilinishi mumkin. [2;10].

Tilda so‘z va shakl yasalishi jarayonlari, bu jarayonlarning o‘zaro nisbati kabi masalalarning o‘rganilishi uzoq tarixga ega. Antik grammatikachilar til hodisalarining muntazam yo muntazam emasligi xususida bahs yuritib, analogiya va anomaliya qonuniyatlariga asos solishdi. Analogistlar shakllarning to‘g‘riligi va izchilligi haqida ta’limot yaratib, fanga paradigma tushunchasini olib kirdilar. Analogistlar qoidaga, me’yorga tushmaydigan holatlar ancha miqdorni tashkil etishini qayd etdilar va bu holatlarga shakldoshlik va ma’nodoshlikni namuna sifatida ko‘rsatdilar.

Adabiyotlar tahlili. Fan tarixida birinchi marta rus-polyak olimi I.A.Boduen de Kurtene 1902-yilda e’lon qilingan bir maqolasida turlanish negizlarining o‘zgarishi yoki ularning tugamlar foydasiga qisqarishi qonuniyatini kashf etadi. Bunga ko‘ra, ot negizlarga tegishli bo‘lgan ayrim unlilar keyingi affiks tarkibiga o‘tgan va o‘xshashlik yo‘li bilan yangi ot negizlariga faol qo‘shila borgan.

Ayni shunga o‘xshash qonuniyatni yirik tilshunos olim V.V.Radlov 1906- yili nemis tilida e’lon qilingan “Turkiy tillar morfologiyasiga kirish” maqolasida qayd etadi va bu qonuniyatni giperagglyutinatsiya, deb nomlaydi. Keyinchalik taniqli turkiyshunos olim G.Y.Ramstedt ushbu qonuniyatga ajoyib bir tarzda ta’rif beradi: “Qo‘shimchalar negizlar hosil qiladi va faol qo‘llanib, yangi o‘xshash (analogik) yasalmalarni vujudga keltiradi”. Tilshunoslikda bu hodisaga so‘zning morfem tuzilishi, uni ma’noli bo‘laklarga ajratish munosabati bilan e’tibor kuchaydi.

Yevropa tilshunosligi, qolaversa, turkiyshunoslikda J.Grinberg, Y.A.Zemskaya, A.G‘ulomov, Sh.Rahmatullayev kabi olimlarning ishlarida ushbu hodisaga ham munosabat bildirilgan. Hatto, fanga “Grinberg kvadrati” tushunchasi kirib kelgan. Quyida ayrim nazariy qarashlarga tayangan holda o‘xshashlikning ba’zi xususiyatlari haqida fikr yuritamiz. Yangi so‘z (yasalma)ning yuzaga kelishi uchun kamida ikki yasamani qamrab oluvchi so‘z yasash qolipi (namunasi) bo‘lishi zarur. Turmushdagi turli o‘zgarishlar ana shu qolipning faollashishi yoki ishlatilmay qolishiga olib kelishi mumkin.

F.Abdullayev va A.Berdialiyev tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, so‘z yasovchi ***-chilik*** qo‘shma affiksi eski o‘zbek tilida juda kam uchraydi, uning o‘xshashlik yo‘li bilan soha oti yasash vazifasi XX asrning 30-40-yillaridan boshlab faollashganligi kuzatiladi. Bunga iqtisodiy-madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, ishlab chiqarish sohalarining tarmoqlanishi sabab bo‘lgan: ***bedachilik, sabzavotchilik, uzumchilik*** [2;11].

Ushbu dalilni keltirishdan maqsad, til tarixida ***-lik, -li, -chilik*** qo‘shimchalarining ma’no- vazifasi qay yo‘sinda farqlana borganini ko‘rsatishdan iboratdir: ***-li*** qo‘shimchasi ***-lik*** (fonetik variantlari) ko‘rsatkichi bilan ko‘p vaqt shaklan o‘xshash bo‘lgan **(*-lig, -lig‘; -lik, -liq*) *-li*** qo‘shimchali qolipning rivoji F.Abdullayevning fikricha, vaqtli matbuot hamda qardosh ozar va tatar tillari ta’sirida yuzaga kelgan.

Bu qo‘shimchaning to‘la o‘zlashib ketmaganligini shundan ham bilsa bo‘ladiki, ***qishlik kiyim, yozlik meva*** kabi sifatlarda ***-lik*** qo‘shimchasi ishga solinadi: ***yillik reja, soatlik tanaffus, ko‘rpachalik chit. -li*** va ***-lik*** qo‘shimchalarini qo‘llashdagi har xillik hozir ham davom etmoqda. Solishtiring: Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik **(*chiroylik***, aslida, ***chiroyli*** shaklida bo‘lishi kerak edi, qofiya talabi bilan ***-lik*** shakli qo‘llanilgan).

Shunga qaramasdan, dastlab aniq farqlanmagan ***-lik, -li, -chilik*** qo‘shimchalari keyingi davrda o‘xshashlik yo‘li bilan o‘z qo‘shilish (birikuvchanlik) doiralarini kengaytirib, mustaqil so‘z yasash qolipi mavqeini kasb etgan: ***urug‘li-urug‘lik, urug‘chilik; qo‘shnili-qo‘shnilik, qo‘shnichilik; ozlik-ozchilik; ko‘plik-ko‘pchilik.***

Demak, hozirgi tilda qo‘llanuvchi til qoliplari qachonlardir bir-ikki yasalmaga asos bo‘lib, keyinchalik o‘z ish doirasini kengaytira borgan, o‘xshashlik yo‘li bilan yangidan-yangi yasalmalarni hosil qilgan. Sh.Rahmatullayev ***mingoyoq*** so‘zining sintagmadan o‘sib chiqqan bo‘lishi mumkinligini, lekin yaqinda paydo bo‘lgan ***uchburchak*** kabi qo‘shma otlar “sintagmadan leksemaga” taraqqiyot bosqichini o‘tmay, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shma ot tuzish qolipi asosida yaratilganini qayd etadi va “otboqar balki sintagmadan

o‘sib chiqqandir, ammo hozir paydo bo‘lgan buzoqboqar, tovuqboqar kabilar tayyor qolip asosida tuziladi”. [2;15].

A.G‘ulomov muntazam va nomuntazam qo‘shimchalar to‘g‘risida fikr yuritib, “muntazam qo‘shimchalar: ***-chi, -li*** (va b.) aniq bir holatga – turg‘unlikka, muqimlikka ega bo‘lib, ma’lum bir modelni yaratgan, shunga ko‘ra, bular konkret qo‘shilishdan tashqarida ham uqilib turadi **(*-chi***: shaxs bildiradi, ***-li***: egalikni bildiradi), demak, bularning umumiy tarzdagi aniq ma’nosi bor, u tayyor qism holatida bo‘lib, zarur bo‘lgan o‘rinlarda eslanib, o‘zak-negizga qo‘shilib yuborila beradi”, deb ta’kidlaydi. [2;19].

Xulosa va natija. Ko‘rinadiki, ongimizda muayyan qoliplarga tegishli ma’no maydonlari amal qiladi, ana shu maydonning bosim kuchi o‘xshashlik yo‘li bilan yangi yasalmalarni yarataveradi. Solishtiring: *Qorxat ziyofatida o‘tirganlar yomg‘irxat, shabnamxat, qirovxat, jalaxat degan yangi-yangi odatlarni o‘ylab chiqarmasliklariga kim kafolat beradi?!* (S.Ahmad).

O‘xshashlik jarayoni tildagi qonuniy hodisalardan bo‘lib, u, odatda, fonetik hamda morfologik asosga ega: fonetik jihatdan bir morfema ikki yoki undan ortiq morfemalarga parchalansa, morfologik jihatdan bir shakl (qo‘shimcha) boshqa negizlarga ham qo‘shila boradi. Keyingi yillarda adabiy tilimizda kechayotgan jarayonlar ***sayilgoh, janggoh, qarorgoh*** yasalmalariga taqlidan ***o‘yingoh, tayyoragoh, oliygoh, bilimgoh*** kabi yasalmalarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu xil yasalmalarning bir qismi adabiy me’yorga mos kelmasa-da, tildagi ma’lum jarayonlarning mahsuli sifatida ularni o‘rganish zarur sanaladi. [3;21].

O‘xshashlik yo‘li bilan qo‘shilish tilning ham shakl yasalishi, ham so‘z yasalishi tizimiga xos bo‘lib, umumiy qonuniyatlar sirasiga kiruvchi bu hodisani jamiyat va inson ongi tafakkuridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Berdialiyev A. Adabiy nutqdagi o‘zgarishlar va uning til paradigmatik sistemasiga ta’siri // O‘zbek nutqi madaniyatining dolzarb muammolari. –T .: 1990. –B. 25.
2. A.Berdialiyev. O‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shma affikslar. Kand. diss., –T.: 1970.
3. A. G‘ulomovning Ilmiy merosi, 2-kitob, O‘zMU, –T.: 2006. –B.23-24.

XITOY TILIDA MURAKKAB SINTAKTIK QURILMALARNING TURLARI XUSUSIDA

Ne’matova Niginabonu,
KIUT Samarkand filiali katta o‘qituvchisi

Ma’lumki, jahon tilshunosligida an’anaviy sintaksisning bahsli masalalarini tizimli o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Gaplarni ularning sintaktik va semantik xususiyatlaridan kelib chiqqan teng va tobe komponentli sintaktik qurilmalar maqomida formal-semantik jihatdan o‘rganish bo‘yicha salmoqli tadqiqot ishlari bajarilgan. Bugungi kunda esa Msqlarni kognitiv – pragmatik yo‘nalish doirasida tadqiq etish hamda uning mohiyatini sintaktik sath nuqtai nazaridan atroflicha yoritish ehtiyoji bu xususda yangicha yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish zaruratini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Jahon tilshunosligida lisonning shakl va mazmun tomonlarining o‘zaro uzviy aloqasini ta’riflab berishda kontsept, freym kabi tushunchalar hamda ularning MSQlar derivasiyasining voqelanishidagi mavqeini asosli ravishda to‘g‘ri baholash zamonaviy sintaksisning samarali omillaridan biridir. Kognitiv tilshunoslik tamoyillari asosida MSQlarga derivasion aspektda yondashish, ularning derivasion xususiyatlarini ko‘rsatib berish va bunday yondashuvlarni tadqiqotlarda samarali qo‘llash muhim ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Zamonaviy tilshunoslikda Msqlarni kognitiv modellashtirish, invariant model va uning sintaktik paradigmalari shakllanishi imkoniyatlarini tadqiq qilish orqali MSQlar shakllanishining kognitiv – pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga ham katta ehtiyoj sezilmoqda.

Ammo Xitoy tilshunosligida mazkur muammolar deyarli o‘rganilmadi desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Xitoy tilining sintaktik tuzilishini ilmiy o‘rganish nisbatan yaqinda boshlangan (o‘tgan asrning 20-40-yillarda). Ma Sianjongning (1898) [8] qadimgi Xitoy tili grammatikasi nashr etilgandan so‘ng, birinchi marta Xitoy grammatik tizimini alohida mustaqil fan sifatida ko‘rib chiqildi va shu bilan Xitoy tilshunoslarining ishlariga ta’sir ko‘rsatildi. Natijada 20-asr boshlarida Li Tszinsi birinchi «Zamonaviy Xitoy Tili grammatikasi»da [6], xitoy tili grammatikasiga rioya qilgan holda, an’anaviy g‘oya, murakkab jumla haqidagi nazariyasini ikki yoki undan ortiq sodda jumlalarni bir butunga birlashtirish sifatida bayon qildi (liangge yishang-de danju) va ular orasida uchta turni ajratib ko‘rsatdi:

1) murakkab jumlani o‘z ichiga olgan (baoyun fuju), birikkan jumlalarni nazarda tutgan holda (baoyunju), uning tuzilishi bitta «ona jumlasi», ya’ni»asos jumla» dan iborat (muju), boshqa «kiritilgan»

(ziju) jumlani o‘z ichiga olgan, shu jumladan nominal (mingciju), Adjektiv (xingrongju) va adverbial (fuciju) jumlalarga ko‘paytirildi;

2) sintaktik jihatdan teng munosabatda bo‘lgan sodda jumlalardan (fenju) iborat ikki yoki undan ortiq murakkab jumlalarni teng bog‘lanishini nazarda tutadigan murakkab sitaktik qurilmalar (dengli fuju);

3) murakkab jumlalarni o‘z ichiga olgan bosh jumla maqomiga mos keladigan asosiy (zhuju yoki zhengju) va qaram, ya’ni bo‘ysunuvchi (congju yoki fuju) dan tashkil topgan murakkab bo‘ysunuvchi (zhucong fuju) jumlalar, ya’ni tobe komponentli murakkab sintaktik qurilmalar.

Li Tszinsi adverbal qismli murakkab sintaktik qurilmalar (keyingi o‘rinlarda MSQ) haqida yozganda ravish ergash gapli MSQ larni nazarda tutadi. Uning fikricha adverbal qismli MSQlar, boshqa Msqlardan komponentlarning o‘zaro bog‘lanishi bilan farqlanadi. U yuqoridagi MSQ qimlarining bog‘lanishini ikki xil yo‘l bilan bog‘langanligini ta’kidlab o‘tadi:

1. Bir butun umumiy bog‘lanish (heti);
2. Farqlanuvchi, ya’ni ikki xil bog‘lanish (yiti)

Shuningdek mazkur MSQlar mazmun munosabatiga ko‘ra bog‘lanishi bilan ham farqlanadi. Adverbal qismli bog‘lanish yuqorida ham ta’kidlanganidek ravish ergash gapli (xingtai) MSQ larni tashkil qilsa, qolganlari esa, o‘rin, payt, sabab va boshqa ma’nolarni ifodalaydi [6, 264 – 283].

Keyinchalik Li Tszinsining qo‘shma gaplar nazariyasini «grammatika va stilistika bo‘yicha ma’ruzalar» (1952) asarida Lyuy Shusyan va Chju desilar tanqid ostiga oladilar. Ular Li Tszinsi ta’kidlagan, qimslaridan biri ma’lum bir gap bo‘lagiga teng keladigan qo‘shma gap turlari nazariyasiga qarshi chiqib, MSQlarning bu turini umuman qo‘shma gap emas, balki sodda gaplardair deya ta’kidlaydilar. Toe gaplar esa «ma’lum shaklga asoslangan gaplar» deya qayd etiladi (juzi xingshi) [7; 3].

Xitoy tili nazariyasini o‘rganishda rossiyalik xitoyshunos olimlar katta hissa qo‘shishgan [2,4,5]. Lekin ularning ham diqqat markazida asosan morfologiya, leksikologiya, dialektologiya, Xitoy tili rivojlanish tarixiga oid masalalar bo‘lgan. Ammo bu bilan sintaksisga umuman qo‘l urilmadi deya olmaymiz. Qayd etilganlar bilan birga sintaksisga bag‘ishlangan ishlar ham mavjud. Bu ishlar haqida gap ketganda, birinchi navbatda, V.I.Gorelov («grammatika kitayskogo yazika», «Teoreticheskaya grammatika kitayskogo yazika») va E.I.Shutova («sintaksis sovremennogo kitayskogo yazika») larning ishlarini aytib o‘tish lozim. Shunday qilib, V. I. Gorelov [2, 211 – 296] komponentlari tobe munosabat bilan birikkan, sintaktik tuzilmalarni murakkab sintaktik qurilmararga kiritadi, ulardan biri nisbatan mustaqil hukm, ikkinchisi esa birinchisiga bo‘ysunadi va uni to‘ldiradi. Turli xil va ko‘p sonli aloqa vositalari orasida (intonatsiya, qismlarning pozitsion holati, bog‘lovchilar, yuklamalar, bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi birliklar, predlogli birikmalar, ko‘rsatish olmoshlari va ravishlar, so‘roq, nisbiy so‘zlar, maxsus leksik elementlar va h.k.) asosiy e’tibor xitoy tilida eng mukammal sintaktik aloqa vositasi bo‘lgan biog‘lovchilarga qaratiladi.

Hozirda Xitoy grammatik an’anasida ham barcha murakkab sintaktik qurilmalar teng va tobe aloqaga ega bo‘lgan murakkab jumlalarga bo‘linadi.

Shunday qilib, MSQlar hozirgi Xitoy tili sintaksisining eng qiyin va eng kam o‘rganilgan qatlamlaridan biri deyishimiz mumkin. Qo‘shma gaplar Xitoy tilida alohida sintaktik soha sifatida etarli darajada o‘rganilmaganligi uchun ularning strukturasi, semantikasi, tipologiyasi, turli badiiy janrlar va nutq uslublaridagi stilistik funktsiyalari haqida bir qator muammolar o‘z echimini kutmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ван Ляои. Основы китайской грамматики / Под ред. А.А. Драгунова и Чжоу Сунъюаня. Пер. с кит. Г.Н. Райской. – М.: Изд-во иностранной литературы, 1954. – 263 с.

2. Горелов В.И. Теоретическая грамматика китайского языка. – М.: Просвещение, 1989. – 318 с.

3. Люй Шусян. Очерк грамматики китайского языка / Люй Шусян. – В 2-х тт. – Т.1: Слово и предложение. – М.: изд-во Вост. лит., 1961. –266 с.

4. Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса на основе сопоставления китайского и русского языков. – М.: Наука, 1984. – 264 с.

5. Шутова Е.И. Синтаксис современного китайского языка. – М.: Наука, 1991. – 391 с.

6. Jinxi Li. Guoyu xinzhu wenfa. – Beijing, 1933. – P. 250 – 305.

7. Shuxiang Lü, Dexi Zhu. Yufa xiuci jianghua (Speeches on grammar and rhetoric). – Beijing: China Youth Press, 1952. – P. 7 – 177.

8. 馬建忠，馬氏文通，上海：商務印書館，光緒二十四年 (Ма Цзяньчжун 馬建忠. Ма ши вэньтун 馬氏文通). – Шанхай, 1898. – С. 120 – 240.

ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ -ФИЛОЛОГОВ НА ОСНОВЕ СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПОДХОДА

Мамадалиева Саидахон, докторант
2- курса кафедры русского языкознания Наманганского
государственного университета
m.saida@ mayl.ru

Аннотация. *В статье рассматриваются социкультурные аспекты обучения русскому языку студентов-филологов, при котором русский язык как язык-посредник становится инструментом приобщения студентов-филологов к ценностям культуры русского народа.*

Ключевые слова: *социокультурные аспекты, социокультурный подход ориентация обучаемого, познание, комплексный процесс, ценности культуры*

Annotation*. Russian is considered in the article socio-cultural aspects of teaching Russian to students of philology, in which the Russian language as an intermediary language becomes an instrument of familiarizing students of philology to the values of the culture of the Russian people.*

Keywords*: socio-cultural aspects, socio-cultural approach, student orientation, cognition, complex process, cultural values*

В эпоху глобализации и интенсификации всех интеграционных процессов, неуклонно возрастает интерес к исследованию роли языка в овладении знаниями об объективной действительности, поэтому на современном этапе в преподавании русского языка как специальности повышается значимость социокультурного компонента содержания обучения

Формирование социокультурной компетенции в процессе обучения русского языка приобретает особое значение как средство воспитание вторичной языковой личности студентов, способных эффективно осуществлять межкультурное общение как повседневной жизни, так и в учебной-профессиональной сфере. Толерантность и позитивное отношение к носителям иноязычной культуры, аналитический подход к социокультурным явлениям могут быть привиты в ходе педагогического общения, способствуя проявлениям уважения, открытости, пониманию межличностных различий, отношений и партнёров. Анализ и сравнение фактов и явлений русской и родной культуры выступают важным условием вторичной социализации студентов, благодаря которой они создают уникальность русской культуры и приобретают знания о характерной для неё системе норм и ценностей. [Ахмедова Л.Т, 2012:48].

В вузах Узбекистана социокультурному развитию студентов-филологов, освоению ими традиций, поведенческих моделей и ценностей страны изучаемого языка в целом уделяется недостаточно внимания. В теории обучения дисциплинам лингвистического цикла до настоящего момента не сложилось общепринятой точки зрения касательно того, что следует понимать под социокультурным компонентом содержания обучения русскому языку как специальности и каким образом данный компонент должен быть представлен в средствах обучения на конкретных этапах обучения.

В Узбекистане проблемы методики обучения иностранным языкам, в том числе русскому, рассматривались в трудах Л.Т. Ахмедовой, М.Джусупова, В.И.Андрияновой, И.Н. Стыркас, С.Х.Абдуллаевой, С.Н. Абдуллаевой и др.

Проблема обучения русскому языку как иностранному, рассматривается в качестве сложного комплексного процесса, при котором русский язык как язык-посредник становится инструментом приобщения студентов-филологов к ценностям культуры русского народа, к познанию русского менталитета. В процесс обучения русскому языку как иностранному включаются следующие национально-специфические компоненты культуры: традиции (или устойчивые элементы культуры), а также обычаи, характерные для русского народа; обряды, сопровождающие жизнь русского этноса; традиционная бытовая культура; повседневное поведение (привычки, связанные с вербальным и невербальным поведением); художественная культура, отражающая эстетические традиции народа, национальная языковая картина мира, национальные особенности восприятия и мышления [Щукин, 2003:78].

Постояннонное совершенствование методики преподавния русского языка в национальных группах в значительной мере связано с необходимостью построения её не только на лингвситических, но и на социолингвистических основах.

При обучениии русскому языку нерусских студентоав нельзя не учитовать возможности таких учебных предметов педагогика, социолингвистика, психолингвистика, которые изучаютсся на русском языке, нельзя не учитывать также огромного количества слов общего лексического фонда, которые усваиваются студентами в процесее изучения других дисциплин. Кроме того,

особое значение приобретает активное усвоение студентами лексики через средства массовой информации, интернета. [Абузяров, 1986:36].

Огромные резервы русской речи расскрываваются также в процесе изучения современной языковой стуации, сложившейся в результате фукционирования русского языка на произвлодстве, в общественных местах, в школах с несколькими языками обучения. Таким образом, учёт всех факторов, способствующих обучению русского языка межнационального общения народов и состовляет основу социокультурного аспекта преподавания русского языка в национальных группах. Методика преподавания руссого языка в национальных группах учитывая потребности развития экономики, производвства, науки, международные отношения и средства массовой коммуникации расширяют объём и содержание своего исследования, приводя в действие все резервы обучения. [Верещагин, Костомаров, 2003: 86].

Проблемной лабораторией нашей кафедры разработана система языковой подготовки студентов-филологов на уроках русского языка. Остановимся на отдельных звеньях этой системы, предусматривающий комплексный подход к решению проблемы языковой подготовки студентов национальных групп. Первое звено- постоянная, систематическая работа преподавателя над словом- терминологической лексикой и другими словами общего лексического фонда. Она проводится в системе “Единного речевого режима”. Словарная работа осуществляется преподавателем на всех уроках и по возможности в процессе внеаудиторных мероприятий, которые можно проводить на культурно-массовых мероприятий посвящённые разным праздничным датам. На каждом уроке в словарь студентов включается 20-30 слов общего лексического фонда или терминов, которые необходимо для усвоения изучаемой темы. Одновременно повторяются слова, заученные на предыдующих занятиях. Таким образом, учащиеся осваивают 20-30 словраных единиц, что составляет 300-400 слов в месяц, и около 2-3 тысячи в год. Эта работа требует от преподавателей всех предметов больших линвометодических знаний, способствуют совершенствования уроков, значительно повышая их качество.

В каждой группе можно ввести “Журнал учёта активизируемый лексики”, над которой препоподаватели могут работать на уроке.Студенты же по образцу этого журнала ведут словари учёта своих слов. Это помогает преподавателям учитывать отобранную и активизированную лексику, установить преемственность в словарной работе, этим же преподаватель имеет возможность проверить и объективно оценить знание учащимися активизируемой лексики. Этому способствуют также проводимые с студентами специальные внеаудиторные занятия по развитию речи и обогощения лексического запаса, мероприятия посвящённые юбилеям знаменитых писателей и поэтов, которые способствуют приобретению и развитию навыков правильного произношения, умения передовать свою речь грамотно и правильно. Важность и необходимость этой работы в формированиии будущего учителя, расширении его научно-методического кругозора очевидна.Учебно-исследовательская и научно-исследовательская работа призывает у нас весь учебный процесс. На каждом этапе обучения, при изучении любой лингвистической дисциплины студенты получают необходимый минимум навыков самостоятельного анализа и синтеза.

Хорошей формой приобщения студентов также являются научные студенческие кружки. Члены методических кружков работают над проблемами активизации познавательной деятельности учащихся на уроках русского языка, а члены лингвистческих кружков - над проблемами словообразования, стиля официальных документов, лингвистического анализа художественного текстов. Таким образом студенты приучаются работать словарями, спарвочниками, учебниками и учебными пособиями, использовать научно- методичесике журналы. Среди приобщения студентов к специальной научной литературе, конспектирвоание отдельных тем, разделов учебников, монографий, составление планов конспектов, подготовка обзоров научно-методической литератры. [Абузяров, 1986:36].

Проблема обучения студентов-филологов русской речи, языковой подготовки будующей профессии является большой государственной важности, и ответственность за её решение в значительной мере возлагается на специалистов по методике преподавния русского языка, на учителей русского языка и литературы, соотвествующих специалистов народного образования, задача которых- установить теснейшую связь вработе с преподавателями-руссистами, с преподавателями других смежных дисциплин, с организаторами внеаудиторных занятий и мероприятий, заместителями деканов по воспитательной и духовно-просветительских работе. В заключении можно отметить, что социокультурный подход как базисная категория методики преподавания русского языка как иностранного опирается на традиции отечественной и зарубежной методики преподавания иностранных языков и развития лингводидактической науки

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Автореф. дисс… д-ра пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.
2. Азимов Р.А.Щукин А.И. Словарь методических терминов (теория и практика преподавния языков). СПб., 1999. – 471 с.
3. Абузяров Р.А. Социолингвистические аспекты обучения русскому языку учащихся национальных школ. – Ташкент, 1986.
4. Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного. – М., 1990.
5. Дэвидсон Д., Митрофанова О. Функционирование русского языка: методический аспект // Русский язык и литература в общении народов мира. – М., 1990.
6. Мильруд Р.П. Актуальные проблемы методики обучения иностранным языкам за рубежом. – М., 2004.
7. Чумак Л.Н. Сопоставительное лингвокультуроведение: принципы, методы, словари. – Мн., 2003.
8. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М., 2003.78 с.

АНАЛИЗ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ТЕРМИНА «ФРАЗЕОЛОГИЗМ» И ЕГО КЛАССИФИКАЦИЙ

Абдуманнонов Хожиакбар, Самостоятельный исследователь,
Андижанский государственный институт иностранных языков,
Учитель английского языка
Профессиональная школа Бустанского района
E-mail: 1998i.xuol1998@gmail.com

Аннотация: Данная статья посвящена описанию термина «фразеологизм», которому некоторые исследователи дали описание как «сердцевина языка». Также автор уделил особое внимание классификации фразеологизмов, опираясь на труды всемирно известных учёных.

Ключевые слова: фразеологизм, фразеология, классификация, фразеологические единства, фразеологические обороты, фразеологические сращения, идиома.

Abstract: This article is devoted to the description of the term “phraseologism,” which some researchers have described as “the core of the language.” The author also paid attention to the classification of phraseological units, based on the works of outstanding scientists of the world.

Keywords: phraseological unit, phraseology, classification, phraseological unities, phraseological combinations, phraseological fusions, idiom.

Annotatsiya: Ushbu maqola ba’zi tadqiqotchilar tomonidan “tilning o‘zagi” deb ta’riflangan “frazeologizm” atamasining tavsifiga bag‘ishlangan. Unda muallif jahonga mashhur olimlarning asarlariga tayangan holda frazeologik birliklarni tasniflashga ham e’tibor bergan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, frazeologiya, tasnif, frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar, frazeologik chatishmalar, idioma.

Язык, во всём своём разнообразии, является неистощимым источником вдохновения для его исследователей и пользователей. В его пластах можно найти такие явления, речевые обороты, которые создавались в ходе исторического развития того или иного народа, выражая его быт, историю, культуру, традиции, верования, и которые воспроизводятся в нашей речи наподобие словам. Эти обороты мы будем называть *фразеологизмами* (синонимы: *фразеологическая единица, фразема, идиома*). По своей значимости *фраземика* – это ценнейшая сокровищница языка. Углублённым и всесторонним изучением фразеологического состава языка занимается наука *фразеология* (от греч. *phrasis* – выражение, *logos* – учение).

Известно, что фразеологизмы существуют с тех пор как появился сам язык. Научными вопросами проблем фразеологии учёные начали уже с XVIII века. Среди них можно выделить таких учёных-лингвистов как М.В. Ломоносов, В.И. Даль, Ш. Балли, А.А. Потебня, И.И. Срезневский, Ф. Ф. Фортунатов, А.А. Шахматов, Е.Д. Поливанов, А.И. Смирницкий, Л.В. Щерба, В.В. Виноградов и многие другие, благодаря которым наука фразеология стала особой и самостоятельной областью языкознания.

Хотя фраземика языка исследуется с давних пор, но до поры сей остаётся открытым вопрос описания концепта *«фразеологизм»* (далее, ФЕ). Далее, в последующих строках мы постарались собрать определения термину ФЕ, данные мировыми учёными

Классическое определение термину фразеологизм соотносят к одному из «отцов» фразеологии акад. В.В. Виноградову. Согласно его учению, *фразеологические единицы* – это «устойчивые» словесные комплексы, противопоставляемые «свободным» синтаксическим словосочетаниям как готовые языковые образования, не создаваемые, а лишь воспроизводимые в процессе речи [2; с. 140-161].

Согласно теории проф. Н.Ф. Алефиренко *ФЕ* – это «экспрессивно-образное устойчивое сочетание переосмысленных слов, которое выражает целостное значение и по функции соотносится с отдельным словом» [7; с. 17].

Как отмечает Ю.А. Ларионова *фразеологизмы* – устойчивые по составу и структуре, лексически не делимые по значению словосочетания и предложения, которые выполняют функцию отдельной словарной единицы — составляют огромный пласт русского языка. Без них устная и письменная речь была бы бедна и невыразительна [5; с. 3].

По мнению проф. Шанского Н. М. *фразеологизмы* – это воспроизводимые единицы языка, состоящие из двух или более ударных компонентов словного характера, целостные по своему значению и устойчивые в своем составе и структуре [4; с. 3].

Согласно теории проф. Н. Н. Амосовой, *ФЕ* – это единица постоянного контекста, в котором значение семантически реализуемого слова является фразеологически (комплексно) связано. Например, *бить баклуши, лезть на рожон, паршивая овца, козёл отпущения* и т.д. [1; с.4].

Как видно, каждый учёный, кто занимался теорией фразеологии, попытался дать определение исходя из своих учений. Очевидно, существуют несколько десятков (если не сотни) научных толкований феномена фразеологизма. После глубокого анализа перечисленных дефиниций, мы хотели бы предложить свое рабочее определение касаемо данного термина. Так, под *фразеологической единицей* мы понимаем устойчивое сочетание слов, с разной степенью слитности его составляющих, основывающееся на образную экспрессивность через переосмысление компонентов, и воспроизводимая в речи в готовом виде, при этом функционирующее как целая синтаксическая единица. Например, *желторотый птенец, сыграть в ящик, тугой (крепкий) на ухо, куры не клюют* и др.

Как и дефиниции так и классификация ФЕ имеет несколько концептов. Далее мы постарались дать краткий обзор к классификации ФЕ. Первую попытку классификации ФЕ предпринят Ш. Балли. Главным критерием он выбрал семантическую слитность составляющих фразеологизмов. Таким образом, он в своей книге «Французская стилистика» приводит следующую типологию:

1. *Свободные сочетания*: сочетания, лишенные устойчивости, распадающиеся после их образования;
2. *Привычные сочетания*: словосочетания с относительно свободной связью компонентов, допускающие некоторые изменения;
3. *Фразеологические ряды*: группы слов, в которых два рядоположных понятия сливаются почти в одно. Устойчивость этих оборотов закрепляется первичным словоупотреблением;
4. *Фразеологические единства*: сочетания, в которых слова утратили свое значение и выражают единое неразложимое понятие [3; с. 5].

Академик В.В. Виноградов, основываясь на теории *«невыводимости»* и *«мотивированности»* компонентов Ш. Балли выделил три основных типа ФЕ:

- ❖ *фразеологические сращения (идиомы)* – тип фразеологических единиц, абсолютно неделимых, неразложимых, значение которых совершенно независимо от их лексического состава, от значений компонентов, и так же условно и произвольно, как значение немотивированного слова – знака. Например, *собаку съесть; показать, где раки зимуют; диву даться; себе на уме; спустя рукава; средь бела дня; на босу ногу; попасть впросак и др.*
- ❖ *фразеологические единства* – это тип устойчивых, тесных фразеологических групп, которые тоже семантически не делимы и тоже являются выражением единого, целостного значения, но в которых это целостное значение мотивировано, являясь произведением, возникшим из слияния значений лексических компонентов. Например, *ему и горюшка мало; плакали наши денежки; держи карман шире; уйти в свою скорлупу и др.*
- ❖ *фразеологические сочетания* – тип фразеологизмов, образуемых реализацией несвободных значений слов, которые не являются безусловными семантическими единствами. Они аналитичны. В них слово с несвободным значением допускает синонимическую подстановку и

замену, идентификацию. Например, *отвести глаза; претворить в жизнь; расквасить нос; скоропостижная смерть; обагрить кровью; сардоническая улыбка закадычный друг; девичья память и др.* [2; с. 118-161]

Дополняя классификацию акад. В.В. Виноградова, проф. Н.М. Шанский выделил ещё один тип ФЕ: *фразеологические выражения* – это устойчивые фразеологические обороты, состоящие целиком из слов со свободныАми значениями. Например, *трудовые успехи; высшее учебное заведение; что написано пером, не вырубишь топором и др.* [8; с.4].

Базируясь на лексико-грамматические категории компонентов, составляющих ту или иную ФЕ, можно выделить следующую их классификацию:

- именные: *Ахиллесова пята; Авгиевы конюшни; Валаамова ослица; Танталовы муки; Дамоклов меч; загадка Сфинкса; Иерихонская труба; синий чулок; саврас без узды; чертова дюжина и другие.*
- глагольные: *раздувать кадило; дать дуба; заговаривать зубы; вставлять палки в колеса; обводить вокруг пальцев; довести до белого каления; держать за семью печатями; втирать очки; заживо хоронить и другие.*
- адъективные: *на одну колодку; на одно лицо; без царя в голове; мухи не обидит; с ноготок; нечист на руку; звезд с неба не хватает и другие.*
- адвербальные: *наобум Лазаря; во все лопатки; спустя рукава; до отвала; засучив рукава; сломя голову; из-по палки; на живую нитку; очертя голову; всеми фибрами души и другие.*
- глагольно-пропозициональные: *язык заплетается (у кого); хмель вылетел из головы (у кого); почва уходит из-под ног (у кого); руки не доходят (до кого/чего); кондрашка хватил (кого) и другие.*
- междометные**:** *Мать честная! Черт возьми! Наше вам с кисточкой! Вот те на! Час пробил! По рукам! Подумать только! Ох, тяжела та, шапка Мономаха! Этого еще не хватало! Вот так фунт! и многие другие.* [6; с.8]

Кроме сказанных выше, имеется ряд иных вариантов классификаций как тематико-идеографическая, семантическая, функционально-стилистическая и другие.

Исходя из вышеупомянутого обзора, можно сделать вывод, что наука фразеология является междисциплинарной частью лингвистики, что в свою очередь привлекает многих исследователей для углубленного изучения. Каждый учёный, кто занимается данной областью научного познания относился со своей спецификой, что и доказывает разновидность определений. Однако, не следует забывать, что в одних случаях разновидность имеющихся материалов улучшает действия тем самым обогащая научный подход к явлению, а в других несколько наоборот.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Амосова Н.М. Основы английской фразеологии. – Л., 1963. – 208 с.
2. Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – Москва: Наука, 1977. – 312 с.
3. Кунин, А.В. Курс фразеологии современного английского языка. / А.В. Кунин. – М.: Высшая школа, 1996.
4. Учебный фразеологический словарь русского языка // Н.М. Шанский, Е.А. Быстрова. – М.: 1979. – 264с.
5. Фразеологический словарь современного русского языка // Ю.А. Ларионова. — М.: «Аделант», 2014. – 512с.
6. Фразеологический словарь русского языка: Свыше 4000 словарных статей/Л.А. Войнова, В.П. Жуков, А.И. Молотков, А.И. Федоров; под ред. А.И. Молотков. – 4-е изд., стереотип. – М.: Рус. яз., 1987. – 543с.
7. Фразеология и паремиология: Учебное пособие для бакалаврского уровня филологического образования // Н.Ф. Алефиренко, Н.Н. Семененко. – М.: Наука, 2009. – 344с.
8. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1985.

SO‘Z YASALISHINING TARAQQIYOT YO‘LI

Feruza Abduraximova Boxadirovna,
FarDU

Annotatsiya

Ushbu maqolada so‘zlarning yasalishi borasida tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlar hamda tadqiqotchilar va professor olimlarning izlanishlari borasidagi fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: morfologiya, affiksatsiya, morfemika, morfema, leksikologiya, leksema, o‘zak.

Annotatsiya

V dannoy state predstavlena informatsiya ob obrazovanii slov iz istoricheskix istochnikov, a takje vzglyadы issledovateley i professorov na svoi issledovaniya.

Klyuchevые slova: morfologiya, affiksatsiya, morfemika, morfema, leksikologiya, leksema, osnova.

Annotation

This article provides information on the formation of words from historical sources, as well as the views of researchers and professors on their research.

Key words: morphology, affixation, morphemic, morpheme, lexicology, lexeme, core.

В структуре семантики глагольного слова эти признаки имеют категориально-лексический статус, то есть они являются общими для всех глаголов, обозначающих процессы, действия, состояния или изменения. Глагол противопоставлен прилагательным и наречиям по признаку процессуальности. Глагол обозначает процессы, действия, состояния или изменения, а прилагательные и наречия - признаки, которые не являются динамическими, то есть не связаны с изменением во времени.

Т.В. Булыгина считает, что глаголы и неглагольные предикаты отличаются тем, как они относятся ко времени. Неглагольный предикат обозначает постоянный, существенный признак, который не подвержен изменению во времени, а глагольный предикат обозначает признак, который является преходящим и присущим субъекту только в данный момент или период времени. Неглагольный предикат «приписывает субъекту постоянный, существенный, не подверженный изменению во времени признак», тогда как глагольный предикат «обозначает, скорее, признак преходящий, «случайный», присущий субъекту именно в данный момент (или период) времени» [1, с. 13–14].

Многие глаголы (например, статальные типа сидеть, стоять) в самом деле сопротивляются попытке трактовать их категориальное значение как процессуальное (динамическое). Однако примем во внимание в данном случае коррелированность семантики таких глаголов с их каузативами и автокаузативами (сажать, ставить/садиться, становиться): они связаны семантической функцией результативности (сравним с содержательно близкими рассуждениями Н.Б. Лебедевой о полиситуативности глагольной семантики) [8]. Некоторые глаголы, такие как «сидеть» и «стоять», имеют статическую семантику, которая сопротивляется трактовке их категориального значения как

процессуального (динамического). Однако если принять во внимание аспектуальные и временные характеристики этих глаголов, то можно увидеть, что они связаны семантической функцией результативности. Например, глагол «сидеть» может иметь значение «приобрести положение сидя» (процесс), а глагол «стоять» - значение «приобрести положение стоя» (действие). Возможно, целесообразно понимать термин «процессуальность» более широко, имея в виду аспектуальную и временную маркированность общеглагольной семантики. В таком случае, даже глаголы непроцессуальной семантики можно считать процессуальными, поскольку они обозначают действия, которые приводят к возникновению определенного результата. Рассматриваемая общекатегориальная сема процессуальности, характеризующая любой глагол, в то же время в каждом из них конкретизируется в менее абстрактных, лексико-категориальных семах, репрезентирующих различные виды действий, состояний или процессов. Например, глагол «бежать» обозначает действие, которое характеризуется высокой скоростью, а глагол «расти» - процесс, который характеризуется изменением размера или количества.

В основе дальнейшей классификации глаголов на подклассы лежат семы, которые не являются общекатегориальными, а относятся к более низким уровням семантической структуры глагола. В литературе встречается различная субкатегоризация глагольной лексики (см. например их обзор в [6]. На этом же уровне абстракции в семантике глагола выявляются семы бытийности и становления процессуального признака, однако аспект их выявления иной, чем в вышерассмотренном случае. Эти семы представляют собой языковую репрезентацию статичности/динамичности обозначаемых глаголом отношений между предметами внеязыкового мира, отражающих как пространственную, так и временну́ю связь [1, с.18].

На более низком уровне абстракции находятся лексико-семантические признаки, которые более точно и подробно характеризуют значение глагола. Так, значение действия может быть конкретизировано в семантике глагола как движения (например, ходить, плыть, вертеться), физическое воздействие (колотить), интеллектуальная деятельность (воображать) и др.

Лексико-семантические признаки, которые находятся на более низком уровне абстракции, чем общекатегориальные и субкатегориальные семы, лежат в основе дальнейшей дифференциации глаголов. Эта дифференциация происходит на уровне лексико-семантических парадигм, называемых лексико-семантическими группами. В рамках лексико-семантической группы глаголы объединяются по признаку общего значения. Например, круг глаголов движения включает в себя подсистему глаголов перемещения, вращательного движения и движения зафиксированного в пространстве предмета (ср. перемещаться – вертеться – шевелиться).

Глаголы можно дифференцировать на основе различных признаков, в том числе: Общая направленность перемещения: глаголы «плыть» и «плавать» обозначают перемещение в воде, но «плыть» означает движение в одном направлении, а «плавать» - движение в любом направлении. Пространственное расположение: глаголы «стоять» и «ставить» обозначают вертикальное расположение объекта, а глаголы «лежать» и «класть» - горизонтальное расположение объекта.

Дифференциация глагольной лексики может продолжаться до выделения отдельных глаголов. Например, глагол «бежать» можно дифференцировать на основе таких признаков, как скорость, направление и т.д. Абстрактные семы выполняют в семантическом пространстве глагольных классов две функции: Идентифицирующую: они позволяют отнести глагол к определенной группе. Например, глагол «бежать» является глаголом перемещения, а глагол «спать» - глаголом состояния. Дифференцирующую: они позволяют отличить глаголы одной группы от глаголов другой группы. Например, глаголы «бежать» и «идти» являются глаголами перемещения, но «бежать» обозначает более быстрое перемещение, чем «идти». Конкретные же семы выполняют как правило дифференцирующую функцию. Например, глагол «бежать» может иметь такие конкретные семы, как «быстро», «вперед» и т.д.

В структуре значения глагольного слова могут содержаться семы дополнительно специфицирующего характера, которые отражают вновь возникающие или познаваемые носителем языка аспекты внеязыкового мира. Например, глагол «гулять» в современном русском языке имеет сему «в свободное время». Эта сема появилась сравнительно недавно, когда у людей появилось больше свободного времени.. Таковыми являются например семы ʽпроизводя шум ногамиʼ, ʽмелкими частыми шагамиʼ и под. – соответственно в значениях глаголов шлёпать и частить, семенить. Таким образом, строение глагола как лексико-грамматического класса характеризуется многомерностью, высокой степенью иерархизованности своей семной структуры, динамизмом, постепенным переходом от абстрактного к конкретному. В семантике глагола присутствуют, как известно, грамматические семы синтагматической природы. Синтаксичность семантики глагольного слова

предопределено общекатегориальным значением процессуальности: процессуальный признак репрезентирует в глагольной семантике в обобщённо-типизированном виде представления о различных отношениях между реалиями внеязыкового мира, а также – одновременно–и о самих этих реалиях. В последнем случае это функционально различающиеся синтагматические семы (синтактикосемантические категории, категории синтаксической семантики) – такие, как субъектность, объектность, адресатность, локативность, директивность и т.п.

В.З. Панфилов отмечает: «В некоторых языках глагольное сказуемое исторически включало вначале слово со значением «вещь», «нечто», «что-то» или «некто», «кто-то», затем местоименный показатель, и лишь в дальнейшем обозначение действия как признака не осложнялось такого рода субстантивными показателями» [9, с. 109, 144–157].

С.Д. Кацнельсон считает не лишённым основания предположение о том, что образованию и дифференциации имён и глаголов генетически предшествовало существование описывающих целостные образы синкретических слов, «в которых неразрывно сочетались предметы и их призначные характеристики» [7, с. 182–183]. Наличие у глагольного слова синтагматических сем и их функциональная направленность предопределяются содержанием лексико-семантической части его значения. Так, например, присутствие в значении глаголов *давать, посылать* синтагматических сем объектности и адресатности обусловлено наличием в них лексической семы транзитивности; семантика локативного отношения у глаголов пространственного расположения предопределена лексической семой нахождения; наличие семы инструментальности в значениях глаголов типа писать, резать вытекает из семантики целесообразной деятельности. Таким образом, здесь можно наблюдать принципиальную изоструктурность семантики глагольного слова и всего глагола как грамматико-семантического класса лексики.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Булыгина Т.В. К построению типологии предикатов в русском языке // Семантические типы предикатов. М. 1982. - 367 с.

2. Баскаков Н. А. К вопросу о структуре сказуемого в тюркских языках // Советская тюркология. 1972. № 2.

3. Васильев Л.М. Современная лингвистическая семантика. М.: Либроком, 2009.

4. Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. М.: Наука. 1975. - 559 с.

5. Грамматика современного русского литературного языка. М. 1970. 10. Русская грамматика. Ч. I.М.: Наука, 1980. - 789 с

6. Ибрагимова В.Л. Категориальная семантика глагольного слова и проблема типологии глагола // Исследования по семантике: Семантика языка и речи. Межвузовский науч. сб. Вып. 16. Уфа: РИО БашГУ. 1991.

7. Кацнельсон С. Д. Общее и типологическое языкознание. Л.: Наука, 1986. - 299 с.

8. Лебедева Н.Б. Полиситуативность глагольной семантики (на материале русских префиксальных глаголов). Томск: Изд. Томского университета. 1999. - 262 с.

9. Панфилов В.З. Философские проблемы языкознания. М.: Наука, 1977. - 287 с.

BOLALAR ADABIYOTI ASARLARI TILIDA QO‘LLANGAN BA’ZI IDISH-TOVOQ NOMLARINING LISONIY XUSUSIYATLARI (X. TO‘XTABOYEV ASARLARI MISOLIDA)

Temurmalik Saidov,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti
fakulteti 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent N.Raxmonov

ANNOTATSIYA. Adabiyotning so‘z san’ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so‘z, umuman, tildir. Adabiy asarning san’at darajasiga ko‘tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog‘atiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim.

Kalit so‘zlar: umumbadiy til, grammatik qurilish, leksik-semantik tahlil

Bolalarga atalgan badiiy asarning tili umumbadiiy tilning normalariga va grammatik qurilishiga amal qilgani holda bolalarcha tafakkur qilishning o‘ziga xos ifodaviy vositasi bo‘lmog‘i, shu bilan birga, bola nutq boyligini muttasil oshirib borishga xizmat qilmog‘i shart. Bunda nuqul bolaga moslashib qolmay, balki uni ergashtirib borishga intilib, bolaga notanish so‘z va iboralarni izohtalab qilib qo‘ymay,

kontekstdayoq anglashilarli etib ifodalashga e’tibor bermoq lozim. Bolalar lug‘at boyligi – ular saviyasining mezoni. Bolalar ulg‘aygani sayin voqelikni o‘zlashtirish imkoniyatlari ham kengaya boradi, binobarin, ular so‘zni o‘zlashtirish evaziga ularning saviyalari ham ko‘tariladi, didlari o‘sa va dunyoqarashlari shakllana va to‘lisha boradi. So‘zni tushunish va o‘zlashtirish bolalarda tasavvurni chuqurlashtiradi, narsa va hodisalar haqida o‘z fikrini tug‘diradi. Bolalar uchun ijod etuvchilar ana shu holat bilan hisoblashmoqlari shart. Zotan, bolaga atalgan asarning tili qancha aniq, ifodalari teran, qisqa va obrazli bo‘lsa, voqea ham, ifodasi ham ixcham, yorqin va sodda bo‘lsa, asar shuncha ta’sirchan bo‘ladi, unda ilgari surilgan g‘oya xotiraga mustahkam o‘rnashgan sujetni idrok qilish asosida yosh kitobxonning intellektual dunyosi mahsuliga aylanadi.

Bolalar adabiyoti asarlari tilidagi idish-tovoq nomlarini leksik-semantik tahlil qilish, uning ba’zi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘rnini belgilash katta ahamiyat kasb etadi.

Biz bolalar adabiyoti asarlari tilidagi idish-tovoq nomlarini quyidagi leksik-semantik guruhlarga ajratib o‘rgandik:

1. Taom tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan idish-tovoq nomlari. Bu guruhga kiruvchi nomlar bolalar adabiyoti asarlari tilida juda kop uchraydi. Masalan, idish, qozon, kapgir, cho‘mich Idish – narsa solish (solib qo‘yish) uchun ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or yoki xo‘jalik buyumi. Idish nomi taom tayyorlashda qo‘llaniladigan idish-tovoqlarga umumiy atama sifatida ishlatilib, har xil idishlar tushuniladi. Masalan, idish – sut idish, choy idish, tuz idish kabi. Shuningdek, qozon-tovoq, tovoq-qoshiq, qoshiq tovoq kabilar ham umumiy nom hisoblanadi. Qozon – turli taomlar pishirish, tayyorlash yoki suv isitish uchun cho‘yandan quyib tayyorlangan ro‘zg‘or buyumi.

Choy, ba’zan qozon osib ovqat ham tayyorlashadi [3: 32].

Doshqozon – katta yig‘inlarda, to‘y va ma’rakalarda ko‘pchilikka ovqat pishiriladigan ulkan qozon.

Doshqozonda biqillab sho‘rva qaynayapti, o‘ziyam yigirmatacha tovuqning boshi uzilganga o‘xshaydi [4: 162].

Kapgir – [f. – kaftda tutuvchi, ushlovchi] quyuq ovqatlarni kavlash va suzish uchun ishlatiladigan, teshik-teshik, yapaloq kaftli uzun tutqichli ro‘zg‘or asbobining nomi. Bu so‘zning etimologiyasi – tuzilishi to‘g‘risida turli qarashlar mavjud. Masalan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillaridagi idish-tovoq nomlarini o‘rgangan I.Ismoilov shunday yozadi: «S.Ibrohimov kapgir tojikcha kaft va gir – oluvchi kaft ma’nosida deb izohlasa, Sh.Shoabdurahmanov kapgir tojikcha kafgir kafk – ko‘pik, gir – ol kafgir deb ko‘rsatadilar. Lekin bu yerdagi kaft so‘zidagi t, kafk dagi oxirgi k tovushlari qanday paydo bo‘lganligi, qayerdan kelganligi ko‘rsatilmaydi. Käf fors-tojik tilining o‘zida ko‘pik ma’nosidadir. L.Z.Rustamov esa kef – ko‘pik va gir – ol, ya’ni ko‘pik oluvchi degan ma’noda deb ko‘rsatadi» [1: 20].

Oshxonadan qo‘lida kapgir, hovliqqancha Oysha yugurib chiqdi [3: 78].

Cho‘mich – 1. Suyuq ovqatni shopirish va suzish uchun ishlatiladigan, uzun dastali ro‘zg‘or asbobi; yog‘log‘i. Yog‘och cho‘mich. Sirlangan cho‘mich.

2. Biror idishdan suv olish uchun ishlatiladigan, dastasi kalta, yog‘och, metall yoki plastmassadan qilingan ro‘zg‘or asbobi. Ovqatlari shunaqa bemazaki, buning ustiga cho‘michdan ham qoqib

qolishadi [3: 24]. Bu o‘rinda idish ma’nosida ishlatilgan.

Chovli – novda yoki simdan to‘qilgan, ugra, shilpildoq va sh.k. xamir ovqatlarni suzib olish uchun ishlatiladigan cho‘michsimon ro‘zg‘or asbobi.

Ular qo‘llaridagi kapgir-u chovlilarni qozonga tashlab, bo‘yinlarini cho‘zishib, o‘rtaga tikilganlaricha, shamdek qotib qolishdi [4: 83].

Kastryul(ka) – [nem. kasserolle < fr. casserolle – dastali tova] odatda, silindr shaklida bo‘ladigan, ikki bandi, qulog‘i va qopqog‘i bor, asosan, ovqat pishiriladigan yoki saqanadigan metall idish.

Shunday deb.. kastryulni ikki qulog‘idan ko‘tarib, yotoqxonaga kirib keta boshladi (X. To‘xtaboev. Shirin qovunlar mamlakati).

Aytganimdek, Vohid Soliyevich kastryulga sho‘rva solib, o‘zi kattaligi xontaxtadek keladigan bir kitobni varaqlab o‘tirgan ekan [3: 183].

Tog‘ora – [f. – katta, keng, dumaloq sopol jom] xamir qorish, kir yuvish va b. maqsadlarda ishlatiladigan katta chuqur to‘garak idish.

Bu uchun har kuni bir tog‘ora chuchvara yeb turish kerak!–deb hazillashdim Faridaga Pichoq – dastaga o‘rnatilgan yassi va uzun tig‘li ro‘zg‘or asbobi.

Bunday atrofimga qarasam, to‘rt barzangi har bittasi yarim metrdan keladigan pichoq o‘qtalib, davrani qisib kelyapti. Hammasi yalang‘ochlangan pichoq! [4: 36].

Samovar – [r. sam – o‘zi + varit – qaynatmoq] choy qaynatishga mo‘ljallangan, suvxonali va o‘txonali ro‘zg‘or anjomi.

Qo‘l-oyog‘i chaqqongina yigit emasmanmi, goh oshxonaga yuguraman, goh o‘choq boshida paydo bo‘lib qolaman, goh samovarga o‘t qalab ketaman [4: 80].
2. Taom iste’mol qilish uchun mo‘ljallangan idish-tovoq nomlari. Mazkur guruhga taom yeyish va ichishda qo‘llaniladigan idish-tovoq nomlari kiradi.
Masalan, Tovoq – yuzi yoyiq, bir oz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o‘lchamda sopol, chinni, metall, ba’zan marmardan tayyorlanadi).
Bir minutdan so‘ng tovoqdagi shirguruchni katta sochiqqa o‘rab, maktab tomonga qarab o‘qdek uchib borardim [3: 183]. Bu nom Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida chanaq [2: 362] tarzida berilgan.
Qoshiq – ovqatni eyish yoki ichish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi nomini anglatadi. Hoshimjon, bor, ikkita qoshiq olib chiqqin… [4: 69].
Piyola [f. < yun. phiale - suv ichiladitan yassi kosacha] Tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi).
Buyruqni eshitib, darrov o‘rnimdan turamanda, ko‘zadagi obizamzamdan bir piyola quyib, ustozimga uzataman [3: 183].
Choynak [r. chaynik – choy idish] Choy damlab ichiladigan, jo‘mrakli va dastali idish, uy-ro‘zg‘or asbobi.
X.To‘xtaboyevning “Sariq devning o‘limi” asarida choynakni turi elektr choynak ham qo‘llanilgan: Bir xayolim o‘t o‘chirish bo‘limiga kirib olib, oshxo‘rlik qilib elektr choynakda achchiq-achchiq choy damlab ichib, maza qilib yuraverayin ham dedim-u, negadir bu fikrimdan darrov qaytdim (21-bet). Elektr so‘ziningizohi quyidagicha: elektr [yun. elektron – kahrabo; smola, qatron] elektrik zaryadlarning mavjudligi, o‘zaro ta’siri va harakati natijasida ro‘y bergan fizik hodisalar majmui; shu hodisalar tufayli yuzaga keladigan energiya turlaridan biri. Shundan xulosa chiqarishimiz mumkinki, elektr choynakda elektr toki mavjud bo‘lib, u suvning tez qaynashini ta’minlaydi. Bu so‘z o‘zbek tili uchun neologizm hisoblanadi.
Stakan [qad. r. – stokan, dostakan < t. tostakan – yog‘och kosacha] Ichimliklar ichish uchun ishlatiladigan, dastasiz silindrik shisha idish.
Kompot pishirishgan ekan, undan ham ikki stakanni pok-pokiza urib oldim [3: 28].
Qadah [a. – piyola, jom, may idishi] – may ichiladigan idish; jom.
Men qadah degan so‘zni eshitib, bir qadah aroq tufayli boshimga qanday tashvishlar tushganini esladim-u, yugurganimcha tashqariga chiqib ketdim [4: 81].
Kosa [f.] Piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. Bir kosa sut. Ikki kosa qatiq.
Ikkita chinni kosada mastava ko‘tarib, magazinchi Ne’mat aka chiqdi [4: 69].
O‘g‘uz va qipchoq lahjalarida ko‘pincha piyola o‘rniga kosa so‘zidan foydalaniladi.
Lagan [f. – tog‘ora, idish; shamdon] – quyuq taomlar solish uchun mo‘ljal langan, tarelkadan katta yassi idish. 2 shv. Kosadan katta, ichi chuqur sopol idish;tovoq. Shkaflarda qimmatbaho, oltin suvi yugurtirilgan choynak-piyolalar, lagan-u taqsimchalar bamisoli yengil sanoat buyumlari ko‘rgazmasi tashkil etilganga o‘xshaydi [4: 92]. Yuqoridagi gapda lagan so‘zi bilan juft so‘z sifatida taqsimcha so‘zi ham qo‘llanilgan. Bu so‘z “yassi, yuza idish; likop” kabi leksik ma’nolarni anglatadi. Patnis – [r. podnos < podnosit – olib kelmoq] idish-tovoq yoki boshqa biror narsani tashish yoxud non, qand-qurs, meva-cheva kabilarni solib, dasturxonga qo‘yish uchun mo‘ljallangan, keng, yassi, chetlari sal qayrilgan metall yoki plastmassa buyum.
Tokqaychi bilan gullarning eng chiroyli ochilganlaridan qirqib kattaligi non qutichadek keladigan dastali savatni to‘ldirdi-yu, indamasdan ko‘chaga chiqib ketdi. Haligi oq lo‘ppi yuzli ayol kata qora patnisda har xil qand, tandirdan yangigina uzilgan non, bug‘i ko‘tarilgan choy olib chiqib, ravonga qo‘ydi [4: 52].
Tarelka – [nem. teller] cheti bir oz ko‘tarilgan, tubi keng, yassi oshxona idishi; likopcha. – Tfuu!- dedi yonimda o‘tirgan odam, qoshiq bilan tarelkani bir urib. [4: 26].
Likopcha – kichikroq likop. Qishloqda bo‘lsa, boshqa gap, kaftingni og‘zingga likopcha qilib bir-ikki baqirib yuborsang, g‘ashliging tarqaydi-ketadi [4: 35].
3. Xo‘jalikka oid idish nomlari. Bu guruhga ko‘za, grafin, chelak, paqir, xum, termos, xontaxta kabilarni kiritish mumkin.
Ko‘za – suv solish, tashish uchun ishlatiladigan qorni keng, bo‘g‘zi ingichka, bir tomonida dastasi bor idish.
Buyruqni eshitib, darrov o‘rnimdan turamanda, ko‘zadagi obizamzamdan bir piyola quyib, ustozimga uzataman [3: 183].
Grafin – [ital. caraffina] Suv, vino va sh. k. solib qo‘yiladigan, bo‘g‘zi tor idish. Shundan so‘ng o‘rtoq Xoliqov grafindan suv quyib ichdi [4: 182].
Chelak – asosan suyuqliklarni sakdash, tashish uchun xizmat qiladigan, silindr shaklli, yoysimon bandli idish; paqir.

Men tog‘dan arslonning bolasini ushlab keldim, quloqlari bir qarichdan, tumshug‘i naq chelakdek keladi, har qanday bo‘riniyam tappa bosadi [3: 92].
Paqir – suv va b. suyukliklarni tashish va asrash uchun ishlatiladigan, bandli, silindrsimon idish; chelak. Paqir bilan supurgini ko‘targancha, hiyol oqsoqlanib cho‘chqaxonaga o‘tib ketdi. [3: 24].
Xum [f. – katta ko‘za] Biror suyuqlik, don va sh.k. saqlash uchun turli kattalikda yasaladigan, og‘zi torroq sopol idish.
Non, bosh barmoqdan sal kattaroq termosda choy keltirdi. Boshiga o‘ttiz chelak suv ketadigan xum kiyib olibdi. [4: 43].
Termos [yun. thermos – issiq, qaynoq] ichiga quyilgan issiq yoki sovuq narsani (mas, issiq choy yoki sovuq suvni) uzoq vaqt shu holicha saqlaydigan maxsus idish.
Demak, qalpoqcham chindan ham sehrli ekan, deb o‘yladimda, termosdan choy quyib ichgan edim, hiqichoq bosildi [3: 13].
Xontaxta – [f. bezatilgan dasturxon + taxta] O‘tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta yog‘och stol.
Kattaligi kichikroq xontaxtadek keladigan surguchlangan konvertni ochib, mening shaxsiy delom bilan ham shoshmasdan tanishib chiqdi [4: 21].
Bolalar adabiyoti asarlari tilidagi idish-tovoq nomlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilning leksik tizimini zarur materiallar va adabiy til me’yorlarining yangi leksik birliklar evaziga boyishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov I., Meliyev K., Saparov M. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot. – Toshkent: Fan, 1990. – B. 20.
2. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. 3 tomlik. – Toshkent: O‘zFA, 1960. T.I. – 362 b.
3. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent, 2009, 176-bet.
4. To‘xtaboyev X. Sariq devning o‘limi. – Toshkent, 2012, 277-bet.

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHERIYATIDA FRAZEOLOGIZMLAR VA XALQ MAQOLLARI LINGVOPOETIKASI

Mahliyo Darvishaliyeva,
Namangan davlat universiteti magistranti

Ma’lumki, iboralarda emotsionallikdan tashqari, milliylik ranglari, bo‘yog‘i ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Iboralarning ma’nosi faqat kontekstda bilinadi.

O‘zbek tili turg‘un iboralarga juda boy. Qadimdan og‘zaki nutqda ishlatilib kelinayotgan iboralar, turli qochirim xarakteridagi so‘z birikmalari, maqol va aforizmlar hozirgi kunda yozma adabiyotdan munosib o‘rin egalladi va egallamoqda. Frazeologik iboralarning she’riy-uslubiy imkoniyatlari ham katta. Ular leksik vositalarga nisbatan o‘ta jozibali va ta’sirchan bo‘ladi: *ketdi – tuyog‘ini shiqillatdi, sevdi – yuragidan urdi, tez – ikki oyog‘ini qo‘liga olib* kabi va hokazo.

Iboralar shakl va ma’no munosabatiga, etimologiyasiga va zamonaviyligiga hamda nutq uslublariga ko‘ra farqlanadi.

Iboralardagi polisemiya ularning serqirra ma’nolarga ega ekanligini ko‘rsatadi: *tishi o‘tmaydi* iborasi: 1) biror qattiqroq narsani maydalashga tishning qurbi yetmaydi; 2) yenga olmaslik; 3) idrok qilib yeta olmaslik, uqnb yeta olmaslik kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Bir pul iborasi esa: 1) qadr-qimmatsiz; 2) foydasi yo‘q kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Frazeologik sinonimiyada ikki xil: 1) ibora va ibora sinonimiyasi; 2) ibora va so‘z sinonimiyasi. Ibora va ibora sinonimiyasida iboralarning biri ikkinchisidan obrazligiga yoki biror nutqqa xoslanganligiga ko‘ra farqlanib turadi: *O‘tqizgani joy topmaslik* – ye*ru ko‘kka ashonmaslik; ikki og‘iz – ikki shingil, ich-etina yemoq – o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq; yaxshi ko‘rmoq – ko‘ngil bermoq; ko‘zlari qinidan chiqdi – ko‘zlarining paxtasi chiqdi; og‘ziga talqon solmoq – mum tishlamoq, og‘ziga qatiq ivitmoq* kabi.

Takror va qaytariqlarning oldini olish, fikr ta’sirchanligini oshirish uchun so‘zga ibora sinonim qilib keltiriladi: *qo‘rqdi – yuragi yorildi; yaqin – oralaridan qil o‘tmaydi; yo‘qotmoq – kulini ko‘kka sovurmoq; sog‘aymoq – bosh ko‘tarmoq va hokazo.*

Leksik vositalar singari frazeologik iboralar ham she’riy nutq uslubida keng qo‘llaniladi. *Ko‘z bo‘yamoq, juftakni rostlamoq, qo‘li egri, tayyor oshga bakovul* kabilar so‘zlashuv uslubi uchun xarakterlidir.

Shoirlar esa xalq tilida avvaldan mavjud iboralarni o‘zgartirib, mavzuga, voqelikka bevosita moslashtirib, asar mazmuniga singdirib yuboradilar, bu bilan asar ta’sirchanligini yanada orttiradilar. Quyida

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she’ridan olingan parchada ham *qo‘li ochiq, mehri daryo, mushti qattiq, ko‘ngli bo‘sh* iboralari xuddi, shu maqsadda ishlatilgan:

Dunyo ichra
Tengsiz dunyo,
Zar chopon qalb,
Yalangto‘shim.
Qo‘li ochiq,
Mehri daryo,
Mushti qattiq,
Ko‘ngli bo‘shim.
O‘g‘liga ot bo‘lib cho‘kib,
Qizlariga alla aytgan,
Belbog‘iga borin to‘kib,
To‘yga borib to‘ymay qaytgan.
O, bola fe’l,
O, bolajon –
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

(M.Yusuf “O‘zbekiston”).

Shoir bir matnda iboralarni yonma-yon keltirish bilan ta’sirchanlikni yanada oshirgan.

Frazeologizmlar nutqda, asosan, butunligicha, ya’ni tarkibidagi komponentlari o‘zgartirilmagan holda ishlatiladi:

Bizda shunday,
Boringni qo‘y *–*
To‘rtta o‘zbek to‘plansa – to‘y.
Nomus uchun
Kerak bo‘lsa,
Joningni yoq,
Ko‘zingni o‘y.
Soch topganing,
Yoz dasturxon –
O‘zbekiston, O‘zbekiston!

(M.Yusuf “O‘zbekiston”).

Misralardagi *borini qo‘ymoq (borini bermoq), jonini bermoq, jon kuydirmoq (jonini yoqmoq), ko‘zini o‘ymoq, topganini sochmoq, dasturxon yozmoq* birliklari she’riyatda iboraning bir-ikki komponenti muallif tomonidan o‘zgartirib qo‘llanishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Yangi leksik qurshovli bu tip frazeologizmlarda emotsional-ekspressivlik yanada kuchli bo‘ladi. Xalq iboralari modellari asosida yaratilgan bunday frazeologizmlar she’rni o‘qiguvchi insonda o‘zgacha his uyg‘otadi.

Iboralar hayotiy voqealar, ijtymoiy-tarixiy hodisalar bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi va davr o‘tishi bilan eskirib, iste’moldan chiqib boradi. Eskirgan frazeologik iboralar tasvirlanayotgan davr ruhini berish, personajlar nutqini individuallashtirish uchun ishlatiladi.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida, ayniqsa, Muhammad Yusuf she’rlarida xalq maqollarini uslubiy jihatlarini o‘ziga xos va individual tarzda qo‘llanganligini kuzatdik.

Bizning manzil oq – oydin sahar,
Oftob sari yo‘limiz ravon.
Millat uchun kerak bo‘lsa gar,
Ming bir fido bo‘lmasa bu jon –
Jon chekmasang, qaydan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.
Odam bilan ulg‘ayar makon,
Dunyolarga doston bo‘ladi.
Erkli Eelning go‘dagi sulton,
Sultoni mard inson bo‘ladi.
Davri dun hammadan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.
Bug‘doy sepsang bug‘doying qiyg‘os,
Arpa eksang – arpasin olar.
Avlodlarga bizlardan meros,

O‘zbekona oriyat qolar.
Erkimiz – gulbadan qoladi,
Bizdan ozod Vatan qoladi.

Muhammad Yusufning mazkur “Bizdan obod vatan qoladi” she’rida o‘zbek xalq shevalarida mavjud bir necha maqollarning she’riy uslubga xoslangan variantlari qo‘llangan. Xususan, ***Ming bir fido bo‘lmasa bu jon – Jon chekmasang, qaydan qoladi...*** (Jon chekmasang, janona qayda, toqqa chiqmasang, do‘lona qayda), ***Erkli elning go‘dagi sulton, Sultoni mard inson bo‘ladi...*** (Ozod elning hammasi sulton, sultoni mard inson bo‘ladi), ***Bug‘doy sepsang bug‘doying qiyg‘os, Arpa eksang – arpasin olar...*** (Bug‘doy sepsang, bug‘doy o‘rasan, arpa sepsang, arpa olasan) kabi.

Bundan tashqari, shoir “Fidoiylar” she’rida xalq shevalarida uchrayligan “El deganni el ham, xudo ham siylaydi”, “Mushkulni mard yengar, nomard boshini egar”, “Og‘ir kuningda sendan qochgan do‘sting yovdir”, “Osmonga chiqsang ham, oyog‘ing yerda bo‘lsin”, “Minnatli oshdan bir kosa yovg‘on yaxshi”, “Yomon do‘stdan yo‘lda yotgan tosh yaxshi”, “Egik boshdan yorilgan bo‘lsa ham egilmagan bosh yaxshi” kabi maqollarni she’riy vazn o‘lchov talabi bilan badiiy nutqqa aylantirgan:

Kubrolardan qolgandir bu ko‘hna kuylar,
Elim degan har bandasin xudo siylar.
Vatan desa ikki qo‘llab jonin tutgan
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Kimga qo‘rg‘on – ularga keng maydon tegar,
Mard mushkulni yengar, nomard bo‘yin egar.
Erk deganga Eer yigitlar jondan jigar –
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Nomus uchun nomni emas, ruhni o‘stir,
Og‘ir kunda yovdan qochgan – yovga do‘stdir.
Yurt chorlasa suvlarni kech, o‘tlarga kir –
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Kim yurt ishqin jonlariga jolar qilar,
Kim kurashib, kimlar tamosholar qilar.
Bir chivincha qanot bo‘la olmas kimlar...
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Ko‘rinishdan tuprog‘iday oddiy gohi,
Erday xoksor, yerdan uzilmas nigohi.
Sherday na’ra tortgan ammo, kerak chogi –
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Yurt ishqida yonmas yurak – yurak emas,
Yurt qadrini bilmaganlar kerak emas,
Erkka sajda qilmaganlar kerak Eemas,
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Minnati yo‘q uyda yovgon osh yaxshidir,
Yomon do‘stdan yo‘lda yotgan tosh yaxshidir,
Yorilsa ham egilmagan bosh yaxshidir,
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.
Ko‘ngilda pok niyat bo‘lsa, nur bulog‘i,
Cho‘p minsangiz – Go‘ro‘g‘lining arg‘umog‘i.
Ozod o‘lka qalqonlari, qosh-qarog‘i,
Fidoyilar kerak bizga, fidoyilar.

(M.Yusuf “Fidoiylar”).

M.Yusuf “Inshoolloh” she’rida *“Erkinlik eshikdan o‘zi kirmas”, “Jon chekmasang, jonona, toqqa bormasang do‘lona qayda”, “Olma pish – og‘zimga tush”, “Osmondan chalpak yog‘ishini kutmak”* singari o‘zbek xalq shevalarida uchraydigan ko‘p variantli maqol va hikmatli fikrlarni badiiy she’r tizimiga aylantira olgan va o‘ziga xos xalqona, milliy ruhga ega uslubga ega bo‘lgan:

”Erk degani o‘zi kelib eshik qoqmas,
Jon chekmasang osmonlardan omad yog‘mas.
Qatoringda botirlaring bo‘lsin og‘mas,
Gurkirasin Alpomishlar o‘tgan tup roq,
Inshoolloh!
Totuv yurtda tuproq o‘zin tog‘ aylagay,

Bir-birini qo‘llagan el kam bo‘lmagay.
Bolalari Turkistonni bog‘ aylagay,
Abad yashar, xazon bilmas endi bu bog‘,
Inshoolloh!

(M.Yusuf “Inshoolloh”).

Zamonaviy o‘zbek she’riyatida juda ko‘plab shoirlar xalimiz shevalarida qo‘llanuvchi maqollarni, aforizm va hikmatlarni o‘ziga xos she’riy shakllantirib, xalqdan olib, yana xalqimizga qaytaradilar. Zero, millatning, xalqning donoligidan ortiq donishmandlik hech bir joydan topilmaydi. O‘zbek sheva areallaridagi moqol dialektizmlar ko‘p variantlilik xususiyatiga ega. Jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Tilak” she’rida ham bu jarayon yaqqol sezilib turadi:

Har kimsaning bo‘lsin o‘zin boshpanasi,
Har kimsa o‘z kulbasida davrin sursin.
Odamni-ku aytmay turay, bu dunyoda
Hatto qushning yot butoqda ini qursin.
Tirik inson bir kuni och, bir kun to‘qdir,
Bir kun to‘kin, bir kun burda noni yo‘kdir.
Bir o‘g‘il-ku otasiz ham kunin ko‘rgay,
Otasi yo‘q xalqning ko‘rgan kuni qursin.

(M.Yusuf “Tilak”).

Shoir o‘zbek xalqi sheva areallarida uchrovchi ko‘p variantli hamda sinonimlariga ega bo‘lgan *“Teshik bo‘lsa ham o‘zingning toming yaxshi”, “Hamma o‘z uyida baxtli”, “Hammaning o‘ziga bergani yaxshi”, “Yot joydagi qo‘rg‘oningdan o‘z yurtingdagi kulbang afzal”, “Yotni hech kim xushlamas”* kabi maqollarning o‘ziga xos badiiy qiyofasini misralarga badiiy mohirlik bilan singdirib joylagan. Bu esa shoirning ijodining xalqchilligini, milliy yuksak badiiy koloritga egaligini ta’minlab bergan.

M.Yusuf “Lolaqizg‘aldoq” she’rida o‘zbek xalq shevalarida mavjud *“Yomon kunlar o‘tadi-ketadi, ketingda kuyugi qoladi”, “Yaxshi yomonga aylanishi mumkin, lekin yomon yaxshi bo‘lolmaydi”, “Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l”* singari maqollar shodasini she’riy matnlarga singdirib yuborgan va bu orqali she’rlarining o‘qishliligini, badiiy ta’sir kuchini oshirgan:

Men ketsam, yomondan
Yiroq bo‘l, ohu,
Chunki sen chiroyli,
Ko‘rkli bir juvon.
Yomon kunlar bir kun
Yaxshi bo‘lar-u,
Yomon odam yaxshi
Bo‘lmas hech qachon…
Yasha chegarada
Turgandek ogoh,
Lola, lolajonim,
Lolaqizg‘aldoq!

(M.Yusuf “Lolaqizg‘aldoq”).

Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi, maqolsiz til ham yo‘q” degan edi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat. O‘zbek tili shaklan ixcham, chuqur mazmunli, nafis va jozibador. maqollarga juda boydir. Maqollarda so‘zlovchining hukm, mulohaza, pand-nasihatli fikri to‘liq ifodalanadi. Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi, Shuning uchun ham shoirlar maqollarga tez-tez murojaat etadilar.

Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida, emotsional va musiqiyligini oshirishda muhim uslubistik vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko‘z qanday. bezak bo‘lsa, maqol ham shoir nutqiga, tasviriga ana shunday husn, hayotiylik bag‘ishlaydi. So‘z ko‘rki – maqol va matal, aforizmlardan foydalanish har bir qalamkashning so‘z boyligini orttiradi, uning nutqini o‘tkir va ta’sirli qiladi.

Shoirlar o‘z kechinmalarini ochishda, obrazlarga nutqiy hayot ulashishda maqollardan ijodiy foydalanadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, iboralarda emotsionallikdan tashqari, milliylik ranglari, bo‘yog‘i ham mavjud bo‘ladi. Shuning uchun boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Iboralarning ma’nosi faqat qo‘llangan o‘rnida, boshqa so‘zlar qurshovida (kontekstda) oydinlashadi.

O‘zbek tilidagi turg‘un iboralar qadimdan og‘zaki nutqda ishlatilib kelinayotgan iboralar, turli qochirim xarakteridagi so‘z birikmalari, maqol va aforizmlar hozirgi kunda yozma adabiyotdan munosib o‘rin egalladi va egallamoqda. Frazeologik iboralarning she’riy-uslubiy imkoniyatlari ham katta. Ular leksik vositalarga nisbatan o‘ta jozibali va ta’sirchan bo‘lishi natijasida badiiyatning emotsionalligi va ta’sirchanligi ortadi.

Xalq maqollari shu xalqning butun tarixini, hayot yo‘lini aks ettiradi, Shuning uchun ham badiiyat ahli – shoirlar maqollarga tez-tez murojaat etadilar.

Xalq maqollari badiiy asar tilining shirali va ta’sirchan bo‘lishida, emotsional va musiqiyligini oshirishda muhim uslubiy vositadir. Obrazli qilib aytganda, uzukka ko‘z qanday bezak bo‘lsa, maqol ham shoir nutqiga, tasviriga ana shunday husn, hayotiylik bag‘ishlaydi. So‘z ko‘rki – maqol va matal, aforizmlardan foydalanish har bir qalamkashning so‘z boyligini orttiradi, uning nutqini o‘tkir va ta’sirli qiladi. Shoirlar o‘z kechinmalarini ochishda, obrazlarga nutqiy hayot ulashishda maqollardan ijodiy foydalanadilar.

TIL ALOQALARIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

(Nemis tili lug‘atlarida turkiy leksik elementlar misolida)

Boymatov Abdujabbor,
Jizzax DPU, Fakultetlararo xorijiy
tillar kafedrasining dotsenti, f.f.n.

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada nemis va turkiy xalqlar o‘rtasidagi til aloqalari natijasida ba’zi turkiy so‘zlarning nemis tili izohli va etimologik lug‘atlariga kirib kelganligi haqida fikr yuritiladi.

TAYANCH SO‘ZLAR: o‘zlashma so‘zlar, muammo, til aloqalari, tahlil, muqobil, izoh, tarkib, munosabat.

АННОТАЦИЯ: В данной статье идёт речь о заимствованных тюркских слов которые взяты из толковых и этимологических словарях немецкого народа.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: заимствованные слова, проблема, языковые связы, анализ, эквивалент, пояснение, состав, отношение.

ABSTRACT: This article is devoted to the image of Turkic words that are obtained from Turkic languages in explanatory and etymological dictionaries of the German people.

KEY wORDS: lexicon, challenge, linguistic, connections, examination, substitute, interpretation, substance, perspective.

Jamiyat taraqqiy etishi bilan dunyo tillari ham hamohang rivojlanib, o‘zaro til aloqalari natijasida u tillardan bu tillarga ba’zi so‘zlar ma’lum bir tilning lug‘at qatlamiga kirib keladi. Albatta, bunday holatda so‘zlar o‘sha til so‘z boyligining oshishiga, nutq jarayonida qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Dunyoda har bir tilning payda bo‘lishi, ularning rivojlanishi, o‘zining kelib chiqishi uzoq tarixiga ega.

Olmoniyada XIV-XV asrlarga kelib, fan, madaniyat, texnika, sotsial va siyosiy munosabatlarning keng miqyosda taraqqiy etib, rivojlanishi pirovardida nemis tilini milliy davlat tili sifatida qabul qilinishi, nutqda qo‘llash va o‘rganish sezilarli darajada kengaydi, natijada har xil: din va chekov, fan va huquq, maorif va madaniyat, turli mamlakatlar bilan savdo va kosibchilik, harbiy va davlat qurlishlarini ifodalovchi yangi so‘z va iboralar bilan to‘ldirib, so‘zlar boyligi oshib bordi.

Hozirgi zamon nemis tili adabiy lug‘ati qatlamlarida sof nemis so‘zlaridan tashqari (baynalmilal so‘zlarni hisobga olmagan holda) shu tilga bevosita yoki bilvosita yo‘llar bilan kirib, o‘zlashib ketgan so‘zlarning soni va salmog‘i ma’lum foizni tashkil etadi. Jahon tillarining qaysi birini olib qaramang, bunday jarayonni har bir tilning rivojlanish tarixida kuzatish mumkin.

XVII asrga kelib tilshunoslik fanining jaddal rivojlanishi natijasida, o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlarning milliy tillar lug‘at tarkibiga kirib kelish yo‘llari, ularning o‘sha til lug‘atlarida izohlanishi va ifodalanishi, hamda bu so‘zlarning u yoki bu tillarda tutgan o‘rni, etimologiyasi keng ko‘lamda o‘rganili boshlandi.

Nemis tilii lug‘atlaridagi so‘zlar sonining oshib borishida qisman bo‘lsa-da turkiy tillardan kirib borgan va o‘zlashib ketgan ba’zi so‘zlarning ham hissasi mavjud. Turkiy so‘zlarning ayrimlari tog‘ridan-to‘g‘ri, ayirimlari esa boshqa tillar yordamida nemis tiliga o‘tib, ijtimoyi hayotning u yoki bu sohalarida nutqlarda qo‘llanilib kelgan. Turkiy tillarning boshqa tillar bilan aloqalari to‘g‘risida nemis olimlari tomonidan bir qancha ilmiy maqolalar, monografiyalar va dissertstsiyalar yozilganligi haqida ko‘plab manbalar mavjud. Jumladan, I.B.Opel’baum, A.Edlinger va E.Litmannlar [1] kabi olimlar nemis va turk xalqlari tillarining o‘zaro aloqalari haqida qismann bo‘lsa-da atroflicha ma’lumotlar berganlar.

XV asrda savdo-sotiq va boshqa aloqalarning Evropa va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan rivojlanishi, pirovard natijada nemis tili lug‘at tarkibida ayrim turk leksik elementlari, ya’ni: **Tara, Damast, Atlas, Zitrone, Kaffee, Quark** kabi (bunday so‘zlarni yana davom ettirish mumkin) so‘zlar kirib kelaboshladi. Bu so‘zlar turkiy so‘zlarga xos bo‘lsa-da, nemis tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki bilvosita italiyancha so‘z bo‘lib, bu til ikkala til o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘tagan.

Turk tili bilan nemis tili o‘rtasidagi mavjud turli sohalardagi aloqalarni o‘rganishda nemis tilining nufuzli lug‘atlarida qayd etilgan ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu lug‘atlarni kuzatishdan kelib chiqqan xulosalar shu bo‘ldiki, ba’zi turkiy tillarga oid so‘zlar haqida berilgan ma’lumotlar bir-biriga mos kelmaydi, shuningdek, ayrim turkiy so‘zlar tog‘risidagi keltirilgan dalillar juda kam yoki umuman hech qanday axborot berilmaydi. Xusisan, turkiy tillarga tegishli bo‘lgan **Aga, Baba, Tabun, Ziesel, Zobel, Kenaf, Feluke, Artel, Kabache, Hurra, Woylach, Burlak, Karmezin, Buche, Trappe, Palanke, Airan, Aityssi** va shunga o‘xshash ko‘plab (biz kuzatgan nemis tili izohli va etimologik lug‘atlarda turkiy so‘zlarning umumiy soni 500 dan ziyod) leksik birliklar haqida ham har xil fikrlar mavjud bo‘lib, ularga lug‘atlarda turlicha izoh berilgan.

Turkiy tillardan boshqa tillar yordamisiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri nemis tiliga kirib kelgan so‘zlar ham uchraydi. Masalan: **Airan, Araba, Aladscha, Baltadschi, Bai/Bey, Begum, Handschar, Han/Chan/Khan, Jastik, Kaik, Kebab, Medschidije, Pascha, Sandal, Boza, Kaimak, Oda-Baschi, Bachschi, Bokhara, Dombra, Kalym, Dscheiran, Guldschan, Kyschlak, Saxaul, Jakut, Turssuk, Churdschin, Joghurt, Sofa, Surme, Bozar, Karawane, Kaffee** kabi so‘zlarni yana davom ettirish mumkin. Bu so‘zlardan aksariyati hozirgi turkiy so‘zlarga shaklan o‘xshamaydi, chunki tillarda payda bo‘lgan har qanday yangi so‘z o‘zlashish jarayonida albatta fonetik inqirozga uchrashi tabiiy holat hisoblanadi. Bu so‘zlardan **Kaffee** so‘zi arab tilidan turk tili orqali kirib kelgan bo‘lib, nemis tilida XV asrdan boshlab **chawe** shaklida uchraydi. **Kofe** so‘zining hozirgi zamon shakli faqatgina XVII asr oxirida frantsuz tilidan o‘zlashgani manbalarda qayd etilgan. **Basar/Bazar** va **Karawane** so‘zlari nemis tili lug‘atlariga kirib qolganligi XVI asrdayoq, allaqachon ma’lum bo‘lgan.

Endi, galdagi dolzarb masala, nemis tilining lug‘at boyligiga hissa qo‘shgan chet tillardan kirib kelgan so‘zlardan tozalash muammosi edi. Natijada, purizm, (ya’ni tilni o‘zgarmagan holda saqlash, uni chet so‘zlardan tozalash) [2;279 b.] oqimi payda bo‘lib, bu oqimning namoyandalaridan, lug‘atshunos olimlar J.H.Kampe, (Wörterbuch zur Erklärung und Verdeutschung der unserer Sprache aufgedrungenen fremden Ausdrücke) Jakob Grimmlar [4]kurash olib bordilar. 1876 yilgacha Germaniya pochta aloqalari direktori Stefan bir necha chet atama so‘zlarni, temir yo‘l aloqasi bo‘icha atiga 1000 gina, bank va yuridika sohasidagi ayirim atamalarni ham nemis tilidagi muqobil so‘zlarga almashtirdilar [3;366,367 betlar].

Demak, biz ham, yuqorida bildirilgan fikrlarga qo‘shilgan holda, imkon darajada nutqimizda qo‘llanilib kelinayotgan va turky tillarga xos bo‘lgan o‘zbek tilining lug‘at qatlamiga kirib kelgan o‘zga zo‘z va atamalardan tozalash ishlarini olib bormog‘imiz kerak bo‘ladi. Chunki, boshqa, ya’ni Evropa tillaridan o‘zlashgan va o‘zlashmagan sozlarning salmoqli sezilarli ravishda oshib bormoqda. Shuning uchun ham lug‘at kitoblar sonini oshirmasdan, o‘zbek tili lug‘at tarkibini o‘zga so‘zlar hisobidan boyib borishga barham berish kerak.

Nemis va turk xalqlari tillari o‘rtasidagi o‘zaro til bilan bog‘liq aloqalar tarixini o‘rganish natijasida quyidagi xulosaga kelishni taqoza etadi.

1. Nemis va turkiy tillari o‘rtasidagi mavjud bo‘lgan bevosita yoki bilvosita aloqalar va bu tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri to‘g‘risida deyarlik etarli darajada ish olib borilmagan; shu soha yuzasidan e’lon qilingan ilmiy maqolalarda va izlanishlarda, nemis tilining lugat tarkibida turkiy tillardan o‘tib qolgan so‘zlarning tutgan o‘rni, ularning nutqlarda qo‘llanilishi hamda roli haqida va bu o‘zlashma so‘zlarning o‘sha til muhitidagi ahamiyati, fonetikasi, morfologiyasi va leksik semantikasi to‘g‘risida aniq fikr yuritilmaydi;

2. Sharq xalqlari bilan Olmoniya xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar va bu munosabatlar natijasida nemis tili izohli va etimologik lug‘atlariga boshqa tillar vositasida o‘tib qolgan Sharqona leksik elementlarning talqinida turkiy xalqlar va ularning tillari haqida hamda lug‘atlarda tutgan o‘rni, roli juda kam yoritilgan.

3. Nemis tili izohli va etimologik lug‘atlari tarkibidan o‘rin olgan turkiy leksik birliklarning o‘zlashma yo‘llari va kelib chiqish tarixi bo‘yicha anniq ma’lumot berilmaydi, ba’zi so‘zlar to‘g‘risida kelltirilgan dalillar esa bir-biriga mos kelmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Опельбаум Е.В. Восточнославянские лексические элементы в немецком языке: Автореф. дисс. … на соиск. учен. степ. д-ра филол. наук.-Киев, 1969.- 47 с. Littmann E. Morgenländische Wörter im Deutschen.- Berlin: Verlag Karl Curtius, 1920. – 46 S.

GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR: MUAMMO VA YECHIMLAR

Davronova Surayyo Mardon qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada globallashuv davrida turkiy tillarning o‘rni, muammo va yechimlari haqida so‘z yuritiladi.*
Kalit so‘zlar: *turkiy tillar, tilining tarixi, oltoy tillari oilasi, turkiy xalqlar.*
Аннотация: *В данной статье рассматриваются проблемы и пути решения роли турецких языков в эпоху глобализации.*
Ключевые слова: *тюркские языки, история языка, алтайская языковая семья, тюркские народы.*
Abstract: *This article discusses the problems and solutions to the role of Turkish languages in the era of globalization.*
Key words: *Turkic languages, language history, Altai language family, Turkic peoples.*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir» [1]. Biz esa ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylash, uni boyitish, nufuzini oshirishni o‘zimiz uchun eng ustuvor, uzviy davom etadigan yuksak maqsad deb bilishimiz va bu masalaning ahamiyati hech qachon e’tiborimizdan chetda qolmasligi zarur.

O‘zbek till turkiy tillarga mansub bo‘lib, oltoy nazariyasiga ko‘ra mo‘g‘ul, tung‘uz-manjur, koreys va yapon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil qiladi. Shunga ko‘ra turkiy tillarning, jumladan, o‘zbek tilining tarixi, oltoy tillarini qadimgi bir til bo‘lgan - oltoy davridan boshlanadi. Oltoy bobo till dastlab tung‘uz-manjur va turk-mo‘g‘ul tillariga: turk-mo‘g‘ul tili esa turk va mo‘g‘ul tilariga ajralgan. hundan so‘ng turkiy tillar tarixida xun davri (meloddan avvalgi III asrdan melodiy IV asrgacha) boshlanib, urkly tillar ikki tarmoqqa - sharqiy xun va g‘arbiy xun fillariga bo‘linadi. Turkiy tillar tarixda xun davrining alohida ko‘rsatilishiga o‘sha davrda Markaziy Osiyodan harqiy Evropagacha hududini ishg‘ol qilgan xun xonligini vujudga kelib, keyinchalik ikkiga ajralish asos qilib olinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

M.F. Kazembek o‘zining «Grammatika»sida shunday deb yozgan edi: «Turkiy tillar boshqa sharq tillari ichida juda katta miqdorni tashkil etsa-da ushbu noqulayliklarni (tinish belgilari va katta harflarning yo‘qligi) yengillashtirish uchun bir butunni tashkil etuvchi jumla va gaplarni birlashtirishga harakat qiladilar»[2]. U mana shu fikrlari bilan murakkab sintaktik butunlik masalasiga juda yaqin keladi.

Bundan tashqari, tilshunos K.M.Abdullaevning ozarbayjon tili materiallariga oid bir nechta maqolalari mavjudligini ham aytib o‘tish maqsadga muvofiq [3].

Uning fikricha, matn «ikki yoki undan ortiq mustaqil gaplardan iborat bo‘lgan, ichki xususiyatlariga ega bo‘lgan murakkab sintaktik butunlikdir. Ammo gaplarning tasodifiy yig‘indisi hali matn degani emas, aniqrogi, yaxlit bir butunlikni yuzaga keltirmaydi. O‘ziga xos, takrorlanmaydigan matnnni shakllantiruvchi qandaydir tamoyillar bo‘lishi lozim» [4, 5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ozarbayjonlik tilshunos K.N. Veliyev matnlarni mikromatnlar va makromatnlar kabi ikki guruhga ajratadi. Uning yozishicha, «birinchi darajali mikromatnlar murakkab sintaktik butunlikni, ikkinchisi - bir nechta (ikki yoki undan ortiq) murakkab sintaktik butunlikni birlashtirgan yaxlitlikni, uchinchi darajali mikromatnlar esa - alohida bayon etilgan fikr yoki boblarni qamrab oladi. Makromatn esa butun bir asardir» [6]. Ushbu maqolada olim murakkab sintaktik butunlikning yuzaga kelishida bog‘liqlikning roliga katta urg‘u beradi.

U ozarbayjon tiliga xos bo‘lgan matnlarni hosil qiluvchi vositalar orasidan shakliy va mazmuniy vositalarni ajratib ko‘rsatadi:

Shakliy vositalar :
1) takror;
2) so‘z tartibi;
3) u yoki bu elementni qo‘shish yoki alohida belgilash;
4) bog‘lamlar;
5) modal so‘zlar;
6) olmoshlar yoki qayta nomlovchi nutqning boshqa qismlari;
7) sinonimik birliklar.

Mazmuniy vositalar:

1) eslatma;
2) bog‘liqlik;
3) o‘ziga xoslik;
4) ajratilganlik;
5) aniqlik va noaniqlik.

Shakliy vositalar :
1) takror;
2) so‘z tartibi;
3) u yoki bu elementni qo‘shish yoki alohida belgilash;
4) bog‘lamlar;
5) modal so‘zlar;
6) olmoshlar yoki qayta nomlovchi nutqning boshqa qismlari;
7) sinonimik birliklar.
Mazmuniy vositalar:
1) eslatma;
2) bog‘liqlik;
3) o‘ziga xoslik;
4) ajratilganlik;
5) aniqlik va noaniqlik.

Olim matn tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqa usullarini aniqlash bilan birga u ko‘plab olimlar kabi matn qismlari orasidagi bog‘lanishlar zanjirli, parallel bog‘lanish mavjudligini e’tirof etadi va uchinchi zanjirli-paralel bog‘lanish turini ham ajratadi [7].

So‘ngra milodning V asrdan X asrgacha bo‘lgan uzoq vaqtni o‘z ichiga olgan turk davri keladi. Umumxalq o‘zbek tilining tarixi oltoy davridan boshlansa, o‘zbek adabiy tilining tarixi yozma yodgorliklari mavjud bo‘lgan qadimgi turk davridan boshlanadi. Bu davrning obidalari barcha turkiy xalqlar uchun mushtarakdir.

Hozirgi o‘zbek tili qadimgi turkiy tildan ajralib chiqqan. Turkiy tillar o‘rtasidagi qarindoshlik, yaqinlik sintaktik qurilmalarning birligida, so‘z o‘zgartiruvchi, so‘z yasovcht affikslarning o‘xshashligida, tovush tuzilishi va lug at boyligidagi barqaror, zaruriy tushunchalarni bildiradigan so‘zlaming umumligida yaqqol ko‘rinadi. Ana shu umumiy belgilarga to‘g‘ri kelmaydigan fonetik, leksik va qisman grammatik farqlar til taraqqiyotining so‘ngra davrlarida paydo bo‘lgan xususiyatlardir. Hozirgi turkiy tillarning o‘ziga xos xususyatlari, ularning mustaqil tillar sifatida taraqqiy etishidan dalolat beradi.

O‘zbek till turkiy guruhga kiruvchi tillardan biri bo‘lib, undagi fonetik, morfologik, sintaktik, leksik o‘xshashliklar Markaziy Osiyoda istiqomad qiluvchi uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz, turkman xalqlarining tillarida ko‘proq uchraydi. Bu o‘zbek xalqining til jihatdan yuqoridagi xalqlar bilan uzoq vaqtlardan bo‘yon Ijtimoiy munosabatda bo‘lib kelganligining natijasidir. Shuning uchun ham ma’lum o‘ziga xoslikni hisoblamaganda, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, uyg‘ur, qoraqalpoqlar bir-birlarini qiynalmasdan tushuna oladi. Ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari va diniy e’tiqodlariga ham mushtaraklik bor. Agar yoqut - tuva, hakas tillarini olsak, ularda o‘zbek tili bilan mushtaraklik bo‘lsa ham, lekin uzoq vaqtlardan beri ijtimoiy aloqaning bo‘lmaganligi (ruslar bilan bo‘lgani), yashash sharoitlarining, tirikchiligining har xilligi tufayli til xususiyatlarida farqlar ko‘p[8]. Birgina leksikasini olsak, masalan, yoqut tilida chorvachilik buyicha kiyik, los tarmoqlari rivojlangan. Ana shu sohaga oid so‘zlar atamalar juda ko‘p. Bog‘dorchilik, paxtachilik, poliz ekinlariga oid so‘z atamalar yo‘q. O‘zbek tilida esa bu sohaga xos so‘zlar juda ko‘p.

Bunday o‘xshashlik va farqlarni Volgabo‘yi, Kavkaz, Sibir va boshqa xududlarda yashaydigan turkiy xalqlarning tillarida ham uchratish mumkin. Turkiy tillar o‘rtasida o‘xshash va farqli xususiyatlar fonetika, morfologiyadagina emas, balki leksikada ham yaqqol ko‘rinadi. Masalan: o‘zbek tilida boshoq; uyg‘ur tilida bashaq-mashaq qozoq, qoraqalpoq tillarida masaq; turkman tilida summul (ar, sum bula); yoqut tilida kuolas (rus, kolos) va sh.k.
Turkiy tilli xalqlar miqdor jihatdan dunyoda katta o‘rin tutadi.
	Uygur Türkçesi	dan/den/dın/din/tin
	Karahanlı Türkçesi	dan/den/tan/ten/dın/din/tın/tin
	Harezm Türkçesi	dan/dın/din/tın
	Kıpçak Türkçesi	dan/den/tan/ten/dın/din/tın
	Çağatay Türkçesi	dın/din/tın/tin
	Eski Oğuz Türkçesi	dın/din/dan/den
Güneydoğu Grubu	**Özbek Türkçesi**	den
	Yeni Uygur Türkçesi	din/tin

Ünsüz Uyumu Bakımından Ekin Değerlendirilmesi

Tarihî Türk lehçelerinden Köktürk Türkçesinde ötümsüz olarak kullanılan ek, ötümlü ünsüzlerle kullanıldığı zaman ünsüz uyumu bozulmaktadır. Tarihî Türk lehçelerinden Uygur, Karahanlı, Harezm, Kıpçak, Çağatay ve çağdaş Türk lehçelerinden Yeni Uygur Türkçesinde iki şekilli olarak kullanılan ek, Karahanlı, Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi dönemlerinde iki şekilde bulunan bu ekin ünsüz uyumuna dikkat edilmeden kullanılmışken, örnekleri tespit edilen lehçelerde ünsüz uyumu gözetilerek kullanıldığı görülmektedir. Tarihî Türk lehçelerinden Eski Oğuz ve çağdaş Türk lehçelerinden Özbek Türkçesi döneminde ötümlü olarak kullanılan bu ekin ötümsüz ünsüzlerle birlikte kullanılması ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olur.

Yükleme Hali +nX

Yükleme hâli eki bir ismi, kendisini etkileyen bir fiile bağlayan hâldir (Ergin, 1997: 231). Korkmaz (2003: 277) bu hâl ekini cümlede geçişli bir fiilin etkisi altında kalan adın içinde bulunduğu hâl olarak tanımlamaktadır. Yükleme hâli ekini isimler cümlede nesne görevinde kullanılır.

Ekin Tarihî ve Çağdaş Türk Lehçelerindeki Görünümü

Kök. +ni: bizni: bizi (KEYD, 53); **Uyg.** +nı/+ni: bözni: bezin, otlarnı: otları (EUTG, 138); **Krh.** +nı/+ni: yüzni: yüzü, arıġlıḳnı: temizliği, közni: gözü, uḳuşnı: atımnı: atımı (TÇTDHE, 114; KHKD, 64; KTG, 31-39); **Hrz.** +nı/+ni: yolnı: yolu, könülni: gönlü, açuḳnı: açığı, biligni: bilgiyi (TÇTDHE, 114; KHKD, 192); **Kıp.** +nı/+ni: kökni: göğü, açlarnı: açları, aġaçnı: ağacı, altunnı: altını, atnı: atı, sözni: sözü (KTG2, 201; TÇTDHE, 114; KTG1, 66); **Çağ.** +nı/+ni: başnı: başı, boġzumnı: boğazımı, itni: köpeği, köksümni: göğsümü (TÇTDHE, 115; ÇT, 144); **EOT** +ni: kümüşni: gümüşü, (TTLKEAT, 114); **Özb.** +ni: bizni: bizi, ḳozni: gözü, gapni: sözü, haḳḳıḳatni: gerçeği (ÖTG, 85; ÖTGMS, 40); **Y. Uyg.** +ni: işni: işi, ḳolni: kolu, işlerni: işleri (YUTG, 58).

LEHÇE GRUPLARI	LEHÇELER	+nX
Tarihî Türk Lehçeleri	**Köktürk Türkçesi**	ni
	Uygur Türkçesi	nı/ni
	Karahanlı Türkçesi	nı/ni
	Harezm Türkçesi	nı/ni

	Kıpçak Türkçesi	nı/ni
	Çağatay Türkçesi	nı/ni
	Eski Oğuz Türkçesi	ni
Güneydoğu Grubu	**Özbek Türkçesi**	ni
	Yeni Uygur Türkçesi	ni

Ünsüz Uyumu Bakımından Ekin Değerlendirilmesi

Tarihî Türk lehçelerinden Köktürk, Uygur, Karahanlı, Harezm, Kıpçak, Çağatay, Eski Oğuz ve çağdaş Türk lehçelerinden Özbek, Yeni Uygur Türkçesinde ötümlü olarak kullanılan ek, ötümsüz ünsüzlerle birlikte kullanıldığında ünsüz uyumu bozulmaktadır.

Yön Gösterme Hali +ġArU

Kelime gruplarında ve cümlede fiilin yönünü gösteren hâldir. Yön gösterme ekleri fiilin cereyan ettiği yönü gösterir, ismi fiile bağlar ve bulundukları kelime zarf olarak kullanılır (Ergin, 1997: 241).

Ekin Tarihî ve Çağdaş Türk Lehçelerindeki Görünümü

Kök. +ġaru/+gerü: abgerü: karargâha, tabgaçġaru: Çin'e, ötüken yışġaru: Ötüken yönünde, ol yėrgerü: oralara (OTG, 108; KEYD, 53); **Uyg.** +gerü/+ḳaru/+kerü: yoḳḳaru: ayağa, yirgerü: yere, taş, taşḳaru: dışarı, içkerü: içeri (EUTG, 158; TÇTDHE, 384); **Hrz.** +ġaru/+gerü/+ḳaru/+kerü: artġaru: geriye, içkerü: içeri, ilgerü: ileri, taşḳaru: dışarı (TÇTDHE, 385; KHKD, 194): **Kıp.** +geri/+ḳarı/+ḳaru/+kerü: taşḳarı: dışarı, ilgeri: ileri, artḳarı: ardınca, içkerü: içeri, yilgeri: ön, uçḳaru: uca doğru (TÇTDHE, 385; KTG2, 204, KTG1, 76); **Çağ.** +geri/+ḳarı/+keri: yoḳḳarı: yukarı, ilgeri: ileri, içkeri: içeri, taşḳarı: dışarı (TÇTDHE, 385; ÇT, 150); **Özb.** +ḳarı/+keri: içkeri: içeri, taşḳarı: dışarı (ÖTG, 87).

LEHÇE GRUPLARI	**LEHÇELER**	**+ġArU**
Tarihî Türk Lehçeleri	**Köktürk Türkçesi**	gerü/ġaru
	Uygur Türkçesi	gerü/ḳaru
	Karahanlı Türkçesi	geri/ḳarı/ḳaru/kerü
	Harezm Türkçesi	ġaru/gerü/ḳaru/kerü
	Kıpçak Türkçesi	geri/ḳarı/ḳaru/kerü
	Çağatay Türkçesi	geri/ḳarı/keri
	Eski Oğuz Türkçesi	
Güneydoğu Grubu	**Özbek Türkçesi**	ḳarı/keri
	Yeni Uygur Türkçesi	-

Ünsüz Uyumu Bakımından Ekin Değerlendirilmesi

Tarihî Türk lehçelerinden Köktürk Türkçesinde ötümlü olarak kullanılan bu ekin, ötümsüz ünsüzlerin yanında kullanılması ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olmaktadır. Tarihî Türk lehçelerinden Uygur, Harezm, Kıpçak, Çağatay Türkçesinde ötümlü ve ötümsüz olarak iki biçimde kullanılan ek, Harezm Türkçesi döneminde ünsüz uyumuna uymazken, Uygur, Kıpçak, Çağatay Türkçesinde ekin ötümlü biçiminin ötümlü ünsüzlerle, ötümsüz biçiminin ötümsüz ünsüzlerle birlikte kullanılması ünsüz uyumuna uygun olduğunu göstermektedir. Çağdaş Türk lehçelerinden Özbek Türkçesinde ötümsüz olarak kullanılan ek, tespit edilen örneklerde uyuma uygun kullanılırken, ötümlü ünsüzlerle kullanımı ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olmaktadır.

Eşitlik Hali +CA

Eşitlik hâli eklendiği ad ile fiil veya cümlenin diğer ögeleri arasında karşılaştırmaya dayanan farklı niteliklerde eşitlik ilgisi kurma durumudur (Korkmaz, 2003: 324). Eşitlik hâli eki eşitlik, gibilik, benzerlik, görelik ifadesi oluşturmaktadır (Ergin, 1997: 239).

Ekin Tarihî ve Çağdaş Türk Lehçelerindeki Görünümü

Kök. +ça/+çe: buzḳunça: fırtına gibi, törösinçe: töresince, eligçe: elli kadar, otça: ateş gibi, ügüzçe: nehir gibi (OTG, 109-122; TÇTDHE, 315); **Uyg.** +ça/+çe: köñülçe: istediğiniz kadar, tolġınça: dolana kadar, balıḳça: balık gibi, barça: bep, tapınça: arzumca (EUTG, 153; TÇTDHE, 315); **Krh.** +ça/+çe: avuççа: avuç kadar, kedimçe: giyecek kadar barça: parça (KTG, 31; TÇTDHE, 316); **Hrz.** +ça/+çe: suvça: su gibi, tilinçe: dilinde, anlarça: onlara göre (TÇTDHE, 316; KHKD, 193); **Kıp.** +ça/+çe: barçamızça: hepimize göre, ança: o kadar, izçe: ize göre, bilesinçe: beraberinde olarak, ḳızılça: kızılca, terçe: çabuk (TÇTDHE, 316; KTG2, 203; KTG1, 75); **Çağ.** +ça/+çe: atamça: babam gibi, kümüşçe: gümüş gibi, tamuġça: cehennem gibi,

tofraḳça: toprak gibi, itçe: köpek gibi (ÇT, 149; TÇTDHE, 317); **EOT** +ça/+çe/+ca/+ce: ḳuşça: kuş gibi, dilce: gönle göre, okımışca: okumuş gibi, bilesinçe: yanında (EAT, 53; TÇTDHE, 317); **Özb.** +ça/+çe: köpinçe: çoğunlukla, meninçe: bence, yigitçe: yiğitçe, manimça: bence (ÖTG, 86; ÖT, 94; ÖTGMS, 42).

LEHÇE GRUPLARI	LEHÇELER	+çA
Tarihî Türk Lehçeleri	Köktürk Türkçesi	ça/çe
	Uygur Türkçesi	ça/çe
	Karahanlı Türkçesi	ça/çe
	Harezm Türkçesi	ça/çe
	Kıpçak Türkçesi	ça/çe
	Çağatay Türkçesi	ça/çe
	Eski Oğuz Türkçesi	ca/ce/ça/çe
Güneydoğu Grubu	Özbek Türkçesi	ça/çe
	Yeni Uygur Türkçesi	-

Ünsüz Uyumu Bakımından Ekin Değerlendirilmesi

Tarihî Türk lehçelerinden Köktürk, Uygur, Karahanlı, Harezm, Kıpçak, Çağatay ve çağdaş Türk lehçelerinden Özbek Türkçesinde ötümsüz olarak kullanılan ekin ötümlü ünsüzlerle birlikte kullanılması ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olmaktadır.

Sınırlama Hâli +GAçA

Ekin İşlevi

Türk Dil Kurumu'nun Büyük Türkçe Sözlük'ünde "Bazı dillerde, fiille anlatılan eylemin yayılış sınırını göstermek üzere ismin girdiği çekim hâli" olarak tanımlanmaktadır (http://tdkterim.gov.tr/bts/).

Ekin Tarihî ve Çağdaş Türk Lehçelerindeki Görünümü

Özb. +ġaça/+geçe/+ḳaça/+keçe: keçgeçe: akşama kadar, tirsekkeçe: dirseğe kadar, çoḳḳaça: bu zamana kadar, ḳunġaça: bugüne kadar (ÖTG, 87; ÖTGMS, 41); **Y. Uyg.** +giçe/+kiçe: işkiçe: işe kadar, ḳolgiçe: kola kadar, öyüñgiçe: evine kadar (YUTG, 60).

LEHÇE GRUPLARI	LEHÇELER	+GAçA
Tarihî Türk Lehçeleri	Köktürk Türkçesi	-
	Uygur Türkçesi	-
	Karahanlı Türkçesi	-
	Harezm Türkçesi	-
	Kıpçak Türkçesi	-
	Çağatay Türkçesi	-
	Eski Oğuz Türkçesi	-
Güneydoğu Grubu	Özbek Türkçesi	ġaça/geçe/ḳaça/keçe
	Yeni Uygur Türkçesi	giçe/kiçe

Ünsüz Uyumu Bakımından Ekin Değerlendirilmesi

Çağdaş Türk lehçelerinden Özbek, Yeni Uygur Türkçesinde iki şekilli olarak kullanılan ek, örnekleri tespit edilen lehçelerde ünsüz uyumuna uygun kullanılmaktadır.

Sonuç

Özbek ve Uygur Türkçesinde ötümlü karşılığı olup da sadece ötümsüz kullanılan ya da ötümsüz karşılığı olup sadece ötümlü kullanılan hâl ekleri ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olmaktadır. Bu lehçelerde ötümlü ve ötümsüz biçimleri birlikte kullanılan hâl eklerinin görülen örneklerde uyuma uygun kullanıldığı tespit edilmiştir. Ötümsüz karşılığı olmayan ötümlü ünsüz ile kullanılan ilgi hâli ekinin ise ötümlülerle kullanılması uyuma uyarken ötümsüzlerle kullanımı ünsüz uyumunun bozulmasına sebep olmaktadır. Sonuç olarak bir bütünlük içinde düşünülecek olursa, hâl ekleri bakımından Güneydoğu Grubu Türk lehçelerinde ötümlü+ötümlü; ötümsüz+ötümsüz uyumunun tam manasıyla işletilmediği görülmektedir.

KAYNAKLAR

Argunşah, M. 2021. **Çağatay Türkçesi (7. Baskı)**. İstanbul: Kesit Yayınları. (ÇT).
Argunşah, M., Güner, G. 2015. **Codex Cumanicus**. İstanbul: Kesit. (CC).

Argunşah, M., Yüksekkaya, G. S. 2021. **Karahanlıca, Harezmce, Kıpçakça Dersleri**. İstanbul: Kesit Yayınları. (KHKD).
Ayazlı, Ö. 2012. **Altun Yaruk Sudur VI. Kitap**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (AYS).
Buran, A. 1996., **Anadolu Ağızlarında İsim Çekim (Hâl) Ekleri**, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
Buran, A. 2008., "Anadolu Ağızlarında İsim Hâl Ekleri", **Makaleler (Haz. Ercan Alkaya-S. Kaan Yalçın-Murat Şengül)**, Ankara: Turkish Studies Yayınları, s. 88-97.
Buran, A. 2017., "Kırgız Türkçesinde Ses Uyumlarının Sebep Olduğu Ses Değişmeleri". **Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD) CİLT 1**, S. 1, 2017, s. 1-11.
Buran, A., Alkaya, E. 2014. Çağdaş Türk Yazı Dilleri / Güneydoğu Karluk Grubu (2. Cilt), Ankara: Akçağ Yayınları.
Caferoğlu, A. 1968. **Eski Uygur Türkçesi Sözlüğü**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (EUTS).
Coşkun, M.V. 2017. **Özbek Türkçesi Grameri**, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
Eckmann, J. 2005. **Çağatayca El Kitabı (Çev. Günay Karaağaç)**. Ankara: Akçağ. (ÇEK).
Eraslan, K. 2012. Eski Uygur Türkçesi Grameri. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (EUTG).
Ercilasun, A.; Akkoyunlu, Z.; 2015. **Kâşgarlı Mahmud, Dîvânu Lugâti't-Türk**, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (DLTGMÇND).
Erdal, M. 1991. **Old Turkic Word Formation. Otto Harrossowitz-Wiesbaden**. (OTWF).
Ergin, M. 1997. **Türk Dil Bilgisi**, İstanbul: Bayrak Yayınları.
Ergin. M. 2018. **Dede Korkut Kitabı 1-2.** Ankara: Türk Dil Kurumu. (DDK).
Gülsevın, G. 1997. **Eski Anadolu Türkçesinde Ekler**. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (EATE).
Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. 2021. **Özbek Türkçesi - Gramer Metin Sözlük**, İstanbul: Kesit.
Güner, G. 2020. **Kıpçak Türkçesi Grameri**. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (KTG2).
Karagözlü, S. 2018. **İbnü Mühennâ Lügati-Türkçe Kısmı**. İstanbul: Kesit. (İML).
Karamanlıoğlu, A. F. 2019. **Kıpçak Türkçesi Grameri**. Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları. (KTG1).
Korkmaz, Zeynep (2003)., **Türkiye Türkçesi Grameri (Şekil Bilgisi)**, Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
Ölmez, M. 2021. **Köktürkçe ve Eski Uygurca Dersleri**. İstanbul: Kesit Yayınları. (KEUD).
Öztürk, R. 2020. **Yeni Uygur Türkçesi Grameri**, Ankara: Türk Dil Kurumu. (YUTG).
Şahin, H. 2018. **Eski Anadolu Türkçesi (5. Baskı)**. Ankara: Akçağ Yayınları. (EAT).
Şahim, E. 2003. Tarihî ve Çağdaş Türk Yazı Dillerinde Hâl Ekleri ve İşlevleri, Marmara Üniversitesi. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü. Yayınlanmamış Doktora Tezi.
Şen, S. 2020. **Eski Uygur Türkçesi Dersleri**. İstanbul: Kesit Yayınları. (EUTD).
Şirin, H. 2016. **Eski Türk Yazıtları Söz Varlığı İncelemesi**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (ETYSVİ).
Taş, İ. 2015. **Kutadgu Bilig'de Söz Yapımı**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (KBSY).
Tekin, T. 2000. **Orhon Türkçesi Grameri**. Ankara: Türk Dilleri Araştırmaları Dizisi. (OTG).
Toparlı, R., Argunşah, M. 2018. **Mu'inü'l-Mürîd**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (MM).
Yalçın, S. K. 2018. **Azerbaycan Türkçesi Grameri**, İstanbul: Kesit Yayınları.
Yıldırım H. 2009. **Özbek Türkçesi Dilbilgisi-Alıştırmalar-Konuşma-Metinler**, Ankara: Gazi Yayınevi.
Yılmaz, O., Yalkın, A. O. 2021. **Tarihî Türk Lehçeleriyle Karşılaştırmalı Eski Anadolu Türkçesi**. Ankara: Akçağ Yayınları. (TTLKEAT).
Yüce, N. 2014. **Mukaddimetü'l-Edeb**. Ankara: Türk Dil Kurumu. (ME).
İnternet Kaynağı: http://tdkterim.gov.tr/bts/ (Erişim Tarihi: 13.10.2023).

ИСМЛАРНИНГ СОЦИАЛ ХУСУСИЯТЛАРИ

ЎзФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти бўлим мудири ф.ф.д., проф. Ёрқинжон Одилов

Тил халқнинг ҳаёти билан доимо таъсирлашувда туради. Шунинг учун халқ турмушидаги ўзгаришлар ва янгиланишларни акс эттириши табиий кечади. Тилдан ташқарида юз берадиган ўзгаришларнинг тилга таъсири шу даражада каттаки, у миллий дунёқарашнинг янгиланишига, миллий менталитетнинг ўзгаришига ҳам сабаб бўлади. Масалан, Ислом динининг Ўрта Осиёда кенг тарқалиши ва сингиши ерли халқлар маънавий ҳаётининг барча соҳаларида бўлгани каби уларнинг болани номлаш одатлари ҳамда анъаналарига ҳам катта таъсир кўрсатди. XX асрнинг биринчи чорагидан бошланиб қарийб етмиш йил давом этган шўро мафкураси, советча тутум, янгича иқтисодий сиёсат ўзбек халқининг минг йиллик ҳаёт тарзини кескин ўзгартирди, асосан исломий ақидалар таъсирида яшаган ўзбеклар ҳаётга советча кўз билан қарашга ўтди. Мафкуравий таъсирлар

орқали халқнинг бутун ақлий-руҳий оламига кириб бориш йўлидан борилди. Ва бундай таъсирлар чоракам бир аср давом этди.

Шўроча дунёқараш таъсири ўзбек исмчилигида илгари кўрилмаган *Маркс, Фрунзе, Фидел, Марлен, Инқилоб, Октябрь* сингари исмларни юзага келтирди. Ҳозир бирмунча ғалати туюладиган мазкур исмлар фақат шаҳарлик ўзбек оилаларидагина эмас, марказдан узоқда истиқомат қиладиган оилалар фарзандларига ҳам исм сифатида қўйилди. Кимдир ўша даврнинг алломаларига ҳавас қилиб, яна кимдир ўша даврнинг муҳим сиёсий воқеалари арафасида туғилгани учун, яна кимдир ўз эътиқодининг рамзи сифатида, бошқа бири кимларгадир тақлид қилиб фарзандига шундай исмларни танлаган. Диққат қилинса, советча исмларни қўйган кишилар дунёқарашида шундай тутум нормал ҳолат саналган.

Таниқли ёзувчи Аҳмад Аъзам бир ҳикоясида *Марлен* исмли кишининг тилидан ўз исминг қўйилишига сабаб бўлган яна бир мотивни беради. Ушбу мотив ўша даврда айрим кишиларда шаклланган дунёқарашни ва бундай дунёқарашнинг исм беришга таъсирини кўрсатади: *Ҳа, айтганча, аввал танишиб олайлик, менинг отим* ***Марлен****, йўқ, бошқа миллатдан эмас, ўзбекман, шу, отамиз анув қама-қама йиллари кўп азоб тортиб (шу ҳозир аниқ эсимда қолмабди, бобоси қамалиб йўқ бўлиб кетганми, отасими, ишқилиб, репрессияни бошидан ўтказган),* ***ҳукуматга яхши кўринмасам бўлмайди деб,*** *отимни Маркс билан Лениннинг қисқартмаси қилиб* ***Марлен*** *қўйган...* (“Марлен деган одам” ҳикоясидан)

Мафкуранинг дунёқарашга, тилга таъсири аниқ ва бу таъсирлашув мунтазам давом этади. Шу маънода тилшуносларимиздан бири октябрь инқилоби шарафига *Рево* деб исм олган бир кишининг кейинроқ – мустақиллик йилларида исмини *Равшан* деб ўзгартиргани ва буни элга маълум қилиб ош берганини ёзган эди. Жамиятдаги, дунёқарашдаги ўзгаришлар сабабли кишиларнинг ўз исмини бошқасига ўзгартиришдек бундай ҳолатлар ҳам тилдан ташқари омилларнинг тилга таъсири катталигини исботлайди.

Тоҳир Маликнинг “Пўртанали уммонда сузар ҳаёт қайиғи” асарида мафкуравийлашган исмларнинг юзага келиши собиқ иттифоқ даврининг маҳсули эканлиги қайд қилиб ўтган эди: *Таъбир жоиз бўлса, исмлар “сиёсийлашди”:* ***“Вилор”*** *– “Владимир Ильич Ленин Организатор Революции”;* ***“Мэлс”*** *– Маркс, Энгельс, Ленин, Сталин”; “Марлен” – Маркс, Ленин; немис коммунисти Эрнст Телманга ҳавас қилиб ўғилларга* ***“Телман”****; инқилобчи аёл Клара Цеткинга маҳлиё бўлиб қизларига* ***“Клара”*** *қўйиш йигирманчи йилларда бошланиб, узоқ вақт давом этди. Санъатшунос акамизнинг исмлари “Фрунзе” эди. Қирғизлар бошкентлари номини ўзгартиришганда ҳажвчи акамиз Неъмат Аминов у кишига “Энди сиз Бишкек Жўраев бўлдингиз”, деб ҳазиллашган эдилар*.

Ёзувчи Н. Аминовнинг мазкур ҳазили чинга айланган, шекилли, Саид Аҳмад домла ҳам “Умрим баёни” асарида *Фрунзе* исминг *Бишкек* деб ўзгартирилишига тўхталади: *Америкадан қайтиб келганимда яна бир янгилик кутиб турган эди. Билмадим, ростми-ёлғонми, Фрунзе Жўраев устозига садоқат билдириб, Фрунзе Жўраев деган исми шарифини “Бишкек Жўраев” деб ўзгартирган эмиш*.

Ўзбекка ўзлигини қайтарди истиқлол исмчилигимизга ҳам ўз таъсирини ўтказди, ўзбек жамиятида асрий миллий анъаналаримиз, диний қадриятларимизга мос исм танлашда дастимизни узун қилди. Қариийб бир асрдар ортиқ давом этган истибдоднинг бир қарашда кўзга ташланадиган ва ташланмайдиган таъсиру-таҳқирларни юлиб-юлқиб ташлади. Ўзбек турмушида юз берган янги ва яхши ўзгаришлар исмчиликда ҳам шунга мос тенденцияларни пайдо қилди. Бу даврга келиб исм беришнинг исломгача бўлган туркийча (ўзбекча) расм-русумлари “исломчасига, мусулмончасига номлаш” одатлари билан алмаша бошлади. Чақалоққа ном бериш ислом динининг маълум талабларини бажо келтириш асосида (масалан, чақалоқнинг қулоғига азон айтиш, чақалоққа диний тушунчали исмлар танлаш ва бошқалар) амалга ошириладиган бўлди. (Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. 190–191-бетлар). Шундай тенденциялардан бири келиб чиқиши арабча бўлган ва диний маъно-мазмуни билан характерланадиган исмларнинг қўйилишининг фаоллашганлигидир. Номшуносликнинг катта билимдони Э.Бегматов ҳам туркий халқларнинг ислом динига ўтиши унинг антропонимиясига катта таъсир кўрсатганини, диний мотивларнинг исм танлашда етакчилик қилишини алоҳида таъкидлаган эди. (Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. 149-бет)

2017 йил 22 майда “kun.uz” сайтида “Ўзбекистонлик уламолар болага айрим исмларни қўйишни тавсия этишмади” сарлавҳали савол-жавоб тарзидаги суҳбат эълон қилинган. Унда юртдошларимизнинг диний уламоларга исломий исмлар ва уларнинг маънолари билан боғлиқ саволларни берган. Улардан айримларини фикр далили учун ҳавола қиламиз:

Савол: *Яқинда ўғилли бўлдик, исмини Алазим қўймоқчимиз. Бу исм Яратганнинг исмларидан бири, бандаларга Абдулазим деб исм қўйилади, дейишди. Катта ўғлимнинг исми Алазиз, унинг ҳам исмини ўзгартириш лозим, деб айтишди. Ушбу масалада тушунтириш берсангиз.*

Жавоб: *Ҳа, исм қўйишда Аллоҳ таолонинг гўзал исмлари олдига "абду" сўзини қўйиб, исм қўйилади. Сиз Абдулазим деб исм қўйинг. Катта ўғлингизнинг Алазиз исмини эса Азиз деб ёки Абдулазиз деб ўзгартиринг. Исм қўйиш муҳим амал ҳисобланади. Шунинг учун инсон ўзига ёқиб қолган исмни фарзандига қўйиб юборавермай, бу исмнинг маъноси нима ва шу исмни қўйиш мумкинми ёки йўқми, бу ҳақида илм эгаларидан сўраб, сўнг исм қўйиши лозим бўлади. Минг афсус, мусулмон халқимиздан айрим кишилар ўз фарзандларига мусулмон бўлмаган, ижтимоий ҳаёт тарзи бизга номаълум бўлган футбол юлдузлари каби спортчиларнинг исмини ёки баъзи ҳинд актрисаларининг исмини қўйишяпти. Бундай исм қўйиш фарзанднинг ҳақини поймол қилиш ҳисобланади.*

Савол: *Аллоҳ насиб этиб, ўғил фарзандли бўлсам, Аъмалмуҳаммад деб исм қўйсам бўладими?*

Жавоб: *Сиз айтган исм тўғри маънони англатмайди. Шунинг учун бундай исмни қўйишдан сақланинг* (https://kun.uz/58602912).

Ёки "nasafziyo.uz" сайти орқали Ўзбекистон Мусулмонлари идораси Фатво ҳайъати масъул ходимига йўлланган саволларда исломий нуқтаи назардан жоиз бўлган исмлар, масалан, *Абдурасул, Абдураҳмон, Робия, Маҳдий* ва бошқа исмларнинг маъноси, *Марат, Ўлмас, Гулнора, Наргиз, Шаҳруза* сингари исмларнинг диний одобларимизга қай даражада мувофиқлиги сўралган. Улардан бирини ҳавола қиламиз:

Савол: *Паспортимдаги исмим – Ўлмас. Ёшлигимда кўп касал бўлганим учун шунақа исм қуйишган экан. Тўхтамурод деган исмим ҳам бор. Паспортимдаги Ўлмасни Тухтамуродга ўзгартирсам бўладими? Динимизда Тухтамурод исми жоизми?*

Жавоб: *Ва алайкум ассалом! Биринчи исмингиз ҳам ножоиз исм эмас. Чунки сизни исмингизда "бу одам ҳеч қачон ўлмайди" деган эътиқод маъноси йўқ. Балки, айтганингиздек, "соғ-омон униб улғайсин", "узоқ умр кўрсин" деган умидда қўйилган. Иккинчиси ҳам жоиз. Алмаштирмасангиз ҳам бўлади. Ихтиёр ўз қўлингизда. Валлоҳу аълам!*

Мазкур саволлардан юртдошларимизнинг ислом динимизга мувофиқ келадиган исмларни излаётганлиги, ўзи қўймоқчи бўлган исмнинг маъносига обдон диққат қилаётганлиги, бунда исм ва эътиқод уйғунлигига эришишга интилаётганлиги маълум бўлади. Танланмоқчи бўлган исмнинг маъносига бу қадар диққат қилиш лисоний диднинг ўткирлашаётгани, эътиқоднинг тиниқлашаётганидан дарак беради.

Исмларнинг маъносини билишда беминнат дастёрга айланган "ismlar.com/uz" сайтидаги маълумотга кўра, *Муҳаммад, Мустафо, Имрон, Али, Умар, Мадина, Мубина, Муслима, Имона, Мафтуна* исмлари маъноси энг кўп қидирилган исмлар экан. Демак, мазкур исмлар халқимизни кўпроқ қизиқтирган. *Муҳаммад, Али, Умар* исмлари мустақилликкача ҳам кўп учрайдиган исмлардан бўлган, бироқ *Мадина, Мубина, Муслима, Имона* кабилар мустақиллик йилларида фаоллашган исмлардир.

Вақт ўтиши, фикр-қарашларнинг ўзгариши жамият аъзоларининг нарса-ҳодисаларга муносабатини ҳам ўзгартиради. Одамларнинг исм қўйиш маданияти, тутуми ҳам ўз даврига ҳамқадам янгиланиб, ривожланиб боради. Муайян даврда оммалашган айрим исмлар маълум муддат ўтгандан кейин машҳурлигини йўқотиши табиий бир жараёндир. Ҳаёт суръатлари ниҳоятда тезлашган глобаллашув замонида ўзбек исмларининг таркибий янгиланиши айниқса сезиларли ва ундаги ижобий тенденцияларни биз ҳам маъқуллаймиз, аммо исмларнинг ўзбек тилининг фонетик-орфоэпик меъёрларига мос бўлмаган ҳолда ўзгартирилаётганлигига қўшилмаймиз.

Ўзбек исмларини миридан сиригача ўрганган Э.Бегматов шу ва бошқа "янгиланиш"лардан куйиниб, сўнгги йилларда болага "замонавий" исмларни ахтариш, исмларни фақатгина чиройли ва мазмунан ижобий бўлишини исташ ўзбек тилида узоқ даврдан бери истеъмолда бўлган исмларни "чиройли" ва "хунук", "замонавий" ва "эскирган" тарзида ажратишга сабаб бўлаётганидан ёзғирганида, бизнингча, ҳақ эди. (Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. 151-бет) Ҳурматли олимимизнинг фикрлари тўғри, бироқ буни тўхтатиш ҳам имконсиздек, назаримизда. Қадим исмларнинг қўйилишидан тийилиш яқин йилларнинг эмас, бундан олтмиш-етмиш йиллар аввал бошланган тутумдир. Бугунги кун одами учун болани этник урфларга риоя қилиб, ахлоқий-тарбиявий томонларини ўйлаб, диний эътиқоддан келиб чиқиб, уканинг исмини аканикига, сингилнинг исмини опаникига уйқаш қилиб исм қўйишнинг ўзи етарли бўлмай қолди. Жарангдорлик, оригиналлик, камёблик исмчиликда асосий мотивларга айланмоқда. Етарлича ҳаётий тажрибанинг йўқлиги ёки баъзида ўзбилармонликнинг оқибатида сериал қаҳрамонлари ёки чет эллик спортчиларга ҳавасмандлик ортидан *Ишани, Ривалдо* каби исмлар қўйилмоқда. Ҳозир-ку бу исмлар

фарзанд учун ғайритабиийдек туюлмас, аммо кексалик ёшига етганда Ишани хола, Ривалдо тоға тарзида мурожаат қилиш айтувчига ҳам, исм эгасига ҳам эриш туюлиши аниқ.

Хуллас, муайян даврнинг ўз моддий, маънавий эҳтиёжлари бўлади. Бу эҳтиёжлар жамият ҳаётининг барча жабҳасига ўз талабларини қўяди. Замона зайли болага исм бериш одатларига ҳам таъсир кўрсатади, даврига хос исмлар захирасини шакллантиради. Бироқ бу инсон таъсиридан, унинг онгли аралашувидан тамомила ташқари жараён эмас. Жамиятнинг илғор зиёли қатлами бундай миллий масалаларда сергак бўлиши, бирда номувофиқ, бирда номуносиб кўринган жараёнларда ўзини дахлдор сезиши лозим.

TURKIY TILLARNING AREALI: TAHLIL VA TALQIN

Nigora Quliyevna MURODOVA,
NavDPI O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Lingvistik atlas – ma’lum bir hudud shevaviy o‘xshash va farqlarni o‘zida aks ettiruvchi xaritalar majmuasi. Lingvistik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni o‘z ichiga oladi. Buning sababi lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglossa asosida tuziladi. Dialektologiya shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi. Areal lingvistika hodisalarni xaritada ko‘rsatadi. Shuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir.
Kalit so‘zlar: izoglassa, hudud, dialekt, mikrotizm, chegara, tarqalish nuqtasi, xarita, tekislik, maydon, atlas.
Аннотация. Лингвистический атлас – это набор карт, на которых конкретная территория отображает диалектные сходства и различия. Лингвистический атлас содержит сотни, если не тысячи карт. Это связано с тем, что каждая карта лингвистического атласа составлена на основе отдельной изоглоссы. Диалектология отмечает и описывает диалектные различия. Ареальная Лингвистика отображает явления. Таким образом, картирование является одновременно методом и результатом ареологических исследований.
Ключевые слова: изогласса, территория, диалект, микротизм, граница, точка распространения, карта, плоскость, площадь, атлас.

Annotation. A linguistic atlas is a set of maps on which a particular territory displays dialect similarities and differences. The linguistic atlas contains hundreds, if not thousands of maps. This is due to the fact that each map of the linguistic atlas is compiled on the basis of a separate isoglossa. Dialectology notes and describes dialect differences. Areal Linguistics displays phenomena. Thus, mapping is both a method and a result of archaeological research.

Keywords: isoglossa, territory, dialect, microtism, border, distribution point, map, plane, area, atlas.

Tillarning jumladan, turkiy tillarning genetikasi, til xususiyati jihatidan o‘zaro munosabati masalasiga olimlar juda qadimdan qiziqib kelganlar. Turkiy tillarning areali – ma’lum bir hodisaning qirg‘iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarda hududiy taqalishidir.

Turkiyshunoslikda ham turkiy tillar va ularning shevalari N.A.Baskakov, M.M.Sheraliyev, E.V.Sevortyan, N.Z.Gadjiyeva kabi ko‘plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq qilinganligini qayd etish mumkin. Ular tadqiqotlarida turkiy tillarning areal tarqalishini keng tahlil qilganlar .

N.A.Baskakov turkiy tillarning hududiy bo‘linishida to‘rt mintaqani aniqladi: 1.Bolqon va Turkiya Respublikasi. 2.Eron, Ozarbayjon va Afg‘oniston. 3. Xitoy xalq respublikasining Sinszyan viloyati. 4. Sobiq ittifoq besh hududga ega.1.G‘arbiy. 2.Kavkaz. 3.Volga.4.O‘rta Osiyo. 5. Sibir.Turkiy til makonining tarixan shakllangan mintaqaviy taksonlashtirish lingvistik makonning tuzilishini tushunishga qaratilgan bo‘lsa-da ,taksonlashtirishga urinishning o‘rni muhim bo‘lgan.

N.Z.Gadjiyeva tadqiqotlarida turkiy til makonining tarixan shakllangan mintaqaviy taksoniga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda gnoseologik tamoyil asoslab berilgan. Shuningdek, taxminan kamida to‘rtta diapazon mavjudligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.1.Markaziy Osiyo; 2.Sibir(shimoli-sharqiy va g‘arbiy); 3.Volga bo‘yi; 4.Kavkaz (shimoliy va Kavkaz orti, Kavkaz oldi).

Turkiy tillar areali, uning hududlari va migratsiyasi haqidagi ma’lumotlar qadimgi manbalarda keltirilgan. Tarix qayd eta oladigan davrdan boshlab turkiyzabon areal Oltoy tog‘lari markazida bo‘lib, Shimoliy Xitoy, Mo‘g‘iliston, yenisey bo‘ylari hozirgi Qirg‘iziston, O‘zbekistonning janubiy qismlari, Qozog‘istonning janubiy qismlarini o‘z ichiga olgan.

Ba’zi tadqiqotlarda turkiy tillarning areali qadimdan o‘troq yashab kelgan turkiy xalqning hududlar bo‘yicha joylashishi bo‘yicha quyidagicha ko‘rsatilgan:1) Sibirda yoqut, xakas, oltoy; 2) Markaziy Osiyoda qozoq,

qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq, turkman; 3) Kavkazda ozarbayjon; 4) Volga bo‘yida tatar, boshqird, chuvash; 5) Qirimda qrim tatarlari,gagauz; Ukraina va Belorusiyada qorayim; 6) Kichik Osiyoda turklar; 7) Xitoyda uyg‘urlar va boshqalar. Ushbu hududlardagi turkiy tillar lingvistik nuqtai nazardan o‘rganilgan.

O‘rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O‘zbekiston mintaqasida turkiy xalqlar qadimgi davrlardan boshlab yashab kelayotgan xalqlardan biri ekanligi haqida, Xitoy, Yunon, Eron, Arab turkiyzabon manbalar materiallarining umumiy tavsifi va bu haqda jahon olimlarining asarlarida keltirilgan.

Tarixiy ma’lumotlarda qayd etilishicha, turkiy qabilalarning O‘zbekistonga ko‘chib kelishlari VI asrdan boshlab VIII va undan keyingi davrlargacha davom etdi.VIII-IX asrlarda ularning o‘troqlashish jarayoni kuchaydi va ular turkiy bo‘lmagan xalqlar bilan munosabatda bo‘ldilar. XI asrda qoraxoniylar tarkibida O‘zbekiston hududiga chigil, qarluq, yag‘mo, arg‘ular keldilar. XI-XIII asrdagi yozma manbalarga qaraganda (Nizomil Mulk va Ibn Amr),qoraxoniy xonlari zamonida O‘zbekiston tuprog‘ida qarluqlar bilan chigillar bosh rolni o‘ynaganlar.Ammo turk elementlarining O‘zbekistonga kirib kelishi shu nomlari ko‘rsatilgan qabilalar bilan cheklanmaydi ,Sirdaryo tomonlaridan belgili miqdorda o‘g‘uzlar va qipchoqlar kelgan.

Tarixiy manbalarda ko‘rsatilishicha,eramizdan oldingi IV asrlarda turkiy xalqlarning shimolga – hozirgi Qozog‘iston cho‘llari, Paloje va undan yevropa – janubiy Ukraina, Shimoliy Kavkaz, Qrim, Zakarpatiya, SHarqiy yevropa, Bolqon va Rimgacha bo‘lgan hududlargacha borib yetgan. X asrlarga kelib turkiy areal yenisey bo‘ylari, Oltoy, Sharqiy Sibir, Ural, Paloje, Janubiy Ukraina, Moldaviya, Shimoliy Kavkaz, Zakavkaz, qisman Bolqon mintaqalarigacha tarqaldi. IX-X asrlarda saljuqlar boshliq o‘g‘uzlarning, qarluqlar boshliq qoraxoniylar, uyg‘urlar va qipchoqlar tarkibi ko‘pchiligini tashkil etadigan g‘aznaviylarning yurishlari turkiy areal chegarasini Hindistondan Konstantinopolgacha, Issiqko‘ldan Zakavkazegacha, Turkmanistondan yaqin sharq va shimoliy Afrika, Arab o‘lkalarigacha kengaytirdi. Tarixiy manbalar asosida aytish mumkinki, XI-XIV asrlarda Bog‘dod va Misr hukmdorlarining ko‘pchiligi etnik kelib chiqishi jihatidan turkiy xalqlardan bo‘lgan. XII-XVI asrlarda, dastlab Chingizxon va Botuxon, keyin Amir Temur va usmonlilarning yevropa, Yaqin Sharq, Misrga yurishi ikki buyuk imperiya – Amir Temur va usmoniylar imperiyasining Appenindan (Shimoliy Italiya) Mo‘g‘ulistongacha, Misrdan Palovniyagacha yoyilishi turkiy arealni Shimoliy Afrikadan hozirgi Fransiya chegaralarigacha, undan Uzoq Sharqqacha, Misrdan Moskvagacha kengaytirdi. Yuqorida qayd etilgan ulkan mintaqaning barchasida turkiy xalqlar va ularning tillari ta’sirini bugungi kunda ham ko‘rish mumkin.

Mana shu ulkan mintaqani o‘z ichiga olgan hududda turkiy xalqlarning qirg‘iz, bulg‘or, qarluq, uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz kabi toifalariga mansub turkiy xalqlarning ajdodlari tarqalgan. Turkiy tilshunoslikda bu olti toifaning har biri uchun xarakterli bo‘lgan lingvistik hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlari ajratilgan. Shuning uchun yuqorida sanalgan bir toifaga xos xususiyatni ozmi- ko‘pmi boshqa toifaga nisbat beriladigan tillarda (shevalarda) uchratish mumkin.

Hozirgi kunda turkiy xalqning etnogenezi,ularning migratsiyasi,tili haqida to‘liq ma’lumotlar berish uchun turkologik ,arealogik tadqiqotlarga ehtiyoj seziladi.

Turkiy tillarning tasniflari ham juda ko‘p hollarda hududiy (arealogik), geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, turkiy tillarning ilk tasnifini bergan Mahmud Koshg‘ariy ularning tarqalish hududlarini ”Rumdan Chingacha” (Kichik Osiyodan Xitoygacha) shaklda geografik chegaralarini ko‘rsatadi.

Turkiy tillarning tasniflarini bergan akademik V.Radlov, V.Aborodinskiy, N.A.Baskakov, F.E.Korsh, M.Samaylovich kabi olimlarning ishlarida ham turkiy tillarning arealini ko‘rsatishda geografik nomlanishni uchratish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalardan foydalanish, tillarning arealini ko‘rsatish ancha uzoq tarixga ega.

V.V.Radlov turkiy tillarni shunday guruhlashtiradi:

1.Sharqiy guruh. 2.G‘arbiy guruh (g‘arbiy Sibir tatarlarining tili, qirg‘iz, qozoq, boshqird tillari) 3.O‘rta Osiyo guruhi (Yorkent, Chig‘atoy tili, shimoliy o‘zbek shevasi, Qoqon shevasi, Zarafshon vodiysidagi o‘zbek shevalari, Buxoro va Xiva shevasi). 4.Janubiy guruh (turkman, ozarbayjon, turk va qirim tatarlarni tili) deb to‘rt guruhga bo‘ladi.

B.A.Bogoroditskiy 1921-yilda hozirgi turkiy tillarni geografik joylashuvi va fonetik xususiyatlarini hisobga olib 7 guruhga bo‘lgan. Keyinchalik 1934-yilda o‘zining ushbu tasnifiga aniqliklar kiritib uni to‘ldirib quyidagicha taqdim etdi.

1. Shimoliy sharqiy guruh: Yoqut, karagas, tuva tilllari .2. Xakas va abakan guruhi: Xakas tili, Abakan lahjasi, Sagay, Koybal, Kachin, qizil shevalari, Minusing tatarlari tili.3. Oltoy guruhi. Bunga oltoy tili o‘z shevalari bilan kiritilgan.4. G‘arbiy Sibir guruhi: Chulim, Ishim, Tyumen tatarlari tili.5.Volga bo‘yi va ural guruhi: tatar va boshqird tillari.6.O‘rta Osiyo guruhi: uygur, qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq

tillari.7.Janubiy g‘arbiy guruh: turkman, ozarbayjon, qumuq, gagauz, turk tillari va chuvash tili, qorachoy tili va bolqar tillari.

F.E.Korsh o‘zining “Klassifikatsiya tyurkskix plemen po yazыkam” asarida turkiy tillarni fonetik xususiyatlaridan tashqari, morfologik xususiyatlarini ham xisobga olib quyidagicha tasnif qilgan.

1.Shimoliy guruh: qirg‘iz, qozoq, qumiq, nog‘oy, qorachoy oltoy, Volga tatarlari, Shimoliy Kavkaz tatarlarining tilari.2.G‘arbiy guruh: Ozarbayjon, turkman, turk, gagouz, qirim tatarlari.3.Sharqiy guruh: Urxun Enasoy yodgorliklari yozuvi tili, eski uyg‘ur tili, chig‘atoy, qipchoq kabi o‘lik tillar va jonli tillardan qaragaz va xakas tillari.4.Aralash guruh: Bu guruhga yoqut va chuvash tillari va O‘rta Osiyodagi ba’zi tillar kiradi. Bu tillarning har biri o‘ziga xos tasnif belgilariga egadir.

V.V.Radlov , F.E.Korsh tasnifini birlashtirib quyidagicha 5 guruhga bo‘ladi.

1.Janubiy-g‘arbiy yoki o‘g‘uz guruhi. Bu guruhga turkman, ozarbayjon, turk, gagouz tillari va qirim tatarlarining ba’zi dialektlari hamda o‘zbek tillining o‘g‘uz laxjasi kiradi.2.Janubiy sharqiy yoki chig‘atoy guruhi. Bu guruhga hozirgi uyg‘ur tili, o‘zbek tili va uning bir qator shahar dialektlari, quman tili o‘lik chig‘atoy tili kiradi.3.Shimoliy-g‘arbiy yoki qipchoq guruhi. Bunga tatar, boshqirt, uyrot, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek tilining ayrim qipchoq shevalari, qumuq qorachoy shevalari kiradi.4.Shimoliy – sharqiy yoki Sibir guruhi. Bu guruhga qadimgi o‘hun, uyg‘ur, qorliq yozuvi yodgorliklari, xakas, char, yoqut tillari kiradi.5.Chuvash yoki bulg‘or guruhi. O‘lik bulg‘or va hozirgi chuvash tillari kiradi.

N.A.Baskakov turkiy tillarning tasnifini yaratishda faqat har bir turkiy tilning fonetik, grammatik leksik xususiyatinigina hisobga olib qo‘ymasdan xar bir turkiy xalqning tarixiy shakllanish jarayoni, uning etnik genizisiga ham alohida e’tibor beradi.

1.Fonetik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.2.Fonetik, morfologik,xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.3.Til xususiyatlaridan tashqari genetik aloqalar ham xisobga olingan tasniflar. 4.Turkiy tillarda gapiruvchi xalqlarning geografik joylashuvi asosidagi tasniflar.

Yuqorida keltirilgan tavsif va tasniflar turkiy tillarning arealini belgilashda manba bo‘la oladi.

Turkiy xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar etnik tarixi va tilini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit-turk» nomli asari alohida o‘rinni egallaydi. Bu asarda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, qabila hamda urug‘larning joylashishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. O‘rta Osiyo xalqlari tarixida benihoyat muhim manba bo‘lgan bu asar soddacha lug‘at deb mashhur bo‘lsada ,aslida bu yolg‘iz u davr tilidagi so‘zlarni izohlovchi lug‘at kitobigina emas,balki shu bilan birga o‘sha davrda butun O‘rta Osiyo doirasida, ya’ni Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoroga qadar cho‘zilgan keng va katta territoriyada yashovchi urug‘lar, qabilalar, xalqlarni va ular tillarini,u davr tilining fonetikasi,morfologiyasi haqida to‘liq ma’lumot beruvchi va u davr tilidagi har xil adabiy janrlardan namunalar beruvchi nodir filologik asardir. Shuning uchun bu asar O‘rta Osiyo xalqlari tarixini yoritish uchun,xususan, til tarixini o‘rganish uchun benihoyat muhim asardir .Asarda qo‘llanilgan juda ko‘p so‘zlar bugungi kunda ham tilimizda qo‘llanilmoqda.



MAHMUD KOSHG‘ARIY XARITASI

Shuni ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda o‘zbek xalqi orasida saqlangan juda ko‘plab urug‘-qabila nomlari boshqa ayrim turkiy xalqlar o‘rtasida ham uchraydi. Bular turkiy xalqlarning qariyb barchasi etnik guruhlar majmuasidan iboratligi, ularning lug‘at jamg‘armasi qadimda yagona bo‘lganligidandir. Shu bois ham turkiy tillar o‘rtasidagi o‘xshashlikning bo‘lishi, tabiiy. Shuni hamisha yodda tutish kerakki, turkiy xalqlar va ularning tillari bir-biriga yaqin bo‘lganligi sababli hamisha qadimgi davrlardan XIX asrning oxirlarigacha o‘zaro katta aralashuvda bo‘lgan.

Turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot yo‘llarini belgilashda o‘tmishdagi urug‘, qabila va qabila ittifoqi tillarini o‘rganish orqali yuqorida ta’kidlanganidek, ularning juda ko‘plab urug‘-qabila birliklaridan iborat ekanligini aytish o‘rinlidir Umumturkiy leksik qatlamni tashkil etgan so‘zlarning o‘ziga xos muhim xususiyati shundaki, ularning deyarli barcha turkiy tillarda uchrashidir. Bu so‘zlar asrlar davomida turkiy tillar uchun yangi so‘zlar yasash orqali leksikani boyitishda asos bo‘lib xizmat qilgan. Turkiy tillarda o‘xshashlikning muayyan sabablari bor,ya’ni turkiy tillarning aslida bir manbaga,bir genetik asosga ega ekanidan,ularning lug‘at jamg‘armasi qadimda yagona manbaga taalluqli bo‘lganligidandir. A.N.Baskakov ta’kidlaganidek, turkiy tillar asosiy lug‘at boyligining o‘ziga xos xususiyati ularning barcha turkiy tillar uchun umumiy mushtarakligidadir. O‘zbek shevalarining lug‘at tarkibini turkiy tillar bilan qiyoslash asosida ba’zi bir fonetik o‘zgarishlar bilan ishlatilayotgan so‘zlar misolida ular o‘rtasidagi umumiylikni ko‘rish mumkin. Buni turkiy tillar bilan qiyoslash orqali quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Masalan:O‘zbek shevalari va turkiy tillar.(Murodova N.).

ədəsh (məg‘ // =maq) ad. orf. adash (moq) < (ot-dosh) qiyos qiling: qad.turk. adaš (do‘st, o‘rtoq) DLT adash, boshq. adash, ozarb. adash, olt. adash., tat. adash, qoz. adas, xak. adas, qirg‘. ayash, turkman atdash, uyg‘ur atdash (jo‘ra), turk adas, yoqut atas (do‘st, jo‘ra), tof. adaš (hurmat bildiruvchi so‘z), tuv. attash,chulm. atash.

bavur // baur ad.orf. bag‘ir; qiyos qiling: DLT. bag‘ir, ozarb. bagыr, turkman. bagыr, uyg‘. beg‘ir, qirg‘. boor, no‘g‘. bavыr, tat. ba.vыr, qoz. bauvыr, qoraqalpoq. bauvыr, boshq. bauvыr, qorach.baur, qoraim. baqur, qum. bavur, yoqut. bыar, olt. puur, tuv. baar, xak. paar, shor. paar, chuv. pyover (jigar).

yomg‘ur // yamg‘ir ad.orf. yomg‘ir; qiyos qiling: DLT. jag‘mir, qoraim. yagimur, yamigur, yangiur, yanigiur, uyg‘. yamgur, chulm. yamgur, chamgur, tat. yangir, no‘g‘. yamgir, boshq. yamgir, qirg‘. jamg‘ir, qora-q. jamg‘ir, qoz. janbir, qum. yangur, qorach. djangur, olt.dvanmir, xak. naqmir, yoqut. samnir, chuv. sumar, xor. yag‘ish.

kiyov ad.orf. kuyov; qiyos qiling: qad.turk. kydachy, kyzachy, xydachy, gyyagy, uyg‘. kuya (o‘g‘il), ozarb. kureken, turkm. kereken, giyev, gag. chuva, qo‘m. giyev, qirg‘. kuyөө, qorach. kuyey, qoz. kyjey, qora-q. kuyeu, no‘g‘. kiyev, boshq. keyau, tat. kiyau, olt. kuyu, kuye, tuv. kudee, xak. qide, kuzee, shor. kuze, yoqut. kutuө, chuv. keru < kerev.

toqcɔn ad.¯orf. to‘qson; qiyos qiling: qad. tyrk. toqquzon, DLT. toqson, yyg‘. toqsan, chylm. toqsan, qirg‘. tokson, tyrkm. togsan. ozarb. doxsan, olt. togyson, xak. togыzon, qoz. toqsan, no‘g‘. toqsan, qoraqalpoq. toqsan, tat. tyqsan, boshq. tyrkan.

toqq’z ad.¯orf. to‘qqiz; qiyos qiling: qad. tyrk. toquz, olt. tog‘ys, tyv. tos, xak. tog‘ыs, yoqyt. toqys, ozarb. doggyz , tyrkm. dokyz, boshq. tyg‘ыz, tat. tyg‘ыz, qoz. tog‘ыz, no‘g‘. tog‘ыz, qym. tog‘yz, qirg‘. tog‘yz, yyg‘. toqqyz, qoraqalpoq. tog‘ыz, chyv. tăxăr, tof. dohos.

og‘’l ad.¯orf.o‘g‘il; qiyos qiling: qad. tyrk. oҳyl, DLT. og‘yl, ozarb. og‘ыl, yyg‘. og‘ыl, tyrkm. ogyl, olt. Yyl, qirg‘.yyl, tyb. Ool, xak. ool, yoqyt. yol, gag. ool, qoraim. Yvyl, qoz. yl, qoraqalpoq. yl, boshq. yl, tat. yl, chyv. ыvăl, tof. ɔ: l.

qɔsh’q ad.¯orf. qoshiq;qiyos qiling: qad.tyrk. qašïq, qašud, DLT. qashyq, qirg‘. qashыq, tyrkm. chashыk, gag. chashыk, qorach. qashыq, qym. qashыq, boshq. qashыq, qoz. qasыq, no‘g‘. qasыq, yyg‘. qoshyq, ozarb. gashыg, xak. xazыx, chyv. kashăk, tof. qa’hiq, sol. boshq. tatar , qalaq(choy qoshiq), olt. qalaq (kata qoshiq).

Har bir turkiy tilning leksik qatlamiga oid bu kabi so‘zlar uzoq davrlar davomida tilning ichki taraqqiy etishi natijasida kengayib, yangi so‘zlar bilan uning lug‘at tarkibi boyib borgan. Keyinchalik ular har bir turkiy tilning o‘z lug‘at fondini tashkil qilgan.Turkiy tillar va dialektlarni areal usulda o‘rganishning obyektiv rivojlanishi areal bilimlarni integratsiyalashuvi hamda umumlashtirish jarayonlari bilan bog‘liqligi uchun ham areal tilshunoslikning yaxlit konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi.

Turkologiyada lingvoareal tadqiqotning usul va uslublari N.Z.Gadjiyeva va G.F.Blagova tomonidan ishlab chiqilgan ,u hozirgacha davom etmoqda. Turkiy tillar dialektologik atlaslarida G.F.Blagova tomonidan izoglossa atamasining qo‘llanishi, turkiy til makonining lingvo-areal muammolariga bag‘ishlangan qarashlarini alohida aytish o‘rinli. Turkiyshunoslik bo‘yicha N.Gadjiyevaning «Turkiy areal lingvistika muammolari O‘rta Osiyo mintaqasida”asarini keltirish mumkin.Bu asarda areal lingvistika ma’lum bir til hodisalarining turli hudud chegaralarida tarqalishini o‘rganishini ta’kidlaydi. Shuningdek,aralash dialektlarda

oraliq hodisalarning uchrashi, ularning chegara zonalarda izoglossalarning kesishishi tabiiy ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltiradi: Boshqird va tatar shevalarining ba’zi zonalarida aralashib ketganligini aytadi.Turkman va qoraqalpoq tillari kesishgan hududda jarangsiz undoshlarning jaranglashishi va jo‘nalish kelshigining- a affiksi ifodalanishini oraliq hodisa sifatida ko‘rsatadi.Shuningdek, qozoq, qirg‘iz,qoraqalpoq, turkman va o‘zbek tili oraliq zonalaridagi izoglossalarning tavsifi berilgan.Turkiy tillarning o‘zaro ta’siri keng yoritilgan. A.Jo‘rayev ta’kidlaganidek: Turkiy tilshunoslik metodolgiyasini boyitish jarayonlari makon g‘oyasini harakatga keltiruvchi, yuzaga kelayotgan konseptual asosga mos keladigan an’anaviy va yangi tadqiqot usullari va uslublarini shakllantirish metodlarni kompleks o‘zgartirish sifatida davom etadi. Turkiy tillarni areal o‘rganilishi natijasida lingvistik xaritalar yuzaga keladi. Turkiy tillar: ozarbayjon, tatar, turkman ,boshqird, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq va o‘zbek tillarining dialektologik atlaslari yaratilsa, turkiy tillarning atlaslari yakuniga yetadi. Turkiy tilshunoslikda umumturkiy lingvistik atlasini yaratilishi, shubhasiz, turkiy xalqlar tili haqida yangi ma’lumotlar beradi, qardosh tillarning taraqqiyoti haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, unga ilmiy yangiliklar kiritiladi. Tilshunoslikda, jumladan, turkiy tilshunoslikda, turkiy til masssivning areal tadqiqot nazariyasini mukammal areal paradigmasiga o‘tishni dolzarb masala qilib qo‘yganligi davr talabidir.

ADABIYOTLAR

1. Bartoli M. Introduzione alla neolinguistica (principi – scopi-metodi). – Geneva, 1925, 108.
2. Благова Г.Ф. О несходствах типологически подобных ареалов (-иш- как показатель множественности в среднеазиатских тюрских говорах) //Ареальные исследования в языкознании и этнографии. – Ленинград, 1977. – С. 83–91.
3. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадарьи в ареальном освещении: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986. – 16 с.
4. Джураев А.Б. Морфология узбекских говоров верхней Кашкадарьи в ареальном освещении: Дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 1986_1а. – 237 с.
5. Джураев А.Б. Элемент ким – в неопределенных местоимениях узбекских говоров самаркандко-бухарского типа // Коммуникативные аспекты исследования языка. – Москва, 1986_2. № 1. – С. 140–146.
6. Джураев А.Б. Ареалогия и исследование узбекских народных говоров // Советская тюркологии. 1987_1. № 1. – С. 45–51.
7. Джураев А.Б. Методологические регулятивы тюркской ареальной лингвистики и внутренняя совокупность методов на разных этапах ее развития // Типы коммуникации и содержательный аспект языка. – Москва, 1987_2. – С. 96–103.
8. Джураев А.Б. Теоритеческие вопросы ареальной лингвистики // Актуалные вопросы развития науки и техники в Узбекстане: тезисы докладов научной конференции молодых ученых и специалистов АН Уз ССР. – Ташкент, 1987_3. – С. 99.
9. Джураев А.Б. Ареальная лингвистика: сущность и структура // Советская тюркология. 1988. № 6. – С. 21–27.
10. Freudenberg R. Isoglasse. Pragung und Problematic eines sprachwissenschaftlichen Terminus // Zeitschrift fur Mundartforschung. 1966. Vol. 33, 219-232.
11. Trubetzkoy N.S. Reponse a la question // Actes du Preimer Congress International de Linguistes a la Haye du 10-15 Avril 1928. Leidan, 1928, 17-18.
12. Chambers J., Trudgi 11 P. Dialectology. Cambridge, 1980, 218.

НАМАНГАН ШЕВАЛАРИДА ЭТНИК РУДИМЕНТЛАР

Иброҳим Дарвишов
Наманган давлат университети доценти

Резюме: *Мақолада Наманган вилоятидаги шеваларнинг этнослар билан боғлиқлиги ҳақидаги фикр ва мулоҳазалар баён қилинган.*

Таянч тушунчалар: *Этнос, этнолингвистик жараёнлар, этногенезис, этник таркиб, уруғ-қабила, миллат, диалект, этногенетик ва этнографик хусусият*

Резюме: *В статье изложены мнения и комментарии о связи говоров Наманганской области с этносами.*

Ключевые слова и понятия: *этнос, этнолингвистические процессы, этногенез, этнический состав, род-племя, нация, диалект, этногенетическая и этнографическая характеристика.*

Resume: *The article contains opinions and comments on the connection of the dialects of the Namangan region with ethnic groups.*

Key words and word expressions: *Key words and concepts: ethnos, ethnolinguistic processes, ethnogenesis, ethnic composition, clan-tribe, nation, dialect, ethnogenetic and ethnographic characteristics.*

Аввало, *рудимент* (қолдиқ) истилоҳига тўхталиш лозим. Рудимент – бу эволюция жараёнида эскирган ва қайтадан шаклланган генетик мерос. Минглаб йиллар олдин мавжуд бўлган ва ҳозирги тил (шева) жараёнларида жамият аъзоларининг яшаши ва ўзаро мулоқот – нутқий алоқаларида ёрдам берадиган ижобий ва қулай фаолиятлар йиғиндиси, тил (шевалар)да фонетик, лексик ва грамматик шаклларнинг тарихий ёки ўзгарган ҳолатларда қўлланишидир. Тил асосий этник белги бўлганлиги учун шеваларда лисоний ва нутқий этник унсур – элементларнинг сақланиб ва фойдаланиб келинишининг ижтимоий ва индивидуал кўринишидир. Масалан, форс-тожик, араб, хитой, мўғул тилларидаги лисоний шаклларнинг ўзбек тилида мавжудлиги, этноснинг асосий белгиси бўлган тилидаги шаклларнинг тил ва шеваларда сақланиб келаётган жараёнларидир.

Тарихдан аёнки, ўзбек, қорақалпоқ, тожик, уйғур, қирғиз, қозоқ ва туркман каби халқларнинг аждодлари Марказий Осиё ҳудудида асрлар давомида ёнма-ён, аралаш яшаб келган. Дарҳақиқат, ҳар қандай этник ва этномаданий алоқалар, аввало, тилда ўз аксини топади. Шунинг учун ҳам муайян этноснинг тилида юз бераётган ўзгаришлар этнолингвистик жараёнлар сифатида талқин қилинади. Зеро, этнолингвистик жараёнлар тиллараро муносабатлар, алоқалар ва турли мустақил тилларни ўзаро бир-бирига таъсир этиши каби жиҳатларини ҳам қамраб олади. Наманган шеваларининг этногенезисидаги ана шу жараён турли қардош ва ноқардош тил вакилларининг бир-бирлари билан қадимдан иқтисодий ва маданий алоқада бўлганликларининг тарихий, амалий натижасидир.

Наманган ҳудудида яшовчи аҳоли тарихини қадимги Мунчоқтепа (Поп тумани), Ахсикент (Тўрақўрғон тумани) маданияти тарихидан ажратиб қараш асло мумкин эмас. Фарғона водийси қадим-қадимдан маданият марказларидан, барча соҳаларда цивилизация ўчоқларидан бўлганлиги тарихий манба ва илмий асосланган фикрлардан маълум [8.312; 9.17; 5.218; 13.81; 14.96; 15.68; 2.49].

Ўзбек халқи ва ўзбек миллий тилининг шаклланишида кўпгина этник гуруҳларнинг иштирок этгани маълум. Ўзбек миллати ўз этник таркибининг серқирра ва мураккаблилиги билан бошқа туркий халқлардан ажралиб туради. Бу ҳол ўзбек тилининг кўп шевали тил бўлишига ҳам асос бўлган [16.310.16].

Ҳудудда қадимдан туркий уруғлардан қорақалпоқ, урганжи, элатан, ўлмас, катта ўлмас, қиёт, қурама, сарой, қатағон, олчин, қораёнтоқ, мадёр (монжор), момохон, найман, қозоқ, бешсерка (Мингбулоқ т.), бешсари (Поп т.), кенагас, тўда, қирчин, уйғур, керайит кабиларнинг истиқомат қилгани қишлоқ номларида, яъни этнотопонимлардан ҳам яққол кўриниб туради.

Муайян бир ҳудудда кечаётган этнослараро тил муносабатларнинг ривожланиш даражаси ва кўлами кўп жиҳатдан мазкур ҳудуд аҳолисининг этник таркибига боғлиқ бўлади. Маълумки, турли этник жамоалар орасидаги ўзаро этник муносабатлар этносларнинг аралаш ёки ёнма ён яшайдиган ҳудудларда қизғин кечади [2.47]. Наманган шевалари ареали ҳам қадимдан айнан шундай этномулоқот ҳудуди ҳисобланади.

Қадимдан Наманган ҳудуди аҳолисининг асосий қисмини ўзбеклар, тожиклар ва қирғизлар ташкил қилган. Бундан ташқари, ушбу диалектал ареалда тарихнинг турли босқичларида кўчиб келиб, ўрнашиб қолган кўплаб турли этнос вакилларининг [2.40] авлодлари ҳам истиқомат қиладилар.

Ўзбек тарихчи олимларимизнинг, хусусан, профессор Улуғбек Абдуллаевнинг Фарғона водийсидаги этнослараро жараёнлар ҳақидаги фикрларига асосан, Наманган диалектал ареали уч этник қатламнинг ўзаро биргаликдаги ҳаёт тарзи, кундалик мулоқот ва алоқа-аралашуви маҳсули – ҳосиласи сифатида қуйидаги мураккаб этнолингвистик жараёнлар орқали [15.109,114,116; 2.10,12] шаклланган:

1. Этник компонентлари узоқ этногенетик ассимилияция (қоришув) натижасида шаклланган эрон тилли халқлар билан туркий этносли шаҳар ва қишлоқ аҳолиси. Улар қадимдан ўтроқ яшаб, деҳқончилик, ҳунармандчилик ва савдо-сотиқ билан шуғулланиб келган. Уруғ-қабилаларга бўлинмаган. Рус тилидаги адабиётларда аҳолининг бу қатламига нисбатан “сорт” атамаси қўлланган. (“Сорт” атамаси Марказий Осиё минтақасининг бир қатор ҳудудларида, хусусан, Фарғона водийсида, Тошкент, Хорзам воҳасида яшаган ўтроқ аҳолига нисбатан кўчманчи ва ярим кўчманчи халқлар томонидан берилган номдир [13.67]. Ҳозирда ҳам маҳаллий тил вакиллари бир-бирини сорт ва қоролпоқ (қорақалпоқ) тарзида фарқлайди.

2. Илмий адабиётларда “илк қабилалар” деб аталувчи аҳоли вакиллари. Улар Дашти Қипчоқ ўзбеклари кириб келгунига қадар ҳам Марказий Осиёнинг марказий ва турли ҳудудларида, жумладан, Фарғона водийсида яшаб келган турк ва турк-мўғул қабилаларининг авлодлари вакиллари ҳисобланади. Ушбу этник қатламга мансуб қарлуқ, яғма, чигил, ашпар, чоғрақ, қовчин, жалоир, барлос, найман, хитой, қора хитой, бахрин, тоғай, баликчи, арғин қабилалари Фарғона водийсида

нисбатан кўпчиликни ташкил қилган. XIX-XX аср бошларида мазкур қабилалар умумий бир ном, яъни “турк” этноними билан аталган [3.404-405; 4.71-74].

3. Кейинги даврларда Фарғона водийсига кўчиб келган Дашти Қипчоқ қабилалари вакиллари қипчоқ ва қорақалпоқ уруғлари, чунончи, қирқ, кенегас, чиял (чаяли), қатоғон, сарой, қурама, манғит, қозоқ, урганжи, элатан, ўлмас, катта ўлмас, қиёт, қурама, сарой, қатағон, олчин, қораёнтоқ, мадёр (монжор), момохон, найман, қозоқ, бешсерка, бешсари, кенагас, тўда, қирчин, уйғур, керайит (бугунги кунда Мингбулоқ тумани Гуртепа қишлоғида Керайит маҳалласи маҳалласи бор. Уларнинг қабристони “Ғариблар қабристони” деб аталади) ва бошқалар ўзбек халқи, қолаверса, ўзбек халқининг ажралмас қисми бўлган Наманган вилояти ҳудуди аҳолисининг шаклланишидаги учинчи йирик этник қатлам ҳисобланади.

Тилшунос олим Худойберди Дониёров ҳаққоний таъкидланганидек: “Ўзбек миллатининг сон ва таркиб жиҳатидан энг катта компонентини қипчоқ – ўзбеклар ташкил этади. Бу компонентнинг асосий қисми тарихий хронологик нуқтаи назардан ўзбек миллатининг таркибига энг кейин қўшилган, лекин айни вақтда бутун миллат аъзоларининг ягона ва умумий номи бўлиб қолган “ўзбек” номини ҳам шу компонент олиб келган” [6.81; 1.115].

Сирдарёнинг ўрта оқимида яшаб турган қорақалпоқларнинг катта бир гуруҳи XVIII асрда Фарғона водийсига кўчиб ўтганлиги хусусида илмий манбаларда қайдлар мавжуд. Кўчиб ўтган қорақалпоқларнинг аксарияти водийнинг Сирдарё ва Қорадарё қирғоқларидаги ҳудудларига жойлашган ва Андижондан то Қўқонгача бўлган ҳудудларда ўтроқлаша бориб, ўзларининг қатор қишлоқларини барпо этган [7.9; 12.87; 2.40,60].

Тарихчи олим С.С.Губаева ҳам Фарғона водийсида жойлашган бир неча қорақалпоқ қишлоқларини кўрсатиб ўтади. Хусусан, Андижон вилоятида: Дарломон, Найман, Қипчоқ, Соҳоват, Шеркўрғон, Дўнгсарой, Хўжаобод, Хавос, Буғази (Бобоғози); Наманган вилоятида: Гуртева, (Гуртепа), Бешкапа, Чордара, (Чордона), Қорақалпоқ; Фарғона вилоятида: Тақали, Қипчоқ, Сойбўйи, Қорақалпоқ, Қипчоқ ва бошқалар.

Гарчи водий қорақалпоқлари Хоразм воҳасида яшовчи қорақалпоқлар каби мураккаб уруғ-қабилавий тузилишга эга бўлмасалар-да, ҳар ҳолда тадқиқотчилар водий ҳудудидаги қорақалпоқлар ҳам бир неча уруғлардан иборат эканликларини қайд этганлар. Хусусан, Фарғона қорақалпоқларини махсус ўрганган Л.С.Толстова водийда манғит, кенегес, қипчоқ, қўнғирот каби қорақалпоқ уруғлари яшаганликлари, улар ўз ўрнида бир қанча майда қавмларга бўлинганликларини таъкидлайди [12.27,35]. Масалан, олим таъкидлаган, шуйит, хитой-қипчоқ, момохон, бессари, уйручи, найман, кенегес, уруғларининг вакиллари ҳозирда ҳам Наманган вилоятининг кўплаб ҳудудларида истиқомат қилиб келмоқда. Уларнинг қишлоқлари ҳам ўз уруғлари номи билан аталади.

Тарихчи олим У.Абдуллаев 1909 йилда нашр этилган “Фарғона вилояти аҳоли жойлари рўйхати”да ....чуит (шуйит), уюрчи, ...кенегез, найман... каби қорақалпоқ уруғларининг номи билан аталувчи аҳоли манзилгоҳлари кўрсатиб ўтилганлигини таъкидлайди [2.67].

Дарҳақиқат, тил ҳар бир этносни бошқа бир этносдан ажратиб турувчи муҳим ва асосий белгидир. Этнос назариясига кўра ҳам тил этносни белгилаб турувчи асосий белгилардан ҳисобланади. Айни вақтда тил кишиларнинг асосий алоқа воситаси сифатида улар ўртасидаги ижтимоий-иқтисодий муносабатларни белгиловчи, уларни юзага чиқарувчи ҳамда ана шу муносабатлар орқали ривожланувчи ижтимоий табиатга эга ҳодисадир.

Маълумки, этнос шаклланиши жараёнида ҳар бир этносга хос тил тараққий этиб боради. Муайян бир этнос бошқа этнос билан муносабатга киришар экан, аввало, ушбу муносабатлар натижаси уларнинг тилида ўз ифодасини топади.

Наманган вилояти ҳудудида ҳам қадимдан яшаб келган турли этносларга мансуб халқлар ҳақидаги маълумотлардан диалектал ареалнинг ҳар бир гуруҳ шохобчаларида ана шу этник гуруҳларнинг тил унсурлари, этнографик белгилари кўзга ташланади [15.29; 17.19. 11.21].

Шуни такрорлашга тўғри келадики, мазкур халқлар, бир гуруҳ шўро тарихчилари таъкидлаганларидек, фақат эрон тилларида сўзлашувчи халқлардангина иборат бўлмай, уларнинг катта бир гуруҳи туркий тилнинг турли лаҳжаларида гаплашганлар. Аниқроқ қилиб айтганда, бу ҳудудларда антик ва илк ўрта асрларда туркий тилда сўзлашувчи халқлар ҳам яшаб [2.264-285][13], улар минтақада кечаётган ижтимоий-иқтисодий ва маданий, жумладан, этнолингвистик жараёнларда фаол иштирок этганлар.

[13] Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (X1X-XX аср бошлари). тарих фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 264-285.

Фикр юритилаётган диалектал ҳудуд – Наманган вилояти ареалида ҳам этнослараро тил муносабатлари қадим даврларданоқ бошланган ва бу жараён асоси қуйидаги икки йўналишда ривожланиб борган: биринчи йўналишда тиллараро қоришув (метизация ҳолати) туркий тилнинг турли лаҳжаларида сўзлашувчи уруғ ва қабилалар ичида юз берган бўлса, иккинчисида эса туркий тилли халқлар билан туркий бўлмаган этносларнинг тиллари ўртасида чатишув (гибридизациялашув ҳолати) содир бўлган.

Тарихдан аёнки, милоддан олдинги III асрда Сирдарёнинг ўрта оқимида Қанғ (Қанха) давлати ташкил топган эди. Бу давлат тарихда Кангуй номи билан ҳам маълум. Тадқиқотчилар ушбу давлат аҳолисини этник жиҳатдан бир хил бўлмаганлиги, давлат ҳудудида эрон тилли халқлар (хусусан, сўғдийлар, ассианлар, аслар) билан бирга туркий тилда сўзлашувчи этнослар ҳам яшаганликларини айтиб ўтадилар [5.249; 13.86; 14.68; 15.114]. Янги эра арафасида ушбу давлат аҳолиси икки тилда (эрон ва туркий тилларда) сўзлашганлар. Кейинроқ ушбу ҳудудга кўплаб туркий тилли этносларнинг кўчиб келиши натижасида, бу ерда туркий этник қатламнинг мавқеи ортиб борган, оқибатда аҳолининг туркийлашиши кучайган.

Туркий ва туркий бўлмаган этнослар орасидаги тил алоқалари илк ўрта асрларда ҳам кенгайиб борди. Бу даврда минтақанинг бир қатор ҳудудларида аҳоли туркий ва сўғд тилларида сўзлаган. Чунончи, Маҳмуд Кошғарий XI асрда Шарқий Туркистоннинг жанубидаги шаҳарларда шунингдек, Чу ва Талас водийсидаги аҳоли турк ва сўғд тилларида гаплашганликлари, аҳоли икки тилли бўлганлари ҳақида хабар беради. Унинг сўзларига кўра X-XI асрларда Шарқий Туркистондаги Баласоғун шаҳрида бир вақтнинг ўзида аҳоли ҳам туркча, ҳам сўғдча сўзлашганлар. Маҳмуд Кошғарий ўзининг “Туркий тиллар девони” асарида Баласоғундаги сўғдийлар ҳақида гапириб, “Бухоро ва Самарқанддан кўчиб борган сўғдоқлар Боласоғунда жойлашиб қолган ва туркийлашиб кетган” деб ёзган эди [8.28; 9.316].

Турли миллатларнинг бирикувидан таркиб топган Наманган вилояти аҳолиси учун азалдан икки тиллилик хос бўлган. XIX-XX аср бошларида водий ҳудудида ўзбек-тожик, ўзбек-уйғур, ўзбек-қирғиз ва ўзбек-қорақалпоқ икки тиллилик ҳолатлари кузатилади. Натижада юқоридаги икки тиллилик ҳодисаси ва уларнинг тарқалиш кўлами ҳудудда турлича бўлиб, бу ижтимоий ҳодисанинг содир бўлиши этник муҳит билан бевосита боғлиқ бўлган.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, шевалар халқимизнинг этногенетик, этнографик хусусиятлари ҳақида бошқа ҳеч бир манбадан олиб бўлмайдиган маълумотлар беради.

Туркий тиллараро қоришув (метизация) ва туркий халқлар билан туркий бўлмаган этносларнинг тиллари ўртасидаги муносабат (гибридизация) Наманган вилояти шевалари этнолингвистик жараёнларнинг асосий йўналишларини белгилаб берган.

Мазкур ареалдаги қипчоқ ва қарлуқ шева вакиллари ўз нутқида энг қадимги туркий ва эски ўзбек тили рудимент – унсурларини сақлаб келмоқда.

Адабиётлар:

1. Абдиев М. Худойберди Донёров // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2017. – № 4. – Б. 115.
2. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар (XIX-XX асрнинг бошлари). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005.
3. Винников В.Р. Современное расселение народов и этнографических групп в Ферганской долине // СЭС. 1959. – Т. II. – С. 404-405.
4. Губаева С.С. Этнический состав населения Ферганы в конце XIX начале XX вв. – Ташкент: Фан, 1983. – С. 71-74.
5. Гумилев. Л.Н. Қадимги турклар. – Тошкент: Фан, 2007.
6. Донёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968.
7. Иногамов Ш.И. Этнический состав населения этнографическая Ферганской долины в границах УзССР: Автореф. дис. ...канд. истор. наук. – Ташкент, 1955.
8. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғат-ит турк. I том. – Тошкент, 1960-1963.
9. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғат-ит турк. Индекс – луғат. – Тошкент: Фан, 1967.
10. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2008.
11. Спришевский В.И. Чустское поселение (к истории Ферганы в эпоху бронзы). Автореф. дис. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1963.
12. Толстова Л.С. Каракалпаки Ферганской долины. – Нукус: Каракалпакское государственное издательство, 1959.
13. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Тошкент: Шарқ, 2001.
14. Шониёзов К. Қарлуқ қабиласи ва унинг тили ҳақида айрим мулоҳазалар // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. – № 4. – Тошкент, 1962.– Б. 48.

15. Шониёзов К. Канғ давлати ва канғлилар. – Тошкент: Фан, 1990.
16. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 2012.
17. Ишандадаев Д. Наманган атроф тожик ва ўзбек шеваларида сўз ясашнинг айрим хусусиятлари (тожик ва ўзбек тиллари ўзаро таъсири масаласига доир). Фил. фанл. номз. ...дис. автореф. – Тошкент, 1967.

QIPCHOQ LAHJASIDAGI SIFAT SO‘Z TURKUMIGA OID AYRIM SO‘ZLAR IZOHI

Kurbonov Zaynidin Oltinovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
kurbanovzaynidin1@gmail.com
Bo‘riboyeva Muqaddas Zayniddin qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, magistr.
@MuqaddasZayniddinovna@mail.com

Annotatsiya*:Ushbu maqolada, asosan, adabiy tilda uchramaydigan, qipchoq lahjasiga mansub ma’lum bir hudud shevasida iste’molda bo‘lgan sifat so‘z turkumiga oid salbiy ma’nodagi so‘zlarning ma’nolari izohlangan.*
Kalit so‘zlar*: dialekt, leksik xususiyatlar, qipchoq lahjasi, sifat, leksik farqlanish, fonetik farqlanish, fonetik o‘zgarish.*
Аннотация: *В данной статье поясняются значения слов с отрицательным значением, которые не встречаются в литературном языке и употребляются в диалекте определенного региона, относящегося к кыпчакскому диалекту.*
Ключевое слово: *диалект, лексические особенности, кыпчакский диалект, имя прилагательное, лексическая дифференциация, фонетическая дифференциация, фонетическое изменение.*
Annotation: *In this article, the meanings of words with a negative meaning, which are not found in the literary language and are used in the dialect of a certain region belonging to the Kipchak dialect, are explained.*
Key words: *dialect, lexical features, kipchak dialect, adjective, lexical differentiation, phonetic differentiation, phonetic change.*

Har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi lozim[1]. Bu uchun esa o‘z tilining, o‘z milliy mafkurasining nozik qirralarini-da, bilishi va o‘rganishi suv va havodek muhim. Milliy madaniyatni anglashi uchun, albatta, ona tili asosiy manbadir.

Ma’lumki, til doimiy o‘sish va rivojlanishda bo‘lgan hodisa sifatida leksik, morfologik, fonetik, sintaktik jihatdan o‘zgarib, takomillashib boradi. Xususan, o‘zbek dialektlarining xilma-xilligi, lisoniy hodisalarning hududiy farqlanishi o‘zbek milliy tilining ildizlari nechog‘lik mustahkam, ifoda imkoniyatlarining boy ekanligini isbotlaydi. O‘zbek shevalari uch katta dialektga birlashsa-da, O‘zbekiston hududidagi har bir viloyat, tuman yoxud qishloq shevasi muayyan farqlarga ham ega. Buni Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo Navoiy, Jizzax viloyatlarining bir necha tuman va qishloqlarida; Shimoliy Xorazm, Ohangaron vodiysida, Mirzacho‘l va O‘ratepa atrofida yashovchi aholi iste’molida bo‘lgan qipchoq lahjasi asosida ham ko‘rish mumkin. Qipchoq urug‘lari eng qadimgi urug‘lardan biri hisoblanadi. *“Devonu lug‘otit turk”* asarida Mahmud Qoshg‘ariy o‘z davrida katta mavqega ega bo‘lgan bajanak, o‘g‘uz, yamak, bashg‘irt, basmil kabi 20 til ichida qipchoq tilini ham qayd etib o‘tadi.

Qipchoq urug‘lari va tili xususida XIII–XIV asrga tegishli yodnoma *“Attuhfat-uz zakiyati fil lug‘otit turkiya”* (Turkiy til (qipchoq tili) haqida noyob kitob)da ham qimmatli tarixiy lingvistik ma’lumotlar mavjud. O‘zbek tilining qipchoq lahjasi har xil turkiy urug‘-qabila guruhi vakillarini o‘z ichiga oladi. Bular orasida *qipchoq, nayman, qang‘li, laqay, uyshin, qoraqalpoq, saroy, qiyot, xitoy, tuyoqli, arg‘in* kabi ko‘pgina urug‘-qabilalar bor. O‘zbek baxshilarining aksariyati qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilardir. Qipchoq lahjasining lingvistik xususiyatlari *A. Shcherba, V.V. Reshetov, M. Mirzayev, F. Abdullayev, X. Doniyorov* va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mazkur maqolada Samarqand viloyati, Qo‘shrabot tumani aholisining leksikasida uchrovchi ayrim salbiy ma’noli sifatlarni ko‘rib chiqamiz. Keltirilgan hudud aholisining shevasiga murojaat qilinganda ushbu

sifatlar ikki turga bo‘lindi. Bular *fonetik* va *leksik* farqlanuvchi sifatlar. Biz har ikkala turga kiruvchi sifatlarni bir muncha tahlil qilamiz.

1.Salbiy ma’noli fonetik farqlanuvchi sifatlarni ham o‘z ichida tovush almashinishi va tovus ortishiga qarab bo‘lishimiz mumkin:

Allamchi – [әлләмчы**] –** *“Aldam”* so‘zi tarkibidagi *“d”* tovushi *“l”* tovushiga almashgan variant. Ma’nosi : yolg‘onchi odam

Quyidagi so‘zlarida esa jarangsiz, lab-tish undoshi *“f”*, ushbu shevada yana bir jarangsiz, lab-lab undosh bo‘lgan *“p”* bilan talaffuz qilinadi.

Bepahm – [бэпәхм**]**

Ma’nosi : befahm, fahmi past

Beparasat – [бэпәрәсәт**]**

Ma’nosi : farosatsiz, befarosat.

Iplos – [ыплэс]

Ma’nosi : iflos – notoza

Mahmud Qoshg‘ariy turkiy tillarni 2 ta guruhga, ya’ni Sharqiy turklar va G‘arbiy turklar tiliga ajratib, ularning tili o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib o‘tadi. Masalan, Sharqiy turklar *yunji* desa, G‘arbiy turklar ushbu so‘zni *junju* deb talaffuz qiladilar[2], deb aytib o‘tadi. Buning isboti ko‘rib chiqilayotgan hududdagi so‘zlarda ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Jamov – [жәмэв] – *“yama + v = yamov”*

Ma’nosi : yamalgan

Jilovuq – [жылэвуқ] – bu sifat ham leksik, ham fonetik, ham morfemik xususiyatlari bilan e’tiborlidir: *“ yig‘la → jila + ovuq = jilovuq”*

Ma’nosi : ko‘p yig‘laydigan, yig‘loqi.

Jomon – [жэмэн]

Ma’nosi : yomon

Xorom – [хэрэм] – singarmonizm hodisasi saqlanib qolgan.

Ma’nosi : xarom- toza bo‘lmagan, nopok kabilar.

Salbiy ma’noli leksik farqlanuvchi sifatlar:

Alpovuz – [әлпэвуз**]** Ma’nosi : katta, bahaybat, alpdek

Beqiliq – [бэқылық] Ma’nosi : qilig‘ida ma’no yo‘q odam **Besomon –** [бэсэмэн**]**

Ma’nosi : betayin, odamgarchiligi yo‘q odam

Betuturiq – [бэтутурық] Ma’nosi : tuturiqsiz, ma’nisiz odam

Bidilloq – [быдыллӨқ**]** Ma’nosi: ko‘p gapiradigan

Bo‘tana – [бӨтәнә**]** Ma’nosi : loyqa, xira

Chandir – [чәндыр] Ma’nosi : o‘ta ozg‘in inson

Chibjing – [чыбжың] Ma’nosi : yengiltabiat

Chimxo‘r – [чымхӨр] Ma’nosi : ovqat yemaydigan

Chuchala – [чучәлә] Ma’nosi : betayin, bema’ni

Chuchchi - [чуччы] Ma’nosi : betayin, bema’ni

Chuchmal – [чучмәл] – adabiy tilda asosan ijobiy ma’noda qo‘llanilishiga qaramay, shevada salbiy ma’noda keladi. *Misol: chuchmal odam*. Ma’nosi : ma’nisiz, tushunarsiz

Do‘ngmo‘yin – [дӨңмӨйын] Ma’nosi : kekkaygan, bepisand qarovchi

Esar – [эсәр] Ma’nosi : aqli ancha past, tentak.

Govkalla – [гэвкәллә] Ma’nosi: kallasi katta

Go‘rso‘xta – [гӨрсӨхтә] Ma’nosi : haqorat so‘z

Yuqoridagi *gov (gav →sigir) + kalla va go‘r + so‘xta* sifatlari tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlardir.

Gejir – [гэжыр] Ma’nosi : qaysar

Hapalang – [хәпәләң] Ma’nosi : o‘ta shoshqaloq

Jar-jar – [жәр-жәр] Ma’nosi : urishqoq

Jiyuvsiz – [жыйувсыз] Ma’nosi : betayin

Jolomir – [жэлэмыр] Ma’nosi : ko‘zi och, nafsibuzuq

Ko‘kbarmoq – [кӨкбәрмэқ] Ma’nosi : hech ishni eplay olmaydigan

Ko‘kmiya – [кӨкмыйә] Ma’nosi: xotirasi past

Ko‘tarang –[кӨтәрәң] Ma’nosi : o‘ta og‘ir, dangasa

Mastan –[мәстән] Ma’nosi : erka, mahmadona, ko‘p gapiradigan

Molopoya – [мэлэпэйә] Ma’nosi : katta oyoqli

Nonso‘g‘ar – [нэнсӨǵәр] Ma’nosi : foydasi yo‘q faqat nonga sherik

O‘r – [Өр] Ma’nosi : qaysar
O‘rasoloq – [Өрәсәлэқ] Ma’nosi: qo‘pol, madaniyatsiz
O‘somas – [Өсэмәс] Ma’nosi : ishni eplay olmaydigan, qo‘pol
Ovsat – [эвсәт] Ma’nosi : o‘ta ahmoq
Porsiq – [пэрсық] Ma’nosi : farosatsiz, tartibsiz
Po‘ssuq –[пӨссық] Ma’nosi : xunuk
Qorashirg‘ay – [қэрәшырǵәй] – juda kir narsalarga nisbatan ishlatiladi. Ma’nosi: qop-qora
Shiltiq – [шылтық] Ma’nosi : juda eski
Sirqov – [сырқэв] Ma’nosi : qo‘lidan ish kelmaydigan, beso‘naqay odam
So‘loqmon – [сӨлэқмэн] Ma’nosi : beo‘xshov, qo‘pol
So‘ltiq – [сӨлтық] Ma’nosi : qilig‘i bema’ni
So‘kamat – [сӨкәмәт] Ma’nosi: kap-katta
Sovdik – [сэвдык] Ma’nosi : ahmoq, qo‘pol
Sovmal – [сэвмәл] Ma’nosi : ahmoq, aqlsiz
Sovmaltob – [сэвмәлтэб] Ma’nosi : ahmoq kabi, jinni
Suqanoq – [суқәнэқ] Ma’nosi : ochofot, ko‘zi och
Suqqi – [суққы] Ma’nosi : ko‘zioch, ochofat, to‘ymas
Talpish – [тәлпыш] Ma’nosi : o‘ta olifta
Taltangboy – [тәлтәңбэй] Ma’nosi : o‘ta olifta, oyoqni keng ochib kekkayib yuruvchi

Taytuv – [тәйтув] Ma’nosi : bo‘lar-bo‘lmasni gapiradigan, qiladigan

Tegma nozik – [тэгмә нэзык] Ma’nosi : sal narsaga xafa bo‘lib ko‘ngliga oluvchi
To‘qos – [тӨқэс] Ma’nosi : o‘ta qo‘pol katta
Xiyol – [хыйэл] Ma’nosi : xayoli parishon, esipast

Albatta, ijobiy ma’nodagi sifatlar ham mavjud. Ammo biz bu maqolamizda xilma-xilligi sababli aynan salbiy ma’nodagi sifatlarga to‘xtalishni ma’qul topdik. Aynan shu hudud leksikonidagi fe’llar, otlar, ravishlar ham alohidalikka egaligini e’tiborga olib, kelajakda mana shu hudud so‘zlarining izohli lug‘atini tuzish va shu orqali o‘zbek tilining lug‘ati qay darajada boy ekanligini yana bir bor isbotlashni o‘z oldimizga maqsad qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni
Mahmud Qoshg‘ariy. “Devonu lug‘otit turk” asari.
Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent-2013. – 4-6 b.
Qurbonov Z. M.Oltinova, “Samarqand tuman “Nayman” MFYning sheva xususiyatlari ustida qisqacha mulohazalar” International journal of discourse on innovation, integration and education,Vol. 2 No. 2 (2021): Vol. 2 Issue 2, 2021
www.lex.uz
www.ziyo.net

QIZILTEPA ETNOTOPONIMLARINING AREAL-XRONOLOGIK TAHLILI

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich
f.f.f.d.(PhD), dots.v.b. NavDKTU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Qiziltepa tumani toponimlari va ayrim onomastik birliklarning etimologik tahlili doirasida olib borilgan tadqiqotlar natijalari va ilmiy xulosalar asosida joy nomlarining tahlili muhokamaga tortilgan.*

Tayanch so‘zlar: *o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam, toponim, etimologiya, onomastik etimologiya, onomastik leksika, etimologik tahlil.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается анализ топонимов на основе результатов исследований и научных выводов в рамках этимологического анализа топонимов Кызылтепинского района и некоторых ономастических единиц.*

Ключевые слова: *собственные слова, заимствованный слой, топоним, этимология, ономастическая этимология, ономастическая лексика, этимологический анализ.*
Annotation: *this article discusses the analysis of place names based on the results of research and scientific conclusions carried out within the framework of etymological analysis of toponyms and certain onomastic units of the Qiziltepa district.*
Key words: *native layer, borrowed layer, toponym, etymology, onomastic etymology, onomastic lexicon, etymological analysis.*

Tumandagi etnotoponimlar areal-xronologik va genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra, jahon tilshunosligi tadqiqotlariga tayanilib, tahlil qilingan [1;767]. Ma’lumki, o‘zbek va fors-tojik etnonimiyasi turkiy-forsiy etnonimlarning ajralmas tarkibiy qismidir. O‘zbek va tojik (eroniy) urug‘-qabilalari va ularning tarmoqlari bilan bog‘liq nomlar turkiy xalqlar etnik tarkibida ko‘p hollarda uchrashi, tabiiy. Muayyan urug‘ va qabila nomlarining tarqalishini areal-lingvistik jihatdan o‘rganish o‘zbek etnonim va etnotoponimlarini tadqiq qilishda ahamiyatli bo‘lgan tarixiy, tadrijiy va subordinativ asoslanishi xususiyatiga ko‘ra etnotoponimlar quyidagicha tavsiflandi:

Qadimiy davr. Bu davr muayyan hududlarda davlatchilikning yuzaga kelishi hamda mavjud joy nomlarining ilk holati va paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Tarixiy manbalarda o‘sha davrlarga oid bo‘lgan tarixiy nomlarning hozirgi holatida, ya’ni Qiziltepa, Tavois, Vang‘ozi toponimlari mazmun-mohiyati negizida qadim ming yilliklarda o‘rganilgan tuman hududida yashab kelgan sak, andi kabi turkiy urug‘ qabilalarining hayot tarzi, urf-odatlari hamda etnik tarkibining yashirinib yotganligi ayrim tarixiy manbalar hamda keksa kishilar tomonidan taqdim etilgan afsona va rivoyatlar asosida to‘liq aniqlangan. Mana shu davrda paydo bo‘lgan nomlar etimon termini asosida talqin etiladi. Etimolok tahlil qilishda etimon tushunchasini A.Beletskiy so‘zning birinchi shakli va ilk ma’nosi sifatida sharhlagan bo‘lsa, N.Podolskaya nomning ilk shakli hamda ma’nosi deb talqin etgan. O‘zbek toponimist olimi T.Enazarov esa hozirda tilimizda mavjud so‘z yoki morfemaning kelib chiqishiga asos bo‘lgan so‘z yoki morfema deb ta’riflaydi.

Turkiy tillar onomastikasining tadqiqi manbalaridan biri bo‘lgan turkiy so‘zlarni arab leksikografiyasi talablari asosida arabcha izohlab bera olgan va shu o‘rinda yigirmadan ortiq turkiy qabilalar yashagan hududlarning joy nomlarini yo‘lma-yo‘lakay o‘rganib, ba’zi bir toponimlarning o‘sha vaqtdagi ma’no nozikliklarini mavjud manbalar asosida talqin qilgan M.Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asariga borib taqaladi. Bu asar A.N.Kononovning fikricha, «XI asr turkiy xalqlarining hayoti, turmush tarzi, ... etnonimlar va toponimlar. ... qavm-qarindoshlik atamalari,.... geografik nomlar va atamalar, ... turli tarixiy, mifologik qahramonlarning nomlari, diniy, etnik atamalar va boshqalar haqida ma’lumot beruvchi yagona manbadir» [2;13]. Shuni qayd etib o‘tish kerakki, bu asarda turkiy tillarning ulkan onomastik sathi o‘z aksini topgan.

Qiziltepaning eng qadimgi davrlarini tavsif etishda hududdagi eng qadimiy sug‘orish inshootlari – gidronimlarning ayrim lisoniy-kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tavsifiga yondashish tadqiqot doirasida lozim topildi. Tuman hududining qadimiyligi hamda arxeologik yodgorliklarning, madaniy qatlamlarning birmuncha ko‘pligini hisobga olib, mazkur hududni diaxron planda tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilishiga yetarli ilmiy nazariy asos bor deb hisoblaymiz. Tadqiqot jarayonida Qiziltepada aniqlangan mavjud 72 nomdagi tarixiy-arxeologik hamda arxitektura obyektlarning nomlari o‘rganildi. Ularning ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilish natijasi tarixiy-arxeologik obyektlar, tadqiqot toponimik obyekti sifatida ro‘yxatga kiritildi. Qiziltepa tumani gidronimlariga aloqador quyidagi sug‘orish tizimlarining mavjudligi hududning qadimgi davrdan hozirgacha dehqonchilik, chorvachilik va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanganligidan dalolat beradi. Zarafshon daryosi Buxoro vohasining, jumladan, Qiziltepa tumani (Komi Abu Muslim) obi-hayot manbai hisoblangan.

XVII asrda yashagan balxlik alloma Mahmud ibn Valining «Sirlar dengizi» asarida yozilishicha, qadimgi Buxoro vohasi 10 ta tuman yoki rustoqqa (qishloq xo‘jaligi hududlariga) bo‘lingan. Ularning nomlari esa shohariqlar nomi bilan yuritilgan. Ular orasida Komi Abu Muslim rustoqi ham bo‘lgan. Komi Abu Muslim birligidagi «kam», «kom», «kon» morfemasi qadimgi so‘g‘d so‘zlaridan olingan bo‘lib, «qazimoq», «ariq», «suv bilan to‘ldirilgan joy» ma’nosini bildiradi. Abu Muslim komining avvalgi nomi Burg‘ozi bo‘lgan.

Yunon olimlari Zarafshon daryosi nomini o‘z tillarida «Politimet» – «yuksak qadrli», «yuqori qadrli», deb ataganlar. Yunon geografi va tarixchisi Strabon (mil.avv. 64-24-yy.) qalamiga mansub 17 kitobdan iborat «Geografiya» asarida Politimet (Zarafshon) daryosi haqida muhim ma’lumotlar bor [3;15].

Hazora daryosi quyisida Raskuy deb ataladigan joydan Zarafshon daryosining o‘ng qirg‘og‘idan Abu Muslim kanali o‘zani boshlanib, Malikcho‘l sarhadi orqali tuman markazidan 5 km.gacha janubi-g‘arbga oqadi. Abu Muslim o‘zanining nomi, uning boshlanish havzasidagi qadimiy-tarixiy yodgorlik nomi bilan bog‘liq. Bu yodgorlik Abu Muslim qal’asi (Abu Muslimtepa) nomi bilan hozirgi kunga qadar yuritiladi. Abu Muslim arig‘i, Abu Muslim qabristoni hamda bu qabristonda Abu Muslim sag‘anasi bor. Bu qadimiy

yodgorlik haqida H.Hasanov «O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan» asarida «Abu Muslimtepa – Zarafshon vodiysi bo‘yida, Qiziltepa stansiyasidan shimolroqda, qadimiy qal’a vayronalari»dir, deb izoh berib o‘tgan.
Zarafshon daryosidan suv oladigan Qiziltepa hududida quyidagi kanallar mavjudligi gidronim sifatida toponimik obyektlarni tashkil etadi: Abu Muslim, Zarmitan, Emakti, Varozun, Revartun, Afg‘onon, So‘fiyon, Nimkob, Navgandi, O‘ba, Uzbor, Po‘stxo‘r, Mug‘jin, Tojikon, Objuvoz, Gumbaz, Uzilishkent kabi anhorlar hozir ham saqlanib qolgan. Kampirak (Kanpirak) istehkom devori va u bilan bog‘liq onomasiologik-etimologik, onomastik-nominatsion xususiyatlar tavsifida ham Qiziltepa hududida muhim tarixiy ildizlar mavjudligi qayd etiladi.
Voha mudofaa devori sifatidagi Kampirak devorining sharqiy qismi Karmanadan Hazoraga, Hazoradan Ganchtepa, Abu Muslimtepa, Shahrivayron, Qiziltepa, Oqsochtepa, Ajvanditepa, Lavondoqtepa orqali hozirgi Kogon tumani sharqiy janubigacha cho‘zilganligi tarixdan ma’lum. Buxoro hududining asosiy qismini o‘rab olgan mazkur arxeologik-tarixiy yodgorlikning chegaralanishi quyidagicha: g‘arbiy qismi Karmanadan, Toshrabot, G‘ijduvon, Romitan, Jondor orqali, Qorako‘l tumani hududigacha borgan [3;34-287].

Qiziltepa tumanidagi qadimiy tepalar, mozorqo‘rg‘onlar va karvonsaroylar. Do‘rmontepa - Azizontepa qadimgi shahar yodgorligi; Sayiltepa - Andoq qishlog‘ida joylashgan. Ma’lumotlarga qaraganda, bu yerda 3 ming yil ilgari Navro‘z bayrami nishonlangan; G‘amxo‘rtepa - G‘amxo‘r qishlog‘ida joylashgan, V-VIII asrlar; Ganchtepa - Toshrabotda joylashgan. Bu yodgorliklarni bo‘rixona ham deb ataydilar; Elmirzatepa - bu yodgorlik ham Toshrabotda joylashgan; Shahrivayron - Kampirak devori tizimidagi shahar istehkomi; O‘ktamsavobtepa - Shahrivayrondan janubda joylashgan karvonsaroy; Qiziltepa yodgorligi tuman markazining shimoliy-g‘arbiy chekkasida joylashgan. Kampirak devor tizimidagi katta savdo hamda harbiy-strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qal’a markazi. IV asr; Mang‘ittepa – O‘tmishda katta shahar vazifasini bajargan. Uning qadimgi nomini tarixchi olimlar hozirgi o‘rni Vang‘ozi deb taxmin qilishmoqda; Oqsochtepa – Kampirak devor tizimidagi qudratli mudofaa istehkomiga ega kuchli qal’a. IV-V asr; Xo‘ja Ajvanditepa - o‘tmishda shahar bo‘lgan; qal’a sifatida faoliyat ko‘rsatgan; Lavandoqtepa - milodiy eradan avvalgi I asrda asos solingan. Kampirak devor o‘z ahamiyatini yo‘qotgandan so‘ng, uning tizimidagi qo‘riqchi shahar va qishloqlar ham tanazzulga uchragan; Xushartitepa – hozirgi G‘ardiyon hududida; Totiyontepa - hozirgi paytda bu yodgorlik buzib yo‘qotilgan; Bo‘stontepa – So‘g‘diyonaning birinchi shaharlaridan bo‘lib, uning quyisida Boyazid Bistomiy ramziy qabri mavjud; Xojag‘oyibtepa – V asr, G‘oyib ota qabri bor; Mirhoshimtepa –Vang‘ozi agroeksport korxonasi hududida. Hozirgi paytda buzilgan; Novvoyontepa – V asr; Ishlonko‘ptepa V asr, hozir qabriston; Kesakxo‘rtepa –V asr; Talolaktepa – V asr. Hozir mavjud emas; Taliumartepa - IV asr; Qasriomontepa – IV asr; Xartazontepa – IV-V asrlar; Revartuntepa - sanasi noma’lum; Emaktitepa - sanasi noma’lum; Sinjametontepa – V asr. **Mitan** so‘zi so‘g‘dcha uy, makon, qo‘nalg‘a, manzilgoh ma’nolarini bildiradi. Bu yerda Hazrati Imlo ziyoratgohi mavjud; Qudaxontepa – Afg‘onon qishlog‘ida. V-VIII asrlar; Qo‘rg‘ontepa – Zarmitan qishlog‘ida. Sanasi noma’lum; Sa’dvaqqostepa – Shohrud qal’asi yoqasida. Zarmitan qal’asi shu yodgorlik o‘rnida bo‘lgan degan fikr va g‘oya mavjud; qadimda o‘zbek va forsiy (eroniy) xalqlari tarkibida Mitan qabilasi qishloq nomini Zarmitan deb olganligi to‘g‘risida rivoyatlar mavjud; Xojamozortepa – sanasi noma’lum; Pushtikalontepa – sanasi noma’lum; Xusbuddintepa – V asr. Bu hududda mashhur Xusbuddin o‘rigi etishtirilgan; Mozortepa – sanasi noma’lum; Varozuntepa – V asr; Chorbog‘tepa – sanasi noma’lum; Qo‘lbatepa – V asr; Avazbobotepa – V asr. Konsurun qishlog‘idagi hovuz va quduqlarda Nurotadagidek baliqlari bo‘lgan; Kattatepa – V-XII asrlarda shahar sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Qadimgi davrlarda bu yerda o‘n kun bozor bo‘lgan [3;34-297].

Qiziltepada mavjud mozorqo‘rg‘onlar. Buxoro so‘g‘dining madaniyati tub aholi va Zarafshon vohasining shimoliy tomoni cho‘l hududlarida yashovchi ko‘chmanchi chorvadorlar hayot tarzi natijasida shakllangan. So‘g‘diylar otashparastlar bo‘lib, olov, tuproq, havo, suvni muqaddas sanashgan. Bu to‘rt unsur haqida Alisher Navoiyning asarlarida ham ma’lumot bor. Bu to‘rt unsur (element) haqida bir qancha rivoyat va afsonalar mavjud. Ko‘chmanchi chorvadorlar osmoniy jismlar – Quyosh xudosi Mitra hamda hayvonlarga sig‘inishgan. Shu sababdan ham, o‘liklarni qurol-anjomlari bilan dafn etishgan. Kampirak devori tashqarisida Buxoro vohasida, jumladan, Qiziltepa tumanida mozorqo‘rg‘onlar vujudga kelgan. Masalan, Shahrivayron, Lavandoq, Quyimozor qabristonlari kabilar.
Mozorqo‘rg‘onlardan qayiqqa o‘xshagan tobutlar, qurollar, idishlar, turli taqinchoqlar, pardoz buyumlari, qo‘yning oldingi oyog‘i, tangalar, ostadonlar, hatto ayollar qabrida o‘q-yoy, kamon uchi topilgan. O‘q uchlari bronzadan, keyinchalik temirdan yasalgan.
Mozorqo‘rg‘onlardagi buyumlarning mahalliy aholi buyumlari bilan o‘xshashligi, ular o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unlashib borayotganidan; ayollar mozorqo‘rg‘onlarida qurol-yarog‘ning topilishi esa ularning jamiyat hayotida erkaklar bilan teng qatnashganidan dalolat beradi.

Tavoyis so‘g‘d davlati tarkibida. Qadimgi so‘g‘d mintaqasi Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo havzasi madaniy hududlaridan iborat bo‘lgan va So‘g‘diyona Turonning qadimgi tarixiy madaniy viloyatidan biri hisoblanadi. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da «Men –Axura Mazda yaratgan ikkinchi zarzamin va go‘zal yurt So‘g‘d diyori edi» deb yozilgan. Rivoyatning mavjudligi Qiziltepa toponimlari tarixiy-etimologik ildizlarini to‘liq isbotlaydi.

O‘rta asr tarixchi va geograflari tomonidan «So‘g‘d mintaqasi uch qismda Samarqand (Markaziy So‘g‘d), Buxoro (G‘arbiy So‘g‘d) va Kesh-Naxshab So‘g‘di (Janubiy So‘g‘d)ga ajratilgan»[4;108-109]ligi O‘zbekiston tarixi asarida to‘liq tavsiflangan.

G‘arbiy So‘g‘d – hozirgi Qiziltepa, Konimex, Buxoro va Qorako‘l ma’muriy hududlaridan tashkil topgan. Qiziltepa tumani Navoiy viloyatining Konimex, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlari; Buxoro viloyatining G‘ijduvon, Vobkent, Buxoro va Kogon tumanlari; Qashqadaryo viloyatining Muborak, Samarqand viloyatining Paxtachi tumani bilan chegaradosh.

Qiziltepa toponimi atamasi izohi haqida. Toshrabot, Vang‘ozi va Bo‘stondan tumanning sharq tomoni Ko‘ktog‘ga qarab borilsa, uyum-uyum qizil rangli barxan tepaliklar ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Bundan yuz yil oldin ham, hozirgi Qiziltepa shahri o‘rnini, yaydoq cho‘l bo‘lgan davrni, Qiziltepa deb atashgan. Ko‘ktog‘ yon-atroflari yaqqol ko‘rinib turgan. Shuning uchun odamlar qadimdan bu joylarni Qizil sifati etimoni bilan atashganligi rivoyat va afsonalardan ma’lum.

Tadqiqotning o‘rganilish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, nomlarning yaralishida omil bo‘lib xizmat qilgan davrlar quyidagicha izoh etildi.

Arablar davri. Fan nuqtayi nazaridan olib qaraladigan bo‘lsa, har qanday etnik aloqalar, shuningdek, etnomadaniyat xususiyatlari, birlamchi, tilda o‘z ifodasini topadi. Arab etnik qatlamining (arablarning) O‘rta Osiyo mintaqasiga, shu qatorida o‘rganilgan tuman hududiga kirib kelishi, uzoq davom etgan etnik-migratssion jarayonlarni boshlab berdi. Natijada mazkur hudud aholisining etnik shakllanishining yanada murakkablashishiga olib keldi. Tilimizga arab tiliga xos so‘zlarning o‘zlashganligi, joy nomlarida arab etnonimining birmuncha ko‘p uchrashi buning yaqqol dalilidir. Arab etnonimi bilan bog‘liq nomlar Qiziltepa hududining sezilarli (asosan, bir qancha arealida) darajada uchraydi. Masalan: Arabon, Arabxona, Arabo, Arabqishloq, Arab, Qushayr, Arab to‘pi kabilar.

VII asrda bostirib kirgan Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi qo‘shin 709-yilda Tavoyisni ham egallaydi. Arab qo‘shinlariga qarshi so‘g‘diylar va turkiylar kurash olib boradi. Qutayba makr ishlatib, ularni bir-biridan ajratib engadi, islomlashtirish uchun so‘g‘d va boshqa aholini qirib tashlaydi, zardushtiylar ma’naviy-ma’rifiy yodgorliklarining kulini ko‘kka sovuradi.

Mo‘g‘ullar davri. O‘zbekistonning qadim hududiga mo‘g‘ullarning bostirib kirishi va ularning istilosi oqibatida etnonim hamda etnotoponimlarning rivoji uchun yangi davrni boshlab berdi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida mahalliy urug‘lar, qabilalarning mavqei mo‘g‘ullarga qay daraja aloqadorligiga qarab belgilana boshladi. Tarixchi olimlarning fikriga ko‘ra, «Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng XIII asr oxiri, XVI asr boshlarida Zarafshon vodiysining sharqidagi yirik strategik shahar va muhim savdo markazlarining mavqei ko‘tarila borgan». Qiziltepa tumani hududidan qadimdan savdo karvon yo‘lining o‘tganligi, bu hududning qanday darajadagi mavqega ega ekanligidan dalolat beradi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida bunday hududlarga katta ahamiyat berilgan. Mo‘g‘ullar chorvador xalq bo‘lganligi bois, hududning sersuv, sero‘t yaylovlariga muqim o‘rnashganlar. Nayman, Naymancha, Uyrot, Arg‘un, Ayronchi kabi toponimik nomlar mo‘g‘ul urug‘larining ko‘lami kengayganligini ko‘rsatadi. Bu kabi mo‘g‘ul urug‘lari Qiziltepa tumani hududida ham miqdor jihatdan juda ko‘p sonni tashkil etadi. Bu tarixiy jarayonlar tuman hududi joy nomlari tavsifiga asoslanib, mo‘g‘ul urug‘larining joylashishi mavjud bo‘lganligini isbotlamoqda. Keyinchalik mahalliy xalq bilan aralashib, ularning tarkibiga singib ketganlar. Nayman, Do‘rman, Arg‘in, Axtachi, Darxon, Qatag‘on, Kenagas, Saroy kabi etnotoponimlar paydo bo‘lgan. Bu kabi etnotoponimlar Qiziltepa hududida keragidan ortiq miqdorda mavjud. Demak, Qiziltepa etnotoponimlarini o‘rganish mazkur hudud tarixini o‘rganishga ilmiy-nazariy asos bo‘ladi degan xulosani beramiz.

Qipchoqlar davri. Qipchoq urug‘i qadimiy turkiy tilli qabilalarning eng yirik va nufuzlisi hisoblanib, uzoq tarixiy davrlar davomida etnoslar aralashuvi jarayonlarida ishtiroki natijasi sifatida o‘zbek, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz kabi turkiy tilda so‘zlovchi xalqlarning millat bo‘lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan hamda ularning etnik tarkibiga singib ketgan urug‘lardan sanaladi. Qipchoq urug‘ining tarmoqlariga asoslangan etnotoponimlar Qiziltepa hududida ozchilikni tashkil etadi: Qirg‘iz, Qozoqovul, Ko‘saovul, Oqsoch kabilar.

Sho‘rolar davri. Chor Rossiyasining istilochilik harakatlari hamda sho‘ro siyosati mafkurasining noto‘g‘ri siyosati oqibatida millat tarixining turli davrlarida xalq turmush tarzi, e’tiqodi asosida paydo bo‘lgan etnonimlar hamda toponimlarga bog‘liq tasavvur, tushunchalarga nisbatan eskilik sarqiti tamg‘asining yopishtirilishi oqibatida ko‘plab nomlar yo‘q qilindi. Natijada kommunistik mafkurani ifoda

etuvchi milliy mentalitetimizga yot nomlar yuzaga keldi. Jumladan, Qiziltepa tumanida qadimdan mavjud etnotoponimlar o‘rnida Leninizm, Moskva, Marks, Kalinin, Ittifoq, Qizil Yulduz, Telman, Leningrad kabi sun’iy nomlar qo‘llanila boshlandi. O‘sha davrda bosqinchi inqilobchilarning nomini abadiylashtirish uchun joy nomlari o‘zgartirilib, ularning nomlari berilgan. Bu holat, nafaqat, Qiziltepa tumani hududida, balki butun O‘zbekistonda bunday holatni kuzatish mumkin edi. Masalan, tuman hududida Lenin (Gadoylar va Mayta qishlog‘ida), Sotsializm (Baland G‘ardiyon), Qizil O‘zbekiston (Past G‘ardiyonda), Stalin (Sarmozor va Qusharti qishloqlarida), Yangi turmush (Kulolon va Elobod qishloqlarida), Guliston (Totiyon qishlog‘ida) nomli jamoa xo‘jaliklarining tashkil etilishi buning yaqqol dalilidir.

Tuman ahli sho‘rolar tuzumi davrida o‘zining qadim avlodlardan qolgan boshqa milliy va diniy qadriyatlari qatori hunarmandchilik an’analarini ham yo‘qotgan. Xususiy mulkchilikning tag-tomiri bilan yo‘qotilishi, jamoalashtirish siyosati oqibatida qishloq odamlari oddiy dehqonga – dala mehnatchisiga aylanib qolgan. Shuning uchun ham odamlar, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan bo‘lib qolgan.

Demak, Sho‘ro hukumati davri Qiziltepa toponimlari (aniqrog‘i antropotoponimlari)ni o‘rganish o‘sha mustabid tuzum tarixiga bir nazar desak ham bo‘laveradi. Ular bu bilan chegaralanmasdan, 1937-1938-yillarda o‘zlarining ayblarini bostirish uchun Qiziltepa hududida ham 60 foiz joy nomlari o‘shalar nomiga o‘zgartirilgan. Hozirda bu joy nomlarining aksariyat barchasi yangilandi.

Mustaqillik davri. Jamiyat taraqqiyoti to‘xtovsiz davom etar ekan, mamlakatlarning xalqaro darajadagi turli xil aloqalari rivojlanib boradi. Yangi-yangi aloqalarning vujudga kelishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi, xalqlarning siyosiy qarashlarining o‘zgarishi, bularning hammasi joy nomlarida ham o‘z aksini topadi. Masalan, o‘tgan XX asrda avvaliga inqilob namoyondalari ism-familiyalari bilan bog‘liq joy nomlari, keyinroq Zarbdor, Yoshlarobod, Ilg‘or, Yangiro‘zg‘or, Yangiobod, Mustaqillik kabi toponimlar vujudga keldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin tarixiy joy nomlari qayta tiklandi, shuningdek, yangi joy nomlari paydo bo‘la boshladi. Mustaqillik maydoni, Istiqlol, Erkinlik, Bunyodkor va boshqalar. Istiqlol yillarida mamlakatimizda aholi punktlarini qayta nomlashda, milliy ruhga yo‘g‘rilgan nomlar asosida nomlash keng yo‘lga qo‘yildi. Natijada, mustaqillik yillarida tilimiz, hayotimizga begona bo‘lgan nomlar o‘rniga yangi, millatimizning tarixiy an’analari, qadriyatlariga xos va mos nomlar qo‘yila boshlandi.

Neotoponimlar – yangi turkum joy nomlari bo‘lib, zamonaviy birliklarning paydo bo‘lishi asosida vujudga keladi. Bunday o‘zgartirilgan yangi joy nomlari respublikamizda bo‘lgani kabi, Qiziltepa mikrotoponimiyasida ham vujudga kelgan. Masalan, «Quyimozor» korxonasi, «Navoiy Gulbog‘ servis» MCHJ, «Amriddin Ashur», «Gulshan Durdona», «Demas zar zamin», «Sulton Mahmud Bo‘stoni», «Bobomurodov Akmal Ziyodullaevich», «Chorbog‘ g‘allakori» fermer xo‘jaliklari, «Sharof Bozor sohibkor» ta’mirlash ustaxonasi «Zarina», «Asilbek ziyonur», «Yuqsuntuz» xususiy korxonalari, «Quyoshjon» maktabgacha ta’lim tashkiloti, «Vang‘ozi agroeksport» korxonasi va boshqalar. (11-ilova)

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, «respublika hududidagi joy nomlarini tartibga solish, o‘zgartirish va qayta nomlash» [5] bo‘yicha bosqichma-bosqich ishlar amalga oshirildi. Birinchi navbatda, mustaqillikning ilk yillarida totalitar tuzum mafkurasini ifoda etuvchi nomlarni bartaraf qilish maqsadida tuman ma’muriyatining o‘zboshimchalik asosida joy nomlariga nisbatan munosabati yuzaga keldi (shaxs nomlarining toponimik nom sifatida qo‘llanilishi). Bu holatni to‘g‘ri anglagan va baholay olgan hukumatimiz tomonidan qonun va qarorlar chiqarilib, hech bir asossiz o‘zgartirilgan, unutilishga yuz tutgan tarixiy nomlar tiklandi, «joy nomlariga milliy, tarixiy-an’anaviy, o‘zbekona ruh berish» [6;408] asosida keng qamrovli ishlar tashkillashtirildi hamda amalga oshirildi. Bu holat ham Qiziltepa tumani toponimikasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Jumladan, genetik shakllanish jihatlariga ko‘ra tarixiy etnotoponimlar quyidagicha tavsiflandi:

Mahalliy turkiy urug‘lari bilan bog‘liq etnotoponimlarning tarqalish areali.

Turkiy qabilalar o‘zbek xalqi etnik tarkibidagi asosiy 7 qatlamdan biri hisoblanadi. Ular O‘rta Osiyo, xususan, Zarafshon vodiysi hududida doimiy ravishda turg‘unlashib, mahalliy xalqlar bilan etnogenetik va madaniy aloqalarda bo‘lib kelganlar. Ularga ilmiy adabiyotlarda O‘rta Osiyo hududiga Shayboniylardan avval kelib o‘rnashgan turkiy, turk-mo‘g‘ul qabilalarining avlodlari sifatida qaraladi. Hozirda Qiziltepa tumanining o‘zlarini turkiy elat vakili hisoblovchi aholining katta qismi fors-tojik qavmlar bilan birga inoq yashaydilar.

Tadqiqotimiz natijasida keltirilgan hududda barqut, urganji, turkman, qirg‘iz, qoraqalpoq, qozoq, mirzalar, o‘ba, olato‘pi, mirzato‘pi, ayronchi, qo‘lba, mergan, saribosh, saroy, qutchi kabi mayda qavmlarning avlodlari yashayotganligi aniqlandi. Muhimi shundaki, ushbu etnoslar yordamida tilimizda muayyan etnotoponimlar vujudga kelganligini ko‘rishimiz mumkin: Xo‘jato‘pi, Urganji, Qirg‘izon, O‘ba, Ayronchi, Qo‘lba, Mergan, Saribosh, Mang‘it, Naymancha, Saroy, Qozoqovul kabilar.

Qozoqlar bilan bog‘liq etnotoponimlarning tarqalish areali. Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turli etnik qatlamlarga mansub urug‘ va qabilalarning uzoq murakkab tarixiy jarayonlarda o‘zaro aralashuvi natijasida turli turkiy millatlar qatorida o‘zbek millati ham shakllanganligini ko‘ramiz.

Tadqiqot natijasida aniqlanishicha, qozoqlar, asosan, Qiziltepa hududida quyidagi manzillarda yashashi aniqlangan, ushbu hududlarda Qozoqovul, Ko‘saovul kabi aholi maskanlarining mavjudligi buning yaqqol dalilidir.

Fors-tojik xalqlari bilan bog‘liq etnotoponimlarning tarqalish areali. Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit-turk» asari, asosan, turkiy urug‘lar va qabilalar hamda arab tillarini o‘rganishda eng muhim manba sanalib, unda etnografiyaga, tarixga, geografiyaga hamda folklorga doir qimmatli ma’lumotlarni topishimiz mumkin. Professor H.Dadaboyevning fikricha, «U turkiy tillarning fonetik va grammatik xususiyatlarini turk, o‘g‘uz, qipchoq shevalari materiallari asosida qiyoslaydi» [7;6-40]. Mahmud Koshg‘ariyning fikricha, «Ular ikki tilda, ko‘pincha, turkiy va so‘g‘dcha yoki forsiyda so‘zlashuvchilardir. Ularning har birlarining tillarini o‘z o‘rnida so‘zlayman», deydi [8;65]. Ko‘rinadiki, Koshg‘ariy o‘z asarida turkiy va eroniy (so‘g‘d, fors) tillarning o‘zaro ta’sirini nazarda tutadi.

Fors-tojik xalqlari O‘rta Osiyo, jumladan, Zarafshon vohasining qadimgi etnoslaridan biridir. Ular, asosan, vohaning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismida joylashgan. Hozir Qiziltepa tumanida tojik etnonimi asosida quyidagi joy nomlari uchraydi: Kattatojik, Tojikmahalla, Tojikon, Tojik qishloq kabilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. Москва: Наука, 1974. - 767 с.; Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на букву «Б».Москва: Наука, 1978. - 350 с.
2. Наханова Л.А.Историко-семантическая интерпретация топонимов в Орхоно-Енисейских памятниках. Диссертация на соискание ученой степени (PhD) доктора философии. - Астана, 2014. - С.13; Кононов А.Н. Махмуд Кашгарский и его «Дивану лугат-ит турк».// Советская Тюркология. – 1972. №1. –С.3-17.
3.Maqsudov R., Rajabov Q. Qiziltepa tarixi. - Toshkent., 2016. – B.15. B.34-287. B.34-297.
4. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. I jild. (Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha).- Toshkent, Yangi asr avlodi, 2014. – B.108-109
5. O‘zbekiston Respublikasining «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 41-son 448-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi «Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida»gi 295-sonli qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012-y., 41-42-son 483-modda) ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 9-son, 320-modda)
6. Rajabov Q., Maqsudov R. Qiziltepa tumani: kecha va bugun. – Toshkent: SAHHOF, 2021. – 408 b.
7. Dadaboyev H. «Devonu lug‘otit turk»ning til xususiyatlari. – Toshkent, 2017. –B. 6-40.
8. Mahmud Koshg‘ariy. “Devonu-lug‘otit turk, 1- tom. –Toshkent: Fan, 1960. -B. 65.

AFORIZMLARDA “G‘URUR” KONSEPTINING IFODALANISHI VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAVSIFI

B.P. Zaripov, f.f.n. dotsent, NDPI.
S.B.Po‘latova, PhD, bosh o‘qituvchi.

Annotatsiya: Har bir xalq tilida o‘sha millat vakillari tomonidan yaratilgan xalq donishmandligi namunasi bo‘lgan aforizmlar mavjud va barcha xalqlarda “g‘urur” konsepti ifodalangan aforizmlar bor. Ingliz va o‘zbek tilida bir-biriga aynan o‘xshash aforizmlar yo‘q, biroq turk va o‘zbek tilida bunday aforizmlar uchraydi. Maqolada chog‘ishtirilayotgan tillardagi aforizmlarning lingvokulturologik tavsifi tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: Lingvokulturologiya, konsept, diskurs, media, semantika, hikmatli so‘zlar, mediadiskurs.

ЛИНГВОКУЛЬТОРОЛОГВОЕ ОПИСАНИЕ КОНЦЕПТА «ГОРДОСТЬ» В АФОРИЗМАХ

Б. П.Зарипов, доцент. НГПИ.
С.Б.Пулатова, PhD, старший преподаватель.

Аннотция: В каждом национальном языке есть пословицы, являющиеся образцами народной мудрости, созданные представителями этого народа, и у всех народов есть пословицы, выражающие понятие «гордость». В английском и узбекском нет совершенно одинаковых пословиц, но такие пословицы есть в турецком и узбекском языках. В статье анализируется лингвокультурологическое описание пословиц в различных языках.
Ключивые слова: Культура, концепт, дискурс, медиа, семантика, мудрые слова, медиадискурс.

EXPRESSION OF THE CONCEPT "PRIDE" IN APHORISMS AND THEIR LINGUOCULTURAL DESCRIPTION

Botir Pulatovich Zaripov, docent, NSPI.
S.B.Pulatova , PhD, senior teacher.

Abstract: Every nation has its proverbs that are examples of folk wisdom, created by representatives of this people, and all nations have proverbs that express the concept of "pride". English and Uzbek do not have exactly the same proverbs, but such proverbs exist in Turkish and Uzbek. The article analyzes the linguocultural description of proverbs in various languages.
Keywords: Linguistic culture, concept, discourse, media, semantics, wise words, media discourse.

Kundalik nutqda aforizmlar insonni yomonlikdan qaytarish, yaxshilikka undash, ezgulikka boshlash didaktik funksiyasini bajaradi. Ularda shu xalqning milliy-madaniy qadriyatlari va umuminsoniy qadriyatlar aks etadi. Jumladan, ingliz, o'zbek, turk tillarida ham. Ingliz tilida g'urur konseptosferasidagi aforizmlar aynan g'urur-mag'rurlik bilan bog'liq. O'zbek tilida esa maqtanchoqlik, kibr-u hayo, manmanlik, xudbinlik, bepisandlik, takabburlik, o'ziga ortiqcha bino qo'yish, mensimaslik singari keng semantik maydonga ega. Media diskurslar tahlilida esa, aforizmlarning bajaradigan funksiyasi juda keng. Odatda, media diskursning barcha janrlarida ham aforizmlar keng ishlatilmaydi. Xususan, televideniye, sport, siyosiy diskursda aforizmlarning qo'llanilish koeffitsiyenti juda past. Biroq bosma nashrlar, kinofilm, kinoqissa va seriallar, turli ijtimoiy tarmoq saytlarida qo'llanilish salmog'i yuqori.

Aforizmlarning keyingi semantik guruhini "mag'rur odamga xos xususiyat" deb belgilash mumkin va bu guruh unumdorligidan kam emas. Bular mag'rur odamning xulq-atvorini aks ettiruvchi aforizmlardir: "*Burnidan naryog'ini ko'rmaydi"; tashqi (somatik) belgilar ("Burun osmonda").* Masalan, hajm yoki balandlikning tavsifi orqali *("Bir ko'zi ko'r","Haybati zo'r".);* shuningdek, g'ururning ijtimoiy mavqei namoyon bo'lishi *("Amalga mag'rur bo'lsang, to'zdirar").*

Psixologiyada ma'lum bir tashqi (fenotipik) ifodada g'urur hissiyotining namoyon bo'lishi qayd etilgan. Inson o'zini ajoyib, kuchga to'la, tom ma'noda o'z tanasining parametrlarining o'sishini his qiladi. Aforizm va iboralarda biz odatlari mag'rur holatda bo'lgan, salbiylikka nisbatan ifodalangan g'ururning tashqi ko'rinishini ko'ramiz. O'zbek mentalitetida aynan qush yoki hayvonning holatiga mengzash ustunroq. *("G'ozdek yuradi", "Laylakning yurishini qilaman deb chumchuqning oyog'i ayrilibdi", "Burgutday mag'rur");* hajmi ortib borayotgan har qanday narsaga nisbatan *("Dimog'i shishdi*"). Mag'rur odam har doim tashqi ko'rinishida, jismonan va fiziologik jihatdan o'zining takabburligini namoyon qiladi, o'zini boshqalardan ustun qo'yadigan tarzda tutadi.

"Pride goes before destruction, and a haughty spirit before a fall.
It is better to be of a lowly spirit with the poor than to divide the spoil with the proud" (Prov. 16:18-19).
"Before destruction a man's heart is haughty, but humility comes before honor" (Prov. 18:12).
"Haughty eyes and a proud heart, the lamp of the wicked, are sin" (Prov. 21:4).
"One's pride will bring him low, but he who is lowly in spirit will obtain honor" (Prov. 29:23).

L.Vasilevaning "Qisqalik – zukkolik ruhi" to'plamida 1410 ta ingliz aforizmlari va xalq iboralari mavjud bo'lib, ulardan faqat ikkitasi "g'urur" tushunchasi bilan bog'liq: "Pride that dines on vanity, sups on contempt" (B.Franklin) va aytib o'tilgan "G'urur yiqilishdan oldin ketadi" aforizmi [Vasileva, 2004, b. 242]. Oksford aforizmlar lug'atidagi [ODP, 2004] 1100 dan ortiq ingliz aforizmlaridan faqat 7 tasini ushbu tushunchaga kiritish mumkin:

Pride goes before destruction (Pride goes before a fall).
Pride feels no pain.
Pride goes before and shame follows after.
The highest tree has the greatest fall.
Where MacGregor sits is the head of the table.
Up like a rocket, down like a stick.
Set a beggar on horseback and he'll ride to the Devil.

Oksford ingliz aforizmlari lug‘atidagi “Tilanchini otga mindiring va u shaytonga minadi” misoli ham “g‘urur” sifatida tavsiflanadi. A.Vejbitskaya ta’kidlaganidek, aforizmlarda xalqning sodda psixologiyasi aks etadi[70]. Shaxsning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan harakatlari (lingvistik va real faoliyati) uning dunyoni tushuntirish uchun namuna bo‘lgan turli xil psixomadaniy munosabatlari bilan belgilanadi.

Bosma nashrlar matnini tahlil qilgan ingliz tadqiqotchisi Peter Bangelsdorf qo‘llanilish chastotasi yuqori bo‘lgan mingdan ortiq iboralarni aniqlaydi. Ularning asosiy salmog‘ini Amerikaning mashhur nashri New York Timesdan olingan iboralar egallaydi. Kinematografiyada aforizm va iboralar tadqiq va tizimlashtirilishi masalasiga jiddiy e’tibor qaratilgan tadqiqotlar deyarli yo‘q. Asosiy e’tibor aforizmlarni aniqlashga qaratiladi. “G‘urur” konsepti bilan bog‘liq aforizmlar tahlil qilinganda, qiyoslanayotgan tillarda bir-birini takrorlamaydigan aforizmlar aniqlandi. Tahlil obyekti sifatida olingan kinossenariy matnlarida esa, g‘urur konsepti bilan bog‘liq aforizmlar kam uchraydi. “Gone with the wind” da 20 ga yaqin turli mavzulardagi aforizmlar ishlatilgan. Ulardan 3 tasi mag‘rurlikni ifodalashga xizmat qilgan:

Scarlet: *“I haven’t been running after him. It—it just surprised me”*.

Gerald: *“It’s lying you are!” “I’m sorry, daughter. But after all, you are nothing but a child and there’s lots of other beaux. “Pride goes before destruction*”. Qahramon tomonidan aforizm to‘liq ishlatilmaydi. Aforizmning to‘liq varianti *“Pride goes before destruction, and a haughty spirit before a fall”* tarzida ifodalanadi. Biroq qahramon nutqiy vaziyatga muvofiq qisminigina tanlab oladi va o‘z kommunikativ maqsadiga bo‘ysundiradi. Diskurs mohiyatini izohlovchi tushunchalardan biri sanalgan implikasiya nutqda turli uslubiy bo‘yoqdorlikni ta’minlash vositasi sifatida ishtirok etadi.

Kundalik nutqda aforizmlar insonni yomonlikdan qaytarish, yaxshilikka undash, ezgulikka boshlash didaktik funksiyasini bajaradi. Media diskurslar tahlilida esa, aforizmlarning bajaradigan funksiyasi juda keng. Odatda, media diskursning barcha janrlarida ham aforizmlar keng ishlatilmaydi. Xususan, televideniye, sport, siyosiy diskursda aforizmlarning qo‘llanilish koeffitsiyenti juda past. Biroq bosma nashrlar, kinofilm, kinoqissa va seriallar, turli ijtimoiy tarmoq saytlarida qo‘llanilish salmog‘i yuqori. Ularda mag‘rurlik, shon, sharaf, faxr, iftixor, g‘urur konseptlari, asosan, iboralar orqali ifodalanadi.

- *"Dünyanın bütün kadınları toplanıp bağırsalarda yine de benim fısıltılarıma engel olamadılar";*
- *“Rüstem Paşa kölenizdir. Asil teveccühünüzü ondan esirgemeyin bahtı güzel sultanım. Kimsenin sözlerine kulak asmayın. Bu defalık, köleniz Mihrimah’ın başı için bırakın, benim bahtı güzel hünkârım, kendi başınız ve benim başım için de yüce sultanım.”*[71]
- *Beni hiçbir ateş yakamaz, neden biliyor musun, çünkü ben ateşin ta kendisiyim.*

Shuningdek, mag‘rurlik nutq orqali emas, qahramon holati bilan ko‘rsatib beriladi. Ikki turkiy xalqlar kinossenariysida aforizmlar ironiyani ifodalashda muhim komponent bo‘lib xizmat qiladi. Ingliz tilida mag‘rurlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri baholanadi va unga ortiqcha qochirim, kesatiq qo‘shilmaydi.

G‘urur konsepti bilan bog‘liq aforizmlarning strukturaviy-semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, uch tilda ham g‘urur paremiyasining cheksiz imkoniyatlari mavjud. G‘ururni obyektivlashtiruvchi metaforalarni o‘rganishning ushbu bosqichida biz taqqoslanadigan tillar uchun umumiy bo‘lgan, inson uchun g‘ururning eng muhim belgilarini ifodalovchi ba’zi o‘zgarmas, doimiy modellar haqida fikr yuritdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики / Пер. с англ. А. Д. Шмелева. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 272 с.

Hornby A.S. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. – London.: Oxford Univ.Press, 2000.–P. 294.

John A. Oxford Dictionary of English Idioms. 3ed edition. Oxford.: Oxford University Press, 2009. – 447 p.

Muhteşem Yüzyıl. Ssenariy muallifi: Meral Okay (1–2), Yılmaz Şahin (2–4). 5-yanvar, 2011-yil — 11-iyun, 2014-yil.

Doğan Gün. * Dr. Öğr. Üyesi, Mersin Üniversitesi Fen Edebiyat Fakültesi, Tarih Bölümü, tarihcidogangun@gmail.com. Bir Sarayli Hanim sultan: Hurrem a royal Hanim sultan. Tes icin notler.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли / А.Мадвалиев таҳр. ост. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. – 900 с.

[70] Вежбицкая А. Сопоставление культур через посредство лексики и прагматики / Пер. с англ. А. Д. Шмелева. – М.: Языки славянской культуры, 2001. – 272 с.

[71] **Doğan Gün.** * *Dr. Öğr. Üyesi, Mersin Üniversitesi Fen Edebiyat Fakültesi, Tarih Bölümü, tarihcidogangun@gmail.com* Bir Sarayli Hanim sultan: Hurrem a royal Hanim sultan. Tes icin notler.

MATN – YUQORI POG‘ONADAGI SINTAKTIK BIRLIK

Samarqand davlat chet tillar instituti
dosenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
Turniyazova Sh.N.

Matn lingvistikasi muammolari bobida aytilgan tilshunoslar fikrlari mushtarak bo‘lmasa ham, ularning barchasida matn komponentlarining bog‘lanishli ekanligi to‘liq tan olinadi. Biroq bu o‘rinda ham bog‘lanishlilik, asosan, semantik nuqtai nazardan izohlanadi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, matn tahliliga sintaktik nuqtai nazardan yondashish lozimmi, yoki uni stilistik maqsadlarga ko‘ra o‘rganish kerakmi, yoki matn lingvistikasi degan yangi bir soha asoslanishi maqsadga muvofiqmi, degan savollar ham hozirgi tilshunosligimizning hal etilishi lozim bo‘lgan asosiy muammolaridan sanaladi.

Sintaktik muammolar talqini bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borayotgan aksariyat mutaxassislar matnni eng yuqori darajadagi sintaktik birlik deb tushunadilar. Mazkur birlikning tarkibiy qismlari gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas kabilar sanaladi [1. 28]. Stilistika muammolari tadqiqi bilan shug‘illanuvchi ba’zi olimlar matnni stilistik hodisa deb biladilar [2.73] .

Shuni ham aytish kerakki, K.Kojevnikova matnni ierarxik nuqtai nazardan bir-biri bilan bog‘lanuvchi gap, murakkab sintaktik qurilma, abzas, bob, murakkab yaxlitlik kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi masalasi izohtalab ekanligidan dalolat berishini eslatib o‘tadi. Uning fikriga ko‘ra, matn eng yuqori ideal muloqot (kommunikativ) birligi hisoblanadi [3.66].

Professor V.G.Gakning tadqiqotlarida matn sintaktik birlik sifatida tahlil etiladi. Bunday birlikning tarkibiy qismlari turli xarakterdagi gaplar hisoblanadi. Olimning e’tirof etishicha, matn tarkibidagi gaplarning mantiqiy-semantik munosabatlari uning mazmuniy strukturasini tashkil etadi. Analogik vaziyatda har bir gapning ma’lum bir faktni, voqea - hodisani ko‘rsatishi yoki uni izohlashi e’tiborga olinadigan bo‘lsa, bunday gapni ana shu fakt yoki voqea-hodisalarning atamasi (nominasiya dannogo Fakta) deb hisoblasa bo‘ladi. Matn tarkibidagi gaplar qanday fakt yoki voqea-hodisani ifoda etayotganiga qarab bir-biri bilan qiyoslanishi mumkin va ular quyidagi ikki turga bo‘linadi: 1) har xil ob'ektli gaplar, 2) bir xil ob'ektli gaplar. Har xil ob'ektli gaplar turli xil voqea-hodisalarni ifodalasa, bir xil ob'ektli gaplar ma’lum bir hodisaning bayonini beradi.

Ana shuning o‘zi ham V.G.Gak ta’limoti matn tahlili gaplar tahliliga asoslanishini va bu orqali matn tahlilini (umuman, matnning o‘zini) sintaktik hodisa sifatida talqin etish muhim ahamiyatga ega, degan g‘oyaga asoslanganligini ko‘rsatadi [4.91].

Bizning fikrimizcha ham, matnni eng yuqori pog‘onadagi sintaktik birlik maqomida talqin etish maqsadga muvofiqdir. Chunki uning tarkibiy qismlari hisoblanmish gap, murakkab sintaktik qurilma kabilar sintaktik birliklar hisoblanishi izoh talab qilmaydi. Aynan ana shu birliklar abzasning shakllanishida ham faol qatnashadi. Bu masalaning bir tomoni bo‘lsa, uning ikkinchi tomonini murakkab sintaktik qurilma, abzas kabilarning matn qolipida kelishi tashkil etadi. Hatto alohida olingan bir gap ham, avval eslatib o‘tilgani singari, ma’lum nutqiy muhit qurshovida butun bir matnga teng kelishi mumkin.

Matnni muloqot birligi tarzida tushunish izohtalab ko‘rinadi, zotan, tugallangan yozma nutq materialini, masalan, biror ma’ruza matnini, hatto monologik nutq materialini ham muloqot birligi deb izohlash to‘g‘rimikan? Muloqot birligi so‘zlashuv jarayonida shakllanadi. Shuning uchun uni dialogik nutq materiali qurshovida o‘rganish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

Ammo matn tarkibidagi gaplar semantik nuqtai nazardan biri ikkinchisi bilan zamonda, makonda bog‘liq bo‘lsa ham, sintaktik hududi va strukturalariga ko‘ra ular nisbiy mustaqil birliklarni tashkil etadi. Shuning uchun matn sintaksisida gaplarning semantik munosabatlari masalasini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak deb hisoblaymiz. Buning asosiy boisi shundaki, har bir matnning tarkibiy qismlari sanaluvchi mustaqil gaplar hamda murakkab sintaktik qurilmalar yagona semantik salmoq qurshovida bo‘ladi. Boshqacha aytganda, matn tarkibidagi mustaqil sintaktik qurilmalarning har biri shakliy jihatdan biri ikkinchisiga har doim ham to‘liq bog‘liq bo‘lavermasa ham, mazmuniy jihatdan yaxlitlikni tashkil etadi.

Matnning boshlanishini tashkil etuvchi uning chap tomonidagi gap yoki murakkab sintaktik qurilma bundan oldingi matnning o‘ng tomonidagi ana shunday sintaktik strukturalar bilan mazkur matnni mazmunan bog‘lasa, buning teskarisi o‘laroq, matnning o‘ng tomonidagi sintaktik strukturalar uni keyingi matnning chap tomonidagi strukturalar bilan ana shunday semantik bog‘lanishini ta’minlaydi.

Shuni ham aytish kerakki, matnnig tahlilini gap tahliliga qiyoslab bo‘lmaydi. Chunki gapning sintaktik tahlili amaldagi grammatikalarimizda bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarni belgilash bilan shug‘ullanadi, matn komponentlari sintaktik tahlilida esa an'anaviy gap bo‘laklari tushunchasiga umuman ehtiyoj sezilmaydi.

Matn komponentlari sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘langanda matn sathida qo‘llanilgan tarkibida leksik takror, sinonimik vositalar bo‘lgan gaplar, ilovali va parsellyativ qurilmalar yoki nuqtadan keyin qo‘llanilgan zidlov bog‘lovchilari bilan boshlanuvchi gaplar ko‘zga tashlanadi. Mazkur holat mustaqil matnlar o‘rtasida ham kuzatilishi mumkin. Bunga zidlov yoki biriktiruv bog‘lovchilari, olmosh, kirish so‘z va birikma bilan boshlanuvchi abzas misol bo‘lishi mumkin. Agar bog‘lovchi vazifasidagi morfologik vositasilar sintaktik qurilmalarning bir matn doirasidagi munosabatini ta’minlash uchun xizmat qilsa, matnlararo eng avval semantik va ma’lum darajada sintaktik munosabatni ta’minlovchi vositalar o‘zlari qatnashayotgan matnning birinchi jumlasi orqali undan oldin kelayotgan matn bilan bog‘lanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, katta matn (makromatn) tarkibida beriladigan zidlov yoki biriktiruv bog‘lovchilari bilan boshlanuvchi abzasning xarakterli belgilaridan biri yana shunda ko‘rinadiki, bunday abzas o‘zidan oldin kelayotgan matn bilan ham semantik, ham sintaktik rejalarda bog‘lansa, o‘zidan keyin kelayotgan matnga umumiy mazmuniy rejaga ko‘ra daxldor bo‘ladi. Katta matn tarkibida qo‘llanuvchi va mustaqil olinganida ham matn maqomini olishi mumkin bo‘lgan murakkab sintaktik qurilmalar va abzas lingvistik sathlariga ko‘ra bir-biridan keskin farqlanadi, zotan, murakkab sintaktik qurilmalar tom ma’noda ikki yoki undan ortiq gaplarning ikki nuqta orasidagi sintaktik munosabatlariga asoslansa, abzas yozuvda bir necha nuqtalar orasiga joylashgan gaplarning va murakkab sintaktik qurilmalarning mazmuniy munosabatlariga tayanadi. Shuning uchun murakkab sintaktik qurilmalar va abzas faqat tashqi ko‘rinishidangina bir-biriga o‘xshash bo‘lishi mumkin [5.72-77].

V.A.Kuxarenko matn gap, murakkab sintaktik qurilma va abzas kabilarning o‘zaro aloqasi natijasida vujudga keluvchi monolit holdagi komponentlari qat’iy tartibga solingan sistemani namoyon etadi, degan fikrni bildiradi [6. 69]. Ammo bu bilan matnni qismlarga bo‘linmaydigan sintaktik butunlik, deb tushunmaslik kerak. Agar lozim bo‘lsa, uni qismlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Boshqacha aytganda, deduktiv metod vositasida matn segmentlarga, ba’zan esa sintagmalarga ajratiladi va bu orqali matn komponentlarining semantik hamda sintaktik munosabatlari haqida tasavvur hosil qilinadi. Masalan, katta matnning bir emas bir necha bob va abzaslarni o‘z ichiga olishi, ularning esa yana qismlarga bo‘linishi va h.k. Bu jarayonda,albatta, bob, abzas va gaplar o‘rtasida ierarxik munosabat shakllanadi.

Bu haqda E.Benvenistning quyidagi fikri o‘rinlidir: “tilning har qanday birligi o‘zidan katta birlik tarkibida qo‘llangandagina o‘z mavqeiga erisha oladi” [7.438-439]. Mazkur mulohaza nutq birliklariga ham taalluqlidir. Unga ko‘ra, mikromatn ham tom ma’nodagi o‘z maqomiga o‘zidan katta birlik - makromatn tarkibiga kira olgandagina ega bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kela olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Солганик Г.Я. Синтаксическая стилистика.-М., 1973.
2.Винокур Т.Г.О содержании некоторых стилистических понятий// Стилистические исследования.-М., 1972.
3.Кожевникова К. об аспектах связности в тексте как целом // Синтаксис текста,-М., 1979.
4.Гак В.Г. Повторная номинация на уровне предложения// Синтаксис текста.-М., 1979.
5. O‘rinboev B. Hozirgi o‘zbek so‘zlashuv nutqi.- Samarqand,2006.
6. Кухаренко В.А. Интерпретация текста. –М., 1988.
7. Бенвенист Э. Уровни лингвистического анализа// Новое в лингвистике.-М., 1965.

YANA MATN LINGVISTIKASI XUSUSIDA

Samandarov R.D.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Ravshanki, matn tilshunosligi muammolari fanimiz taraqqiyotining hozirgi davrida o‘ta dolzarb sanaladi, zotan, endigina ilmiy asoslangan nutq lingvistikasining asosiy zalvari matn tilshunosligi zimmasiga tushishi tabiiydir.

Bugungi tilshunosligimizda mati lingvistikasi muammolari bilan bog‘liq talay tadqiqot ishlari vujudga keldi. Mazkur ishlar matnning turli xil ko‘rinishlari, shu jumladan, mikro - va makromatn shakllarining lingvistik tabiatini o‘rganish bilan ham bevosita aloqadordir. Bunday ishlar jumlasiga matnning derivatsion xususiyatlarini o‘rganish doirasida bajarilgan tadqiqotlar ham kiradi. Chunki derivatsiya tushunchasi birinchi galda shakllanish ma’nosi bilan uzviy bog‘liqdir.

Albatta, mikromatn derivatsiyasi bilan makromati derivatsiyasi mushtarak tamoyillarga asoslanmaydi, zero, makromatn doimiy ravishda sintaktik derivatsiya natijasini taqozo etsa, mikromatn semantik derivatsiyaning ham, leksiu yoxud sintaktik derivatsiyaning ham mahsuli bo‘lishi mumkin. Buni quyidagilarda ko‘ramiz:
1) ifoda materiali yozuvda grafema (nutkda tovush) bo‘lgan mikromatn semantik derivatsiya mahsuli sanaladi;
2) ifoda materiali tub so‘z bo‘lgan mikromatn ham semantik derivatsiya natijasini taqozo etadi;
3) ifoda materiali yasama so‘z bo‘lgan mikromatn leksik derivatsiyaning hosilasi hisoblanadi;
4) so‘z birikmasidan boshlab makromatngacha bo‘lgan nutq birliklarining voqelanishi sintaktik derivatsiya bilan uzviy bog‘liq.
Quyida mazkur mikro - va makromatnlarning har birining derivatsion xususiyatlariga qisqacha izoh beramiz.
Ifoda materiali grafema bo‘lgan eng kichik matn jumlasiga avtobus bekatlari yoki trolleybuslar to‘xtash joylariga qo‘yiladigan “A”, “T” harflari bilan belgilangan matn maqomidagi simvollarni kiritish mumkin. Bunday vaziyatda muayyan belgilarga semantik vazifa yuklatilgan bo‘ladi va shu bois ularning derivatsiyasi mazmuniy ifoda qolipida shakllanadi [1.27].
Tub so‘z bilan ifodalangan mikromatn ham mazmuniga ko‘ra butun bir gap maqomida kelishi bois, semantik derivatsiya mahsuli sanaladi. Masalan, muayyan san'at asariga “poyga” deb nom qo‘yilgan bo‘lsa, unda tugal fikr ifodasini ko‘ramiz.
Yasama so‘z bilan ifodalangan matnning leksik derivatsiya mahsuli ekanligi shubhasizdir. Biroq bu o‘rinda leksik derivatsiyaga sintaktik derivatsiya vazifasi yuklatiladi. Buning asosiy sababi shundaki, ayni paytda yasama so‘z gap maqomini oladi va shu holatda matn vazifasini bajaradi: “Paxtazor”, “suvchi” va x.k. Mazkur yasama so‘zlar matn maqomida kelishi uchun maxsus ko‘llanilgan bo‘lishi lozim. Boshqacha aytganda, ular, masalan, biror san'at asarining nomini taqozo etganda matn vazifasini bajara oladi .
So‘z birikmasining shakllanishi sintaktik tamoyillarga asoslanishi izoh talab qilmaydi, albatta. Bu esa uning sintaktik derivatsiya mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, gap, murakkab sintaktik qurilmalar ham, yuqorida ko‘rib o‘tganimiz singari, sintaktik derivatsiya natijasini taqozo etadi.
Ravshanki, ayni paytda biz sanab o‘tgan matnlarning barchasi mikroxarakterlidir. Makromatn jumlasiga esa abzas, bob va yaxlitligicha olingan bobdan katta nutq birliklari kiradi. Ammo mazkur ierarxik bog‘lanishli makromatn turlarining barchasining derivatsion xususiyatlarini bir yo‘la tadqiq etish qiyin, albatta. Shuning uchun makromatn sintaktik derivatsiyasini abzas misolida o‘rganamiz.
Makromatn maqomida aslida abzasdan katta nutq birliklari ham keladi. Ular jumlasiga bob, paragraf, maqola, hikoya, ocherk, roman, bu kurinishkten monografiya va turli xil badiiy va ilmiy matnlar kiradi. Bu ko‘rinishdagi sintaktik butunliklarning barchasi makromatn sanaladi. Albatta, ular derivatsion xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi [2.87].
Masalan, abzas bilan bobni oladigan bo‘lsak, ular o‘rtasidagi farq birinchi galda operandlar xarakteridagi tafovutda ko‘rinadi. Abzas derivatsiyasining operandlari gap, murakkab sintaktik qurilma, parsellyativ va ilovali qurilmalar maternalini taqozo etsa, bobning operandlari vazifasida abzaslar keladi. Bundan tashqari, abzas sintaktik derivatsiyasining operatori uning tarkibidagi biror semantik na sintaktik funktsiyasiga ko‘ra faol so‘z yoki birikma orqali ifodalansa, bobning sintaktik derivatsiyasi operatori muayyan so‘z bilan, birikma exul gap bilan ifodalanishi ham mumkin. Bunday tafovut makromatining boshka turlari o‘rtasida ham kuzatiladi.
Ammo ayni paytda makromatn turlarining sintaktik derivatsiyasi voqelanishi doirasida qo‘llanilayotgan ba’zi qoidalar ham mukammallik darajasiga etganicha yo‘q, ular qat’iylik kasb etmasligi xam mumkin. Chunki makromatn turlari aksarining derivatsion xususiyatlarini o‘rganin hali tadqiqotlarimiz kun tartibiga qo‘yilganicha yo‘q.
Bugungi kunda biz faqat abzasninng makromatn sifatidagi hamda sintaktik derivatsiyasi muammosiga taalluqli ba’zi xususiyatlari haqida ilmiy ma’lumotga egamiz, xolos. Biroq mazkur ma’lumotlarimiz ham hali mukammal emas, boshqacha aytganda, abzasning lingvistik maqomi va derivatsion xususiyatlari tadqiqi bobida qilinajak ishlar anchagina ko‘rinadi. Bu masalaning bir tomonini tashkil etsa, uning ikkinchi tomoni abzas derivatsiyasi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish makromatnning boshqa turlarining derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan uzviy aloqadordir.
Ta’kidlash joizki, til va nutq birliklarining pog‘onali munosabat tashkil qilishi til sistemasining nutqda qo‘llanilishida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etishi sir emas. Bu o‘rinda shuni ta’kidlamoqchimizki, til va nutq birliklarining pog‘onali munosabati til sistemasining amalda qo‘llanilishi jarayoni bilan bog‘liq muayyan qonuniyatni taqozo etadi [3.17].
Bu esa, o‘z navbatida, til va nutq birliklarini farqlab o‘rganishni tadqiqotlarimiz kun tartibiga asosli ravishda kiritishni talab qiladi. Ana shu narsaga tayangan holda, biz qo‘shma gapda matn maqomi mavjudligini va shu bois uni gap deb emas, balki murakkab sintaktik qurilma tarzida o‘rganish lozimligini va ana shundagina gap

bilan matn o‘rtasida mavjud bo‘lgan dastlabki pog‘onali munosabat o‘zini ko‘rsata olishini namoyish etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. O‘zbek tili derivasion sintaksisi . – Toshkent, 2010. 164 bet.

2.Turniyozova Sh. Matn derivatsiyasida leksik vositalarning o‘rni // Dokt.dis.: Farg‘ona, 2021. – 212 bet.

3. Xayrullaev X. Nutq birliklarining pog‘onali munosabati. – Samarqand, 2008, 78 b.

ALISHER NAVOIY TARIXIY ASARLARIDA ISMLARNING MORFOLOGIK-STATISTIK TADQIQI

Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna
JDPU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: *Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining asoslanishi, takomillashuvi va taraqqiyotida beqiyos xizmatlari bilan alohida o‘rin tutadi. “Turkigo‘ylik” uning qalamida kamolot cho‘qqisiga ko‘tarildi. Shoir yaratgan badiiy ijod durdonalari hajmi, badiiy yuksakligi jihatidan ham ustunlikka ega. Yuqorida ta’kidlanganidek, mutafakkir qalamiga mansub asarlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari talaygina. Mazkur maqola shunday tadqiqotlar sirasiga kirib, unda buyuk so‘z sohibi qalamiga mansub tarixiy asarlar “Tarixi anbiyo va hukamo” hamda “Tarixi muluki Ajam” so‘z boyligi morfologik-statistik jihatdan tekshirildi. Navoiy qalamiga mansub ushbu tarixiy yodnomalarning har biri alohida mustaqil asarlar bo‘lganligi bois ularda qo‘llangan leksemalar xususidagi statistik tahlil natijalarini alohida-alohida berishga harakat qildik.*

Kalit so‘zlar: *til, jamiyat, morfologik-statistik tahlil, ismlar, fe’llar, grammatik shakl, morfologik ko‘rsatgich, turdosh va atoqli otlar, morfologik usul, sintaktik usul.*

Аннотация: *Своими несравненными заслугами Алишер Навои занимает особое место в становлении, совершенствовании и развитии староузбекского литературного языка. Шедевры художественного творчества, созданные поэтом, имеют преимущество по размеру и художественной высоте. Как было сказано выше, научных исследований, посвященных изучению языковых особенностей произведений мыслителя, немного. Данная статья является одним из таких исследований, в котором морфологически и статистически проанализирована лексика исторических произведений «Тарихи анбиё ва хукамо» и «Тарихи мулуки аджам», написанных великим писателем. Поскольку каждая из этих исторических записок, принадлежащих перу Навои, является самостоятельным произведением, мы попытались привести результаты статистического анализа используемых в них лексем по отдельности.*

Ключевые слова: *язык, общество, морфолого-статистический анализ, существительные, глаголы, грамматическая форма, морфологический показатель, имена-аналоги и имена собственные, морфологический метод, синтаксический метод.*

Annotation: *With his incomparable merits, Alisher Navoi occupies a special place in the formation, improvement and development of the old Uzbek literary language. The masterpieces of artistic creativity created by the poet have an advantage in size and artistic height. As mentioned above, there are few scientific studies devoted to the study of the linguistic features of the thinker's works. With his incomparable merits, Alisher Navoi occupies a special place in the formation, improvement and development of the old Uzbek literary language. The masterpieces of artistic creativity created by the poet have an advantage in size and artistic height. As mentioned above, there are few scientific studies devoted to the study of the linguistic features of the thinker's works.*

Key words: *language, society, morphological and statistical analysis, nouns, verbs, grammatical form, morphological indicator, analogues and proper names, morphological method, syntactic method.*

Til va jamiyat tarixini o‘rganishda, uning shakllanish taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda yozma obidalarning ahamiyati benihoya katta. Chunki til jamiyat va xalq tarixi bilan bog‘liq ravishda rivojlanib boradi, jamiyatda ro‘y bergan o‘zgarishlar o‘sha davr yozma manbalarida o‘z aksini topadi. Shu nuqtayi nazardan, til leksikasi tarixini o‘rganish, bir tomondan, har bir so‘zning tadrijiy taraqqiyot yo‘llarini ochib

bersa, ikkinchidan, u tilning ayrim davrlardagi so‘z boyligi va muayyan fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlarini yoritishga yordam beradi. Binobarin, leksika tarixini o‘rganish, umuman, til tarixini tadqiq etish uchun ham muhimdir.

Keyingi yillarda kompyuter texnologiyalari rivojlanishi va ularning imkoniyatlari ortishi munosabati bilan tilshunoslar statistik usul – lingvostatistikaga tobora ko‘proq murojaat qilmoqdalar [4:14]. Filologiyada statistik usulni qo‘llashdan maqsad biron-bir matn yoki asarda qancha fe’l, uning shakllari, ravish, sifat, olmosh va h.k. so‘z turkumlariga oid so‘zlarning necha marta uchraganini shunchaki qayd etish emas, ularni tahlil etish, boshqa muallifdagi natijalar bilan qiyoslash va shu orqali o‘sha matnga xos xususiyatlarni, muallifning ob’ektiv borliqni anglashi bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganishdan iboratdir [14:6-7].

Til birliklariga statistik qarashga quyidagi holatlar sabab bo‘lishi mumkin: til bayonining ommaviy xarakterdaligi; bayon qilish jarayonida til birliklarining takrorlanish xususiyatiga ega ekanligi va nihoyat, shu jarayonda o‘sha til birliklarining qo‘llanilishi (takrorlanishi) yoki tushib qolishining tasodifiy yo‘nalishda bo‘lishidir [19:7]. Turkologiya va o‘zbek tilshunosligi fanida yozma manbalar, yozuvchi, shoirlar asarlari leksikasini statistik usulda o‘rganish bo‘yicha ma’lum tajribalar to‘planganligi manbalarda qayd etilgan [4:15]. Jumladan, Abay asarlarida 6000ta [15:186], Nasimiy ijodida 3338ta [21:162], Abdulla To‘qay asarlarida 14000ta [6;48], Navoiyning “Lison ut-tayr” asarida 5004ta [21:3], Navoiy asarlari tilida 26035ta [8:19], “Devoni Munis”da 5500 atrofida [3:23], Boburning “Mubayyin” asarida 2616ta, “Aruz” asarida 2230ta, “Devon”ida 3304ta [14:16], so‘z qo‘llanilganligi, “Boburnoma”da 27970ta [26:20], “Qissasi Rabg‘uziy” asarida 5511 ta [4:16] leksema ishlatilganligi olimlar tomonidan hisoblab chiqilgan. Ushbu an’analarga sodiq qolgan holda “Tarixi anbiyo va hukamo” (TAҲ) hamda “Tarixi muluki Ajam” (TMA) asarlari leksikasini statistik jihatdan tahlil qilishni lozim topdik. TAҲ leksikasining umumiy miqdori 26 677 so‘zdan iborat bo‘lib, shundan 3112 tasini takrorsiz leksemalar tashkil etadi (shuningdek, asarda Qur’oni karim oyatlari va boshqa arabiy iboralar qo‘llangan, nutqqa tayyor holda olib kirilgan ushbu birliklarni tashkil qiluvchi so‘zlar miqdori tahlil jarayonida asarda qo‘llangan leksemalar miqdoriga qo‘shilmagan). TMA so‘z boyligining umumiy miqdori 15 073 tani tashkil etib, takrorlarsiz 2418 so‘zdan iborat. Yodnomalarda aks etgan ushbu leksik birliklar asl turkiy hamda fors-tojik, qadimgi yahudiy, yunon, mo‘g‘ul, sanskrit, urdu, sug‘d, xitoy, gruzin va arman tillaridan o‘zlashgan so‘zlardan iborat.

O‘zbek tilining morfologik qurilishi asrlar davomida rivojlanib, takomillashib bordi. Eski o‘zbek tilining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida uning morfologik qurilishida ham ma’lum o‘zgarishlar yuz berdi: yangi-yangi grammatik shakllar vujudga keldi, natijada qadimdan faol iste’molda bo‘lib kelgan shakllarning bir guruhi o‘zining mavqeini yo‘qota bordi, ayrimlari esa ma’lum davrlarga kelib iste’moldan chiqib qoldi; parallel ravishda qo‘llanib kelayotgan vazifadosh grammatik shakllar vazifasi jihatdan differentsiyallasha bordi, tartibga tushdi; ayrim grammatik shakllar shaklan o‘zgarib, takomillashdi [24:27].

Har bir tildagi so‘zlar o‘zining grammatik belgilari va semantik xususiyatlariga ko‘ra turli guruhlarga bo‘linadi. Shu xilda ajratilgan guruhlar so‘z turkumlari sanaladi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida ham so‘zlarni turkumlarga ajratishda morfologik belgi, ayniqsa, so‘zning leksik ma’nosi va sintaktik xususiyatlari asos qilib olinadi [5:108].

Yozma manbalarning ko‘rsatishicha, eski o‘zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotini uch bosqichga bo‘lish mumkin: Birinchi bosqichni XIV asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr tashkil etadi. Bu davr eski o‘zbek adabiy tilining shakllanish arafasi bo‘lib, yonma-yon qo‘llanuvchi vazifadosh shakllarning ko‘pligi, qadimgi shakllarning keng qo‘llanib kelishi, dialektal yoki boshqa turkiy tillarga mansub bo‘lgan shakllarning ko‘plab iste’molda bo‘lishi kabi holatlar bilan izohlanadi. Ikkinchi bosqich XIV asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda eski o‘zbek adabiy tili shakllangan bo‘lib, uning grammatik qurilishi ma’lum darajada tartibga tushganligi ko‘rinadi. O‘zbek tilining morfologik qurilish taraqqiyotidagi uchinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda matbuot vujudga keldi va o‘zbek tilida gazeta, jurnal, kitoblar nashr etila boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, adabiy til bilan xalq so‘zlashuv tilining yanada yaqinlasha borishiga va adabiy tilning, xususan, uning morfologik qurilishining so‘zlashuv tili hisobiga boyib borishiga zamin yaratdi [1:74].

Adabiy til tarixida ham so‘z turkumlari semantik va funktsional belgisiga ko‘ra ikki guruhga birlashadi: mustaqil so‘zlar va yordamchi so‘zlar [1:74]. Mustaqil so‘zlar esa o‘z navbatida quyidagi uch guruhga bo‘linadi: ism, fe’l, ravish. Ot, sifat, son, olmosh kabilar uchun kelishik va egalik kabi kotegoriyalar umumiy bo‘lib, bu jihatdan ular bir guruhga – ismlar guruhiga birlashadi. Lekin ularning har biri uchun maxsus so‘z yasovchi qo‘shimchalar mavjud bo‘lib, ma’no jihatdan har qaysisi mustaqil so‘z turkumini tashkil etadi.

I.Ot. Ismlar sirasiga kiruvchi ot kategoriyasi so‘z turkumlari orasida o‘zining semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlari bilan til qurilishida katta o‘rin tutadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ot so‘z turkumi uzoq tarixga ega. Ular jamiyat taraqqiyoti va turmushdagi o‘zgarishlarga mos ravishda tilning ichki imkoniyatlari yordamida rivojlangan. Buni ko‘hna obidalar til xususiyatlarini kuzatish chog‘ida ko‘rish

mumkin [18:17]. “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining lug‘at tarkibida jami 1689 ta ot so‘z turkumiga oid leksema qo‘llangan bo‘lib, uning 1391 tasi turdosh ot, 298 tasi atoqli ot hisoblanadi. 1391 ta turdosh otdan 1287 tasi tub, 265 tasi yasama, 298ta atoqli otlardan 238 tasini antroponimlar, 34 tasini toponimlar, 3 tasini gidronimlar, 6 tasini asar va muqaddas kitoblar nomlari, 2 tasini Qur’oni karim surasi nomlari tashkil etadi. “Tarixi muluki Ajam” asarining lug‘at tarkibida jami 1443 ta ot so‘z turkumiga oid leksema qo‘llangan bo‘lib, uning 1076 tasi turdosh ot, 243 tasi atoqli ot hisoblanadi. 1076 ta turdosh otdan 996 tasini tub, 82 tasi yasama, 368 ta atoqli otlardan 243 tasini antroponimlar, 99 tasini toponimlar, 7 tasini gidronimlar, 18 tasini asar nomlari va 1 ta astroponim tashkil etadi.

Turdosh otlar. Yodnomalardagi turdosh otlar o‘z navbatida quyidagicha tasniflanadi:

1.Shaxs otlari*: abná* (TAҲ 723b12) – “bolalar, o‘g‘illar, farzandlar”, *anbiyá* (TAҲ 708a21) – “payg‘ambarlar, nabiylar, yalovochlar”, *árus* (TAҲ 728b8) – “kelin, kelinchak”, *bakavul* (TAҲ 711a27) – “bakovul, bosh oshpaz”, *balïγčï* (TAҲ 722b9) – “baliqchi”, *inás* (TAҲ 724a14) – “ayollar, xotinlar”, *yigit* (TAҲ 709b9) – “yigit, o‘smir, yosh” va h.k.

2. Narsa-buyum otlari: *ayaγ* (TMA 738b6) – “qadah, jom”, *bïčaq* (TAҲ 711a24) – “pichoq”, *baltu* (TAҲ 708b28) – “bolta”, *bulut* (TAҲ 707a24) – “bulut, abr”, *gügürd* (TAҲ 727a5) – “gugurt”, *ip* (TAҲ 714b26) – “ip, tizimcha”, *kalid* (TAҲ 716a23) – “kalit, ochqich” va h.k.

3. O‘rin-joy otlari: *báγ* (TMA 730a20) – “bog‘, chaman, gulzor, gulshan”, *butxána* (TAҲ 727a15) – “butxona, butparastlar ibodatxonasi”, *bostán* (TMA 730a20) – “bog‘, gulzor, chamanzor”, *vádiy* (TAҲ 714b19) – “vodiy, dara”, *gulistán* (TAҲ 709a7) – “gulzor, gulbog‘, bog‘, chamanzor”, *goristán* (TAҲ 720a11) – “go‘riston, qabriston, mozor” va h.k.

4. Mavhum otlar: *adávat* (TMA 733a27)– “dushmanlik, o‘zaro qarama-qarshilik, ziddiyat”, *adam* (TMA 740b11) – “yo‘qlik”, *adálat* (TMA 729b12) – “haqqoniyat, insoflilik, odillik”, *azáb* (TMA 736a14) – “mashaqqat, aziyat, ozor, dard, alam”, *aql* (TAҲ 716a11) – “idrok, zehn”, *visál* (TAҲ 711a16) – “uchrashuv, birlashuv, erishuv, yaqinlashuvva h.k.

Atoqli otlar. Tarixiy asarlar leksikasidagi atoqli otlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin [12-22]:

1. Antroponimlar [9:243]: *Daqyánus* (TAҲ 726a11) – “Yunon mulkida hukmronlik qilgan afsonaviy hukmdor”, *Yáfas* (TMA 733a20) – “Nuh payg‘ambarning o‘g‘li, ko‘proq Abuturk nomi bilan tanilgan”, *Imrán* (TAҲ 714a3) – “Muso payg‘ambarning otasi”, *Iqlimá* (TAҲ 705a23) – “Odam Ato va Momo Havoning ilk qiz farzandlari” va h.k.

2. Toponimlar [17-29]. *Arman* (TMA 731b5), *Bábil* (TMA 729a23), *Xárazm* (TMA 731b3), *Tabaristán* (TMA 729b1), *Yaman* (TMA 729b19), *Čin* (TMA 730a12) va h.k.

3. Gidronimlar. *Zamzam* (TAҲ 709b1), *Nil* (TAҲ 712b13), *Amu* (TMA 730a22), *Jayhun* (TMA 730b26), *Sáva* (TAҲ 719b21), *Sind* (TMA 738b8), *Firát* (TMA 730a19) va h.k.

4. Oronimlar. *Judi* (TAҲ 706b8), *Abul Qays* (TAҲ 705b13), *Miná* (TAҲ 710a14), *Quddus* (TAҲ 712b8), *Tur-i Siná* (TAҲ 714b12), *Alburzkoh* (TMA 730b28), *Qáf* (TMA 737a23) va h.k.

5. Asarlar va muqaddas kitoblar nomlari: *Zabur* (TAҲ 720a19), *Injil* (TAҲ 724b27), *Tavrát* (TAҲ 715b17), *Kalámulloh* (TAҲ 708a3) va h.k.

6. Astroponim [10:32]. *Zuhal* (TMA 733b24).

7. Qur’oni karimda keltirilgan sura nomlari: *Táhá* (TAҲ 714b17), *Baqara* (TAҲ 716a4).

II.Sifat. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida sifat tarixan morfologik ko‘rsatkichi uncha taraqqiy etmagan so‘z turkumi sanaladi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, sifat dastavval mustaqil so‘z turkumi sifatida mavjud bo‘lmagan, u so‘ngroq ot turkumidan ajralib chiqqan va shakllanib rivojlangan [2:55].

E.V Sevortyanning ta’kidlashicha, sifatning otdan differentsiyalanish jarayoni ancha ilgari davrlarda boshlangan, V-VIII asrlarga kelib bu jarayon keng tus olgan. Sifatning jamlanishi asta-sekinlik bilan turli davrlarda voqelangan turfa shakllar hisobiga yuz bergan. Bu shakllarning ayrimlari qadimdayoq kammahsul bo‘lgan, ayrimlari esa o‘z sermahsulligini hozirgi kunlargacha saqlab qolgan va xatto yanada kengaytirgan. Ayrim shakllar ot va sifat uchun mushtarak bo‘lgan, lekin keyingi davrlarda taraqqiy qilmagan [20:58].

Turkiy tillar taraqqiyot bosqichining qadim davrlaridan boshlangan sifatning otdan ajralib chiqishi uzluksiz hodisa bo‘lib, bu jarayon hanuz davom etmoqda. Bundan hamma sifat ham otdan ajralib chiqqan, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. CHunki sifat mustaqil kategoriya sifatida ajralib chiqqandan keyin bu turkum tarkibiga yangidan qo‘shilgan belgi ifodalovchi bir qator tub va yasama so‘zlar, yasovchi affikslar mavjudki, ularning kelib chiqishi va tabiati hozirgacha aniqlangan emas. Bu masalaning hal etilishi turkologiyaning oldida turgan vazifalardan biridir [2:55].

Sifat kategoriyasidagi so‘zlar biror predmet, voqea-hodisa va holatning belgi xususiyat, rang-tus, hajm, shakl, xarakter-xossa, maza kabilarni ifodalash uchun xizmat qiladi [23:271].

Biz o‘rganayotgan yodnomalar tarkibidagi sifat turkumiga mansub so‘zlarni mazkur xususiyatlariga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq:

a) shaxs yoki narsaning xususiyatini anglatuvchi so‘zlar: *avlá* (TAҲ 724b7) – “yaxshiroq, afzalroq”, *ajiba* (TAҲ 716a22) – “odamni hayratga soladigan”, *a’lam* (TAҲ 712b22) – “o‘ta dono, katta ilm egasi, donishmand”, *yanïy* (TMA 729a27) – “boy, davlatmand”, *dalir* (TMA 735b18) – “shijoatli, jasoratli, pahlavon, botir, dovyurak”, *dáná* (TMA 737a25) – “bilimdon, aqlli, donishmand, xiradmand”, *badxoy* (TMA 736a18) – “badfe’l, qo‘pol, badjahl, to‘ng, dag‘al”, *yaman* (TAҲ 706b19) – “yomon, noma’qul”, *muláyim* (TAҲ 710b2) – “yumshoq tabiatli, yoqimli, halim, munosib, muvofiq”, *arjumand* (TMA 729b4) – “aziz, izzatli, qadrli, qimmatli, sharafli, obro‘li, muhtaram” va h.k.

b) shaxs yoki narsaning rangi, tusini bildiruvchi so‘zlar: *ahmar* (TAҲ 714a18) – “qizil”, *káfurgun* (TAҲ 710b25) – “kofur rangli, oq, oq tusli, oppoq”, *qaro* (TMA 731a24) – “qora, qora rang”, *oq* (TMA 741a13) – “oq rang”, *yašil* (TMA 741a8) – “yashil, yashil rang”, *kök* (TMA 731a24) – “ko‘k rang”, *safid* (TMA 732a5) – “oq” va h.k.

v) shaxs yoki narsaning shakl-ko‘rinishi, hajm-o‘lchovini ifodalovchi so‘zlar: *baland* (TAҲ 720a16) – “yuqori, buyuk”, *biyik* (TAҲ 727a16) – “buyuk, ulug‘, baland”, *yuqarï* (TAҲ 728a24) – “baland, tepa, yuqori”, *vasi’* (TAҲ 721b6) – “katta, ulug‘, keng”, *kičik* (TAҲ 706a7) – “kichik, katta emas”, *haqir* (TAҲ 719b25) – “past, kichik”, *qisqa* (TMA 736a6) – “qisqa, kalta”, *uzun* (TAҲ 728b5) – “uzun, cho‘ziq, davomli”, *uluq* (TAҲ 717b26) – “ulkan, katta” va h.k.

g) shaxs yoki narsaning holatini bildiruvchi so‘zlar: *akmah* (TAҲ 725a10) – “tug‘ma ko‘r”, *bimár* (TAҲ 727b5) – “xasta, kasal, biron dardga mubtalo”, *bihál* (TAҲ 720a20) - “holsiz, quvvatsiz, bemador, zaif, ojiz, ma’yus”, *bihuš* (TAҲ 727b8) – “hushsiz, o‘zidan ketgan, telba”, *botalïγ* (TAҲ 707b11) – “bolali, bo‘talog‘i bor”, *yálγuz* (TAҲ 712a13) – “yakka, bitta, tanho”, *jamila* (TAҲ 720b4) – “chiroyli, go‘zal”, *isiγ* (TAҲ 721a19) – “haroratli, issiq”, *quruq* (TAҲ 711b10) – “quruq, qurigan”, *čürük* (TAҲ 723b14) – “chirik” va h.k.

d) narsaning ta’mini, ma’zasini ifodalovchi so‘zlar: *ačïγ* (TAҲ 728b17) – “achchiq, nordon, shirinning aksi”, *čüčük* (TAҲ 728b17) – “shirin, achchiqning aksi”, *šor* (TAҲ 713a19) – “tuzli, tuzi o‘tkir, achchiq” va h.k.

e) narsaning hidini bildiruvchi so‘z: *náxuš* (TMA 732b26) – “yomon, yoqimsiz, xush kelmaydigan”.

Yodnomalarda sifatning odatdagi uch darajasi qayd etilgan:

a) oddiy daraja: *buzuq devár* (TAҲ 717a18), *burunγï yïllar* (TAҲ 711b 14), *yalγan tüš* (TAҲ 711a29), *yaman duá* (TAҲ 715b14), *irik sözlär* (TAҲ 724b24), *qarï kišilär* (TAҲ 724a10), *qïsqa umr* (TAҲ 728b5), *aruγ öylär* (TAҲ 711b13) va h.k.;

b) qiyosiy daraja: sifatlarda qiyosiy darajasi ma’nosi quyidagi usullar bilan ifodalanadi: 1) morfologik usul: Ki γaflatdïn ágáhlik *yaxšïraq* (TMA 742b13); Biläyin degän kiši *mabsutraq* kutubdin tiläb tapar (TMA 739a1); ...yafraγ va šáxlarïn *tazaraq* qïlïb erdi (TAҲ 714b15) va h.k.; 2) murakkab usul: bu usul morfologik va sintaktik usullarning birikuvidan hosil bo‘ladi, ya’ni qiyos uchun keltirilgan so‘z chiqish kelishigi shaklida bo‘ladi, sifatga esa *-raq/-räk* affiksi qo‘shiladi: *...čün andïn uluγraq va teŋtošluq el bar erdilär* (TMA 741b21) va h.k.

Asarlar matnida orttirma darajadagi sifatlarni hosil qilishdagi eng mahsuldor so‘z *baγáyat* so‘zi bo‘lib, bu so‘z yordamida jami 33 ta orttirma darajadagi sifat hosil qilingan.

Shuningdek, sifat leksemalarining otlashish xususiyati ham ko‘p ko‘zga tashlanadi: *Va ul bedinlär alarnï takzib qïlïb, ölturdilär* (TAҲ 726b1^2); *...ul bevafá va’da qïldïkim, anï giriftár qïlγay* (TAҲ 727b29,728a1); *...bimárlarγ*a mujib-i šifádur (TAҲ 727b5).

III. Son. Til sistemasida ma’lum bir guruh so‘zlar borki, ular ma’lum abstrakt sonni, miqdorni, sanoqni, to‘g‘rirog‘i, predmetning sanash, joylashish, bajarilish tartibini bildiradi. Shuni qayd etish joizki, turkiy tillarda son sistemasi, har qaysi xalq tilida bo‘lgani kabi birdaniga emas, asta-sekinlik bilan shakllanib kelgan [25:68]. Bunga ko‘hna manbalar tilini tadqiq etish jarayonida amin bo‘lish mumkin. Zero, mazkur yozma obidalarga sonlarning bir necha turlari qo‘llangan. Bu esa sonlarni imlo va talaffuz me’yorlarini aniqlashga, ularning etimologiyasini yoritishga ko‘maklashadi.

Alisher Navoiy qalamiga mansub tarixiy asarlar matnida jami 21 ta sodda, 92 ta qo‘shma son hamda 25 ta numerativ ishtirok etgan. Asarlarda sonning ma’no xususiyati va grammatik belgilariga ko‘ra quyidagi turlari qo‘llanilishda bo‘lgan:

1. Sanoq sonlar: *bir* (TAҲ 705a2), *iki* //*ikki* (TAҲ 705a6), *üč* (TAҲ 705b10), *tört* (TAҲ 706b23), *beš* (TAҲ 707a4), *altï* (TAҲ 706b26) *yetti* //*yeti* (TAҲ 707a27), *sekkiz* (TAҲ 706b22), *toquz* (TAҲ 706b26).

2. Tartib sonlar: *ikinči* (TAҲ 706b12), *bešinči* (TAҲ 707a4), *onunčï* (TAҲ 708a20), *sekizinči* (TAҲ 716a10), *altinčï* (TAҲ 707a4), *törtinči* (TAҲ 716a6) va h.k.

3. Jamlovchi sonlar: *üčäv* (224b27), *üčäläsi* (TAҲ 720a5) va h.k.

4. Chama son: *bir-iki* (TAҲ 728a22).

5. Taqsim son: *yüzär-yüzär* (TAҲ 706a3); *har miŋdin biri* (TAҲ 705b26); *ikirär-ikirär: Qoyin suvdin ötkäradür erdi, suv uluγraq jihatidin qoylarni ikirär-ikirär kötörib ötkärür erdi* (TAҲ 719b29).
6. Kasr son: *yarïm* – "butunning yarmi, yarim" ma'nosida: ...ilki titräb, šarbatdin *yarïmi* tökildi (TMA 735b1); *suls* – "uchdan bir" ma'nosida: ... külin üč qism qïlïb, *sulsin* bahrγa, *sulsin* taqγa, *sulsin* yerγa savurtti (TAҲ 727a13).
7. Dona sonlar sanoq songa egalik affiksi qo'shilishi orqali ifodalangan: ikisi (TAҲ 728b18).
8. Numerativlar: *otuz iki yašar* (TAҲ 711b24), *iki aqča* (TAҲ 711a13), *iki rak'at* (TAҲ 725b4), *yüz qariš* (TMA 741b4), *misqol* (TMA 732b25), *ellik yïγoč* (TAҲ 727a4) va h.k. Yodnomalar lug'at tarkibida qo'llangan numerativlarning leksik-semantik jihatlari xususida ishning uchinchi bobida to'xtalinadi.

IV. Olmosh. Olmoshlar semantik va grammatik xususiyatlari bilan boshqa so'z turkumlaridan farq qiladi. Olmosh, ot, sifat, son va ba'zan boshqa so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, predmet va unga xos bo'lgan belgining mavjudligini ko'rsatadi. Olmosh predmetning belgisini doimiy emas, balki muayyan o'rinlarda ifoda qiladi. Shu jihatdan olmosh mustaqil so'z turkumi hisoblansa-da, konkret ma'noga ega bo'lmaydi [7:47]. Olmoshning asosiy ma'nosi va qaysi so'z turkumlari o'rnida ishlatilishi matn ichida oydinlashadi.

Tekshirilayotgan yozma manbalar tilida 61 ta olmosh mavjud bo'lib, ular anglatgan ma'nolarga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:
a) kishilik olmoshlari: *män // men , sän //sen , alar, biz, siz, ul//ol;*
b) o'zlik olmoshlari: *öz, xud*;
v) ko'rsatish olmoshlari: *ul, bul, bu, mundaγ//mundaq, ušbu, anda, anï, anïŋ, andïn, šu;*
g) so'roq olmoshlari: *kim? qaydin? qačan? qaysï? näčük//nečün? qayon? ne? nevčün? negä? net? nečä? qayu?*
d) belgilash olmoshlari: *barča, barï, butun, jami, jumla, har kim, har ne, har kiši;*
e) gumon olmoshi: *birav;*
yo) bo'lishsizlik olmoshlari: *heč nimä, heč kim, heč qačan , heč banda* va h.k.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 74.
XV- XIX асрлар ўзбек тили морфологияси. – Т.: Фан, 1990. – Б. 55.
Абдулхайров М. "Девони Мунис" тилининг лексик қатламлари. КД. – Т., 1996. – Б. 23.
Абдушукуров Б. "Қиссаси Рабғузий" лексикаси. – Т.: Академия, 2008. – Б.14.
Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – Б. 108-110.
Амиров Т.С. Словарь языка Тукая. – Веб: Тюркская лексикология и лексикография. – М., 1971. – С. 189-190.
Аширбоев С., Азимов И. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси (Ўқув-услубий қўлланма). – Т.: Тошкент давлат педагогика университети, 2002. –Б. 47
Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б. 19.
Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. АКД. – Т., 1965;
Дадабоев Ҳ. Астрономик терминлар тарихидан//Ўзбек тили терминологияси ва унинг тараққиёт истиқболлари. – Т., 1986. – Б.94-96.
Дадабоев Ҳ. Астрономические наименования в старотюркских письменных памятников XI-XVI вв.// Историко-лингвистический анализ лексики старописьменных памятников. – Т.: Фан, 1994, – С.32-43.
Ёқубов Ш. Навоий асарлари ономастикаси. Филол. фан. ном. дисс... – Т., 1994;
Иброҳимов А. Бобур "Девон"и тилидаги ўзлашма лексика. – Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2006. – Б. 6-7.
Иброҳимов А. Бобур асарлари лексикасининг лингвостатистик, семантик ва генетик тадқиқи. ("Девон", "Мубаййин", "Аруз"). Филол. фан. док-ри... дис. автореф. – Т., 2008. – Б. 16.
Исаков А. Абай тілі сӨздігі. – Алматы, 1968.
Кононов А.Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л. 1960. – С.149.
Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 240;
Муталлибов С.М. Морфология ва лексика тарихидан қисқача очерк. – Т.: Фан, 1959. – Б. 17.
Ризаев С. А. Ўзбек тилшунослигида лингвостатистика муаммолари. – Т.: Фан, 2005. – Б. 7.

Севортян Э. В. Из истории прилагательных в тюркских языках// Тюркологические исследование. М.; Л., 1963. – С. 58.
Таҳримонов Ж. Насим диванынинг лексикасы. – Бакы, 1970.
Турдибеков М. Абулғозий Баҳодирхоннинг “Шажараи турк” асари ономастикаси. Филол. фан. ном. дисс... – Т., 2001.
Ўзбек тили грамматикаси, I том. – Т.: Фан. 1975. – 271.
Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1973. – Б. 27.
Фозилов Э. Ўзбек тилининг тарихий морфологияси. – Т.: Фан, 1965. – Б. 68.
Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. – Т.: Фан, 2007. – Б. 20-21.
Ҳамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Наваи. АКД. – Т., 1982. – С. 3.
Ҳусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. Филол. фан. док-ри дисс.. – Т.: Фан, 2000. – Б. 243.
Эрназаров Т. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол. фан. док-ри дисс... – Т., 2006.

FRAZEOLOGIZMLARDAGI EMOTSIONAL-EKSPRESSIV XUSUSIYATLAR

Z.Sh.Jumayeva
JDPU.f.f.f.d.(PhD) dotsent

Annotatsiya:*Ushbu maqolada emotsional-ekspressiv bir til doirasida emotsional konseptlarning milliy o‘ziga xosligini yaqqolroq ko‘rsatish ham leksik birliklarni ham frazeologik birliklarni yaxlitlikda o‘rganishni taqozo qilishi dolzarb masala ekanligi haqida so‘z yuritilgan.*
Kalit so‘zlar*: emotsional-ekspressiv, konsept, leksik birliklar, frazeologik birliklar, lingvofalsafiy, psixologiya, nutqining hissiy tabiati.*
Аннотация:*В статье идёт речь об актуальности изучения своеобразных национальных эмоциональных концептов в единоязычным кругу развития и лексических, и фразеологических единиц эмоционально-экспрессивного характера.*
Ключевые слова*: эмоционально-экспрессивные, лексические единицы, фразеологические единицы, лингвофилософские, психология, эмоциональность речи.*
Annotation*: The article deals with the relevance of the study of lexical, peculiar national emotional concepts in a monolingual circle of development and Phraseological units emotionally expressive.*
Key the words*: emotionally units, expressive, lexical Phraseological units, linguo-philosophical, psychology, emotionality of spe.*

Til birliklarining emotsional va ekspressiv ma’nolari notiqning tuyg‘usi va uning atrofdagi voqelikka munosabati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu munosabat bilan atrofdagi haqiqatni idrok etish bilan bog‘liq bo‘lgan inson faoliyati emotiv hissiyotlar ishtirokisiz mumkin emas
V.G.Gak tilning hissiy va ekspresiv imkoniyatlari to‘g‘risida nazariy qoidalarni ishlab chiqib, quyidagi xulosaga keladi: «Inson nutqining hissiy tabiati har qanday til so‘zlarining ma’nosida aks etadi”. Turkiyshunoslikda ham, o‘zbek tilshunosligida ham hanuzgacha emotsional-ekspressiv frazeologizmlarga bag‘ishlangan maxsus ishlar kamchilikni tashkil etadi. A.Mamatovning “O‘zbek tilida emotsional-ekspressiv, baho-munosabat ifodalovchi frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi shular jumlasidandir.[1;23]

O‘zbek tilshunosligida o‘zbek tilining emotsional-ekspressiv so‘zlari muayyan darajada o‘rganilgan. O‘zbek tilining emotsional - ekspressiv leksik qatlami tavsiflandi, ulardan uslubiy maqsadlarda foydalanish masalalari yoritib berildi. Emotsional-ekspressivlik lingvopoetik vosita sifatida tavsiflanib tilda emotsionallik doimo ekspressivlik ekanligi e’tirof etiladi, shuning uchun emotsional-ekspressivlik atamasidan foydalanish ta’kidlanadi .

Nutqning emotsionalligi bu nafaqat tinglovchining aql-idrokiga ta’sir qiladigan va balki uning his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladigan va undagi ma’lum tuyg‘ularni uyg‘otadigan fazilatlardir. Emotsionallik nutqning maxsus hissiy "semantikaga" ega bo‘lgan so‘zlar va iboralar (sevgi, nafrat), balki turli xil vositalar, so‘zlardan, so‘z birikmalaridan[4;141] yoki sintaktik konstruksiyalardan mohirona va o‘rinli foydalanish orqali yaratiladi.

Tuyg‘ular - bu psixologik jarayon, bu insonning narsalarga va voqea hodisalariga munosabatidir. Bu munosabat nutqda quvonch, qayg‘u, g‘azab, nafrat shaklida amalga oshiriladi. Tilshunos olimlarning

yuqoridagi fikrlari ekspressivlik va emotsionallik inson nutqini obrazli, rang-barang va ifodali qiladigan vositadir degan xulosaga kelish uchun to‘liq asos beradi.

Hissiy bahoni ifodalashning lisoniy vositalari orasida asosiy o‘rinlardan biri insonning his-tuyg‘ulari va hissiyotlarini ifodalaydigan frazeologik birliklarga tegishli. Ko‘rinib turibdiki, so‘nggi paytlarda hissiy jihatdan baholanadigan frazeologik birliklar, ularning tematik-semantik guruhlari, tarixiy shakllanishi va funksional ishlatilishi tadqiqotchilarni tobora ko‘proq jalb qilayotganligini ta’kidlash lozim.

Frazeologizmlar hissiyotlar va shaxs holatlarini ifodalashning lingvistik tizimda yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi, chunki frazeologik birliklar o‘zlarining mohiyatiga ko‘ra potensial hissiy va ekspressiv-modal ma’noga ega. Shu nuqtai nazardan, eng adolatli narsa A.V.Kuninning "frazeologik birliklarga xos bo‘lgan voqelik, narsalar va hodisalarning emotsional-ekspressiv xarakteristikasi, ularning nominativ xususiyatlarini istisno qilmaydi, balki unga faqat ma’lum uslubiy yo‘nalish beradi"[66;73] degan fikri o‘rinlidir. Badiiy asarlar tarkibida emotsional-ekspresiv va baholovchi frazeologik birliklar asarning g‘oyaviy, badiiy va semantik yo‘nalishini, ularning umumiy mazmun – mohiyati va uslubiy rang-barangligini belgilaydi.

Emotsional-hissiylik, ekspressivlik, baho-munosabat, uslubiylik zamonaviy o‘zbek tilining ko‘plab frazeologik birliklariga xosdir. Jumladan, boshi osmonga yetdi, ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi, sevinchi ichiga sig‘maydi, do‘ppisini osmonga otmoq va b. insonning holati, quvonch, zavq kabi bir qator hissiyotlarini ifodalaydi. Ko‘zlari qinidan chiqib ketdi, ko‘ziga qon to‘ldi, tepa sochi tik bo‘lib ketdi va b. shaxsning g‘azablanish, noroziligi hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklardir.

Frazeologik birlikning semantik tarkibida konnotativ ma’noning bir nechta tarkibiy qismlari mavjud bo‘ladi. Birinchidan, har bir frazeologik birlik insonning emotsional-ekspressiv hissiyotlarini ifoda etishda ma’lum darajada emotsionallikka ega. Ikkinchidan, ular baho munosabat qiymatga ega, chunki ular ijobiy va salbiy baholarni ifodalaydi. Uchinchidan, frazeologik birliklar ekspressiv ma’no tufayli u yoki bu darajada butun gapning ma’no qudratini oshiradi. To‘rtinchidan, har bir frazeologik birlik ma’lum funksional uslubda ishlatiladi. Nutqga emotsionallik, ekspressivlik berish, frazeologik birliklar turli xil emotsional baholarini namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Frazeologik birliklarni ularni boshqa leksik ekvivalentlar bilan taqqoslash jarayonida nutqda hissiy va ekspressiv foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Shuni ta’kidlash kerakki, badiiy nutqdagi frazeologizmlarning emotsionalligi frazeologik birliklarning lisoniy ma’nosida, shu o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda, frazeologik birliklarning kontekstual ishlatilishi natijasida paydo bo‘ladigan hissiy rang-baranglikni ochib beradigan frazeologik birliklarni tahlil etish muhimdir. Emotsional va ekspressiv xususiyatlari frazeologik birliklarning lisoniy ma’nosiga singdirilganligi ma’lum uslubiy maqsadlarga erishish maqsadida keng qo‘llaniladi.

Hozirgi o‘zbek tilida frazeologik iboralar insonning hissiy holatini ifodalaydi: og‘zi qulog‘iga yetdi, terisiga sig‘may ketdi, qo‘yi mingga yetdi, quvonchi olamga sig‘maydi va b. O‘zbek tilidagi ushbu frazeologik-semantik guruh odamning quvonish, quvnoq holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Bunday frazeologik birliklarning leksik ekvivalenti - quvonch leksemasidir.

Boshqa bir frazeologik-semantik guruh shaxsning g‘azablanish, norozilik hissiy holatini[5;256] ifoda etadi: ko‘zlarining paxtasi chiqdi, g‘azabi qaynadi, ko‘zi qonga to‘ldi, tepa sochi tik bo‘lib ketdi kabilarning leksik ekvivalenti g‘azablanish, g‘azablangan so‘zlaridir.Ajablanish, sarosimaga tushish holatini ifodalaydigan frazeologik-semantik guruhni ajratib ko‘rsatish mumkin: og‘zi ochilib qolmoq, yoqasini ushlamoq, ko‘zi olma-kesak termoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi frazeologik birliklarning leksik ekvivalenti ajablanmoq leksemasidir.

Kuzatishlar ko‘rsatib turibdiki, insonning hissiy holatini ifodalaydigan frazeologik birliklar, ularning uslubiy maqsadi, ekspressivligi va emotsional-hissiyligi jihatidan, tegishli leksik ekvivalentlar bilan taqqoslaganda ma’noni kuchli va obrazli ifodalashini kuzatish mumkin.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, frazeologik birliklardan foydalanishda emotsionallik va ekspressivlikning namoyon bo‘lishini ularning lisoniy ma’nolaridan izlash kerak. Frazeologik birliklarning semantik tarkibida emotsionallik va ekspresivlikning mavjudligi bir vaqtning o‘zida frazeologik birliklar ma’lum uslubiy maqsadda ishlatiladigan nutq predmeti va obyektiga ijobiy yoki salbiy munosabatni xarakterlaydi.[3;255]

Har qanday tilning frazeologiyasini o‘rganishda frazeologik birliklarning obraz, emotsionallik, ekspresivlik, uslubiy buyoqdorlik va baholash kabi xususiyatlarini anglash ahamiyatlidir. Yuqoridagi xususiyatlardan o‘zbek tilining ko‘plab frazeologik birliklariga xos bo‘lgan frazeologik birliklarning baholash qobiliyati alohida ahamiyatga ega.

Tilshunoslik adabiyotida shaxsga berilgan sifatiy bahoni ifoda etadigan frazeologik birliklarning baholash xususiyatiga alohida e’tibor beriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, umuman olganda, frazeologiya inson faoliyati sohasini, uning his-tuyg‘ulari va hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi, shuning uchun frazeologiyada

odamlarning turli xil his-tuyg‘ularini, ularning aqliy va psixofizik holatini, inson xarakterining ba’zi xususiyatlariga, uning xulq-atvoriga berilgan baholash xususiyatlarini aks ettirishi tabiiydir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

Кунин А.В. Теория фразеологии Шарля Балли. –М.: Иностранные языки в школе, 1966, с.73.
Mamatov A.E. O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari. Doktorlik diss. ...avtoreferati. – Toshkent.2000.
Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. Учебное пособие. –Минск, 2004. – 255 б
Слышкин Г.Г Лингвокультурные концепты прецедентных текстов. – М.: Academia, 2000. -141 с
Croft W., Cruse D. Alan. Cognitive linguistics. Cambridge University Press, 2004. - 356 p.

БОЛАЛАР НУТҚИНИНГ ЛИНГВОПСИХОЛОГИК АСПЕКТДА ЎРГАНИЛИШИ

Ярашова Насиба Жумаевна,
Навоий давлат педагогика институти доценти, ф.ф.д. (DSc)
E-mail: yarashovanasiba44@gmail.com

Аннотация. Болалар нутқи аввало, тил ва нутқ тизимини, мактабгача ва мактаб ёшидаги болаларнинг нутқини намоён этувчи, уни ўзлаштиришнинг алоҳида кўринишидир. Болалар нутқи илк маротаба тилшунослар томонидан эмас, балки психолог, логопедлар, педагоглар томонидан тадқиқ этилган. Болалар нутқини нафақат лингвопсихологик, балки умумий планда тадқиқ этиш катталарга хос бўлмаган лингвистик тизим аспекти билан боғлиқ бўлиб, болада нутқни шакллантириш ва ривожлантириш, тил қобилиятини намоён этишнинг дастлабки босқичлари ўзига хос боланинг ақлий ҳамда психик қонуниятларига мос тарзда амалга оширилганда яққолроқ намоён бўлади.

Калит сўзлар. Онтогенез, нутқий фаолият, болалар нутқи, матн тузувчи, матн, реципиент, лингвопсихологик хусусиятлар, психик феномен, неоплазма.

Аннотация. Детская речь - это, прежде всего, особое проявление языковой и речевой системы, речи детей дошкольного и школьного возраста, ее усвоение. Впервые речь детей изучалась не лингвистами, а психологами, логопедами, воспитателями. Изучение детской речи не только в лингвопсихологическом, но и в общем плане связано с аспектом языковой системы, который не характерен для взрослых и более выражен, когда начальные этапы формирования и развития речи у ребенка, проявления языковых навыков являются осуществляется способом, соответствующим ментальному

Ключевые слова. Онтогенез, речевая деятельность, детская речь, составитель текста, текст, оппонент, лингвопсихологические особенности, психический феномен, новообразование.

Annotation. Children's speech is, first of all, a special manifestation of the language and speech system, the speech of preschool and school-age children, its assimilation. For the first time, children's speech was studied not by linguists, but by psychologists, speech therapists, educators. The study of children's speech is not only linguopsychological, but also generally related to the aspect of the language system, which is not typical for adults and is more pronounced when the initial stages of the formation and development of speech in a child, the manifestations of language skills are carried out in a way corresponding to the mental

Keywords. Ontogenesis, speech activity, children's speech, text compiler, text, opponent, linguopsychological features, mental phenomenon, neoplasm.

Психолингвистиканинг асосий мақсади нутқий фаолият субъекти бўлган шахс, тил эгасини тадқиқ этишдир. Рус тилшунослик мактабида А.А.Залевскаянинг тадқиқотлари муҳим аҳамият касб этади. А.А.Залевская ўз тадқиқотларида психолингвистиканинг вазифасини “тилнинг амал қилинишини психик феномен сифатида тавсифлаш ва тушунтириш” бўлиши кераклигини таъкидлаган эди[72].

“Тил ва тил белгиларининг тизими лингвистика, адабиётшунослик, антропология, дастурлаш ва психолингвистика фанларининг тадқиқот объекти бўлиши мумкин. Яъни мазкур фанларнинг умумий объекти – турли мақсадларда ва турли вазиятларда қўлланиладиган инсон тили ва нутқи бўлиши мумкин”[73].

[72] Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М., 1999. –С.25.
[73] Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004. –С. 8.

П.Фресс психолингвистикани “тил орқали тақдим этиладиган бизнинг экспрессив ва коммуникатив эҳтиёжларимиз ва воситаларимиз ўртасидаги муносабатлар ҳақидаги фан”, – деб изоҳлаган[74]. Т.Слама-Казаку психолингвистиканинг предмети хусусида “мулоқот вазиятининг хабарга таъсири” деган қисқача хулосага келади[75]. Рус психолингвистикаси назариясининг асосчиси А.А.Леонтьев шундай ёзади: “Психолингвистика – тил тизими ва лисоний қобилият орасидаги муносабатларни ўрганувчи фан”[76].

Киши дунёга келар экан, тилни тўлиқ ўзлаштириш имкониятига эга бўлиб туғилади (баъзи бир туғма ногиронлиги бўлмаганлардан ташқари). Бу имкониятни амалга ошириш учун лингвопсихология йўналишига мурожаат этилиб, унда болалар нутқининг ривожланиши, тилни ўзлаштириш имкониятлари ўрганилади. Лингвопсихология, шунингдек, болалар нутқидаги бузилишларни ҳам тадқиқ этади.

“Психологик нуқтайи назардан матн яратиш ва унинг мазмуний идроки индивиднинг нутқий тафаккури маҳсули, объектив борлиқни тил тизими воситасида акс эттириш қобилияти сифатида намоён бўлади. Бунда матннинг шакли ва мазмуни муайян коммуникатив вазият қатнашчиси – конкрет шахснинг психологик хусусиятлари асосида аниқланади”[77].

Психолингвистик тадқиқотларда матннинг матн тузувчи – матн – реципиентдан иборат учлик нуқтайи назаридан тадқиқ этилиши унда хусусан шахс омилининг ролини чуқур ўрганишни тақозо этади.

Рус тилшуноси ва психологи В.П.Белянин матннинг психолингвистик хусусиятлари ёритилган “Основы психолингвистической диагностики. (Модели мира в литературе)” номли асарида матнга лингвистик ва психологик ёндашув ҳақидаги қуйидаги концепциясини яратди:

1. Нутқ ортида нафақат тил тизими, балки психология ҳам туради (нутқ яратилиш жараёни назарда тутилган).
2. Ҳар хил матн ортида ҳар хил психология туради (матн тузувчининг матнда акс этувчи субектив хусусиятлари назарда тутилган).
3. Бадиий матн тузилиши аксентуаллашган онг тузилишига мувофиқдир (онг психик тузилишининг матн тузилишига таъсири назарда тутилган).
4. Эмоционал-мазмуний доминанта бадиий матннинг семантик, морфологик, синтактик хусусиятлари, шунингдек, унинг услубияти намоён бўлишида асосий ролни бажаради.
5. Матн воқелик – онг – олам манзараси – тил – матн тузувчи – ўқувчи – матн проекциясидан иборат тизим унсури ҳисобланади (матн яратилиши ва идрокининг барча лисоний ва нолисоний омиллари қайд қилинган).
6. Ўқувчининг бадиий асар ҳақидаги ўз талқини бўлиши мумкин. Бу талқин матн билан бирга ўқувчининг психологиясига ҳам боғлиқ бўлади (матн идрокининг хусусий ҳодиса эканлиги таъкидланган)[78].

Маълумки, киши организмидаги органларнинг туғилиш давридан то тугалланиш босқичигача бўлган ривожланиши онтогенез сифатида эътироф этилади. Лингвопсихологик тадқиқотларда эса киши лингвистик имкониятларининг шаклланиш даври *онтогенез* термини остида бирлаштирилади. Бу даврда бола нутқининг ўзига хос хусусиятлари, тилни ўзлаштириш имкониятлари, болалар нутқига экстралингвистик факторларнинг таъсири ўрганилади.

Болалар нутқи аввало, тил ва нутқ тизимини, мактабгача ва мактаб ёшидаги болаларнинг нутқини намоён этувчи, уни ўзлаштиришнинг алоҳида кўринишидир. Болалар нутқи илк маротаба тилшунослар томонидан эмас, балки психолог, логопедлар, педагоглар томонидан тадқиқ этилган. Болалар нутқини нафақат лингвопсихологик, балки умумий планда тадқиқ этиш катталарга хос бўлмаган лингвистик тизим аспекти билан боғлиқ бўлиб, болада нутқни шакллантириш ва ривожлантириш, тил қобилиятини намоён этишнинг дастлабки босқичлари ўзига хос боланинг ақлий ҳамда психик қонуниятларига мос тарзда амалга оширилганда яққолроқ намоён бўлади.

Болалар нутқини лингвопсихологик тадқиқ этиш орқали ўз она тилини ўзлаштиришнинг турли босқичларида бола томонидан ишлатиладиган тил бирликларининг руҳий омиллар таъсирида юзага чиқиши ва уларни ўзига хос болаларча нақшларда акс этишидир. Болалар нутқининг

---

[74] Fraisse P. La psycho-linguistique // Problems de psycho-linguistique. –Paris, 1965. –P. 5.
[75] Slama-Cazacu T. Indroduction to Psycholinguistics. –The Hague-Paris, 1973. –P. 57.
[76] Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность.–М., 1969.
[77] Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. –Новосибирск, 2003. –С. 205-210.
[78] Белянин В.П. Основы психологической диагностики (Модели мира в литературе). –М.: Тривола, 2000. –С.8-9.

лингвистик тадқиқотларида бола тил қобилиятининг турли таркибий қисмлари кўриб чиқилади. Онтогенезда нутқ функциясининг ривожланиш қонуниятлари ҳамда болалар томонидан нутқ товушларининг ўзлаштириш жараёни тизимли равишда В.И.Белтюков[79], ҳар бир ёш даврнинг ўзига хос фонологик жиҳатлари лингвопсихолингвистик аспектда Г.М.Богомазов ҳамда Е.Н.Винарская[80] тадқиқотларида ёритиб берилган.

Мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланиш босқичини тавсифловчи нутқий жараён болалар тафаккури билан юзага чиқадиган бир қанча хусусиятларга эга. Жумладан, бу кўп вазиятларда ономатопея, шунингдек, мунтазам моделларга мувофиқ тартибсиз шаклларни шакллантириш, вақти-вақти билан сўз шаклланиши, тарқоқ сўзлардан фойдаланиш, махсус синтаксис ва бошқаларда ўз ифодасини топади. Болалар нутқининг хусусиятлари боланинг шахсий ривожланишининг турли босқичларида бир хил эмас ва шахсни социализация қилиш босқичлари билан боғлиқ[81].

Номлаш бола нутқида энг фаол жараёндир. Гўдаклик даври ҳамда мактабгача болалар нутқида вужудга келадиган сўзлар онгсиз равишда яратилади, шунинг учун тил тизимида мутлақо муомалада бўлмаган сўзлар болалар нутқида фаол ишлатилади, ўзига хос янги сеҳрли сўз топилмаларини ўйлаб топишади, руҳий кечинмаларига асосланиб, лексик оккозанализмларни вужудга келтиришади. Болалар нутқидаги бу каби топилмалар фақатгина боланинг нутқида қайд этилган ва бошқалар томонидан умуман ишлатилмайдиган, баъзи ўринларда эса ўз боласидан фахрланиш ёки озгина ҳазиломуз тарзда кулиш борасида ота-онаси ва яқинлари томонидан қўлланиладиган лингвистик фактлардир. Болалар томонидан неологизмларни вужудга келтириш ижодий жараён бўлиб, унинг моҳияти неоплазмаларда образли мотивацияни излашдир. Илгари, тилни эгаллашнинг асоси тақлид принципи эканлигига ишонишган: бола сўзларни эшитади, грамматик конструкцияларни ўхшашлик билан аниқлайди ва қайси ҳолатларга боғлиқлигини сезади, такрорлайди ва шу билан гапиришни ўрганади.

Болалар ҳаётининг дастлабки уч йилида нутқ фаол шаклланади. Уч ёшга келиб, бола бошқалар билан мулоқотнинг муайян шаклларини қўллай бошлайди. Буни ўз навбатида 4 гуруҳга ажратиш мумкин:

вазиятли-шахсий алоқа (туғилганидан 5 ой);
вазиятли-тадбиркор алоқа (олти ой - уч йил);
қўшимча вазиятли алоқа (уч йил-беш йил);
психологик-когнитив алоқа (олти ёш-тўққиз ёш).

Болалар мулоқотининг олий шакли саналган психологик-когнитив алоқа психик ҳолатлар, когнитив омиллар, халқ оғзаки ижоди асарлари, болалар адабиётининг сара намуналари таъсири натижасида янада мукаммалроқ намоён бўлади.

Адабиётлар:

1. Арутюнова Н.Д. Речь // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. – М., 1990.
2. Белянин В.П. Основы психологической диагностики (Модели мира в литературе). –М.: Тривола, 2000. Белянин В. П. Психолингвистика. –М., 2004.
3. Винарская Е.Н., Богомазов Г.М.Возрастная фонетика. – М, 2001.; https://specped.ru/wp-content/uploads/2019/10/vinarskaya_bogomazov.pdf.
4. Залевская А.А. Введение в психолингвистику. Учебник для студентов высших учебных заведений. –М., 1999.
5. Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. –Новосибирск, 2003.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность.–М., 1969.
7. Slama-Cazacu T. Indroduction to Psycholinguistics. –The Hague-Paris, 1973.
8. Fraisse P. La psycho-linguistique // Problems de psycho-linguistique. –Paris, 1965.
9.http://www.voppsy.ru/issues/1981/813/813029.htm. 10.http://www.voppsy.ru/issues/1984/841/841141.htm.

[79] http://www.voppsy.ru/issues/1981/813/813029.htm; http://www.voppsy.ru/issues/1984/841/841141.htm

[80] Винарская Е.Н., Богомазов Г.М.Возрастная фонетика. – М, 2001. 284 с.; https://specped.ru/wp-content/uploads/2019/10/vinarskaya_bogomazov.pdf.

[81] Арутюнова Н.Д. Речь // Лингвистический энциклопедический словарь / гл. ред. В.Н. Ярцева. – М., 1990. – С. 414–416.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI OPERATSION TIZIMLARINING LINGVISTIK TERMINLARI VA TARJIMA MUAMMOLARI

Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

Annotatsiya: *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari operatsion tizimlari-ning lingvistik terminlarida qo‘llanilgan o‘zbek tilidagi terminlarning tarjimasi va leksikografik talqini bo‘yicha tahlillar aynan shu maqolada yortib berishga harakat qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada operatsion tizimlarda uchraydigan o‘zlashgan va tarjima qilingan terminlarning qo‘llanilishi hamda validligi alohida o‘rganiladi.*

Kalit so‘zlar*: axborot-kommunikatsiya, operatsion tizim, activboard leksikografik talqin, terminlar semantikasi.*

Jahon tilshunosligida AKT terminlarini tartibga solish ishlari bir til terminlari doirasida ham, ikki til terminlari doirasida ham olib borilgan, soha terminlari muayyan darajada tartibga solingan bo‘lsa-da, milliy tilshunosliklarda AKT terminlarining lingvistik, leksikografik, semantik va tarjimaviy xususiyatlari aniqlanmagan, soha terminlarini tartibga solish mezonlari ishlab chiqilmagan. Shu bois AKT terminlarining mavzuiy guruhlarini aniqlab, leksik-semantik xususiyatlarini asoslash, terminlarning derivatsion va tuzilish modellarini belgilash, o‘zlashma va baynalmilal terminlarning milliy tillarda barqarorlashuv jarayonlarini tadqiq qilish, tarjima qilish uslublarini takomillashtirish, terminlardagi sinonimik, antonimik va variantlilik holatlarini tartibga solish hamda maqbullarini qo‘llash yuzasidan takliflar berish, leksikografik izohlarni takomillashtirish, tarjima lug‘atlarini tuzish kabi masalalarning hal etilishi AKT sohalari rivojini ta’minlash bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga muayyan darajada yengillik yaratilishiga olib keladi.

O‘zbek tiliga aynan o‘zlashgan operatsion tizimlardagi xususan windows operatsion tizimidagi terminlar to‘g‘risida fikr-mulohazalarni olib borishdan oldin o‘zbek tili leksikasidagi o‘z va o‘zlashma qatlam to‘g‘risida ma’lumotlar berilishi kerak. Ushbu maqolada windows operatsion tizimidagi aynan o‘zlashgan so‘zlar va ularning tarjimasidagi muammolar bo‘yicha tahlil olib boriladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili qurilishida terminologiya alohida o‘rin va mavqega egaligi bilan ajralib turadi. Terminologiyaning til lug‘at tarkibidagi roli haqida ikki dunyoqarash mavjud. Birinchi g‘oyaga ko‘ra, terminologiya adabiy til leksikasining mustaqil qatlami tarzida e’tirof etilsa, ikkinchi ta’limotga muvofiq u adabiy til so‘z boyligi tarkibidan ajratiladi, “alohida turuvchi” obyekt tarzida baholanadi va nutqning turlari (sheva, jargon, jonli so‘zlashuv)ga tenglashtiriladi[1].

Tilshunoslik fanining tarjima nazariyasi va amaliyotiga qo‘shgan hissasi beqiyosdir. Boshqa tomondan tarjima tilshunoslik nazariyasidan ko‘ra ancha ko‘proq bilimlarni o‘z ichiga oladi. Semantikaga qiziqish uyg‘otishdan oldin tarjimonlar atamashunoslik bilan yaqindan shug‘ullanganlar.

Tarjimonlar uchun tarjima jarayoni asosiy matndan to‘g‘ri terminni tanlay bilish hisoblangan. Terminologiya bo‘yicha maxsus lug‘atlar yaratilgan. Ko‘pchilik tarjimonlarning ilmiy ishlari terminologiyaga bag‘ishlangan. [2]

Windows operatsion tizim tarjimasi – bu axborot texnologiyalari hamda turli xil dastur tillariga kiruvchi atamalarni o‘girish hisoblanadi. Termin tarjimasini o‘rganish uchun dastlab terminologiya va tarjima o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab olish kerak. Terminologiya atamasini alohida mustaqil fan sifatida ajralib chiqishini da’vo qilib chiqqan shaxs dastlab Felber bo‘lgan[3]. Bunday holatga Sager va Temmerman tomonidan bahslarga sabab bo‘lgan. Shu tariqa terminologiya ham fanlararo ham fan doirasidagi tushunchaga aylandi, shuningdek, tilshunoslikning bir guruh bo‘limlariga bog‘landi, jumladan, leksikologiya, semantika, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, falsafa. Marsel Telen o‘zining maqolasida tarjimashunoslik va terminologiya o‘rtasidagi bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha bir nechta mulohazalarni keltirib o‘tgan.

Sager tomonidan terminologiyaning uchta asosiy elementi keltirib o‘tilgan[4]:

1. Terminlarning ta’rifi uchun foydalanilgan metodlar va amaliy ko‘nikmalar majmuyi;
2. Nazariyaga oid tushunchalar;
3. Ma’lum sohaga oid so‘zlar.

Shunga ko‘ra, Marsel Telen esa terminologiyaning turlarini keltirib o‘tgan, uning quyidagi turlari mavjud:

1. Nazariyaga yo‘naltirigan terminologiya.

Asosan nazariy ma’lumotlarni ilgari suradi va terminologiya tushunchasining mazmunini, terminlarning shakllantirish va standartlashtirish jarayonlarini nazariy jihatdan o‘rganadi. Nazariyaga asoslangan terminologiyaning yana bir nomi tizimli terminologiya deb ham atash mumkin.

2. Tarjimaga asoslangan terminologiya.

Tarjimonlar tomonidan terminlarni amaliy tarjima qilishga oid bilimlarni o‘rganadi. Bu turdagi terminologiyaning ikkinchi nomi Ad-hoc terminologiyasi deb ham ataladi. Tarjimaga yo‘naltirilgan terminologiya tarjima bilan bog‘liq bo‘lgan kerakli muammolarni hal qilishda yordam beradi.

Shunga teskari holatda Marsel Telen tarjima to‘g‘risida ham fikrlar berib o‘tgan. Xususan, tarjimonlar tomonidan ma’lum bir ma’lumotlarni o‘zining tiliga amaliy o‘giradigan ta’limot bu tarjimashunoslik deyiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy tarjima bilan tarjima nazariyasini bir-biriga chalkashtirmaslik kerak. Tarjima nazariyasi rasmiy ta’limot hisoblanib, tarjima to‘g‘risidagi nazariyalarni, uning adabiy va adabiy bo‘lmagan tarjimalarni o‘rganadi. Bundan tashqari tarjima nazariyasi fanida turli xil olimlarning firklari va pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadigan fanlar o‘tiladi. Demak, amaliy tarjimashunoslik nazariydan butunlay farq qiladi.

Hozirgi kunda o‘zbek tili leksikasining tez va o‘zgaruvchan va faol qatlamini AKT terminologiyasi sohasiga doir leksik birliklar tashkil etadi. AKT sohasidagi terminlarni kompyuter va kompyuterlar sinfisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular bilan tanishib chiqamiz.

Server kompyuteri kompyuter tarmog‘ida asosiy axborotlar bazasini saqlovchi maxsus ajratilgan kompyuter. Super kompyuterlar – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun mo‘ljallangan kompyuterlardir. Ular oddiy shaxsiy kompyuterlarga nisbatan bir necha yuz barobar tez ishlaydi va maxsus amallarni bajaradi. Shaxsiy kompyuterlar (ShK) hammabop va qo‘llashda turli xil talablarni qondiruchi, bir kishi foydalanadigan kompyuterlardir. Shaxsiy kompyuterlarga kundalik ishlarimizda qo‘llaydigan, uyda, ish joylarida joylashgan kompyuterlar, masalan, Pentium tipidagi kompyuterlar kiradi. Portativ kompyuterlar yo‘lda olib yurishga mo‘ljallangan ko‘chma shaxsiy kompyuterlardir. Portativ kompyuterlarga Lap Top, Note Book, Palm Top, Elektron kotiblar (PDA), organizer kabi kompyuterlarni kiritishimiz mumkin. Kompyuter-bloknotlar stolda foydalaniladigan ShKlarning barcha vazifalarini bajaradi. Ular uncha katta bo‘lmagan kitob hajmidagi chemodancha ko‘rinishida tayyorlanadi. Cho‘ntak kompyuterlari (Palm Top, bu «kaftdagi» degan ma’noni bildiradi) 300 gramm og‘irlikka ega. Ular to‘laqonli shaxsiy kompyuterlar bo‘lib, mikroprotsessor, operativ va doimiy xotira, odatda monoxrom suyuq kristalli displey, ixcham klaviatura, ko‘chmas ShKga axborot almashuv maqsadlarida ulanish uchun port bo‘limlariga ega. Elektron yozuv daftarchalari (organizer – organayzerlar) ixcham kompyuterlarning «eng yengil sinfi»ga kiradi (bu sinfga ulardan tashqari kalkulyatorlar, elektron tarjimonlar va boshqalar kiradi); ularning og‘irligi 200 grammdan oshmaydi.

ACTIVboard (interfaol doska)bu – kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta’lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o‘zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta’minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi. Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishchi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Interfaol qurilma – bu proektsion doskaga (magnitli doska, marker doskasi, sinf doskasi, sinf devori) yoki proektorning o‘ziga o‘rnatiladigan va har qanday tekis, silliq ishchi yuzani interaktiv holatga keltiradigan elektron qurilmadir.

AKT terminlarining ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ularning tarjimada berilish modellari ham aniqlandi. Ushbu modellar tarjima jarayonini yengillashtirishga, xususan, elektron tarjima dasturlarini yaratish uchun manba hisoblanadi. AKT sohasi bo‘yicha bugungi kunga qadar qaratilgan ilmiy adabiyotlarda va terminologik lug‘atlarda umumiste’mol so‘zlardan yasalgan terminlar alohida o‘rin tutadi. Ularning semantik xususiyatlarini kontekst yordamida o‘rganish umumiste’mol so‘zdan farqli jihatlarini anglab olish imkoniyatini beradi. O‘zbek tilida AKT terminlari lug‘atini ishlab chiqishda uning barcha xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bunday lug‘atlar AKT sohasining ma’lumotnoma-qo‘llanmasi sifatida, muayyan tushunchalar tizimini aks ettirishi va mutaxassislarning ilmiy va amaliy faoliyatlari uchun kerakli terminlarni o‘z ichiga olishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dadaboyev H.– O‘zbek terminologiyasi: o‘quv qo‘llanma / Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2020 , – B.136

2. G‘afurov I, Mo‘minov O, Qambarov N – Tarjima nazariyasi // o‘quv qo‘llanma / Toshkent, Tafakkur Bo‘stoni, 2012 – B.20

3. Felber, Helmut, - Terminology Manual.// Paris: International Information Centre for Terminology (Infoterm), 1984, P.31
4. Sager, Juan - A Practical Course in Terminology Processing. // Amsterdam/Philadelphia: Benjamins, 1990, P.3

O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI: TIL, MADANIYAT, ADABIYOT, TARIX, FALSAFA VA INTEGRATSIYASI

Muqumova Surayyo Qayumovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Juda ko‘p maqollarda xalqimiziing odatlari, kasb va hunarlarning o‘ziga xos tomonlari, hayvonot dunyosidagi ko‘plab jondorlarning va o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari, tabiat hodisalarining qonunyatlari, turli sohalarga oid falsafiy tushunchalar bilan birga shu xalqning o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari mujassamlashgan. Ba’zi maqollarda aynan o‘zbek madaniyatiga xos tushunchalar ifodalangan. Ayrimlarida o‘zbek xalq turmushiga aloqador milliy atamalar keltiriladi. Bu esa mazkur janrning milliy-madaniy jihatlarini yoritishni taqozo etadi. Til o‘rganish jarayonida yoki tarjima jarayonida eng kichik janr bo‘lgan maqollarga murojaat qilinadi va ularning milliy-madaniy jihatlariga e’tibor qaratish lozim.

Kalit so‘zlar:maqollar, milliy jihatlar, dunyoqarash, lingvokulturo-logiya, tarix, falsafa, integrativ yondashuv.

Аннотация*:Во многих пословицах изображено обычаи нашего народа, особенности профессии и ремесли, особенности растений, законы природных явлений, философские понятия разных сфер и национальные-культурные особенности народа. В некоторых пословицах изображены понятия, которые относятся к узбекскому культуру. В некоторых есть термины которые относящиеся к семье. Это значит подчеркнуть национально-культурные аспекты этого народа. В изучении языка или ситуации перевода обращаемся пословицам и надо обратить внимание на национально-культурных аспектах.*

Ключевые слова*: пословицы, национальность, мировозрение, лингвокультуролгия, история, философия, интеграция.*

Annotation: *In many of our proverbs, along with the customs of our people, the peculiarities of professions and trades, the peculiarities of flora and fauna, the laws of natural phenomena, philosophical concepts in various fields, specific cultural features are embodied. Some of the proverbs are specific to Uzbek culture. Some of them contain national terms related to the life of the Uzbek people. This requires the coverage of national aspects of the genre. Proverbs that are the smallest genre are addressed in the process of language learning or translation, and attention should be paid to their cultural aspects.*

Keywords: *proverbs, national aspects, worldview, lingvoculturology, translation, integrative approach.*

Maqollar asrlar osha, avlodlar va ajdodlar osha yetib kelgan hikmatlar xalq tafakkurining, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy fikrlarning ixcham va ko‘rkam bir badiiy ifodasidir. Maqollar aql-farosat va tafakkurning mantig‘ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan o‘zbek xalqining ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bir oynasidir. Ularda insonning hayotga, tabiatga, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyoyiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy va falsafiy qarashlari namoyon bo‘lgan. Ba’zi maqollarda aynan o‘zbek madaniyatiga xos tushunchalar ifodalangan, ayrimlarida o‘zbek xalq turmushiga aloqador milliy atamalar keltiriladi. Bu jihatlar esa o‘z o‘rnida lingvokulturologik tahlilni talab qiladi. Bunday tahlilga albatta integrativ yondashuv zarur, ya’ni tilshunoslik, adabiyot, tarix, falsafa, etnogarfiya, lingvokulturologiya va boshqa fanlarning o‘ziga xos ishtiroki kerak bo‘ladi.

Maqollar mag‘ziga ularni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlari singib ketadi. Maqollarning kelib chiqishini aniqlash — ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy rivojlanish yo‘llarini, xalqimiziing odatlarini, barcha kasb va hunarlarning o‘ziga xos tomonlarini, hayvonot dunyosidagi ko‘plab jondorlarning va o‘simliklar olamidagi qanchadan-qancha o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlarini shu xalq tomonidan qanday milliy qarashlar mujassamlashganini, tabiat hodisalarining qonuniyatlarini, turli sohalarga oid falsafiy tushunchalarni, umuman olganda serqirra

hayotniig jamiki tomonlarini atroflicha bilishni taqozo etadi. Jumladan, o‘zbek xalqida sherni–mard, dovyurak, botirlarga; eshak va ho‘kizni – befahm, befarosat dangasalarga; qo‘yni–yuvosh tabiatli kishilarga, shuningdek, mazlumlarga; bo‘ta, buzoq, toy, qo‘zi, polaponni—bolalarga; itni–ochko‘z, sullox; illatlarga ega bo‘lgan kishilarga; bo‘rini–qonxo‘r, zolimlarga; tulkini—ayyor, ikki yuzlamachilarga; quyonni–qo‘rqoqlarga; sichqon, kalamush, chumchuq, chigirtkani–tekinxo‘r va zararkunandalarga, chumolini–mehnatkash mazlumlarga; burgut, lochin, shunqorni–dovyurak, botir, mard, chaqqon odamlarga; qarg‘a, quzg‘unni–ko‘pincha tosh ko‘ngil, qora niyatli kishilarga; gulni–ko‘pincha qizlarga; yantoqni–quruq, maqtanchoqlarga; qovun, bug‘doy, olma singarilarni–yaxshi odamlarga; qovoq, tarrak, arpa, kurmak singarilarni–yomon odamlarga o‘xshatishgan va h.k.

Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar chaynar boshingni. – Yaxshi, mard, saxiy, sof ko‘ngil sodiq, vafodor odamlarga yaxshilik qilsang, ular buni unutmaydilar, senga ham yaxshilik bilan javob qaytaradilar. Biroq yomon, itfe’l, nonko‘r, bevafo odamlarga yaxshilik qilsang, ular bunga yaxshilik bilan javob qaytarish u yoqda tursin, aksincha senga yomonlik qiladilar. Shunday ekan, avvalo, odamlar bilan muomala qilmoqchi bo‘lsang, avvalo ularning kimligini farqlay bil”, –deyilmoqchi. *Elga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar g‘ajir boshingni* maqolida *el/er it* leksemalari zidlik ma’nosida qo‘llangan. *Er* –“ mard insonning yaxshilikni qadrlashi”, *it* – tuban, pastkash kimsalarning razilligini namoyon qilishi” ma’nosi o‘z ifodasini topgan.

Yot yoqadan olganda it etakdan oladi. Maqolda kuchli konnotatsiya bor. Yot, ya’ni dushman yoki raqibing senga hujum qilganda, yoxud senga bo‘lmag‘ur tuhmatlar qilganda o‘z yaqinlaringdan, ishongan odamlaringdan, qalbaki do‘stlaringdan biri oshkora yo pinhona tarzda seni unga sotadi. Siringdan, ojiz tomoningdan uni voqif qiladi. Qisqasi unga ko‘maklashib, senga “xolis xizmat” qiladi. Shu boisdan do‘stlashadigan, sirdosh bo‘ladigan, ishga oladigan odamni obdan sinash kerak. Ish turi, xizmat mavqei qancha yuqori bo‘lsa, raqobatchilar ana shunday “nusxalar”dan foydalanadi. Maqolda raqib odam sifatida tasvirlangan, unga ko‘maklashadiganni esa itga o‘xshatilgan. It so‘zi metaforik usulda odamga nisbatan qo‘llangan. Natijada kuchli emotsionallik hosil bo‘lgan. O‘zi, yoqasi dushman qo‘lida-yu, unga yana it hujum qilgan odamning ahvolini tasavvur qilib ko‘ravering...

Kichkina yukka ham tuya tiz cho‘kadi. Odatda tuyaga yuk ortmoqchi bo‘lganlarida tiz cho‘kadi yoxud uni tiz cho‘ktiradilar. Mazkur maqol bilan: “Sen har qancha moddiy va ma’naviy boylikka ega bo‘lsang ham mag‘rurlanib ketma, o‘zingni kamtar tut. Shunda hurmat-e’tiboring ortadi, obro‘ying yana oshadi. “Iye, men falonchi bo‘laturib, falonchiga bo‘ysunamanmi, falonchining aytganini qilamanmi, falonchining ishini, xizmatini qilib beramanmi? “– deb o‘zingni katta olsang, el ko‘ziga yomon ko‘rinasan, kishilarning nazar-e’tiboridan qolasan degan ma’noda nasihat qilganlar.

O‘zbek xalq maqollari tarkibida qo‘llangan qushlar obrazi milliy va madaniy qadriyatlar, asriy an’analar ta’sirida yaratilgan bo‘lib, xalq hayoti, turmush tarzi, madaniy munosabatlarining muhim qirralarini aks ettiradi.

Qushlar timsoli tadbirkorlik, tajriba, uquvsizlik, sabr-toqat, ziqnalik, xasislik, saxovatpeshalik kabi inson tabiatidagi ijobiy va salbiy jihatlarni yoritishga xizmat qiladi. Qush nomlari ishtirok etgan maqollardagi mazmun xalqning zoologik bilimlari, uzoq kuzatishlari natijasiga asoslanadi.[2.96-b.] Jumladan,*”**Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmu**?”* O‘z hol-qudrati yo‘q bo‘laturib, ”men undayman, men bundayman” deb maqtanuvchilarga qarata istehzo bilan aytilgan. *Botmon* –tarixiy so‘z . O‘rta Osiyoning , shuningdek, O‘bekistonning turli yerlarida turli mezonga, salmoqqa ega bo‘lgan ikki puddan o‘n bir pudgacga bo‘lgan o‘lchov birligi.[3.329-b.] O‘zbek limgvomadaniyatida chumchuq tekinx’or, ishyoqmaslik etaloni sifatida qo‘llanadi. Bundan tashqari *botmon* istorizmi milliylik xususiytaini ko‘rsatuvchi leksik birlikdir.

Maqollarni tahlil qilish jarayonida ularning to‘g‘ri va majoziy ma’nolarini, ularda uchraydigan arxaik so‘zlarning asl va ko‘chma ma’nolarini aniqlash maqsadida tarix, etnografiya fanlariga murojaat qilishga, turkiy tillarning lug‘atlaridan foydalanishga to‘g‘ri keladi:***”Dala tuzni suv olsa, qo‘ng‘ir g‘ozni to‘shidin, quloqsizga so‘z aytsang, qulog‘ining tashidin”.*** Maqolning o‘ta qadimiyligini ko ‘rsatuvchi tarkibidagi ***qo ‘ng‘ir, tuz*** so ‘zlari quyidagi ma’nolarda:

Qo‘ng‘ir *II Qo‘ng‘irsimonlar oilasiga mansub qush: tumshug‘i o‘tkir, oyoqlari kalta, boshida ikkita kokil o‘sib chiqqan, pati jigarrang o‘rdak.[4.410-b.]*

Tuz– ”tekis yer, keng tekislik” ma’nosida. Bu ikkala so‘z ham maqolning xalqning turmush tarzi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Maqolning birinchi qismidagi ma’no *dala-tuzni suv bossa ham, qo‘ng‘ir g‘ozning to‘shigacha* keladi, qancha ko ‘p suv bo ‘lsa ham u bemalol suzib yuraveradi. Ya’ni unga suv balosi umuman ta’sir qilmaydi. Shu hodisaga qiyos asosida ikkinchi qismda asosiy maqsad berilgan: ...”*quloqsizga so‘z aytsang, qulog‘ining*

toshidin” gapga quloq solmaydigan, gap ta’sir qilmaydigan odamga bir narsani uqitrishning foydasi yo ‘q, gap qulog‘iga kirmaydi ma’nosini ifodalaydi.
”***Oyoq yugurugi oshqa, og‘iz yugurugi boshga”***. Ya’ni hamma narsani gap deb gapiravermaslik, o‘ylab gapirish, kam gapirish uqtirilmoqda. Maqolning majoziy ma’nosi shuki, odam tiliga ehtiyot bo‘lmasa, o‘z boshiga o‘zi balo orttiradi. Xalq **og‘iz** va **oyoq** so‘zlariga (metonimik ma’noda) bog‘liqlik, aloqadorlik asosida majoziy ma’noni yuklagan. Shununigdek, milliy taom nomi **osh** so‘zi qo‘llangan.
”Halvo degan birla og‘iz chuchumas”. Bu maqol mazmunan “Olma pish, og‘zimga tush” maqoliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o‘zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga chorlaydi. Ya’ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oshib qolmaydi, uning amalga oshishi uchun ,albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmoqda. Etalon bo‘lib kelgan so‘z “holva” o‘zbek milliy shirinligi hisoblanadi.
“Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tandir” maqolidagi ***tandir****, “****Sichqon sig‘mas inig‘a, g‘alvir bog‘lar dumig‘a****”* maqolidagi *g‘alvir*– uy-ro‘zg‘or buyumi mazkur maqollarning milliy xususiyatlarini ko‘rsatib turibdi.
“Kulni o‘z ko‘moching ustiga tortma” maqoli “O‘z manfaatingni ko‘zlama” ma’nosida. Maqol tarkibidagi *ko‘moch* (issiq kulga ko‘mib pishiriladigan non) so‘zi milliy taom, yegulik sifatida lingvokulturologik obyekt sanaladi.
“Quda bo‘lguncha ko‘p sinash, quda bo‘gach ko‘p siylash”,“Qudachilik-ming yilchilik” kabi maqollarda qudachilik an’analariga e’tibor berilganini ko‘ramiz. O‘zbek xalq maqollarida oilaviy tartib-qoida, urf-odat va qadriyatlar bilan bir qatorda quda-andalik munosabatlari ham yoritilgan bo‘lib, ular ajdodlarimizning ibratli o‘tmishidan xabar beradi. Zaruriy maslahatlar bilan yosh avlodga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqining urf-odatlariga ko‘ra kishi quda bo‘lgan xonadoni bilan doimiy iliq va samimiy munosabatda bo‘lishi joiz. Tomonlarning men-senga bormasdan, kelishib harakat qilishi ikki oilani yanada yaqin, aloqalarni mustahkam qiladi. Qudalar orasidagi iliq munosabat yoshlarning bir-birini tushunishiga yordam beradi.
Xalq og‘zaki ijodi janrlaridan biri maqollar bizga avlodlar osha, asrlar osha, ellar osha, yetib kelgan xalqning hayotiy tajribalaridan kelib chiqqan donishmandlik namunalaridir. *Xalqlarning kelib chiqishi, tarkibi, joylashishi, turmushi, rasm-rusumlari, moddiy, ma’naviy va ijtimoiy madaniyati har xil. Shuningdek, yashash tar*zi, taomlar, kiyimlar, turli xil buyumlar, urf-odatlar va hk.da o‘ziga xoslik, milliylik mavjud. Ma’lum bir xalqning geogarfik o‘rni, iqlimi, tabiatidan kelib chiqib o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq va ularga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq xilma-xil qarashlar mavjud. Bular esa lingvokuturologiya faniga oid jihatlar bilan bog‘liq bo‘lish bilan birga adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa va boshqa fanlar bilan intergrativ yondashuvni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. T.:2019.
Tosheva D. Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi. T. 2017. 96-b.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-jild. T. 2006.
O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jild. T. 2008.
Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T. 1990.

O‘ZBEK MENTALITETIGA XOS URF-ODATLARNING LINGVOMADANIY TALQINI
(Badiiy asarlar misolida)

Muqumova Surayyo
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Biror bir tilning lingvokulturologik jihatlarini o‘rganish yoki tahlil qilish uchun o‘sha tilda yaratilgan adabiyotlar ham manba vazifasini o‘taydi. Iste’dodli o‘zbek adibi O‘tkir Hoshimov asarlarida o‘zbek xalqiga xos milliy-madaniy jihatlar yorqin ifodalab berilgan. Badiiy asarlardagi lingvomadaniy jihatlarni tahlil qilish lingvokulturologiya fanini o‘rganish va boyitish uchun xizmat qiladi. Bo‘lajak filologlar, avvalo, o‘z tilining milliy-madaniy xususiyatlarini va o‘z madaniyatini mukammal bilmog‘i lozim.

Kalit so‘zlar:til, madaniyat, lingvokulturologik xususiyat, badiiy asar, mentalitet, oila, mahalla, munosabatlar, urf-odatlar.

Abstract: The literature serves as a source for analyzing the linguistic and cultural aspects of a language. The national and cultural aspects of the Uzbek people are vividly expressed in the works of the talented Uzbek writer O‘tkir Hashimov. The analysis of linguistic aspects in works of art serves to study and enrich the science of cultural studies.

Key words: language, culture, linguistic and cultural characteristics, artistic work, mentality, family, neighborhood, relations, traditions.

Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi. [2]

Til – madaniyatning ko‘zgusi bo‘lib, unda nafaqat insonni o‘rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o‘zini o‘zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an’analari, urf-odatlari, axloqi, qadriyatlar yig‘indisi va dunyoqarashi ham aks etadi. Til – madaniyat xazinasi, sandig‘i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og‘zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi. [3] Biror bir tilning lingvokulturologik jihatlarini o‘rganish yoki tahlil qilish uchun o‘sha tilda yaratilgan adabiyotlar ham aynan manba vazifasini o‘taydi.

Badiiy asarlarda xalq tarixi, mentaliteti, madaniyati aks etmay qolmaydi. Va ana shu xususiyatlar o‘z navbatida lingvokulturologik tahlilni taqozo etadi. Jumladan, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi o‘zbek madaniyatiga xos ba’zi urf-odatlarni tahlil qilish asnosida ularning lingvomadaniy birlik sifatidagi jihatlariga e’tiboringizni qaratamiz.

O‘zbek udumlarida non juda qadrlanadi. O‘zbek kundalik turmushida non muhim ozuqa hisoblanadi. Xalqimiz nonni azaldan hurmat qiladi, non aziz va muqaddas sanaladi. Nonga hurmat-ehtirom bilan munosabatda bo‘lish bolalarga yoshlikdan o‘rgatiladi, ularga nonning ushog‘ini yerdan yig‘ib olish, e’zozlash va oyoq osti qilmaslik zarurligi uqtiriladi.

Urf-odatlarimizning akasariyatida non rizq-ro‘z manbai, rizq ramzi sifatida qadrlanadi va non bilan bog‘liq urf-odatlar juda ko‘p. Shulardan biri askarlikka ketayotgan yigitga “Nasibang uzilmasin” deb, non tishlatib , shu nonni u kelgancha olib qo‘yishgan. Yigit askarlikdan qaytib kelganda o‘sha nondan yana bitta tishlaydi. Ya’ni rizq-nasibasi yana shu manzil-makonda davom etsin degan maqsad mujassam bo‘jgan:

- Xaloyiq! - dedi ovozi titrab. - Dunyoda nondan tabarruk narsa yo‘q! Nondan yuz o‘girgan imondan yuz o‘giradi. Ke, o‘g‘lim, tishla! - U patirning ikki chetidan tutib turdi. Kimsan akam xiyol egilib bir chekkasini tishladi. - Barakalla, - dedi Oqsoqol. - Tuz-nasibang uzilmasin! Ilohi omin!

U bir chekkasi tishlangan patirni bobomga uzatdi, bobom oyimga, oyim menga... Men shosha-pisha uyga kirdim-da, patirni taxmondagi ko‘rpa-to‘shaklar orasiga yashirdim.

Toshkent shahrida fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “G‘alaba bog‘i”da Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev taklifi bilan Zulfiya Zokirova va uning frontdan qaytmagan besh o‘g‘li, sadoqatli kelinlari xotirasiga atab muhtasham ”Matonat madhiyasi” nomli majmua barpo etilgan. Majmuaning orqa fonida beshta devorda beshta bir tishlangan beshta non qo‘yilgan. Bular urushga ketish oldidan besh o‘g‘il tishlagan non. Mazkur yodgorlikka hayotda bo‘lgan voqea mo‘tabar ona va uning oilasi to‘g‘risidagi haqiqat asos qilib olingan.

– Bu O‘zbekistondagi barcha onalarga qo‘yilgan haykal. Ushbu yodgorlik butun xalqimiz uchun qutlug‘ ziyoratgohga, oila, muhabbat, vafo va sadoqat timsoliga aylanib qoladi. Bu yerga kelgan yoshlar millatimizning qonida bo‘lgan fazilatlarni anglab, ularni qadrlab yashashga intiladi” – deb ta’kidlagan edilar Shavkat Mirziyoyev. (2020 9-may)

Non bilan bog‘liq etnogarfizmlardan biri – *non sindirish*:

Hali boshimga bundan og‘ir kunlar tushishini, Bundan battar bedodliklar ko‘rishimni, Kimsan akam ikkalamizning o‘rtamizda ***sindirilgan non*** *uvol ketib,* ***ushatilgan holva*** *bekor bo‘lishini bilmagan ekanman.*(4.156-b.) ***Non sindirish*** (yoki *ushatish*) /etnografiyaga oid/. Nikoh to‘yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya’ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o‘z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shu rozilik belgisi sifatida non sindirilishi va to‘y bilan bog‘liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishi. shuningdek, *“Holva sindirish”* ham shu odatning davomi bo‘lib, bu frazema ham etnogarfik odat bilan bog‘liq. Unashtirish marosimida non sindirilgandan so‘ng, yoshlarning hayoti shirin bo‘lsin degan maqsadda milly shirinlik-holva ushatiladi (sindiriladi).

Masalan: O‘zbek millatida o‘zidan kattaga hurmat ko‘rsatish an’anasi bor, avvalo, oiladagi yoshi kattalar, qo‘ni-qo‘shni va umuman yoshi ulug‘larni qadrlash, ularga hurmat ko‘rsatish lozimligi bolalikdan singdiriladi. Mentalitetimizda o‘zidan katta kishini “siz”lab gapirish odati bor. O‘zbek oilalarida aka yoki

opani ham "siz" deb murojaat qilishga o‘rgatiladi:- *Gap bundoq, Robiyaxon. Endi sen mening qizim bo‘lding. Men - oyingman. Husan buvang - buvang. Yoshing to‘qqizdami? Akangni yoshi o‘n birda. Bundan chiqdi, Kimsan - akang. Akangni "siz" deb gapirgin, xo‘pmi, qizim!* [4.6-b.]

Oyim, chamamda, bu gapni dadamga aytmadi. Taomilda avval ayol quda sovchilikka boradi. So‘raydi, surishtiradi, keyin ishga erkaklar aralashadi.[503-b.]

Sovchilik- o‘zbek udumlaridan biri. Sovchi ikki xonadaonga qarindoshlik iplarini bog‘lashga da’vat etilgan kishilardir. Vatan ostonadan, hovli bo‘sag‘adan, oila sovchilikdan boshlanadi. Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga borishadi. Sovchilar har ikki oilani, ularning farzanadlarini so‘rab-surishtitirib, so‘ng vazifalariga kirishgan. Chunki birovning guldek farzandining baxtiga zomin bo‘lib, bir tomonni kuydirishni xoxlashmagan.[5] Sovchi kelgandan so‘ng qiz tomon yigit tomonni avlodu zurriyodini, aslini, surishtirib, o‘rganib chiqiishi, buning uchun qo‘ni-qo‘shni, mahalla ahlining fikr-maslahati, bu yoshga beriladigan baho katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi asardan sovchilik haqidagi malumotlarni o‘qiganda bu udumning hamda oila atalmish qo‘rg‘onning naqadar muqaddasligini his etadi.

"Tushda kechgan umrlar" asarida "qoshni haqi" odati haqida ma’lumot berilgan. Unda boshqa millat vakili Grisha o‘zbeklarning to‘y jarayoni, urf-odatlarni, hatto milliy kiyimlarni ko‘rib ajablanadi, tushunmaydi. Tinchlik saqlanglar deb janjal qiladi. To‘yning ertasi kuni o‘glini uylantirgan qariya qo‘shnichilik hurmati uchun uning uyiga keladi va shunday deydi:

–Xalqning milliy udumlarini haqorat qilmang! — Qariya qo‘lidagi selofan qopchasini uzatdi. — Bu – sizning nasibangiz!

Grisha eskankirab qoldi.

— Pora, deng! — dedi hushini to‘plab. — Nima, meni sotib olmoqchimisiz?

Qariya allanechuk osoyishta kuldi.

*— O‘zbekda **qo‘shni haqi** degan gap bor. Siz to‘yda qatnashmadingiz.*

Grishaning ikkilanib turganini ko‘rib, qopchiqni ostonaga qo‘ydi.

— Xohlasangiz, oling, xoxlamasangiz, tashlab yuboring,— dedi-da, sekin-sekin yurib, zinalardan tushib ketdi.

O‘zbek xalqida ism qo‘yish an’analari mavjud. Badiiy asarlarda ism qo‘yish an’anasi va bunga nima uchun amal qilish kerakligi, izohlab berilgan o‘rinlar ham uchraydi. Buni O‘tkir Hoshimovning "Qalbingga quloq sol" qissasining qahramoni Yodgor ismi misolida ham buni ko‘rish mumkin. :

-Bir narsa so‘rasam, ko‘ngligizga kelmaydimi?-dedi. Charos anchadan keyin.- Otingiz nega Yodgor?

*-Nimayam qila olardik, otni chaqaloq o‘ziga o‘zi tanlay olamaydi.-Yodgor o‘ychan tabassum bilan Charosga qarab qo‘ydi.- Bu mening ikkinchi otim bo‘lsa kerak. Birinchisi nimaligini bilmayman. Chamasi, ikki yasharligimda meni choyxonadan topib olishgan ekan. Bilmadim, adashib qolganmanmi, yo onam biron yerda ochlikdan uzilib qolganmi… O‘shanda urushning oxirgi yillari, qahatchilik ekan. Choyxonaschining yoshi oltmishga yaqinlashganda ko‘rgan o‘g‘li o‘lib qolgan ekan. Ota-onamni topolmagandan keyin o‘rniga xudo yetkazdi, deb uyiga olib ketibdi. Otimni **Yodgor** qo‘yibdi…*[10.381-b.]

Otasi jangga borib qaytib kelmagan yoki bola tug‘ilmay turib otasi vafot etgan bolaga *Yodgor* deb ism qo‘yishgan.

„Tushda kechgan umrlar" romanida ismlarning lingvomadaniy jihatlari aks ettirilganini ko‘rish mumkin. Asarda bu ismlarning lingvomadaniy izohi ham berib o‘tilgan.

To‘lagan bir qadam yurib to‘xtadi.

*— Fotima, — dedi vidolashgandek ohangda. — **Qurbonoy**ni ehtiyot qil. Seni Xudoga, Qurbonoyni senga topshirdim.*

*«**Qurbonoy** emish! Xo‘p topibsanmi, qizingni otini! Demak, Qurbon hayitida tug‘ilgan.* [11.58-b.]

Ramazon, Hayit (voy), Hayitgul, Qurbon, Qurbonoy kabi ismlar Ramazon oyi yoki hayitida, yoxud Qurbon hayitida tug‘ilgan qizlar yoki o‘g‘il bolalarga qo‘yiladigan ismlardir.

***Challar** kuni Shomurod tog‘amnikiga borganda Ra’no kelinoyimni ko‘rib og‘zim ochilib qoldi.* [95-b.] Challar- aynan charlar (etnografiyaga oid)-nikoh to‘yidan so‘ng kelin yoki kuyov sharafiga har ikki qudalar uyida o‘tkaziladigan birinchi chaqiriq. [O‘TIL. 4.460-b.]

O‘zbek xalqida mehmondorchilik odati qadimdan o‘ziga xos tarzda shakllangan. Madaniyatimizning ko‘hna manbalarida mehmondorchilik insonning oilaning, xalqning madaniy va ma’naviy aloqasi sifatida qadrlangan. Shuning uchun Robiya va uning otasini Toshkenda kutib olinishi shunday tasvirlangan: - *Gap bundoq, Duma! - Oqsoqol dadamga imo qildi. - Samarqanddan mehmon obkeldim.*

- Bahay! Mehmon otangdan ulug‘! - pakana kishi pildirab borib dadamga tirsagini tutdi. - Xush kepsiz, mehmon!

Hashar–Sharq xalqlarida ko‘p tarqalgan udumlarda biri. Hashar ko‘pchilik bir yoqadan bosh chiqarib birga harakat qilishidir. Qadim zamonlardan uy qurish, tom yopish, ariq qazish, hosilni yig‘ib olish kabi og‘ir

ishlarning hammasi hashar yo‘li bilan bajarilgan. Bu odat ho zir ham bor. *...Endi si zga o‘n ikki vassali uy qurib beramiz. Odamlarni* ***hasharga*** *aytib qo‘ydim. [50-b.]*

Hashar-xalqning mehnat jasorati, tashbbuskorligi va bunyodkorlik qobiliyatini yanada rivojlantirib, fuqaro sifatida kamol toptiradigan qadriyatdir. Hasharning beminnat xususiyati shundaki u beminnat, bepul, beta’ma bajariladi. Hashar ishi ko‘pchilik tomonidan tekin ado qilinadi. [2]

Adib asarlarida o‘zbek xalqiga xos xususiyatlar aniq va yorqin ifodalab berilgan, shuning uchun asarlari kitobxonlar tomonidan juda yaxshi kutib olingan. Asarda o‘zbeklarga xos qo‘shnichilik munosabatlari, mahalla-ko‘y munosabati, inson hayotidagi yaxshi va yomon kunlar, to‘y yoki aza marosimlari kabi vb.urf-odatlar va shu jarayondagi o‘zaro munosabatlar ham yoritilgan va bular lingvokulturologiyaning obyekti bo‘lish bilan birga adabiyotshunoslik, etnografiya, tarix, falsafa uchun ham manba vazifasini bajaradi. Bunday tahlillar lingvikuturologiya fanini o‘rganishda ham amaliy jihatdan ko‘mak vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. T.:2019. 3-bet.

Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2013.

Маҳмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2015.-№3. – Б. 3–12;

Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16;

Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фанлари д-ри ... дисс. – Тошкент, 2015. – 240 б.;

O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. T. “Meriyus”. 2011. (Misollar shu manbadan olingan.)

O‘tkir Hoshimov. Sevgi qissalari. Hikoyalar va qissalar: Bahor qaytmaydi.

O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. T. “Meriyus”. 2011.

T.:2013. www.ziyouz.com kutubxonasi

Mahmud Sattor. O‘zbek udumlari. T.1993.106-b.

ESKI O‘ZBEK ADABIY TILIGA DOIR YOZMA MANBALARIDA QO‘LLANGAN TURIZM TERMINLARI

Boymanov Elyor G‘iyozovich,
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada eski o‘zbek adabiy tili davri yozma manbalarida qo‘llangan turizm terminlarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, badiiy asarlardan parchalar keltirilib, ularda qo‘llangan turizmga doir terminlar izohlangan.*

Kalit so‘zlar*: turizm,termin, sayyoh, musofir, haj, elchi, ziyorat.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лексико-семантические особенности туристических терминов, используемых в письменных источниках староузбекского литературного языка. Также приводятся отрывки из художественных произведений и поясняются используемые в них туристические термины.*

Ключевые слова: *туризм, срок, турист, путешественник, паломник, посол, паломничество.*

Abstract: *This article analyzes the lexical-semantic features of tourism terms used in the written sources of the old Uzbek literary language. Also, excerpts from literature works are given, and tourism terms used in them are explained.*

Keywords: *tourism, term, tourist, traveler, pilgrim, ambassador, pilgrimage.*

O‘zbek tili uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tdi. Shu davrlar davomida lug‘atda o‘z va o‘zlashgan qatlamga mansub so‘z/terminlar soni ortib bordi. O‘z navbatida, turizm sohasida faol iste’molda bo‘lgan so‘z/terminlar ham o‘zbek tili lug‘atni boyitishga xizmat qiladi. Keyingi davrda ilgari iste’molda bo‘lgan so‘z/terminlarning imlosi, izohi, leksik xususiyatlariga doir tadqiqotlar bazasi yaratilyapti. Natijada tilimizning naqadar qadimiy tillardan ekanligi, unda turli so‘z va birikmalar, iboralar, terminlarning ko‘pligi haqidagi ma’lumotga ega bo‘lamiz.

Tadqiqotchi olimlar A.O‘rinboyev, O.Bo‘riyevlar G‘iyosiddin Naqqoshning “Xitoy safarnomasi” asarini 1991-yilda o‘zbek tilida nashr ettirdi. Asarda Markaziy Osiyo va Xurosonning Xitoy bilan XIV–XV asrlardagi iqtisodiy va siyosiy aloqalari O‘rta Osiyoda Temuriylar hukmronligi va Xitoyda Min sulolasi (1368–1644) davriga to‘g‘ri keladi. Asardagi quyidagi ma’lumot turizm terminologiyasi uchun alohida

ahamiyatga ega: "*Elchilar va amirlar har birining oldiga ikkitadan xontaxta qo'ydilar: biriga pishirilgan go'sht, g'oz, tovuq va xitoy quruq mevalari, ikkinchisiga esa kulcha, yaxshi nonlar va qog'oz ham ipakdan ishlangan, sifatiga til ojizlik qiladigan, bag'oyat ko'rkam bir guldasta qo'yilgan; qolgan kishilardan har birining oldiga esa bittadan xontaxta*..." [1;14].

Ko'rinadiki, zamonaviy turizm sohasida bo'lgani kabi qadimda ham xalqlar o'rtasida mehmondo'stlik an'analari mavjudligini yuqoridagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Ya'ni, ushbu matnda qo'llangan "elchi" so'z/termini orqali turizm ishini tashkil etishga doir tushuncha, "pishirmoq", "go'sht", "g'oz", "tovuq", "quruq meva", "non", "kulcha" kabi so'z/terminlar vositasida gastronomik turizmga doir tushunchalar ifodalangan.

Shuningdek, sayyohlikka oid yuqoridagi kabi ma'lumotlarni Herman Vamberining "Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi" asarida ham keltirilganligini kuzatishimiz mumkin: "Bizning roviyimiz (Klavixo) – Temur saroyi ulug'vorligini avji kamolga yetgan davrida ziyorat qilib, Samarqand atrofidagi Konigul cho'lida, chodirgohda to'y paytlarida ko'rgan ajoyibotning hammasini tasvirlashdan ojizdir. Turklar har doim yengil chodirlarda umr kechirganlar, binobarin, ularning boyliklari, nomdorliklari, bezaklari bu ko'chma yurtlarda ko'zga yaqqolroq ko'rinadi".[2;50] Ushbu parchada *ziyorat, chodir, chodirgoh* so'z/terminlari sayyohlikning ildizlari O'rta Osiyo hududida, xususan, O'zbekistonning qadim tarixida muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida ko'plab jahonga mashur allomalar yetishib chiqqan. Ularning yaratgan asarlarida barcha fan sohasining muammo va yechimlari keng yoritilgan, izohlangan. Jumladan, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida safar bilan bog'liq so'z/terminlar uchraydi va bu so'z/termin matn tarkibida turli ma'no nozikliklarini keltirib chiqaradi. Masalan, musofir – safarga chiqqan, sayohatchi, yo'lchi; [3;422] biror yerda vaqtincha turuvchi ma'nolarida qo'llanadi:

Qushi anduhudard alholi tortib,
Musofir elga so'ng afg'oni tortib.

. ... va dedikim, barcha olamning musofiri bo'ldim.

Musofirlig' –safarda yurganlik:

Tushtilar bir nav' birla jam' basir,
Yo musofirlig' bila yoxud asir.

Sayyor – sayr qiluvchi, kezuvchi*:*

Hajrim tunida charxkim qoldi harakatdin,
Ey ashk, qil ul kavkabi sayyorga ma'ruz.

Sayyoh – kezuvchi, sayyohatchi, doim kezuvchi:

Yana ul vaqtqachakim, xurshid
Ko'k biyobonida bo'lg'ay sayyoh.

Sayyohi jahongard – jahonni kezuvchi jahongashta*:*

O'zluk bavodisini qad etib maqsad haramiga muhtaram bo'lmak ikkinchi sayyohi jahongard talab manozilida boshdin qadam qilib murshidi komil irshodi ...

Haj – islomda besh farzdan biri. "Makkaga borib hajarul-asvodni tavof tavof qilish: [3;759]

Va islomning bu mazkur to'rt rukni takmil toqandin so'ngra mavjuddirki, soyir haloyiqqa sharti istitoat va amin tariqdur.

Haj yo'li – Makkaga borishdagi yo'l, masofa.

... hajr shomidek tiyra va uzun, ammo g'oyati subhivisol; haj yo'lidek qattig' va yiroq, ammo nihoyatda ka'bai iqbol...

Haj safari – hajga borish:

Hayotlarning oxirida haj safari muddoasin...

Haj qilmoq – Makkaga borib Baytulloh masjidini ziyorat qilmoq: Men ellik haj qilibmen – bosh yalang va zodu hamrohsiz qildilar.

Tarixdan ma'lumki, Zahiriddin Muhammad Bobur safarni Xitoy emas, Qobul azimatidan boshladi. Bobur Mirzo safar xaritasini Movarounnahr, Afg'oniston, Pokiston, Hindiston mamlakatlari hududlari doirasida kuzatish mumkin. "Boburnoma"da bu mamlakatlarning tarixi, xalqi, ularning urf-odatlari, tabiati, nabotot va hayvonot olami haqida qimmatli, ishonchli ma'lumotlar uchraydi. Asarda mingtacha geografik nomlar, mamlakat, shahar, qishloq, ovul, cho'l, tog', dovon, dara, daryo, ko'prik, kechik, ko'l, bog', o'tloq va boshqa joylarning nomlari tilga olingan. Yuzlab geografik nomlar tarixiy va lug'aviy jihatdan izohlangan. Eng e'tiborlisi, muallif-sayyoh minglarcha ma'lumotlar, faktlar ichida yo'qolib qolmaydi. U quruq reportyor yoki voqeanavis emas. Muallif-sayyoh Bobur Mirzo o'zining o'y-kechinmalari, hayrat-u quvonchlari, alam-u iztiroblari bilan har yerda hoziru nozir. Safari davomida o'quvchisini unga notanish, noma'lum joylar, elu elatlar, ularning urf-odati, an'analari, hayvonlar, qushlar, o'simliklar dunyosi bilan tanishtirar ekan, o'z

navbatida ularga shaxsiy munosabatini, bahosini ham beradi.
Keyingi paytlarda Bobur sayohat uyushtirgan hududlarga o‘zbekistonlik olimlar ham safar tashkil etishgan. “… Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg‘armasi (1993.23.12.) Bobur ijodini o‘rganishda kata ishlarni amalga oshirdi. Jamg‘armanining ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo‘lab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortyiq masofani bosib o‘tdi. Bobur va boburiylar qadamjolari ularning ilmiy me’rosiga oid yangi ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy iste’molga kiritdi”.[4;428]

Eski o‘zbek adabiy tiliga taalluqli manbalardan Muqimiyning “Sayohatnoma” asarida keltirilishicha, sayohatlar yo‘nalishi “Qo‘qondan Shohimardonga”, “Qo‘qondan Farg‘onaga”, “Qo‘qondan Isfaraga” hamda “Isfara sayohati” shaklida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu “Sayohatnoma”da alohida olingan manzil, biror joy haqidagi ma’lumot, ta’rif umumiy tarzda berilgan. Shoir o‘z kuzatishlarini she’riy tarzda, sodda ravon tilda qisqa jumlalar bilan ifodalaydi. “Qo‘qondan Shohimardon”gacha bo‘lgan masofa oralig‘ida o‘nta joy nomi keltirilgan”.[5;58] Shulardan biri “O‘ltarma” qishlog‘i:

“O‘ltarma”ga *qildim yurish*,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Bir dam qiziq *bozor* ekan”. [6;175]

Muqimiyning murabba shaklida yozilgan “Sayohatnoma” asaridagi yuqoridagi kabi to‘rtliklarda sayohatga doir so‘z/terminlarni ko‘plab kuzatish mumkin. Yuqoridagi misralarda *yurish qilmoq, yo‘ldosh, bozor* kabi so‘z/terminlar buning yaqqol isbotidir.
Yurish qilmoq qo‘shma so‘z/termini kontekstual ma’no ifodalashga xizmat qilgan. Matnlarda ushbu qo‘shma so‘z/termin boshqa ma’no nozikliklariga ham ega. To‘rtlikda ushbu qo‘shma so‘z/termin *“O‘ltarma”ga borish uchun yo‘lga tushmoq”* ma’nosini anglatgan.
Yo‘ldosh. Yo‘lda, safarda birga bo‘lgan kishi; hamroh. Yomonga bosh bo‘lguncha, yaxshiga yo‘ldosh bo‘l. Maqol.[7; 2, 278]
Bozor [f-t.– bozor; savdo rastasi] – savdo joyining hamma uchun ishlatiladigan nomi, ko‘p sotuvchi va haridorlar mavjud bo‘lgan, ko‘pincha usti ochiq holda. [7; 1, 299] Ko‘rinadiki, “Sayohatnoma”larda qo‘llangan turizmga doir so‘z/terminlar kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sha davr hayotini gavdalantiradi, insonlar turmush-tarzi bilan yaqindan tanishtiradi.
Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti vakillaridan biri shoir, adabiyotshunos, muarrix, elshunos Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodida ham sayohat xotiralari yoritilgan asarlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Ma’lumotlarda keltirilishicha, shoir 1891-yil iyul oyida chet el sayohatiga chiqadi. Sayohati yo‘nalishi Marv–Ashxabod–Baku–Batumi–Istanbul. So‘ngra Bolgariya, Yunoniston, Balqon yarim oroli shaharlariga boradi. Arabistonga – Makka, Jidda, Madina shaharlaridagi sayohatlari taassurotlari asosida “Hajnoma” asarini yaratadi. 1892-yilda Bombayga kelib Hindistonning ko‘plab viloyatlariga sayohat qiladi. 1993-yil Yorkentga kelib turg‘un yashab qoladi. Sayohat xotiralari asosida yaratilgan asar matnlarida turizm terminlarning faol qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Xususan, “Bo‘mbaydan xat” asarida shunday jumlalarni keltiriladi:
Har kuni bu shaharni sayr aylamak bo‘ldi ishim,
Rohbar aylab gar ko‘runsa odami bekorlar.[8; 285]
Ushbu baytda *sayr aylamak* qo‘shma turizm so‘z/termini zamonaviy turizm terminologiyasida faol qo‘llanuvchi *sayr qilmoq* qo‘shma turizm terminining eski shakli sanaladi.
XIX asrning so‘nggi choragida, aniqrog‘i, 1887-yilda Is’hoqxon Ibrat haj safariga otlanadi. Keyinchalik u Sharq mamlakatlari bo‘ylab sayohatni davom ettiradi. Yevropaning Istambul, Sofiya, Afina, Rim kabi markaziy shaharlarida bo‘ladi, ancha vaqt Jidda shahrida istiqomat qiladi, Bombay va Kalkuttada yashaydi. Is’hoqxon Ibrat u yerlarda ko‘p ishlatiladigan arab, fors, hind-urdu va ingliz tillarini mukammal o‘rganadi. U 1896-yilda o‘z vataniga qaytib keladi. Sayohat natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘proq til o‘rganishi kerakligi, rivojlangan mamlakatlarga safar uyushtirish kerakligini tushunib yetadi. Sayohatlar ta’sirida o‘zga tillarni bilishga erishish uchun yoshlikdan til o‘rganish kerak ekanligini uqtiradi. Bu borada u o‘zining olti tilli lug‘atini yaratganligini ham ta’kidlash lozim. Ushbu lug‘atga sayohat davrida iste’molda bo‘lgan turizmga doir ba’zi so‘z/terminlar ham kiritilgan.
XX asr boshlarida yashab xalqqa ilm-u ma’rifat ulashgan jadidlardan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Qasdi safar” asarida: “Dengiz oynadek shaffof va sokin, havo latif, yalg‘uz ostimizda suvu ustimizda Buxorodur”, – deb taassurotlarini bo‘lishar ekan, – “Yerdagilarni Sizga musaxxar qildim, “Ollohning amri ila marokibi bahriya dengizga joriy bo‘lur” mazmunidagi oyatlar mulohaza qilinur”, [9;59] – deya “Qur’oni Karim”da safar borasida tayin etilgan oyatlarni eslatadi.

Behbudiyning safar xotiralari ta’sirida yozilgan “Qasdi safar” asaridan turizm so‘z/terminlari qo‘llanilgan quyidagi jumlalarni keltirish mumkin: “... Bir oz o‘lturdi. Istirohat etduk. Oqshom bo‘ldi. Ertag‘a Xalil ar-Rahmon ziyorati va Baytullahm sayohati uchun uchalamizg‘a dalil bir faytun kiro va bir nafar kishi qo‘shmoqchi bo‘lub, ar(o)ba uchun bay’ona oldi. Va’d az a’sho haramdan chiqib “Olter” o‘telidagi hujramg‘a yotdim”.1Zamonaviy turizmda terminologiyasida faol qo‘llanuvchi “istirohat”, “safar”, “sayohat” kabi so‘z/terminlar asarda juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi.

Istirohat [a. – dam olish, rohat qilish; tanaffus) – dam olish, hordiq chiqarish; hordiq. U [Sidiqjon] ..istirohat chog‘larida ro‘para kelgan to‘pga qo‘shilib, xursandchilik qilar.. edi. A.Qahhor, “Qo‘shchinor chiroqlari”. [7;2, 238]

Safar [a. – sayohat, sayr; biror joyga borish; marta, gal] – xizmat yo‘li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo‘l. [7; 3,460]

Sayohat [a – safar, sayr qilish; turizm] – 1) dam olish, hordiq chiqarish, dunyoni ko‘rish maqsadida qilingan safar. Kinofestival qatnashuvchilari va mehmonlari ko‘hna Samarqandga ham sayohat qilishmoqda. [7; 3, 420]

Ubaydullo Solih o‘g‘li Zavqiyning “Yangiqo‘rg‘on qishlog‘i”, “Suv janjali”, “Shohimardon sayohati” deb nomlangan she’rlari hamda “Demang” radifli g‘azali safar taassurotlari asosida yuzaga kelgan. She’rlarda safarga doir so‘z/terminlar badiiylikni oshirish bilan bir qatorda ohangdorlikni ham hosil qilishga xizmat qilgan:

Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan.
Umrida bir ko‘rgan kishi
O‘lganda bearmon ekan. [10; 65]

She’riy bandda uchraydigan “mehmon” so‘z/termini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ifodalangan ma’noga aynan mos keladi, ya’ni: Mehmon [f-t.– mehmon, tashrif buyuruvchi]. To‘y, ziyofat va sh.k. munosabati bilan yo‘qlab kelgan (borgan) shaxs. Mehmon bo‘lmoq. Mehmon qilmoq. Mehmon(ga) aytmoq. Qutidor mehmonlarni ixlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlari bilan to‘la-to‘kis davom etar edi. A.Qodiriy, “O‘tkan kunlar”. [7; 2, 586] Shuningdek, mehmon so‘z/termini bearmon leksimasi bilan ohangdorlikni, ya’ni qofiyadoshlikni hosil qilish uchun xizmat qilgan.

Cho‘lponning “Vayronalar orasidan” (1924) nomli safarnomasi real geografik marshrut: Andijon–O‘sh–Jalolobodga qilingan safar taassurotlari natijasida yaratilgan. Ushbu asarda Cho‘lponning faqat “dunyo masalalariga munosabatigina emas, shu munosabatlar orqali uning kim va qanday inson ekanligini” (I.G‘afurov) anglab boramiz. Safar davomida Cho‘lpon tajribali sayohatchidek voqealarni, ko‘rgan-kechirganlarini saralaydi, muhim deb topganlarini yozib boradi. “Biroq safarnomani faktlarning oddiygina qaydi deya olmaymiz, zero, unda faktografik va tahliliy qatlamlar yonma-yon boradi. Asar markazida turuvchi sayyoh-muallif obrazi ikki qatlamning uyg‘un birikuvini ta’minlaydi. Cho‘lpon keltirayotgan faktlar reallikdan olinganligi ayon, biroq buni naturalistik qaydlar ma’nosida tushunmaslik lozim. Faol ijodkor shaxs sifatida Cho‘lponning o‘z qarashlari, orzu-intilishlari, bir so‘z bilan, ijtimoiy-estetik ideali mavjud edi. Demakki, tanlanayotgan faktlar ham o‘sha idealga mos, birinchi galda adibning qarashlariyu xulosalarini ifodalashga xizmat qiladilar”.[11;50]

O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasi jahon turistik jarayonining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, ekspertlarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, keyingi yillarda mamlakatda turizm sohasida tub burilishlar bo‘lmoqda. Albatta, bunda qadimdan yurtimiz turizm mamlakati ekanligi, uning ildizlari yuqorida keltirib o‘tganimizdek uzoq tarixga egaligi bilan belgilanadi.

O‘zbek tili turizm terminologiyasining yuzaga kelishida tarixiy jarayonlar o‘z ahamiyatiga ega. Turizm termini paydo bo‘lmasdan, dastlab kishilarda atrof-muhitga qiziqish bilan bog‘liq ko‘plab savollarning to‘planib qolishi natijasida ularni safarga (uydan chiqib ketishga) chorlaydigan ichki his-tuyg‘u va qiziqishlar paydo bo‘lgan. Hozirgi rivojlangan jamiyatimizda ekskursiyaga, ya’ni sayohat yoki sayrga chiqmagan biror inson bo‘lmasa kerak. Ushbu sayrlarning asosiy sababchisi, tabiatdagi biologik xilma-xillik, betakrorlik, boylik, ziyorat, tijorat singarilar bo‘lgan. Hozirgi paytdagi sayohatlar asosan o‘zga yurt, mamlakatlarga borish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bugungi kunda yurtimizning turli manzillarida ko‘plab turistik obyektlar mavjud bo‘lib, turizm sohasi rivoji uchun hissa qo‘shmoqda. Bu jarayonni yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijlik turistlar tashrifi yoki yurtimiz ichki turizmi misolida ko‘rishimiz mumkin. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy obidalarga boy shaharlar bilan bir qatorda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari hududlarida joylashgan turistik resurslar turistlar uchun xizmat qilib kelmoqda. Har bir turistik hududga tashrif buyuruvchi kishi u yerda dam olibgina qolmasdan o‘z bilimlarini oshiradi, turizmga doir yangi so‘z va tushunchalarga ega bo‘ladi.

Istiqlol yillarida yurtimizda turizm sohasi yanada yuqori darajada rivojlandi. O‘z navbatida, turizm sohasiga doir badiiy adabiyotlar bilan tanishishda hamda sohada ish jarayonini tashkil etishda so‘z/terminlar izohiga ehtiyoj seziladi. Bu borada turizm terminlarining izohli lug‘atini yaratish kelgusidagi vazifalar sirasiga kiradi hamda kelajakda tadqiqot doirasida bu ish amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Ўринбоев А, Бўриев О. Ғиёсиддин Наққошнинг Хитой сафарномаси.
– Тошкент: Фан, 1991
2. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароннаҳр тарихи. Тошкент: 1990.
3. Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С.
– Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси **Б** ҳарфи. www. ziyouz. com kutubxonasi. – Тошкент, 2008.
5. Неъматова Х. Сафарнома жанри: тарихи, тараққиёти ва поэтикаси.
Ф.ф.ф.д. диссертация. –Жиззах, 2022.
6. Adabiyot. 5-sinflar uchun darslik. Ahmedov S., Qosimov B, Qo‘chqorov R., Rizayev Sh.–Toshkent, 2020.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопидияси Давлат илмий нашриёти. 2006 – 2008. 5 жилдлик. 2 жилд.
8. Фурқат. Танланган асарлар. Нашрга тайёрловчи Холид Расул. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. –Тошкент, 1975.
9. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. // “Қасди сафар”. –Тошкент, Маънавият, 1999.
10. https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-mumtoz-sheriyati/zavqiy/
11. Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. Ziyo.uz. kutubxonasi. –Тошкент: Шарқ. 2004.

OLOT TUMANI TARKIBIDAGI ETNONIM ASOSLI TOPONIMLAR TAHLILI

Axmatova Intizora Hasan qizi
NavDPI tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Toponimlar hosil bo‘lishiga asos bo‘luvchi bir necha omillar bo‘lib, bulardan biri etnonimlardir. Biz bu kichik tadqiqotimiz jarayonida Buxoro janubidagi Olot tumani tarkibidagi mavjud toponimlarning hosil bo‘lishiga asos bo‘lgan etnonimlarni tahlilga tortdik.*

Kalit so‘zla: *Etnonim, etnotoponim, Chandir, Chig‘atoy, Bayot, Chovdur, Kesakli, Xidreyli, Ochbek, Qo‘rchi, Qorovul.*

Абстрактный:*В основу топонимов входит несколько факторов, один из них – этнонимы. В ходе данного небольшого исследования мы проанализировали этнонимы, которые легли в основу формирования существующих топонимов Олотского района на юге Бухары.*

Ключевые слова: *Этноним, этнотопоним, Чандыр, Чигатой, Байот, Човдур, Кесаклы, Хидреили, Очбек, Корчи, Гаровул.*

Abstract: *There are several factors that form the basis of toponyms, one of them is ethnonyms. In the course of this small study, we analyzed the ethnonyms that formed the basis of the formation of existing toponyms in the Olot district in the south of Bukhara.*

Key words: *Ethnonym, ethnotoponym, Chandir, Chigatoy, Bayot, Chovdur, Kesakli, Hidreili, Ochbek, Korchi, Qarovul.*

Kirish. Onomastikaning yaxlit bir bo‘lagi bo‘lgan toponimika joylarni tarixiy, lisoniy, geografik va etimologik jihatdan tahlil qiluvchi fan sohasidir. Toponimlarning paydo bo‘lishi ma’lum bir sabab va qonuniyat asosida ro‘y beradi. Toponimlarning shakllanishi muayyan qonuniyatlarga amal qilgan holda aholi lisoniy imkoniyatlari va til birliklaridan kelib chiqqan holda yuzaga keladi. Toponimlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan lisoniy omillarni quyidagicha tahlil etish mumkin:

Antroponim asosli toponimlar
Etnonim asosli toponimlar
Belgi bildiruvchi so‘z asosli toponimlar
Miqdor bildiruvchi so‘z asosli toponimlar
Litonim asosli toponimlar
Gidronim asosli toponimlar

Zoonim asosli toponimlar
Fitonim asosli toponimlar
Kasb-kor atamalari asosida shakllangan toponimlar [1;50-67]
Buxoro janubiy tuman toponimlarining kattagina qismini etnotoponimlar tashkil qiladi. Etnotoponimlar urug‘, qabila, xalq nomlari asosida paydo bo‘lgan joy nomlaridir. O‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan etnotoponimlarni o‘rganish xalqimiz tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Toponimlar tasnifi yuzasidan qator ilmiy izlanishlar olib borgan T.Nafasov, Sh.Qodirova, L.Karimova va rus olimasi A.V.Superanskayaning tadqiqotlaridan kelib chiqib yetuk olim Z.Do‘simov toponimlarni leksik-semantik, struktur-tipologik va xronologik tasnif asosida tahlil qilish xulosasini beradi.[4;17-20] Leksik-semantik tasnif: etnotoponimlar, antrotoponimlar, zootoponimlar, biotoponimlar, geomorfologik toponimlar. Biz tadqiqotimiz jarayonida olot tumanidagi mavjud etnotoponimlarni tahlilga tortdik. Etnotoponimlarni o‘rganishda T.Nafasov, X.Doniyorov, N. Begaliyev, Sh.Boltayev, V.G.Darbakovalarning maqola, monografiya va dissertatsiyalari muhim manba bo‘lib hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Etnonimlar ikki ko‘rinishda joy nomiga aylanadi. Birinchisi to‘g‘ridan to‘g‘ri joy nomi ma’nosini ifodalasa, ikkinchisi, etnonimning boshqa so‘zlar bilan qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Biz shu ikkala holatni Olot tumani toponimlari misolida tahlil ostiga olamiz.

G‘anchi Chandir – Chandir etnonimi mavjud. Turkman urug‘lari tarkibidagi qabilalardan birining nomi. G‘anchi - g‘onchi so‘zining o‘zgargan shakli. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘z “tut, ipak qurti yegan tut bargi…qoldiqlari” tarzida izoh berilgan. Pillachilik bilan shug‘ullangan chandir xalqi deyish mumkin.

Bo‘ribek Chandir – Bo‘ri qipchoqlar tarkibidagi etnik guruh. Ikkala etnik nomning birikuvidan toponim nomi hosil bo‘lgan.

Kesakli – etnotoponim. Arg‘in, qo‘ng‘urot qabilalaridagi kichik etnik guruh. Urug‘ nomi qishloq nomiga asos bo‘lgan.

Chovdur – etnotoponim. Urug‘, qabila tamg‘asiga nisbatlanib nom berilgan. Chov- qush panjasi shakli, ya’ni uch chiziq bir nuqtaga kelib birlashadigan belgi. Urug‘, qabila nomidan qishloq nomi yuzaga kelgan. A.Baxodirxonning “Shajarayi turk” asarida “O‘g‘uzxonning yigirma to‘rt nabirasining ma’nolar” bobida Chavuldur nomi keltirib, quyidagicha izohlangan: “Chavuldurning ma’nosi nomusli temak bo‘lur”.[2;26]

Talqon Sayyot – Sayyot etnonim. Turkman urug‘laridan birining nomi. Tolqon – tuyilgan har qanday narsa. Ikki atamaning qo‘shilishidan qishloq nomi hosil qilingan.

Chandir – etnotoponim. O‘g‘uz lahjasida so‘zlashuvchi qabilalar tarkibidagi urug‘. Chandir Xorazm shevasida *qattiq, chidamli, pishiq* degan ma’nolarni anglatadi.

Qipchoq Qorovul – etnotoponim. Qishloq nomiga ikki etnik guruh qipchoq va qorovul urug‘larining o‘zbeklarga singib ketgan tarkibi asos bo‘lgan. “Tavorixi guzida” kitobida qipchoq so‘zi “daraxt kovagida tug‘ilgan bola” ma’nosini anglatishi yozilgan. Unga ko‘ra jangda butunlay qirilib ketgan urug‘dan bir homilador ayol tirik qoladi va u daraxt kovagida tug‘adi…Qipchoqlar, asosan, XVI asrdan boshlab O‘zbekiston hududiga ko‘chib kela boshlashgan. Qipchoq urug‘lari haqida Xudoyberdi Doniyor “O‘zbek xalqining shajara va shevalari” kitobida turli tarixiy manbalarda ular haqida keltirilgan ma’lumotlarni jamlagan.[2; 21,25]

Go‘la Qorovul – etnotoponim. Go‘la - tarixi yaxshi o‘rganilmagan urug‘ nomi. Ikkala urug‘ning o‘zaro birlashuvidan tarkib topgan qishloq.

Yuqori Olot – etnotoponim. Arlot urug‘i nomidan kelib chiqqan. Qishloqning joylashgan hududini inobatga olsak Yuqori Olot tarixiy Eloti Bolo qishlog‘ining hozirgi talaffuzga moslashgan shakli.

Bo‘ston – fors-tojik tilidan bog‘-rog‘li joy, daraxt ekib ko‘kartirilgan, obod qilingan maskan. Bundan tashqari bo‘ston, bo‘sto‘n, bo‘sto‘nchi umumturkiy etnonimi mavjud.

Zargarqayroq – etnotoponim. Zargar va qayroq urug‘lari vakillari kelib o‘rnashgan qishloq. Qorako‘l vohasiga kelgan qo‘ng‘urotlar tarkibida qayroq urug‘i vakillaribo‘lgan. Tarkibi: zargar+qayroq

Yuqori ko‘k ko‘z – etnotoponim. Urug‘ nomi. Qo‘ng‘urotlar tarkibidagi ko‘kko‘z urug‘i nomidan kelib chiqqan. Qishloq ikkiga bo‘lingan: yuqori ko‘kko‘z va quyi ko‘kko‘z. Qoraqalpoqlarda hozir ham ko‘kko‘z urug‘i mavjud.

Pichoqchi – etnotoponim. Qipchoqlar tarkibida pichoqchi, bichoqchi urug‘i bo‘lgan. Ular o‘rta asrlarda Zarafshon daryosining quyi oqimiga kelib o‘rnashganlar. Urug‘ nomi esa ularning kasb-koridan kelib chiqib qo‘yilgan. Respublika bo‘ylab 24 ta Pichoqchi nomli toponim mavjud.

Ochbek – etnotoponim. Qishloq Ochbek Xidreyli nomi bilan ham ataladi. X-XI asrda saljuqiylar tarkibida bo‘lgan xidreyli urug‘ining bir tarmog‘i.

Xidreyli – etnotoponim. Turkman urug‘laridan birining nomi.[8;138] Xizr eli urug‘ining talaffuzda o‘zgargan shakli.

Qo‘rchi – etnotoponim. Muhammad Shayboniyxonni taxtga chiqishini qo‘llab-quvvatlagan ijtimoiy guruh. XV-XVI asrlarda siyosiy-ijtimoiy jarayonlar tufayli Qorako‘l vohasiga kelib o‘rnashishgan.

Arabxona – etnotoponim. O‘zbekiston hududida eng ko‘p uchraydigan toponimlardan biri. Qorako‘l vohasining o‘zida Arabxona, Arablar, Arababdal, Arabon kabi toponimlar mavjud. Respublika bo‘ylab Arabxona nomli toponim 92 tani tashkil qiladi. Arablarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi VII-XIV asrlarga to‘g‘ri keladi. Arabxona – arab urug‘lari yashaydigan joy.[5;45]Tarkibi: arab+xona

Qassobbayot – bayot-etnonim. Qadimiy turkiy o‘g‘uz urug‘laridan birining nomi. Qishloq nomi bayot urg‘iga mansub kishilarning kasb-koridan kelib chiqib vujudga kelgan. Olot tumanida Kattabayot, Bahrinbayot kabi qishloqlar ham mavjud,

Bahrinbayot – etnotoponim. Toponimning har ikkala qismi turkiy urug‘lar nomlaridir. Turkiy o‘g‘uz urug‘lariga mansub bahrinlar o‘zlarini bayotlarning bir bo‘lagi deb hisoblashgan.

Chig‘atoy – etnotoponim. Chingizxonning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga tegishli ulus shu nom bilan atalgan. O‘zbekistonning turli hududlarida shu nomli toponim mavjud. Shuningdek, 14-16-asrlarda adabiy til, chig‘atoy tili bo‘lgan.

Ko‘l Chovdur – etnotoponim. Ko‘l bo‘yida yashovchi chovdur urug‘i ma’nosi anglashiladi.

Bo‘ralang eski – etnotoponim. 1926-yildagi aholini ro‘yxatga olishda qishloq nomi Bo‘rilang tarzida qayd etilgan. Bo‘ri qipchoqlar tarkibidagi etnik guruh. Eskilar tarixi yaxshi o‘rganilmagan o‘g‘uzlashgan etnik guruh. Bo‘rolon ya’ni bo‘ri olgan shaklining talaffuzda o‘zgargan shakli.

Xulosa. Etnik urug‘larning ayrimlari yaxlit holatda, ba’zi birlari esa qo‘shimchalar va boshqa so‘z qo‘shilmalari yordamida toponim nomiga aylangan. Olot tumani tarkibida tahlil qilingan etnotoponimlar respublikaning boshqa hududlarida ham uchraydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. Monografiya. –Toshkent, Navro‘z, 2020. – B. 106-107

Абулғозий. Шажарайи турк. –Т.:Чўлпон, 1992. – Б.192

Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Т.: Наврўз,
2017. – Б.8.

Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – 1-сон. – Б. 17-20.

Ғайбуллаев С. Қоракўл воҳаси тарихий топонимлари атласи. Тошкент, Lesson Press нашриёти, 2021 йил 190 бет

Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. – Т.: Муҳаррир, 2009. – Б. 45

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.

To‘rayev H. Buxoro toponimikasi. Darslik. 143-bet.

ABDURAUF FITRATNING “SHE’R VA SHOIRLIQ” MAQOLASIDA QO‘LLANGAN AYRIM SO‘ZLARNING TAHLILI HAQIDA

Usmonova Shahnoza Erkinjonovna
Namangan xalqaro universiteti
"Ijtimoiy gumanitar fanlar" fakulteti “Boshlang‘ich ta’lim va o‘zbek tili” kafedrasi o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasining boyishida beqiyos xizmat ko‘rsatgan jadid, tilshunos olim - Abdurauf Fitratning ”She’r va shoirliq” maqolasi tahlili haqida bo‘lib, unda ona tilimizning rivojida olimning qo‘shgan hissasi, o‘zbek adabiy muhitining shakllanish bosqichlari va adibning bunga bo‘lgan munosabatini misollar orqali yoritib berilgan.*

Аннотация: *Данная статья посвящена анализу статьи “Поэзию и поэт” Абдурауфа Фитрата, лингвиста, оказавшего несравненную услугу обогащению лексики узбекского языка на примерах поясняются этапы и отношение к ней писателья.*

Annotation: *This article is about the analysis of the article ”Poem and the poet ”, in which the scholar's contribution to the development of our mother tongue, in which our jadid, Abdurauf Fitrat, a linguist who has rendered incomparable service to the enrichment of Uzbek lexicon, the stages of formation of the Uzbek literary environment and the writer's attitude to it are illustrated by examples.*

Kalit so‘zlar: *Sarf, nahv, shoirliq, ”Chig‘atoy gurungi”, ”Ishtirokiyun”, ”johiliyat shoirlari”, leksika, eskirgan so‘z, neologizmlar, manzum va mansur she’rlar, sodda yasama so‘z, arabcha va forsiycha so‘zlar.*

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar , islohotlar amalga oshirilayotgani sir emas . Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy,madaniy- ma’rifiy sohalarga, ilm-fan tarmoqlariga zamonaviy yondashuv, ayniqsa, texnika va til sohalariga ham innovatsion yondashuv masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ona tiliga muhabbat, sadoqat, tilimiz sofligini saqlash, o‘zbek tili rivojiga munosib hissa qo‘shish maqsadida ”Milliy dastur” ishlab chiqildi. Dasturning tub g‘oyasi , mohiyati tilimizni rivojlantirish , jahonda o‘zbek tili nufuzini oshirish, xalqimiz orasida nutq madaniyatini o‘stirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning :”Milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot ravnaqiga unutilmas hissa qo‘shgan olim-u fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi qoldirgan ilmiy, adabiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o‘rganish zarur”, [1;112] - deya aytgan chaqiriqlari, albatta, 1-o‘zbek tilshunos professori, jadid adabiyoti namoyondasi Abdurauf Fitrat merosini ham jiddiy o‘rganishimiz uchun turtki bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmas.

O‘zbek tilini puxta o‘rganish bugungi kundagi eng muhim masalalardan biridir. O‘z navbatida milliy tilni chuqur o‘zlashtirish, uning adabiy manbalari tilini maxsus tadqiq etish tilshunoslik fanining asosiy vazifalaridandir. Shu ma’noda turli davrlarda yaratilgan yetuk ijodkorlar asarlari tilini milliy til manbayi sifatida chuqur o‘rganish, unda qo‘llangan har bir so‘zning bosh lug‘aviy va ko‘chma, ya’ni matniy ma’nolarini aniqlash, so‘zning eskirishi, fonetik, grammatik, leksik arxaiklashishi, davrlar o‘tishi bilan ma’noning kengayishi yoki torayishi, yangi ma’no kasb etishi, asar ruhiyatiga xos ijodkor ichki tuyg‘ularini tushunish kabi til bilimi bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asoslash muhim tadqiqotlardan biridir.

Ijodkorning turli mavzuga bag‘ishlangan badiiy asarlarida badiiylikni oshirish, shu bilan birga o‘quvchida real tasviriy holatni ko‘z oldida gavdalantira bilish, emotsional – bo‘yoqdor soz’lardan foydalanish, turli sohalarga oid so‘z va terminlarni soha mutaxassisi darajasidan ham ortiq o‘ziga xos uslubda adabiy til normasi sifatida tasvirlay olish so‘z san’atkoridan katta mahorat talab etganligini ko‘ramiz.

Jadidimiz Abdurauf Fitratning barcha ilmiy va badiiy asarlarida hayotning turli jabhalariga taalluqli bo‘lgan so‘z va terminlar ijodkor uslubiga xos o‘z uslubini topgan. Bu esa, albatta, yozuvchining dunyoqarashi bilan bog‘liq kuzatuvchanlik, turli sohalarga bo‘lgan qiziquvchanlik, ayniqsa, ilm olish va o‘zlashtirish g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan ijtimoiy, tabiiy sohalarga nisbatan chuqur mulohazakorligidan darak beradi. Haqiqatdan ham Fitrat asarlarida oddiy xalqning barcha sohalarda o‘zaro munosabatlari, shuningdek turli toifadagi insonlar hayotida ro‘y bergan hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar tafsiloti ijodkor tafakkurida chuqur joy olganligi hech kimni hayratga solmay qolmaydi. [2; 4]

O‘zbek adabiy tilining bugungi taraqqiyot darajasi uning tarixiy-tadrijiy rivojlanish bosqichlari bilan belgilanadi. O‘zbek tilining boyish jarayonlarini kuzatish badiiy asarning til va uslub xususiyatlarini diaxronik va sinxronik aspektda o‘rganish tilshunoslik fanining hozirgi kundagi dolzarb mavzularidan biridir. Badiiy , ilmiy asarlar tahlili jarayonidagi barcha tilga xos yangiliklarni e’tirof etib borish orqali o‘zbek tilining boyish jarayonlarini ham kuzatamiz. Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqib Abdurauf Fitrat asarlari tilini tadqiq etishda quyidagi masalalarga to‘xtalib o‘tilishini lozimligi sezildi:

1. Abdurauf Fitrat asarlari tili leksikasini hanuzgacha to‘liq o‘rganilamagan.
2.XX asrning 1-choragida o‘zbek adabiy tili xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan adibning barcha mavzudagi asarlari leksikasini o‘rganish o‘zbek tili taraqqiyotining o‘ziga xos jihatlarini yoritish uchun ahamiyatlidir.
3.Jadidchi olimning ilmiy va badiiy asarlarida falsafiy, axloqiy, ta’limiy mushohadalar yoritilgani bois, xalqning o‘sha muhitdagi dunyoqarashi, e’tiqodi, milliy urf-odatlari, tafakkuri haqida ma’lumot beruvchi manba ekanligini ham ta’kidlash kerak.
4. Yozuvchi asarlarida o‘zbek adabiy tilining to‘liq shakllanish jarayonlarini aks ettiruvchi leksik birliklar, shevaga oid nutqiy o‘zgachaliklar, adib tomonidan hosil qilingan o‘ziga xos uslubdagi, ayniqsa, eski o‘zbek adabiy tiliga xos birliklarning faol ishlatilishi ko‘riladi.

Abdurauf Fitrat asarlari tili leksikasini maxsus o‘rganishda quyidagi masalalarni yoritish ko‘zda tutilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi:

1) barcha asarlari haqida umumiy ma’lumot berish;
2) asarlari tili leksikasini o‘rganishning o‘ziga xos tamoyillarini belgilash;
3) adibning o‘ziga xos so‘z qo‘llash uslubini aniqlash;
4) badiiy asaridagi ekspressiv – bo‘yoqdorlik til birliklarini tahlil etish;
5) asar tilida eskirgan, arxaiklashgan, yangilangan so‘zlar semantik taraqqiyotini aniqlash:
6) asar leksikasini tematik guruhlarga ajratish.

Abdurauf Fitrat badiiy ijod va ilmning juda ko‘p sohalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan birinchi o‘zbek professor tilshunosidir. Uning adabiyotshunoslikka oid ”Adabiyot qoidalari”, ”Eng eski turk adabiyoti namunalari” asari; tilshunoslikka oid ”Tilimiz”, ”Sarf” va ”Nahv” singari asarlari o‘zbek tili va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ilmiy ishlari sifatida e’tirof etiladi.[2;4] Uning asarlarini tilshunos va adabiyotshunos olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan va hali ham o‘rganishda davom etilmoqda. Biz ham ushbu maqolamizda olimning ba’zi ilmiy asarlarida til siyosati haqida bildirgan fikrlariga to‘xtalib o‘tishni maqsad qilganmiz. Ma’lumki, Abdurauf Fitrat yashagan davr XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda rus tili va jadidchilarning sa’y-harakati tufayli olib kirilgan dunyoviy fanlar ta’sirida tilimizda keskin burilishlar yuzaga kelgan. Ya’nikim, tilimizda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar va ularning kirib kelishi ta’sirida lug‘at tarkibimizning boyishini kuzatamiz. Aynan shu hodisalarni Fitrat asarlari misolida ko‘rib chiqishni ma’qul topdik. Buning uchun biz uning ”She’r va shoirliq” nomli maqolasini tanlab oldik.

Adibning ”She’r va shoirliq” maqolasi 1919-yilda ”Chig‘atoy gurungi” dasturi yo‘nalishida yozilgan bo‘lib, dastlab ”Ishtirokiyun” gazetasida 1919- yilning 24-25-26-oktyabrda e’lon qilingan. Maqola ikki qismdan iborat. Mustaqilligimizdan so‘ng ham maqolaning qayta nashri ayrim qisqartirishlar bilan 1993-yil ”Turkiston”, 1996- yil ”Muloqot” gazetalarining 4-sonida chop etilgan. [2;317] Biz ushbu ilmiy ishimizda maqolaning ilk nashrini asos qilib oldik. Asarda o‘zbek adabiy muhitini davrlashtirilgan:

1.Arab istilosigacha bo‘lgan davr adabiyoti, ya’ni eski turk adabiyoti. Fitrat bu davrda ham turk adabiyoti, jumladan she’riyati rivoji sezilarli darajada gullab-yashnaganini e’tirof etgan:

”Turklar Oltoy tegrasinda madaniyat qurib, hukumat yasab, tinchgina yashab turg‘anda arablarning Arabistondag‘i hollarini, ehtimolkim, o‘zlari ham bilmas edilar. Madaniy bir ulusning she’rsizlig‘in so‘ylamak esa, gapurub turg‘an bir kishining jonsizlig‘ina ishonmoq kabi kulinchdir. ”Turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong‘li bir bir kun kechirganlar”. Mana bu so‘zni qabul qildikmi, ”Turklarning musulmonliqdan burun ham she’rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi” demakdan o‘z boshimizni qutqara olmaymiz. O‘zbek, totor, qirg‘iz, turkman orasinda turk odi kabi unutilmas bir yo‘sunda bu kungacha yashab kelgan cho‘bchaklar, matallar, ertaklar, o‘lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz...” [3;4]

Adib hattoki, arablar istilosi sabab turklarning asl adabiy muhiti yo‘qolganini ham katta taassuf bilan qayd etadi:

” Esiz, minglarcha esizkim, arab kelgani sababli eski turk adabiyotining buyuk va baholi izlari so‘lindi, yo‘qoldi-ketdi. Ziyrak, tirishg‘an, chidamli, ongli har ishning ketini tushungan arablar qaysi o‘lkani bosib olg‘onda eng ko‘p shul o‘lkaning eski dini, eski tili, eski bitiklari, eski asarlarini bitirurg‘a tushar edilar. Biz turklar arab bosqini bilan o‘z harflarimiz va o‘z yozuvimizni yo‘qotg‘andan keyin o‘z adabiyot va she’rlarimizdan ham ayrilishimiz tabiiy edi. Mana shul ayrilish sababli ko‘b kerakli narsalarimizni yo‘qotdik. Eski adiblarimizning she’r va shoirliq to‘g‘rusuda qanday yo‘llari, qanday qarashlari bor edi, bunlarni bilmaymiz. Bunlar yo‘qolg‘an, qo‘limizdan chiqg‘andir. Eski turk adabiyoti to‘g‘rusuda ochiq va yetarlik bilgilarimiz yo‘qdir.” [3;4]

2.Arablar istilosidan keyingi davr adabiyoti. Ushbu davrni olimimiz adabiyotimizning ”ikinchi bo‘limi” deb atab, bu vaqtdagi adabiyotni ”musulmonliqdan boshlanadir”, deb aytib ketgan va bu davr haqida quyidagicha fikr yuritgan:

”Adabiyotimizning bu bo‘limi uchun kerak bo‘lg‘an negizlar va tamallarni bizga Eron orqali arablar yuborg‘onlar. Biz musulmonliqdan so‘ng adabiyot yo‘llarini iyaruchiliqdan sira qutultira olmag‘anmiz, adabiyot yo‘llarindag‘i bu iyaruchilig‘imizning (taqlidchilik) ko‘zga ko‘rinur yerlarini chizib o‘taylik...” [3;5]

Fitrat o‘z fikrlarini arablar istilosi natijasida adabiyotimizda erishilgan yutuqlarni ham ta’kidlab sanab o‘tib, eng avvalo, aruz vaznining keng qamrovli bo‘lganiga e’tibor qaratgan: ”Turk shoirlarining musulmonliqdan so‘ngra qabul qilg‘an vaznlari tubda arab vaznidir. Eronlilar bu vaznni arablardan qabul etib olg‘andan keyin o‘z she’rlarini o‘ynoqi va nazm ruhig‘a ko‘ra o‘zgartkanlar, isloh etkanlar. Bu kun bizning oramizdag‘i ”vazn” shul eronlilar tomonidan o‘zgartirilgan vazndirkim, arab vaznindan biroz ayirmasi bordir...” [2;9]

Bu davr adabiyoti haqida gapirganida tilimizga arab va fors tillaridan juda ko‘p leksemalarning o‘zlashganini, shu sababli ham she’rlarimiz shu tildagi so‘zlar bilan boy holda yozilganini aytgan. Navoiy davriga kelib shoirlik maqomining ko‘kka chiqqanin, lekin she’rlar asosan fors tilida bitilganini quyidagicha izohlagan: ” Yaxshigina pishirilg‘an palovdan bir o‘g‘iz olib hordiq bilan chaynab turishlik kishining tishig‘a tosh tekib qolsa kayfi qanday qochar? Yot bu so‘zg‘a uchrag‘an turkning ham kayfi shuyla qochadir. ”Turkniki” deb o‘qib turgan she’rida yot so‘zg‘a uchrab, kayfini qochirg‘an boyaqish turk turkcha so‘zlardan ham bir-ikisining gavdasini buzuq ko‘rgach, u she’rdan bezadir...

Forsi(y)cha she’r so‘ylarg‘a berilg‘an ko‘b turk shoirlari bor. Ularning bu ishlari uchun ko‘b sabablar ko‘rsatiladir. Biroq menga ul sabablarning birinchisi, Eron vaznidan tug‘ilgan shul qabohatdir”. [2;11]

”She’r va shoirliq” maqolasida Fitrat turkiy so‘zlarni ko‘proq ishlatishga harakat qilganini yuqoridagi asar parchalari misolida ham ko‘rsak bo‘ladi. Bundan tashqari maqolada o‘zbek tilining o‘sha davrga xos jozibasini ko‘ramiz. Unda ishlatilgan takrorlanmas so‘zlar, badiiy tasviriy ifodalarning rang-barangligi ko‘zni quvontiradi. Maqolada arab,fors va rus tili ta’sirida kirib, tilimizda o‘zlashib qolgan yoki so‘z yasovchi qo‘shimchalar ta’sirida yangi paydo qilingan bir qancha so‘zlar bilan bir qatorda juda faol ishlatilgan o‘sha davr uchun ham eskirish alomatlari sezila boshlagan so‘zlarni ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan:

”Turk ulusi o‘z borlig‘ini ochung‘a ko‘rsatkali she’r va shoirliqni bilibg‘ina kelganlar”. [2;9]

Ushbu gapda ”ulus” so‘zi ”xalq”, ”ochun” so‘zi ”dunyo” ma’nosida kelgan. O‘sha davr uchun bu ikki so‘z iste’moldan deyarli chiqib arxaik so‘zlar qatoriga qo‘shilgan edi.

”Fundurg‘ruhich” posho derkim: ”Usmonli nafarlari asru urushg‘on erurlar, buni har kim biladir”. [2;10]

Bu misolimizda ”Fundurg‘ruhich” so‘zi nemis generali , usmonli turklar orasida uzoq ishlagan Fundurgorevich so‘zining adib tomonidan ”o‘zbekchalashtirilgan” variantini anglatadi. Uning sharqshunos sifatida ham ishlari borligi fanga ma’lum.

”Arablarning chin va tabiiy shoirlari bo‘lg‘on johiliyat shoirlari esalar, she’rni bu ma’no bilan onglamag‘an edilar”. [2;7]

Bu gapda ”johiliyat shoirlari” so‘zi yangi so‘z sifaitda ilk bor Fitratning shu maqolasida ishlatilganini e’tirof etmoq darkor. Olim ”johiliyat shoirlari” termini orqali islomgacha o‘tgan arab shoirlarini nazarda tutgan.

”She’r iki turlidir: manzum she’rlar, mansur she’rlar. Tizma so‘zlar bilan she’r so‘ylamak bo‘lg‘ani kabi sochiq so‘zlar bilan ham she’r so‘ylamak bo‘lar. Sochiq she’rlar uchun ”vazn” va ”qofiya”ning teyishligi bo‘lmasa ham so‘zlarning hunarlicha bo‘lishi teyishlidir”. [2;8]

Navbatdagi ushbu misolimizda o‘sha davrda arab tilidan kirgan so‘zlarning yaxshigina ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. ”Manzum” ”tizim” degan, ”mansur” esa ”sochim” degan ma’nolarda kelganini yozuvchining o‘zi ham ta’kidlab , izohlab ketgan. Bunga sabab manzum va mansur so‘zlarining o‘sha davr tiliga yangi o‘zlashgan so‘z sifatida kirib kelganligidir. ”Hunarlicha” so‘zi esa o‘sha davr uchun so‘z yasovchi qo‘shimcha yordamida yasalgan yangi so‘z hisoblanadikim, olim bu so‘zni ikki o‘rinda ikki ma’noda qo‘llab, ko‘p ma’noli so‘z ekanligini ham ta’kidlab ketgan. Yuqoridagi misolimizda ”san’atkorona” degan ma’noda qo‘llangan bo‘lsa,yana bir o‘rinda ”xizmatkarona” degan ma’noda kelgan : ” Shoir tegrasindag‘i narsa va hodisalardan oldig‘i sezgilarni hunarlicha so‘zlar bilan boshqalarning boshqalarg‘a o‘tkarmakchi bo‘ladir”.

”Kishining yuragi qancha ”sezag‘on” esa, shuncha yaxshi shoir bo‘lar”. [2;7]

Bu misolimizda ”sezag‘on” so‘zi ham yangi yasalgan sodda yasama so‘z hisoblanib, hozirgi ”mutaxassis” so‘zining ayni muqobilidir.

”Turkman, qirg‘iz ellarindag‘i navras kishilari, kichkina bolalar, o‘quv, yozuv bilmag‘an xalq qizlarining so‘z ustaliqlari borlig‘ini bilib turamiz”. [2;5]

Bu yerda qo‘llangan ”navras” so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ”o‘spirin” ma’nosini beradi.

Fitratning bu maqolasida yuqoridagi kabi misollarni ko‘plab uchratamiz. Uning tilimiz rivojlanishi uchun qo‘shgan bunday sa’y-harakatlarini e’tirof etmaslikning iloji yo‘q, albatta. Kelgusi ilmiy ishlarimiz (maqola)da uning yana boshqa asarlarida ham ishlatgan yangi, eskirgan yoki zamonaviy so‘zlarini, o‘z va o‘zlashma qatlam (olinma) so‘zlardan unumli foydalanganligini tahlil qilish orqali olimning asarlaridagi leksik-semantik xususiyatlariga yana bir bor to‘xtalib o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. ”Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.Toshkent. 2008, 112-b.
2. H.Boltaboyev.Abdurauf Fitrat (Tanlangan asarlar). Toshkent. ”Ma’naviyat” 2009, 4-5-6-7-8-9-10-11-317-b.
3. ”Muloqot” gazetasining 1996-yil 4-soni. 4-5-b.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA LIRIK DISKURSNING O‘RGANILISHI

Nurimova Diyora
PROFI university Navoiy filiali o‘qituvchisi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada diskurs tushunchasi haqida so‘z boradi. Uning shakllanishi hamda jahon tilshunosligida o‘rganilishiga oid ma’lumotlar keltiriladi. Lirik diskursning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *diskurs, tahlil, lirik diskurs, tilshunoslik, tadqiqot, nutq, matn, adabiyot, diskurs tilshunoslik.*

Аннотация:*Эта статья о понятии дискурса. Представлены сведения о его становлении и изучении в мировой лингвистике. Анализируются виды и особенности лирического дискурса.*

Abstract: *This article is about the concept of discourse. Information about its formation and study in world linguistics is provided. The types and specific features of lyrical discourse are analyzed.*

Key words: *discourse, analysis, lyric discourse, linguistics, research, speech, text, literature, discourse linguistics.*

Yurtimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yangiliklar, islohotlar hamda innovatsiyalar amalga oshirilmoqda. Bu o‘zgarishlar bevosita ona tilimiz rivojiga, tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlar ko‘payishiga, lingvistik yo‘nalishlarning kengayishiga imkoniyat bermoqda. Darhaqiqat, lingvistika bugungi kunda statik lingvistika, dinamik lingvistika, diaxron lingvistika, sinxron lingvistika, intralingvistika, ekstralingvistika, pralingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya singari ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Tilshunoslikning bu kabi yo‘nalishlari bevosita o‘z tadqiq obyektlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ana shunday tilda o‘rganiladigan birliklardan biri diskursdir.

Diskurs istilohi o‘tkan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikka kirib keldi. Diskursga har qanday og‘zaki yoki yozma ko‘rinishdagi matnni emas, balki psixologik, ijtimoiy-madaniy, sotsiopragmatik omillar bilan uzviy bog‘langan insonlarning o‘zaro ta’siri va ularning kognitiv jarayonlarida ishtirok etadigan birlik sifatida qaraladi. U bir mavzu yoki masala bahsidan yoki fikrlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan muloqot shakli hamdir. U o‘z ichiga turli xil nazariy fikrlarni, ilmiy qarashlar hamda tushunchalarni qamraydi. Pragmatik jihatdan esa bu istiloh 8 xil ma’noda qo‘llaniladi:

1)so‘z muqobili;
2)frazalardan o‘lchovi bo‘yicha ortadigan birlik;
3)nutq vaziyati hisobga olingan holda fikrning adresatga ta’siri;
4)suhbat;
5)nutqda so‘zlovchi pozitsiyasi;
6)lisoniy birliklardan foydalanish;
7)fikrning ijtimoiy yoki mafkuraviy cheklangan turi;
8)matn hosil bo‘lish shartlarini tadqiq etishga mo‘ljallangan nazariy qurilmalar. [1]

Shu o‘rinda diskursiv tahlil tarixiga nazar solish lozim. Nutqni ilmiy tahlil qilish tilshunoslikda ikki xil yo‘sinda olib borildi. Birinchisi, har xil tillarda yaratilgan og‘zaki matnlarni yozib olish va tahlil qilishga asoslangan etnolingvistik tadqiqotlar an’anasi. Ushbu an'ananing eng taniqli vakillari qatoriga Frants Boas asos solgan Amerika etnolingvistika maktabi kiradi. Ikkinchisi, bu Vilem Matsius tomonidan tashkil etilgan chex tilshunoslik maktabi bo‘lib, mavzu va matnni kommunikativ tashkil etish kabi tushunchalarga qiziqishni kuchaytirdi.

Diskurs atamasi birinchi marta 1952-yilda Zellig Xarris tomonidan qo‘llanilgan. Biroq nutqni diskursiv tahlil qilish asosan 1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda Evropa matnshunoslik maktabining mashhur vakillari (T. Van Deyk, V. Dressler, J. Petofi va boshqalar) va diskursiv tadqiqotlarni an'anaviy lingvistik mavzular bilan bog‘laydigan fundamental Amerika tilshunoslari (V. Labov, J. Grimes, R. Longueykre, T. Givon, V. Chafe) o‘z ilmiy izlanishlarini olib bordilar.1980-1990 yillarga kelib, umumlashtiruvchi asarlar, ma’lumotnomalar va darsliklar paydo bo‘ldi. Masalan, “*Nutqni tahlil qilish”* (J. Braun, J. Yul, 1983), “*Ijtimoiy harakatlarning tuzilmalari: Uydagi muloqotni tahlil qilish bo‘yicha tadqiqotlar*” (muharrirlar - J. Atkinson va J. Heritage, 1984), “*Diskursiv tadqiqotlar”* (J.Renkema,1993), ikki jildli asar “*Diskurs tadqiqotlari: fanlararo kirish”* (T. Van Deyk tomonidan tahrirlangan, 1997).

Adabiy matnlarda diskurs jahon tilshunos olimlari tomondan to‘rt turga bo‘lib tahlil qilinadi: bahs, tavsif, tushuntirish va hikoya [2]. Shuningdek, adabiy asarlarda ham musiqada uchraydigan lirik nutqning yana bir necha turlari mavjud:

1.Hikoya lirikasi. Lirik nutqning bu turi voqea yoki hodisani hikoya qiladi. Odatda, lirikada aniq syujet hamda xarakterlar mavjud.

2.Tasviriy lirika. Lirik nutqning bu turi predmet, joy yoki vaziyatni visual tasvirlashga qaratilgan. Tinglovchi yoki o‘quvchi ongida kuchli obraz yaratish uchun ijodiy va badiiy tildan foydalanadi.

3.Reflektiv lirika. Lirik diskursning bu turi kimningdir fikrini, his-tuyg‘ularini yoki shaxsiy kechinmalarini ifodalash uchun ishlatiladi. Go‘zal va emotsional tildan foydalanish orqali yozuvchi va kitobxon o‘rtasida hissiy aloqa o‘rnatiladi.
4.Siyosiy yoki ijtimoiy lirika. Lirik diskursning bu turi ijtimoiy yoki siyosiy masalalar haqida xabarlar yoki fikrlarni yetkazish uchun ishlatiladi. Jamiyatda bu masalalardan xabardorlikni oshirish va tushunish uchun ijodiy tildan foydalaniladi.
5.Sevgi lirikasi. Ushbu turdagi lirik nutq romantik hamda melonkolik muhit yaratish uchun muhim sanaladi.
Bular adabiy matnlarda uchraydigan lirik diskurslarning ayrim turlaridir. Har bir tur yozuvchi va o‘quvchi oldida turli maqsad va ta’sir ko‘rsatadi.

Lirik turdagi asarlar asosan kichik hajmli bo‘ladi va biror voqea-hodisa ta’sirida insonda paydo bo‘lgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali hayotni aks ettiradi. Shoir lirikada ayrim shaxsning bevosita hayotiy kechinmasini beradi, bu bilan lirik asarda xarakter va kechinmani individuallaslatiradi. Shu bilan bir qatorda, ijodkor lirik asarda faqat o‘z fikri, his-tug‘ulariniglna emas, balki umuminsoniy lipik kechinmalarni ham ifodalaydi. Demak, badiiy adabiyotda lirik diskursning o‘rni nihoyatda katta. Badiiy matnda ma’lum bir syujet yoki tasvir shoir, yozuvchi tomonidan bayon qilinar ekan, muallif tomonidan lirik diskursning ma’lum bir turiga murojaat qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi. Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog‘liq til birliklarining lingvomadaniy tahlili. Ilm sarchashmalari Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali. 2021-yil, 11-son.
2.https://www/supersummary.com/discourse-in-literature-definition-examples/

NAVOIY ASARLARIDAGI SO‘ZLARNING O‘ZBEK O‘G‘UZ SHEVALARIDA ISHLATILISHI

Sa’dullayeva Mohira Sobirovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
1-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: *Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalari bilan qiyoslanib, so‘zlarning lug‘aviy tomoni tahlil qilingan.*
Tayanch so‘zlar: *ko‘pma’nolilik, sinonim, sheva, ko‘chma ma’no, polisemantik, arxaik.*

Annotation*: The words used in the works of Alisher Navoi are compared with the current Uzbek literary language and dialects, and the lexical aspect of the words is analyzed.*
Key words*: polysemy, synonym, dialect, figurative meaning, polysemantic, archaic*

Аннотация: *Анализируется словарный запас слов, использованных в произведениях Алишера Навои, путем сравнения их с современным узбекским литературным языком и диалектами.*
Ключевые слова*: многозначность, синоним,диалект, переносное значение, полисемантический, архаичный.*

O‘zbek adabiyotiga benazir hissa qo‘shgan Alisher Navoiy o‘zining ijodi jarayonida o‘zbek tilining benihoya boy va go‘zalligini o‘z asarlari bilan isbotlab berdi. Oradan olti asr o‘tgan bo‘lsa-da, Navoiyning asarlari o‘z qimmatini yo‘qotmagan holda, yanada serjilo va yangi qirralari bilan kitobxonlar o‘ziga maftun etmoqda. Navoiy davrida qo‘llangan so‘zlar oradan ancha vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining hozirgi tilida va shevalarida saqlanib qolganini kuzatishimiz mumkin. Ularni o‘zbek shevalarida uchraydigan quyidagi misollarda ko‘rib chiqamiz:
Kaj so‘zi Navoiy asarlarida *egri, qingir* ma’nolarida qo‘llangan:

Ishq aro ko‘nglung tuzatkim, rost solg‘ay aks yor.
Ko‘zgu egri bo‘lsa, solur aksini ruxsor *kaj*.

(Xazoyin-ul maoniy, IV.125.)

O‘zbek tili izohli lug‘atida ham ushbu so‘z *egri, qing‘ir* ma’nosida keladi. O‘zbek tilining Xorazm o‘g‘uz shevalaridagi lug‘atlarda *kaj* so‘zi ma’nosi *qiyshiq; qaysar, o‘jar* ma’nolarida izohlangan (Urganch, Xiva).

Buxoro o‘g‘uz shevalarida bu so‘z *kam, oz* kabi ma’nolarni ifodalaydi. Ko‘rinib turibdiki, *kaj* so‘zi mazmuni o‘zicha saqlangan va ma’nosi ba’zi shevalarda kengaygan.

Zamzama so‘zi Navoiy asarlarida *mayin ovoz, ohista ovoz, nag‘ma; jo‘r bo‘lish* ma’nosida ishlatilishi qayd etiladi:

Chun o‘qimoq *zamzamasi* bo‘ldi bas,
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas.

(Hayrat-ul abror. 31-11.)

O‘zbek tili izohli lug‘atida *g‘o‘ldirash, past ovozda kuylash* ma’nosini bildiradi. O‘zbek xalq shevalari lug‘atida *dabdaba, tantana* ma’nolarini bildiradi. (Qashaqadaryo).

Zamzama so‘zining Navoiy davridagi ma’nosi saqlangan va ma’lum ma’noda shevalarda boshqa ma’nolari ochilgan.

Mar so‘zi Navoiy asarlarida "sanoqni ko‘rsatadigan, ya’ni yuz mingga teng, lak" ma’nosini bildiradi:

Magarki angladi xumsul-muborak asrorin,
Ki soni bu adad o‘lmish, agarchi yuz *mardur*.

(Xazoyin ul-maoniy, Ilb-713.)

O‘zbek xalq shevalarida ushbu so‘z shakldosh bo‘lib, birinchisi *shart* ma’nosini ifodalasa, ikkinchisi *zarur* ma’nolarida uchraydi (To‘rtko‘l). *Mar* so‘zining ma’nosi o‘zgarib, faqat ba’zi shevalarda saqlanganligini ko‘rsatish mumkin.

O‘zbek shevalarida faol qo‘llanadigan *dav* so‘zi Navoiy asarlarida ko‘p ma’noli vazifani bajargan.

1.yugurish; navbat:

Gar falak sayridur istar seni aylab taku *dav*,
Var malak zikrin eshitsang sanga der mahdu sano.

(Xazoyin-ul maoniy, I.59.)

2. Qimor o‘yinida qo‘yiladigan pul, tavakkal qilish ma’nolarida ishlatilgan:

Jonni bir *dav* ila gar xasta Navoiy o‘ynar,
Ul muqammir sifat albatta erur g‘ash sari.

(Xazoyin-ul maoniy, Il.635.)

O‘zbek tili izohli lug‘atida *dav* so‘zining I. dev, jin; katta; II. bor-yo‘g‘i, barcha bisoti kabi ma’nolari izohlangan. O‘zbek xalq shevalarida tuhmat; katta baquvvat ma’nosida uchratishini kuzatamiz (Sayram, Chimkent). Shuningdek, Buxoro va Xorazm o‘g‘uz shevalari lug‘atlarida navbat, tartib kabi ma’nolarda ishlatiladi. Ko‘rib o‘tganimizdek, *dav* so‘zining ba’zi ma’nolari saqlanib qolgan, ba’zi ma’nolari yo‘qolib ketgan va ba’zi yangi ma’nolari yuza kelgan.

Ninak so‘zi Navoiy asarlarida *kiprik* ma’nosini anglatadi:

Emas bu xolki ko‘z orazingg‘a yetganda,
Olibdurur yopishib ayni shavqdin *ninagim*.

(Xazoyin-ul maoniy, I.418.)

O‘zbek xalq shevalarida *ko‘z qorachigi* ma’nosida qo‘llanadi. Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlarining tojik shevalari ta’sir qilgan o‘zbek shevalarida kuzatiladi. Ushbu so‘z ma’nosi o‘zgargan holda shevalarda saqlanib qolgan.

Kelib chiqishi asl turkiy so‘z bo‘lgan *egarmak* so‘zi Navoiy asarlarida *aylantirish, o‘girish* ma’nosini ifodalagan:

Xiromi o‘rga chiqmoqta tutundek,
Egarmak vaqti dasht uzra quyondek.

(Farhod va Shirin, 27.)

O‘zbek xalq shevalarida "egarmak" so‘zi "ergashmoq" ma’nosida keladi (Xorazm). *egarmak* so‘zi ba’zi o‘zbek shevalarida ma’nosi o‘zgargan holda saqlanib qolgan bo‘lsa, hozirgi kunda Buxoro o‘g‘uz shevalarida Navoiy davri ma’nosida qo‘llangan holati aynan saqlangan.

Aslida fors-tojik tilga xos bo‘lgan *pesh* so‘zi Navoiy asarlarida *old* ma’nosini anglatadi:

Gar falak hirgoyi bo‘lsa *peshi* xonang, ne osig‘,
Umr xayli chunki kundin-kunga kelmas ilgari.

(Xazoyin-ul maoniy, Ill.591.)

O‘zbek tili izohli lug‘atida ushbu so‘z *old, oldinda; avvali; yonida* ma’nolarini bildirishi qayd etiladi. Xorazm shevasida esa *pesh* so‘zi *mehmonxona* ma’nosida qo‘llansa, Buxoro o‘g‘uz shevalarida *pesh* so‘zi *sabab, bahona* kabi ma’nolarida ishlatilib, bu so‘z vaqt o‘tishi bilan ma’nosi kengayganini ko‘rishimiz mumkin.

Tarixi hind tillarga borib taqaladigan *jo‘gi* so‘zi Navoiy asarlarida "lo‘li" ma’nosida qo‘llanadi:

Filotung‘a yuzlandi ul yerga ish,

Ki *jo‘gidin* o‘lg‘ay anga sarzanish.

(Saddi Iskandariy, 272- b.)

Adabiy tilda yoga ta’limotining izdoshi (yoga - sanskritcha "qo‘shilish, birlashish"), *lo‘li* ko‘chma ma’noda *ayyor, hiylagar* ma’nolarida qo‘llanadi. O‘zbek xalq shevalarida esa *jo‘gi* so‘zi *lo‘li* (Buxoro); *ayyor, hiylagar, aldoqchi* (Xorazm) ma’nolarida ishlatiladi. Mazkur so‘zning ham ma’nosi kengayganini ko‘ramiz.

O‘zbek adabiy tilda *bezak, ziynat* ma’nolarini ifodalovchi *zevar* so‘zi Navoiy asarlarida o‘rinlarda uchratishimiz mumkin:

Mehnat tunidin fasona ovar,
Bu qissag‘a bo‘yla taqi *zevar*.

(Layli va Majnun, 67a 11.)

O‘zbek tilining Qarshi shevalarida bu so‘z *savat* ma’nosida qo‘llanadi. Bu so‘z bugungi kungacha ma’nosi o‘zgargan holda ba’zi shevalar orqali yetib kelgan. Hozirda bu leksema o‘g‘uz lahjalarida ko‘proq shaxs nomlarini bildiruvchi atoqli otlarda sifatida qo‘llanadi.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida *inak* so‘zi ilk bora tilga olinib, *sigir* ma’nosida qo‘llanishi qayd etiladi. Navoiy asarlarida bu so‘z qayd etilgan ma’nodan tashqari *endi, keyin, so‘ngra* (yordamchi so‘z) kabi ma’nolarda kelish hollari mavjud.

U dediki, avval ko‘nglungni sahv va g‘alatdin mujarrat qil va havodin nafsingni lag‘vdin ilingni, *inak* tajarrut hosil bo‘ldi.

(Nasoyim ul-muhabbat, XV.235.)

O‘zbek shevalarida *sigir* ma’nosida, asosan, Quyi Zarafshon vohasi, Qashqadaryo va Xopazm o‘g‘uzlari shevalarida qo‘llaniladi. Navoiyda asarlarida qo‘llangan ikkinchi ma’no vaqt o‘tishi bilan diaxronik holatga kelib iste’moldan chiqqan.

"Malax" so‘zi Navoiy asarlarida "chigirtka" ma’nosida kelgan:

Kelib anjuman adadlig‘ borgohi,
Vale mo‘ru malax yanglig‘ sipohi.

(Farhod va Shirin, 65.)

O‘zbek tili izohli lug‘atida ham "malax" so‘zining "chigirtka" ma’nosida qo‘llanishi berilgan. O‘zbek shevalarida ham bu so‘z chigirtka ma’nosini saqlab qolgan. Mazkur so‘z Buxoro o‘g‘uz shevalarida qayd etilgan ma’nodan tashqari *ajina, shayton* ma’nolarni yuzaga keltirgan.

Navoiy ijodida ushraydigan *jubba* so‘zi polisemantik ma’noda qo‘llangan. 1.bo‘yi, yengi uzun keng to‘n:

Yana uch to‘qqiz davlat arkoniga,
To‘nu *jubba* birla aning yonig‘a.

(Saddi Iskandariy. 278a17.)

So‘zning bu ma’nosi yaqin o‘tmishgacha faol qo‘llanib, hozirgi kunda o‘zbek adabiy tili va shevalarida arxaiklashib bormoqda.

2. Alisher Navoiy asarlarida harbiy janglarda kiyadigan kiyim ma’nolarida qo‘llanish hollari ham uchraydi:

Jubbasi yo‘q erdi chun kim ko‘rdilar,
Qalbni gin ostida o‘turdilar.

(Lison ut-tayr, 48-13.)

So‘zning bu ma’nosi butunlay is’temoldan chiqqan. O‘zbek adabiy tilida "keng yengli ustki kiyim" ma’nosida tushuniladi. O‘zbek shevalarining o‘g‘uz lahjasida "bolalarning paxtalik choponi" ma’nosida qo‘llanadi.

Xulosa qilganda, Alisher Navoiy qo‘llangan so‘zlarning aksariyati hozirgi kunda o‘zbek adabiy tili va shevalarida saqlanib qolgan. Shu sababli ijodkor ijodida uchraydigan qimmatli so‘zlar maxsus tadqiqotlarni kutib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

Навоий Алишер. Муҳокаматул-луғатайн. / Асарлар.Ўн беш жилдлик. 14-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1967. – Б.103 – 132.111.

Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари. II луғат. Хоразм шеваларининг таснифи. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1961. – 348 б.

3. Абдуллаев Ф. Қарноқ шевасининг фонетикасидан//Ўзбек тили ва адабиёти, 1965. – №6. –Б.16–22.

4. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент: Фан, 1978. –144-б.

5. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: 2008. 62-bet.

6. Аразкулыев С. Говоры туркмен Турткулского района Каракалпакской АССР. Автореф.дисс… канд.филол.наук. – Ашгабат, 1962. – 30 сах.

7. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1981. 44-бет;

LEKSEMA VA UNING MA'NOLARI
(T.MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" QISSASI MISOLIDA)

Abdurahmonova Gulira'no G'aybidin qizi
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek tili va adabiyot fakulteti 2-kurs talabasi

Imamova Gulnora Talibovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada leksikologiyaning obyekti bo'lgan leksema va uning uzual va okkozional ma'nolarining badiiy imkoniyatlari ilmiy-nazariy tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *leksik ma'no qirralari, sema, uzual ma'no, okkozional ma'no, bosh ma'no, hosila ma'no ,denotativ ma'no, konnotativ ma'no, aloqadorlik,lug'aviy ma'no,lingvistik birlik*

Annotation: *In this article, the lexeme, which is the object of lexicology, and the artistic possibilities of its unique and occasional meanings are scientifically and theoretically analyzed.*

Key words*: edges of lexical meaning, sema, common meaning, occasional meaning, primary meaning, derivative meaning, denotative meaning, connotative meaning, relation, lexical meaning no, linguistic unity*

Til inson uchun nafaqat aloqa aralashuv vositasi, balki tahlil obyekti hamdir. Tilshunoslikka doir keyingi ilmiy tadqiqotlarning ijobiy samarasi natijasida ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan bugungi zamon kishisi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning turli jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turlarida o'zbek tilidan bemalol-erkin, samarali va to'g'ri foydalanish imkoniyatiga egadir. "Leksik ma'no leksemaning mazmun planidagi yaxlit bir sematik butunlik bo'lsa-da, keying vaqtlarda bu butunlik tarkibida ma'lum ma'no qismlari – semalar borligi aniqlanmoqda"[82] Subektiv bahoni ifodalashda usual, okkazional ma'noning o'rni va ahamiyati muhimdir.

Okkazionallik ma'nolari quyidagi usullar bilan hosil bo'ladi:

1. Aloqadorlik asosida ma'no ko'chirish, ya'ni elliptik ma'nolar okkazional ma'no sanaladi. Masalan: Siyobga bordik (Samarqand viloyatidagi Siyob bozori nazarda tutilyapti).

2. Sifatlovchi birikmalarni ixchamlashtirish orqali okkazionallik ma'nosini hosil qilish. Masalan: Nuroniyning borgan sari qadami sekinlar, yuraklari hapqirar edi. "Nuroniy" sifatlovchisi odamga nisbatan ishlatilgan, odam so'zi yoki kishi nomi tushirib qoldirilgan. Sifatlovchi aniqlovchilar orqali okkazional uzual ma'no hosil bo'lgan.

3.O'xshatish tipidagi qurilmalar ixchamlashtirilganda uzual okkazional ma'no hosil bo'ladi. Masalan: Burgut changaliga dosh berolmas yov. "burgut changali"-mard, kuchli, jasur, qo'rqmas, dadil, pahlavon yigit ma'nosida ishlatilmoqda. Diaxron lingvistikasi fanda shvedsar olimi Ferdinard de Sossyur tomonidan ilk bor ilmiy- nazariy tadqiq qilingan bo'lsa, uzual okkazionallik atamasi va nazariyasi ilk bor tilshunos olim N.I.Feldman tomonidan qo'llangan. Okkazional so'zi lotincha "occosinalis" so'zidan olingan bo'lib, "tasodifiy" degan ma'noni anglatadi. "Okkazional" atamasi "uzual" terminiga qarama- qarshi qo'yiladi. "Uzual" so'zi lotincha "urf-qoida", "qo'llash", degan ma'nolarni anglatuvchi, ma'lum til vakillari tomonidan qo'llash uchun qabul qilingan so'zlardir. G.Paul nomli tilshunos olim birinchilardan bo'lib, hosila ma'noni uzual va okkazional ma'noga ajratib o'rgangan.

Uzual ma'no leksemaning mazmun mundarijasida bor bo'lgan leksik ma'nodir. U til egasi bo'lgan xalq tomonidan tan olingan, barcha uchun tushunarli bo'lgan ma'no hisoblanadi». Misol uchun, daraxt leksemasi, tana qo'yib, shox va novdalar chiqarib, tomir otib o'sadigan ko'p yillik o'simlik: Daraxt shoxlarida iliq tomchilardan seskanib uyg'ongan go'dak kurtaklar tabassum qiladi.[83]

- Okkazional ma'no leksemaning tildagi ma'nosiga xos bo'lmagan, ayrim kishining yoki muallifning nutqiy vaziyatdan kelib chiqib, shu leksema mazmuniga yangicha "shakl", "tus" berishi natijasida yuzaga keltirilgan sun'iy ma'nodir, ya'ni osonroq qilib tushuntiradigan bo'lsak, umuman bir-biriga, aloqada tub burulish hosil qilgan leksemalar hisoblanadi.

Uzual va okkozional ma'nolar Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasi misolida tahlil qilamiz:
Primitiv, primitiv! Intellektuallik!

---

[82]. Sh.Raxmatullayev – Hozirgi adabiy o'zbek tili Toshkent "Universitet" – 2006 (77-bet)

[83].Javlon Jurayev. O'zbek tilining izohli lug'ati. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti

Intellektuallik problemalar **ko‘tarilib**, ijobiy hal qilinmagan!
Yuqoridagi matnda ko‘tarmoq so‘zining “aytilib, gapirib” ma’nosida kelayotganligini anglash qiyin emas. Aslida, bu ma’no ko‘tarmoq leksemasining mazmun mundarijasida yo‘q va asar muallifining uslubiy maqsadda kashf etgan leksik qo‘llashidir.
Oldimizdan ariq **keldi**. Oyoqni **ildim**. Tarlonni ariqdan sapchitdim. Matndagi “ildim” leksemasiga e’tibor beramiz. Ma’nosi “sakradim, uzatdim” tushunchalari anglashilyapti.
Bir-birovingni yomon gap bilan so‘kma-ikki! Qamchi bilan **solma**-uch! Yiqilgan chavandoz ustiga ot **solma** – to‘rt! Ot qochganda ushlashga yordam ber – besh! Ol, xa – ol!
Bu matnda e’tibor bergan bo‘lsak, “solma” leksemasi ikki marta qo‘llangan va har ikkalasida ham okkazional ma’no anglashilyapti. Bunda birinchisidan, “urma”, ikkinchisidan esa “yurgazma” degan ma’nolarni anglash qiyin emas.
Tongni ko‘z yummay **oqladim**. Ertalab tarlonni suvlatmadim. Matnda “oqladim” leksemasi okkazional ma’nodir. Bu so‘zning ma’nosi, “orttirdim, o‘tkazdim” demakdir. Muallif leksemalarni badiiy ifodalash maqasadida nutqiy vaziyatiga ko‘ra tabiiylikni ifodalash uchun okkazional ma’nolarga yuzlanmoqda.
Leksemalarning ma’nolari: denotativ ma’no, bosh ma’no va konnotativ (hosila) ma’no,uzual ma’no bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Bu holatni biz Tog‘ay Murodning asaridan chetga chiqmagan holda davom ettiramiz. Denotativ ma’no har qanday shaxs tomonidan leksemaning (so‘zning) faqatgina bir (bosh) ma’nosi tushunilishi, talqin qilinishidir. “Bu to‘g‘ri ma’no, nominativ ma’no va erkin ma’no sanaladi”[84]. Endi shu tartibda uzual ma’no bilan bog‘liqligiga e’tibor qarasak, **gul** leksemasining ma’nosi “o‘simlik sifatida ekiladigan bir qancha turning umumiy nomi”. Bunday ma’noda ham til egasi bo‘lgan xalq tomonidan tan olingan. “gul” leksemasi ham hamma uchun tushunarlidir, yoki boshqa bir misol keltirsak, **tuzatmoq** leksemasi – “o‘ziga xos xususiyatlarga ega harakat”, u harakatga ishora qiladi, bu esa denotativ ma’noni yuzaga chiqaradi. Tuzatmoq leksemasining mazmun mundarijasida quyidagi leksik ma’nolar mavjud:
«mashina, chiroq va shu kabilarni soz qilmoq» (lampochkani tuzatmoq, motorni tuzatmoq, dazmolni tuzatmoq kabi); Ziyodullo kal otning egar – jabduqlarini **tuzatdi**.
«kasallikdan sog‘aymoq, oyoqqa turmoq» (rak tuzatmoq, shamollash tuzatmoq kabi); Fayzulla otdagi bu kasallikni tekshirib kerakli choralarni qildi, ammo **tuzata** olmadi.
«to‘shak, kitob, kiyim kabilarni taxlamoq» (ko‘ylak tuzatmoq, dasturxon tuzatmoq, kitoblarni tuzatmoq kabi); O‘rtoq Qurbonov stol ustidagi fayllarni tuzatdi. Bu leksik ma’nolar uzual ma’noni yaratdi.
Tuzatmoq leksemasining bosh ma’nosi esa “biror narsani, predmetni sozlash, tartiblash, taxlash” ma’nosining shakllanganidan hosil bo‘ladi.
Bosh ma’no o‘z navbatida hosila ma’noni tasvirlashda muhim rol o‘ynadi. Hosila ma’no va konnotativ ma’no o‘zaro bir-biriga chambarchas bog‘liq.
Hosila ma’no bosh ma’nodan taraqqiy etib chiqqan ma’nodir. Masalan, yuqorida keltirilgan gul so‘zining hosila ma’nosi «go‘zal, xushbo‘y, sohibjamol» dir. Bu ma’no ayrim kishilarning shakl – shamoyilini, yuz ifodasining gulga o‘xshatish, nisbatlash orqali (metafora nisbatlash bilan) yuzaga keltirilgan; «Bahor malikasi» ko‘rik tanloviga bu gullar o‘zgacha joziba baxsh etdi. Yuqoridagi birlik orqali **gul** leksemasining konnotativ (hosila) ma’nosi ifodalangan.
“So‘zning hosila ma’nosi kontekst talabidan kelib chiqib, ko‘chma, majoziy, bog‘li ma’nolar degan nomlar bilan ham ataladi”[85].
Konnotativ ma’noga yuzlanamiz. Bu ma’no so‘z yoki ibora kontekstga qarab egallangan, ifodali yoki qo‘shimcha ma’nodir. So‘zlarning konnotatsiyasidan foydalanish badiiy adabiyotda, badiiy asarlarda o‘zgachalik, so‘zning ma’nov (ottenkalari) qirralarini ochib berishda, og‘zaki so‘zlashuv uslubida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nutqiy muloqotda nutqning tasirchanligini, jozibadorligini ifodalashda keng foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

H.Jamolxonov – Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent “Talqin” – 2005
Sh.Raxmatullayev – Hozirgi adabiy o‘zbek tili Toshkent “Universitet” – 2006
Javlon Jo‘rayev – O‘zbek tilining izohli lug‘ati O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. “Davlat ilmiy nashriyoti”.
Abduvahob Madvaliyev – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi “Davlat ilmiy nashriyoti”.

[84]. Abduvahob Madvaliyev O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘z.Milliy.Ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti – 2006-2008 (181-bet)
[85]. Sh.Raxmatullayev – Hozirgi adabiy o‘zbek tili Toshkent “Universitet” – 2006.

T.Murod “Ot kishngan oqshom” Qissa. ZIYONASHR.Toshkent – 2019
Иванова.Ж.Ю. «Структурно-семантические и функсиональные особенности окказионализмов В.Высочкого» Москва «Исткуство» 2010.стр.86.
2. Аржанов.А. «Закон есть закон» журналист-Москва 1968.№3. стр20-21.
3. Hayitov Hamza Ahmadovich. “literary influence and artistic image.” Экономика и социум 8 (2019): 3-5.
4. Ahmadovich Hayitov Hamza. “Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam.” European Journal of Life Safety and Stability (2666-9630):14(2022):101-105.

NUROBOD TUMANI OYKONIMLARI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Sevara Suyunova Xasan qizi,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti
filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya*: Maqolada toponimlarning yuzaga kelishida asos bo‘lib xizmat qiluvchi omillar, ularning turlarga ajratilishi va shu turlar bo‘yicha Nurobod tumani oykonimlarining guruhlarga bo‘linishi bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *oykonim, tabiiy-geografik oykonimlar, Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.*

Аннотация*: В статье описаны факторы, послужившие основой возникновения топонимов, их классификация по типам, а также разделение топонимов Нурабадского района на группы по этим типам.*

Ключевые слова: *регион, природно-географический район, социально-экономический район.*

Abstract*: The article describes the factors that serve as the basis for the emergence of toponyms, their classification into types, and the division of toponyms of Nurabad district into groups according to these types.*

Key words*: region, natural-geographic region, socio-economic region.*

Kishilar oq-qorani tanib tirikchilik qila boshlashibdiki, tevarak-atroflaridagi yerlarni, daryo-ko‘llarni, tog‘lar-u qir-adirlarni, o‘tloq-yaylovlarni ma’lum bir nom bilan atab kelganlar. Dastlabki toponimlar oddiy turdosh otlardan farq qilmaydigan sodda nomlar edi. Atrof tabiiy muhiti haqidagi tasavvur kengayib, bir buloqni ikkinchisidan, bir o‘tloqni boshqasidan, yaqindagi tepalikni narigisidan farqlash ehtiyoji tug‘ila boshladi. Shundan so‘ng *Kattabuloq – Kichikbuloq, Qiziltepa – Ko‘ktepa, Tuyayaylov – Echkiyaylov* singari murakkabroq joy nomlari paydo bo‘lgan. Ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar grammatik va semantik jihatdan murakkablasha borgan. Hali yozuv paydo bo‘lmagani sababli ibtidoiy zamondagi geografik nomlar bizgacha yetib kelmagan.

Odamlar tevarak-atrofidagi o‘zlariga tanish kichik hududdagi joylarni “Baliq tutiladigan ko‘l”, “Sel keladigan soylik”, “Qo‘y qirilgan yaylov”, “Cho‘chqali soy” kabi butun bir gaplardan iborat so‘z birikmalari bilan ataydilar.

Konkret geografik obyektlarni ifodalaydigan bunday so‘z birikmalari va turdosh otlar ko‘p bo‘lmaganidan bora-bora atoqli otlarga aylanadi. [6; 3]

Manbalarni o‘rganar ekanmiz, biror so‘zning toponimga aylanishi sabablarini, yana ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, aynan qanday so‘zlar toponim sifatida saqlanib qolishini ham ko‘rishimiz mumkin. T.Nafasovning “Qishlog‘ingiz nega shunday ataladi” asarini o‘rganish jarayonida joy nomlarining ko‘p qismi urug‘ nomlaridan kelib chiqqanining guvohi bo‘ldik. Jumladan, unda Qaraman, Bag‘ish, Chinoz, Olchin, Tayloq kabi joy nomlari keltiriladi. Qabila nomlariga esa, aksariyat hollarda, hayvon yoki qush turini bildiruvchi so‘zlar asos bo‘lgan. Bu esa turkiy xalqlarning eng ibtidoiy totemik tasavvurlari va qarashlari bilan bog‘liq. Masalan, Bag‘ish qishlog‘i shu nomdagi qabila yashagan joyga nisbatan nomlangan. Bag‘ish so‘zi esa X-XI asrlarda bug‘u ma’nosini anglatgan. Shuningdek, Chinoz – bo‘rilar, Uyaz (Uyas) – chivinlar, Kepayit – qarg‘alar kabi toponimlarni keltirishimiz mumkin.

Shu bilan birga aholining kasb-koriga nisbatan ham joylar nomlanishi hodisasi kuzatiladi. Ayoqchi – yog‘ochdan kosa, qadah yasovchi ustalar yashaydigan joy, Dukchi – duk (urchuq) yasaydigan ustalar istiqomat qiladigan joy, Zingaron – egar yasovchi ustalar yashagan joy, G‘o‘zabozor – upa-elik tayyorlaydigan kishilar istiqomat qiladigan joy ma’nosini ifodalaydi.

Shunday toponimlar mavjudki, ularning dastlabki shakli vaqtlar o‘tishi bilan o‘zgarishlarga uchraganligi sababli uning ma’nosini xato talqin qilish holatlari uchrab turadi. Xususan, *Kitob, Beshterak, Beshqozoq,*

Uchqiz, Yettiqiz, Yetimqiz, Jinnidaryo, Jilikoʻl, Baliq kabi toponimlarni keltirishimiz mumkin. *Kitob* nomi aslida *kat* va *ob* qismlaridan tashkil topgan hamda **suv boʻyidagi qoʻrgʻon** maʼnosini anglatadi. *Beshterak, Terak* kabi nomlarimizda esa *terak* soʻzi aslida *tarinuk, terinuk, terinak, teranuk* shaklida boʻlib, qaynab chiqadigan suv, buloq suvi maʼnolarini bildirgan. Lekin shakli oʻzgarishi natijasida notoʻgʻri xulosalarga ham sabab boʻlmoqda. Beshqozoq nomiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, qozoq soʻzi qozoq millati maʼnosini ifodalamaydi. Bu soʻz qaz va -uq qismlaridan iborat, qazilgan joy, yaʼni anhor, ariq, kichik kanal maʼnolarini ifodalaydi. *Uchqiz, Yettiqiz, Yetimqiz* toponimlari tarkibidagi qiz soʻzi ham qoya, choʻqqi, balandlik; togʻning soya tushmaydigan joyi kabi maʼnolarni bildiradi. Yetimqiz nomi yolgʻiz tepa maʼnosini anglatadi. *Jinnidaryo, Jilikoʻl* gidronimlari tarkibidagi *jili* hamda *jinni* indikatorlari bir paytlar *yoʻlli* shaklida boʻlib, vaqtlar oʻtgani sayin shu koʻrinishga kelgan. Bu indikator *qurimaydigan suv yoʻli* degan maʼnoda qoʻllangan, asosan buloqlardan suv oladigan daryo, koʻl kabilarga nisbatan qoʻllangan.

Geografik nomlar bir necha turlarga boʻlinadi. Bular: ***gidronomiya*** (yunoncha gidro –***suv),*** yaʼni daryolar, koʻllar, dengizlar, soylar, kanallar, qoʻltiqlar, boʻgʻozlar, sharsharalar nomlari; ***oronimiya*** (yunoncha oros – ***togʻ***, yaʼni yer yuzasining relyef shakllari – togʻlar, choʻqqilar, qirlar, vodiylar, tekisliklar nomlari; ***oykonimiya*** (yunoncha oykos – ***uy), polinimiya*** (yunoncha polis – ***shahar)*** yoki ***urbanonomiya*** (lotincha urbos – ***shahar),*** yaʼni qishloq hamda shaharlarning nomlari, ***mikrotoponimiya*** (yunoncha mikros – ***kichik),*** yaʼni kichik obyektlar: buloqlar, quduqlar, dalalar, oʻtloqlar daraxtzorlar, jarlar, yoʻllar, koʻpriklar va hatto atoqli otga ega boʻlgan ayrim daraxtlar nomlari. Bundan tashqari, turli xalq, urugʻ-aymoq nomlari bilan atalgan toponimlar ***etnotoponimlar*** (yunoncha etnos – ***xalq)*** deyiladi. Kishi ismlari bilan yuritiladigan toponimlarni esa ***antropotoponimlar*** (yunoncha antropos –***odam)*** deb atash mumkin. [6; 5]

Maʼlumki, oykonim deganda, shahar, qishloq, ovul va boshqa aholi punktlari tushuniladi. Oʻzbekiston oykonimlarining umumiy soni 25-30 mingga yetgan. Bunday katta miqdordagi toponimlarni ilmiy tahlil qilish oson emas. [6; 51]

Biz mazkur maqolada Nurobod tumanidagi baʼzi oykonimlarga eʼtibor qaratdik. Nurobod tumani hududida jami 95 ta umumiy qishloq nomlari mavjud boʻlib, maqolada ularning ayrimlari haqida mulohaza yuritildi.

Qishloq-shaharlar nomlarini ayrim-ayrim oʻrganishdan koʻra, ularni guruh-guruhlarga boʻlib, tasniflash va tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Aholi punktlari nomlarini asosan 2 yirik guruhga boʻlish mumkin:

1 .*Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar.*

2. *Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar.*

1. *Tabiiy yoki tabiiy-geografik oykonimlar* deganda, suv obyektlari nomlariga, joyning geomorfololik shakllariga, oʻsimlik-hayvon nomlariga va boshqa tabiiy-geografik sharoitga qarab atalgan aholi punktlari tushuniladi;

a) gidrooykonimlar, yaʼni suv obyektlariga qarab atalgan aholi punktlari nomlari tarkibida *anhor, nahr, ama, ariq afdoq, bodoq, buloq, gurillovuq* («sharshara»), *daryo, joʻy, joʻybor, joʻyak, kanal, koriz ~ keriz, koʻl, mashat — bashat, ob, roʻd, roʻdbor, sardoba, sel, soy, suv, tagob, chashma, sharshar (sharshara, sharloq, sharillovuq), oʻzak, qoq, quduq* kabi atamalar uchraydi. [6; 52] Nurobod tumanida ham mana shunday qishloq nomlarini koʻplab uchratishimiz mumkin. Jumladan, ***Toshquduq, Jarquduq, Boshquduq, Qoʻshquduq*** toponimlari tarkibida *quduq*; ***Oqsoy, Kattasoy*** nomlari tarkibida *soy*; ***Hovuzbuloq, Tovoqbuloq, Olchabuloq, Yoʻrgʻabuloq, Buloqboshi*** nomlari tarkibida buloq; ***Egrikoʻl, Sarikoʻl*** nomlari tarkibida koʻl indikatori ishtirok etadi. Aholi punktlari suv bor joydan barpo etiladi. Qishloq va shaharlaming ariq-soylar bilan atalashi ham shundan. Respublikamizda *ariq, buloq, koʻl, soy, suv, quduq* kabi atamalar aholi punktlari nomlari tarkibida 50 martadan 100 martagacha takrorlanadi;

b) orooykonimlar, yaʼni relyef shakllari nomlarini bildiradigan oykonimlar tarkibida adir, bel, dara, dahana, doʻng, jar – yor, kamar, koʻtal, tall, tepa, teva, tosh, togʻ– tov, chosh, oy, qapchigʻay, qoʻton, qiya, qir, qum kabi atamalar (indikatorlar) qayd qilinadi. Jar termini 60 martadan koʻproq, tosh atamasi esa qariyb 100 marta takrorlanadi. Bu borada tepa atamasi “rekord” qoʻygan; buning asosiy sababi shundaki, urugʻ–aymoq maʼnosida toʻp – toʻpa – toʻba atamasi jonli tilda tepa boʻlib ketgan (masalan, Doʻrmontoʻpa, Naymantoʻpa Doʻrmontepa, Naymantepa shaklini olgan). [6; 53] Nurobod tumani hududidagi Koʻktepa, Imomtepa, Tepalik, Tepaqoʻl nomlari tarkibida tepa; Toshquduq, Koʻktosh, Oqtosh nomlari tarkibida tosh; Omondara toponimi tarkibida dara indikatori mavjud;

v) fitooykonimlar, yaʼni oʻsimlik nomlari bilan atalgan oykonimlar tarkibida yovvoyi oʻsimliklardan *ajriq, archa, bodom, bodomcha, burgan, doʻlana, lola, pista, soʻksoʻk (saksovul), turangʻi, shilvi, shuvoq, evalak, erman, yulgʻun, jingʻil, yantoq, qamish, gʻumay; madaniy oʻsimliklardan anjir, anor, arpa, beda, bodom, gujum jida – jiyda, lola, olvoli, olma, paxta, pista, tarvuz, tariq, terak, tol, tut, uzum, shaftoli, qovoq, qovun* kabilar nomlari uchraydi. [6; 53] Biz oʻrganayotgan hududda ham bunday nomlar koʻpchilikni tashkil etadi. Masalan, ***Olchabuloq, Gʻallakor, Xazarmali, Yakkatut, Tutli, Jiydali, Gʻarovli, Anjirli, Uzumli,***

Olmazori, Beshtol, Daraytut, Dalabog‘, Bog‘shamol, Yakkabog‘ kabi joy nomlari ayni shu usulda hosil qilingan;

g) Zootoponimik oykonimlar — hayvon nomlari bilan atalgan aholi punktlari. Bunday oykonimlar tarkibida *ayg‘ir, baliq, bahrin, bedana, biya, burga, burgut, buvra, bug‘ra, bo‘ri, do‘lta (“sirtlon”), ilon — jilon, karp, laylak, malax (tojikcha, tumanday yopirilib keladigan chigirtka galalari), ot, tuya, chag‘a, chigirtka, chovli, shag‘ol, echki, eshak, qarsak, qarchig‘ay, qarg‘a, qulon, g‘ajir (g‘ajimoq-fe’lidan o‘limtikxo‘r beso‘naqay qush, tasqara* ham deyiladi) kabi nomlar uchraydi. [6; 55] Masalan, Qo‘chqorli, Qarg‘ali kabi toponimlarni keltirishimiz mumkin.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy oykonimlar kishilarning xo‘jalik faoliyatini, mehnat taqsimotini ko‘rsatadigan qadimgi kasb-hunar nomlari bilan bog‘liq joy nomlari hisoblanadi. [6; 56] Nurobod tumani hududida G‘allakor toponimini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, P.G‘ulomov hamda M.Mirakmalovlarning “Toponimika va geografik terminshunoslik” asarida toponimlarning paydo bo‘lishini o‘n ikki turga ajratadi. Bu bo‘linish ko‘proq geograflar uchun ma’qul deb ta’kidlab o‘tilgan. Biz esa Nurobod tumani toponimlarini shu turlar bo‘yicha ham taqsimlashga harakat qildik.

Joyning geografik o‘rniga bog‘liq holda paydo bo‘lgan nomlar. Masalan, Yuqori
Ulus, Quyi Sho‘rcha, O‘rta Sho‘rcha, Temiryo‘l orti singari.

2. Ayrim geografik nomlar o‘sha joyning, geografik obyektning o‘ziga xos xususiyatlaridan paydo bo‘ladi. Bunday nomlar orasida relyef shakllariga bog‘liq nomlar ancha ko‘p uchraydi. Kattasoy, Ko‘ktepa, Yo‘rg‘abuloq, Sariko‘l kabi joy nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. Suv bilan bog‘liq nomlar (gidronimlar). Okean, dengiz, daryo, ko‘l, muzlik, buloqlar nomlari gidronimlar deyiladi: Olchabuloq, Boshquduq, Toshquduq singari.

4. O‘simliklarga bog‘liq nomlar (fitonimlar). Uzumli, Anjirli, G‘arovli, G‘allakor, Tutli, Jiydali, Daraytut kabi nomlarda uchraydi.

5. Hayvonlarning nomi bilan bog‘liq joy nomlari (zoonimlar). Masalan, biz yuqorida ko‘rib o‘tgan Qo‘chqorli, Qarg‘ali kabi toponimlarni keltirishimiz mumkin.

6. Foydali qazilmalarga bog‘liq joy nomlari. Juda ko‘p joy nomlari kon bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan. Qirg‘izistondagi Toshko‘mir, Moylisuv shaharlari, O‘zbekistondagi Kumushkon, Gazli, Tuzkon, Surmatosh, Turkmanistondagi Nebitdog‘, Gugurtdog‘, Uraldagi Magnitnaya tog‘i, Magnitogorsk, Solikamsk, Kola yarimorolidagi Apatit shahri nomi foydali qazilmalar bilan bog‘langan. Nurobod tumani qishloq nomlari tarkibida Oqtosh toponimi misol bo‘la oladi.

7. Xalq, qabila, urug‘lar nomlari bilan bog‘liq toponimlar (etnonimlar). Etnonimlardan hosil bo‘lgan joy nomlari etnotoponimlar deyiladi. Etnotoponimlarni o‘rganib, tarixiy davrlarda qaysi xalqlar, urug‘lar qayerlarda yashaganini, qayerlarga ko‘chganligini aniqlash mumkin. Ag‘ron, Ingichka, Po‘latchi, Tortuvli, Oltio‘g‘il, Oltiovul (oltio‘g‘il etnonimidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, [8; 133]), Ochamayli kabi joy nomlari shular jumlasiga kiradi. [1; 46]

8. Aholining kasb-hunaridan olingan nomlar. G‘allakor toponimi ham shu usulda hosil qilingan.

9. Shaxslarning ism-shariflari, taxalluslariga qo‘yilgan geografik nomlar (antroponimlar). Omonboy oykonimi shular qatoridan o‘rin oladi.

10. Afsonaviy va diniy nomlar. Dinga va din namoyondalari nomlariga, diniy bayramlarga bog‘liq toponimlar ham ko‘p uchraydi. O‘zbek tilidagi, umuman turkiy tillardagi dinga bog‘liq nomlarga ko‘pincha ota, avliyo, bobo, islom, momo, nur, ziyo, shayx kabi qo‘shimchalar qo‘shiladi va bunday nomlar aksariyat hollarda muayyan shaxslar nomlari bilan bog‘langan bo‘ladi: Ibrohimota, Ostonabobo, Xayronshayx, Imomtepa, Onhazrat, Oxun va shu kabilar.

11. G‘aroyib nomlar. Ba’zi bir geografik nomlar g‘alati ma’noli, kulgili, ayrimlari qo‘rqinchli bo‘ladi. Toshkent shahrida Xotinko‘prik, Pushtihammom, Chuvalachi, Yalang‘och, Qoryog‘di, Padarkush, Injiqobod, Jinko‘cha, Kallaxona, Kampirdevor, Qonqus, Moxovzor kabi g‘aroyib nomli ko‘cha, mahalla, mavzelar mavjud. Nurobod tumani hududida esa Hurkak, Karlar kabi joy nomlari ko‘rib o‘tildi.

12. Zamonaviy nomlar. Geografik nomlar boshqa hamma narsalar kabi vaqt o‘tishi, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy, tabiiy o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan o‘zgaradi, eski nomlar yangilanadi, zamonasiga munosib yangi nomlar paydo bo‘ladi: Mustaqillik, Istiqlol, Shovvoz, Ittifoq, Mehr, Olg‘a nomlarini misol qilib keltirishimiz mumkin.

Suyun Qorayev va P.G‘ulomov hamda M.Mirakmalovlarning tasnifi bir-biriga o‘xshaydi. P.G‘ulomov hamda M.Mirakmalovlarning tasnifi yanada kengroq bo‘lib, unda zamonaviy nomlar, g‘aroyib nomlar, afsonaviy va diniy nomlar, antroponimlar, foydali qazilmalarga bog‘liq nomlarni ham alohida guruhlarga ajratib ko‘rsatadi.

Olg‘a oykonimi ham shu tuman hududida joylashgan. Lekin ko‘plab manbalarni ko‘rib chiqar ekanmiz, bu nom bilan bog‘liq ma’lumotlarni topish qiyin kechdi.
“O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”da Olg‘a toponimi haqida quyidagi fikrlar aytib o‘tilgan:
OLG‘A – qishloq. Xorazm viloyati Gurlan tumanidagi XX asrning birinchi yarmi o‘rtalarida paydo bo‘lgan bo‘lib, u ilg‘orlardan biri bo‘lishi kerak, deb shunday atalgan. Ushbu atama so‘z sifatida oldinga, ilgariga ma’nolarini ifodalaydi. [9; 288]
Bozorboy O‘rinboyev esa o‘zining “Asrlardek barhayot nomlar” asarida quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi:
Olg‘a – Nurobod tumanidagi qishloq. Toponim oldinga tomon yurmoq, ilgari qarab siljimoq ma’nosidadir. [8; 134]
Yuqoridagi “Topinimika va geografik terminshunoslik” asarida bu toponimni zamonaviy nomlar tarkibiga kiritadi va quyidagi jumlalarni keltirib o‘tadi:
Sobiq Ittifoq davrida kommunist dohiylar, sarkardalar, rahbarlar umuman sovetlar tuzumi vakillari nomlari juda ko‘payib ketdi. Lenin, Stalin, Marks, Engels, Molotov, Voroshilov, Chapayev va h.k nomlari yuzlab joylarga qo‘yildi. Bundan tashqari ismi – jismiga mos kelmaydigan kommunizm, sotsializm, Yangihayot, Olg‘a, Oktabr, Ilg‘or, Qizil bayroq, Qizil qo‘shin va h.k nomlar ham juda ko‘paydi. [7; 21]
Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, toponimlarning yuzaga kelishida shu hududning o‘ziga xos jihati asos bo‘lib xizmat qiladi. Nurobod tumani qishloq nomlari tarkibida gidronimlar hamda fitonimlar bilan bog‘liq nomlar ham katta o‘rin egallaydi. Aholining urug‘-qabila nomlari, kasb-kori, hududning joylashuv o‘rniga e’tibor qilinadi, shuningdek, turli ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda ham toponimlardan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегалиев Н., Туробов А. Самарқанд топонимияси. - Самарқанд, 2015. - 123 б.
2. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. - Тошкент, 1985. - 104 б.
3.Hakimov Q.,Toponimika. - Toshkent, 2016. - 361 b.
4.Hakimov Q., Mirkamilov M. Toponimika. - Toshkent, 2020. - 343 b.
5.Nafasov T., Nafasova V. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. - Toshkent, 2007. – 80 b.
6.Qorayev S. Toponimika. - Toshkent, 2006. – 320 b.
7. G‘ulomov P. Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik. - Toshkent, 2005. – 75 b.
8. Ўринбоев Б. Асрлардек барҳаёт номлар. - Самарқанд, 2003. - 264 б.
9. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati. - Toshkent, 2022. – 624 b.

QORAQALPOQ VA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARINING QIYOSIY TASNIFI

Jo‘raqulova Hulkar
Navoiy davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti fakultetining
qoraqalpoq tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: *Maoqlada qoraqalpoq va o‘zbek xalq maqollarining ma’no va mazmun jihati, o‘xshash va farqli xususiyatlari tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar: *maqollar, mavzusi, mazmun, qiyosiy tahlil.*
Аннотация. *в статье проанализированы смысловые и содержательные аспекты сходства и различия каракалпакских и узбекских пословиц*
Ключевые слова*: пословицы содержание сравнительный анализ.*
Abstract: *The article analyzes the meaning and content aspect, similar and different features of Karakalpak and Uzbek folk proverbs.*
Key words: *proverbs,theme, context, comparative analysis.*

Ma’lumki, turkiy qavmga kiruvchi xalqlar azal-azaldan bir-biri bilan qardosh xalqlardir. Ular madaniyati,urf-odati tili, dini, xalq og‘zaki ijodlari o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan xalqlardir. Turkiy xalqlar deganda o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq, turk, turkman, bashqurt, qorachoy, nog‘ay, va yana shu kabi ko‘plab xalqlarni bilamiz. Shular jumladan, o‘zbek va qoraqalpoq xalq folklorlari ham bir-biriga uzviy bog‘liqdir. Folklor o‘zi birdan va bir vaqtda paydo bo‘lmay u paydo bo‘lishi,o‘sib rivojlanishi har bir xalq hayoti, bosib o‘tgan turmush yo‘llari bilan bog‘liq holda yaratiladi. Folklor janrlaridan biri bo‘lgan maqollarda ham xalqlarning urf-odati, umumiy etnografiyasi bilan tig‘iz bog‘liq holda keladi va har bir xalq tomonidan yaratilgan va xalq og‘zaki ijodida alohida o‘rin egallagan maqollar xilma-xil va rang-barang. Maqollar fikni ishonchli etib bayon qilishning o‘tkir quroli bo‘lish hususiyatiga va uzun o‘yimizni

qisqartirgan holda aniq yetkazib berish bilan ajralib turadi. Shuningdek, maqollar o‘z ma’nosida, ma’joziy ma’noda va har ikkala ma’noda qo‘llanishi mumkin. Jumladan, qoraqalpoq va o‘zbek xalq maqollari mavzu jihatdan qaharmonlik, do‘stlik, vatanga sadoqat, dehqonchilik, mehnatsevarlik vb. kabi turlari bor. Maqollar xalqning necha ming yillar davomida asrab avaylab, gard yuqturmay, otadan bolaga me’ros qilib olib yurgan asl durdonasidir. Har ikkala xalq og‘zaki maqollarining hammasi yaxshilik, to‘g‘rilikka undaydi, va hayotda adashmaslik uchun hayotiy tajribalarni qamrab oladi. Masalan,

An’lamay so‘ylegen, awirmay o‘ledi. O‘zbek tilida esa *“Oylamay gapirgan og‘rimay o‘lar”* tarzida qo‘llanadi. Maqolda har bir gapirayotgan gapni o‘ylab gapirish kerakligi, hamma gapni gap deb gapiravermaslikni, tushunmay, o‘ylamay gapirgan gap oxiri yaxshilik bilan tugamasligi uqtirilgan. Har bir gapirayotgan gapimiz qanchalik chiroyli aniq va mulohazali bo‘lsa albatta kishi o‘zi ko‘zlagan maqsadiga yetadi.

Atan’ barda jol tani, asin’ barda, el tani. Bu maqolda, yoningda ota-onang bor davrda qarindosh urug‘ bilan yaqinlikni kuchaytirishni, qoni-qo‘shni bilan ahil-inoq yashashni, o‘qib bilim olishni,ota-onadan insoniy fazilatlarni o‘rganib insonlarga yaxshilik qilish,yetim-yesirlarga saxovatli bo‘lishni o‘rganib, yoshliging kuch-qudrating bor davrda, qo‘lingdan ish keladigan vaqtda elga xizmat qilish, el-u yurtining duosin olish, yaxshni nom qoldirib, yaxshiliklar qilish haqida so‘z yuritilgan.

Jalqaw qarap otirip sharshaydi, erinshek etigine su’rnigedi. Mazkur maqolda ish yoqmas, yalqov, erinchoq, maqtanchoq, insonlarga hamma narsa bahona ekanligi bayon etilgan. O‘zbek xalq maqollariga solishtirganda, *“Dangasaning vaji ko‘p, ohangsizning avji”, “Gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top”* kabi maqollarga tenglashtirsak bo‘ladi.

Joli buziq adamning isi bo‘lmas sozindey, hasli qiysiq ag‘ashtin’ ko‘lenkesi o‘zindey. Maqolda qoraqalpoq tilida *yog‘och* so‘zi o‘zbek tilida *daraxt* so‘zi qo‘llanadi. Ma’joziy ma’noda hamma narsadan yomonlik izlaydigan insonlarni qiyshiq daraxtga o‘xshatib va shu daraxtning soyasi ham o‘zi kabi qiyshiq bo‘ladi deb ta’kidlangan. Shu ma’nodagi bir turrkum o‘zbek xalq maqollarida ham yomon odamlarning qanday bo‘lishi, o‘ziga xos xususiytalari ko‘rsatilib o‘tilgan: *“Qiyshiq daraxtning ko‘lankasi ham qiyshiq”, “Egarining soyasi ham qiyshiq”, “Egri tayoqning butog‘i burun yirtar”* kabi maqollar ham aynan shu mazmunni ifodalaydi.

Yog‘ochning bo‘shini qurt yeydi. Bu maqol o‘zbek tilida ham qoraqlpoq tilida ham bir xil qo‘llanadi. Bo‘sh-bayov, o‘ta muloyim, og‘zi bo‘sh kim nima desa, o‘shaning gapiga kiraveradigan bo‘lsang, odamlar o‘z yo‘llariga boshlab ketaveradilar, o‘z manfaatlari yo‘lida sendan foydalanadilar degan ma’no mujassam bu maqolda.

Et etke sorpa betke. Eskidan kelayotgan maqollaridan biri bo‘lib qoraqalpoq xalqining milliy taomlaridan biri bo‘lgan “Juweri gurtik” taomi tayyor bo‘lganda xamiridan oldin dasturxonga sho‘rvasi keltiriladi.

Oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u maqoli mushkul ahvolga tushib qolgan kishilarga tasalli berganda, ularni yupatganda, sabr-toqatga undaganda qo‘llanadigan bu maqol o‘zbek va qoraqalpoq tillarida aynan shu ma’noda qo‘llanadi. Shuningdek, “Xiyonat, jinoyat yoki biror ayb ish qilgan odam uni qanchalik yashirmasin, baribir oshkor bo‘ladi” degan ma’noda qo‘llanuvchi “*Oyni etak bilan yopib bo‘lmas”* maqoli ham har ikkala xalq tilida bir xil qo‘llanadi.

Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq va o‘zbek xalq maqollari uzoq asrlar davomida paydo bo‘lgan, rivojlanish davrlari bilan takomillashgan. Ularning mazmuni turmush tajribalarining natijalari sifatida baholanadi. Yuqorida ko‘rsatilgan maqollarni ikkala xalqning og‘zaki ijodida ham uchraydi. Bazi bir maqollar bir-birdan faqatgina so‘zlarning talaffuzida–fonetik jihatdangina farq bor, ba’zilari aynan bir xil qo‘llanadi, ma’no, mazmun bir xil, lekin shakl jihatdan har xil maqollar ham miqdoran ko‘p.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. kitapxana.com – Qaraqalpaq adebiyatinin electron kitapxanasi.
2.O‘zbekiton ilimlar akademiyasinig qoraqalpoq bo‘limi,Qoraqalpoq gumanitar ilimlar ilmiy-tekshirish instituti.Qaraqalpaq folklori.Ko‘p tomliq 88-100.
3. Shomaqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. T. 1990.

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIY DOSTONLARIDA DIALEKTAL QATLAM BIRLIKLARINING TALQINI

Shaxnoza IZBASAROVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya. Keyingi davr oralig‘ida tilshunoslikda ham boshqa fanlar singari tizimli asosda yondashishdan mavjud muammolarni hal qilish masalasi ustun qo‘yilmoqda. Buning samarasi o‘laroq badiiy matnda adabiy tilning barcha sath birliklarini o‘zida mujassam etgan tavsifiy yondashuvdan tahliliy yondashuvga tomon siljish kuzatilmoqda.

Kalit so‘zlar: sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til.

Ijodkorlar tasvirlayotgan davr muammosini to‘laqonli yoritish, ya’ni asar mohiyatini ochib berish maqsadida o‘sha davr tiliga oid xususiyatlarni saqlab qolishga harakat qiladi. Bunday vaziyatda uzoq tarix odamlari tilidagi barcha jihatlarni tasvirlashda ma’lum me’yorga asoslanmoq darkor, chunki hozirgi davr adabiyotida tasvirlangan o‘tmish to‘la-to‘kis ravishda o‘z zamonining tili bilan gavdalantirilsa, u davr tili bugungi kitobxon ommasi uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi mumkin.

Badiiy matn so‘z san’ati asosida vujudga kelishi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, badiiy matnning bosh unsuri so‘z, umuman, tildir. Adabiy asarning san’at darajasiga ko‘tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy mahoratiga bog‘liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, asar lisoniy tarkibining o‘ziga xosligi tahlil etilmog‘i lozim.

Adabiy tilning rivojida sheva va lahjalar o‘zining munosib o‘rniga ega. Shevalar vositasida adabiy til boyiydi hamda taraqqiy etadi. Xalq tilida qayd etilgan sheva, lahja, dialekt, adabiy til, milliy til kabi tushunchalarning o‘ziga xos jihatlari, o‘zaro munosabatlari, farqli tomonlari, shakllanish davrlari va ta’riflari anchagina o‘rganilgan va ular asosida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida shoiralar xilma-xil so‘zlarni qo‘llashadi, ularning ma’lum qismi adabiy tilda ham, shevada ham ishlatilsa, ba’zi birlari faqat shevada yoki shevalararo qo‘llanadi. Shevada yoki shevalararo qo‘llanadigan so‘zlar dialektizmlar deyiladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilidagi dialektizmlar, o‘zbek shevalarining lug‘at boyligi to‘la yig‘ib olinmaguncha, ayniqsa, o‘zbek shevalari lug‘ati tarkibidagi leksik qatlamlarning qonuniyatlari, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o‘zaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari aniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas[86].

Ularda sheva vakillarining maqsadi, kasbi, ro‘zg‘ori, urf-odati, an’analari o‘z ifodasini topadi. Shevalarda qo‘llanadigan turli xil narsa va hodisalar nomlariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: kiyim-kechak, rang, urf-odat, ovqat, harakat-holat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari[87].

Shevada kiyim-kechak, rang, urf-odat, oziq-ovqat va uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari turlicha bo‘lgani uchun ularni alohida o‘rganish kerak deb bilamiz[88].

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida uchraydigan sheva leksikasiga oid birliklarni quyidagi ma’noviy guruhlarga ajratib, tahlil qildik: 1) kiyim-kechak nomlari; 2) belgi-xususiyat nomlari; 3) urf-odat nomlari; 4) oziq-ovqat nomlari; 5) harakat-holat nomlari; 6) uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari; 7) qurilish ashyolari nomlari; 8) joy nomlari; 9) qarindosh-urug‘ nomlari.

*Keksa ko‘zlarida **mo‘ldir** va **mo‘ldir***

Qotgan ko‘z yoshlarga boqardim hayron.
Bu sokin jussani kemirar ne sir,
Ne bois muttasil dillari vayron…

Ushbu konstruksiyada muayyan tasvir maqsadi bilan shevaga oid *mo‘ldir* so‘zi qo‘llanilgan. Mo‘ldir dialekti mo‘ltir-mo‘ltir leksemasining sheva ko‘rinishi sanaladi. Bu kabi so‘zlardan Zulfiya badiiy matnda qahramon xarakteri, milliy mansubligi, ichki dunyosi tasviri hamda voqea-hodisaga xoslik ta’kidini berish maqsadida foydalangan. Shuningdek, voqea bilan aloqador shaxsga ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma’lumot berish istagi bilan kiritilgan.

[86] Abdurahmonov D.O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari va ulardagi leksik farqlar // O‘zbek shevalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 12–85.
[87] Enazarov T.J., Karimjonova V.A. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2012. – B. 42–43.
[88] O‘zbek xalq shevalari lug‘ati. – Toshkent: Fan, 1971.

Shoira Oydin Hojiyeva dostonlarida lirik obraz yaratish hamda tabiat manzarasini aks ettirishda ichki kechinmalarini, his-tuyg‘ularini, tabiat va atrof-muhitda bo‘layotgan manzarani xalqchil til bilan ifodalaydi va bu bilan o‘quvchi ko‘z o‘ngida voqealanayotgan joy obrazli bo‘lib tasavvur uyg‘otadi:

Cho‘pkori uy
Paxsa devor
Oq pilladay yetilgan tut
Darvozasi bor naqshinkor
Ota meros, avlodga qut.

Ma’lumki, Buxoro viloyati va Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida qadim davrlardan buyon uylar *cho‘pkori*, ya’ni cho‘pdan yoki *paxsa* – somon qo‘shib ishlov berilgan loydan ishlangan g‘ishtlardan qurilgan. Sababi, u yerlarning sho‘rlik darajasi juda yuqori bo‘lganligi uchun shu taxlid qurilgan. Shoira esa bunga alohida urg‘u berish maqsadida ham shu so‘zdan foydalangan.

*“Toshtarozi” **yobonda** bir choq*
Chakalakzor bor edi ovloq.
Yulg‘un, shuvoq, ko‘ztikan, burgan –
Butazorda shoqol in qurgan.

Bu misrada keltirilgan “yobon” leksemasi etimologik jihatdan tojikcha so‘z bo‘lib, cho‘l, yovon mazmunida keltirilgan. Shuningdek, O‘rta Osiyoga doir tarixiy manbalarda va badiiy adabiyotda ko‘p uchraydi. Joy nomlari tarzida ham ishlatiladi. Ushbu matnda qo‘llangan sheva orqali “v” tovushining shevalarda “b” tovushiga aylanganini, misralarning qofiyalanishiga ham ajoyib tarzda qo‘shimcha ma’no berayotganini sezish qiyin emas. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham ushbu leksemasining shevaga oid element ekanligi ta’kidlab o‘tilgan: **YOBON** *shv.* Dala, dasht. *Kuz oqshomi to‘shalar sokin, pichan hidi anqir yobondan.* Sh. Rahmon, Yurak sirralari. *Zambaraklar yobonda bekor gumburlagani yo‘q, Bekor oqmadi qonlar... va o‘ldi mardonalar.* Mirtemir[89].

Osh tortildi.
Ko‘pkari bo‘ldi,
Kurash tushdi nomdor polvonlar
*El-**hamsoya** yig‘ilib keldi*
*Yana to‘ldi uylar, **ayvon**lar...*

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida qo‘llanilgan o‘zbek shevalarining lug‘at tarkibida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar boshqa o‘zbek shevalariga qaraganda ko‘p miqdorni tashkil etishi bilan ajralib turadi. Albatta, bunday so‘zlar badiiy matnga haqqoniylik, xalqonalik baxsh etishi bilan birga, o‘zbek shevalarining lug‘at tarkibini boyitish uchun ham boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Kuzatishlarimiz jarayonida shunga amin bo‘ldikki, dostonlarda ishlatilgan shevalarning lug‘at tarkibida tojikcha so‘zlar turkiy so‘zlardan keyingi o‘rinda turadi. O‘zbek tilining boyishida ishtirok etgan bunday so‘zlarni tadqiq etish etimologik, leksik-semantik jihatdan ham muhimdir. N.A.Baskakovning bu boradagi fikrlari ham o‘rinlidir: “Turkiy tillardagi eron leksik elementlari Markaziy va O‘rta Osiyo territoriyalaridagi turkiy qabilalarning eron qabilalari bilan mustahkam aloqalari tufayli vujudga kelgan”[90]. Ushbu matnda qo‘llanilgan hamsoya leksemasi ham fors tiliga mansub bo‘lib, uyi, hovli-joyi yonma-yon yoki yaqin bo‘lgan kishilar, oilalar, xonadonlarga nisbatan ishlatiladi, adabiy tildagi qo‘shni leksemasining shevadagi ko‘rinishidir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham ushbu leksema shevaga oid element sifatida keltirilgan: **HAMSOYA** [f. < A – d 1 l a – soya ostida birga: qo‘shni] *shv.* Yonma-yon hovlida yashovchi; qo‘shni. *Bir faqir bir badavlat odamga hamsoya ekan. «Ertaklar». Salom-alikdan so‘ng, albatta, hamsoyangiz «xo‘sh, xizmat?» deb so‘rashi tayin. Gazetadan. Bizda yo‘g‘i – hamsoyada, ularda yo‘g‘i bizda bor. Gazetadan*[91]. Bu o‘rinda ijodkor asar tilidagi ba’zi xalqchil, sodda, ammo ta’sirchan vosita, jonli xalq tilini aniqlashga imkon bermoqda.

Bolasi-yu kuchuklari
*Bir **tavaqdan** yeydi osh-non...*

Ushbu matnda qo‘llanilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ifodalovchi tavaq leksemasi o‘zbek adabiy tilidagi tovoq so‘zining sheva variantidir. Tovoq so‘zi etimologik jihatdan ko‘p iste’molda bo‘lgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha sharhlanadi: **TABAQ** *[a.* – qopqoq; likop, lagancha] **1** *esk. kt. ayn.* **tovoq** – *Osh misoli tabaqda ko‘z yoshi, Ko‘rmagi ko‘p, gurunchidan toshi.* Muqimiy. *Lochira-yu*

[89] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 258.
[90]Баскаков Н.А. Состав лексики каракалпакского языка и структураслова, ИСГТЯ,IV.Лексика,М.,1962,71б.
[91] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 185.

patirlar, shirinliklar, tabaqlarda et-u kulchatoy, kosalarda sho‘rvalar… Mirmuhsin, Me’mor[92]. Buxoro va Navoiy viloyat shevalarida bu so‘z hali ham tabaq yoki tavaq shaklida ishlatilib kelinadi. Bu matnda ijodkor sheva so‘zlarini keltirish orqali lirik qahramonning hayot tarzi, turmushini o‘ziga xos, xalqchil til bilan ifodalaydi.

Huv, so‘z bermas momoni Tilla kampir desammi?
***Hazorispand** islarin anbar-atir desammi?*

Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida urf-odat nomlari bilan bog‘liq sheva elementlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Jumladan, ushbu matnda qo‘llanilgan hazorispand dialekti aqiqa, sunnat to‘yi, nikoh to‘yi, momo oshi, mushkulkushod marosimlari o‘tkaziladigan vaqtda tutatiluvchi o‘zbek adabiy tilidagi isiriq so‘zining bir ko‘rinishi sanaladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan: **ISIRIQ** Isiriqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik yovvoyi o‘t o‘simlik [Tarkibida alkaloidlar bo‘lib, xalq; tabobatida shifobaxsh vosita sifatida turli yo‘llar bilan (jumladan, tutatib) foydalanib kelinadi]. ..*Isiriqni ming dardga davo, deb bekorga aytishmaydi. Gazetadan. Isiriq - grippga qarshi yaxshi narsa. Kim uni eskilik desa, xato qiladi. Mirmuhsin, Umid*[93]. Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari hududlarida ushbu leksema isiriq//hazorispand//hazorispan//hazarismon//isriq//tutatki//dutatki tarzida qo‘llanilsa, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarining qishloqlarida adrasman//hadrasman, Xorazm hamda Qoraqalpog‘iston shevalarida esa isvənt shakllarida uchraydi. Ijodkor Oydin Hojiyeva Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanidan bo‘lganligi bois, o‘sha hududda keng iste’molda bo‘lgan hazorispand shevasini qo‘llagan. Matn orqali anglash mumkinki, har bir ijodkor qaysi hududdan yetishib chiqqan bo‘lsa, o‘sha hududga xos sheva elementlaridan foydalanadi hamda matn mazmunini oddiy omma uchun ham tushunarli bo‘lishiga erishiladi.

*Yo‘l chetida **sayisxona**ga*
Duldul otlar uchib kelardi.
So‘z yoritgan majlisxonada
Go‘ro‘g‘libek ko‘chib kelardi. (345-bet)

Ushbu matnda joy nomlarini ifodalovchi sayisxona leksemasi o‘zbek adabiy tilidagi otxona ma’nosini ifodalaydi. O‘rta Osiyo xonliklarida harbiy va xo‘jalik ehtiyojlari uchun saqlangan otlarni parvarish qiluvchi shaxs sayislar deb yuritilgan. Sayislar bevosita otxonalar yoniga qurilgan maxsus uylar – sayisxonalarda istiqomat qilishgan. Sayislar boshlig‘i miroxur deb atalgan. Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari hududlarida ushbu leksema sayisxona//molxona//og‘ilxona shakllarida ishlatilib kelinadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da **SAYISXONA 1** *tar.* Sayislar yashashi uchun bevosita otxonalar yoniga kurilgan maxsus uy. **2** *shv.* Otxona. *U darvozadan kirib, otini sayisxonadagi yakka mixga bog‘ladi. M.Hazratqulov, Jur’at*[94]. Shoiraning ushbu dialektni qo‘llashdan ko‘zlagan maqsadi, zamonaviy adabiy tilni jonli so‘zlashuv tiliga yaqinlashtirish bo‘lgan.

***Hulbo‘y**, sho‘ra bosgan qirg‘oqda*
Bir shitirlash kelar quloqqa.
Oppoqqina xushroy tovushqon
Quloqlarin ding qilib hayron. (348-bet)

Ushbu matnda keltirilgan *hulbo‘y* marosimlarda taom tayyorlashda, dasturxonni bezatishda foydalaniladigan “yalpiz”ning dialektal variantidir. Yalpiz – xushbo‘y hidli iste’mol qilinadigan o‘simlik. Asosan, erta bahorda chiqadi. Ugra osh, ko‘k somsa, manti, ayron va shu kabilarga solinadi. Buxoro, Navoiy viloyatlari hududlarida hulbo‘y//hulvo‘y//hulvo‘, Samarqand hududida pidinə, Surxanandaryo hududida juvsan shakllarida ishlatiladi. Bu matn orqali shoira ko‘pincha qirg‘oqlarda hulbo‘y, sho‘ra kabi o‘simliklar o‘sishi hamda shamol to‘lqini natijasida yoqimli bir shitirlashiga ishora qilmoqda.

Endi chaqmoq bo‘lodirman,
To‘marisga do‘nodirman,
To‘fonlari, shiddati zo‘r
*Daryolarga **eno**durman. (408-bet)*

Bu o‘rinda qo‘llanilgan shevaga xos ena leksemasi badiiy matn qahramonlarining ma’lum bir hududga mansubligini va shu hududda onaga nisbatan ena dialekti ishlatilishini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ijodkorlar o‘z qahramonlarini o‘zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so‘zlarni ishlatadi. Sheva so‘zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o‘zida aniq aks ettirish bilan birga badiiy matnda muayyan estetik funksiyani bajaradi. Dostonlarda dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning

[92] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 168.
[93] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 2-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 168.
[94] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 4-jild. – Toshkent: O‘zME, 2007. – B. 384.

badiiy matndagi me’yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo‘llanishi bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatib turibdi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov S.Badiiy uslub va tilining ifoda tasvir vositalari.-Samarqand, 1994. 194 b.
2. Koch P. (1999). Frame and Contiguity: On the Cognitive Bases of Metonymy andCertain Types of Word Formation. In K.U. Panther and G. Radden (Eds), Metonymy in Language and Thought, 139-167. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Publishing Company.
3. Ullmann S. (1962).Semantic, An Introduction to the Science of Meaning. –Oxford: Basil Blackwell.
4. Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: 1983. – 237 б.
5. Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: 1985.– 54 б.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DAGI AYRIM DIALEKTIZMLARNING SEMANTIK-STRUKTUR TASNIFI

Bobotayev Mirjalol,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi
e-mail: bobotayev91@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da mavjud dialektizmlarning semantik strukturasi, yasalish asosi, dialektizmlarning etimologiyasi, shuningdek, morfologik tuzulishi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, adabiy til, sheva, lahja, dialekt, dialektizmlar, lug‘atlar, qarluq-chigil-uyg‘ur, o‘g‘uz.*

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ОТДЕЛЬНЫХ ДИАЛЕКТИЗМОВ В «ТОЛКОВОГО СЛОВАРЯ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА»

Боботаев Миржалол, на имя Шарофа Рашидова
научный сотрудник Самаркандского государственного университета
e-mail: bobotayev91@gmail.com

Аннотация: *В данной статье анализируются семантическая структура диалектизмов, основы формирования, этимология диалектизмов, а также морфологическая структура в «Толковый словарь узбекского языка»*

Ключевые слова: *узбекский язык, диалект, говор, диалектизмы, словари, карлук-чигиль-уйгурский, огузский.*

SEMANTIC-STRUCTURAL CLASSIFICATION OF SOME DIALECTISMS IN THE "ANNOTATED DICTIONARY OF THE UZBEK LANGUAGE"

Bobotayev Mirjalol, in the name of Sharof Rashidov
Researcher of Samarkand State University
e-mail: bobotayev91@gmail.com

Abstract: *In this article, the semantic structure of the dialectisms, the basis of formation, the etymology of the dialectisms, as well as the morphological structure, are analyzed in the "Annotated Dictionary of the Uzbek Language".*

Key words: *Uzbek language, literary language, dialect, dialect, dialect, dialectisms, dictionaries, Qarluq-Chigil-Uighur, Oghuz.*

O‘zbeklar xalq sifatida shakllanishida (XI asr) murakkab etnogenistik jarayonni o‘z boshidan kechirgan, bu murakkab vaziyat, birinchi navbatda, uning xalq shevalarida aks etadi. [5;12] Bular haqida tadqiqotlar olib borgan R.I.Avanesov shunday yozadi: “Aholining ko‘pgina etnografik xususiyatlari uning dialektal xususiyatlari bilan bog‘langandir”. [2; 17] Chunki urug‘ va qabilalarning tarixini sinchiklab o‘rganish, birinchidan, o‘zbek xalqining tarixini, uni tashkil etgan etnik qabilalarning kelib chiqishi hamda o‘zbek millati tarkibini o‘rganishga yordam beradi, ikkinchidan esa o‘zbek tilida asrlar davomida yuz berib kelayotgan integratsiya (qo‘shilish), differensiatsiya (ajralish) kabi murakkab jarayonlarni hal qilishda, shuningdek, milliy tilimizning taraqqiyotida qaysi sheva, dialekt qanday ishtirok etganligini aniqlashda yordam beradi.

Ma’lumki, shevalar adabiy tilning ajralmas qismi va boyitib boruvchi manbayi sifatida alohida o‘rin tutadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, bu sheva so‘zlarining yasalish strukturasida o‘zak+o‘zak shaklidagi sheva

so‘zlari alohida o‘rin tutadi. Bunday qo‘shma so‘zlar asosan tilimizda hunarmandchilikka oid kasblar doirasida ko‘p kuzatiladi. O‘zbek tilida xalq jonli muloqotidagi qo‘shma so‘zlar miqdori juda ko‘p, ammo lug‘atda shevaga oid qo‘shma so‘zlar anchayin chegaralanganini ko‘rishimiz mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ikki va undan ortiq so‘zlardan iborat dialektizmlar qo‘shib yozilgan. Bunday holat lug‘atdagi ikki o‘zakli qo‘shma dialektlar imlosi uchun ham xarakterlidir. Lug‘atdagi ikki o‘zakli dialektlarni struktural jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin.

Ot+ot strukturali dialektizmlar.

Bunday guruhga lug‘atdagi *Boshqurt, Ityaloq, Obtova, Kelisop, Sangbo‘ron, Tolgul, Tuxumbarak, Yo‘ng‘ichqapoya, Kallapo‘sh, Kirpitikan, Po‘ngqarg‘a, Sayisxona, Dog‘suv, Fotmachumchuq, Kelisop* kabi dialektlar kiradi.

Boshqurt-*shv.* Bu *bosh* va *qurt* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan dialektizm hisoblanadi. Bunga lug‘atda quyidagicha izoh berilgan. Chorva mollarida uchraydigan bir xil kasallik. *Bir haftadan beri hali qilqurt, hali boshqurt..kasallarining oldini olish uchun qo‘tonma-qo‘ton, o‘tarma-o‘tar kezib, tappa tashladi.*T.Sulaymon, Qorasoch. [3; 346]

Ityaloq- *shv.* Bu ham *it* va *yaloq* so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan dialektizm hisoblanadi. It bu uy hayvoni, yaloq esa itga ovqat berishga mo‘ljallangan idish hisoblanadi. Lug‘atda shevaga oid so‘z sifatida itga ovqat beriladigan idish, itning tuvagi ma’nosida qo‘llangan. Bu dialektimiz asosan qipchoq lahjasiga mansub kishilar tomonidan ishlatiladi. *Tashqaridan ityaloqqa o‘xshash kir qozoncha olib kirib, yog‘ chuchita boshladi.* X. To‘xtaboyev, Besh bolali yigitcha. Ikkinchi ma’nosi haqoratli yoki so‘kish so‘z ma’nosida qo‘llangan. Shu idishga nisbatli haqoratni bildiradi. *Kampir uyda javrar, qizini qarg‘ar edi: -E, o‘l, ityaloq! Daydi itning tumshug‘ini yog‘ qilmay o‘l!* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. [3; 243]

Obtova- forscha so‘zdan olingan bo‘lib, qo‘lga suv quyiladigan idish ma’nosida qo‘llangan. Shevalarda *obdasta* tarzida ishlatiladi. *U g‘azabini arang bosib, o‘rnidan turdi, supa labidagi obtovadan hovuchiga suv quyib, qizining yuziga sepdi.* N. Qilichev, Chig‘iriq. Mazkur dialektimiz shahar hududida yashovchi qarluq lahjasiga mansub asosan tojik millatiga xos kishilar tomonidan keng ishlatiladi. Bu haqida “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida Janubiy Tojikiston hududida istiqomat qiluvchi aholi vakillari tomonidan *optova, obdasta* ya’ni qo‘l yuvishda foydalaniladigan ichiga suv solingan idish ma’nosida ifodalangan. [5;37] (Demak, *ob* forscha suv, *tova* esa suv solinadigan idish) Bu qipchoq lahjasiga oid kishilar tomonidan ham ishlatiladi. *Optövänï: süvγä töllïr.* [3;76]

Sangbo‘ron- *[f.* - tosh yomg‘iri] *shv.* Toshbo‘ron. -*Sangbo‘ron qilinglar! Uringlar uni! - dedi shayx amr qilib.* K. Yashin, Hamza. Ko‘rishimiz mumkinki, *sang* tojikchada *tosh* ma’nosida, bo‘ron esa tabiat hodisasi, ikkita ot so‘z turkumiga oid mustaqil so‘zlarning qo‘shilishi natijasida yasalma hosil bo‘lgan. [3;438]

Tolgul- *shv.* Sambitgul. *Baland g‘isht poydevorli to‘rt uy, dahliz, devoriga tolgul va bo‘yni uzun oftobaning surati solingan baland ayvon, oshxona.* A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari. Ushbu dialektimiz ham ikki mustaqil asosdan tashkil topgan. [3;137]

Tuxumbarak -*shv.* Xamir ichiga tuxum solib, qaynatib pishiriladigan ovqat turi. Ushbu dialektimiz ham ikki mustaqil asosdan tashkil topgan. Quyida izohlanayotgan dialektlarimiz ham aynan shu kabi mustaqil so‘zlardan yasalgan. [3;76]

Yo‘ng‘ichqapoya- *shv.* Yo‘ng‘ichqazor. *Yo‘ng‘ichqapoya pushtasidan yurib, ayvonlariga chiqib bordi.* Sh. Xolmirzayev, Arpali qishlog‘ida. [3;282]

Kirpitikan-*shv.* Tipratikan. *U [Ibrohim].. kirpitikan ignalariday sochlari qop-qora.. kamsuqum yigit edi.* S. Anorboyev, O‘zbekiston oltini. [3;375]

Po‘ngqarg‘a -*shv.* Qora qarg‘a, go‘ngqarg‘a. *Qassob do‘koni oldidagi qanorada uch-to‘rtta po‘ngqarg‘a ivirsirab sakraydi.* Sh. Toshmatov, Erk qushi. [3;328]

Dog‘suv - *shv.* Qaynagan suv. *Matpano.. bir burda non yeb, bir piyola dog‘ suv ichishga majoli kelmay, to‘shakka yonboshladi.* S. Siyoyev, Avaz. *Shukrulloxon, bir piyola dog‘ suvimiz bor, ertalabki mushtdan qaytma, deganlar.* Shukrullo, Saylanma. [3;651]

Sayisxona - tarixiy so‘z sifatida Sayislar (otga qarovchi kishi) yashashi uchun bevosita otxonalar yoniga qurilgan maxsus uy. Shevaga oid so‘z sifatida Otxona. *U darvozadan kirib, otini sayisxonadagi yakka mixga bog‘ladi.* M. Hazratqulov, Jur’at.

Sifat+ot strukturali dialektizmlar.

Lug‘atdagi *Oqyog‘, Olahakka, Olapopish, Sarimoy, Qoratamoq, Qoramashoq, Qoraqosh, Yoshulli* singari bir qancha dialektlar shu guruhga mansubdir. Ko‘rishimiz mumkinki, bu kabi dialektlarimiz ikki asosdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismi sifat so‘z turkumiga oid bo‘lsa ikkinchi qismi ot so‘z turkumidan tashkil topgan. Quyida bu kabi dialektlarimizga alohida to‘xtalamiz.

Olapopish -*shv.* Popishak. [3;107]

Olahakka -*shv.* Zag‘izg‘on. *Ultontozning enasi Bodom bikachning tilini olahakka cho‘qib, soqovroq bo‘lib qolgan edi.* «Alpomish». [3;109]

Olvoli- *[f.* - olcha] *shv.* Olcha; olxo‘ri. [3;109]

Yoshulli- *shv.* **1** Katta yoshli, yoshi ulug‘, mo‘tabar kishi. *Xorazmda seni atar: yoshulli, Olis Badaxshonda: padari kalon.* Mirtemir. **2.** Shunday kishilarga nisbatan murojaat shakli. *Avaz choyxonachiga bir erkalik qilgisi keldi: -Yoshulli, yugurdak bolangiz yo‘qmi?* S. Siyoyev, Yorug‘lik. [3;53]

Sarimoy- *shv. ayn.* **sariyog‘.** *Har nonning ustida kuydirilmagan sarimoy, ko‘pining oldida qand choy [bor edi].* «Dalli». *Sarimoyday so‘lqildog‘on g‘oz o‘mrovli qizlaring.* G‘. G‘ulom. [3;449]

Qoramashoq- 1. Bir turli o‘tsimon o‘simlik. *Qo‘ylar qoramashoq, qo‘ng‘irbosh.. o‘tlarini sevib yeydi.* Gazetadan. **2**. shv. ayn. qarg‘a. [3;340]

Qoratomoq- shv. ayn. Jiblajibon [3;340]

Qoraqosh- 1. Botanikaga oid bo‘lib, murakkabguldoshlarga mansub, xushmanzara o‘tsimon o‘simlik. *Boychechaklar ketidan qoraqoshlar ochildi.. Qizlar qoraqoshlar terdi, quloqlariga taqdi.* G‘. Murod, Ot kishnagan oqshom. 2. **Qoraqosh** shv. Qora tusli, bo‘rtib chiqqan yo‘libor, kam etli shirin kuzgi qovun naviga nisbatan lahjalarimizda qo‘llaniladi. [3;341]

Oq yog‘ - 1) qo‘y yog‘i; 2) *shv.* chigit (paxta) yog‘i. ***Og‘zingga yog‘*** *Balli, yasha. Kampir xuddi hozir o‘g‘li kelin bilan qo‘l ushlashib kirib kelayotganday, eshikka qaradi: -Voy, og‘zingga yog‘, o‘g‘lim!* A. Qaxxor, Qo‘shchinor chiroqlari. **O‘z yog‘iga (o‘zi) qovurilmoq.** Frazeologizm sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, o‘z qiyinchiligini o‘zi tortmoq ma’nosini ifodalab kelgan. *Uch kundirki, Bo‘taboy o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib, uyda o‘tiribdi.* S. Ahmad, Hukm. [3;57]

Yoshulli- *shv.* **1.** Katta yoshli, yoshi ulug‘, mo‘tabar kishi. *Xorazmda seni atar: yoshulli, Olis Badaxshonda: padari kalon.* Mirtemir. **2.** Shunday kishilarga nisbatan murojaat shakli. *Avaz choyxonachiga bir erkalik qilgisi keldi: -Yoshulli, yugurdak bolangiz yo‘qmi?* S. Siyoyev, Yorug‘lik. [3;53]

3. Son+ot strukturali dialektizmlar. Bu guruhga lug‘atdagi *Qirqoyoq, dujon, dukart* singari dialektlarni kiritish mumkin. Bu dialektlarimiz ham ikki asosdan tashkil topgan bo‘lib birinchi qismi son so‘z turkumiga, ikkinchi qismi esa ot so‘z turkumiga mansubdir. E’tiborli jihati shundaki, yasalish asosining birida son so‘z turkumi ishtirok etgan ko‘pchilik dialektlarimizning asosiy qismi forscha so‘zlardan o‘zlashmalardir. Bularni quyidagi dilaktizmlar misolida ko‘ramiz.

Dujon- *(f.*- ikki jon (li) *shv.* Homilador, ikkiqat. *Kunlarning birida boyning eng kichik xotini dujon bo‘libdi.* «Zumrad va Qimmat». “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida *dujon* asosan Buxoro hududi aholisi tomonidan keng muomalada qo‘llaniladi.

Dukart - *[f. -ikki tig‘li; qaychi] shv.* Kichkina qaychi. [3;658] “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida *dukart* Andijon va Xorazm hududida *kichkina qaychi* ma’nosida ifodalanadi. [5;91]

Qirqoyoq -shv. Mingoyoq. Sudralib yuruvchi hashorot turiga nisbatan ifodalangan. [3;303]

Ravish+fe’l strukturali dialektizmlar.

Bunday strukturali dialektlarga *Yonyo‘rg‘a, Tezpazak, Oqshomgul* singari dialektlarni kiritish mumkin.

Yonyo‘rg‘a -*shv.* Raqs usullaridan biri. *Qishloq qizlari ufori, yonyo‘rg‘a, yalatma, qaychi, iloniz, nuqtali yurish, chalmasa tebranma, yalli usullariga chunon nozik, ishvali yo‘rg‘alaydilarki..* S. Nurov, Narvon. [3;39]

Tezpazak- *[f. shv. Tezpishar] Tezpazak o‘rik.* [3;53]

Oqshomgul- *shv.* Namozshomgul. [3;183]

5. Ot+fe’l strukturali toponimlar. Bunday strukturali dialektlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin. *Ko‘zbog‘chi, Oynasoz, dumkashak* kabi.

Ko‘zbog‘chi - *shv.* ko‘zboylog‘ich. [3;447]

Oynasoz-*shv.* Oynachi. [3;102]

Dumkashak- *[f. - dumidan tortuvchi; ortidan boruvchi] shv.* Orqadan ergashib yuradigan. [3;661] “O‘zbek xalq shevalari” (1971) lug‘atida *dumkashak* Qashqadaryo hududida *orqadan ergashib yuradigan kishi yoki bola* ma’nosida izohlangan. *Qejrga bossälä, u kïšï, älbättä, bï:ttä dümkaša:kläri bölädï:.* [5;91]

Iqtiboslar / Сноски / References

Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. Toshkent: “Nodirabegim”, 2021.- B.47-48.

Аванесов Р.И. Очерки русской диалектологии, М., 1949. – С. 17.

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдли. Тузатилган 2-нашри. –Тошкен: “O‘zbekiston nashriyoti” Давлат унитар корхонаси, 2020.

Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари, Тошкент, 1962. – Б. 10.

Шоабдурахмонов Ш., Ишаев А., Носиров Ш., УзоқовҲ., Абдураҳмонов Д., Ўзбек халқ шевалари луғати. Тошкент., “Фан”, 1971.

ANBAR OTIN SHE’RIYATIDA FORSIY VA ARABIY SO‘ZLARNING QO‘LLANISHI

Mansurova Zilola Bahodirovna
Navoiy davlat pedagogika instituti akademik litseyi,
ona tili va adabiyot fani bosh o‘qituvchisi (Tel: 98 778 08 08)

Annotatsiya

Til vositalarining lingvopoetik imkoniyatlarini aniqalash badiiy matnlarda tayanishni, qator shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil doirasiga tortishni taqozo qiladi. Tilshunoslikda badiiy matn lingvopoetikasini o‘rganish bo‘yicha ayrim ishlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, o‘z davrining iste’dodli shoirasi Anbar Otin she’riyati va uning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq doirasidan chetda qolib kelmoqda. Shuning uchun Qo‘qon adabiyoti vakilasi , ikki tilda ijod qilgan iste’dodli shoira Anbar Otin she’riyati va unda qo‘llangan arabiy va forsiy so‘zlarning tahlili maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Аннотация

Определение лингвопоэтических возможностей языковых средств требует анализа художественных текстов, а также анализа творчества ряда поэтов и писателей.

Хотя,в лингвистике имеются некоторые исследования лингвопоэтики художественного текста, но поэзия талантливой поэтессы своего времени Анбар Отин с её специфическими особенностями остаются за пределами исследования. Поэтому анализ поэзии Анбар Отин, представительницы кокандской литературы, талантливой поэтессы, которая писала на двух языках, используемые ей арабских и персидских слов определяют актуальность статьи.

Annotation

Determining the linguopoetic potential of language tools requires relying on artistic texts and drawing the works of a number of poets and writers into the framework of analysis.Although there have been some works on studying the linguopoetics of artistic texts in linguistics, the poetry of Anbar Otin, a talented poet of her time, and its specific features remain outside the scope of research.

Therefore, the analysis of the poetry of Anbar Otin, a representative of Kokand literature, a talented poetess who worked in two languages, and the Arabic and Persian words used in it, determine the relevance of the topic of the article.

Kalit so‘zlar: Anbar otin, she’rlar, “Qarolar falsafasi”, Dilshod Barno, misra, adabiyot tarixi.

Hozirgi kunda jamiyatning taraqqiy etishi nafaqat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohani, balki ma’naviy madaniyatimizning ravnaqida muhim o‘rin tutadigan til madaniyatiga ega bo‘lishlik ham davrning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ma’naviy madaniyatimizning rivojlanishi esa ko‘p jihatdan tilimizning taraqqiy etishiga bog‘liq.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”[95]

O‘zbek xalqi ham o‘z tili, urf-odatlari, adabiyoti, moddiy va ma’naviy boyliklariga ega bo‘lgan eng qadimgi xalqlardan biri. U o‘zining ko‘p asrlik tarixiy hayoti davomida o‘z madaniyatini, adabiyotini va adabiy tilini yaratdi. O‘zbek she’riyati tarixidan bizga shu narsa ma’lumki, har bir shoir ijodi o‘ziga xos mahorat maktabi sanaladi. Yer yuzidagi barcha o‘lmas obidalar, insoniyat hayotini tubdan o‘zgartirib yuborgan jamiki ulug‘ kashfiyot va ixtirolar, mumtoz san’at va adabiyot durdonalari, mardlik va qahramonlik namunalalari odamzotning aql-tafakkuri, salohiyati va ma’naviy jasorati mahsulidir.

O‘zbek adabiyotida yirik iste’dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Shulardan biri Qo‘qon adabiyoti vakilasi Anbar Otindir. Shoiraning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o‘ziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar ko‘ra olmaydigan ranglarni nozik his etishi hamda uni go‘zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi u yaratgan asarlarning jozibadorligini tashkil etadi. Anbar Otin she’riyatida qo‘llangan ko‘chma ma’noli so‘zlarning ma’no xususiyatlari: sinonim, antonim, omonim so‘zlarning qo‘llanishi; o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlarining qo‘llanish darajasi; emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikning ifodalanishi, eskirgan so‘zlarning qo‘llanishi kabi masalalarni yoritish asnosida shoira she’riyatining leksik xususiyatlari ochib beriladi.

[95] O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqidan.

Anbar Otin she'riyatida arabcha va forscha so‘zlarni tahlil qilish jarayonida P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlarning "Navoiy asarlari lug‘ati"[96], J.Lapasovning "Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati"[97], Anbar Otinning "She'rlar. Risola" nomli kitobi[98], O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1-5-jild)[99], S.Saidovaning "Arab tilidan o‘zlashgan atamalarning lug‘aviy-ma'noviy xususiyati" kabi ilmiy ishlariga[100] tayaniladi.

XX asrning II yarmi XX asr boshlarida Qo‘qonda yashab ijod etgan Anbar Otin ijodi o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutadi. Anbar Otin o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. O‘zbekcha she'rlari (48 ta)dan devon tuzgan. Undan 41 g‘azal, 4 muhammas, 1 qit'a, 1 masnaviy, 1 mustazod o‘rin olgan (1905). 70-yillarning boshida shoiraning 40 ga yaqin she'rdan iborat yana bir qo‘lyozma devoni, „Qarolar falsafasi" risolasi, 160 misralik „yakka bayt"lari topildi, tojikcha g‘azallaridan devon tuzish niyati bo‘lgan, ammo bor-yo‘qligi hozircha noma'lum.

Anbar Otin she'rlari aksariyat ijtimoiy mavzuda. Zamona adolatsizligidan, mehnatkash xalqning og‘ir ahvolidan so‘z ochadi, ma'rifatni ulug‘laydi. „Qarolar falsafasi" asarida ayollarning og‘ir qismati haqida hikoya qilinadi. Bo‘lajak shoira Dilshod otin maktabida tahsil olgan. Dilshod Barno bu haqda shunday deb yozgan edi: «Anbaroy bug‘doyrang, sunbul sochli, ohu ko‘z, oy yuzli, axloqi hamida va odobi pisandida sohibidur. Bu sakkiz yashar qizcha bo‘lishiga qaramay, hazrat Navoiy g‘azallarini o‘rganishga behad qiziqadi... Umidim borki, bu qizcha katta shoira bo‘lg‘usi».[101] She'rlarida Uvaysiyning ta'siri sezilib turadi. Zero, Uvaysiyni bir she'rida «momom» deb aytib o‘tadi hamda otasiga Uvaysiyning amma ekanini ta'kidlaydi. Ustozlarning ulug‘i sifatida Navoiyni tilga oladi:

Agar ustodi adabni izlasang, Anbar Otin,
Sen Navoiy ta'limini doim mutolaa qil

Muqimiy, Furqat, Kamiy, Zavqiy, Shavqiylar ijodi ham shoira uchun qiziqarli bo‘lgan. (She'rlarida ularga murojaat qilgan, ular bilan bahslashgan). «Qarolar falsafasi» Anbar Otin ijodidagi eng go‘zal adabiy kashfiyotdir. U shoira shaxsiyatidagi ijtimoiy jur'at va jasoratning, yetuk salohiyat va ijodiy barkamollikning go‘zal namunasidir. Anbar Otin adabiyotimiz tarixida ilk bor falsafiy-publitsistik yo‘nalishda ijod qildi. Tarixda «Risolayi falsafayi siyohon» («Qarolar falsafasi risolasi») nomi bilan saqlanib qolgan, bu asar Anbar Otin dunyoqarashi, tasavvuri haqida boy ma'lumotlar beradi. Uning tarix, falsafa, axloq va madaniyatimiz tarixining bilimdoni ekani ma'lum bo‘ladi.

Shoira she'rlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning so‘z qo‘llash mahorati, sodda jumlada ijtimoiy hayot, hukmron tuzumning qora niyatlarini ochib berishi tahsinga loyiq. Anbar Otin ayollar bilan erkaklar o‘rtasidagi tengsizlikni qoralaydi. Jumladan:

Xudoning ne'matini bo‘lib olg‘onlarg‘a o‘t tushsin,
Shariat hukmini yo‘ldin chiqarg‘onlarg‘a o‘t tushsin.
"Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur", degonlarg‘a ,
Tovuqcha aqli yo‘q, axlatni titkonlarga o‘t tushsin.

Shoira shariat hukmini o‘ziga bo‘ysundirgan ayrim kimsalarning ayollarni kamsitgani, ularni mol sifatida sotgani hamda haq-huquqlarini poymol qilganliklarini qalamga oladi.

Keyingi baytda axtar va axgar paronimlarini qo‘llagan. Axtar –turkiycha so‘z bo‘lib, izlamoq ma'nosida qo‘llangan. Axtar so‘zining forsiydagi ma'nosi – yulduz (axtari tobnok, toblanuvchi yulduz). Ya'ni maqsading hayot yo‘lingni yoritib turguvchi yulduz bo‘lsin demoqchi. Bu o‘rinda shoira omonim so‘zni qo‘llagan. Axgar – forscha so‘z bo‘lib, qizarib turgan olov, laxcha cho‘g‘ ma'nosida qo‘llangan. Ya'ni murodingni hayoting ichra izla, foydasiz ilm ichra yonma, umringni bekorga sarflama demoqchi.

Murodingni hayoting ichra axtar,
Ki mavhum ilm ichinda bo‘lma axgar[102].

Quyidagi baytda omonim so‘z asosida nozik qochirimlar ifodalangan. Ya'ni gunohingni kechirishlarini so‘rab eldan yolvorib, iltijo bilan iltimos qil, so‘ra, chunki elning nafratiga uchrab, nafrat olovini yoqish uchun o‘tinga aylanma.

O‘z gunohingni so‘rab eldin o‘tin,
Nafrat o‘ti ichra bo‘lmasdin o‘tin.

---

[96] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Gulom nomidagi adabiyot va san'at.-T., 1972
[97] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.
[98] F.Husainova. Anbar Otin. "She'rlar. Risola"//G‘.Gulom nomidagi adabiyot va san'at.-T.,1970.
[99] O‘zbek tilining izohli lug‘ati//O‘zbekison milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashri.-T.,2006-2008.
[100] S.Saidovaning "Arab tilidan o‘zlashgan atamalarning lug‘aviy-ma'noviy xususiyati".Samarqand.. 2022.
[101] A.Muxtorov, A.Abdullazoda, Y.Huzuriy. Dastnavisi Dilshodi asira. Tojikiston.1966.
[102] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san'at.-T., 1972.-B. 67.

Anbar Otin kambag‘al ayollar hayotidan she’r yozib, ularga hamdard bo‘luvchi dono ayol edi. U she’rlarida g‘arazgo‘y dushmanlar so‘ziga bovar qilma(forscha, ishonma)kim, o‘rtada g‘ammoz dilsiyohlik keltirib chiqaradi deydi. G‘ammoz – arabcha, sir ochuvchi, chaqimchi ma’nosini ifodalaydi.

G‘arazgo‘y ag‘yorlar so‘zig‘a bovar[103] qilmakim,
Dilsiyohlik keltirur o‘rtada g‘ammoz[104] ozgina.

Zero, Anbar Otinning tarjimayi holiga e’tibor beradigan bo‘lsak, u befahm, bekorchilik va g‘iybatni kasb qilib olgan boy xotinlarni pisand qilmagan, ba’zida ularning yurish-turishlarini hajv qilib she’rlar yozgan. Natijada raqiblar g‘zabiga uchragan shoirani bir ziyofatga chaqiradilar va kaltaklab, baland zinadan itarib yuboradilar. Shoiraning ikki oyog‘i sinib, keyinchalik shol bo‘lib qoladi.

Kimki ma’rifatni etsa e’zoz,
Ani irfon[105] etar, albatta, mumtoz[106].

Ushbu baytda kimki ma’rifatni e’zozlasa, u mumtoz, ya’ni bilim xazinasidagi eng yetuk, afzal inson kabi qadrlanadi deyiladi. Bunda mumtoz – arabcha so‘z bo‘lib, a’lo darajali, mashhur, imtiyozli, saralangan, biror fazilati bilan boshqalardan ajralib turadigan, millatning shon-shuhrati, fahri ma’nosida qo‘llangan. Irfon – arabcha so‘z bo‘lib, bilish, tanish (tafakkur bilan) tanitish, ma’rifat ma’nosida qo‘llangan.

Kimki el g‘amidadur suxansanj[107],
Aning har so‘zi dunyoda ulug‘ ganj[108].

Yuqoridagi baytda ham shoira suxansanj va ganj kabi forsiy so‘zlarni qofiyadosh sifatida qo‘llagan. Suxansanj – forscha, so‘zamol, gapga chechan ma’nosida qo‘llangan. Ganj – forscha, oltin, kumush, javohirot kabi qimmatbaho ashyolar to‘plami, xazina, to‘plangan boylik ma’nosida qo‘llangan. Demak, shoira aytmoqchiki, kimgi el g‘mini yeb, uning dardini so‘zlar ekan, uning har bir so‘zi ulug‘ xazinadir.

Anabar Otin ona tilini ham ulug‘lab quyidagi baytni bitgan:

Foydasiz so‘zlamasa qaysi til,
Ona til bo‘lg‘ay o‘sha til — ona til.

Bunda shoira ona tilini o‘z o‘rnida qo‘llash, uni doim sof tutish va qadrlash lozimligini, foydasiz so‘zlashdan saqlanish kerakligini uqtiradi. Qo‘shmisrada, asosan, o‘zbekcha so‘zlardan foydalanagan.

Keyingi parchaga e’tiboringizni qaratmoqchimiz:

Ey zamon rahm aylagil, vaqti zavolimni[109] ko‘rib,
Yashnamay pajmurda[110] bo‘lg‘on nav-niholimni ko‘rib.
Qay kuni bo‘lg‘ayki, san mandek gadolar holig‘a,
Lilag‘aysan bir tarahhum[111] bu maqolimni ko‘rib.

Ushbu bandda zavol arabcha so‘z bo‘lib, yo‘q bo‘lish , so‘nish, botish, pasayish ma’nosida, pajmurda so‘zi forsiycha so‘ligan, so‘lg‘in, ezilgan, mashaqqat chekkan ma’nosida qo‘llangan. Shoira zamonga murojaat qilib, uning so‘nib borayotganiga, yashnamay soliyotgan qaddi-qommatiga rahm qilishini so‘raydi.

Zamonga murojaaat asnosida shoira mening bu holimni ko‘rib, tarahhum (arabcha, rahm qilish, g‘amxo‘rlik, marhamat), ya’ni rahm qilib yig‘lagaysan deydi.

Ey bolam, Xayrullaxon maktab ochidur, boringiz,
Albatta, shu yangi maktabda o‘qingiz boringiz.

Yerda o‘ltirmay xarrakda[112] o‘ltururmish bolalar,

Toza turgay ust-bosh-u, joma[113]-yu dastoringiz[114].

Anbar Otin ma’rifatli insonlarni hurmat qilgan, ilmni targ‘ib etgan shoira sifatida yangi usulda maktab ochgan Xayrullaxonni qo‘llab-quvvatlaydi hamda shu maktabga barcha bolalarni borishga da’vat etadi. She’rning birinchi misrasidagi boringiz so‘zi borish fe’li ma’nosida, ikkinchi misradagi boringiz so‘zi

[103] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.-B.39
[104] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 752.
[105] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.-B.91
[106] O‘zbek tilining izohli lug‘ati//O‘zbekison milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashri.-T.,2006.-B.638.
[107] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 577
[108] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.-B.51.
[109] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 240.
[110] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.-B.159.
[111] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 595
[112] J.Lapasov. Mumtoz adabiy asarlar o‘quv lug‘ati//O‘qituvchi.-T.,1994.-B.232
[113] O‘zbek tilining izohli lug‘ati//O‘zbekison milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashri.-T.,2006.-B.102.
[114] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 183

baringiz olmoshi ma’nosida qo‘llangan, natijada omonim so‘zlar vositasida tilning nozik jilolari gavdalangan. Yangi maktabni ta’riflar ekan u yerda bolalarning xarrak-xarrok(forscha, kursi, stul, skameyka)da, ya’ni kursida o‘tirishini, joma (forscha, kiyim, libos)si, ya’ni libosi va dastor(forscha, salla)i, ya’ni sallasi toza turishini ta’kidlaydi. Shu she’rning davomida shoira:

Har o‘qishning ma’nisig‘a tez tushinsangiz agar,
Yaxshi mullolar kabi olis borar raftoringiz.

deydi. Bunda raftor- forscha so‘z bo‘lib, yurish, shamolday tez yurish degan ma’nolarni anglatadi. Anbar Otin agar qunt bilan o‘qib, uni tushunsangiz, yaxshi mullolar kabi uzoqqa borasiz, hurmat topasiz demoqchi.

Shoira o‘zbek millatining bosqinchilar tomonidan mustamlaka qilinishiga qarab tura olmagan. Bir she’rida shunday yozadi:

Bog‘laring pajmurda[115] bo‘ldi, zog‘larning poyidin[116],
Ko‘kraging sad[117] pora bo‘ldi daydilarning yoyidin.

Baytda pajmurda , poy va sad so‘zlari o‘zlashma so‘zlar hisoblanadi. Pajmurda –forscha so‘z bo‘lib, so‘lg‘in, burishgan, g‘amgin, g‘amgin bo‘lmoq, notavon bo‘lmoq ma’nosida , poy – forscha, oyoq , tovon, etak ma’nosida, sad-forscha yuz soni ma’nosida qo‘llangan. Demak, guliston bog‘laring, zog‘lar, ya’ni bosqinchilar oyog‘i ostida so‘ldi, ya’ni toptaldi, ko‘kraging daydi, ya’ni mustamlakachilar yoyidan yuz pora bo‘ldi deyilmoqda.

Anbar Otin she’riyati serjilo va betakror. Uni tahlil qilganingiz sayin yangi qirralari va poetik jihatlarini ochib borasiz.

СТИЛИСТИК ВОСИТАЛАР ПАРАДИГМАТИКАСИ ВА УНДА “ЖИНС” КОНЦЕПТИНИНГ ВЕРБАЛ ИФОДАЛАНИШИ

Умиджон Йигиталиев, Қўқон ДПИ доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Шоҳруҳбек Умиджонов, Қўқон давлат педагогика
институти талабаси

Аннотация: Мазкур мақолада ўзбек тилида “жинс” концептининг стилистик воситалар орқали ассоциатив-вербал ифодаланиши тадқиқ этилади.

Аннотация. В данной статье исследуется ассоциативно-вербальное выражение понятия «род» в узбекском языке стилистическими средствами.

Annotation. This article explores the associative-verbal expression of the concept of "human" in the Uzbek language by stylistic means.

Калит сўзлар: жинс, концепт, стилистик восита, вербаллашув, ассциация
Ключевые слова: род, концепт, стилистический прием, вербализация, ассоциация.
Key words: human, concept, stylistic device, verbalization, association.

Маълумки, *услуб* тушунчаси, табиий равишда, лингвопоэтика билан узвий боғлиқ. Шу боис “жинс” концептининг стилистик воситалар орқали воқеланиши масаласини ўрганишда лингвопоэтика ва лингвостилистиканинг тадқиқ усулларига мурожаат қилиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, тадқиқ объектимиз бўлган “жинс” концептининг ижтимоий белги билан боғланиши уни социолингвистик аспектда ҳам ўрганишни тақозо этади.

Умуман, “жинс” концептини воқелантирувчи услубий воситалар социолингвистик аҳамиятга эга мулоқот эгалари нутқида ёрқин ажралиб туради. Масалан, сўзлашув нутқида кекса аёллар, бувиларимиз нутқида кўп кузатилувчи “*Айланай, болам…”, “Ўргулай, болам…”, “Бўйларингга тасаддуқ…”,* қўлланишлари нафақат “жинс” концептини воқелантирувчи услубий воситалар, балки ижтимоий хосланган бирликлар ҳам саналади.

[115] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 495
[116] O‘zbek tilining izohli lug‘ati//O‘zbekison milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashri.-T.,2007.-B.284.
[117] P.Shamsiyev, S.Ibrohimov. Navoiy asarlari lug‘ati//G‘Fulom nomidagi adabiyot va san’at.-T., 1972.-B. 539

Шу сабабли ўзбек тилшунослигида амалга оширилган қатор социолингвистик тадқиқотларда *жинс* тушунчасига мулоқот хулқи ва нутқ одоби масалаларини ўрганишда, ўзбек урф-одатлари тавсифида[1:12], шунингдек, касб-ҳунар, шева материаллари таҳлилида ҳам муносабат билдириб ўтилган[3:12]. Шунга қарамай, тилшунослигимизда *жинс* тушунчасининг нутқ услубларида ифодаланиши масаласи махсус тадқиқ этилиши лозим. Шу боис тадқиқотнинг мазкур бандида, стилистик-функционал тизимда "жинс" концептининг воқеланиш кўламларини тадқиқ этишни мақсад қилиб белгиладик.

Маълумки, ҳар қандай мулоқот жараёнида унинг иштирокчилари: сўзловчи ва тингловчи зарурий компонентлар сифатида, албатта, қатнашади. Мулоқот вақтида коммуникатор (сўзловчи) ва коммуникант (тингловчи)нинг бир-бирига нутқий таъсир кўрсатишида қуйидаги мезонлар муҳим роль ўйнайди: 1. Миллат. 2. Жинс. 3. Ёш. 4. Ижтимоий мавқе. 5. Қариндош-уруғчилик. 6. Мулоқот вақти. 7. Вазият ва ҳолат. 8. Ижтимоий муҳит ва давр.

Ўзбек маънавиятида буларнинг ичида, айниқса, *миллат* ва *жинс* тушунчалари жуда муҳим саналган. Чунончи, Шарқ мусулмон оламида, жумладан, ўзбек *эркак* ва *аёл*ларининг шариат нуқтаи назаридан оиладаги ўрни, мулоқот даражаси, фарзандлар олдидаги мавқеи, албатта, фарқ қилади. Бу ҳолат уларнинг нутқида ҳам сезиларли тарзда акс этади.

Ўзбек эркак ва аёлларининг био-физиологик хатти-ҳаракатлари, психологик томонларидан ташқари, нутқида ҳам бир-биридан кескин фарқланишни кузатиш мумкин. Чунончи, эркаклар нутқида "*Гапнинг лўндаси шуки…", "Гапнинг ўғил боласини айтганда…", "Гапнинг қисқаси...",* каби нутқий тузилмалар тез-тез учраб туради. Аёллар нутқида эса "*Вой, эсим қурсин…", "Ҳа, айтмоқчи…", "Нима десам экан…", "Гапни нимадан бошласам экан…", "Сизга нима деб тушунтирсам экан…"* каби қўлланишлар кўп учрайди. Аёл ва эркаклар нутқидаги бундай ўзига хос қўлланишлар нутқнинг нафақат услубий белгига кўра, балки *жинс*га ишора қилиши жиҳатидан ҳам фарқланишини кўрсатади.

Ўзбек аёллари нутқининг айрим хусусиятлари бўйича тадқиқот ўтказган Ш.Искандарованинг фикрига кўра, хотин-қизлар нутқига мансуб «*айланай», "ўргулай", "гиргиттон", "қоқиндиқ"* сингарилар ижобий маъно ифодаловчи бириклардир, улар кўпроқ кекса аёллар томонидан нутқий мулоқот жараёнида ишлатилади[1:19].

Англашиладики, нутқий мулоқотнинг бу каби бирликлари *жинс*га кўра фарқланишни кўрсатади. Сўзлашув нутқига хос бундай қўлланишлар "жинс" концептини воқелантирувчи услубий воситалар ҳисобланади.

Бу ўринда шуни ҳам қайд этиш лозимки, ўзбек маданиятида ота ва онанинг фарзандлар олдидаги мавқеи ҳамда бурчлари уларнинг жамият томонидан белгиланган жинсга кўра ўрни билан ҳам боғлиқ. Яъни ўзбек оилаларида ўғил бола тарбияси оталар, аксинча, қиз бола тарбияси билан кўпроқ оналар шуғулланишади. Ота ва ўғил муносабати хусусида сўз кетар экан, ҳақиқий ўзбекона муносабатларни ўзида мужассам этган машҳур «Ўткан кунлар» романидаги Юсуфбек ҳожи ва Отабекнинг ўзаро муносабати беихтиёр ёдимизга тушади. Ҳар қандай ҳолатда ҳам ота ҳурматини ўрнига қўя олган Отабекнинг нутқига эътибор қаратамиз:

"Ўзбекойим келиб ўтиргандан сўнг, Юсуфбек ҳожи бир неча вақт ўйлаб қолди… анчагина сўзсиз ўтирганидан сўнг ҳожи мулойимона сўз очди.

Ўғлим, ҳали сен эшитдингми, йўқми, ҳайтовур, биз сенинг устингдан бир иш қилиб қўйдик…

Отабек маълумки, уларнинг «қилиб қўйган ёки қилмоқчи бўлган» ишларини, албатта билар эди, шундай бўлса ҳам билмаганга солинди:

Ақлли кишиларнинг ўғиллари устидан қилган ишлари, албатта, номаъқул бўлмас, - деди. Ҳожи ўғлининг бу жавобидан ерга қаради. Нима деб давом қилишни билмай қолди…" (Qodiriy Abdulla. O'tkan kunlar. /Tarixiy roman. –Toshkent: Sharq NMK, 2017. –B.84.*)*

Матнга диққатга қилинса, ўғил тарбияси, уни уйлантириш ва оилада ҳал қилувчи фикр отанинг жамиятдаги ижтимоий мавқеи билан боғланяпти. Бу ҳолат нутқда ҳам ўз аксини топган.

Шуниси характерлики, ўзбек халқи нутқ одобига ва менталитетига кўра ота ёки ёши катта одамларга нисбатан *сен* сўзи қўлланилмайди. Халқ фикрича, отасини сенлаган фарзанд *дўзахи* ҳисобланади. Шу ўринда халқ шоири А.Ориповнинг "Жаннатга йўл" драматик достонидан фикримизга ҳамоҳанг қуйидаги парчани келтирамиз:

Ўзга одам:

Тарозибон не деса шу, ишонамиз-да!
Қайси куни йиғлаб кетди бир муйсафид чол,
Етти бора ҳаж савоби бўлмабди қабул.

Йигит:

Нечук энди?
Ўзга одам:
У дунёда юз бериб қай ҳол,
Отасини сансираган экан бир бор ул.
Йигит:
Минг мартаба шукр бўлсин парвардигорга,
Мендан рози кетган экан қиблагоҳларим.
Эс билмаган гўдакликни йўқсак бекорга,
Сенсираган эмасман мен, йўқ гуноҳларим.

"Жинс" концептининг воқеланиши бадиий услубга оид матнларда ҳам ёрқин кўзга ташланади.

Ўзбек миллатида, умуман, мусулмон халқларида, баъзи қадрият ва расм-русумлар: *қизга совчи келиши, унинг узатилиш, етти пушти сўралиши,* шунингдек, *қизга зимдан ошиқ бўлган йигитнинг ички изтироблари* каби этномаданй ҳолатларда ҳам «жинс» концепти ассоциатив тарзда тил эгалари хотирасида вербалашади. Масалан, «Ўткан кунлар» романидаги бир эпизодик ҳолат – уста Олимнинг севгилиси Саодатга бўлган соф муҳаббати, эркак киши бўла туриб, уят ҳамда ибодан руҳий изтиробга тушган ҳолати тасвирига назар ташлайлик:

Ош-сувдан кейин кампир Саодатни ўчоқбоши юмушига юбориб, менга қараб қулди:
Саодатга бир яхши жойдан куяв чиқиб қолди. Кеча унашсак, унашгудек ҳам бўлган эдик, бироқ сизнинг маслаҳатингизни олайин деб, совчиларни қайтардим, – демасинми, устимдан бир челак совуқ сув қуйгандек энтикдим, қандай жавоб беришка тилим келмай қолди. Узоқ вақт кесак каби ҳаракатсиз қолгач, куч орқасида тилимни базўр шу сўзга ҳаракатлантирдим:
– Жойи яхши бўлса, ўйлаб кўриш керак...
...Чаён каби мени заҳарламакда бўлган кампирнинг тўғри сўзини эшитиб туришка ортиқ тўзалмадим-да, эртагача ўйлаб жавоб беришни айтиб кампирнинг олдидан чиқдим. Чиққач, оёғи куйган товуқдек тўрт томонга югура бошладим. Эпақалик бир гап эсимга келмас эди. Ниҳоят, ақлимни бошимга йиғиб, сирримдан воқиб бир ошнамга кенгаш солдим... Лекин бутун туни билан кўзимга уйқу келмай, тиканга ағнаган каби азобланар эдим ва сустлигим учун ўз-ўзимни сўкар эдим…

Матнда уста Олимнинг севгилиси Саодатдан айрилиб қолиши мумкинлигини ўйлаб ўзини йўқотиб қўйиши эпизоди жуда таъсирчан тасвирланган. Бундай психологик ҳолат фақат ўзбекларнинг ментал тафаккурига хос бўлиб, эркак кишининг ўз севгилисига етишиш йўлидаги ахлоқий муносабатларининг қанчалик гўзал эканлиги бадиий ифодасини топган. Матнда тасвирланган ушбу руҳий ҳолат чизгиси орқали "жинс" концепти воқеланган.

А.Ориповнинг "Севги ўлими" номли шеърида ошиқ йигитнинг изтироблари тасвири орқали унинг маҳзун кайфиятини акс эттирувчи ўзбекона бадиий пафосни кузатамиз:
Ёмғир кун эди, атроф жим, сокин,
Сенинг кўзларингга боқардим сармаст,
Секин шивирладинг: "Қўй, боқма, йигит,
Севгинг менга янгилик эмас".
Ёмғир ҳам тинмади ўша куни ҳеч,
У ҳам қуволмади кўзда хобингни.
Совуқ, рутубатли хонамга шу кеч.
Олиб қайтдим изтиробингни...

Шеърий матнда қўлланган *ёмғир, жим, сокин, сармаст, совуқ, рутубатли, изтироб* сўзлари ошиқ йигитнинг ёмғирли, совуқ ва рутубатли кундаги маҳзун кайфиятини тасвирлашга хизмат қилган. Шеърда қўлланган "*Сенинг кўзларингга боқардим сармаст"* сатри ҳамда *йигит* сўзи маҳзун кайфият эгасининг жинсига ишора қилиш билан бирга, бадиий матнда "жинс" концептинг воқеланишига туртки берган. Қуйидаги чизмада "жинс" концептининг ассоциатив-вербал ифодаланишини батафсил кўриш мумкин:

6-чизма

"Жинс" концептининг ассоциатив-вербал ифодаланиши бўйича статистик таҳлил натижалари:

Ўлчов мезонлари	*"Эркак жинси" концептини тавсиф-ловчи ассоциатив-вербал бирликлар*	%	*"Аёл жинси" концептини тавсиф-ловчи ассоциатив-вербал бирликлар*	%
Биологик белгиси	50	100	50	100

Мантиқий тафаккур даражаси	12	24	10	20
Миллий –маданий хусусияти	21	42	42	84
Моддий бойликка ружу қўйиш даражаси	26	52	41	82
Ташқи қиёфа (гўзалликка интилиш)	38	76	50	100
Ёши (20-25)	26	52	41	82
Оилавий –ижтимоий аҳволи *(но соғлом оила вакили)*	13	26	6	12
Маълумот даражаси	50	100	50	100

Хуллас, турли услублардаги матнларда “жинс” концептини воқелантирувчи ўзига хос услубий воситалар мавжуд бўлиб, улар нутқнинг жинсга кўра фарқланишини юзага келтиради.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: Филол.фан. номз. … дисс. автореф.-Самарқанд,1993. –25 b.

2. Мўминов С.М.Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол.фан. докт. … дисс. автореф.Т.:2000. – 24 b.

3. Yigitaliyev U. O‘zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. …(PhD) diss. avtoreferati. –T.: 2020. –B. 54.

4. Umidjon Yigitaliyev. O‘zbek tilida kontseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (monografiya). – Toshkent: “LESSON – 160 B.

https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/4642

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:g5m5HwL7SMYC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:rO6llkc54NcC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:TQgYirikUcIC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:hMod-77fHWUC

O‘ZBEK SHEVALARIDA SO‘Z YASALISH TIZIMI

Muhammadiyev Nodir Rustamzoda-

O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti ilmiy xodimi

Ma’lumki, o‘zbek xalqining juda katta tarixiy yutug‘i bo‘lgan, XXI asr arafasida qo‘lga kiritilgan mustaqilliq respubliqada yashayotgan xalqlar hayotida dunyo hamjamiyati taraqqiyotiga mos, ayni paytda, o‘ziga xos islohotlarni amalga oshirishga sharoit yaratdi. Jumladan, o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotini turli qurslarda qayta kurib chiqish va ayrim mavhum jihatlariga aniqliqlar qiritish borasida tadqiqotlar qulamini kengaytirish zarurati yuzaga keldi. O‘zbek tilining, nafaqat ushbu sanab utilgan jidatlariga, balqi uning boshda tillar, jumladan, qarindosh turqiy tillar, qolaversa, noqarindosh ingliz, nemis, franso‘z , mug‘ul va koreys tillari bilan qiyoslab o‘rganishga ham ehtiyoj sezilmoqda. Bunday maqsaddagi tadqiqotlar esa, tabiiyqi, dunyodagi boy tillardan biri sanaladigan o‘zbek tilini yanada chuqurroq o‘rganish yo‘lidagi sa’y-haraqatdir.

O‘zbek tili shevalarini tadqiq etishning mustaqilliq davridagi taraqqiyoti bu til rivojini o‘rganishdagi ayrim daraslarni isloh qilishga olib qeldi. Binobarin, avval so‘z yasalishi o‘zbek tilshunosligining morfologiya qismida o‘rganilib qelingan bulsa, endiliqda u o‘zbek tili haqidagi fanning mustaqil sohasi sifatida tan olinib, rivojlanib bormoqda. Buni A.Hojiyev «...turqologiyada ham so‘z yasalishi va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hodisalar grammatikaning morfologiya darsida o‘rganib qelinar edi, ya’ni so‘z yasalishi morfologiq hodisa sifatida qaralib, grammatikaning shu bulimiga kiritilar, shu bulimda o‘rgatilar edi. Bunda, shubhasiz, ma’lum faqtorlar asosga olinar edi. Aniqrogi, yasama so‘zlarning asosiy qismi affikslar yordamida yasalgan so‘zlar bo‘lgani, so‘z yasalishining asosiy usuli affiksatsiya usuli (affiksal morfema yordamida so‘z yasalishi) bo‘lganidan so‘z yasalishi hodisasi morfologiq hodisa deb qaralar va u

morfologiyada o‘rganilar edi.

Darhaqiqat, har qanday tilning boshqa tillar orasidagi mavqeyini, uning boyliq darajasini belgilaydigan asosiy omillar tildagi birliqlar va ularning ma’no ifodalash imqoniyatlari deb hisoblanar ekan, so‘zlarning yasalishi yoki bo‘lmasa, ularning har biridagi ma’no taraqqiyotini ko‘zatib borish, ma’noviy o‘zgarishlarni tilshunoslikning ilg‘or g‘oyalari miqyosida o‘rganish g‘oyatda muhimdir.

Ma’lumki, dunyoda biror-bir til o‘z qobig‘ida rivojlanib, ya’ni boshqa qarindosh va noqarindosh tillar ta’siri isqanjasiga tushmasdan taraqqiy etmagan. Uning yuqsalishida boshqa millat va elat vaqillari bilan bo‘ladigan turli ijtimoiy munosabat va muloqotlar, ya’ni tashqi ta’sirlarning urnini ham inqor etib bo‘lmaydi. Ammo bu ta’sirning qay darajada bulishidan qa’tiy nazar, har bir tilning muntazam boyib borishida uning ichqi imqoniyatlari birinchi darajada turadiqi, mazkur qaydlar, shubhasiz, o‘zbek tiliga va uning shevalariga ham tegishlidir.

O‘zbek tili tarixiga, uning taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlash uning ham tinimsiz rivojlanish va muqammallashishda bo‘lganligidan dalolat beradi. O‘zbek tili lug‘at fondining boyishidagi eng muhim omillar dan biri so‘z ma’nosidagi semantiq-uslubiy siljishdir. Binobarin, leksik birliqning turli nutqiy vaziyatlarda vohelanishi turlicha ma’nolarni ifodalashini ko‘zatishimiz mumqin. Natijada muayyan til birliqlarining ma’no taraqqiyotida o‘zgarishlar yuz berib, yangi-yangi tushunchalarni ifoda etadi va bu yangi ma’noviy uzgarishlar asta-seqinliq bilan tilda barqarorlashib, nutq jarayonida faol qullanila boshlaydi.

Inson turmush tarzida paydo bo‘lgan narsa-hodisalarni, tafaqqurdagi yangi tushunchalarni nomlashning o‘ziga hos usuli bo‘lgan leksemalashuv hodisasining tilda mavjudligi ham ana shu qonuniyatning tarqibiy qismi sifatida qaraladi. Bu hodisaning tildagi urni va ahamiyatini anglash uchun, avvalambor, unga tildan foydalanishning ajralmas bo‘lagi sifatida qarash lozim bo‘ladi. Ma’lumqi, ma’rifatparvar inson o‘z ijtimoiy faoliyatining barcha yunalishida yaratuvchiliq bilan mashg‘ul bo‘ladi. So‘z yashash tarzining asosiy o‘lchovi bo‘lgan ma’naviyat va madaniyat yaratish ham ana shu faoliyat doirasida kechadi. Umuminsoniy ma’naviyat va madaniyatning tarqibiy qismi bo‘lgan til madaniyati esa inson ongida shaqllangan barcha tushunchalarni, qalbida mavj o‘rgan his-tuyg‘ularni mumqin qadar madaniyatli shaqlda ifoda etishga intilish nutq jarayonida turli hil ifoda vositalari paydo bulishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun til birliqlarini, ularni yuzaga chiqaruvchi hodisalarni, jumladan leksikalizasiyaga ham insonning umumiy yaratuvchiliq faoliyati doirasida qarash ayni muddaodir.

Bugun faqatgina nutq jarayonida fikrni, his-tuy‘uni ta’sirli ifoda etishga xizmatt qilib turgan so‘z yoki ibora, ya’ni individual muallif qullanishlari (okkazional holatlar) ertaga tilning doimiy lug‘at tarqibidan munosib joy oladi. Shu ma’noda, yuqorida ta’qidlab utganimizdeq, o‘zbek tilining muntazam boyib borishiga xizmatt qilayotgan so‘z yasalishining har bir tilga hos qonuniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish muhim vazifa hisoblanadi. So‘z yasalish jarayonida faol ishtirok etadigan leksemalashuv hodisasining mohiyatini o‘rganish ham ana shu vazifalar silsilasida qaraladi. Ammo olamdagi narsa-hodisalarga nom berish, shu orqali yangi tushunchani o‘zlashtirishning bir shaqli bo‘lgan ayni hodisaning o‘zbek tilshunosligida hozirgacha monografiq aspektda o‘rganilmagan, balki so‘z yasalishi bilan bog‘liq o‘rinlarda to‘xtab o‘tilgan..

O‘zbek tilshunosligida A.G‘ulomov so‘z yasalishiga doir eng muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim hisoblanadi . A.G‘ulomovning quyidagi fiqriga e’tibor berayliq: «...so‘z yasalishining o‘z obyekti bor, bunda grammatika va leksika sohalari bilan umumiyliq tomonlari ham bor.

Hozirgi tillarda so‘z yasashning eng keng tarqalgan usuli affiksatsiya... bo‘lganligidan uning (so‘z yasashning) birinchi navbatda morfologiya bilan yasinligi... ko‘zga tashlanib turadi. Holbuki, so‘z yasashning boshqa yo‘llari uning leksika bilan ham, fonetika bilan ham, sintaksis bilan ham... bog‘liq ekanini qursatadi. Demak, so‘z yasalish hodisasi uning asosiy, yetaqchi hususiyatlari bilan grammatika va leksikologiyaga yaqin turadi... Ko‘rinadiqi, so‘z yasashning morfologiya yoki leksikologiyaga kiritilishi uning bir tomoninigina o‘z ichiga oladi».

O‘zbek tilshunosligida so‘z yasalishiga oid fikrlar A. G‘ulomov, A. Hojiyev, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, M.Abdiyev kabi olimlar tadsisotlarida uchraydi. Ushbu tadqiqotlarda bildirilgan mulohazalar orqali tilimizda so‘z yasalishi borasidagi turli munosabatlar umumlashtirilgan, aniqliq kiritilib yahlitlashtirilgan. Ko‘p yillar davomida morfologiya doirasida o‘rganilib kelingan so‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida tan olinib, alohida o‘rganila boshlandi. Masalan, mualliflar jamoasi tomonidan 1992 -yilda nashr ettirilgan «Hozirgi o‘zbek adabiy tili» darsligida so‘z yasalishi «Morfologiya» bulimida berilgan bulsa, darslikning keyingi nashrlarida alohida bo‘limda berildi.

So‘z yasalishi tilshunoslikning alohida sohasi sifatida e’tirof etilishi bilan birga, u, ayni paytda, grammatikaning tarqibiga kiritiladi. Chunki «bunda ham so‘z yasalishining asosiy usuli affiksatsiya usuli ekani, bu usulda morfemalar material bo‘lib xizmat qilishi, so‘z yasash vositalari grammatik vositalar ekani nazarda tutiladi». Olim aytgan mulohazalarga ko‘ra uni grammatika doirasida qarash to‘g‘ri, ammo hosil bo‘lgan birliqning alohida bir leksema ekanligi nazarda tutilsa, uning leksikologiyaga yaqinligidan ham ko‘z

yumib bo‘lmaydi.

Aytilganlardan kelib chiqadigan xulosa shundan iborat bo‘ladiki, so‘z yasalishi material qamrovi jihatidan tilshunoslikning fonetiqa, leksikologiya va grammatika singari sohalari bilan yaqin aloqadorliqda bo‘ladi. Chunki so‘z yasalishi jarayonida u yoki bu darajada ana shu sohalarning qoida va kategoriyalari ham ishtirok etadi. Ammo yuzaga kelgan hosila ma’nolar tulaligicha leksikologiya ixtiyorida bo‘ladi. «So‘z yasalishihning turkologiyadagi avvalgi tadqiqotlarda, rus tilshunosligida, qolaversa, o‘zbek tilshunosligida morfologiya tarqibiga kiritilishida ham uzoq; yillar davomida shu jihatlar asos bo‘lgan. Shu bilan birga, so‘z yasalishi tilshunoslik tarkibida o‘ziga xos qonun-qoidalarga bo‘ysunadigan jarayon sifatida ishtirok etadi va bu o‘ziga hosliklar uning alohida soha sifatida shakllanishi hamda yashashiga asos bo‘ladi.

Xulosa shundan iborat bo‘ladikki, so‘z yasalishi material qamrovi jihatidan tilshunoslikning fonetika, leksikologiya va grammatika singari sohalari bilan yaqin aloqadorlikda bo‘ladi. Chunki so‘z yasalishi jarayonida u yoki bu darajada ana shu sohalarning qoida va kategoriyalari ham ishtirok etadi. Ammo yuzaga kelgan hosila ma’nolar to‘laligicha leksikologiya ixtiyorida bo‘ladi. «So‘z yasalishihning turkologiyadagi avvalgi tadqiqotlarda, rus tilshunosligida, qolaversa, o‘zbek tilshunosligida morfologiya tarkibiga kiritilishida ham uzoq yillar davomida shu jihatlar asos bo‘lgan. Shu bois ham shevalardagi so‘z yasalishi ham maxsus tadqiq etilishi lozimdir. Ushbular so‘z yasalishi tilshunoslik tarkibida o‘ziga xos qonun-qoidalarga bo‘ysunadigan jarayon sifatida ishtirok etadi va bu o‘ziga hosliklar uning alohida soha sifatida shakllanishi hamda yasalishiga asos bo‘ladi.

KONTRASTIV TILSHUNOSLIK HAMDA INTERFERENSIYANI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLAR

Istoda Rasulova
Filologiya fanlari falsafa doktori (PhD)
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedra mudiri

ANNOTATSIYA

Maqola tillararo interferensiyani ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning paydo bo‘lishi lingvistik va ekstralingvistik omillar majmuasi bilan belgilanadi. Kuzatish, tahlil natijasida va ilmiy ma’lumotlarni umumlashtirgan holda, muallif chet tillari va o‘zbek tilining chet el talabalari nutqida interferentsiya o‘zgarishlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiy sabablarining to‘rt guruhini aniqlaydi va tavsiflaydi.

Kalit so‘zlar: Interferensiya sabablari, chet tillari, o‘zbek tili chet tili sifatida

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению межъязыковой интерференции как многоаспектного явления, возникновение которого определяется комплексом лингвистических и экстралингвистических факторов. В результате наблюдения, анализа и обобщения научных данных автор выделяет и описывает четыре группы основных причин появления и развития интерференционных изменений в речи иностранных студентов, изучающих иностранный язык и узбекский язык.

Ключевые слова: Причины интерференции, иностранные языки, узбекский язык как иностранный.

ABSTRACT

The article is concerned with the cross-language interference as a multidimensional phenomenon, the occurrence of which is determined by complex linguistic and extralinguistic factors. As a result of observation, analysis, and generalisation of the research data the author defines and describes a group of 4 major causes of the occurance and development of the interference changes in the speech of foreign language learners.

Key words: Reasons for interference, foreign languages, Uzbek as a foreign language.

Kontrastiv lingvistikaning tadqiqot obнekti sifatida ko‘p hollarda faqat ikkita til olinadi, odatda, ona tili va chet tili, ikkinchisini tanlash esa muayyan jamiyatning ma’lum tarixiy rivojlanish bosqichidagi ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Taqqoslanayotgan tillardan biri asos uchun olinadi, ya’ni kontrastiv tadqiqotning tayanch nuqtasi vazifasini bajaradi. Uning ichki tuzilishi mazkur ikki tilning farqli jihatlarini qiyoslash uchun etalon vazifasini bajaradi. [1; 40] Bunda ona tili asos qilib olinadi, ikkinchi til esa, odatda, o‘rganilayotgan chet tili bo‘ladi. A.V.Fyodorovning fikricha, yaqin qarindosh tillar ham, u yoki bu darajada

genetik qarindoshlikda bo‘lgan tillar ham, umuman bir-biri bilan genetik aloqasi yo‘q tillar ham o‘zaro zidlanishi mumkin.[2; 16]

Bu yo‘nalishning boshlanishini R.Ladoning «Linguistics across Cultures» asari bilan bog‘lashadi, lekin tillarni qiyosiy o‘rganish qadimdan juda ko‘plab tilshunoslar tomonidan olib borilgan. Oldingi manbalarda kontrastiv lingvistikada, asosan, chet (xorijiy) tilining ona tiliga nisbatan farqlari (ayniqsa, uyg‘onish davridan boshlab G‘arbiy Yevropada) va tillarni tipologik (morfologik) tasniflash vazifalari bilan bog‘liq holda amalga oshiriladigan. Kontrastiv tilshunoslikning (kontrastiv lingvistika) ta’rifini V.N.Yarseva "... ikki, kam holatlarda undan ortiq tillarning sathlarini barcha darajalarida ularning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash uchun",deb yozadi.[3; 239]

Ko‘plab tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, ikki tilni kontrastiv tadqiq etishning asosiy maqsadi o‘rganilayotgan tillar grammatikasidagi farqlarni jamlagan noto‘liq grammatikani tuzishdan iboratdir. Shunday qilib, kontrastiv grammatika tillarning o‘ziga xos farqlanishlariga asoslanuvchi maxsus grammatikadir. [4;4] Lekin bu ikki til grammatikalarining o‘xshash jihatlari o‘rganilmaydi, degani emas. Bunday yondashuv o‘rganilayotgan tilga nisbatan noto‘g‘ri nuqtai nazar shakllanishiga olib kelishi mumkin.

V.N.Yarseva ko‘rsatib o‘tganidek, tillarni qiyoslash ularning strukturasida, hech bo‘lmasa, bir o‘xshash tomon bo‘lgandagina samaralidir. Qiyoslanayotgan tillarda umuman o‘xshashlik kuzatilmasdan ularning har bir elementi kontrast holatda o‘rganiladigan bo‘lsa, natijalar samarali bo‘lmaydi.[5;10] Shunga qaramay, kontrastiv lingvistikada tillardagi o‘zaro farqlanuvchi holatlarga markaziy masala sifatida qaraladi.[5;19]

Ko‘p tillilik zamonaviy sotsiolingvistik vaziyatning ajralmas qismi, ta’lim sohasida yangi vazifalarni belgilash, talabalarni ko‘p madaniyatli va ko‘p millatli muhitga tayyorlash, ushbu vazifalardan biri bu aloqa qiluvchi tillarning o‘zaro ta’sirining salbiy oqibatlarini bartaraf etishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Shaxsning tilida til o‘rganish jarayonida ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi chet tillarini, tillararo aralashuvning paydo bo‘lishi muqarrarligi aniqlanadi, bu til aloqalari tadqiqotchisi U. Vaynreyxning so‘zlariga ko‘ra, “bilingv nutqida uchraydigan har qanday tillarning me’yorlaridan chetlanish holatlari. ularning birdan ortiq tillarni bilishi natijasida” [5; 22].

Ta’lim jarayonini pedagogik va metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil qilishning muhim shartlaridan biri o‘quvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni nazorat qilish va bu faoliyat natijalarini baholashdan iboratdir.

O‘quvchilar duch keladigan qiyinchilikni nazorat qilish deganda «ishning narsaning ahvoli, borishi, kishinig yurish – turishini kuzatish, tekshirish, taftish qilishni» tushiniladi (J. Jalolov)[6;423]. Nazorat zamirida kamchiliklarni bartaraf qilish, fonetik, grammatik va leksik qiyinchilik va xatolarni tuzatish ishini yo‘lga qo‘yish singari ezgu niyatlar yotadi.

Shuni ta’kidlash kerakki, tinglovchilar nutqidagi interferensiya tilning darajadagi tizimiga muvofiq, uning har bir sathida namoyon bo‘ladi, bu ko‘plab fonetik, leksik, grammatik va boshqa xatolarni keltirib chiqaradi[7.8].

Interferentsiya hodisasi ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki psixologiya, sotsiolingvistika va metodologiya nuqtai nazaridan ham ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Tilda interferensiya hodisasi. Ikki turli til yoki dialekt vakillari bir-biri bilan so‘zlashganda yoki yozishganda o‘zaro til munosabatlari sodir bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ikki yoki undan ortiq til egalari orasida vujudga keladigan nutqiy aloqa til munosabatlaridir. Masalan, o‘zbeklar bilan tojiklar bir-biri bilan so‘zlashganda, ya’ni til aloqasiga kirishganda o‘zbek-tojik tili aloqasi sodir bo‘ladi. Mazkur holda o‘zbek bilan tojik o‘zbek tilida so‘zlashganda, munosabat tili o‘zbek tili bo‘ladi. Agar ular tojik tilida so‘zlashsalar, munosabat tili tojik tili bo‘ladi. Ammo ular rus tilida ham so‘zlashishlari mumkin. Bu holda rus tili munosabat vositasi sifatida qo‘llangan uchinchi til bolib, bu «vositachi til» deb ataladi. Til munosabati natijasida tillar bir-biridan uzoqlashishi yoki bir-biriga yaqinlashishi mumkin. Uzoqlashish *«divergensiya»,* yakinlashish *«konvergensiya»* deb ataladi. Til munosabati amalga oshishi uchun taraflarning biri yoki har ikkisi tilni ona tilini va qarshi taraf tilini yoki vositachi tilni bilishi shart. Ikki tilni bilish «bilingvizm» (ikki tillik) va ikki tilni biluvchi kishi *«bilingv»* deb ataladi. Bilingv bir tilning qonun-qoidalarini ikkinchi tilga noto‘g‘ri ravishda ko‘chirishi mumkin. Mana shu hoda *«interferensiya»* deb ataladi. Interferensiya asosan ona tilining qonun-qoidalarini o‘zga tilga ko‘chirishda vujudga keladi.

Hali yaxshi o‘rganilmagan ijobiy ta’sir shundan iboratki, ona tilida tarkib topgan qator ko‘nikmalar chet tilini o‘zlashtirishga ko‘chiriladi. Masalan, matnni ovoz chiqarib o‘qish ko‘nikmasini egallash bolalar yoki katta yoshdagilarda chet tilini o‘rganayotgan savodli o‘quvchilarga nisbatan katta qiyinchilik keltirib chiqaradi. Chet tilini o‘zlashtirishda ona tili tizimini bilish, ayniqsa, ona tili o‘rganilayotgan tillarda o‘xshash

hodisalar mavjud bo‘lganda, o‘quvchilarga yordam beradi. Ana shunday ijobiy ta’sir *ko‘chirilish* deb ataladi, sababi shuki, malaka va ko‘nikmalar ona tilidan chet tiliga ko‘chiriladi.

Shu bilan birga ona tili chet tilini o‘zlashtirishga aks ta’sir ko‘rsatadi. Uning mohiyati shundan iboratki, o‘quvchi o‘z ona tilining odatlangan me’yorini chet tiliga ko‘chiradi. Masalan, o‘quvchilar chet tili tovushlarini ona tili tovushlariga o‘xshatib talaffuz qiladi. Ona tilidagi nisbatan erkin bo‘lgan so‘z tartibi me’yorini G‘arbiy yevropa tillariga olib kiradi, ona tilidagi o‘xshash hodisalarning ma’nolarini chet tili hodisalariga nisbatan noto‘g‘ri qo‘llaydi.

Tilshunoslikka oid izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ikki til tizimining aloqasi davrida uchinchi tizim paydo bo‘lib, uning tuzilishi yo‘l qo‘yilgan xatolar bilan ifodalanadi. Bunday tizim chet tilini o‘rganayotgan kishi ongida hosil bo‘ladi. Interferentsiyaning ko‘rsatkichlari bo‘lib xatolar xizmat qiladi. Ikki til tizimi kontakti paytida paydo bo‘ladigan interferentsiya va ko‘chirilish hodisalarini hisobga olib, metodikasi o‘rganilayotgan chet tilini ona tili bilan taqqoslanishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil qilishni ishlab chiqish talab etiladi. Chet tili o‘qitish metodikasi o‘quv jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, ko‘chirilish hodisasi keng qo‘llanishi va interferentsiya hodisasining oldi olinishini ta’minlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зокирова С. М. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни. Монография. –Фарғона. 2021. Б. 40.
2. Федоров А.В. О задачах сопоставительного изучения языков // Немецко-русские языковые параллели. – М., 1961. – С. 16.
3. Ярцева В. Н. Контрастивная лингвистика / В. Н. Ярцева // Лингвистический энциклопедический словарь. – М. : Советская энциклопедия, 1990. – С. 239.
4. Байрамова Л. К. Введение в контрастивную лингвистику. – Казань: КГУ, 2004. – С. 4.
5. Вайнрайх, У. Одноязычие и многоязычие / У. Вайнрайх // Новое в лингвистике. Вып. VI. – М., 1972. –С. 22
6. Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi, “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent – 2012. b.423.
7. Вестник Череповецкого государственного университета 2015 • №8. А. В. Барахта// ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖЪЯЗЫКОВОЙ ИНТЕРФЕРЕНЦИИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ И РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО.

JAHON TILSHUNOSLIGIDA “ONA” KONSEPTINING O‘RGANILISHI

Navoiy davlat pedagogika institut
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-kurs magistranti
Safarova NigoraFahlavon qizi
Ilmiy rahbar: f.f.d. N.J.Yarasheva
safarovanigora82@gmail.com

Annotatsiya: Barcha millatlarning o‘zaro umumiy va ma’no ko‘lami jihatidan o‘xshash terminlari mavjud. Ammo ularning barchasi ham kongnitiv lingvistikaning o‘rganilish obyekti bo‘la olmaydi. Biroq ko‘pchilik millarning leksekologiyasida shundayin leksema borki, mana shu millatlar lingvistikasida konsept darajasiga ko‘tarila oladi. Ushbu termin flektiv tillar oilasida “mother”, “mama”, “mum”, “ma” shaklida qo‘llansa, turkiy tillar oilasida “ona” , “anne”, “ena” va boshqa shakllarda qo‘llaniladi. Ushbu maqolada jahon tilshunosligida “ona” va “onalik” konseptlarining o‘rganilishi va tadqiq qilinishini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar: Buddizm, kogneziya, konsept, ma’no ko‘lami, mif, mifologiya,super ona.

Abstract: All nations have terms that are common and similar in meaning. But not all of them can be the study object of cognitive linguistics. However, there is such a lexeme in the lexicology of many nations that can rise to the level of a concept in the linguistics of these nations. This term is used in the form of "mother", "mama", "mum", "ma" in the family of in flected languages, and in the form of "ana", "anne", "ena" and other forms in the family of Turkic languages. In this article, we will consider the study and research of the concepts of "mother" and "motherhood" in world linguistics.

Key words: Buddhism, cognition, concept, scope of meaning, myth, mythology, super mother.

Deyarli barcha millatlar kognitiv tilshunosligida “ona” konsepti farzand dunyoga keltiruvchi va tarbiyalovchi shaxs, mehr monumenti, jonkuyar fidoyi inson, kelajak bunyotkori, onalik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatda o‘rganiladi va badiiy adabiyotlarda ham shunday tariflanadi. Xususan, hind olimasi Zinia Mitraning “Hindistonda “onalik” konsepti: mif, afsona va haqiqatlar” (“Concept of Motherhood in India: myths, theories and realities”) maqolalar to‘plamida shu haqida fikr yuritadi va hind badiiy adabiyoti va jahon adabiyotida “ona” konseptining qo‘lanilishi va ochib berilishini namoyish etadi. Zinnia Mitra o‘z kitobida shoma A.Chaterjining “Mif, onalik va mifologik hind kinosi” nomli maqolasini keltradi. Bu maqolada ko‘pchilik but va sanamga inonuvchi va etiqod qiluvchi xalqlar singari hind mifologiyasida “Ona mabuda” termini izohlanadi. Hind mifologik qarashlarida “Mabuda ona” (Mabuda Devi) jabr sitam ko‘rgan, ezilgan va taxqirlangan shaklda tasvirlnadi, hamda uning o‘g‘illari o‘z onalari uchun o‘ch oladilar. Shu orqali Zinia Mirta o‘z kitobida “Jafokash ona” ona protatipni ochib beradi. Olima “onalar” orasidagi farq haqida o‘z asarining 1-qismida gapirar ekan barcha onalar yaxshi va farzandlari uchun mehr-muhabbat ramzi bo‘la olishini aytib o‘tadi. va ingliz adibasi Erna Bombek “Onalik: Ikkinchisi” nomli asaridan: “*Onalik hamma narsaga mos keladigan narsa emas, hamma narsani qamrab oladigan va hamma odamlar uchun bir xil ma’noni anglatuvchi qolip emas... Hech bir ona yaxshi yoki yomon, hamma kuladigan yoki jiddiy, hamma mehribon yoki g‘azablangan deya olmaymiz. Ikkilamchilik ularning tomirlari orqali o‘tadi” (1983, 10)* degan jumlalarni keltiradi va asarida hamma onalar ham birdek yaxshi va mehribon emasliklariga e’tibor qaratadi hamda oz bo‘lsada yomon onalar ham mavjud ekanligini va bunday protatibdagi onalar hind badiiy asarlarida “o‘gay ona” termini bilan yuritilishini aytib o‘tadi, shu o‘rinda Zinia Mitra Sudhir Kakarning “*Yomon ona mavzusi hind kontekstida nafaqat mavjud bo‘lgani uchun, balki o‘ziga xos intensivlik va keng tarqalganlik bilan ajralib turadiganligi uchun alohida e’tiborga loyiqdir …Barcha jamiyatlarda "yomon" onaning qiyofasi ham tajovuzkor vayron qiluvchi, ham jinsiy talabchan mavzularni birlashtiradi”(89–90)* degan so‘zlarini keltirib o‘tadi. Bundan tashqari hind mifologiysida ham bu narsa ko‘zga tashlanadi. Misol uchun, mabuda Kali orqali yovuzlik va qorong‘lik, mabudalar Parvati va Gauri orqali esa ayollarning oltinga teng tomonlarini ochib berishga harakat qilgan. Zinia Mitra o‘zining asarida yana “ona” konseptining “o‘ch olivchi” va “qasoskorlik” shaxsiy sifatlariga ham ega ekanligini aytib o‘tadi va bu ayniqsa, uning farzandiga aloqador bo‘lsa va yoki farzandidan judo bo‘lgan bo‘lsa yaqqol ko‘zga tashlanishini ta’kidlab misol tariqasida “Kichik ayollar” “Gorkiyning onasi” va Mahasveta Devining “1084-yilning onasi” deb nomlangan asrlardagi inqilobda ishtirok etganligi uchun halok bo‘lgan farzandining o‘chi olishga chog‘langan onaning inqilobchilik yo‘liga kirishi va o‘z farzandining ishlarini davom ettirishi haqidagi fikrlarni taqdim etadi. Ayni shu chog‘da, o‘zbek afsonalari orqali hammaga tanish bo‘lgan To‘maris qahramoni ko‘z oldimizga kelishi ajab emas. Chunki To‘maris ham ona sifatida farzandidan ayrilgandan so‘ng, uning xunini olish uchun jangga otlanadi. Demak, “qasoskor ona” termini nafaqat jahon tilshunosligida balki o‘zbek tilshunosligida ham ko‘zga tashlanar ekan.

Zinia Mitra bundan tashqari o‘zining ishida “onalik” farzand dunyoga keltirish va homiladorlik his-tuyg‘ulari va xatti-harakatlari onada avtomatik tarzda nomoyon bo‘lishini aytadi va onalar og‘riq, azob va stress bilan birga mamnuniyat, quvonch va xursandchilikni ham boshlarida o‘tkazishlari mumkinligini aytadi. Ya’ni, jamiyatdagi noto‘g‘ri fikrlar va qarashlar tufaylik “onalik” jarayoni xususan, hind madaniyatida onalik og‘ir va azobli o‘tishi mumkinligini aytadi. Jumladan, ayrim holatlarda, onaning butunlay farzandga va oila xo‘jaligiga javobgar etib belgilanishi uning tushkunlikka tushushiga va ma’naviy jihatdan sinishga olib kelishi va buning natijasida ona o‘zining nafislik jozibasini yo‘qotishga olib kelishini ochib beradi. Ketrin Meyer o‘zining “Ona: Zamonaviyning matn tahlili.Ommabop nutqda ona identifikatorlari” magistrlik dessertatsiyasida esa “onalik” nisbatan murakkab tushuncha ekanligini ta’kidlab, zamon va madaniyatdagi yangilanishlar uning psixikasi va ruhiyatiga ta’sir etishi natijasida onaning ham shaxsiyati o‘zgarishini ko‘rsatib o‘tadi. Ketrin Mayer o‘zining ilmiy ishida onaning homidorlik va farzand ko‘rishga tayyorgarlik jarayonida jamiyatdagi insonlarning “yaxshi ona” va “yomon ona” to‘g‘risidagi turli xil fikrlari orqali bo‘lajak onani qistov ostiga olishlari natijasi unda ikkilanish va o‘ziga ishonchsizlik hissi paydo bo‘lishi haqida fikrlarni bayon qiladi.

Ikkala ilmiy ishni o‘rganish jarayonida shunday fikrga kelishimiz mumkinki, “ona” konsepti haqida fikr yuritilgan “uy” ma’nosini ifodalashini ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni uyda o‘tirib farzandlari tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatidagi qotib qolgan qarashlarga e’tibor qartilgaligini ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda, ikkila ishda ham “Zamonaviy onalar” tushunchasiga ahamiyat beriladi va hattoki, bugungi kundagi onalarning uy bekasi sifatidagi faoliyatiga balki jamiyatda tutgan o‘rni va ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi ayollarning ahamiyati haqida ilmiy faktlar keltirib o‘tiladi. Bundan tashqari Ketrin Mayer 1970-yillar Amerika ilmiy tadqiqotlar haqida so‘z ochib akademik Oakleyning “Ayol ishi: uy bekasi, o‘tmish va hozir” nomli ishini ham o‘z so‘zlarning isboti sifatida kiritib o‘tadi.

Shuningdek, Zinia Mitraning ilmiy tadqiqotida “onalik” konseptining “o‘zini qurbon qilish” ma’noviy jihati haqida ham fikr yuritadi va Afrika badiiy matnlaridan Buchi Emechitaning “Onalik quvonchlari” (“Happiness of motherhood”) asari va Mahasveta Devining “Stanadayini” asarlari solishtirilib, turmush o‘rtog‘idan ayrilib yolg‘iz qolgan onaning kogneziyasiga e’tibor qaratiladi va shu orqali yana “yolg‘iz ona” terminiga ham to‘xtalib o‘tadi. Ilmiy tadqiqotda yolg‘iz qolgan ona barcha e’tiborini farzandlarining kamoliga qaratishi, bu qarash ayniqsa o‘g‘il farzandlarga nisbatan qo‘llanishi ko‘zda tutiladi va ularning o‘sib-unib, kuchga to‘lib o‘z onalariga nisbatan g‘amxo‘rlik qilishini kutishi, lekin doim ham bunday bo‘lmasligi ochib beriladi. Xususan, Emechitaning asarida Zinia Mitra quyidagi so‘zlarni keltordi: *“Nnu Ego onalik g‘ururining bir qismi biroz modasiz ko‘rinish va xursandchilik bilan rasm chizish ekanligini tushundi: “Men boshqa kiyim sotib ololmayman, chunki men uni emizaman, shuning uchun men hech qayerga sotish uchun bora olmayman. har qanday narsa." Kimlardir odatda shunday javob olardi: "Qanday bo‘lmasin, u tez orada o‘sib, sizni kiyintiradi va siz uchun dehqonchilik qiladi, shunda keksaligingiz shirin bo‘ladi"*. Bundan ko‘rinadiki, ona farzandlarini qornini to‘yg‘azish va ularni o‘qitish uchun hattoki o‘ziga yangi kiyim ola olmagani namoyon bo‘ladi, ammo onalik o‘y-hayollari o‘zi xohlagandek amalga oshmay yaqinlari tomonidan kamsitilganligi va achinarli o‘lim topgandan so‘ng yaxshigina daromad topadigan o‘g‘illari tomonidan tantanali dafn marosimi uyushtirilishi va hattoki, ushbu onaning qabri ziyoratgohga aylantirilishi, biroq xafa bo‘lgan onaning duo va iltijolarni qabul qilishni xohlamasligi ochib beriladi va shu o‘rinda “bechora ona” termini ham o‘z-o‘zidan namoyon bo‘ldi. Ketrin Mayer ham o‘zining magistrlik dessertatsiyasida shu haqda fikr yuritib, yolg‘iz onalar asosan, farzandlarining “hissiy ta’minoti”ga emas, balki ularning “moliyaviy ta’minoti”ga alohida e‘tibor qaratishlarini ta’kidlagan.

Zinia Mitraning ilmiy ishida ya’na “o‘g‘il farzandli ona” va “qiz farzandli ona” terminlari ham mvjud bo‘lib, ko‘pchilik millatlarning ijtimoiy-madaniy hayotida “an’anaviy onalik” nomi ostida namoyon bo‘lib, o‘g‘il farzandi bor onaning jamiyatda hurmat-ehtiromga sazovor ekanligi va aksincha, qiz farzandi bor onalar e’tiborsiz qoldirilishi va jamiyatda yerga urilishini ochib bergan. Xususan, hind madaniyatida o‘g‘il farzandi yo‘q onaga nisbatan past nazar bilan qaralganligini ko‘rishimiz mumkin va yana agarda u o‘g‘il farzand tug‘a olmasa turmush o‘rtog‘ining ikkinchi ayolga uylanishiga qarshilik qilmasligi haqida ham ma’lumot beradi.

Yana shu narsa qiziqki, Zinia Mitraning yuqoridagi kitobida kamyob terminlardan biri “Lanatlovchi ona” terminiga to‘xtalib o‘tiladi. Ya’ ni onaning lanati juda kuchli bo‘lib, ona lanatini olgan shaxs hind mifologiyasida xudolar qahriga uchrashi va undan omad yuz o‘girish ochib beriladi. Xususan, ushbu nazriya nafaqat buddistik qarashlarda balki islomiy qarashlarda ham qisman mavjud. Ammo asosan, bu qarash positiv jihatdan yondashiladi. “Onaning duosi isjobat bo‘ladi”, “Jannat onalar oyig‘i ostida, “ Onaning duosi balolardan asraydi” kabi ko‘plab qarashlar islomiy va ayniqsa, o‘zbek mifologiyasida ko‘p uchraydi. Ayni shu o‘rinda Shoma A.Chaterji o‘z maqolasida hind mifologiyasida onani tavsiflash orqali “g‘azabnok ona” terminini ham ifodalab, agarda ona g‘azablansa, uning g‘azabi qudratli yovuz kuchlar va hattoki, jinlarga ham bas kela olishini yozadi va yana ushbu kitobda Daya Dissayanakening “Ona uydagi Budda” maqolasi ham keltirilik buddistik asarlar va buddizm asotirlardagi ona konseptining ifodalanishiga e‘tibor qaratiladi. Maqolaga asosan aytilishicha, ona ayol va erkak terminlardan ancha ustun mazmunga ega bo‘lib, ona ulug‘likning eng yuqori darajasida turadi. Ammo hindlardagi qisman saqlangan patriarxat tuzumi orqali “ona”konsepti quyiga tushirladi va ayollar sinfiga kiritiladi. Patriarxat tuzimda onaga, xususan ayolga, kuchsiz va ikkinchi darajali jins sifatida qaralishiga qaramay buddizmda ona eng kuchli jins va aql-idrok egasi sifatida qaraldi. Buning isboti sifatida homiladorlik, tug‘riq va farzandni tarbiyalash jarayonlarini keltiradi va bu jarayonlarni erkaklarning yordamisiz uddalashi aytila hamda buddizmda uning mehrini xudoning mehri kabi sof va beg‘araz deb tasvirlanishini aytib o‘tadi. Ammo bundayin “ona” konseptining nisbatan quyi pog‘onaga qo‘yilishi faqatgina hind millatida emas balki, Amerika madaniyatida ham 1980-yillargacha saqlanganligini Ketrin Mayerning ilmiy tadqiqotida ko‘rishimiz mumkin. Unda aytilishicha shu davrda ko‘pgina onalar yaxshigina haq to‘lanadigan lavozimda faoliyat yuritsada, “an’naviy ona” ya’ni uyda qolib farzand tarbiyasi va uy ishlari bilan shug‘ullanadigan onalar protatipi yuksak daraja ko‘tarishining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Bundan tashqari Ketrin Mayer o‘zining dissertatsiyasida “ona” konseptining “zamonaviy ona” shakli ham keltirib o‘tadi va uni “mehnatkash ona”, “ishlaydigan ona” kabi terminlar bilan ma’no ko‘lamini kengaytiradi. “Ishlaydigan ona” termini orqali onalar sinfining nisbatan yuqori sinfi ma’nosi yuklanadi va shu o‘rinda bunday onalarga yevropa va boshqa g‘arbiy mintaqa davlatlarida “super ona” termini bilan ifodalanadi.

Demak, turli millatlar turlicha ma’nolarda kelishi va turlicha mazmun ifodalanishiga qaramay ularning barchasida umumiy g‘oya asosi ya’ni “onalik” konseptual asoslari bilan birlashishini ko‘rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

Buchi Emecheta: *Onalik quvonchlari* .Lagos: Allison va Basby, 1979
Erna Bombey :Onalik : ikkinchi eng qadimgi kasb. Nyu-York, Dell, 1984
Ketrin Mayer. Ona: Zamonaviyning matn tahlili Ommabop nutqda ona identifikatorlari *(2009-).*142. https://epublications.marquette.edu/theses_open/142
Mahasweta Devi, "Stanadayini", Ko‘krak hikoyalari .Kalkutta: Seagull Books1997
Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006
Zinia Mitra. Hindistonda onalik konsepti: Mif, fsona va haqiqatlar. Buyuk Britaniya Kembrij olimlar nashriyoti 2020

SAID AHMADNING “UFQ” ASARIDA AJRATILGAN BO‘LAKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Yusupova Orziboni Sunnatovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada sintaktik birliklardan biri – ajratilgan bo‘laklarning ayrim lingvopoetik xususiyatlari o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan, so‘z ustasi Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi misolida o‘rganilgan. Bu birlikning badiiy adabiyotda adib asarlarini undividualligini ta’minlashdagi o‘rni, emotsional-ekspressivlikni hosil qilishdagi ishtiroki yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Said Ahmad, “Ufq”, lingvopoetika, ajratilgan bo‘lak, emotsional-ekspressivlik.

Abstract: In this article, one of the syntactic units - some linguopoetic features of separated fragments - is studied on the example of the trilogy "Horizon" by one of the bright manifestations of Uzbek literature, master of words Said Ahmed. The role of this unit in ensuring the individuality of literary works, its participation in creating emotional-expressiveness in fiction is highlighted.

Key words: Said Ahmed, "Horizon", linguopoetics, separated part, emotional-expressiveness.

Аннотация:В данной статье одна из синтаксических единиц – некоторые лингвопоэтические особенности отдельных фрагментов – исследуются на примере трилогии «Горизонт» одного из ярких представителей узбекской литературы, мастера слова Саида Ахмеда. Выделена роль этого подразделения в обеспечении индивидуальности литературного произведения, его участие в создании эмоционально-выразительности в художественной литературе.

Ключевые слова: Саид Ахмед, «Горизонт», лингвопоэтика, выделенная часть, эмоционально-выразительность.

Xalqimizning sevimli adiblaridan biri Said Ahmad ijodiga mansub barcha asarlar xalqchilligi, mazmunan va shaklan to‘kisligi, tilimizning barcha imkoniyatlari-yu, rangin jilolarini o‘zida aks ettira olgani bilan ajralib turadi. Bu yozuvchining mahoratidan, til san’atini mukammal egallaganligidan dalolat beradi. Zero, Said Ahmad ta’kidlaganidek, yozuvchi o‘z ona tilini butun ranglari bilan, ohanglari bilan, noz-u nazokatlari bilan bilishi kerak [4; 36]. Yozuvchi asarlari tilining yana bir muhim xususiyati shundaki, barcha til birliklari badiiy maqsadni amalga oshirish uchun baravar xizmat qiladi. Xuddi shunday birliklardan biri ajratilgan bo‘laklar bo‘lib, ilmiy manbalarda murakkab fikrni sodda, ixcham va ta’sirli ifodalash usullaridan biri ajratilgan bo‘laklardan foydalanish ekanligi ta’kidlanadi” [6; 208-209]. Shu sababdan, ajratilgan bo‘laklar muhim lingvopoetik vosita hisoblanib, yozuvchilar undan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar: “1.Ma’lum voqelik yoki obraz, xarakter yoki qiyofani chizishda uning asosiy o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi gap bo‘laklarini o‘quvchiga shu asosiy xususiyatlarni anglatish maqsadida bo‘laklar ajratiladi. 2. Ba’zan obrazni yoki hodisani o‘quvchiga yaxshi tanishtirish maqsadida uni ikkinchi biror narsa va hodisaga yoki holatga o‘xshatish orqali ifodalaydi, ya’ni obrazli gap bo‘laklarini hosil qiladi. 3.Ta’sirni kuchaytirish, kuchli emotsiya yaratish, ritordatsiya uchun ajratilgan bo‘laklar ishlatiladi. 4.Yozuvchi yordamchi so‘zlar vositasidagi tayyor nutq formalarini asosiy hukmga tirkab ishlatadi [3; 155-160].

Shu jumladan, Said Ahmad asarlarida ham obrazning asosiy muhim xususiyatlarini bo‘rttirib ifodalovchi ajratilgan aniqlovchilar, fikrning aniq, tushunarli hamda konkret bo‘lishini ta’minlovchi ajratilgan izohlar, fikrni atroflicha bayon etishga yordam qiluvchi ajralgan ko‘makchili to‘ldiruvchi va hollar

ko‘plab qo‘llanilgan: *Bola-chaqasidan ko‘ngil uzolmagan onalargina dugonalari bilan xayr-ma’zur qilib, Izboskanning har tarafiga – o‘z qishloqlariga qaytib ketishgan edi. (S.Ahmad. “Ufq”, 201)* Yozuvchi biror portretni chizishda ajratilgan aniqlovchilardan foydalanadi. Bunda yozuvchi obrazning yorqin portretini gavdalantiradi va, shu bilan birga, fikr ham reallashadi. Bu fikrda reallashayotgan narsa u obrazning haqiqatni aytishi va yot dalillarni rad etishidir: *Mana bugun yangi yil. Odamlar urush nasibasi – g‘aribgina dasturxonxon ustida ko‘p umid qilgan va’da qilgan qirq ikkinchi yilni kutib Moskva radiosiga quloq solmoqdalar (S.Ahmad.“Ufq”, 252).*

Yozuvchi fikrni aytish bilan birga, ajratilgan bo‘laklar vositasida shu obrazni jonli holda o‘quvchining ko‘z o‘ngida gavdalantiradi: *U dala yo‘llarida kezib qizning yo‘lini poylar, butun vujudidan yoshlik – balog‘at tarovati barq urib turgan qizni tinimsiz qo‘msardi. (S.Ahmad. “Ufq”, 240)*

Yozuvchi peyzaj chizishda, tasviriylikni kuchaytirishda ham ajratilgan bo‘laklardan foydalanadi. *Shu qog‘ozlar betiga surati tushirilgan o‘n minglab Azizxon butun vodiy tepasida, bulutlardan ham balandda, olmos cho‘qqilar, sap-sariq adirlar, sonsiz jilg‘lar ustida suzardi. (S.Ahmad. “Urq”, 234)* Ma’noni kuchaytirish, ta’sirni, tasviriylikni, ritm va ohangdorlikni yaratish maqsadida ham ajratiladi: *Tom-toshlarni qor bosib yotibdi. Izg‘irin ko‘z ochilmaydi. Anhor bo‘yidagi qayrag‘och novdalarini bulduruq o‘rab tanasigacha oppoq qilib qo‘ygan. Ammo Nizomjon bu sovuq, noxush manzaraga parvo qilmasdi. U uyga, jigarining motamiga, shoshardi. (S.Ahmad. “Ufq”, 253)*

Obrazni yoki hodisani o‘quvchiga yaxshi tushuntirish maqsadida uni ikkinchi biror narsa va hodisaga yoki holatga o‘xshatish orqali ifodalaydi, ya’ni obrazli gap bo‘laklarini, qurilmalarni qo‘llaydi: *…do‘ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni – cho‘l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo‘l yo‘q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo‘lovchining yuragiga vahm sololmasdi. (S.Ahmad. “Ufq”, 271)* Bu gapda yozuvchi ajratilgan bo‘lak ishlatmasa nima bo‘lardi.…*do‘ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni bu mening maskanim, odamga yo‘l yo‘q, degandek viqorli boqishi, bu ikki yo‘lovchining yuragigiga vahm sololmasdi*. Ko‘rinib turibdiki, ajratilgan bo‘lak izohlab kelgan birikma tasviriy ifoda bolib, hamma ham sahro sultoni burgut ekanligini bilmasligi, ko‘z oldiga keltirmasligi mumkin. Shuning uchun bu ifoda ajratilgan izoh bo‘lakka muhtoj. Agar izohlanayotgan bolak sahro sultoni tushib ajratilgan bo‘lakning o‘zi qolsa, bu nutqning personaj nutqidan farq qolmaydi. Chunki bu fikrlar muallif nutqi bo‘lib, unda badiiy asarning so‘zlashuv tilidan farqlovchi yoki adabiy tildan farqlovchi xususiyati – badiiylikni vujudga keltiruvchi birlik – tasviriy ifoda qo‘llanmoqda. Qiyoslaylik:…do‘ngliklarda haykaldek qotgan cho‘l burgutlarining bu mening maskanim, odamga yo‘l yo‘q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo‘lovchining yuragigiga vahm sololmasdi. …do‘ngliklarda haykaldek qotgan sahro sultoni – cho‘l burgutlarining: bu mening maskanim, odamga yo‘l yo‘q, degandek viqorli boqishi bu ikki yo‘lovchining yuragiga vahm sololmasdi.

Bundan tashqari ajratilgan bo‘lakning qo‘llanilishi ma’noni kuchaytirishga xizmat qilishi mumkin: *Nizomjonning tanasiga elektr toki urgandek vujudi zirqirab ketdi. Opasi nima deyapti? Akangning xotiniga – kelin ayangga uylan, deyapti? (S.Ahmad. “Ufq”, 258).* Ushbu gapda ajratilgan bo‘lak qayta aniqlash ma’nosida emas, akaning xotini kelin aya bo‘lishi o‘zbeklar uchun tushunarli so‘z. Biroq bu birlik ma’noni kuchaytirish uchun qo‘llanmoqda. Quyidagi misolda ham yozuvchi shu maqsadda ajratilgan bo‘lakdan foydalangan: *A’zamjon qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urgandi. U hozir alam otashida yonardi. O‘zini qishloqdan – tug‘ilib o‘sgan qishlog‘idan quvilgan hisoblardi. (S.Ahmad. “Ufq”, 502)* Ba’zan ajratilgan bo‘lak vazifasida kelgan so‘z izohlanayotgan so‘zning sinonimi bo‘lib, ma’noni kuchaytirishga, emotsional-ekspressivlikni orttirishga xizmat qiladi: *O‘lmasa, dardga chalinib qolmasa, bu saxovatli kishilarga bir yaxshilik qilsin, shunday yaxshilik qilsinki, bu nogiron-xasta kishi diliga o‘chmas alam solgan bolasining dog‘ini unutsin. (S.Ahmad. “Ufq”, 303)*

Ba’zan tinglovchiga yoki kitobxonga noaniq, mavhum bo‘lgan narsani qayta nomlab aniqlaydi: *Tagida tutun buruqsayotgan bak oldida tunov kungi marshallarning kichigi – To‘pponcha polvon shalag‘i chiqib ketgan mototsiklning g‘ildiragiga yel berayotgan edi. (S.Ahmad. “Ufq”, 413); Butun ikki yuz yetmish kilometrlik kanal trassasida uch kishining: Do‘nan polvon, Aziz polvon, Esh polvonlarning nomi og‘izdan tushmasdi. (S.Ahmad. “Ufq”, 113).*

Ayrim o‘rinlarda esa gapdagi ma’lum bir bo‘lakni, ko‘pinchi yozuvchining diqqat-e’tiboridagi bo‘lakni ta’kidlash uchun ajratilgan bo‘lak qo‘llaniladi: *Olamga nur taratayotgan, kurtakalar bag‘rida bahor shabadasini quyayotgan bu tongda hamma narsa: jonli-jonsiz miriqib orom olardi-yu, faqat bir kishi – Ikromjongina alam, dahshat, iztirob olovida kuyib yonardi (S.Ahmad. “Ufq”,448).* Yozuvchi faqat bir kishi deb, faqat Ikromjonni qiynalayotganini ajratib ko‘rsatyapti. Urush payti. Hamma qiynalmoqda. Birov farzandini kutib, birov farzandining tirik-o‘likligini bilolmay, birov farzandining, yaqinining, otasining, sevgilisining o‘limiga chiday olmay qiynalmoqda. Odamlar urush keltirgan turli kulfatlardan qiynalmoqda. Biroq faqat bir kishi – Ikromjon boshqacha narsadan o‘g‘lining urushga bormay qochoqqa aylanganidan, el-

yurt oldida sharmanda bo‘lganligidan qiynalmoqda. Yozuvchi aynan shu holatni ajratilgan bo‘lak orqali ifodalamoqda. Demak, bu yerda ajratilgan bo‘lak shaxsni ajratish, ta’kidlash vazifasini bajarmoqda. Quyidagi misolda kasb-hunarga, to‘g‘rirog‘i dehqonchilikka oid atamani, achitma so‘zini qayta izohlash uchun ajratilgan bo‘lakdan foydalanilgan: *Nizomjon Ikromjonga bildirmay har oqshom qoq yarim kechada ketmoni olib to‘qayga kirib ketardi-da, to tong yorishguncha ikki sotix yerni achitma-chopiq qilib qo‘yardi. (S.Ahmad. “Ufq”,349)*

Ayrim hollarda ajratilgan bo‘lak asarda maqsadsiz ishlatilgandek tuyuladi: *Katta o‘g‘li – to‘rt yashar Omonjon dadasining etagidan ushlab ergashib yuribdi. U dod deydi, chaqaloq chirillab yig‘laydi, pochchasi do‘rillab alla aytadi. (S.Ahmad. “Ufq”, 307*) Lekin nima sababdan *to‘rt yashar* so‘zi tilga olingani keyinchalik ayon bo‘ladi. Shu to‘rt yashar bola Tursunboy aka qochoq, hamma qochoq deydi, deb aytgani uchun dadasidan, To‘lanboydan dakki eshitadi, tayoq yeydi. Keyinchalik Zebi bilan Tursunboy munosabatini ham Nizomjon shu boladan eshitadi. Chunki u bola hali to‘rt yoshda. Fikrlash, bu gapni aytsa bo‘ladi, bu gapni aytmaslik kerak degan gapdan yiroq, hali eshitganlari haqida mulohaza yurita olmaydi. Shu sababdan ham hamma eshitganlarini kimgadir aytishni xohlaydi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, S.Ahmadning “Ufq” asarida ham ajratilgan bo‘laklar ma’lum bir bo‘lak ma’nosini ta’kidlash, bo‘rttirish hamda ma’lum bir bo‘lakning umumiy ma’nosini izohlash, konkretlashtirish, tushunarsiz ma’nosini tushuntirish, ta’kidlash, gapdagi eng muhim, ahamiyatli, yangi axborot tashuvchi qismni ajratib ko‘rsatish, ma’noni kuchaytirish kabi vazifalarni bajargan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

Ahmad Said. Ufq. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2016.

2.Болтабоева Ҳ. Ажратилган бўлаклар ва ажралишга доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – № 6. –Б.41-45.

3.Болтабоева Ҳ. Ўзбек тилида мураккаблашган содда гаплар. Тошкент: Фан, 1969.

4.Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1988.

5.Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: – Самарқанд: Зарафшон, 1992.

6.Ўзбек тили грамматикаси. II томлик. 2-том. –Тошкент: Фан, 1976.

TURKIY TILLARGA XOS KULOLCHILIK TERMINLARINING QIYOSIY TAHLILIGA DOIR

Sariyev Sherzod Norqo‘ziyevich –
O‘zbekiston- Finlandiya pedagogika instituti o‘qituvchisi

Ma’lumki, kulolchilki ko‘p asrlik tajriba natijasida shakllangan. Milliy hunarmandchilikning muhim turlaridan biri bo‘lgan kulolchilik qadimiy hunarlardandir. Bu jarayonlar turkiy xalqlar tarixining bir qismidir. Turkiy xalqlar lug‘at boyligining asosiy qismini kulolchilik leksikasi tashkil etadi. Sohaga doir leksik birliklarning tarkibini ko‘rib chiqilganda, uning tarixi turkiylar tarixi, etnografiyasi, etnopsixologiyasi, til madaniyati bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ma’lum bo‘ladi. Tadqiqotchilar arxeologik materiallar asosida shunday xulosaga kelishdi.natijada ular bizning eramizdan oldin, milodiy 4-ming yillikdan boshlab turkiy davlatlar sanoatining asosiy turlaridan biri bo‘lganligi tarixiy manbalarda qayd etilganligi aniqlandi.

Chunki ularda turkiy xalqlar hayotida ham shunday: iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlar aks etgan bo‘ladi. Bu esa nafaqat o‘zbek, balki barcha turkiy tilining kulolchilik leksikasini har tomonlama o‘rganishga ixtisoslashganligidan dalolat beradi. Albatta, kulolchilik terminologiyasi - tilning ijtimoiy guruhlar hamda hududiy xoslanishga egaligi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etganligi uni o‘rganishda dala ekspeditsiyalari uyushtirish bilan bog‘liqligini taqoza yetadi.

Hozirgi turkiy tillarda ayrim birliklar qo‘llanilsa-da, ayrim so‘zlar hozirgi tilimiz nuqtai nazaridan u allaqachon arxaiklashgandir. Shuningdek, kulolchilik leksikasiga mansub leksik birliklarning ko‘pligi adabiy tilda emas, balki ma’lum hudud sheva leksikasi bilan bog‘liqlikda namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, u boshqa turkiy tillar hamda ularning shevalari leksikasini tarixini tahlil qilish hamda ularga xos soha leksikasini qiyosiy tahlil qilish hamda uni lingvistik va madaniy jihatdan o‘rganish zarurligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek soha terminologiyasini tadqiq etishda qadimgi va o‘rta asr turkiy alifbolari, shuningdek, hozirgi turkiy tillar va yozuvlarni taqqoslash maqsadida materiallar o‘rganish ham yaxshi natija beradi.

Turkiy tillar tilining kulolchilik leksikasida grammatik qoidalarga amal qilishi hamda ularning leksikadagi hosila leksik birlik bolsa-da, soha vakillari nutqida kamroq qo‘llanadi, sohaga doir lug‘aviy birliklarni to‘liq ifodalamaydi, ular turkiy tillarning so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlar sifatida faolroq qo‘llaniladi.

Kulolchilik terminologiyasiga aloqador so‘zlarning aksariyati qo‘llanish doirasi cheklangan so‘z va terminlardir. Odatda ular ko‘pincha kulolchilik bilan shug‘ullanuvchi shaxslar nutqida kuzatiladi. Masalan, gil tuprogi, jikol "loy qozon"
kulolning shakl berish uchun ishlatadigan yog‘och pichoq, "galbari" "kulolning kitresida qizdirilgan.

Loy materialini alohida yoki qum bilan birga aralashtirishda kulolchilikda loy materialni ortiqcha moddalardan tozalashda maxsus yog‘ochdan foydalanilgan. Masalan, ozarbayjon tilida “bo‘yni qiyshiq kishilar bo‘ynini to‘g‘rilash uchun moomiyo ishlatgan yog‘och bo‘lagi"- kartalas; "loy idishning pastki qismini shakllantirish uchun ishlatiladigan asbob"-teglik; gabatrin -ayollar tomonidan ishlatiladigan yog‘och tayanchli yuvish mashinasi, har bir ikki o‘tkir tishli metall vilka -gagramma; "kulol mahsulotini qismlarga bo‘lish uchun tayyorlash jarayoni- galib «dulus garx1», "list"- sopol idishni bosish, tekishlash orqali shakllantirish uchun ishlatiladi.

Jarayon davomida ho‘l qozonga to‘plangan loy materiali kulol g‘ildirakli o‘chog‘ida qizdirilgan. Binoning yoqilg‘i aralashtirish uchun ishlatiladigan 4-5 m. uzunlikdagi yog‘och xoda tartibga solish – lena; nasxim -loy material alohida yoki ol bilan aralashganda qum bilan birga ishlatiladi,nopokliklardan tozalash; picana- pishgan loy miqdorini anglatadi.

Kulolchilik mahsulotinin tuzatish uchun”- piya(bu pechni mahkamlashda ishlatiladi). Kulolchilik texnikasi, piiskar- kulolchilikda loy materialni pishitish uchun ishlatiladi.

Turkiy tillar kulolchilik leksikasining asosiy qismini sheva so‘zlari tashkil etadi. Tilshunoslikda ular «dialekt terminlari» va «dialektizm» tarkibiga kiritiladi. Kulollar nutqida qo‘llangan shevaga so‘z va terminlar ham dialektika tushunchasi sifatida o‘rganiladi.

Tarixan kulolchilik markazlari alohida, ixtisoslashgan tarzda faoliyat yuritgan. Shahar markazlarida kulolchilik mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasida ham, ularni nomlashda ham har xilliklar yuzaga kelishi uchun imkoniyat yaratdi.

Soha terminologiyasi - odamlarning ijtimoiy hayoti, iqtisodiy faoliyati bilan ham bog‘liq. Bu soha asosan kulolchilik bilan bog‘liq. Kulolchilikda qo‘llaniladigan kulolchilik asboblari nomlari, sopol buyumlar tayyorlashda ishlatiladigan atama, material va boshqalarni ifodalovchi terminlar ham talaygina

Kulolchilik terminologiyasi etnografik leksika bilan o‘xshash tomonlarga ega bo‘lsa-da, bu ikki soha bir-biridan farq qiladi. Etnosning moddiy va ma’naviy madaniyatini aks ettiruvchi so‘zlar, leksik birliklardir. Kulolchilik terminologiyasi uyg‘unlik sohasiga ko‘ra bir-biri bilan munosabatda bo‘lgan jinslarning nutqida ishlatiladigan so‘zlardir. Etnografik terminologiya esa boylik va boylik nuqtai nazaridan kulolchilik lug‘atidan keskin farq qiladi.

Shevaga oid terminlar kulolchilik leksikasining salmoqli qismini tashkil qiladi. Tarixan, kulolchilikning turli hujjatlarida, boshqa markazlar bilan bog‘lanmagan holda, alohida shakllanmagan.Bu jarayon jamiyat rivojlanishi bilan bog‘liq.

Kulolchilikda ishlatiladigan kulolchilik qurollari va ularning qismlari nomlari, kulolchilik ishlab chiqarish unchalik murakkab bo‘lmagan texnikaga asoslangan terminlardan iboratdir.
O‘zaro bog‘liq terminlarni semantik sohalari bo‘yicha quyidagicha tasniflash mumkin:

a) kulolchilik dastgohi ning orqa qismi (qo‘l yoki oyoq orqasi), shuningdek, uning alohida qismlarining nomi lug‘aviy birliklarni bildiruvchi: bala khetiik "potter's lovhest above the arch", carx "potter". Kulollar tomonidan kichik o‘q atrofida aylanadigan mahsulotni tayyorlash uchun ishlatiladi. U aylanaga o‘xshaydi, ustun yoki oyoq bilan yasalgan asbob , orqa "kulol jo‘mrakining tepasida joylashgan. Pastki qismi", tovon "o‘q kulolning bo‘yniga tegadigan joy", hujum "kulol kamarining pastki qismi laqvhasi, galib "dulus-charx", o‘q "dulus garkh" pastki va yuqori qismlari bir-biri bilanulash qismi", o‘quvchi "kulol orqasidagi o‘qning oxiriga o‘tkazilgan metall bo‘lagi", o‘rindiq "kulol bo‘ynining metall bilan izolyatsiya qilingan pastki qismi", ichi bo‘sh- "kulol bo‘ynining pastki qismidagi teshik", "kulol g‘ildiragining yuqori qismi", yasdig- "o‘q kulol charxidan o‘tgan joy".

b) sopol buyumlar yasashda ishlatiladigan asboblar nomini ifodalovchi
leksik birliklar: galbari -“kulolxonadagi issiqlikni tartibga soluvchi vosita”, kiyon “kulol”- qozondagi issiqlikni tartibga soluvchi vosita", gira "kulol qozonini saqlash uchun ishlatilgan.Arralash uchun ishlatiladigan 4-5 m. uzunlikdagi yog‘och xoda, og‘ish "kulol doirasida" pishirilgan idishlarning tagiga qo‘yilgan temir plastinka, ular yopishib qolmasligini ta’minlaydigan asbob -zola. Kulol choynakining yoqilg‘isini aralashtirish uchun xizmat qiladigan 4-5 m. uzunligi bo‘yicha yog‘och sivil.

v) sopol idishlarni tayyorlashda shakl berish uchun ishlatiladigan asboblar nomini bildiruvchi leksik birliklar: bazak taroq - kulol buyumiga naqsh yasash uchun ishlatiladigan yog‘och asbob, bigag -kulolning kulolchilikka shakl berishda ishlatgan yog‘ochi -bigaq, jikol - kulol sopol idishlarga shakl berish uchun ishlatadigan yog‘och pichoq – taroq; kulol sopol idishlarni shakllantirish uchun ishlatiladigan yog‘och tayoq; yog‘ochdan kulol chetiga naqsh solish uchun foydalanilgan, kulol ayollar tomonidan qo‘llaniladigan

metall pichoq; karkar- uzun bo‘yinli kulolchilik buyumlarining bo‘yni; kulolning qozon yasashda qo‘llagan yog‘och bo‘lagi – kartalas; loydan yasalgan idish tagiga qolip tayanchli, ikki uchi o‘tkir metall -kattabag, sopol idishning bo‘ynini so‘zlash uchun gargi taroq ishlatiladi.
Xulosa qilib aytganda, ushbular asosida nafaqat o‘zbek, balki turkiy tillar kulolchilik terminlarining qo‘llanish mazmunli mohiyatini tadqiq etish bugungi turkiyshunoslik fani oldida zudlik bilan bajarishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri ekanligi xususida fikr bildirish lozimligini anglashga to‘g‘ri keladi.

ONA TILI DARSLARIDA UZVIYLIKNI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

M.Sattorova
Nav DPI.

Ona tili ta’limi uzviyligi deganda ta’limning turli bosqichlarida o‘rganiladigan bilimlarning, egallanishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalarning o‘zaro aloqadorligi nazarda tutiladi. Bu boshqa barcha o‘quv predmetlari qatorida ona tili fani oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir. U faqat nazariy jihatdan tilshunos olimlar hal qilishi kerak bo‘lgan ilmiy muammogina emas, balki har bir amaliyotchi-o‘qituvchi kundalik hayotda duch keladigan eng jiddiy amaliy vazifa hamdir.

Uzviylik barcha fanlarni eng samarali tarzda o‘zlashtirishning bosh omilidir. U tegishli bilimlarni o‘zlashtirishda qanchalik muhim bo‘lsa, shu bilimlarni olish va amaliyotga tatbiq etish bilan aloqador bo‘lgan ko‘nikma va malakalarni egallashda ham shunchalik zarurdir. Buning hayotiy zarurat ekanligini isbotlab o‘tirish shart emas. Shunga qaramay uni amalga oshirishning real yo‘l-yo‘riqlari uchun yosh mutaxassislarga muhtojlik seziladi. Mazkur mavzu ana shu zarurat taqozosiga ko‘ra yuzaga keldi.

Uzviylik va uzluksizlik tushunchalari bir-biri bilan chambarchas aloqadorlikda yashaydi. Ushbu so‘zlarning «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dagi tavsiflari bilan qiziqib, ushbu so‘zlarning alohida lug‘at sifatida berilmaganini ko‘rib afsuslandik. Lug‘atda faqat «uzviy» va «uzluksiz» so‘zlarigina tav-siflangan, xolos. Ularning tavsifi quyidagicha:
«Uzviy — 2. Biror kimsa yoki narsaning ajralmas bir qismi hisoblanadigan, u bilan chambarchas bog‘langan; eng yaqin»[118].

«Uzluksiz - 1. Birin-ketin, ketma-ket, paydar-pay... 2. To‘xtamasdan, surunkasiga, tinimsiz... Muntazam ravishda, izchil ravishda, kanda qilmasdan»[1].
Mazkur izohlar bu so‘zlarning asl mohiyatini tasavvur qilishga imkon beradi. Biz dastlab, ta’limning turli bosqichlarini nazarda tutishimiz kerak. Bu maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan iboratdir. Ona tili ta’limidagi asosiy ko‘rsatkichlarning sifat va samarasi mana shu bosqichlardagi ichki aloqadorlikning qanchalik e’tiborga olinishiga chambarchas bog‘liqdir.

Uzluksizlik esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarining I bosqichi (1-1U) va II bosqichi (U-1X) bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili ta’limi o‘rtasidagi bog‘lanishdir.
Ona tili ta’limining uzviyligi masalasini quyidagicha tushunish mumkin:
1. Ona tili ta’limi bosqichlari o‘rtasidagi (vertikal) uzviylik. Bunda muayyan ta’lim mazmunini avvalgisi bilan uzviy bog‘langan holda, uni keyingi ta’lim turlarida davom ettirish ta’minlanadi.
2. Ona tili ta’limining boshqa o‘quv fanlari orasidagi (gorizontal) uzviylik.
Ona tili ta’limi tizimida uzviylikni to‘la hal qilish uchun ta’lim mazmunini bayon qilishda o‘qitish texnologiyasidagi uzviylikni ham ta’minlash muhimdir.
Ona tili ta’limi tizimida uzviylikni to‘la ta’minlash uchun quyidagi tamoyillarga asoslangan holda ish yuritish talab etiladi:
- ona tili dasturining DTS talablariga javob berishi;
- dasturning ijtimoiy buyurtmaga mos bo‘lishi;
- o‘quvchilar bilim faoliyati yaxlitligini ta’minlay olishi;
— dasturda vertikal va gorizontal uzviylikning ta’minlanganligi;
— dastur mazmuniga kiritilgan mavzular o‘quvchilar dunyoqarashi, bilim olishga bo‘lgan psixo-fiziologik xususiyatlariga muvofiqligi;
— fanlararo aloqani amalga oshirishda o‘qitishni integratsiyalashga oid ko‘rsatmalarning dasturda o‘z ifodasini topganligi;
— dasturda axborot texnologiyalarini qo‘llashga oid ko‘rsatmalarning hisobga olinganligi;

[118] A.Madvaliyev ,N.Mahkamov, N.Mahmudov v.b..O‘zbek tilining izohli lug‘ati,5-jildi,to‘ldirilgan va tuzatilgan nashri, “O‘zbekiston nashriyoti”, Toshkent-2021-y.265-bet.

— dastur materiallarining oddiydan murakkabga tamoyili asosida joylashtirilganligi;
— dastur materiallarining tematik, muammoli tematik, tarixiylik tamoyillari asosida guruxdashti-rilganligi.
Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda ona tili o‘qituvchilari quyidagi didaktik talablarga e’tibor berishi muhim hisoblanadi:
— ta’lim jarayonini aniq maqsad asosida tashkil etish;
— ta’lim jarayonini tizimli, uzviy, izchil tashkil etishga erishish;
— ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalana olish;
— ta’lim jarayonida demokratik tamoyillar hamda milliy umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga tayanish;
— ta’lim jarayonida axborot texnologiyalariga alohida e’tibor berish;
— har bir mavzu mohiyatini ochib beruvchi, o‘quvchilarni ijodiy izlanishga yo‘naltiradigan ta’lim shakli va usul hamda metodlaridan foydalanish.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchisining kecha, ya’ni oila va bog‘chada olgan bilim darajasini albatta nazarda tutishi shart. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yuqori sinflardagi ona tili ta’limi oldidagi asosiy ko‘rsatkichlardan xabardor bo‘lishi ham ish unumiga, uning pirovard natijasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu talab akademik litsey va kasb-hunar ta’limiga ham aloqador.
Har bir bosqich o‘quvchiga mutlaqo yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun imkon va sharoit yaratib berishi muqarrar. Demak, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan yangi va yaxshi ko‘nikma va malakalar saklab qolinishigina emas, balki yanada rivojlantirilishi, boyitilib borishi ham kerak bo‘ladi. Xuddi shuning uchun davlat ta’lim standartlarining muqarrar ravishda bajarilishining nechog‘lik muhim ekanligini tasavvur etish qiyin bo‘lmaydi.Bularning barchasi o‘quvchilarning turli bosqichlarda oladigan grammatik bilimlarinigina emas, balki ular egallayotgan ko‘nikma va malakalarning ham batafsil uyg‘unlashtirib borilishini taqozo etadi.
Demak, muayyan ta’lim bosqichida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi faqat shu bosqich uchun ko‘zda tutiladigan davlat ta’lim standartlari, dastur talablarini bilish bilan kifoyalanib qolmasligi kerak bo‘ladi.Bu yo‘ldagi dastlabki qadam ta’limning hamma bosqichlarida yo‘lga qo‘yilishi shart bo‘lgan munosib nutqiy sharoitni yaratishdan iboratdir.
Ta’limning turli bosqichlarida bolaning tabiiy rivojlanishiga bog‘liq holda yangi faoliyat turlari yuzaga kela boshlaydi, aniqrog‘i bola ularga ro‘para bo‘la boshlaydi. Masalan, u oilada, maktabgacha ta’lim muassasalarida tildan og‘zaki muloqot vositasi sifatidagina foydalanib kelgan edi. Boshlang‘ich sinfga kelgach, unda yangi faoliyat turi paydo bo‘ladi. Bular:
> til endi bola uchun bilish vositasiga aylanadi, ya’ni maktabdagi o‘quvchi faoliyatining asosiy turi bo‘lgan o‘qish vositasi vazifasini ado etadi;
> maktabga kelgunicha u nutqning ikki ko‘rinishi: eshitish va gapirishdangina foydalangan bo‘lsa, bu bosqichda ularning yoniga o‘qish va yozish — dasturda vertikal va gorizontal uzviylikning ta’minlanganligi;
— dastur mazmuniga kiritilgan mavzular o‘quvchilar dunyoqarashi, bilim olishga bo‘lgan psixo-fiziologik xususiyatlariga muvofiqligi;
— fanlararo aloqani amalga oshirishda o‘qitishni integratsiyalashga oid ko‘rsatmalarning dasturda o‘z ifodasini topganligi;
— dasturda axborot texnologiyalarini qo‘llashga oid ko‘rsatmalarning hisobga olinganligi;
— dastur materiallarining oddiydan murakkabga tamoyili asosida joylashtirilganligi;
— dastur materiallarining tematik, muammoli tematik, tarixiylik tamoyillari asosida guruhlashtirilganligi.
Mazkur tamoyillarni amalga oshirishda ona tili o‘qituvchilari quyidagi didaktik talablarga e’tibor berishi muhim hisoblanadi:
— ta’lim jarayonini aniq maqsad asosida tashkil etish;
— ta’lim jarayonini tizimli, uzviy, izchil tashkil etishga erishish;
— ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish;
— ta’lim jarayonida demokratik tamoyillar hamda milliy umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga tayanish;
— ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilikka alohida e’tibor berish;
— har bir mavzu mohiyatini ochib beruvchi, o‘quvchilarni ijodiy izlanishga yo‘naltiradigan ta’lim shakli va usul hamda metodlaridan foydalanish.
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘z o‘quvchisining kecha, ya’ni oila va bog‘chada olgan bilim darajasini albatta nazarda tutishi shart. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining yuqori sinflardagi ona tili ta’limi oldidagi asosiy ko‘rsatkichlardan xabardor bo‘lishi ham ish unumiga, uning pirovard natijasiga ijo-biy ta’sir ko‘rsatadi. Bu talab akademik litsey va kasb-hunar ta’limiga ham aloqador.Har bir bosqich o‘quvchiga mutlaqo yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganishi va o‘zlashtirishi uchun imkon va sharoit yaratib berishi muqarrar. Demak, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilayotgan yangi va yaxshi ko‘nikma va malakalar saqlab qolinishigina emas, balki yanada rivojlantirilishi, boyitilib borishi ham kerak bo‘ladi. Xuddi shuning

uchun davlat ta’lim standartlarining muqarrar ravishda bajarilishining nechog‘lik muhim ekanligini tasavvur etish qiyin bo‘lmaydi.

Bularning barchasi o‘quvchilarning turli bosqichlar-da oladigan grammatik bilimlarinigina emas, balki ular egallayotgan ko‘nikma va malakalarning ham ba-tafsil uyg‘unlashtirib borilishini taqozo etadi.

TURKIY TILLARGA XOS XOS QANDOLATCHILIK TERMINLARI XUSUSIDA

Xaydarova Dilnoza Mamatqulovna-
ToshDO‘TAU huzuridagi DIYUAO‘ MOM Samarqand bo‘limi o‘qituvchisi.

Ma’lumki, qandolatchilik -milliy hunarmandchilikning mahalliy mahsulotlari, mahalliy shirinliklar, qand-qurslar tayyorlanadigan sohasi. SHarq mamlakatlarida qadimdan rivoj topib, ayniqsa, o‘rta asrlarda keng tarqalgan. O‘rta Osiyoning turkiy tilli davlatlarining qadimiy Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshhovuz, Xo‘jand, Qo‘qon, Chimkent, Toshkent va O‘sh singari yirik shaharlarida qandolatchilikning o‘z tarixi va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan silsilasi mavjud.

Eng birinchi shirinliklar juda uzoq vaqt oldin, Sharqda paydo bo‘lgan va ular xurmo va asaldan qilingan. Keyinchalik **qadimgi Rusda shirinliklar** chinor siropi va asaldan qaynatilgan.

Bu paytda zamonaviy shirinliklarga o‘xshash shirinliklar esa, allaqachon shakar ishlatilgan holda, XVI asrda Italiyada ishlab chiqarila boshlangan edi. Ammo, g‘alati jihati shundaki ular dorixonalarda sotilgan va faqat kattalar uchun mo‘ljallangan, chunki ular juda kuchli dori deb hisoblangan. Bu, albatta, bolalarga nisbatan adolatsizlik edi.

Asta-sekin boshqa mamlakatlarda shakar qo‘shilgan shirinliklar ishlab chiqarila boshlandi. Faqat u yerda ular dorixonalarda emas, balki qandolatxonalarda sotildi.

So‘nggi o‘rta asrlarda O‘rta Osiyoda hunarmandchilikning turli sohalari bilan bir qatorda qandolatchilik sohasida turli xil shirinliklar – qand, xolva, novvot, nisholda, pashmak va boshqalarni tayyorlashgan. Qarshi qandolatchilari han Buxoro va Samarqand qandolatchilaridan qolishmas edilar. F. Beneveni XVIII asrda Qarshi yaqinida aholining qandga o‘xshagan “manna” to‘plagananliklarini va undan shirinliklar tayyorlashda shakar sifatida foydalanganliklarini yozgan. O‘rta Osiyo qandolatchilarining mahoratidan XX asr boshlariga oid quyidagi ma’lumot ham xabar beradi. Bu yerda “shakar va qo‘y yog‘i aralashmasidan o‘rik, shaftoli, nok, olma, behi shaklidagi mahalliy konfetlar tayyorlangan. Bo‘yoqlar yordamida ustalar tabiatga taqlid qilishga erishganlar”.

O‘zbek tilidagi shirin terminini azorbayjonlar -şirin, qirg‘izlar tattuu,turklar- tatli, turkmanlar -süýji, uyg‘ur tilida- totluq, qozoqlar-tətti, tatar va qoraqalpoq tillarida – tatli ,deb nomlanadi.

Shirinlik terminini esa qozoq, azorbayjon, qirg‘iz, tatar, turkman tillarida- desert, , uyg‘ur tilida - totluq emak turkmancha -halwa, tatarcha -xalva, uyg‘urcha xalva, qozoqcha- xalya, qirg‘izcha- xalva, azarboyjoncha – xalva va hakoza.

Qandolat – “qaynatilgan mevalar yoki o‘tlardan tayyorlangan dori” degan ma’noni beradi. Ozarbayjon tilida - Şirniyyat məmulatları, qirg‘iz tilida- konditerdik aziktar, qirg‘iz tilida- konditer riziklari,uyg‘ur tilida- totluq turum, qozoq tilida – konditerlik ənimderi,turkman tili-konditer önümleri,

Holva— o‘zining xush shirin ta’mi-yu nodirligi bilan, oz bo‘lsa ham ishtaha doim talab qilinadigan, dasturxonga xoslikni va a’lolikni bag‘ishlaydigan, “shundan bir eb ko‘rsam” deb intiqlik paydo qiladigan, qiymati boshqalardan a’loroq ne’mat holva ekanligini barcha e’tirof qilishi turgan gap.

HOLVA — shirinlik turi. SHakar, asaldan qaynatilgan qiyomga yog‘, kunjut, yong‘oq mag‘zi, bodom mag‘zi, un hamda boshqa masalliqlar solib tayyorlanadi. Solinadigan masalliqqa ko‘ra, holvaning bodroq holva., mag‘iz holva., yong‘oq holva, kungaboqar holva, kunjut holva., eryong‘oq holva, pashmak holva kabi turlari mavjud. Har bir holva turi o‘z navbatida qo‘shilgan yordamchi masallig‘iga qarab turlanadi. SHarq mamlakatlarida, jumladan O‘rta Osiyoda qadimdan holvapazlik (holvachilik) kasbi mavjud bo‘lgan.

Yirik shaharlarda holvapazlar dastlab, uzum yoki tut shinnisi, un, yog‘, kunjut, o‘rik va boshqa mevalarning sharbatidan holva tayyorlashni boshlaganlar , keyinchalik shakar va asaldan foydalanib turli-tuman Holvalarni tayyorlashga ixtisoslashganlar.

Hozirgi kunda esa ta’mini yaxshilash uchun holvaga kakao va kakao kukuni, mayiz, sukatlar, vanilin, limon kislota va boshqalar qo‘shiladi.

Holva asosan ikki hil turda: shakar va asal qiyomi bilan tayyorlanar ekan. Ayniqsa, asal kiyomi orqali tayyorlangan holva o‘ta mazzali bo‘lib asosan hos buyurtmachilarning talablariga binoan tayyorlangan.

Turkiy tillarning deyarli barchasida ba‘zi bir fonetik farqlar bilan holvachilikka oid quyidagi terminlar qo‘llanadi.

Tor tortish – navvot uchun ip tortish 40 ga yaqin.
Chip-chip qozon – to‘la qazon
Cho‘lpi – tayyor bo‘lgan shirinlikni qozondan suzib oluvchi asbob.
Kristallanish – qotib navot holiga kelishi.
Silova – novot qazonining ostiga qolgan suyuqlik. Unga qayta shakar solib novot qilish mumkin. Undan parvarda yoki pishiriqlar tayyorlash uchun foydalanish mumkin.
Birinchi novot – ipga yopishgan oq novot.
Ikkinchi novot – silovaga yana shakar qo‘shib tayyorlangan novot. Uning rangi sariq bo‘ladi, kristallari maydaroq.
Novotning yuragi – ipga yopishgani.
Pushti novot – qozonning chetiga (girdiga) yopishgani.
Pushti (girdi, gardi) –
Tuya ko‘z (Bo‘ta ko‘z) – qiyomning qaynash darajasi me’yoriga yetganini bildiradi.
Duxta – ikki qavat matodan tayyorlangan dasturxon. Tayyor kesilgan parvardalar duxtaga solinadi, o‘rab qo‘yiladi va o‘z haroratida sovitiladi.
Yog‘li xolva – Bu xolvaning tarkibiga eng sara mol charvisi solinganligi uchun yog‘li deyiladi. Bu xolvani sochli xolva, pashmak xolva kabi shakllari bor.
Chilcho‘p – anor yoki tut shoxidan tayyorlangan, ko‘pirtirish uchun ishlatiladigan cho‘p moslama.
Kurak – tut yog‘ochidan tayyorlangan moslama bo‘lib uning yordamida aralashtiriladi.
Kapsha – 1,5 m uzunlikdagi, asosan chinor daraxtidan tayyorlangan moslama. Nisholdani aralashtiradi.

Xullas, ildiz va tili bir bo‘lgan turkiy tillarning nafaqat qandolatchilik , balki barcha sohalari terminlarini qiyoslab o‘rganish bugungi turkiyshunoslik fani uchun muhim ahamiyatga egaligini hosobga olgan holda zudlik bilanbu ishlarni amalga oshirish tilshunoslar oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARIDAGI OMONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Axmedova Zamira Abdiraxmonovna
Navbahor tumani 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi direktori.

Annotatsiya. Maqolada linvopoetikaning o‘rganilishi, badiiy asarlarning lingvopoetik tahlili muhimligi , aynan “Zarbulmasal” adabiy jihatdan qanchalik noyob asar hisoblansa, til nuqtayi nazaridan ham nodir asar ekanligiga ahamiyat qaratilgan. . Ushbu asar tilida ahtonim, sinonim, omonim, paronim hamda leksika (dialektizmlar), istiorizmlar, arxaizmlar (…) tasnifi va so‘zdan unumli foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Asarda berilgan ayrim omonim so‘zlar tahlili berilgan.

Kalit so‘zlar: linvopoetika, shakldosh so‘zlar, adabiy shakl, adabiy til, sintaktik birliklar, xalq maqollari, matallar, tasnif.

Абстрактный. В статье акцентируется внимание на важности изучения лингвопоэтики, лингвопоэтического анализа художественных произведений, а также на том факте, что «Зарбулмасал» является произведением редким с точки зрения языка, поскольку считается уникальным произведением из литературной литературы. точка зрения. . На языке данной работы необходимо проанализировать особенности классификации и эффективного использования слова ахтоним, синонима, омонима, паронима и лексики (диалектизмов), историзмов, архаизмов (...). Дан анализ некоторых омонимов, приведенных в работе.

Ключевые слова: линвопоэтика, сходные слова, литературная форма, литературный язык, синтаксические единицы, народные пословицы, пословицы, классификация.

Abstract. The article focuses on the importance of the study of linguopoetics, the linguopoetic analysis of artistic works, and the fact that "Zarbulmasal" is a rare work from the point of view of language, as much as it is considered a unique work from a literary point of view. . In the language of this work, it is necessary to analyze the characteristics of ahtonym, synonym, homonym, paronym and lexicon (dialectisms), historiisms, archaisms (...) classification and effective use of the word. An analysis of some homonyms given in the work is given.

Key words: linvopoetics, similar words, literary form, literary language, syntactic units, folk proverbs, proverbs, classification.

Hozirgi kunda badiiy asar tilini lingvopoetik o‘rganish ko‘pgina ilmiy tadqiqotlar markazida bo‘lib kelmoqda. Chunki til va adabiyot bir-biriga bog‘liq bo‘lib, uyg‘unlikda taraqqiy etib kelgan. Shuning uchun lingvopoetik tadqiqotlar asosida tilshunoslarimiz tomonidan badiiy matnni ham, ham adabiyot nuqtayi

nazaridan tadqiq etish ishlari amalga oshirilmoqda. A.Mamajonovning 1989-yilda nashr qilingan “Tekst lingvistikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasi, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari” (2007), O.Azizovning “Tilshunoslikka kirish”(1996), shuningdek ko‘pgina yosh tadqiqotchilarning olib borayotgan ishlari bunga misoldir.

Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o‘zbek tili materiallari asosida to‘liq tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev linvopoetik tahlilning quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tadi: 1. Shakl va mazmun birligi asosida yondashuv, bunda shakl va mazmun bir-birini to‘ldirib turishi lozim. 2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish. Makon va zamon bir davrda bo‘lishi kerak. 3. Umumxalq tili va adabiy til asosida baholash. 4. Badiiy matnga badiiy estetik yaxlitlik sifatida yondashuv, matnda ishlatilgan unsurlardan badiiy-estetik birlik hosil qilish. 5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash. 6. Badiiy matnda eksplitsitlik va implitsitlik nizbatini aniqlash. 7. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Har qanday badiiy asar asosida so‘z va so‘zlarning mantiqiy birlashishi natijasida hosil bo‘lgan sodda va murakkab tuzilishga ega sintaktik birliklar yotadi. Til vositalarining lingvopoetik imkonoyatlarini aniqlash esa badiiy matnlarga tayanishni, qator badiiy asarlarni tahlil qilishni taqozo etadi.badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo‘lar ekan, biror asarni yuksak darajaga ko‘tara olishda, avvalo bu asar tilimiz rivojiga qanday ta’sir o‘tkazayotgani muhimdir. Lingvopoetika so‘zining tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “lingvistika” va “poetika” so‘zlarining qo‘shilmasidan hosil bo‘lgan. Hozirgi kundagi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri o‘zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, yaxlit va qolipga solishdan iboratdir.

Tilshunoslikda lingvopoetik tahlilni o‘rganish uchun Gulxaniyning “Zarbulmasal” iga e’tibor qaratamiz. Bu asar yuzasidan badiiy tahlil ishlari ko‘plab olib borilgan bo‘lib, lekin lingvopoetik tahlil qilinmagan. Asarda adib xalq og‘zaki ijodi materiallarini qayta ishlash bilan birga uning g‘oyaviy yo‘nalishi, uslubi hamda badiiy xususiyatlarini saqlab qolishga intiladi. Gulxaniy xalq og‘zaki ijodini juda yaxshi bilgan. U o‘zbek va tojik tillaridagi maqol, masal, hikmatli so‘zlardan badiiy mahorat bilan foydalangan. O‘sha davrning xalq tili va adabiy til vositalarini shu asari orqali bizgacha yetib kelishiga ulkan hissa qo‘shdi. “Zarbulmasal” asari yuzasidan ko‘plab badiiy tahlil, tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo bu asar lingvopoetik tahlil qilishni ham taqozo etmoqda.

Bizga ma’lumki, Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal–tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan shoirdir. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari adabiyotimiz nodir namunasidir. “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgan.

“Zarbulmasal” adabiy jihatdan qanchalik noyob asar hisoblansa, til nuqtayi nazaridan ham nodir asardir. Ushbu asar tilida ahtonim, sinonim, omonim, paronim hamda leksika (dialektizmlar), istiorizmlar, arxaizmlar (…) tasnifi va so‘zdan unumli foydalanish xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Asarda berilgan ayrim omonim so‘zlar tahlilga e’tibor qaratamiz. Ma’lumki, omonim-shakli bir xil, anglatadigan ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlardir. Aytilishi va yozilishi bir xil, ammo turli atash ma’nolarini bildirgan shakldosh so‘zlardir. Gulxaniy bu asarida omonimlardan unumli foydalangan.

Az karam nest baxili kardan
Xo nihodan taomi zud zo‘rdan.

Bu mizralarda baxillik qilish yomon odat, ya’ni karamdan emas, shuningdek dasturxonga qo‘yilgan taomdan yemoqlik yaxshi ekanligi aytilgan. Baytdagi karam so‘zi omonim so‘z bo‘lib, marhamat, muruvvat ma’nosida kelgan. Karam – poliz ekini sifatida ham qo‘llanilib, shakldosh so‘z sanaladi.

G‘am hujum etganda besomonligim o‘rtar meni,
Mezbon xijlat chekar har necha mehmondir tanish.

Mazkur misralarda mehmon kelganda mezmon g‘amli, tashvishli bo‘lsa, bu holat mehmonni noqulay ahvolga solib qo‘yishi ifoda etilgan. Undagi tanish so‘zi omonim so‘z bo‘lib, tanish inson (sifat), tanishmoq (fe’l) shakllarida qo‘llaniladi.

O‘zi ko‘r, Ravshan yururdi ajab,
Kecha-kunduzi jo‘stjo‘yi talab.

Bu baytda o‘zini ko‘rlikka solidi, lekin to‘g‘ri yuradi, kecha-kunduz birovdan ta’magirlik qilishi aks etgan. Bunda ko‘r so‘zi shakldosh so‘z bo‘lib, ko‘r inson (sifat), ko‘rmoq (fe’l) ma’nolarida ishlatiladi.

Erur asli, nasli qizilbosh saqat,
Bitardi kitob barchasini g‘alat.

Bunda o‘zi qizilboshlar naslidan bo‘lib, yozgan kitoblari ham g‘lati, haqiqatdan yiroqligi ifoda etilgan. Parchadagi bitardi so‘zi omonim so‘z bo‘lib, noma yozmoq, ishini tugatmoq shakllarida ham qo‘llaniladi.

“Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas,
Riyozat chekmaguncha , yor vasliga yetib bo‘lmas.”

Bunda tikansiz gul, sadafsiz dur, qiyinchiliksiz hunar bo‘lmagani kabi yor vasliga ham osonlik bilan erishib bo‘lmasligi aytilgan. Bu baytdagi yor so‘zi (ot, fe’l) shakldosh so‘zdir: yor keldi; o‘tin yormoq.

Sabr sening dardingga darmon bo‘lur,
Sabr bilan xor guliston bo‘lur.

Bunda sabrning dardlarga darmonligi, sabr bilan tikonzor gulzorlarga aylanishi ifodalangan. Parchadagi xor so‘zi omonim bo‘lib, tikanzor, tikan hamda haqir, bechora mazmunida shakldoshlik hosil qiladi.

Gulxaniy asarda aniq makon (Ho‘qand, Buxoro) va zamon (XIX asr), hayotiy voqelik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq an’analarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, so‘z o‘yinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Bayon etishda turli omomin iborlar, sinonim, antonim, paronim hamda chegaralangan leksikalardan unumli foydalangan. Bu esa asarning linvopoetik tahlil qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, linvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardandir. Chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanishi aniq tasvirlanadi. Badiiy matnning estetik qimmatini belgilash va baholashda aynan shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko‘rishda ham zamin vafifasini bajarishi mumkin. Badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik-morfologik kabi birliklar ishtirok etadi. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili shu tilning poetic imkoniyatlarini ochishga, muallif tomonidan til xazinasidagi mavjud til boyliklaridan foydalanish mahoratiga baho berishga xizmat qiladi. Til ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida doimo qisqalik va ixchamlikka intiladi. Inson uchun qanday talaffuz qilish to‘g‘riligidan ko‘ra, qanday talaffuz qilish qulay va osonligi muhimroq. Tildagi fonetik va leksik so‘zlarni qo‘llash bir qancha osonlik va ravonlikni ta’minlaydi. Badiiy asarning eng muhim bosqichi til bo‘lar ekan, biror ijodkorni tilini o‘rganar ekanmiz, avvalo eng e’tibor berishimiz kerak bo‘ladigan narsa uning tilimiz rivojiga o‘z asarlari bilan qanday ta’sir o‘tkazayotgani bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizov O. “Tilshunoslikka kirish” T.1996
2. Arastu.”Poetika”. T.2011
3. M.Yo‘ldoshev. “Badiiy matnning lisoniy tahlil”. T.2008
4. Gulxaniy. “Zarbulmasal”. T.2016

DIALEKTIZMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Yuldashev Jo‘rabek Uralovich,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Rezyume: *Maqolada Usmon Nosir she’rlarida dialektizmlarning lingvopoetik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch tushunchalar: *dialekt, dialektizm, leksik dialektizm, etnografik dialektizm, semantik dialektizm, poetik jozibadorlik, estetik qimmat.*

Резюме: *В статье рассматриваются лингвопоэтические возможности диалектизмов в стихотворениях Османа Насира.*

Ключевые слова и понятия: *диалект, диалектизм, лексический диалектизм, этнографический диалектизм, смысловой диалектизм, поэтическая привлекательность, эстетическая ценность.*

Resume:*The article discusses the linguopoetik possibilities of dialectisms in Osman Nasir's poems.*

Key words and word expressions: *dialect, dialecticism, lexical dialecticism, ethnographic dialecticism, semantic dialecticism, poetic appeal, aesthetic value*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan o‘zining shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Dialektal so‘zlar milliy tilning asosini tashkil etadi va milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Dialektal so‘zlarning ko‘pchiligi tilimizning uzoq o‘tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf-odatlari va shu kabilarni o‘zida yorqin aks ettiradi. Dialektlar qator tilshunos olimlar ta’kidlaganlaridek (N.Mahmudov, S.Ashirboyev, M.Yo‘ldoshev) badiiy nutqda muhim stilistik vazifalarni bajaradi. Odatda, dialektlar muayyan badiiy asarda alohida qahramonning nutqini individuallashtirish, hududiy mansublikni anglatish hamda mahalliy koloritni berishga xizmat qiladi. Dialektal so‘zlarning badiiy asarda qo‘llanishi qahramonlar nutqining rang-

barangligini ta’minlab, nutqning jonli va ta’sirchanligini oshirish hamda badiiy asar tilining poetik xususiyatlarini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Shoir Usmon Nosir ham she’rlarida dialektal so‘zlardan muayyan badiiy maqsadni ko‘zlab foydalangan. Aslida, Usmon Nosir she’r va dostonlarida juda kam o‘rinlardagina shevaga xos so‘zlarga murojaat qiladi. Shunday bo‘lsa-da, biz ushbu dialektal birliklarning semantik-stilistik, lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishni ahamiyatli deb bildik. Taniqli tilshunos olim M.Yo‘ldoshev dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: sof leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar, semantik dialektizmlar. Usmon Nosir she’r va dostonlarida leksik va fonetik dialektizmlarni uchratdik va tahlilga tortdik. Bunday dialektizmlar shoir she’rlarida o‘ziga xos jarangga egaligi hamda poetik jozibadorligi bilan ajralib turadi. Masalan:

Salmoq qadam
Tashlab bardam
Bag‘riga yerning,
Tilka-tilkasini chiqarib
Qora tuproqning,
Ostin-ustun qilib,yana
Bazo‘r *ontarib***,**
Egar urgan
Oddiy bir yigit.

“Bodom gullagan kechasi” she’ridan olingan nutqiy parchadagi *ontarmoq* dialektizmi adabiy tilda *ag‘darmoq* ekvivalentiga to‘g‘ri keladi. Mazkur dialektizmning satrda poetik aktuallashganligi ko‘rinib turibdi. Shoirning “Safarbar satrlar” va “Traktorobod” to‘plamlari davr taomiliga ko‘ra, mamlakatda sodir bo‘layotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni xalqqa yetkazish va o‘zgarishlarni madh etishdan iborat “muqaddas burch” talabi bilan yozilgan. Shuning uchun ushbu to‘plamlardan o‘rin olgan she’rlarining ko‘pchiligi mamlakatdagi qurilishlar, mehnatkashlarning kundalik hayoti yoki ish jarayonini aks ettirgan. Yuqorida keltirilgan she’r parchasida ham mahalliy mehnatkashlar leksikasida uchraydigan dialektizmdan foydalanib, tinglovchiga tasvirning yanada aniq va yorqin bo‘lishida foydalangan. Zero, *ontarmoq* dialektizmida *ag‘darmoq* leksemasiga nisbatan poetik joziba ancha yuqori.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov “Ma’lumki, tilimiz rango-rang shevalarga boy, shevalar xalq tili sifatida tilimiz takomili va tarovatini tirik saqlab kelayotgan, adabiy til quyushqonlarini ko‘pda pisand qilmaydigan, ammo uning boqiyligining zimni zaminini ushlab turadigan, adabiy til deyiladigan muazzam va muhtasham birlikning boyishiga tirgak tutadigan tuganmas manbalardir” deya ta’kidlab, Usmon Nosir asarlarida xalq tilining sheva qatlamlaridagi so‘zlardan o‘zining badiiy niyatiga muvofiq tarzda o‘rni bilan foydalanganligini qayd qiladi. Shoirning mashhur “Naxshon” dostonini tahlil qilar ekan, unda vodiy shevalarida *narvon* o‘rnida qo‘llanadigan *shoti* so‘zidan mahorat bilan foydalanganini alohida ta’kidlaydi.

Shoti bo‘lib
Ko‘kka chirmashgan nola.
Shunday poyadorki,
Ko‘rinmas tagi...

Olimning fikr bildirishicha, nolaning ko‘kka chirmashishining o‘zi bir obraz, *shoti* so‘zi ana shu obrazning yana to‘lg‘in bo‘lishiga ko‘mak bergan, ayni paytda *shoti* va *chirmashmoq* so‘zlaridagi sirg‘aluvchi “sh” tovushi eshilib ko‘tarilishni ta’kidlaganday bo‘ladi.

Ba’zan dialektizmdan shoir she’rda qofiyadoshlikni ta’minlash hamda o‘quvchiga aytilmoqchi bo‘lgan fikrni yanada tushunarli qilib berish maqsadida foydalanadi. E’tibor bering:

Salom kunduz, salom,
Salom parig‘um,
Sening toza nuring
Ko‘zimga singgan,
Salom turmush, salom,
Salom mehribon,
Sening yo‘llaringda
Mehnatim *ingan*. (“Salom, kunduz!”)

Aslida *ingan* dialektizmi bir ma’nosi bilan adabiy tilda *singgan* so‘ziga to‘g‘ri keladi. Ammo she’r parchasining dastlabki satrlarida quyosh nurining ko‘zga o‘rnashishi, jo bo‘lishi, singib ketishi haqida gap ketmoqda. Keyingi misralarda esa shoir *singmoq* leksemasi o‘rnida *ingan* dialektizmidan foydalanadi. Bu usul bilan, birinchidan, ortiqcha takrorning oldi olinadi, ikkinchidan, she’riy qofiya ham ta’minlanadi.

Shoir hayotini sinchiklab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, uning hayoti nihoyatda qiziqarli va kutilmagan voqea-hodisalarga to‘la. Barchamizga ma’lumki, shoir turmush qurish va farzand ko‘rish baxtini totib ulgurmadi. Lekin u 1932-yilda bir tush ko‘rgan va tushiga suqsur o‘g‘il – uning o‘g‘li kirgan edi. Uning ismi ham aniq, ya’ni Qunduz. Shoir tug‘ilajak o‘g‘liga atab bir necha she’r ham yozadi. Mana bu she’r parchasi ana shu she’rlarning biridan olingan:

G‘uncha to‘kkan yuzingga
Suq va suzik
Qarashlarim to‘kilar...
Qulochingni kattarak ker, *achoqlay,*
Mening yurak
Yuragingga mos tepsin. (“Qunduz sochlaringni tarat”)

She’riy parchada keltirilgan *achoqlay* dialektizmi adabiy tilda *quchoqlay* ekvivalentiga to‘g‘ri keladi. Bu o‘rinda *achoqlay* dialektizmi bolalarni erkalatish, suyish va ulardan zavq olish ottenkalarini bildirmoqda. Yoki shoirning “Norbo‘ta” dostonidan olingan ushbu namunada ham *acha* dialektizmi muayyan maqsad bilan qo‘llanilgan:

Idish emish, ammo bir yo‘la
Yaxshi ko‘rgan piyolachamni,
Birov olgan emish...*achamni*...

Acha Namangan shevasiga mansub birlik bo‘lib, adabiy tildagi ekvivalenti *ona, buvi*dir. Bu o‘rinda shoir doston qahramonlaridan biri Sarvarning tush ko‘rishi, tushida yaxshi ko‘rgan piyolachasini birov olib ketgani va buni buvisiga so‘zlab berayotganini tasvirlaydi. She’riy parchada *piyolacha* leksemasiga ohangdosh sifatida *acha* dialektizmi qo‘llanilgan. O‘quvchi esa asar qahramonining qaysi hududga mansubligi haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Shoir she’rlarida *apch urmoq* (mavjlanmoq, mavj urmoq), *abdiramoq* (aljiramoq, javramoq), *chingillamoq* (chinqirmoq), *shimg‘imoq* (sho‘mg‘imoq) kabi fe’l; *birushta* (doimo), *jichcha* (oz, kam), *bag‘i* (bu yog‘i) kabi ravish va *asti* (aslo), *satta* (nuqul) yordamchi so‘z turkumlariga oid sheva so‘zlar uchraydiki, ular ham shoir she’riyati tilining ranginligi va ifoda nozikligi uchun xizmat qiladi. Shoir Usmon Nosir she’r va dostonlarida qo‘llangan shevaga xos so‘zlar xalqona usulda oddiy xalq tiliga yaqin bo‘lganligi uchun asarning badiiy estetik qimmatini va badiiy tasvir jozibasini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1980.
2. Умаров Э. Миртемир шеъриятида шевага оид сўзлар // Тил ва адабиёт таълими, 2006. – №3. – Б. 33-36.
3. Маҳмудов. Н. Юракка созланган сўзлар синоатлари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2022 йил 19 август..
4. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол.фан.номз. ...дисс. – Тошкент, 2000.
5.Тошхўжаева Ш.Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филология фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD)....дисс. – Фарғона, 2017.

TIL – MILLATNING MUQADDAS MULKI, MA’NAVIY BOYLIGI

Shuhrat SHOMURODOV,
ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi (O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Maqolada o‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlari, so‘z boyligi, shuningdek, turkiy tillar ichida tutgan o‘rni haqida mulohazalar bildirilgan. Navoiy, Fitrat kabi mutafakkirlarning turkiy tilgan munosabati, ularning tilshunoslikdagi faoliyati tahlil qilingan.*
Kalit so‘zlar*: lingvistika, turkiy til, ma’naviyat, unsur, lison, ma’no-mohiyat, yakqalam.*

Abstract: *The article comments on the incomparable possibilities of the Uzbek language, its vocabulary, as well as its place among the Turkic languages. The attitude of such thinkers as Navoi, Fitrat to the Turkic language, their activities in linguistics are analyzed.*
Key words: *linguistics, Turkish language, spirituality, element, language, meaning-essence, yakkalam.*

Dunyoda inson zoti yaratilibdiki, bir-biri bilan gaplashadi, so‘zlashadi, o‘zaro muomalada bo‘ladi. Bunda tilning o‘rni beqiyos, albatta. Inson til orqali boshqa tirik jonzotlardan ongli ravishda farq qiladi. Dunyoda

tillar ko‘p, lekin har bir xalq, har bir millat uchun o‘z tili qadrdon va sevimli, chunki shu tilda u bemalol muloqot qiladi, o‘z fikr-tuyg‘ularini bevosita erkin ifoda etadi. O‘zbek xalqi qanchalik teran tarixga ega bo‘lsa, ona tilimiz ham shunchalik uzoq tarixga egadir. Asrlar davomida xalqimiz qanday kunlarni boshidan kechirgan bo‘lsa, tilimiz ham shunday kunlarni boshidan kechirdi.

Til millatning muqaddas mulki, ma’naviy boyligidir. Millat o‘zligini ko‘rsatadigan, millat degan ulug‘vor tushunchani shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri ham eng avvalo tildir. Tilshunos olim N.Mahmudov “*…benihoya muhtasham va muntazam mazmuniy unsur, murakkab mohiyatdir*” – deb ta’kidlaydi. Buni teran anglagan ulug‘ ajdodlarimiz milliy til taraqqiyoti uchun doimo kurashib kelganlar.

XX asr avvalida o‘zbek xalqining ko‘zga ko‘ringan ziyolisi, tilshunosi Abdurauf Fitrat vaqtli matbuotda “Tilimiz” (“Ishtirokiyun” gazetasining 1919-yil, 12- iyun soni) nomli dolzarb maqolasini e’lon qiladi. Maqolaning umumiy ruhi turk (o‘zbek) tilining o‘tmishi va kelajagi, taqdiriga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Unda Fitrat o‘zbek tilini dunyoda nihoyatda boy, lekin baxtsiz deb ataydi. Xo‘sh, baxliligi nimadayu, baxtsizligiga sabab nimada?! Tilimizning baxtini, betakror so‘z boyligini Fitrat arab tili bilan qiyosan tekshiradi, o‘zbek tilidagi fe’llarning (harakat tarzi fe’llari) nutqda turli ma’no qirralarini ochib beradi. Baxtsizligini esa, ko‘plab qomusiy olimlarning, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy va boshqalarning o‘z asarlarini arab tilida yaratganida deb ko‘rsatadi. Agar ular o‘z asrlarini o‘zbek tilida yaratganida, dunyo ilm ahli bu noyob durdonalarni tilimizda o‘qishga harakat qilgan va o‘rgangan bo‘lardi.

Turkiy tilning boy imkoniyatlarga ega ekanligini birinchi bo‘lib Alisher Navoiy o‘z asarlari orqali isbotlab, nazariy asosi sifatida “Muhokamat ul-lug‘atayn” nomli asar yaratdi. Hazrat Navoiy turkiy tilni dunyo uzra “yakqalam” qilishga, turkiy tillarni bir adabiy til doirasiga tortishga intildi. Buning yorqin isbotini o‘zining o‘lmas asarlari orqali ko‘rsatdi.

“Turk alfozida… olame nazarga keldi,– deb yozadi shoir “Muhokamat ul-lug‘atayn”da,– o‘n sakkiz ming olamdin ortuq, anda zeb-u ziynat…to‘qqiz falakdan ortuq; anda mahzane (xazina)uchradi, durlari kavokib (yulduz) gavharlaridin ravshanrok…” Navoiy o‘z ona tilini o‘n sakkiz ming olamdan ortiq deb hisoblaydi. Uning xazinalari durlarga to‘la, uning gullari osmon yulduzlaridan ham ravshanroq deb biladi. Turkiy va forsiy tillar muhokama va musohabasiga bag‘ishlangan “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy til boyliklari va imkoniyatlari boshqa tillardan qolishmasligini xolis baholaydi.

Qullik ham, erkinlik ham tildan boshlanadi. Xalqimiz o‘tmishi qanchalik murakkab yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lsa, tilimiz ham bundan kamini ko‘rmadi. Til – avvalo ijtimoiy hodisa. Jamiyat taraqqiyoti unga katta ta’sir ko‘rsatadi. Lug‘at boyligi kengayib boradi. Lekin, bu o‘z tilini unitish, kamsitish hisobiga bo‘lmasligi lozim. Avlodlardan avlodlarga meros qoladigan asosiy boylik – Til. Ona tili bor ekan, Vatan bor, Millat bor. Xalqning umr ulchovini tili belgilaydi, balki dunyo miqyosidagi nufuzini ko‘rsatadi.

Shukrki, bugun tilimizga bo‘lgan e’tibor o‘z o‘rnini topmoqda. Ish yuritish, diplomatik munosabatlar hamma-hammasi o‘zbek tilida amalga oshirilmoqda. Aslida ham shunday bo‘lishi zarur. Manaman degan jahon sporti shohsupasida o‘zbek kalimasi yangramoqda. Bundan esa ko‘ngil g‘urur, faxr tuyg‘usini tuyadi. Shoir Jamol Kamol aytganidek: “Sen tilni sharafla, el uchun nomus bil…Yo‘llarni yoritguvchi go‘zal fonus bil”.

Ona tilini sevish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. O‘z tilini hurmat qilgan xalq o‘zligini, o‘z g‘ururini asrab-avaylagan bo‘ladi. Ona tiliga muhabbat har bir so‘zning ma’nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarda namoyonbo‘ladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa o‘zbek tili o‘qituvchilari tilimizning beqiyosligini, rang-barangligini, kelgusi avlodga teran yetkazishimiz muqaddas burchimiz ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, davlat tili birligimiz, borligimiz ramzidir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz ongiga milliy g‘urur va nafosatni yuksaklarga ko‘tarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obro‘-e’tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham ko‘p jihatdan bog‘liq ekanligini takror va takror uqtirishimiz zarur. Ana shunda yosh avlod qalbida tilimizga yana-da mehr oshadi, kelajakda ular o‘z ma’naviy barkamolligini ko‘rsata olishi, shubhasizdir.

BADIIY MATN XORIJIY TILLARNI O‘QITISH VOSITASI SIFATIDA

Iroda Tuxtarova – FarDU, o‘qituvchi

Annotatsiya: Maqolada universitetlarning nolingvistik fakultetlarida ingliz tili darslarida badiiy matnlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Lingvistik yondashuv, badiiy matnlarni tanlash tamoyillari ko‘rib chiqiladi, matndan oldingi, matndan oldingi va matndan keyingi ishning mazmuni ochib beriladi. Bundan tashqari, maqolada chet tilini o‘qitishda chet tilidagi ilmiy-ommabop matnlardan

foydalanish imkoniyati va zarurligi muhokama qilinadi, shuningdek, ingliz tilidagi ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlar uslubi tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: o‘qish, nutq faoliyati, badiiy adabiyot, badiiy matn, lingvistik yondashuv, matn ustida ishlash, ilmiy-ommabop adabiyotlar, o‘quv jarayoni, ilmiy ma’lumotlar, lug‘at, terminologiya, tildan tashqari fakultet, emotsionallik, grammatik tuzilish.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ТЕКСТ КАК СРЕДСТВО ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: В статье анализируются возможности использования художественных текстов на уроках английского языка на неязыковых факультетах вузов. Рассмотрен лингвистический подход, принципы отбора художественных текстов, раскрыто значение предтекстовой, предтекстовой и посттекстовой работы. Кроме того, в статье рассматриваются возможность и необходимость использования иноязычных научно-популярных текстов при обучении иностранному языку, а также дается характеристика стиля научной и научно-популярной литературы на английском языке.

Ключевые слова: чтение, речевая деятельность, художественная литература, художественный текст, лингвистический подход, работа над текстом, научно-популярная литература, учебный процесс, научная информация, лексика, терминология, внеязыковой факультет, эмоциональность, грамматический строй.

LITERARY TEXT AS A MEANS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE

Annotation: The article analyzes the possibilities of using literary texts in English lessons at non-linguistic faculties of universities. The linguistic approach, the principles of selection of literary texts are considered, the meaning of pre-text, pre-text and post-text work is revealed. In addition, the article discusses the possibility and necessity of using foreign-language popular science texts in teaching a foreign language, and also characterizes the style of scientific and popular science literature in English.

Key words: reading, speech activity, literature, literary text, linguistic approach, work on the text, popular science literature, learning process, scientific information, vocabulary, terminology, non-linguistic faculty, emotionality, grammatical structure.

Text (lat. textum - fabric, connection) is a unit of syntax and is a group of sentences located in a certain sequence and interconnected in meaning, grammatically and intonation[1, p. 45].

The text contains the complete message. Main the features of the text are: content, coherence and integrity, logicality and conciseness.

Content is the presence in the text of saturation with information that is expedient from the standpoint of the intention of the work.

The coherence of the text concludes its expression in the structure and content of the text, it is harmony and consistency of presentation.

Wholeness is manifested in the unity of meaning.

Logic follows the three laws of logic: identity, contradiction, and sufficient reason. Identity implies the immutability of the subject thoughts within one reasoning, and a violation of logic is a deviation from the main theme. A contradiction assumes the impossibility of the truth of two opposite propositions. Clarity in argumentation when proving or refuting any thoughts provides a sufficient basis.

An important sign and indicator of the quality of the text is its conciseness, that is, the ability to convey a large content through a small form. Can be expressed using simple and complex sentences of the same thought.

The original vocation of the text was to convey the author's impression or opinion about the surrounding reality, people and events. There are three key text types: narrative, description and reasoning.

A narrative is a description of what is happening in meaning, built using a clear sequence and often divided into several individual elements of the composition: plot, development of action, climax, denouement. It is the narrative style that contains different types of literary texts.

Description is a view from the outside and the desire to describe the main components of certain events and phenomena. The most diverse genres and types of texts are usually full of descriptions.

Reasoning is a type of text that conveys the author's attitude and thoughts directed to a specific issue, evidence or refutation of something, building thesis logical chains with the help of arguments and conclusion. Some types of scientific texts are to the above type.

The text, in addition to the three main types, is divided into various stylistic bases. These bases, built according to certain rules and laws, set the direction of the stated thought, its working structure and audience. Which at the same time gives the formation of the main stylistic types of the text:
The text of the scientific style is a strict, dry set of impersonal sentences, built on consideration and reflection on the topic. Often contains an abundance of specific terminology.
Colloquial - an option that does not imply anything superfluous beyond the colloquial vocabulary that came from everyday life.
Publicistic - informational style, the purpose of which is to convey to the reader about any news as concisely and intelligibly as possible.
Official business - specific, weighty forms of constructing sentences and absolute officialdom, important for working documents and strict types of text. Examples can be found in business and law.
Literary style is the opposite of the first style. It involves a variety of stylistic devices for expressing the author's thoughts, feelings and fantasies. Such texts are usually easily perceived and, based on the writer's approach, refer to both common expressions and certain slang.
A literary text, like any other text, is a verbal product of speech, a complex linguistic sign in which linguistic units of all levels (from a phoneme to a sentence) find their realization.
A literary text is created to objectify the writer's thoughts, embody his creative ideas, convey ideas and knowledge about man and the world, carrying these ideas beyond the boundaries of the author's consciousness, making them available to other people. Each writer creates his own world in a literary work in accordance with a certain idea, with an individual-figurative perception and depiction of life reality. The fantasy world appears before the reader in artistic images transformed by the author.
A literary work affects the reader both rationally and emotionally. The dual impact of a literary text is determined by its content of not only semantic, but also artistic, or aesthetic, information. This artistic information finds its realization only in the boundaries of an individual artistic structure, i.e. specific literary text.
Any of its components can become carriers of artistic information of the text. Thus, the text is not autonomous and not self-sufficient - it is the main, but not the only component of textual (verbal-thinking) activity. The most important components of the structure of speech and thought activity, in addition to the text, are the author (text sender), reader (addressee), the displayed reality itself, knowledge about which are transmitted in the text, and the language system, from which the author chooses linguistic means that allow him to qualitatively bring to life creative idea. Now the concept of "artistic text" is used in non-strict, indefinite-expansive meaning.
Literary text in the context of linguistic classifications (L.G. Babenko) is characterized as a complex or complex text (structural parameter), a work of art style (functional-stylistic parameter), prepared text (preparedness parameter), unfixed (algorithmization parameter), soft (intent explication parameter), descriptive with elements of deontic and axiological texts (functional-pragmatic parameter), holistic and coherent [2, p. 55].
From a psycholinguistic point of view, the notion of "artistic text" contains a subjective aspect. In this regard, this category is understood by some researchers, in particular V. P. Belyanin, as a personal author's interpretation of reality [3, p.75].
Determining the parameters of a literary text from the standpoint of communication theory, researchers, for example, L.G. Babenko, distinguish in this concept, along with subjective characteristics, the aspect of verbalization of the author's intention. This makes it possible to define an artistic text as "arising from a specific (egocentric) inner state of the artist’s spiritual sensory-conceptual comprehension of the world in the form speech utterance'' [2, p. 62].
A literary text, like any other text, as a “higher communicative unit”, performs certain functions:
1) the text carries specific information about the surrounding reality, describes things, events, situations, presents facts - a representative function;
2) the text carries information that the sender puts in for a specific purpose in order to evoke an adequate reaction from the recipient - an appellative function;
3) the text is a means for expressing certain feelings, emotions, assessments, attitudes towards information represented in the text - an expressive function.
In terms of structure, a literary text is a hierarchy of elements with an aesthetic function (conceptual, evaluative, emotionally, expressively synthetic, rhythmic-intonational), with lexical, syntactic, sound, metrical levels interconnected.
The aesthetic value of a literary text from the point of view of psycholinguistics becomes apparent in the process of the reader's perception of a certain system of signs - the code, the language of a literary work, in

its artistic and aesthetic function. According to researchers, the aesthetic function plays the role of a defining characteristic of the language of fiction.

The aesthetic function of the text is distinguished by many scholars. The tangibility of the presence of this function of the text is indisputable, otherwise the literary text would have changed into a philosophical treatise or a retelling of some event. A work of art is not limited to the presence of only an aesthetic function, but its position can be defined as "dominant in the hierarchical order of the functions of verbal creativity." In other types of speech activity, it acts as a secondary, complementary element.

The aesthetic function "requires" work on the word in order to more accurately, clearly and easily express information. Work on the word is necessary in order to reveal to the listener and reader the beauty in this word. The aesthetic function has an impact on the emotional, value and volitional spheres of the reader's personality, delivering to him not only intellectual, but also sensual pleasure. This function implements the presence of all other functions.

The significance of the aesthetic function within artistic communication allows us to consider it from the point of view of an independent, autonomous function. But still, considering it as a "peculiar complication" of the communicative function seems more logical. Information structured in accordance with the communicative purpose of the sender is the basis of any communication. The decisive factor in the nature of artistic communication will be the author's aesthetic intention.

The main features of a literary text that distinguish it from non-fiction:

1. In a literary text, unlike other texts, the nature of intratextual reality (in relation to extratextual) is creative, i.e. created thanks to the energy of the author's imagination and creativity, and is conditional, often fictional, in nature. The world depicted in a literary text correlates with reality only through
display, refraction, transformation of it in accordance with the desires of the author. The term "fictionality" is used to denote this feature of a literary text, emphasizing the conventionality, mediation, fictitiousness of the inner world of the text. Fictionality covers a variety of image objects, space and time, extends to the narrative process and may include the subject of speech (narrator, narrator / narrators). To the objects of possible universes (worlds) modeled in artistic reference is usually used in the text.

The boundaries between fiction and non-fiction texts are often thin: fiction, on the one hand, can be inherent in documentary works, and on the other hand, elements of “non-functional” texts can also be presented in a fiction text; moreover, it can sometimes be related to reality.

2. A literary text is a complex organizational system. On the one hand, this is a private system of means of the national language, on the other hand, in a literary text its own special system of codes is formed, which the addressee (reader) must “decipher” for a better understanding of the text.

3. In a literary text, “everything has its motivated meaning. Everything is saturated with inner meaning, and language means itself, regardless of what things it is a sign of. This can explain the art of verbal reflection so characteristic of language. The poet’s word is the reflective word. The poet, as it were, seeks and discovers in the word its “closest etymological meanings”, which are valuable for him not by their etymological content, but by the possibilities of figurative application hidden in these meanings. This poetic reflection enlivens the inanimate in the language, motivating the unmotivated”.

4. The units that form a literary text, within a given particular aesthetic system, acquire additional "increments of meaning", or "overtones of meaning", thereby determining the special integrity of a literary text.

5. All elements of the text are interconnected, and its levels show or can show isomorphism. Adjacent units of literary text usually show semantic similarity. Poetic speech "projects the principle of equivalence from the axis of selection to the axis of combination." Equivalence is one of the most important ways of constructing a literary text: it is found in repetitions that determine the coherence of the text, attract the reader to its form, actualize additional meanings in it and reveal the isomorphism of different levels.

6. The literary text is connected with other texts, directs them to them or borrows their elements. These intertextual connections influence its meaning or define it.

7. A literary text always contains not only information that is direct in meaning, but also implicit (subtext).

So, a literary text is a private aesthetic system of language means, which is characterized by a high degree of structure and integrity. It is unique, inimitable, but despite these characteristics uses typed construction techniques. It is an aesthetic object that is perceived in time and has a linear extent.

До нынешнего дня в мировом языкознании были изучены множество актуальных проблем относительно гендерной лингвистики. Вчастности, особое внимание уделяется применению влияния пола на язык, на необходимость рассмотрения гендерных характеристик в сочетании со статусом, социальной группой, уровнем образования, ситуационным контекстом и т. д., а также с учетом меняющейся ситуации в обществе.

Так же в узбекском языкознании сегодня начали усердно работатьлингвистическими гендерологическими исследованиями. Проведен ряд прагматических, когнитивных,

лингвокультуралогических исследований по изучению лингвистических особенностей гендерных стереотипов.

С формированием гендерологии границы гендерных исследований были относительно расширены, а теоретическая база и спектр эмпирических материалов значительно богаче. Гендерный термин в западной социологии был введен Э.Окли [1] и Н. Земон Девисом [2]. З.Г.Рубин прокомментировал разницу в понятиях “гендер” и “пол”, таким образом, термин гендер (gender) стал использоваться для обозначения понятия “социальный гендер” [3].

Ученые, внесшие выдающийся вклад в исследование гендерных аспектов языка в Узбекистане, определили термин “гендер” следующим образом. По мнению М.И.Расуловой, гендер не является полностью застывшим понятием, но он постоянно меняется под влиянием людей, и это связано с социальной жизнью [4].

Д.У.Ашурова утверждает, что гендер в лингвистике - направление изучения языка в связи с социальными и культурными особенностями, характерными для мужчин и женщин [5].

Исследования по фольклорным текстам в лингвистике относятся к началу XX века. Одним из основоположников гендерных исследований в фольклоре является Д.Х. Ибрагимовой (“Отражение гендерных отношений воли в таджикских народных сказках”), которая ставит спорную точку в середине его поисков. По её мнению, если более точно проанализировать исследования, проведенные на основе этого мнения, “в области социально–гуманитарных наук гендерных исследований достаточно”, то в современной фольклористике становится ясно, что таких исследований недостаточно. Как вы знаете, к теме гендера фольклористы еще долго обращаются к литературоведам и лингвистам [6].

Пример, исследования Н.Л.Пушкаревой реальности чисто гендерных отношений в фольклористике и педагогике. Хотя и существуют исследования по выражению понятия гендер в чистом узбекском языке, но они проводятся на числовом уровне. Например, методы выражения понятия гендер в узбекском языке включают исследования по описанию гендера в узбекских существительных [7].

Кандидатская диссертация Т.А.Морозовой на тему “Лингвокогнитивная структура гендерных стереотипов маскулинности и элизма (на примере испанского языка)” [8], исследование номинации Г.Тлеумуратова “Категория рода в деривационной системе категории существительного-словосочетания в истории английского языка (на примере аффиксации и композиции)” [9], кандидатская работа Хасинова на тему “Лингвистические и гендерные характеристики сложных слов в художественном тексте (на примере английского и узбекского языков)”, докторские диссертации Н.З.Насруллаевой, озаглавленные “Гендерный концепт в семантике фразеологических единиц английского языка” и “Формирование гендерных концептов в мировом ландшафте английской и узбекской фразеологии”, были опубликованы в журнале “Чистая лингвогендерология”.

Однако работа Г.И.Эргашевой “Лингвистика и формирование гендерной терминологии в различных систематизированных языках экстралингвистические факторы” посвящена анализу терминов гендерного дискурса.Так же научные исследования Дулдуловой Н.А. на тему “Сравнительный анализ гендерного аспекта в паремиологии английского и узбекского языков”, была выполнена на паремиологическом уровне, рассматриваемом проблему гендерной лингвистики в аспекте ее возникновения и формирования, прежде всего в англоязычной лингвистической литературе а так же производится обзор научной литературы, ее анализ и краткое описание, осуществляется анализ специфики гендерной речи на материале узбекского языка [10].

Говоря о гендерней лингвистике нужно отметить, что гендерная лингвистика – (или лингвистическая гендерология) научное направление, использующее в рамках междисциплинарных гендерных исследований языковой понятийный аппарат, изучающий гендер, в этой области науки понятие гендер понимается как социокультурный пол, традиционная конструкция и является относительно автономным от биологического пола. В своей работе 1922 года о происхождении и развитии языка О. Есперсен исследует особенности женских лингвистических способностей. Его исследование показало, что женщины используют другую лексику, чем мужчины, и более склонны к эвфемизмам и менее склонны к ругательствам. По словам Есперсена, женщины консервативны в использовании языка, что можно увидеть на примере эмигрантских общин и других изолированных групп, где родной язык сохраняется и в то же время осваивается новый язык. Среди гендерных различий также присутствуют в овладении языком. Например, женщины с большей вероятностью останутся на одном языке, в рамках этой точки зрения мужчины быстрее выучат новый язык. Однако при формировании этой информации не учитывалось, что необходимость изучения иностранного языка мужчинами обусловлена необходимостью работы и общения на новом языке. У женщин, которые проводят много времени дома, такая потребность не возникает в закрытой среде [11].

Хотя Есперсен полностью интерпретировал вопрос о влиянии пола для своего времени, в более поздний период его взгляды подвергались критике только потому, что он делал свои собственные выводы, основанные на личных наблюдениях, многие из которых были недостаточно подтверждены.

Подводя итог нужно отметить, что сложное сочетание в гендерной сфере ряда аспектов жизни общества, в том числе культурных, психологических и социальных, делает эту сферу основным объектом исследований различных наук и дисциплин.

Список использлванных литератур

1.Оукли Э. Пол, гендер и общество. – М.: Просвещение, 1972. – С. 225
2.Земон Дэвис Н. Возвращение Мартена Герра. – М.: Прогресс, 1990. – С. 208.
3.Rubin G. The traffic in women: Notes on the 'Political Economy' of sex, in: Towards an anthropology of women. – NY: Monthly Review Press, 1975. – P. 157-210.
4. *Расулова М.И.* Проявление *гендера* на лексическом уровне // Филологиянинг долзарб муммолари. — Тошкент: НУУз, 2008. — С. 81–84;
5. Ашурова Д.У. Гендерные факторы в стилистике // Замонавий тилшунослик ва хорижий тиллар укитишнинг долзарб масалари: Илмий-амалий анжуман материалари.-Тошкент,2008.-С.337–342;
6. Ибрагимова Д.Х. Деньги, гендер, власть в домохозяйстве: концептуальные подходы // Экономическая социология. Т. 17. № 2. Март 2016.
7. Pushkareva, N.L. (2007), "Gender research in history and ethnology", Gendernye issledovaniya, no. 15, pp. 123- 145, available at: www.gender.univer.kharkov/ua/gurnal/15 (accessed: 25.06.2008).
8. Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка). Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд: СамГИИЯ, 2011. – 25 с.
9. Тлеумуратов Г. Категория рода в деривационной системе категории существительного-словосочетания в истории английского языка (на примере аффиксации и композиции). дис. канд. филол. наук. Нукус . 2010. 184 с.
10. Эргашева Г.И. Applied linguistics: Terminology and Translation through gender discourse lens. – Tashkent: Navruz, 2018.
11. Jespersen O. Die Sprache, ihre Natur, Entwicklung und Entstehung. – Heidelberg, 1925. – 305 S.

.

YORDAMCHI SO‘ZLAR MAVZUSINI O‘QITISHDA KOGNITIV-PRAGMATIK YONDASHUV ASOSIDAGI TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

Umid Hamroyev
Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi
22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi
oliy toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Bugungi kunda nafaqat bilimli shaxsni, balki bilimlaridan jamiyat talablariga mos foydalana oladigan, mustaqil fikrlaydigan, bunday odat uning tabiatiga aylangan, ya’ni tarbiyalangan, madaniyatli, ma’naviyatli shaxsni yetishtirib berishni maktab oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Demak, so‘z nafaqat bilim, malaka va ko‘nikma zanjiri, balki *bilim ~ malaka ~ ko‘nikma ~ odat ~ tabiat* uzluksiz zanjiri haqida borishi kerak va so‘nggi bosqichga ko‘tarilgan shaxsgina tarbiya ko‘rgan shaxs sanalishi mumkin. Shuning uchun ***bilim ~ malaka ~ ko‘nikma ~ odat ~ tabiat*** pog‘onaviy zanjiri haqida gapirishimiz kerak. Zarur bo‘lgan bilimlarni topa oladigan, olganlarini sharoitga mos ijtimoiy-ma’naviy-ahloqiy me’yorlarga muvofiq amalga tatbiq etish tabiatiga aylangan shaxsgina tarbiyalangan, tarbiya ko‘rgan shaxs sanalishi mumkin. Faylasuf I.Gyote ta’kidlaganidek: “Chinakam shogird bor narsalar negizida mavhum narsalar rivojini o‘rganadi va shu yo‘l bilan ustoziga yaqinlashib boradi.”[119]

Yangi milliy o‘quv dasturi asosida 2022-2023 o‘quv yilida 7-sinflar uchun tavsiya etilgan darslikda mavzular hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslangan. Biz quyida yoramchi so‘z turkumlarning o‘qitish mavzusiga oid topshiriqlarni hukmingizga havola etamiz.

KURASHNING QAYTA TUG‘ILISHI

Kurash – sportning qadimiy turlaridan biri. U 5 ming yildan ortiq vaqtdan beri mavjud. O‘zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo‘lgan mardlik, jasurlik, bag‘rikenglik, raqibga nisbatan oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik xususiyatlari mujassamlashgan. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temur hukmronligi davrida milliy kurashning 400 ga yaqin usuli ma’lum bo‘lgan. Bu

[119] Yuldasheva D.N. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi”. Darslik. Buxoro-2020-yil 84-bet.

usullarning deyarli barchasi hozirgacha saqlanib qolgan. Qadimdan bayram sayillarida, to‘ylarda odamlar to‘planib, davra hosil qilishgan va unda polvonlar o‘zaro kurash tushishgan. Odamlar qishloqqa qishloq, urug‘ga urug‘, tumanga tuman bo‘lib bellashishgan. G‘olibga turli sovg‘alar berilgan. Mag‘lubning o‘rtoqlari, aka yoki ukasi o‘z yeri va oilasi sha’nini himoya qilishni istasa, g‘olib bilan bellashishiga ruxsat berilgan. G‘irromlik qilgan, raqibiga atay zarar keltirmoqchi bo‘lgan polvonlar davradan quvilgan. Ular el orasida g‘irromchi deya nom chiqarib, sharmanda bo‘lganlar. Halol kurashganlarni esa hatto mag‘lub bo‘lsa ham, el olqishlagan. Kurashchilarning asosiy maqsadi o‘z tug‘ilgan yeri, ota-bobolari or-nomusini himoya qilish bo‘lgan.Bayram va to‘ylardagi kurashni yoshi katta polvonlar yoshlarga o‘rnak bo‘lish maqsadini ko‘zlab boshlab berganlar. Bu holatning go‘zal ta’rifini Tog‘ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida ham ko‘rishingiz mumkin. Kurash ana shunday otadan bolaga, ustozdan shogirdga o‘tib, saqlanib kelgan.

1980-yillarning boshida mashhur o‘zbek kurashi ustasi, dzyudochi va sambochi Komil Yusupov o‘zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Ushbu sport turining qayta tiklanishi uchun Komil polvon dastlab kurashning xalqaro me’yorlarga mos bo‘lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishga bel bog‘ladi. To‘qsoninchi yillarning boshlariga kelib, u ushbu sharafli vazifani muvaffaqiyatli ado etib, o‘zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qildi. Avvaliga u o‘zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e’tiboriga havola etdi.

Yangi qoidalar o‘zbek kurashining eng ardoqli an’analari va maxsus kiyim-bosh (kurashchilar oyoqyalang, yashil va ko‘k yaktak, qizil belbog‘ va oq ishtonda maydonga chiqqan), musobaqalarni o‘tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport me’yorlarini o‘zida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov ishlab chiqqan kurash qoidalari to‘laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e’tirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular bellashuvni yotgan holda davom ettirishga yo‘l qo‘ymaydi. Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to‘xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi. Bu hol kurash jadal va tezkor, muxlislar uchun qiziqarli va maroqli bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari, kurash qoidalari belbog‘dan pastki qismni ushlovchi yoki og‘riq qo‘zg‘atuvchi va bo‘g‘uvchi uslublarni ishlatishni taqiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi.

Kurashning yangi qoidalariga ko‘ra, ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda “chala”, “yonbosh”, “halol” baholari, qoidaga zid harakatlarga esa “tanbeh”, “dakki”, “g‘irrom”jazolari beriladi. Kurashchi “halol” bahosini olsa (yoki raqibi “g‘irrom” bilan jazolansa), bu uning g‘alabasini bildiradi. Ikki bor “yonbosh” bahosini olish (yoki raqibining ikki bor “dakki” bilan jazolanishi) ham g‘alabani anglatadi. “Chala” baholari hisobga olib borilib, ko‘p baho olgan kurashchiga g‘alaba beriladi.

Kurash faollarining sa’y-harakatlari O‘zbekiston bilan chegaralanib qolmadi. Ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o‘tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o‘zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh-qosh bo‘ldilar.

Birinchi xalqaro musobaqa bilan bir paytda mamlakat yana bir muhim tarixiy voqeaning guvohi bo‘ldi. 1998-yilning 6-sentyabrida Yevropa, Osiyo va Amerikaning 28 mamlakati vakillari Xalqaro Kurash Uyushmasiga asos soldilar. XKU xalqaro miqyosda o‘zbek kurashini namoyon etuvchi rasmiy tashkilotga aylandi. Dastlabki ta’sis kongressi davomida yangi xalqaro sport tashkilotining nizomi tasdiqlandi, kurashning xalqaro qoidalari qabul qilindi.

Asror Mo‘minov[120]

Milliy sertifikat imtihonlarida, DTM tomonidan o‘tkaziladigan imtihonlarda matnli savollar, ya’ni tanlangan ma’lum bir matndan mantqiy bilimlarni sinash maqsadida savollar tuziladi. Bunday savollar asosiy ahamiyat kasb etuvchi savollar hisoblanadi. Bu orqali o‘quvchilarning matn bilan ishlash va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

“Kurashning qayta tug‘ilishi” matni bo‘yicha quyidagi savollarni tuzdik :

Matn asosidagi test savollarga javob bering

To‘g‘ri javobni toping.

Kurashni “eng xavfsiz sport turlaridan biri” deyish uchun asos qaysi qatorda berilgan?

Bayram va to‘ylardagi kurashni Yoshi ulug‘ polvonlar yoshlarga ibrat va o‘rnak bo‘lish uchun boshlab berganlar.

Amir Temur davrida kurashning 400dan ortiq turi bo‘lgan.

[120] Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. Ona tili. 7-sinf. Darslik. Toshkent. 2022-yil. 57-59 betlar.

Mag‘lub bo‘lgan polvonning aka-ukasi, o‘rtoqlari, o‘z yeri va oilasi sha’ni himoyalash uchun g‘olib polvon bilan kurashga ruxsat berilgan.
Kurash qoidalari belbog‘dan pastki qismni ushlovchi va og‘riq qo‘zg‘atuvchi yoki bo‘g‘uvchi usullardan foydalanish qat’iyan taqiqlangan.
To‘g‘ri javobni toping.
Kurashning yangi qoidalariga ko‘ra, "halol" yiqitolmagan kurashchining g‘alabasi boshqa omillarga ko‘ra aniqlangan. Qaysi qatorda berilgan omil to‘g‘ri emas?
"chala" baholari hisobga olib borilib, ko‘p baho olgan bo‘lsa, g‘olib bo‘ladi.
ikki bor "yonbosh" bahosini olsa, g‘olib bo‘lishi mumkin
raqibining ikki bor “dakki" bilan jazolanishi ham, uning g‘alabasini bildiradi
raqibi sog‘lig‘i tufayli davrani tark etsa, u g‘olib bo‘lishi mumkin

To‘g‘ri javobni toping.
Kurash bo‘yicha birinchi xalqaro musobaqa qachon o‘tkaziladi?
1990-yilda B) **1998**-yilda 1992-yilda D) 1980-yilda

To‘g‘ri javobni toping.
Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi jumlani davom ettiring.
Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki,...
...kurashuvchilar bir-birlariga nisbatan hurmatda bo‘lishlari kerak.
...kurashning xalqaro me’yorlarga mos bo‘lgan yangicha qoidalari ishlab chiqilgan.
...bellashuvni yotgan holda davom ettirishga yo‘l qo‘yilmaydi.
...halol kurashganlarni hatto mag‘lub bo‘lsa ham, el olqishlagan.
Ma’lumotning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang.
Raqibining "g‘irrom" bilan jazolanishi ham kurashchiga g‘alaba keltirishi mumkin.
A) to‘g‘ri B) **noto‘g‘ri**
To‘g‘ri javobni toping.
Matn sarlavhasi qaysi parchada o‘z izohini topgan?
O‘zbek kurashida xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo‘lgan mardlik, jasurlik, bag‘rikenglik, raqibga nisbatan oliyjanoblik, halollik, insonparvarlik xususiyatlari mujassamlashgan.
Bayram va to‘ylardagi kurashni yoshi katta polvonlar yoshlarga o‘rnak bo‘lish maqsadini ko‘zlab boshlab berganlar. Bu holatni Tog‘ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asarida ham ko‘rishingiz mumkin. Kurash ana shunday otadan bolaga, ustozdan shogirdga o‘tib, saqlanib kelgan.

1998-yilning 6-sentyabrida Yevropa, Osiyo va Amerikaning 28 mamlakati vakillari Xalqaro kurash uyushmasiga asos soldilar. XKU xalqaro miqyosda o‘zbek kurashini namoyon etuvchi rasmiy tashkilotga aylandi. Dastlabki ta’sis kongressi davomida yangi xalqaro sport tashkilotining nizomi tasdiqlandi, kurashning xalqaro qoidalari qabul qilindi.

Odamlar qishloqqa qishloq, urug‘ga urug‘, tumanga tuman bo‘lib bellashishgan. Mag‘lubning o‘rtoqlari, aka yoki ukasi o‘z yeri va oilasi sha’nini liimoya qilishni istasa, g‘olib bilan bellashishiga ruxsat berilgan.
To‘g‘ri javobni toping.
Matndan olingan qaysi gapda *ko‘ra* ko‘makchisining sinonimi qatnashgan?
Ushbu sport turining qayta tiklanishi uchun Komil polvon dastlab kurashning xalqaro me’yorlarga mos bo‘lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishga bel bog‘ladi.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda, Amir Temur hukmronligi davrida milliy kurashning 400 ga yaqin usuli ma’lum bo‘lgan.

Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to‘xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi.
Ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH, Monako va Rossiyada o‘tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o‘zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh-qosh bo‘ldilar.
O‘quvchilar matn mazmunidan kelib chiqib savollarjavob berishadi. Bu orqali ularning fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Ushbu darsning asosiy maqsadi quyidagicha bayon etilgan: o‘quvchilarda kurash tarixi, milliy an’analar haqida tasavvur hosil qilish va mavzuga oid til birliklarini nutqida faollashtirish; sifatlar imlosi, ularning yasalishi, ma’nolari ustida ishlash; bog‘lovchilar imlosi; matnning tarkibiy qismlarini bog‘lovchi vositalarni aniqlash; dialog yozish qoidalarini o‘rgatish; berilgan matnning asosiy g‘oyasini aniqlash, ushbu

g‘oyani yuzaga chiqaruvchi matn qismlarini ajratish, sport mavzusiga oid suhbat matnini yaratish, ularda murojaat birliklari, soha bilan bog‘liq atamalardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.[121]

Ushbu mavzuni o‘qitish uchun maktab o‘quv dasturiga 4 soat vaqt ajratilgan shundan 1- soatida dialog va monolog haqida tushunchalarga ega bo‘lsa, 2-soatda sifatlar va ularning ma’noviy guruhlarini o‘qitish, so‘z tarkibi, qo‘shimchhalarning ahamiyati xususida topshiriqlar berilgan. Bu haqda biz oldingi bobda fikr yuritganmiz.

Ushbu qismda yordamchi so‘zlar va ularning nutqiy jarayonda qo‘llanishi va ahamiyati haqida gapirib o‘tamiz.

O‘quvchilarning yuqoridagi matndan olgan bilimlarini qay darajada o‘zlashtirgani va ularning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi.

Shuning uchun biz matn asosida og‘zaki savollar berishni tavsiya etamiz**. “Men fikrimni chiroyli bayon etaman”** usulidan foydalanamiz bunda o‘quvchilar o‘z mulohazalarini ifodali, aniq va ravon bayon etishi maqsadga muvofiqdir.

1-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Muallif matnga nega shunday sarlavha tanlagan?
2. Kurash dastlab ko‘ngilochar o‘yin bo‘lganini matnning qaysi qismlaridan bilish mumkin?
3. Kurashni xalqaro darajaga olib chiqishda jonbozlik ko‘rsatgan polvon kim?
4. Nima deb o‘ylaysiz, nega kurashning qonun-qoidalari xalqaro talablarga moslab qayta ishlab chiqildi?
5. Bayram va to‘ylarda kurashchilar taroziga chiqib keyin bellashmagani aniq, sizningcha, raqiblar qanday tanlangan?
6. Kurashning qanday turlarini bilasiz?
7. Kurash atamalaridan qaysilarini bilasiz?
8. Kurash bilan birga yana nimalar xalqaro sport maydoniga kirib bordi deb o‘ylaysiz?

Ushbu savollarga javob olingandan so‘ng, o‘quvchilarning kurash tarixi uning milliy urf-odatlarimiz va milliy o‘yinlarimizning jahon arrenalaridagi o‘rni xususidagi bilimlari oshiriladi, boyitildi, rivojlantiriladi. Kurash milliy sportiga bo‘lgan qiziqishlar oshishiga sabab bo‘ladi.

2-topshiriq. Quyida berilgan iboralarning ma’nolarini izohlang va uning kurash-sport turi bilan aloqasi bor yoki yo‘q ekanligini isbotlang.

Berilgan iboralarning ma’no mazmunini izohlang.

Quyidagi iboralarning kurashga qanday aloqasi bor?

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, berilgan iboralar haqida tushuncha hosil qilishga qaratilgan. Dastlab o‘quvchilardan ushbu iboralar haqidagi tushunchalari so‘raladi. Bunda lug‘atdan foydalanib javob berish ham mumkin. Asosiy e’tibor ibora mazmunini tushunishga qaratiladi. O‘quvchilarning fikri tinglab bo‘lingach, iboralar ma’nosi misollar bilan to‘liqroq tushuntirib berilishi lozim:

Kuragi yer ko‘rmagan
Yiqilmagan
Yengilmagan
Yulduz sanamoq
Yiqilmoq
Chil bermoq

Kurashchi raqibning qulay joyini ushlab muvozanatidan chiqarib, o‘ziga isonch hosil qilib chap yoki o‘ng oyog‘i bilan raqibning o‘ng yoki chap oyog‘idan ildirib yiqitadigab barcha usullar chil deyiladi

3- topshiriq.

“Bog‘lamoq” so‘zining qanday ma’nolarini bilasiz?

Sizningcha, gaplar, so‘zlar bir-biriga nimalar vositasida bog‘lanadi?

Quyidagi birikmalarni o‘qing. Ularning ma’nosida qanday farqlarni sezyapsiz? Bir xil ma’no anglatayotgan birikmalarni ketma-ket yozing.

medal va kubok yo medal, yo kubok dam medal, dam kubok medal ham kubok	medal yoki kubok medal hamda kubok goh medal, goh kubok	medal bilan kubok na medal, na kubok ba’zan medal, ba’zan kubok

[121] Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov 7-sinf ona tili. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. T:. 2022-yil 49-bet .

Mazkur topshiriqdan maqsad o‘quvchilarda bog‘lovchi turlari haqida amaliy topshiriq orqali tushuncha hosil qilishdan iborat. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ma’nosi yaqin birliklarni namunadagi singari yozib chiqishlari lozim.
Bunda asosiy e’tibor gaplarga to‘g‘ri so‘roq bera olish hamda bog‘lovchilarni ma’nosiga ko‘ra to‘g‘ri guruhlay olishga qaratiladi.

Javob:

Biriktiruv bog‘lovchi	Ayiruv bog‘lovchi	Inkor bog‘lovchi
medal va kubok, medal bilan kubok, medal hamda kubok, medal, ham kubok;	*yo medal, yo kubok, medal, yoki kubok; dam medal, dam kubok, goh medal, goh kubok, ba’zan medal, ba’zan kubok;*	*na medal, na kubok.*

Yordamchi so‘zlar

Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlar YORDAMCHI SO‘ZLAR hisoblanadi.
Yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, ularning ma’nolariga qo‘shimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi.
Yordamchi so‘z turkumlariga:



Gaplarni o‘qing. Ma’no to‘g‘ri bo‘lishi uchun quyidagi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.
Ushbu topshiriq o‘quvchilarda bog‘lovchilarni ma’nosiga ko‘ra mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ushbu gaplarga mos bog‘lovchilarni qo‘yib yozishlari lozim.
“Yo‘qotilgan inju” usuli kerakli bog‘lovchi vositani to‘g‘ri qo‘ying: *biroq va bilan, balki, ammo, chunki, lekin*
Hamma sport turini hurmat qilaman, ... kurashga mehrim bo‘lakcha.
Uning devday kelbati bor, ... yuragi yo‘q, qo‘rqoq.
Bo‘ri polvon raqibning hiylalariga uchmas, ... o‘ziga qarshi foydalanishga urinardi.
Tilovberdining to‘pori, ... aqlli do‘sti bor.
Naim tutaqib ketdi, ... bakovul raqibi g‘irrom qilganini ko‘rmaganga oldi.
Javob:
*Hamma sport turini hurmat qilaman, **ammo** kurashga mehrim bo‘lakcha.*
*Uning devday kelbati bor, **lekin** yuragi yo‘q, qo‘rqoq.*
*Bo‘ri polvon raqibning hiylalariga uchmas, **balki** o‘ziga qarshi foydalanishga urinardi.*
*Tilovberdining to‘pori, **biroq** aqlli do‘sti bor.*
*Naim tutaqib ketdi, **ammo** bakovul raqibi g‘irrom qilganini ko‘rmaganga oldi.*

“O‘quvchi yon daftari” turkumidan

So‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan birliklar **bog‘lovchilar** deyiladi. Ular o‘zidan oldin va keyin kelgan birliklarni turli maqsadlarda bog‘lashga xizmat qiladi. Masalan:
*medal **va** kubok* (har ikkisi)
***yo** medal, **yo** kubok* (ikkisidan faqat bittasi)
***na** medal, **na** kubok* (ikkisi ham emas, hech biri)
*ishyoqmas, **ammo** aqlli; ishyoqmas, **lekin** aqlli; ishyoqmas, **biroq** aqlli* (ikki jihatning zidlanishi)
Bog‘lovchilar gaplarni ham bog‘lay oladi:

Eshik ochildi **va** *ichkariga Karima kirib keldi.*
O‘yin ertaroq tugadi, chunki to‘pimiz teshilib qoldi.
Hozir kelishib olaylik, toki keyin tushunmovchilik bo‘lmasin.



4- topshiriq. Gaplarni o‘qing. Ma’no to‘g‘ri bo‘lishi uchun quyidagi so‘zlardan mosini qo‘yib yozing.
Ushbu topshiriq o‘quvchilarda bog‘lovchilarni ma’nosiga ko‘ra mos kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan. O‘quvchilar berilgan gaplarni o‘qib, ushbu gaplarga mos bog‘lovchilarni qo‘yib yozishlari lozim.

№	Gap	Gap	№	Vosita
1	U bilan kurashish armon bo‘lib qoldi	kurash bo‘yicha kubokni yutib oldi	1	Chunki
2	Harakatlaridan ko‘ngli to‘lmadi	boshi og‘rib turgan edi	2	Negaki
3	Yurt bayrog‘ini baland ko‘tardi	hammani yenga olaman deb o‘yladi	4	Lekin
4	Yoshlarni mensimadi	kubokni yuta olmadi	3	Ammo

Bu topshiriq orqali o‘quvchilar gaplar bir biri bilan teng va tobe bog‘lanishi haqida fikrlarga egan bo‘lishadi.
Yurt bayrog‘ini balang ko‘tardi, ammo kubokni yuta olmadi.



Qo‘shma gap qismlarini teng bog‘laydi

U bilan kurash armon bo‘ldi, chunki kurash bo‘yicha kubokni yutib oldi.


,chunki

XULOSA! Bog‘lovchilar bog‘langan va ergashgan qo‘shma gaplarni bog‘laydi. Ko‘makchi mavzusini o‘qitish uchun milliy o‘quv dasturida 1 soat vaqt ajratilgan. Ushbu mavzuni o‘quvchilar to‘la qiziqib o‘zlashtirishi uchun quyidagi topshiriqni taqdim etish mumkin:

“*Bu mening uyim*”

Topshiriq nomidagi *uy* so‘ziga e’tibor bering. Har bir uyning ma’lum hududi, manzili bo‘lib, unda doimiy istiqomat qiluvchilar shu uyda hayot kechiradilar. Shuning uchun inson birovning emas o‘z uyida yashaydi. Ko‘makchilarning ma’nolariga qarab o‘z “uyiga” joylashtirib chiqing.
(Har bir o‘quvchi uchun uy ham vatan kabi aziz ekanligi haqidagi tarbiyaviy maqsadga ham erishiladi.)
Quyidagi ko‘makchilarni ma’nosiga ko‘ra guruhlang. Bunda lug‘atlardan foydalanishingiz mumkin:

Sababli, sari, singari, uchun, tufayli, qarab, qadar, bo‘ylab, haqida, kabi, tomon, to‘g‘risida, bilan, sayin, uzra, birla, bo‘yicha, yanglig‘, chog‘li, doir, so‘ng, buyon.

Mazkur topshiriq o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan. O‘quvchilar so‘zning ma’no-mazmunidan kelib chiqib guruhlarga ajratib yozishlari lozim.

Bunda o‘qituvchi tomonidan so‘zni guruhlarga ajratishda ularning ma’nosiga qarash, mazmuniga mos kontekstda qo‘llab, gap tuzib, keyin shu gap asosida uni guruhlarga ajratib yozish mumkinligi haqida tushuncha berishi lozim.

Masalan: *Osmon **uzra** bulutlar suzib yuribdi.* (yo‘nalish)

*Qo‘ng‘riq chalinganiga **qadar** dars qilmoqchiman.* (chegara)

Darslikda o‘xshatish ma’nosidagi ko‘makchilarni jadvalga joylashtirish berilmagan, shuning uchun biz o‘xshatish ma’zmuniga bir dona gapni misol sifatida keltiramiz:

*Bilim chiroq **yanglig‘** yo‘lingni yoritadi, qizim*. (o‘xshatish)

Mavzuga Tegishlilik	Chegara	O‘rin	Maqsad	Sabab	Yo‘nalish
haqida, to‘g‘risida, birla, bo‘yicha	Qadar	*dovur, so‘ng, buyon;*	Uchun	*sababli, tufayli; maqsad: uchun;*	*yo‘nalish: tomon, qarab, sari, bo‘ylab, uzra;*

“Qiyoslang va taqqoslang” usuli orqali keyingi topshiriq bajariladi.

Ko‘makchi	Bog‘lovchi	O‘xshash tomonlari
OT, OLMOSH HARAKAT NOMI SIFATDOSHlardan keyin kelib, ularni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi so‘zlar KO‘MAKCHI hisoblanadi.	Ikki va undan ortiq gap bo‘lagi yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda qo‘shma gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘z turkumlariga BOG‘LOVCHI deyiladi.	Ma’lum so‘roqqa javob bo‘ladi.
So‘z birikmasini hosil qiladi.	So‘z qo‘shilmasini hosil qiladi.	Sof va vazifadosh bo‘lovchi va ko‘makchi uchraydi.
Opam uchun sovg‘a	Olma va anor	Grammatik ma’no anglatadi

O‘quvchilar yuqoridagi topshiriq orqali ko‘makchilar haqida umumiy tushuncha hosil qilganlaridan so‘ng, guruh bilan birgalikda ushbu fikrlarni jamlab, qoida yaratishlari kerak.

BO‘LAJAK CHET TILLI O‘QITUVCHILARINING PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Sayyora Inamova Axmad qizi
NamDU 2 kurs tayanch doktoranti
@mail.sayyora.inamova0gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy ijtimoiy sharoitda bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, uni uyg‘unlashtirishning qator prinsipial muhim yo‘nalishlarini taqozo qilish mumkinligi,biroq amaliyot uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muloqotning xizmatga oid-amaliy yoki rolli, shuningdek, boshqa shaxsiy turlarini cheklash muhimligi borasida tahliliy ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar : muloqot madaniyati,tinglovchi,kompetensiya, pozitsiya,vaziyat negizi,psixologik holat

Повышение педагогической подготовки будущих учителей иностранного языка ***Сайёра Инамова Ахмадовна НамГУ***

Аннотация: В данной статье рассматривается развитие коммуникативной компетентности будущих учителей иностранного языка в современных социальных условиях, а также возможность требовать ряда принципиальных направлений ее гармонизatsii, но при этом подчеркивается важность

ограничения служебного или ролевого, а также приведены другие личностные виды общения с целью развития коммуникативной компетентности для практики.

Ключевые слова: культура общения, слушатель, компетентность, позиция, ситуационная основа, психологическое состояние.

IMPROVING THE PEDAGOGICAL TRAINING OF FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS.

Sayyora Inamova Akhmadovna
is a 2nd year doctoral student at NamSU

Annotation

In this article, the development of communicative competence of future foreign language teachers in modern social conditions, and the possibility of combining it with a number of principally important directions, but for the development of communicative competence for practice, the service-related or role-related communication, as well as other personal Analytical information about the importance of species restriction is given.

Key words: communication culture, listener, competence, position, situational basis, psychological state.

Kirish.Muloqot paytida bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar metodik tayyorgarlini rivojlantirishgda har bir komponentidan to‘g‘ri foydalansalargina, ularning muloqoti muvaffaqiyatli amalga oshiriladi, aks holda, o‘sha vaziyatda noaniqliklar kelib chiqib, so‘zlovchi va tinglovchi bir-birini to‘liq tushunmasligi mumkin, shuning uchun tadqiqotchi olimlarimizning fikrlariga tayanib, kommunikativ kompetensiya komponentlariga rioya qilgan holda muloqotni amalga oshirish oson jarayon emasligini tushunib yetamiz.

Zamonaviy ijtimoiy sharoitda bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uni uyg‘unlashtirishning qator prinsipial muhim yo‘nalishlarini taqozo qilish mumkin. Biroq amaliyot uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun muloqotning xizmatga oid-amaliy yoki rolli, shuningdek, boshqa shaxsiy turlarini cheklash muhim. Odatda, tafovut uchun asos sheriklar orasidagi psixologik masofa bo‘ladi, bu “men-sen-kontakt”. Muloqotda shaxs sherigiga o‘zi, o‘zi ichki dunyosini namoyon qiladi, bunda sherikka “yaqin inson” maqomini beradi, muloqot esa tom ma’noda ishonchli bo‘ladi”. Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilari ingliz tilida ham o‘z his tuyg‘ularini teran ifoda eta olishi uchun u bilan muloqotdagi shaxsni yaqin olib erkin muloqot qilsagina o‘sha vaziyatda ular orasidagi muloqot muvaffaqiyatli amalga oshadi. Buning uchun o‘qituvchilar darslarda talabalarga erkin muloqot qilish imkoniyatlarini yaratib berishlari va u orqali ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishlari zarur.

Shuningdek, muloqotdagi kompetentlilik, insondan turli uzoqlikdagi psixologik masofada o‘ziga kerakli bo‘lgan aloqani yaratishga tayyorlik va mahoratni talab qilishi mumkin. Ammo qiyinchiliklarning o‘zi aynan sherikning fe’l-atvori, tabiati hamda vaziyatning o‘ziga xosligiga qaramay, ulardan birortasini egallaganligi va uni har joyda amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bunda muloqotdagi kompetentlilik, odatda, eng yaxshisi sifatida biror bir pozitsiyani egallaganligi bilan emas, balki muloqotni almashtirishdagi egiluvchanlik- kommunikativ kompetensiyaning muhim omilllaridan biridir.

Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarida quyidagi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi:

Muloqot amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vaziyatni negizini ijtimoiy-psixologik prognozlashtirish.

Muloqot jarayonini o‘zini ijtimoiy-psixologik dasturlash, bunda muloqot vaziyatining o‘z –o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratiladi.

Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarni ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan amalga oshirish [67].

Bundan tashqari, bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarni metodik tayyorgarligi 3 ta asosiy vositalar yordamida amalga oshirishni tadqiqotchi olim D. Lyuis ta’kidlab o‘tgan:

1)*monologik* – bunda muloqot harakatlar va harakatlarni tashkil qiluvchi -subekt -muloqot ishtirokchilariga o‘z fikrini o‘tkazish ustunlik qiladi;

2)*dialogik* – bunda subektlar birgalikda harakat qiladilar va o‘zaro faol, o‘zaro tashabbusli bo‘ladilar;

3)*polilogik* – ko‘pyoqlama muloqotni tashkillovchi, u odatda muloqotni qo‘lga kiritish uchun olib borilgan o‘ziga xos kurash xarakteriga ega bo‘lib, uning natijadorligi mumkin qadar tushunarli amalga oshirish bilan bo‘g‘liq” [60].

Shunday qilib, bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar bilimlari va hissiy tajribasiga asoslangan bo‘lib, uning turli vaziyatlardagi muloqot yo‘nalishini aniqlay olishi hisoblanadi; bu insondagi uni atrofidagilar bilan birgalikda samarali harakat qilishning o‘ziga xos layoqati bo‘lib, aynan o‘zini va boshqalarni, shaxslararo

muloqotlarning sifati hamda yashash muhitining ijtimoiy shart-sharoitlarida, psixologik holatlarning doimiy o‘zgarib turishini anglash orqali erishiladi [71].

Yana bir tadqiqotchi olima Z. Azimova kommunikativ kompetensiyani o‘rganishda talabaar jamoasidagi munosabatlarga e’tiborni qaratib, quyidagi turlarga ajratib ko‘rsatgan:

1.**Rasmiy munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar ular qonun bilan belgilanadi, nizomlar, qoidalar va boshqalar bilan nazorat qilinadi hamda qolip asosidagi tuzilmaladan foydalaniladi.

2.**Norasmiy munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar orasidagi erkin munosabatlari asosida yuzaga kelib, bu ular uchun umumiy tartibda qabul qilingan qonunlar va me’yorlar, qat’iy o‘rnatilgan talablar va qoidalarga bo‘ysunmaydi. Vaziyatdan kelib chiqib turli xil mavzularga qaratilgan munosabatlardan tashkil topadi.

3.**Vertikal munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar o‘zaro aloqalari bo‘lib, ular guruh ichida rasmiy yoki norasmiy pog‘onada turli o‘rinni egallagan guruh sardori va uning a’zolari, liderlar va guruhning boshqa a’zolari, umuman hamma talabaar o‘rtasida shakllanishi mumkin.

4.**Gorizontal munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar guruhda bir xil rasmiy yoki norasmiy o‘rinni egallagan talabalarning o‘zaro aloqasi.

5.**Shaxslararo amaliy munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarning birgalikda ishlashi yoki shu sababga bog‘liq holda yuzaga keladi.

6.**Shaxsiy munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar bajarayotgan ishlaridan qat’iy nazar talabaar o‘rtasidagi munosabat. Guruhda shaxsiy va amaliy tizim shakllanadi va ular bir-birini to‘ldirib borib, guruh a’zolarining talab va ehtiyojlarini qondirishda turli darajada rol o‘ynaydi.

7.**Shaxslararo ratsional munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar ning asosini talabalarning qay darajada bir-birini bilishi va atrofidagilarning ularga nisbatan ob’ektiv bahosi tashkil etadi.

8.**Emotsional munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar talabaga nisbatan shaxsiy, individual qarashlariga asoslangan subektiv bahosidir. Bu kabi munosabatlar faqat ijobiy yoki salbiy emotsialar bilan bog‘liq holda yuzaga keladi; ular har doim ham talaba haqida to‘g‘ri va ob’ektiv ma’lumotlarga asoslanmaydi.

9.**Asosiy faoliyat zaminiga qurilgan munosabatlar** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlar deb ataladi.

10.**Faoliyat mazmunida aks etgan munosabatlar.** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar bu faoliyat bilan bevosita bo‘g‘lanmagan bo‘ladi. Shuni ham e’tiborda tutish kerakki, rivojlangan jamoaning asosini birgalikdagi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyat va uning ichida shakllangan qatnashchilarning muloqoti va o‘zaro aloqalari tashkil etadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilar muloqot jarayonidagi ishlatilayotgan munosabatga qarab uni amalga oshirishlari va o‘sha ko‘lamda aks yettirilgan omillarga rioya qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilari aniq yo‘nalishidagi talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichi ularning fikr-mulohazalarni ravon, yaxlit va mantiqan izchil bayon qilish mahorati bo‘lib, bunda muloqot tilining ifodali hamda aniq muloqot bo‘yicha sheriklarning faolligining har qanday turini tushunish va mos ravishda javob qaytarish layoqatidan foydalaniladi. Talabaar ingliz tili darslarida bemalol muloqotga kirishib, o‘zlarida kompetentlik elementlarining paydo bo‘lishi, amalda uni rivojlantirishga harakat qilishlari tilni puxta egallashga yo‘l ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ 1875.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashritish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ- 4910-son.

3.Akmadalieva Kh.A. The role of authentic materials to develop pupils’ communicative competence in English classes at academic lyceums. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2022, Volume 2,Issue 1.5 Pedagogical sciences. –225-234 p.

4. Axmadalieva X.A. Akademik litseylarning aniq yo‘nalishida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kommunikativ o‘yinlar orqali rivojlantirish.Zamonaviy ta’lim ilmiy-amaliy ommabop jurnal. №12 (109), 2021. –34-40 б.

СИНГАРМОНИЗМ НАМАНГАН ҚИПЧОҚ ШЕВАЛАРИ АРЕАЛИНИНГ АСОСИЙ ҚОНУНИЯТИ

Мусурмон Усмонов,
НамДУ тадқиқотчиси

Резюме: *Мақолада Наманган қипчоқ шеваларидаги сингармонизм қонунияти ҳақида фикр юритилади.*

Таянч тушунчалар: *Сингармонизм қонунияти, лабланиш, фонетик кучсизланиш, танглай ва лаб гармонияси, назализация.*

Резюме: *В статье предоставлено мнение об закон сингармонизма в Наманганских кипчакских диалектов.*

Ключевые слова и понятия: *закон сингармонизма, лабиализация, фонетическое ослабление, небная и губная гармония, назализация.*

Resume: *The opinion about the law of synharmonism in Namangan dialect kipchac is given in this article.*

Key words and word expressions: *the law of synharmonism, labialization, phonetic weakening, palate and labial harmony, nasalization.*

Сингармонизм туркий тилларнинг специфик ҳодисаси бўлиб, у қадимдан мавжуд. Лекин унинг туркий тилларда сақланиш даражаси ҳар хил.

Таъкидлаш керакки, туркий тиллар учун палатал ва лабиал сингармонизмнинг хослиги, палатал гармонияда унлилар қаторга кўра оҳанглашуви ҳеч кимда эътироз турдирмайди. Ўзбек адабий тилининг ҳозирги даври учун гарчи сингармонизм амал қилмаса-да, лекин ўзбек шеваларида сақланиб келаётганлиги деярли барча шевашунос олимлар томонидан эътироф этилади. Шу билан бирга, қаторга кўра зидланишни ўзида сақлаб келаётган ўзбек шеваларида бир ўринда қатор буйича коррелятларнинг ўзаро алмашиниб маъно фарқлаши мавжудлиги қаторни унлилар учун фарқловчи белги сифатида ажратишга имкон беради. Масалан, Андижон шевасида ***өт*** (организм), ***ўт*** (майса, олов), ***ўр*** (ўтни ўрмоқ), ***өр*** (сочни ўрмоқ), ***өз*** (олмош), ***ўз*** (босиб ўтмоқ), ***үн*** (овоз), ***ун*** (ғалланинг тортилгани).

Лекин, ҳозирги ўзбек адабий тили унли фонемалари учун, дарҳақиқат, қатор белгиси фонологик қимматини йўқотган. Шунинг учун ҳозирги ўзбек адабий тили унли фонемалари учун бу белги тасниф асоси бўла олмайди 3.3].

Сингармонизм қонунини сақланган ўзбек шеваларидаги каби, Наманган қипчоқ шеваларида ҳам унлилар уйғунлиги кузатилади. Лекин уларнинг ўзак ва аффиксларга таъсир даражаси бир хил эмас. Ҳар иккала – танглай ва лаб гармонияси Наманган қипчоқ шеваларида вилоятдаги бошқа шеваларга нисбатан кучлироқ. Лекин олтой, хакас, бошқирд ва қирғиз тилларидагига нисбатан кучсиз.

Танглай гармонияси жанубий-ғарбий Наманган қипчоқ шеваларида қуйидаги кўринишларга эга:

а) ўзакнинг биринчи бўғинида тил орқа унлилардан бири бўлса, сўзнинг сўнгги бўғинларида ҳам тил орқа *(ёки қаттиқ)* унли товушлар ишлатилади.

б) ўзакнинг биринчи бўғини тил олди (юмшоқ) унлилардан бири билан бошланса, унда сўзнинг кейинги бўғинларида ҳам тил олди юмшоқ унлилар иштирок этади.

Танглай гармониясининг бу асосий қонунияти Наманган қипчоқ шеваларида қуйидаги кўринишларга эга:

1. Сўзнинг ўзак қисми – туб лексик шаклларда. Кўп бўғинли сўзлардаги биринчи бўғин таркибидаги унлига қолган бўғиндаги унлилар уйғунлашади – биринчи бўғиндаги унли жиҳатларига кейинги бўғиндаги унлилар ҳам эга бўлади. Масалан: ***болық*** *(балиқ),* ***монты*** *(манти),* ***қотық*** *(қатиқ),* ***чочық*** *(сочиқ),* ***қошқолдоқ*** *(қашқалдоқ),* ***чүмәль*** *(чумоли),* ***тоғоро*** *(тоғора),* ***сүмәләк*** *(сумалак),* ***замбар*** *(замбил),* ***сомовор*** *(самовор),* ***торғыс// торвыс*** *(тарвуз),* ***сомсо*** *(сомса)* каби бир талай туб сўзларда сингармонизм ўз қонуниятини сақлаб қолган.

2. Сўзнинг ўзак қисмига қўшимча қўшилганда. Наманган қипчоқ шеваларида қўшимчалар таркибидаги унлиларнинг тил орқа ва тил олди вариантларга эгалиги аффиксларнинг тил орқа қаттиқ ва тил олди юмшоқ вариантларини юзага келтирган. Кўплаб сўз ясовчи ва шакл ҳосил қилувчи қўшимчалар ўзининг контраст жуфтларига эга.

а) сўз ясовчи қўшимча қўшилганда ёки қўшма сўзларда: ***пармалөвгич*** *(пармалагич),* ***үймәләма*** *(уймалама),* ***савачип*** *(савағич),* ***думолоқ//йумолоқ, сорторошхоно*** *(сартарошхона),* ***мэмохоно*** *(меҳмонхона),* ***сомсохпыйос*** *(саримсоқпиёз),* ***көзәйнак*** *(кўзойнак),* ***нонтохто,***

қыймотохто *(нонтахта, қийматахта)* каби жуда кўп содда ясама ва қўшма сўзларда сингармонизм ўз қонуниятини сақлаб қолган.

б) синтактик шакл ҳосил қилувчи келишик қўшимчалари қўшилганда:

– қаратқич ва тушум келишиги ***-ды//дъ, -тъ//ты***: ***бунни//мунны*** *(бурни–ассимиляцион ўзгаришда),* ***қозонды кўтар, қозонды қулоғы*** *(қозонни кўтар, қозоннинг қулоғи),* ***дадамдъ пычохлоры, энамдъ кӧйнэҳларъ*** *(дадамнинг пичоқлари, онамнинг кўйлаклари),* ***боғлорды дорохлоры, совчылорды гапларъ*** *(боғларнинг дарахтлари, совчиларнинг гаплари),* ***тошты тэгъда, оттъ түйоғы, ошть йэң, товоҳты йув*** *(тошнинг тагида, отнинг туёғи, ошни енг, товоқни юв)* каби. Барча қипчоқ шеваларида қаратқич ва тушум келишиги қўшимчалари талаффузда деярли фарқланмайди;

– жўналиш келишиги ***-го//-га//-ңо, -га//-гэ, -қа//-кэ***: ***нумоңо, нумовго,*** *("й"ловчи ва "ж"ловчи шеваларда нимага, нега),* ***нумонга*** *(аралаш тип шеваларда нимага, нега),* ***қайга, түйго//түйга//түйга, тераҳти учига чиҳтъ*** *(теракнинг учига (энг баланд жойига) чиқди),* ***тоғорого со:*** *(тоғорага сол),* ***орыққо чуш*** *(ариққа туш),* ***тэраккэ чиҳтъ*** *(теракка чиқди)* каби.

Асос таркибида бурун товушлари мавжуд бўлган сўзларга жўналиш келишиги қўшимчаси қўшилганда назализациянинг кучлилиги кузатилади.

Назализация унлилар артикуляциясида бурунда ҳосил бўлган резонатор тоннинг қўшиб берилишидир [5.306]. Бу асосан бурун орқали ҳосил бўлувчи сонант талаффузи билан контакт келувчи унлиларда кузатилади: ***нумоңо, нумовго, нумонга*** каби. Чунки аввалги товуш артикуляцион рекурсияси кейинги товуш артикуляцион экскурсиясига тенг келади. Шунинг орқасида аввалги товушдаги уннинг давоми кейинги товушга улашиб кетади ва бурун товушининг ҳам резонатор тони кейинги унли резонатор тонига қўшилади. Натижада унли артикуляциясида ҳам бурун резонатор тони қайд этилади. Шунинг ўзи назализация деб қаралади. Наманган шевасида одатий ҳол деб қаралса ҳам, Тошкент ва бошқа шеваларга хос деб айтиш тўғри эмас. Ўзбек тилининг бошқа шеваларида сонант таъсирида унли назализациясининг содир бўлиши анча кучсиз. У Наманган ва унинг атрофидаги айрим туманлар шевасида одатий ҳол эканлигини С. Отамирзаева ўз изланишларида қайд этган [1.26].

– ўрин-пайт келишиги ***-да//до//-дэ, -та//тэ***: ***кўчада, уйда, тылызўрдо*** *(телевизорда),* ***томдо*** *(томда),* ***келидэ түй*** *(ўғирда туй),* ***мэллэдэ*** *(этакда),* ***дэҳчэдэ*** *(токчада),* ***соҳот бэшта*** *(соат бешда),* ***эшиҳтэ*** *(эшикда),* ***овқотто*** *(овқатда)* каби.

– чиқиш келишиги ***-дан//дон, -тан//-дон//-тон//нон//нан//нэн***: ***укамдан*** *(укамдан),* ***сийнимдан*** *(синглимдан),* ***чэккадан*** *(четдан),* ***олмодон*** *(олмадан),* ***сомсодон*** *(сомсадан),* ***бошқодон*** *(ўзгадан, бировдан),* ***тераҳтан*** *(теракдан),* ***эшиҳтан*** *(теракдан),* ***оттон*** *(отдан),* ***хурмодон*** *(хурмодан), оштон (ошдан), бошқоттон (янгидан, қайтадан)* каби. Агар сўз ўзаги бурун консонантлари билан тугаган бўлса ёки ўзакка синтактик шакл ҳосил қилувчи қўшимча бурун консонантлари билан тугаган бўлса, назализация кучаяди ва тил олди портловчилари ***д*** ва ***т н*** ва ***ң*** товушига алмашади: ***ноннон*** *(нондан),* ***энамдэн*** *(онамдан),* ***қўлимнэн үшлэди*** *(қўлимдан ушлади),* ***чачъңдэн тортымы*** *(сочингдан тортдими?),* ***бошыңнон ўгирвэр*** *(бошинг айлантириб юбор)* каби.

– эгалик қўшимчаларининг бирлиги ***-(ъ)м//-(ы)м; -(ъ)нг//-(ы)ң; -(с)ъ//-(с)ы*** қўшилганда: ***бүннъм*** *(бурним),* ***қонным*** *(қорним);* ***чачъң*** *(сочинг),* ***бошың*** *(бошинг); энэсъ (онаси), отосы (отаси); кўплиги* ***-(ъ)мис// -(ы)мыз; -(ъ)ңыс//-(ы)ңыз;-ъ//-лэрь//-лоры:*** *кэлънъмис (келинимиз), қошығымыз (қошиғимиз); этъгъңыс (этигингиз),* ***қызыңыз*** *(қизингиз);* ***қўшнылорды пъчоғъ*** *(қўшниларнинг пичоғи),* ***сөвзилэрь*** *(сабзилари), пычоҳлоры (пичоқлари)* каби.

– шахс-сон қўшимчаларининг бирлиги ***-(ъ)м // -(ы)м; -(ъ)нг //-(ы)ң; -тъ //-ды*** қўшилганда: *кэлдъм* (келдим)*, қылдым* (қилдим); *көрдъң* (кўрдинг), *бордың* (бординг); *айттъ* (айтди), ***қылды*** (қилди); кўплиги ***-мис // -мыс //-мыз; (ъ)ң//-със//-сыс//сыз,-нар//-нэр//-нор; -ъ//-лэр//-лор:*** *оң* (олинг), *кэң* (келинг), *кэламис* (келамиз), *қыйномоймыс* (қийнамаймиз), *ўйлоймыз* (ўйлаймиз); *кэласъс* (келасиз), *боросыс* (борасиз), *ўйнойсыз* (ўйнайсиз), *чиқиннар* (чиқинглар), *кеннэр* (келинглар), *борыннор* (боринглар); *келадъ* (келади), *келаллар* (келадилар), *бородилор* (борадилар) каби.

в) луғавий шакл ясовчи қўшимчалар қўшилганда: – кўплик қўшимчалари ***-лэр //-лар //-лор:*** *чэвэллэр* (чеварлар), *йъплэр* (иплар), *қувъллар//қубърлар* (қувурлар), *ғўралар* (ғўралар-довучча), *кўрпачалар* (кўрпачалар), *қоровылор* (қоровуллар), *боллор* (болалар), *толлор* (толлар), *дуволлор* (деворлар) каби.

– сифатдош қўшимчаси ***-ган//-кэн//-қон//-гон:*** *диган* (деган), *әйткэн* (айтган), *чыққон* (чиққан), *борғон* (борган) каби.

– равишдош қўшимчалари ***-(ъ)п; гоны//ганъ//кәнъ:*** *туръп* (туриб гапир), *ўқъп* (ўқиб кўр); *оғоны* (олгани), *урғоны* (ургани), *кўрганъ* (кўргани), *берганъ* (бергани), *айткәнъ* (айтган), *эккәнъ* (эккани) каби.

Хуллас, Наманган қипчоқ шевалари ареалида ҳам кўпгина сўз ясовчи, сўз ўзгартирувчи аффикслар ўзларининг контраст жуфтларига эга. Булардан қаттиқлари таркибида фақат тил орқа унлиси бор ўзакли сўзларга, юмшоқлари фақат таркибида тил олди унлилари бир ўзакларга қўшилади.

Лаб гармонияси. Маълумки, лаб гармонияси қонунига мувофиқ ўзакнинг биринчи бўғинида лаблашган унлилардан бири бўлса, сўнгги бўғинлардаги унлилар ҳам лаблашади.

Наманган қипчоқ шевалари ареалида лаб гармонияси қонуни, оз бўлса-да, мавжуд. Лабланиш ҳодисаси биринчи, иккинчи бўғинларда сезиларли бўлиб, учинчи ва сўнгги бўғинларга ўтиши спорадик. Лекин лаб гармонияси муфассал сақланган олтой ва қирғиз тилларидан кескин фарқ қилади. Мазкур тилларда аффикслар фақат қаттиқ юмшоқлиги билан эмас, балки лабланган ва лабланмаганлиги билан ҳам ажралиб туради [2.142, 6.87].

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, ўзбек шевалари ҳозирги адабий тилда учрамайдиган айрим грамматик шакллар, лексик бирлик элементларини сақлаб қолганки, уларни асосли равишда илмий ўрганиш жуда муҳим тарихий-лингвистик хулосаларни чиқаришга имкон туғдиради. Қатъий бир қонуният асосида тилнинг узоқ замонлардаги ҳолатини аниқлаётган изланувчига жуда қимматли материал берувчи маба бўлади. Шунинг билан бир қаторда, бундай фонетик, лексик-граммагик фактлар – асослар П.М.Мелиоранский таъбири билан айтганда: “...қадимги ёдгорликларни тушуниш ва лингвистик анализ қилишда ноёб қўлланма вазифасини адо этади” [4.3].

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. 1970.
2. Исхаков Ф. Г. Гармония гласных. Истор.-сравн. грамм. тюрск. языка. I-ч. – М., 1968. с.142
3. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005.
4. Мелиоранский П. М. Араб-филолог о турецком языке, СПб., 1900.
5. Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Ташкент: Фан, 2013.
6. Пальмбах А. А. Грамматика тувинского языка. – М., 1979.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DA TEXNIKA TERMINLARINING IFODALANISHI

Axmedova Maftuna Faxriddinovna
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada texnikaga oid terminlarning o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida berilishi, ularning struktur jihatdan tuzilishi, xalqaro terminelementli terminlarning kiritilganligi va ular asosida bir qancha terminlarni hosil qilingani tahlil qilindi. Aynan ular ishtirokida yasalagan terminlarning struktur jihatdan tuzilishi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: izohli lug‘at, termin, element, xalqaro terminelementlar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены приведенные в толковых словарях узбекского языка термины, относящиеся к технике, их структурное оформление, введение международных терминов и формирование на их основе ряда терминов. Именно с их участием была проанализирована структурная структура терминов, которые они придумали.

Ключевые слова: толковый словарь, термин, элемент, международный терминэлементы.

ANNOTATION: this article considers the issuance of terms related to the technique in explanatory dictionaries of the Uzbek language, their structural structure, the introduction of international terminelement terms and the derivation of several terms based on them. It was with their participation that the structural structure of the terms they made was analyzed.

Keywords: annotated dictionary, term, element, international terminelements.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilda ham yangilanishlar, o‘zgarishlar, yangicha atama va terminlar, tushunchalar paydo bo‘lmoqda. Jamiyatda insonlarning hayoti turli xil yangiliklar, insonga yengillik va qulaylikni yaratib beruvchi turlicha kashfiyotlar

bilan to‘la. Ayniqsa, XXI asrning texnika asri deb yuritilishi, dunyo bo‘yicha shu sohadagi yaratilgan texnik kashfiyotlar bugungi kunda barcha xalqlarda birday, doimiy iste’moldagi xalqaro terminlarga aylanib ulgurgan.

O‘zbek tili lug‘at boyligining ko‘payishida, rivojlanib taraqqiy etib borishida, bugungi kunda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi texnika sohasidagi kashf etilgan kashfiyotlarning, ilmiy yangiliklarning ham hissasi beqiyosdir. Lug‘at tarkibining ortib borishi yaratilayotgan texnika sohasidagi tadqiqotlar asosidagi ilmiy-texnik terminlar va ularning ijtimoiy hayotdagi faolligi bilan bevosita bog‘liq.

O‘zbek tili lug‘at boyligining zamonaviy terminologik tizimlarini ilm-fanga, tibbiyotga, kimyo texnologiyaga, qurilish va sanoat sohasiga, texnikaga oid terminlar tashkil qiladi. O‘zbek tilidagi zamonaviy terminologik tizimlarni o‘rganish, soha terminlarini to‘plash, saralash, tartibga solish va shu asosda lug‘atlar tuzib nashr etish ishlari asosan o‘tgan asrning 30-yillaridan boshlangan.[122]

Barcha fan sohalarining terminologik lug‘atlari kabi texnikaga oid lug‘atlar ham bir tilli, ikki tilli va uch tilli maxsus lug‘atlarning yaratilgani va izohli lug‘atlarda ularning xronologik tavsifda berilgani, aynan shu soha vakillarini quvontiradi.

2006-yilda nashrdan chiqqan O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan texnikaga oid terminlarning tahliliga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, lug‘atning asosiy va eng muhim jihati, unda o‘zbek tiliga boshqa xorijiy tillardan kirib kelgan o‘zlashgan so‘z va terminlarning etimologik jihatdan to‘liq ma’lumot berilganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, lug‘atda ilmiy-texnikaviy terminlar hosil qilishda *avia-, avto-, mikro-* kabi so‘zlar ya’ni “xalqaro terminelementlar”[123] bilan berilganligi terminlarning struktur jihatdan turli shakllarda bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Masalan, birgina *avia-* termini orqali 9 ta texniga oid termin, *avto-* termini orqali esa 46 ta texnika terminining etimologik kelib chiqishi, izohlari ushbu lug‘atda berilgan. *Avtobus, avtodrom, avtozavod, avtoruchka, avtosalon* kabi terminlarning har ikkala qismi xorijiy tilga mansub til elementidan hosil bo‘lgan bo‘lsa, *avtonazorat, avtopoyga, avtouy*, kabi qo‘shma so‘z shaklida, *avtomatlashmoq, avtomobilsoz, azotlamoq, azotli* kabi yasama qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali ham bir qancha texnika terminlari hosil qilingan.

Lug‘atda texnika terminlari, asosan, tub so‘zlardan, ot+ot konstruksiyali qo‘shma so‘zlardan, shaxs oti yasovchi va fe’l so‘z turkumini hosil qiluvchi yasovchi qo‘shimchalardan ko‘proq foydalanilgan.

Bak, binokl, bolt, bunker, vagon, ventil, gorelka, domna, gips kabi tub so‘zli terminlar lug‘atda bir qancha ma’nolarda kelishi izohlangan.

Ot+Ot konstruksiyali terminlar:

Avtovokzal, avtotransport, avtosug‘urgich, aeroklub, aeromexanika, balneotexnika, bortmexanik, bortprovodnik, vibrometr, vibrato‘qmoq, vibrog‘alvir, videoapparatura, videotelefon, videotexnika, gidroizolyator, gidronasos, gidropodyomnik kabi.

Bunday qo‘shma so‘z holidagi konstruksiyalardan tashqari yasovchi qo‘shimchalar orqali terminlar ham izohli lug‘atda anchani tashkil qiladi. *Kabelsoz, kabelsozlik, kabelchi, kabelchilik, mashinalashmoq, mashinasoz, mashinasozlik, mashinachi, mashinachilik, mashinashunos, mashinashunoslik* kabi. Quyidagi terminlardan ko‘rinib turibdiki, terminelementli so‘zlarni hosil qilishda ham, boshqa tillarga mansub shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar .ham milliy tilga oid yasovchi qo‘shimchalar kabi birdek faol ifodalangan. Masalan: mashinist, *mashinistka, mashinka ,mexanist, metallist* kabilar.

Tilimizga o‘zlashtirilgan mana shu kabi xalqaro texnika terminlari struktur jihatdan o‘zak qism, prefiks, suffiks va postfiks kabi shakllarda yasalgan. Ularni bunday tarzda tarkibiy qismlarga ajratishda qo‘shimchalarning qanday holatda qo‘shilganligiga va terminlar tarkibidagi xalqaro elementlarni ham ko‘rib chiqib tadqiq qilish mumkinligiga shohid bo‘lamiz.

Texnika sohasining bugungi kundagi tarmoqlari, yo‘nalishlari juda ko‘p. Ularda ifodalangan har bir termin oddiy kitobxon, o‘quvchi yoki tadqiqotchi uchun ham tushunarli bo‘lishi bugungi kunda, nafaqat til bilimdonlari tomonidan, balki shu soha vakillari tomonidan ham ikki va uch tilli izohli lug‘atlarning ko‘plab tirajlarda nashr etilishiga sabab bo‘lmoqda. Ularda ifodalangan terminlarning tuzilishi tub holda, yasama va so‘z birikmasi holida kelganlarini ham ko‘rishimiz mumkin.

Xullas, texnikaga oid terminlarning struktur jihatdan tuzilishida xalqaro terminlelementlar, ular bilan o‘zbek tiliga oid so‘z va qo‘shimchalarning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan terminlar izohli lug‘atda juda ko‘p va izohli ma’lumotlari to‘liq berilganini tahlil qildik. Aynan mana shunday strukturada hosil qilingan konstruksiyalar natijasida o‘zbek ilmiy-texnik terminlari boyib boradi.

---

[122] Madvaliyev A. O‘zbek tibbiyot terminologiyasining sohaviy va izohli lug‘atlarda berilishiga doir. O‘zbek tili va adabiyoti. 2009-yil, 4-son, 51-b.

[123] Madvaliyev A. Izohli lug‘atda xalqaro terminelementli so‘z va terminlarga munosabat masalasi. O‘zbek tili va adabiyoti. 2009-yil, 2-son,38-b.

TRAINING DIALOGICAL SPEECH

Alimsaidova S.A.
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Kokand State Pedagogical Institute
Khromenkova A.V., Abdurakhimova M., Matfozilova N.M.
Nematova D. master's students

Abstract: This article reveals the importance of two forms of speech in the educational process. The article emphasizes that the dialogical form of speech is typical for person-oriented communication in joint activities, where it often develops into polylogical.

Key words: dialogical speech, methodological science, student teaching, monologue speech, role-playing game, conversation

DIALOGIK NUTQNI O‘RGANISH

Alimsaidova S.A.
Pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Xromenkova A.V., Abdurahimova M., Matfozilova N.M.
Ne’matova D. magistratura talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola nutqning ikki shaklining ta’lim jarayonida ahamiyatini ochib beradi. Maqolada ta’kidlanishicha, nutqning dialogik shakli qo‘shma faoliyatda shaxsga yo‘naltirilgan muloqotga xos bo‘lib, u ko‘pincha polilogik shaklga aylanadi.

Kalit so‘zlar: dialogik nutq, metodik fan, o‘quvchilarni o‘qitish, monolog nutqi, rolli o‘yin, suhbat

ОБУЧЕНИЕ ДИАЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ

Алимсаидова С.А.
доктор педагогических наук (DSc), доцент
Кокандский государственный педагогический институт
Хроменкова А.В., Абдурахимова М., Матфозилова Н.М.
Нематова Д. магистранты

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы значимости двух форм речи в образовательном процессе. В статье подчёркивается, что диалогическая форма речи типична для личностно-ориентированного общения в совместной деятельности, где она часто перерастает в полилогическую.

Ключевые слова: диалогическая речь, методическая наука, обучение учащихся, монологическая речь, ролевая игра, беседа

Говорение предполагает две формы речи - **монологическую** и **диалогическую**. В методической науке наиболее разработаны вопросы обучения учащихся монологической речи (пересказы, сообщения, доклады и др.), значительно меньше освещен процесс обучения учащихся диалогической речи.

Диалогическое высказывание (текст) можно определить и с качественной, и с количественной стороны. Качественные характеристики диалогического высказывания могут быть охарактеризованы их содержанием, темой речи, видом диалога, типом составляющих их единств, а количественные характеристики диалогического текста определяются количеством фраз и их степенью развернутости в составе диалогического единства, также числом диалогических единств диалогического высказывания.

По степени развернутости диалог может варьироваться от диалогического единства, включающего две реплики, до развернутого диалогического текста, построенного на основе комбинаций разнообразных диалогических единств, состоящих из нескольких распространенных реплик.

Ситуация общения и качественные, количественные особенности диалогического текста тесно взаимосвязаны между собой и сильно зависимы друг от друга. Преподаватель может руководить речевыми действиями обучающихся, т.е. участников диалогического общения, меняя

определенные моменты речевой ситуации по ходу занятия.

Развернутость, полнота и построение, характер языкового материала и диалогических единств зависят от различных ситуативных факторов:

1) Между собеседниками присутствует или отсутствует внутренний контакт.

- они пользуются более свернутой речью, диалог характеризуется краткостью, умалчиванием, подхватыванием, параллелизмом в репликах;
- диалог становится более полным и развернутым, может сочетаться с монологом;

2) Цели и задачи, равенство или неравенство участников диалога по степени осведомленности, занимаемой должности или общественному положению, возрасту и т.д.

От этих факторов зависит вид диалога: *диалог-допрос, доверительная беседа, внушение* и др. Процесс обучения иноязычному диалогическому общению предусматривает не только усвоение разнообразных диалогических единств, но и подготовку обучающихся к осознанию стратегий и тактик речевого поведения.

Для того чтобы обучающиеся овладели сознательным использованием разнообразных стратегий и тактик инициирования диалога и реакций на реплики собеседника, которыми они практически владеют на родном (узбекском) языке, но часто не отдают себе отчета в правилах собственного речевого поведения, необходимо ставить перед ними коммуникативные задачи.

Самый простой и очень эффективный способ моделирования в интерактивном методе обучения – это *ролевая игра*. Игра даёт возможность моделировать реальное общение, используя язык как средство коммуникации, когда в игровых диалогах учебные схемы наполняются соответствующим ситуации содержанием. Ролевые дискуссии помогают формировать коммуникативные навыки в диалогической речи и монологической речи, умение излагать свои мысли кратко и чётко.

Рассмотрим ролевую игру по учебно-речевой ситуации ***«Научная конференция»***. Вид деятельности – участие в организации и проведении научной конференции.

Коммуникативное задание: Откройте заседание, объявите программу, просите принять решение о регламенте. Выступите со своими сообщениями; просите задавать Вам вопросы, отвечайте на вопросы. Составьте диалог.

При этом необходимо учитывать, что, обучая диалогу, вырабатывают стратегию и тактику взаимодействия, а не индивидуального речевого поведения. Диалогическая форма речи типична для личностно-ориентированного общения в совместной деятельности, где она часто перерастает в полилогическую.

Наиболее типичным видом диалога в условиях естественного общения и в учебном процессе является диалог, реализующий информативную функцию общения. Классифицируя диалоги информативного характера с учетом инициативности партнеров по общению, их влияния на протекание диалога, выделяют три типа диалога: собственно диалог, эфферентный диалог и афферентный диалог.

Первый вид диалога предполагает равноправие собеседников как коммуникантов, равную меру инициативности каждого из них. Это диалог встречно-направленного типа. Два следующих вида диалога характеризуются ведущей ролью одного из участников общения.

Диалог, рассматриваемый с позиции интервьюера, выступает как диалог, направленный на получение информации.

Все эти типы диалога могут иметь место в практике обучения иноязычному общению, выполняя различные учебные задачи. Один из них учит коммуникативному взаимодействию, другой инициативной, третий реактивной речи.

Нужно отметить, что характерной особенностью ситуаций, лежащих в основе диалогического общения, является их динамичность. С каждой новой репликой ситуация приобретает новый оттенок – снимается или, наоборот, возникает проблема, повод для разногласия, уменьшается информативный перепад и т.п. Этим, в частности, они отличаются от ситуаций, в рамках которых возникает сообщение монологического характера.

Подготовка обучающихся к общению с носителями языка, управляя учебным общением на занятиях неродных языков, является важной задачей современной методики преподавания.

Первоочередной задачей преподавателя иностранного (русского) языка является организация учебной деятельности таким образом, чтобы обучающиеся могли погрузиться в творческий процесс. Работа с учебно-речевыми ситуациями при обучении диалогическому общению является важным компонентом формирования коммуникативной компетенции и способствует созданию творческой среды для развития личности.

До недавнего времени считалось, что только обучение диалогической речи можно проводить на основе ситуативных упражнений. В последние годы утверждается мнение о том, что и монологическая речь, наряду с контекстуальностью, характеризуется также соотнесенностью с определенной речевой ситуацией, что форма и содержание монологического высказывания зависят от коммуникативной ситуации, в которой она рождается.

Использованная литература

1. Вайсбурд М.Л., Использование учебно-речевых ситуаций при обучении устной речи на иностранном языке: Учебное пособие. – Обнинск: Издательство «Титул», 2001. – 128 с.
2. Пассов Е.И., Кузовлева Н.Е., Урок иностранного языка. Ростов н/Д: Феникс; М.: Глосса-Пресс, 2010. – 640 с.
3. Sayyora, Alimsaidova. "SPEECH SAMPLES AS ONE OF THE EFFECTIVE WAYS OF ENRICHING SCHOOLCHILDREN'S SPEECH." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.12 (2022): 404-406.
4. Sayyora, Alimsaidova. "METHODS OF SELECTING TEXTS WHEN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).
5. Sayyora, Alimsaidova. "IMPROVEMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429* 11.09 (2022): 313-316.

LEKSIKOLOGIYA MAVZUSINI O‘TISHDA GRAMMATIK O‘YIN-TOPSHIRIQLAR QO‘LLASH

Latofat Ibragimova
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada tilshunosllikadi leksikalogiyaga oid mavzularni tadqiq qilinishi va o‘qituvchilarga so‘z va uning ma’no nozikliklarini tushuntirish lozim bo‘ladi. Bu o‘rinda leksikalogiyaga oid ayrim mavzularni o‘tishda foydalanish mumkin bo‘lgan ayrim interaktiv grammatik o‘yinlar ilmiy jihatdan o‘rganilga.

Kalit so‘zlar: ot, kesim, so‘z, misol, topshiriq, dars, daftar, sharti, kitob, ma’no.

Аннотация

В статье необходимо исследовать темы, связанные с лексикологией в лингвистике, и объяснить учителям тонкости слова и его значения. Здесь будут научно изучены некоторые интерактивные грамматические игры, с помощью которых можно пройти некоторые темы, связанные с лексикологией.

Ключевые слова: существительное, причастие, слово, пример, задание, урок, тетрадь, условие, книга, значение.

Annotation

The paper should explore topics related to lexicology in linguistics and explain to teachers the intricacies of words and their meanings. Some interactive grammar games will be scientifically explored here to help you cover some topics related to lexicology.

Key words: noun, participle, word, example, task, lesson, notebook, condition, book, meaning.

Tilimizdagi ba’zi so‘zlar gapdan tashqari ham, gap ichida ham birgina ma’noni bildiradi. Masalan: kecha, qush, kitob, uy, daftar kabi.

Leksikamizda yana shunday so‘zlar guruhi ham borki, ular gap ichida bir ma’noni ifodalasa, gapdan tashqarida esa boshqa ma’noni ifodalab keladi . Bunday so‘zlar guruhi ko‘p ma’nolilik yoki polisimantik so‘zlar deyiladi. Masalan: ko‘z, quloq, etak, bosh, yuz kabilar .

Ko‘p ma’noli so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati, so‘zning ma’no qirralari bosh ma’noga asoslanadi va bir turkum doirasiga tegishli bo‘ladi. Masalan: quloq so‘zi insonning eshitish a’zosi hisoblanadi.

Nutqimizda esa bu so‘zning “qozonning qulogi”, “devorning qulog‘i” kabi ko‘chma ma’nolari qo‘llanadi. Bularning nutqidan tashqaridagi ma’nosi asl ya’ni o‘z ma’nosi hisoblanadi. Bu so‘z qancha ma’noda ishlatilsa-da bir so‘z turkumi ya’ni ot so‘z turkumiga, oid so‘zning ko‘chma ma’nosini nutqdagi boshqa so‘zlar yordamida anglashiladi va bir-biriga bog‘liq bo‘ladi.

Shakldosh so‘zlar ya’ni omonimlar talaffuzi bir xil, ammo atash ma’nosi har xil so‘zlardir. Bunday so‘zlar turli so‘z turkumiga oid bo‘ladi. Omonim so‘zlarning ma’nolari o‘rtasida bog‘lanish bo‘lmaydi.

Masalan: ot-ism (ot so‘z turkumi) ot-otmoq (fe’l so‘z turkumi) ot- hayvon (ot so‘z turkumi); yush- uyqudagi tush(ot so‘z turkumi), tush-otdan tushmoq (fe’l so‘z turkumi) tush – payt, kunning quyosh tikkaga kelgan vaqti (ravish so‘z turkumi).

Yuqoridagi so‘zlarni bir bosh ma’noga birlashtirib bo‘lmaydi. Chunki bu so‘zlar turli so‘z turkumi doirasida yuz beradi.

Demak, ko‘p ma’noli so‘zlar bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llashdan kelib chiqqan. Shakldosh so‘zlar esa shakli va aytilishi bir xil ikki va undan ortiq so‘zlardir. Agar ko‘p ma’noli so‘zlar ma’nolari o‘rtasida aloqa uzilsa, omonimlik yuzaga keladi. Yuqoridagi misollar orqali so‘zlarni izohlash o‘quvchilarga omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni tushuntirishni yengillashtiradi.

O‘quvchilarni fikrlash qobiliyatini o‘stirish, to‘g‘ri va ravon nutq madaniyatini egallash uchun qator grammatik o‘yinlarni qo‘llash mumkin.

Jumladan “Bir ma’noli va ko‘p ma’noli” so‘zlarni o‘tishda “Bittami yoki ko‘pmi” o‘yinidan foydalanish mumkin. Bu o‘yinda o‘qituvchi bir qator so‘zlarni o‘qib eshittiradi: kitob, qalam, daftar, etak, buloq, qosh, bel, ko‘z, tosh, quyon, quloq, og‘iz kabi. O‘quvchilar shu so‘zlarni 2 guruhga ajratib, daftarlariga yozadilar. 1-qatorga bir ma’noli, 2-qatorga ko‘p ma’noli so‘zlarni yozadilar.

I qator	II qator
Kitob	etak
Qalam	qosh
Daftar	bel
Buloq	ko‘z
Quyon	tosh

Ushbu o‘yin topshiriq orqali o‘quvchilarning bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqini topish, so‘zlarni to‘g‘ri guruhlay olish malakalari ortib boradi.

O‘quvchilarning so‘z ma’nolarini aniqlashdagi asosiy qiyinchiliklaridan biri bu so‘zning leksik ma’nosini bilmasligi; Ikkinchisi omonim va ko‘p ma’noli so‘zlarni farqlay olmaslik; Uchinchisi nutqda so‘zlarni noto‘g‘ri qo‘llashi va buning natijasida paronim so‘zga aylanib qolishi; iboralarning bir so‘zga teng keladigan juftini ma’nosini aniqlay olmasligidir.

Bunday muammolarni bartaraf etish o‘qituvchi zimmasiga yuklanadi. Dars jarayonida o‘qituvchi turli amaliy o‘yinlarni qo‘llashi orqali o‘quvchilar ongiga oson kirib boriladi va eslab qolish ya’ni yodda saqlash qobiliyati o‘stiriladi. Bunda o‘quvchi o‘z kuch va imkoniyatiga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Leksikologiya bo‘limining iboralar (frazeologik birliklar) mavzusini o‘tishda quyidagi o‘yindan foydalanish mumkin. O‘yin sharti quyidagicha. Bir qancha so‘zlar beriladi va shu so‘zga teng keladigan iboralar aniqlanadi.

1-Topshiriq. Sevindi, befoyda ranjidi, unutmoq, tortishuv, maqtanmoq, hayratlanmoq.

Javob: ”shodligi ichiga sig‘madi”, ”shamolga uchirmoq”, ”ta’bi xira bo‘ldi”, ”yodidan ko‘tarilmoq”, ”sen-menga bormoq”, ”aravani qurib olib qochmoq”, ”yoqasini ushlamoq”.

2-Topshiriq. Quyidagi iboralarning sinonimini aniqlang.

I qator	II qator
Do‘ppisini osmonga otdi	boshi osmonga yetdi
Og‘ziga talqon soldi	lom-mim demadi
Joni uzildi	olamdan ko‘z yumdi
Mijja qoqmadi	ko‘z yummadi
Kapalagi uchdi	o‘takasi yorildi
Qo‘ldan berdi	boy berdi.

Iboralarni o‘tishda yana shunday o‘yin qo‘llash mumkin.
“Ma’nosini kim chaqadi” o‘yini. Bu o‘yinda o‘quvchilar 2 guruhga bo‘linadi va doskada 2 ustunda iboralar beriladi. Bu iboralarning antonimini topish topshiriladi. Topshiriq tezkorlik bilan bajariladi.

I qator	II qator
Boshi osmonga yetdi	lom-mim demadi
Qulog‘idan oy ko‘rinadi	mijja qoqmadi
Ko‘zi ilindi	qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan

Boshiga ko‘tarmoq	fig‘oni falakka yetdi
Jag‘i ochildi	bo‘rdoqiga boqilgan
Yulduzni benarvon uradi	yerga urmoq

Yuqoridagi grammatik o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilar diqqati bir joyga jamlanadi, xotirasi mustahkamlanadi o‘quvchilarni chaqqonlikka o‘rgatadi, darsda o‘quvchilarning zerikishiga yo‘l qo‘yilmaydi, antonim sinonimlar haqidagi bilimlari boyib, kengayib boradi.

Xullas, grammatik o‘yin-topshiriqlar dars samaradorligini oshirishda, o‘quvchilarning mavzuni oson o‘zlashtirishda asosiy vositalardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdurahmanov F.A. Ozbek tili grammatikasi 1 tom Toshkent, 1991 2.Almamatov T, Yadgarov Q, Pochchayev G. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Metodik qo‘llanma. Jizzax, 2006.
3.Asqarova M.va bosh O‘zbek tili grammatikaning praktikumi, Toshkent “O‘qituvchi” 1981yil.
4. Mirtojiyev. Hozirgi o‘zbek tili Toshkent “O‘qituvchi”1992 yil 169-bet.

YASAMA OTLAR – O‘QUVCHILAR SO‘Z BOYLIGINI OSHIRUVCHI VOSITA

A.Ibragimov Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tili fanida talabalarning so‘z boyligini oshirish uchun yangi padagogik texnologiyalar asosida nutqini oshiruvchi vositalardan foydalanishni pedagoglarga taklif qilingan. Shuningdek, qisqartma so‘zlar, yasama so‘zlar ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: qisqartma, o‘quv, soat, sinf, dars, nutq, usul, ot, fe’l, talaffuz.

Аннотация

В данной статье педагогам предлагается использовать средства улучшения речи, основанные на новых педагогических технологиях, для увеличения словарного запаса учащихся на узбекском языке. Также были проанализированы сокращения и искусственные слова.

Ключевые слова: сокращение, учёба, час, класс, урок, речь, приём, существительное, глагол, произношение.

Abstract

This article suggests that teachers use speech improvement tools based on new pedagogical technologies to increase students’ vocabulary in the Uzbek language. Abbreviations and artificial words were also analyzed.

Key words: abbreviation, study, hour, class, lesson, speech, technique, noun, verb, pronunciation.

Ma’lumki, tilning lug‘at tarkibi yasama so‘zlar, shevalardan so‘z olish (ichki tomondan), boshqa tillardan so‘z qabul qilish (tashqi tomondan) orqali kengayib boradi. Demak, so‘z yasalishi lug‘atni boyituvchi manbalardan biri sanaladi. Mustaqil so‘z turkumlarining deyarli hammasida (son turkumidan boshqa) yasalish jarayoni kechadi. Bu turkumlar orasida yasama otlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ot turkumi o‘rta maktabning 6-sinfida o‘tilib, o‘quv soatlarining katta qismi bu turkumga ajratilgan.

Hamma mutaxassislar e’tirof etganidek, otlar uch xil yo‘l bilan yasaladi: 1. Affiksatsiya usuli, 2. Kompozitsiya usuli, 3. Abbrevatura usuli. Bu usullarda yasalgan so‘zlar o‘quvchi so‘z boyligini oshiradi, nutq ravonligiga xizmat qiladi.

Ot so‘z turkumini o‘rganishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – o‘quvchilarning bu so‘z turkumiga kiruvchi so‘zlarni to‘g‘ri yoza olishi, talaffuz qila olishi, va har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini bilgani holda ularni nutqda to‘g‘ri hamda o‘rinli qo‘llay olishiga erishiladi.

Ot so‘z turkumida grammatik kategoriyalar unchalik ko‘p bo‘lmasa-da, unga mansub so‘zlar (otlar) leksikamizda salmoqli o‘rin egallaydi. Bunday leksemalarning ko‘pchiligi yasama ot (so‘z)lardir.

Maktabda yuqorida sanalgan usullar bo‘yicha yasalgan otlar o‘rganiladi. Bulardan affiksatsiya usuli bilan ot yasalish kengroq o‘tiladi. Chunki affiksatsiya usuli bilan otlarning ko‘pgina ma’no guruhlari yasaladi: shaxs otlari, narsa-qurol otlari, o‘rin-joy otlari kabi. Biz bu o‘rinda yasama otlarning harakterli tomonlarigagina to‘xtalamiz.

Bu mavzuga o‘quvchilarni qiziqtirish maqsadida ushbu turkumga oid qiziqarli ma’lumotlar berib borish ahamiyatlidir.

1. Chunonchi, so‘z turkumlari ichida faqat ot turkumigina o‘zidan (otdan) ot yasaydi. Masalan, ishchi, temirchi, sinfdosh, tilshunos kabi.shuningdek, boshqa so‘z turkumlaridan ham otlar yasaladi: turtki, tepki, ochqich, sochiq kabi. Ot turkumiga mansub so‘zlardan ot yasalish (beton+chi, kasb+dosh) ichki yasalish deyiladi. Boshqa turkumdan (otdan boshqa turkumdan) ot yasash tashqi yasalish deyiladi (tugma, suzma). Demak, so‘z yasovchi affiks so‘z turkumini o‘zgartirsa, (masalan, fe’ldan ot yasalsa) tashqi yasalish sanaladi. Agarda tashqi yasovchi bilan ichki yasovchi qator kelsa, avval tashqi yasovchi keyin ichki yasovchi qo‘shiladi. Masalan, beza+k+chi (beza fe’lidan –k affiksi yordamida holat oti, unga shaxs oti yasovchi –chi affiksi qo‘shilib shaxs oti yasalmoqda.), kura+k+chi bunga ham shuni aytish mumkin, kiy+im+lik kiy undosh bilan tugagan, -im affiksi qo‘shilib,narsa-buyum oti yasalib, undan –lik vositasida mavhum ot yasalgan. Demak, avval ot bo‘lmagan so‘zlardan ot yasalib, ulardan ot hosil bo‘lmoqda. Bu kabi ma’lumotlar, birinchidan, o‘quvchilar qiziqishini orttiradi, ikkinchidan, xotirasida uzoq saqlanadi, uchinchidan, bu yasamalar yordamida o‘quvchilar so‘z boyligi oshadi.

2. Otlar ifodalagan narsa-buyumlarning (ushlash, ko‘rish, sanash, o‘lchashligi) aniqligi yoki mavhumligi asosida ikki guruhga ajratiladi: aniq otlar, mavhum otlar. O‘quvchilarga avval aniq otlar haqida ma’lumot beriladi. Shundan so‘ng unga qiyosan mavhum otlar tushuntirilsa, ulrning xotirasida uzoq saqlanadi. Chunki, ularni bir-biriga qiyoslash, albatta, birini ikkinchisi orqali xotirasiga keltiradi.

Nutqimida mavhum tushunchalarni anglatuvchi tub so‘zlar (uyqu, vatan, vijdon) bilan birga yasama so‘zlar ham mavjud. Yasama mavhum otlar –lik morfemasi vositasida yasaladi: ona+lik, yolg‘iz+lik.

Aniq va mavhum otlar haqida yetarli ma’lumot berilgach, bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida aniq otlardan mavhum otlar yasash topshirig‘i beriladi. Masalan, talabalik, o‘quvchilik, bolalik, zargarlik, bog‘bonlik kabi. Shuningdek, buning aksi mavhum otlardan aniq otlar yasash: shirin+lik, kunda+lik, dars+lik, yo‘q+lik kabi. Bu topshiriqlar musobaqa tarzida bajarilishi ham mumkin. Bu metodda o‘quvchilar, birinchidan, aniq va mavhum otlarni aniqlay olish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ikkinchidan, o‘quvchilarning so‘z boyligi ortadi. O‘quvchilar bilimini tekshirish maqsadida shunday savol bilan murojaat qilish mumkin.

-lik affiksi yordamida faqat mavhum otlar yasaladimi?

- geografik nomlarga –lik affiksi qo‘shilganda qanday ma’no anglatadi?

3. Ma’lumki, analitik yo‘l (usul) bilan qo‘shma va qisqartma otlar yasaladi. Mantiqan qaralganda ular ikkalasi ham bir hodisa, ya’ni, so‘zlarning qo‘shilishi natijasida boshqa tushunchani ifodalovchi yangi so‘z hosil bo‘ladi. Lekin grammatika so‘zning ma’nosidan tashqari shakli bilan ham ish ko‘radi. Demak, bunda ikki hodisa: qo‘shma va qisqartma so‘zlar hosil bo‘ladi.

Bu o‘rinda e’tiborni tortadigan tomoni, bizningcha, qisqartma so‘zlar va ayrim so‘zlarning birikuvidir. Qisqartma so‘zlarning ma’nosi va qo‘shma so‘zlardan farqli tomonini aniqlash maqsadida o‘quvchilarga bir qator muammoli savollar bilan murojaat qilinsa, ularni mustaqil fikrlashga undaydi:

- Qisqartma so‘zlar so‘z (ot) yasalishimi?

- Har qanday qisqartma so‘z sanaladimi?

- Quyidagi qisqartmalarga fikr bildiring: JDPI, O‘zMU, BMT, H.O (Hamid Olimjon), G‘.G‘ (G‘afur G‘ulom) va boshqalar kabi.

-Orol dengizi, Jizzax shahri, G‘allaorol tumani kabi birikuvlar nima deyiladi?

-Abdulla Qodiriy, Botir Jabborovich, Shaxnoza ….. kabi birikuvlar qanday nomlanadi? kabi.

Yasama so‘zlar, xususan, yasama otlar o‘quvchilar so‘z boyligini oshiruvchi vosita sanaladi. O‘quvchi nutqining yaxshi, ravon, aniq va ta’sirchan bo‘lishi uning so‘z boyligiga bog‘liq. Ular leksikasida mavjud bo‘lgan so‘zlarni taqqoslab, qiyoslab ishlatish jarayonida ta’sirchan nutqi shakllanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent. 1980, 175-187 betlar.
2. O‘zbek tili grammatikasi, I-tom, “Fan” nashriyoti, Toshkent.
3. A.G‘ulomov, H. Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni, “O‘qituvchi” nashriyoti, Toshkent. 1995
4. A. G‘ulomov va boshqalar. O‘zbek tilining morfem lug‘ati, “O‘qituvchi ” nashriyoti, Toshkent. 1977
5. T. Almamatov va boshqalar. O‘zbek tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Toshkent. 2013

MUNFASIL HARFLAR MAVZUSINI ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR BILAN O‘QITISH

Do‘stova Surayyo Savronovna Jizzax davlat pedagogika universiteti, f.f.f.d. (PhD) Dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Eski o‘zbek yozuvi fanidan o‘rin olgan “Munfasil harflar” mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi xususida so‘z boradi. Eski o‘zbek yozuvi fani hozirgi vaqtda yurtimizdagi oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetilarida mutaxassislik fani sifatida o‘qitiladi. Ushbu maqolada eski o‘zbek yozuvi fanidan munfasil harflar mavzusi bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar mazmunini ochishda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Kalit so‘zlar: Metod, yozuv, nutq, so‘z, ta’lim, interfaol, yozuv, o‘zbek, matn.

Annotation: This article will talk about the methodology for the use of modern pedagogical technologies in the teaching of the topic “Munfasil letters”, which has a place in the subject of old Uzbek writing. The science of old Uzbek writing is currently taught as a specialty at the faculties of Uzbek Philology of higher educational institutions in our country. In this article, we want to talk about interactive methods that can be used to open the content of practical exercises on the topic of monfasyl letters on the subject of old Uzbek writing.

Keywords: Method, writing, speech, word, education, Interactive, Writing, Uzbek, text.

Аннотация: данной статье рассказывается о методике использования современных педагогических технологий при преподавании темы «Буквы мунфасили» по дисциплине староузбекской письменности. Дисциплина староузбекская письменность в настоящее время преподается как предмет специальности на факультетах узбекской филологии высших учебных заведений нашей страны. В этой статье ведется речь об интерактивных методах, которые можно использовать для раскрытия содержания практического занятия по теме мунфасильные буквы из предмета староузбекской письменности.

Ключевые слова: Метод, письмо, речб, слово, образование, интерактив, текст.

O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. “Innovatsion ta’lim texnologiyalari, interfaol uslubdagi darslar xorij tajribasi sifatida pedagogikaga hamda barcha fanlarning o‘qitish metodikasiga kirib kelgani hech kimga sir emas. Innovatsiyalarning ko‘rinishlari: yangi g‘oyalar, tizim yoki faoliyat yo‘nalishini o‘zgatirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan’anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublaridir” [5.56]. Eski o‘zbek yozuvi fani hozirgi vaqtda yurtimizdagi oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetilarida mutaxassislik fani sifatida o‘qitiladi. Eski o‘zbek yozuvi fanidan munfasil harflar mavzusidan amaliy mashg‘ulotlar mazmunini ochishda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan interfaol metodlar xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlari o‘zbek filologiyasi fakultetida eski o‘zbek yozuvi darslarini o‘tishda ”Munfasil harflar” mavzusini o‘rgatish jarayonida turli zamonaviy metod va usullardan foydalanish mumkin. “Metodlarni muvofiq ravishda tanlash lozim. Dars o‘tishda qanday metodni tanlash o‘rganilayotgan fanga, uning xususiyatlariga, o‘rganiladigan mavzularga bog‘liq”[5.909]. “Munfasil harflar” mavzusi bo‘yicha quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

1-topshiriq. Alif, dol, zol, re, ze je vov harflarning ko‘rinishini bir qatordan yozib chiqish. **Maqsad:** talabalarda harflarni yozishga ko‘nikma hosil qilish

	ا
	د
	ذ
	ر
	ز
	ژ
	و

2-topshiriq. “Harflarni bir- biriga mos ko‘rinishlarida qo‘shib so‘zlar hosil qil”. Maqsad: talabalarda arab harflarining yozilishini mukammallashtirish.

ر+ا+ز=

د+ر+د=

د+ر+خ+ت=

آ+و+ا+ز=

آ + ز + ا + د =

ا + ژ + د + ر =

3-topshiriq. “KLASTER” METODI

Klaster metodi pedagogik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u talabalarga ixtiyoriy mavzuda erkin, ochiq o‘ylash, bemalol fikrlashi uchun imkon yaratadi. Klaster metodidan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. **Maqsad:** talabalar mavzu bo‘yicha chuqur va puxta o‘zlashtirgunga qadar fikrlash faoliyatini bir maromda bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Bunda talabalar yakka yoki guruh bo‘lib ishlaydilar.

Berilgan harflar bilan boshlanuvchi so‘zlarni jadvalga yozib uni tarmoqlantiradilar. Alifbo to‘liq o‘rganilmaganligi sababli hozircha harflar jadvaliga qarab so‘zlar hosil qilinadi.



NAMUNA:

آز – oz

زار -zor

آر - or

4-topshiriq. Rasmga qarab so‘zlar hosil qiling, matn tuzing va alifbodan foydalanib, arab yozuviga o‘giring.



5-topshiriq. “Charxpalak” metodida 3ta kichik guruhlar o‘z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo‘ylab bir- biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o‘zlariga qaytib keladi. Guruhlar o‘z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi. **Maqsad:** Guruh bo‘lib ishlashga o‘rganish, xatolarini tuzatish, xatosiz yozishga erishish.



1. So‘zlarni arab yozuviga o‘giring va bir-biringizga uzating.
2. Xatolarni tekshirib, yana ikkita so‘z yozing.
3. Barcha so‘zlarni yig‘ib 3ta gap hosil qiling.

6-topshiriq. “Rasmga qarab matn tuz” metodida talabalar ushbu rasmga qarab arab yozuvida matn tuzadilar**. Maqsad:** arab yozuvida matn tuzishga orgatish, gaplarni to‘g‘ri va xatosiz tuzishga, yozishga erishish.



7-topshiriq.”O‘qi va o‘gir” metodida talabalar matnni o‘qiydilar, arab yozuviga o‘giradilar**. Maqsad:** arab yozuvida xatosiz yozishga erishish, xatolarni tuzatish.

1) Kimsa hargiz ko‘rmadi, chun ahli davrondin vafo,
Ulki davron ofatidur, ne tama’ andin vafo,
Jonimu umrimdur ul oy, bevafo bo‘lsa ne tong,
Qayda ko‘rmish kimsa hargiz umr ila jondin vafo.

2) Gar vafo qilsang erur andinki,bordursen pari,

Yo‘qsa kim olamda ko‘rmish nav’i insondin vafo.
Vahki davron ahlidinjuz bevafolig‘ ko‘rmadim,
Har nechakim ko‘rdilar men zoru hayrondin vafo.

3) Chun vafo gulbargi davron bog‘ida ochilmadi,
Bejihatdur kimki ketar bu gulistondin vafo.
Kimsa ko‘nglin kimsadin istab vafo oldurmasun,
Kim menga xud etmadi ul ko‘nglum olg‘ondin vafo.
(Alisher Navoiy g‘azali)

8-topshiriq. Testni yeching.

1. Munfasil harflar qaysilar?
A. Dol, zol, re, ze
B. Dol, zol, zod, re, ze
C. Be, te, vov, fe, lom
D. Nun, yo, re, alif, je

2. Muttasil harflar qatori qaysi?
A. Mim, nun, vov, jim
B. Alif, dol, zol, re, ze
C. Ayn, g‘ayn, qof, je
D. Xe, hoyi huttiy, chim, jim

3. 1989 yilda chiqarilgan “Eski o‘zbek yozuvi” kitobining muallifi kim?
A. R. Jumaniyozov
B. A. Abdusamatov
C. Sh. Rahmatullayev
D. M. Abzalova

4. Alif harfi yozuvda necha ko‘rinishda bo‘ladi?
A. 4
B. 3
S. 2
D. 1

5. Alif qachon «a» unlisini ifodalaydi?
A.madd belgisini olgan vaqtda
B. alif harfi ustiga zabar belgisi qo‘yilganda
S. alif harfi ustiga sukun belgisi qo‘yilganda
D. barcha javoblar to‘g‘ri

6. Alif qachon «o» unlisini ifodalaydi?
A. madd belgisini olgan vaqtda
B. alif harfi ustiga zabar belgisi qo‘yilganda
S. alif harfi ustiga sukun belgisi qo‘yilganda
D. alif harfi ustiga pish belgisi qo‘yilganda

7. Alif qachon madd belgisini oladi?
A. so‘z boshida
B. so‘z o‘rtasida
S. so‘z oxirida
D. ikki undoshning o‘rtasida

8. Maddli alif harfi qanday tovushni ifoda etadi?
A. u
B. i
S. o
D. A

9. So‘z boshida yo va vov harflari birga kelsa qanday o‘qiladi?
A. yu
B. i

S. o
D. u

10.So‘z boshida alif va yo harflari birga kelsa qanday o‘qiladi?

A. a
B. i
S. o
D. u

9 -topshiriq. Aqliy hujum metodi.

Savollar:

1. Munfasil harflar deb nimaga aytiladi?
2. Alif (ا) ning o‘qilishi va yozilishi qanday?
3. Alif harfi bilan boshlanadigan bir bo‘g‘inli so‘zlardan yozing.
4. Alif harfining turkiy so‘zlar boshuda kelishi haqida so‘zlang.
5. Dol va zol harflari farqini ayting.
6. Re, ze, je harflarining farqini tushuntiring.
7. Vov harfi qaysi tovushlarni ifodalaydi?

Xulosa qilib aytganda, ”Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, ular bilan bog‘liq metodik yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar, ko‘plab fundamental tushunchalarni nisbatan yengil, chuqur va mustahkam shakllantirish uchun qulay sharoit yaratishi shubhasiz” [2.740]. “Munfasil harflar” mavzusini yoritishda yuqoridagi metodlardan foydalanilsa, dars samaradorligi oshadi va talabalar amaliy mashg‘ulotlarda zerikmaydi, o‘z ustida ishlashga majbur bo‘ladi, hamda o‘zini o‘zi baholaydi. “Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keladi”.[3.570]

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Ashirboyev S. Azimov I, Rahmatov M. G‘oziyev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent. Ijod, 2006.
2.Buranova Sh.Zamonaviy dars va unga qo‘yiladigan talablar.”Turkiy xalqlar filologiyasida fundamental tadqiqotlar va innovatsion ta’lim texnologiyalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi.Nukus davlat pedagogika instituti.- Nukus, 2022.B.740
3. Do‘stova S. Fors izofasi mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.”Актуалные проблемы сопоставительного языкознания, справнительного литературоведения и переводоведения”. Навои-2022.B.570
4. Салоҳий Д.,Бабажонова Б. “Ўзбек тили ва адабиёти фанини ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланиш” модул бирлигидан маърузалар матни.Самарқанд-2017. 3-б.
5.Sayidahmedov N. Noan’anaviy dars. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – B.56.
6. Жуманиёзов Р. Эски ўзбек ёзуви. -Toshkent. Ўқитувчи, 1989.
7.Исҳоқов Ф. Эски ўзбек ёзуви.-Toshkent. Ўқитувчи,1995.

ABDULLA QODIRIY HAJVIY ASARLARIDA MUSTAQIL SO‘Z TURKUMLARINING QAY DARAJADA QO‘LLANILISHI

Pardayeva Madixabonu Xakimovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Abdulla Qodiriy asarlarida mustaqil so‘z turkumlari nutqda asosiy vazifani bajarishi, shu sababli ularning muayyan grammatik vazifani bajarishga moslashda grammatik vositalar juda muhim o‘rin tutishi, mustaqil so‘zlarning grammatik ma’no va muayyan vazifalar bajarishi davr nuqtai nazaridan yondashuv talabiga ko‘ra o‘zgarib turishi misollar asosida tahlil qilib berilgan.

Tayanch so‘zlar: narsa-buyum, tasviriy matnlar, ega va kesim, hol va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmish, qarindosh tillar, faollashtiruvchi tamoyil

Abstract. In the works of Abdulla Qadiri, independent word groups perform the main task in speech, therefore, grammatical tools play a very important role in adapting them to perform a specific

grammatical task, the grammatical meaning of independent words and the performance of specific tasks change according to the requirements of the approach from the point of view of the period.

Key words: *descriptive texts, possessive and participle, case and subjunctive, adjective, explicative and unexplained, cognate languages, object, activating principle*

Mustaqil so‘z turkumlari nutqda asosiy vazifani bajaradi, shu sababli ularning muayyan grammatik vazifani bajarishga moslashda grammatik vositalar juda muhim o‘rin tutadi.Mustaqil so‘zlarning grammatik ma’no va muayyan vazifalar bajarishi davr nuqtai nazaridan yondashuv talabiga ko‘ra o‘zgarib turadi. Masalan, narsa-buyum – predmetni birlamchi hisoblab boshqa mustaqil so‘zlarni uni izohlash va to‘ldirishga yo‘naltirishni taqozo qiluvchi yondashuv va kommunikativ nuqtai nazardan harakatni birlamchi, deb olib fe’l so‘z turkumini faollashtiruvchi tamoyil ham mavjud. Shu ma’noda hajviy matnlarda qaysi mustaqil so‘z turkumi faolroq qo‘llanganini aniqlash zarur.

B.Mengliyev “Tillar o‘zaro grammatik xususiyatiga ko‘ra ham tasniflanadi. Masalan, o‘zbek tilida kesimning gap markazi sifatida boshqa barcha bo‘laklarni o‘z atrofida uyushtirishi, eganing fakultativligi, sifatlovchining sifatlanmishdan oldin kelishi, bunda inversiyaning bo‘lmasligi, ega va kesim, qaratuvchi va qaralmishning ikkiyoqlama aloqaga egaligi, to‘ldiruvchi va to‘ldirilmish, hol va hollanmish, sifatlovchi va sifatlanmish, izohlovchi va izohlanmishning bir yoqlama aloqada ekanligi kabilar uning boshqa qarindosh tillar bilan birgalikda bir til oilasiga kirishini ta’minlaydi. Ammo bu bir til oilasiga kiruvchi barcha tillar orasidagi farqning mavjudligini inkor qilmaydi. Masalan, turkiy tillarning sintaktik qurilishida o‘xshashlik, morfologik qurilishida esa farq ko‘proq”.[Mengliyev B., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 414 b.]

Mustaqil so‘z turkumlarining qay darajada qo‘llanishi matnning mazmuniga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Agar matni tavsifiy xarakterda bo‘lsa, unda ot so‘z turkumi boshqalaridan ko‘proq qo‘llanadi. /Otam 1242 hijriy – 1823 melodiy yillari Toshkandda tug‘ulub, alhol, 99-100 yoshlaridadir. Ruslar istilosi vaqtida 42 yoshida bo‘lub Toshkandni ruslardan mudofaa qilg‘an qahramonlarning biridir. Turkiston xonlaridan Sheralixonni, undan so‘ng Xudoyorxon, Mallaxon ham bu orada yillab va oylab xonliq qilub o‘tkan Murodxon, Said Sulton va boshqa xonlarni, Toshkand beklaridan (hokimlaridan) Muhammad Sharif otaliq, Salimsoqbek (bu zot Buxoro amiri tomonidan Toshkand bekligiga qo‘yilg‘an edi. Musulmonqul tomonidan o‘ldirildi), Azizbek, Normuhammad qushbegi, Shodmon o‘roq, Qanoat shoh, Mirza Ahmad qushbegi, Mallaxon (Mallaxon og‘asi Xudoyorxonning xonlig‘i vaqtida Toshkandda uch yillab bek bo‘lub turg‘andir). Eng oxirdan Qo‘shdodholarning bekligini ko‘rub, o‘tkuzgan. Xonliqning bosh noziri va qo‘mondoni o‘rnida bo‘lg‘anlardan Musulmonqul va mulla Alimqullarni ko‘rgan va urushlarida bo‘lg‘an. Piskatlik Qashg‘ar amiri mashhur Yoqubbekni Qashg‘arg‘a kuzatkan./ (H.Q. Kulgulik) Matnda atoqli otlar bilan birgalikda shaxs otlari ham baravar qo‘llanilgan. Ayniqsa, bek, beklik, otaliq, xon, qushbegi, qo‘mondon kabi shaxs otlaridan bugun ham ish yuritish, ma’muriy ishlarda foydalansa bo‘ladi.

Sifat so‘z turkumiga doir so‘zlar, asosan, otlar bilan yonma-yon yuradi. Tasviriy matnlarda otlar bilan birga sifat turkumiga oid so‘zlar boshqalarga qaraganda ko‘proq qo‘llanadi: /Ammo xon zamonlarini o‘ylagan choqlarda: «Ey, xo‘b zamonlar bor edi, tilla jobduqliq otlaru va basavlat beklaru o‘rdalarda har kun qarsa bazimu… O‘tub ketdi endi bir zamonlar», deb afsus yeb qo‘yadir.Chorlar zamoni to‘g‘risig‘a kelganda.

Son so‘z turkumiga doir so‘zlar ham bor, biroq ayrimlarining talaffuzi bugungidan farq qiladi. aytilishiga ko‘ra yozilgani uchun shu holatga kelgan bo‘lishi mumkin: /Shundoq qilub, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab Rusiya chor istibdodini va endi besh yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini ko‘radir. Tabiiy, otam, Rusiya chor hukumatini sira ham tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o‘zi istiqbol etkan, Chorning achchig‘-chuchugini ko‘b tatig‘an. Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do‘st emas. Buning ham sababi ma’lum. Sho‘rolar hukumati to‘g‘risida ul hech bir tushuna olmaydir. Sho‘rolar hukumati haqida yuz qat istifsor qilub unutadi./ Ellik sanoq soni talaffuzi natijasida shunday fonetik o‘zgarishga uchragan bo‘lishi mumkin. Matnda sonlar bilan birgalikda hisob so‘zlari ham qo‘llangan. Muallif foydalangan ayrim hisobni bildiruvchi so‘zlar so‘zlashuvda bo‘lsa-da iqtisodiy muomalada mavjud emas. Masalan, miri hisob so‘zi: /Oradan yo uch kun o‘tadi va yo o‘tmaydir. Eski turmush bilan zaharlanib qolg‘an cholingiz boyag‘i bir mirilikdak qilub ro‘molg‘a tugub berilgan tushundirishni unutadir-da, bolshevikni bir shaxs, kambag‘aldan chiqg‘an ulug‘ bir oq podshoh deb bila boshlaydir:

— Bolshevoying juda ham boturboy yigit ekan-da, askari ham bir-ikki lak bordir?

— Ha, besh-olti lak bor!.. (A.Q.,114).

Shu o‘rinda ayrim so‘zlarning, aniqrog‘i otlarning grammatik ma’no bilan birgalikda uslubiy ma’no ham ifodalayotanini ta’kidlash lozim, masalan, boboy va yigit so‘zlari kontekst bilan bog‘liq holda yangi ma’no ifodalab kelmoqda: /O‘bba bachchataloq… o‘zi ham hirs qo‘pg‘an ekan. O‘zimning bir oz darmonim yo‘qroq-da, o‘g‘lim. Bo‘lmasa, bolshevoyingga yigit bo‘lub kirar edim. Agar bolshevoying oldig‘a chiqsang

mendan salom degin. Sani degin, boboy duo qildi degin… Bachchatalog‘ingni bechoraparvar deb eshitaman: ko‘ynak-ishtonga besh-o‘n olchin mata so‘rasang berarmikin?.. Xayr, bermasa ham go‘rga. Ishqilub soliqlardan darhon qilsa bo‘ldi. Hammadan ham boqqa ko‘z olaytira ko‘rmasun. (A.Q.,121) Matnda ayrim fe’llarning zamon ko‘rsatkichlari hajviy kontekstga moslangani anglashiladi.

U.Tursunov ta’kidlagani kabi “So‘zning oxirida tovush tushib qolishi apakopa deyiladi: rost — ros, xursand — xursan, gazeta — gazet — gazit, go‘sht — go‘sh, Toshkent — Toshken kabi. Bu hodisalar so‘z tarkibidagi ayrim tovushlarning ma’lum fonetik sharoitlarda talaffuz qilinmasligi natijasida yuz beradi”.[Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. T.: O‘zbekiston, 1992 – 30- b.]

Abdulla Qodiriyning “Dumbasi tushib qolgan emish” nomli hajviyasi mazmuni ham shu go‘sht so‘zi bilan bog‘liq./Otingdan o‘rgulay go‘sh!.. Nega muncha o‘zingni bizdan aziz tutding? Biz sening qadringga yetmadikmi?.. Men o‘quvchining go‘sh haqindagi holini bilmayman. Lekin o‘zim go‘sh otini eshitsam, og‘zimdin kalaba-kalaba suvlar keladir. «Go‘shning qadog‘i o‘tguz olti so‘m, mulla aka!» (Ul mulla aka!) O‘ttuz olti so‘m! Ramazon iydidan beri jonvor go‘shning ishtiyoqida oh-voh ila kun kechirib, Oziq sho‘basining marhamatiga intizorlikda kelmoqda edim. To‘g‘risini aytmoqg‘a majburdirmanki, bu orada butun kechalar go‘sh ishtiyoqida uxlay olmadim. Ko‘z ilinganda ko‘rilgan tushka ham go‘shdan boshqa nimarsa kirmaydi./ [Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. T.: O‘zbekiston, 1992 – 30- b.]

Morfologiyaning obyekti so‘zning o‘zgarish bilan bog‘liq, ya’ni morfologik strukturasi. So‘zning morfologik strukturasi – grammatik morfema, grammatik morfema sistemasi – morfologik kategoriya, so‘zning o‘zgarish asosidagi sistemasi (masalan, kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan [kitob] leksemasining kelishik kategoriyasi asosidagi o‘zgarish sistemasi), so‘zshaklning hosil bo‘lish yo‘l va usuli, vositaci, bu vositalarning turlaridir.[Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 414 b.]Quyidagi matnda qo‘llangan ayrim so‘zlarning morfologik strukturasini aniqlib olsak. /Ertaga Oziq komiteti go‘sh berar emish, degan xabarlar yuriy boshlab, yuragim azbaroyi xursandlikdan tors yorilayozdi. Bu xabar halidan hali to‘g‘riligig‘a chiqib, dilim urmoqqa boshladi. Butun sabru qarorim qo‘ldan ketdi… Uy ichimizni endi surishtirishmay ham, yetti yashardan tortib to yetmish yashargacha go‘sh xursandligiga chiday olmay raqsga (tansaga) kelgan edi./ (A.Q., 127).

Fe’l so‘z turkumining hajviy matnlarda ifodalanishini kuzatashimizda uning vazifadosh shakllari, jumladan harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh shakllarining turli o‘zgarishlarga uchraganiga guvoh bo‘ldik. “An’anada grammatik kategoriya «ikki yoki undan ortiq, o‘zaro zidlanuvchi, bir-birini taqozo va, o‘z o‘rnida, inkor qiluvchi, bir grammatik ma’no tagida birlashadigan grammatik shakllar tizimi» sifatida ta’riflab kelindi. Bu ta’rifga muvofiq, boshqa kategoriyalar shakllari kabi harakat nomining kamida uchta ([-moq], [-ish], [-uv]), sifatdoshning ba’zan uch, ba’zan besh ([-gan], [-ayotgan], [-adigan], [-uvchi], [-ar)], ravishdoshning oltita ([-ib], [-a/y], [-gach], [-guncha], [-gani], [-gach]) shakli ajratiladi.

Sh.Rahmatullayev asosiy adabiyotlarda “harakat nomi” deb atab kelingan vazifadosh shaklni “fe’lning otdosh shakli” deya nomlash to‘g‘ri bo‘lishini ta’kidlaydi.[Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Universitet. 2006. 174-b.] Bizningcha, atamani o‘zgartirmagani ma’qul, nomidan ko‘ra uning kontekstda bajaradigan vazifasi muhim. Harakat nomlarining morfologik ko‘rsatkichlari turli davrda turlicha bo‘lgani o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Birgina -sh -ish (hozirgi zamonda faol) va -v-uv (A.Qodiriy davrida faol bo‘lgan) morfologik shakllar matnga davr ruhini berib turibdi: /Ertagi go‘sh shodligi ila bu kun kechasi butun uy ichimizda uyqu o‘rniga ertaga oladirgan go‘shning qay holda tomoq qilmoq maslahati edi./(A.Q., 129)

ADABIYOTLAR

1.Mengliyev B., Sayfullayeva R., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 414 b.

2.Tursunov U., Muxtorov A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili Darslik qayta ishlangan, to‘ldirilgan uchinchi nashri. T.: O‘zbekiston, 1992 – 30- b.

3.Qodiriy Abdulla. Dumbasi tushib qolgan emish. Eski shahar oziq sho‘basiga bag‘ishlayman. Felyeton

4. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010. – 414 b.

5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: Universitet. 2006. 174- b.

BOLALAR NUTQIDA QO‘LLANILGAN METONIMIYALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Davlatova Aziza Akmalovna
Navoiy Inovatsiyalar Universiteti
Filologiya va tillarni o’qitish kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: @akmalovna116@gmail.com

Annotatsiya. Ingliz hamda o’zbek bolalar nutqidagi metonimiya bolaning ijtimoiy-madaniy jihatdan fikrlashi shuningdek, u mansub bo’lgan madaniyatni nutq orqali aks ettiradi. Bolalarning nutqda metonimiyadan foydalanishi ko’pchilik tilshunos olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bundan tashqari lingvokulturologik tadqiqda bolalar nutqining o’ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ma’no ko’chish turlarini tushunish hamda ulardan nutqda foydalanish boladan yetarlicha yosh bilan birga tajriba hamda bilim talab etadi. Ushbu maqolada o’zbek va ingliz tilidagi bolalar foydalanishi mumkin bo’lgan sodda va qulay metonimiyalar tahlili, mazmun-mohiyati haqida fikr bildiriladi.

Kalit so’zlar. Lingvokultirologiya, o’xshatish, metonimiya, bola nutqi, metonimiya turlari, lingvokulturologik tahlil, ma’no ko’chish turlari.

Nutqning ekspressiv vositalaridan biri metonimiya bo'lib, u yunon tilidan tarjimada "almashtirish yoki qayta nomlash" degan ma'noni anglatadi . Metonimiya nom ma’no ko’chish tularining asosiylaridan biri hisoblanib, bir ma’noni ikkinchi bir otga ko’chishiga misbatan aytiladi. Metonimiya – bu narsA va predmetlar, harakatlararo o’zaro bog’liqlik (aloqadorlik asosida) nom ko’chishi hisoblanadi. L.Boboxonova o’zining “Ingliz tili stilistikasi” kitobida shunday ta’rif beradi: “ Metonimiya – leksik ma’nolarning ikki turi asosiy – mantiqiy va matniy ma’nolar orasidagi munosabatlar bo’lib, bu munosabat narsalar o’rtasidagi aniq aloqalarning paydo bo’lishiga asoslangandir. Ya’ni, narsa va hodisalar bir-biriga yaqinligi tufayli birining nomi ikkinchisiga ko’chiriladi” . Tilshunos olimlardan I.Shukurov metonimiyani nutq sathida tadqiq etgan bo'lsa, til hodisasi sifatida M.Mirtojiyev o'rgangan.

Metonimiya aniq bir so’zda sodir bo’lar ekan, u til va nutq hodisasi sifatida kuzatiladi. Lekin ulardan hosil qiluvchi va hosila ma’nolar tarkibida o’zaro umumiy va defferentsial semalarning mavjudligi bilan ajralib turadi .

Metonimiya nutqimizni boyitib so’zlashishimizni o’ziga xos konteksti ya’ni mazmunini ifodalaydi. Masalan: Badiiy matndan tortib, tarjima va hatto kundalik so’zlashuvda ham metonimiyani uchratishimiz mumkin.

Bolalarda atrofdagi muhit va so’zlashuv bola nutqini rivojlanishiga yordam beradi, natijada bola muloqotni tushuna boshlaydi va bu jarayon madaniy muhit ta’siri ostida bo’ladi. Madaniy ta’sir bola nutqida tabiiy holatda namoyon bo’ladi. Bolaning onasi va opa-singillari unga gapirganda ular foydalangan so’zlar bola so’z boyligini oshishi hamda ko’payib nutqidan o’rin egallashida asosiy rol o’ynaydi.

O’zbek va ingliz tilida muloqot qilganda metonimik o’xshatish ya’ni ma’no ko’chish turlaridan juda ko’p foydalanamiz. Misol sifatida Shekspirni o’qib chiqdim - asar nomi uning muallifi nomiga ko’chgan. Shuningdek, ingliz tilida “I am Silicon valley guy”(Ilon Musk) – Men Silikon vodiysining o’g’liman. Ma’lum hudud orqali o’zining qaysi joyga mansubligini ko’rsatish maqsadida joy nomi shaxs nomiga ko’chgan.

Shu kabi misollarni bola nutqida lingvomadaniy tahlil qiladigan bo’lsak, suhbatdosh metonimiyani turlicha mazmunda tushunishi mumkinligini Leon Surette o’zining “Metaphor and Metonymy” maqolasida ta’kidlaydi . Masalan: My brother eats two pots (Timmy 3 years old).-Mening akam 3 kosa yeydi. Bu yerda predmet yoki narsa orqali ovqat ifodalanyapti. O’zbek tilida ham bolalar o’z nutqida bu turdagi quyidagi metonimiyani qo’llaydi: Men 5ta mashina yeyman. –shirinlik yoki yegulikning shakliga qarab uni ifodalash nazarda tutilmoqda.

Metonimiyani doimo obrazlilik, emotsionallik, serqatlamlilik va ta’sirchanlik bilan bog’lab o’rganish izlanuvchida juda katta qiziqish shu bilan birga metonimiyaning keng mazmunda ishlatilishini ko’rsatadi. Soqol amaki keldi (Kamron 4 yosh)-Tananing qismi orqali butunni ya’ni butun boshli shaxs ifodalanmoqda. Aynan shu misol ingliz bolalari nutqida ham juda ko’p uchraydi: Beard uncle came(George 4 years old-Soqolli amaki keldi.), Curly is shouting at me mom!(Jane 3 years old)- Jingalak sochli menga baqirdi oyii! – qism orqali butun ifodalanmoqda va kontekstual mazmunda hazil yoki koyish mazmunida ishlatiladi. Yana bir misol ikkala tilde ham bir xilda ko’p uchraydigan jumla bo’lib Lend me your ears(JACKY 3 years old)- Menga qulog’ingni ber (sirli ma’lumot berish mazmunida ishlatiladi. O’zbek tilida xuddi shunday misol bo’lib- Menga quloq tut oyi (Nastarin 4 yosh), qo’lingni ber kabi jumlalarda uchraydi esa bolalar –Men bobomning qulog’iman(Soliha 5 yosh)- kattalarga yordamchi mazmunida ishlatiladi.

Kichik yoshli bolalar nutqida uchraydigan metonimiyalar o’zining qiziqarli va kamyob uchrashi bilan farqlanadi. Masalan: o’zbek bolalari orasida o’gil bola va qiz bolalar nutqida qo’llanadigan metonimiya bir-biridan farq qiladi: qiz bolalar asosan ayol jinsiga mansub xususiyatlardan kelib chiqib muloqotga kirishadi- Men ko’ylak olishdan kelyapman(Nastarin 4 yosh). O’g’il bolalarda Samakatga ketdim buviii!- o’g’il bolaga xos o’yin nomini ifodalovchi vosita orqali ifodalangan metanimiya.

Lingvomadaniy jihatdan ingliz va o’zbek bolalari nutqida uchraydigan metonimiyalarni tahlil qilib shuni ko’rishimiz mumkinki, ikkala madaniyat vakili bo’lgan bolalar nutqidagi metonimiyalar bola nutqini yanada ekspressivlik va ta’sirni kuchaytirishi, mazmunan o’xshashlik uchraydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, metonimiya bola nutqini qiziqarli mazmun bilan ta’minlabgina qolmay balki lingvomadaniy jihatdan o’xshashlik va farqlarni o’zbek va ingliz bolalari nutqi bizga ochib beradi. Metonimiyadan nutqda foydalanish bolaning yashash tarzi, oilasi va atrofdagi insonlarning yashash tarzi shuningdek, odatlarini ham ko’rsatuvchi vositadir. Chunki, metonimiya orqali bolalar o’z so’zlarini yanada mazmundor shaklda so’zlaydilar.

KO‘CHIM TURLARI VA ULARNING TARNSPOZITSIYAGA MUNOSABATI

Islamova Dinara Azamatovna
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Annotatsiya.Ushbu maqolada badiiy asar tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda-tasvir vositalaridan metafora hamda metonimiyaning transpozitsiyaga munosabati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: transpozitsiya, ko‘chim, metafora, metonimiya, tilning ifoda-tasvir vositalari, emotsionallik, ekspressivlik.

Аннотация

В данной статье анализируется связь метафоры и метонимии с транспозицией со стороны выразительных средств языка, служащих для выполнения методологической задачи в языке художественной литературы.

Ключевые слова: транспозиция, перенос, метафора, метонимия, выразительные средства языка, эмоциональность, выразительность.

Annotation

In this article, the relationship of metaphor and metonymy to transposition is analyzed from the expressive means of the language that serve to fulfill the methodological task in the language of fiction.

Key words: transposition, transfer, metaphor, metonymy, expressive means of language, emotionality, expressiveness.

Badiiy asar tilidagi ko‘chimlar sintaktik figuralar orasida transformatsiologiya bilan aloqador ifoda-tasvir vositalaridan biri hisoblanadi.

Ma’lumki, har qanday so‘zning ma’no qirralari, qo‘llanilish uslubi badiiy matn doirasida yozuvchi ideolektiga xos bo‘lgan pragmatik maqsadlarni yuzaga chiqarish bilan namoyon bo‘ladi. So‘zni qanday va qay maqsadlarda qo‘llash, albatta, yozuvchi uslubiga xos[3; 12] hamda uning ona tilining imkoniyatlarini, shu jumladan, ifoda-tasviriy vositalarini qay darajada o‘zlashtirgani hamda voqelantirish mahoratini o‘rgangani saviyasi bilan bog‘liq.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeyini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya’ni ko‘chma ma’nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo‘llanish zarurati ma’lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo‘lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo‘q. Boshqa uslublarda, asosan ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan, tilda qisman turg‘unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko‘rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo‘lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin. O‘zbek badiiy adabiyoti tili namunalarini o‘rganish jarayonida badiiy tasvir vositalari qamrovi nihoyatda keng va badiiy obraz yaratishdagi, emotsional-ekspressiv nozikliklarni bera olishdagi asosiy vositalardan ekanligining guvohi bo‘lamiz[4;5]. Ana shunday vositalardan biri, shubhasiz ko‘chimlardir.

Ko‘chimlar deyilganda adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish yoki so‘zlarning umuman ko‘chma ma’noda ishlatilishi nazarda tutiladi. So‘z ma’nosining ko‘chish jarayonlari turli ko‘rinishlarda voqe bo‘ladi, bu

jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o‘zbek tilshunosligida ancha batafsil o‘rganilgan. Badiiy matnni lingvopoetik tahlilga tortganda ko‘chimlar deb ataladigan tasviriy vositalarning deyarli barchasining asosida o‘xshatish, chog‘ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmaslik kerak[6; 94-95].

O‘zbek tilshunosligida ko‘chimlar leksik ma’no taraqqiyot yo‘llaridan biri bo‘lib, so‘zning uzual yoki okkazional ma’no doirasida hosil qilinadi. Ko‘chimlar badiiy matn doirasida talqin qilinganda ko‘proq ularning mohiyatiga (obyektivlikdan chekinmagan holda) sub’ektivlik nuqtai nazaridan yondashish maqsadga muvofiq. Chunki yozuvchi (subyekt)ning obyektga shaxsiy munosabati, dunyoqarashi, baholashdan kutilgan badiiy niyati va maqsadi ko‘chimlarda o‘z inikosini topadi[3; 9].

Metafora narsa-buyum, voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashlikka asoslangan ma’no ko‘chish turi bo‘lib, lirik qahramonning voqelikka munosabatini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Metafora orqali ikki xil lingvistik hodisa yuz beradi: 1) nomsiz narsani nomlash; 2) nomli narsaga qayta nom berish (ikkinchi nom)[2;63].

Quyidagi namunalarga e’tibor beraylik:

Men, mana, doim xo‘jayinning qo‘ltig‘idaman (Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 216-b).

..hamma vaqt o‘risning ichida qaynaydi, o‘ris tilini suv qilib ichib yuborgan... Kattalarimiz o‘rus-da, axir! (Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 220-b)

Oqbadan olabo‘jilar boradi-boradi - dala kindigida oyoq iladi (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 4-b).

It-da ariq labidan yalab-yalab suv ichadi! (Tog‘ay Murod.Otamdan qolgan dalalar. 4-b)

Men o‘ttiz yoshimda Xivani tiz cho‘ktirdim! Mana, o‘ttiz ikki yoshimda Qo‘qonni tariqday tirqiratdim! (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 9-b)

Ul mo‘lt-mo‘lt qora ko‘zlar oti — xalqdur, taqsir. Xalq bor — haq bor (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 9-b).

It-da ariq labidan yalab-yalab suv ichadi! (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 4-b) Tog‘ay Murod asarlari tilida xalqchillik, jonlilik, soddalik kuzatiladi. Bu holat yozuvchining badiiy tasvir vositalarian foydalanishida ham ko‘rinadi. Masalan, umumxalq ishlatadigan bosh, oyoq, qo‘l, lab, kindik kabi so‘zlarning metafora bo‘lib kelishi ham fikrimiz dalilidir. Bu yozuvchi tomonidan shakllantirilgan individual metafora emas. Qo‘llanilgan metaforada reallik hamda xalqchillik ko‘rinib turadi.

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...Tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari qizlarning mayda o‘rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g‘amli yuzlari kuldi (Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 3-b).

Metafora emotsional-ekspressivlikni, estetik go‘zallikni, ifodaviylikni hosil qilmoqda. Bu holat jonlantirish, insonga xos xususiyatlarni tabiat hodisalariga ko‘chirish orqali hosil qilingan. Yozuvchi shu tasvirning o‘zida bir necha metaforadan foydalangan ko‘ngillarni qitiqlay boshladi, iliq qon yugurdi, tollarning ko‘m-ko‘k sochpopuklari, g‘amli yuzlari kuldi kabi metaforalar ifoda-tasvirni kitobxon ko‘z oldiga keltirish bilan birga, uni qalb prizmasidan o‘tkazishga undaydi. Yozuvchi esa oddiy bayonchi emas, holatni tasvirlovchi mohir shoirga aylanadi.

Ofarin, taqsir, ofarin, o‘ttizida er atangan, qirqida sher atanar, deydilar. Taqsir, men bir kam saksonda... (Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. 9-b). Mazkur misolda metonimiyalar (o‘ttizida, qirqida, bir kam saksonda) tejamkorlik, qisqalikka intilish natijasida sodir bo‘lgan. Aslida personaj nutqida maqoldan foydalanish orqali metonimiya hosil qilinmoqda. Keyingi metonimiya (saksonda) ham shu maqol ta’sirida shakllangan. Mazmunan kengayish hamda shaklan qisqarish yuz berib, otning ma’noviy xususiyatlari ham songa o‘tmoqda.

..hamma vaqt o‘risning ichida qaynaydi, o‘ris tilini suv qilib ichib yuborgan... Kattalarimiz o‘rus-da, axir! (Cho‘lpon. Kecha va kunduz. 220-b)

Ma’lumki, badiiy nutqda asosan tejamlilik, ba’zan esa ortiqchalik tamoyillarining amalda bo‘lishi kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur misolda kattalarimiz metonimiya shaklida qo‘llanilgan. Xalq tilida mansabdor hamda hurmati baland insonlarga nisbattan katta sifati ishlatiladi. Shuningdek, transpozitsiyaga uchragan birlik otga xos grammatik ko‘plik va egalik qo‘shimchalarini qabul qilmoqda.

Metaforalar eng ko‘p ijodiylikni talab etishi bilan boshqa badiiy tasvir vositalaridan farq qiladi. Metafora yaratish ijodkordan keng dunyoqarash, olam va odam haqida chuqur fikr yurita olish, ruhiyat va tabiatni yaxshi bilishni talab etadi. Metafora obrazning nafaqat tashqi qiyofasi, balki uning ruhiy olamida kechayotgan holatlarni tinglovchi yoki o‘quvchi kutmagan favqulodda badiiy hukm asosida tasvirlash yoki ifodalashga yo‘l ochadi[3; 10]. Binobarin, badiiy uslubda poetik metafora faqatgina muhim tasviriy vosita bo‘lib qolmasdan, balki badiiy tafakkur elementiga, estetik hodisaga aylanib ketadi. U nutqni bezash doirasidan chiqib, his- tuyg‘uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko‘tariladi. Metafora ko‘magida

endi biz tasvir ob'ektini faqatgina «ko'rib qolmasdan», balki his qilamiz, uni go'yo o'z boshimizdan kechiramiz[4; 16].

Yuqorida ta'kidlanganidek, badiiy uslubdagi metonimiya va metaforani til taraqqiyotining etakchi tamoyili bo'lgan tejamlilik (til ekonomiyasi) va uning voqelanish shakllaridan biri -presuppozitsiya orqali yuzaga kelishi ta'kidlanadi [5; 25]. Aytish lozimki, badiiy matndagi ko'chim bilan bog'liq jarayonlar so'z turkumlarining badiiy matnda bir-biriga ko'chishi bilan bevosita aloqasi bo'lmagan holatlardir (bilvosita esa, yuqorida ta'kidlanganidek, aloqalar mavjud, bu til sathlariaro munosabatlarning doimiyligi qonuniyatidan kelib chiqadi). Masala bu ko'chimlarning badiiy asar tili va badiiy nutqning turli ko'rinishlarida (muallif nutqi, personaj nutqi, monolog, dialog, polilog...) qo'llanilishi tufayli yuzaga chiqadigan ma'noviy-struktural va funksional-semantik o'zgarishlarini qayd etish va baholashdadir. Binobarin, o'zbek tilshunosligi fani oldida tilimiz transformatsiologiyasining nazariy va amaliy masalalarini ishlab chiqish jarayonida bu holatning badiiy nutqda ro'y berish mexanizmi bilan aloqador tomonlarga ham jiddiy e'tibor berish vazifasi turibdi. Xulosa qiladigan bo'lsak, ko'chimlar adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishiga xizmat qiluvchi tilning ifoda-tasvir vositalaridir. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, ulardan ko'chish bilan bog'liq holatlar – metafora, metonimiya va sifatlash ekanini qayd etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакиева Г.Х.Лингвистические основы анализа художественного текста- Ташкент: УзГУМЯ, 1993. – С. 112.

2. Бутунбаева Т.А. "Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида)": филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. -Самарқанд, 2021. –Б.63.

ABDULLA QAHHORNING "DAHSHAT" HIKOYASIDA SIFAT SO'Z TURKUMINING QO'LLANISHI

Sadinova Javohir Usmanovna
Samarqand viloyati Paxtachi tumani 31-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida qo'llangan sifat so'z turkumiga oid so'zlar belgi-xususiyatiga ko'ra tahlil qilingan va asardan keltirilgan misollar vositasida mustahkamlangan.

Annotation. In the article, the words related to the adjectives used in the story "Horror" by Abdulla Qahhor are analyzed according to their characteristics and strengthened by means of examples from the work.

Kalit so'zlar. Sifat so'z turkumi, sinonimlik, uslub, xususiyat bildiruvchi sifatlar, sifatlash, ta'sirchanlik.

Key words. Adjective phrase, synonymy, style, adjectives, qualification, expressiveness.

So'z turkumlari orasida sifatlar alohida o'ringa ega bo'lib, o'zbek tilshunosligida sifatlarning leksik-semantik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, adabiy tilda tutgan o'rni kabi masalalar o'rganilgan. Ma'lumki, sifat badiiy asarlarda muhim ahamiyat kasb etib, badiiy tasvir vositasi sifatida juda ko'p qo'llanadi. Shuningdek, sifat so'z turkumi o'zaro sinonimlik hosil qilib, ular turli nutq uslublarida o'zaro farqli holatda qo'llanadi. [6;7.] Shu bilan birga sifatlarning uslubiy xususiyatlari sifat bilan birga qo'llangan otlarlarni hisobga olgandagina to'liq anglashiladi. Ya'ni, sifatlar o'z ma'nosi bilan bir butunlik hosil qiluvchi otlarga birikib kelgandagina yaxlitlik hosil qilib uslubiy jihatdan mukammallashadi. Sifatlardan badiiy adabiyotda sifatlash hosil qilishda foydalaniladi. Bu san'atda sifatlar faqatgina belgining oddiygina ifodasi bo'lib qolmay, matnga badiiylik kirgizishga, nutq ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. SHuning bilan birga sifatlar yozuvchining nutqiga betakrorlik bag'ishlash uchun ham xizmat qiladi. Chunki har bir yozuvchi nutqida boshqalarida uchramaydigan sifatlashlar, o'xshatishlar uchraydiki, bu betakrorlikning amalga oshishida belgilarning xizmati kattadir.

O'zbek xalqining taniqli so'z ustasi Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasida sifat so'z turkumining ishlatilishi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Ma'lumki, predmetning ma`lum bir belgisini bildirish xususiyatlariga ko'ra sifatlar bir necha turga bo'linadi. [1;2;3;5.] Hikoyada xususiyat bildiruvchi sifatlar qo llangan. Bu turdagi sifatlar juda katta miqdorni tashkil etadi. Bular insonlarning turli xarakter-xususiyatlarini, shuningdek, predmetlarning belgilarini bildiradi. Adib ham asarda *berahm* so'zidan inson xususiyatini, ya'ni Olimbek dodxo xarakterini yoritib berishda foydalangan:

Unsin qo‘rquvdan telba bir ahvolda bo‘lsa ham fahmladi: maymun! Dodhoning maymuni! Maymunni dodhoning o‘zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodhoday *berahm* odam yana bor ekanmi! [4;29.]

Shuningdek, yozuvchi Unsinni tinchlantirish jarayonida ham yana shu sifat so‘z turkumiga murojaat qiladi:

Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqada naqadar qo‘rqqan bo‘lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo‘ldi: demak, qandoq *berahm* bo‘lsa ham shu atrofda odam bor! [4;29.]

Hikoyada voqealar rivojini keltirib chiqarishda ham inson xususiyatini bildiruvchi sifat ishlatilgan:

Hammaning eti jivillashib ketdi. Uzoq jimlikdan keyin Unsin yonida o‘tirgan kundoshiga shivirlab: O‘lsin, *nokas* odam ekan, bitta qo‘yni deb... Koshki arziydigan narsa bo‘lsa!.. – dedi. [4;25.]

Hikoyada xususiyat bildiruvchi ayrim sifatlar harakat belgisini bildirishga xizmat qilgan:

Biroq dodxo, hammaning kutganiga qarshi, qo‘liga qamchi olib Unsinni “qayering qichidi”ga solmadi, aksincha, zaharxanda bilan bo‘lsa ham, *muloyim* gapirdi:

- Shunaqami?.. Xo‘p, mayli, aytganing bo‘la qolsin, - dedi va biroz o‘ylab turib g‘ijinganini yashirolmay ilova qildi: - Lekin go‘ristonga pichoq emas, qumg‘on olib borasan. Onhazratim oldida qumg‘on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi? [4;27.]

Bu o‘rinda adib o‘quvchiga “muloyim” gap orqali qanchalik dahshatli hukm ifodalanganini mohirona yetkazib bergan.

Shuningdek, asarda holat bildiruvchi sifatlar inson, hayvon va predmetlarning turlicha holatlarini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Masalan, odamga xos holatni ifodalash uchun:

Nodirmohbegim Unsinning *yosh* joniga rahm qilishini, uni qaytarishni so‘rab dodxoga yolvorganida dodho uni tutib olib xo‘p urgan edi. [4;30.] Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan *yosh* boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so‘z bermay, ba’zan irg‘ishlab borar edi; biroq go‘riston ko‘chasiga burilib, salobat bilan tebranayotgan qop-qora keksa chinor ostida oqarishib turgan sag‘analarni, belgisiz zulmatni ko‘rganida yuragi uvishdi-yu, zovur ko‘prigidan o‘tib, ikki qadam qo‘yganida to‘xtab qoldi. [4;28.]

Predmetlarning holatini yoritish uchun:

Nihoyat qumg‘on qaynadi. Unsin naridan-beri choy damladi, *quruq* yantoq va qamishlarga o‘t ketmasin uchun o‘tni tepkilab o‘chirdi; o‘ng qo‘lida choynak va chap qo‘lida qumg‘on, o‘tning shu’lasidan ko‘zi hanuz qamashib borar ekan, bir joyda yer o‘pirilib, chap oyog‘i taqimigacha botib ketdi va oyog‘ining uchi *yumshoq* bir narsaga tekkanday bo‘ldi. [4;28.]

Unsin piyoladagi *loyqa* suvni darrov ichdi va xiyla yengil tortganday bo‘ldi. [4;30.]

Yozuvchi hikoyada bir gap tarkibida predmetlarning holatini tasvirlashda birdan ortiq sifat so‘z turkumini qo‘llagan o‘rinlar ham uchraydi:

Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotgan kuzak shamoli *yaydoq* daraxtlar shoxida chiyillaydi, guvillaydi; tomlarda vishillaydi, *yopiq* eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. [4;24.]

Shuningdek, shaxs ruhiy holatini ifodalash uchun ham holat bildiruvchi sifatlarni qo‘llaydi:

Haqiqatan, bunday kechalarda go‘riston esiga tushgan har qanday odam, ayniqsa, dodlxo singari payg‘ambar yoshidan oshib, kafanligini sandiqqa solib qo‘ygan kishi o‘lishdan ham ko‘ra go‘ristonda yotishini o‘ylaganida tiligacha *sovuq* ter chiqaradi. [4;24.]

Tabiat tasviri uchun ham holat sifatlaridan foydalanilgan:

Shamol goh *och* bo‘riday uvillar, goh o‘lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag‘illar, hech narsa-hech narsa ko‘rinmas edi. [4;24.]

Umuman, adib “Dahshat” hikoyasida xususiyat, holat, hajm-o‘lchov va rang-tus bildiruvchi sifatlardan unumli foydalangan bo‘lib, maza-ta’m, hid bildiruvchi sifatlar qo‘llanmagan. Hikoyada qo‘llangan yaydoq daraxt, vahimali mish-mish, sovuq ter, vahimali gap, oppoq, uzun soqol, tiriklar go‘ristoni, o‘liklar go‘ristoni, qop-qora keksa chinor, belgisiz zulmat, oppoq kafan, kattakon sag‘ana, og‘ir eshik, sarig‘-kir uvada kabi sifatli birikmalar asarning butun dahshatini ochib berishga va o‘ziga xosligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2009. 415 b.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘zbekiston”,1992 y. 400 b.

UCHINCHI SHO‘BA

TURKIY ADABIYOT: TARAQQIYOT BOSQICHLARI, MOHIYATI, POETIKASI

ЎЗБЕК ВА УМУМТУРК АДАБИЁТИНИНГ ҲОЗИРГИ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИ

Абдуҳамид ХОЛМУРОДОВ,
НавДПИ профессори, ф.ф.д.

Аннотация: *Мақолада ўзбек ва турк адабиётлари адабий алоқалари, бу икки адабиётнинг ҳозирги тараққиёт тамойиллари ҳақида сўз боради. Умумтуркий адабиёт тарихи, маданий обидалар, уларнинг бугунги кундаги аҳамияти таҳлил этилган.*

Калит сўзлар: умумтурк, адабиёт, воқелик, метод, модернизм, глобаллашув, тошбитиклар, адабий, бадиий.

Аннотация: *В статье идёт речь литературные связи между узбекской и турецкой литературы, современные тенденции развития двух литератур. Анализирован история общетурецкой литературы, культурные наследия и их значения сегодняшнего дня.*

Ключевые слова: общетурецкий, литература, сущность, метод, модернизм, глобализация, пиктография, литературный, художественный.

Умумтурк адабиёти жуда қадим тарихга эга. Милоддан анча илгари вақтлардаёқ туркий адабиётнинг оғзаки шакли вужудга келган, ривожланган, тараққий этган ва бу кейинроқ ёзма адабиётнинг пайдо бўлишига замин бўлиб хизмат қилган. Милоднинг бошларидан XII-XIV асрларгача даврда яратилган адабий ёдгорликлар умумтурк адабиётининг умумий маданий бойлиги ҳисобланади. Ўрхун-Энасой тош битиклари, уйғур ёзувидаги бизгача етиб келган ёзма адабий ёдгорликлар туркий халқлар адабий-маданий мероси ниҳоятда бой ва қизиқарли эканлигини исботлайди ва буни бугунги кунда бутун дунё эътироф этади. “Қутадғу билиг”, “Ҳибат ул-ҳақойиқ”, “Девони луғотит турк” адабий ёдгорликлари умумтуркий маданият обидалари сифатида жуда қадрлидир. XII асрдан бошлаб ўзбек элати шакллана бошлагани, эски ўзбек адабий тили ижтимоий ва сиёсий ҳаётда салмоқли ўринга эга бўла боргани, Олтин Ўрда хонлигида давлат тили мақомига эга бўлгани ўзбек адабий тили ривожига катта таъсир кўрсатди. Бу биринчи навбатда бадиий адабиётда ўз аксини топди. Аҳмад Яссавий, Носируддин Рабғузий, Паҳлавон Маҳмуд, Сайфи Саройи, Хоразмий, Ҳайдар Хоразмий, Саккокий, Атоий, Гадоий, Лутфий ижоди эски ўзбек адабий тилининг шаклланиши ва янги босқичга кўтарилишида мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилди. Бу тарихий вазифани XV асрнинг иккинчи ярмига келиб улуғ сўз санъаткори Алишер Навоий амалга оширди, ўзбек тили мавқеини жаҳон миқёсига олиб чиқди, она тилимиз туркий тиллар орасида баланд мартабага, нуфузга эга бўлди. Соҳибқирон Амир Темур фахрланиб айтганидек “...туркнинг бош бўғини” ўзбекнинг она тилиси бугунги кунда туркий халқлар адабиётлари билан мустаҳкам алоқада бўлиб келмоқда ва бу адабиётлардаги энг яхши адабий тажрибаларни ижодий ривожлантириб, бойиб бормоқда.

Мустақиллик туркий халқларнинг бир-бирига янада яқинлашуви, адабиётлар дўстлигининг янги босқичга кўтарилишида муҳим аҳамиятга эга бўлди. XX асрнинг етмиш йилдан ортиқроқ даври истибдод исканжаси остида ўтгани боис туркий халқлар адабиётлари ўртасидаги ижодий алоқалар кўнгилдагидек эмас эди. Туркий халқлар ва элатларнинг аксарияти Россия империяси таркибида бўлиб, миллий адабиётлар ривожи турли адабий қолиплар, мавкуравий тазйиқлар йўли билан тўсиб қўйилганди. Аммо чинакам бадиий обида ҳар қандай шароитда ҳам юзага келади. Авар шоири Расул Ҳамзатов, қабардин-балқар шоири Қайсин Қулиев, татар шоири Ҳоди Тоқтош ижоди буюк иноснпарварлик ғояларини куйлагани сабабли дунёга машҳур бўлди. Бу сўз санъаткорлари ўзбек шоирлари ва адиблари билан яқин ижодий алоқада бўлиб келдилар. Қайсин Қулиев Зулфия, Абдулла Орипов ижоди ҳақида кўп бор самимий фикрлар билдирган, Р.Ҳамзатовнинг “Менинг Доғистоним” асари ўзбек тилига таржима қилиниб, халқимизнинг севимли асарига айланди. Ўзбек адиб ва шоирлари империя ҳудудидаги туркий халқлар адабиётлари намояндалари билан ижодий ҳамкорлик қилишди, улардаги энг яхши асарларни она тилимизга таржима қилишди. Худди шунингдек, ўзбек ёзувчилари ва шоирларининг асарлари қардош халқлар тилларига таржима қилиш билан адабий алоқалар мустаҳкамланиб борди. Аммо усмонли турклар адабиёти мустақилликка эришганимизга қадар бизга деярли бегона бўлиб келди. Бу адабиётнинг дунёга машҳур намояндалари ва улар яратган асарлар эмас, балки совет мафкурасига хайрихоҳ бўлган турк ёзувчи ва шоирларининг асарлари таржима қилинишига, китобхонлар орасида тарқалишига рухсат берилганди. Шунинг учун Нозим

Ҳикмат, Азиз Несин сингари адиб ва шоирни ўзбек китобхонлари яхши билишган ва уларнинг асарларини ўқишган.

Азиз Несин ҳажвчи ёзувчи. У ўз асарларида Туркия давлати ижтимоий тузумидаги иллатларни аёвсиз фош қилган, ижтимоий адолатсизликлар, сиёсий найранглар халққа қанчалик жабр-зулм келтираётганлигини танқид қилган. Ёзувчининг жамият иллатлари устидан кулгиси чин ватанпарвар, миллатпарвар шахснинг фидойилиги намунасидир. Ўз даврида ёзувчи асарлари турк халқи тарихининг ўзига хос солномаси, келгуси авлодларга ҳам хизмат қиладиган адабий ёдгорлик бўлиб қолишини таниқли олимлар таъкидлашган. Нозим Ҳикмат эрк ва адолат учун курашчиларнинг олдинги сафида бориб, турк халқи орасида коммунистик ғояларни ёйишга ҳаракат қилди. Бунинг учун ўн уч йил қамоқда умрини ўтказди. Қамоқдан озод этилгач, Совет Иттифоқига келди ва умрининг сўнгги йилларини Москвада ўтказди. Унинг “Инсон манзаралари” китобини ўтган асрнинг 70-йилларида Рауф Парфи таржима қилди. Мустақилликдан кейин усмонли турк адабиётини ўрганишнинг кенг имкониятлари пайдо бўлди. Турк адиб ва шоирлари юртимизга тез-тез кела бошлашди, бизнинг адиб ва шоирларимиз ҳам Туркияда бўлишиб, турк адабиёти билан яқиндан танишиш имкониятига эга бўлишди ва замонавий турк адабиётининг энг яхши намуналарини ўзбек тилига таржима қила бошлашди. Кейинги ўн йилликларда ўзбек-турк адабиёти ҳамкорлиги, адабий алоқалари юқори босқичга кўтарилди. Ҳозирги турк адабиёти дунё адабиётининг энг яхши анъаналари, тажрибаларини ижодий ўзлаштирган ҳолда ривожланмоқда. Турк адабиётининг миллий адабиётимиз билан муштарак жиҳатлари кўп. Узоқ йиллар бу икки адабиёт бир-биридан айри ҳолатда яшаган ва ривожланган бўлса ҳам, миллий менталитетнинг яқинлиги, адабий-эстетик қарашлардаги ўхшашликлар адабий фикрлар оқимидаги тўсиқлар олиб ташланган бир пайтда янгича қудратли куч билан бир-бирига ижобий таъсирлашувлари кучайди. Дунё адабиётидаги модернистик қарашлар, бадиий асарларда воқеликни акс эттиришнинг ўзига хос янги кўринишлари турк адабиётида ҳам, ўзбек адабиётида ҳам анъанавийлик билан бирга яшаб келмоқда. У.Норматов айтганидек, “Миллий адабиётимизнинг ҳозирги ҳолати, ривожи билан боғлиқ мунозарали муаммолар кўп. Айниқса, сўз санъатидаги анъанавийлик ва модернизм муносабатлари, адабиётнинг ижтимоий моҳияти ва “соф санъат” масалалари қизғин тортишувларга сабаб бўлмоқда”[124].

Ҳозирги ўзбек ва турк адабиётининг тараққиёт тамойиллари қандай, қайси йўлдан ривожланиб бормоқда? Бу саволга дабдурустдан қаноатли жавоб бериш қийин. Чунки ўзбек-турк адабиётлари ўртасида адабий алоқалар Ўзбекистон мустақилликка эришишидан сал олдин–ўтган асрнинг саксонинчи йиллари ўрталаридан бошланди. Унгача биз таниш бўлган турк адабиёти намуналари коммунистик мафкурага хайрихоҳ руҳдаги адабиёт намуналари эди. Бугунги кунда турк адабиётининг энг яхши намуналари бевосита турк тилидан ўзбек тилига таржима қилиниб, кенг китобхонларга тақдим этилмоқда. Аҳмад Лутфи Қозончининг “Сўнгги тўфон” романи ана шундай таржима асарлардан. Уни Т.Султонов, Р.Рўзмонова, С.Тошалиевалар таржима қилишган. Асарга сўзбоши ёзган А.Улуғов муаллифнинг “Саодат асри қиссалари”, “Ўгай она”, “Қайнона”, “Бир виждон уйғонур” каби асарлари таржима қилиниб, ўзбек китобхонларига яхши таниш эканлигини таъкидлайди. Чиндан ҳам ёзувчининг тарбиявий-маърифий аҳамиятга эга асарлари ўзбек киобхонларига манзур бўлиб келмоқда. Мунаққид романнинг бадиий таъсир кучи, ёзувчи ижодий маҳорати ҳақида фикр юритиб, она образи асарнинг етакчи ижобий қаҳрамонларидан бири эканлигига урғу беради: “Онасининг дуолари, илтижолари Ҳасанни ёмон йўлга кириб кетишдан тўсиб туради. Ўғрилик, безориликни касб қилиб олган эридан рўшнолик кўрмаган жабрдийда аёл намоз ўқиган чоғида: “Ё, Раббим, ўғлимни отасидек қилма” деб йиғлаб, ўксиб илтижо қилади. Романда “Оналар дуоси, албатта, ижобат бўлади” деган ҳикмат Ҳасаннинг ҳаёт йўли орқали кўрсатилади. Оналар миллатни табиялаб, вояга етказиши эса Фарида образида гавдалантирилади”[125].

Асарда шундай ўринлар борки, воқеликнинг реал тасвири қалбни жизиллатиб юборади, ачиниш туйғусини беҳад оширади:

“Фарида бориб, сандиқни очди. Ундан кичик бир жуфт маҳсиларни олиб, Ҳасаннинг олдига отди.

–Буларни кийган кунларни эслай олмайсан. Аммо шуни унутмаки, сен мактабга кетгач, фарзандини кўргиси келган онанг бу маҳсичаларни кўп ҳидлаган, юзларига сурган, фарзандининг оёқ

[124] Норматов У. Янги ўзбек адабиёти(ўқув қўлланма), Тошкент, “Университет”, 2007 й. Б.20.
[125] Улуғов Абдулла, Инсонга эҳтиром, Сўзбоши, Аҳмад Лутфи Қозончи, Сўнгги тўфон, роман, Тошкент, 2021 й.Б.5.

ҳидини ҳис қилиб овунгандир. Ол буларни, сен ҳам ўғлингга кийдир. Фақат тилагим шуки, менинг бошимга тушган офатар сенинг бошингга келмасин”.[126]

Аҳмад Лутфи Қозончи замонавий усмонли турк адабиёти вакили. Унинг асарлари анъанавий реалистик усулда яратилган. Аммо ўзбек адабиётида бўлгани каби турк адабиётида ҳам ҳозирги дунё адабиётида юз бераётган янгиланишлар, воқеликни акс эттришнинг янгича методларидан фойдаланиш кенг тус олган. Замонавий турк шеърияти, насри ва драматургияси модернизм, постмодернизм, экзистенциализм, сюрреализм ва бошқа ҳоказо “изм”лар таъсирида яратилаётган асарлар билан бойиб бормоқда. Бунинг сабабларини Қозоқбой Йўлдошев яхши тушунтириб беради:

“Олдинги ижодий методларда ижодкорлардан қоидада белгилаб қўйилганидай ёзиш талаб қилинарди, модернизм кўнгил буюрганидай ёзишни ақидага айлантирди, постмодернда эса, қўпол қилиб айтганда, хаёлга келганидай ёзиш бош талабга айланди. Бу йўналиш адабиётнинг обрўсини тўкиш мақсадида эмас, балки ёзишни истаган ҳар қандай одам бадиий асар ёзиш имконига эга бўлсин, деган креатив демократия истаги натижаси ўлароқ юзага келди”[127].

Мунаққиднинг бу фикрига тўла қўшилиб бўлмайди. Шундай бўлган тақдирда жаҳонни ҳайратга солган “Улисс” романидек асар кунига яратилаверарди. Ж.Жойсга бадиий мезонларни бузганликда айблаб турли айблар қўйишди, аммо барибир романнинг шуҳратини пасайтира олишмади. Рауф Парфи, Назар Эшонқул, Исажон Султон, Луқмон Бўрихон, Фахриёр, Абдували Қутбиддин, Матназар Абдулҳаким, Абдуқаюм Йўлдошев, Хуршид Дўстмуҳаммад ва яна бир қанча шоир ва ёзувчилар ижодида модернизм, постмодернизм, неомодернизм, экзистенциализм, сюрреализм ва бошқа воқеликни тасвирлашда янгича ёндашувлар ҳукмонлик қилади. Улар яратган асарларни ўқувчилар жуда катта доирани ташкил этмаса ҳам, ўсиб келаётган янги авлод китобхонларининг аксарияти бу асарларни яхши қабул қилишмоқда. Бу эстетик тафаккурдаги янгиланишлар, дунё адабиётининг энг илғор замонавий тажрибаларидан фойдаланиш туфайлидир. Ўзбек ва умумтурк адабиётларининг ҳозирги тараққиёт тамойиллари қандай адабий метод бўлмасин умуминсоний ғояларни куйлаш, глобал муаммолар ҳалокатга элтаётган дунёни қутқариб қолишдир.

АҲМАД ЮГНАКИЙНИНГ “ҲИБАТ-УЛ ҲАҚОЙИҚ” АСАРИДА ИЛМГА ДАЪВАТ

Баҳриддин САДРИДДИНОВ-
Ёзувчилар уюшмаси Навоий вилоят Бўлими раиси

X-X11 асрда яшаб ўтган аллома адиб Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони адабиётшунос олимларимиз томонидан дидактик руҳдаги панд-насиҳат асари дея баҳоланган. Ушбу достон атрофлича таҳлил этилган барча манбалар, ўқув адабиётларида асарнинг боблари 14 ёки 12 ва 11 дея белгиланса-да, ҳар бир боб талқинлари кишилик жамиятининг муҳим муаммоларига бориб тақалиши эътироф этилади.

Адабиётшунос олим Зиёдулло Муқимовнинг фикрича Аҳмад Югнакийнинг шахс сифатида яшаб ўтганлиги ҳам ўзига хос дир.Ўшангача бўлган қадим давр туркий адабиёт вакилларининг аънанасига кўра Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони ҳам автобиографик характерга эга. Жумладан, асарда муаллифнинг бу дунёга икки кўзи ожиз ҳолда келганлиги алоҳида таъкидланади:

Туға кўрмас эрди адибнинг кўзи,
Тузаттим бу ўн тўрт боб ичра сўзи (243).

Давр тақозосига кўра турли достон бир неча бор котиблар томонидан ўн бир, ўн икки ва кўпроқ ҳолларда ўн тўрт боб қилиб кўчирилганлиги аниқланган. Шўро даврларидаёқ Н.Маллаев 3, Қ.Маҳмудов 4, Р.Воҳидов каби адабиётшунос олимларнинг фикрича, Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони ўн бир бобдан иборат бўлиб қолган.

1. Бисмиллоҳир раҳмонир раҳим (парвардигор ҳамди).
2. Фи наътил набийи алайҳиссалом (пайғамбар наъти).
3. Фи мадҳин амирил ажалин Дад Сипаҳсалар Бек алайҳирраҳмати валғафрану (ҳукмдор мадҳи).
4. Мужиби таълифи ҳазал китаби ва муқтази (китобнинг ёзилиш сабаби).Мазкур тўрт боб достон муқаддимасини ташкил этади.

---

[126] Аҳмад Лутфи Қозончи, Сўнгги тўфон, Янги аср авлодия, Тошкент, 2021 й. Б.108.

[127] Улуғбек Ҳамдам саволларига Қозоқбой Йўлдошев жавоблари, Истиқлол. Адабиёт. Танқид. Ёзувчи ва адабиётшунос Улуғбек Ҳамдам саволлари асосида қурилган суҳбатлар, Тошкент, “Turon zamin ziyo”, 2015 й. Б.149.

5. Аннавъул аввалу фиманфаатил илми ва мазратил жаҳили Биринчи боб: Илм манфаати, жаҳолат зарари ҳақида.
6. Аннавъус сони ҳифзиллисани ва саъи адабиҳа ва русумиҳа.Иккинчи боб: Тилни асраш ва одоб-ахлоққа интилиш ҳақида.
7. Аннавъус солису фи тақаллибид дунйа ва тағаййири аҳвалиҳа.Учинчи боб: Дунёнинг қалб-эгри эканлиги ва ҳолатларнинг ўзгарувчанлиги ҳақида.
8. Аннавъур робиъу фи баррис сахавати ва маз аллатил бухли.Тўртинчи боб: Саховатнинг барака келтириши ва бахилликнинг залолатга етаклаши ҳақида.
9. Аннавъул хомису фил амри биттавазиъ физзаҳри ъанат такаббури вал ҳирси афитус сала зилли садиқул мантиқи. Бешинчи боб: Тавозелик манфаати, кибрлик ва ҳарисликнинг зарари ҳақида.
10. Аннавъул ухра фи абйаъин мутафарриқатин йаштамаъилу ъала маъанин ухталифатин.
Охирги боб: Турлича маъно билдирувчи байтлар.
Мазкур олти боб асосий қисм сифатида эътироф этилади.
11. Фил ъузри битамамил калами.Сўзнинг(асарнинг) тугалланиши узри (сабаблари).
Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достонини атрофлича тадқиқ этган адабиётшунос олимлардан бири М.Имомназаров достоннинг
14 бобдан иборат эканлигини алоҳида таъкидлайди. Хусусан, ўтган асрнинг иккинчи ярмида дунё юзини кўрган «Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари» атологиясини яратувчи олимларнинг фикрига кўра Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони
16 бобдан иборат: Бироқ барча тавсияларда ҳам асарнинг яратилиши сабабларига эмас, балки бобларнинг таҳлилига эътибор берилади.
Фикримизча, Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони ўз даврининг , яъни биринчи уйғониш даврида жамиятда етилган қашшоқлик туфайли халқнинг ўта илмсизлик ҳолга тушиши ҳамда подшолар ўртасидаги ўзаро тахт талошлари натижасида юзага келган маънавий инқирозга қарши кураш ифодасидир.
Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достонини таҳлил этувчи барча тадқиқиотчи олимларнинг фикрича мазкур асарнинг бошида келтирилган Аннавъул аввалу фиманфаатил илми ва мазратил жаҳили
яъни, Илм манфаати, жаҳолат зарари ҳақидаги боби кишилик жамиятининг равнақи учун энг муҳим пандномадир. Халқ ибораси билан айтганда Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достони подшоларнинг фарзандлари учун ёзилган буйруқнома ҳамдир. Илм эгаллашга одамзод фарзандини ундаш мазкур бобдаги шеърий сатрларнинг ҳар бандига сингдирилган:

Биликтин айурман, сўзумга ула,
Биликликка йа дўст ўзунгни ула
(Билим ҳақида сўзлайман, сўзимга қулоқ сол, эй дўст илмли кишига ўзингни яқин тут).
Билик бирла билнур саъадат йўли,
Билик бил саъадат йўлини була.
(Билим билан саодат йўли очилади, (шунга кўра) илмли бўл, бахт йўлини изла).
Баҳалиқ динар ул биликлик киши,
Бу жаҳил биликсиз баҳасиз биши.
(Билимлик киши баҳолик динордир, илмсиз жоҳил киши қимматсиз емиш (мева)дир).
Биликлик биликсиз қачан тенг бўлур,
Биликлик тиши эр жаҳил эр тиши.
(Илмлик киши билан илмсиз одам қачон тенг бўлади, билимлик хотин киши — эр кишидир, билимсиз эркак — хотин кишидир).
Сўнакка йилик тек эранга билик,
Эран кўрки ақл ул сўнакнинг йилик.
(Сўнгакда1 илик бўлиши лозим эканлиги каби эр кишига билим керакдир, эр кишининг кўрки ақлдир, сўнгакнинг кўрки эса иликдир).
Биликсиз йиликсиз сўнгак тек хали,
Йиликсиз сўнгакка сунулмас элик.
(Илмсиз иликсиз сўнгак каби бўшдир, иликсиз сўнгакка эса қўл урилмайди).
Билик билти бўлти эран белгулук,
Биликсиз тирикла йитук кўргулук.
(Илмли кишиларнинг (номи) машҳур бўлди, билимсиз (кишилар) эса тириклайин ўлди ҳисоб ва бу унга кўргуликдир).

Биликлик эр ўлти ати ўлмату,
Биликсиз эсан эркан ати ўлук.
(Билимли киши ўлса ҳам, унинг номи ўчмайди, илмсиз кишининг ўзи ҳаёт бўлса ҳам, оти ўликдир).
Биликлик биринга биликсиз мингил,
Тенгакли тенгади биликнинг тенгин.
(Билимликнинг бири билимсизнинг мингига тенг, илмли кишилар илм-маърифатнинг қадрига етади).
Бақа кўргил эмти уқа синайу,
Не ненг бар биликтин асиғлиқ ўнгин.
(Энди ўзинг синаб, уқиб, боқиб кўр, билимдан фойдалироқ қандай нарса бор).
Билик бирла алим йуқар йуқлади,
Биликни биликсиз узун не қилур.
(Билим билан олим юқорига кўтарилади, илмсизлик эса кишини тубанлаштиради).
Билик бил усанма бил ўл ҳақ расул,
Билик кимда эрса сиз арқанг деди.
(Билимли бўл, ҳеч қачон эринма, Ҳақ Расул(и) ким илмли бўлса, уни сиз мақтанг (қидиринг) деб айтди).
Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достонининг инсон фарзандини илм эгаллашга даъватлари мазкур асарда мусулмон оламининг пайғамбари ҳадисларига қиёсланади. Баъзи ҳолатларда ушбу боб давомида пайғамбаримиз ҳадислари мисол тариқасида шеърий тарзда баён этилади.

ИЛМ ЎРГАНИШ ҲАҚИДА ПАЙҒАМБАР АЛАЙҲИССАЛОМНИНГ АЙТГАНЛАРИ

Биликлик биликни эдраган бўлур,
Билик татғинг, эй дўст, биликлик билур.
(Билимли киши илмни фарқлайди, эй дўст, илм қадрини маърифатли одам билади).
Билик билдурур эрга билик қадрин(и),
Биликни биликсиз узун не қилур.
(Илмнинг қадрини кишига билим билдиради, маърифатни нодон, тубан киши нима қилади).
Биликсизга ҳақ сўз татиқсиз эрур,
Анга танд насиҳат асиғсиз эрур.
(Илмсизга тўғри сўз маъносиздир, унга ўгит-насиҳат фойдасиздир).
Не турлук ариқсиз арир йув деса,
Жаҳил йуб аримас ариғсиз эрур.
(Турли ювиқсизларга (ифлос кишиларга) ювин деб буюрилса тоза бўлур, аммо жоҳил қанча ювинмасин пок бўлмайди).
Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достонининг илм эгаллаш , айни дамда илм таъриф баён этилган боб хотимасида билим эгаллаган киши тимсолида ўз даврининг етук, ҳар томонлама камолга етган шахс қиёфаси намоён бўлади. Зеро, муаллиф бу ўринда ҳар қандай жамиятнинг фуқаролари билимли ва маърифатли бўлиши лозимлигини қатъий талаб қилганлиги ҳам аён бўлади:
Биликлик киши кўр билур иш ўзин,
Билиб этар ишни ўкунмас кен(д)ин.
(Билимли киши ўз ишини билиб қилади, билиб қилган ишига кейин ўкинмайди).
Не турлук иш эрса биликсиз ўнги,
Ўкунч ўл анга йўқ ўнг анда азин.
(Турли ишлар юз берса, билимсиз наздида ўнг кўринади, (бу) унга ташвиш, бундан бошқа чора (ўнг нарса) йўқ).
Биликлик кераклик сўзин сўзлайур,
Кераксиз сўзини кўмуб кизлайур.
(Билимли киши керакли сўзни сўзлайди, кераксиз сўзни кўмиб яширади).
Биликсиз не айса айур уқматин,
Анинг ўз тили ўз башини йейур.
(Илмсиз киши нима гапирса, нодонлиги сабабли сўзлайди, шунинг учун унинг тили ўз бошини ейди).
Билик бирла билнур туратқан изи,
Биликсизлик ичра хайир йўқ деди.
(Яратган Тангри илм билан танилади, илмсизлик яхшилик келтирмайди, деган (гап бор).
Билик билмагандин бир анча бузун,
Ўз элгин бут этиб изим бу теди.
(Кўп кишилар илмсизликдан ўз қўлини бут қилиб, Тангрим бу, деди).

Биликлик сўзи панд-насиҳат адаб,
Биликликни ўгди ажам ҳам араб.
(Билимли кишининг сўзи ўгит-насиҳат, одобдир, шунинг учун илмлиларни Араб, Ажам олқишлади).
Таварсизга билги туганмас тавар,
Ҳисобсизга билги йарилмас ҳисаб.
(Молсиз фақир кишига унинг илми туганмас бойликдир, ҳисобсизга унинг билими ечилмас (очилмас) ҳисобдир)…

Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» достонининг панд-насиҳат берувчи бобида ҳам илм эгаллаган инсоннинг қиёфаси гўзал ва хушхулқлиги билан таърифланади:

Уқуб сўзла сўзни эва сўзлама,
Сўзунг кизла кезин башинг кизлама.
(Сўзни уқиб сўзла, шошиб (беҳуда) гапирма, сўзингни яшир, кейин бошингни яшириб юрма).
Минг эр дўстунг эрса ўкуш кўмагил,
Бир эр душман эрса ана азлама.
(Мингта дўстинг бўлса, кўп кўрма, биргина душманинг бўлса, уни оз дема)…

Достон ниҳоясида Аҳмад Югнакий мазкур «Ҳибат ул-ҳақойиқ» асарининг ғоят инсоният учун ғоят қимматли ва фойдали асар эканлигини алоҳида таъкидлайди. Худди шу таърифлар мисолида ҳам биз мазкур асар буюртма ёки махсус топшириқ асосида ёзилганлигини илғаб олишимиз керак бўлади.

Битидим китаби маваъиз масал,
Ўқуса татир тил йемиш тек асал.
(Кишиларга ибрат, таълим берувчи, одобга чақирувчи бу китобни ёздим, ким ўқиса тили асал, мева егандай чучийди).
Ким эрса бу сўзга азинлар сўзин,
Тенгаса тенгади дурустқа бадал.
(Ким бўлмасин бу сўзларни бошқалар сўзига алмаштирса, у унга дуруст (бошқалар сўзини) сўзни тингласин).
Адиб Аҳмад атим адаб пинд сўзум,
Сўзум мунда қалур барур бу ўзум.
(Отим Адиб Аҳмад, сўзим панд-насиҳат, сўзим бу дунёда қолиб, ўзим у дунёга кетаман)…
Анин уз эрур бу китаб бир сўзуг,
Тўлулаб кетурдум кемиштим йузуг.
(Бу китоб шунинг учун ҳам нафисдирки, ҳар бир сўзни тўлатиб ёздим, кераксиз юзаки сўзларни ташладим).
Навадир сўзуг аз булур азл ўкуш,
Жўз атлас бўлур қиз учузи бўзуг.
(Бир кийимлик атлас қиммат, бўз арзон бўлгани каби қимматли сўз оз, ҳазил сўз кўп)…
Адиблар адиби фазиллар баши,
Гўҳартин сўз аймиш азин сўз биши.
(Адиблар адиби, фозиллар боши гуҳар каби пухта сўз дурларини териб айтгандир5).
Уған раҳмат этсун бу саъат анга,
Йарин қўбса бўлсун йаранлар баши.
(Тангри шу соатда унга ёр бўлсин, Тангло қиёматда у ёронларга бош бўлсин)…

Фойдаланилган адабиётлар:

1 Алишер Навоий. Асарлар. 15-том. Т.: 1968. 156 бет.
2 Имомназаров М. Адиб Аҳмад қачон яшаган? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1995, 31-март
3 Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1976. 116-бет.;
4 Маҳмудов Қ. Аҳмад Югнакийнинг «Ҳибат ул-ҳақойиқ» асари ҳақида. – Тошкент: Фан, 1972. 11-бет.
5 Vohidov R., Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. — Toshkent: Adabiyot jamg‘armasi, 2006. 87-bet.
6 Имомназаров М. Аҳмад Югнакий. Маънавият Юлдузлари. – Тошкент: Халқ мероси, 2001. 151-бет.
7 Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари. – Тошкент: Фан, 2003. 195-бет.
8 Олим бобларни рақамлар билан эмас ҳарфлар билан номлаган. Бир хилликни сақлаш мақсадида улар рақамлар билан келтирилди.
9 Banarli Nihad Sami.Resmli Turk Edebiyati Tarihi.-Istanbul

14 октябрь, 2023 йил.Навоий шахри.

ТУРКИЙ НАЗМДА ЭТНОГРАФИК ФОЛЬКЛОРИЗМЛАР

Ражабова М. Б.
Бухоро давлат педагогика институти профессори

Алишер Навоий ижодида туркий халқларнинг ҳаёт тарзи, турмуш маданияти, ижтимоий-сиёсий, илоҳий-ирфоний дунёқараши, ҳатто қадимий мифологик тасаввур-тушунчалари ва улар билан боғлиқликда келиб чиққан айрим урф-одат ҳамда маросимлари билан боғлиқ лавҳалар тасвири ва талқини алоҳида ўрин тутади. “Этнографик фольклоризмлар” сифатида қайд қилинадиган бундай бадиий лавҳалар шоир асарларининг миллий ва реалистик руҳини, бадиий таъсирчанлигини оширишда хизмат қилган.

Улуғ шоир халқ орасида шаклланган урф-одатлардан ўз даврида яшаётганларини ташбеҳ сифатида танлаб, улар орқали гўзал тасвирлар яратадики, шу билан давр ҳаётини реал чизгиларда беришга ҳам эришди. Шу маънода шоир асарлари нафақат бадиий асар, балки туркий халқлар, жумладан, ўзбек миллати турмуш маданиятининг ўзига хос тарихий- этнографик битиги сифатида ҳам аҳамият касб этади.

Этнография – бирор-бир халқнинг ёки территориядаги бир неча халқнинг турмуши, маданияти, урф-одатларига хос хусусиятлар мажмуини[128] ўзида ифодалаб келади. Адабиётшуносликда яратилган баъзи тадқиқотларда “Ёзма адабиёт асарларининг матнида қўлланилган халқ турмуш тарзи, маросим ва анъаналари, расм-русумлари, анъанавий қарашлари ва эътиқодий ишончларига оид талқинларни “адабий этнографизмлар” деб баҳолаш лозим”лиги қайд қилинган[129] бўлса, баъзи тадқиқотларда уларга нисбатан “ижтимоий-этнографик фольклоризмлар”[130], “этнографик фольклоризмлар”[131] номи билан қўлланган. Бизнингча, маълум бир халққа тегишли анъана ва удумлар, урф-одатлар билан боғлиқ тушунчаларнинг ёки уларга тегишли бирор бир деталнинг маълум бир ижодкор асари таркибида мотивлаштирилиши, ўзига хос бадиий услубда тасвир ва талқин қилинишидан ҳосил бўлган адабий ҳодисаларни “этнографик фольклоризмлар” термини билан аташ маъқулроқ.

Маълумки, халқ оғзаки ижодининг илк намуналаридан тортиб, ёзма адабиётнинг барча даврларига мансуб бадиий асарларда ўша халқнинг урф-одатлари, иримлари, маиший турмуш тарзи ва дунёқараши поэтик ифодасини топиши, шубҳасиз. Барча халқларнинг оғзаки ва ёзма адабиётида турли нарса-буюм, предметлар орқали маълум бир воеқа-ҳодисаларга бадиий-эстетик муносабат билдирилган. Жумладан, кўзгу, булоқ, дарахт, соч, гилам ва шу кабиларнинг халқ эртакларида ҳам, мумтоз ва замонавий ўзбек адабиётида ҳам образлантирилгани тез-тез кўзга ташланади.

Таъкидлаш керакки, биргина кўзгу билан боғлиқ турли урф-одатларнинг юзага келиши Ўрта Осиё халқларининг қадимий эътиқодий қарашлари билан боғлиқлиги фанда асосланган.[132] Натижада фольклорда пайдо бўлган эпик мотивлар ёзма адабиёт, жумладан, мумтоз адабиётга олиб кирилган.

Ибтидоий даврда кишилар ойнада нурнинг қайтишини ғайритабиий ҳодиса сифатида баҳолаганлар. Шунинг учун кўзгуга сирли ва муқаддас нарса сифатида муносабатда бўлганлар. Бу эса халқ орасида у билан боғлиқ турли қарашларнинг шаклланишига сабаб бўлган.

Демак, ибтидоий тасаввурларга кўра, кўзгу нафақат инсон аксини акс эттирувчи буюм, балки инсон руҳининг кўзгуда ифодаланиши ҳамдир. Бундан ташқари, кўзгуга ёруғлик, бахт, шодлик бахш этувчи сеҳрли буюм сифатида қаралиши натижасида жуда кўп халқларда турли урф-одатлар юзага келган. Жумладан, туркий халқларда никоҳ тўйида келин ва куёвнинг бир кўзгуга қараши билан боғлиқ удум бугунги кунга қадар яшаб келмоқда.[133] Бу билан келин-куёв руҳини қўшиш назарда тутилган.

---

[128] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. II жилдлик. II жилд. – М.: “Рус тили”. 1981. – Б.456.

[129] Хамдамова С.Х. Фольклор анъаналари ва бадиий талқин: таъсир ҳамда акс таъсир масалалари (XVIII-XIX аср шеърияти мисолида): Филол. фанлари номз... дисс. автореф – Т.: 2012. – Б.12.

[130] Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2008. – Б.12.

[131] Амонов У. XX аср бошларида ўзбек фольклорининг ўрганилиш тарихи (Абдурауф Фитрат, Ғози Олим Юнусов ва Элбек фаолияти мисолида): Фалсафа фанлари бўйича филол. фан. д-ри... (PhD) дисс. – Т., 2018. – Б. 54.

[132] Литвинский Б.А. Зеркало // Орудия труда и утварь из могильников западной Ферганы. гл. VIII. – М: Наука, 1978. – С.73-126; Калинин А. Волшебное зеркало из далекого прошлого // Наука и жизнь. – 2001. – №4.

[133] Саримсоқов Б. Ойнада зуҳр этган бахт // Ўзбек тили ва адабиёти. 1984. – № 4. – Б.30-36.

Кўзгу билан боғлиқ айрим урф-одатлар тасвири ва талқини мумтоз адабиётимиз намуналарида ҳам кўзга ташланади. Буюк мутафаккир лирик меросида кўзгу турли мақсад ва вазифаларда образлантирилган. Жумладан, кўзгу – борлиқ, олам (чарх кўзгуси), комил инсон қалби, кўнгул, ишқ (май кўзгуси), осмон, қуёш, юз, пардоз, ёлғонни фош қилиш воситаси каби қатор вазифаларда келганлиги кузатилади. Шоир меросида шундай байтлар борки, уларда кўзгу билан боғлиқ урф-одатлар ўз бадиий аксини топган.

Маълумки, халқ орасида умри тугаб бораётган одамнинг нафас олаётгани ёки олмаётгани, жони узилган ёки узилмаганини аниқлаш учун оғзига кўзгу тутилган.[134] Агар бунда кўзгу сирти терласа, одам нафас олаётгани, терламаса, демак, унинг нафас олишдан тўхтагани, жони узилгани аён бўлади. Улуғ шоир Алишер Навоий халқда мавжуд бўлган ана шу расм-одатга ишора қилиб, гўзал бадиий тасвирларни яратган:

Сипеҳри ойинагун гар дамимдин ўлди қоронғу,
Асар йўқ эмди дамимдин қўюлса оғзима кўзгу[135].

“Ойнагун осмон менинг дамимдан қоронғи бўлди. Оғзимга кўзгу қўйилса, нафас олишимдан асар йўқлиги билинди” мазмунидаги ушбу байтда ойна ва кўзгу сўзлари қўлланган. Аслида бу иккала сўз ўзаро маънодош (синоним) ҳисобланади. Навоий ўз байтида ойнанинг тиниқлигини осмон тиниқлигига тенглаштириб, истиора сифатида қўллаган. Шу асосда ошиқнинг дами (оҳи) ердан кўккача етиб, сипеҳри ойинагун – осмонни қоронғи қилгани муболағалаштирилмоқда. Иккинчи байтдаги “дам” сўзи нафас маъносида қўлланган. Кўзгу ошиқ оғзига қўйилса, унда нафас олишдан асар йўқ. Шоир ошиқнинг руҳий ҳолатини мана шундай муболағали тасвирлар экан, халқда мавжуд бўлган расм-одат унинг муддаосини рўёбга чиқариш учун бадиий восита сифатида хизмат қилган.

Халқ орасида синган ҳар қандай буюм хосиятсиз саналган. Хусусан, синган кўзгу халқ эътиқодига кўра бахтсизлик ва ўлим рамзидир. Негаки, қадимда ойна, тароқ, пичоқ, коса, пиёла ва ҳоказо сингари буюмлар марҳумга у бораётган дунёда асқотади деб, у билан бирга қабрга синдирилган ҳолда кўмилган.[8] У дунёни бу дунёнинг тескариси деб қарашгани боис, мазкур нарсалар синдирилган. Шунинг учун тирикларнинг синиқ буюмлар ишлатиши тақиқланган. Синган, ёрилган, бут бўлмаган нарсалар ўликларга тегишли деб қаралган. Турмушда синган кўзгуни сақлаш, синиқ ойнага қараш ёмон ирим саналади. У бахтсизлик, ўлим олиб келади, деб ҳисобланади. Шу каби қарашлар асосида бадиий ижодда ҳам синиқ буюмлар бахтсизлик, ўлим, айрилиқ рамзини ифодалайдиган бўлган. Масалан, Алишер Навоий лирикасида ҳам “ёруғ кўзгу” тасвири келтирилган байтда шундай маъно мужассамлантирилган:

Уйла оҳимдин жаҳондур тийраким, заъфим чоғи,
Оғзима қўймоққа топилмас ёруғ бир кўзгу ҳам.[136]

Мазкур байтдаги тасвир юқоридаги байт билан ҳамоҳанг. Ошиқ заъф – касал. Шундай бўлса-да, унинг дами (нафаси) жаҳонни қорайтирган. Лирик қаҳрамон ўзининг тирик ёки нафас олмаётганлигини аниқлаш учун синиқ (ёруғ) бир кўзгу топилмаслигидан шикоят қилмоқда.

Алишер Навоий қуйидаги байтида гўзал тасвирни яратишда ҳам кўзгу билан боғлиқ табирдан маҳорат билан фойдаланади. Яъни ошиқ ниҳоятда ҳолсиз, касаллик уни заиф қилган (муфрит заъф). Унинг нафас олиш ёки олмаслигини билиш учун оғзига ёр (ул юз) кўзгусини тутадилар. Ошиқ ёр кўзгусининг қорайишидан қўрқиб нафас олмайди. Боиси у нафас олаётган бўлса, кўзгу терлайди, яъни хиралашади.

Қўйса муфрит заъф аро оғзимға ул юз кўзгусин,
Урмағаймен тийра бўлмоқ ваҳмидин ўлсам нафас.[137]

Кўриняптики, мумтоз адабиётда кўзгу маъшуқанинг юзи сифатида ҳам талқин қилинади. Шунинг учун у ошиғига жон бахш этиш қудратига эга.

Умуман олганда, Алишер Навоий маъшуқасининг висолидан умид узган ҳамда ишқ изтиробларининг адоғсиз азобларини тортаётган ошиқнинг руҳий-маънавий оламини тасвирлаш учун халқда мавжуд бўлган анъаналар ҳамда халқнинг эътиқодий тасаввурларига таянган ҳолда гўзал манзараларни яратган.

---

[134] Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклорининг жанрий таркиби, генезиси ва бадийяти: Филол. фан. д-ри... дисс.– Т., 2005. – Б.106.

[135] Навоий А. Наводир уш-шабоб. МАТ. XX жилдлик. IV жилд. – Т.: Фан, 1989. – Б. 370.

[8] Литвинский Б.А. Зеркало // Орудия труда и утварь из могильников западной Ферганы. Гл. VIII. –М.: Наука, 1978. – С.73-12.

[136] Навоий А. Наводир уш - шабоб. МАТ. XX жилдлик. IV жилд. – Т.: Фан, 1990. – Б. 312.

[137] Навоий А. Наводир уш-шабоб. МАТ. XX жилдлик. IV жилд. – Т.: Фан, 1990. – Б. 170.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. I жилд. Бадоеъ ул- бидоя. –Т.: Фан, 1987.
2. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. II жилд. Наводир ун-ниҳоя. – Т.: Фан, 1987.
3. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. III жилд. Ғаройиб ус-сиғар. –Т.: Фан, 1988.
4. Навоий Алишер. МАТ. XX жилдлик. IV жилд. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1989.
5. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. – Т.: Фан,1986. – 216 б.

TASVIRIY SAN'AT ASARLARINING TIL VA ADABIYOT O'QITISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

p.f.n., dotsent Suyunov H.M.
Navoiy davlat pedagogika instituti

Anatotsiya: Ushbu maqolada me'morchilik sanatining va tasviriy san'at vositalarining adabiyot o'qitishdagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan bo'lib, buyuk mutaffakirimiz Alisher Navoiy merosini keng va atroflicha, to'laqonli o'rganish, uning asarlarida ulug'langan g'oyalar mazmunini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazish maqsadida me'morchilik san'atidan foydalanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: arxitektura, tasviriy san'at, yodgorliklar, me'morchilik, adabiyot dars, metodik tavsiya, fikrlash doirasi, obidalar, ekskursiya, illyustratsiya, ansambl.

THE PLACE AND SIGNIFICANCE OF FINE ARTS IN LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

Abstract: This article talks about the importance of the art of architecture and visual arts in the teaching of literature. information about the use of architectural art in order to convey the content of the ideas to the minds of our people, especially young people.

Key words: architecture, visual arts, monuments, architecture, literature lesson, methodical recommendation, framework of thinking, monuments, excursion, illustration, ensemble.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ПРЕПОДАВАНИИ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация: В данной статье говорится о значении искусства архитектуры и изобразительного искусства в преподавании литературы. информация об использовании архитектурного искусства в целях донесения содержания идей до сознания нашего народа, особенно молодежи.

Ключевые слова: архитектура, изобразительное искусство, памятники, архитектура, урок литературы, методические рекомендации, рамки мышления, памятники, экскурсия, иллюстрация, ансамбль.

Me'morchilik obidalariga ekskursiyalar uyushtirish, tarixiy hujjat va adabiy-badiiy illyustratsiyalarni o'rganish katta ta'limiy va g'oyaviy-estetik ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan, o'z davri madaniy muhitining markazida turgan va nafaqat so'z san'atining, balki san'atning boshqa sohalarida ham ijodkorlarga homiylik va tarbiya ko'rsatgan Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda ham me'morchilik san'atidan keng foydalanish mumkin. Navoiy hayoti va ijodini o'rganish mashg'ulotlarida me'morchilik va qurilishga oid rasmlarni sharhlash, namoyish qilish ham dars jarayonida, ham sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmuniga singdiriladi.

VIII sinfda Navoiy biografiyasi o'rganilganga qadar o'quvchilar "XIV-XVI asrlar o'zbek adabiyoti tarixi" bilan tanishadilar. Davrning madaniy hayoti: Samarqand va Hirot shaharlarida bunyod etilgan arxitektura ansambllari haqida so'z borganda, o'qituvchi "Ochiq osmon ostida muzey" va shu kabi boshqa albomlardan keng foydalanib, bu davrda me'morchilik yuksak pog'onaga ko'tarilgani, bunda, ayniqsa, ulug' olim Ulug'bekning xizmatlari katta ekanini ta'kidlaydi. Samarqand Registoni ansambli ko'rinishlari aks ettirilgan rangli rasmlarni namoyish qilish o'quvchilarda zo'r qiziqish va estetik zavq uyg'otadi. O'qituvchi bu rasmlarni izohlab tushuntirsa, kuzatilgan maqsadga erishiladi. Samarqand me'morchilik tarixiga bag'ishlangan qisqa metrajli rangli film lentalarini namoyish qilish orqali o'quvchilarda xalqimiz yaratgan ajoyib yodgorliklarga nisbatan hurmat hamda ularni ehtiyot qilib asrash tuyg'usi o'stirilib, bu san'at asarlari ta'sirida mehnatga va san'atga muhabbat hislari tarbiyalanadi. izohlab tushuntirsa, kuzatilgan maqsadga erishiladi. Samarqand me'morchilik tarixiga bag'ishlangan qisqa metrajli rangli film lentalarini namoyish qilish orqali o'quvchilarda xalqimiz yaratgan ajoyib yodgorliklarga nisbatan hurmat hamda ularni ehtiyot qilib asrash tuyg'usi o'stirilib, bu san'at asarlari ta'sirida mehnatga va san'atga muhabbat hislari tarbiyalanadi.

Ulug‘bekning fan va madaniyat sohasidagi tarixiy xizmatlari haqida ma’lumot berilganda o‘quvchilarda ulug‘ olim madrasasi va rasadxonasiga doir rasmlar namoyish qilinadi. Shu o‘rinda Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan quyidagi parchani ifodali o‘qib berish maqsadga muvofiqdir.

Temurxon naslidin Sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek,
Aning abnoi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul ilm sori topti chun dast,
Ko‘zi oldinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim bog‘lamish zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi “Ziji Ko‘ragoniy”,
Qiyomatga degancha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.

Arxitektura yodgorliklari haqida hosil qilingan bu tushunchalar Navoiy biografiyasini o‘rganish jarayonida yanada to‘ldirilib, rivojlantiriladi. Zero, Navoiy ham (1457-1459 yillar) Samarqandda yashagan vaqtida Ulug‘bek barpo etgan rasadxona va madrasalarda bo‘lgan, ilm olgan hamda ulardan zavqlangan. Akademik Vohid Abdullayevning ta’kidlashicha: “U o‘zining (Navoiy-M. S.) qator go‘zal asrlarini Samarqandda yozdi… tarixiy obidalar, yodgorliklarga bo‘lgan munosabati uning badiiy va ilmiy asarlarida qayta-qayta ifodalandi”.

Ma’lumki, Alisher Navoiy yashagan davrda Hirot gurkirab yashnagan madaniyat va san’at markaziga aylanadi, yangi binolar, arxitektura ansambllari yaratiladi. “Navoiy me’morchilik san’ati bilan yaqindan tanish bo‘lib, uning ravnaqiga katta e’tibor bergan, me’mor, muhandis, naqqosh qoshintarosh kabi binokor ustalarga rahnamolik va homiylik qilgan”, - deydi shoirning zamondoshi tarixchi Xondamir va navoiyning 54 rabot, 19 hovuz, 16 ko‘prik masjidlar, hammomlar qurdirganini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Alisher Navoiy yuksak arxitektura ansambllarining bunyod bo‘lishida rahnamolik qilgan. Navoiy o‘zining “Vaqfiya”asarida Hirot arxitekturasi haqida qimmatli fikrlarni bildirgan.

Biografiyani o‘rganishning “Navoiy davlat arbobi, uning mamlakat obodonchiligi uchun qilgan xizmatlari” mavzuida yuqoridagi ma’lumotlar berilgach, o‘quvchilarning diqqatini rassom I.Kiriakidi ishlagan “Alisher Navoiy madrasa qurilishida” kartinasiga tortish maqsadga muvofiqdir. Kartinada Navoiy siymosi yorqin aks ettirilgan. Rassom Kiriakidi madrasa qurilishini tasvirlab, qizg‘in mehnat va quruvchilar g‘ayrat-shijoatini grafika orqali aniq bo‘yoqlarda tasvirlab bera olgan. Ana sangtarosh tosh tarashlayapti, qoshinkor bino peshtoqiga so‘nggi bezaklarni berayapti. Navoiy ustalar ishini kuzatayapti, yuzida bosiqlik, salobat aks etib turibdi. Qo‘lida bino tarhi akr ettirilgan qog‘oz.

O‘quvchilar bilan ushbu kartina asosida savol-javob o‘tkazilar ekan, mashhur tarixchi Xondamirning “Xulosatul-axbor” asaridan Hirotdagi masjidi jomening ta’miri haqidagi Navoiy to‘g‘risida aytgan fikrlarini o‘quvchilarga o‘qib berishi mumkin: 903-yilning ramazon oyida (1498-yil, aprel- may - M.S.) gumbazni va maqsura toqini ochishga amr qildi… Va ul xayr-saxovatli binokor o‘sha imorat xususida ko‘p g‘amxo‘rligi tufayli har kuni o‘sha sharofatli joyga tashrif buyurar edi. Ko‘p kunlari etagini beliga qistirib, yollangan ishchilar singari ustalarga g‘isht uzatardi va boshqa ishlar qilardi. Tez-tez o‘sha yerdagi me’morlar, ustalar va kosiblarga qimmatbaho sarupolarkiydirar va ko‘p navozish va boshqa in’omlar bilan xushdili xursand qilardi”.

I.Kiriakidi ishlagan rasm bo‘yicha suhbatni xulosalashda Oybekning “Navoiy” romanidan 14-bobning so‘nggi qismini o‘qib berish temaning yanada tushunarli bo‘lishini ta’minlaydi. Adibning tasviricha, Arslonqulda Navoiyga nisbatan bo‘lgan “allaqanday toshqin mehr”, shubhasiz, Navoiyning ulug‘vor siymosiga havas bilan boqib o‘tirgan, diqqat va qiziqish bilan dars tinglayotgan o‘quvchilarning ham qalbiga ko‘chadi.

Alisher Navoiy ijodini o‘rganish jarayonida, xususan, “Farhod va Shirin” dostonining teksti ustida ishlashda, tahlil jarayonida ham me’morchilik san’atiga doir fikrlarga duch kelinadi. Ular yuzasidan ham qiziqarli suhbat tashkil qilish yoki ma’lumot berish mumkin.

Alisher Navoiy arxitektura to‘g‘risida o‘zining ideallari bilan ajoyib koshonalar, saroylar tasvirini yaratganligi bizga ma’lum. Yirik arxitektura ansambllarini qurishda qatnashgan shoir zamonasining mohir me’morlari qatoridan o‘rin olgan. Shu bois shoir qahramonlari orasida mohir sangtarosh, me’mor va naqqoshlarning bo‘lishi bejiz emas, albatta.

Navoiyning dostonlarida afsonaviy voqealar hikoya qilinsada, ammo qurilish ishlari, qasrlar, binolar qurilishi, loyihalar tuzish, bezash kabi tasvirlar real voqeilikka asoslangan. Masalan, shoir “Farhod va

Shirin" dostonida binokor hunarmandlar ishini yuqori baholab, naqqosh Moniy haqida so‘z yuritadi, uning chizg‘ichsiz (pargor) binoga turli shakllar bera olish mahoratini ta’riflaydi.

Farhodning me’mor Qoran va naqqosh Moniydan me’morchilik sirlarini o‘rganishi va bu sohadagi mislsiz qobiliyati va iste’dodini ko‘rsatuvchi tekst parchalari tahlilidan foydalanib, o‘qituvchi yoshlarni kasb-hunarga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga, mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor beradi. O‘rta Osiyo me’morchilik obidalari asrlar osha bizga yetib kelgan. Ularning lojuvard bezaklari kishi aqlini lol qoldiradi. O‘qituvchi xalqimizning madaniy yodgorligi sifatida bu obidalarning davlat tomonidan muhofaza qilinib, restavratsiya ishlari olib borilayotganligi haqida ham gapiradi.

Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishning so‘nggi bosqichida o‘qituvchi o‘quvchilar e’tiborini professor Hamid Sulaymon tomonidan nashrga tayyorlangan "Alisher Navoiy" rangli albomidan shoirning hayotligida o‘zi qurdirgan va hozir hirotda qad ko‘tarib turgan Masjidi Jome yonidagi maqbara rasmiga qaratar ekan, akademik shoir G‘afur G‘ulomning "Alisher Navoiy qabri ustida" she’ridan quyidagi bandni alohida shavq va zavq bilan o‘qiydi:

Dilim ravshanligin hissim yo‘lida oftob aylab,
Mozoring boshida turmakdadurmen sarhisob aylab,
Qulog‘ing so‘z eshitmas bo‘lsa ham qalbdan xitob aylab,
Vatandoshlar salomin necha jildli bir kitob aylab,
Navoiy deb Musalloga kelibmen intihob aylab.

Mamlakatimizda Alisher Navoiy merosini keng va atroflicha, to‘laqonli o‘rganish, uning asarlarida ulug‘langan g‘oyalar mazmunini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazish yuzasidan katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati serqirraligi bilan nafaqat o‘zbek mumtoz adabiyoti, balki Sharq va butun dunyo adabiyoti tarixida ham alohida o‘rin tutadi. Ona tiliga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglashda Navoiy asarlarining o‘rni katta. Zero, Navoiyni anglash, uning falsafiy-axloqiy, madaniyma’rifiy mushohadalarga boy asarlarini o‘qish va tushunish har bir inson uchun ulkan saodatdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: "Alisher Navoiy bobomizning "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami" degan satrlarida qanchalik chuqur hayotiy hikmat, falsafa bor. Ya’ni, bu dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o‘ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir, xalqning g‘amidan uzoq bo‘lgan insonni odam qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, deb ta’kidlamoqda ulug‘ bobomiz. Bu o‘lmas satrlar bizning bugungi hayotimiz bilan, bizning orzu-intilish va amaliy harakatlarimiz bilan naqadar hamohang ekani odamni hayratga soladi"[138]

2018-yil 22- oktabr kuni Gulistonda Alisher Navoiyning maskanda ulug‘ shoirimizning sof misdan ishlangan salobatli haykali tantanali ravishda ochildi.[139]

2019-yil yanvar oyidaNavoiy shahrida respublikamizda yagona bo‘lgan Alisher Navoiy jamg‘armasi tuzildi. Ajdodlarimiz merosini jahonga tanitish, yoshlarimizni buyuk bobolarimiz an’analari ruhida tarbiyalash kabi ulug‘ maqsadlar uning asosiy faoliyati yo‘nalishlaridandir. Xalqaro mavqega ega jamg‘arma saytida mavzuga doir eng muhim yangiliklar, ilmiy tadqiqotlar joylashtirib borilishi rejalashtirilgan.[140]

Shunday qilib, adabiyot darslarida arxitektura materiallaridan foydalanish o‘quvchilarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanadi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar yuksak san’at asarlarini yaratish faqat mehnat bilan amalga oshirish mumkinligini his etadilar, boy madaniy merosimizni o‘rganishga havaslari yanada ortadi, go‘zallikka intilish kuchayadi, madaniy xulqlari rivoj topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O‘zbekiston", 2016. –B.18.
"Ta’lim to‘g‘risida" gi O‘zbekiston Respublikasi. Qonuni. Toshkent, 1997
Alisher Navoiy Hikmatlar. –T.: O‘zbekiston, 2011
Ochilov E. Alisher Navoiy. –T.: "O‘zbekiston", 2013.-B.169.
Shernazarov A. Gulistonda Alisher Navoiyning yangi haykali ochildi. //Xalq so‘zi, № 219, 2018 yil, 23 oktabr
Ziyo istagan qalblar uchun-A.Navoiy ziyouz.com

[138] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: "O‘zbekiston", 2016. –B.18.
[139] Shernazarov A. Gulistonda Alisher Navoiyning yangi haykali ochildi. //Xalq so‘zi, № 219, 2018 yil, 23 oktabr
[140] Eshboyev T. Alisher Navoiy jamg‘armasi tuzildi. //Xalq so‘zi, № 16 (7246), 2019 yil 24 yanvar.

TABU ADABIY ELEMENT SIFATIDA

Z.J.Axmedova Navoiy davlat pedagogika instituti
f.f.f.d (PhD) dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada tabu taqiqlarning paydo bo‘lishi va jahon folklorshunosligida o‘rganilishi haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan. Taqiqlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rniga katta e’tibor beriladi. Ilmiy manbalarga tayanib tabu tushunchasi tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tabu, taqiq, diniy ishonch, taqiqlangan harakatlar, mifologik tasavvur, muqaddas, man etilgan

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос о появление и изучение табу в мировом фольклоре. Возникновение табу является процессом, связанным с развитием общества. На основе научным источников анализируется понятие табу.

Ключевые слова: табу, запрет, религиозная вера, запрещенные действия, мифологическое воображение, проклятый, освященный.

Annotation. This article examines the issue of the emergence and study of taboos in world folklore. The emergence of taboos is a process associated with the development of society. Based on scientific sources, the concept of taboo is analyzed.

Key words: taboo, prohibition, religious faith, forbidden actions, mythological imagination, damned, sanctified.

Tabu va efimizmlar madaniyat va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik tushuncha hisoblanadi. Tabu adabiy element sifatida o‘ziga xos tuzilishga ega. Tabuning asosini taqiqlanuvchi harakat yoki so‘z tashkil etadi. Totemistik e’tiqodlar ta’sirida paydo bo‘lgan bu taqiqlar Amerika, Osiyo, Avstraliya, Yevropa qit’alarida yashagan xalqlarning madaniyatidan o‘rin olgan edi. Tabu diniy e’tiqodlar ta’sirida paydo bo‘lgan va jamiyatdagi odob-axloq qoidalariga asoslanganligi bilan alohida ajralib turadi. Olimlarning fikriga ko‘ra tabu tilning lug‘at boyligini oshiruvchi unsurlardan biri sifatida o‘z ahamiyatiga ega. Tabu efimizm bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. Diniy va sotsial (ijtimoiy) turlarga bo‘lingan tabu so‘zlarning ma’nosini o‘zgartirishda va kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

Tabu - “...diniy e’tiqod va axloqqa nomuvofiqligi jihatidan qo‘llanilishi man etilgan so‘zlar”, hatti-harakatlar, biror sababga ko‘ra qo‘llanilishi taqiqlangan so‘z va iboralardir. Yaxshi gapiraman ma’nosini anglatadigan efimizm so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, tabu tushunchasiga qarama-qarshidir. Biror sababga ko‘ra qo‘llanilishi taqiqlangan yoki noqulay bo‘lgan so‘z va iboralar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarni qo‘llash hisoblanadi.

Tabu-ma’lum bir ishonchga asoslangan harakat bo‘lib, uni bajarish qattiq taqiqlangan. Bunday harakatlar yo muqaddaslashtirilgan yoki lan'atga olib keluvchi g‘ayritabiiy jazo sifatidagi tahdid hisoblangan. Qadimgi insonlar tushunchasiga ko‘ra, alvasti, ajina kabi mifologik tasavvurlar, chayon, bo‘ri kabi hasharot yoki hayvonlar nomini aytish taqiqlangan, go‘yo nomi aytilgan narsalar kishiga zarar keltiradi deb o‘ylashgan. Alvasti o‘rniga sariq qiz, bo‘ri o‘rniga qora quloq, chayon o‘rniga oti yo‘q deb gapirganlar. Islom manbalarida ham ayol kishi turmush o‘rtog‘iningi ismini aytishi gunoh sanalgan. O‘rniga bosh farzandning ismi yoki otasi so‘zlarini ishlatganlar. Ko‘pincha, qo‘llanilishi qo‘pol va uyatli bo‘lgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralar qo‘llash orqali efimizmlar yuzaga kelgan[1]. Tabu va efimizmlar turli xalqlardagi urf-odat, madaniy saviyaning darajasi, estetik did va axloq normalarining rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ular dastlab xalq og‘zaki ijodidda paydo bo‘lib, keyinchalik badiiy asarlarning hayotiyligini, milliy koloritini kuchaytirish maqsadida ijodkorlar tomonidan foydalanilgan.

Ingliz olimi J.Frezerning[2] fikriga ko‘ra, tabu tushunchasi ibtidoiy jamoa tuzumi davrida paydo bo‘lgan bo‘lib, nishonlamoq, kuchaytirish, muqaddaslashtirmoq, ba’zan la’natlangan ma’nolarini anglatgan. Tabu: Shu ishni qilmaginki, bu ishning oqibatida mana bu xunuk ish sodir bo‘ladi. Sekin-asta jamiyatning ijtimoiy hayotida shunday o‘ylash orqali turlicha taqiqlar: marosim taqiqlari – to‘y, dafn marosimlari, kasb-korga tegishli – ovchilik, baliqchilik bilan bog‘liq taqiqlar va axloqiy taqiqlar yuzaga kelgan. Bu taqiqlar yaratilishining asosiy sabablari jamiyat hayotini tartibga solish, kishini turli xil xavf-xatarlardan himoya qilish deb tushunilgan. Yomon deb hisoblanuvchi odat va hatti-harakatlardan tiyilishga undovchi bu taqiqlar juda qadimda paydo bo‘lganligi sababli bugungi kunda ular to‘g‘risidagi qarashlar ham turlichadir. Masalan, Frezer, eskimoslar o‘g‘il bolalarga ip o‘ynashni taqiqlashganini yozadi, go‘yoki u katta bo‘lganda ovchi bo‘lsa uning barmoqlari garpun ipiga o‘ralashib qoladi, deb o‘ylashgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ko‘proq nojuya deb hisoblangan hatti-harakatga va ovqatga taqiqlar mavjud bo‘lgan. Tabular juda qadimda, kishilik jamiyatining ilk ibtidoiy davrida paydo bo‘lganligi sababli ularning nima maqsadda va qachon yaratilganligini aniqlash mumkin emas.

Olim tabular asosida axloqni yaratuvchi burch, qonun, huquq kabi tushunchalar paydo bo‘lganligini yozadi. Bu terminni kapitan Jeyms Kuk polineziya hindularining qabila jamoalarini kuzatish asosida muomalaga kiritgan. Spenser esa tabularning paydo bo‘lishini marosimlarga bog‘laydi. Darhaqiqat, jamiyatning hayotini belgilab beruvchi marosimlarning o‘tkazilishi natijasida ma’lum bir taqiqlar yuzaga kelgan. Ingliz professori Toy ham tabu - axloqiy qonunlarning bir qismi o‘z ifodasini topgan shakldir, so‘zga sig‘inishdir, deb hisoblaydi.

Zigmund Freyd[3] ham totem va taqiqlar haqida fikr yuritar ekan, qadimgi rimliklar, yahudiylar va yunonlarda ham tabu tushunchasi mavjudligini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, taqiqlar ikki ma’noda ishlatilgan. Tabular haqidagi qarashlar xudolar to‘g‘risidagi qarashlardan ham qadimiyroq bo‘lib, muqaddas yoki xavfli, ziqna, man qilingan, “muqaddas qo‘rquv” kabi ma’nolarini anglatgan. Z.Freyd, taqiqlarning paydo bo‘lishi xususida mulohaza yuritar ekan, inson va narsalarning g‘ayritabiiy, sirli kuchlar bilan bog‘liqligi natijasida taqiqlar yuzaga kelganligini, g‘ayritabiiy kuchlar bilan bog‘liqlik ta’sirida paydo bo‘lgan bu tabular qabila boshlig‘i, kohin tomonidan egallanganligini, avloddan avlodga uzatilib an'anaga aylanganligini ta’kidlaydi. Tabularning paydo bo‘lishidan bir nechta asosiy maqsad mavjudligini o‘qtiradi. Kohinning narsa-buyumlariga zarar yetkazishdan asrash, ojiz ayollar, bolalar, umuman oddiy insonlarni kohinning magik-sehrli kuchidan va o‘liklarga teginish yoki ta’qiqlangan taomlarni iste’mol qilish bilan bog‘liq xavf-xatarlardan himoya qilish maqsadida taqiqlar yuzaga kelgan. Ayniqsa, balog‘at yoshiga yetish, nikoh, bola tug‘ilishi bilan bog‘liq muhim hayotiy hodisalarga aloqador taqiqlar ko‘proq vujudga kelgan. Insonlarni g‘ayritabiiy kuchlar – xudolar va shaytonlarning g‘azabidan yoki tug‘ilmagan, kichik yoshdagi bolalarni turli xavf-xatarlardan himoya qilish maqsadida turlicha taqiqlar paydo bo‘lgan. Olimning fikriga ko‘ra, insonlarni jazolashning birinchi tizimi tabular bilan bog‘liq. Ko‘pincha diniy marosimlar o‘tkazish yoki astoydil tavba qilish orqali muqarrar jazodan qutulish mumkin deb hisoblashgan. Ba’zan tabular doimiy va vaqtinchalik ham bo‘lgan. Tabular keyinchalik marosim folklorining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Taqiqlar turli xalqlarning ijtimoiy va kundalik hayotida muhim rol o‘ynagan. Tabu-taqiqlar folklorning qariyb barcha janrlarida uchraydi. Bugungi kunda taqiqlarning jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati ham keng o‘rganilmoqda. Ma’lumki, taqiqlar ko‘p asrlar mobaynida hayot normalari sifatida rivojlanib, xalq xotirasida axloqning o‘ziga xos o‘lchovi sifatida saqlanib qolgan. Taqiqlar sinkretik xarakterga ega bo‘lib, ularning genezisi va mifologik asoslarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Ba’zi olimlarning fikriga ko‘ra, tabular hayotning hamma sohalarini qamrab olgan qonun-qoidalarni tartibga solishning yagona shakli bo‘lgan. Taqiqlarning katta qismi irratsional, hatto unga amal qiluvchilar uchun ham ba’zan mantiqsiz tuyulgan. Rus folklorshunosligida taqiqni buzish ba’zan ijobiy natijalarga olib kelishi haqida ham ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan.

Bugungi kunda ham tubu va efimizmlar tushunchasi keng qo‘llaniladi. Suhbatda nizolardan qochishga harakat qilish, suhbatdoshda suhbat chog‘ida noqulaylik tug‘dirmaslik, niqoblangan berkitish kerak bo‘lgan so‘zlarni ta’riflashda umumlashtirish, ma’lumotni yashirish, shifrlamoq zarurati sifatida ishlatiladi. Gapirilayotgan narsa qo‘pol, noqulay so‘z deb baholanishi so‘zlovchi vaziyatni yumshoqroq iboralar tanlab, niqoblab gapirishda tabularni qo‘llash nutq uslubiga bog‘liq. Odatdagi nutqda bu tushuncha qog‘ozga o‘ralgan holda ifoda etish, aldash, chalg‘itish, bir so‘z o‘rnida boshqa so‘zni ishlatish hamda nutqning ta’sirchanligiga erishish maqsadida qo‘llaniladi. Demak, tabu va efimizmlarning bugungi kundagi vazifasi yanada kuchaygan.

Tabu jahon folklorshunosligida keng tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ammo o‘zbek xalq og‘zaki ijodida janr sifatida alohida o‘rganilgan emas. Jahon folklorshunosligida dastlab taqiqlar mavzusi J.J.Frezer, Z.Freyd tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, keyinchalik rossiyalik olimlar D.K.Zelenin, N.A.Alekseyev, S.N.Artanovskiy, Z.P.Sokolov, V.Ya.Propp, N.A.Baskakov, K.V.Chistov, V.I.Eremina, A.A.Popov, M.F.Kosarev, A.E.Burtsev kabi olimlar bu borada jiddiy izlanishlar olib bordilar. Ayniqsa, D.K.Zelenin, Z.P.Sokolov, V.Ya.Propp, N.A.Baskakov, A.E.Burtsev, V.E.Dobrovolьskaya, A.N. Afanasyevlar o‘z tadqiqotlarida taqiqlarning jamiyat hayotida muhim o‘rnini o‘rganganlar. Shuningdek. A.S.Kargina, A.V.Kostina, S.N.Belyakova, O.V.Egorova, L.V.Rubtsova kabi rus olimlari o‘z maqolalaridan bu mavzuni turlicha aspektda tadqiq etganlar. Turkiy tillar folkloridagi taqiqlar dastlab Zolotaryov, Plesovskiy, Gadjiyev, Burikin tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ammo turkiy xalqlarning qadimgi dunyoqarashi bilan bog‘liq taqiqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini A.Vildanov, V.I.Rassadin, N.A.Alekseyevlar ochib berishga uringan. Shuningdek, boshqird folklorshunosligida ham taqiqlar A.Inan, R.Faxretdinov, F.A.Nadrshina, G.R.Xusainova, R.A.Sultangareyeva, E.M.Suleymenov, F.F.Gaysina, F.G.Xisamitdinova va A.S.Mutina kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa, L.A.Abukayeva Mari taqiqlarini, X.Sh.Mexmutov va M.X.Bakirovlar tatar folkloridagi tabularni o‘rganishgan. Ayniqsa, folklorshunos olima F.F.Gaysina[4] boshqird folklorida mavjud bo‘lgan tabularni alohida janr sifatida o‘rgangan, Xulosa sifatida shuni ta’kidlash zarurki, taqiqlar kishilik jamiyatining ilk davrlarida paydo bo‘lgan bo‘lib, insoniyat taraqqiyoti bilan

o‘zgarib, mukammalashib bordi. Turli sabablar va maqsadlar bilan yaratilgan taqiqlarda kishilik jamiyatining o‘z qonun-qoidalari aks etgan.

Xullas, tabu-taqiqlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini quyidagicha baholash mumkin:

1. Axloq haqidagi ilk qarashlar tabular natijasida yuzaga kelgan bo‘lib, axloqiy normalarning yaratilishiga sabab bo‘lganligi tufayli ularni o‘rganish dolzarb masala hisoblanadi.
2. Taqiqlarni ilmiy aspektda o‘rganilishi axloq to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarning paydo bo‘lish jarayonini anglashga yordam beradi.
3. Taqiqlarni o‘rganish orqali axloq to‘g‘risidagi ilk tasavvurlarning paydo bo‘lish jarayonini tushunishga, insonlarning axloq, huquq, burch, mas'uliyat to‘g‘risidagi qarashlari qay tarzda paydo bo‘lganligi va taraqqiy etganligini anglashga yordam beradi.
4. Qariyb barcha folklor janrlari tarkibida taqiqlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha syujetni harakatga keltiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi.
5. Folklor janrlari tarkibidagi taqiqlarni o‘rganish insoniyat taraqqiyoti davomida yaratilgan axloqiy qarashlarning qanday rivojlangani haqidagi tasavvurlarni kengaytirib, komil insonni tarbiyalash to‘g‘risidagi g‘oyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Xotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1983. 317-, 359-360- betlar.
2. Zigmund Freyd. Totem i tabu. – M.:1998. – S.448.
3. Jeyms Jorj Frezer. Zolotaya vetvь.-M.:Politizdat,1983,.–S.25.
4. Gaysina F.F. Zapreti kak folklorniy janr v traditsionnoy kulture bashkir: Avtoref. diss… kand. filol. nauk. – Kazan., 2013.

“ALPOMISH” DOSTONIDA AYRIM EPONIM VA EPIK OBRAZLARNING QADIMGI MIFOLOGIK TASAVVURLAR BILAN ALOQADORLIGI XUSUSIDA

Dilfuza Fayziyeva, f,f,n. Navoiy davlat pedagogika instituti,
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Biz ushbu maqolamizda «Alpomish» dostonidagi mifologik personajlar, mifik qarashlar bilan aloqador syujet elementlari, an’anaviy motivlar genezisi, ayrim eponim va epik obrazlarning qadimgi mifologik tasavvurlar bilan aloqadorligi xususida so‘z yuritmoqchimiz.

Annotation: In this article, we want to talk about the mythological characters in the "Alpomish" epic, plot elements related to mythical views, the genesis of traditional motifs, the connection of some eponymous and epic images with ancient mythological imaginations.

Kalit so‘zlar: «Alpomish» dostoni**,** mifologiya, mifologik obrazlar, “boysin”, “boybo‘ri” atamalari.

Key words: "Alpomish" epic, mythology, mythological images, terms "boysin", "boyburi".

O‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining badiiy an’analarini, ayniqsa, xalq dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan qahramonlik eposi namunasi hisoblangan «Alpomish» dostoni yaratilish davriga ko‘ra qadimiy bo‘lganligi sababli unda mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq arxaik epik qatlam yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. SHuning uchun ham «Alpomish» va mifologiya mavzusi, ayniqsa, mazkur epik asardagi mif ologik personajlar, mifik qarashlar bilan aloqador syujet elementlari, an’anaviy motivlar genezisini oydinlashtirish bugungi eposshunoslikning dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Biz ushbu maqolamizda «Alpomish» dostonidagi ayrim eponim va epik obrazlarning qadimgi mifologik tasavvurlar bilan aloqadorligi xususida so‘z yuritmoqchimiz.

«Alpomish» dostonidagi mifologik obrazlar va qadimgi inonchlar bilan bog‘liq an’anaviy motivlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, dostondagi mifologiya yaratilish davriga ko‘ra ko‘p qatlamli va turli-tuman e’tiqodiy qarashlarni o‘zida mujassamlashtirganligi uchun sinkretik xarakterga ega. Dostondagi mifologik obrazlarni genetik ildizlari, ya’ni yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan manbalariga ko‘ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1) Qadimgi turkiylarning totemistik inonchlariga aloqador nomlar: *Boybo‘ri* (Alpomishning otasining ismi), *Boysari* (Barchinning otasining ismi), *Boysun* (dostonda tasvirlangan afsonaviy - epik joy nomi);

2) Ajdodlar kulti bilan bog‘liq mifologik obrazlar: *Xizr* (barhayotlik suvini ichganligi uchun mangu tirik mifologik homiy), *chilton* (odamlarga yaxshilik qiluvchi ko‘zga ko‘rinmas qirq nafar ezgu ruhlar);

3) Jonivorlarni mo‘’tabarlashtirish an’anasi asosida kelib chiqqan mifologik obraz va kultlar: *Boychibor* (doston qahramoni Alpomishning g‘aroyib oti), *g‘oz, turna, tuya, it*;

4) «Avesto» mifologiyasi ta’sirida epos matnidan o‘rin olgan obrazlar: *ajdaho*;

5) Ezgulik va yovuzlik kurashi haqidagi dualistik qarashlar zamirida shakllangan mifologik personajlar: *Surxayil kampir, Pattigul momo, Ko‘kaldosh, Ko‘kaman, Ko‘kqashqa, Boyqashqa, Toyqashqa, Qo‘shquloq, Qorajon, Sarmon dev, Qahramon dev, Bujman dev, Do‘rmon dev, Sarson dev, CHorra dev, Bug‘ra dev, Taran dev, Omid dev*;
6) Islom mifologiyasi ta’sirida epos syujetiga kiritilgan xayoliy-afsonaviy obrazlar: *maloyika, farishta, shayton, dajjol*.

Ma’lumki, «Alpomish» dostonining o‘zbek milliy versiyasida «Boysin» eponimi, ya’ni epik joy nomi ko‘p qo‘llaniladi. Dostonning Bulung‘ur dostonchilik maktabi vakili, atoqli baxshi Fozil Yo‘ldosh o‘g‘lidan yozib olingan variantida Boybo‘ri bilan Boysarining vatani «Boysin-Qo‘ng‘irot elati» deb ta’riflansa, dostonning Navoiy viloyatining Konimex tumanida istiqomat qilgan baxshi Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li kuylagan namunasi «Qo‘ng‘irot elinda Boysin cho‘linda Boybo‘ribiy otli bir kishi bor edi» degan boshlama bilan boshlanadi.

«Boysin» atamasi bu o‘rinda xayoliy-epik nom, ya’ni eponim bo‘lib, tarixiy ildizlariga ko‘ra qadimgi turkiylarning bo‘ri totemiga sig‘inuvchi Ashina urug‘i haqidagi mifologik tasavvurlariga borib taqaladi.

Qoraqalpoq folklorshunosi J.Xo‘shniyozov qachonlardir Orol dengizi sohilida «Jiydali Boysun» deb atalgan joy bo‘lgan va yerda istiqomat qilgan etnoslar turkiy qabilalarning migratsiyasi natijasida (XIV asrda) hozirgi Surxondaryo viloyatining Boysun tumaniga kelib joylashganlar. Bu qabilalar o‘z azaliy vatanlaridan yodgor bo‘lsin uchun o‘zlarining yangi maskaniga ham shu nomni berishgan, deb hisoblaydi.

Biz «Alpomish» dostonida nomi tilga olingan «***Boysin***» aslida Orol dengizi sohilida bo‘lgan tarixiy joy nomi bo‘lishi mumkin, degan fikrga, asosan, qo‘shilamiz. Ammo Boysun Orolning naq qirg‘og‘ida emas, balki undan sal nariroqda, Sirdaryoning quyi oqimi sohilida yoki Sirdaryo bilan Amudaryoning dengizga quyiladigan joyi oralig‘idagi hududda joylashgan bo‘lishi kerak. Bizningcha, Boysun aslida Amudaryoning Kaspiyga quyilgan qadimgi tarmog‘i bo‘yida yashagan etnoslardan birining nomi, ya’ni etnonim yoki o‘sha ulus istiqomat qiladigan joy atamasidir. Daryo yo‘nalishini o‘zgartirishi bilan Boysun ham SHarq tomonga, taxminan, Amudaryo bilan Sirdaryoning deltasi oralig‘iga siljigan bo‘lishi kerak.

O‘zbek xalq qahramonlik eposi namunasi bo‘lgan «Alpomish»ning muqaddimasida aytilishicha, «Burungi zamonda, o‘n oltn urug‘ qo‘ng‘irot elida Dobonbiy degan o‘tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o‘g‘il farzand paydo bo‘ldi. Alpinbiydan tag‘in ikki o‘g‘il paydo bo‘ldi: kattasining otini Boybo‘ri qo‘ydi, kichkinasining otini Boysari qo‘ydi».

Bu o‘rinda «***Boybo‘ri***» Alpomishning otasining ismi. Tarixiy ildizlariga ko‘ra, «Alpomish» dostoni bilan genetik jihatdan aloqador bo‘lgan Oltoy xalq eposi «Alip Manash» dostonida qahramonning padari buzrukvori «***Boybarak***» deb nomlangan. Epos syujetiga hamohang doston variantining «Dada Qo‘rqut kitobi»ga kiritilgan namunasida qahramonning oti «***Bamsi Bayrak***», otasining ismi «***Kambo‘ri***», u yashaydigan epik joy nomi esa «***Bayburd***» deb talqin qilingan. Boybo‘ri, Baybarak, Bamsi Bayrak, Kamburi, Bayburd nomlarining kelib chiqishi bo‘ri haqidagi totemistik qarashlar bilan aloqador.

Bizningcha, «***Boybo‘ri***» atamasi ham aslida qadimgi turkiy urug‘lardan birining nomi bo‘lib, keyinchalik epik nom, ya’ni eponimga aylangan bo‘lishi kerak. Urug‘ yoki qabila atamalari - etnik nomlarning folklor asarlarida qahramon nomi sifatida qo‘llanilishi turkiy xalqlar epik an’analari uchun qadimiy va mushtarak belgilardan biridir. Xususan, «SHajarai tarokima»da yozilishicha, O‘g‘uzxonning o‘g‘il va nabiralaridan har biri o‘zi sardor bo‘lgan qabila nomi bilan atalgan ekan. Shunday holatni «Dada Qo‘rqut kitobi»da ham ko‘rish mumkin.

Agar Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asarida «***boy***» so‘ziga «urug‘», «qabila», «jamoa» deb izoh berilganligiga[1] asoslansak, «Boybo‘ri» atamasi «bo‘ri qabilasi» yoki «bo‘ri jamoasi» ma’nosini anglatishi ma’lum bo‘ladi. SHunga ko‘ra, Boybo‘ri qadimgi turkiylarning bo‘ri haqidagi totemistik asotirlari asosida shakllangan etnik atama bo‘lib, «bo‘ri qabilasi» ma’nosini bildiradi va bu nom keyinchalik epik qahramon oti sifatida an’anaviylashgan deb hisoblaymiz. Zero turkiy xalqlarning aksariyatida «bo‘ri» totemi bilan bog‘liq etnik nomlar mavjudligi ma’lum. Hatto o‘zbeklar tarkibida ham «bo‘ri» nomli urug‘ bo‘lganligi aniqlangan.

Ma’lumki, bo‘ri - ajdod haqidagi totemistik miflar qadimgi turkiy qavmlar orasida keng tarqalgan edi.

Bizningcha, «boysun» atamasi aslida etnonim bo‘lib, «boy + usun», ya’ni «usun qabilasi», «usun yurti» degan ma’noni anglatadi. Chunki «boy»//«bay» so‘zi qadimgi turkiylar tilida «qabila», «jamoa» ma’nolarini ham anglatishi Mahmud Koshg‘ariy tomonidan e’tirof etilganligini yuqorida qayd qilgan edik.

«Usunlar qabilasi» ma’nosida qo‘llanilgan «boysin» atamasi davrlar o‘tishi bilan o‘sha qabila yashaydigan afsonaviy joyning nomiga, keyinchalik esa qahramonlik eposi syujetiga daxldor mifologik -

[1] [1] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. III jild. – Toshkent: Fan, 1963. – B.155.

afsonaviy makon atamasi—eponimga aylangan. Qoraqalpoq xalq afsonalarida Sirdaryoning quyi oqimi yoki Orolbo‘ylarida *Boysun, Jiydali Boysin, Boysin qozaq* kabi joy nomlari bo‘lganligi qayd qilingan.[1] Davrlar o‘tishi bilan Boysunning qabila atamasi sifatidagi ma’nosi unutilgan va u epik joy nomi tarzida doston syujetida saqlanib kolavergan.

«Boysin» va «Boybo‘ri» atamalari «bo‘ri qabilasi» ma’nosini anglatishi o‘zbek xalq qahramonlik eposi obrazlar tizimining shakllanishida qadimgi turkiy kavmlarning totemistik miflari ham o‘z ta’sirini o‘tkazganligini ko‘rsatadi.

“Alpomish” dostoni ming yillar qaridan bizga qadar yetib kelgan asrlar nidosi, ajdodlarimiz orzu-armonlarining shonli qo‘shig‘idir. Bu qo‘shiq shunday hayotiy haqiqat bilan yo‘g‘rilganki, u bizni bo‘lingan elning boshiga tushajak kulfatlardan ogoh etadi, faqat elga qo‘shilib esh toppish saodatini shuurimizga singdiradi. Taassubki o‘tmishda Turonzaminning asrlar davomida necha martalab chet el bosqinchilari zulmi ostida toptalishiga, turkiy qavmlar o‘rtasida birlik va hamjihatlik yo‘qolib o‘zaro ichki nizo va adovatlar sabab bo‘lgani tarixiy haqiqatdir.

Binobarin, “Alpomish” eposi faqat mubolag‘ali qahramonliklar madh etilgan hayoliy to‘qimalar majmuidan iborat emas. Balki dostonning butun mohiyati hayotiy haqiqat asosiga qurilganki, bu hayotiylik xalqning cheksiz hayolot olami va go‘zal ideallari bilan qorishib ketgan xolda namoyon bo‘lgan.

“Alpomish” eposi ajdodlarimizning bizga meros qilib qoldirgan o‘ziga xos pand-o‘giti, ibratli nasihatnomasidir. Dostonning har bir lavhasi, doston qahramonlarining qismati o‘quvchini uylashga, qissadan hissa chiqarishga da’vat etadi, kelajak nasllarni elu yurtni sevishga Ona-Vatanni e’zozlashga o‘rgatadi.

“Alpomish” eposi o‘zbek xalqi o‘tmishining badiiy qomusidir. Ushbu doston og‘zaki adabiyotning tub ma’nosini, obrazli tafakkurning buyuk vazifasini, badiiy so‘zning qudrati va o‘lmasligini ming yillardan beri isbotlab kelmoqda.

ABDULLA QAHHOR SHAXSIYATI VA IJODI IBROHIM HAQQUL TADQIQOTLARIDA

Qodirova Hamidaxon.
Navoiy davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi 1-kurs magistranti.

Annotatsiya : Maqolada o‘zbek xalqining jonkuyar fidoyisi, adabiyotimiz posboni Abdulla Qahhor shaxsiyati va ijodinining Ibrohim Haqqul tadqiqotlaridagi o ‘ziga xos talqini va tadqiqi haqida so‘z boradi.
В статье говорится об уникальной интерпретации и исследовании личности и творчества Абдуллы Каххора, страстного подвижника узбекского народа, хранителя нашей литературы, в исследованиях Ибрагима Хаккуля
The article talks about the unique interpretation and research of the personality and creativity of Abdulla Qahhor, a passionate devotee of the Uzbek people, the keeper of our literature, in Ibrahim Haqqul's research.

Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandasi, o‘ziga xos va tengsiz asarlari bilan o‘zbek adabiyotini yuksaltirish va jahonga tanitish borasida alohida xizmat ko‘rsatgan nodir iste’dod sohibidir. Shuning uchun bo ‘lsa kerak, adabiyotshunoslarimiz adib asarlariga qayta-qayta murojaat qilinganda ham, har gal yangi ifoda, poetik shakl va mazmun mutanosibligining betakror talqininga duch kelishlarini alohida ta’kidlab o ‘tishadi.

Ibrohim Haqqulning Abdulla Qahhor haqidagi qarashlari esse janrida aks ettirilgan. Adabiyotshunos olim D. Quronov esse janrini “hozirgi adabiyotda ommalashib borayotgan, bir tomondan badiiy-publisistik xarakterda ekanligi, ikkinchi tomondan, hajm e’tibori bilan turlicha ko‘rinishlarga egaligi ” bilan alohida xarakterlanishini aytadi.[141] Ibrohim Haqqulning “Abdulla Qahhorning jasorati” essesi bilan tanishar ekanmiz, olimga bu janrning mavzu rang-barangligi, muallifning subyektiv fikrlarining o‘ta erkin tarzdagi bayoni, muallif fikrining obrazli talqini va jonli tilga yaqin bo‘lishi qo‘l kelganligining guvohi bo ‘lamiz.

Ibrohim Haqqul tadqiqotlarini kuzatish asnosida adabiyotshunosning qaysi adabiy davr, qaysi adabiy muhitga mansub ijodkor haqida fikr yuritmasin, ularning el-yurt manfaati yo‘lidagi xizmatlarini adabiyot oldidagi xizmatidan baland qo ‘yishining guvohi bo‘ldik. Esse avvalida Qahhorning mashhur “Adabiyot atomdam kuchli. Uning kuchini o ‘tin yoritishga sarflamaslik kerak!” -, degan mashhur haqiqatining zamirida aslida, yurt va millat taqdiri mujassamligini o ‘ziga xos talqinini beradi. “Adabiyot taqdiri yurt va

[141] D. Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari.- Toshkent:Navoiy universiteti,2018.74-bet.

millat taqdiri bilan uzviy bog‘liq. Millat ruhi butun murakkabligi va ziddiyatlari bilan avvalo adabiyotda aks etmog‘i kerak. Millatning qalb dardlariga ham dastlab adabiyot malham topadi.Chunki xalqning yashash zavqi susaysa - g ‘ayrati susayadi.Ma’naviy-ruhiy g ‘ayrat pasaysa- fikr va tashabbus to ‘xtaydi.”[142]

Ibrohim Haqqul Abdulla Qahhorning yozuvchilik mahoratini esseda janrlar doirasida yoritishga harakat qiladi. Yozuvchining hikoyachilikdagi mahoratini O.Sharafiddinov, M.Qo ‘shjonov, U. Normatovlardan farqli ravishda timsollarning betakrorligini, takrorlanmasligini har qanday soxtalikdan, sun’iylikdan holiligida deb biladi. Adib hikoyalaridagi “har bir detal, har bir badiiy to ‘qima hayot haqiqatiga o ‘ta mos va ular inson taqdirini haqqoniy shaklda yoritishga xizmat ettirilgan”[143]ligini adibning hikoyalari misolida tahlil qiladi.

Abdulla Qahhorning esseda tahlilga tortilgan “O ‘g ‘ri”, “Bemor”, “Boshsiz odam”, “Anor” hikoyalarining haqqulono tahlili sizni beixtiyor shu hikoyalarning qayta mutolaasiga undaydi. Chunki bu hikoyalarda o ‘tmishning zamon bilan bog ‘liq nozik rishtalari davr haqiqatlarini baralla aytish mumkin bo‘lmagan davr kishilarning fojialarini yoritishga qaratilganligiga borib bog‘langan. “To‘liq ma’noda Faxriddinga monand, uningdek laqma, irodasiz, mustaqil fikrdan mahrum go ‘l kimsani, ehtimol,hayotda uchratish qiyindir. Ammo atrofga sinchkovlik bilan ko‘z tashlab, mushohada etilsa-chi? Hayronlar qolasiz…Beixtiyor, “boshsiz odam” buncha ko ‘p-a, deysiz?”[144]

Esseda Abdulla Qahhorning ijodi va shaxsiyati 3 yo ‘nalishda tahlil etilib, yozuvchi haqida aytilgan fikrlar ilmiy mulohazalar bilan boyitilgan samimiy, balanparvoz va sun’iy ta’riflardan holi tarzda baholangan.

Abdulla Qahhorning xalq va millat manfaati yo‘lidagi sa’y harakatlari;
XX asr adabiyotida roman, qissa, hikoya janri takomili yo ‘lidagi xizmatlari;
XX asr adabiy tanqidchiligi rivojidagi o ‘rni;

Shaxsiyat va ijoddagi uyg‘unlik masalalari misolida Ibrohim Haqqulning mazkur tadqiqoti qahhorshunoslikda yangicha qarashlarning shakllanishida alohida ekanligini isbotlaydi.

HAMZA LIRIK MEROSIDA SHAKLIY-USLUBIY IZLANISHLAR

Mamadaliyeva Fazilat Yoqubjonovna,
Namangan davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi erkin tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma’rifatparvar shoir Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodida ma’rifatning ulug‘lanishi, ijodining shakily-uslubiy xususiyatlari, ilm va maktabning inson hayotidagi o‘rni misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: shoir, yozuvchi, mohir pedagog, jadid, jaholat, oila, tanazzul, xurofot, ilm-ma’rifat.

Annotatoin: This article analyzes the glorification of science in the buks of the enlightened poet Hamza Hakimzoda Niiyaziy, therole of acated women in the family and society on the exemple of the poet’s ems.

Keywords: poet, writer, playwright, skillid educator, jadid, ignorance acle , family and society ,decline, superstition, heresy, science.

Ma’rifatparvar shoir, jadid Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘z ijodining salmoqli qismini xalqning “ko‘zini ochish”ga, milliy o‘zlikni anglatishga, yoshlarni ilmga chorlashga bahshida qildi.

Dunyo she’riyati hamma davrlarda ham an’anaviylikdan chekinib, yangi –yangi shakllar topishga intiladi. Lirika his-tuyg‘uning mos ritm va ohangda ifoda etilishi bilan ta’sirdorligini ko‘rsatsa-da, bu talab ijodkorning obraz tanlay bilishi bilan yanada mukammallik kasb etadi. Sababi shoir obrazda kechinmalarini, his-tuyg‘ularini huddi musavvirdek chizishga intiladi. Adabiy jarayonda ijod qilayotgan shoirlar she’riyatida mumtoz she’riy shakllar bilan birga jahon adabiyoti an’analari va ijodiy tajribalari asosida yuzaga kelgan shakliy izlanishlar, ularning kechinma tasviri bilan uyg‘unligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Eng avvalo, badiiy adabiyotda mazmunning o‘zgargani yoki shakliy izlanishlar samarasi, albatta, ijodkor yashagan davrga, zamonga ham bog‘liq jarayondir.
Chunki ijodkor mavjud tuzum ta’siridan ilhomlanadi, bil’aks ba’zi davrlarda

[142] I.Haqqul. Taqdir va tafakkur.-Toshkent:”Sharq” nashriyoti,2007,242-bet.(Keyingi iqtiboslarham shu manbadan olinib, sahifasi ko ‘rsatiladi)
[143] O ‘sha manba,248-bet.
[144] O‘sha manba, 269-bet.

“bo‘ysunadi” ham. Ijodkor o‘zidan avvalgi shoirlarning an’analarini o‘zlashtiradi va unga o‘zining qarashlarini ham singdirib boradi. Ijodkor mazmunning poetikligini unga mos shaklda ifodalab bera olishi adabiy asarning qimmati va qiymati va belgilaydi.

Ma’lumki, mumtoz o‘zbek she’riyatida she’riy bandlar masnaviy-ikkilik, musallas-uchlik, murabba’-to‘rtlik, muhammas-beshlik, musaddas-oltilik, musabba’-yettilik, musamman-sakkizlik, mustasne’-to‘qqizlik, muashshar-o‘nlik tarzida ifodalanadi.

“Musammat doirasiga kiruvchi barcha janrlar mavzuning keng talqiniga asoslanadi. Shu boisdan ham musammat XX asr boshlarida maydonga kelgan jadid she’riyatining asosiy janrlaridan biri bo‘lgan. Chunki jadid shoirlari adabiyotni tashviqot-targ‘ibot vositasi deb bildilar: o‘z she’rlarida ijtimoiy hayotning keng manzaralarini berishga, millat hayotidagi illatlarni ko‘proq ko‘rsatishga muayyan asar leytmotivini tashkil etgan g‘oyani takror-takror, har tamonlama, batafsil badiy talqin etishga urindilar. Shubhasizki, bunda musammat janrlari ularga qo‘l keldi”[1; 3].

Hamza ijodida mansuralar ham borki, bu ijodkorning ser qairra ekanligi ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda “mansura nima?” degan savolga javob topaylik. Bu atamaning o‘zagi “Mansur” so‘zidan bo‘lib, u arab tilidan o‘tib sharq olamiga tarqalgan. Mansura she’r tushunchasida mavjud qofiya, turoq, vazn baxrdan holi badiiy asardir. U o‘zbek she’riyatida 20-yillarda shakllangan sochma she’r hisoblanadi. Mansura ilk marotaba 19-asrning so‘ngi yillarida yangilanish jarayoniga kirgan arab adabiyotida “ash-she’r al-mansur”nomi bilan paydo bo‘lib, G‘arb adabiyoti ta’siridagi yosh arab shoirlari Amin ar-Rayhoniy, Jubron Xalil Jubron ijodida kuzatilgan.

Adabiyotshunos olim Begali Qosimov shunday deydi: “1917-yilda Abdurauf Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Xurriyat” gazetasida “Yurt qayg‘usi” nomi bilan bir turkum she’rlar e’lon qildi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, ularning aksaryati sochma she’rlar, Fitratning o‘zi aytmoqchi, mansuralar. Bunday tajriba adabiyotimizda ilk bor Hamza tomonidan qiling ani ma’lum”. Bundan ko‘rinadiki, ma’rifatparvar shoir nafaqat, ilm-ma’rifat, balki ijodda ham hamisha yangilikka intilgan.

Ayoz, har qancha bilsang ham oz,
Qish g‘amini yeganing ila boqarmudi
seni o‘z yonida yoz.
“Alqasos ul haq”ga munkirmusan,
Bolang oldingda turub birov bolasiga
belingni qilasan xo‘roz.
Xotuning qovuz chalur uyda ochlikdan,
Ko‘chalarda kerilib kabob osharsan qo‘shib
zira piyoz [2; 38].

Shoir bu mansuri orqali nafaqat diniy, balki dunyoviy ilmdan behabar insonlar haqida qalam tebratar ekan, unda vaqtning tez o‘tib ketishi, qarilikning g‘amini yoshlikda “yemoq” kerakligini aytadi.

Shoir ijodidagi musallaslarda ham xalq dardi, uning buguni va ertasi haqida gap ketadi. Uning “Dardiga darmon istamas” she’rida yuqoridagi she’rlari “Turkiston xalqi”ni ifodalash uchun ishlatilgan “millat” so‘zini tilga olmaydi, bu so‘zning o‘rniga “Turkiston eli”, “O‘zbek eli” atamalarini ishlatadi.

Bizni Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas.
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli, asri taraqqiy vaqtida[2; 29]

Ana shu ikki so‘z orasida butun-qism munosabati yotadi, “Turkiston eli”- hududdagi hamma ellar, “o‘zbek eli”-shu ellardan biri. Quyiroqda ijodkor “bizni ellar” birikmasini hududdagi barcha ellar ma’nosida ishlatadi.

O‘zga millat uchsalar hikmat topub bo‘yi samo,
Bizni ellar loaqal el uzra davron istamas,
Uxlama ko‘p, o‘zbek eli asri taraqqiy vaqtida.[2; 29].

Bunda ijodkor Turkistondagi hamma ellar ham nafaqat samo, “loaqal er uzra davron istamas” demoqda. Tushunchalarni bu tarzda qo‘llash Hamzaning hamon “millat” tushunchasini aniqlashtirish yo‘lida izlanayotganidan dalolat beradi. Chunonchi Turkiston xalqlarini bir so‘z bilan “millat” deb atash kerakmi yo har birini alohida “el” millat deb bilgan to‘g‘riroqmi degan masalada hali tugal fikrga kelmagan, qarashlarida chalkashlik bor. Bu esa Turkistonning mustamlaka ekanligi bilan bog‘liq holda yana kuchayadi.

Jadid shoirlari ijodida muhammas va musaddad ko‘proq, musamman va murabba’lar qisman tarqalgan. O‘zbek adabiyoti tarixida murabba’ni yuqori bosqichga ko‘targan ijodkor XIX asrda yashab ijod qilgan shoir Muqiymiydir.

“Hamza ijodida Nisoriy Namangoniy g‘azaligi bog‘langan murabba’ ham uchraydi. “Devoni Nihoniy” haqida maxsus tadqiqot yaratgan Sh. Ahmedov bu usul adabiyatga Hamza tomonidan olib kirilmaganligi, Mahtumquli adabiy me’rosida Navoiy g‘azallariga bog‘langan murabba’lar mavjudligini alohida ta’kidlaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, bu harakatni Hamzaning adbiy an’analarga navatorona munosabati natijasi sifatida baholashga haqlimiz” [1; 5].

Olg‘a, olg‘a, Nihoniy, kecha bo‘ldi kunduzlar,
Falakda ko‘rinmayur mohtob ila yulduzlar.
Vatanga molik bo‘ldi nobakor-u to‘ng‘izlar,
Oyoq ostida qoldi necha sendek dilso‘zlar [2; 56].

Hamza Hakim Niyoziy “nobakor-u to‘ng‘izlar” qo‘lida qolib, kunduzlari kechaga aylangan vatan-Turkiston uchun javobgarlikdan ogoh etadi. Harakatga da’vat atar ekan milliy ozodlik va taraqqiyni sog‘inarkan shoir vatani ertasining qayg‘usini qilayotgani ham ravshan.

Shoir qalamiga mansub murabba’larning ko‘pida mustamlaka o‘lkaning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy tutqun ahvolini buyuk bir dard bilan qalamga oladi. Jamiki millatning istiqboli ham baxti ham ilm-ma’rifatda ekanligini, shoirni qiynayotgan dard bu millatning ilmsizligi haqida qalam tebratadi.

Bo‘g‘zi sori to‘lguncha g‘aflat sharobin ichgan,
O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan.
Umid rishtasin kesub, or-u nomusdan kechgan,
Bog‘lu qo‘ling, Turkiston, nobakorlarmi chechgan [2; 56].

Insoniyat bor ekan u hamisha taqqoslashlar bilan yashaydi, shoir ham bu o‘rinda butun Turkiston elini boshqa millatlar bilan solishtiradi. Uning fikricha mustamlaka mamlakatning iqtisodiy, ma’naviy, siyosiy tutqunligi bu o‘sha mamlakatning jaholatga yuz tutganligi, ilm-ma’rifatdan yiroqda ekanligining oqibatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Afaqova N. Jadid lirikasida musammat. Toshkent.: 200. B-5.
2. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar to‘plami. Besh jildli, 1988, 2-jild.
3. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. – Toshkent, 2020-yil, 3-son, – B.18
4. Cho‘lpon va milliy she’riyatning rivojlanishi. – Toshkent, 2019.
5. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. – Toshkent , 2021-yil, 3-son. – B, 23
6. “Sharq yulduzi” jurnali. – 2021-yil 8-son. – B-77.

“ЙИЛ БОШИ ОШИ” МАРОСИМИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР

Худайқулова Латифа Авазовна
Филология фанлари номзоди
ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти катта илмий ходими

Калит сўзлар: миллий, маросим, урф-одатлар, тақвим, анъана, поэтика, фольклор, ҳудуд, оила.

Ключевые слова: национальный, церемония, обычаи, календарь, традиция, поэтика, фольклор, регион, семья.

Key words: national, ceremony, custom, tradition, calendar, poetics, folklore, region, family.

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада халқ тақвими билан боғлиқ удумлар ва унда ижро этиладиган айтимлар ёритилган.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены народные календарные обычаи и связанные с ними песни.

ANNOTATION

This article examines folk calendar traditions and songs associated with them.

Бизга маълумки, фольклор асарлари халқимизнинг миллий урф-одатлари ва расм-русумларини ўзида акс эттириши билан алоҳида ажралиб туради. Бундай ўзбек халқ оғзаки бадиий ижодининг қадимий намуналари меҳнат ва мавсум-маросим қўшиқларидан ташкил топган бўлиб, улар овчилик, чорвачилик, ҳунармандчилик, деҳқончилик каби турли меҳнат жараёнлари билан боғлиқдир. Маросим фольклорини илмий таҳлил қилишда албатта фольклоршунослик ва этнография

фанига мурожаат қилган ҳолда масалани икки томонлама ўрганиш зарур. Акс ҳолда, тадқиқот бирёқлама бўлиб қолиши таббийдир.

Анъанавий халқ тақвими ва у билан боғлиқ фольклор жанрлари ўзининг мавсумий характерга эгалиги ва функционал-таркибий тузилишига кўра баҳорги, ёзги, кузги ва қишки маросимлар фольклорига бўлиниши билан аҳамиятлидир.

Шундай маросимлардан бири *“йил боши оши”* маросими ҳисобланади. Анъанага кўра, Сурхон воҳасининг чорвачилик билан шуғулланувчи аҳолиси орасида қўлланиладиган “чорва ҳисоби” тақвимига кўра, қўй-қўзиларни қишки қўтондан чиқариб, баҳор мавсумининг бошланиши февралнинг охири – мартнинг бошларига тўғри келса-да, деҳқончилик ва чорвачилик мавсуми билан боғлиқ меҳнат фаолиятининг бошланиш муддати йилбоши тантаналари билан бевосита боғлиқ бўлган. Чорвадорлар баҳор фаслида пода, қўй-қўзиларни қўтондан чиқариб, яйловларга олиб чиқиб кетишдан аввал муллани чақириб, қўй сўйганлар ва “Чўпон ота” пири ҳақига дуо ўқиганлар [Жўраев М. 2007: 143]. Шундан сўнг чўпон белбоғига иккита нонни буклаган ҳолда боғлаб сурувни яйловга олиб чиқиб кетади. Бизга маълумки, нон инсонга ҳамроҳ ҳамда азиз егулик ҳисобланади.

Воҳа аҳолиси орасида ўзига хос қатор одатлар мавжуд бўлиб, шулардан бири чўпонлар таёқларини муборак ҳисоблашидир. Катта авлод чўпонлар ёш авлод чўпонларга ўз ўринларини бўшатиб беришларида анъанавий тарзда таёқларини топширадилар. Бу одат замирида “Устоз-шогирд” анъанаси намоён бўлади. Шунинг учун чўпонлар устозидан қабул қилиб олган таёқни кўз қорачиғидай сақлайдилар ва устозининг ишини давом эттирадилар.

Бизга маълумки, ўзбек маросимларида муҳим ўрин тутадиган мифологик персонажлардан бири «ҳомий момо» образидир. Тарихий-генетик асослари аждодлар ҳомийлигига ишониш анъанаси ҳамда қадимий мифологик инончлар тизимининг муҳим узвларидан бири – шомон аёллар руҳига сиғиниш ва ундан мадад тилаш ритуалларига алоқадор бўлган бу магик образ тўғрисидаги асотирий қарашлар ўзбек фольклорининг ўзига хослигини кўрсатувчи муҳим далиллардан биридир. Ўрта Осиё халқлари қаторида ўзбеклар анъаналари тизимида “момо культи”га алоқадор маросимлар ўз ўрнига эга бўлган. Ўзбек халқи бирор ҳайрли ишни бошлашдан олдин, албатта, “Ҳимий момо”ларга сиғинганлар. Чўпонларнинг мушкулларини енгил қилиш мақсадида тақвимий моҳиятга эга бўлган *“йил боши оши”* маросимида ҳам махсус “Бибимушкулкушод” ўтказилган.

Яна бир одат, чўпонлар қўй-қўзи, сурувни бошқа чўпонлар подаси билан аралашиб, адашиб кетмаслиги учун қўйларни қулоқларини кесиб қўядилар ёки бўлмаса қулоқларига танга тикиб қўядилар. Чўпонлар яйловда сурувни боқиб юрганларида зерикмаслик учун қўй-қўзиларни ўт-ўланлар билан озиқлантириб, воҳага хос айтим ва қўшиқларни куйлайдилар ҳамда чўпонлар муборак таёқлари билан рақсга тушадилар:

Майда-майда мол ҳайда,
Майда-ё, майда.
Даврон қурай адирда,
Майда-ё, майда.
Паст-пастгина тўбада,
Майда-ё, майда.
Пасайиблар қарайин,
Майда-ё, майда...

Бизга маълумки, баҳорда пода ва қўйлар болалайди, яъни қўзилайди. Янги туғилган қўзичоқларни эрта баҳорда барра қиладилар. Изоҳ ўрнида айтиш мумкинки, халқимиз эрта баҳорда қир-адирларга чиқиб, ўт-ўланларда дам оладилар ва янги туғилган қўзичоқ гўштидан “барра гўшти” деб номланган миллий таом тайёрлайдилар ва йиғилганларга тортиқ қилинади. Шу одат халқимиз орасида “барра қилиш” деб аталади. Табиат қонунлари билан боғлиқ бу ачинарли одат туфайли боласини ололмаган, боласидан ажралган қўйларга, яъни она совлиқларни соғиш пайтида сут соғувчи томонидан ҳамдардлик билдирилган. Қўшиқда қўйга ачиниш туйғуси ифодаланса-да, уни ҳар хил ширин сўзлар билан мақташга ҳаракат қилинади ва қуйидаги қўшиқ куйланади:

Жонивор турей, тур-турей,
Жона жойда жотгансан,
Турей, тур-турей.
Отим, молим гўзалим,
Турей, тур-турей.
Қўй олдидан келасан,
Турей, тур-турей.
Болалилар бўласан,

Турей, тур-турей.
Бўлмай қайга борасан,
Турей, тур-турей.
Чор ёнигда тургансан,
Турей, тур-турей.
Келаси йил болалайсан,
Турей, тур-турей.
Эсларингдан чиғади-ё,
Турей, тур-турей.
Эсли молим, оқилим,
Турей, тур-турей.
Елкамдаги кокилим,
Турей, тур-турей.
Шунча молнинг ичида,
Турей, тур-турей.
Боғда очилган гулим,
Турей, тур-турей...

Бу кўринишдаги айтимларда чорвадорлар қўйларга нисбатан эркалама сўзларни қўллайдилар, дардларини енгиллиштирадилар. Тезроқ вақт ўтиб, кейинги йилларда яна қўзилашини ҳамда қўзичоғидан ажрашиш азобидан қутилишини ният қиладилар.

Воҳа чўпонлари подаларни ўт-ўланлар билан озиқлантириб, елимларини сутга тўлдириб, қўраларига эниб келганларидан кейин уларни сутини соғиб олиш ва сутидан ёғлар олиш мақсадида яхши ният қилиб, елимини соғишда эса яна бир ўзига хос айтимни ижро этадилар. Қўшиқ равон ва текис оҳангда чўзилиб айтилади. Бу ритм сигирни тинчлантириш, уни ийдириш ва кўпроқ сут соғиб олишга ёрдам беради. Соғиш пайтида сигир баъзан безовталанади. Баъзи ҳолатларда бузоқчага илиниб сут бермайди. Шундай пайтда бузоқни сигир олдига олиб келиб. Соғувчи бузоқчани четроққа тортиб қўйиб, сигирни эркалаб, эмишга қўяди. Шундан кейин она сигир ийиб кетиб, сутини қизғанмайди мақтаб, силаб, майин овозда қўшиқ айтган ва сигир бу меҳрни ҳис қилган. Вақт ўтиши билан сигир қўшиқ оҳангига ўрганган:

Ҳўшим молим говмишим,
Эмчакларинг совмишим,
Оралаб единг ўтингни,
Ийиблаб бергин сутингни.
Сени сийлаб боқайин,
Кўзмунчоқлар тақайин,
Қуралай кўз говмишим,
Туёқлари кумушим.
Зотли молим ҳўш - ҳўш,
Сутли молим ҳўш - ҳўш [Мадаев О. 2010.146].

Соғиш пайтида соғувчи сигирга қарата “қуралай кўз”, “кўзмунчоқ”, “туёқлари кумушим” каби эркалама сўзларни ишлатган. Аммо сигир бу сўзларни маъносини тушинмайди, лекин қўшиқ ижроси давомида товуш товланишининг, оҳангнинг ҳайвонларга ижобий таъсир кўрсатишига ишонган.

Чапдинг ўтингди-ё, ҳўш-ҳўш,
Еткаргин сутингди-ё, ҳўш-ҳўш,
Гова-гова совайин-о, ҳўш-ҳўш,
Чойлардайин чархингди-ё, ҳўш-ҳўш,
Қайратмағин оғзини, ҳўш-ҳўш,
Қорагина кўзингди-ё, ҳўш-ҳўш,
Олайтмағин менга-ё, ҳўш-ҳўш,
Еткаргин-о сутингди-ё, ҳўш-ҳўш,
Гуппа-гуппа пишайин-о, ҳўш-ҳўш,
Кубилардан лўнда-лўнда, ҳўш-ҳўш,
Мойингди олайин-о, ҳўш-ҳўш,
Қоринларга солайин-о, ҳўш-ҳўш,
Қоринларни айронлатиб-о, ҳўш-ҳўш,
Қуритингни жийрайин-о, ҳўш-ҳўш... [Инв. № 1833: 57]

Соғувчи сигирни соғиб бўлганда подачи “ошала” деб келади. Ҳамма йиғилганлар подачига топган-тутганини берадилар. Орада бир киши:*“Эй кадингга шомар, эй подачи корманачи, қўлтиғингда чоначи, чоначингни ит жесин, қўлтиғингни бит жесин, сийирларди говхонага қамаб қўй, бугун сийирларди ўнглатмасак, ма, олей битта қурут берай”*- деб подачининг отига атаб тўртта қурут беради. Бундан кўриниб турибдики, ўзбек халқи жуда саҳий, кўнгли очиқ ва саховатлидир.

Воҳанинг халқ тақвимига кўра, “ҳамал ойи - амал ойи” деган иборага кўра бу ойга нисбатан деҳқончилик ишлари қизғин бошлаб юбориладиган давр деб қаралади.

Тақвим фольклори кишиларнинг меҳнат фаолияти, чорвачилик, деҳқончилик хўжалигини юритиш анъаналари билан чамбарчас боғлиқдир. Тақвим фольклори бадиий сўз санъати намунаси сифатида эстетик функция бажариши билан бир қаторда утилитар-магик вазифани ҳам адо этади. Тақвим фольклорининг “Ё рамазон” жанри барча вилоятларда кенг тарқалган бўлиб, Сурхон воҳаси аҳолиси орасида “Ё рамазон”, “Ё раббиман”, “Мои рамазон” каби номлар билан аталади.

Одатда, рўзани учинчи куни кечқурун “рамазончилар” уйма-уй юриб қўшиқ айтишган. “Ё рамазон” қўшиқларини хонадон соҳибларига эзгу тилакларни ифодаловчи:

Рамазон айтиб келдик эшигингизга,
Худойим ўғил берсин бешигингизга.
Отини Юсуф қўйинг,
Чўчоғини кесиб қўйинг.
Ўчоғингиз тўла кул бўлсин,
Топганингиз пул бўлсин.
Тарвуздайин таноп от,
Ошадидай гуллаб ёт.
Янга, тезроқ чиқаринг танга!

Ёки:

Раббиман айтиб келдик уйингизга,
Рўзани уч кун тутиб келдик сизга.
Рўзанинг закотини беринг бизга,
Рўзага сўйган қўйнинг гўшти қани.
Гўшти бўлмаса тўшти қани,
Бой бобом ётибди хурра-хурра.
Бойбичча холам ётибди карра-карра,
Сурпани ит тортаяпти тарра-тарра.
Раббиман, ё раббиман, ё рамазон... [Инв. № 1833: 34-35] каби намуналарида кузатамиз.

Айтимда келтирилган *“тарвуз, ошкадининг гули”* бирикмалари серҳосиллик, пишиқчилик, серфарзандлик ғояси билан боғлиқ халқ қарашларини ўзида ифода этган. Маълумки, шафтоли ва ошкади кўп мева берадиган, айни пишиқчилик даврида пишиб етиладиган ўсимликлар сирасига киради. Шунинг учун “рамазончилар” хонадон эгасига фарзандли бўлиб, фарзанди вояга етганида турмуш қуриб, ўзидан кўпайиб серфарзанд бўлиши ҳақидаги эзгу истак бадиий ифода этилган. Рамазончилар хонадон эгаларига нисбатан хазил мутойиба қилиб, маросимни қизиқроқ тусга келтиради.

Хонадон эгалари рамазон айтувчиларга танга, пул, қанд-қурс, ширинлик ва бошқа нарсалар чиқариб беришгач, “рамазончилар” уларга қут-барака, фаровонлик тилаб, уларни дуо-фотиҳа айтимлари билан алқаганлар. “Раббиман” маросимидан йиғилган маҳсулотларни рамазончилар маҳалла оқсақолларига топширганлар ва тоза кенг яйловларда, тоғ-ён бағирларида худойи қилиб, ҳатми қуръон ўқиганлар. Бу маросимда ширбиринч, ялма, гўжа, гунгина, кўча таомлари тайёрланган ва йиғилганларга тортиқ этилган.

Сурхон воҳасида истиқомат қилувчи деҳқонлар ой ва қуёш ҳаракати, юлдузларнинг осмон гумбазидаги жойлашувига қараб мавсумий маросимлар муддатини, шунингдек, дала ишларини бажариш вақтларини аниқлаганлар. Янги ой чиққанда унинг ҳолатига қараб яқин вақт об-ҳавоси қандай бўлишини тахмин қилишган. Шу боис, халқ орасида янги ой чиққанда айтиладиган турли хил айтимлар яратилган:

Ой чиқибди омонлик,
Ҳеч бўлмасин ёмонлик.
Агар бўлса ёмонлик,
Ўзинг қилгин омонлик.

Баъзи жойларда эса мазкур айтим *“Оғирлигим ерга, енгиллигим ўзимга, мен тинч, ой нотинч”* шаклида ифодаланувчи ритуал якунланма билан қўшиқ ижро этилади. Чунки янги ой чиққанда

айтиладиган бундай айтимлар муайян магик-ритуал аҳамият касб этган ва одамлар шу матнни ижро этиш орқали ой бўйи ўзларига сиҳат-саломатлик, уй-рўзғорига барака ато этилишига ишонишган.

Айни ҳодисани тақвим билан боғлиқ мақол ҳамда тўй маросимига оид олқиш матнини ягона поэтик контекстда ижро этилишида ҳам кўрамиз. Ҳижрий-шамсий тақвимга кўра, ҳут ойи об-ҳавосининг қандай келиши чорвачилик ва деҳқончиликка муайян таъсир ўтказган. Шунинг учун халқ орасида "Яхши келса ҳутни кўринг, кади-кади сутни кўринг", "Ёмон келса ҳутни кўринг, серрайиб қолган путни кўринг" тарзидаги кўплаб мақоллар мавжуд.

Бу айтимни ижро этиш орқали, ижрочилар йилбоши арафасидаги ҳут ойининг сифатларини баён этишга ва шу орқали, ҳутнинг яхши келиши – йилнинг баракасидан нишона эканлигини тараннум қилиш ғояси мужассамлашган.

Хулоса қилиб айтганда, ўзбек фольклоршунослигида этнофольклористик йўналишнинг ривожланиб бораётган бир пайтида кўпгина урф одат, маросимлар, улар таркибидаги вербал компонентлар унутилиб, этнофольклорий жараённи сўниб боришини олдини олиш ва унутилиш арафасига келиб қолган жараёнларни илмий тадқиқ қилиш бизнинг келгуси ишларимиз мазмунини ташкил этади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

Жўраев М. Наврўз қўшиқлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.143
Мадаев О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. –Тошкент: Мумтоз сўз нашриёти, 2010. Б. –146.
ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 1833. –Б .57.
ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 1833. –Б .34-35.

O‘QUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI.

Suyunov Husniddin,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Navoiy davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, og‘zaki va yozma nutqlarini o‘stirishda hamda imloviy savodxonligini takomillashtirishda essening ahamiyati katta ekanligi bayon etilgan. Shuningdek, essening tarbiyaviy ahamiyati, so‘z birikmasi va gap ustida ishlash, lingvistik baza, bog‘lanishli nutqning lingvistikaga asoslanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: So‘z, nutq, mustaqil fikrlash, imloviy savodxonlik, esse, tarbiya, gap, matn, lug‘at, savol.

ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРАВОВОЙ ГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ.

Аннотация. В данной статье утверждается, что эссе имеет большое значение для развития самостоятельного мышления учащихся, устной и письменной речи, повышения орфографической грамотности. Также показана воспитательная значимость сочинения, работы над словосочетаниями и предложениями, лингвистической основой, языковой основой связной речи.

Ключевые слова: Речь, речь, самостоятельное мышление, орфографическая грамотность, эссе, образование, предложение, текст, словарный запас, вопрос.

WAYS TO INCREASE STUDENTS' SPELLING LITERACY.

Abstract. In this article, it is stated that the essay is of great importance in developing students' independent thinking, oral and written speech, and improving spelling literacy. Also, the educational significance of the essay, work on word combinations and sentences, linguistic base, and the linguistic basis of connected speech are shown.

Key words: Speech, speech, independent thinking, spelling literacy, essay, education, sentence, text, vocabulary, question.

Bilimli, yuqori darajada salohiyatli, oqimishli, dunyoqarashi keng, har tomonlama yetuk, o‘z mustaqil fikriga, o‘z mustaqil g‘oyasiga ega bo‘lgan yoshlar mamlakatimiz kelajagidir. Har bir mustaqil fikrli, ma’naviyatli, o‘zining xolis fikriga ega inson kelajagini buyuk qilib yarata oladi. Uning oldida aniq maqsadlar, ulkan rejalar qo‘yiladigan qadami uchun mustahkam poydevor turadi.

Og‘zaki va yozma nutq o‘stirish nima? Agar o‘quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko‘zda tutilsa, nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi.

Nutqni egallashning qator usullari mavjud. Bular :
1.Adabiy til me'yorlarini o'zlashtirish. Maktab o'quvchilarini adabiy tilni sodda so'zlashuv tilidan, sheva va jargosidan farqlashga o'rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy so'zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.
2.Jamiyatimizning har bir a'zosi uchun zarur bo'lgan muhim nutq malakalarini, ya'ni o'qish va yozish malakalarini o'zlashtirish. Bu bilan o'quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og'zaki so'zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.
3.O'quvchilarning nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning manba shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi, o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Bu, avvalo, bilim nuqtayi nazaridan, savodxonligidan, go'zal fikrlashidan, nutqiy so'zamolligidan bilinib turishi kerak. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchiga malaka ko'nikmasini shakllantirib berish, keng mushohadali fikrlashga o'rgatish, chiroyli, aniq, qisqa, ma'noli, mazmundor gaplar, so'z birikmalari yaratishga yordam berish lozim. O'quvchi chiroyli fikrlasagina chiroyli, mantiqqa boy jumlalar yarata oladi. Chunki, har kim o'z fikri nuqtayi nazaridan kelib chiqib jumla tuzadi, matn yaratadi. O'quvchi tuzgan gaplarida, qo'llagan birikmalarida, iboralarida ma'nodosh, shakldosh, paronim, zid ma'noli so'zlarni ishlata olishi, imloviy, uslubiy, ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'ymasligi kerak. Bu jarayonni mustaqil fikr asosida yaratgan ijodiy ishlar: insho, esse, bayon kabilar bilan shakllantirish, mustahkamlash, boyitish mumkin.

Xo'sh, esse o'zi nima? U boshqa ijodiy ishlardan nimasi bilan farqlanadi?
Bu savollarga javob berish uchun biz "Esse" so'ziga to'xtalamiz. Uning ma'no belgisi nimada ekanligiga, o'quvchiga fikrlash jihatidan qanday yordam berishiga to'xtalib o'tamiz. "Esse"- bu fransuz tilida "essai"- "tajriba", ingliz tilida "assay"- "intilish", "ijodiy sinov", lotinchada "o'ylash" degan ma'noni bildiradi. Esse inshodan farqli bo'lib, unda reja tuzilmaydi, fikrlar jamlanib, kirish qismi, asosiy qism, xulosa shaklida yoritiladi. Har bir esse muallifi mustaqil fikrlari asosida ijodiy yondashadi. Mustaqil fikrlarini, berilgan mavzu bo'yicha yoritib, bu fikrlarni qo'llashi yoki qo'llamasligini bemalol yoza oladi. Xulosa chiqarib, teran fikr qiladi. Hayotiy dalillar keltiradi, asoslab beradi.
Yozgan fikrlarini dalillash uchun kirish so'zlar, kirish birikmalar, aforizmlar, xalq maqollari, iqtiboslar, hayotiy dalillar keltira oladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchining husnixatiga, imlosiga, so'z qo'llash uslubiga ijobiy yondashuv bo'ladi. Insho yozishda esa o'quvchi ma'lum bir mavzuni, o'qilgan badiiy asarni,
yoki bo'lmasa, biror tanlangan erkin mavzuni yoritadi.

Esse – qisqa hikoya, ocherk hisoblanadi. Umumiy qo'llangan so'zlar miqdori 200-250 ta bo'lishi ham uning ixcham so'zda keng ma'no ekanligini isbotlaydi.
Esse yozishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:
1)so'z ustida ishlash.
2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash.
3) bog'lanishli nutq ystida ishlash.
So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, hayot ko'nikmalari va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.
Ko'rsatilgan uch yunalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, zo'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli esse lug'atini boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.
Maktabda o'quvchilarni esse ustida ishlashga o'rgatishda ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Esse ustida ishlash faqat ona tili va adabiyot darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Bog'lanishli nutq tugallangan mazmunni ifodalaydigan mantiqiy va grammatik qoidalar asosida tuzilgan mustaqil va o'zaro bog'langan ma'noli qismlarga bo'linadigan nutqdir. Maktab sharoitida bog'lanishli nutq birligi o'qituvchi bergan savollariga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobi, yozma bayonni, insholari va esselari hisoblanadi.
Esse kichik og'zaki axborot va emasional hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga o'quvchi shaxsining kamol topishiga xizmat qiladigan, ta'limiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy hayotiy ishga aylanadi. Esse shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikga, fikrlashga, ko'rgan kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, voqea – hodisalar o'rtasidagi sabab natija bog'lanishini topishga, ularni qiyoslashga xulosa chiqarishga o'rgatadi. Esse fikrni tartibga soladi, o'quvchilarda o'ziga, o'z kuchiga va imkoniyatiga ishonch tug'diradi.

Esse o‘quvchilardan faollik, qiziqish fikr bildirishni, talab qiladi. Material tayyorlash uni tartibga solish, o‘ylash mantiqiy bog‘lanishini belgilash, so‘z birikmasi tanlash, gap tuzish va uni o‘zaro bog‘lash, imloni tekshirish, bu barcha ishlar o‘quvchidan aqliy kuchni to‘la ishga solish bilan birga, o‘z ma’naviy faoliyatini boshqarish kunikmasini talab etadi. Esseda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo‘shiladi.

Esse ustida ishlashga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushinish va yoritish, hayotiy material to‘plash, uni tartiblash, mazmunga mos bo‘lgan til vositalaridan foydalanish, yozgan essesini takomillashtirish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bundan tashqari, esseni yozishda matnni qismlarga bo‘lish, xat boshidan boshlash, hoshiyaga, imlo va xusnixat qoidalariga rioya qilish kabi talablarga amal qilinadi.

Essening tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda esseni muntazam o‘tkazib borish bilan o‘quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil esse o‘quvchilar faolligini o‘stiradi.
2. Esseni hayot bilan bog‘lash. Bunda kuzatishlar asosidagi esse, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan hayotiy yozma ma’lumot berish kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta.
3. Esse uchun maktab va o‘qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos bo‘lgan mavzu tanlash. Bunday mavzularga davlat tili haqidagi, kishilarning maqtovga loyiq ishlari haqidagi, axloqiy muammolar, Vatan haqidagi mavzular kiradi. Mavzuni o‘qituvchi maktab sharoiti va o‘z sinfi o‘quvchilarining xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlaydi.

Esse yozish jarayonida o‘quvchining savodxonligi ham rivojlanadi. Chunki har bir ishlatilgan so‘z, yangi ma’no, yangi fikr, yangicha yondashuv o‘quvchini bilim jihatdan charxlaydi. Imloviy xatoliklarga yo‘l qo‘ymaslikka, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llashga undaydi.

Esse yozishda kirish so‘zlardan o‘rinli foydalanish lozim. Har bir kiritmalar o‘rniga ko‘ra vergul bilan ajratiladi. Agar kirish birikma qo‘llansa, u kengroq bo‘lib, ko‘pincha gapning boshida yoki o‘rtasida qo‘llanadi.

Esse yozishdan ko‘zlangan maqsad – o‘quvchining tushunchasi asosidagi fikrini shakllantirish, nutq jarayonini boyitish, mustaqil fikrga o‘rgatish, tilimizdagi qator so‘zlar ma’nodoshlarini topa olish, imloviy jihatdan xatosizlikka erishish.Til unsurlaridan o‘rinli foydalanib, o‘z mustaqil fikrini bildirgan o‘quvchi mavzuda qo‘yilgan muammolarni erkin tarzda yecha oladi. Bu o‘z o‘rnida kelajakda hayot qiyinchiliklarini yenga olishga, hayotda uchragan hodisalarga befarq bo‘lmaslikka undaydi. O‘quvchilar esse yozish bilan birga hayotga munosabat bildira oladi. Mavzuni, unda qo‘yilgan muammoni yechish uchun badiiy asarlarga, hikoyalarga, she’riyatga murojaat qiladi. Bu holat o‘quvchini diqqatini jalb qilishga, izlagan so‘zini topishga, uning ma’nodoshini qidirishga undaydi. Bu jarayonning borishi savodxonlik rivojini keltirib chiqaradi.

Demak, maktablarda ona tili fanlarida ko‘proq esse yozish lozim. Esse yozish ijodkorlik bilan birga, fikr rivojlanishini, mantiqiylikni, savodxonlikni, mustaqil tushuncha bildira olishni, o‘z ustida ko‘proq ishlashni ta’minlaydi.

O‘quvchiga “Mening go‘zal hayot haqidagi o‘ylarim”, yoki “Haqiqiy baxt nima?” mavzularida esse yozish topshirig‘i berilsa, bola, albatta, esseni yozishga kirishishdan avval fikr yuritadi. Hayotidagi, yon-atrofidagi insonlar, ularning hayot yo‘li, qiziqishlari, yashash tarzini ko‘z oldidan o‘tkazadi. Qay biri baxtliroq? Nega unisi? Menimcha boylik baxtmikin? Halollik, halol yashash – baxtmi? Biz oilamiz bilan qaysi jihatdan ulardan ko‘ra ustunmiz?. Balki, baxt tinch hayot kechirishdir? Mashinaning markasi boshqalarning mashinasidan ustun turishi- baxtdir, go‘zal hayotdir? - degan qator savollar uning butun vujudini, miyasini, fikrlarini qamrab oladi. Bu fikrlar girdobida esseni yozish uchun kerakli so‘zlarni jamlay boshlaydi. U so‘zlar jamligini eng noyobini, doimiy neytral so‘zni emas, uning ma’nodoshini izlay boshlaydi. Albatta, men, menimcha, mendagi, mening fikrimcha, shunday fikrdaman, shunday o‘ylayman, shu qarorga keldim, mening xulosam shuki kabi so‘z va birikmalardan foydalanadi. Bu o‘quvchining kirish so‘zlar va kirish birikmalarga e’tibor bilan qarashini ta’minlaydi.Yoki hikoya jarayonida hayotiy misollar keltirishi lozim bo‘lsa, ko‘chirma gaplarga, muallif gapiga, undagi tinish belgilariga alohida e’tiborli bo‘ladi. Chunki, ko‘chirma gaplarda, aforizmlarda, maqollar va matallardan namunalar keltirishda tinish belgilari e’tibor talab qiladi. Ikki nuqta, vergul, tire, chiziqcha, qo‘shtirnoq, nuqta – kabilar.

“Haqiqiy baxt nima?” mavzusini yoritishda bir qator so‘zlar qo‘llash mumkin.

Hayotni “go‘zal” demasdan “totli”, “sevimli”, “osuda” deyish ham mumkin. Yoki “baxt” so‘zini ham o‘rni bilan “chiroyli yashash”, “tinch hayot”, “sog‘lom

turmush” kabi so‘zlar bilan almashtirib qo‘llash mumkin. Har qanday ijodiy ish mashqlar natijasida sayqal topadi, rivojlanadi, o‘qishli bo‘ladi. Maktab darsliklarida ko‘proq kichik-kichik hikoyatlar, hadislar, buyuklar pand-nasihatlaridan namunalar berib borish kerak. O‘sha berilgan hikoyani, hadisni o‘qib, bola xulosa qiladi. Qolaversa, ko‘zi bilan ko‘rgan yozuvida, o‘qigan jumlasida berilgan so‘z va so‘z birikmalarida, gaplarda o‘quvchi hech qachon xato qilmaydi. Shuning uchun darsliklarda matnlar berilgan joyda ko‘proq amaliy mashq qilish, nutqiy faollikni oshirish, nutq tezligini oshirish, ifodali o‘qish jarayoniga amal qilish kerak.

Shunda biz ko‘zlagan maqsadlarga erishamiz. Ifodali o‘qish mashqi o‘quvchi uchun juda foydali hisoblanadi. Bunda ham so‘zni yodda saqlaymiz, ham ifodali o‘qiymiz ham ko‘ramiz. Shu so‘z xotirada qoladi.

Tilimizda bir qator so‘zlar bor. Ulardan har doim o‘z o‘rnida foydalansh lozim. Agar so‘zlarni to‘g‘ri tanlay olsak, uslubiy jihatdan ham xatolik bo‘lmaydi. Ma’nodoshlikning asosiy ko‘rinishi ham shunda aslida.

Masalan, [**kulmoq**] fe’lining bir qator ma’nodoshlari bor. Bu so‘z esa dominant so‘z hisoblanadi. E’tibor qiling. [jilmaydi, iljaydi, tirjaydi, irshaydi, xandon otdi, miyig‘ida kuldi, og‘zi qulog‘iga yetdi] Bunday so‘zlar uslubiy jihatdan farq qiladi. Har biri o‘ziga xos salbiy va ijobiy bo‘yoqdorlikka ega. [Iljaydi, tirjaydi, irshaydi] kabi so‘zlar salbiy bo‘yoqdorlikka ega bo‘lib, ko‘proq so‘zlashuv va badiiy uslubga xos.

O‘quvchi esse yozishda gap qurilishiga ham ahamiyat berishi lozim. Matn yaratishda sodda va qo‘shma gaplarning o‘rni muhim. Sodda gaplar tuzilishi, grammatik asosi, gap bo‘laklarining joylashish o‘rniga ko‘ra ham farq qiladi. Agar gap darak gap, so‘roq gap, buyruq gap tarzida aks etadigan bo‘lsa, ma’lum tinish belgilari bilan farqlanadi. Gaplarda inversiya hodisasi yuz berishi mumkin. Ya’ni, ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, holning o‘rni almashinib qoladi. Aslida bu she’riyatda, badiiylikda ko‘proq aks etishi kerak. Mustaqil fikr asosida yozilgan ijodiy ishda ham gap qurilishi o‘zgarishi mumkin.

Masalan, [Hovliga ikki bolali ayol kirib keldi] gapi berilgan. Agar bu gapda ma’lum o‘rinda to‘xtam bilan aytilsa, gap qurilishi va mazmun o‘zgaradi. [Hovliga ikki // bolali ayol kirib keldi]. Birinchi gapda ikkita bolasi bor bir ayolni tushunamiz. Ikkinchi gapda esa hovliga bolasi bor ikkita ayol kirib kelganini tushunamiz. Demak, ohang (intonatsiya) gapning nafaqat tuzilishini, balki mazmuniy-hissiy yo‘nalishini ham o‘zgartiradi.

Tilimizda nafaqat so‘zlar, balki iboralar ham keng qo‘llanadi. Ibora til boyligi hisoblanib uning jozibasini oshiradi. Tinglovchi yoki o‘qiyotgan kishi uchun tushunarli birlik bo‘lib xizmat qiladi. Chunki, iboralarda ham xuddi so‘zlardagi kabi o‘zaro zid ma’nolilik, omonimlik (shakldoshlik), sinonimlik (ma’nodoshlik) mavjud.

Masalan, [Labi labiga tegmaydi. Juda tez va ko‘p gapirmoq]

[Labini tishlamoq. Kutilmagan hodisaga duch kelib, nima deyishini bilmay qolmoq. O‘xshashi: tilini tishlamoq]

[Xamirdan qil sug‘urganday. Oson]

[Yog‘ tushsa, yalaguday. Toza. Oyoq bosishga tortinasan.Toza]

[Boshi osmonga yetmoq. Og‘zi qulog‘ida. Xursand bo‘lmoq]

[Yuragiga qil sig‘maydi. Dili xufton bo‘lmoq. Sertashvish. Ishi yurishmagan kabi ma’nolarda qo‘llanadi.]

Iboralar ma’nosi so‘zga tenglashganiligi uchun bemalol og‘zaki va yozma nutqda qo‘llash mumkin. Bunda mazmunga va fikriy mantiqqa hech qanday putur yetmaydi. Bunda gap qurilishi boyiydi , mantiqiy bog‘lanish bo‘ladi , mazmun tushunarli bo‘ladi.

Esse yozish qoidalariga to‘liq amal qilgan holda o‘quvchining savodxonligini oshirish, imloviy, ishoraviy, uslubiy jihatdan uning ko‘nikmalarini boyitib borish lozim. Shundagina maqsadga muvofiq tarzda savodxon, bilimli mustaqil holda o‘z fikrini yoritadigan, kelajakda hayot sinovlariga bardosh bera oladigan, o‘ziga ishonchi baland mukammal shaxsni tarbiyalay olamiz. Bu faqat ijodkorlikda emas, nutq jarayonida, teran fikrlashda aks etib turishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. Toshkent, “O‘zbekiston nashriyoti”, 2020-yil.
2.O‘zbek tili me’yorlari (punktuatsiya). Toshkent, “Zamin nashr”, 2021-yil.
3. Karimov B. So‘z xiyoboni. Toshkent, “Fan”, 2020-yil
Tolipova R. Ona tili o‘qitish muammolari // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2010. – № 1. – B. 3-12.
Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, O‘zME 2013-yil.

ЎРТА ОСИЁ ХАЛҚЛАРИНИНГ ЭТНОМАДАНИЯТИ ВА ИРИМ-СИРИМЛАР ХУСУСИДА

Турсунова Насиба
Навоий давлат педагогика институти
Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация. Ушбу мақолада Ўрта Осиё халқларининг оилавий-маиший маросимлари фольклори бадиий талқини хусусида илмий назарий таҳлилар асосланган.

Калит сўзлар*: маросим, фольклор, жанр, культ, ёвуз, ғойиб, илоҳий.*

Annotation. This article was created on the basis of the scientific theoretical analysis of the folklore of the peoples of Central Asia and the artistic interpretation of family rituals.
Key words: ritual, folklore, genre, cult, evil, disappearance, divine.
Аннотация. В данной статье основана на научно-теоретическом анализе фольклора и художественной интерпретации семейных обрядов народов Средней Азии.
Ключевые слова: ритуал, фольклор, жанр, культ, зло, исчезновение, божество.

Аждодларимиз томонидан амал қилиниб келинган бола туғилиши билан боғлиқ урф-одатлар ҳам Ўрта Осиё халқлари оилавий-маиший маросимлари фольклорининг қадимий қатламини ташкил этади. Чунки бола туғилиши билан алоқадор маросимлар таркибида қадимги мифологик тасаввурлар, магик инончлар, анимистик ва тотемистик қарашлар билан бир қаторда аждодлар ҳомийлигига ишониш анъанасининг излари ҳам сақланиб қолган. Халқимиз томонидан яратилган маросим фольклори жанрлари тизимида бола туғилиши ва бешик тўйи билан алоқадор удумлар, ирим-сиримлар, расм-русумлар, айтимлар, қўшиқлар, олқиш ва магик тасаввурлар муҳим ўрин тутади. Этнограф ва фольклоршунослар Троицкая А.Л. Снесарев Г. Фирштейн томонидан оилавий-маиший маросимлар фольклоридаги расм-русумлар, урф-одатлар, халқнинг қарашлари ҳамда эътиқодий инончлар маълум даражада ўрганилган.

Ўзбек фольклорида Анбар она, биби Фотима ва Анака момо, Тувгич момо каби персонажлар доя момолар пири деб талқин қилинади. Ҳомила туғилаётган пайтда аёл эсон-омон туғиши учун доя момолар: "*Менинг қўлим эмас, Анбар онамнинг қўли, Анбар она қўлласин!*" – деб ҳомий кучлардан мадад сўраганлар. Анбар она культи ва у билан боғлиқ халқ қарашлари Г.П.Снесарев, В.Н.Басилов, О.Сафаров каби олимларнинг асарларида атрофлича таҳлил қилинган.

Демак, бугунги кун фалсафасида ҳам момоларга, аёлларга бўлган эътибор, эътиқод ва ишонч тушунчаларининг улуғланиши қадимдан анъана сифатида қаралиши бежиз эмаслигини белгилайди.

Вақти соати билан роса тўққиз ой давомида она қорнида ривожланган бола дунё юзини кўради. Чақалоқ дунёга келгандан сўнг биринчи бор уйга олиб келганда, ўзидан катта опа ёки акаси бўлса чақалоқнинг оёғи кўрсатилади, негаки чақалоқдан куймасин, қизғанмаслиги учун ирим қилинади. Аслида болани юзини эмас оёғини кўрсатиш анъанаси кўз тегиши билан боғлиқ мифологик тасаввурлар таъсирида шаклланган. Чилласи чиқмаган чақалоқ кеч пайти ҳеч қаерда чиқарилмайди. Мабодо кеч тушганда бирон жойга олиб чиқилса, кўкрагига нон қўйилади. Нон-ризқ ҳисобланиб, ризқи билан кетсин, болою-қазодан асрасин, йўлдош бўлсин деган мақсадда ирим қилинади. Ноннинг ёвуз руҳлардан асраши тўғрисидаги мифологик тасаввурлар ўзбек халқида кўп учрайди. Қадимда озиқ – овқатнинг танқислиги сабабли нон камёб бўлган ва ўзининг сакрал моҳиятини шакллантирган. Шунинг учун нон илоҳий моҳият касб этади деган қарашлар шаклланиб, халқимиз орасида нонни тутиб қасам ичиш, болларнинг ёстиғи остига нон қўйиш анъаналари шаклланган. Қадимдан аждоларимиз культи бўлган, диний хурофот сифатида қаралган ирмлар ғойиб олам ва замин олами билан боғланганлигини тақозо этади.

Бола дунёга келгач "чилла" даври бошланади. "Чилла" даври иккига, яъни "катта" ва "кичкина" чиллага бўлинган бўлиб, бу даврда **"***исм қўйиш", "бола қулоғига азон айтиш", "болани чўмилтириш", "ит кўйлак ва чилла кўйлак кийдириш", "чақалоқнинг беш, етти, тўққиз кунлигини ўтказиш", "чақалоқни турли зиёнлардан асраш ритуаллари", "чақалоқни кўз-суқдан сақлаш удумлари", "чақалоқнинг киндиги тушиши", "чилла сочини олиш", "чилла тирноғини олиш" ва "бешикка солиш"* каби удум ҳамда маросимлар бажарилган.

Навоий вилояти аҳолиси орасида кўп учрайдиган иримлардан бири − кун ботган вақтда чақалоқни кийими далада қолдирилмайди. Қолдирилса, бола учинади, чилла тушади, оғринади, деб ҳисоблайдилар. Чилласи чиқмаган боланинг кийимини уйдан ташқарида қолдиришнинг тақиқланиши ҳам ўзига хос мифологик моҳият касб этади. Халқимизда ёвуз кучлар тунда дохл бўлишига ишониш билан боғлиқ тасаввурлар мавжуд. Туркий мифологияда тун демоник кучларнинг фаоллашиш вақти сифатида қаралади. Жанубий Хоразм ўзбекларида бола туғилиши билан боғлиқ инончларни ўрганган Л.А.Фирштейн тадқиқотида ҳам янги кўзи ёриган аёлларнинг бир-бири билан кўришишлари тақиқланганлиги, кўришса, чилла тушади деб ирим қилиниши ҳақида маълумотлар келтирилади[145].

[145] Фирштейн Л. А. О некоторых обычаях и поверьях, связанных с рождением и воспитанием ребёнка у узбеков Южного Хорезма // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – Москва, Наука, 1978. – С.192.

Фольклоршунос Л.Худойкулова тадқиқотларида эса, Сурхондарё ўзбеклари орасида янги кўзи ёриган оналарнинг чилла даври ва у билан боғлиқ иримлар борасида тўхталиб ўтилган[146].

Хуллас, ўзбек халқида болани бешикка боғлаш билан боғлиқ маросимлар таркибида амал қилинадиган иримлар тарихий асосига кўра аждодларимизнинг қадимги сув, олов, аждодлар культлари ва анимистик тасаввурлари таъсирида шаклланган. Иримлар дастлаб мифологик моҳият касб этиб, эътиқод заминида яшаган ва халқ тафаккурида даврлар ўтиши билан оғзаки айтимларга кўчган. Иримларнинг онгдан ҳаракатга, ҳаракатдан оғзаки ижодга кўчиши уларнинг мифопоэтик вазифа бажаришини юзага келтирган. Мана шу нуқтаи назардан бола туғилиши билан боғлиқ иримлар моҳияти табуга дахлдорлиги, мифологик моҳият касб этиши ва маросим таркибида ўринлашуви, унинг семантикаси сўз орқали ифода этилиши фольклорнинг кичик жанри эканлигини кўрсатади.

Халқимиз орасида кундалик фаолият билан боғлиқ оилавий маросимлар урф-одатлар ва иримлар моҳиятини замирида халқона дидактик воситанинг мазмун моҳияти муҳим аҳамият касб этиши билан характерланади. Негаки, маросим инсон маънавиятини юксалишига ва қадимий маънавий мероснинг муҳим пойдевор эканлиги, ёш авлодни комил инсон бўлиб етишига етакчилик қилади.

LUTFIY QIT’ALARI POETIKASI

Xudoyorova Munira Baxronovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti “O‘zbek tili va adabiyoti”kafedrasi dotsenti f.f.f.d.
Email:muniraxudoyorova77@g.mail.com Тел:+998972288460 (O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada Navoiygacha bo‘lgan davr adabiyotining yetuk vakili Lutfiy ijodidan o‘rin olgan qit’alar badiiyati va o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье исследуется художественные и специфические особенности четверёхстиший (китъа), которые имели особое место в творчестве Лутфия, известного представителя литературы донавоийского периода.

Kalit so‘zlar: qit’a, devon, tajnis, istiora, tanosib, takrir,tadrij;
Ключевые слова: четверёхстишие, деван, тажнис, метафора, сравнение, такрир, тадридж;

Navoiygacha bo‘lgan davrda qit’aning go‘zal namunalari “malikul kalom” Lutfiy ijodida ham uchraydi. To‘g‘ri, Lutfiy qit’alari o‘zigacha yaratilgan Hofiz Xorazmiy qit’alari kabi kompozitsion jihatdan turlicha shaklda emas, qolaversa, ularni mavzu ifodasi, timsollar tabiatiga ko‘ra ham yuksak baholash qiyin. Ammo Lutfiy she’riyatidagi qit’alar ixchamligi, siqiqligi va faqatgina lirik qahramon – oshiqning ma’shuqaga munosabatlari yoritilgani bilan o‘ziga xosdir. Lutfiy “Devon”idan o‘rin olgan 9 ta qit’aning barchasi to‘rt misradan tashkil topgan. Poetik ifodaning yorqin o‘ziga xosligi: qochirimlar, so‘z o‘yinlari, badiiy san’atlarning shoirona mahorat bilan she’riy matnga singdirilganligi qit’alarning betakror xususiyatlarini xarakterlaydi. Masalan:

Bermagil derlar vafosizga ko‘ngul
Kim, aning no‘shindin ortuq neshi bor.
Uzmagaymen la’lidin o‘lsam umid,
Jon mening jonim, kishining neshi bor[147].

“Bu mening ishim, men bilan sening nima yumushing bor” qabilidagi oddiy so‘zlashuv uslubiga xos ifodaning oshiqning kayfiyatiga, yorning xarakteriga va o‘zgalarning unga munosabatiga bog‘lab, so‘zning estetik kuchi bilan jonlantira olish faqat Lutfiy badiiy mahoratiga xosdir. Juft misralarda “neshi” kalimalarini keltirib, tajnis san’ati vositasida so‘z o‘yini qilingan bo‘lsa, “la’l” istiorasi o‘quvchiga poetik zavq ulashadi va “no‘sh” hamda “la’l” so‘zlari tanosub san’atini yuzaga chiqarib, qit’a badiiyatining jozibadorligini ta’minlagan. Lutfiy qit’alarida tushkunlik ruhi, zamondan shikoyat mazmuni, dunyoning o‘tkinchiligidan shikoyat kayfiyati umuman sezilmaydi, aksincha nekbinlik, hayotsevarlik va jo‘shqinlik bu she’rlarda muhim

[146] Худойкулова Л. Рождение ребёнка и связанные с ним обряды в узбекском фольклоре// Филологические науки. Вопросы теории и практики (входит в перечень ВАК). – Тамбов, Грамота, 2010. № 3. − С. 166-169.

[147] Лутфий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 380.

ahamiyatga ega. Qit'alarda yor go'zalligini tarannum etgan, ma'shuqa chiroyini tavsiflashdan shavqqa to'lgan samimiy, sho'x oshiqning beg'ubor tuyg'ulari ko'tarinkilik bilan ifodalangan. Jumladan, quyidagi qit'ada ham asosiy fikrni yuzaga chiqarish uchun jinsdosh so'zlarni keltirish san'atidan o'rinli istifoda etilgan:

Zoti pokingni ko'rub aytur falak:
"Husn daryosida yo'qtur bo'yla dur".
Chun tishing vasfini durga so'zladim,
Boshini tebratti durkim: "Bo'yladur"[148].

Darhaqiqat, Lutfiy "ruhiy holatlarning butun nafosatini shoirona ilg'ab, ularni ko'ngilga yaqin so'z san'ati vositasida kitobxon shuurida jonlantirish mahoratiga ega bo'lgan san'atkordir"[149]. Mazkur qit'ada ham takrir va jonlantirish san'atlari asosida shoirning qarashlari ta'sirchan yoritilgan. She'rda badiiy ifodadagi tadrijiylik, timsol va tushunchalar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik poetik jihatdan bir butunlikni ta'minlagan. Lirik qahramon vasfini keltirayotgan dilbar – ma'shuqa shunchaki go'zallik sohibigina emas, balki "zoti" poklikka yo'g'rilgan, asli, moyasi dur kabi bebaho va toza – farishtamisol go'zal. Husni kamolda mukammalligi shunchalikki, boshqa bunday latofat sarvarini topish mushkul. Hatto qimmati va jozibasi tengsiz bo'lgan "dur" ham lirik qahramonga xayrixoh – uning yor tavsifida aytganlarini tasdiqlaydi: "Bo'yladur". Ma'rifiy adabiyotda dur, gavhar timsollari "ilohiy (rahmoniy) nafas"[150] ni ham anglatadi. Ko'rinadiki, qit'ada ma'naviy, ruhiy go'zallikka sohib bo'lgan benuqson latofat egasining poetik surati tasvirlanib, ko'ngli turfa g'uborlardan xoli, haqiqiy oshiqning unga munosabati yorqin ifodalangan. Chunki Lutfiy qit'alari "markazida turgan lirik qahramon, avvalo, koinot sirlaridan voqif bo'lgan bilimdon, dinu diyonatni muqaddas bilgan e'tiqod egasi, ma'naviy poklikning himoyachisi, tabiatning maftuni, muhabbat tuyg'ularining fidoyisidir"[151]. Bu fikrlarning isbotini quyidagi qit'a misolida ham ko'rishimiz mumkin:

Ey qaroqchi ko'zli dilbar, o'yla bil,
Jon ayoman sen kibi jononadin.
Husnu lutfu suratu ma'ni bila,
Tug'magay sentek yana jon onadin[152].

Qit'a janri poetikasida murojaat, xitobatlarning asosiy o'rin tutishi ma'lum. Ammo o'zbek adabiyotida "qaroqchi ko'zli dilbar"ga murojaat ohangi faqatgina Lutfiy badiiy tafakkuri mahsulidir. She'rda "husn" – "lutf" – "surat" – "ma'ni" tushunchalarini ketma-ket sanash orqali ta'did san'ati yuzaga keltirilgan bo'lsa, "jononadin" va "jon onadin" shakldoshlari tajnisning o'ziga xos namunasini hosil qilgan. Lutfiy qit'alarida vasf etilgan ma'shuqaning bosh fazilati – husnda tengsizlik. Oshiqning sadoqati, fidoyiligi, yor go'zalligidan hayratga tushishi va muhabbat izhori ham bu she'rlardagi tabiiylik, samimiy ruhni orttirgan. Lirik qahramon – oshiq ishq yo'lida "jon"ini ham "aya"maydigan qat'iyatli, mardona, sobitqadamki, uning beg'ubor tuyg'ulari beixtiyor o'quvchiga ham ko'chadi va bu o'tli kechinmalar she'rxonda ma'shuqa chiroyining tarovatini qalban his qilish imkonini yaratadi. Aytish mumkinki, Lutfiy qit'alari o'zbek adabiyotida, ayniqsa, ishqiy mavzudagi qit'alarning rivojida alohida mavqe egalladi.

Navoiyacha yaratilgan qit'alarning juft misralardagi qofiyalarida omonim so'zlarning ishlatilishida ham Lutfiy qit'alari xarakterlidir. Aynan shu jihat, Lutfiy qit'alarida oshiqona mavzuning yetakchilik qilishi va vazn masalasidagi o 'zaro o'xshashliklar qit'aning tuyuq janri bilan aloqador ba'zi chalkashliklarni keltirib chiqarishiga ham sabab bo 'lgan. Bizgacha adabiyotshunoslikda qit'a janri xususida bildirilgan fikr-mulohazalarda, jumladan, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, R.Orzibekov, Y.Ishoqov kabi olimlarning maqolalarida ham Lutfiy ijodida qit'a janri namunalari mavjudligi aytilgan. Turkiy adabiyotshunosligimizning ilk tadqiqotchisi Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziyning "Funun-l-balog'a" asarida qit'aga ta'rif berilib, fikr iboti uchun asar muallifning, Mavlono Lutfiyning, Ibn Yaminning, Mavlono Hoji Aqcha Kindiyning, Mirzo Boysung'urning qit'alaridan bittadan misol keltirilgan. Misol sifatida ko'rsatilgan 5 qit'aning 4 tasi qofiyasida tajnis san'ati qo'llangan. Jumladan, Lutfiyning biz maqolamizda murojaat qilgan:

Bermagil derlar vafosizg'a ko'ngil,
Kim oning no'shidin ortiq neshi bor.
Men tama' kesmasmen, o'lsam, la'lidin,
Jon mening jonim, kishining neshi bor

[148] Кўрсатилган китоб. – Б. 380.
[149] Эркинов С. Лутфий ҳақида сўз // Лутфий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 4 – 12.
[150] Доктор Ҳасан Анварий. Фарҳанги бузруки сухан. Иборат аз 7 жилд. Жилди 6. – Теҳрон, 1381 ҳ/ш. – С. 3126.
[151] Эркинов С. Лутфий ҳақида сўз // Лутфий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 4 – 12.
[152] Лутфий. Девон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2012. – Б. 380.

qit’asining Taroziy tomonidan namuna sifatida keltirilishi ham fikrimiz isboti. Shuningdek, qit’alarda faqat juft misralarda shakldosh so‘zlarning qofiyadosh sifatida uchrashi, toq misralarning esa ochiq qoldirilishi ham qit’a va tuyuq janrlari o‘rtasidagi farqni belgilashda ahamiyatlidir. Qit’ada tuyuq singari muayyan vazn talabi yo‘q, ya’ni qit’a turli vaznda, jumladan, ramalda ham va turli mavzularda yaratilishi mumkin.
Lutfiy qit’alari shakl,mazmun va ifodadagi o‘ziga xosligi bilan qit’a janri taraqqiyotida alohida bosqichni belgilab beradi.

“ҲАЙРАТ УЛ-АБРОР” СТРУКТУРАСИДА “ҲАЙРАТЛАР”НИНГ ЎРНИ

Нигора Шарипова
НавДПИ докторанти,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори,PhD

Аннотация: Мазкур мақолада Алишер Навоий “Хамса” асари илк достони “Ҳайрат ул-аброр” поэтик структурасида ҳайратларнинг муҳим ўрни, ўзига хос функцияси, ҳайратларнинг бадиий-эстетик хусусиятлари ҳақида сўз юритилган.

Калит сўзлар: достон, структура, ҳайрат, бадиий маҳорат, услуб, анъана, ўзига хослик.

Аннотация: В данной статье анализируются важные места трёх хайратов("изумлений") в первом дастане «Хайрат уль-аброр» произведения Алишера Навои «Хамса», их уникальные функции, художественно-эстетические особенности.

Ключевые слова: дастан, структура, хайрат, художественное мастерство, стиль, традиция, оригинальность.

Annotation: This article analyzes the important places of the three khairats ("amazement") in the first dastan "Khairat ul-abror" of Alisher Navoi's work "Khamsa", their unique functions, artistic and aesthetic features.

Key words: dastan, structure, hairat, artistic skill, style, tradition, originality.

Ҳазрат Алишер Навоий «Ҳайрат ул-аброр» достони структурасида муҳим ўрин эгалловчи *ҳайратларда* ижтимоий, сиёсий, ахлоқий, диний, маърифий, ирфоний масалаларни ўзида жамловчи инсонийлик мезони – кўнгил оламининг сифатлари очилади. «Ҳайрат ул-аброр» ҳайратлари Хожа–Кўнгилнинг Ҳақ таоло яратган олам ажойиботларидан ҳайратланиши беғараз, илоҳий манзаралар тажассуми сифатида иймон-эътиқодда чин истаклар самарасидир. Достоннинг асосий ғоявий мазмуни ҳайратлар қисмида юксак услубда, бадиий ва руҳий кашфиётлар даражасида ёритилади.



Достонда ҳайратлардан аввал кўнгил таърифидаги боб келиши бежиз эмас. Чунки шундан кейин келадиган уч ҳайрат аброр – комил инсон кўнгли ҳайратларидир. Кўнгил олами тавсифи Навоийнинг фақат бу достони учунгина эмас, «Хамса»нинг бошқа достонлари учун ҳам, умуман, тасаввуф таълимотида ҳам салмоқли муҳим ўрин эгаллайди. Кўнгил юрак, дил, қалб сўзлари билан маънодош ҳисобланса-да, уларга нисбатан кенгроқ поэтик маъно ифодалайди. «Алишер Навоий–Қомусий луғат»да кўнгил лирикада кўп ҳолларда шахслантирилиши, лирик қаҳрамон унга дўст каби мурожаат қилиши айтилган. Навоий ижодида кўнгилнинг *қалб, дил; рафиқ, дўст; ошиқ, лирик қаҳрамон; хотир, ёд, фикр, ихтиёр, хаёл* маънолари мавжудлиги, шунингдек, кўнгил *«Ҳайрат ул-аброр»нинг бош қаҳрамони – Хожа* эканлиги таъкидланган.[153] Баъзи тадқиқотларда кўнгилнинг оддий сўз

[153] Алишер Навоий–Қомусий луғат. Биринчи жилд. – Т.:Sharq, 2016. – Б.244.

чегарасидан ўтиб, инсон маънавий-руҳий ҳаётининг маркази ва ўзликнинг бош асоси сифатида образ даражасига кўтарилгани айтилади.[154]

Жон ва нафс, озиқланиш ва ўсиш қуввати, беш сезги аъзоларининг соғломлиги барча жониворларда мавжуд. Лекин Ҳақ таоло инсонга кўнгил неъматларини, бу неъматларнинг энг яхшилари бўлган вафо, ҳаё, сабр-қаноат, меҳр-шафқат, саховат, шукр каби фазилатларни ато қилди, инсонни барча жонзотлардан афзал қилувчи кўнгулни берди, тупроқдан бўлган инсон танасига руҳ киритди ва инсон руҳий оламини гул, райҳон, сунбуллар ўсган бўстонга айлантирди. Шоир эътирофича, инсон танасида қонли ғунча – юрак муҳим аъзо бўлса ҳам, у кўнгул эмас. Чунки юрак ҳамма жониворларда бор:

Гар бу дурур ҳар нимаким жони бор,
Жисмида бу ғунча сифат қони бор.[155]

Инсон бадани ҳаётийлигини таъминловчи юрак бошқа, кўнгил бошқалигини англатиш учун Навоий яна тазод санъати билан ҳаяжонли ўткир ташбеҳларни ишлатади:

Ҳам они дажжол топиб, ҳам наби,
Исо билан тенгми бўлур маркаби?
Гар бу эса Хожа, ўзин муттасил –
Қайси кўнгул бирла дегай аҳли дил? [Ҳ.А. -Б.61]

Демак, сўз кўксида юраги тепган ҳар кимнинг бу дунё истаклари билан ифлосланган кўнгли ҳақида эмас, балки руҳий олами, инсоний фазилатлар билан зийнатланган аҳли дилларнинг кўнгли ҳақида боради. Навоий кўнгулни вужуд, жисм истакларини назорат қилиб турувчи Хожа деб айтади. Шоир кўнгилга ташбеҳни энг пок ва муқаддас нарсалардан излайди. Жаннатнинг муаттар иси, илоҳий жилва чироғининг нурига менгзаб, бундай пок кўнгил аҳли диллардан бўлган инсонга берилишига зимдан ишора беради:

Кўнгул эрур булбули бўстони роз,
Қудс ҳаримида бўлиб жилвасоз.
Ройиҳаи жаннати аъло ҳам ул,
Партави мисбоҳи тажалло ҳам ул. [Ҳ.А. -Б.62]

Кўнгул оламидаги ажойиботлар Тангри яратган бу оламдаги ажойиботлардан ҳам гўзалроқ бўлиб, суфийлар уни *олами кубро* дейдилар. Хожа – Кўнгулнинг сирли оламларга сайри ҳайратлар ҳақидаги бобларда очилади. Абдураҳмон Жомий «Туҳфат ул-аҳрор» достонида кўнгил ҳақидаги бобларида хилватлар ва ҳайратлар ўрнига уч пир суҳбатини келтиради. Биринчи пир суҳбати – илмул яқин (мантиқий фикрлаш илми) ҳақида. Иккинчи пир суҳбати – айнул яқин (ҳақиқат булоғи) ҳақида. Учинчи пир суҳбати – ҳаққул яқин (илоҳий ҳақиқат) ҳақида. Жомий кўнгил ҳақидаги бобда «Кўнгил ҳақиқати юзида пардани кўтариш ва соҳибдиллар кўнгли ҳақида» айтилган ғояларни уч пир суҳбатида кенгайтириб шарҳлайди. Жомий «Туҳфат ул-аҳрор»да тариқат йўлчисининг манзил ва мақомлари ҳақида уч пир суҳбати тарзида ҳикоя қилиб, тасаввуфий қарашларини дунёвий ҳаётга, жамият тараққиётига боғлиқ ҳолда тушунтиради.[156] Жомий «Туҳфат ул-аҳрор» («Ҳурлар туҳфаси»)да «Дар кашфи парда ва ҳақиқати дил» («Парданинг очилиши ва дил ҳақиқати») бобида Низомий, Хусрав Деҳлавий ва Навоий «Хамса»ларининг биринчи достонларига нисбатан анча мухтасар шакл ва мазмунда кўнгил ҳақиқатини халқона, жонли тил билан тасвирлайди. Низомий кўнгулни табиат, коинот хожаси деб тасвирлайди. У биринчи хилватда кўнгил тарбияси ҳақида, иккинчи хилватда сайёралар қатнашган тунги базм ҳақида сўз санъатлари билан ҳикоя қилади.[157] Агар бу хилватларни Навоий достонидаги ҳайратларга қиёсласак, Навоий ҳайратлари мазмун ва ғояда ҳам, шакл ва санъаткорликда ҳам юксак даражада эканлиги билинади.

Адабиётшунос У.Жўрақулов «ҳайрат» феноменининг «Хамса» бадиий хронотопидаги ўрни ҳамда вазифаси муайян мақсаддан келиб чиққанини таъкидлайди.[158] Низомийнинг «Махзан ул-асрор»ига жавоблар шу ердан бошланади. Мавзу боб сарлавҳасида берилади. Навоий сарлавҳада кўнгил таърифини кўнгил тилаганидек ҳеч ким қилолмаслигини ва унинг васфини соҳибдиллардан ўзга киши билмаслигини айтади. Навоий фикрича, инсон не чоғли кўп хаёл қилса ҳам кўнгул сирини

---

[154] Бозорова Н. Алишер Навоий ғазалларида кўнгил образи. – Т.: Фан, 2009. – Б.18.

[155] Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. ТАТ. Ўн жилдлик. Олтинчи жилд. – Т.: Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013. – Б.61. (Бундан кейин ушбу манбага мурожаат қилинганда қавс ичида асар номи ва саҳифасини кўрсатиш билан кифояланамиз.)

[156] Абдураҳмон Жомий.Туҳфат ул-аҳрор. Душанбе: Ифрон, 1972. – Б.179-206.

[157] Ганжавий. Махзан ул-асрор. Жамол Камол таржимаси. –Тошкент, 2016. – Б.46-61

[158] Қаранг: Жўрақулов У. Навоийда “Ҳайрат” тушунчаси // Алишер Навоий ва XXI аср номли мақолалар тўплами. – Т.: Tamaddun, 2016. –Б.88.

кашф этолмайди, охири ожизлигини тан олиб таҳайюрда – ҳайратларда қолди. Бу орқали Навоий ўз достони нима учун «Ҳайрат ул-аброр» деб аталганига ишора қилади. Низомий ва Амир Хусрав достонларида хилват – суфийнинг ғайб олами сирларини идрок этиб, қалби нурланиши бўлса, Навоий ҳайратларида Хожа – кўнгилнинг ғайб оламларига сайри ва бу олам ажойиботларидан ҳайратланиши муқаддиманинг семантик структурасини ташкил этади. Бу ҳайратлар кўпроқ «Сабъаи сайёр»даги етти мусофир-сайёҳнинг қиссаларида равшан юз кўрсатади. «Лайли ва Мажнун»да илоҳий ишқ, вафодорлик, жунунлик ҳайратлари, «Фарҳод ва Ширин»да ҳақиқий ишқ, ёр васлига етиш учун чекиладиган риёзатлардан ҳайратланиш асарнинг ғоявий-семантик марказини ташкил этади.

«Ҳайрат ул-аброр»даги уч ҳайрат боби ўзбек адабиётшунослигида А.Қаюмов, М.Муҳиддинов, М.Имомназаров, У.Жўрақуловлар томонидан илмий тадқиқ этилган.[159]

Адабиётшунос И.Ҳаққулов ҳайрат тушунчасига шундай таъриф беради: «Ҳайрат – кутилмаган ғаройиботлар, фавқулодда тилсимли ҳодисалардан ақлнинг ажабланиши. Ҳайрат – инсон руҳининг ҳудудсиз коинот асрорларидан таажжубланиши. Ҳайрат – кўнгул тилсими».[160] «Ҳайрат ул-аброр» ҳайратлари Хожа – кўнгилнинг Ҳақ таоло яратган олам ажойиботларидан ҳайратланиши беғараз, илоҳий манзаралар тажассуми бўлгани учун иймон-эътиқодда чин истаклар самарасидир. Навоий талқинича, мавжудотлар ва ҳодисаларнинг моҳиятини билиш учун ҳайвонларга хос беш сезги билан чекланмай, ақл ва дил зиддиятларини ҳал этиш учун илоҳий маърифат ҳосил қилиш, ўткинчи ва зарарли иллат, одатлардан воз кечиш керак. Ҳайратланиш ақлга эмас, кўнгилга хосдир. Алишер Навоий ҳайратларда Хожа – кўнгилнинг сайрларини тасвирлар экан, бунда илк сайргоҳ – мулк олами, иккинчи сайргоҳ – малакут (фаришталар) олами, учинчи сайргоҳ – инсон вужудидир.

Навоий ***биринчи ҳайратда*** ёзишича, инсон ақли ҳайратининг аввалги сабаби – бу олам гулистонини ким пайдо қилди, бу олам ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолмаган-ку? – деган масала эди. Бу бобда кўнгилнинг мулк оламига сайри ва ҳайрати тасвирланган. Нури ҳидоят билан Хожанинг басират кўзи очилгач, кўрдики, бу оламдаги барча мавжудотлар қумридан булбулгача, дарахт япроғидан гулгача Яратганга зикр қилувчи, ҳар бири Унинг шукрига шокир эди. Навоийнинг бу тасвирлари барча обидлар, зоҳидлар ва орифлар учун ҳам вожиб бўлган шариат риояси – тамойилига мувофиқ келади. Бу оламни тасвирлар экан, уч ўринда боғи Эрам, уч ўринда Исо Масиҳ, бир ўринда Хизр пайғамбарни эслаб, талмеҳ санъати воситасида оламдаги нарсаларнинг гўзаллиги, барҳаётлиги ва абадийлигига ишоралар беради. Илк ҳайратда Тангри яратган бу оламнинг тасвирини чизишда Навоий пейзаж устаси сифатида кўринади. Бу ўринда бадиий-ғоявий таъсирчанликни оширувчи ташбеҳ, ташхис, антитеза, ружуъ, муболаға, таносубдан фойдаланиб, Тангрининг чексиз қудрати ва У яратган оламларнинг беҳад мукаммаллигини маҳорат билан ифода этади. Хожа барча мавжудотларнинг зикр ва шукрона овозларини эшитиб, ҳайратлар ичра қолганини таъкидлайди:

Барчаси қайюмиға зокир эди,
Ҳар бир анинг шукриға шокир эди. [Ҳ.А. -Б.69]

«Ҳайрат ул-аброр»нинг ***иккинчи ҳайратида*** инсон кўнглининг малакут – фаришталар оламига сайри ва ҳайрати ёритилади. Етти осмон, етти сайёрадаги етти жаннат боғлари, гулзорлар, сабза, райҳонлар, турли дарахтлар, ҳовуз ва анҳорлар, соялар ва нурлар, сувлар ва ўсимликларга ҳаёт берилишидан ҳайратлари тасвирланади. Тунги коинот тасвири ҳам Тангри таолонинг чексиз қудратини кўрсатади. Бу ҳайратда тасвирланган сайёралар ва юлдузлар – фаришталар тимсоли бўлиб, барчалари Тангри Таолога тасбиҳ, сано айтиб, ўз вазифаларини бажараётганлари, Худо тайин қилган доирада айланаётганлари гўзал тасвир этилган. Бутун оламни Яратган Сарвари коинотнинг нақадар қудратли куч эканлиги шоир қарашларида босқичма-босқич, байтма-байт қуюқ ифода топа боради:

Шоҳид ўзи эрди, навосоз ўзи,
Соқий ўзи, замзамапардоз ўзи. [Ҳ.А. -Б.72]

Учинчи ҳайрат Хожа – кўнгилнинг инсон вужуд оламига сайри ва ҳайратларини акс эттирган. Шоир Тангри таоло инсон вужуди, жисмини мукаммал, ажойиб санъаткорлик билан яратганини таъкидлайди. Бобдаги «қуёш тобидан хожанинг сесканиб уйғониши» ақлнинг уйғониши эмас, кўнгилнинг маърифат офтобидан уйғонишидир. Хожа-кўнгил ватанини, яшаш жойини кўришни

[159] А.Қаюмов. Уч ҳайрат // “Ҳайрат ул-аброр” талқини. Асарлар. 1-жилд. 1-китоб. – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2008. – Б.36; М.Муҳиддинов. Достонларда кўнгил тимсоли (“хилват”дан “ҳайрат”гача) // Комил инсон – адабиёт идеали. – Т.: Маънавият, 2005. – Б.52; Имомназаров М. Кўнгил ҳақида тўрт достон шарҳи (Низомий, Деҳлавий, Жомий, Навоий достонларининг қиёсий таҳлилига муқаддима) // Навоийшуносликка кириш. –Т., 2015. – Б.78; Жўрақулов У. “Хамса” композициясида “уч ҳайрат” хронотопининг ўрни” // Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Филол.фан.док. ... дисс. –Т., 2016. – Б.142.

[160] Ҳаққулов И. “Хамса” бадииятига доир // Алишер Навоий “Хамса”си. (тадқиқотлар). – Т.: Фан, 1986. –Б.122.

истайди. Яна сафар ранжини чекиб, «Манзили азмига нузул айлади» – самодан Ер юзига тушди. Унга бир ғаройиб шаҳар кўринди. Бу – вужуд шаҳри эди. Тўрт зид, тўрт унсурдан ташкил топган бу шаҳарда масжиду бозор, маҳаллоту кўча, бўстону харобот бор эди. Навоий фикрича, бу «шаҳар»нинг суви латофатда зулоли беҳишт, тупроғи гул, нафҳаси (шабадаси) анбарсиришт. Ақл вазири, олам хабарларини етказувчи беш хизматчиси – беш ҳис-туйғу Хожага хизматда бўладилар. Учинчи ҳайратда санъаткорона тасвирланган манзаралар, вужуднинг улвий ва сифлий (тубан) истаклари «Хамса»нинг кейинги достонларида аниқ-равшан, сюжетли мустақил асарлар бўлиб шаклланади.

Олимлар таъкидича, Халлоқи олам яратган табиат, коинот, инсон вужуди, доирасидаги чексиз мўъжизалардан ҳайратга тушиб, «бақо биллоҳ» мақомига етишган кўнгил энди якка инсон кўнгли эмас, балки маънавий камолот касб этган инсоният кўнглининг рамзидир, Навоийнинг келажак орзусидир.[161] Навоий ҳайратларидаги ирфоний, тасаввуфий ғоялар унинг шу руҳдаги достон мақолатларининг нозик маъноларини тушунишга ҳам ёрдам беради. Лекин ҳар қандай инсон эмас, фақат маърифат ва тариқат йўлига кирган, фано ва бақо ҳақида ўйлайдиган инсон кўнглигина бундай сайр қила олади. Навоий илк достонида инсон Кўнгли Аллоҳ яратган ажойиб оламларга сайр қилишини юксак бадиият билан тасвирлар экан, достоннинг асосий ғоявий мазмунини ана шу ҳайратлар қисмида кўтаринки, юксак услубда, бадиий ва руҳий кашфиётлар даражасида ёритади.
Баъзи тадқиқотларда таъкидланганидек, “Ҳайрат ул-аброр”нинг мақолатларгача бўлган қисмини «кириш боблар», «муқаддимавий боблар», «илова характеридаги боблар» сингари таърифлашни ўйлаб кўриш мақсадга мувофиқдир. Чунки бошқа салафларидан фарқли ўлароқ Ҳазрат Навоий мазкур қисмда келтирган *ҳайрат* феноменини достон марказигача олиб чиққан, таъкидлаш ўринлики, *ҳайратлар* достонда асосий семантик қатламни, ғоявий-бадиий марказни ташкил этади.

HAMID OLIMJON ASARLARI POETIK LEKSIKASI

G.T.Imamova Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hassos shoir H.Olimjon asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari,uning leksik birliklardan mohirona foydalanish mahorati, so‘z qo‘llash iste’dodi tahlilga qilingan.*
Kalit so‘zlar: *poetik leksika, leksik birliklar,grammatik qurilish, lug‘at tarkibi,leksema, o‘z qatlam, o‘zlashma qatlam,poeziya, invariyant norma*
Abstract*: In this article, the unique features of the works of the sensitive poet H. Olimjon, his ability to skillfully use lexical units, and his talent for using words are analyzed.*
Key words: *poetic lexicon, lexical units, grammatical construction, vocabulary structure, lexeme, native layer, native layer, poetry, invariant norm*

Ma’lumki, har qanday til o‘z rivojlanish tarixiga, turli bosqichlarni bosib o‘tadi . Til rivojining mana shu bosqichlarda uning lug‘at tarkibi va grammatik qurilishida ma’lum o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Bu hol o‘z-o‘zidan har davr tilining o‘ziga xos xususiyatlari, me’yorlarini yuzaga keltiradi. Tilshunoslikda bunday me’yorlar invariant norma deb yuritiladi.Mana shu ma’noda o‘zbek tilining lug‘at tarkibi va uning lug‘aviy fikr boyligi haqida fikr yuritganda bu tilda qo‘llanilayotgan so‘zlar miqdorini nazarda tutish lozim. Ammo o‘zbek tilining lug‘at tarkibi va uning lug‘aviy boyligini belgilash nihoyatda mushkul va amalda ado etib bo‘lmaydigan vazifadir. Chunki o‘zbek tilining butun tarixida qo‘llangan so‘zlar ma’lum manbalarda to‘liq ifodalanmagan yoki bu kunga qadar to‘liq aks ettirib kelmagan. Buning ustiga yozma manbalarda qo‘llangan so‘zlar ko‘p holda adabiy til leksikasinigina xarakterlaydi. Shu sababli til lug‘at tarkibining boyligi haqida fikr yuritganda o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibining muayyan davrdagi holati ko‘zda tutilishi maqsadga muvofiqdir. O‘zbek tili rivojining turli xil bosqichlarida bu til lug‘at tarkibi qaysi holatda bo‘lganini belgilash alohida tadqiq va tasniflashni talab qiladi. Ma’lum bir davrda ma’lum bir uslubga xos asarlarning til xususiyatlari tadqiq qilinar ekan davriy va uslubiy me’yorlar Hamid Olimjon asarlari tilining uslubi va uning o‘ziga xos muhim xususiyatlarini tahlil qilishni lozim topdik. “O‘zbek tilshunosligida nasriy va nazmiy nutq muammolari ma’lum darajada tadqiq qilingan”[162]. Hamid Olimjon asarlarining lug‘aviy birliklari lingvo poetikasini tahlil qilar ekanmiz bu o‘rinda adibning xilma-xil janrlarda yaratgan asarlari o‘zbek xalqining turli davrlardagi turmushini aks ettirib, adabiyotimiz va tilshunosligimiz rivojiga o‘zining ulkan hissalarini qo‘shgan.Ulkan so‘z san’atkori o‘zining ajoyib va g‘aroyib, she’riy va nasriy asarlari bilan o‘zbek xalqining qalbiga o‘rnashib qolgan. Buning asosiy sababi adib asarlarining xalqchilligi, yozuvchi

[161] Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. –Т., 2015. – Б.124.
[162]Karimov.S O‘zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.

g‘oyasi mujassamlashgan badiiy mahoratining tashkil topganligi va tilining soddaligi, tasviriy vositalarining ifodaliligi hamda so‘zlashuv nutqining soddaligi, tasviriy vositalarining ifodali va so‘zlashuv nutqiga yaqinligidir.

H.Olimjon she’r va dostonlarni,avvalo, go‘zal va jozibador tili, satrlarning musiqiy jarangdorligi fikr va tuyg‘ularning tiniq va aniq tushunarli tarzda ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Adib asarlarini ko‘zdan kechirsak unda ikki manbadan oziqlanganligini ko‘ramiz: 1.O‘z qatlam 2.O‘zlashgan qatlam.

O‘z qatlam so‘zlar Hamid Olimjon asarlarida turkiy so‘zlar, umum turkiy so‘zlar, o‘zbekcha so‘zlardan tarkib topgan. Bu lisoniy tushunchalarni an’anaviy qatlam deb ham atash mumkin. Har qanday yangilik ham eskilik negizida shakllanadi. Shunday ekan,Hamid Olimjon asarlarining lug‘at tarkibi an’anaviy qatlamdan butunlay uzoqlashib ketgan emas. Asrlar davomida ishlatilib kelingan vositalardan voz kechish bilan emas balki ularni taraqqiy qildirish va qayta ishlash bilan adabiy til ravnaqiga katta hissa qo‘shgan. An’anaviy qatlamdan butunlay uzoqlashib ketish adib asarlarining badiiy qiymatiga putur yetkazgan bo‘lar edi. Shuning uchun adib tili birnchi navbatda an’anaviy adabiy qatlamidan oziqlangan. Hamid Olimjon asarlari o‘z qatlamga mansub quyidagi ma’lum guruhlari mavjudligini kuzatadi.

1.Inson tushunchasi bilan bog‘liq so‘zlar: el, elat, turmush, kishi, odam, inson kabilar:

“**Xalq**qa ayting, men aslo o‘lganim yo‘q,
Yov qo‘liga taslim ham bo‘lganim yo‘q;
Men **el**imning yuragida yashayman!
Erk deganning tilagida yashayman!”[163][18-bet]

Dunyo go‘zal, ne uchunkim unda,
Sening bilan biz boramiz doim.
Unda **odam** qolmagan kunda,
Boshlanajak qiyomat-qoyim.[22-bet]

Go‘zal etmish dunyoni **odam,**
Odam bilan go‘zaldir ul ham.”[164][65]

“Hamid Olimjon poeziyzsining xislatlari ko‘p: jo‘shqin lirizmga boyligi, xalqona soddaligi, realizmning chuqurligi, ehtirosning zo‘rligi … Lekin ularning yetakchisi- shodlik va baxtga to‘lib yashash va bu tuyg‘ularni ko‘pning qalbiga singdirishdir”[165]

2.Kasb hunar nomlari:

“Kasb hunar leksikasi –ijtimoiy mehnatning u yoki bu turiga, ishlab chiqarish, ilm-fan, adabiyot-san’at va hakozo sohalarga oid narsa-hodisa hamda tushuncha nomlaridir”[166]

Botirlari kanal qazadi,
Shoirlari g‘azal yozadi.
Kuychilari o‘qiydi yalla.
Juvonlari aytadi alla.
Pazandasi yopadi shirmon,
Qarilari kutadi mehmon.[43-bet]

Agar shunda ham qalbim
Yumshamasdan qolsa jim,
Uzib olib otarman,
Qassoblarga sotarman.[27-bet]
Yumshoqqina ko‘k parda yopilgan
Tog‘lar,ana… rohatgina uxlar.
Cho‘pon ila qo‘y –turnaqatorlar,
Kezmakda uning bag‘rida tunlar.[12-bet]

3.Daraxt va o‘simlik va ularning mahsulotlari nomlari:o‘rik, olma, archa, novda, gul, arpa, bug‘doy, tut, tol, chechak, shox, g‘uncha,sunbul,lola va boshqlar.

Derazamning oldida bir tup,
O‘rik oppoq bo‘lib gulladi…

[163] Hamid Olimjon “Muqanna” Toshkent- 1992, 64-bet.
[164]Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet.
[165] Hotam Umirov Vatan betakror, kuychisi betakror. So‘z xiyoboni. Toshkent-2020. 155-bet.
[166] H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent-2005. 2001-bet.

Novdalarni bezab **g‘uncha**lar,
Tongda aytti hayot otini.
Va shabboda qurg‘ur ilk sahar,
Olib ketdi **gul**ning totini. [65-bet]
Anor so‘zlar va Zaynab qalbi
Tol bargiday dir-dir qaltirar.[194-bet]

Qora kokillaringdan atru **sunbul**lar hijolatda,
Olovdek lablaringdan otashin **gul**lar xijolatda.[178]
Gul kiprigi oppoq
Bir duru sadafdek.
Lolalar qizardi
Bir lahza olovdek.[13-bet]
Bog‘im boru, gulzorimda **gul**im ko‘p
Har yoqda **gul**, s**hox**larda bulbulim ko‘p.
Shoir asarlarining asosiy qismini tashkil etgan umumo‘zbek so‘zlardan mohironalik bilan foydalangan.Ma’lum jamoa a’zolari uchun tushunlarli bo‘lgan va umumxalq tilida keng iste’mol qilinadigan lug‘at tarkibining faol qatlamiga kiruvchi ishlab chiqarishning turli sohalari bilan bog‘liq bo‘lgan asl o‘zbekcha so‘zlar so‘z san’atkorlarining ijodida, asarlarida o‘rinli foydalanilgan.Ular poetik leksikamizning yanada sayqallanishida o‘zining muhim ahamiyatini kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Karimov.S O‘zbek tilining badiiy uslubi. Toshkent -1992, 33-bet.
Hamid Olimjon “Muqanna” Toshkent- 1992, 64-bet.
Hamid Olimjon Tanlangan asarlar Toshkent-2019. 65-bet.
Hotam Umirov “Vatan betakror, kuychisi betakror. So‘z xiyoboni”. Toshkent-2020. 155-bet.
H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent-2005. 2001-bet.
R.Sayfullayeva, B.R.Mengliyev, L.R.Raupova, M.M.Qurbonova, M.Q.Abduzalova, D.N.Yo‘ldosheva “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent “Innovatsiya-Ziyo” 2020

IJODKOR SHAXSI HAQIDA YOZILGAN ASARLARNING GENETIK ILDIZLARI VA O‘ZIGA XOS BELGILARI

Ubaydullayev Normuhammad,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
E-mail:normuhammad28@mail.ru
(O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ijodkor shaxsi haqida yozilgan asarlarda xotira va esdaliklar, hujjatlilik, haqqoniylik va xolislik yetakchilik qiladi. Uning markazida inson va uning hayoti turadi. Qadimgi turkiy xalqlar adabiyotida bunday asarlar tazkira, hasbi hol, memuar asarlar sifatida qaraladi. Zamonaviy tilda aytganda, biografik yoki avtobiografik asarlardir. Odatda biografik asar qahramoni bir qadar mashhur shaxs hisoblanadi. Bu tipdagi asarlarning o‘ziga xos jihatlari juda ham chuqur o‘rganilgan, deb bo‘lmaydi. Ayni vaqtda uzluksiz adabiy ta’limning turli bosqichlarida ijodkorlarning hayoti va ijodini o‘rganish ulkan ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *Avtobiografik asar, xotiralar, biografiya, tarjimayi hol, ijodkor shaxsi, hujjatlilik, haqqoniylik, badiiy haqiqat va hayot haqiqati.*

Adabiyotning tasvir obyekti inson hisoblanadi. Jahon adabiyotida inson tushunchasining mohiyatini anglash, uning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va ruhiy dunyosini tasvirlash bo‘yicha ulkan tajriba to‘plangan. “Adabiyot tufayli, adabiyot uyg‘otgan tafakkur, intilish va istaklar tufayli, xayolot saltanatiga safar chog‘i ko‘ngilda bosh ko‘targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizasiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o‘ylab topgan badiiy to‘qima qumga singigan suvdek izsiz ketmadi, bil’aks toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo‘lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig‘lagan bo‘lardi, mustaqil fikrdan mahrum labbaychilar urchib ketardi, ko‘ngil birligi yo‘qolardi, qaramlik kayfiyati keng tarqalib, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘usi − taraqqiyotning yetakchi omili − yo‘qolardi” deb yozadi, Mario Vargas Losa[1;12]**.** Ijodkorlar butun borliqning yaratilishi sababi bo‘lgan insonni, uning ijtimoiy hayotda

tutgan o‘rni, xulq-atvori, harakatlari, orzu-o‘ylari, maqsad va umidlari, ruhiyat olami, o‘y-xayollarini turli badiiy shakllarda aks ettirib keladilar. Bular orasida biografik yo‘nalishdagi bitiklar ham katta o‘rin tutadi.

Biografik va avtobiografik janrining paydo bo‘lish va taraqqiyoti insonning azal-azaldan erkinlikka intilishi, o‘z huquqi, erki uchun kurashi, uni harakatlanish va kurashga undashda alohida shaxslarning o‘rniga borib taqaladi. Inson yaralgandan buyon o‘zini anglashga, borliqdagi voqea-hodisalar sababini tahlil qilishga va tabiat hamda jamiyatning haqiqatlarini anglab yetishga intiladi, o‘zining hayotdagi o‘rnini topishga urinadi. Mana shu holat odamni ko‘pchilikning e’tiboridagi odamlar o‘z hayot yo‘lini qanday bosib o‘tganiga qiziqtiradi. Odam hamisha taniqli shaxsiyatlardan o‘rnak olishga, ularday bo‘lishga intiladi. Chunki har bir odam mashhur shaxslar singari bilim, kuch-qudrat, yaratuvchilik salohiyati hamda jasoratga ega bo‘lishni xohlaydi.

Qadimgi *turkiy xalqlarning* mumtoz adabiyotida tazkira va hasbi hol shaklida yuzaga kelgan avtobiografizm turli davrlarda turlicha daraja va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ldi. *Turkiy xalqlar* adabiyotida avtobiografik asarlar alohida janr sifatida sovet davrida shakllangan bo‘lsa-da, son jihatdan anchagina kam yaratildi va borlarida ham asosiy e’tibor muallifning o‘ziga xos shaxsiyatidan ko‘ra, u mansub ijtimoiy qatlamga xos xususiyatlarning aks ettirilishiga qaratildi. Negaki, sosialistik realizm mafkurasi uchun adabiyotda alohida shaxsning qaytarilmas o‘ziga xosligi emas, balki o‘zi mansub ijtimoiy qatlamga tegishli universal jihatlar qanday namoyon bo‘lishi muhimroq sanalardi.

Shunga qaramay, sovet davrida ham qator avtobiografik va biografik asarlar yaratilib, o‘zbek adabiyotida ham o‘ziga xos janrni yuzaga keltirdi. Bu janrdagi asarlarning ilk namunasi yozuvchi S.Ayniyning “Esdaliklar” povesti bo‘ldi. Keyinchalik avtobiografik janrda Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O‘tmishdan ertaklar”, N.Safarovning “Ko‘rgan-kechirganlarim” asarlari dunyoga keldi. G‘.G‘ulomning mashhur “Shum bola” qissasida ham biografik unsurlar yaqqol ko‘zga tashlanib turardi.

Yozuvchilar ijod erkinligiga erishgan mustaqillik davriga kelib milliy adabiyotimiz avtobiografik janrda Said Ahmadning “Topganlarim va yo‘qotganlarim”, Odil Yoqubovning “Qarnoq”, “Muzqaymoq”, Nosir Fozilning “Topdimu yo‘qotmadim”, Anvar Obidjonning “Ajinasi bor yo‘llar”, Sharof Boshbekovning “O‘zim haqimda”, Sobir O‘narning “Bibisora”, Bahodir Qobulning “Ena yo‘l”, “Ena shamol”, “Ota chiroq” singari turli janrlardagi qator asarlari yuzaga keldi. Chunki egamanlik davri ijodkorning shaxsi, hayot yo‘li, o‘sgan muhiti, fe’liga xos xususiyatlari jamiyat a’zolari uchun muhim ekanligini ko‘zda tutar edi.

Yurtimizda yaratilgan avtobiografik asarlar tarixi olis davrlarga borib taqaladi. Uning dastlabki elementlarini *turkiy xalqlar tarixi* haqidagi qadimiy manbalar bo‘lmish O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida ko‘rish mumkin. *Turkiy xalqlar*ning badiiy ijodi moziyning juda qadim qatlamlariga tutashadi. Miloddan oldingi davrlardayoq yunon tarixchilari ajdodlarimiz orasida mavjud bo‘lgan og‘zaki ijod namunalari: ertak, rivoyat va afsonalar haqida ayrim ma’lumotlarni yozib qoldirishgan. Shuningdek, qadim Xitoy tarixchilari ham turkiylarning o‘ziga xos qo‘shiq va dostonlari bo‘lganini manbalarda qayd etishgan. Shu o‘rinda qadimgi davrlarda yashab ijod etgan ayrim adiblarning nomlarini eslatib o‘tish joiz. Bizgacha Aprinchur Tegin, Kul Tarxon, Singku Seli Tutung, Pratyaya-Shiri, Asig Tutung, Chusuya Tutung, Kalim Keysi, Chuchu, Yo‘llug‘ Tegin singari ijodkorlarning nomlari yetib kelgan[2;8].

O‘tmishda turkiy tilda yaratilgan diniy-falsafiy asarlar, badiiy adabiyot namunalari, tarix kitoblari, qabrtosh yozuvlari, huquq, xo‘jalik ishlariga tegishli hujjatlar va boshqa yozma obidalar muayyan darajada adabiy manba bo‘lib ham hisoblanadi[3;14]. Bu yodgorliklar adabiyot o‘qitishning nazariy va amaliy muammolarini hal etishda muhim o‘rin tutadi. Negaki, yorqin shaxsiyat egalarining o‘ziga xos jihatlari esda qoladigan yo‘sinda tasvir etilgani uchun avtobiografik asarlar bugungi yoshlar uchun ham ma’naviy namuna bo‘lib xizmat qiladi[4;7-8].

Muayyan inson hayoti va shaxsiyatiga xos xususiyatlar to‘g‘risida eng aniq ma’lumot beruvchi manba avtobiografik bitiklardir. Shu o‘rinda “avtobiografik” yoki “biografik asar” tushunchalari o‘rtasida bir qadar farq borligini qayd etish o‘rinli bo‘ladi. Avtobiografik bitik muallif hayotining biror bo‘lagida sodir etilgan voqea-hodisalar xronologik tartibda bayon etilgan yozma matnni anglatsa, biografik asar bir odamning boshqa bir insonni anglashi natijasida paydo bo‘lgan yozma matnni bildiradi. Bunday matnlarda ijodkorning tug‘ilishi va vafoti, oilaviy sharoiti, ijtimoiy kelib chiqishi, nasl-nasabi, yashash joyi, ma’lumoti, faoliyati, diniy e’tiqodi, imkoni topilsa, oila a’zolari, farzandlari, yoru birodarlari qanday odamligi e’tiborga olinadi[5;13].

Biografik janr o‘z rivojlanish yo‘li davomida turli ko‘rinishlarga ega bo‘ldi. Aslida avtobiografik janrdagi asarlarning ildizlari olis antik davrlarga borib taqaladi. Ammo avtobiografik janr shaxs va uning fikr erkinligi qaror topgan davrlardagina to‘liq shakllanib, chinakam taraqqiyotga erishadi.

Tadqiqotlar biografik janr to‘laqonli adabiy-badiiy yo‘nalishga aylanganiga ko‘p bo‘lmaganini ko‘rsatadi. Turkiy tilli olimlarning fikricha, muayyan inson hayoti va shaxsiyatiga oid asarlarning yoshi ming yildan oshiqroqni tashkil qilishini aytishadi. Biografik yo‘nalish adabiy janr sifatida o‘zining qat’iy

badiiy belgilari bilan XVIII asr oxirida shakllandi. Uning yuzaga kelishi mamlakat ijtimoiy hayotida shaxs rolining kuchayishi shaxslarning ozodlikka intilishida muvaffaqiyatlarning qo‘lga kiritilishi bilan izohlanadi. Biografik janr hozirgi davrda memuar adabiyotning eng ommabop janrlaridandir. Ushbu holat insonning intellektual darajasi individual tafakkurning qanchalik yuqori bosqichda ekanligi bilan o‘lchana boshlangani tufayli yuzaga kelgandir.

ADABIYOTLAR:

https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/jahon-adiblari-adabiyot-haqida.
https://xs.uz/uzkr/post/orkhun-enasoj-obidalari-haqida.
Битиг ва ёзма ёдгорликлар. https://uzas.uz/articles/5101.
Asqarova O‘.M. Pedagogika: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ O‘.M.Asqarova, M.Xayitboyev, M.S.Nishonov. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: Talqin, 2008.
Адизова О. Адабиётшунос Азиз Қаюмов тадқиқотларида биографик методдан фойдаланиш маҳорати. – Қарши, 2018.
Қозоқбой Йўлдош, Муҳайё Йўлдош. Ўзбек адабиётини ўқитиш методикаси. –Т.: Тафаккур, 2022.
Болтабоев Ҳ. Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи. 1–жилд. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013.
Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. –Т.: “Академнашр”, 2014.
Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. –Тошкент: Ўзбекистон, 2008.

XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN OZIQLANGAN MILLIY YOZMA ADABIYOT

Nodira Bobojonovna Mansurova
Katta o‘qituvchi
Navoiy davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyotga bo‘lgan ta’siri, o‘zbek folkloridagi ko‘plab epik syujet, an’anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlarga borib taqalishi haqidagi ilmiy fikrlar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar. Mif, rivoyat, afsona, ertak, mifologik tasavvur, xalq og‘zaki ijodi, magik realizm, transformatsiya, poetik mushohada.

Annotation. In this article, scientific opinions about the influence of folkoral creativity on written literature, many epic plots in Uzbek folklore, genetic roots of traditional motifs directly go back to mythological imaginations have been expressed.

Keywords. Myth, narrative, myth, fairy tale, mythological imagination, folklore, magical realism, transformation, poetic observation.

Xalq og‘zaki ijodi shunday o‘ziga xos hodisaki, uni badiiy ijodning mukammal va tugal ko‘rinishi, yuksak darajadagi adabiyotga xos barcha spetsifik jihatlar hamda atributlarni qamrab olgan hodisa sifatida ham tavsiflab bo‘lmaydi. Folklor badiiy tafakkur va tasavvurga asoslanadigan yozma adabiyotdan qadim ajdodlarning olam haqidagi real tasavvurlarini ifoda etishi bilan birmuncha tafovutlanadi. Xalq og‘zaki ijodi yozma adabiyot uchun birinchi bosqich, birlamchi o‘zak bo‘lgan. Endilikda doston, asotir (mif), rivoyat, afsona, ertak va boshqa qator folklor janrlarida butunlay yangi syujetdagi butunlay yangi asarlar yaratilmayotgani ham bejiz emas. Buning boisi yozma so‘z san’ati taraqqiyotidadir. Ya’ni yakka muallif shaxsi birinchi o‘ringa chiqdi, boshqacha aytganda, ijod individuallashdi va subyektivlashdi. Folklor esa shu xil adabiyotni shakllantirgan ibtidoiy bosqichdir.

Bizdagi qadimiy folklor asarlari – asotirlar, maqollar, lirik qo‘shiqlar, aytimlar, afsonalar, ko‘pincha, turli matnlar, masalan tarixiy yoki ilmiy yoki memuar asarlar tarkibida saqlanib qolgan. Elimizning ibtidoiy zamonlarga oid og‘zaki ijodi namunalarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, borliq haqidagi qadimiy tasavvurlar hamda qarashlar ifoda topgan. Shuning barobarida ijtimoiy hodisalarga, xalq hayotidagi tarixiy o‘zgarishlarga uzviy bog‘liq holda folklor asarlari ham o‘zgarib borgan.

Xalq og‘zaki ijodining qadimiy namunasi bo‘lgan – miflar odamlarning olam, borliq, tabiat haqidagi ibtidoiy tasavvurlari mahsuli sanaladi. Miflar – real voqelikka nisbatan ongsiz hissiy munosabat ifodasi, tevarak-atrofdagi hodisalarni illyuziya orqasida anglagan ibtidoiy dunyoqarashning tadrijiy ko‘rinishidir.

Mifologik tasavvurlar turli voqeliklarni uydirmalar bilan izohlaydi. Ammo ular yoyilgan joylarda

shunday xayoliy narsalarni to‘qib chiqarganlar hamda shularga ergashganlar miflarni rostdan ham ro‘y bergan hodisalar tafsiloti deb bilishgan. Yuzlab, minglab yillar mobaynida bunday tasavvurlar avloddan avlodga o‘tib, murakkablashib, boyib, shaklan va mohiyatan o‘zgarib, yanada kengroq areal (tarqalish hududlari) hosil qilib, ular haqidagi ma’lumotlar bugungacha yetib kelgan.

Asotirlarning mazmun-mundarijasi xilma-xil. Ularda olam va hayotning, osmon jismlarining paydo bo‘lishi va aksincha borliqning intiho topishi (oxirizamon), tabiat hodisalarining ro‘y berishi sabablari o‘ziga xos talqin qilingan. Shuningdek, antropogenik (odamlarga taalluqli) miflarda g‘ayrioddiy xususiyatli afsonaviy pahlavonlar, odamlar haqida so‘z borgan. Turli xalqlarda Gerakl, Gilgamesh, Qayumars, Odam Ato, o‘zbeklar orasida Odami Od, Olang‘asar, Doroko‘z, Hubbi va shu kabilar to‘g‘risida tarqalgan miflar fikrimiz dalilidir. Qolaversa, qadimgi odamlarning hayoti bevosita tabiat bilan bog‘liq bo‘lgani bois ov, hosil, suv, o‘simlik, olov, quyosh, yomg‘ir, fasllar kabi omil va hodisalarga, borliqda mavjud narsalarga topinishni, ularning sirli qudratini ifodalagan asotirlar ham juda keng tarqalgan. Bundan tashqari, o‘tmishda odamlar uchun o‘z kelib chiqishlari, qaysi qavmga mansub ekanliklari, qaysi urug‘- qabilalardan ekanliklari, nasl-nasablari qanday ekanligi ham g‘oyat muhim bo‘lgan. Ushbu omil etnogenetik miflar yuzaga kelishiga turki bergan. Prometey, Mishon va Mishona, Odam Ato, Nuh, to‘qson ikki o‘zbek urug‘i haqidagi miflar buning yorqin misolidir. Shuningdek, uzoq yillar davomida vaqt birliklari – kun, oy, yil hisobi, taqvim bilan bog‘liq miflar ham shakllangan. Biz bugun yaxshi biladigan ayamajuz, Ahman-dahman, chilla, to‘qson hisobi, Aziz momo, momaqaldiroq va chaqmoq “egasi”, Guldur momo to‘g‘risidagi asotirlar shularga yaxshi misol bo‘la oladi.[1;8.]

Ezgulik kuchlarining zulmatni o‘ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini aks ettirgan miflar badiiy tafakkur evolyutsiyasida muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa voqelikni estetik kategoriya sifatida anglash hamda badiiy so‘z orqali talqin qilish an’anasi kelib chiqqan. Asrlar davomida asotirlarning salmoqli qismi so‘z san’atining turli shakllari (og‘zaki va yozma adabiyot) hamda janrlariga singib ketgan. Jahondagi boshqa xalqlar singari o‘zbek folkloridagi ko‘plab epik syujetlarning, an’anaviy motivlarning ham genetik ildizlari bevosita mifologik tasavvurlarga borib taqaladi. “Avesto”, “Iliada”, “Mahabhorat”, “Ramayana”, “Shohnoma”, “Kalevala”, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi adabiy yodnomalarning yaratilishi zamirida ham bevosita mif omili yotibdi.[2;9]

O‘zbek folklorida “Avesto” asotirlaridagi Qayumars, Anaxita, Axriman singari personajlar, baxt va boylik timsoli bo‘lgan afsonaviy qush – semurg‘ (xumo), dev, pari, ajdar, ajina, alvasti, yalmog‘iz, suv kulti bilan bog‘liq Sust xotin, Suv xotin, Chala xotin, shamol “pir”i sifatida tasavvur qilingan Haydar, Yalli momo, Yalang‘och ota kabi ko‘plab mifik obrazlar ham mavjud. Qayd etish joizki, o‘zbek folklorshunosligida mifologik obrazlarning mohiyati, genetik ildizlari va epik talqini masalasi ko‘plab tadqiqotchilarimiz tomonidan mufassal o‘rganilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan.

Adabiyotshunoslardan biri mif omilining zamonaviy adabiyotdagi o‘rnini Chingiz Aymatov ijodiga bog‘liq holda quyidagicha baholagan edi: “Aytmatov asarlarining doim shov-shuv bo‘layotganiga sabab shundaki, u qissalarida ko‘pincha miflarni qo‘llaydi. Mif esa bu – ekzotika. Unga millionlab xorijiy kitobxonlar, ayniqsa, yevropaliklar rosa o‘ch bo‘lishadi”.

Buyuk adibning o‘zi bunga javoban shunday degan: “Asarga mifni kiritish kerakmi-yo‘qligini yozuvchining ichki tuyg‘usi belgilaydi. Agar uni ko‘r-ko‘rona kiritaversa, mif asosiy g‘oyaga hech bir aloqasi yo‘q keraksiz bir narsaga aylanadi. Menimcha, mifologizm hozirgi zamon prozasida alohida voqelikdir. Adabiyotshunoslik u bilan yanada jiddiyroq shug‘ullanishi zarur”. [3;2]

Shveytsariyalik atoqli psixolog va psixiator Karl Gustav Yungning fikriga ko‘ra, mifologiya o‘zida muhim va o‘zgarmas “ommaviy ongsizlik proyeksiyasi (tasviri)”ni gavdalantiradi. E’tiborlisi, olimning bu xulosasi asosida magik realizm ham mazkur proyeksiyadagi zaruriy, katta ahamiyatga ega bo‘lakdir deya hisoblashga asos bor. Zero, ushbu proyeksiya insonning real hayoti ko‘zgusi sifatida zamonaviy san’atning matnlararo yashirin imkoniyatlari hamda aloqadorliklarini ochib beradi.[4;274]

Miflarga yondashuv borasida Yevropa hamda Lotin Amerikasi magik realizmi bir-biridan farqlanadi. Lotin Amerikasi adabiyotidagi bosh falsafiy-badiiy tamoyil mifik tafakkurdir. Mifik dunyoqarashning bunday talqini aynan Lotin Amerikasi prozasiga xos. Adabiyotshunoslikda bu borada turli-tuman fikrlar o‘rtaga tashlangan; bu kabi yondashuvlarning kelib chiqishi magrealizm salaflarining asosiy asarlaridagi qarashlarga borib taqaladi. Kubalik yozuvchi Alexo Karpentyer (1904-1980) o‘zining 1949-yilda bitilgan “Kurrai zamin” romani muqaddimasida yevropalik ijodkorlarning “sehr-mo‘jiza”ni sun’iy tarzda qayta tiklash harakatiga Lotin Amerikasi xalqlarining xotirasida asrlar osha saqlanib kelayotgan qadim afsonalarni yangicha ohangda yaratish qobiliyati tufayli vujudga kelgan haqiqiy “sehr-mo‘jiza”ni qarshi qo‘ygan. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, fransuz faylasufi Jan Jak Russoning ma’rifatparvarlik g‘oyalari, inqilobga da’vat etuvchi turli shiorlar, sotsialistlarning utopik orzu-umidlari Lotin Amerikasining “jannatiy makon”iga zamonaviy miflarni yaratishga qobil badiiy tafakkurga zamin bo‘lib, yangicha his-

tuyg‘u, kayfiyat olib kelgan. Migel Anxel Asturiasning “Jo‘xori odamlar” romanida ham magrealizmning quyidagi xususiyatlari ko‘zga tashlanadi: qahramonlar odatda hindular yoki afroamerikalik (qora tanli)lar; ular Lotin Amerikasining o‘ziga xosligini ifoda etadilar, shuning uchun ularga yevropaliklardan o‘zgacha tafakkur hamda dunyoqarashga ko‘ra farqlanuvchi odamlar deb qaraladi. Bu kishilarning aql-idrokdan xorij shuuri va magik dunyoqarashi oq odam bilan o‘zaro hamjihat bo‘lishlarini shubha ostida qoldiradi yoki bunga imkon bermaydi; sohir realizm qahramonlarida shaxsiyat omili barham topgan: ular ommaviy mifologik ong tashuvchilari o‘laroq gavdalanishadi. Aynan shunday ong tasvirning bosh obyekti bo‘lgan va magrealistik asarga psixologik nasr alomatlarini singdirgan; yozuvchi tizimli ravishda tamaddun kishisining qarashlarini oddiy odamlarning qarashlari bilan almashtirib boradi. Shu yo‘sin mifologik ong prizmasidan asl haqiqatni ko‘rsatishga harakat qiladi. Buning natijasida haqiqat fantastik o‘zgarishlarning turli ko‘rinishlari bilan to‘qnashadi.[5;276]

Ayni shu holatlar bugungi o‘zbek adabiyotidagi izlanishlarda ko‘zga tashlanadi. Asar syujetini mifologik tafakkur asosiga qurish milliy romanchiligimizda keng tarqalayotgan hamda takomillashayotgan usullardandir. Shu tariqa madaniy, maishiy, tarixiy, siyosiy voqealarni qamrab oluvchi ijtimoiy realizm bilan mifologiya unsurlarining folklordagi talqinlarini o‘zaro muvofiqlashtirish orqali o‘ziga xos sintez yuzaga keldi. Milliy romanchiligimizda paydo bo‘lgan bunday yondashuvda xorij adabiyotining ta’siri seziladi. G‘arb romanchiligida mifopoetik tafakkurning kelib chiqishi masalalarini teran tadqiq etgan Ye.Meletinskiyning quyidagi fikrlarini sohir realizm tajribasi ilk bosqichda bo‘lgan zamonaviy o‘zbek so‘z san’ati namunalariga nisbatan ham qo‘llash mumkin: “Ushbu o‘ziga xos madaniy-tarixiy holat takrorlanib turuvchi arxitiplar modernistik izlanishlar va milliy o‘ziga xoslikning romantik mohiyati bilan o‘zgarib turuvchi organik sintezni, tarixiylik va mifologizm elementlari, ijtimoiy realizm va sof folklorning o‘zaro bog‘liqligi hamda interpretatsiyasini ta’minlaydi. Ushbu o‘ziga xos hodisani ifodalash uchun g‘arb tanqidchiligi “magik realizm” atamasini keng qo‘llaydi”.[6;365]

Miflar aniq bir xalq orasida paydo bo‘lib, milliy-etnik xususiyat kasb etadi. Muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibdagi bunday tizimi, asotirlarning bu yanglig‘ majmui mifologiya deyilishi bois yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, shumer mifologiyasi, o‘zbek mifologiyasi singari ko‘plab ajratmalar fanda alohida mustaqil hamda o‘zaro qiyosiy tarzda tadqiqot obyektlari bo‘lib kelmoqda. “Tarixiy taraqqiyot natijasi sifatida mif va marosimlar transformatsiyasi, poetik mushohadaning muntazamligi tufayli asotirlar og‘zaki adabiyotga, o‘z navbatida, og‘zaki adabiyot yozma so‘z san’atiga puxta zamin hozirlagandir.

Mifologik qatlam va yozma adabiyot munosabatlari masalasi milliy adabiyotshunosligimizda bir qancha tadqiqotlar doirasida o‘rganilgan. Ulardagi xulosalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, mustaqillik davri o‘zbek romanchiligida mifopoetik tafakkur bilan aloqador tasvirlar, mifologik qarashlar, folklordagi mifologik motivlar, xalq og‘zaki ijodidan oziqlangan milliy yozma adabiyotda aks etgan mifologizmlar, diniy-urfoniy dunyoqarash, yunon mifologiyasi va albatta, Lotin Amerikasi adabiyotiga xos “magik realizm” tajribasi asosida shakllandi hamda rivojlanmoqda. Shu jihatdan Ulug‘bek Hamdamning “Isyon va itoat”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Bozor”, “Donishmand Sizif”, Isajon Sultonning “Boqiy darbadar”, “Ozod”, Shodiqul Hamroning “Suratdagi ayol”, “Qaqnus qanotidagi umr”, Asad Dilmurodning “Fano dashtidagi qush” singari asarlari e’tiborga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jo‘rayev M., Narziqulova M. Mif, folklor va adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006 y. – 8-39-betlar.
2.Мифы народов мира: Энциклопедия. Электронное издание / Гл. ред. С. А. Токарев. – М., 2008. – С. 9-16.
3.https://ziyouz.uz/suhbatlar/shunda-bir-adabiyot-yarata-likki-chingiz-a-tmatov-va-anvar-joraboev-suhbati-1987/
4.Кислицын К. Магический реализм // Знание. Понимание. Умение. – 2011. – № 1, ст. 274-277.
5.Кислицын К. Магический реализм // Знание. Понимание. Умение. – 2011. – № 1, ст. 276.
6.Мелетинский Е. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976. – С. 365.

QISSADA BADIIY HAQIQATNING YANGICHA TALQINI

Farxod NIZOMOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, tayanch doktorant
Farkhodnizomov22@gmail.com
(O ‘zbekiston)

Annotatsiya. Maqolada mahoratli adib Luqmon Bo‘rixonning “Bir tomchi yosh” qissasi haqida mulohazalar bildirilgan. Asardagi obrazlarning hayot tutimi, ziddiyatli olami, qarama-qarshi dunyoqarashlari qiyoslangan. Muallif badiiy mahorati hamda voqelikka yondashuviga e’tibor berilgan. Qissaning yangicha badiiy talqinlariga, uning jahon adabiyoti mezonlariga uyg‘un tamoyillarini ochishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: uslub, xarakter, pafos, badiiy til, detal, badiiy haqiqat, ramz, absurt, novella, psixologik tasvir.

Annatation. The article comments on the story “Bir tomchi yosh” by the skilled writer Luqman Borikhan. The way of life, conflicting world, opposing worldviews of the characters in the work are compared. Attention is paid to the author's artistic skills and approach to reality. An attempt has been made to reveal new artistic interpretations of the short story, its principles compatible with the criteria of world literature.

Key words: style, character, pathos, artistic language, detail, artistic truth, symbol, absurd, novella, psychological image.

O‘zbek adabiyotida Luqmon Bo‘rixon tomonidan yaratilgan qissalar adabiy jarayonda muhim voqea sifatida e’tirof etilgan. Bu qissalarning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, unda aks etgan hayot haqiqatinining yangicha badiiy jihatlarini ochib berish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Muallifning “Bir tomchi yosh” qissasi uslubi qahhorona kinoyaviy tarzda, xalqona poetik jozibador ohangda yaratilgan. Uning g‘oyaviy-ijtimoiy dolzarbligi o‘tish davrida, bozor iqtisodi shakllanayotgan jarayonda hayotda o‘z o‘rni, o‘z kasb-korini topolmayotgan navqiron yigit Baxtiyorning xarakter qirralari qalamga olingan. To‘g‘ri, atrofdagi yaqinlari uning uchun g‘amxo‘rlik qilgan bo‘ladilar.

Quruvchilar tarkibida bezash ishlari bilan shug‘ullanib, biroz sarmoya to‘plagan Baxtiyorning shovqin-suronli Toshkentga borgisi yo‘q. Yozuvchi nutqiy xarakteristika usulida Baxtiyorning maqsad-muddaolarini psixologik ko‘lamda talqin etgan, uning mazmun-mohiyati shunday:

“- Uning endi Toshkentga borgisi yo‘q edi. to‘g‘rirog‘i, bu yerdagi ishini, tuzukkina tushumni, izzat-obro‘sini ko‘zi qiymaydi.

- Axir poytaxtga borsa hammasini noldan boshlashi kerak. E-he-ye, katta musavvirlar davrasiga kirib olguncha yana qancha ter to‘kish kerak. Ayni paytda Baxtiyorning bunga tobu-toqati yo‘q edi.

- Axir bu yerda pul topayapti, pul! Ham otasining ro‘zg‘orini, ham o‘zini boqayapti.

“ – Siz yurak xastaligi bo‘yicha hisobimizda turasiz, tez-tez bizning ko‘rigimizdan o‘tib turing”, - deya zorlangan mahalla vrachining gaplariga quloq solmay qo‘ydi.

- Hatto ba’zi bir boyvachcha buyurtmachilar ishdan so‘ng beradigan ziyofatlardan gandiraklab, arang qaytaradigan bo‘lib qoldi. Mayxo‘rlikka o‘rgana boshladi...” [1; 6-7].

Voqealar rivojidan ma’lum bo‘ladiki, qissa syujeti va umuman arxitekto-nikasida Baxtiyor hayotining kundalik manzaralari ko‘z oldimizdan kino lentasidek bir maromda o‘ta boshlaydi. Adabiyotshunos T.Rasulovning yozishicha, “Uslubni u yoki bu ijod tilidan yoki priyom va badiiy tasvir usullaridan emas, balki yozuvchilarining shu ijod tili hamda usullardan foydalanishdagi o‘ziga xos, original xususiyatlari, individual “pocherk”idan qidirish maqsadga muvofiqdir” [2;155].

Luqmon Bo‘rixon ijod dunyosiga, adabiy uslubiga tegishli tasvirda gogolona, qahhorona istehzo, qochirim, borliqqa, inson va hayotda tanqidiy-isyonkorona munosabat xosligi bilan e’tiborni tortadi. Yozuvchining individual “pocherk”i – ya’ni, o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy kredosi, tasvirlash uslubi xalqona jozibaga, lirik ko‘lam va psixologik tadqiqotga egaligi bilan muhimdir. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshning qayd qilishicha, Luqmon Bo‘rixon o‘z asarlarida “atay ijtimoiy muammo ko‘tarmaydi, balki odam taqdirini aks ettiradi. Odam esa hamisha ijtimoiy muammolar og‘ushidadir” [3; 5].

Baxtiyordek oddiy yigitning bozor iqtisodi maydonidagi tinimsiz izlanishlari tashqaridan oddiy va kundalik voqelik kabi ko‘rinishi bilan jiddiy ijtimoiy muammo maqomida talqin qilingan.

Ayni vaqtdagi bu obraz kayfiyatida zohir tushkun holati bilan parallel jarayon. Darhaqiqat, hayotidan mamnun bo‘lmagan yigit o‘sha davrada ichish, yeyish, davraning shodon ruhiga qo‘shilib ketish

uchun kuch topmaydi. Binobarin, yozuvchi buni uning mayga hushi yo‘qligi, mayusligi kabi ramziy-istioraviy talqinda ifodalagan:
“- O‘sha kuni Baxtiyorning ta’bi mayga ko‘p tortmadi. Bu kayfiyatsizlik ta’siri edi;
- Ikkov ora-ikkov ora bo‘lib, allaqanday ikir-chikirlar haqida gaplashib, bahslashib yotgan davrani Baxtiyor esa mayus kuzatib o‘tirardi;
- Nogoh uning ko‘zi hovuz tubidagi ko‘lmakda balqib turgan yulduzlarga tushadi” [1;22].
- Isqirt bir ko‘lmak yuzida balqib turgan yulduzlar istioraviy tarzda hayotdagi oq va qoraning, ezgulik va yovuzlikning, quvonch va qayg‘uning poetik-ramziy ifodalariga ishora ekanligi barchaga ham ma’lum bo‘lavermasligiyam mumkin (shu iasvir kitobxon xotirasida beixtiyor Abdullo Oripovning “Oltin baliqcha” fojiasini esga tushiradi), chunonchi, choyxonaning eski chorpoyasida maishat qilib o‘tirgan quruvchilarning bu konrast manzara bilan mutlaqo ishlari yo‘q; bu bechora odamlarning mo‘l pul keladigan biron qulay ish topishdan, bu pulga yayrab maishat qilishdan, bo‘g‘ziga kelguncha mayxo‘rlik qilishdan o‘zga ilinji va intilishi yo‘q; psixologik mahorat ustasi bo‘lgan yozuvchining bu teran poetik-ramziy talqin orqali mustaqillikni mustahkamlashdek o‘ta mas’uliyatli davrga turli toifa kishilarining befarqlik fojiasi istehzoli tarzda tasvirlanganini badiiy jihatdan ko‘rsatishdan ko‘zlangan niyati o‘z-o‘zidan ayon bo‘ladi; yozuvchi davr va shaxs, mas’uliyat va loqaydlik g‘oyaviy pafosini asar matni markaziga qo‘yib, bu dolzarb falsafiy-ijtimoiy niyatlari ifodasida ramziylik-istioraviylikning quyuq poetik talqinlriga suyanganligini anglab yetish qiyin emas;
“- Tun! Qop-qora, motamsaro daraxtzor!
- Ko‘rganlari Baxtiyorga sirli bir hikmatlar so‘ylardi, fikratiga sirli bir ishora qilardi”.
E’tibor beraylik: yozuvchi Baxtiyor tiynatini, uning davradoshlaridek mazaxo‘rak, maishatboz to‘dalar olamidan naqadar uzoq turuvchi tiynatini psixologik tahlil ko‘lamida, aniqrog‘i, Baxtiyorning ichki kolliziyalar, ruhiy to‘lg‘onishlar fonida hayotiy jozibasi bilan ko‘rsata olgan.
Baxtiyorning atrofidagi – u qo‘shilib ishlayotgan quruvchi ustalarni kamsitmagan, ayblamagan holda, yozuvchi sirli-sinoatli oqshomdagi osmon, yulduzlar obrazi – ya’ni, ramziy ma’roga uyqash tarzda bu yerdagi kishilar ma’naviyati va farosatini taroziga tortib qiyosan ko‘rsatadi.
“ – Ha, qaranglar! Ko‘lmakka bir hovuch yulduz tushib ketibdi!” – deydi Baxtiyor. U bu bilan o‘zining shoirona kayfiyatiga, nozik intilishlariga, obrazli tafakkuriga aroqxo‘rlarni ham jalb qilmoq niyatida edi.
“ – Eh, bor-yo‘g‘i shumi, men nima balo ekan deb o‘ylabman”, - deya mastona po‘ng‘illaydi brigadir. U bu “valakisalang” bilan go‘zal tuyg‘ularini qadrlay oladigan kimsa emas, albatta.
Luqmon Bo‘rixonning nasriy mahoratini takomillashtirish yo‘lida jahon adabiyoti namunalaridan ilhomlanganligi ma’lum bo‘ladi. Masalan, buni qahramonni qayg‘u-hasrat, tushkun holatlarida talqin etish boraisda modern adabiyoti, absurd yo‘nalish holatlariga, sirli sinoatlar bag‘rida tasvirlash uslubida kuzatish mumkin. Dedektiv-sargazusht adabiyoti asoschisi deb tan olingan Edgar Allan Poning “Sukunat”, “Vaqt o‘rog‘i” novellalaridagi obraz va absurd muhit, qahramonning sirli ma’vo bag‘rida tasvirlanishi “Bir tomchi yosh” qissasi qahramoni Baxtiyorning tushkun taqdiri bilan mushtaraklik holatlar e’tiborni tortadi.
Edgar Allan Poning “Sukunat” novellasi olis Liviyadagi “huvillagan o‘lka”da Iblisning asar qahramoni (“men”ga)ga hikoya qilgan voqeligi asosiga qurilgan. Bu “o‘lka” misoli qiyomat ro‘y bergan la’natlangan makonga o‘xshaydi: “orom ham skunat ham yo‘q” bu makonda: daryo suvi za’farli; botqoqlikda o‘lgan ulkan bo‘yli suv lolalari xo‘rsinishadi; zahmatli qorong‘ilik; qilt etgan shabada yo‘q; qonli yomg‘ir yog‘adi... Shunday borliqda xarobat qurilishi hukmron o‘ta tushkun va qo‘rqinchli muhitda, rivoyachi (“men”) botqoq gullari orasiga yashirib, yolg‘iz odamni kuzatadi. Bu odam fenomeni sirli g‘aroyib ma’volar bag‘rida chiziladi:
- Inson qomatdor va ulug‘vor edi, yelkasidan tovonigacha qadimgi rumo ridosiga burkangan edi;
- Uning jussasi elas-elas ko‘rinar, ammo yuzidan nur yog‘ilardi;
- Tun qorong‘iligi, tuman va shabnamning harir pardalari uning chehrasini to‘solmasdi;
- Manglayi o‘ylardan baland, nigohi tashvishlardan telbavash, peshonasidagi ajinlar yozuvi, g‘am-anduh, charchoq, horg‘inlikdan so‘zlardi;
- bashar avlodlaridan ko‘ngli qolgan va yolg‘izlik qo‘msagan bu bechora kishi ozurda qalb hikoyasini aytardi;
- Inson xarsangga o‘tiradi, boshini qo‘liga tiraydi, qarshisidagi xarobot manzarasiga qaraydi;
- U pastak, oromsiz butalarga, baland yovvoyi daxatlarga, guvillagan sadolarga to‘la samoga, bag‘ri qonga belangan oyga hayrat-la qaraydi;
- Inson yolg‘izlikdan titrardi; lekin tun oxirlab borar, u hamon qoyada o‘tirardi, balki nima qilishini, ikki oromijon kimsa maqomida namoyon bo‘lardi [4, 190-191].
Xarobot muhitga tushib qolgan bu noma’lum odam (umuman, inson timsoli) faoliyati Baxtiyorning o‘zi xohlamagan muhit, harakat-munosabatlar og‘ushidagi ahvolotini eslatadi. Baxtiyor ifloslangan suv qoldig‘i

miltillab turgan eski hovuz holatidan nojoiz hayot, nomatlub taqdir aziyatlarini sezib, qiynalsa, to‘g‘ri va oydin yo‘l orzui bilan kuyib-yonsa, asosiy omma-quruvchilar esa shirin va mazali taomlardan, o‘tkir ichimliklardan boshqa narsa bilan ishlari yo‘q. Asarda ikki toif parallel tasvmrlangan, birinchisi Baxtiyor timsolida ma’naviy komillikka intilga , ijodiy fikrlaydigan, yurt taqdiriga befarq bo‘lmagan shaxslar umumlashmasi; ikkinchi toifa, o‘tkinchi hoyu havaslarga g‘arq qururvchilar – olomon timsoli.

Luqmon Bo‘rixon badiiy mahoratining jozibasi psixologik talqin borasidagi san’atkorligi bilan ham belgilanadi. Baxtiyorning so‘rida quruvchi sheriklari bilan ulfatchilik davrasida qarshisidagi “qop-qora bo‘shliqqa mayus-mahzun” holda beixtiyor tikilib qolishi bilan bog‘liq mikrosyujet talqinidagi holati uning ruhiy olami iztiroblar silsilasini ifodalashi – psixologik tahlil in’omi sanaladi. Ovqatdan, maishatdan, aroq simirishdan boshqa narsani bilmaydigan, asosiy gaplari pul topish va qorin to‘ydirish bo‘lgan ma’naviyatsiz to‘da davrasi iste’dodli yigitning xayfini va xo‘rligini keltirishi tabiiy hol. Unga istagan niyatlariga yeta olmayotganligi, rassomlik iste’dodini namoyish etish imkonining cheklanganligi, muhitning torligi, bir tomondan oila tebratish burchi munchagina sarmoya topishga majbur ham qilishi – beixtiyor xo‘rligini keltirishi mantiqqa mos badiiy psixologik talqin. Ta’kidlash joizki, hovuz, ko‘lmak, shu ko‘lmakda bir hovuch yulduz aksi, qop-qora bo‘shliq, mas’uliyatsiz maishatboz quruvchilar kabi detallar o‘z bag‘rida Baxtiyor uchun nojoiz taqdir ramzlari sanaladi.

Asli yurak xastaligi bila n og‘rigan Baxtiyor o‘n kuncha viloyat kasalxonasida davolanib chiqadi. Kasalxonadan tuzalib chiqar chog‘i doktor yana odatdagiday tayinlaydi: “Sizga qattiq ta’sirlanish taqiqlanadi. Spirtli ichimliklardan mutloq uzoq yuring”.

“- Baxtiyor odatdagiday bosh irg‘ab qo‘yadi, xolos. O‘sha tunda ko‘rgan eski hovuz, yulduzlar manzarasi hali-hanuz uning ko‘z o‘ngida turardi; Kasalxonadan chiqiboq mo‘yqalam tutishni mo‘ljallab yurardi. Bu uning doimiy orzu-armoni edi “Agar shuni ham eslasam, ikkita zo‘r kartinam bo‘ladi, - xayolidan o‘tkazdi u, keyinroq Toshkentga olib boraman. Eng mashhur rassomlarga ko‘rsatib maqtanaman...”; Yaxshisi bira to‘la poytaxtga ko‘chib ketishni o‘ylaydi; Faqat ijod qilib, ijod bilan shug‘ullanishni shirin xayol qiladi, ammo bunga ishonchi ham yo‘q edi. Ungacha ro‘zg‘or-oila iqtisodini tiklab olish, uch-to‘rt yil ishlasayam ro‘zg‘ori kechadigan darajada mablag‘ g‘amlashni shirin xayol qiladi [1;30-33];.

Yozuvchi qissadan ko‘zlagan bosh g‘oyaviy niyatiga muvofiq bozor iqtisodi shakllanayotgan palladan yosh yigit Baxtiyorning besaranjom hayoti manzaralarini tasvirlashda o‘ta xarakterli hayotiy voqeliklar, yorqin adabiy detallar yordamida kitobxonni ishontirish maqsadlariga erisha olgan. Baxtiyorning o‘ylaganlari orzuligicha qolib ketadi.

Luqmon Bo‘rixon asarlarida, jumladan, “Bir tomchi yosh” qissasida realistik, psixologik yoki ramziy-istioraviy uslublar qatorida sharqona pandnoma axloqiy-falsafiy o‘git g‘oyaviy pafosi ham tabiiy poetik maqomda sintezlanib ketganligi ko‘zga tashlanadi. Muallif asar qahramonlari xarakterini ochib berish, tabiiy fenomenini talqin etish maqsadida adabiy tasir vositalaridan unumli foydalana oladi. Bu voqelikdan badiiy voqelik yaratish mahoratida ham namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bo‘rixon L. Quyosh hali botmagan. T., “O‘zbekiston”, 2015, 5-bet (368 bet).
2.Расулов Т. Адабий ижодда услуб // Адабиёт назарияси. Икки томлик. 2 том. Адабий-тарихий жараён. “Фан”, Т., 1979, 155-бет (448 бет).
3. Yo‘ldoshev Q. Badiiy kamolot yo‘li // Bo‘rixon L. Quyosh hali botmagan. T., “O‘zbekiston”, 2015, 5-bet (368 bet).
4. По Э.А. Сукунат // По Э.А. Буюк Темур. “Янги аср авлоди”. Т., 2016, 190-191-бетлар (304 бет).

NASRIY ASARLAR ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TADBIRKORLIKKA OID BILIMLARNI O‘RGANISH

Djaxangirova Zuxra Tursunovna,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
zuxra tursunovna.93@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda nasriy asarlarning muhimligi, badiiy-ijtimoiy adabiyotlarning o‘quvchilar psixologiyasiga ta’siri, kitob mutolaasi orqali ilmiy bilimni rivojlantirishning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan. Bu borada ba’zi tavsiyalarni berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, tadbirkorlik, import, eksport, iqtisod, tarbiya, epik adabiyot, mas’uliyat, axloq, ko‘nikma.

Annatation. In this article, opinions are expressed about the importance of prose works in the formation of entrepreneurial skills in elementary school students, the influence of artistic and social literature on the psychology of students, the importance of developing scientific knowledge through reading books. Some recommendations have been made in this regard.

Key words: primary class, entrepreneurship, import, export, economy, education, epic literature, responsibility, ethics, skills.

Boshlang‘ich sinflarda berilgan nasriy asarlar o‘quvchi yoshiga hamohang va ularni his etish va anglashiga imkon yaratish bilan bir qatorda, fikrlash, tafakkur qilish holatlariga ham ijobiy ta’sir qilishi lozim. Mavjud darsliklarga nazar tashlar ekanmiz, undagi matnlarning bolalarga xos ohangda ekanligini anglash mumkin. Buning zamirida o‘quvchi qalbiga ta’sir qiladigan, uni dunyoqarashi va tafakkuriga monand bo‘lgan asarlarning badiiy matni bilan tanishish mumkin.

XX asrga kelib jahon sivilizatsiyasi yuksak darajaga ko‘tarildi. Buning zamirida inson tafakkuridagi qarashlar ham yangilanib, boyib kelmoqdaki, bu esa o‘z navbatida insonni anglash, borliq haqida tushunchaga ega bo‘lishga qaratilgan mulohazalarni kengayishiga imkon yaratdi. Asarlar davomida shakllangan milliy pedagogika tarixi taraqqiyoti, bugungi jarayondagi o‘rni, o‘qish va o‘qitishdagi muammolar, boshlang‘ich sinflarni o‘qish va o‘qitishda ilg‘or tajribalarni qo‘llash usullarini joriy etish ehtijoni bujudag kelishida ham zamonaviy taraqqiyotning sezilarli ta’siri mavjuddir.

Ilg‘or tajribalarini bugungi kunda boshlang‘ich sinflarda joriy qilish, eng mukammal usullarning samaradorligini qniqlash jarayonida bolalar ruhiyatiga, uning qarashlariga hamohang tarzda shakllantirish har bir ziyolining, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qutuvchilarining asosiy vazifasi ekanligini teran anglash asosidagina, o‘quvchi va o‘qituvchilik mas’uliyatini his etish, barkamol avlodni tarbiyalashdek, marakkab va estetik zavq beradigan darajaga ko‘tarishga qaratilganligini qayd etish lozim.

Boshlang‘ich sinflardagi bolalarning o‘zgacha dunyoqarashi, mulohazasi mavjud bo‘ladi. Bu esa idrok etish holatini namoyon qila boshlaydi. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Shuning uchun ham nazariy manbalarda qayd qilinganidek: “Sezgilar, odatda sodda, elementlar psixik jarayonlar deb hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g‘oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo turli buyumlar, chunochi, binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika buyumlari va hakozolar kiradi. Biz musiqa, surat, rasm va boshqa san’at asarlarini idrok qilamiz” [1,95-bet].

Asosli qayd qilinganidek, idrok qila olish, sezgilarimiz orqali seza olish hissi mavjudligi uchun olam va odamni anglay boshlaymiz. Xuddi shu jarayonda bola psixologiyasi bilan bir qatorda, insonni anglash uchun qilingan harakatlari, uning ruhiy-ma’naviy olamini, umumta’lim o‘quvchilarining tafakkur tarzini o‘rganish uchun asos bo‘ladi. Bolaning tasavvurini uyg‘otish uchun uning idrok qila olish qobiliyatini eng avvola farqlash jarayonida aniqlab borish lozim.

Bu tushunchalarni qayd qilishimizning sababi ham, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qarashlarini mulohazalarini enmg avvalo ovrganish, ularning tushunchalari qay tarzda ekanligini to‘g‘ri his etishimiz zarurdek tuyuladi. O‘quvchi yoshlar psixologiyasining o‘ziga xosligi shundaki, bola oilaviy sharoit tufayli, umuman, mustaqil fikrlamaslik, kimnidir orqasidan ergashish, uning hatti harakatlariga hamohang qadam tashlash holatlari ham ba’zan etakchilik qilishi kuzatiladi. Ammo oilada bir oz bo‘lsa-da, fikrlar, qarashlarni shakllantirish har bir ota-oananing asosiy vazifasidan biri hisoblanadi. Farzandni dunyoga keltirish bilan bir qatorda uning yetuk tafakkur tarzi ham barchamizning asosiy vazifalarimizdan biri bovlib qolmoqdaki, bu jarayonda o‘qitivchi, oila, psixolog o‘zaro bir nuqtada birlashishi, hamohang ish yuritishi talkab etilishini, umuman, unitmaslik kerak.

“O‘z o‘quvchilarini yuqori insoniy fazilatlarsohibi etib tarbiyalashni maqsad qilgan o‘qituvchi, avvolo bolalarni o‘z fanifa qiziqtirishi, kitobga oshno etishi joiz. Chunki kitob shunday qudratli kuchki, unga oshno bo‘lgan kattani ham, kichikni ham o‘ziga sezdirmagan holda insoniylikning baland sarhadlari sari etaklaydi. Biroq kitobga, mutolaga qiziqtirish faqat buyurish, topshiriq berish bilan amalga oshirib qoladigan vaziga emas” [2,14-bet].

Ta’kidlanganidek, o‘quvchilarni fanga, badiiy asar mutolaasiga qiziqtirishda, mashg‘ulotlarni tashkil etishda har bir muallim o‘z tajribasidan kelib chiqib o‘quvchilar bilan muomila qilishi, ularga faqat topshiriqni berish va uni nazorat qilishgina emas, balki, ularning ruhiy-ma’naviy olamiga kirib borishi, har bir birining mustaqil qarashlarini tinglashi, e’tibor berishi, uni qarashlariga bir oz bo‘lsa-da, munosabat bildirib, rag‘batlantirib borishi lozim. Shundagina o‘quvchida fanga nisbatan, nafaqat qiziqish, balki, ularning qarashlariga hamohang mulohaza yuritish lozimligini unitmaslik kerak.

Boshlang‘ich sinflarda, o‘qish, yoki adabiyot, yoki ona tili darsi bo‘lsin qat’iy nazar, ovquvchini mustaqil fikrlashga undash, shu orqali, ilk kunlardanoq, bolaning ruhiyatiga sezilarli ta’sir o‘tkazish lozim. Bola psixologiyasida yanada yaxshiroq fikrlashim, mustaqil harakat qilishim kerak degan, individual

qarashlarni yuksaltirish lozim. Ona tili darslarida matn, nasriymi, nazmiymi qat'iy nazar ifodali o'qishga, har bir so'zning ma'nosiga e'tibor qaratishga, undash o'quvchini mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat ochib boradi. Bu qarashlarning zamirida bolalarning xotirasini kuchaytirish, ularning har birini qarashlarini inobatga olish lozim bo'ladi.

Har bir matnni o'qituvchining o'zi bolalar qalbini "jizallatib" yuboradigan darajada o'qib berishi, shundan keyin bolalarni birma-bir qisqa satrlarni o'qitishi, ulardan qayd qilingan matnning mohiyatini tushuntirishni, og'zaki bayon etib berish kerakligini ta'kidlashi zarur. Bularning zamirida insonni anglash, bola qalbida ustozim kabi go'zal o'qishim kerak, degan ruhni shakllantirish yo'lidan borishi kerak. Har bir dars nomiga emas, go'zal hayot darsi darajasida o'tilishi, o'quvchilarning qalbini, borlig'ini larzaga soladigan, hayajonlantiradiga shaklda jonli muloqot asosida, turli-tuman metododlardan foydalangan holda o'tilishini ta'minlash lozim.

"Ta'lim taraqqiyotining bugungi darajasi o'qituvchidan zamonaviy axborot texnologiyalaridan mohirona foydalana olishni taqozo etmoqda, Chunki ayni axborot texnologiyalari o'qituvchiga ma'ruza matnlari va darsliklarni kompyuter xotirasiga kiritish, turli tajribalar o'tkazish, animatsiya, slaydlar, ko'rgazmali qurollar yaratishga imkon beradi" [3,13-bet].

Boshlang'ich sinflardagi o'quvchilarni etuk va barkamol shaxs qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifalarida biri sifatida e'tirof etilishining zamirida ham juda katta asoslar mavjud. Shuning uchun ham insonni anglashda bolalarning yoshligidan mustaqil fikrlashga, ularning tushuinchalarini boyitishga harakat qilinsagina, kelajakda ularning qarashlari asosida taraqqiy etish mumkinligi qayta-qayta ta'lidlanishida ham asoslar mavjud.

Xullas, mamalakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy hayotida amalga oshiralayotgan tub islohatlar jamiyatimiz va o'qituvchilar oldiga davlat siyosatining ustivor vazifalaridan hisoblangan ta'lim jarayonlarini barcha jabhalarda yaxshilash va yosh avlodni bugungi jahon talablari darajasida tarbiyalash vazifasini ko'ndalang ko'ymoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Ivanov I.P., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, 2021. – 480 B.
2.G'ulomova N. Adabiyot darslarida o'quvchilarni badiiy asar mutolasiga qiziqtirish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2010. 7-son, 14-bet.
3.Mirkamolova M. Adabiyot darslarida "Power point" Dasturidan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2008. 2-son, 13-bet.

ABDURAUF FITRAT IJODIDA BADIIY SAN'ATLARNING ILMIY TAHLILI

Usmonova Shahnoza Erkinjonovna
Namangan davlat universiteti
1-kurs tayanch doktoranti
Namangan xalqaro universiteti
"Ijtimoiy gumanitar fanlar" fakulteti
"Boshlang'ich ta'lim va o'zbek tili"
kafedrasi o'zbek tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya.*Ushbu ilmiy maqolada Abdurauf Fitrat asarlari davrlashtirilgan va uning she'rlarida badiiy san'at hamda so'zning leksik jihati tahlili keltirilgan.Shu bilan birga Abdurauf Fitrat she'riyatida ko'zga tashlanadigan nozik jihatlar ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *davlat va jamoat arbobi, ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati, adabiyot nafosati va sehrlarini idrok etish, nido san'ati, tashxis san'ati.*

Аннотация: *В данной научной статье датировано творчество Абдурауфа Фитрата и представлен анализ художественного искусства и лексического аспекта слова в его стихотворениях.*

Ключевые слова: *государственный и общественный деятель, творчество и общественная деятельность, восприятие изысканности и волшебства литературы, искусство восклицания, искусство диагностики.*

Annotation. *In this scientific article, the works of Abdurauf Fitrat are dated and the analysis of artistic art and the lexical aspect of the word is presented in his poems.*

Key words: *statesman and public figure, creativity and social activity, perception of the sophistication and magic of literature, the art of exclamation, the art of diagnosis.*

Abdurauf Fitrat XX asr o‘zbek adabiyoti, fan va madaniyatning yirik vakili. U qomusiy bilimga ega olim, adabiyot nazariyatchisi o‘tkir tilshunos, betakror dramaturg va shoir, jangovar publisistik noshir va jurnalist, talantli davlat va jamoat arbobi edi.

Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o‘zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she’r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy muammolarning o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo‘shdi.

Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga bo‘lish mumkin:

1-davri 1909-1916-yillarni o‘z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jadid ma’rifatparvari sifatida ijod qilgan.

2-davri 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol g‘oyalari bilan to‘yingan asarlar yozadi.

Ijodining 3-davri 1923-1937-yillarga oid bo‘lib, Sho‘ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo‘lgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogik ishlar bilan shug‘ullanadi. Fitrat nasrda ham samarali ijod qilgan. XX asrning 10-yillarida sahna asari sifatida namoyish etilgan „Munozara“ Fitratning nasrdagi ilk asaridir. „Munozara“ ham „Sayyohi hindi“ ham Fitrat publitsistikasining yorqin namunalaridandir. Fitrat keyinchalik ham ijtimoiy, huquqiy, ma’naviy hamda estetik qarashlarini ifodalashda publitsistikadan samarali foydalandi. Faqat 1920-yillarning o‘rtalariga kelibgina u „sof“ nasriy asarlarni yarata boshladi („Qiyomat“, „Me’roj“, „Oq mozor“, „Zayd va Zaynab“, „Zahroning imoni“ va boshqalar). „Munozara“ va „Sayyohi hindi“ asarlarida ko‘tarilgan milliy qoloqlik, diniy fanatizm mavzusi XX asrning 20-yillari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega edi. [1;20]

“Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yorug‘siz turmalarda yotganda, yirtiq jandarmaning tepkisi bilan yiqilganda, yurtlarimiz yondirilganda, dindoshlarimiz osilg‘anda ongimiz yo‘qoldi. Miyamiz buzildi. Ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi. Biz hech narsani ko‘rolmadik. Shu chog‘da tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun shul qop-qora dunyoning uzoq bir yeridan oydin bir yulduz yarqirab turar edi. Bizning biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘rar edi”. [2;5]

Fitrat shunday so‘zlar bilan xalqqa da’vo qilgan ekan:

“Men sen uchun tug‘ildim, sen uchun yasharman, sen uchun o‘laman, ey turning muqaddas o‘chog‘i”, - degan davat eshitildi.[3;6]

Uning ijodiy ishlari va ijtimoiy faoliyati xalqni jaholat, turg‘unlik, g‘aflatdan uyg‘otish, ilm ma’rifatga chorlash, erkin, ozod, baxt-saodatli hayotga, birinchi navbatda, milliy mustaqillikka chorlashga qaratilgan edi.

Adabiyotdagi badiiy tasvir, ifodaviylik va xushohangdorlik vositalari badiiy san’at deyiladi. Buni o‘rganadigan fan “ilmi sanoe” yoki “ilmi badie” deb nomlanadi. [4;128]

Sharqda she’riyatning asosiy janrlardan bo‘lganligi uchun ham she’riy san’atlar o‘rniga badiiy san’atlar jumlasi ko‘p qo‘llaniladi. Matnda ma’noni teranlashtiradigan, ko‘p ma’nolikni yuzaga chiqaradigan xilma-xil badiiy vositalar bo‘ladiki, ularni matn va ma’no mazmuniga ko‘ra idrok etamiz.

San’at - “sun” so‘zidan olingan bo‘lib, ya’ni “yaratmoq” ma’nosini beradi, bu esa badiiylik yaratish demakdir.

Badiiylik yaratishning yo‘llari ko‘p. Badiiy san’atlar asarda ifodalangan g‘oyalarning hayotiyroq, tasirchanroq ifodalashni, lirik va epik timsollarning yorqinroq gavdalantirilishni ta’minlaydi, shuning uchun u misralarda, bayt va bandlarda lavziy nazokat, musiqiylikni va jozibadorlikni ta’minlovchi vosita hisoblanadi. Badiiy san’atlar ikkiga bo‘linadi:

1. Ma’naviy san’atlar .
2. Lafziy san’atlar . [4;114]

Madomiki, biz keng ma’nodagi san’at ichidagi amaliy va badiiy san’at turlarni o‘rganar ekanmiz, ularni farqlovchi va umumlashtiruvchi jihatlari bo‘lishi lozim. Bu o‘rinda umumlashtiruvchi jihati shuki, har ikkallasi ham go‘zallik qonunlari asosida did va mahorat bilan yoritilgan. Farqli jihatiga kelsak, ulardan eng muhimi shuki, amaliy san’at mahsuli insonning moddiy ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi, badiiy san’at esa insonning ma’naviy ruhiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiladi. Badiiy san’atlar o‘quvchi uchun adabiyot nafosati va sehrlarni idrok etish maktabi bo‘lsa, havaskor shoir uchun mahorat saboqlaridir.

Go‘zalim, bevafo gulistonim,
Bog‘i umrimda toza rayhonim.
G‘am-u qayg‘ularim hujumida,

Sen eding mehribon nigohbonim.

Yuqoridagi she’riy baytning birinchi misrasida “go‘zalim” so‘zi orqali nido san’ati qo‘llangan, keyingi qatorlarda esa jonlantirish va istiora san’atidan foydalangan, “g‘am-qayg‘u” so‘zalari orali uyadoshlik yuzaga kelgan, “nigohbonim” so‘zi ham istiora sa’natini ifodalagan.

Nido boshqa she’riy san’atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayojonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi.

Tashxis san’ati badiiy asarda tabiatdagi narsa-hodisalarni jonlantirish, shuningdek, hayvonlar, qushlar jonsiz narsalarga inson xususiyatini ko‘chirish san’ati hisoblanadi.

Istiora san’ati arabcha so‘z bo‘lib, “qarz olish” san’ati hisoblanadi. Bu san’at ikki narsa o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi.

Meni behuda tashlading ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tashlading ketding. [5;4]

Yuqoragi misrada tanosib san’ati qo‘llanilgan. Tanosib deb baytdagi bir-biriga aloqador, o‘zaro daxildor bo‘lgan so‘zlar ishtirokiga aytiladi.

Kel, gulim, kel, oyoqinga yiqilay,
Bir zamon qo‘y, to‘lib-toshib yig‘lay

Quyidagi misralarda “Kel, gulim” so‘zi bilan boshlanib nido san’atini yuzaga keltirgan.

Qo‘y, biroz qo‘yki, xoki poyinga, Surmadek yoshli ko‘zima
suray.

Bu misrada biz ko‘rishimiz mumkinki, “surmadek” so‘zi orqali tashbeh san’ati ; “yoshli ko‘zima” jumlasi orqali sifatlash san’ati yuzaga kelgan.

Tashbeh adabiyotda keng tarqalagan san’at turlaridan uni qisqacha qilib o‘xshatish desak bo‘ladi.Tashbehda narsa, belgi va harakat kabilar boshqasiga o‘xshatish, qiyoslash orqali tasvirlanadi:

Sening og‘ushi iltifotingda,
Rahot etmishdi jismi bemorim.

Quyidagi misrada tamsil sa’nati, ya’ni bu san’atda birinchi misradagi ruhiyat keyingi misrada ham davom etadi, ya’ni dalilab ko‘rsatadi.

Kel, oyoqingg‘a qon bo‘lib to‘kilay,
Bir nafas dard-u hajrdan qutilay, Kel,go‘zak
dilbarim,kel,soching
Bir taray, bir o‘pay-da, so‘ngra yiqilay. [6;43]

Bu misralarda tanosib, istiora, nido san’atlaridan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Ma’naviyat nashiriyoti .Toshkent, 1998, 20-b.
“Hurriyat” gazetasi. Toshkent, 1997, 5-b.
“Ulug‘ Turkiston” gazetasi. 1917, 2-son, 6-b.
4. Quronov. D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, 2018,114-b,128-b.
5. “Chin sevgi” gazetasi. Toshkent, 1996, 4-b.
6. A.Fitrat saylanma. Toshkent, 2009, 43-b.

ҲАЙЁМ РУБОИЙЛАРИ АТРОФИДАГИ ҚАРАШЛАР

Султанова Зулхумор Сабатуллаевна
Узбекистон-Финландия педагогика институти укитувчиси.
zulhumorsabatulaevna@gmail.com

Аннотация : Мазкур мақола Хайёмнинг жаҳон миқёсидаги шон – шуҳрати, унинг рубоийларининг тадқиқ қилиниши ва баҳолашига қаратилган.

Калит сўзи: рубоий, хайёмшунослик, илмий, моддий ва фалсафий қарашлар.

Аннотация: В данной статье основное внимание уделяется мировой известности Хайяма, исследованию и оценке его рубаята.

Ключевые слова: рубаи, хайямоведение, научные, материальные и философские взгляды.

Annotation: This article focuses on Khayyam's world fame, research and evaluation of his rubaiyat.

Key words: rubai, Khayyam studies, scientific, material and philosophical views.

Хайём ўзининг бетакрор асарлари ва тафаккури билан ҳур фикрли шоир ва буюк математик, мунажжим, дақиқ олим сифатида жаҳон адабий ва илмий тафаккури тарихида ўз ўрнини топди, шуҳрат қозонди. Вақт ўтиши билан унинг шуҳрати ортиб борди. Хайёмнинг жаҳон миқёсидаги шон-шуҳрати адабиёт тарихида унинг асарларини тадқиқ қилиш ва баҳолашга эътибор қаратадиган адабиётшуносликнинг алоҳида йўналишини юзага келтирди. Бу йўналиш хайёмшунослик бўлиб, унинг шаклланиши ва ривожланишида Ғарб ва Шарқ шарқшуносларининг хизматлари каттадир.

Хайёмнинг инсоний ва бадиий қиёфасини аниқлаш ва очиб беришда рус хайёмшуносларининг, айниқса, 50 – йиллар ва кейинги йилларда эришган муваффақатлари катта аҳамиятга эга бўлиб, бу соҳанинг шаклланиши ва ривожланишида хизмат қилди. Жумладан, С.Б.Морочник ва Б.А.Розенфелд “материалистик фикр баёни тамойилини” [2, 59] шоир рубоиёти мундарижасининг муҳим томони сифатида таъкидлаб, Қифтийнинг “бу шеъриятнинг ичи чақувчи илон ва залолатга эргашган кишиларга қарши” деган фикри ва Нажмиддин Розийнинг Хайёмни “Фалсафий, даҳрий ва шеъриятида акс этганидек сарсон ва ўз ички оламига йўқолган инсон” деган қарашларига таяниб, шоир рубоиётидаги ғояларни атеистик руҳда талқин қилган. Улар хулосага келадики, “Хайём рубоиёти мундарижаси кўпроқ моддий дунё шароитини ўзида акс этган. Ундаги илгари сурилган ғоя ва қарашлар шариат қонунларига қарши бўлиб, шоир боқий дунёни эмас, фоний дунё афзалликларини васф этади. Мазкур тадқиқотчилар Хайёмнинг бундай қарашларини баъзи рубоийлари асосида кўрсатиб, уларга хос динни инкор этувчи мазмунларни ренесанс даври ва ҳатто XVII-XVIII аср материалистларининг мантиқий қарашларидан кучлироқ деб биладилар [2, 61-62].

Шу тартибда бу тадқиқотчилар Хайём рубоиёти мундарижасининг динга қарши томонларини “қадимги атеистлар мероси” қаторида муҳим санаб, уларни ўрганади. Уларнинг фикрича “Хайём давридаги илм инсон ҳаётини ўзгартирадиган даражада ривожланмаган эди. Агар илм ривожланганда ўлат, сил каби касалликлар одамлар ҳаётига хавф солмас эди. Ё ки дунё мукаммал яратилган бўлса нима учун зилзила, ёнғин ва урушлар юзага келади? Дин бу нарсага ўз муносабатини билдирган яъни, касалликлар, ёнғинлар кўпинча манфаат юзасидан вужудга келади ва қодир Аллоҳ гунаҳкорларни жазолайди”. Бу олимлар шоирнинг баъзи рубоийлари мундарижасидан хулосага келадиларки, “Хайём бу ҳаёт қонуниятлари устидан кулади” [2, 63] ва эътирозларини ошкора баён этади. Шундай қилиб, бу тадқиқотчилар Хайём рубоийлари мундарижасидан мазҳабий эртакларга барҳам бериш мавзусини келтириб чиқарадилар. Бу мулоҳазаларни асослаш учун қуйидаги рубоийни келтирадилар:

О небо, к подлецам шедро твоя рука,
Им- бани, меленица и воды арыка:
А кто душою чисть, тому лишь корка хлеба.
Такое небо тьфу! Не стоит и плевка (2, 110).

Мазкур мавзуга доир Хайёмнинг ўнта рубоийлар и таҳлил этилган. Таҳлиллар фалсафий руҳда амалга оширилиб, шариат қонунлари ва диний мутаассиблик муҳити ҳақидаги шоир қарашлари реал тарзда кўрсатилган. Шу услубда шоир рубоиётидаги фалсафий фикрлар унинг моддий ҳаёт, коинот борасидаги назарияларини очиқлайди. Шоир шеъриятидаги май, кўза, ҳаёт ва ўлим мавзулари шу тоифадаги назарияларни асословчи далил сифатида кўрсатилган [2, 71].

С.Б.Морочник ва Б.А.Розенфелд Хайём рубоиёти тадқиқи орқали унинг илмий ва моддий мантиқини шеъриятидаги асосий мавзуларидан саналган май мавзуси билан боғлиқ деб атайди. Уларнинг фикрича май сузадиган кўза гўзал маъшуқалар танасининг тупроғидан ясалиши, май ичганда ўша маъшуқаларнинг гўзал чеҳраси кишининг кўз олдига келиши ўтган асрнинг эллигинчи йилларидаги моддий фалсафа қонуниятлари учун янги бир қараш сифатида ўртага чиққан [2, 72].

Бу олимларнинг фикрича ўлим мавзуси ҳам Хайём рубоиёти мундарижасида муҳим аҳамият касб этган. Шоир рубоийларида бу мавзу илоҳий фалсафа ва руҳий қонуният билан эмас балки, моддий ҳаёт ўзгаришлари натижасида вужудга келиш тасвирланган. Бир қатор рубоийлар таҳлили натижасида тадқиқотчилар хулоса қиладиларки, Хайём назарида дунё бир зарра асосида тасодуфан вужудга келган. Шоир назарида бу жараён абадий бўлиб, тана сингари инсон руҳи ҳам моддий нарса ва ўлимдан сўнг у бўлмайди. Бошқача қилиб айтганда, “ҳаёт абадият олдида бир лаҳзадир”. Бу нуқтани тадқиқотчилар Хайёмнинг моддийликни тарғиб қилувчи муҳим ғояси сифатида эътироф этиб, унинг тафаккур ва моддий абадиятга боғлиқ эмаслигини таъкидлайдилар [2, 69-71] ҳамда қуйидаги рубоийни мисол тариқасида келтирадилар:

Давно-до нас с тобой и дни и ночи были,
И звезды, как сейчас, на небесах кружили.
Не занешь как ступить на этот прах земной.-
Зрачками любящих его песчинки жили [2, 71].

Асл:
Пеш аз ману ту лайлу наҳоре будаст,
Гарданда фалак низ ба коре будаст.
Ҳар ҷо ки қадам ниҳӣ ту бар рӯи замин,
Он мардумаки чашми нигоре будаст [3, 52].
Таржима:
Сен-мендан олдин ҳам тун-кун бор еди,
Айланган фалак ҳам бутун бор еди.
Тупроққа авайлаб қадамингни қўй,
Бу тупроқ қора кўз бир нигор еди. (3, 52).
С.Б.Морочник ва Б.А.Розенфелд бу каби рубоийлар мундарижасининг таҳлилидан қуйидаги хулосага келадики, “Бу ва бу каби бошқа рубоийларда Хайём тирик ва ўлик табиат ўртасидаги моддий ашёнинг борлигини таъкидлайди. Ўлимдан сўнг барча моддий ашёлар, бир вақтлар бизни танамиз улардан ташкил топган эди, бузилиш натижасида тупроқга айланади. Хайём рубоийларининг кўп қисмини бир масала яъни, кўза лойдан ясалган, унга май сузилади ва бу кўза бир вақтлар ҳаяжонга тўла тирик жисм бўлган” [6, 71].
Хайёмнинг моддийликни тарғиб қилувчи назариялари замирида тадқиқотчилар шоирнинг руҳонийларга нисбатан нафрат туйғуси кучли эканлигини таъкидлайди ва бу мавзуни қуйидаги рубоийлар асосида шарҳлайдилар:
Блуднице шейх сказал: «Ты что ни день, пьяна.
И что ни час, то и есть другим заключена!»
Ему на то: «Ты прав, но ты-то сам таков ли.
Каким всем кажешся?- ответила она.
Хоть и пяница, о муфтий городской,
Степенен все же я в сравнении с тобой.
Ты кров людей сосеш, я лоз. Кто кровожадней
Я или ты скажи? Скажи не покрывай [2,74].
Бу олимлар юқоридаги рубоийлар таҳлили орқали Хайёмнинг динга қарши ва ҳақиқатгўйликни тарғиб қилувчи фикрларини тавсифлаб, шоирнинг мунофиқ ва иккиюзламачи руҳонийларга нисбатан нафратини кўрсатишга ҳаракат қилади. Уларнинг назарида гарчи Хайём ҳаётнинг азалий сирларини билишга ҳаракат қилмаган бўлса ҳам, “бир қатор рубоийларида унинг жаҳон сирларини билиш учун баҳсга киришганлиги маълум бўлади”. Бу мазмун қуйидаги рубоийдан олинган:
Когда пустился в бег златой небесный свод?
Когда поглотит смерть всё, что под ним живет?
На это дать ответ людской не в силах разум:
Бесчисленным векам он потерят счёт [2, 80].
С.Б.Морочник ва Б.А.Розенфелдларнинг тадқиқотида инсон ва унинг илмий қудрати тавсифи Хайём рубоийларида мунтазам кузатилиши аниқланган. Хайём инсон илмига юқори баҳо бериб, “инсон ва унинг илмини табиатнинг энг буюк яратган нарсаси” [2, 81] сифатида баҳолайди. Бу фикрни далиллаш мақсадида Хайёмнинг Румер таржима қилган қуйидаги рубоийи иқтибос қилинади:
Общаясь с дураком, не оберешься срама:
Поэтому совет ты выслушай Хайёма:
Яд, мудрецом тебе предложенный, прими,
Из рук же дурака непринимай бальзама [2, 81].
Бу тадқиқотчилар Хайём рубоийлари мундарижаси ва ғоявий хусусиятларини таҳлил этиб, шоир назмида инсон моддий ҳаётига доир муҳим консепсия яратилганлигини кўради. Бу тадқиқот усули билан Хайём ижодиётини унинг ҳаёти билан боғлаб, бу йўлда инсондўстлик ғоялари -
Перенбреги законом, молитвом и постом,
Зато делись, чем можешь, с голодным бедняком,
Будь шедр… Твоя награда-я сам порукой в том –
Теперь-земное счастье, бесмертне-потом.
-адолат, халқпарварлик, саховатмандлик, саодатли ҳаёт ва бошқаларни шоир рубоийларидан алоҳида олиб кўрсатганлар, улардан намуналар келтириб, юқори баҳолаганлар. Маълум бўладики, баъзи рубоийларда шоир “коинот адолатсизлиги ва бераҳмлигини танқид қилишдан ердаги адолатсизликларни тасвир ва танқид қилишга ўтади. Бу фикрни асослаш учун қуйидаги рубоийни келтирадилар:
Тому, на чем столе стоит надтреснутый кувшин,

Со свежею водой и только хлеб один,
Увы, приходится пред тем, кто ниже-гнутся
Иль называть того, кто равен-господин [2, 82].

Шундай қилиб, С. Б. Морочник ва Б. А. Розенфелдлар Хайём рубоийлари мазмунида маълум бир поетик ғояни кўрган ва жамият ҳаётининг сиёсий-ижтимоий воқелигини ҳисобга олган ҳолда баҳо берган. Табиийки, шоир маҳоратига, санъаткорлигига ҳам ўша давр адабиёт фанининг талабидан келиб чиқиб ёндашган ҳолда баҳо берган. Бу ҳаракат баъзан Хайём рубоийларидан мавзудан ташқари муаммо қидирилишига, рубоийнинг ғоявий-бадиий бирлиги бузилишига олиб келади. Қолаверса, шеърий фикр зарур шеърий қонуният асосида таъриф ва талқин қилинмайди. Тадқиқотчилар ўша даврнинг ғоявий ёндашувларга бўйсунишларига қарамай, шоир бошидан кечирган ҳолат ва воқеалар тасвирини, шоир рубоийларидаги асосий мазмун ва ғоявий йўналишларни аниқлай олдилар ҳамда муносиб баҳоладилар.

Адабиёт:

Болотников, А. Омар Хайям (Философ – поэт – математик) / А. Болотников // Восток. Сборник второй. Литература Ирана 10-15 в. – Москва – Ленинград: ACADEMIA, – 1935. – С. 179 – 211.

Григорян, С. Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана 7 – 12 в / С. Н. Григорян. – Москва: Издательства Акад. Наук СССР, 1960. – 329 с.

Жуковский, В. Омар Хайям и “странствующие” четверостишия” / В. Жуковский // Сборник Ал-Музафарийе. – СПб, 1897. – С. 325 – 363.

Лозеев, П. Н. Омар Хайям в источниках / П. Н. Лозеев //Ученые записки. Филологическая серия. Выпуск 3, - Сталиабад, 1953. – С. 57 – 102.

Лозеев, П. Н. Четверостишия Омара Хайяма в русских переводах / П. Н. Лозеев //Ученые записки. Филологическая серия. Выпуск 1. – Сталинабад, 1952. – С 41 – 65.

Морочник, С. Б., Розенфелд, Б. А. Омар Хайям – поэт, мислител, ученний / С. Б. Морочник, Б. А. Розенфелд. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1957. – 209 с.

Муллоаҳмад, М. Андар шинохти рубоиёти асили Хайём / Мирзо Муллоаҳмад // Умари Хайём. Рубоиёт (Нусхаҳои асил). – Хужанд: Ношир, 2019. – С. 3 – 45.

УСМОН НОСИР ИЖОДИДА ЖАДИДЧИЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ИФОДАЛАНИШИ

Гулшода Жонпўлатова
НавДПИ тадқиқотчиси

Аннотация: *Мақолада Усмон Носир ижодига хос характерли жиҳатлар жадидчилик ғоялари билан таққосланган ҳолда таҳлил этилган. Бунда шоир ижоди ҳақида олиб борилган тадқиқотлар, олимлар фикрларига таянилган.*

Калит сўзлар: *мунаққид, фундаменталь, драматург, таржимон, тадқиқот, трагедия, радиопостановка, мутафаккир, шеърият.*

Аннотация: *В статье анализирован характерные черты творчества Усмана Насыра сопоставляя идеям джадидизма. В этом направлении опором является мыслы учёные, которые осуществляли ряд научные исследовании по творчеству поэта.*

Ключевые слова: *исследователь, фундаментальный, драматург, переводчик, иссдедование, трагедия, радиопостановка, мыслитель, поэзия.*

Атоқли мунаққид Наим Каримов “ХХ аср адабиёти манзаралари” деб номлангна фундаменталь тадқиқотида Усмон Носир ҳаёти ва ижодига оид шу кунгача маълум бўлмаган маълумотни келтиради. Бу Усмон Носирнинг улуғ немис шоири, адиби ва драматурги Гётенинг “Эгмонт” трагедиясидан бир парча таржима қилганлиги ҳақида факт бўлиб, ана шу таржима тўлиқ келтирилган. Радиопостановка учун қилинган таржимадаги Эгмонт ролини Аброр Ҳидоятов ижро этиш учун завқ-шавқ билан репитицияга киришган. Аммо шу вақтда Усмон Носир қамалади ва радиопостановка қўйилмай қолиб кетади. Орадан кўп вақтлар ўтиб, радиокомитетга ишга келган Убай Бурҳон шу таржима билан қизиқиб қолади ва радиоспектаклни эфир орқали узатишга муваффақ бўлади. Бироқ шунда ҳам таржима муаллифи ҳақида бирор сўз дейилмаган. Усмон Носир шахси ва ижоди оқлангач, истиқлол фидойилари ҳақида изланишлар олиб борган Наим Каримов Усмон Носир ишига оид тергов-суд материаллари орасидан ана шу таржима нусхасини ҳам топади.

Таржима билан танишган киши Усмон Носир трагедиядадаги кўнглига ёққан энг характерли эпизодни танлаб олганлигини сезиш мумкин. Эгмонтнинг нутқида эрксизликка қарши исён, курашга чанқоқлик, ҳақ ва адолатни қарор топтириш учун жонни ҳам фидо қилишга чорлаш, озодликни жон-

жаҳди билан ҳимоя қилиш, улуғлаш уфуриб туради. Ёш, фавқулодда ўткир истеъдод эгаси Усмон Носир трагедиянинг фожеий руҳини, улуғ немис мутафаккири асардан кўзда тутган бадиий-эстетик ниятни таржимда маҳорат билан бера билган.

“Мен ажойиб лавҳани кўрдим! Қуёш нурига бурканган озодлик тимсолини кўрдим ва унинг орази, бу–эрк орази, севгилим Кларанинг оразидек табассум қилди менга. Сизлар–менинг қалбимдан жой олган эрк ва севгилим, айтинг, қайси севгингиз кучли экан?.. Бироқ мен сўнгида кўрдимки, Кларанинг табассуми озодлик қайғуси билан қон офтоб қиёфасида равшан кўринди. Бу қон эрк оёғи остида тупроқни қип-қизил қилиб бўяди. “Бу, сенинг қонинг, Эгмонт! Бу, кўпларнинг қони, эрк севувчиларнинг қони!”–деган садо янгради. Бу қон беҳуда тўкилмади. Бу қон озодлик учун тўкилган қутлуғ қондир”[167].

Усмон Носир шеърияти қайта-қайта мурожаат қилиш, ўқиш, мутолаа, баҳс-мунозазарани талаб этади. Иброҳим Ғафуров “Қисматнинг овози” мақоласида бизнинг Усмон Носир олдидаги қарзимиз ҳақида, фавқулодда ноёб истеъдод эгаси бўлган Усмон Носир шеъриятининг бугунги кундаги аҳамияти ҳақида жуда куюниб, жуда катта меҳр-муҳаббат билан фикр юритган. “Оламни шеър суронлари билан тўлдиришга қодир бўлган йигит ўз ватанини ҳар нарсадан ортиқроқ севиб, шу севгисини куйлагани учун зўравон салтанат томонидан маҳв этилди”,[168] деб ёзади мунаққид алам билан.

Усмон Носир жадидчилик ғоялари қатағонга учраб, ҳукмрон мафкура ҳаётнинг барча соҳаларида зўравонлик сиёсатини амалга ошира бошлаган бир пайтда адабиёт осмонида тўлин ойдек боқди. Унинг шеърларидаги шиддат, исёнкорлик, курашга чанқоқлик, ҳаётга, яшашга бўлган қайноқ муҳаббат ҳайратга сола бошлади. У жадидлар илгари сурган маърифатпарварлик, ватанпарварлик, миллатпарварлик ғояларини бошқача шароитда, бошқача адабий-бадиий воситалар ёрдамида юксак маҳорат билан ифодалай бошлади. Шоир шеърларининг ичдан нурланиши ҳақида мунаққид ўзининг кузатишлари, иштибоҳлари, ичдан нурланишнинг табиати ва таъсири тўғрисида олиб борган изланишлари, хулосаларини тақдим этади. Сўзларнинг ичдан нурланиши ноёб ҳодисалигини алоҳида таъкидлайди. Чинакам истеъдод эгалари ижодидагина буни кузатиш мумкин. Мунаққид Бобораҳим Машраб, Мирзо Ғолиб, Гейне, Лорка, Чўлпон каби Усмон Носирда ҳам сўзнинг ички нурланиши кузатилишини таъкидлайди.

Шафақ ўчай деб қолди,
Каптар қонидек рангсиз...
Кўзларимни узмайман.

Дединг: энди ўчар у,
Ўтган қайтиб келмайди,
Эртани севиниб кут!..[169]

Бу мисралар ёш шоирнинг ноёб истеъдод эгаси бўлганлигини тасдиқлайди. Ёки унинг шеърлари, достонларида табиат манзаралари, киши руҳий кайфияти, ҳолати шу қадар тиниқ, таъсирли ифодаланадики, қалбни ларзага солади:

Боғларга намозгар
Салқини тушди,
Гуллар нам баргини
Қайирди аста...

Ёки “Нахшон” достонида ёмғир ёғаётган паллани чучвара қайнашига ўхшатади. Бундай фавқулодда топилмалар шоир ижодида жуда кўп учрайди.

Бухоро Давлат университети Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари кафедраси доценти, фалсафа фанлари номзоди Н.Тешаев “Маҳмудхўжа Беҳбудий қарашларида миллий уйғониш ва миллий бирлик, истиқлол ғоялари” мақоласида жадидлар истиқлолга эришишнинг уч йўлидан борганликларини кўрсатган. Булар:

1.Русияга тобеликдан зўрлик йўли билан истиқлолга эришиш(Дукчи Эшон қўзғолони, 1916 йил воқеалари, “босмачилик” ҳаракатлари).

---

[167] Носир Усмон, И.В.Гёте, “Эгмонт”, трагедиядан парча. Н.Каримов,“ХХ аср адабиёти манзаралари”, Биринчи китоб, Тошкент, “O‘zbekiston”, 2008 й. Б.409.

[168] Ғафуров Иброҳим, Қисматнинг овози(Усмон Носир илҳомлари), “Мангу латофат”, бадиалар, рисолалар, 2-китоб, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2008 й. Б.238.

[169] Ғафуров Иброҳим, Қисматнинг овози(Усмон Носир илҳомлари), “Мангу латофат”, бадиалар, рисолалар, 2-китоб, “ШАРҚ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, Тошкент, 2008 й. Б.244.

2.Муроса йўли. Руслар ёрдамида маърифатга эришиш. Маърифат масаласида ҳақ-ҳуқуқ олиш, миллий хусусиятларни тиклаш((Исмоилбей Ғаспирали, Маҳмудхўжа Беҳбудий).
3.Ҳамкорлик йўли. Чор маъмурлари, сўнг эса шўро ҳукумати билан бирга уларнинг дастурларида қатнашиш ва имкон бўлиши билан мустақилликни қўлга олиш. Бунинг учун маълум тайёргарлик олиб бориш(Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий, Абдулла Авлоний).[170]
Беҳбудий иккинчи–муроса йўлидан борди. Унинг инқилобий руҳдаги мақолаларида халқни маърифатли қилиш, унинг ўз эрки, ҳақ-ҳуқуқи учун курашга даъват этиш асосий ўрин тутади. “Икки эмас, тўрт тил керак” ва бошқа маърифатпарварлик руҳидаги мақолаларида Беҳбудий халқни саводли қилиш, миллат кўзини очиш орқали истиқлолга эришиш мумкин деб ҳисоблайди. Шу билан бирга у “Ҳақ олинур, берилмас”, дея истиқлол учун курашиш зарурлигини ҳам англайди. Қачон халқ маърифатли бўлса, у озодлик қадрини англаб етади, илм-маърифат дини, эътиқоди, миллий қадриятлари бир-бирига яқин халқларни бирлаштиради, жипслаштиради, эзгу, улуғ мақсадарга эришишларида жасорат бахш этади.
Усмон Носир жадидлар большевиклар ҳукумати томонидан маҳв этилган, жадидчилик ғояларига мойил бўлганлар аёвсиз жазоланаётган бир пайтда адабиётга кириб келди. У янги тузум тарафдори эди, чунки атрофида юз бераётган ўзгаришлар уни келажакка ишонч билан боқишга ундарди. Аммо у ҳам эрк, озодлик, миллат ҳақ-ҳуқуқининг тикланишини истарди ва бу орзу-умидларини баралла куйлаш имкони йўқлигидан, ижодий истеъдоди илк лаҳзаларданоқ турли қаршиликлар, ошкора душманлик қутқуларига учраганидан изтироб чекди. Москвада Кинематорафия институтида ўқиганида, Самарқандда педакадемия(кейинчалик университет)да таҳсил олганида ёзган шеърлари, достонлари, драматик асарларида унинг жўшқин илҳоми ижодий мўъжизалар яратди, ишқ, муҳаббат, садоқат, вафо каби ўта нозик инсоний туйғулар ҳеч бир чеклашларни назар-писанд қилмай миллионлаб шеърхонлар қалбини забт этди. “Норбўта”, “Нахшон” достонлари, “Атлас” драмасида пок инсоний муҳаббат, юксак ватанпарварлик туйғуси гўзал тасвирланган. Таржималарида ҳам унинг эрк, озодлик туйғуларини ифода этган асарларни танлаб таржима қилганлигини кўрамиз. Фирдавсий ижодини ўрганишга бағишланган саъй-ҳаракатлар сабабли “Шоҳнома”дан бир парчани таржима қилади. Бу парчада миллий ғурур, сўз қудратини улуғлаш, инсонпарварлик мадҳ этилган. Гётенинг “Эгмонт” трагедиясидан “Клерхен қўшиғи” парчаси таржимаси, Пушкиннинг “Боғчасарой фонтани”, Лермонтовнинг “Демон” поэмаси таржимаси Усмон Носирнинг қалби эрк ва озодликка ташна бўлганлигини, жадидлар амалга ошира олмаган маърифатпарварлик ғояларини ўз асарлари ва таржималари орқали амалга оширишга интилганлигини англаш мумкин.

HAMZA IJODIDA BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI

Xurshida Xamrakulova,
filologiya fanlari doktori,
Toshkent amaliy fanlar universiteti professori
E-mail: xamrakulova.xurshida@mail.ru
Tel: (99) 802-27-45
(O ‘zbekiston)

Annotatsiya: ushbu maqolada milliy uyg‘onish davrining ko‘zga ko‘ringan pedagoglaridan Hamzaning “Yengil adabiyot” darsligiga kirgan asarlari va “Mevalar mojarosi” turkumidagi she’rlari tahlilga tortilgan. Tahlil natijasida Hamza ijodining bolalar adabiyoti rivoji va taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri aniqlangan.

Kalit so‘zlar: “Yengil adabiyot”, darslik, maktab, ilm, jahl, olim, “Mevalar mojarosi”, munozara, bolalar adabiyoti

Аннотация: в данной статье проанализированы произведения выдающегося педагога эпохи национального возрождения Хамзы, включённые в учебник "Легкая литература", и стихотворения из цикла "Дискуссия фруктов". В результате проведенного анализа установллено влияние творчества Хамзы на становление и развитие детской литературы.

Ключевые слова: "Легкая литература", учебник, школа, наука, гнев, ученый, "Дикуссия фруктов", дискуссия, детская литература

Abstract: this article analyzes the works of Hamza, one of the prominent pedagogues of the national renaissance period, included in the "Light Literature" textbook and the poems in the "Fruit Conflict" series.

[170] Маҳмудхўжа Беҳбудий миллат фидойиси ва маърифатпарвар(М.Беҳбудий таваллудининг 140 йиллигига бағишланади), илмий мақолалар тўплами, “Дурдона” нашриёти, 2014 й. Б.33-34.

As a result of the analysis, the impact of Hamza's work on the development and progress of children's literature was determined.

Key words: "Light literature", textbook, school, science, anger, scientist, "Fruit conflict", discussion, children's literature

Didaktik adabiyotda davrning axloqiy ta'limiy qarashlari o'z ifodasini topadi. Ayniqsa, bolalarga bag'ishlangan asarlarda didaktik xususiyatlar ancha bo'rtiq holda namoyon bo'ladi. Shuni ham aytish lozimki, XX asr boshlari bolalar she'riyati, nasri (hikoyatlar, masallar, ibrat va pandlar)ning mavzu ko'lami nisbatan cheklanganligini kuzatish mumkin. Maktab mavzusi ("Yengil adabiyot"ning 6-13-darslaridagi she'rlar), ilm-ma'rifatga targ'ib ("Yengil adabiyot" 15-36-darslar) axloq-odob, vatanparvarlik mavzusidagi ("Turkiy Guliston yoxud axloq", "Adibus-soniy"), tarbiyaviy mohiyat kasb etadigan majoziy xarakterdagi asarlardan iborat edi.

Hamza – serqirra faoliyat egasi. Hamza ijodi, shaxsiyati turli davrlarda xilma-xil talqinlarga sabab bo'lgan bo'lsa ham, uning millat tafakkuri boyishiga qo'shgan hissasi salmoqlidir. Hamza ijodida pedagogik risolalar alohida o'rin egallaydi. "Yengil adabiyot" Hamza nomini abadiylikka muhraydigan asarlaridan biridir. "Yengil adabiyot" pedagogik jihatdan sinfdan tashqari o'qishga mo'ljallangan asar bo'lib, muallif uni 1-sinf talabalari uchun mo'ljallaydi va o'zi ta'kidlaganidek, "haftada bir darsdanga tayyor" qilingan asar hisoblanadi. Mazkur asarni shartli ravishda oltiga bo'lish mumkin:

1. Hamd. 2.Na't. 3.Maktabga da'vat tarzidagi darslar. 4. Ilmga targ'ib qiluvchi darslar. 5. Olimlik va johillikning farqini ko'rsatuvchi darslar.
6. Ma'rifiy hikoyalar.

Darslar odatdagidek, hamd va na't bilan boshlanib so'ng maqsad muddaoga o'tilgan. Mazkur asar bola tafakkurini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashga yo'naltirishi jihatidan o'z davrining muhim qo'llanmalaridan hisoblangan. "Yengil adabiyot"ning birinchi darsi tavhiddan boshlangan. Bu dars an'anaviy tarzda Allohning birligi, sheriksizligi kabi sifatlarni bayon etgan va bola tushuncha va anglamlariga mos tarzda izohlab berilgan. O'quvchi Allohga xos tushunchalarni kundalik kuzatishlari bilan qiyoslaydi va muallif fikri bilan quvvatlaydi:

Xudoning yo'q otosi,
Qarindosh ham onosi,
Ham oning yo'q xotuni,
Ham er-u qiz bolosi, –

misralarida ifoda etilayotgan sodda so'zlar va quyma fikrlarni bola tez ilg'aydi. Tabiiyki, 5-8- yoshli bolaga bundan ortiq tushuncha mavhum va qabul qilinishi murakkab. Buni yaxshi bilgan Hamza insonning ko'rish, eshitish, och-to'qlikni his qilish Yaratganda inson kabi emasligi, bu esa Ungagina xos sifatlar ekanini tushuntirib beradi. Har bir dars to'rt bandlik yigirma qatordan iborat misralardan tuzilgan bo'lib, barmoq vaznida 7 bo'g'inli, 4+3 turoqli misrlardan tashkil topgan. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun 4+3 turoqli misralalardan iborat 7 bo'g'inli she'rlar o'qishga va yod olishga qulay bo'lgani uchun hozirgi bolalar she'riyatida ham keng ishlatiladi. Garchi Hamza birinchi darsni tavhid darsi deb atagan bo'lsa ham, ma'no-mazmuniga ko'ra ikkinchi va uchinchi darslar ham tavhid darsi hisoblanadi.

To'rtinchi, beshinchi darslar Muhammad (s.a.v)ga bag'ishlangan. To'rtinchi dars xulosasiga "***Kim rasul ham tangriga Bo'yinsunmas amriga, Qiyomat kun, shubhasiz, Ketar do'zax qa'riga"*** [1.B.316.], – deya qat'iy hukm chiqaradiki, bu ana shu darslardan ko'zlangan xulosa ekanligini o'quvchi anglab yetadi.

Oltinchi darsdan boshlab o'n uchinchi darsgacha "maktab xususinda". Bu darslarda muallif maktab *"dinning chirog'i", " millat atosi",* "*millat yo'lboshi*", " *har millat joni*", "*millat quyoshi*", "*millat saroyi", "millat guli", "millat bog'i*", "*dunyo behishti"* ekanini qator sifatlashlar bilan quvvatlantiradi va asoslaydi. Pirovard natijada ***"Maktab bolaning ishi O'yun bo'lmas xohishi, faqat o'quv, yozuvda O'tar ham yoz-u qishi"*** [1.B.320.] kabi misralarda Hamzaning maktabdan kutgan natijasi va ayni vaqtlardagi orzusi aks etgan.

O'n to'rtinchi darsdan boshlab ilm alohida mavzu sifatida qalamga olinadi. Muallif fikrlarini yorqin ifodalash uchun tazod va muqobala san'atidan foydalanadi. Ilmni jaholat bilan qiyoslash asnosida "ilm – haqning rahmati", "jahl – haqning lan'ati" degan hukm chiqaradi. Ilmni "jannat eshigi", jahlni "do'zax eshigi" deb ta'riflagan muallif ***"Jahl bo'lsa nahrimiz, Zillat ko'rub dahrimiz. Bir kun harob o'lg'usi Vatan, millat, shahrimiz"*** [1.B.320.] deb yozadiki, bu o'sha davr oydinlarining ham jiddiy muammosi edi. Hamza ilm va jahl obrazlarini munozara tipida bir-biriga qiyoslaydi. Albatta, qiyoslar o'rtasidagi farqni anglash o'quvchiga qulaylik tug'diradi va muallif g'oyasini yetkazishga xizmat qiladi. Yigirma ikkinchi darsdan boshlab olimlik va uning fazilat, johillik va xatari haqida bahs yuritiladi. ***"Olim bo'lsak dunyoda, kelur har ish bunyoda, Biz ham suv ostin kezub, ham ucharmiz havoda"*** [1.B.326.]. Shu tariqa "Yengil

adabiyot” muallifning pedagogik mahorati o‘laroq yaratilgan asar ekanligi oydinlashib boradi. Muallif olimlik va johillik mamlakat taqdirini hal etuvchi muhim omil ekanligini bayon etadi.

Yigirma beshinchi darsdan boshlangan “Jujuqlari ilma targ‘ib” o‘ttiz birinchi darsgacha davom etadi. O‘ttiz birinchi darsdan boshlab bola “tilga” kiradi. Ya’ni avvalgi darslardan muayyan bilim hosil qilgan o‘quvchi anglash bosqichiga o‘tadi. Bola tilidan aytilgan she’rlarda Hamza ifoda yo‘sinini o‘zgartiradi: she’riy shakl barmoq tizimidan aruz tizimiga o‘tadi. Buning ham o‘ziga xos sababi bor. Aruz tizimi kuy, ohangga esh bo‘lgani uchun bu tizimdagi she’rlarni o‘quvchi qo‘shiq sifatida kuylashi ham mumkin. Muayyan ohangda bu misralar bola qulog‘iga xush yoqadi. ***“Maorif sharbatindan aylasak no‘sh, Kamola yetg‘usidir aql ham xush”*** [1.B.332.] degan bola ***“Nihoyat bizda maktab, ilm yo‘qtur, Chiqardi bizdanam ko‘p yaxshi do‘qtur”***[1.B.333.] deya o‘kinchini yashirmaydi. “Yengil adabiyot”ning 31-36-darslariga qadar muallif mavjud jamiyatdagi holatni bola ko‘zi bilan kuzatadi. O‘ttiz oltinchi darsning har bayti Allohga murojaat shaklida beriladiki, bu bandaning Yaratgandan ayri bo‘lolmasligining isbotidir.

Bola tilidan qilingan munojot kattalarni ham befarq qoldirmasligi tabiiy:

Ilohi, ahlimizga ver hamiyat,
Solub maktablar etsun dinga xizmat.
Ilohi, jumlamiz ayla doim,
Bu millat yo‘lida xizmatga qoyim.
Qabul et, kel, sabiylarni duosin,
Yetur barcha qulingni muddaosin [1.B.335.].

“Yengil adabiyot”da berilgan qalam radifli g‘azal o‘zidan keyingi darslardagi hikoyatlar uchun kalit vazifasini o‘taydi. Negaki, savodi chiqqan bola uchun Hamzaning qisqa hikoyatlar berib borishi mantiqan o‘zini oqlaydi. Shu ma’noda o‘ttiz yettinchi darsdan boshlab “To‘g‘ri so‘z bola”, “Ota nasihatining natijasi”, “Qimorning boshi” kabi hikoyalar beriladi. Va har bir hikoya qissadan hissa tarzida xulosalanib boradi.

Hamzaning bolalarga bag‘ishlab yozilgan pedegogik asarlari g‘oyasida millat bolalariga xitob, ilm olishga da’vat, jaholatning zarari, ota-onaga munosib farzand, Vatanga muhabbat, axloq va tarbiya kabi umumiy didaktik masalalar yetakchilik qilgan bo‘lsa, “Mevalar mojarosi” nomi bilan bog‘liq kichik she’rlar turkumida obrazlarning o‘zini namoyon etishi, tasvirda bayonga yo‘l qo‘yilmagani, bu esa asarda hikoyachining emas, qahramonning tasvirda asosiy o‘ringa chiqishi, natijada voqelikning jonlanishi kabi badiiylikning muhim shartlari amalga oshadiki, bu bolalar she’riyati yangi qirralari bilan o‘zgarishga yuz tutganini ko‘rsatar edi.

Hamzaning ilm-ma’rifat, maktab haqidagi she’rlari, masallari tahlilga tortilgani holda “Mevalar mojarosi” turkumi mustaqillik davrida yaratilgan bolalar adabiyotiga oid darslik va qo‘llanmalarda tilga olinmagan. Hamzaning “Tanlangan asarlar” I tomida berilgan izohda shunday yozilgan: “Sanasi noma’lum ushbu she’r qo‘lyozmasi H.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti Hamza arxivida (inv. № 115) saqlananadi. Katak daftar varaqlariga arab grafikasida qora qalam bilan yozilgan. Avtografga sarlavha qo‘yilmagan. She’r “Tanlangan asarlar” (1949, 1979)da, “Asarlar” (1969)ning I tomida, va mukammal asarlar to‘plamining II tomida nashr qilingan. Nashrda qo‘lyozma asosiy matn qilib olindi” [1. B. 527], – deb yozilgan. ziyouz.com kutubxonasi saytida mavjud bo‘lgan Hamza “Tanlangan asarlar”ining 1-tomida (O‘zbekiston davlat badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent – 1958) bu turkum yozilgan sana 1914 deb ko‘rsatilgan [2. B. 36]. Nazarimizda, Hamza ushbu she’rni maktab o‘quvchilari uchun darsliklar yaratgan vaqtlarida yozgan. Chunki, “Yengil adabiyot” tarkibidagi she’rlarning qurilishi “Mevalar mojarosi”dagi she‘rlarga o‘xshaydi. “Mevalar mojarosi” kabi asarlar bolalarning tafakkurini kengaytirish va tasavvurini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

Mevalar orasidagi munozaralar xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyotimizning sara asarlarida uchraydi. Adabiyotshunos olim N.Rahmonov uning dastlabki ildizlari miflar bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan [3. B. 257]. Hamza bu munozarani bolalar tushuncha va anglamlariga mos tarzda yozgani uning pedagogik mahorati ulkan so‘z ustasi ekanini bildiradi. O‘rik bilan boshlangan “Mevalar mojarosi” mavsumiy mevalarning har turli jihatlarini o‘quvchiga yetkazishni nazarda tutgan. ***“O‘ruk o‘rnudan turub, Rangini sarg‘ayturub, Keldi tutni boshiga, Shovqin solib, tik turub”*** [1. B. 254.].

Misralarda takrorlangan “turub ma’noning turlanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, o‘rikning jonlantirilishi, tutning boshiga shovqin solib kelish o‘rinlari o‘zgacha manzara hosil qilib o‘quvchini o‘ziga rom etadi.

Dedi: “Ey tut taltayib,
Dema har so‘z yalpayib,
Boshginangga bir uray,
Yerda qolgin shalpayib [1. B. 254.].

Tutga do‘q urish ohangiga mos ravishda uyg‘unlashib kelgan “taltayib”, “yalpayib”, “shalpayib” so‘zlari tutning shu paytdagi fe’l-atvorini aks ettirgan. Ayniqsa, ***“Boshginangga bir uray, yerda qolgani shalpayib”*** deyilganlagi holat bola ko‘z o‘ngida muhrlanib qoladi. Hamza ilg‘or pedagog sifatida bolaga sirtdan ta’sir emas, ichdan ta’sir qilish ma’nosida obrazlarning o‘zini jonlantirgan, ularga ma’no yuklagan.

Seni ko‘p yegan kishi,
Badan qashimoq ishi,
Ortuqchadur ustiga
Yurakburuq tashvishi [1. B.254.].

Muallif tutni ko‘p yeganda yuz beradigan badan qichishishi, yurakburuq bo‘lishini ham misralar orasiga joylaydiki, fanlar orasidagi integratsiya masalasi Hamzaning ham diqqat markazida turgani ayon bo‘ladi.

Ore, man sandan keyin,
Sandan yuz hissa shirin,
Aytub ado qilayin,
Qaysi husnumni birin [1. B. 254.].

Munozara shartiga ko‘ra so‘z olgan obraz avval raqib etib tanlangan obrazni “do‘pposlab” bo‘lgach, o‘zini tavsif qilishga o‘tadi. Shuning uchun o‘rik tutdan yuz hissa shirinligini aytib, husni bilan maqtanishga o‘tadi. Bolalar uchun obrazlar o‘rtasidagi qiyos asarni tez anglab olishlarida katta o‘rin tutadi. Shuning uchun qadimdan munozara tipidagi asarlarga qiziqish katta bo‘lgan.

O‘zum ming dardga davo,
Qurutsa andan bajo,
Hatto mag‘zimni olub,
Solgay qandolat aro [1. B.254.].

O‘rik ming dardaga davo ekanligini, qandolatdagi muhim ahamiyatini bayon etgach: ***“Muxtasar aylay so‘zum, Meva ichra bir o‘zum, Bog‘ ichini yorutar, Oppoq, oydindak yuzum”*** [1. B. 254.], – deya suhbatga yakun yasaydi. Mevalar mojarosi shu bilan tugamaydi. Aks holda munozara sharti bajarilmagan bo‘ladi. Chunki bahs bir taraflama bo‘lmaydi. Shuning uchun bahsga boshqa mevalar ham aralashadi. Chunonchi, ***“Gilos haddan oshiqib, Xafalikdan toshiqib, Keldi o‘ruk boshiga, Musht ko‘tarib shoshiqib”*** [1. B. 255.] kelishi mojaroning davom etishiga ishora qiladi.

Tomonlar bahsda yutishi uchun tezkorlik, hozirjavoblik juda muhim. Bunday o‘rinlarda voqea-hodisalar keskin tus oladi, ishtirokchilarning xotirjam bahs olib borishiga chek qo‘yadi. Bu holat bolalar o‘yinlaridagi vaziyatlarda ham yuz beradi. Demak, bolalar ishtirokchilarning kayfiyatiga tez moslashadi. Shuning uchun gilosning haddan oshishi, o‘rikning boshiga ***“Musht ko‘tarib toshiqib”*** kelishini o‘quvchi tabiiy qabul qiladi.

«Ey o‘ruk, san so‘zlama,
Maqtanmoqni ko‘zlama!
Yonboshingga bir tepay,
Bog‘ga hargiz yuzlama [1. B.254.].

Gilos o‘rikning maqtanishiga e’tiroz bildiradi. Uning e’tirozi shunchalar kuchliki***, “Yonboshingga bir tepay, Bog‘ga hargiz yuzlama”*** deyish darajasiga boradi. Mana shu misralardagi so‘zlashuv uslubi asar dramatizmini oshiradi. Shundan so‘ng o‘quvchi gilosning o‘rikni kamsitishga tayyorligini his qiladi. Kutilganidek, “***G‘o‘rang qursun kech bitar, Yegan kishi ich ketar, Pishkoning shalpaytirib, Qurug‘ingdan bod yetar”*** [1. B. 255.] degan ta’nalar yog‘ila boshlaydi. Mana shu ta’nalar o‘rinli ekanini bola sezib turadi. Shu tariqa har bir mevani istemol qilishda me’yorga amal qilish lozimligi ham uqtirib boriladi.

Munozaraning o‘zini sifatlash, ta’riflash qismida gilosning o‘ziga xos sifatlari bayon etiladi: “***Bilursan otim gilos, Suyar meni omu xos. Mani ko‘rgan kishilar, O‘zga meva xohlamas”*** [1. B. 255.]. Shu tariqa gilosning “asaldan shirinligi”, azaldan “ming kasal”ga dori ekanligi ham ta’rifdan chetda qolmaydi. Ammo gilos ancha kamtarin, u o‘zining “haddini biladi”. Shuning uchun: “***Kaltaroq qilay so‘zim, Maqtasam arzir o‘zim. Bog‘ga kirgan ko‘ziga, Yoqutdek yonar yuzim»***[1. B.255.]**,** – deya bahsdan

chetlashadi. Hamza bahsda ishtirok etgan oluchaning ***“gezorib”, “Qonlar tomib, qizarib”*** kelishini mevaning rangi moslaydi. Boshdanoq mevalar rangining tasvirlanishi o‘quvchilarda ularning ta’mi bilan bog‘liq hislarini ham uyg‘otadi. Shuning uchun ***«Ey gilos, lof urmagil, Achchig‘im kelturmagil! Tumshug‘ingga bir solay, So‘ngra yig‘lab yurmagil”*** [1.B.256.], – degan misralarni to‘g‘ri qabul qiladi.

Munozara qoidasiga ko‘ra qarshi tomonning illatlari ham bir-bir bayon etilishi lozim. Bunga olucha ham alohida e’tibor qaratgan: ***“Maza yo‘q, hukming turush, Chun o‘larsan yo‘q qurush. Sani yeganlar bo‘lur, Qo‘nich bezgak, ich burush”*** [1. B.256.]. O‘quvchi mojaro orqali yana bir mevaning “illati”dan xabar topadi. Bu esa bolalarda nafs tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamza xalq tabobatini yaxshi bilgan mutaxassis sifatida oluchaning ishtahani ochuvchi, yurakda paydo bo‘lgan qurtni davolovchi dori sifatidagi xislatini ham bayon etadi va nihoyat bolalarga ma’qul bo‘lgan mavzu bilan yakunlaydi: ***“Maqtasam bir yil o‘tar, Bog‘bon ho‘llikda sotar. Ortganimni qurutib, Qand bila qiyom etar...”*** [1. B.256.].

Kuzatilsa mojaro ishtirokchilari bo‘lgan mevalar boshidanoq bir-biriga do‘q-po‘pisa qilishadi. Bu holat bolalar tabiatiga begona bo‘lmaganidek, turkum sarlavhasini ham asoslashga xizmat qilgan. O‘rik tutning boshiga ***“Shovqin solib, tik turub”*** kelsa, ***gilos “musht ko‘tarib, shoshiqib”*** keladi. Bu bilan kifoyalanmay, o‘rikning yonboshiga bir tepishini ham pisanda qilib o‘tadi. Yoki oluchaning gilosga ***“Musht ko‘torib, bezorib”*** turishida ham ularning tabiati bilan bog‘liq jihatlar borki, muallif bolalar ko‘z o‘ngida jonli tasvirni yuzaga chiqarishga erishgan. Xususan, o‘rik pishganda yerga tap-tap tushishi uning shovqin solishi, gilos va oluchaning musht ko‘tarishlari mevalarning shakli bilan bog‘liq holda tasvirni jonlantiradiki, bu Hamza badiiy mahoratining bir yana bir qirrasi hisoblanadi. Misralarning sodda, tushunarli so‘z va iboralardan tizilgani, hatto biroz qo‘pol ko‘ringan birikmalarning bola kundalik faoliyatidagi voqea-hodisalarga uyg‘un holda muayyan obraz yaratishga xizmat qilgani muallifning bola tabiatidan, uning ruhiyatidan yaxshigina boxabar ustoz bo‘lganiga ishontiradi.

Hamza o‘zining zamondoshlaridan farqli tarzda bolalar adabiyotiga oid ko‘plab she’rlarini barmoq tizimida yozgan. Bu bolaning she’rni oson yodlashi, undagi fikrlarni o‘zlashtirishiga qulaylik tug‘dirgan. Hamza o‘z davridagi darsliklar bolalarga ochiq va tushunarli bo‘lishiga harakat qilgan edi. Shu maqsadda 1914-1915-yillar oralig‘ida bolalar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi bir qator darsliklarida ham shu usuldan foydalangan. “Yengil adabiyot”dagi 45 saboqqa mo‘ljallangan 1-30-darslaridagi she’rlar barmoq tizimining 7 bo‘g‘inli vaznida (4+3 turoq) yozilgani yuqorida ayon bo‘ldi. O‘qish va yodlashga oson bo‘lgani uchun bolalar ijodkorlari hozirda ham 7 bo‘g‘inli she’rlar yozishga ko‘p e’tibor berishadi. 7 bo‘g‘inli misralar ko‘tarinki kayfiyatni ifodalash, harakat tezligini tasvirlashga qulay. Shu ma’noda Hamza “Mevalar mojarosi” turkumiga 7 bo‘g‘inli vaznni tanlaydiki, 4+3 turoq aynan mojaroning tezlashgan o‘rinlariga tabiiylik bag‘ishlagan.

Garchi dastlabki alifbolar va darsliklarda mumtoz an’analarga xos didaktik ruh saqlangan bo‘lsa ham (bu o‘z davrida bolalar adabiyotining shakllanishi borasidagi jiddiy olg‘a siljish edi), bolalar olamini tushuna borish, badiiy matn orqali tafakkurni va bola iqtidorni to‘g‘ri yo‘nalishga sola bilish ma’nosida milliy pedagoglarimizning sa’y-harakatlari taxsinga loyiq edi. Bu borada Hamza ijodi milliy pedagogikamizning olg‘a bosishida jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, Hamza kabi millat oydinlarining yangidarsliklar va mavzularning yangilanishi borasidagi harakatlari bilan bolalar adabiyotining rivojlanishi va taraqqiyotiga zamin hozirladi.

Adabiyotlar:

Ниёзий Ҳамза Ҳакимзода.Тўла асарлар тўплами. Беш томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – 552 b.

Ниёзий Ҳамза Ҳакимзода. Танланган асарлар. – Тошкент: Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1958. (https://www.ziyouz.com/).

Ўзбек мумтоз адабиёти намуналари ИИ жилд (ХИВ — ХВ асрнинг бошлари). Тузувчи, изоҳ ва шарҳлар муаллифи филология фанлари доктори, профессор Насимхон Раҳмонов. – Тошкент: Фан, 2007. – 320-b.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING NAZARIY, INNOVATSION VA PEDOGOGIK IMKONIYATLAR

Rustamova Lobarxon Ibragimovna
Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tuman
1-IDUM ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi, NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishning nazariy, innovatsion va pedagogik imkoniyatlari, shuningdek, o‘zbek olimlarining tajribalari xususida so‘z boradi.
Kalit so‘zlar: intellektual, integratsiya, “Keys-stadi”, “BBB”, PISA, “Intellekt kart”.

Hozirgi kunda ta’lim islohotlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimiz kelajagini yaratuvchilari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama yetuk, dunyoqarashi keng, barkamol insonlar etib tarbiyalashdan iborat.

Adabiyot fanining maqsadi o‘quvchi badii didini shakllantirish, go‘zallikka muhabbat uyg‘otgan holda ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, uning tasavvur olamini va dunyoqarashini kengaytirish, og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, voqea-hodisalarga tanqidiy, tahliliy munosabat bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Adabiyot fanining boshqa fanlardan farqi shundaki, unda so‘z san’atidan saboq beriladi. Badiiy so‘zni tushunish, estetik zavq olish, mulohaza yuritishga o‘rgatadi.[171]

Adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi ta’limning turli bosqichlarida o‘quvchilar ongiga badiiy asarning mo‘jizakor ta’sir kuchini amaliy jihatdan ta’minlashga qaratilganligi[172] bilan alohida mohiyatga ega. Adabiyot haqida yozuvchi Abdulla Qahhor shunday deydi:

“Adabiyot – ko‘ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi, meva tugmaydi. Ko‘ngil rozi bo‘lmaydigan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tugadi...”[173]

Mumtoz adabiyotni o‘qitish, alohida metodik yondashuvni, o‘qitishning interfaol va samarali usullaridan foydalanishni talab etadi. Albatta, bu jarayonda adabiyot o‘qitish metodikasiga doir amalga oshirilgan ilmiy- nazariy asos vazifasini bajaradi. Jumladan, o‘zbek adabiyotini o‘rganish tarixida rus sharqshunoslarining hissasi ham salmoqli. XX asr boshlarida yashab, faoliyat yuritgan rus sharqshunos olimi safida A.A. Semyonovning xizmatlari alohida o‘rin tutadi. O‘zbek adiblari asarlari qo‘lyozma manbalarini ilk bor ro‘yxatga olish, ularning bibliografiyasini shakllantirish olim ilmiy faoliyatining eng sermahsul davriga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Navoiy asarlarining Buxoro, Samarqand, Toshkent fondlaridagi manbalarini to‘plash, shakllantirilgan bibliografiyasi asosida ularni ilk bor tavsiflanishi fanimizning muayyan yutuqlariga hissa bo‘lib qo‘shilgan.[174] Bundan tashqari, rus metodist olimlaridan V.A.Kan- Kalik, V.I. Xazanlarning “Maktabda adabiyot o‘qitishning psixologik- pedagogik asoslari” nomli risolasida adabiyot o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga alohida to‘xtalib o‘tiladi.”Agar olimning vazifasi murakkab butunlik bo‘lmish badiiy asar mohiyatiga kira bilish bo‘lsa, maktab tahlilining vazifasi nafaqat asarning obyektiv mazmunini ochish, balki uning yordamida har tomonlama rivojlangan o‘quvchi shaxsini shakllantirishdan iborat.[175]

O‘zbek metodist olimlaridan R.Usmonov, Z.Nuriddinova, A.Axmetova, F.Rasulova Z.Ashurova, D.Axatova, M.Salaev, S.Hasanovlar[176], badiiy matnlarni didaktik tahlil qilish masalalari Q.Yo‘ldoshev, M.Mirqosimova, R.Niyozmetova, Q.Husanboyeva, U.Dolimov, R.Safarov, Q.Husanboyeva, E.Qilichev, V.Qodirovlar[177] tomonidan tadqiq etilgan.

Filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqulning “ Navoiyga qaytish” nomli to‘rtinchi nashrga tayyorlangan kitobda navoiyshinos olima Suyima G‘aniyevaga atalgan maqola ham o‘rin olgan.[178]Ma’lumki, Suyima G‘aniyeva Alisher Navoiyning mukammal asarlar to‘plami(20 tomlik) da U “Majolis un- nafois”, “Mahbub ul-qulub”, “ Munshaot”, “Vaqfiya”, “Hamsat ul- mutahayyirin”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “ Holoti Pahlavon Muhammad”, “Nazm ul-javohir”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” kabi asarlarini izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlagan.

---

[171] Maktab o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Baqtria Press.Toshkent-2021..B 57.
[172] Тўхлиев Б.Адабиёт ўқитиш методикаси.- Тошкент. 2010.- Б 8.
[173] Ziyouz.com.
[174] Aleksandr Semyonov- Navoiyshunos, bibliograf olim.Filologiya ufqlari jurnali. 11 (11). htt://gp.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/6865.
[175] Коровин В.Я. Анализ художественного произведения в курсе литературы IV-VII классов. – Москва: Знание, 1977. – 204 с.
[176] Adabiyot: 9-sinf uchun darslik/ Mualliflar: Karimov N., Mirzayev T., Nazarov B. – T.: Ma’naviyat, 2002. – 240 b.

[178] Xurshid Davron kutubxonasi.

Har bir shoirning hayoti va ijodi o‘ziga xos bo‘lganligi bois ulari o‘rganishda bir xil shakl, metodlarni qo‘llash mumkin emas.O‘qituvchi shoir hayoti va ijodining ta’lim-tarbiyaviy qimmati va ta’sir kuchini nazarda tutib, materialning hajmi va xarakterini hisobga olib, uni o‘quvchilarga qanday yetkazish usullarini oldindan belgilaydi.

Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rgatishga bag‘ishlangan darslarda fanlararo integratsiyadan foydalanish haqidagi fikrlarimizni bayon etamiz.

Ushbu muammoning ta’lim tizimi bosqichlarida yoritilishini umumiy o‘rta ta’lim maktablarining M.Umarova[179] S.Matjonov va boshqalar[180] tomonidan yaratilgan 3-,4- sinf “O‘qish” darsliklari misolida kuzatadigan bo‘lsak, anchagina ijobiy natijalarga erishilganining guvohi bo‘lamiz.Jumladan, 3-sinf “O‘qish” darsligida A.Hayitmetovning “Navoiyning do‘sti”, 4-sinf “O‘qish” darsligida H.Hamidovning “Pahlavon va shoir” hikoyasi, Oybekning “Alisherning yoshligi”, T.Adashboyevning “Navoiy bobomlar” she’ri shular jumlasidandir.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi 5-11- sinflarda Alisher Navoiy hayoti va ijodini izchillikda o‘rgatish davom ettirladi. O‘quv rejasida quyidagicha dars soatlari ajratilgan: 5-sinfda “Hayrat ul-abror” dostonidan olingan “Egrilik va to‘g‘rilik” hikoyasi 3 soat, 6-sinfda “Mahbub ul-qulub”dan olingan parcha 4soat, 7-sinfda[181] “Sabba’i sayyor” dostonidan beshinchi iqlim yo‘lidan keltirilgan musofir hikoyasi 3 soat, 8-sinfda[182] ruboiy, tuyuq, g‘azallaridan namunalar-4 soat, 9-sinfda[183] “Farhod va Shirin” dostoni -10 soat,10-sinfda[184] shoir zamondoshlari xotirasida, lirikasi: g‘azal, ruboiy, qit`alari tahlili 6 soat, 11-sinfda[185] hayoti va ijodi , “Saddi Iskandariy” dostoni-4 soat.

Biz adabiy ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya, matn bilan ishlash, PISA xalqaro tadqiqoti asosida 9- sinfda “Farhod va Shirin” dostonini o‘rgatish usullariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Butun dunyodagi yuz berayotgan o‘zgarishlar, axborot almashinuvining ochiqligi ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib borishi tabiiydir. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, o‘qitish usullari, mazmuni, uni tashkil etishning pedagogik-psixologik maqsadini ham o‘zgartirish, o‘quvchilarni mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, axborot oqimidan o‘rinli foydalanishga o‘rgatishni talab qilmoqda. Yuqorida aytib o‘tilganlardan kelib chiqqan holda, amaliyotchi ustoz tayyor elektron resurslardan foydalanib dars o‘tish bilan chegaralanmasdan, darsga doir, didaktik, ta’limiy resurslarni yaratish va ularni amalda qo‘llash, o‘qitishning zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishi, fan, uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini o‘quvchilarga yetkazish malakasiga ega bo‘lmog‘i lozim. Shu bilan birga, o‘quvchilarni kitob o‘qishga, mustaqil bilim olishga qiziqtirishi, ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirib, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘z ustida ishlash va bilimlarni takomillashtirishga o‘zgartirishi muhimdir.

Badiiy asarning tarbiyaviy ta’siri va uning inson tarbiyasi, shaxs sifatidagi taraqqiyotidagi o‘rni masalasi ham pedagogika, ham metodika uchun muhim sanaladi. Kichik yoshdan kitob o‘qish, bolada asardagi voqelikni boshdan kechirish bilan insonning haqiqiy faoliyatga, atrofdagi ijtimoiy muhitga moslashish va uning boshqa shaxslar bilan munosabatga kirishishga, bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy intellektni shakllanishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, o‘zgalarning harakatlariga axloqiy va estetik baho berishga o‘rganadilar. Badiiy asarlarni pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish shu jihatdan dolzarbki, bu ma’naviy jarayonni tom ma’noda ta’lim va tarbiya kechimiga aylantirish yo‘l-yo‘riqlari ijtimoiy ahamiyatga, ijtimoiy zaruratga aylanadi. Shu bois mamlakatimizda badiiy adabiyotga, kitob mutolaasiga hukumat miqyosida e’tibor qaratilmoqda. Mamlakat miqyosida Prezident qaror, farmoyishlari va boshqa me’yoriy hujjatlar bu boradagi birlamchi metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi

[179] Umarova M.O‘qish kitobi.(Matn)3-sinf uchun darslik. // M.Umarova, X.Hamraqulova, R.Nj;b,jtdf; - Toshkent, NMU , 2012.-224-b.

[180] Matchonov S.,Shojalilov A., G`ulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. O‘qish kitobi : Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik.- Toshkent.Yangiyo‘l poligraf servis, 2007.-271b.

[181] A,dabiyot: Umuiy o‘rta ta’lim maktablarining 7- sinfi uchun darslik-majmua./Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov,V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov.-T.:Sharq,2017.-368b.

[182] Sultinmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov. Adabiyot.1-2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf uchun darslik.-majmua./G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.-T:.2014.-190b.

[183] Yo‘ldoshev Q, Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik./Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov(mas`ul muharrir V.Rahmonov). Qayta ishlangan 4-nashri.-T:. “O‘zbekiston” NMIU, 2019.- 368b.

[184] Adabiyot(Matn):darslik-majmua.1-,2-qism/B.To‘xliyev.-Toshkent:”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”Davlat ilmiy nashriyoti.2017.-184b.

[185] To‘xliyev B.Adabiyot.(Matn).11-sinf: darslik-majmua.1,-2 - .qism./-Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat nashriyoti, 2018.- 200b.

Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni[186] bilan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da belgilangan to‘rtinchi yo‘nalishning “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish” deb nomlangan beshinchi bandidagi “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi qaydlar bevosita kitob mutolaasi, badiiy adabiyot bilan ham bevosita bog‘liq. Bu kabi yuksak ma’naviy fazilatlar ta’lim jarayonida boshqa pedagogik tadbirlar sirasida yoshlarda kitobxonlik madaniyati, milliy va jahon adabiyotining sara asarlarini o‘qib, o‘rganish jarayonida tarbiyalanishi hammaga ayon haqiqat.

Bu boradagi tarixiy hujjat o‘laroq millat ma’naviyatini yuksaltirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori[187] mamlakat ijtimoiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Bu qaror jamiyatda, jumladan, yoshlar o‘rtasida inson axloqining shakllanishi, ma’naviyatining yuksalishi va dunyoqarashining kengashida badiiy adabiyotning o‘rni va ahamiyatini qayta idrok etishga, uni amaliy jihatdan jamiyat hayotiga tatbiq etishga turtki berdi. Qarorda “… jamiyat hayotida ezgu qadriyat va an’analarni chuqur qaror toptirishga, xususan, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirishda, ona Vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan kitobxonlik madaniyatini oshirish”ga alohida e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori[188] ham mohiyatan yana kitob olamiga yoshlarni, umuman millatni oshno qilishda va bu orqali inson botiniy tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda Yurtboshimiz e’lon qilgan hujjatlarga kamarbastalik nishonasi bo‘ldi deyish mumkin. Bu hujjatdagi “aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual saviyasini o‘stirishga xizmat qiladigan, yuksak insoniy fazilatlarni ulug‘laydigan, odob-axloqqa chaqiradigan jahon adabiyotining badiiy jihatdan yetuk eng sara namunalariga bo‘lgan talabni o‘rganish” yoki “o‘zbek va jahon adabiyoti namoyandalarining hamkorligini kuchaytirish, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va madaniy aloqalarni yanada kengaytirish” kabi mezonlar to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’lim va tarbiya maqsadlariga ulashib ketadi.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 19-martda yoshlarga oid davlat siyosatiga taalluqli ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surgan edi[189]. Undagi **to‘rtinchi tashabbus** yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan.

2018-yil 15-may sanasidagi PQ-3721 raqamli “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori[190] qabul qilingan ushbu hujjatlarni hayotiy amaliy mexanizmini yaratishdagi dadil qadam bo‘ldi.Ushbu me’yoriy hujjatlar metodist va pedagog olimlar, amaliyotchi o‘qituvchilar oldiga milliy va jahon adabiyoti namoyandalari bo‘lmish adiblarning ijod namunalarini pedagogik nuqtai nazar bilan tadqiq qilish, o‘rganish va o‘qitish zaruratini ko‘ndalang vazifa qilib qo‘ymoqda.

---

[186] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

[187] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017, 38-сон, 1029-модда.

[188] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.05.2018 й., 09/18/376/1257-сон. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3743182.

[189] https://oz.sputniknews-uz.com/society/20190403/11146250/Yoshlar-va-xotin-qizlar-manfaatlari-Mirziyoev-besh-tashabbus-boyicha-yiqilish-otkazdi.html

[190] “Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/20/3721/0851-son.

O‘zbekistonda xorijiy tajribadan foydalanilgan holda Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqildi. Bu haqda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (PF-6108-son 06.11.2020) farmonida so‘z boradi.

Bugungi kunda o‘qitishdan asosiy maqsad bilim, malaka va ko‘nikmalarni to‘plashdan tashqari, uni hayotiy faoliyatda ham qo‘llash nazarda tutilmoqda. Ana shu maqsadda mustaqil o‘rganishni, bilimlarini takomillashtira oladigan ijodkor, faol shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Har bir qo‘llanayotgan innovatsion texnologiyalar qiziqarli mashg‘ulot yoki o‘yindan iborat bo‘lib qolmasligi kerak. Qo‘llanilgan metodlar o‘quvchilar uchun ham quvonch, ham bilim berishi zarur.

O‘zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar talaygina bo‘lsa-da, ammo uning hayoti va ijodi yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar unchalik ko‘p emas.

A.Hasanovaning “Yuqori sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish”[191] mavzusidagi dissertatsiyasida “Xamsa” dostonlarini o‘rganish”, “Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish” kabi mavzular o‘rganilgan. Ushbu dissertatsiyada tadqiqotchi o‘qituvchi shaxsi haqida to‘xtalib o‘tadi: “Garchi o‘rta maktab dasturi o‘quvchilari Navoiy biografiyasiga oid bo‘lgan hamma masalalar bilan tanishtirishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ymasa ham, o‘qituvchi shoir hayoti va ijodining eng nozik nuqtalarigacha o‘rganib chiqqan bo‘lishini talab qiladi”.[192]

Olim o‘qitishning yangi usul va metodlarini qo‘llash bilan birga,o‘z fikr-mulohazalarini dalillar bilan asoslaydi: “Navoiyning lirik asarlarini tahlil etishda ham, “Farhod va Shirin” dostonining g‘oyaviy mazmuni, obrazlari, badiiy xususiyatlarini o‘zlashtirishda ham eng qulay yo‘l sharhli o‘qish va suhbat metodi asosida darslarni uyushtirishdan iboratdir”.[193]

Alisher Navoiy asarlarining umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitilishi bo‘yicha tadqiqotchi Maxsuda Sariboyevaning ilmiy izlanishlariga e’tibor qaratmoqchiman. Olimaning “Umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish” (“Xamsa” asari misolida)[194] mavzusidagi tadqiqotida Alisher Navoiy asarlarini zamonaviy usullarda o‘qitishning yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’siri va bu boradagi ilmiy muammolarga to‘xtalaib o‘tadi. Jumladan, ”Guruhlarda ishlash”, ”Fikriy hujum”, “Refleksiya” kabilar.

-jadval

Sinf	Darslik	Muallif	Mavzu	Soat
5	Adabiyot	S.Ahmedov,B.Qosimov, R.Qo‘chqorov,Sh.Rizayev	Alisher Navoiyning bolaligi haqida ma’lumot beriladi	1
7	Adabiyot	Q.Yo‘ldoshev,B.Qosimov, V.Qodirov,J.Yo‘ldoshbekov	Alisher Navoiy hayoti va asarlari haqida ma’lumot beriladi	1
9	Adabiyot	Q.Yo‘ldoshev,V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	Alisher Navoiy hayoti va xamsachilik an’analari	1
11	Adabiyot	B.To‘xliyev,B.Karimov, K.Usmonova	Alisher Navoiy hayoti va ijodi	1

[191] Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий асарларини ўрганиш.Педюфанюномз...диссе.Тошкент,1974.-1766.

[192]Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш.Пед.фан. номз...дисс.Тошкент,1974.-13-б.

[193] Ўша жойда.168-б.

[194] Сарибоева М.Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш(“Хамса” асари асосида):Пед.фан.номз...дисс. – Тошкент,2011.-163- б.

Maktab tajribalarimiz va kuzatishlarimiz davomida amaldagi dastur va darsliklardagi quyidagi muammolar kuzatildi:

1) yozuvchilar va ularning asarlari haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi;
2) o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun imkoniyatlarning cheklangani;
3) XXI asr ko'nikmalari integratsiyasi hisobga olinmaganligi;
4) lug'atlarning to'la berilmaganligi.

Rivojlangan davlatlarning adabiyot o'qitish tajribasi o'rganilganda:
badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish;
adabiyot nazariyasiga oid tushunchalarni badiiy matn bilan bog'lab o'rganish;
spiralsimon yondashuv;
fanlararo integratsiya;
XXI asr ko'nikmalari integratsiyasiga e'tibor qaratilganligi aniqlandi.

Rivojlangan davlatlar adabiyotida quyidagilarni ko'rish mumkin:

1) badiiy matnni mustaqil tahlil va talqin qilishga o'rgatish;

2) uch bosqichli yondashuv: o'qishdan oldingi, o'qish davomidagi va o'qishdan keyingi topshiriqlar;

3) har bir o'qishning o'z maqsadi mavjudligi kabi jihatlarga e'tibor qaratilgan.

Fanlararo integratsiyada boshqa fanlardan olingan bilimlar badiiy matnni chuqurroq anglashga yordam berishi; adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasi yozma nutq, tanqidiy va kreativ fikrlash singari muhim ko'nikmalarni rivojlantirish muhim vazifa sanalishi nazarda tutilgan.

XXI asr ko'nikmalari:

1) kommunikatsiya (muloqot);
2) muammoga echim topish;
3) tanqidiy fikrlash (tahlil);
4) kreativ fikrlash kabilarga diqqat tortilgan.

Ma'lumki, avvalgi o'quv dasturi mazmuni 90% nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan edi. Yangi milliy o'quv dasturi mazmuni 50% nazariya, 50% amaliyotdan iborat tarzda yaratildi. Bundan maqsad shuki, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashdan iborat. Avvalgi o'quv dasturda baholash faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi.

Endi aynan fanlar chiziqli tartibda emas, balki spiralsimon, ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda o'qitiladi.

Ilmiy izlanishlarimiz ham ana shu farmon asosida amaliyotda sinaldi.

Bugungi kunda mumtoz adabiyotlarni tushunishda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- bir necha asrlardan buyon ilmiy asarlar deyarli arab tilida, badiiy asarlar esa turkiy til va fors tilida yaratilgan. Shoirlarning badiiy tafakkuri shu tillarda yozilgan mumtoz asarlar ta'sirida shakllangan. Ijodiy ong, badiiy tafakkurdagi tayyor forsiy, arabiy adabiy qoliplar, shakl va iboralar asarlarni yaratish jarayonida o'z-o'zidan quyilib kelavergan. Natijada, o'zbek tilining faol lug'at boyligidan joy olmagan, so'zlashuv tiliga o'zlashmagan talay so'zlar mumtoz asarlarda qo'llanilgan. Ayni shu faqat badiiy asarlardagina uchrab, tilga o'zlashmagan so'zlar mumtoz asarlarning "qiyin"ligiga sabab bo'layotgan ichki omildir. Haqiqatan ham o'qilayotgan asardagi har uch-to'rt so'zning bittasi notanish, nutqiy faoliyatida qo'llanilmagan bo'lsa, kitobxon ishtiyoqi susayadi.

V.Qodirovning "O'qitish muammolari va yechimlari"[195] monografiyasi va Umumta'lim maktablarida o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" nomli dissertatsiyasi [196]da o'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining o'quv tahlili yuzasidan tartibli tavsiyalar berilgan.

Keyingi yillarda ta'lim sohasida o'rgatishning turli innovatsion texnologiyalar asosidagi "KEYS – STADI", "Klaster"," BBB", "Erkin yozish", "Intellekt kart", seminar , konferensiya, munozara, uchrashuv, onlayn, video dars kabi turlarining qo'llanishida foydalanish kutilgan natijalarga erishish imkoniyatini berayotganini guvohi bo'lib turibmiz. Ma'lumki, keyingi yillarda respublikamizning bir qator metodist

[195] Қодиров В.Мумтоз адабиёт : ўқитиш муаммолари ва ечимлар.- Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси.2009.

[196] Қодиров В. Умумтаълим мактабларида ўзбек мумтоз адабиёти намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари:Пед. Фан. ...дисс.- Тошкент,2019.

olimlari, tajribali ustozlar maktabda Alisher Navoiyni o‘rganishga doir anchagina ilmiy- metodik tadqiqotlar, qo‘llanmalar yaratdilar.[197]

Yuqoridagi tadqiqot va qo‘llanmalarda shoirning tarjimayi holi, dasturga kiritilgan asarlarini o‘rganish metodlari, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish usullari, sharhlashning o‘quvchilar bilimi darajasini ko‘tarishga ta’siri haqidagi umumiy fikrlar bayon etilgan bo‘lib,fanlararo integratsiyadan foydalanish haqida aniq tavsiya, ko‘rsatmalar mavjud emas.

Faqatgina M.Suyunov “Yuqori sinflarda o‘zbek adabiyotini o‘rganish jarayonida arxitektura yodgorliklari va tasviriy san’at asarlaridan foydalanish” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘rta maktablarning yuqori sinf adabiyot darslarida san’at asarlari (arxitektura va tasviriy san’at)dan foydalanishning samarali usul va metodlarini aniqlash va ishlab chiqishga harakat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

PISA xalqaro baholash dasturi Respublikamiz ta’lim tizimining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Bu borada respublikamiz miqyosida talaygina izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, tadqiqotchilar M.Asqarova, G.Rahmatova, G.Tog‘ayeva, D.Rabbonayeva, Q.Azizova, G.Yunusova, Z.Boltayeva, D.Ro‘ziyeva, N.Egamqulova, S.Ro‘ziyeva, M.Qo‘chqorova[198]larning ilmiy faoliyatida o‘ziga xos izlanishlar kuzatilmoqda.

Professor B.To‘xliyevning “Adabiyot o‘qitish metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanmasida, professor B.Sarimsoqov bilan hamkorlikda yaratgan “Akademik litseylar uchun o‘quv dasturi”da adabiy asarlar tahliliga e’tibor qaratilgan.

Sinflar yuqorilagani sari murakkablik yanada ortib boradi. 9-sinf adabiyoti darsligida Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi o‘ninchi maqolatning avvalida *“Rostliq ta’rifidakim, vujud uyi bu tuz sutun bila barpoy. Va ul uy shabistoni harimida bu sham’i anvar majlisoroy bo‘lur. Va egrilik nafyidakim, agar egri kishi zulfdek siymbarlar yuzida er tutarkan, boshi kesgulik. Va agar ajdohodek ganj ustida halqa urarkim”.* Mumtoz matnlarni tushunishga ularda arab va fors tillardan o‘zlashgan affiks, perefiks va affiksoidlarning ko‘p qo‘llanishi to‘siq bo‘layotganligi ham haqiqat. Agglyutinativ tabiatga ega bo‘lgan o‘zbek tilida o‘zak qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida deyarli o‘zgarishsiz qo‘llanib, leksik ma’no anglatadigan shaklini saqlaganligi tufayli, o‘zimizniki bo‘lib qolgan bir qator chet so‘zlarning faol lug‘atimizga o‘zlashmagan perefiksli va affiksoidli shakllarini nafaqat o‘quvchilar, balki kattalar ham tushunmaydilar.

Keyingi murakkablik umumturkiy arxaik so‘zlar, qo‘shimchalarning hozirgi zamon o‘zbek tilidagi muqobilini bilmaslik tufayli yuzaga chiqmoqda. Masalan, “Layli va Majnun” dostonidagi “Mahvash ul ikov degandek etti, Ko‘nglin qo‘yib anda evga ketti” baytida “ev”; “Shah duosig‘a chekmadi tilini, O‘pmadi shohi kamron alini” ikkiligidagi “al” kabi turkiy arxaik so‘zlar maktab dasturiga kiritilgan asarlarda ko‘plab uchraydi. 9-sinf darsligidagi Rabg‘uziy asarlari uchun berilgan 123 lug‘atda izohlangan so‘zlarning 25 tasigina arabcha va forscha bo‘lib, qolganlari eskirgan turkiy so‘zlardir. Shuningdek, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Devoni hikmat”, “Muhabbatnoma”, Atoiy g‘azallarida, umuman, XV asrgacha bo‘lgan adabiy manbalarda umumturkiy arxaik so‘zlar talay uchraydi. Lekin XV asrdan keyin ularning salmog‘i kamayib borgani kuzatiladi. Dars davomida aynan eskirgan turkiy so‘zlar matnlarni tushunish va tahlil qilishda ko‘proq qiyinchilik tug‘dirayotir. Bu esa darsliklarda asarga oid bo‘lgan lug‘atlarning to‘la keltirishni taqozo etadi.

Bizningcha, mumtoz adabiyotni quyidagi shakllarda o‘rganishni tashkil etgan ma’qul:

---

[197] Rahimova G..Alisher Navoiyning hayoti va ijodini sakkiz yillik o‘zbek maktablarida o‘rganish. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T., 1966, 243 b.,

Tog‘ayeva G. PISA xalqaro baholash dasturi va unda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari, Yunusova G. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLA, TIMMS, TALIS) – matematik savodxonlikni oshirish me’zoni, Qo‘chqorova M. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, Rahmatova G. “PISA tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash”, Ro‘ziyeva D va boshqalar. “TIMSS xalqaro baholash dasturi – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Egamqulova N. “RIRLS – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Rabbonayeva D. “O‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotida belgilgngan matnni mezonlari” Халқаро онлайн илмий-назарий конференцияси, 2020, – Наманган, – 410 б.

1. Alisher Navoiy suratlar orqali tanishtiriladi. Bu o‘ziga xos ma’rifiy ahamiyatga ega. Chunki suratlarda rassomning adiblarga mehri aks etgan bo‘ladi. Bu suratlar orqali uyg‘otilgan mehr, hurmat yosh avlodda adiblarning ijodiga yuksak ehtirom tuyg‘usini tarbiyalaydi.
2. “O‘qish kitobi”da berilgan mumtoz siymolar haqidagi rivoyatlar, hikoyalar, qissadan parchalarni o‘qish, o‘rganish orqali ularning hayoti, ijodi, ma’naviy olami bilan tanishib boradilar.
3. Mumtoz adiblar ijodidan olingan parchalarning hozirgi tilga tabdil qilingan namunalari o‘qitiladi. Masalan,4-sinfda Xondamirning “Tanbeh” nomli rivoyati keltirilgan. Unda Amir Alisher Navoiy 1488-yili Hirotning Jome masjidini ta’mirlashga urinayotgan edi. Binoning yozuvlarini yozib berish Mirak naqqosh taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Said Ruhilloga topshirilgan edi. U beparvolik qilib, ishga kechikibroq qo‘l urdi. Shunda Alisher Navoiy Mirak naqqosh devonga besh ming dinor qaytarishi zarurligi to‘g‘risidagi hujjatni tayyorlatib, navkarlardan naqqosh dam olayotgan qishloqqa yuboradi. Mirak naqqosh o‘sha zahotiyoq masjidga borib,ish boshlashi, ammo besh ming dinorni devonga qaytara olmasligini aytadi. O‘quvchilar Alisher Navoiyning nihoyatda aqlli, donishmandligini, loqayd, beparvoni qanday tarbiyalaganini anglab yetadilar.

PISA tadqiqotida anglab o‘qishni baholashga yo‘naltirilgan topshiriqlar quyidagi foizlarda taqsimlanadi:

Tushunish jarayonlari		%
1.	Aniq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni topish	20 %
2.	Kelib chiqqan xulosalarni ifodalash	30 %
3.	Ma’lumotlarni umumlashtirish va izohlash	30 %
4.	Matnning tuzilishi va mazmuni, tilining o‘ziga xosligi tahlili va baholanishi	20 %

PISA o‘quvchilarning kreativ fikrlashlarini baholovchi xalqaro dasturini ishlab chiqishdan kutilgan natijalar: PISA tadqiqotlarida faqatgina 15 yoshli o‘quvchilar ishtirok etadi. Mazkur xalqaro loyiha faqat ijodkor yoshlarni ajratib olishnigina maqsad qilmaydi, shu bilan birga o‘quvchilarning g‘oyalarni qidirish hamda ifodalashda ijodiy fikrlash qobiliyatini, bu qobiliyatni rivojlantirish yondashuvi, maktab faoliyati va ta’lim tizimining boshqa xususiyatlari bilan qanday bog‘liqligini tavsiflaydi. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi o‘quvchilarning ta’lim siyosati va pedagogikada yaqqol natija beradigan kreativ fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiruvchi o‘quvchilar tomonidan ham sinfda, ham sinfdan tashqari bajariladigan mashg‘ulotlarga yaqin bo‘lish bilan birga, ijodiy yutuq va muvaffaqiyatni ta’minlaydigan darajani aniqlashdir.

Adabiyot fanining maqsadi yoshlarning nutqiy savodxon, har bir narsaga tanqidiy, tahliliy munosabat bildira oladigan, go‘zallikka muhabbat uyg‘otadigan, aql va tafakkurini charxlaydigan, tasavvurlarni boyitadigan, badiiy estetik didni o‘stiradigan va tanqidiy fikrlash, ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishdir. Adabiyot fanining boshqa fanlardan farqi shundaki, adabiyot so‘z san’atidir. Ta’kidlash joizki, insonlarning mavqeyi o‘z fikrini og‘zaki nutqda aniq ifodalashi, yozma nutqini tushunarli, bexato yoza olishi, jamiyatda aqlli, teran fikrlashi, madaniyatli muomalasi bilan belgilanadi. Bugungi kun talabi ham o‘quvchiga bilim berish emas, uning olgan bilimini hayotda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iboratdir.

TABIAT RAMZLARINING BADIIY SAN’ATLARNI YUZAGA KELTIRISHDAGI O‘RNI

Sharipova Raxima Muxtorovna
NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi
katta o‘qituvchisi f.f.f.d (PhD)
(sharipovaraxima801@gmail.com)

Annotatsiya: Dunyo adabiyotshunosligida tabiat ramzlarining istioraviy, semantik ma’nolari, inson ruhiyati, tuyg‘u-kechinmalari ifodachisi sifatida ifodalagan umumbashariy va milliy jihatlari, peyzaj lirikasining bir muhim qismi ekanligini aniqlash, ularning yil fasllari bilan bog‘liq tomonlarini tekshirish kabi masalalar bo‘yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Shu ma’noda lirikada katta o‘ringa ega bo‘lgan tabiat ramzlari tasviridagi o‘ziga xosliklar, kelib chiqish asoslari, timsoliy ma’nolari, ular bilan yonma-yon keladigan lirik obrazlar mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga alohida diqqat qaratilmoqda. Zamonaviy o‘zbek she’riyatida shamol, yomg‘ir, qor, bulut singari tabiat ramzlari talqini alohida o‘rin tutadi. Bu timsollar inson ruhiyati, his kechinmalarini ochib berishning obrazli vositasidir. Maqolada yangi o‘zbek she’riyatidagi shamol, yomg‘ir, bulut kabilarning timsoliy-ramziy ma’nolari bahor, kuz, qish fasllari talqini bilan uyg‘unlikda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: motiv obraz, shamol, bulut, yomg‘ir, tashxis, lirik qahramon, ramz, ruhiyat.

Аннотация: В мировом литературоведении ведутся определенные исследования по таким вопросам, как определение метафорических, смысловых значений символов природы, их выразителей общечеловеческих и национальных аспектов человеческой психики, чувств и переживаний, как важной части пейзажной лирики, исследование их граней, связанных с временами года. В этом смысле особое внимание уделяется научно-теоретическому изучению своеобразия в изображении символов природы, основ их происхождения, образных значений, сопутствующих им лирических образов, которым отводится большое место в лирике. В современной узбекской поэзии особое место занимает интерпретация природных символов, таких как ветер, дождь, снег, облака. Эти эмблемы являются образным средством раскрытия человеческой психики, чувств. Статья раскрывает символические значения ветра, дождя, облаков и т.д. В работе современной узбекской раскрыты гармонии с интерпретацией весны, осени и зимы.

Ключевые слова: мотив изображения, ветер, облако, дождь, диагностика, лирический герой, символ, психика.

Annotation: In modern poetry, it is revealed that the image of the wind expresses the mood of the lyrical hero who yearns for spring, the beginning of a new day, the transience and brevity of human life, the message of happiness, and the bond that connects yesterday and today. In modern Uzbek poetry, interpretation of natural symbols such as wind, rain, snow,clouds occupies a special place. These emblems are a figurative means of revealing the human psyche, feelings. The article reveals the symbolic meanings of wind, rain, clouds,etc. In the work of in modern poetry, harmonies with the interpretation of spring, autumn and winter are revealed.

Keywords: image motive, wind, cloud, rain, diagnostics, lyrical hero, symbol, psyche.

Yangi o‘zbek she’riyatida tabiat ramzlari obrazlantirilishi natijasida bir qator she’riy san’atlar: tashxis, tashbeh, istiora kabilar yuzaga kelganligi kuzatiladi. Ma’lumki: «Badiiy san’atlar fikrni ta’sirchan ifodalash imkonini beradi. Ijodkorlar sho‘ro davrida ulardan fikrni pardalash maqsadida foydalanishgan» . Tabiat ramzlari orqali yuzaga kelgan badiiy san’atlar haqida ham shu fikrlarni aytish mumkin. Kuzatishlarimiz davomida eng ko‘p qo‘llangan badiiy san’at tashxis ekanligi ayon bo‘ldi.

Ko‘chada ketarkan//Qish oqshomi keskin...
Yel bir-la qor o‘ynar.//Turmush yana toshqin,
Porlardi chiroqlar. (O.M.A.T.1-t.T.:1975 -B.119)

Oybekning hayotsevarlik ruhi bilan sug‘orilgan yuqoridagi satrlarida «el birla qorning o‘ynashi» tashxis bo‘lib, insondagi harakat shamol qorga ko‘chirilgan. Haqiqatan, bunda tabiiy tasvir bor. Qor shamolda har tomonga tebranib yog‘adi.

Qish kechasi//Yulduzlarning tomar
Oltin ko‘z yoshi...//Qorlarda jim porlar
Brilliant toshi...//Shamol yuzni silar,
Issiqni shilar//Qo‘yningda titragan
Yozga qo‘l tiqar. (O.M.A.T.1-t.T.:1975 -B.113)

Bunda tashxis va tashbeh birga qo‘llangan. Ya’ni qor zarralari qimmatbaho brilliantga o‘xshatilgan. Shamol esa tashxislantirilgan. Uning mayin esishi yuzni silashi ifodasi orqali berilgan.

Zulfiya she’riyatida tabiat ramzlari tashbeh hosil qilganligi kuzatiladi:

Hurriyat, keldingmi – nahotki kelding,//Pinhona sog‘indim, pinhona kutdim.
Yomg‘irga bag‘rini tutgan sahrodek –//Sening nasimingga qalbimni tutdim. (Z.S.T.:2015.-B.213)

«Xotiram siniqlari» dostonidan olingan yuqoridagi satrlarda shoira istiqlol ulug‘langan. Shoira uni ulug‘ ne’mat deb biladi. Xalqimizning unga uzoq yillar intiq bo‘lganligini yomg‘irga bag‘rini tutgan sahroga o‘xshatadi. Ya’ni yomg‘irga tashna sahro – istiqlolga tashna xalqni anglatadi.

Keldim. Uzoq qoldim men sokin,//Sening aziz boshingda yolg‘iz,
Osmon tiniq edi va lokin,//Parcha bulut yetib keldi tez.
Ko‘kda mening boshimda turib,//Go‘yo yuragimda qalqdi u.
Ko‘zimdagi yoshimni ko‘rib//U ham to‘kdi yoshini duv-duv. (Z.S.T.:2015.-B.213)

Hijron iztiroblari aks etgan bu misralarda Zulfiyaning Hamid Olimjon qabri boshida qalbidan kechgan mahzun tuyg‘ular aks etgan. Tiniq osmondagi parcha bulut, ramziy ma’noda Hamid Olimjonni bildiradi. Bunda uning ruhi ko‘kka parvoz qilganiga ishora bor. Lirik qahramon ko‘zidagi qayg‘u yoshlari va parcha bulutdan yoqqan yomg‘ir parallel qo‘yilgan. A.Oripov yaratgan tashxislar ham betakror:

Ko‘pdan kutgan edim orziqib, mana ,//Bulutlar tarqaldi to‘kishib ko‘z yosh.
Xayolim osmonday yorishdi yana,//Yorug‘ kunlarimday porladi quyosh.
Shoshqin daryolarning zangordir labi,//Shamollar o‘ynaydi yiroq-yiroqda.
Yurgil, sayr etaylik, yurgil, malagim. (A.O.T.A.2-j.T.:2001-B.93)

Bu haqda taniqli adabiyotshunos A.Ulug‘ov yozadi: «Ushbu she’rda qalbi sevgi sururi bilan to‘lgan oshiqning hayajonga to‘la ko‘tarinki kayfiyati tiniq ifodalangan. Yomg‘ir yog‘ib, bulutlar tarqalib, quyosh charaqlaganda hayoti ham yorishib ketgandek ko‘rinadi . Haqiqatan, dastlabki satrda tashxis qo‘llangan. Bulutdan yomg‘ir yog‘ishi «ko‘z yosh to‘kib» va uning osmonni tark etish holati «tarqaldi» fe’li bilan ifodalangan. Har ikki harakat ham insonga xos bo‘lib, o‘tib borayotgan umr lahzalarini bildirib keladi.

Kuzak shamollari esdilar yana,//Sokin yuragimda tuyg‘ular qo‘zg‘ab.
Kelgil, parivashim, kelgil jimgina,//Kelgil samolardan mezonga o‘xshab.
Oqshom tumanida kezaylik xushhol,//To‘ngan yulduzlarga boqaylik to‘yib,
Shivalagan yomg‘ir, daydigan shamol,//Mayli, izimizni ketsinlar yuvib. (A.O.T.A.1-j.T.:2001-B.193)

Kuzak shamollar lirik qahramon qalbiga sokin tuyg‘ular olib kiradi. Ayni choqda, shivalagan yomg‘ir, daydigan shamol birikmalarida sifatlash qo‘llangan. Shivalamoq yomg‘irning yog‘ish holatini bildirsa, shamolnig har yonga esishi «daydigan» so‘zi orqali poetiklashadi.

Shamolning bo‘yniga osilma bir dam//Yelmasin mayli u xayoling misol
Bir zum o‘z holicha yayrasin u ham//Bir zum shamol bo‘lib yayrasin u ham. (A.O.T.A.1-j.T.:2001-B.286)

Bu she’r falsafiy ma’noga ega. Ma’lumki, xayol – yugurik. Shu jihatdan shoir shamolni xayolga o‘xshatadi. Qolaversa, yayrash so‘zida uning esishiga xos erkinlik mazmuni bor.

Shoirning «Yurtim shamoli» she’ri ham hayotiy umumlashmalarga va obrazlarga boydir. Binobarin, «Abdulla Oripovning «Yurtim shamoli» nomi bilan mashhur bo‘lgan she’ri aslida «O‘zbek shamoli» deb nomlangan va «hushyor» muharrirlar asarni shu nom bilan chiqarishdan cho‘chiganlari uchun muallif uni «Yurtim shamoli»ga aylantirishga majbur bo‘lgan ekan. Bu xildagi ma’lumot ushbu she’rni idrok etish undagi milliy o‘zlikni anglash g‘oyasini tuyishda muayyan ahamiyat kasb etishi aniq» . Qozoqboy Yo‘ldoshev she’rning nomlanishida ham ijtimoiy mazmun ko‘radi. Asar mutolaasi davomida ijtimoiylik va shaxsiylik uyg‘unlashganligini ko‘rish mumkin:

Yo‘llarda yeldirim misoli yeldim,//Yellar vodiysiga boshladi havas.
Yelvagay Hisorning bag‘riga keldim,//Sen esding – taraldi siym tanda atlas,
Sen esding – ochildi yorning jamoli,//O, yurtim shamoli, yurtim shamoli. (A.O.T.A.1-j.T.:2001-B.167)

Bu she’r Vatan mavzusida bitilgan. Vatanparvar shoir uchun yurtning har bir kichik zarrasi suyuk. Yurtning shamolida ham u shu yuksak tuyg‘uni tuyadi. Yuqoridagi satrlarda ishtiqoq va tajnis san’atlari qo‘llangan: «eldirim», «eldim», «elvagay», «ellar» so‘zlarining o‘zagi «el»dir. «Eldirim», «elvagay»da ot hosil qilingan va shamolga sinonim bo‘ladi. «Elmoq» esa fe’l turkumiga mansub. Ya’ni shu joyda omonimlik «el» so‘zining tabiat hodisasi va harakatni bildirishida hosil bo‘lgan. Qolaversa, shoir shamolning esishida Vatanga bo‘lgan qaynoq muhabbatni his etadi. Adabiyotshunos olim N.Rahimjonov to‘g‘ri ta’kidlaganiday: «A.Oripovning lirik qahramoni ona yurt shamolida kuylagan o‘zbek tuprog‘ining qo‘shig‘ini tinglay biladi: uni yuksak shoirona til bilan o‘quvchiga tarjima qilib beradi» . Zero, yoqimli shabada yor jamolini ochadi. Yor, shoir nazdida, bepoyon kengliklarni bag‘riga singdirgan muazzam Vatandir.

Men-ku bu dunyoda bir zori visol,//Karbalo dashtida Majnun sifatman.
Shamollar ichida men ham bir shamol,//Chechaklar atridan men ham sarmastman.
Lekin sen ruhimning mangu xayoli,//O, yurtim shamoli, yurtim shamoli. (A.O.T.A.1-j.T.:2001-B.167)

«Dunyodagi bir zori visol» – lirik qahramon qalbi Vatan ishqi bilan yonadi. Keyingi misrada bu fikr talmeh orqali kuchaytiriladi. Ya’ni u o‘zini shu jihatdan Karbalo dashtida kezgan Majnunga o‘xshatadi. «Shamollar ichidagi bir shamol» der ekan, shoir shamolni ramziy ma’noda erkinlik timsoli, o‘zini esa unga intilayotgan erkinlik epkini sifatida ifoda etadi. Shamolni «ruhimning mangu xayoli» deya ta’riflaydi. Shoir yurt shamolida esa dilga yaqin bir hisni – tug‘ilib o‘sgan o‘lkaga mehrni tuyadi.

Qancha shamollarga yuzimni burdim,//Ulardan esdilar turfa xil nafas.
- Он разрезал лекарство!
- Он настоящий герой!
- Сейчас ты потеряешь голову!
- Ким ол!» (440-441-бетлер)

Но глава регулярного танца не уходит. Своим красноречием, изобретательностью и репутацией он спас и свою репутацию, и репутацию провинившегося юноши. Хотя эта история и является легендой в народе, в романе она изображена.

Другая сюжетная направленность романа связана с Хаиром. В первом романе детство Каира было изображено в связи с уличными происшествиями. В первом романе среди интересных сюжетов изображены его храбрость и интерес к охоте, а в романе «Ата Журт» он слушает Кайыра Адевира и следит за играющим в городе Шымбае Ережепом следопыт, ученица кузнеца, дочь Юсупбая, мэра города он изображен в образе Бануда. Тем более, Банюди останется 48 страниц - много места отведено Яакье Кайиру, который был похищен бандитами из своей страны и стал его преследователем. Поэтому сюжеты, связанные с благотворительностью, являются неотъемлемой частью романа. На основе этих сюжетов изображены казахские, калмыцкие и ногайские земли. Как это происходит повсюду, даже в тех странах, внушает веру чтение преувеличений хороших и плохих людей, созданного ими зла и милосердия.

В Даслебине группа всадников, отправившаяся на поиски Баниуди, потеряла след грабителей и вернулась на следы. Но Каир, всем сердцем любящий Баниуди, не делает этого, он решает в одиночку искать разбойников в бесплодных степях. По пути он встречает пирата Бекбау. Дни Хаира с бандитом Бекбавом в качестве друга будут полны трагических событий. Даже если бы он последовал за ним в надежде, что тот поможет найти Баниуди, его требование пиратства не было бы проигнорировано. Наконец, расставшись с Бекбау, он еще несколько лет продолжал поиски Баньюди.

История внезапной встречи писателя с пропавшей Баниуге Каир вызывает у читателя интерес, хотя и не очень правдоподобна. В одном из сел Калмака он узнал, что это не Банюди утопил его в

воде, а тот Баниуди, который крикнул «брат» и отвел его обратно в свой дом, на рот которого он наступил, исчез так быстро, что Кайр не мог отличить, Бания это или нет. Однако даже если это всего лишь иллюзия на тот момент, которую Хаир искал столько лет, лучше связать Баниуди с художественной логикой. Также калмыцкие бандиты ограбили невменяемого Кайрда, оставили его на месте происшествия, а потерявшего сознание Кайрда отвезли в хорезмский караван

Некоторое место он также уделил истории поиска владельцев. Начальник каравана забрал у меня Кайрда, не отпуская этого раба. По дороге он отдохнул пару дней в доме своего знакомого Жаркынбая, и оставил там Каира по его просьбе.

Хаир сакыи проводит два-три года в доме Жаркынбая. Он потерял память после того, как его избили бандиты, и не может вспомнить, кто он, откуда родом, даже своего имени. Однако случай, когда Жаркынай оставила его на свадьбе, заставил его совсем забыться, жениться на Жаркынай и вернуться в родную страну. Здесь тоже можно понять цель автора сделать Благотворительность счастливой. Причина в том, что Каир отправился в поисковое путешествие на столько лет из-за своего сердца, моральных качеств и любви к Бани. Он имел право быть счастливым. Позднее к событиям этого сюжета относятся также история сына Баньюда, воспитанного калмыком, который через многие лишения пришел в Коныpат, похищение Жаркынай, приведение его в дом Шымбая и женитьба на нем Каира.

В начале романа даются пролог и эпилог. В эпилоге даются сведения об окончательной судьбе некоторых персонажей. Также в конце книги автор перечисляет события в форме информации, и от этого создается впечатление, что он рассказывает те истории, которые должны быть изображены на рисунке писателя в форме информации.

Мягко говоря, "Агабий" К.Каримова - это роман с точки зрения создания сюжета своего диалога он добился больших успехов можно добавить в список работ.

Использованная литература:

1. Хализев В.Е. Теория литературы, Москва, «Высшая школа», 1999, 214-бет
2. Белинский В.Г. Поль. Собр. Сочин. В 13 томах, Москва, 1953, в 6 том, 246-бет
3. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. Москва, «Художественная литература», 1975, 234-407-бетлар
4. Каримов К. Агабий, Некис, «Знание», 2013 г.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА АЛИШЕР НАВОИЙ ҲАЁТИ ВА ИЖОДИНИ ЎРГАНИШ- ИЖТИМОИЙ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА

Рустамова Лобархон Ибрагимовна
Наманган вилояти Тўрақўрғон туман 1-ИДУМ
Она тили ва адабиёт фан ўқитувчиси,НамДУнинг мустақил тадқиқотчиси

Жамиятдаги кўплаб ижтимоий фанлар, ижтимоий соҳаларнинг вужудга келишида, уларнинг тараққий топиб, алоҳида ижтимоий онг шаклларидан бирига айланишида бадиий адабиётнинг ўрни беқиёс. Ижтимоий фанлар орасида қадимий ва бугунги кунда етакчи саналган фалсафа, педагогика, филология соҳалари ва ҳатто тарих фани ибтидоси адабиёт билан боғлиқлиқдир.Шунингдек, бу соҳаларни ўрганишда, тадқиқ этишда ва ривожлантиришда бевосита адабиётга мурожаат қилинган, ҳозир ҳам шундай ва бу яна давом этади. Хусусан, педагогика ва адабиётнинг чамбарча боғлиқлиги, вазифа жаҳатдан яқинлиги узоқ ўтмишдан эътироф этиб келинади. Педагогика таълим ва тарбиянинг илмий ҳамда амалий асосларини тадқиқ этса, адабиётнинг вазифаларидан бири унинг дидактик функцияси, яъни билим бериш ҳамда ахлоқий-эстетик тарбиялаш вазифасидир. Шу маънода педагогика ва адабиёт муштарак мақсад ҳамда вазифалар билан узвий боғланади, бир-бирини тўлдиради, ўзаро таъсир орқали ривожланади. Уларнинг ўзаро таъсири педагогик нуқтаи назардан инсонни тушуниш, педагогик воқеликни идрок этиш билан боғлиқ кишилик ҳаётининг муҳим тенденциясини акс эттиради[207]. Бу йўналишдаги ҳаракатлар мамлакат миллий манфаатларига мос авлодни етиштириш мақсадини рўёбга чиқариш учун асос бўлади. Миллий тарбияни йўлга қўйиш, самарани юзага чиқариш воситаларидан бири – китоб, китобхонлик, бадиий адабиёт. Бадиий адабиётнинг, юқорида қайд этилганидек, вазифасига кўра педагогикага эшлиги, иккинчи томондан,

[207]https://vuzlit.ru/725894/russkaya_hudozhestvennaya_literatura_istochnik_gumanisticheskoy_traditsii_pedagogicheskoy_deyatelnosti

санъатнинг бир тури сифатида инсоннинг маънавий эҳтиёжларини қондиришга даъват этилганлиги уни бу борадаги энг асосий, бирламчи омил этиб ўртага чиқаради.

Бир сўз билан айтганда, бадиий адабиёт ижтимоий интеллектни шаклланишига замин ҳозирлайди. Шунингдек, ўзгаларнинг ҳаракатларига ахлоқий ва эстетик баҳо беришга ўрганадилар. Шу боис мамлакатимизда бадиий адабиётга, китоб мутолаасига ҳукумат миқёсида эътибор қаратилмоқда. Мамлакат миқёсида Президент қарор, фармойишлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар бу борадаги бирламчи методологик асос бўлиб хизмат қилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги ПФ-4947-сон Фармони[208] билан қабул қилинган "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси"да белгиланган тўртинчи йўналишнинг "Ёшларга оид давлат сиёсатини такомиллаштириш" деб номланган бешинчи бандидаги "Жисмонан соғлом, руҳан ва ақлан ривожланган, мустақил фикрлайдиган, Ватанга содиқ, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга ёшларни тарбиялаш, демократик ислоҳотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш" каби қайдлар бевосита китоб мутолааси, бадиий адабиёт билан ҳам бевосита боғлиқ. Бу каби юксак маънавий фазилатлар таълим жараёнида бошқа педагогик тадбирлар сирасида ёшларда китобхонлик маданияти, миллий ва жаҳон адабиётининг сара асарларини ўқиб, ўрганиш жараёнида тарбияланиши ҳаммага аён ҳақиқат.

Бу борадаги тарихий ҳужжат ўлароқ миллат маънавиятини юксалтиришда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида"ги Қарори[209] мамлакат ижтимоий ҳаётида муҳим воқеа бўлди дейиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарори[210] ҳам моҳиятан яна китоб оламига ёшларни, умуман миллатни ошно қилишда ва бу орқали инсон ботиний тарбиясини йўлга қўйишда Юртбошимиз эълон қилган ҳужжатларга камарбасталик нишонаси бўлди .

Давлатимиз раҳбари 2019 йил 19 мартда ёшларга оид давлат сиёсатига тааллуқли ижтимоий, маънавий-маърифий соҳалардаги ишларни янги тизим асосида йўлга қўйиш бўйича бешта муҳим ташаббусни илгари сурган эди[211]. Ундаги **тўртинчи ташаббус** ёшлар маънавиятини юксалтириш, улар ўртасида китобхонликни кенг тарғиб қилиш бўйича тизимли ишларни ташкил этишга йўналтирилган.

Ушбу меъёрий ҳужжатлар методист ва педагог олимлар, амалиётчи ўқитувчилар олдига миллий ва жаҳон адабиёти намояндалари бўлмиш адибларнинг ижод намуналарини педагогик нуқтаи назар билан тадқиқ қилиш, ўрганиш ва ўқитиш заруратини кўндаланг вазифа қилиб қўймоқда.

Ўзбекистонда хорижий тажрибадан фойдаланилган ҳолда Миллий ўқув дастури ишлаб чиқилди. Бу ҳақда Президент Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги (PF-6108-сон 06.11.2020) фармонида сўз боради.

Бугунги кунда ўқитишдан асосий мақсад билим, малака ва кўникмаларни тўплашдан ташқари,уни ҳаётий фаолиятда ҳам қўллаш назарда тутилмоқда. Ана шу мақсадда мустақил ўрганишни, билимларини такомиллаштира оладиган ижодкор, фаол шахсни тарбиялашга йўналтирилган.

---

[208] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

[209] Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида"ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017, 38-сон, 1029-модда.

[210] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида" қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.05.2018 й., 09/18/376/1257-сон. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3743182.

[211] https://oz.sputniknews-uz.com/society/20190403/11146250/Yoshlar-va-xotin-qizlar-manfaatlari-Mirziyoev-besh-tashabbus-boyicha-yiqilish-otkazdi.html

Ўзбек адабиётшунослигида Алишер Навоий ҳаёти ва ижодига оид маълумотлар талайгина бўлса-да,аммо унинг ҳаёти ва ижоди юзасидан олиб борилган илмий изланишлар унчалик кўп эмас.

А.Ҳасановнинг “ Юқори синфларда Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш”[212] мавзусидаги диссертатциясида “Хамса” достонларини ўрганиш”,”Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш” каби мавзулар ўрганилган.Ушбу диссертатцияда тадқиқотчи ўқитувчи шахси ҳақида тўхталиб ўтади:”Гарчи ўрта мактаб ўқув программаси ўқувчилари Навоий биографиясига оид бўлган ҳамма масалалар билан таништиришни ўз олдига асосий мақсад қилиб қўймаса ҳам,ўқитувчи шоир ҳаёти ва ижодининг энг нозик нуқталаригача ўрганиб чиққан бўлишини талаб қилади”.[213]

Олим ўқитишнинг янги усул ва методларини қўллаш билан бирга,ўз фикр-мулоҳазаларини далиллар билан асослайди: “Навоийнинг лирик асарларини таҳлил этишда ҳам, “Фарҳод ва Ширин” достонининг ғоявий мазмуни, образлари,бадиий хусусиятларини ўзлаштиришда ҳам энг қулай йўл шарҳли ўқиш ва суҳбат методи асосида дарсларни уюштиришдан иборатдир”.[214]

Алишер Навоий асарларининг умумий ўрта таълим мактабларида ўқитилиши бўйича тадқиқотчи Махсуда Сарибоеванинг илмий изланишларига эътибор қаратмоқчиман .Олиманинг “Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш” (“Хамса” асари мисолида)[215]мавзусидаги тадқиқотида Алишер Навоий асарларини замонавий усулларда ўқитишнинг ёшлар тарбиясига бевосита таъсири ва бу борадаги илмий муаммоларга тўхталаиб ўтади.

Жумладан,”Гуруҳларда ишлаш”,”Фикрий ҳужум”,”Рефлексия” кабилар.

Тадқиқотчи Алишер Навоий асарларин ўрганишда замонавий усулларнинг аҳамиятини методик тавсиялар, дарс ишланмалари воситасида илмий асослайди: “Зеро, адабий таълим сўз орқали ўрганиш, сўз орқали ўқитиш ва сўз орқали англаш, ҳис қилиш дея эътироф этилса,фаол ўқув муҳитида сўз орқали ўзаро таъсир этиш табиийдир.Ўқувчиларни шунчаки ўқишга эмас, ўқиб ўрганишга, ўргатиб ўрганишга, ўрганиб ўрганишга ҳамда шу маълумотларни амалда ҳаётга тадбиқ этишга ундайдиган замонавий усулларга асосланган педагогик жараён мақсадга йўналтирилган тизимли ёндашув амалиётидир”.[216]

Мактаб тажрибаларимиз ва кузатишларимиз давомида амалдаги дастур ва дарсликлардаги қуйидаги муаммолар кузатилди:

1) ёзувчилар ва уларнинг асарлари ҳақидаги маълумотларнинг етарли эмаслиги;

2) ўқувчининг мустақил фикрлаши учун имкониятларнинг чеклангани;

3) XXI аср кўникмалари интеграцияси ҳисобга олинмаганлиги.

Ривожланган давлатларнинг адабиёт ўқитиш тажрибаси ўрганилганда:

1) бадиий матнни мустақил таҳлил ва талқин қилишга ўргатиш;
2) адабиёт назариясига оид тушунчаларни бадиий матн билан боғлаб ўрганиш;
3) спиралсимон ёндашув;
4) фанлараро интеграция;
5) XXI аср кўникмалари интеграциясига эътибор қаратилганлиги аниқланди.

Тавсия этилган адабиёт фани бўйича миллий ўқув дастури ва дарсликларда:

1) бадиий матнни мустақил таҳлил ва талқин қилишга ўргатиш;

2) уч босқичли ёндашув: ўқишдан олдинги, ўқиш давомидаги ва ўқишдан кейинги топшириқлар;

3) ҳар бир ўқишнинг ўз мақсади мавжудлиги каби жиҳатларга эътибор қаратилган.

Фанлараро интеграцияда бошқа фанлардан олинган билимлар бадиий матнни чуқурроқ англашга ёрдам бериши; адабиёт ва бошқа фанлар интеграцияси ёзма нутқ, танқидий ва креатив фикрлаш сингари муҳим кўникмаларни ривожлантириш муҳим вазифа саналиши назарда тутилган.

XXI аср кўникмалари:

---

[212] Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий асарларини ўрганиш.Педюфанюномз...диссе.Тошкент,1974.-1766.

[213] Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш.Педюфанюномз...дисс.Тошкент,1974.-13-б.

[214] Ўша жойда.168-б.

[215] Сарибоева М.Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш(“Хамса” асари асосида):Пед.фан.номз...дисс.Тошкент,2011.-163- б.

[216] Ўша жойда.34-б.

1) коммуникация (мулоқот);
2) муаммога ечим топиш;
3) танқидий фикрлаш (таҳлил);
4) креатив фикрлаш кабиларга диққат тортилган.

Маълумки, аввалги ўқув дастури мазмуни 90% назариядан иборат бўлиб, ўқитиш методикаси ёдлатишга йўналтирилган эди. Янги миллий ўқув дастури мазмуни 50% назария, 50% амалиётдан иборат тарзда яратилди. Бундан мақсад шуки, ўқувчининг мустақил фаолиятини қўллаб-қувватлашдан иборат. Аввалги ўқув дастурда баҳолаш фақат эслаб қолган билимлар ҳажмини аниқлаган. Янги дастур асосида ўқувчиларда шаклланган кўникмалар баҳоланади.

Энди айнан фанлар чизиқли тартибда эмас, балки спиралсимон, яъни мавзулар такрорий эмас, бир-бирини мантиқан давом эттирувчи ҳамда соддадан мураккабга томон йўналтирилган тарзда ўқитилади.

Илмий изланишларимиз ҳам ана шу фармон асосида амалиётда синалди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 5712-сон Фармонида 2030 йилга келиб халқаро баҳолаш дастури рейтингида жаҳоннинг биринчи 30 та илғор мамлакатлари қаторига киришига эришиш ҳамда халқ таълими тизимида таълим сифатини баҳолаш соҳасидаги халқаро тадқиқотларни ташкил этиш асосида ўқувчиларнинг ўқиш, математика ва табиий йўналишдаги фанлардан саводхонлик даражасини баҳолашга йўналтирилган таълим сифатини баҳолашнинг миллий тизимини яратиш вазифалари белгиланган. PISA халқаро баҳолаш дастури Республикамиз таълим тизимининг ижобий ва салбий томонларини аниқлашга ёрдам беради. Бу борада республикамиз миқёсида талайгина изланишлар олиб борилмоқда. Жумладан, тадқиқотчилар М.Асқарова, Г.Раҳматова, Г.Тоғаева, Д.Раббонаева, Қ.Азизова, Г.Юнусова, З.Болтаева, Д.Рўзиева, Н.Эгамқулова, С.Рўзиева, М.Қўчқорова[217]ларнинг илмий фаолиятида ўзига хос изланишлар кузатилмоқда.

PISA ўқувчиларнинг креатив фикрлашларини баҳоловчи халқаро дастурини ишлаб чиқишдан кутилган натижалар:

PISA тадқиқотларида фақатгина 15 ёшли ўқувчилар иштирок этади. Мазкур халқаро лойиҳа фақат ижодкор ёшларни ажратиб олишнигина мақсад қилмайди, шу билан бирга ўқувчиларнинг ғояларни қидириш ҳамда ифодалашда ижодий фикрлаш қобилиятини, бу қобилиятни ривожлантириш ёндашуви, мактаб фаолияти ва таълим тизимининг бошқа хусусиятлари билан қандай боғлиқлигини тавсифлайди. Бу тадқиқотнинг асосий мақсади ўқувчиларнинг таълим сиёсати ва педагогикада яққол натижа берадиган креатив фикрлаш кўникмасини ривожлантирувчи ўқувчилар томонидан ҳам синфда, ҳам синфдан ташқари бажариладиган машғулотларга яқин бўлиш билан бирга, ижодий ютуқ ва муваффақиятни таъминлайдиган даражани аниқлашдир.

PISA тадқиқотида англаб ўқишни баҳолашга йўналтирилган топшириқлар қуйидаги фоизларда тақсимланади:

Тушуниш жараёнлари		**%**
1.	Аниқ кўринишда берилган маълумотни топиш	20 %
2.	Келиб чиққан хулосаларни ифодалаш	30 %
3.	Маълумотларни умумлаштириш ва изоҳлаш	30 %
4.	Матннинг тузилиши ва мазмуни, тилининг ўзига хослиги таҳлили ва баҳоланиши	20 %

Фойдаланилган адабиётлар:

[1]https://vuzlit.ru/725894/russkaya_hudozhestvennaya_literatura_istochnik_gumanisticheskoy_traditsii_pedagogicheskoy_deyatelnosti

Tog‘ayeva G. PISA xalqaro baholash dasturi va unda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari, Yunusova G. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLA, TIMMS, TALIS) – matematik savodxonlikni oshirish me’zoni, Qo‘chqorova M. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, Rahmatova G. “PISA tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash”, Ro‘ziyeva D va boshqalar. “TIMSS xalqaro baholash dasturi – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Egamqulova N. “RIRLS – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Rabbonayeva D. “O‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotida belgilgngan matnni mezonlari” Халқаро онлайн илмий-назарий конференцияси, 2020, – Наманган, – 410 б.

[2] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017 йил, 6-сон, 70-модда.

[3] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида”ги Қарори // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент: 2017, 38-сон, 1029-модда.

[4] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Жаҳон адабиётининг энг сара намуналарини ўзбек тилига ҳамда ўзбек адабиёти дурдоналарини чет тилларига таржима қилиш ва нашр этиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 22.05.2018 й., 09/18/376/1257-сон. https://lex.uz/pages/forpda.aspx?lact_id=3743182.

[5]https://oz.sputniknews-uz.com/society/20190403/11146250/Yoshlar-va-xotin-qizlar-manfaatlari-Mirziyoev-besh-tashabbus-boyicha-yiqilish-otkazdi.html

[6]“Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3721-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018-y., 07/20/3721/0851-son.

[7] Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий асарларини ўрганиш.Педюфанюномз...диссе.Тошкент,1974.-1766.

[8] Ҳасанова А.Юқори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш.Педюфанюномз...дисс.Тошкент,1974.-13-б.

[9] Ўша жойда.168-б.

Сарибоева М.Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш(“Хамса” асари асосида):Пед.фан.номз...дисс.Тошкент,2011.-163- б.

10.Ўша жойда.34-б.

11.Tog‘ayeva G. PISA xalqaro baholash dasturi va unda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalari,

Yunusova G. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLA, TIMMS, TALIS) – matematik savodxonlikni oshirish me’zoni, Qo‘chqorova M. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida xalqaro baholash dasturini tatbiq etish, Rahmatova G. “PISA tadqiqoti uchun topshiriqlar tayyorlash va ular ustida ishlash”, Ro‘ziyeva D va boshqalar. “TIMSS xalqaro baholash dasturi – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Egamqulova N. “RIRLS – ta’lim taraqqiyoti mezoni”, Rabbonayeva D. “O‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajalari sifatini baholab beruvchi PIRLS xalqaro tadqiqotida belgilgngan matnni mezonlari” Халқаро онлайн илмий-назарий конференцияси, 2020, – Наманган, – 410 б.

PSIXOLOGIK TAHLILDA MIMIKANING TUTGAN O‘RNI
(Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida)

NamDU, Nilufar Ismoiljonova, magistratura yo‘nalishi,
o‘zbek adabiyotshunosligi ixtisosligi,
1-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqolada adabiyotda psixologik tahlilning tutgan o‘rni, psixologik tahlilda psixologik tasvir vositalari ya’ni jest, mimika (yuz ifodalar) ning inson ruhiy, qalb kechinmalarini ifodalashdagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматривается роль психологического анализа в литературе, значение психологической образности в психологическом анализе, т.е. жестов, мимики (мимики) в выражении психических и эмоциональных переживаний человека.

Annotation

The article discusses the role of psychological analysis in the literature, the importance of psychological imagery in psychological analysis, ie gestures, facial expressions (facial expressions) in the expression of human mental and emotional experiences.

Tayanch so‘z va iboralar: obraz, psixologik tahlil, jest, mimika, dinamik prinsip, analitik prinsip, inson ruhiyati.

Ключевые слова и фразы: образ, психологический анализ, жесты, мимика, динамический принцип, аналитический принцип, психика человека.

Keywords and expressions: image, psychological analysis, gestures, facial expressions, dynamic principle, analytical principle, human psyche

Adabiyotshunoslik - insonshunoslik, insonni tushunish, anglash demakdir. Zero, Tolstoy aytganidek: “San`atning asosiy maqsadi inson qalbi haqidagi haqiqatni aytishdir.” [2; 11].

Ijodkorning asardagi obrazlar dilini ochib berish, asarni qayta-qayta maroq bilan o‘qishliligini oshirish yozuvchining mahoratiga bog‘liq. Inson qalbini tushunish, uning ruhiy, qalb kechinmalarini anglash va ochib berishda psixologik tahlil tasvir vositalari yetakchi o‘rinni egallaydi. Psixologik tasvir vositalaridan qay darajada unumli foydalanish yozuvchi mahoratiga va uni tahlil qilib o‘quvchiga yetkazib bera olish esa adabiyotshunos tahlilchiga bog‘liq.

O‘zbek adabiyotida psixologizm muammosi XX asrning 60-yillaridan boshlandi. Psixologizmning dinamik prinsipi bo‘yicha Hotam Umurov “O‘tkan kunlar” romanini tahlil qiladi. Uning tahliliga ko‘ra romanda Otabek va Kumush ruhiy holati va qalb kechinmalarini ochib berishda dinamik prinsip ustuvor deb ta’kidlaydi [2; 11]. N. Shodiyev esa O‘tkan kunlar romanini tahlil qilar ekan yozuvchi butun e`tiborini bosh qahramonlar his va ehtiroslari tahliliga lirik-intim tuyg‘ular tufayli paydo bo‘lmish fikrlar dialektikasiga qaratishini aytib o‘tgan. Uning fikricha, asarda ikki prinsip garmoniyalashgan. Ammo N. Shodiyev ulardan analitik prinsip ustuvorligini ta’kidlaydi[5; 3]. Biroq asarda psixologik prinsipning aynan birini ustuvor deb aytolmaymiz, chunki qahramonlar his-tuyg‘ulari, ichki kechinmalari ularning xatti-harakatlari, qiliqlari, yuz tuzilishining o‘zgarishi, mimikalari orqali namoyon bo‘ladi. Ikki olimning bir-biriga qarshi nazariyalari ham fikrimizni isbotlaydi.

Adabiyotda psixologik tahlil o‘rni qanchalik muhim? Keyingi davrlarda insonni anglash, uning ruhiyatini idrok etish, insonning ichki olamiga kirib borish keng o‘rinni egallayapti. Bu esa bevosita inson psixologiyasi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham badiiy adabiyotda psixologik tahlil muhim o‘rin egallaydi.

Inson ruhiyatini ochib berishda turli vositalardan foylaniladi. Masalan, inson xatti-harakatlari, uning fikrlar oqimi, yuz ifodalari orqali ochib beriladi. Asarni tahlil qilishda jest, mimika (imo-ishora, yuz ifodalari) ning ham o‘rni katta.

Insoniyat yaratilgan davrlarda, hali insonlar so‘zlashishni bilmagan zamonlarda aloqa vositasi sifati jest va mimika (imo-ishora, yuz ifodalari) muhim aloqa vositasi vazifasini bajargan. Hozirgi kunda ham og‘zaki nutqda imo-ishora muhim kommunikativ vazifani bajaradi. Yuz ifodalari so‘zdan ko‘ra insonga ko‘proq, kuchliroq ta’sir qiladi. Insonlar bir-biriga so‘zlar vositasida aytolmagan gaplarini imo-ishora orqali bayon etishadi.

Badiiy adabiyotda ham imo-ishoralardan unumli foydalanish asarni o‘qishliligini ta’minlashda, obrazlar xarakterini ochib berishda muhim psixologik unsur hisoblanadi. Asarda yuz ifodalarini o‘zgarishini kiritish asarni tasirchanligini oshirishga, o‘quvchi ko‘z o‘ngida qahramon ruhiy holatini tasavvur qilishga yordam beradi. Hattoki, so‘zlar bilan ifodalab berolmagan his-tuyg‘u yuz ifodasi orqali yanada ta’sirchan tarzda o‘quvchiga yetkazib beriladi. Birgina kulish, tabbassum qilish yuz ifodasi orqali insonda kechayotgan turli ruhiy kechinmalarni ifodalash mumkin. Inson asosan baxtiyorligidan kulishi mumkin, ammo har doim ham bunday emas. Inson g‘azablanganda, iztirob chekkanda, qalbi og‘riganda, ajablanganda va boshqa vaziyatlarda kulishi mumkin. Og‘zaki muloqotda yoki drammatik sahna asarlarida inson tabbassumi sababi ko‘rinib turadi. Ammo yozma adabiyotda imo-ishorani so‘zlar vositasida yetkazilib beradi. Masalan, kulmoq so‘zi inson ruhiyatiga qarab turli sinonimlardan foydalaniladi. Tabbassum qildi, qotib-qotib kuldi, miyig‘ida kulib qo‘ydi, tabassum qildi, iljaydi, tirshaydi kabi so‘zlar bilan ifodalandi. Yuz ifodalariga ko‘z, qosh, lab harakatlari kiradi. Masalan ko‘zini olib qochishi, uzoq tikilib qolishi, ko‘zini qisib qo‘yishi, qoshini uchirishi, qoshini chimirishi, qovog‘ini uyib olishi, labini qimtishi, labini tishlashi, peshonasini tirishtirishi kabi ko‘plab yuz ifodalari inson ruhiyatini ochib berishda muhim vosita hisoblanadi. Yozuvchining bu vositalardan keng va o‘rinli foydalana olishi uning mahoratidan darak beradi. Adabiyotshunos olim esa bu o‘rinlarni ilg‘ab, tahlil qila olishi lozim.

Shukur Xolmirzayev ham hikoyalarida inson ruhiyatini, qalb kechinmalarini ochib berishda psixologik vosita, yuz ifodalaridan (jest, mimikadan) unumli foydalangan.

Shukur Xolmirzayevning “Yosuman” hikoyasining bosh qahramoni Qo‘ziboy urush yillarida ota-onasidan ayrilib, yetim bolalar uyida tarbiya topgan, u yerda shaytonga chap bergan muttahamlar, o‘g‘rilar bilan birga yashagan bo‘lsa-da, o‘zining bolalarcha soddaligini saqlab qolgan yigit edi. Uning ayoli Afruza ham yetim bolalar uyida tarbiya topgan edi, shuning uchun urf-odat, rasm-rusumlarni bilmay katta bo‘lgan edi.

Hikoya Qo‘ziboyning yoshlik do‘sti Xudoyor va uning ayoli Norbibining tashrifi bilan boshlanadi. Qo‘ziboy va Afruza mehmonlarni juda xursandchilik bilan kutib oladi. Hikoyada qahramonlar ruhiy holati, mehmonlarning oldida aytib bo‘lmaydigan gaplar imo-ishoralar orqali yetkazib beriladi. Fikrimizning isboti sifatida bir o‘ringa diqqat qilaylik.

“… Qo‘ziboy oshxona yoqqa qarab, gazning big‘illab yonayotganini eshitdi. – Ha, choy qo‘yyapti! - dedi va stolga ko‘z tashlab, unda bir pachka shkolanddan bo‘lak narsani ko‘rmadi: noqulay o‘tirib qolgandek qimirlab, qoshlarini chimirdi, sekin o‘rnidan turdi.” [3; 58]. Qo‘ziboyning qoshlarini chimirishidan uning jahli chiqqani, dasturxonning bo‘shligidan hijolat qilganini bildiradi. Sekin o‘rnidan turib oshxonadagi ayolini chaqiradi.

Choynakka quruq choy solayotgan xotini unga kulimsirab qaradi:

Bundan ayolining hech narsani tushunmagani, mehmon kutishni bilmasligi ko‘rinib turibdi. Mehmonlarning oldida bir pachka shkolanddan boshqa narsaning yo‘qligi ham ularning iqtisodiy ahvolini ko‘rsatib turibdi.

-Nima, nima bo‘ldi?

-Hm, - Qo‘ziboy cho‘ntaklariga qo‘lini tiqib, turgan yerida bir aylandi, tomog‘ini qirib, o‘qraydi: Bu, stolda hech vaqo yo‘qku? Nima qildik endi?

Qo‘ziboyning qo‘lini cho‘ntagiga tiqib bir aylanishi uning ilojsizligi, dasturxonga, mehmon oldiga biror narsa qo‘yishga olgani puli yo‘qligini bildiradi, ammo u tan olgisi kelmay erkaklik g‘ururi tufayli tomog‘ini qirib olib, o‘qrayib qaraydi. Bundan uning o‘zining ilojsizligi, o‘zining holatidan jahli chiqqani bilinadi. Ijodkor Qo‘ziboyning bu holatini so‘zlar orqali emas uning birgina o‘qrayib qarashi orqali ochib beradi.

Shundan so‘ng, Qo‘ziboy ayoliga biz borganda ular qo‘ygani joy topisholmasdi, bor narsalarini oldimizga to‘kib tashlardi, - deydi

Afruza bir oz o‘yladi-da, siniq kuldi. Afruza ham qishloqda mehmon bo‘lganini o‘ylaydi va siniq kulib, javob beradi. Uning bu kulgusidan ilojsizligi, iqtisodiy ahvolining yaxshi emasligi, ruhiyatidagi og‘riq, alam birgina siniq kulgusi bilan ifodalanadi va javob beradi:

- Nima qipti, ularda bor, bizda yo‘q, bo‘lganda qo‘yardik.

Do‘stining restoranda ovqatlanganini eshitgan Qo‘ziboy qotib kuladi, uning bu kulishidan qishloqdan kelgan do‘stining restoranga kirib, ovqatlanganidan ajablanish, mazax kabi ohanglarni o‘qish mumkin.

Qo‘ziboy o‘zi ikki xonali kvartirada yashaydi, do‘sti o‘ylaganchalik boy emas. Uning uyini jihozlari-yu, qanday ahvoldaligi yozuvchi tomonidan tasvirlab berilmaydi, birgina Norbibining “uyning faqir jihozlariga o‘ychan qarashi” orqali Qo‘ziboyning iqtisodiy ahvoli o‘quvchiga ma’lum bo‘ladi. Hikoyaning davomida Qo‘ziboy va Afruza do‘stini nima bilan mehmon qilish haqida bosh qotirishadi. Ulardan chiqqan eng yaxshi fikr chuchvarani qaynatish-u, bir shisha aroq topish bo‘ladi. Hatto ayolidan aroq olib kelish taklifini eshitgan Qo‘ziboyning ko‘zlari charaqlab ochilib ketadi, bu holatdan bu fikr eng to‘g‘ri va ajoyib taklif edi. Lekin uzoq yo‘ldan charchab kelgan mehmonga aroq va quruq chuchvara beriladimi? Bu haqida esa o‘ylab ham ko‘rishmaydi.

Mehmondorchilik zo‘r o‘tadi deb o‘ylagan Xudoyor xo‘rsinib manglayini siladi. Xudoyorning bu harakatidan kelganidan pushaymon bo‘lgani umuman boshqa bir vaziyat bo‘lishini kutgani ammo hammasi aksi bo‘lganidan dalolat edi. Erining bu holatini kuzatib turgan Norbibi bo‘lsa eriga qattiq tikilib turdi-da, piqillab kula boshladi. Mana bu holatda yozuvchi Norbibining piqillab kulishidan ko‘p narsalarni anglatmoqchi bo‘ladi. Norbibi bu kulishidan mana sizning do‘stingizning ahvoli, shunday umidda kelganmidingiz kabi zaharhandalik, piching, o‘zining va erining bu ahvolidan kulish kabi holatlar bor edi.

- Nimaga kulasan? - dedi Xudoyor do‘q qilib.

Norbibi yana qattiqroq kuldi.

Agar yozuvchi Norbibining holatini so‘zlar bilan ifoda etganda bu kabi ta’sirli va tushunarli chiqmagan hamda uning holati o‘quvchi ko‘z o‘ngida namoyon bo‘lmagan bo‘lardi. Norbibining kulishi borgan sari kuchayadi. Bu kulgi ortida zaharhandalik, o‘zining ahvolidan kulish bor edi.

- ha, endi… bular mehmon kutib o‘rganishmaganda, - dedi Xudoyor - Shaharlik…
- Shaharlik ,- Norbibi xaxolab kulib yubordi, so‘ng boshini egib: Sho‘rim

qursin! - dedi. – Hoy meni shu maqsadda bu yoqqa op keldingizmi? Ochdan o‘ldirasizmi meni? Yo‘lga chiqayotganda shunaqa bo‘lishini aytmaysizmiki, yeguligimni olib kelardim.

- Bo‘ldi! – dedi Xudoyor esnab, to‘ngilladi: – Restoranda ovqatlanding-ku?

Norbibi yana uyni ko‘zdan kechirib, kuldi. Uning bu harakatidan shaharlik do‘stlarining holatidan mazax, bularning bor bisoti shumikin degan o‘ylarni uqush mumkin. Xudoyor unga do‘q urmoqchi bo‘lib, ilkis qaradi-da:

- Bas, ovozingni o‘chir, -dedi. Ertalab ketamiz!

Xudoyorning bu harakatidan ayolidan gap-so‘zlaridan, shuningdek, do‘stining yaxshi kutib olmaganidan g‘azabi bilinib turibdi. Uning esnashi, to‘ng‘illab qo‘yishi uzoq yo‘ldan holdan toyganini, do‘stining uyida zerikkani ko‘rinib turibdi. Xudoyor va Norbibi Qo‘ziboyning uyiga boshqacha tasavvurlar bilan kelishadi, ammo ular kutgandek bo‘lib chiqmaydi.

Xudoyor va Norbibi do‘stining hatto qo‘shimcha uchastkalari bor deb o‘ylashadi. Norbibining uchastkalari bormi deb bergan savoliga, Xudoyor: “bo‘lsa kerak, shaharliklarning hovlisiyam, kvartirasiyam bo‘ladi,” – deb javob beradi.

Norbibi erining gapini ma’qullaganday bosh irg‘ab qo‘yadi.

Afruzaxon, - dedi Norbibi. - Ertaga uchastkalaringizgayam olib borasizlami? Yo qishloqqa shu yerdan ketaveramizmi?

Afruza tushunmadi:

- Qanaqa uchastka? Dedi va kuldi. – uchastkaga deysizmi? Uchastkamiz yo‘q. uchastkani nima qilamiz? Bu yer yaxshi!

Er-xotin zimdan bir-birlariga qarashdi. Axir ularning nazdida shaharda yashaganlarning hammasini alohida kvartira va uchastkalari, mashinalari bor, yegani oldida, yemagani ketida, mazza qilib yashaydi deb o‘ylashgan edi. Shuning uchun ham do‘stini juda badavlat, borsak katta mehmondorchilik bo‘ladi, alohida uchastkalari bor deb xayol qilishgandi. Ammo bir-birlariga zimdan qarab, bularning bor bisoti shu ekan-ku, biz ne umidlarda kelgandek deb, so‘z emas, ko‘zlar orqali suhbatlashishadi. Zimdan qarash orqali bir-brlariga ko‘plab ma’nolarni aytishadi. Mezbon oldida aytilmaydigan so‘zlar ularning qarashlaridan ma’lum bo‘ladi. Norbibining xayolidan ular mashina olsa kerak, topgan pulini mashina uchun yig‘adi, degan fikr o‘tadi va chidab turolmasdan piching, kinoya va biroz zaharhandalik bilan yana so‘raydi:

- Qo‘ziboy aka, mashinaga pul yig‘yapsizlarmi deyman?

Norbibining bu gap ohangidan yemay-ichmay faqat mashinaga pul yig‘yapsizlarmi?- degan mazmunni ham uqish mumkin.

-Mashinaga?! - Qo‘ziboy kulib yubordi. - Mashinaga hojat yo‘q. Ana, ko‘chada tramvay, trolleybus bor, bo‘ladi-da. Mashina sizlarga kerak. Olsanglar bo‘ladi…

Norbibi rangi o‘zgarib, choydan xo‘pladi. O‘ringa yotishgach, eriga:

- O‘lguday xasis ekan-ku bular! - dedi.

- Bilmadim, - dedi Xudoyor.

Norbibining hafsalasi pir bo‘ldi. Bu uning rangi o‘zgarganidan ham dalolat.

Shunday qilib, Xudoyor va Norbibi o‘zlari kutganchalik mehmondorchilik bo‘lmaganidan juda qattiq ranjishadi. Ular axir bu umidda kelishmagan edi. shaharlik do‘stini boy-badavlat deb o‘ylashgan edi. Ertasiga ertalab ular ketishga hozirlik ko‘rishadi. Qo‘ziboyning vokzalga olib chiqib qo‘yaman deb bergan taklifiga Xudoyor kulimsiradi va imkoni bo‘lsa kelamiz deb javob berdi. Uning bu kulimsirashdan mehmondorchilikni ko‘rdik endi kuzatib qo‘yishlaring qanday bo‘larkin degan ma’noni anglab olish mumkin. Norbibi esa kuldi va dedi:

- Bu yil ertaroq boringlar, kutamiz. Qora kamarga chiqamiz, qo‘y so‘yamiz, tandir kabob qilamiz!

Norbibining kulishdan zaharhandalik, kesatish, piching holatini, qani borib ko‘rchi qanday kutib olarkinman degan ma’nolarni anglash mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Psixologik tahlil – “ijodiy talantga kuch bag‘ishlaydigan eng muhim fazilatlardan biri” [4; 330]. Psixologizmda jest, mimikaning tutgan o‘rni salmoqlidir. Ammo hozirda o‘zbek adabiyotida psixologik tahlil, inson ruhiy holatini tasvirlash unsurlari hali yetarli darajada o‘rganilgani yo‘q. Shuningdek, psixologik tasvir vositasi jest, mimikaning badiiy asarda tutgan o‘rni yetarli darajada ochib berilmagan va bu haqida ilmiy-nazariy fikrlar hali shakllangan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent; A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
2. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi monografiyasi.
3. Sh. Xolmirzayev Kimsasiz hovli hikoyalar to‘plami. O‘zbekiston Toshkent: 2018.
4. N. G. Chernishevskiy, tanlangan adabiy-tanqidiy maqolalar, O‘zdavrnashr, 1956, 330-bet.
5. N. Shodiyev Psixologik tahlil prinsiplari. O‘zbek tili va adabiyoti. 1973-yil, 2-son 3-bet

AFSONALARDA SAKRAL PERSONAJLAR TALQINI

Mehriniso Rizoyeva,
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada e'tiqodiy qarashlar bilan bog'liq afsonalar xususida fikr yuritilgan.
Kalit so'zlar: marosim, ma'buda,folklor,epos, mif,afsona, diniy e'tiqod, sacral, mifologik tasavvur, urf-odat, kult.
Аннотация: В данной статье рассматриваются легенды, связанные с религиозными взглядами.
Ключевые слова: ритуал, богиня,фольклор, эпос, миф, легенда, религиозная вера, сакраль, мифологическое воображение, традиция, культ.
Annotation: This article describes the rituals and customs associated with ancient religious beliefs.
Key words: ritual, goddess, folklore, epic, myth, legend, religious beliefs, sacred, mythological imagination, tradition, cult.

O‘zbek xalq afsonalarining eng asosiy xususiyati mif asosiga qurilganligidir. Bunday afsonalarda Odami Od, Xubbi, Olang‘asar, Xo‘jimado‘liq, Avj ibn Unuq, Hoji Mulk, Alangsor Alif kabi qahramon-titanlar, Xizr, G‘oyib ota kabi homiy personajlar, mifologik mohiyat kasb etishi bilan xarakterlanadi.

Xalqimizning suv muakkillari va daryo oqimini nazorat qilib turuvchi ma'budlar to‘g‘risidagi qadimgi miflari o‘zbek folklorida suv kultini o‘zida ifoda etgan mifologik afsonalarning yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan. Afsonada aytilishicha, qadimda daryo qirg‘og‘ida Hubbil ismli kishi yashagan emish. U daryoni har xil baloyu qazolardan asragan. Yovuz va yomon ruxlarning daryo suvini tilsimlab, tevarak-atrofga ziyon-zahmat yetkazishiga, qirg‘oqlarni buzib, ekinlarni payxon qilishiga, yo‘lovchilarni oqizib halok qilishiga yo‘l qo‘ymagan. Tirikchiligi esa baliq ovlash bilan o‘tgan. Tutgan baliqlarini tepalikka chiqib quyoshga tutib, pishirib yegan. Hubbil ota daryo suvining pokligi uchun, saratonning jaziramasida qurib qolmasin uchun harakat qilgan. Mobodo yil qurg‘oq kelib, tog‘dan suv kam kelsa hassasining uchi bilan buloq ko‘zlarini ochib, o‘zanni to‘ldirar ekan».[218]

Bu afsonada tasvirlangan Hubbul ota o‘zining homiy-personaj sifatida namoyon bo‘lishi, odamlarni suv bilan bog‘liq halokatlardan saqlab qolishi va buloqlarning ko‘zini ochishiga ko‘ra o‘zbek mifologiyasida suv muakkkili sifatida talqin qilingan Hubbi obrazi bilan mushtarak xususiyatga ega. Bu personaj Hubbi obrazi bilan genetik jihatdan aloqador bo‘lib, o‘zida suv kultining mifologik timsoliga bo‘lgan e'tiqodni ifoda etadi. Qadimiy kult mifi asosida yuzaga kelgan afsona esa ana shu e'tiqodni tashish va odamlarda suv muakkkiliga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga xizmat qilgan. O‘zini tabiatdan to‘la ajratib ololmagan qadimgi odam tasavvurida inson bilan borliq olamdagi narsa-hodisalar o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lib, totemistik qarashlarga ko‘ra,одамлар билан муайян jonivor (bo‘ri, kiyik, ilon, buqa va h.k.), o‘simlik (daraxt) va narsa-hodisalar (masalan, «O‘g‘uznoma»da onaning chodirga tushgan g‘ayrioddiy nurdan homilador bo‘lishi) orasida qarindoshlik aloqalari mavjud, deb qaralgan. Bunday miflarda jonning turli xil narsalar shaklida namoyon bo‘la olishi hamda odam o‘lgach, uning joni biror o‘simlik yoki jonivor tanasiga kirib olib, yashashni davom ettirishiga bo‘lgan ishonch o‘z ifodasini topgan. Miflarning tarixiy-tadrijiy taraqqiyot natijasida og‘zaki nasr janrlari syujet tizimiga diffuziyalanishi natijasida paydo bo‘lgan mifologik afsonalarda esa bunday animistik tasavvurlar so‘z magiyasi (yoki boshqa sababga ko‘ra) odamning jonivorga aylanishi sabablarini axloqiy-etik qarashlar vositasida izohlash, tushuntirish funksiyasini bajaruvchi epik elementga aylangan .

Mifologik afsonalar qadimgi tasavvurlar va e'tiqodiy inonchlarni o‘zida mujassamlashtirgan syujet tizimiga ega bo‘lib, bunday arxaik inonchlar islom dini g‘oyalariga bo‘ysundirilgan va jamiyatning axloqiy-etik mezonlarini ifodalash vositasi sifatida talqin qilingan. Masalan, xalqimiz orasida yomg‘ir yog‘masdan, yil qurg‘oq kelgan paytda toshbaqani chappa qilib qo‘yish va toshbaqaning oyog‘iga ip bog‘lab omoch tig‘iga osib qo‘yish kabi irimlarga amal qilinadi. Toshbaqa bilan qilinadigan bu irim magik xarakterga ega bo‘lib, aslida bu jonivor kultining suv stixiyasi bilan aloqadorligi to‘g‘risidagi qadimgi e'tiqodiy qarashlarga bog‘lanadi. Chunki «qadimgi mifologiyada toshbaqa olamdagi jamiki suvlarning «egasi», yog‘in-sochin tartibotini nazorat qilib turuvchi ma'bud sifatida ham tasavvur qilingan. Ba'zan u yer yuzidagi jami suvlarni ichib qo‘yar, natijada qurg‘oqchilik bo‘lar emish. Shu bois, toshbaqa (ayrim afsonalarda qurbaqa) serhosillik, qut-baraka va mo‘l hosil baxsh etuvchi ezgulik ramzi sifatida tasavvur qilingan. Yog‘ingarchilik va qurg‘oqchilikka ham toshbaqa sababchi deb o‘ylagan qadimgi odamlar yomg‘ir yog‘dirish va uni to‘xtatish bilan bog‘liq mifologik rituallarda bu jonivorning magik qudratidan madad tilashga qaratilgan turli irim-

[218] Rahmonov F.Sh. Qashqadaryo vohasi aholisining ziroatchilikka oid urf-odatlari va marosimlari (XIX asrning oxiri - XX asr boshlari). Tarix fanlari nomz. diss. - Toshkent, 2001, 100-101-betlar.

sirim va aytim-alomatlarni yaratishgan».[219]

O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi mifologiyasida toshbaqa kultining suv va ob-havo o‘zgarishlari bilan bog‘liqligining sabablarini izohlovchi miflar mavjud bo‘lgan. Bu miflar toshbaqa kultiga aloqador inonchni mustahkamlash, uni boshqalarga yetkazish va shu orqali «suv stixiyasi timsoli» sifatida tasavvur qilingan jonivor to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni saqlash vazifasini bajargan. Toshbaqa kulti bilan bog‘liq bu qadimiy e’tiqod unutilib ketgan bo‘lsa-da, uning yomg‘ir yog‘dirish marosimi tarkibida magik irim sifatidagi ifodasi mifning magik amal ko‘rinishidagi ifodaviy shakllaridan biri tarzida saqlanib qolavergan.

«Avesto»da qurg‘oqchilik timsoli, turkiy xalqlarning qadim ajdodlari mifologiyasida esa «olam ummoni ichida suzib yuruvchi samoviy mavjudot» o‘laroq tasavvur qilingan toshbaqa to‘g‘risidagi miflarning hikoyaviy shakldagi bayoni esa mifologik afsonaga aylanib, asrlar o‘tishiga qaramay o‘zining asosiy mohiyatini saqlagan holda bizgacha yetib kelgan. Nurota tumanidagi Qorakisa qishlog‘dan yozib olingan quyidagi afsona toshbaqa to‘g‘risidagi qadimiy e’tiqodni ifoda etuvchi epik matn sanaladi:

«Bu jonivor haqida ham bitta afsona bor: yomg‘ir kam bo‘lsa yoki yomg‘ir yog‘may qolsa, bir toshbaqani topib, oyog‘idan bog‘lab daraxtga ilib qo‘yilsa, yomg‘ir yog‘adi deydilar. Bu afsona «yerni toshbaqa ko‘tarib turadi», - deb ishonilgan zamondan qolganga o‘xshaydi. Biror bir sabab bilan xudo yer yuziga yomg‘ir yubormay qo‘ygan bo‘lsa, daraxtga osilgan toshbaqaning osti-ustiga ag‘darilib turganini ko‘rib, buni yerni ko‘tarib turgan toshbaqa deb o‘ylab:- Men-ku yerning ustiga yomg‘ir yog‘dirmayman degan edim, endi bilsam bu men ko‘rib turgan tomon yerning osti tomoni ekan. Mayli, buyog‘i bo‘lsa, yomg‘ir yog‘dirganim bo‘lsin, - deb yomg‘ir yog‘dirib yuborar ekan».[220]

[219] Jo‘raev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. - Toshkent: Fan, 2008. - B. 159.

[220] O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.№1713/13. 1971 yil 19 may kuni Raxmatulla Yusuf o‘g‘li yozib olgan.

TO‘RTINCHI SHO‘BA.
TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI, TARIXI, MADANIYATI

АКАДЕМИК ИБРОҲИМ МЎМИНОВ ЯССАВИЯ ТАЪЛИМОТИ ХУСУСИДА

Наврўзова Гулчеҳра Нигматовна
Бухоро муҳандислик-технология институти
“Ижтимоий фанлар” кафедраси профессори,
фалсафа фанлари доктори
Тел: +998914117707 email: premium.progress@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада академик Иброҳим Мўминовнинг Яссавия таълимоти ҳақидаги фикрлари манбалар асосида очиб берилган. Бу олимнинг тасаввуф таълимоти масалаларини тадқиқ этиб, ҳали шўролар давридаёқ тасаввуф, Нақшбандия ҳамда Яссавия тариқатлари масалаларига эътибор бериб, уларни асарларида ёритганлиги асосланган. Баҳоуддин нақшбанд камолотида яассавий пирларининг ўрни очиб берилган.

Калит сўзлар: Тасаввуф, сўфийлик, тариқат, Нақшбандия, Яссавия, Юсуф Ҳамадоний, Абдулхолиқ Ғиждувоний, Аҳмад Яссавий, Баҳоуддин Нақшбанд.

АКАДЕМИК ИБРАГИМ МУМИНОВ О ОБРАЗОВАНИИ ЯСАВИИ

Аннотация: В данной статье на основе источников раскрываются мысли академика Ибрагима Моминова о доктрине Яссавии. Оно основано на том, что ученый исследовал вопросы суфизма, обращал внимание на вопросы суфизма, сект Накшбандия и Яссавия и освещал их в своих работах еще в эпоху Шуры. Раскрыта роль пиров Яассави в совершенствовании Бахауддина Накшбанда.

Ключевые слова: Суфизм, Суфизм, Тарикат, Накшбандия, Яссавия, Юсуф Хамадани, Абдулхалик Гиждувани, Ахмад Яссави, Бахауддин Накшбанд.

ACADEMIC IBRAHIM MOMINOV ON EDUCATION OF YASSAVIYA

Abstract: In this article, academician Ibrahim Mominov's thoughts about Yassaviya doctrine are revealed based on the sources. It is based on the fact that the scientist researched the issues of Sufism, paid attention to the issues of Sufism, Naqshbandiya and Yassaviya sects and covered them in his works even in the Shura era. The role of Yaassavi pirs in Bahauddin Naqshband perfection is revealed.

Key words: Sufism, Sufism, tariqat, Naqshbandiya, Yassawiya, Yusuf Hamadani, Abdulkhalik G‘ijduvani, Ahmad Yassawi, Bahauddin Naqshband.

Кириш

Академик Иброҳим Мўминовнинг Амир Темурга оид тадқиқотлари билан яна бир илмий жасоратлари тасаввуф таълимоти масалаларини тадқиқ этиб асарларида ёритганларидир.Забардаст олим ҳали шўролар давридаёқ ўз асарларида тасаввуф, Нақшбандия ҳамда Яссавия тариқатлари масалаларига эътибор бериб, уларни ёритган жасоратли ва буюк инсонлардан биридир.

Адабиётлар таҳлили ва методология

Академик И. Мўминов 1946 йили нашр этилган “Мирзо Бедилнинг фалсафий қарашлари”, 1954 йилда чиққан “Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикр тараққиёти тарихи масалаларига доир (X-XX аср бошлари)”, 1960 йил босмадан чиққан “IX аср охири ва XX асрнинг бошларида Ўзбекистонда ижтимоий-фалсафий фикр тараққиёти тарихидан”, 1966 йил нашрдан чиқган “Ўрта Осиёнинг машҳур мутафаккирлари” каби илмий асарларида тасаввуфга оид ўз фикрларини билдирган. 1992 йили Бухорода Иброҳим Мўминовга бағишлаб “Биринчи Бухоро фалсафахонлиги” тантанали равишда ўтказилди. Бу анъана Бухоро муҳандислик - технологияси институти (аввалги БухООЕСТИ) “Ижтимоий фанлар” (аввалги “Фалсафа”) кафедраси ва Ўзбекистон Фанлар Академияси ҳузуридаги Иброҳим Мўминов номли Фалсафа ва ҳуқуқ институти билан илмий ҳамкорлик асосида 2010 йилга қадар ҳар йили “Иброҳим Мўминов фалсафий ўқишлари” Республика миқёсида ўтказилиб, материаллари нашр этилди.

Академик Иброҳим Мўминов бошлаб берган тасаввуфга оид тадқиқотларни мустақиллик даврида файласуф олимлар давом эттирдилар. Нажмиддин Комилов “Тасаввуф” номи билан монографик асар яратдилар ва унда Нақшбандия, Яссавия билан биргаликда Кубровия тариқати ҳақида ҳам маълумот бердилар. “Тасаввуф” асари бу таълимотга оид бўлган асосий фалсафий категориялар ҳақида маълумот берувчи қимматбаҳо манбадир. Нақшбандия таълимоти ва унинг генезиси ҳақида Сайфиддин Сайфуллоҳ, Комилжон Раҳимов каби олимлар қимматбаҳо асарлар

яратдилар. Аҳмад Яссавий ҳақидаги манбаларни топиб таржима этишда Иброҳим Ҳаққулнинг хизматлари каттадир. Биз тадқиқотларимиз давомида Баҳоуддин Нақшбанднинг “Аврод” [2] рисоласи борлигини аниқладик, бу улуғ зотга доир манбаларни тўплаб нашр этдик [3] ва ҳаёти ҳамда таълимотини фалсафий таҳлил этишга ҳаракат қилдик. [4,5,6] Нақшбандияга оид “Рашаҳот” [8] ва “Мақомот” [1] асарининг таржима этилиши Иброҳим Мўминов фикрларини асосли эканлигини кўрсатди.

Академик Иброҳим Мўминов асарларидаги тасаввуфга оид ғоялар мустақиллик даврида нашр этилган асарлар ва манбалар билан қиёсий таҳлил этилди, тарихийлик ва мантиқийлик услуби асосида масаланинг моҳияти ёритилди.

Муҳокама

Академик Иброҳим Мўминовнинг “Ўзбекистондаги табиий- илмий ва ижтимоий-фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (IX- асрдан XX-асрнинг бошларигача” [4] асарида “X-XI асрларда Мовароуннаҳрда сўфизм” [4:47-52]

номи билан махсус боб ажратилган ва тасаввуфга оид асосий ғоялар ёритилган. Иброҳим Мўминов фикрича, сўфизм фалсафа таълимоти сифатида дастлаб эрамизнинг VIII асрида пайдо бўлган. Мовароуннаҳрга эса, бу таълимот Эрон орқали ўтиб, бу ерда XI—XII асрларда катта таъсирга эга бўлган. Файласуф олим тасаввуфга қуйидагича таъриф беради: “Сўфизм — мураккаб фалсафий оқимдир. У жуда хилма-хил шаклларга, мазмунга ва оқимларга эга” [4:47]. И. Мўминов Е. Э. Бертельснинг асарига иқтибос қилиб, шундай ғояни илгари суради: “Сўфизм шунча кенг ва ҳар тарафламаки, унга исталган концепция, дунёқарашни киргизиш мумкин” [4:47]

Иброҳим Мўминовнинг илмий жасоратлари шундаки, у киши қуйидаги фикрни таъкидлаганлар: “Мазкур асар олдига сўфизмнинг ҳамма турларини текшириб чиқиш вазифаси қўйилган эмас, албатта, чунки сўфизм мустақил асар ёзишни талаб қиладнган мавзудир” [4:47]. Бу билан файласуф олим тасаввуфни бир томондан фалсафий оқим эканлиги, иккинчи томондан таълимот эканлигини таъкидлаб, унга бағишлаб мустақил тадқиқотлар ўтказиш ва асарлар ёзиш кераклигини таъкидлаганлар. Олим шундай фикр билдиради: биз сўфизмнинг энг муҳим оқимларини юзаки бўлса-да, кўздан кечириб чиқишни мақсадга мувофиқ топдик. Иброҳим Мўминов шу бобда Нақшбандия ва Яссавия тасаввуфий тариқатлари ҳақида қуйидаги энг асосий маълумотларни берганлар:

Хулоса ўрнида бугун бутун дунё илм аҳли эътироф этганидек: *"Дунё илм-фан цивилизацияси тараққиётида ўзбекистонлик олимларнинг буюк хизматлари бор. Мусо ал-Хоразмийсиз математикани, Абу Али ибн Синосиз тиббиётни, Берунийсиз фалакиёт илмини, Имом Мотурудийсиз ақида илмини, Имом Бухорий ва Имом Термизийларсиз ҳадис илмини тасаввур этиб бўлмайди"*. Бу мутафаккир алломалар ҳаёти ва маънавий меросини ўрганиш ва кенг тадбиқ этиш бугун бутун инсоният олдида турган муҳим вазифалардан бўлиб, илм-фан тараққиётида муҳим аҳамият касб этади.

Соф эътиқод тушунчасини ҳамда илм-маърифатнинг асл мазмун моҳиятини ҳам биз буюк аждодларимиз маънавий мероси орқала теран англаймиз. Зеро, дунёда бутун миллат ва элатларни, турли дин ва миллат вакилларини бирлаштирадиган ягона омил ҳам холис ёндашилган илм-маърифатдир.

АДАБИЁТЛАР / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Абдулғани Бағдодий. ат-Тақйид ли-л-маърифати равоти-с-сунани ва -л-асонид. Миср. 2000. – Б. 83.
2. Али ибн Ноиф аш-Шуҳуд. Машоҳиру аълому-л-муслимийн. (Мусулмон олимларининг машҳурлари). Ливан. 1998. – Б. 71.
3. Муъжам ал-муфаҳрис ал- алфоз ал-Қуръон ал-карим. Байрут, Ливан 2005 йил. – Б. 302.
4. Президент Ш.М. Мирзиёевнинг 2016 йилнинг 18-19 октябрь кунлари Тошкентдаги Симпозиумлар саройида “Таълим ва маърифат – тинчлик ва бунёдкорлик йўли” мавзуида бўлиб ўтган Ислом ҳамкорлик ташкилотига аъзо давлатларнинг Ташқи ишлар вазирлари кенгашининг 43-сессиясида сўзлаган нутқи. Халқ сўзи, 2016 йил, 19 октябрь.
5. Тақийу-л-Ғузий. Табақоту-с-суннийа фи тарожими-л-Ҳанафийа. http: // www. alwarraq
6. Умаров Ш. Кешлик алломалар. Т.: Ғ.Ғулом, 2019. –Б. 63.
7. Шарипов А. Малаизвезтные страницы периписки между Беруни и Ибн Синой. Общественные науки в Узбекистане. Т.: 1965. – Б. 345.
8. Шарқ алломалари энцеклопедияси. Тошкент. ИБХИМ. 2014. – Б. 70-80.
9. Хайруддин Зирклий. Ал-Аълом. Қомус тарожим ли ашхар ар-рижол ва ан-ниса мин ал-араб ва ал-мустаърибин ва ал-мусташрифин. 8 томлик. – Байрут: Дор ал-илми ал-маллаййин, 1998.
10. Хатиб Бағдодий. Тарихи Бағдод. 6 томлик. – Байрут: **Дор ал-кутуб ал-илмиййа**, 2005.
11. Ҳожи Халифа. Кашф аз-зунун. 2 томлик. – Макка: Мактаба ал-файсалия, 2008. – Ж. 1.
12. Шамсуддин Заҳабий. Тарих ал-ислом. 25 томлик. – Байрут: Дор ал-китаб ал-арабий, 1990.
13. Шамсуддин Заҳабий. Сийар аълом ан-нубало.25 томлик. – Байрут: Муасса ар-рисола, 2005.

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР МАЪНАВИЯТИ ТАРИХИДА ЎРХУН ЭНАСОЙ ЁДГОРЛИКЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Мусфира Мунавварова –
НавДПИ доценти,
Фалсафа фанлари номзоди

Аннотация: Мақолада Ўрхун Энасой (Урхун Енисей) ёдгорликлари туркий халқларнинг маънавий илдизлари сифатида тадқиқ этилган. Битигтошлар мисолида туркий халқларда ижтимоий фикр қадим илдизларга эга эканлиги асослаб берилган.

Калит сўзлар: ёднома, битигтош, бирлик, тинчлик, жипслик

ЗНАЧЕНИЕ ПАМЯТНИКОВ ОРХУН-ЕНАСАЙ В ДУХОВНОЙ ИСТОРИИ ТУРЕЦКОГО НАРОДА

Аннотация: В статье памятники Орхун Енисей (Урхун Енисей) изучаются как духовные корни тюркских народов. На примере Битигташа доказывается, что общественная мысль имеет древние корни у тюркских народов.

Ключевые слова: меморандум, веха, единство, мир, сплоченность.

THE SIGNIFICANCE OF ORHUN ENASAY MONUMENTS IN THE SPIRITUAL HISTORY OF THE TURKISH PEOPLE

Annotation: In the article, the monuments of Orhun Enisey (Urhun Enisey) are studied as the spiritual roots of Turkic peoples. On the example of Bitigtash, it is proved that social thought has ancient roots in Turkic peoples.

Key words: memorandum, milestone, unity, peace, cohesion.

Қадимги туркий битигтошларнинг ўрхун ёзувида бизгача хал келган йирик намуналари «Култегин битигтоши», «Билгахоқон битигтоши», «Тўнюқуқ битигтоши», «Куличур битигтоши», «Моюнчур битигтоши», «Унгин битигтоши»дир. Албатта, бу каби ва бошқа битигтошларни ўрганиш, тўғрироғи, улардан таълим-тарбия жараёнида фойдаланиш амалий аҳамиятга эга. Биз маънавий илдизларимизни аниқлаётган бир пайтда, табиийки, мазкур ёдномаларда бугун ҳам биз учун

аҳамиятини заррача йўқотмаган, аждодларимиз учун энг ардоқли бўлган ғояларга эътибор қаратамиз. Ўз даъватларини тошга уйиб ёзаётганларида боболаримиз келажак авлод уларни ўрганишига, улардан зарур сабоқ ва хулосалар чиқариб олишларига жиддий умид боғлаганлар.

Зътироф этиш керакки, ёдномалар маълум шахслар хотирасига бағишланган бўлсада, матнлар муаллифлари ўз қаҳрамонларининг асосий фикр ва изтиробларини эл, халқ, юрт тақдири билан чамбарчас боғлиқ ҳолда ифодалаганлар.

Ёдномаларнинг барчаси ота-боболарнинг ватанпарварлик хизматларини ёдга олиш одати сифатида қуйидаги ўхшаш сатрлар билан бошланади: «Ота-бобомиз Бўмин хоқон тўрт тарафдан халқни ушлаб турган, бирлаштирган, тебратиб, тинчитиб турган» («Унгин битигтоши»).[230] Тошбитикларнинг илк сатрларидаёқ, бирлик, тинчлик, жипслик каби тушунчаларнинг эътироф этилиши бежиз эмас. Аждодлар дунёқараши ва давлат тутимида бирлик, тинчлик етакчи аҳамиятга эга бўлган. Худи шунингдек, мазкур сатрлардан ота боболаримиз қадриятларга муносабатда уларни мистиклаштириш кайфиятидан йироқ бўлганларини ҳам кузатиш мумкин. Улар ўз ота-боболари шон-шуҳратини халқ бирлиги ва тинчлигини қай тариқа сақлаб турганлари билан боғлиқ ҳолда расмана баҳолаганлар. Инсоннинг эрк ва озодлик билан боғлиқ қарашлари эл, юрт, ватан, миллат каби тушунчалар билан чуқур боғланмас экан, у жўн истак доирасида қолиб кетиши муқаррар. «Тўнюқуқ» битигтошида аждодларимиз эрк хусусида таъсирчан ва ибратли муносабатларини ифодалаганлар: «Эркинлик тилаган билан унинг ўзи келмайди. Эркинлик тангрининг марҳамати эмас. У халқнинг шундай фарзандидирки, кураш суронларида, ўлим машаққатларида туғилади, қон билан ювилади. У эркинликни ҳақиқат деб билади» («Тўнюқуқ» битигтоши).

Юқорида қайд этиб ўтилганидек, Ўрхун битигтошлари юрт хоқонлари шарафига ўрнатилган. Ёдномаларда тасвирланган хоқонларнинг асосий фикр ва изтироблари Ватан ва халқ тақдири билан чамбарчас боғланади. Эл тинчлиги, бирлиги, озодлиги, фаровонлиги йўлида фидойилик мамлакат хоқонларининг шахс сифатидаги қиёфасини очиб берадиган етакчи ижтимоий ғоялардир. Мамлакатнинг гуллаб яшнаши, халқнинг жипслиги хоқоннинг билим ва заковатига ҳам боғлиқ. Жоҳиллик, билимсизлик билан бошқарилган мамлакат халқи охири қул бўлади, ўзлигини тамоман унутади, деб қарашган аждодларимиз. Шунинг учун ҳам битигтошларда:

- ҳар қандай ёвузликка барҳам бериш;
- халқни пароканда бўлиб кетишдан сақлаб қолиш;
- мамлакатни бирлаштириш;
- ватан мустақиллигини қўлдан бермаслик;
- турк халқи ватани абадий бўлиб қолиши учун курашда жонни аямаслик;
- мустақил мамлакатни адолатли қонун-қоида билан тутиш каби муҳим ижтимоий ғоялар акс эттирилган ва авлодларга васият қилинган. Эл ва «будун» тақдиридан доимий хавотирда бўлиш битигтош қаҳрамонларининг барчаси учун хосдир. «Турк халқи йўқ бўлмасин, халқ бўлсин» даъвати ҳар бир хоқон томонидан зикр этилади. «Мол йилқилик халққа хоқон бўлиб ўрнашмадим. Ичи ошсиз, таши кийимсиз, оч-ёлонғоч халқ узра ўрнашдим. Иним Култегин билан маслаҳатлашдик:отамиз, амакимиз қозонган халқнинг оти, донғи йўқ бўлмасин, деб тунлари ухламадим, кундузи ўтирмадим. Иним Култегин икки шад билан ўла-йита муваффақият қозондим. Шу хилда қозониб бирлашган халқни ўт-сув қилмадим» («Култегин» битигтоши). Айни пайтда мазкур ғоялар халқнинг ўтмиши ва бугунини туташтирувчи маънавий кўприк сифатида намоён бўлмоқда.

Қадим ёдномаларнинг маънавий илдизларимиз билан боғланадиган яна бир муҳим жиҳати уларда инсонпарварлик, адолатпарварлик, мустақиллик тушунчаларининг чуқур моҳият касб этишидир. «Айбдор, номдор йўлбошчиларни тангри менинг қўлимга берди. Қора оддий халқни йўқ қилмадим, уйини, биноларини, йилқисини тортиб олмадим. Сиз менинг халқимсиз дедим» («Тўнюқуқ» битигтоши). Ўз асирларига нисбатан ҳам адолатсизлик қилишдан ўзини тийган Тўнюқуқ адолатпарварлик, инсонпарварлик намунаси сифатида баҳоланади. Мазкур битигтош муаллифининг ҳикоя қилишича душманлари ҳам Тўнюқуққа фақат мухолиф сифатида қарамаганлар, чунки унинг «ҳақлигига» ишонганлар. Ўз даврида боболаримизнинг эзгу амалларига, узоқни кўзлаб мулоҳаза юритишларига уларнинг мухолифлари ҳам тан беришган. Шу каби жиҳатларга кўра, битигтошлардаги етакчи фикрларни миллий тафаккуримиз маънавий илдизи сифатида ўрганамиз. Ўзлигимизни англашда уларга таянамиз.

---

[230] Иқтибос Насимхон Раҳмоннинг Турк хоқонлиги(Тошкент:Халқ мероси, 1993) рисоласи бўйича келтирилмоқда. Кейинги ўринларда ҳам ушбу манба бўйича келтирилади ва қавс ичида битиктош номи кўрсатилади.

Қадимги ёдномаларни ўрганар эканмиз, яна бир муҳим масала хусусида тўхталишни жоиз топдик. Бу аждодларимиз ғояларининг таъсирчанлигидир. «Тўнюқуқ битигтоши»да келтирилган «Ғам ўз уйингда» мақолини олайлик. Содда равон ифодаланган бу мақолда юрт мустақиллиги учун ҳар бир фуқаронинг масъуллиги назарда тутилмоқда. Эркинлик тилаган билан унинг ўзи келмаганидек, мустақилликни асраб қолиш учун масъулият ҳис этиш ҳар бир фуқаронинг бурчи. Ватан, юрт мустақиллиги бой берилгач, босқинчилар истаган вақтида сулув қизларингни чўри қилиб, бек бўладиган ўғлонларингни қул қилиб олиб кетаверадилар. Қарам халқнинг ҳоли шундай аянчли бўлади. Шундай аҳволда уйинг ғамга тўлмайди-ми? Бепарволик, лоқайдлик, маъулиятсизликка йўл қўйилса, уйинг-ватанинг ғаму-кулфатдан чиқмаслиги муқаррар, деб уқдирадилар. Хуллас, боболаримиз мустақиллик тушунчасини шакллантиришда сохта баландпарвозлик, кўр-кўрона мутаассиблик кайфиятидан йироқ бўлишган. Шахс ва жамият манфаатларини уйғунлаштиришда оқилона нуқтаи-назарга эга бўлганлар. Ўз эркини, эл-юрт тинчлиги ва осойишталигини сақлаб қолиш учун ички ва ташқи хавф-хатардан огоҳ бўлишга чорлаганлар. Бу муносабатни Ватан мудофааси билан боғлиқ қуйидаги мисолда ҳам кузатамиз: «Душманларимиз атрофга қанотини етказди (жангчиларини юборди). Биз шай эдик, шундай турар яшагучи эрк аҳли» («Тўнюқуқ» битигтоши). Хавф-хатарни бартараф этишга шай бўлиш, шай бўлиш учун эса аҳил, жипс бўлиш, жасурлик ва фидойилик кўрсатиш ғояси битигтошларда қайта-қайта уқдирилади.

Битигтошлардан мисол сифатида келтирилган иқтибослар бир пайтлар кимлардир томонидан сокин ҳужраларда хаёл суриб, шунчаки эсдалик учун ёзилган эмас. Парокандалик, вилоят ҳокимларининг манфаатпарастлиги, хоқонликнинг парчаланиши халқнинг орзуларини амалга оширишга йўл бермас эди. 630-йилдан 682-йилгача Шарқий турк хоқонлиги Тан империясига қарам бўлиб яшади. Н.Я.Бичуриннинг ёзишича «Қабилалар ўртасида муттасил кураш турк хоқонлигини ҳолдан тойдирди. Иқтисодий таназзулга юз тута бошлаган мамлакатда одамлар нон ўрнига суякни қириб истеъмол қила бошлаганлар».[231] Қарамликнинг шундай аянчли сабоқлари ягона мақсад теварагида бирлашиш ва ҳамжиҳатликнинг, эрк ва мустақилликнинг қанчалик муҳим эканлигини, уни асраш қанчалик зарурлигини англатмаслиги мумкин эмас эди. Битигтошлар шу каби тарихий ҳақиқат маҳсули ўлароқ, халқнинг халқ, миллатнинг миллат сифатидаги улуғ маънавий ижтимоий бурчи нимадан иборатлигидан сабоқ берувчи маънавий меросдир. Қуйидаги сатрлар ҳам ватан ва халқ қарамлигининг аянчли оқибатлари хусусида надоматлар билан битилган: «Эй, турк халқи, турк-ўғуз беклари эшитинг! Тепадан осмон босмаган бўлса, эй турк халқи, давлатингни, ҳукуматингни ким бузди? Ўкун кўргулигинг учун, тарбия қилган доно хоқонинга, емирилган, қўлдан кетган эзгу давлатинга. Ўзинг адашдинг, орага ёмонлик киргиздинг. Қуролли қайдан келиб тарқатиб юборди, найзали қайдан келиб суриб кетди? Муқаддас Ўтукан йишга бординг, ғарбга боргунча бординг. Борган ерда яхшилик шу бўлса керак: қонинг сувдай оқди, суягинг тоғдай уюлиб ётди, бек бўладиган ўғил боланг қул бўлди, сулув қиз боланг чўри бўлди» («Култегин» битигтоши). Демак, Ватани қарам инсон ва халқ ниҳоясиз хўрлик ва хақоратларга маҳкумдир. Шунинг учун ҳам боболаримиз эрк ва мустақилликни жондан афзал билиб бу каби мусибатлардан ўз авлодларини огоҳ этиб, қалб даъватларини тошларда битиб қолдирганлар. Эрк ва мустақиллик даъвати шунчаки эсдалик учун битилмаганидек, у шунчаки лоқайд ўқилмайди. Боболаримиз топиб таъкидлаганларидек, мустақиллик ва озодлик биз учун ҳам ҳақиқат йўлидир, бу йўлнинг бошида ота-боболаримизнинг сабоқ ва даъватлари бор, бир учида эса биз турибмиз.

Хулоса қиладиган бўлсак, ёдномаларнинг деярли ҳар бир сатрида ватанпарвар боболаримизнинг ижтимоий тажрибаси, ҳаёт сабоқлари, авлодларга ўгитлари, даъватлари акс этган. Уларда мардлик ва фидойилик, дўстлик, муҳаббат ва садоқат, ҳақиқат ва адолат, ҳар қандай ҳолатда ҳам бурчига, имон-эътиқодига, Ватанига хиёнат қилмаслик, кучсизларни ҳимоя қилиш, ўз қавми, халқи манфаатлари, хавфсизлиги ва тинчлиги, жипслиги ва юксалиши учун хизмат қилиш, зарур бўлса, заҳмат чекиб, жонини ҳам аямаслик ғоялари олға сурилади-ки, ушбу сабоқлар туркий халқлар маънавияти илдизлари қанчалик бақувват эканлигига муносиб далиллардир.

[231] Н.Я.Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. М.-Л., 1950. Т.2, -204 с.

TURKIY XALQLAR TARIXIDA YOSHLAR TARBIYASI MASALALARI

Sanayeva Surayyo Bobonazarovna
O‘zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson va ijtimoiy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo‘lib kelganligi tahlil qilingan. Shuningdek, Turkiy xalqlar tarixida yoshlar tarbiyasi masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: moddiy meros, madaniy meros, qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo‘lyozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, Avesto.

ВОПРОСЫ ОБРАЗОВАНИЯ МОЛОДЕЖИ В ИСТОРИИ ТУРЕЦКИХ НАРОДОВ

Аннотация: В данной статье анализируется, что проблемы человеческих и социальных отношений, личности и ее зрелости на протяжении веков были основными вопросами, находящимися в центре внимания самых передовых людей общества, учёных, великих учёных и мудрецов. Также в истории тюркских народов вопросы воспитания молодежи анализируются с научно-теоретической точки зрения.

Ключевые слова: материальное наследие, культурное наследие, древние письмена, надписи, рукописные памятники, фольклор, священные книги, пандномы, Авеста.

ISSUES OF YOUTH EDUCATION IN THE HISTORY OF THE TURKISH NATIONS

Abstract: In this article, it is analyzed that the problems of human and social relations, personality and its maturity have been the main issues in the focus of attention of the most advanced people of society, scientists, great scholars and sages for centuries. Also, in the history of Turkic peoples, issues of youth education have been analyzed from a scientific and theoretical point of view.

Key words: material heritage, cultural heritage, ancient writings, inscriptions, handwritten monuments, folklore, sacred books, pandnoms, Avesta.

Insoniyat ijtimoiy taraqqiyoti uzoq davom etgan tarixiy jarayon bo‘lib, unda kishilarning erishgan moddiy va madaniy merosi o‘z aksini topgan. Sharq mutafakkirlari Imom Al-Buxoriy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi allomalarning asarlari orqali yoshlarni tarbiyalash, ularning odob-axloq borasidagi qimmatli fikrlari hozirgi davr uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ma’lumki, ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyani shakllantirish haqidagi qarashlari: qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo‘lyozma yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, muqaddas kitoblar, pandnomalar, o‘quv qo‘llanmalari, mehnat qurollari, san’at asarlari, hunarmandchilik buyumlari orqali bizgacha yetib kelgan. Jamiyatning haqiqiy boyligi bu inson, inson avlodidir. El-yurtiga, vataniga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalash, ularning ta’lim-tarbiyasi haqidagi fikrlar xalq og‘zaki ijodida, masalan, Go‘ro‘g‘li, Alpomish haqida yaratilgan dostonlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, bu an’analar qadimgi So‘g‘d, Manixey, Xorazm, Turk yozuvlari namunalarida ham ifodalanadi.

Inson va ijtimoiy munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari uzoq asrlardan buyon jamiyatning eng ilg‘or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo‘lib kelgan. Zardushtiylikning qadimiy kitobi - “Avesto”da yoshlar tarbiyasi haqidagi fikrlar bayon etilgan, bolalarni pokiza, axloqli, ezgu fikrli, zamonasining barcha hunarlarini bilgan, e’tiqodi mustahkam, ham axloqan, ham jismonan barkamol inson qilib tarbiyalashga katta e’tibor berilgan. Zardusht farzandlariga “halollik bilan kun kechirish yo‘lida g‘ayratli va shijoatli bo‘ling” deb murojaat qiladi. Bu hech eskirmaydigan saboqlardan biridir.

“Avesto”da olg‘a surilgan yosh avlod tarbiyasi haqidagi fikrlarni quyidagicha izohlash mumkin:

- sog‘lom farzandni dunyoga keltirib, unga chiroyli nom qo‘yish;
- farzand tarbiyasida o‘g‘il va qiz bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish;
- yoshlar tarbiyasida ota rolining yuksakligi;
- yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o‘rni ustunligiga erishish;
-oilaviy munosabatni shakllantirishda milliy va diniy qadriyatlarning o‘rni.[1]

Pedagogika rivojiga katta hissa qo‘shgan Abu Nasr Farobiyning fikricha, yoshlar tarbiyasi adolatparvarlik, zukkolik, farosatlilik, notiqlik, sog‘lomlik, haqiqatni sevish, ma’rifatga intilish, kuchli xotira, qat’iyatlilik, jasurlik, jur’atli, nafsni jilovlash fazilatlari orqali tashqi muhit, boshqa insonlar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi.

Ta’kidlash joizki, Farobiy e’tirof etgan xislat-fazilatlar, bugungi kunda yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta’minlashda, o‘zligimizni anglash, har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.[2]

O‘rta asrning buyuk faylasufi Abu Rayhon Beruniy o‘z davrida jahon ilmu taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan olim sifatida shuhrat qozongan, uning “Geodeziya”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Qonuni Mas’udiy” kabi asarlari yoshlarda yuksak mas’uliyat hissini qaror toptirish, dunyosini shakllantirishga xizmat qiladi. Abu Rayhon Beruniy ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonini koinot va butun borliq bilan bog‘liq holda tavsiflaydi. U axloqiy kategoriyalarni insonning fe’l-atvori bilan bog‘laydi, boshqaruv va siyosat ishlarida bilimdonlik, tadbirkorlikni ulug‘laydi. Uning fikricha, yomonlikning shoxobchalari ko‘p ammo ularning asosi uch narsa: ta’ma, g‘azab va ilmsizlikdir.[3]

Yosh avlod tarbiyasi masalalarida Ibn Sinoning qimmatli fikrlari alohida e’tiborga molik. Har bir odam aqliy, axloqiy, g‘oyaviy jihatdan kuchli yetuk bo‘lishi lozim. Agar inson shunday xislatlarga ega bo‘lsagina, jamiyatga foyda keltirishi mumkin. Ibn Sino yoshlar tarbiyasida yakka holda suhbatda bo‘lish usulini ko‘proq tavsiya qiladi. Suhbat chog‘ida xalqning hikmatli so‘z va ertaklaridan misol aytib, mazmunini, axloq-odoblilik ma’nosini tushuntirmoq afzalligini ta’kidlaydi. Tarbiyada, maqtov, rag‘batlantirish, jazolash yoshlarning xatti-harakatlarini baholashda meyor darajasi bo‘lishligini e’tirof etadi.

Ibn Sinoning yoshlar tarbiyasi haqidagi ilg‘or g‘oyalari bugungi kunda ham farzandlarimizni go‘zal axloqli, teran fikrli, mulohazali, mushohadali etib tarbiyalashda bebaho ma’naviy xazina bo‘lib hisoblanadi, bu talablar hozirgi davr ta’lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

O‘rta Osiyo mutafakkiri XI asrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga boshlovchi bilim”) dostonida insonning butun hayot va faoliyatining birlamchi asosi - insoniy kamolot cho‘qqisini ta’lim-tarbiya va bilim egallashga oid qarashlarida aks ettiradi. U g‘oyaviy tarbiyani faqatgina ilm - fan va ma’rifat bilan sog‘lomlashtirish mumkinligini ta’kidlaydi. Fikr tarbiyasi ijtimoiy ong taraqqiyotining muhim mezonlaridan biri sanalib, Yusuf Xos Hojib fikricha, ijtimoiy nutq madaniyati shaxsning bilimdonlik va ma’naviy komillik darajasini belgilab beradi, insonni ulug‘laydi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ifoda etilgan yoshlar tarbiyasi haqida fikrlari ularni mustaqil hayotga tayyorlashda, turmush odobini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Unsurulmaoliy Kaykovus ibn Iskandar o‘z o‘g‘li Gilonshohga bag‘ishlab, yozgan “Qobusnoma” asaridagi jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligi haqidagi fikrlari yoshlarni yuksak ma’naviyatli, mas’uliyatli, irodali komil inson etib tarbiyalashga muhim ahamiyat kasb etadi. “Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas”, deydi alloma o‘z qarashlarida.

Ahmad Yugnakiyning “Hibat-ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug‘oni”) asarida bilim egallash kishini yuksaklarga ko‘tarsa, ilmsizlik tubanlikka tomon yetaklashiga alohida urg‘u beriladi. Bu boradagi fikr quyidagi misralarda o‘zining yorqin ifodasini topgan:

Bilik birla bili(m) nur saodat yo‘li,
Bilik bil saodat yo‘lini bula.
(Bilim bilan saodat yo‘li ochiladi, shunga ko‘ra ilmli bo‘l, baxt yo‘lini izla).
Baholik dinar ul bilimlik kishi,
Bu johil biliksiz bahosiz bishi.

Amir Temurning “Temur tuzuklari”dagi “Sher yigitni nomus o‘ldirar”, “Adovat emas, adolat yengadi”, “Bir kalima shirin so‘z qilichni qinga kiritar”, “Bir tayoqni sindirmoq mumkin, ko‘p tayoqni bukib bo‘lmas”, “Botir jangda bilinar, dono mashvaratda”, “Boshingga qilich kelsa-da, rost so‘zla”, “Bo‘lar odam yoshida bosh bo‘lar, bo‘lmas odam qirqida ham yosh bo‘lar”, “Nomussiz xiyonatdan nomusli o‘lim yaxshi”, “Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar” kabi pand nasihat va o‘gitlari buyuk bobokalonimiz so‘nggi vasiyati “O‘g‘illarim, millatning dardiga darmon bo‘lmoq – vazifangizdir, zaifalarni ko‘ring, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik – dasturingiz, rahbaringiz o‘lsun”,- degan ta’kidlari bugungi kunda yosh avlod tarbiyasida ustuvor ahamiyat kasb etadi, uni haqli ravishda o‘qib o‘rganishga undaydi.

Mirzo Ulug‘bek yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarni egallashga da’vat etdi, har qanday johillik va bilimsizlikka qarshi kurashdi. Ulug‘bek bolalarni tarbiyalashda uy sharoiti va ota-onalarning faoliyatiga yuqori baho beradi, ularni hayotda chidamli, mehnatsevar qilib tarbiyalash juda zarur, deydi.

Alisher Navoiyning farzand tarbiyasidagi qarashlari, shu jumladan, komil insonni shakllantirish konsepsiyasining mazmunini o‘rganish muayyan davrlarda va hozirgi kungacha dolzarblik kasb etadi. Alloma tomonidan yaratilgan aksariyat asarlarda yigit kishi bolaligidanoq o‘zlashtirishi shart bo‘lgan harbiy - jismoniy fazilatlar kamondan otish – merganlik, qilichbozlik, suvda suzish, kurash tushish borasidagi fikrlari, qiz bolada tarbiyalanishi lozim bo‘lgan hayo, ibo, sadoqat, mehribonlik, orastalik kabi xislatlar ilgari surgan.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida, maktab va madrasalarning o‘rni, diniy ma’rifiy manbalarda yoshlar tarbiyasi muammolari va ularni yechish yo‘llari, shakl va metodlariga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, bugungi kun tarbiya tizimida ham o‘z qimmatini yo‘qotmaganligi bilan muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib aytganda, mazkur manbalarda yoshlarni tarbiyalash borasida ilgari surilgan va hayotiy tajribalarda sinalgan tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hozirgi davrda ham yosh avlodni, xususan yoshlarning ijimoiy ongini tarbiyalashda yaqindan yordam beradi.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarj.- T.: Sharq, 2001. - 400 b.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 224 b.
3. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. 1- tom. -T.: Fan, 1968. – 488 b.

MARKAZIY OSIYO ISLOM FALSAFASI TARAQQIYOTIDA BAHOUDDIN VALADNING TUTGAN O‘RNI

Cho‘liyeva Vasila Erkinovna –
Falsafa fanlari doktori (DSc), NavDPI dotsenti.
(O‘zbekiston, Navoiy)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq falsafiy tafakkuri taraqqiyotining buyuk mutafakkirlaridan hisoblanmish Bahouddin Valadning hayoti, falsafiy ta’limoti va ilmiy merosi xususida so‘z boradi. Shuningdek, allomaning tasavvuf ta’limotiga doir diniy-irfoniy g‘oyalari ham ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, irfon, altruizm, ilohiy ma’rifat, shariat, tariqat, haqiqat, fiqh, e’tiqod.

РОЛЬ БАХАУДДИНА ВАЛАДА В РАЗВИТИИ ИСЛАМСКОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Аннотация: В данной статье рассказывается о жизни, философском учении и научном наследии Бахауддина Валада, одного из крупнейших мыслителей развития восточной философской мысли. Также с научно-теоретической точки зрения были проанализированы религиозно-мистические представления учёного о суфизме.

Ключевые слова: мистика, мистика, альтруизм, божественное просветление, шариат, секта, истина, фикх, вера.

THE ROLE OF BAHAUDDIN WALAD IN THE DEVELOPMENT OF ISLAMIC PHILOSOPHY IN CENTRAL ASIA

Abstract: This article talks about the life, philosophical teachings and scientific heritage of Bahauddin Valad, one of the great thinkers of the development of Eastern philosophical thought. Also, the religious-mystical ideas of the scholar on Sufism were analyzed from a scientific-theoretical point of view.

Key words: mysticism, mysticism, altruism, divine enlightenment, Sharia, sect, truth, fiqh, faith.

Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkirlaridan biri hisoblanmish Bahouddin Valad o‘z davrida tasavvuf ta’limoti va shariat ilmining bilimdoni bo‘lish bilan birga, ilohiy ma’rifatni ham juda ulug‘lagan allomai zamon sifatida shuhrat qozongan. Bahouddin Valad asli Urganchdan bo‘lib, o‘sha davrdagi sharoit taqozosiga ko‘ra, Balx shahriga kelib qoladi. “Sulton ul-ulamo” islom ilohiyotshunosligi, Qur’on tafsiri va hadislar sharhidan madrasada dars berar, uning “Maorif” kitobi juda mashhur edi. [12.-B.135.] Allomaning

to‘liq ismi Muhammad Bahouddin Valad ibn Husayn al Xatibiy al Balxiydir. U Baho Valad deb ham atalgan, “Sulton ul-ulamo” nomi bilan tanilgan. [6.-S.52.] Ahmad Aflokiy o‘zining “Manoqib ul-orifin” asarida Bahouddin Valadni quyidagi taxalluslar ostida ijod qilganligi xususida ma’lumot berib o‘tadi: Abu Bakr, Abdu Rahmon, Hammad, Mutaxxar, Ahmad Xatibiy, Mavdud, Husayib, Mahmud Husayn Xatibiy, Bahouddin Valad, “Sulton ul-ulamo”, Sulton ul-orifiyn.

Alloma hijriy 546, milodiy 1151 yilda Xorazmshohlar davlatiga qarashli bo‘lgan Balx shahrida dunyoga kelgan. Uning shajarasi xalifa Abu Bakr Siddiq(r.a.)ga borib tutashadi. [11.-S.15.] Bahouddin Valadning bobosi Husayn Xatib, otasining ismi esa Husayn ibn Ahmad A’loiddin Muhammad (Xatib Bukriy)dir. Roziuddin Nishopuriyning yozishicha, onasi Muhammad Xorazmshoh Takeshning qizi Emitulloh xotun bo‘lib, xalq orasida “Malikai Jahon” nomi bilan tanilgan va o‘z davrining ziyoli ayollaridan hisoblangan. Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida allomaning ota-onasi haqida shunday ma’lumotni keltiradi: “Amir ul-mo‘minun Abubakr (r.a.) farzandlaridindur. Onasi Xuroson podshohi Alouddin Muhammad Xorazmshohning qizidur”. [1.-B.165.] Bahouddin Valadning otasi Husayn ibn Ahmad al-Xatibiy ham o‘z davrining mashhur olimi hisoblangan. U atoqli siyosatchi va huquqshunos Radiaddin an-Nisaburiyning shogirdi bo‘lib, uni qo‘lida tahsil olgan hamda bir qancha fiqhiy, sha’riy masalalardagi da’vo ishlarini olib borib, adolatparvarligi bilan xalq orasida yuksak martabaga ega bo‘lgan zot sifatida shuhrat qozongan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, allomaning otasi Xorazmshohlar saroyida vazir lavozimida faoliyat yuritgan. Bu shaxsning ijtimoiy faoliyati, oilasi va farzandlari xususida bizga qadar batafsil ma’lumotlar saqlanmagan. Ammo turkiy adabiyotlar, xususan, Aflokiyning “Manoqib ul-orifin” va Bahouddin Valadning “Maorif” asarida Husayn al-Xatibiy ziyoli, diniy bilimlarni chuqur egallagan, tasavvuf hamda so‘fiylik ta’limotidan boxabar inson sifatida ta’riflangan.

Manbalarda, xususan, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida keltirilishicha, “Hazrat Risolat (s.a.v.) tushida anga ishorat qildilarkim, qizingni Husayn Xatibga nikoh qil! Va ul mutavallid bo‘ldi”. [2.-B.164.] Demak, bu asarda Muhammad (s.a.v.) Xorazmshohning tushida qizini Husayn Xatibga nikoh qilishni buyurganligi va ushbu nikohdan Bahouddin Valad dunyoga kelganligi xususida ma’lumot berilgan. Ahmad Aflokiyning “Manoqib ul-orifin” asarida ham aynan mana shu ilohiy bashorat xususida so‘z boradi: “...Ayni shu ishorat Husayn Xatib va Malikai Jahonga botiniy tarzda ayon etiladi. Malikai Jahonga tushida payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Seni Husayn Xatibga nikohladim, endi uning mahramisan”, deya buyuradi”.[4.-S.3.]

Ahmad Aflokiy va Sipohsolorlarning ma’lumot berishlaricha, unga “Sulton ul-ulamo” nisbasi tushida hazrati Muhammad (s.a.v) tomonidan berilgan. Alisher Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bu xususida shunday yozadi: “Chun tamayyuz sinnig‘a yetti, ulum tahsili qildi va dinivu yaqiniydin to kamoli ul yerga yettiki, Hazrat Risolat (s.a.v.) anga “Sulton ul-ulamo” laqabin berdi”. [10.-B.164.] Ahmad Aflokiy ham o‘zining “Manoqib ul-orifin” asarida bu xususida bir necha o‘rinlarda to‘xtalib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin. Dastlab Faxriddin Roziy kabi uni xushlamagan, shuhratini qizg‘angan ba’zi olimlarning e’tirozlariga qaramay, bu unvon abadiyatga qadar uning nomi sifatida yashab qoladi. [8.-B.75.]

O‘z davrining mashhur mashoyixi va taniqli olimi hisoblangan Bahouddin Valad o‘sha paytlardagi olimu ulamo hamda ilm toliblarining dunyoviy ilmlarni egallashga haddan ortiq diqqat qaratganlarini qattiq qoralardi. [15.-C.8.] Chunki asosiy e’tiborini dunyoviy ilmlarni egallashga qaratgan ulamolar Qur’on va Sunnatdan ancha yiroqlashgan edilar. Bahouddin Valad esa shariat va fiqhiy masalalarga oid fikrlarini yoritishda hamda dalillashda islom dinining muqaddas manbalari hisoblanmish Qur’oni Karim va hadisi shariflardagi g‘oyalarni asosiy mezon deb hisoblardi. Shu sababdan allomaga dunyoning turli burchaklarida istiqomat qiluvchi kishilar har xil masalalarda fatvo va ijoza so‘rab murojaat qilishardi.

Uning nomi nafaqat Balxda, balki Iroq, Xuroson, Bag‘dod va Movarounnahrda ham ma’lum va mashhur edi. Alloma nihoyatda insonparvar shaxs bo‘lgan. Xalq dardi bilan hamnafas va xalq manfaatlarini o‘z manfaatidan ustun qo‘ygan alloma doimo xalq orasida bo‘lishni afzal ko‘rar, shuningdek, xalqning muammosini, dardu-tashvishlarini o‘z tashvishi deb bilib, Sulton Muhammad Xorazmshohga ularning talab va istaklarini muntazam ravishda yetkazib turgan. Allomaning tashabbusi va rahnamoligi ostida oddiy xalqning ko‘pgina muammolari ijobiy hal etilgan. U o‘z davrining fiqhiy sohadagi yetuk bilimdoni bo‘lgan va oilaviy munosabatlarni tartibga solish masalalariga ham nihoyatda jiddiy yondashgan. Bunday muammolarni hal etishda esa muqaddas Qur’oni Karim oyatlari va islom dini arkonlarining bu boradagi qarashlarini markaziy o‘ringa qo‘ygan.

Mashhur olim, voiz va fiqhiy ilmlar sohibi hisoblangan Bahouddin Valad bomdod namozini ado etgach, madrasada ilm toliblariga saboq bergan, peshin namozini ado etgach esa, o‘zining muridlariga saboq berib, ular bilan turli mavzularda hamsuhbat bo‘lgan. O‘rta asrlar g‘oyaviy-falsafiy hayotida ikkita bir-birini inkor qiluvchi ta’limot mavjud edi: biri aqidaviy kalomga asoslangan ortodoksal islom, ikkinchisi aql imkoniyati va qudratidan kelib chiqadigan dunyoviy bilimga suyanadigan falsafa. [7.-B.16.] “Sulton ul-

ulamo” unvoniga ega bo‘lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad Balx shahrining 300 ga yaqin faylasuf olimlari bilan bahs yuritgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug‘ullanishda ayblagan. [14.-B.155.] Buning natijasida yunon falsafasini o‘rganishga chuqur kirishgan va bunday ilm egalarini doim himoya qiladigan Faxriddin Roziy bilan o‘rtalarida nizo paydo bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, Bahouddin Valad hamda xorazmshoh Alovuddin Muhammad bilan o‘rtalaridagi munosabatlarning buzilishiga ham sabab bo‘lgan. Chunki Sulton Xorazmshoh Faxriddin Roziy ta’sirida yunon falsafasiga qiziqardi. Bahouddin Valad ularga qarata o‘z va’zlaridan birida: “Muhammad (s.a.v.) yo‘li barcha yo‘llardan afzaldir; men uning yo‘lidan-da to‘g‘ri yo‘lni ko‘rmadim”, – deya nutq so‘zlaydi.

XII-XIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufiy ta’limoti tarixida diniy-irfoniy ilmlarni egallashga va o‘rganishga bo‘lgan e’tibor nihoyatda yuqori edi. Shu bilan birgalikda bu davr musulmon olamida irfon bosqichi va tasavvuf falsafasi ham birmuncha yuksaldi. O‘sha davrlardan boshlab tasavvuf falsafasida bir qator tariqatlar va suluklar ham shakllandi. XIII asrda Kunyoda saljuqiy sultonlaridan Alovuddin Kayqubod hukmronlik qilar va mamlakatda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar birmuncha barqarorlashgan edi. Bu davrda tasavvuf ta’limotining 3 ta oqimi keng tarqalgandi. Birinchisi – vahdat ul-vujud tushunchasini keng targ‘ib etuvchi va tasavvufni bevosita yuksak axloqiy ta’limot sifatida tan oluvchi (Andalusiya va shimoliy Afrika) so‘fiylari; ikkinchisi – Misr, Suriya, Iroqlik so‘fiylar hamda ularning bir-biriga g‘oyaviy jihatdan qarama-qarshi bo‘lgan tariqatlari (Suhravardiylik, Vafoiylik va Qalandarlik) vakillari; uchinchisi – O‘rta Osiyo va Erondan kelgan so‘fiylar (Kubraviya, Yassaviya va Haydariya) tariqati vakillari bo‘lgan so‘fiylar jamoasi faoliyat yuritardi. Bu oqimlarning bir qismi Ahli Sunnat qoidalari doirasida ish olib borishsa, bir qismi xalqning boy qatlami vakillari bilan yaqin munosabatda bo‘lishar, yana ma’lum bir qismi esa aholining qashshoq qatlami vakillarining haq-huquqlarini himoya qilishardi.

Falsafa tarixi sohasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida muazzam Sharqning buyuk allomalaridan hisoblanmish Mavlono Jaloliddin Rumiyning ilmiy-falsafiy merosiga ko‘p murojaat qilingan. Garchand, Jaloliddin Rumiyning durdona asarlari, bashariyat tamadduniga qo‘shgan hissasi yuksak darajada e’tirof etilsada, lekin undagi falsafiy dunyoqarashning shakllanishida asosiy poydevor vazifasini bajargan otasi Bahouddin Valad siymosi va ilmiy merosi bir qadar e’tiborimiz markazidan chetda qolib kelmoqda. Falsafa tarixi yo‘nalishida mutasavvifning shaxsi, falsafiy dunyoqarashi, ilmiy-ma’naviy merosi hanuzga qadar deyarli alohida tadqiq etilmagan. Zotan, O‘rta asrlar falsafiy tafakkur taraqqiyoti rivojida, ijtimoiy-ma’naviy hayotida, ilmiy-irfoniy bilimlarning yuksalishida bu mutasavvifning kontseptual g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etganligi tarixiy manbalardan ham ma’lumdir. Shu sababli, Bahouddin Valadning falsafiy g‘oyalarini tahlil etish va ilmiy merosini keng o‘rganish bugungi kunda falsafa tarixi yo‘nalishidagi tadqiq etilishi zarur bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik, 10-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2011 y. – B.165.
2. Alisher Navoiy. Ko‘rsatilgan asar. – B.164.
3. Annemarie Schimmel. Ben Rûzgârim Sen Ateş, çev.: Senail Ötüken Yayinlari. – Istanbul, 2013. – S.10.
4. Ahmet Eflâki. Arifen Menkebleri, (Çev.Tahsin Vazid) M.E.B. – Istanbul, 1986. – S.3.
5. Доктор Муҳаммад Ҳусайн Зарринкуб. Палла-палла то мулоқоти Худо. (Дар борайи зиндаги, андиша ва сулуки Мавлоно Жалолуддин Руми). – Теҳрон, 1373. – Б.45.
6. Fürûzanfer, Mevlana Celâleddin (Çev.Feridin Nafiz Uzluk). – Konya, 2005. – S.52.
7. Mamatov M. Tasavvuf ta’limotining tarixiy-falsafiy mohiyati: Falsafa fan. d-ri diss. avtoref. – Toshkent, 2018. B. – 16.
8. Mehmet Under. Mavlono // Jahon adabiyoti, 2014 – №1. – B.75.
9. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yolimizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.35.
10. Navoiy A. Nasoyim ul-muhabbat. To‘la asarlar to‘plami. O‘n tomlik, 10-tom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2011 y. – B.164.
11. Risale-I Sipehsalar (Çev.Mithat Bahari). – Istanbul, 1331. – S.15.
12. Sattoriy H. Rumiy o‘tgan yo‘l // Jahon adabiyoti, 2007. – №10. – B.135.
13. Sultan Veled. Ibtidânâme, haz.: Abdulbâki Golpinarli, Inkilap Kitaberi. – Istanbul, 2014. – S.251.
14. Xayrullaev M. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Xalq merosi nashriyoti, 2001. – B.155.
15. Зиёев Х.М. Мировоззрение Бахоуддина Валада и его роль в формировании ордена «Мавлавия»: Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата философских наук. – Душанбе, 1991. – С.8.

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ТАРИХИДА САЪДУДДИН ТАФТАЗОНИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

С.Абдуҳакимова,
НавДПИ Тарих йўналиши 2-босқич магистранти
М.Норқобилов,
НавДПИ Тарих кафедраси доценти, ф.ф.ф.д.(PhD)

Аннотация: Мазкур мақолада Шарқ фалсафий тафаккури тараққиётининг ёркин намоёндаси– Саъдуддин Тафтазонийнинг ҳаёти, тарихий билимлари va илмий мероси ҳақида фикр юритилади. Шунингдек, мутафаккирнинг калом илми, борлиқнинг онтологик моҳияти, нақлий билимлар билан ақлий билимларнинг диалектик бирлиги ҳамда жамият тараққиётига оид прогрессив ғоялари илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: калом, ақлий ва нақлий билимлар, шарҳ ёзиш амалиёти, рационал тафаккур, илмий мутаносиблик.

Республикамизнинг иқтиқлол неъматига эришиши илмий билимлар ривожига, хусусан, маънавият ва маърифат, диний ва миллий урф-одатлар ҳамда қадриятларимизни қайта тиклаш, тадқиқот олиб борилаётган даврга нисбатан холис ва ҳаққоний муносабатни пайдо бўлиши, уларни бугунги кун нуқтаи назаридан таҳлил қилиш ва хулоса чиқариш, пировардида, рационал тафаккур ривожини англаш имкониятини берди.

Юқорида таъкидланганидек, XIV аср иккинчи ярми – XV асрга келиб Мовароуннаҳрда илм-фан, маданият ва таълим тараққиётига эришилганлиги ёркин далиллар билан эътироф этилади. Амир Темур ва темурий шаҳзодалар мазкур жараён тараққиётини ҳар томонлама қўллаб-қувватлаб, илмга рағбати мавжуд бўлган ижтимоий қатлам вакилларининг таълим олишлари учун масжид, мадраса каби илм даргоҳлари қурилишига шароит ва имконият яратдилар. Бу даврда Самарқанд, Бухоро ва Ҳиротда кўплаб олимлар фаолият олиб бордилар. Айтиш мумкинки, шаклланган маданий муҳит таъсири остида юқорида номи тилга олинган шаҳарлар илму урфон марказлари мақомини олди. Мазкур шаҳарларда шаклланган илм даргоҳларида тарих, фалсафа, математика, астрономия, табобат, география каби дунёвий, тафсир, ҳадис, калом, фиқҳ каби исломий фанлар ҳамкорликда ривожланди. Самарқандда бутун Шарқ дунёсидан кўплаб олимлар жамландилар. Уларнинг ижодлари учун барча моддий-маиший шароитлар яратиб берилди. Яратилган шароит ва имкониятлар натижаси ўлароқ, Марказий Осиёдан етишиб чиққан олиму мутафаккирлар ўрта асрларда дунёвий ва исломий билимлар тараққиётига ўзларининг беқиёс ҳиссасини қўшдилар.

Мазкур ижтимоий воқеликлар Амир Темур даври маърифий ишларнинг давлат сиёсати даражасига кўтарилганлиги билан изоҳланади. Жумладан, Тафтазоний ҳаёти ва ижоди билан бевосита боғлиқ бўлган соҳибқирон Амир Темур ҳукмронлиги даврида шундай сиёсий тенденция шакллантирилдики, пировардида, ривожланишга эришиш учун мазкур жараёнда қонун устуворлигини таъминлаш масаласи бирламчи омил бўлиб хизмат қилди. Хусусан, Амир Темурнинг жамият барқарорлигида адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш тамойили ижтимоий зарурат эканлиги ҳақидаги хулосага келишига, Саъдуддин Тафтазоний (1322-1390 йй.)нинг сиёсий-ҳуқуқий ғоялари маълум маънода назарий манба вазифасини бажарган. Қолаверса, Амир Темур томонидан барпо этилган марказлашган давлатдаги маънавий-маърифий, диний-ақидавий, ҳарбий ва сиёсий-бошқарувга оид ислоҳотларда Тафтазоний ўзининг прогрессив ғоялари билан унга елкадош бўлганлигини манбалар тўлалигича далиллайди. Мазкур масалада Соҳибқирон Амир Темур марказлашган ҳуқуқий давлат пойдеворини шакллантиришда маълум маънода Тафтазонийнинг ҳуқуқий қарашлари ижтимоий ҳаётда амалий тус олганлигини тадқиқот ишида кўриш мумкин. Ҳар қандай ғоя ва қарашлар жамият томонидан эътироф этилавермаслигини тарихий давр далиллайди. Шу жиҳатдан олганда, Тафтазонийнинг замон ва макон танламас ғоялари ўз даврида ҳам бугунги кунда ҳам давлат ва жамиятнинг барқарор ривожланишида муҳим восита эканлиги асосланган.

Амир Темур марказлашган давлат тепасига келиши биланоқ, Самарқанд шаҳридаги илм масканларида ўзининг тасарруфида бўлган вилоятлардан машҳур олиму-фузало, ҳунарманд ва маънавият вакилларидан иборат бўлган маърифий жамоани шаклланишида саъй-ҳаракатлар олиб борган. Жумладан, Самарқандга келган олимларга илм билан шуғулланишлари учун барча имконият ва қулайликлар яратилган эди. Саройда Амир Темур ташаббуси билан ташкил этилган илмий мунозара ва баҳсларда иштирок этиб, ғолиб чиққан олим ҳамда бошқа ижод аҳиллари мунтазам рағбатлантирилиб борилган. Қолаверса, ташкил этилган илмий баҳсларда салоҳияти юқори бўлган олимлар янги очилган билим даргоҳларига таълим бериш учун мударрис сифатида юборилган.

Илм-фанга, маърифатга бўлган юксак эътибор боис, ўша даврдаги кўпгина олимлар Самарқандга бориб, ижодий фаолият билан шуғулланишни ўзлари учун шараф деб билишган. Мазкур ижодий муҳитда юзага келган омилларнинг барчаси ҳар қандай зиёга интилган инсонда илм эгаллашга бўлган иштиёқнинг пайдо бўлишига сабаб бўлган. Оқибатда эса, «Самарқанд заминида фаолият кўрсатган Балхий ва Дамашқий, Бағдодий ва Марвазий, Тафтазоний ва Журжоний, Жазарий ва Шомий каби юзлаб мутафаккирларнинг номлари»[232] тарих сарварақларидан муносиб ўрин эгаллади.

Амир Темурнинг олимлар ва ўша даврида шаклланган илмий давра вакилларига юксак ҳурмат-эҳтироми, уларга яратилган имконият ва шароитлар, минтақада қатор маданий юксалиш омилларининг юзага келишига, пировардида иккинчи Уйғониш даврининг ижтимоий-сиёсий, тарихий илдизларини пайдо бўлишига замин яратди.

Юқорида таъкидланган даврдаги илмий ижодий муҳит тўғрисида маълумот ва қимматли фактларни баён қилган Шарофиддин Роқимий шундай ёзади: «Соҳибқирон Амир Темур Кўрагон салтанати даври ва давлати рўзғорида... кўплаб истеъдодли сўз усталари, мумтоз фозиллар унинг идроки шамъи партавидан дониш чироғини ёққанлар»[233]. Шарофиддин Роқимий таърифлаган «мумтоз фозиллар»дан бири Саъдуддин Тафтазоний эди. Илм йўлидаги узлуксиз ҳаракат, маърифатга бўлган иштиёқ, оиладаги илмий муҳит ва тадқиқ этилаётган даврдаги бошқа ижтимоий омиллар Тафтазонийнинг Марказий Осиё фалсафий тафаккури тараққиётидаги пешқадам мутафаккирлардан бирига айланишига сабаб бўлди.

Таъкидлаш жоизки, бирор бир олимнинг ҳаёти ва фаолиятини, илмий изланишларини ўрганишда у яшаган даврда жамиятдаги ижтимоий-сиёсий муҳит ва илм-фанга бўлган эътиборга тўхталиб ўтмоқ муҳим масалалардан биридир. Чунки шахснинг даҳо ёки оми (авом) бўлиб шаклланишида у яшаган даврнинг муҳити аҳамиятли жиҳат саналади.

Машҳур араб олими, социология фанининг асосчиси, тарихчи Ибн Халдун «Муқаддима» асарининг «Ақлий билимлар ва уларнинг таснифи» деб номланган параграфида қуйидагиларни айтади: «Мисрда ақлий билимларга оид бир қанча китобларга дуч келдим. Уларнинг эгаси Хуросоннинг Ҳиротдаги улуғларидан Саъдуддин Тафтазоний эди. Унинг калом илми, усулул фиқҳ, баён илмига оид асарлари бу соҳаларда юқори малакаси борлигини айтиб турибди»[234]. Доимо ишончли маълумотларга таянадиган Ибн Халдуннинг юқоридаги фикрлари Тафтазонийнинг маърифий билимлар назариётчиси сифатида эътироф этиш имконини беради.

Саъдуддин Тафтазоний ҳаёти ва илмий фаолиятини тадқиқ этиш мутафаккир яшаган давр тўғрисида чуқур илмий изланишларни тақозо этади. Шу билан бирга, Тафтазоний ижодиёти тарихини ёритишда холислик тамойилига амал қилиш шарт ва зарур. Жумладан, мутафаккир яшаган даврнинг ижтимоий муҳитида ислом дини ва жамиятда олимларнинг ўрни ва мавқеини, давлат ҳамда дин муносабатлари ҳақида тўла тасаввур ҳосил қилишга асос бўлади. Манбаларда Тафтазоний илмий мероси ижтимоий-тарихий шароитларга боғлиқ ҳолда тадқиқ этилганлиги таъкидланади. Шу жиҳатдан олганда, мутафаккир асарларининг салмоқли улуши Самарқандда, соҳибқирон Амир Темур саройида яратилганлиги алоҳида эътироф этиш жоиз. Жумладан, мутафаккирнинг ўз ўғлига атаб ёзган «Шарҳ ал-Мақосид» номли асари 1372 йилда Хоразмда, «Таҳзиб ал-мантиқ вал-калом» номли асари 1385 йилда Самарқандда ёзилганлиги ва бошқа шу каби қимматли ижод маҳсуллари Амир Темурнинг марказлашган давлат ташкил этганидан кейинги даврига тўғри келади. Тадқиқотда бу каби ҳолатлар Соҳибқирон Амир Темур давлатида илм-фан аҳилларига яратилган имконият ва шароитларнинг натижадорлигидан далолат эканлиги асосланган.

Юқорида таъкидланган ижтимоий-сиёсий ва маънавий омиллар Саъдуддин Тафтазоний илмий изланишларини ва ижод жараёнини Амир Темур даври ва давлати билан бевосита чегараланишига олиб келади. Натижада мазкур қарашлар мутафаккир илмий меросини тадқиқ қилишда бирёқламаликни келтириб чиқаради. Айтиш мумкинки, Тафтазоний ижоди фақатгина Амир Темурнинг марказлашган давлатидаги шароитлар билан боғлаб ўрганиш холислик тамойилларини бузилишига сабаб бўлади. Чунки Тафтазонийнинг илк ижод намунаси ҳисобланган «Шарҳ ат-тасриф ал-иззий» асари унинг айни ўспиринлик даврида, яъни 16 ёшидаёқ дунё юзини кўрган эди. 1338 йилда ёзиб тугатилган мазкур асарнинг яратилиши сабабидан Тафтазоний Мовароуннаҳр ва Хуросон

---

[232] Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигига бағишланган тантанли маросимда сўзлаган нутқи. 25.08.2007. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/ubaydulla-uvatov-alloma-taftazoniy-samarqandda

[233] Шарофиддин Роқимий. Тарихи томм.-Тошкент: Маънавият юлдузлари, 1998. –Б.21.

[234] https://gaz.wiki/wiki/ru/Al-Taftazani

мадрасаларида мударрислик қилиш имкониятини берувчи ёрлиқ (диплом-сертификат)ни қўлга киритган эди. Ваҳоланки, бу вақтда соҳибқирон Амир Темур 2 ёшда бўлган. Юқоридаги омиллар сабаб, ижтимоий ҳаёт ва ислом маърифатининг мукаммал ғояларини ўз асарларида жамлаган Саъдуддин Тафтазоний фалсафий тафаккур тараққиётига муносиб ҳисса қўшганлигини эътироф этиш ўринлидир.

Тафтазонийнинг ёшлигиданоқ илмга бўлган рағбати боис, у ислом оламидаги энг ёш олимлар қаторидан ўрин эгалллади. Юқорида таъкидлаганимиз каби, мутафаккир 1338 йилда, айни ўспиринлик чоғида – 16 ёшидаёқ, «Шарҳ ат-тасриф ал-иззий» номли асарини ёзиб тугатган. Маълумотларга қараганда, «унинг илмий-маънавий меросига оид асарларининг сони 30 та»[235]ни ташкил этади. Афсуски, мутафаккирнинг бизгача етиб келган асарларининг аксарияти форс ва араб тилларида ёзилган. Ҳалича ўзбек тилига тўлалигича таржима қилинмаган, чуқур тадқиқот ишлари олиб борилмаган, лекин ўйлаймизки, яқин йилларда бу иш амалга оширилади ва халқимизга тақдим қилиниб, маънавий меросдан баҳраманд бўлади. Бу соҳада олиб борилаётган илмий-тадқиқот ишларининг тараққиётига самарали ҳисса қўшади.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, мақолада туркий халқлар тарихида ёркин из қолдирган Саъдуддин Тафтазонийнинг илмий қарашлари билан қадимги юнон фаласафаси ўртасидаги мутаносиблик масалалари очиб берилган. Бу ҳолатни Тафтазонийнинг «ақлий ва мантиқий билишга катта эътибор берган»[236]лиги билан изоҳлаш мумкин. Аммо Тафтазоний маърифат масаласида антик давр фалсафаси билан чегараланиб қолмади. У ўз қарашларини туркий халқлар характеридаги прогрессив ғоялар билан уйғун ҳолатда ривожлантириб борди. Тафтазоний ўзининг ижтимоий-фалсафий, мантиқий, диний-ақидавий қарашлари билан туркий халқлар ижтимоий-фалсафий тафаккури тарихини янгидан-янги ғоялар билан бойитди.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг Самарқанд шаҳрининг 2750 йиллигига бағишланган тантанли маросимда сўзлаган нутқи. 25.08.2007.
2. Шарофиддин Роқимий. Тарихи томм.-Тошкент: Маънавият юлдузлари, 1998. –Б.21.
3. Буюк юрт алломалари. –Тошкент: O‘zbekiston, 2018. –Б. 223
4. Алиқулов Ҳ. Шарқ уйғониш даври ва фалсафий тафаккур ривожи. -Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. –Б.64.
5. https://gaz.wiki/wiki/ru/Al-Taftazani

ЎРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИ ҲУКМДОРЛАРИ САРОЙИ ВА ЧОРБОҒЛАРИ ТАЪМИРЛАНИШИДАГИ МУАММО ВА ЕЧИМЛАР: КАРМАНАДАГИ МИРЗАЧОРБОҒ МИСОЛИДА

Савриев Жасур Фахриддинович –
Навоий Инновациялар институти доценти
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
90 647 2026.
Jsavriyev99@gmail.com

Аннотация. Бухоро амирлигининг иккинчи пойтахти ҳисобланган Кармана беклиги даврида, Бухоро амири Абдулаҳадхон Карманада ва унинг ўғли Сайид Олимхон даврида бунёд этилган амирнинг энг севимли гўшаларидан бири бўлган Мирзачорбоғ амир саройининг чорбоқлар орасида ўзининг гўзаллиги, ҳайратомуз меъморчилиги, нафис ганчкор нақшинкорлиги курилиш меъморчилиги тўғрисида тадқиқот олиб борилган. Саройнинг, қайта таъмирланиши, ҳамда вайронага айланиб бораётган бино қисмларини тиклаш, бугунги кунда Мирзачорбоғнинг ҳароба ҳолдаги аҳволини, қаровсизликдан талон-тарож қилинаётганини олдини олиш бугунги кунда ечими кутилаётган долзарб муаммоларидан биридир.

Таянч сўзлар: амир қабулхонаси, болохона, равоқ, пойдевор, мадон, ғиштпарчин, ҳовли сураси, заварав, нақш, ганчкори, синч, қалама чўп, гужум.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В ОБНОВЛЕНИИ ДВОРЦА И САДА ПРАВИТЕЛЕЙ СРЕДНЕГО ЗАРАФШОНСКОГО ОАЗИСА: НА ПРИМЕРЕ МИРЗАЧОРБАГА В КАРМАНЕ

[235] Буюк юрт алломалари. –Тошкент: O‘zbekiston, 2018. –Б. 223
[236] Алиқулов Ҳ. Шарқ уйғониш даври ва фалсафий тафаккур ривожи. -Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2016. –Б.64.

Аннотация: Во времена правления Кармана, считающегося второй столицей Бухарского эмирата, во времена правления бухарского эмира Абдулахад-хана Кармана и его сына Саеда Алим-хана, был исследован дворец эмира Мирзачорбога, один из любимых уголков эмира. об архитектуре его постройки. Ремонт дворца и восстановление ветхих частей здания, предотвращение разорения и разграбления Мирзачорбога из-за запущенности - одна из актуальных проблем, которые ждут своего решения сегодня.

Ключевые слова: вестибюль Амира, болохана, равок, фундамент, мадон, каменщик, дворовая сура, заварав, накш, ганчкори, синч, калама чоп, гуджум.

PROBLEMS AND SOLUTIONS IN THE RENOVATION OF THE PALACE AND GARDENS OF THE RULERS OF THE MIDDLE ZARAFSHON OASIS: THE EXAMPLE OF MIRZACHORBAG IN KARMANA

Abstract: During the reign of Karmana, which is considered the second capital of Bukhara Emirate, during the reign of Bukhara Emir Abdulahad Khan Karmana and his son Syed Alim Khan, the Mirzachorbog Emir's Palace, which is one of the favorite corners of the emir, has been researched on the construction architecture of its beauty, amazing architecture, and elegant ganchkor ornamentation. Renovation of the palace and restoration of the dilapidated parts of the building, prevention of the ruined state of Mirzachorbog and looting due to neglect is one of the urgent problems that are waiting to be solved today.

Key words: Amir's lobby, bolokhana, ravok, foundation, madon, bricklayer, courtyard surah, zavarav, naqsh, ganchkori, sinch, kalama chop, gujum.

Меъморий обидаларни таъмирлаш ва тиклаш, улардан замонавий мақсадларда фойдаланиш ҳозирги замон реставратор (қайта таъмирловчи)ларининг илми ва амалиётининг долзарб масалаларидан биридир. Бу борада меъморий ёдгорликларни таъмирлашнинг тарихий шаклланиш асосларини ўрганмасдан туриб, ушбу мураккаб ва республикамиз учун долзарб бўлган масалани ечишда самарага эришиш қийиндир. Тарихий биноларга обида, яъни маданий мерос объекти сифатида қараш фикри Европанинг “Уйғониш даври”да юзага келади.[237] Бироқ, бу даврда ҳали тарихий биноларни обида сифатида қадрлаш ва авайлаб асраш қонуний кучга кирмаган эди. Оқибатда улар етарлича қадрланмади, баъзан ҳатто улардан қурилиш ашёси сифатида ҳам фойдаланилди. Маълумки, Кармана тарихи ва бу ерда жойлашган амир саройлари ва чорвоқлари ҳали ҳануз, 7 ёшдан 70 ёшгача бўлган, шу заминда яшаётган фуқароларни, гарчи хароба ёки йўқ бўлиб кетиш арафасида турган бўлсада, нур таратувчи гавҳардек чорлайверади. Бухоро амирлигининг иккинчи пойтахти ҳисобланган Кармана беклиги даврида Бухоро амири Абдулаҳадхон (1857 йил 26 март куни Карманада туғилган) ва унинг ўғли Сайид Олимхон даврида кўплаб чорбоғ ва саройлар бунёд этилган. Карманада Асқаробод чорбоқ, Чармгарчорбоғ, Жарчорбоғ, Боғи Олчин, Гулчорбоғ, Хайрободчорбоғ, Хончорбоғ, Закотчилар Насирбодом чорбоғи ва амирнинг энг севимли гўшаларидан бири бўлган Мирзачорбоғ шулар жумласидандир.[238] Мирзачорбоғ бу сарой ва чорбоқлар орасида ўзининг гўзаллиги, ҳайратомуз меъморчилиги, нафис ганчкор нақшлари билан ажралиб туради. Мирзачорбоғ саройи Амир Абдулаҳадхонни топшириғи билан Зарафшон дарёси соҳилининг баҳаво жойида, ҳозирги Буюк ипак йўли усти М-39 Тошкент-Бухоро йўлининг кунчиқар томонида 1900-1905 йилларда ўша вақтда ном чиқарган амирнинг шахсий машҳур меъмори Хўжа Абдураҳим Ғозғоний томонидан лойиҳалаштирилиб, қурилиш ва ички безакларини ганчкор уста Ширин Муродов бошчилигида Карманалик усталар Султон Қори, Нажжор Тўра, уста Дўст, уста Латифлар билан биргаликда қурганлар. Сарой лойиҳаси амирнинг таклифи ва кўрсатмасига асосан Европа ва Ўрта Осиё архитектураси уйғунлашган тарзда тайёрланган.

[237] Подъяпльский С.С., Буссонов Г.Б., Беляев Л.А., Постникова Т.М. Реставрация памятников архитектуры. М. Стройиздат, 1988.

[238] Ахтам Ҳотамов, Нурхон Бекниёзов. Кармана Қадимий Диёр – Т., “Ўзбекистон” НМИУ 2007, 194-б. Тошкент ш.



Амир Абдулаҳадхоннинг Мирзачорбоғ саройида тушган сурати (архив материаллари)



Мирзачорбоғ саройи: Карманалик бекларга Амир томонидан ош тортиқ қилинмоқда (архив материаллари)

Уста Ширин Муродов Карманага ва уни атрофидаги чорвоқ ва саройларни тиклашга 15 йил давомида фаолият олиб бориб ўзининг мактабини яратган уста сифатида ном қолдиради. Сарой мураккаб меъморчилик услубида қурилган бўлиб, қурилиш ҳом ашёси сифатида асосан чўп ва ғиштдан фойдаланилган, бино қурилиш жиҳатидан иккига бўлинади. Ўша даврда яъни XIX аср охири ва XX аср бошларида Бухоро хонлиги боғ саройлари Фарғона ва Хоразм хонликлари боғ саройларидан шаҳарлардан ташқарида кенг баҳаво ҳудудда алоҳида боғ ансамбл тарзида шаклланганлиги билан фарқ қилади. Бухоронинг охирги юз йиллик боғ саройлари меъморчилик-архитектурасида Европага хос қурилиш маданияти ўз аксини топган. Масалан, Бухоро вилоятининг Когон шаҳридаги Ширбудун меморчилик обидаси, Ситораи Моҳи Хосса саройи ва Карманадаги Мирзачорбоғ-амир саройлари Ўрта Осиёга хос чорбоғ услуби, рус ва мавритания готик ва маҳаллий бадиий унсурларни кузатиш мумкин.[239] Кексаларнинг эслашича, сарой қурилишига 100 га яқин уста, мардикорлар жалб этилган. Биринчиси – эни 8м, бўйи 18 м ва баландлиги 8 м бўлган иморат. Сарой чўпкоридан қўшсинч усулида, яъни маълум бўлишича маҳаллий чўп уста Зарипов Ғуломни кўрсатмасига биноан қалдирғоч усулида синчлар бир-бирига уланган. Синчлар бир хил текисликда кесилган бўлиб, ҳатто ҳозирги чўпкори қурилиш ишлари билан шуғулланадиган усталар ҳайратини қурилиш тарихи лол қолдирди. Деворининг қалинлиги 80 см, пойдевори 1х35 см бўлиб, 25 қатор устма уст терилган 20х22 япалоқсимон тўртбурчак қалинлиги 4,5 см бўлган тоза тупроқдан қилинган пишган ғиштдан ва 26-қатори эса тикка қўйилган тарзда синчларни тагига терилган.



Мирзачорбоқ саройининг ҳозирги кундаги кўриниши (2020 йил 4 сентябр ҳолатида)

Маълум бўлишича, бу ғиштлар ҳозирги кунда ҳам захни тортмаслиги, шўрланмаслиги ва қовжираган қуёшда титилиб кетмаганлиги билан, фақатгина баъзи жойлари сарғайиб, кўримсиз ҳолга

[239] Маликов У.Э. Ўзбекистон тарихий шахсларининг саройлар архитектураси. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. 2019 й №2 сон 29-30 бет. УРК: 72032(575)

келиб қолганлиги билан ажралиб турибди. Бу мусулмони ғиштларни бундай тарзда терилиши иморатни зилзилага бардошлигини таъминлайди. Ҳар бир қурилиш жараёнидаги ишлатилган хом ашё жой-жойига моҳирона тарзда ишлатилганини ҳозирги сарой харобалари тасдиқлайди. Синчлар асосан гужум дарахтидан эканлигини, сарой тепа қисмидаги завараф чўплар ва улар орасини бир бири билан туташтирган 4 метрлик қалама чўпларни кўриш мумкин. Том қисми болорлари орасига 30 см баландликда пардевор терилган. Ҳозирги Мирзачорбоғ харобаларини ўрганиш жараёнида шу нарса маълум бўлдики, қалинлиги 80 см бўлган девор оралиғидаги ишлатилган хомашё, яъни лойсувоқ шу бугунги кунга қадар худди бир ҳафта 10 кун олдин қилингандай, яъни девор қолдиқлари мустаҳкам, ҳатто ҳозирги кунда қурилишда ишлатиладиган цемент ва ширриқ қумдан қилинган силлиқланган девор ҳам бу даражада аъло сақланмайди. Мирзачорбоғдаги Амир қабулхонаси алоҳида бўлиб, икки хонадан иборат, 6х м ўлчамдаги қабулхона – даҳлиз ва унинг ғарб томонида 6х12 м ўлчамдаги 15 болорли меҳмонхона залидан ташкил топган.



Мирзачорбоқ сарой меҳмонхонасининг 2020 йил 18 август кунига қадар сақланиб қолган девордаги безак ишларидан намуналар

Залнинг баландлиги 6 м, даҳлизнинг баландлиги 3 м, унинг устидаги болахонанинг ҳам баландлиги 3 м. Даҳлизда 2 та – Жанубий ва Шимолий дала эшиклар ва битта ичкари эшик, Шарқ ва Шимол томонида 1,2х1,5 м ўлчамдаги иккита дераза мавжуд. Даҳлизда жами 0,8х1,5 м ўлчамдаги ганчкорлик асосида безатилган 10 та равоқча бор. Болохонанинг Шимол ва Жануб томонида 1,2х1,5 м ўлчамдаги иккита дераза қўйилган.[240]

Амир қабулхонасидаги деворлар ранглари тухумга қорилган табиий бўёқлар билан безатилганлигини ганчдан қилинган ўймакори усуллар бошқа хоналардан алоҳида ажралиб турганлигини мана орадан 100 йилдан ортиқ вақт ўтган бўлса ҳам жозибаси йўқолмаган.. (халқ устаси уста Ширин Муродов ижоди).

Мирзачорбоғ саройининг ўз бадиий аҳамияти шундаки, қурилиш жиҳатларининг баъзи жойлари, яъни Амир саройини безатишда Европа техникасига тақлид қилинганлиги, яъни бинодаги айрим деразалар катталиги ва аркасимон бўлганлиги, бу услуб Европа подшоларининг шаҳар атрофидаги саройларидан андоза олинганлигини кўриш мумкин. Буларнинг ҳаммаси бинони лойиҳалаштиришда безатилишида, сарой боғини мевали ва анвойи гуллар билан янада жозибадор бўлишида айвон ва бошқа даҳлизларни қурилишида очиқ кўриниб турибди. Сарой деворларининг пастки қисмлари елимли сир билан безатилганлиги ва тепа қисмларидаги карнизлар моҳирона тарзда ганчга ўйилган нақшлари Бухородаги Ситораи Моҳи Хосса хоналарининг безатилиши билан боғлиқ томони бўлса ҳақиқатга яқин.[241]

[240] А.Ҳотамов, Ш.Халилов. Йиллар садоси Т.Адолат 1995, 23-бет

[241] Бухоро қисқача справочник. Иккинчи тўлдирилган ва тузатилган нашри. Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти Тошкент – 1959. 57-бет



Бухоро Амирлигидаги “Ситораи Мохи Хоса” саройи (1920 йилдаги кўриниши)

Ўша давр меъморчилигида кенг қўлланилишни бошлаган наққошлик ва ганчкорлик ишлари асосан ганчдан килинган арка усулидаги шифтларни жимжимадор килиб безашда сарой устунларини масжидлар, мактаблар, бойларнинг уйлари, ёғочдан ясалган буюмларни кенг қўлланган. Сарой Қабулхонаси ўзининг ноёб нақши билан, ҳар бир ўймакори болорларидаги ранг баранглиги, жозибадорлиги, деворларига эса ўсимликсимон нақшларнинг япроқлари, мева, гул барглари чизмаларига алоҳида эътибор билан безатилганлиги учун ажралиб илоҳий бир куч томонидан яратилгандек лол қолдирган.

Амир саройини безашда Фарғона, Бухоро, Қўқон ва бошқа шаҳарлардан ганч ўймакорлари, ёғоч ўймакорлари ва наққош усталар таклиф қилинган. Пардозлаш ва ёркин ранглар хонага тушаётган ёруғлик ҳисобига жуда ўринли танланган. Буни таъмирлашда ишлаган усталар ҳисобга олган бўлса керак. Бу бино XX асрнинг бошларидаги Карманада энг кўзга кўринган меъморчилик намунаси ҳисобланган. Маҳаллий ганчкор усталарнинг айтиши бўйича амир саройидаги безаш ишлари хона ҳажмига, ёруғлигига, намгарчилик ва бошқалар ҳисобга олинган деб айтадилар. Маълум бўлишича, меҳмонхона яъни амир қабулхонаси ёзги хона ҳисобланиб, у салқин бўлиши учун асосан Шимолга қаратиб қурилган. Деворлари икки қатор синчли қилиб, ичи ҳам япалоқсимон хом ғишт билан тўлдирилган. Бу ёзда салқин, қишда эса иссиқ, яъни ҳаво мўътадиллигини бир хилда таъминлаб турган.

Меъмор наққошлар ўймакори ганчларни бўяшда қуйидаги ранглардан фойдаланганликларини, зангори ранглар, сариқ ранглар, қизил ранглар ва ранглар уйғунлашганида кўриш мумкин.



Бухоро Амирлигидаги “Ситораи Мохи Хоса” саройининг безак ишларидан намуналар
(Халқ устаси уста Ширин Муродов ижоди)



Мирзачорбоқ сарой зал деворларининг бизгача етиб келган хозирги куринишидан намуналар (Халқ устаси уста Ширин Муродов ижоди)

Сарой безаклари учун ранглар табиий усулда тайёрланган бўлсада, орадан 115 йил ўтган бўлса ҳам ўз жозибасини йўқотмаган. Сарой 15 болорли бинодан иборат бўлиб, болорлар ўта нозик дид билан чўп ўймакорлик санъати ва шарқона наққошлик усулида безатилган. Меҳмонхона – залга кунчиқар томонидан 1,5х2,2 м ўлчамдаги нақшинкор эшикдан кирилган. Қимматбаҳо ёнғоқ ва кедр дарахтидан ишланган сарой эшиклари маҳаллий аҳоли томонидан ўғирлаб кетилган. Ҳозирда фақат 1900 йилларни эслатувчи эшикнинг ошиқ-мошиқлари ва ром қисмининг бир бўлаги қолган.[242] Маълум бўлишича, амир кабулхонаси кутиш хонаси ҳам бўлиб қаровсизлик оқибатида 2019 йилнинг апрелида тўрт ой давомида қийшайиб турган ёғоч синчли бино қулаб тушган. Ҳозирда қулаган жойда фақатгина миллий нақш бўлаклари қолган. Мустаҳкам, бақувват ёғочлар ўша ерда яшовчи маҳаллий аҳоли томонидан талон-тарож қилинган. Кекса маҳаллий аҳоли вакилларининг эслашича, эшикнинг тўғрисида, залнинг тўрида тахт қўйиладиган ёйсимон катта равоқ, унинг икки томонида чиройли равоқлар қурилган ва бу ерда тахт ўрнатилган. Маълумки, бу ердаги тахт олтин васвасасида ўғирлаб кетилган. Бу ҳам етмагандек, тахт турган жой ковланган. Ҳозирда ҳам қандай ковланган бўлса, шу ҳолатлигича турибди. Амир тахти ўрнатилган жой эни 4м, бўйи 2х10м^2. Ҳозирда ҳам тахт урнатилган жой қолдиқлари мавжуд. Меҳмонхонага яъни амир қабулхонасига эса кутиш залининг ичкари эшигидан кириб борилган. Ичкари эшиклар ҳам ёғочдан ясалган, майда айлана нақшинкор асл чўп рангида бўялган бўлиб, усталарнинг эътироф этишича нодир намуналардан бири бўлган. Залнинг Шимолий томонидаги тўртта ва Жанубий томонидан тўртта деразанинг юқори қисмида ҳам 1х1,2 м^2 ўлчамдаги равоқчалар усталик билан шундай ишланганки, улар хонанинг ҳуснига ҳусн қўшиб турган. Равоқлардаги ишланган ўймакор косачалар, нақшинкор безаклар бугунги кунда ҳам асл ҳолича қаровсизликдан чанг босган ҳолда бизгача етиб келди. Шуниси эътиборга моликки, бинонинг саккизта деразаси, Шарқона усулда эмас, Ғарбона (Европача) усулда ясалган. Бу каби меъморчиликни 1913-1914 йилларда қурилган Бухородаги Амирнинг ёзги саройи бўлмиш “Ситораи Мохи Хосса” саройида ҳам кўриш мумкин.

Амир саройининг Ғарбий томонида иккинчи бино (амирнинг хос уйи) бўлиб у ҳам чўпкоридан синч ва заварларнинг кўп бурчак шаклда қўйилиши, унда ҳоваллар (яъни улама)нинг кўринмаслиги моҳир меъморчилик санъатининг бир кўринишидир. Бино қурилиш архитектураси жиҳатидан ғоят ҳайратомуз геометрик (олтибурчак) шаклда бўлиб, 7 хонадан иборат, иккита хонаси трапеция шаклида қурилган. Бинонинг пойдевор ўлчами қалинлиги 4 см бўлган 28х28 м^2 ва 24х24м^2 дан иборат япалоқ пишиқ ғиштдан, эни 1 метр, 29 қатор қилиб терилган.[243] Қайта ўлчов орқали маълум булишича пойдеворнинг баландлиги 1х35м япалоқсимон терилган пойдевор ғиштлари 25 дона устма уст терилган ва бир донаси эса тик турган ҳолатда ва том қисмига ҳам яъни пойдеворнинг устига бир донадан яна тик ҳолатда япалоқ ғишт қўйилганини кўришимиз мумкин. Бу менимча, ернинг кўтарилиши ва ғиштлар тупроқ остига қолиб кетгани ҳисобига бўлиб табиат ҳодисасидир. Бундан ташқари, бинонинг қурилиш таркибининг (яъни иккинчи бино назарда тутилмоқда) бошқа ҳеч бир эски биноларда учрамайди. Синч ва заварларнинг олти бурчак шаклида қурилганлиги, синчлар гужум дарахтидан қилинган, заваравлари қалин қора тол дарахтидан эканлигини, болорлар

[242] Қулаётган сарой ёхуд олтин васвасасида олиб кетилган Амир тахти ва талон-тарож қилинаётган тарихий мерос. “Шамсуддинхон Бобохонов” нашриёт-матбаа ижодий уйи. (https:/ hidoyat.uz/)

[243] А.Ҳотамов, Н.Бекниёзов Кармана – Қадимий диёр. Тошкент – “Ўзбекистон” – 2007. 22-бет

орасидаги силлиқланган вассалари эса терак ва толлардан (яъни тол ва терак чўплари сувга солиб бўктириб пиширилган, ёриқ ва буралиб кетмаслиги учун) жипслаштириб моҳирлик билан терилган. Афсуски, бу саройнинг иккинчи биносидаги том қисмидаги болорлари 1995 йилдан 2001 йилгача доналаб – якка тартибда қўпориб олиб кетилган. Чунки қаровсизлик оқибатида иморатнинг бугунги кунга қадар йўқ бўлиб кетиш ҳолати тезлашган. Энг ачинарлиси эса, кейинчалик ҳокимлик ва мутасадди ташкилотларнинг топшириғига асосан, қўпориб кетилган болор, тахта, чўп ва силлиқланган вассалар ўрнига ўртаси ёрилган ҳар хил чўп ва харвассалардан номигагина усти ёпиқ ҳолатга келтирилган ва иморатнинг том қисми оддий синиқ, улама шиферлар билан қопланганини ҳозирги сарой ҳаробаларида ҳам кўришимиз мумкин.



Мирзачорбоқ саройи том қисмининг бугунги кундаги хароба холати

Бино хоналарининг ичи ҳам оддий Шарқона усулда безатилганлигини деворларига катта гулдон идишлардан гул ўсиб кўкка бўй чўзаётганини деворни сақланиб қолган майда бўлакларида кўришимиз мумкин. Девордаги катта-катта рамкалар ва уларнинг киши кайфиятини кўтарадиган ҳар хил жойдаги девор қирраларига гипсдан қилинган қуббачалик карнизсимон безак ёғоч устунлари чиройли қилиб чўпнинг асл ҳолатидаги ранглар орқали сайқал берганлигини ва хоналарни кенгроқ қилиб кўрсатиш мақсадида оқ рангга кўпроқ эътибор берилганлигини, яна ҳар бир хонада табиатнинг турли хил манзарали гулларини деворга мўйқалам орқали табиий бўёқлардан фойдаланган ҳолдаги чизмаларни девор қолдиқларида мужассам ифодасини топганлиги айни ҳақиқат. Хонага киришда Бухоро усталари тили ва тавсифи билан айтганда мадон, яъни бешта болордан иборат хона бор. Бу ер хоналардан – хонага ўтишни таъминловчи оёқ кийимларни ечиб кирадиган жой вазифасини ўтайди. Ушбу жой ҳозирда ҳам мавжуд. Ҳовли юзасидаги супа четида чуқурлиги 12 метрли мусулмон ғиштдан ғиштпарчин тарзда терилган қудуқ бўлган. Унинг суви булоқ сувидек тоза ва ширин бўлганлигини кекса авлод вакиллари тасдиқлайди. Бу қудуқни ҳаробалари 1969 йилгача бўлиб, кейинчалик қўшилиб йўқ бўлиб кетган. Ҳовли атрофида ҳар хил мевали ва манзарали дарахтлардан шаклланган боғ бўлган. Ушбу иншоот учун жой танлашда қўйидаги омиллар ҳисобга олинган бўлиши мумкин:

1) Зарафшон дарёси яқин бўлиб,сувни шарқирраб оқиши-ю мусаффо ҳаво салқинлиги.
2) Боғ яратиш учун тупроқнинг унумдорлиги
3) Нурота тоғ тизмалари томонидан салқин шаббодани доим эсиб турганлиги
4) Амир Абдулаҳадхонни овга қизиқиши юқори бўлиб, танланган жой ов учун қулайлиги инобатга олинган.[244]

Шу сабабдан бўлса керак, ушбу жойга Мирзачорбоғ деб ном берилган. Фақатгина Мирзачорбоғ ичидаги сўлим боғдан атиги 6 дона, ҳар бирини ўлчаб кўрилганда қулочи 3х50м ва 3х90м бўлган осмон билан беллашган иморатни яхши ва ёмон кунларига гувоҳ бўлган чинор дарахтларии қад кўтариб турибди.

Мирзачорбоғдан мустабид тузум даврида қулга киритилган ижобий ютуқларга нисбатан ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида шу жумладан маданий меросга бўлган ғоявий мафкуравий ёндашувнинг зарарли таъсири кўпроқ сезилди. Минглаб тарихий обидалар революцион ўзгаришлар таъсирида бузиб ташланди қолганларининг аксарияти эса тахқирланди. Маданий мерослиги инобатга олинмади улардан хўжалик мақсадларида фойдаланиш оммалашди.[245] Узоқ йиллар хўжалик ишларида омбор сифатида фойдаланилди. 1942-1943 йилларда ҳарбий тайёргарлик учун поляк аскарларига казарма сифатида фойдаланишга рухсат берилди. 1974-1975 йилларда эса бу ерга

[244]Амир қароргоҳи хорликка юз тутмоқда. Халқ сўзи. 18 январ 2018 йил Мақола муаллифи Темур Эшбоев
[245] СаттаровУ. Навоий вилояти.-Т.: “Yangi asr avlodi” yfih’nb, 2004-6 б

Кармана районининг район пиллачилик идораси жойлаштирилди. Кўпгина масжиду мадрасалар ёпилди. Айримлари молхона ва омборларга айлантирилди, ачинарлиси нураб вайрона ҳолга келди. Ушбу аянчли ҳолат нафақат Ўзбекистон балки Собиқ Иттифоқнинг бошқа тарихий шаҳарларида ҳам кузатилди. Бугунги кунда Мирзачорбоғнинг ҳароба ҳолдаги аҳволини, қаровсизликдан талон-тарож қилинаётганини яқин атрофида маҳаллий аҳоли томонидан жадаллик билан яшаш учун иморатлар хонадонлар қурилиши натижасида хода ва қаламачалар, пиширилган мусулмони қалинлиги 4 см бўлган 28х28 м^2 ўлчамли ғиштларни олиб кетилиши талон тарож қилиниши тезлашиб, янада кичрайиб, афсуски бир-икки йиллар ичида қайта таъмирланмаса, бу жой фақат тепалик бўлиб қолиш эҳтимоли юқори.

Навоий вилояти Навоий шаҳри таркибида Кармана туманини ташкил этиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2003 йил 25 декабрдаги ПФ-3371-сонли фармонига мувофиқ, Навоий вилояти ҳокимлиги, Ўзбекистон Республикаси Маданият ишлари вазирлиги билан биргаликда ҳомийлар ва бюджет маблағларни жалб этган ҳолда Шайх Хўжа Хусрав мақбараси ва Мирзачорбоғ ёдгорликларини қайта таъмирлаш бўйича топшириқлар берилган эди.[246] Шунча пайтдан бери бу иш бази бир сабабларга кўра орқага сурилиб ниҳоят 2019 йил январ ойида Мирза Чорбоғ саройини тамирлаш учун Республика Маданият Вазирлиги Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий ишлаб чиқариш бош бошқармасининг 3,4 миллиард сўм маблағ йўналтириб берилди. Уни таъмирлаш реставрация ишларини амалга ошириш Навоий вилоятидаги махсус тарихий маданий объектларини таъмирлаш ва реставрация ишлари билан шуғулланадиган “Сардоба Маликработ” хусусий корхонаси ўз зиммасига олади.[247]

Маҳалла газетасининг мухбири Тўлқин Шернаев 12.04.2020 йилдаги “Ўзбекистонда тарихий обидаларни моделлаштириш қачон амалга ошади?” номли мақоласида қуйидаги фикрларни баён этади: “Асрлар давомида тарихдан гувоҳлик берувчи кўплаб бинолар, иншоотлар урушлар, ёнғинлар ва вайронагарчиликлар сабаб ер юзидан йўқолиб кетиш арафасида. Ҳозир уларнинг қандай кўринишда бўлгани, нималарни ўз ичига олгани ҳақида фақат тахмин қиламиз. Аммо эндиликда замонавий технологиялар ҳар қандай иншоотнинг нафақат тарихдан буткул ўчиб кетишининг олдини олиш, балки айни пайтдаги кўринишини сақлаб қолишга ҳам имкон беради. Гап йил сайин такомиллашиб бораётган 3D-моделлаштириш ва сканерлаш соҳасидаги технологиялар имконияти ҳақида кетаяпти. Бу рақамли технология вайронага айланган кўҳна обида ва иншоотларнинг асл қиёфаси, яъни ташқи ва ички кўринишидан тортиб, энг кичик элементларигача бевосита танишиш ва уни қайта тиклашга ёрдам беради. Аҳамиятлиси шундаки, тарихий обида ёки иншоотнинг ёнига бормасдан туриб 3D-модели орқали уни гўё жонлидек томоша қилиш мумкин бўлади”.[248] Албатта, бу ҳам Навоий вилоятидаги Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат инспекцияси қайта таъмирлаш ва реставрация қилиш соҳаси бўлимининг тизимли камчилиги ҳисобланиб, муаммоларни ҳал этиш бўйича аниқ чора-тадбирлар режаси ишлаб чиқилиб, жорий йилда Маданият Вазирлиги ҳузурида ташкил этилган “Ихтисослашган махсус реставрация-тиклаш илмий тадқиқот марказига тарихий обида ва иншоотларни таъмирлаш бўйича махсус усталар йўлланма асосида ўқишга юборилди. Жумладан, Навоий вилоятидаги реставрация ва таъмирлашга муҳтож тарихий ва археологик ёдгорликларни асраб-авайлаш мақсадида туман ҳокимлари, маҳалла фаоллари билан биргаликда ҳар бир объектга ихтиёрий ва кўнгилли равишда кўпни кўрган, тарихга қизиқадиган тажрибали одамларни жамоатчи инспекторлар сифатида бириктириб керакли муаммолар ва таклифлар асосида қайта лойиҳалаш ишлари бошлаб юборилди. Навоий вилояти бўйича Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш минтақалараро Давлат инспекцияси мутахассиси Ш.Қобилов берган маълумотга кўра шу йил амалдаги “Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги, “Археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунлари танқидий қайта кўриб чиқилади ҳамда маданий мерос объектлари бўйича ягона тўғридан тўғри амал қилувчи қонун лойиҳаси Олий Мажлис қонунчилик палатасига киритилади.

2020 йил якунигача Республикадан олимлар ва мутахассислар жалб қилиниб улар иштирокида Навоий вилоятидаги барча моддий-маданий мерос, кўчмас мулк объектлари қайта тарихий маданий

[246] **L**Lex/uz.. шарҳи. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 22 июндаги 308-сонли “Навоий шаҳри таркибида Кармана туманини ташкил этиш ва Навоий туманининг янги марказини қуриш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори

[247]Навоий вилоят ҳокимлигининг 2019 йил январь-сентябрь ойлари давомида барча соҳаларда амалга оширилган ҳомийликлар тўғрисида маълумот

[248]Ўзбекистонда тарихий обидаларни моделлаштириш қачон амалга ошади? “Маҳалла” газетаси 12.04.2020 Т.Шернаев

экспертизадан ўтказилади. Шунингдек, Ўзбекистоннинг кўҳна ва бой маданий меросини халқаро миқёсида эътироф этилишига эришиш мақсадида буюк ипак йўлининг мамлакатимиздан ўтган қисмини “Ипак йўли: Зарафшон дарёси воҳаси” ва “Сармишсой қоятош расмлари” объектларини ЮНЕСКОнинг Умумжаҳон меъроси рўйхатига киритиш режалаштирилганлиги ҳамда 2022 йил I чорагида Нурота қалъаси ёдгорлигининг 3D-модели яратилиши устида иш олиб борилмоқда.[249]

Президентимизнинг 2019 йил 12-13 март кунлари Навоий вилоятига ташрифлари давомида берилган топшириғи ва кенгайтирилган тарзда ўтказилган 11-сонли йиғилиш баённининг 107-бандига мувофиқ “Буюк ипак йўли”нинг Зарафшон Қоракум қисмида жойлашган “Қосим-Шайх”, “Мирсаид Баҳром”, “Мирзачорбоғ-амир саройи”, “Работи-Малик”, “Сардоба”, “Мавлоно Ориф Деггароний” маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси ёдгорликлари рўйхатига киритиш вазифаси топширилган эди. Мазкур топшириқ юзасидан юқорида кўрсатилган объектларни ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси рўйхатига киритиш бўйича 2019 йил 20 май куни вилоят туризмни ривожлантириш ҳудудий бошқармаси ва Ўрта Осиё Халқаро тадқиқотлар институти (IICAI) ўртасида лойиҳанинг умумий қиймати 1100,0 миллион сўмлик икки томонлама шартнома имзоланди. Қайд этилишича, Буюк ипак йўли устида жойлашган Қуйи-Зарафшон воҳасидаги “Қосим-Шайх”, “Мирсаид Баҳром”, “Мирзачорбоғ-амир саройи”,“Работи-Малик”, “Сардоба”, “Мавлоно Ориф Деггароний” маданий мерос объектларини ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мероси ёдгорликлари рўйхатига киритиш ишлари 2021 йилнинг апрель ойида тўлиқ якунланади.[250]

Биз яқин-яқинларгача тарихий-меъморий обидаларимизни, муқаддас зиёратгоҳларимиз ва ноёб осори атиқаларимизнинг яксон этилганлигини мустабид тузум мафкураси билан боғлаб келардик, аммо биз авлодларнинг бой меросимизга бўлган лоқайдлигимиз ва бефарқлигимиз бунинг асосий сабабларидан биридир. Ҳар соҳада бўлгани каби меъморий обидаларни таъмирлаш жуда катта тарихий асосларни талаб этади. Шундай экан, Мирзачарбоғ амир саройи Кармананинг бебаҳо тарихий обидаси ҳисобланиб, унинг табиий умрини узайтириш келажак авлодга мерос қолдириш мақсадида, биринчи навбатда уни қурилиш лойихасига эътибор қаратиб, аксарият ишлари, яъни қурилиш хом ашёси табиий воситалардан фойдаланилганлигини қолаверса ҳар йили юз берадиган табиий ва техноген ходисалар инобатга олиниб таъмирлаш ишларини амалга оширса мақсадга мувофиқ бўлар эди.

АДАБИЁТЛАР / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Подъяпльский С.С., Буссонов Г.Б., Беляев Л.А., Постникова Т.М. Реставрация памятников архитектуры. М. Стройиздат, 1988.
2. Ахтам Ҳотамов, Нурхон Бекниёзов. Кармана Қадимий Диёр – Т., “Ўзбекистон” НМИУ 2007, 194-б. Тошкент ш.
3. Маликов У.Э. Ўзбекистон тарихий шахсларининг саройлар архитектураси. Меъморчилик ва қурилиш муаммолари. 2019 й №2 сон 29-30 бет. УРК: 72032(575)
4. А.Ҳотамов, Ш.Халилов. Йиллар садоси Т.Адолат 1995, 23-бет
5. Бухоро қисқача справочник. Иккинчи тўлдирилган ва тузатилган нашри. Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти Тошкент – 1959. 57-бет
6. А.Ҳотамов, Н.Бекниёзов Кармана – Қадимий диёр. Тошкент – “Ўзбекистон” – 2007. 22-бет
7. Амир қароргоҳи хорликка юз тутмоқда. Халқ сўзи. 18 январ 2018 йил Мақола муаллифи Темур Эшбоев
8. СаттаровУ. Навоий вилояти.-Т.: “Yangi asr avlodi” yfih’nb, 2004-6 б
9. **L**Lex/uz.. шарҳи. Ўзбекистон республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 22 июндаги 308-сонли “Навоий шаҳри таркибида Кармана туманини ташкил этиш ва Навоий туманининг янги марказини қуриш чора-тадбирлари” тўғрисидаги қарори
10. Навоий вилоят ҳокимлигининг 2019 йил январь-сентябрь ойлари давомида барча соҳаларда амалга оширилган ҳомийликлар тўғрисида маълумот
11. Ўзбекистонда тарихий обидаларни моделлаштириш қачон амалга ошади? “Маҳалла” газетаси 12.04.2020 Т.Шернаев
12. https:// www.gazeta.uz/uz/2019/06/12/madaniy-meros/
13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12-13 март кунлари Навоий вилояти ташрифлари давомида берилган топшириғи ва кенгайтирилган тарзда ўтказилган 11-сонли йиғилиш баённининг 107-банди

[249] https:// www.gazeta.uz/uz/2019/06/12/madaniy-meros/

[250] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12-13 март кунлари Навоий вилояти ташрифлари давомида берилган топшириғи ва кенгайтирилган тарзда ўтказилган 11-сонли йиғилиш баённининг 107-банди

QADIMGI TURKIY XALQLAR TARIXI VA MADANIYATI

Bobomuradov Sobitjon Erkinovich -
NavDPI "Jismoniy madaniyat" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Turk atamasi,turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati,tili va har bir millatning o‘z urug‘lari haqidagi ma’lumotlar, turkiy xalqlarning iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohalarini rivojlanishida O‘zbekistonning o‘rni.

Kalit so‘zlar: Turkiston, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, tili, markaziy Osiyo, Xitoy manbalarida, o‘zbeklar tarixi, Amir Temur.

ИСТОРИЯ И КУЛЬТУРА ДРЕВНЕГО ТЮРКСКОГО НАРОДА

Аннотация: Термин тюркские народы, история, культура, язык и многолетние потомки каждой нации – это ирригации Узбекистана в производстве экономического и политического тростника тюркских народов.

Ключевые слова: Туркистан,история тюркских народов, культура, язык, Средняя Азия, источники Китая, история Узбекистана, Амир Темур.

HISTORY AND CULTURE OF ANCIENT TURKISH PEOPLE

Annotation: The term Turkic peoples, history, culture, language and the long-term descendants of each nation are the irrigation of Uzbekistan in the production of economic and political reeds of the Turkic peoples

Keywords: Turkistan, history of Turkic peoples, culture, language, Central Asia, sources of China, history of Uzbekistan, Amir Temur.

Markaziy Osiyoda qadimdan turli millat vakillari yashab kelgan. Bularning ichida turkiy xalqlar katta hududni egallab, Markaziy Osiyoning barcha joylarida juda qadimdan istiqomat qilib kelgan. Markaziy Osiyoning Movaraunnahr qismida ham qadimdan turkiy qabilalar yashab kelganligi haqida arxeologik materiallar va yozma manbalar guvohlik beradi. Shuning uchun bu zaminni VII asrdan boshlab "Turkiston" nomi bilan yuritilganligi so‘g‘diy hujjatlardan ma’lum. Avestoda Turkiston aholisi "Tur" atalib, ba’zi bir tasavvurlarga ko‘ra, turk atamasidagi "k" tovushi eronliklar tilida tushib qolgan. Qisqasini aytganda turk etnik qatlami Markaziy Osiyoda juda qadimdan mavjud. Bu etnonim milodiy VI-IX asrdagi turkiy manbalarda va XI asrda yozilgan Mahmud Qoshg‘ariyning "Devonu lug‘atit turk" asarida aniq aytilgan. "Turk" atamasining juda qadiymiyligini xitoy manbalari ham tasdiqlaydi.

Xitoy olimi Yang Shengminning yozishicha, turk atamasi qadimgi Xitoy manbalarida Xitoyning shimolidagi xalqlarga nisbatan ishlatilgan bo‘lib, bu so‘z Xitoy ierogliflarida "di", "dingling", "dili", "chili", "tili" atamalari sifatida talaffuz etilgan. So‘ng bu atamalar xitoy manbalarida "turk" deb talaffuz etilganligi ma’lum qilinadi.

Xitoyshunos olim A.Xo‘jaev yapon va Xitoy olimlarining Xitoy manbalari asosida chiqargan xulosasiga asoslanib, bundan 3,5-4000 yil avval suyak, tosh va Xitoy qomishiga yozilgan, "di" etnosi "turk" so‘zining Xitoy tilidagi qadimgi talaffuzi ekanligini aytadi.

Xitoy manbalarida qayd etilgan dillar 4-5 ming yillar ilgari Xitoyliklarning (xansularning) shimoliy va g‘arbiy shimolida yashaganligi aytiladi. O‘sha davrda Xitoyliklar Chang jiang (Ko‘k daryo, Yanszы) daryosining o‘rta va quyi havzalarida istiqomat qilgan edilar.[1]

Xitoy manbalarida Xitoyning shimolida yashagan chorvador aholini oddiy qilib, "di" deb atalgan. Ular sharqda Xitoy dengizigacha (Bejin shahrining janub va shimoligacha) bo‘lgan joylarni egallagan. Ularning shimolida yashagan chorvador qabilalar esa "Shimoliy di"lar deb ko‘rsatilgan. "di"larning g‘arbida, Sharqiy Turkistonda istiqomat qilgandilar "G‘arbiy runglar" deb nomlangan. Umuman aytganda, Xitoy manbalarida milotdan avval III ming yillikda Xitoyning shimoliy va shimoliy-g‘arbida yashagan, Xitoyliklarga yot bo‘lgan, etnik guruhlar haqida gap ketganda "rung-di" atamasi ishlatilgan.

Xitoyning shimoliy-g‘arbida istiqomat qilgan dilarga (turklarga) ishlatilgan rung-di atamasidagi "rung" ieroglifining lug‘aviy mazmuni "qurol", "qo‘shin", jangchi (askar), harbiy arava, ulug‘ degan ma’noni anglatgan. Mantiqan tahlil qilganda, g‘arbdagi "di"larga nisbatan "ulug‘" "qo‘shin" kabi aniqlovchidan ko‘ra "jangchi" so‘zini qo‘shish to‘g‘riroqdir.

Xitoy manbalarida milotdan avval II ming yillikning oxiriga kelib, Jou sulolasining to‘ng‘ich xoni Vuvangning otasi Vinvang 3-4 ming yillar avval kunyi (yovvoyi) qabilalar bo‘lganini, ular yana boshqa – Chuanyilar (soy yovvoyilari) deb atalishi, ular shyanyun (xun)larni egallagan joylaridan ko‘chib ketishga majbur bo‘lganligi haqida ma’lumotlar bor.

Xitoyning shimolida turkiy xalqlarning ajdodlari rung-dilarning bir qismi janubdan ko‘chib kelgan Xitoyliklar tomonidan miloddan avval minginchi yillikda xitoylashtirilgan. Lekin, rung-dilarning chorvachilik bilan shug‘ullangan asosiy qismi yashab turgan maskanlarini tashlab yanada shimolga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi. Ular “xu”, “xun” va yana “turk” nomida tarix sahnasida paydo bo‘lgan.

Turkiy xalqlar yer yuziga juda keng tarqalgan. Biz Baykaldan Bolqon yarim oroligacha bo‘lgan keng maydonda ularni goh katta va yaxlit holda, goho kichik guruh bo‘lib va boshqa xalqlar bilan aralash tarzda yashaganligi haqida ma’lumotlar bor. Mazkur maydonning shimoliy chegarasi O‘rta Sibir bo‘ylab O‘rol tizmasi osha janubga, Volga bo‘yiga qarab enadi. Kavkaz o‘rtalaridan yana g‘arb tomonga burilib, Qoradengiz qirg‘oqlari bo‘ylab o‘tadi, Qrim va Bessarabiyaning bir qismini o‘z ichiga olgani holda, Bolqon yarim oroliga qayriladi. Janubda esa u Oltoy bo‘ylab o‘tib, ayrim joylarda Mo‘g‘ulistonga qadar kirib boradi-da, keyin janubi-g‘arb sari yo‘nalib, Sharqiy Turkistonni qamrab oladi. Bundan keyin uning hududi Turkiston chegaralari bilan yondosh holda Eron ichkarisiga va undan kichik Osiyoga o‘tib, Bolqon yarim orolida tutashadi. Turkiy qavmlar bu hududdan tashqarida ham bor. Masalan, Litva tatarlarini ko‘rsatishimiz mumkin; ular ko‘p zamonlar o‘z qabiladoshlaridan ayri yashaganligi tufayli, tilini unutishgan va hozirda polyak yo belorus tilida so‘zlashadi. Shu bilan birga, boshqacha misollarga ham duch kelamiz: mazkur maydon ichida turkiy bo‘lmagan, ammo turkiy tilda so‘zlashadigan xalqlar (sartlar) ham bor. Biz ushbu kursda birinchi xildagi, lisoniy mushtaraklikni ko‘zda tutamiz. Shu orada aytib o‘taylik: til xususiyatlariga ko‘ra turkiylarning umumiy ommasidan ancha uzoqlashib ketgan ikki turkiy el- yoqutlar va chuvashlarni tadqiq doirasidan tashqarida qoldiramiz.

Yoqutlarni qoldirib o‘tib, biz Oltoyda va Oltoyga yondosh hududlarda yashaydigan qabilalardan boshlaymiz. Yenisey gubernyasi va yuqori Oltoyda bir qancha mayda turkiy elatlar yashaydi, ularning anchaginasi samoedlar bilan qorishib ham ketgan. Oltoyning o‘zida esa oltoylar va teleutlar makon tutgan, ular bir mahallar xiyla katta bo‘lgan yagona bir xalqning qoldiqlari hisoblanadi. Oltoy janubida – shimoli-g‘arbiy Mo‘g‘ulistonda uryanxaylar joylashgan, ular, shuningdek, sayanlar, soyotlar va tuvalar deb ham ataladi.

Mana shu elatlar boshqa turkiylardan islomga kirmay, qadimgi shomoniylik dunyoqarashida qolganligi bilan ajralib turadi. Shomoniylikning mohiyati esa butun tabiatni jamlashtirishda ko‘rinadi. Ularning G.N.Potanin asarlarida keltirilgan afsona va ertaklarida bu narsa yaqqol aks etgan. Bu asotirlarda odam bilan hayvonlar orasida, o‘simliklar bilan tosh-tuproq orasida hech qanday chegara yo‘q. Barcha narsa tirik, barchasi harakat qiladi, barchasining o‘z ruhi bor. Shomoniy xalqlar dunyoqarashida butun tabiat – jonli. Biron-bir jihatdan diqqatga sazovorroq bo‘lgan joy (daryo, tog‘, dovon va hokazo.)ga esa alohida e’timod qo‘yiladi. Shuni alohida qayd qilish kerakki, har qaysi tog‘, daryo, dara va hokazoning ruhi shomoniy turklar tomonidan EGA, ya’ni xo‘jayin deb nomlanadi. Shunday qilib, animistik dunyoqarash bu holda iqtisodiy tus ham olgan.

Mana shu ibtidoiy dunyoqarash ustiga monaviylik, buddaviylik va so‘nggi paytlarda sharqiy pravoslav yo‘nalishidagi xristianlik singari boshqa, nisbatan kuchliroq taraqqiy etgan dinlarga xos jihatlar ham qo‘shilgan. Ana shu dinlar ta’sirida shomoniylik dunyoqarashida yangi xudolar to‘g‘risida ta’limot va afsonalar paydo bo‘lgan.

Ma’budlar olamiga inson befarq qaray olmaydi. Odam ularning xayrixohligi va madadiga muhtoj. Ammo har kim ham ular bilan muomala qilishga qodir emas. Shomonlar deb ataladigan bir toifa kishilar borki; ularga buning uchun zarur bo‘ladigan bilim va kuch berilgan. “Shomon” so‘zi, aftidan, tungus tilidan olingan bo‘lsa kerak, lekin Yevropa olimlari bu so‘zni turkiylarga tatbiqan ham ishlatishaveradi. Turkiy tilda shomon “qam” deb ataladi, qamlamoq (shomonlik qilmoq) fe’li shundan yasalgan. Bu so‘z turkiylardan rus tiliga ham o‘tib, kamlat, kamlane degan so‘zlarga negiz bo‘lgan. Shomonlik qurbonliq qilish, kasalni davolash, ob-havoni bashorat qilish va hokazo xilma-xil sohalarda namoyon bo‘ladi. Qamlash chog‘ida shomon o‘z maxsus kiyimini kiyadi, unga shaqildoqlar, turli qush va hayvonlarning terisi osilgan bo‘ladi. Qamlashda unga doira va doiracho‘p kerak bo‘ladi. Ruhlar dunyosi ila qilgan muloqotini shomon odamlar oldida turli tana harakatlari, grimaslar, qo‘l harakatlari, qichqiriq, turli ovozlar chiqarish orqali butun bir dramaga aylantiradi. Qurbonlik qilingach, shomon, masalan, osmon diyoriga, uning ham eng yuksak ma’volariga bu qurbonlik qabul bo‘lganmi-yo‘qligini bilish uchun sayohatga otlanadi. Shomonni shuningdek, o‘lgan, ammo o‘z o‘tovini tark etishni istamayotgan odamning ruhidan poklash uchun ham chaqirishlari mumkin.

Oltoy va Oltoy bo‘yi turklarining maishiy turmushi nisbatan xilma-xil, ammo kuzatishlar ularning hammasi ilgari ko‘chmanchi chorvadorlik bilan shug‘ullanishganidan dalolat beradi. Bu ellardan ko‘pchiligining turmush tarzi hozirda ham shunday. Temirchilikni istisno qilganda, ularda kasb-hunar uncha rivojlanmagan, temirchilik esa qadimdan e’zozli kasb bo‘lib kelgan. Turkiylarning og‘zaki ijodida temirchi obraziga ko‘p duch kelamiz; qahramonga qurol-yaroq yasab berib, temirchi uning g‘alabasiga hissa qo‘shadi. Temirchi, aftidan imtiyozli mavqega ega bo‘lgan. Masalan, mo‘g‘ulcha *darxon* (temirchi) so‘zi turkiy tillarga ko‘pincha *tarxon* bo‘lib o‘tgan va soliqdan ozod qilingan kishi degan ma’noni anglatgan. Temirchi nafaqat turkiy qabilalarda, balki boshqa ko‘p xalqlarda ham o‘ziga xos mavqe tutadigan, alohida qadrlanadigan odamdir (chunonchi, Afrikada).

Oltoy – turklarning bobo yurti, ular shu makondan yer yuziga tarqalgan. G‘arb tomonga ko‘char ekan, turklar hozirgi qozoq sahrolaridan, goho esa undan janubroqdan o‘tishgan. Sahroning shimol yoqlaridan turk qabilalari yo‘l solmagan, xuddi shuning uchun ham G‘arbiy Sibirda (mazkur turklardan g‘arbroqda) yashaydigan turkiy qabilalarning hammasi bu yoqlarga ixtiyoriy yoki majburiy ravishda kelib qolishgan. Chunonchi, barabinliklar bu tomonlarda o‘zlarining ancha yaxshi joylaridan surib chiqarilgani tufayli yashashadi, deb taxmin qilish uchun asoslar yetarli. Tatarlar Volga bo‘yidan kelishgan. Turkiston tomondan ko‘chib kelganlari ham bor. V.Radlov “Obrazsы…” asarining IV jildini Sibir turklariga bag‘ishlagan.

Qozoq sahrolarida turkiylar qadimdan yashab keladi. Bu sahrolarning hozirgi aholisi o‘zini qozoq deb ataydi. Ularning qo‘shnilari ham ularni shunday ataydi. Ammo ularni dastlab ruslar, ruslardan so‘ng yevropaliklar ham yanglish tarzda qirg‘iz deb nomlashgan. Bu yanglishuv Sibirni bosib olish chog‘ida yuzaga kelgan. O‘sha zamonlarda ruslar qozoqlar to‘g‘risida hech narsa bilishmagan: Volga bilan O‘rol daryosi oralig‘ida no‘g‘aylar ko‘chib yurar va ruslarni qozoqlardan to‘sib qo‘yishgandi. Sibirni bosib olishda ruslar qozoq sahrolarining shimolida bo‘lgan daryolar orqali yo‘l bosishgan va shuning uchun ham qozoqlarga duch kelishmagan. Yenisey daryosi bo‘ylarida ular qirg‘izlar degan turkiy qabila bilan to‘qnashgan. Bular hozirgi qirg‘izlar edi. Hozir yashaydigan joylariga (hozirgi Qirg‘iziston hududiga. – Z.I.) ular XVII asrda kelishgan, unga qadar esa Yenisey daryosi masnadida istiqomat qilishgan. Ular ko‘chib yurgan joylariga yetib borgan ruslar qattiq qarshilikka uchragan. Ana shu Yenisey qirg‘izlariga qarshi urush chog‘ida ruslar ularni ancha yaxshi o‘rganib olishgan edi. Xiyla zamondan keyin qozoqlarga duch kelgan mahalda esa ularning turmushi, tili, urf-odati va boshqa jihatlardan o‘xshashligiga ko‘ra ularni ham qirg‘izlar deb atashgan. Keyinchalik, buning xato ekanligi ma’lum bo‘lgach, yanglishishga barham berish uchun qozoq va qirg‘iz degan har ikki atamani qo‘shishga urinishgan (*kirgiz-kaysakы*. – Z.I.). Yekaterina davrida va XIX asr boshlarida qozoq o‘rniga sun’iy *kaysak* degan atamani qo‘llab, shu tariqa bo‘lsa ham qozoq so‘zini rus tilidagi *kazak* atamasidan farqlashga harakat qilingan.[2]

Qozoqlar tarix sahnasida nisbatan keyin paydo bo‘lgan el hisoblanadi. Oltin O‘rda hukm surgan va u qulagan zamonlarda hozirgi qozoq sahrolarida *o‘zbek*lar ko‘chib yurishar edi. XV asrda O‘zbek o‘rdasidan bir qism urug‘lar ajrab chiqib, sharqqa yo‘l olgan, o‘sha zamonlarda jamoa ittifoqidan qay bir sababga ko‘ra ajralgan bunday qochoqlar *qozoq* deb ham atalgan. Shunday qilib, o‘zbeklardan ajralgan urug‘lar “qozoq”liq qildilar va bu laqab bora-bora ularning bugungi nomiga aylandi. Qozoqlarning bu tarixi ularning ko‘hna rivoyatlarida ham saqlanib qolgan, ularning barchasida qozoqlarning qay bir qochoqdan tarqalgani yoki o‘z odamlaridan adashib qolgan bir guruhdan kelib chiqqani naql qilinadi.

Qozoqlarning tarixiy rivoyatlarida, shuningdek, urug‘lar orasida tez-tez yuz beradigan va hurmati baland biron shaxsning sa’y-harakati orqasida to‘xtatilgan ichki nizolar to‘g‘risida hikoyalar ko‘p. XVII asr oxirida yashab o‘tgan Tovkaxon ana shulardan biri bo‘lgan. Qozoqlarning urug‘lararo nizosi ularning iqtisodiy tartibidan kelib chiqqan. Zero, qozoq – xo‘jalik nuqtai nazaridan – ko‘chmanchi chorvadordir. Qozoqlarda va umuman ko‘chmanchi chorvadorlarda xo‘jalik oqilona boshqarilmagan. Turli qabilalarda sahro oqsoqollari tomonidan saylanadigan xonlar odatda, unchalik katta kuchga ega bo‘lmagan. Bir tomondan, xonlar hokimiyati va ikkinchi tomondan, harbiy aristokratiya o‘rtasidagi kurash – sahro davlatlari tarixi mana shundan tashkil topadi. Shaharlarga ko‘chib o‘troqlashish xonlar hokimiyatining kuchayishiga olib kelsa, ayni shu narsa harbiy zodagonlar mavqeini yo‘qqa chiqarargan. Binobarin, ular har qanday o‘troqlashishga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurash olib borgan.

E’tirof etish kerakki, qozoq zodagonlari bu yo‘lda niyatiga erishgan. Qozoqlar juda ko‘p zamon shundoq yonlarida joylashgan Turkiston tamaddunining butun ruhidan begonaligicha qoldilar (Turkiston – qozoqlarga eng yaqin o‘troq mamlakat edi, ruslar bilan ular ancha keyin yaqinlashgan). XVIII asrdayoq Buxoro vazirlari qozoq xalqi hukmdorlariga maktub yo‘llab, Buxoro shahri islomiy bilim markazi ekanini, bu yerdagi madrasalarda o‘zbeklar ham, sartlar, tojik, turkmanlar va hatto arablar ham ta’lim olishini, ammo qozoqlardan bironta ham tolibi ilm yo‘qligini aytib murojaat qilgan edilar.

Ilgari ham tarqalib, uncha muvaffaqiyat qozonmagan islomiy ta’limotning kuchayishi tufayli eski urf-odatlarning tagiga suv ketdi, sahro zodagonlari naslidan bo‘lmish sulton Cho‘qon Valixonovning bu hodisalarni qattiq tanqid qilishining sababi ham shunda.

Qozoqlar Turkiston tamaddunidan bebahra qolib, undan uzoqda turar edilar, degan mulohazamizni qozoq sultonlarining Turkiston shahar va davlatlarida hukm surganligi bilan inkor etishi mumkin. Chunonchi, Xivada XVIII asrda qozoq sultonlar hukmdor bo‘lishgan. Ammo gap boshqa yoqda. Jami qozoq xalqi uchta “juz”ga (yuzlik) bo‘linadi. Bu bizning tilimizda o‘rda demakdir. Qozoqlarda Ulug‘ juz, O‘rta juz va Kichik juz bor. Har bir o‘rda bo‘g‘inlarga, bo‘g‘in esa urug‘larga bo‘linadi. Har bir urug‘ o‘z urug‘ boshchisiga, urug‘ nomiga, tamg‘asi va o‘roni (jangovar so‘z)ga ega. Chingizxon avlodlaridan bo‘lmish oqsuyaklar esa urug‘larga taqsimlanmaydi va butun qozoq xalqi ularga tobedir. Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ullarning butun Osiyo hamda qisman Yevropani o‘ziga bo‘ysundirgani shu qadarlik zo‘r ta’sir qilganki, Markaziy Osiyoda chingiziylarning hukmdorlikka bo‘lgan huquqlari boshqalarnikidan shubhasiz ustun, deya e’tirof etilgan. Taxtda Chingizxonning biron avlodi o‘tirishi shart sanalgan. Chingizxonning juda ko‘payib ketgan avlodlaridan bir qismi qozoq sahrosidan o‘ziga makon tutib, doimiy yashash joyiga aylantirgan va bu yer taxt vorislari yetishadigan maskan hisoblangan. Qay bir chingiziy shahzodaning qo‘shni davlat xoni bo‘lishga chaqirilishi butun qozoq xalqiga emas, balki o‘sha oqsuyaklargagina taalluqli bo‘lgan. Masalan, Sibir xoni Ko‘chumxon qozoq sultonlaridan edi, ammo qozoqlarning Sibir xonligiga hech qanday daxli yo‘q.Qozoqlarning ruslar bilan yaqinlashuvi XVIII asrda ro‘y bergan.

Turkiy tilli davlatlar kengashi rivojlanib borayotgan mintaqalararo tashkilotlardan biri hisoblanib, ushbu tashkilot turkiy tilli mamlakatlarning etnolingvistik birligi asosida yaratilgan. Kengash 2009 yili Ozarbayjonda Naxichevan Bitimini imzolash bilan ta’sis etilgan. Ta’sischilar Turkiya, Ozarbayjon, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlaridir.

Turkmaniston turkiy tilli davlat bo‘lsa-da, neytrallik statusiga ko‘ra, Kengashga a’zo bo‘lmagan. O‘zbekiston ham avvalboshdan a’zolikni inkor qilgan edi. 2016 yili Shavkat Mirziyoev Prezident bo‘lgach, rasmiy Toshkent ochiq tashqi siyosat yurita boshladi va 2018 yilning aprelida ushbu tashkilotga qo‘shilish niyati borligini e’lon qilgan. Oradan sal kam bir yarim yil o‘tib, 2019 yilning sentabr oyida Naxichevan Bitimini ratifikatsiya qilish haqidagi Qonun Prezident tomonidan imzolandi, O‘zbekiston Turkiy Kengashga a’zo bo‘lgan

Xalqaro ekspertlar mazkur tashkilotni turkiy xalqlarni birlashtiruvchi va ularni integratsiyaga boshlab boruvchi tuzilma sifatida baholaydi. *Haqiqatan ham, u turkiy xalqlar birdamligini ifodalavchi, tashkilot madaniy tarixiy aloqalardan tashqari turkiy tilli davlatlarning iqtisodiy va siyosiy integratsiyasi uchun imkoniyatlar yaratuvchi va nihoyat, bu Kengash turkiy xalqlarning birgalikda rivojlanishi uchun platforma vazifasini bajarishi lozim.*

Hozirgi kunda O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon, Qirg‘iziston va Turkmanistondan tashqari forsiy tilli xalqlar areali bo‘lmish Eron, Afg‘oniston, Tojikiston va qisman Pokistonda ham turkiy xalqlar mavjud. Eron aholisining 26 foizga yaqinini turkiy ozarlar tashkil qilsa, Afg‘onistonda 12 foizga yaqin aholi turkiy xalqlardan iborat ekani aytiladi. Turkiy xalqlarning katta guruhi Xitoy va Rossiyada ham yashaydi. Shuningdek, Sharqiy Yevropa va Yaqin Sharq hududlarida ham turkiy xalqlarni uchratish mumkin.

Turkiy xalqlarni birlashtirish g‘oyasi bugun paydo bo‘lgan emas. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur bobomiz orzularida ham turkiy xalqlarni birlashtirishni nazarda tutuvchi Turon tushunchasi mavjud bo‘lgan. Bugun esa Turkiya bu g‘oyaning tashabbuskori sanaladi. Mazkur mamlakatning sobiq Prezidenti Sulaymon Demirel ta’biri bilan aytganda, “*Adriatikadan Buyuk Xitoy devorigacha cho‘zilgan turk dunyosi*”ni birlashtirish mas’uliyatini Turkiya o‘z zimmasiga olishi kerak deb tashabbus ko‘rsatgan.

Turkiy Kengashining iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy muloqot sohalaridagi ko‘rsatkichlari, erishilgan natijalari va a’zo davlatlarning tashqi siyosatida uning ahamiyati qanday ekanligidan qattiy nazar, Kengash turkiy tilli xalqlarning o‘zaro muloqoti uchun bir qo‘shimcha platforma vazifasini bajaradi.


Maxmud Qashqariyning “Devonu lug‘ati at-turk” kitobidagi Turkiston haritasi [3]

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalqlarning tarixi, madaniyati (bayramlari va milliy xalq o‘yinlari x/k) hamda yashash tarzi bir-biriga yaqin va chambarchas holda rivojlanishda davom etmoqda.

O‘zbekistonning asosiy millati — o‘zbeklar tarkibiga kiruvchu asosiy va eng mashhur turk urug‘lardan biridir. QO‘NG‘IROTlarning xaqiqiy vatani ularning “Alpamosh” dostonida aks ettirilgan Boysun dashtlari hisoblangan. Shu bilan bir qatorda bu urug‘ning nomi rus tilida *KUNGRAT*, UNGIRAT *va* XONGXIRAT, deb noto‘g‘ri yozilgan va talafuz qilingan. Vaholanki bu o‘zbek urug‘ining ***QO‘NG‘IROT*** degan nomi o‘zbek tilida lotin hriflari bilan ***qo‘ng‘ir ot***, deb yozilib, rus tiliga aniq — ***бурыу кон***, deb tarjima qilinadi. Shunday bo‘lsada men ushbu maqolaning rus tilida e’lon qilingan matnida mushtariylar uchun chalkashliklar paydo bo‘lmasligini ko‘zlab, bu urug‘ nomining rus tilida mavjud manbalaridagi uzbekcha talaffuzga eng yaqin bo‘lgan *“**KUNGRAT**”,* deb atalgan.[3]

Qadimgi turkiy til zaminida yotgan o‘zbek tilining miloddan oldingi III asrdan ham ilgariroq shakllangani ishonchli, ayni paytda muhim tarixiy dalil sifatida e’tirof etilishi bejiz emas.

So‘nggi yillarda yurtimizda davlat tiliga bo‘lgan e’tibor har qachongidanda kuchaydi. Xususan, muhtaram prezidentimiz **Shavkat Mirziyoev** tomonidan imzolangan **«O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»**gi farmoni buning yorqin dalilidir. Farmonga binoan 21 oktabr yurtimizda **«O‘zbek tili bayrami kuni»**, deb e’lon qilinganligi ham yaqqol fikrimiz isboti.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1.Abduxaliq Abdurasul o‘g‘li Aytbaev «O‘ZBEK XALQINING KELIB ChIQIShI: ILMIY-METODOLOGIK YoNDAShUVLAR, ETNOGENETIK VA ETNIK TARIX» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY SEMINAR MATERIALLARIю Toshkent shahri 2004 yil 19-20 noyabr

2.M. Is’hoqov. «O‘ZBEK XALQINING KELIB ChIQIShI: ILMIY-METODOLOGIK YoNDAShUVLAR, ETNOGENETIK VA ETNIK TARIX» MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-NAZARIY SEMINAR MATERIALLARI

Toshkent shahri 2004 yil 19-20 noyabr

3. **https://uza.uz/posts/9634** 94 224 02 42

ТУРК ОЛИМЛАРИНИНГ КУМУШХОНАВИЙ ҲАҚИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Гуламова Мавжуда Ташпулатовна-
Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти
Тиббий кимё кафедраси доценти
(gulamovamavjuda@mail.ru)
Тел: 652248851; (90) 4126248

Аннотация. Мақолада турк олимларининг Кумушхонавий ҳақидаги тадқиқотларининг фалсафий таҳлили ўрганилган. Аҳмад Зиёвуддин Кумушхонавий 1813-1894 й) Нақшбандия-холидия тариқати давомчиси Кумушхонавия тармоғининг асосчиси Туркиянинг Кумушхона шаҳрида туғилган. Аждодлари Бухоройи шарифдан бўлган. Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавийнинг шахсий кутубхоналарида 18 жилд асар бўлган. Кумушхонавий ҳадис ва фиқҳга оид 30 та, ахлоқ ва тасаввуфга оид 15 та, тафсирга оид 8 та китоб ва бошқа турли асарлар ёзган. Асарлари араб тилида бўлган. Турк олимлари томонидан кўпчилиги турк тилида таржима қилинган.

Калит сўзлар: Туркий тил, турк, араб, ўзбек, Нақшбандия, Холидия, Кумушхонавия, тасаввуф, дарвешхона, дуо.

ФИЛОСОФСКИЕ АНАЛИЗЫ ИЗУЧЕНИЯ ТУРЕЦКИХ УЧЕНЫХ ПО КУМУШХАНАВИ

Аннотация В статье будет рассматриваться философский анализ исследований учений турецких, по Кумушханави в государстве. Наследником секты Накшбандия-Халидии и основателем «Кумушханавия» был Ахмед Зиёвуддин Кумушханави (1813 - 1894). Он родился в городе Кумушханави, Турция. Его предки происходящие из Бухары Шарифа. 18 томов сочинений находилось в личной библиотеке Ахмада Зияуддина Кумушханави. Кумушханави был автором более 30 книг по хадисам и юриспруденции, 15 книжек этики или мистицизму , 8 работ в области

толкований а так же множества других произведений. Его произведения были на арабском языке. Большая часть из них была переведена на турецкий язык учеными-турками.

Ключевые слова: турецкий язык, турецкий, арабский, узбекский, Накшбандия, Халидия, Кумушханавия, мистика, дом дервишей, молитва.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE STUDY OF TURKISH SCIENTISTS BY KUMUSHKHANAVI

Annotation The article will consider a philosophical analysis of the studies of Turkish teachings, according to Kumushkhanavi in the state. The heir to the Naqshbandiya-Khalidiya sect and the founder of "Kumushkhanawiyya" was Ahmed Ziyovuddin Kumushkhanawi (1813 - 1894). He was born in Kumushhanavi, Türkiye. His ancestors come from Bukhara Sharif. 18 volumes of works were in the personal library of Ahmad Ziyauddin Kumushkhanavi. Kumushkhanavi was the author of more than 30 books on hadith and jurisprudence, 15 books of ethics or mysticism, 8 works in the field of interpretation, as well as many other works. His works were in Arabic. Most of them were translated into Turkish by Turkish scholars.

Key words: Turkish language, Turkish, Arabic, Uzbek, Naqshbandiyya, Khalidiya, Kumushkhanawiyya, mysticism, dervish house, prayer.

Туркий тиллар — ҳозирги ва қадамиги туркий халқлар ва элатларнинг тиллари бўлиб, асосан, Узбекистан, Туркия, Озарбайжон, Қозоғистон, Қирғизистон, Туркманистон, Россия Федерацияси, ХХР, Афғонистон, Эрон, Тожикистонда, шунингдек, Болгария, Руминия, Украина, Германия, Кипр, Македония, Албания, АҚШ, Саудия Арабистони ва бошқа бир канча мамлакатларда тарқалган. Ўтган аср охиридаги маълумотларга кўра, Туркий тилларда сўзлашувчиларнинг умумий сони 130 млн. кишидан ортиқ бўлган[1].

Нақшбандия-умуминсоний ғоялар, маънавий камолот, руҳий ва ботиний покликни тарғиб этган, дунёда кенг тарқалган тасаввуфий таълимот бўлиб Баҳоуддин Нақшбанд томонидан асосланган .

Ўз замондошлари томонидан "Раббоний олим, зоҳирий ва ботиний илмлар билан ораста, фахрул машойих, хотиматул муҳаддисин, орифи комил, шайхи комил деб таъриф берган"[2:8; 3:28], Нақшбандия-холидия тариқати давомчиси Кумушхонавия шахобчасининг асосчиси Аҳмад Зиёвуддин Кумушхонавий(1813–1894 й)[4:64; 5] бағрикенг инсон, турклардан бўлган.

Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавийнинг шахсий кутубхоналарида 18 жилд асар бўлган. Бу асарларнинг қўлёзма ва бошқа нусхалари Туркия, Миср, Европадаги катта кутубхона фондларида, шу қатори Республикамиз Фанлар академияси ҳузуридаги Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар хазинасида ҳам сақланмоқда [6:285]. Кумушхонавий илмий фаолияти давомида ҳадис ва фиққа оид 30 та, ахлоқ ва тасаввуфга оид 15 та, тафсирга оид 8 та китоб ва бошқа турли асарлар ёзган [7: 45-62]. У кўплаб қимматли асарларга муаллифлик ҳуқуқини қўлга киритган.

Мустақиллик берган улуғ неъматлардан бири жуда кўп исломий манбаларнинг ўзбек тилида таржима қилиниб, нашр этилишидир. Ана шулардан бири Кумушхонавийнинг "Жомиъ ул-мутун"-"Жомиъ ул-мутун фий ҳаққи анвоис-сифатил илоҳиййа вал-ъақоидил Мотуридия ва алфозил куфри ва тасҳиҳил–аъмолил-ъажибиййа"–"Аллоҳ таолонинг анвойи исм-сифатлари, Мотуридия эътиқоди, куфр сўзлар баёни ва амалларнинг дуруст бажарилиши ҳақида матнлар тўплами"[8:1] асарини Мирзо Кенжабек ўзбек тилига ўгириб, 2000 йил Тошкентдаги "Мовароуннаҳр" нашриётидан чоп этган.

Асар Мотуридия эътиқоди асосида ёзилган бўлиб, унда Имом Аъзам ва Имом Мотуридий асарларидан то XVIII асрга қадар эътиқодга доир яратилган китоблардан матнлар олинган. Китобда Аҳли суннат ва-л-жамоат ақоидига асос бўлган Мотуридия эътиқоди, яъни соғлом эътиқод тамойиллари ҳамда бузуқ ақидалик оқимларнинг ҳоллари матн ва шарҳлар асосида батафсил баён этилган [9:11].

Бир гуруҳ таржимон олимларимиз, жумладан Абдумурод Тилавов, Сумайро Холмуродова ва Мубина Холмуродовалар томонидан Кумушхонавийнинг бебаҳо қимматли китобларидан бири "Катта дуолар ва зикр" китоби ўзбек тилида таржима қилиниб, 2020 йил Самарқанд "имом Бухорий халқаро маркази" нашриётидан чоп этилган. Бу китобда Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавийнинг "Мажмуатул –аҳзоб" номли икки минг саҳифалик дуо китобидан энг зарурий дуолар саралаб олинган [10:1].

Китобда тақдимот, йигирма саккиз бўлим, иловалар, Имом Шаъронийнинг "Ибодат ва зикр аҳлига тавсиялар"и ва Алишер Навоийнинг "Муножот"и келтирилган.

Тақдимот қисмида Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавийнинг файз ҳалқаси мавзусида “олтин занжир”да пайғамбаримиз (с.а.в.)дан ҳазратгача бўлган пиру-устозларнинг номлари, у кишидан саккизта хос дуо ва Ҳазрат Одам Атонинг уч дуоси келтирилган[11:2-14].

Кумушхонавийнинг асарлари асосан Туркияда чуқур ўрганилган.

Туркиянинг Кумушхона шаҳрида Кумушхона унверситетида “Кумушхонавия” маркази, Истанбул университети Илоҳиёт факультети “Асосий ислом илмлари” ва “Тасаввуф” кафедраларида Кумушхонавийнинг араб тилидаги қўлёзмалари ўрганилиб турк тилида таржима қилинаяпти.

Ирфан Гундуз (1950-йил 15-декабрда туғилган), турк сиёсатчиси. Истанбул олий ислом институтини тамомлаган. Мармара университети Ижтимоий фанлар институтида тасаввуф тарихи кафедрасида “Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавий: Унинг ҳаёти-асарлари-унинг дарвашхонаси ва Холидийя тариқати ҳақидаги тушунча”, мавзуси бўйича докторлик диссертатсиясини ҳимоя қилган. (Истанбул 1984 йил). Мармара университети илоҳиёт факултетида ўқитувчи сифатида дарс берган. Ҳозирги кунда Ибн Ҳалдун университети кенгаши аъзоси.

Ирфан Гундуз “ Аҳмад Зиёддин Кумушхонавий, (1813-1894) Накшбандия-холидия шайхларидан, олим ва мутасаввиф” мақоласида Кумушхонавийнинг араб тилида ёзган асарлари рўйхатини ва библографик маълумотларни келтирган.

Кумушхонавийнинг араб тилида асарларини қайта кўчирган олимлардан: “Жамиъуъл-усуъл Валилар ва траиқатларда усул” Раҳми Серин – Рамазон Назли (Истанбул 1977), “Руҳуъл-орифин”, “Вуслат аҳли ва Илоҳий ишқ”ни Раҳми Серин (Истанбул 1978). Турк тилида таржима қилган асарлари: “Ромузу'л-аҳодис”нинг иккита таржимаси бўлиб, биринчисини Наим Эрдоған “Ромузу'л-аҳодис” , Истанбул 1976 й. ва иккинчиси “Ҳадислар Дарёси” Лутфи Доған - М. Жавад Акшит, Истанбул 1982 й, "Нажотул ғофилийн" нажот йўли А. Камол Саран, Истанбул 1968 й., "Жомиул-мутун"- аҳли суннат вал-жамоат Абдулқодир Кабакчи – Фуат Гунел, Истанбул 1986, 4-нашри) ва бошқалар нашр этилган[12].

Шу билан бирга Кумушхонавийнинг “Жомиъ ул-мутун”, “Катта дуо ва зикрлар”, "Левамиъул-Уқул", “Рамузул-аҳодис” (Ҳадислар денгизи) номли асарлари чуқур ўрганилган. “Левамиъл-укул” асари араб тилидаги “Рамузул-аҳодис” асарининг шарҳи бўлиб, 5 жилддан иборат. Унда Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавий тўплаган ҳадислари келтирилган. Ҳозирги кунда биринчи жилди турк тилига 3 жилдда таржима қилиниб чоп этилган[13].

Истанбул университети Илоҳиёт факультети “Асосий ислом илмлари” ва тасаввуф бўлими профессори Наждат Йилмаз ўзининг “Жамиу'т-турук шахси”[14] асарини ёзган. Асарда етти бобдан иборат: биринчи бобда Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавийгача Накшбандийлик, иккинчи бобда Кумушхонавийнинг ҳаёти, учинчи бобда Кумушхонавийнинг устозлари ва тасаввуфий тарбияси, тўртинчи бобда Кумушхонавия даргоҳини тузилиши ва фаолияти, бешинчи бобда Кумушхонавийнинг халифалари, олтинчи бобда Кумушонавийнинг ёзган асарлари, еттинчи бобда Жомиул турк тасаввуфи йўли (Зияийя)”да сайру сулук тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Ҳуля Йилмаз ўзининг “Кечадан бугунгача. Кумушхонавий мактаби” (Истанбул Сана, 1997)[15:1] асарида Кумушхонавийнинг руҳий устози Мавлоно Холиди Бағдодий, тасаввуфдаги устози Аҳмад бинти Сулаймон ал-Арводий ҳаёти, Аҳмад Зиёуддин Кумушхонавийнинг ҳаёт йўли, халифаларидан Ҳасан Ҳилми Кастамонлик, Исмоил Нажоти Сафранбололик, Умар Зиёуддин-и Доғистонлик, Мустафо Файзи Такиртоғлик, кейинчалик дарвешхонада раҳбарлик қилган Ҳасиб афанди Сарозлик Абдулазиз Қозонлик, Маҳмуд Зоҳид Қутқуларнинг ҳаётлари келтирилган.

Руқия Айдуғди Dмирнинг “Аҳмед Зиёуддин Кумушхонавий”[16] асари олти қисмдан иборат бўлиб, Кумушхонавий империянинг энг узоқ асрида, ҳаёт ҳикоялари, илмий кишилар, асарлари, Кумушхонавийнинг тасаввуфий ҳаёти, Кумушхонавийнинг дарешхонаси ва сиёсати, Кумушхонавий асарларидан матнлар келтирилган.

Хулоса қилиб айтамизки:

1. Турк олимлари Кумушхонавийнинг маънавий меросини чуқур ўрганган.
2. Турк олимлари томонидан Кумушхонавийнинг араб тилидаги асарларини турк тилида таржима қилганлари, тадқиқотчилар учун муҳим манба бўлиб ҳисобланади.
3. Кумушхонавийнинг асрларини ўрганиш бир томондан ислом тарихини ёритишда ёрдам берса, иккинчи томондан, ёшларни комил инсонлар қилиб тарбиялашга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/turkiy-tillar-uz/

2. Зиёуддин Ахмад Ал-Кумушхонавий “Ромузул - аҳодис” – Ҳадислар денгизи, таржимон Баҳриддин Умрзоқ // -Тошкент: “Нур сеҳри ошиёни” МЧЖ компютер маркази, 2007.-Б.10

3. Гуламова М.Т. “Мушку анбар ҳидли валоят ғунчаси Зиёуддин Аҳмад Кумушхонавий”. Имом Бухорий сабоқлари. Журн. №2, 2020 йил, 28-29б.
4. Hüseyin Budak. Ahmed Ziyaüddin Gümüşhanevi’nin (1813-1894) türk dünyasina etkileri. / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: URL: http://isamveri.org/pdfdrg/D234591/2014_BUDAKH.pdf/ (дата обращения: 22.12.2021)
5. Gulamova M.T. 2020. Ahmad Ziyouddin al-Kumushxonaviyning Moturidiy ta’limoti to‘g‘risidagi sharhlari.[Ahmad Ziyouddin al-Kumushkhanavi's commentary on the Moturidi doctrine] // Falsafa va hayot xalqaro jurnal. № 1. Maxsus soni – Pp. 285.
6. Rukiyl AY. Doğdu Demir. Ahmed Z1yâedd1n Gümüşhânevî. 2. Baskl, Ankara Temmuz 2019 pP 45-62
7. Зиёвуддин Ахмад Ал-Кумушхонавий. Жомеъ ул-мутун. // Таржимон Мирзо Кенжабек. - Тошкент: Мовароуннаҳр, 2000. -313 б.
8. Гуламова М.Т. Аҳмад Зиёуддин ал-Кумушхонавийнинг “жомиъ ул-мутун” асари тўғрисида//. Илмий хабарнома. Серия: Гуманитар тадқиқотлар. Андижон 2022/3 (63) -11 б.
9. Зиёвуддин Аҳмад ал-Кумушхонавий. Катта дуо ва зикр // Самарқанд: “Имом Бухорий халқаро маркази” нашриёти 2020.-Б.592
10. Гуламова М.Т, Джумаева М.К. О труде «Ромузул ахадис» Ахмада Зиявуддина аль-Кумушханави босма Universum: общественные науки : электрон. научн. журн. 2021. 11-12(79). URL: https://7universum.com/ru/social/archive/item/12788
11. Ирфан Гундуз “GÜMÜŞHÂNEVÎ, Ahmed Ziyâeddin (1813-1894) Nakşibendî-Hâlidî şeyhlerinden, âlim ve mutasavvıf” https://islamansiklopedisi.org.tr/gumushanevi-ahmed-ziyaeddin
12. https://www.kitapyurdu.com/kitap/levamiulukul-ramuzulehadis-serhi-amp-zeka-pariltilari-hadisi-serifler-ve-aciklamalari-123-ilt/525241.html).
13. Necdet Yilmaz.Camıu't-turuk bir şahsiyet. Ahmed Ziyâeddîn-i Gümüshânevî hayatı, dergâhı, halifeleri, eserleri ve tasavvufî yolu (ziyâiyye) 2020 Üsküda saifa 268.
14. Hülya Yılmaz. Dünden bugüne. Gümüşhânevî mektebi// Istanbul: Sena, 1997. saifa.170
15. Rukiye Ay. Doğdu Demir. Ahmed Z1yâeddin Gümüşhânevî// Ankara: Temmuz, 2019. 120 s.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСТВО В ТУРКЕСТАНЕ В XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

Казимова Г.Х. -
доцент кафедры Узбекского языка и литературы БухИТИ

Аннотация: В данной статье раскрывается развитие просветительской мысли народов Туркестана в 19-начале 20 веков. Выражены взгляды просветителей А. Дониша, Фурката, Мукими, Бехбуди их стремление усовершенствовать жизнь народа в то время.

Ключевые слова: просвещение, духовность, образование, реформа, зрелость, мышление.

XIX-XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA TA’LIM

Annotatsiya: Ushbu maqolada 19-asr va 20-asr boshlarida Turkiston xalqlarining maorifiy tafakkurining rivojlanishi ochib berilgan. Ma’rifatparvarlar A. Donish, Furqat, Muqimiy, Behbudiylarning qarashlari o‘sha davrda xalq hayotini yaxshilashga intilishlari ifodalangan.

Kalit so‘zlar: ma’rifatparvarlik, ma’naviyat, ta’lim, islohot, kamolot, tafakkur.

EDUCATION IN TURKESTAN IN THE XIX - EARLY XX CENTURIES

Abstract: This article reveals the development of the educational thought of the peoples of Turkestan in the 19th and early 20th centuries. The views of the enlighteners A. Donish, Furkat, Mukimi, Behbudi are expressed... their desire to improve the life of the people at that time.

Key words: education, spirituality, education, reform, maturity, thinking.

В просветительстве Туркестана в конце XIX — начале XX веков получили отражение как общие черты, присущие просветительству как идейному движению периода становления капиталистических отношений, так и специфические, обусловленные историческими и национальными особенностями края.

Просветительская идеология в Туркестане возникла в 80-х годах XIX века. Ее становление и развитие было обусловлено влиянием европейской культуры, самим фактом контраста между феодальной Центральной Азией и капиталистической Россией.

Просветители раннего периода Ахмад Дониш (1827—1897), Саттархан Абдулгафаров (1843-1902), Фуркат (1858-1909), Бердах (1827—1900), анализируя феодальную и культурную отсталость, подвергли критике феодально-ханский строй и выступили с пропагандой знаний. Они возлагали надежды на просвещенного монарха, который сможет вывести страну из отсталости, способствуя распространению науки и просвещения.

Ахмад Дониш считал, что путь избавления от нищеты и невежества лежит через реформирование государственного строя эмирата, распространение светских знаний.

Просветители утверждали, что счастье приобретается не в пассивном его ожидании на том свете, а в познании окружающего мира и подчинении этих знаний обществу, людям.

А. Дониш говорил, что человек существует для созидания, поэтому должен обладать знаниями и трудиться, ибо продукты питания не падают с неба, а добываются трудом. Он созывал своих соотечественников к изучению науки к овладению различными ремеслами.

Стремлением к прогрессу, знанию и просвещению пронизано и творчество Фурката. В совершенствование его просветительских идей большую роль сыграло знакомство с достижениями европейской культуры, в частности русской.

Фуркат приходит к твердому убеждению, что только с помощью изучения европейской культуры и науки, путем просвещения можно выйти из той отсталости, в которой она оказалась. По мнению Фурката, невежество — сущий ад, в котором нельзя увидеть луч света, и предлагал молодому поколению изучать светские науки. Он говорил , что наука должна служить народу, ученые люди должны быть почитаемы и уважаемы, независимо от их национальности и религиозных верований.

Восхищаясь достижениями науки, входившими в жизнь, Фуркат воздает дань уважения и благодарность ученым России. В Туркестане конца XIX – начала XX вв. идея "просвещенного и мудрого правителя" уступила место идее отрицания монархической власти. Эта тенденция проявлялась во взглядах Мукими, Завки, Хамзы и др.

Мукими в своих произведениях отразил глубокую ненависть к миру гнета и насилия, описал тяжелое положение крестьян, гнет и произвол в колониальном Туркестане. "Где правду искать беднякам, если деньги — кинжал, режущий все", — гневно писал Мукими. Идеи Мукими продолжили Завки, Хамза и др. [1;29]

Другим не менее важным течением в Туркестане было формирование джадидизма. Джадидизм оформилось как особое течение просветительства и приобрело определенную политическую окраску в начале XX века. Они требовали реформы образования, были за новометодные школы, создавали театральные труппы. Джадиды раскрывали проблемы, связанные с реформой управления краем, рыночными отношениями. Они занимались такими вопросами, как право мусульманина иметь дело с банковским капиталом, торговлей, изучать светские науки, языки других народов и др. Увидели преимущество капиталистических экономических отношений перед феодальными, способствовали их развитию в Туркестане; открывали новые методы ведения хозяйства, основанные на целесообразном использовании преимуществ, предоставляемых железной дорогой, банковской системой, применением техники и т. д. Они говорили , что без знаний, науки и техники, не имея подготовленных специалистов, победить в конкурентной борьбе с капиталом метрополии, и они ратовали за светское образование, за подготовку специалистов, за проведение реформ в управлении краем, которые бы не ограничивали экономическую и политическую свободу местной буржуазии.[2;98]

Бехбуди. Сущность и суть джадидского движения наиболее ярко выразил один из крупнейших его лидеров и теоретиков Махмуд Ходжа Бехбуди (1879-1919). Бехбуди был выходцем из богатой семьи. Окончив медресе, он занимал должность муфтия (толкователя шариата) при казийских судах Самарканда, занимался торговой деятельностью. С 1906 года Бехбуди выступает в джадидской периодической печати с идеей национального освобождения края через реформу образования и систему управления Туркестаном. Его взгляды характерны антифеодальной направленностью и особенно оппозиционностью колониальной системе управления Туркестаном. Бехбуди в своей деятельности уделял много внимания пропаганде светских знаний и культуры. В 1913 году он издает газету "Самарканд", а с августа 1913 года журнал "Ойна", который просуществовал до июня 1915 года. Помимо многочисленных статей, посвященных проблемам пропаганды научных знаний, социально-политической жизни и быта народов Туркестана, Бехбуди

написал учебные пособия по географии, букварь для начальных школ, перевел и отредактировал ряд работ. Им была написана также пьеса "Падаркуш" ("Отцеубийца"), которая ставилась любительскими театральными труппами во многих городах Узбекистана. [3;43]

Бехбуди, Миновар-Кори и другие деятели джадидов стали активно создавать свои организации. В марте 1917 года была создана организация "Шурой Исламия". Уже на первом ее съезде в апреле 1917 года было сформулировано политическое кредо, а именно — идея создания национально-религиозной автономии, созыва Учредительного собрания, который установил бы особую форму управления в Туркестане в рамках Российской Федеративной Республики Деятельность просветителей Центральной Азии одна из ярких страниц истории общественной мысли. Их достоинство состоит в том, что в мрачный период феодальной отсталости они пропагандировали идеи прогресса и социальной справедливости, формировали сознание национальной независимости.

ЛИТЕРАТУРА /ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. Джумабаев Ю.Д. Из истории этической мысли в Средней Азии. – Т.: Фан: 2002.с. 29.
2. . Муминов И. М. Амир Темурнинг Урта Осиё тарихида тутган урни ва роли. – Т.: ФАН, 2015,с.98.
3.Хайруллаев М.М. Уйгониш даври ва Шарк мутафаккири. – Т.: ФАН, 1200.с.43.

O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISH DAVRIDA MUSIQA MADANIYATI

Fayziyev Otabek Olimovich -
Navoiy davlat pedagogika instituti
Musiqa ta’limi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqaloda o‘zbek xalqining shakllanish davrida musiqa madaniyatining rivoji, “ilmi advor” ta’limoti, “ 12 maqom” tizimining boshlanishi haqida o‘z davrining yetuk olimlari bergan ma’lumotlar, musiqa ilmining yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatihaqida to‘xtalib o‘tildi, o‘zbek xalqining shakllanish davridagi musiqa madaniyati va uning qanday ahamiyatga egaligini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘z: Faxriddin Roziy, Safiuddin Urmaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, musiqa ilmi, “ilmi advor” tizimi, “ud uslubi”, “12 maqom” tizimi.

В ВРЕМЯ ФОРМИРОВАНИЯ УЗБЕКСКОГО НАРОДА МУЗЫКАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА

Аннотация: В данной статье рассматриваются развитие музыкальной культуры узбекского народа в период становления, приводятся сведения, данные зрелыми учёными своего времени о зарождении системы «илми адвор», системы «12 статусов», обсуждались значение музыкальной науки в воспитании молодого поколения, музыкальная культура узбекского народа в период становления и ее значение. пытался раскрыть право собственности.

Ключевые слова: Фахруддин Рази, Сафиуддин Урмави, Абдурахман Джами, Алишер Навои, музыкальная наука, система «илми адвор», «уд стиль», система «12 статусов».

DURING THE FORMATION OF THE UZBEK PEOPLE MUSICAL CULTURE

Annotation: In this article, the development of the music culture of the Uzbek people during the formation period, the information given by the mature scientists of their time about the beginning of the "ilmi advor" system, the "12 maqom " system, the importance of the science of music in educating the young generation, the musical culture of the Uzbek people during the formation period and its importance were discussed. tried to reveal the ownership.

Key words: Fakhruddin Razi, Safiuddin Urmawi, Abdurakhman Jami, Alisher Navoi, the science of music, the "ilmi advor" system, “ud uslubi”, the "12 maqom " system

Zamonasining eng “Buyuk ustoz – Shayxi sharif” unvonini olgan qomusiy olim Faxriddin Roziyning (1149— 1209) “Jome’ al-ulum” (“Ilmlar majmuasi”) asari xorazmshoh Alouddin Takash iltimosiga binoan

yozilgan. Ushbu asar o‘sha davr musulmon sharqidagi 60 fan haqida dastlabki ma’lumotlarni beradi. Muallif fanlarni naqliy (kalom, fiqh, mazxab, tafsir va h.k.) va aqliy (tarix, grammatika, aruz, mantiq, fizika, algebra, musiqa, astronomiya, siyosat, davlat boshqaruvi va h.k.), furu’iy (boshqa fanlardan hosil bo‘luvchi) va asliy (asosiy) singari qismlarga bo‘ladi. Har bir fan asoslari oddiydan murakkabga tamoyili asosida tushuntiriladi: oddiy asoslar (alusul alzohirot), murakkab asoslar (alusul almushkilot), takrorlash uchun savollar (alimtihonot). Bundan mazkur asarning bo‘lajak podshohdar uchun qo‘llanma sifatida yozilgan”.

XI-XIV asrlarda Sharqda boshqa ilmlar qatori musiqani ham jadal sur’atlar bilan rivojlanishi va “ilmi advor” ta’limotini qaror topishi munosabati bilan oldingi asabi hamda abjad tizimlaridan mukammalroq jadval yozuvi joriy etiladi. Uni endi tom ma’nodagi nota yozuvi deyish mumkin. Ushbu davrlarda yetakchi cholg‘u asbobi “ud” bo‘lganligi uchun, bu yozuv unga moslangan hamda “ud jadvali” (“tabulatura”si) nomini olgan. Ud jadvali ilk bor “ilmi advor” ta’limotining asoschisi Safiuddin Abdulmo‘min Bag‘dodi Urmaviy (1216-1294) tomonidan joriy etilgan. Ilmi advor ta’limotining peshvozlari Maxmud Sheroziy (1236-1311) va Abdulqodir Marog‘iy (1353-1435) Adurahmon Jomiy va boshqalar bu ta’limotni davomchilari bo‘lib maydonga chiqdilar.

Sharq musiqa ilmini Forobiy va Ibn Sinodan keyingi eng yirik namoyandasi **Safiuddin Urmaviy** (vafoti 1294 y.) hisoblanadi. Safiuddin Abdulmo‘min Urmaviy buyuk Forobiy kabi musiqa ilmi va amaliyotida barobariga zabardast bo‘lgan. U qadimiy Ozarbayjonning Urmiya shahrida (Tehrondan 120 km janubda) tug‘ilgan. Lekin uning deyarli butun umri Abbosiylar saltanatining poytaxti Bag‘dodda o‘tganli sababli arab tadqiqotchilari uni Safiuddin Urmaviy Bag‘dodiy deb ham yuritadilar.

U o‘zidan oldin o‘tgan olimlar Forobiy, Ibn Sino meroslarini ijodiy o‘zlashtirib, musiqa ilmini yangi pog‘onaga ko‘targan. Safiuddin Urmaviyning musiqaga oid mashhur risolalari: “Sharafiya” (“Kitob al-Sharafiya”) va “Davrlar kitobi” (“Kitob al-advor”), Urmaviyning ilmu ta’lif borasidagi qarashlari Sharq musiqasida hozirgacha o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bu ta’limotning xususiyati nimada? Agar Forobiy va Ibn Sino musiqaning parda tuzilish sistemasini empirik asosda (ya’ni tajribaga tayanib) tuzgan bo‘lsalar, Urmaviy bu jihatdan oqilona g‘oyalarni oldinga suradi.

Forobiy va Ibn Sino tovushqatorlari asosida katta-kichikligi turlicha bo‘lgan pardalar yotsa, Urmaviy ularni bir xilda teng taqsimlashni joriy qiladi. Musiqa ilmida maqom iborasi birinchi bo‘lib Safiuddin Urmaviy tomonidan ishlatilgan. Sharq musiqasida keng tarqalgan “12 maqom” tizimi ham ana shundan boshlanadi.

Ma’lumki, Husayn Boyqaro va Alisher Navoiylar yoshligidan turli ilmlar qatorida musiqiydan ham puxta bilim olganlar. Ikkalasi ham musiqiy ijrochilik va ijod sohalarida sezilarli yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Umuman olganda, temuriyzodalarning tarbiyalanishida musiqiyga alohida e’tibor berilgan. Ta’lim-tarbiya ishlarining boshida turgan Alisher Navoiy “Xamsat ul-mutahayyirin” risolasida qo‘l ostidagi temuriyzodalarga musiqiy saboq berish uchun Hirotning to‘rtta yetuk musiqashunosiga to‘rtta risola yaratishni buyurganligi to‘g‘risida yozadi. Ulardan qoniqmagan Alisher Navoiy o‘z ustozi Abdurahmon Jomiydan yangi bir asar bitishni iltimos qiladi va natijada oldingilaridan afzal risola dunyoga keladi.

Navoiyning musiqa ijodiyotiga bevosita aloqadorligini uning zamondoshlari va bir qator musiqashunoslar ham e’tirof etgan. Bobur Navoiy naqshlar (ashula-cholg‘u asarlari) hamda peshvolar muallifi bo‘lganligi “Boburnoma”da keltirilgan. Qolaversa, musiqashunos Darveshali Changiy o‘sha davrlarda amaldagi 24 usuldan bir qanchasini Ulug‘bek, 12 tasini Husayn Boyqaro, 7 tasini Alisher Navoiy qalamiga mansub ekanligini o‘z asarlarida aytib o‘tgan.

Musiqashunos olim A.Semyonovning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” jurnalining 1940 yil noyabr-dekabr sonlarida nashr etilgan “Navoiy davrida Hirot musiqasi” (“Музыка Герата в эпоху Навои”) nomli maqolasida cholg‘ularning kelib chiqishiga doir quyidagi ma’lumotlar tilga olinadi. Jumladan, ikki torli tanbur va yetti torli chang, shuningdek, yigirma to‘rt torli qonun Turkiston zaminining qadimiy musiqiy nishonalaridan hisoblanadi. Maqolaning keyingi qismida Navoiy zamonida Hirotda rasm etilgan musiqiy kecha va majlislar odobi masalalariga ham alohida urg‘u berilgan. Sulton Husayn Boyqaro (1439-1506) davrida saltanining ikki mashhur sozandasi: Ustod Darvish Shodi va Shoh Muhammadlarga miatayin (“miatayin” usulning nomi bo‘lib, arabchada 200 degan ma’noni anglatadi) shaklida tasnifot (kompozitsiya) yaratishdek murakkab ishni topshirganligi xususidagi ma’lumotni keltiradi.

A.Semyonov Navoiy davri va hatto XVII-XVIII asrlarda ham musiqiy ilmida arab, fors, turkiy ya’ni chig‘atoy-o‘zbek tillari umumiy vosita hisoblangan. Shuning uchun arab tilidagi risolani faqat arabga, fors tilidagilarni fors qavmiga tegishli deb bilish noto‘g‘ri ekanligi, shuningdek, ushbu davrlarda yozilgan risolalarning eng ahamiyatlilari Hirotda Temuriylar va Buxoroda o‘zbek xonlarining buyurtmasi bilan yuzaga kelganligi haqida to‘xtalgan.

ТУРКИЙ ХАЛҚЛАР ОҒЗАКИ ИЖОДИДА МУШТАРАК ҚАДРИЯТЛАР

Нодира Шарипова -
НавДПи “Миллий ғоя; маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими” кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада халқ оғзаки ижодига мансуб достонларда акс этган етакчи ғоялар туркий халқлар учун муштарак бўлган қадриятлар сифатида тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: ижтимоий идеаллар, мифология, лирика, қўшиқ, лапар, халқ оғзаки ижоди.

В УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ ТУРЕЦКОГО НАРОДА ОБЩИЕ ЦЕННОСТИ

Аннотация: В статье исследуются ведущие идеи, отраженные в былинах, относящихся к народному искусству, как общеценные ценности для тюркских народов.

Ключевые слова: общественные идеалы, мифология, лирика, песня, лапар, фольклор.

IN THE ORAL CREATION OF THE TURKISH PEOPLE SHARED VALUES

Annotation: In the article, the leading ideas reflected in the epics belonging to the folk art are researched as a common value for the Turkic peoples.

Key words: social ideals, mythology, lyric, song, lapar, folklore.

Туркий халқлар оғзаки ижодининг кўплаб жанрларида миллий эрк ва ватан ҳимояси учун жонни аямаслик, ўзаро бирлик, жипслик ғоялари энг муҳим қадрият сифатида ифодаланган. Хусусан, «Алпомиш», «Гўрўғли», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» эпик достонлари, Тўмарис, Муқанна, Широқ ҳақидаги ривоятлар, адабий меросимизнинг бошқа намуналарида маънавий қадриятларимизнинг бирламчи фундаментал асослари акс этган. Мазкур манбаларда ота-боболаримизнинг энг улуғ орзу ва мақсадлари, ишонч ва умидлари муҳрланиб қолган. Зотан, халқнинг маънавий меросида машъаладек порлаб турган ғоялар биз шундай эрксевар, матонатли, меҳнаткаш ва бағрикенг халқнинг давомчи ворисларимиз деган ишончни мустаҳкамлайди.

Халқ орзу-интилишлари, ижтимоий ва маънавий идеалларини акс эттиришда қадимийлиги, ижтимоий-ғоявий аҳамияти, кенг тарқалиши, таъсирчанлиги жиҳатидан оғзаки ижод намуналари алоҳида ажралиб туради. Бу мифологияга ҳам, эртак ва достонларга ҳам, мақол ва нақлларга ҳам хос. Албатта, халқ оғзаки ижоди жанрларининг маънавий қадриятларни ифодалаш ва акс эттириш имкониятлари бир хил эмас. Лирик жанрларда (қўшиқ, лапар ва ҳоказо) кўпроқ эстетик ва баъзи бир ахлоқий қадриятлар ўз аксини топган бўлса, қаҳрамонлик эпосларида ўз замонаси қадриятларининг бутун ранг-баранглиги қамраб олинади. Чунки қаҳрамонлик эпосида эстетик қарашлар билан бир қаторда ахлоқий, ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, иқтисодий, ҳарбий, этник, маиший ва бошқа турли муносабатлар, қарашлар, баҳолар, мезонлар нисбатан кенг ва батафсил ифодаланиши мумкин.

Қаҳрамонлик эпослари вужудга келиши маълум тарихий даврда уруғ ва қабилаларнинг, элатларнинг бирлашуви жараёнида ўзлигини, ўз манфаатларини англаш даражаси ўсиши ва умумий ёвга қарши курашда бирлашиши билан боғлиқ.

Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпосига мансуб «Алпомиш», «Гўрўғли», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» каби туркум достонларнинг ҳар бири юксак даражада миллий хусусиятларга эга бўлиши билан бирга умуминсоний, жаҳон аҳамиятига эга бўлган мазмунни ифодалаши билан ҳам ажралиб туради. Мазкур достонларнинг жаҳон адабиётининг тенгсиз намуналари қаторида эътироф этилиши ҳам бежиз эмас.

Халқимизнинг маънавий ёдгорлиги бўлмиш достонларнинг ўзига хос хусусиятларидан бири уларнинг туркумларга ва турли вариантларга эга бўлишидадир. Бунинг объектив сабабларидан бири, албатта, халқ достонларининг кўпчилик жамоа орасида бахшилар томонидан асрлар давомида куйланиши, уларнинг ўз даври ва тингловчилари (халқи) талабларини, эҳтиёжларини тўлароқ акс эттиришга уриниши, жамият ва халқнинг долзарб талаблари билан боғлиқдир. Айни шу жиҳат аждодлар маънавий меросини бирлаштириб турувчи даъватлар, идеаллар, орзу-ниятларда ягона мантиқий йўналишни тақозо этарди.

Ёв устидан ғалаба қозониб, хавфни бартараф этувчи, золимлар жазосини берувчи, халқни бирлаштириб адолат ўрнатувчи, чўлларни обод қилувчи қаҳрамон, фаровон ҳаёт, обод юрт, озодлик, тенглик, адолат, мардлик, оқибатлилик, элпарварлик, жасорат тимсоли бўлган достон қаҳрамонлари не-не истилочи мустамлакачилар зулмини енгишда, ўзликни сақлаб қолишда маънавий-руҳий мадад бўлиб келган. Қанчадан-қанча аждодлар учун маънавий идеал вазифасини ўтаган.

«Гўрўғли» достонида Гўрўғли от танлаш ёки зот танлаш дилеммасига дуч келади. Агар от танласа, юртни босқинчилардан (Райхон-арабдан) озод қилиш имконига эга бўлади, аммо фарзанд кўрмайди, зоти Гўрўғлининг ўзида тугайди. Агар зот танласа, ақлли, жасур фарзандлар кўради, авлодлари машҳур кишилар бўлиб етишади. Аммо юрти, халқи қарамликда хўрланиб яшайди.

Ёв отлари маҳаллий отларга нисбатан чопқир, чўл-саҳрога чидамли эди. Истилочиларни енгиш учун уларникидан қолишмайдиган чопқир ва чидамли отлар зарур эди. Эл-юрт манфаатини ўз манфаатидан устун қўйган Гўрўғли ҳеч иккиланмасдан отни танлайди.

Гўрўғлининг онгли, эркин танлови, мардлиги, иродаси, юрт озодлиги учун курашга ўзини тўлиқ бағишлаши бугунги кунда ҳам юксак маънавий жасорат сифатида қадрлидир. Уни шубҳасиз, туронзамин халқлари маънавий илдизларидан биридир дейишга хақлимиз.

Ўзбек халқи орасида қадимги даврлардаёқ кенг тарқалган достонлардан бири «Алпомиш»дир. Илмий манбаларда мазкур достоннинг 100 дан ортиқ вариантлари борлиги қайд этилган. «Алпомиш» достони бизга ватанпарварлик фазилатларидан сабоқ беради. Одил ва ҳақгўй бўлишга, ўз юртимизни, оиламиз қўрғонини қўриқлашга, дўсту ёримизни, ор-номусимизни, ота-боболаримизнинг муқаддас мозорларини ҳар қандай тажовуздан ҳимоя қилишга ўргатади».[251]

Алоҳида эътироф этиш жоизки, халқ оғзаки ижодига мансуб қаҳрамонлик эпослари «Гўрўғли», «Алпомиш», «Рустамхон», «Кунтуғмиш» достонларида жасур, мард, мустаҳкам иродали ўғлонлар қаторида улардан қолишмайдиган мард ва матонатли хотин-қизлар кўпчиликни ташкил этади. Шу ўринда «Алпомиш» достонида Қалдирғоч акасига танбеҳ бергани, Ҳакимбек ҳам сингил танқиди ўринли эканлигини тан олиб тўғри йўлни танлаганида Қалдирғочнинг акасини кузатиб айтган сўзларини эслайлик:

«Остингда ирғиса араби тулпор,
Бу йўлда кўрмагин, акажон, хатар,
Сенинг дуогўйинг мендай муштипар.
Эл кўчириб Олатоғдан оширдим,
Улуғланиб остонанга бош урдим,
Боргин, эмикдошим, ҳаққа топширдим». [252]

«Алпомиш» достонида Барчиннинг «Султон суягини хўрламас» деган гап бор, сенинг эсонлигингда отам қалмоқ юртида хор бўлиб қоладими, деб айтган сўзлари:

«Муштипарман энди нима қилайин,
Бормасанг, жавоб бер, ўзим борайин,
Отамнинг ҳолидан хабар олайин,
Энди қолган умрим сарфлаб кўрайин.
Бу шоҳлик шавкатни нима қилайин,
Аёлман деб қандай қараб турайин,
Бел бойладим энди ўзим борайин.
Бормасанг, жавоб бер, давлатли хоним,
Мен қалмоқ борарман бундан, султоним».[253]

Достонларда нафақат ватанпарварлик, мардлик, шунингдек, юқорида таъкидлангани каби адолат, ахлоқ, ҳақиқат қадриятлари ҳам теран ва таъсирчан куйланади.

Халқ оғзаки ижодига мансуб эпослар қаҳрамонларининг ҳеч бирининг ҳаёт йўли силлиқ ёки роҳат фароғатда кечмайди. Улар бошига тушган мусибатлар қанчалик оғир. Баъзан ечим афсонавийликка асосланган. Аммо сўнмас ирода, эл-халқ озодлиги, ғурури, шаъни йўлида ўз жонини аямаслик асосий ечим эканлигини синчков ўқувчи англамаслиги мумкин эмас. Бу халқ қаҳрамонларининг деярли барчасига хос бўлиб, улар образига қудратли тарбиявий куч бағишлайди, маънавий идеалга айлантиради.

[251] Ислом Каримов. Юксак маънавият –енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият, 2008. - 32 б.
[252] Ўша асар. -76 б.
[253] Алпомиш. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. -183 б.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI

Sadinova Nilufar Usmanovna
Samarqand viloyati Paxtachi tumanidagi 32-maktab o‘qituvchisi
Rustamov Jo‘rabek Valijonovich
Kattaqo‘rg‘on shahar 1-maktab o‘qituvchisi

Ertangi kunimiz, hayotimizning farovonligi, zamondan orqada qolmaslik, taraqqiy topgan davlatlardan va xalqlardan kam bo‘lmaslik, bir so‘z bilan aytganda, ertangi istiqbolimiz, barcha ezgu niyatlarimizning amalga oshirilishida, birinchi navbatda, yosh avlodlarni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishga bog‘liqdir.

Aslida insoniyat sivilizatsiyasining ma’no – mazmuni ham komillik, shaxsni barkamol tarbiyalash orqali jamiyatni baxtli, saodatli qilishdan iboratdir. Komil inson g‘oyasi qadimdan xalqimizning ezgu orzusi bo‘lib kelgan. “ Avesto”da ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal komillikning uch belgisi sifatida ajratib ko‘rsatilganligi fikrimizning yorqin isbotidir.

Ayniqsa, komil inson g‘oyasi islom falsafasidan oziqlanib, to‘laqonli ma’no kasb etgan. Ibn Sino, Beruniy, Forobiy, A. Navoiy asarlarida, Imom Buxoriy hadislari -yu, B.Naqshbandning “ Dil ba yoru, dast ba kor” tamoyilida komil inson g‘oyasi takomilga erishdi. Xalqimiz, mutafakkir ajdodlarimiz ijodida ko‘plab komillik timsollari yaratildi. Shiroq, Alpomish, Farhod singari mardlik va jasurlikning badiiy timsollari, sohibqiron A.Temur va A. Navoiy singari xalqparvarlik, vatanparvarlik timsollari shular jumlasidandir.

Mustaqil O‘zbekiston taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi ustuvor ahamiyatga ega. Yosh avlodni ma’naviy va jismoniy jihatdan baquvvat qilib tarbiyalashga qaratilgan qonuniy hujjatlar, Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi asosida olib borilayotgan xayrli ishlar shu ulug‘ maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

Komil inson shunday insonki, u avvalo dinu – diyonatini mustahkam tutgan, muayyan g‘oya va maslakni e’tiqod darajasiga ko‘targan, o‘zidagi qusurlarni ilmu – ma’rifat ne’matlari asosida bartaraf eta olgan kishidir.

Bizda qadimdan ma’rifatli inson tushunchasi ancha keng ma’noni anglatgan.
Unutmasligimiz kerakki, ma’rifat xalqimiz, millatimiz qonidadir. An’anaviy sharqona qarashga ko‘ra, ma’rifatlilik – bilim, ma’naviyat va go‘zal axloq degani hamdir. Xalqimiz bilimli, komil inson deganda aynan shunday odamlarni ko‘z oldiga keltiradi. Milliy modelimizda komil inson g‘oyasiga, uni tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berilganligi ham ayni haqiqatdir. Xilma – xil g‘oyalar va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxslarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligini ta’minlaydigan kuch bu bag‘rikenglikdir.

Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o‘zining mashhur “Fozil odamlar shahri” asarida shunday yozadi: “ ...kishilarning birlashuvi orqaligina odam o‘z tabiati bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi”. Bunday hamjihatlik jamiyatda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolatini ta’minlaydi.

Jaloliddin Rumiy ta’limotida olamdagi barcha odamlar: uning ijtimoiy mavqei, jamiyatdagi o‘rni, shaxs sifatidagi xislatlaridan qat’iy nazar mohiyatan bir tushuncha atrofida, ya’ni, inson degan nom ostida birlashishlari va bahamjihat yashashlari lozimligi haqidagi g‘oyalarga keng o‘rin berilgan. O‘tmishga nazar tashlasak, insoniyat doim tinch – totuvlikka intilib kelganligiga amin bo‘lamiz. Bugungi kunda ham tinchlikni saqlash va mustahkamlash masalasi barcha xalqlar, elatlar uchun umumbashariy muammolardan biriga aylanib bormoqda.

Tinchlik va osoyishtalik yer yuzidagi barcha kishilarning asosiy maqsadiga aylansa, bunday hamjihatlik butun dunyoda tinchlik va totuvlikning, barqaror taraqqiyotning mustahkam kafolatini ta’minlaydi.

Dunyodagi barcha odamlar bir maqsad atrofida yagona bir oila bo‘lib birlashadilar. Bu maqsad odamzotning adolat, tinchlik va birodarlik, taraqqiyot hamda farovonlik g‘oyalariga tayanib, oliy insoniy tamoyillar sari ildam intilishidir.

Hozirgi davrda tolerantlik va hamjihatlik g‘oyasi jamiyatdagi barcha qatlam, ijtimoiy guruh va millatlarning ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi va mamlakatda tinchlik, barqarorlikni mustahkamlashning muhim omili hisoblanadi. Yer yuzidagi barcha millat va elatlar, ijtimoiy guruhlar o‘zaro tinchlik va totuvlik yo‘lida ijtimoiy hamkorlik qilishi lozimligi masalasi deyarli barcha Sharq mutafakkirlarining falsafiy – irfoniy qarashlarida yetakchi o‘rinni egallaydi. Forobiy, Bahouddin Naqshband, Rumiy ta’limotlariga ko‘ra, qarashlar rang – barangligi, g‘oyalar xilma – xilligi, so‘z va fikr erkinligi insoniyatni u qaerda yashashidash qat’iy nazar, o‘zaro yakdil qiluvchi va jipslashtiruvchi kuchdir. Chunki

bir predmet yoki hodisa atrofida turli qarashlar va fikrlar bildirilishi mumkin, ammo mohiyat o‘garmaydi. Erkinlikning o‘zi esa anglab olingan zaruratdir. Aslida yer yuzidagi barcha insonlarning dunyoqarashi, manfaatlari turlicha bo‘ladi, binobarin, ular bir – biridan farq qiladi. Lekin ular uchun umumiy maqsad – o‘zi istiqomat qilayotgan zaminining ravnaqi, tinchligi, farovonligi pirovard maqsad bo‘lishi bugungi jadal suratlarda rivojlanayotgan axborot asrida dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri.-T.:Yangi asr avlodi, 2016.-B.28-29.
2. Alisher Navoiy.To‘la asarlar to‘plami. Nasoyim-ul muhabbat.-T.:2013.-B.356.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. Kulliyot.-T.:Sharq, 1999.-B. 16.
4. Kaykovus. Qobusnoma.-T.:Istiqlol. 1994.-B.102.

JALOLIDDIN RUMIY IJTIMOIY-FALSAFIY QARASHLARIDA NAFS TARBIYASI MASALASI

Axmedov Sohib Saimovich –
Navoiy innovatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning nafs tarbiyasi haqidagi qarashlari xususida so‘z borarkan, unga ko‘ra inson o‘zidagi ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov orqali nafsni yoki fazilatga, yoki illatga aylantirishi mumkinligi haqidagi qarashlari tizimli tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: moddiy olam, ma’naviy olam, nafsi ammora, nafs illatlari.

ПРОБЛЕМА ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Аннотация: В данной статье, говоря о взглядах Джалалуддина Руми на самосовершенствование, по его словам, систематически анализируются его взгляды на то, что человек может превратить себя в добродетель или порок посредством свободной воли и морального выбора.

Ключевые слова: материальный мир, духовный мир, эгоизм, пороки похоти.

THE PROBLEM OF EDUCATIONAL EDUCATION IN THE SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS OF JALALIDDIN RUMI

Abstract: In this article, talking about Jalaluddin Rumi’s views on self-cultivation, according to him, his views that a person can turn the self into a virtue or a vice through free will and moral choice are systematically analyzed.

Key words: the material world, the spiritual world, the evil of the soul, the vices of the soul.

Inson ma’naviy va axloqiy kamolotini yuksaltirishga sabab bo‘luvchi bir qator omillar bo‘lgani kabi, inson kamolotining halokatiga sabab bo‘ladigan omillar ham mavjud. Mana shunday omillardan biri bu nafsi ammoradir. Nafs xususida barcha mutafakkirlar o‘z asarlarida fikr yuritishgan, insoniyatni o‘z nafslari quliga aylanib qolishlaridan saqlanishga da’vat etishgan. Buyuk mutafakkirlardan biri Mavlono Jaloliddin Rumiy ham o‘zining butun umri davomida nafs va ta’ma bilan jang qilgan, farzandlari, shogirdlari-yu muridlarini ham shunga da’vat etib yashagan allomai zamondir. Uning falsafiy qarashlaridagi yetakchi g‘oyalardan biri “O‘lmasdan burun o‘ling” hadisi bo‘lib, bu so‘z zamirida chuqur falsafiy ma’no mujassamlashgan. Rumiyga ko‘ra, inson o‘z nafsi va hirslarini jilovlashi, ularga qul bo‘lmasligi lozim. O‘z tabiatidagi mana shunday qusurlarni yenggan kishi Xoliqqa Haq yo‘l bilan intiladigan kishi hisoblanadi. Inson Haq huzuriga pok vujud bilan borishi darkor. Shuning uchun inson hayotligidayoq o‘zidagi nafsi ammora va turli ta’ma-hirslarni o‘ldirmog‘i, ya’ni, ularni xor qilmog‘i lozim. Tasavvuf falsafasida payg‘ambarimiz tomonidan aytilgan “O‘lmasdan burun o‘ling” hadisi yuksak bir axloqiy dasturga aylangan va Haqiqatga yetish bosqichining asosiy mezoni etib belgilangan. Tasavvufshunos olim I.Haqqul bu borada shunday deydi: “Payg‘ambarning o‘zi, ehtimol, bu ta’birning ma’nosini bilgan. Biroq boshqa kishilarga uni anglash dushvor, xususan, undagi o‘lim haqidagi ikkala so‘z ham to‘g‘ri ma’noda tadbiq etilgan bo‘lsa[254]”. “O‘lmasdan burun o‘ling” oyatida balki botiniy va zohiriy o‘lim xususida so‘z borayotgandir. Botiniy o‘limda inson o‘zidagi shahvatni,

[254] Haqqul I. Taqdir va tafakkur.-T.:Sharq, 2007.-B.44.

illatlarni o‘ldirishi, nafsi ammorani jilovlash orqali Haq vuslatiga muyassar bo‘lishi nazarda tutilsa, zohiriy o‘limda jon qushining jism atalmish qafasni tark etishi nazarda tutiladi. Rumiy shunday deydi: “Uning yoniga ikki “Men” sig‘maydi. Chunki sen ham “Men” deyapsan, U ham “Men” deyapti. Yo sen o‘l, yo U o‘lsinki, ikkilik qolmasin”[255], desa, yana bir o‘rinda Inson “O‘lmasdan burun o‘lmaguncha” Haqiqatni anglolmaydi deydi hamda ba’zan mas’umligimizga farishta havas qiladi, ba’zan johilligimizdan shayton qocharga joy topolmaydi deya insondagi illatlarni qalamga oladi.

Qur’oni Karimda nafs kalimasi 3 xil sifat bilan keladi: birinchisi-“Nafsi ammora”-(Yomonlik-gunohga) buyurguvchi nafs - “Men nafsimni oqlamayman. Chunki nafs - agar Parvardigorimning O‘zi rahm qilmasa-albatta barcha yomonliklarga buyurguvchidir[256]; ikkinchisi-Malomatgo‘y nafs; uchinchisi-Xotirjam-sokin nafs-Ey xotirjam, sokin jon; Sen (Alloh ato etgan ne’matlardan) rozi bo‘lgan (va Alloh taolo tomonidan sening amallaringdan) rozi bo‘lingan holda Parvardigoring (huzuri)ga qayt![257]”

Jaloliddin Rumiy o‘zining shoh asari hisoblanmish “Masnaviyi ma’naviy”da Qur’oni Karim oyatlari va hadisi shariflarda nafs xususidagi oyatlarga rumiyona sharhlar bitgan. Rumiyga ko‘ra, nafs ikki turli bo‘lib, birinchisi nafsi avval deyiladi va bunda insonning tabiiy iste’dodi hamda qobiliyati nazarda tutiladi. Ikkinchisi nafsi tugalda esa insonning hayotdagi istagi va mayllari nazarda tutiladi. Rumiy o‘z qarashlarida nafsni bir o‘rindi itga qiyoslab, nafs itingni o‘ldirib, o‘zingni bu dushmandan xalos et desa, yana bir o‘rinda nafsni eshakka mengzab, bu eshakni mahkam bog‘lab nazorat qil, u sening ehtiyojingdan ortiq bo‘lgan yukni tashishga intilmasin deya nasihat qiladi. Boshqa bir o‘rinda esa nafsni ho‘kizga qiyoslab, uni
tezroq o‘ldir va uning talablaridan ko‘nglingni xalos et deydi hamda shunday yozadi:

Va’dalar bergay senga ul basma-bas,
Va’dalarga so‘ng o‘zi bergay shikast.[258]

Darhaqiqat, nafs insonni halokat tuzog‘iga tushirguvchi riyodir. Sen nafsingga berilib, davlatu izzatga intilganing sari, Azroil ham senga yaqinlasha boshlaydi. Sen hech qachon nafs bilan do‘st bo‘lma, chunki u seni Allohdan uzoqlashtiradi. Nafs go‘zal ayolning tabassumi singari seni o‘ziga rom etadi, ammo bu tabassumning ortida pushaymonlik diyori bordir. Insonning umri bir lahzalik ko‘z ochib-yumguncha bo‘lsa-da, uning hirsi tog‘dan ham yuksakdir deya
Mavlono insonlarni hirsu-ta’madan ozod bo‘lmoqlikka da’vat etadi. U o‘zining “Masnaviyi ma’naviy” asarida shunday baytlarni keltiradi:

Tashqi yovni mahv etib, topdik omon,
Ichki yov qoldi, vale andin yomon.
Nafs do‘zaxdir va do‘zax – ajdaho,
Bahri daryoing anga bo‘lmas vaqo.
Yetti daryoni simirsa, ichsa ham,
Chanqovi qonmas, degaykim, menga kam.[259]

Rumiyning fikricha, inson tug‘ilgan onidan boshlab uning tabiatida nafs paydo bo‘ladi, zero, insonning o‘zi ham shahvoniy nafs mahsulidir. Inson ulg‘aygani sari, undagi nafs xohishlari ham ulg‘ayib boraverdi. Agar inson nafsiga hokimlik qilsa, nafs fazilatga aylanib, uni ezgu ishlarga da’vat etadi, aksincha, nafsi nsonga hokimlik qilsa,u illatga aylanib, uni har qadamida jahannamga yaqinlashtiradi. Shuning uchun, deydi Rumiy, sen nafsingga mot bo‘lma, aksincha, uni mot qilmog‘ing xayrlidir. Qush o‘z nafsi tufayli qafasga tushadi, baliq o‘z nafsi
tufayli qarmoqqa tushadi, inson o‘z nafsi tufayli yuz qarolikka uchraydi. Rumiyning ta’kidlashicha, insonning nafsi ho‘kizni da’vo qilgan xunxorga o‘xshar, o‘sha ho‘kizning boshini kesib, uni mag‘lub etgan narsa esa aqldir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Jaloliddin Rumiy asarlaridagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga oid g‘oyalar VIII asrdan buyon o‘z ahamiyatini yo‘qotmay, insonlarni sog‘lom fikrlashga va axloqiy kamolotga da’vat etib kelmoqda. Tasavvufshunos olim N.Komilov ta’biri bilan aytganda: “Ma’naviy madad izlayotgan insoniyat uchun Mavlono Rumiy o‘z asarlari bilan “mana ma’naviyat” deb javob berib, qalblarga quvvat va qudrat bag‘ishlab turibdi”.[260]

[255] Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir.-T.:Yangi asr avlodi, 2013.-B.37.
[256] Qur'oni Karim. Yusuf surasi, 12:53.
[257] Qur'oni Karim. Val-fajr surasi, 89:27, 89:28.
[258] Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy.-T.:MERIYUS,2010.2-daftar.-B.196.
[259] Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy.-T.:MERIYUS, 2010. 1-daftar.-B.49.
[260] Komilov N. Tafakkur karvonlari.-T.:Sharq. 2011.-B.191.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadir.-T.:Yangi asr avlodi, 2013.-B.37.
2. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy.-T.:MERIYUS,2010.2-daftar.-B.196.
3. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy.-T.:MERIYUS, 2010. 1-daftar.-B.49.
4. Komilov N. Tafakkur karvonlari.-T.:Sharq. 2011.-B.191.
5. Qur'oni Karim. Yusuf surasi, 12:53.
6. Qur'oni Karim. Val-fajr surasi, 89:27, 89:28.
7. Haqqul I. Taqdir va tafakkur.-T.:Sharq, 2007.-B.44.

JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA AXLOQ KATEGORIYASINING MAZMUN-MOHIYATI

Mirzayeva Nigina Olimovna –
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
mirzayeva.nigina@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning ijtimoi-falsafiy ta'limotida axloq kategoriyasi va uning farzand tarbiyasida, oilaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, tarbiya, mas'uliyat, ishonch, mehr-muhabbat, sabr, samimiylik.

СОДЕРЖАНИЕ ЭТИЧЕСКОЙ КАТЕГОРИИ В РИМСКОЙ ФИЛОСОФИИ ДЖАЛАЛИДДИНА

Аннотация: В данной статье научно и теоретически анализируется категория нравственности в социально-философском учении Джалалуддина Руми и ее значение в воспитании детей и обеспечении стабильности семьи.

Ключевые слова: семья, ребенок, воспитание, ответственность, доверие, любовь, терпение, искренность.

THE CONTENT OF THE ETHICAL CATEGORY IN THE ROMAN PHILOSOPHY OF JALALIDDIN

Abstract: In this article, the category of morality in the socio-philosophical teaching of Jalaluddin Rumi and its importance in child rearing and ensuring family stability are scientifically and theoretically analyzed.

Key words: family, child, education, responsibility, trust, love, patience, sincerity.

Buyuk mutasavvif Jaloliddin Rumiyning falsafiy-irfoniy qarashlari, bashariyatni komillikka, yetuklikka da'vat etuvchi altruistik g'oyalari o'sib kelayotgan yosh avlodlarni tarbiyalashda, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarning tadrijiyligi va taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida turfa mazmundagi hikoyatlaru rivoyatlar keltirilgan va ular muayyan bir mavzuga jamlangan, bu mavzu esa Axloqdir. Bu asarda axloq hamda tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan va asarning bosh mavzusiga aylantirilgan. Ushbu asarda me'yor kategoriyasiga ham salmoqli o'rin ajratadi va tarozining ikki pallasini bir xil muvozanatda saqlamog'ing uchun me'yorni qo'ldan boy berma, aks holda, muvozanat buziladi deydi. Rumiyga ko'ra, insondagi axloqiy fazilatlarda ham me'yor bo'lmog'i zarur. Hatto, farzandingga mehr va e'tiborda ulashishda ham me'yorga rioya etmoq lozimdir. Agar farzandingga bo'lgan mehr va e'tiboring me'yor chegarasidan oshsa, bu holda tarbiya jarayonida noqislik paydo bo'lishi tabiiy. Oilaviy munosabatlarda ham er-xotin me'yorga e'tibor qaratmog'i, o'z o'rnini bilmog'i lozim. Agar tomonlardan birining hatti-harakatlarida me'yordan oshish holati kuzatiladigan bo'lsa, bunday holda oilaviy munosabatlarga darz ketadi. Xuddi shunday, pir-muridlik, ustoz-shogirdlik masalalarida ham ikki tomon o'z me'yorini, haddini bilmog'i lozim. Agar ustoz o'z shogirdiga haddan ortiq talab qo'ysa yoki ilm olish borasida ham uning imkoniyati darajasidan ortig'ini talab qilsa, bu holda ular o'rtasida me'yor buzilishi hodisasi sodir bo'ladi. Oqibatda esa ularda ichki ziddiyat va bir-biridan uzoqlashish istagi bosh ko'taradi, deydi Mavlono. Mavlono shogirdlarining barchasini ma'lum bir kasb-hunarni egallashga da'vat etadi va bu orqali o'zining akmeologik qarashlarini ham shakllantiradi. Unga

murid tushganlarning barchasini ma’lum bir hunari bor edi. Ya’ni, ular qo‘l mehnati bilan kun ko‘rishardi. “Bir luqma”, “Bir xirqa” deya tavakkulga bo‘yin egib, xalqqa yuk bo‘lishni istashmasdi. Bu dunyoyu oxirat uchun mardlarcha mehnat va ibodat qilib, durust inson bo‘lmoq edi ularning asl maqsadi. Arastuning fikricha: “Aslida har qanday nohaq hatti-harakatlar, madaniy buzuqlikdan, axloqsizlikdan kelib chiqadi. Ba’zan eng ahamiyatsiz mayda-chuyda nojo‘ya ishlar, qilmishlar ham agar ma’naviy jihatdan qaralsa, eng katta jinoyat hisoblanishi mumkin” [1.-B.254.]. Pifagor esa: “Odamlar! Eng avvalo ezgu axloqqa ega bo‘lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir”, desa, qadimgi Xitoy faylasufi Syun Szi: “Chaqaloqlar hamma yerda bir xil yig‘lashadi. Katta bo‘lganlarida esa turli qiliqlar qilishadi. Bu - tarbiyaning oqibati”, deydi. Olimat ul-Banot esa: “Ota-onalar qo‘lida bolalar aziz omonatdirlar. Shuning uchun ularni go‘zal tarbiya etmoq, yaxshi xulqlarga o‘rgatmoq va ko‘rkam odatlarni tushuntirmoq lozim bo‘ladi. Tarbiya ila bir bolani oltin etmoqlik ham mumkin, tuproq ham qilmoq mumkin” [4.-B.18.], - deya ta’kidlaydi.

Jaloliddin Rumiyning axloqiy qadriyatlarga oid qarashlarida ota-onaning mukarramligi, oilaning muqaddasligi masalalariga ham keng to‘xtalib o‘tilgan. U insonning buyuklik darajasini uni qanchalar asl xonadonda tavallud topganiga qarab aniqlab bo‘lmaydi, ammo insonni so‘nggi manziliga kuzatish darajasiga qarab uning kimligini tasavvur etish mumkin deya insoniylik xususiyatlari xususida ham fikr yuritadi. U otalik burchi haqida so‘zlarkan, shunday deydi: “Bir kishi o‘g‘lini sevib erkalarkan, otalik, oqibatlilik, vafo, marhamat, shafqat kabi tuyg‘ularni xayoliga keltirmasa-da, bularning barchasi uning mehridan pinhondir” [3.-B.228.], deya nasihat qiladi. Onaning buyukligi, mukarramligi xususida Abdurahmon Jomiy: “Men onamni nega sevmayki, u meni bir muddat o‘z jismida, so‘ng uzun hayot quchog‘ida va o‘lgunga qadar qalbining shafqat xonasida tashigandir. Unga hurmatsizlik qilishdan ham yomonroq narsa bo‘lishi mumkinmi?” desa, Bahovuddin Naqshband: “Bizning qabrimizni ziyorat qilgani kelganlar oldin onamizning qabrini ziyorat qilsinlar”, - deya vasiyat qilgan ekan. Abulboqi Go‘lpinarli esa: “Onalar Yaratuvchining marhamatidan eng ko‘p nasiba olgan zotlardir”[2.-B.206.], - deya onalarga bo‘lgan ehtiromini izhor etadi.

Aslini olganda farzand tarbiyasida ko‘proq ayollar mas’ul bo‘ladi, shunday ekan, u qanchalik bilimli, hunarli hamda zukko bo‘lsa, o‘sha oilada ulg‘ayayotgan farzandlar ham ma’nan yetuk bo‘lib kamolga yetadi. Arab olimasi Olimat ul-Banot o‘zining mashhur “Muosharat odobi” kitobida bu borada shunday yozadi: “Dunyoda mavjud bo‘lgan insonlarning yarmi xotunlardir. Oilaning baxtu saodati ham xotunlarning aqlli-yu ilmli bo‘lmoqlariga bog‘lanmishdir. Xotunlar yaxshi tarbiyali bolalarni yetishtirurlar. Ularning tarbiyalari orqali dunyoda ulug‘ zotlar yetishib chiqishi muqarrardir.

Agar xotun o‘qigan bo‘lsa, o‘zining kim ekanligini, vazifasi nimadan iborat ekanligini shak-shubhasiz biladi. Bolalarini esa go‘zal tarbiya qiladi, eri bilan yaxshi muomalada bo‘ladi va nihoyat Alloh Taoloning amriga muvofiq hayot kechiradi. Va shu sababli o‘zi ham, eri ham, bolalari ham dunyo va oxiratda masrur bo‘ladi”. Ayol kishi o‘zi istagan va qiziqqan soha bo‘yicha tahsil olishi, kasb-hunar egallashi hamda jamiyatning ravnaqiga o‘zining munosib hissasini qo‘shmog‘i lozim.

Adabiyotlar

1. Arastu. Axloqi Kabir. – T.:Yangi asr avlodi, 2015. – B.254.
2. Go‘lpinarli A. Masnaviy bog‘chasidan bir ko‘za suv. – M.:SAD, 2010. – B.206.
3. Jaloliddin Rumiy. Hikmatlar. – T.:Sharq, 2008. – B.228.
4. Olimat ul-Banot. Muosharat odobi. – T.:Mehnat, 1991. – B.18.

IS’HOQXON TO‘RA IBRATNING MA’RIFATPARVARLIK G‘OYALARI

Shaxnazarova Mexrigul Xusanovna -
Navoiy Abu Ali Ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jaholatga faqat bilim bilan barham berish mumkinligi hamda millatni taraqqiyot yo‘liga olib chiqishda ilm ahlining konstruktiv vazifalari Is’hoqxon to‘ra Ibrat asarlarida qat’iy tartib asosida ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ilm, jaholat, ma’rifat, harakat, taraqqiyot, axloq, odob, zamon, nodonlik, illat, nafs, yolg‘onchilik.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ ИСХАКХАН ТУРА ИБРАТА

Аннотация: В данной статье невежество можно искоренить только знанием, а также показаны созидательные задачи людей знания по выводу нации на путь развития на основе строгого порядка в произведениях Исхак-хана Тора Ибрата.

Ключевые слова: знание, невежество, просвещение, движение, прогресс, мораль, нравы, время, невежество, порок, похоть, обман.

EDUCATIONAL IDEAS OF ISHAKHAN TURA IBRATA

Abstract: In this article, ignorance can be eradicated only by knowledge, and also shows the creative tasks of people of knowledge to lead the nation onto the path of development based on strict order in the works of Ishak Khan Tor Ibrat.

Key words: knowledge, ignorance, enlightenment, movement, progress, morality, morals, time, ignorance, vice, lust, deception.

Vatan taraqqiyoti yo‘lida fidokorona ibrat namunasini ko‘rsatgan ma’rifatparvar olim, Sharq va G‘arb tillari bilimdoni, zullisonayn ijodkor Is’hoqxon to‘ra Ibratning nomini abadiylashtirish, uning izdoshlarini yetishtirish, iste’dodli yoshlarni kashf etish va qobiliyatlarini keng namoyon qilishlari uchun keng shart-sharoit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 sentyabrdagi 698-sonli Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida “Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanida “Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatini” butun o‘qish davrida a’lo baholarga o‘qigan bitiruvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tavsiyasiga asosan, Davlat komissiyasi qarori bilan oliy ta’lim muassasalari bakalavriat ta’lim yo‘nalishining xorijiy til va adabiyoti, filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishlariga tanlovdan tashqari test sinovlarisiz, kasbiy (ijodiy) imtihonlarsiz qo‘shimcha davlat grantlari asosida o‘qishga qabul qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat o‘zini faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va publitsist, pedagog va sayyoh, milliy uyg‘onish davrining mashhur islohotchisi sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaatlariga hamda uning istiqloliga bag‘ishladi. O‘zining falsafiy qarashlari, diniy-ma’rifiy g‘oyalari Sharq va G‘arb ilm-fani, madaniyati, san’ati bilan yaqindan tanishgan, yurtimizga ilg‘or madaniyat va texnika yangiliklarini olib kirgan ma’rifatparvar buyuk olim Is’hoqxon to‘ra Ibratdir. Shu bois uning boy madaniy-ma’rifiy, ilmiy-badiiy merosi nafaqat mamlakatimizda, balki dunyo hamjamiyatda ham keng o‘rganilmoqda.

Turkistonday olis, chekka qishloqda tug‘ilib o‘sgan bu insonni o‘z davri uchun g‘aroyib taqdir egasi deb hisoblash mumkin: 25 yoshida hajga safarga chiqib ketgan o‘smir to‘qqiz yil davomida butun dunyoni kezadi, Yaqin Sharqni, Usmonli Saltanatini, Misrni, Yevropani Eronni ko‘radi. To‘qqiz yillik sarguzashtlardan so‘ng u 34 yoshli ayni kuchga to‘lgan bo‘z yigit bo‘lib qishlog‘iga qaytadi. To‘qqiz yil ichida butun dunyoni kezib chiqib, turfa davlatlarni, xalqlarni, ma’daniyatlarni ko‘rgan, dunyoning eng yirik kutubxonalaridan bo‘lgan, Yevropa va Osiyo tillarini eshitgan va o‘zlashtirgan inson u paytlari Turkiston tugul umummadaniyat olami uchun ham kamyob hodisa edi. 150 yil oldin Farg‘ona vodiysining bir chetida G‘arbning markaziy shaharlarida yashagan, yigirmata tilni u yoki bu darajada biladigan, tilshunoslik va tarixchilikni o‘z davrining eng ilg‘or olimlari darajasida biladigan insonni uchratish qishlog‘idan nariga kamdan-kam chiqadigan sodda mahalliy aholigina emas, ruslarni ham hayratlantirar edi. Ibrat tom ma’noda bugungi avlodlarga ibrat bo‘la oladigan tarixiy
shaxsdir.

Ibrat maktab va madrasada ilm olibgina hunarga ega bo‘lish, ilm yo‘qligi uchun hayot doim qiyinchilikda o‘tishi, agar rohatda yashamoqchi bo‘lsang yosh avlodni ilm olishlari, hunar egallashlari lozimligi haqida Qur’on Karim oyatlari orqali asoslab bergan. Muallif xalqga Alloh sizlarga yengillikni istaydi, sizlarga og‘ir bo‘lishini istamasligini ilmu-hunar, fan-texnika taraqqiyot zamonida ojiz bo‘lib bir chekkada o‘tirmasdan torfikrlilar nima deyishsa ham o‘qing, kasb-hunar egallash uchun harakat qilish kerakligi va jamiyatda yuz berayotgan yangiliklar bilan hamnafas bo‘lish, ijtimoiy hayotda faol bo‘lishga xalqni da’vat etib borgan.

Is’hoqxon to‘ra Ibrat yoshi ulug‘ insonlarga har kuni vaqtini choyxona, do‘konda o‘tirib choy ichib g‘iybat qilmasdan kitob yoki mas’ala o‘qib, ijtimo‘ qilsalar, hasana bo‘lsa kerak edi deya tanbeh berib o‘tgan. Gap sotib bekor o‘tirib hech bir hunar egallamaganlarga payg‘ambar va avliyolar ham kasb-hunar egallashgani, agar hech bir hunarni egallamasangiz nonga ham muhtoj bo‘lib qolish mumkinligi haqida nasihat qilgan. “Mezon uz-zamon” asarining yettinchi mezonida zamon bilan doimo hamnafas bo‘lib, zamon yangiliklaridan orqada qolmay ilm fan yutuqlaridan orqada qolmasdan ilmga intilish lozimligini she’riy misralar orqali qayd etilgan.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1.Yo‘lchiev Q. Is’hoqxon To‘ra Ibrat o‘quv metodik qo‘llanma. – Farg‘ona.: O‘qituvchi, 2018. 15-16-betlar.
2.Is’hoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. Mezon uz-zamon. –T.: Ma’naviyat, 2005.
3.www.jadid.uz Ibrat.

YOSHLAR TARBIYASIDA TARIXIY-MADANIY MEROSNING AKSIOLOGIK GNESEOLOGIK ASOSLARI

Rasulov Rustambek Odilovich
Universityof management and future technologies
Gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: rustamrasulov07081995@gmail.com
tel: +998942220708

Annotatsiya: Maqolada yoshlar tarbiyasi, Yangi O‘zbekiston yoshlar bilan ishlash tizimida amalga oshirilgan ishlar, asrlar davomida shakllanib kelayotgan yoshlar tarbiyasining tarixiy va madaniy merosning aksiologik va gneseologik jihatdan tahlil qilib berilgan. Shuningdek, yoshlarni barkamol, yetuk qilib tarbiyalashda, ma’naviy immunitetini mustahkamlashda, tafakkurining teran uyg‘onishida, o‘tgan tuzumdan meros bo‘lib qolgan ijtimoiy illatlardan xoli tarbiyalashda milliy falsafamizning o‘rni ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Aksiologiya, gneseologiya, g‘oya, milliy g‘oya, ma’naviy immunitet, yoshlar bilan ishlash, ijtimoiy-falsafiy tafakkur.

АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ ГНЕСЕОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСТОРИКО-КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье дается аксиологический и гнесеологический анализ исторического и культурного наследия воспитания молодежи, работы, проводимой в новой системе работы с молодежью Узбекистана, формирующейся на протяжении веков. Также раскрывается роль нашей национальной философии в воспитании молодежи гармонично, зрело, в укреплении ее духовного иммунитета, в глубоком пробуждении ее мышления, в освобождении от социальных пороков, унаследованных от прошлого строя.

Ключевые слова: аксиология, гнесиология, идея, национальная идея, духовный иммунитет, работа с молодежью, социально-философское мышление.

AXIOLOGICAL GNESEOLOGICAL FOUNDATIONS OF HISTORICAL-CULTURAL HERITAGE IN YOUTH EDUCATION

Annotation: The article provides an axiological and gneseological analysis of youth education, work carried out in the new Uzbekistan Youth Work System, Historical and cultural heritage of youth education, which has been taking shape for centuries. The role of our national philosophy is also revealed in educating young people competently, mature, strengthening their spiritual immunity, the teran awakening of their thinking, free from social vices inherited from the past system.

Keywords: Axiology, gneseology, idea, national idea, spiritual immunity, work with young people, socio-philosophical thinking.

O‘zbekistonda ta’lim va tarbiyaini tadrijiy rivojlanish jarayoni yosh avlodning tafakkur tarzini shakllantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Bu yoshlar muammolarini o‘rganish bilan bog‘liq bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Yoshlar ijtimoiy reallik bo‘lib, ular yosh bilan bog‘liq psixologik xususiyatlar, ijtimoiylashuv modellari, ta’lim va tarbiya berishning sosiologik muammolari, iqtisodiy maqom xususiyatlari, hayotiy qadriyatlar va bir qator shunga o‘xshash jihatlar ham nazarda tutiladi. Bu jihatlarni inobatga olgan holda huquqiy demokratik va ta’lim va tarbiyai rivoji jarayonida kelgusi avlodning ijtimoiy- falsafiy tafakkuri shakllanishiga alohida e’tibor qaratish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidententi Sh.Mirziyoyevning fikricha, yosh avlodning fuqarolik pozisiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Eng muhimi, yoshlar bilan doimiy muloqot olib borish, ularning bandligini

ta’minlash, hayotda o‘z o‘rnini topishi, jamiyatning munosib a’zolariga aylanishi, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash vazifasi barchamizning kundalik faoliyatimiz mezoniga aylanib bormoqda.[1]

O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarish, yangilik, islohotlar yoshlar hayotiga ham ta’sir etmay qolmaydi. Shu bois yoshlar ijtimoiy hayotda yuz berayotgan voqyea va hodisalarni mustaqillik mafkurasi, teran tafakkur talablari asosida anglab olishlari va shularga asoslangan holda aqliy–jismoniy qobiliyatlari, ma’naviy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishlari zarur. Yoshlarda bunday ko‘nikma, bilimlarni shakllantirmasdan va ma’naviy barkamol qilib voyaga yetkazmasdan ko‘zlangan maqsadlarga erishish mumkin emas.

O‘zbekiston siyosiy tarixida xalqaro inson xuquqlari deklarasiyasi ifodasidan o‘rin olgan juda ko‘p erkinliklar, jumladan, so‘z va vijdon erkinligi, siyosiy va falsafiy qarashlar erkinligi davlat qonunlari bilan mustahkamlanib qo‘yilgan. Endilikda fuqarolarimiz ijtimoiy ongi sho‘rolar davridagi zanjirlardan xalos bo‘lib, tobora erkinlikka erishish imkoniyatlari yo‘li ochildi. Bu juda katta hayotiy ne’mat bo‘lib, kishilik jamiyatida muhim ahamiyatga egadir.

Yangicha tafakkur xususiyati fuqarolarimiz hayotida milliy va diniy qadriyatlarni e’zozlash shaxsning eng oliy fazilati hisoblanib, mana shu ulug‘ ma’naviy va huquqiy ne’matlar bugungi yoshlarning ijtimoiy kayfiyatiga hayotbaxsh ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan barkamol avlod taribiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi jihatlarimizni ular ongiga milliy falsafiy an’analarimiz orqali singdirish davlat dasturidagi asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ta’lim tizimining ma’naviy–axloqiy mazmunini oshirish, talaba–yoshlarga mustaqillik g‘oyalariga, yuksak ma’naviyat va insoniylikning milliy an’analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish, ularda yot g‘oya va mafkuralarga nisbatan immunitet va tanqidiy tafakkurni mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni olib borish vazifasi qo‘yilgan.

Mustaqillik davridan keyingi ijtimoiy-ma’naviy islohotlar markazida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifaga aylandi. Mamlakatimiz istiqboli, erkin va farovon hayot yaratish masalasi, O‘zbekistonning XXI asrdagi jahon hamjamiyatida tutadigan o‘rni va mavqyei yoshlarning qanday inson bo‘lib shakllanishiga bog‘liq. Yoshlar to‘g‘ri tarbiyalansa, ularning tafakkuri, ruhiy dunyosiga nechog‘lik milliy va umumbashariy qadriyatlar chuqur singdirilsa, barcha moddiy va ma’naviy ehtiyojlari o‘z vaqtida inobatga olinsa, davlatimiz va mamlakatimizning intellektual salohiyati shunchalik kuchayadi. Yoshlarning tabiatiga ko‘ra har narsaga qiziquvchan, yaxshi-yomonga ergashuvchan va turli ta’sirlarga beriluvchanligini inobatga olgan holda ularni mustaqillikni mustahkamlash, jonajon Vatan istiqbolini o‘ylovchi va shu yo‘lda astoydil ilm-fan, kasb-hunar egallashga, mehnat qilishga intiluvchi shaxslar etib tarbiyalash juda katta ijtimoiy muammo hisoblanadi. Bu muammoni hal etish yo‘llaridan biri yoshlarni birlashtirish, ularni mustaqillik mafkurasi va ideallari atrofida jipslashtirish va shakllantirish edi.

O‘tish davrida yoshlarning tafakkurini mustaqillik mafkurasi asosida shakllantirish oson kechmadi. Bu sohada keyingi yillarda jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan va tadrijiy tarzda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarishi bilan birga, boshqaruv ma’murlari va mulozimlarining ish uslublari, faoliyat yo‘nalishlari ham yangicha sifat va zamonaviy mazmun kasb eta boshladi.[2]

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning boy madaniy va ma’naviy merosini o‘rganish ham yangi milliy falsafiy tafakkur rivojlanishining xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli davlatimiz tashabbusi bilan qadriyatlar, urf-odatlar, avlodlar qoldirgan merosni o‘rganish va targ‘ib etish uchun keng yo‘l ochildi.

Shuningdek, yoshlarni barkamol, yetuk qilib tarbiyalashda, ma’naviy immunitetini mustahkamlashda, tafakkurining teran uyg‘onishida, o‘tgan tuzumdan meros bo‘lib qolgan ijtimoiy illatlardan xoli tarbiyalashda milliy falsafamizning o‘rni beqiyosdir. Bu muammolar yechimini topishda Abu Nasr Farobiyning milliy falsafiy merosimiz durdonalaridan biri hisoblangan “Madinatul-fozila” asariga murojaat qilamiz. Farobiy bu asarida “Fozillar shahrining ziddini johillar, benomuslar, ayriboshlovchilar, adashgan, zalolatdagi odamlar shahridir”[3], deb izohlaydi.

Johillar shahrining aholisi baxt-saodatga intilmasdan yashaydi, uning nimaligini bilmay o‘tadi, chunki jaholat hyech qachon baxt-saodatga olib kelmaydi. Jaholatdagi odamlar nazarida baxt, davlat bo‘lib ko‘rinadigan o‘tkinchi, yuzaki narsalar, mol-dunyo, jismoniy lazzatlar, hirsu shahvat, obro‘, amal, shon-shuhrat haqiqiy farovonlikdir. Shularning har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdagi maqsad, baxt-saodat bo‘lib ko‘rinadi. Zotan (moddiy – va ruhiy) ne’matlar uyg‘unlashgan paytda haqiqiy baxt-saodatga erishish muqarrardir.[4] Bular haqida to‘g‘ri fikr yuritish barkamol avlodning sog‘lom hayot tarziga intilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg‘ularini shakllantirishi, ma’naviy ehtiyojlarni qondirishi kabi jihatlarni takomillashtiradi.

Hozirgi davrda yoshlar tarbiyasida milliy falsafaning rolini ayniqsa, ma’naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirish, nafsni tiyish orqali komillik martabasiga erishish yo‘llariga yetkazish, fozillik xislatlarini

shakllantirish, benazirlik va himmatlilik g‘oyalari ruhiyatida tarbiyalanishda kuzatiladi. “Ey farzand,- deb insoniyatga qarata murojaat qiladi imom Al-G‘azzoliy, - ogoh bo‘l, amalsiz ilm telbalikdan boshqa narsa emasdir. Va lekin ilmsiz amal ham naf keltirmagay”. Demak, allomaning fikricha, ilm amal bilan e’tiborli, uningsiz telbalik, nodonlik, hayot yo‘lidan ozishdir. Al – G‘azzoliy davom etib, yanada yoshlarni ma’nan quvvatlaydi: “Ey farzand, ruhingni hurmat qil, nafsingga siniqlik bag‘ishla va taning hokimligini mahv et, o‘ldir! Ruh ulug‘ hodisakim, u faqat yaxshi amallarni hohlaydi, billoh, yaxshi amal qil, nafsing buyurgan yo‘lga yursang, muqarrar halok bo‘lasan”.[5]

Yosh avlodning go‘zal turmush tarzi, aql-zakovati, idroki, xullas, jismoniy va intellektual salohiyati muayyan ijtimoiy hayot va millatning tarixiy merosi natijasi sifatida qaror topishi muqarrar jarayon hisoblanadi. Ammo jismonan o‘sishi bilan tafakkur rivoji bir xil kechmaydi. Tafakkur rivoji ijtimoiy hodisa sifatida juda ko‘p va xilma-xil ta’sir, usul va vositalarni talab etadi. Unda yoshlarning hayot to‘g‘risidagi qarashlari tafakkur rivoji, fikr almashish, anglash, muloqotda bo‘lish, ijtimoiy faoliyat turlari orqali shakllanadi va rivojlanadi. Bilim, tafakkur shaxs kamolotining ijtimoiy mohiyati va aqliy samarasi bo‘lib, bu xususda mutafakkir Alisher Navoiy fikrini keltirish mumkin:

Har ishniki qilmish odamizod,

Tafakkur birla bilmish odamizod.[6]

Bu fikrlar chuqur mazmun va ma’noga ega bo‘lganligi uchun, oldimizda erkin fuqaro shaxsini shakllantirish, boshqacha aytganda, haq-huquqlarini yaxshi biluvchi, o‘z layoqatiga tayanuvchi, voqyea-hodisalarga nisbatan o‘z fikriga ega bo‘lgan, ayni paytda o‘zining shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtira oladigan har tomonlama rivojlangan kishilarni tarbiyalash mas’uliyati turadi.

Albatta, biz bu ish oila, bog‘cha, ta’lim tizimi darajasida makon va zamon mezonlarini inobatga olgan holda bajarilishi kerak. Shu maqsadda keyingi yillarda jamiyatdagi o‘zgarishlar munosabati bilan bolalar, o‘smirlar va yoshlar tarbiyasiga daxldor bo‘lgan madaniy-ma’rifiy muassasalar oldiga insonparvarlikni ulug‘lash masalasi, yoshlarni axloq-odobli qilib tarbiyalash vazifalari ustuvor masala qilib qo‘yiladi. Hozir yosh avlod tarbiyasi, ularni o‘tmish ajdodlarning eng taraqqiy etgan an’analari ruhida tarbiyalash dolzarb hisoblanib, bevosita madaniy-ma’rifiy, o‘quv-ilmiy va boshqa muassasalar, ta’bir joiz bo‘lsa, har bir vatanparvar fuqaro, oilaning kundalik hayotiy turmush tarziga aylanib bormoqda.[7]

Bu murakkab zamonda qat’iy hayotiy yo‘nalish va hayotiy strategiyalarini ishlab chiqish yoshlar ijtmimoiy moslashuvining zarur shartidir. Yoshlarimiz o‘tgan avlod to‘plagan barcha ijtimoiy yutuqlarni qanchalik tez o‘rganib, mehnat, fan, siyosiy faoliyatida amalga tatbiq qilishni o‘rgansa, shunchalik tez ijtimoiylashadi, ya’ni jamiyatga moslashadi. Shuning uchun ta’lim va tarbiya ijtimoiylashuvning yetakchi va hal qiluvchi negizidir. Tarbiyaning asosini ta’lim, ya’ni oldingi avlod tomonidan to‘plangan bilim va madaniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish jarayoni tashkil etadi.[8]

Inson axloqiy qiyofasining shakllanishida buyuk ajdodlarimiz milliy falsafiy merosining o‘rni beqiyos ekanligini yana bir bor ta’kidlagan holda, ularning purma’no hikmatlari, oliyjanob fazilatlari, saxovatpeshaligi, didaktik hikoyalari, dono maslahatlari va ular haqidagi ibratomuz rivoyatlar ta’lim-tarbiyaning bitmas-tuganmas manbai ekanligini ko‘ramiz. Buyuk ajdodlarimiz yashagan bu ko‘hna zaminda qadim-qadimdan hur fikr qadrlanganligi, fan va madaniyat, adabiyot va san’atning naqadar ravnaq topganini yaqqol ko‘rish mumkin. Ular qoldirgan ulkan ma’naviy meros, milliy falsafani yuksaltirish bilan bog‘liq an’analar tarixiy taraqqiyot jarayonida avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Bular albatta, o‘zbek falsafasining tarixiy asoslari mustahkam ekanligini ko‘rsatadi. Ana shu mustahkam poydevorimiz asosi bo‘lgan ma’naviy merosimiz barkamol avlod tarbiyasida bir qator ijobiy omillarni shakllantiradi:

-o‘zligini anglashda beqiyos xazina hisoblanadi;

-tarixiy xotira muayyan hayot, tuzum va tizim mohiyatini chuqur anglashga olib keladi;

-shaxs individualligi shakllanadi;

-ma’naviyati yuksak xalqning tarixi va ajdodlar merosini o‘rganishi shaxsning milliy mentalitetini mustahkamlaydi;

-milliy g‘urur, o‘z xalqi ma’naviyatidan faxrlanish, ajdodlar ruhi oldidagi qarzi, kelajak avlod oldidagi mas’uliyatini his qilishga chorlaydi;

-har bir shaxs ongi va tafakkurida kechadigan o‘zgarish, islohot va yangilanish, pirovard natijada, jamiyatning yangilanishi, o‘zgarishi, insonparvarlik va demokratik tamoyillarning mustahkamlanishiga olib keladi. Shu ma’noda, muayyan xalqning umumbashariy sivilizasiya bilan uyg‘unligini ta’minlash jarayoni mohiyatini anglashda milliy davlatchilik an’analari va unga xos milliy falsafani yaratishga alohida e’tibor talab qilinadi. Bu boradagi eng muhim masala falsafadagi milliylik, umuminsoniylikni ijodiy boyitish, muayyan xalqqa xos jihatlarini namoyon qilish orqali rivojlana borishini hisobga olish muhimdir.

Milliy falsafaning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rnini chuqur anglasak, uning vorisiylik tamoyili, milliy o‘zlikni anglashdagi roli teran namoyon bo‘ladi. Vorisiylik anglangan xatti-harakat, faoliyat, jamiyatni o‘zgartirishdagi intilishlar natijasi sifatida kishilar o‘rtasidagi aloqalarning ifodasidir. Vorisiylik ushbu aloqalardagi barcha ijobiy tajribalarni saqlash va shu tariqa ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlash uchun zarurdir.

Ayni paytda madaniy merosga o‘ta ehtiyotkorlik va e’tibor bilan yondashmoq lozim. Madaniy merosni asrab-avaylamoq, milliy ma’naviyatni rivojlantirishda foydalanmoq eng samarali yo‘ldir. Chunki madaniy merosda xalqimizning tarixi, hayotiy tajribasi, ming yillar davomida qo‘lga kiritgan yutuqlari mujassam. Madaniy meros avlodlar o‘rtasida vorisiylikni ta’minlochi ko‘prik hamdir. Madaniy meros tufayli avlodlar qadim o‘tmishdagi ajdodlar bilan o‘zaro muloqot shakllarini yaxshi o‘zlashtirishni yo‘lga qo‘yadilar.[9] Bu kabi muqaddas sanalgan madaniy va ma’naviy meros avlodlar tafakkur rivoji uchun mental ahamiyat kasb etib, keyingi asrlar silsilasiga ham o‘tadi.

Xalqimiz ijtimoiy-falsafiy tarixida milliy falsafasining ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy hayotdagi o‘rni va ahamiyatini anglash va o‘zlashtirish, farzandlarimizni ushbu qadriyat asosida tarbiyalab, voyaga yetkazish, shu bebaho boylikni asrab-avaylash imkoni yaratildi. Bu esa o‘z navbatida o‘zbek falsafasining boqiyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Buning uchun farzandlarimizga O‘zbekistonda kechayotgan yangilanish jarayonlari mohiyatini tushuntirish, milliy falsafiy merosimiz, urf-odatlarimiz, an’analarimizga mehr hissini uyg‘otish, yuksak ma’naviyat, aqlan ma’rifatga tenglashtirilgan teran ijtimoiy-falsafiy tafakkur ko‘nikmasi va malakalar ehtiyojini shakllantirish lozimdir. Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qilayotgan katta-katta rejalarimiz, dasturlarmiz amalga oshadi.[10]

Qat’iy metodologik tamoyilga asoslangan ushbu g‘oya barkamol avlod tarbiyasida, uning jamiyatdagi rolini va o‘rnini aniqlashda yetakchi asos hisoblanadi. Buning uchun yosh avlodning axloq qonun-qoidalaridan og‘ishmay bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirib, shular asosida kompetensiya uyg‘unligini shakllantirish zarurdir. “Biz,-deb ta’kidlaydi yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev.- farzandlarimizni har tamonlama barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning zamonaviy bilimlar bilan birga, xalq amaliy san’ati sirlarini ham puxta egallashi uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqdamiz. …Shu bilan birga, chinakam hunar sohibi-u kulol bo‘ladimi, kandakor yoki to‘quvchi bo‘ladimi, naqqosh yoki zargar bo‘ladimi – o‘z ishini a’lo darajada bajarish uchun juda ko‘p ilmlardan, avvalo, kimyo, biologiya, tibbiyot, fizika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlardan xabardor bo‘lishi, ularni amalda qo‘llay bilishi zarur”[11]. Bunda chuqur mazmunga ega ijtimoiy integrativ ta’lim nihoyatda muhim ekanligi nazarda tutilgan. Shu jihatdan olganda, kelajak avlodning tafakkurini bilim bilan boyitib, shu yo‘l orqali milliy falsafiy merosimizni qayta tiklash, uni xalqqa yetkazish, ma’naviy siyosatimizning poydevoriga aylantirish eng oliy maqsad hisoblanadi. Elim, yurtim deb, kelajakni o‘ylab zahmat chekkan, Vatan ozodligi yo‘lida kurashgan, millatimiz ravnaqi uchun umrini bag‘ishlagan, o‘zidan obod shaharu vohalar, betakror go‘zal yodgorliklar qoldirgan ajdodlarimiz mehnatini yuzaga chiqarish, ularni qadrlash, ruhi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish bugungi avlodning zimmasidagi eng katta vazifadir.

Har bir ijtimoiy tizimda yoshlar katta ijtimoiy kuch sifatida umummilliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishga intiladi va o‘z orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish uchun faoliyat olib boradi. Ayni chog‘da bunday yoshlar mantiqiy fikr yuritadigan, keng tafakkur egasi bo‘lib, ularning jamiyatda aniq maqsadga sari intilgan tarzda o‘z hayotiy strategiyasini to‘g‘ri yo‘naltira bilishi dolzarb masala sanaladi. Yosh avlodni buyuk maqsadlar istiqboli sari yetaklash maqsadida ular “...o‘rtasida mamlakatimiz boy tarixini, uning betakror madaniyatini va milliy qadriyatlarini keng targ‘ib etish, jahon ilm-fani va adabiyoti yutuqlarini yetkazish uchun zarur muhit va shart-sharoit yaratish zarur”[12]. Shuning uchun o‘tmish ajdodlarimizning tarixiy tajribalarini o‘rganish, ularning ibratli ishlaridan saboq olish, umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashimizni shakllantirish, millatning o‘zligini anglash eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Buyuk mutafakkirlarning ilmiy merosi va amaliy faoliyatlari nafaqat milliy qarashlarning tarixiy, nazariy ildizlarini tashkil etadi, balki hozirgi davrda ta’lim va tarbiyai qurish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar sohasida paydo bo‘layotgan ko‘plab muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari qoldirgan boy meros mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tashkil etishning ma’naviy- axloqiy manbalarini tashkil etadi. Qolaversa, Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi jamiyatni o‘rganish va uni takomillashtirishning uslubiyoti hamdir.

Xulosa qilib aytganda, buyuk ajdodlarimiz tafakkur durdonalarini o‘zida mujassam etgan, ularning beqiyos ilmu-idrokining mevasi bo‘lgan asarlari inson kamoloti va millatimiz ravnaqining asosi bo‘lib, xulqiy go‘zallik va aqliy barkamollik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Farzandlarini e’tiqodli, bilimli, o‘z yurt tarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosini asrashga o‘rgatish

oiladan, ota-ona o‘gitlaridan boshlanadi. Bu borada allomalarimiz merosi bugun ham ma’naviyatimizni boyitishga, barkamol avlodni tarbiyalashdek oliy maqsadga erishishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild.-T.: “O‘zbekiston”, 2018.-490 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston” nashriyoti. 2021, 82-bet
3. Farobiy. Fozil odamlar shahri. , T.: A.Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti1993.B.162.
4. O‘sha asar 162 bet Imom G‘azzoliy. Oxiratnoma. T.: “Yozuvchi” nashr, 1994, B.7-8.
5. Imom G‘azzoliy. Oxiratnoma. , T.: “Yozuvchi” nashr1994, B.7-8.
6. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. T., “Fan nashriyoti, 1988, B.122.
7. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma’naviyat. T.:Sharq, 2000.B.23.
8. Qayumov O‘.K. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi sharoitida A.J.Xolbekov - “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish Markazi, T.: 2011, 4 - bet.
9. Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. 1-kitob [Matn]. Ma’naviyat ontologiyasi fenomenologiyasi / T.: “Ma’naviyat”, 2018, B. 38 .
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 29 dekabr kuni milliy kino san’ati va kinoindustriya rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishida so‘zlagan nutqidan. Kun.Uz. 13:43/30.12.2017
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning birinchi Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimidagi nutqi 14.09.2019.
12. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi “Xalq so‘zi”gazetasi, 2017 yil 16 yanvar.

TURKIY XALQLAR MADANIYATI TARAQQIYOTIDA “MASNAVIYI MA’NAVIY” ASARINING AHAMIYATI

Axmedov Sohib Saimovich –
Navoiy innovatsiyalar universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mavlono Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub shoh asar “Masnaviyi ma’naviy”ning turkiy xalqlar madaniyati taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’siri xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: madaniy meros, ma’naviyat, madaniyat, axloq, komil inson, ruhiy barqarorlik, gumanizm.

ЗНАЧЕНИЕ ТРУДОВАНИЯ «МАСНАВИЙ МАЪНАВИ» В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ ТУРЕЦКОГО НАРОДА

Аннотация: В данной статье говорится о влиянии шедевра «Маснавии Манави», написанного Мауляной Джалалуддином Руми, на развитие культуры тюркских народов.

Ключевые слова: культурное наследие, духовность, культура, нравственность, совершенный человек, психическая устойчивость, гуманизм.

THE SIGNIFICANCE OF THE WORK OF “MASNAVYI MAANAVIY” IN THE DEVELOPMENT OF THE CULTURE OF THE TURKISH PEOPLE

Abstract: This article talks about the influence of the masterpiece “Masnaviyi Ma’navi” written by Maulana Jalaluddin Rumi on the development of the culture of the Turkic peoples.

Key words: cultural heritage, spirituality, culture, morality, perfect person, mental stability, humanism.

Mavlono Jaloliddin Rumiyning boy ilmiy-falsafiy merosiga bo‘lgan qiziqish va uni o‘rganishga bo‘lgan intilish kundan-kunga ortib bormoqda. Uning shoh asari hisoblanmish “Masnaviyi ma’naviy” 6 daftardan iborat bo‘lib, bu asarni YE.E.Bertels didaktik doston, T.Purnomdoriyon hamosiy (epik) she’rlar

majmuasi, R.Nikolson irfoniy kitob, A.Shimmel esa tasavvuf qomusi deb ta'riflashgan. Mavlaviylar bu kitobni "Mag'zi Qur'on"deb, hatto, bu asarni fors tilidagi Qur'on deya sharaflasalar, ba'zi tadqiqotchilar Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy"sini so'fiylar entsiklopediyasi deb yuksak bahoyladilar. Sulaymon Rahmonning qayd etishicha, olmon sharqshunos olimasi A.Shimmel "Masnaviyi ma'naviy"ni devorlari va shiftlari faqat mutaxassislar tushunadigan murakkab ko'fiy naqshu nigorlar bilan bezatilgan madrasaga, xususan, Qunyodagi vazir Qoratoy tomonidan Jaloliddin Rumiy uchun maxsus qurilgan va hozirgacha saqlanib qolgan Qoratoy madrasasi me'morchiligiga qiyoslagan. Akademik A.Krimskiy bu asar haqida: "Hech shubhasiz, "Masnaviyi ma'naviy" to'plamini tasavvufning she'riy qomusi deya atash mumkindirki, usiz tasavvufni anglash dushvordir[261]", deb ta'riflasa, turkiyalik rumiyshunos olim Usmon Nuriy Tupbosh shunday ta'riflaydi: ""Masnaviyi ma'naviy" hazrati Mavlononing Shams bilan kezgan ilohiy sayohatnomasining insonlar idrok qiladigan darajada yozgan bir lutfnomasidir. Shuningdek, "Masnaviyi ma'naviy" hazrati Mavlononing ko'ngil iztiroblaridan toshgan bir faryodnomadir"[262].

Jaloliddin Rumiy o'zining "Masnaviyi ma'naviy" asarida nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarining, balki, butun musulmon sharqining milliy mental qiyofasini va boy ilmiy tafakkurini namoyon etganligi bilan ham qadrlidir. Bu asar bilan yaqindan tanishgan va sinchiklab varaqlagan har qanday kishi asar muallifi uchun asosiy manba hamda uni ilhomlantirgan ilohiy ma'rifat chashmasi bo'lmish muqaddas Qur'oni Karim, hadisi shariflar ekanligini anglab yetadi. "Masnaviyi ma'naviy"dagi falsafiy g'oyalar inson ruhiyati dialektikasini kashf etadi. A.Shimmel ta'biri bilan aytganda: ""Masnaviyi ma'naviy" bu sirlar birlashuvi do'koni XIII asrda ma'lum bo'lgan deyarli barcha tasavvurlarga ega nazariyalarni o'z ichiga oldi. "Masnaviyi ma'naviy"ning 6-daftari uning vafotidan keyin sevikli o'g'li Sulton Valad tomonidan nihoyasiga yetkazildi. Jaloliddin Rumiy o'zi boshlagan so'zlarni o'zi tugatolmadi[263]".

Jaloliddin Rumiyning "Kotib-ul asror"i hisoblanmish Husomiddin Chalabiy bu asar yozilishi tarixi haqida shunday ma'lumotlarni qayd etgan: "...Masnaviyni yozarkan, qo'llariga qalam olmas edilar. Madrasada, Ilgin oromgohlarida, Qunyo hammomida, Miram bog'larida va boshqa yerlarda, qaerda xotiralariga kelsa so'ylar, faqir esa darhol yozardim. Hatto, yozishga ulgurmasdim. Ba'zan kecha-yu kunduz bir necha kun so'ylardilar. Ba'zan bir necha oylab shug'ullanmasdilar. Bir gal ikki yil ora berdilar. Bu davr ichida hech nima so'ylamadilar. Har jildning nihoyasida zarurat yuzasidan o'zlariga o'qib berardim. Ba'zan tahrir qilar, ba'zan shundoq qoldirar edilar[264]".

"Masnaviyi ma'naviy" o'z nomi bilan ma'naviy-ma'rifiy bilimlar, axloqiy-umuminsoniy qadriyatlar haqida ma'lumot beruvchi jamlanma, ma'nolar xazinasidir. Shaxs ma'naviyati, inson mohiyati, falsafiy antropologiya sohasining predmeti va ob'ekti aynan shu asarda o'z ifodasini topgan. "Masnaviyi ma'naviy" 25700 baytga yaqin ulkan asar bo'lib, an'anaviy Sharq dostonchiligi yo'lida yozilgan. Bu asarda muqaddas Qur'oni Karimga tez-tez murojaat qilib turiladi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, unda 760 o'rinda Qur'oni Karim oyatlardan aynan forsiyga tarjima qilinib keltirilgan. 745 holatda Payg'ambarimizning 703 hadislaridan foydalanilgan.[265]

Asarda keltirilgan ba'zi hikoyatlaru masallar davomiyligi ayrim o'rinlarda nihoyatda cho'zilib ketadi, ya'ni hikoyatlar ichida bir nechta kichik-kichik masallar ham keltirib o'tiladi. Bu holat esa o'quvchiga deduktiv xulosa chiqarish imkonini, ya'ni, umumiylikdan juz'iylikka qarab xulosa chiqarishga yordam beradi. Masalan, asarning birinchi daftaridagi "Ov hayvonlarining Tangriga tavakkul etib, sa'y-harakatni to'xtatdik degani"[266] nomli hikoyat keltiriladi. Ayni shu hikoyat ichida esa quyidagi masallar keltiriladi: "Bir kishining Azroilning nazariga duch kelib, undan qochgani", "Bir haqir pashshaning tushunchasi bayonida", "Hudhud va Sulaymon (a.s.) qissasi" va "Odam (a.s.) qissasi" kabilar shular jumlasidandir.

Jaloliddin Rumiy 1257 yildan to umrining oxirigacha o'z intellektual kuchini "Masnaviyi ma'naviy"ni yaratishga sarfladi. "Masnaviyi ma'naviy" go'yoki chiroyli do'konlar bilan jamlangan bozorga o'xshaydi. Bozordan barcha narsani topish mumkin bo'lgani kabi, "Masnaviyi ma'naviy" asari mutolaasi orqali biz o'z shuurimizdagi har qanday savolga javob topamiz. Asarda ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov masalalari asosiy o'rinni egallaydi. Asarning bu qadar shuhrat topishiga yana bir sabab esa, unda alloma o'zigacha yaratilgan Sharq va G'arb faylasuflarining Olam va Odam haqidagi falsafiy mushohadalarini sodda, ravon va xalqchil tilda barchaga birdek manzur bo'ladigan qilib tushuntira olganligidadir. "Masnaviyi

[261] Кримский А. История Персии, его литературы и дарвишеской теософии. Том III.-М.:1914.-стр.276.
[262] Usmon Nuriy Tupbosh. Masnaviy bog'chasidan bir ko'za suv.-M.:SAD, 2010.-B.193.
[263] Шиммель А. Мир исламского мистицизма.-М.:Садра, 2012.-стр.293.
[264] Under M. Mavlono.-T.,Jahon adabiyoti/2014. №1.-B.112.
[265] Sattoriy H. Rumiy o'tgan yo'l.-T.,Jahon adabiyoti/2007. № 10.-B.143.
[266] Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. - T.:MERIYUS, 2010.1-daftar.

ma’naviy” asari Jaloliddin Rumiy ilmiy merosining yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Chunki unda mutasavvifning ilmiy-irfoniy qarashlari mohirona mujassamlashtirilgan.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma’naviy. - T.:MERIYUS, 2010.1-daftar.
2. Кримский А. История Персии, его литературы и дарвишеской теософии. Том III.-М.:1914.-стр.276.
3. Usmon Nuriy Tupbosh. Masnaviy bog‘chasidan bir ko‘za suv.-M.:SAD, 2010.-B.193.
4. Under M. Mavlono.-T.„Jahon adabiyoti/2014. №1.-B.112.
5. Sattoriy H. Rumiy o‘tgan yo‘l.-T.„Jahon adabiyoti/2007. № 10.-B.143.
6. Шиммель А. Мир исламского мистицизма.-М.:Садра, 2012.-стр.293.

TASAVVUF VA MADANIY MEROS

Yo‘ldoshova Gulchehra Muxtorovna –
Navoiy viloyati, Karmana tumani 28-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan eng muhim vazifalardan biri yuksak ma’naviyatli yetuk intellektual salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Mazkur maqolada mana shunday maqsadlarni amalga oshirishda tasavvuf ta’limoti va madaniy merosning ahamiyati xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, haqiqat, komil inson, madaniyat, ziyolilik, ma’rifatparvarlik, insonparvarlik.

МИСТИЦИЗМ И КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ

Аннотация: Одной из важнейших задач, реализуемых в нашей стране, является воспитание личности с высоким нравственным и зрелым интеллектуальным потенциалом. В данной статье рассматривается значение суфизма и культурного наследия в достижении этих целей.

Ключевые слова: мистика, истина, совершенный человек, культура, интеллектуализм, просвещение, гуманизм.

MYSTICISM AND CULTURAL HERITAGE

Abstract: One of the most important tasks implemented in our country is the education of individuals with high moral and mature intellectual potential. This article discusses the importance of Sufism and cultural heritage in achieving these goals.

Key words: mysticism, truth, perfect man, culture, intellectualism, enlightenment, humanitarianism.

Mustaqillik tufayli bizning ma’naviy qadriyatlarimiz, o‘tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o‘zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, “progressiv-reaktsion” atalmish zo‘raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur’oni karim, hadisi shariflar birinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi, Nosiriddin Rabg‘uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa “sovet davrida” hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo‘liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari - Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg‘ularini uyg‘otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug‘vor mujassamasi o‘rnatilishi o‘zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o‘chmas yog‘du paydo qildi.

Ma’lumki, tasavvuf – islom olamida keng tarqalgan, o‘rta va yaqin sharq mamlakatlari madaniyati tarixida chuqur iz qoldirgan diniy-falsafiy va ma’rifiy oqimdir. U islom dini kirib borgan barcha sharq mamlakatlarida inson fikri-mushohadasi darajasida va jamiyat ma’naviy tafakkuriga bog‘liq holda turli suluklar shaklida rivojlangan, ijtimoiy-siyosiy hayotga, ilm-fan taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan.

Tasavvufning eng birinchi namoyandasi, rahnamosi – payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.) edilar. Ul zoti oliy insoniyatga “Go‘zal xulqlarni kamolga yetkazish ” uchun yuborilganlar. Demak, insoniyatga taqdim etilgan barcha dinlar, ularning oxirgisi va eng mukammali bo‘lmish islom shariat vositasida insonda go‘zal xulqni tarbiyalaydi. Tasavvuf esa tariqatlar vositasida ana shu go‘zal xulqni bosqichma-bosqich oliy kamolot

darajasiga yetkazadi. Barcha tasavvuf tariqatlari silsilalarining sarhalqasi payg‘ambarimiz ekanliklarining ma’nosi shundandir.

Shariat va tariqat o‘rtasidagi munosabat inson jismi va ongli hayoti o‘rtasidagi bog‘liqlikka o‘xshaydi. Iymon kalimasi til va quloq vositasida insonda faqat idrok qilinadigan ko‘ngil uyi borligi, uni bo‘m-bo‘sh qoldirmaslik lozimligidan ogoh etadi. Namoz esa inson jismoniy va ruhiy salomatligining garovi sifatida unga ko‘rkamlik, poklik nurini baxsh etadi. Xuddi shunday islomning keyingi uch rukni ham inson jismini illatlardan xalos etadi, qalbini va ruhini osoyishta qiladi. Ana shu darajaga yetgachgina tasavvuf yo‘liga qadam qo‘yish uchun ehtiyoj paydo bo‘ladi.

Tasavvuf haqida gapirganda, albatta, turkiy tasavvuf namoyandalari haqida to‘xtalib o‘tish lozim bo‘ladi. Ma’lumki, Alisher Navoiy o‘zining «Nasoyim ul-mahabba min shamoyim ul-futuvva» asarida turkiy tasavvuf shayxlari haqida batafsil ma’lumotlar bergan. Bu o‘rinda biz faqat jahon tasavvuf tariqatlaridan eng mashhurlarining asoschilari hisoblangan Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy va Bahovuddin Naqshband faoliyatlariga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz, xolos.

Sharqning mashhur irfoniy murshidlaridan biri, Kubraviya tariqatining asoschisi «shayxi valiytarosh» deb nom chiqargan Najmiddin Kubro 1145 yili Xorazmda tavallud topgan bo‘lib, 1221 yili mo‘g‘ul bosqinchilari qo‘lida shahid bo‘lgan. Najmiddin Kubro ham orif, ham oshiq, ham shoir sifatida mashhur. U ruboiylar, «Favoih al-Jamol va favotih al-Jalol», «Al-usul al-ashara», «Risolat al-Xoif al-Xa’im min laumon al-la’im», «Risolat odob uz-zokirin» kabi arab tilidagi asarlarning hamda so‘fiylar uchun fors tilida alohida yozilgan qo‘llanmaning muallifidir.

U o‘z tasavvuf maktabini yaratdi. Ko‘plab muridlar uning tarbiyatida shayxlik martabasiga erishganlar. Najmiddan Kubro asos solgan maktab bir qancha mustaqil shohobchalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldi va ular musulmon Sharqida keng tarqaldi. Jumladan, buyuk tasavvuf shoiri Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiyning padari buzrukvori, Balx shahrining eng nufuzli ulamosi Shayx Bahovuddin Valad, taniqli tasavvuf adiblari Azizuddin Nasafiy va Najmiddin Doya kabi o‘nlab islom olamida shuhrat taratgan shaxslar kubraviya tariqatining vakillari hisoblanadi.

Turkiy tasavvufning yana bir yirik vakili Xoja Ahmad Yassaviy Sayramda Ibrohim ota oilasida dunyoga keldi. Uning vafoti manbalarda 1166 yil deb ko‘rsatilgan. U Buxoroda Abduxoliq G‘ijduvoniy bilan birgalikda Yusuf Hamadoniy maktabida tahsil olgan deb rivoyat qilinadi. So‘ngra Turkistonga qaytib, mustaqil Yassaviya tariqatiga asos soldi va o‘z ta’limoti bo‘yicha muridlar tarbiyaladi.

Ahmad Yassaviy islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga katta hissa qo‘shdi. Irfoniy adabiyotda maxsus «Hikmat» janrining yaratilishi ham uning nomi bilan bog‘liq. U o‘z hikmatlarida ishq, poklik, halollik, yolg‘ondan saqlanish, kishi moliga xiyonat qilmaslik, to‘g‘rilik kabi ko‘pgina insoniy fazilatlar haqida kuyladi. U turkiy tasavvuf adabiyotida o‘ziga xos maktabga asos soldi. Turkiy dunyoda biror so‘fiy shoir yo‘qki, unga ergashmagan, undan o‘rganmagan bo‘lsin.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan eng muhim vazifalardan biri yuksak ma’naviyatli yetuk intellektual salohiyatga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir. Bizga ma’lumki, o‘zbeklar qadimdan yuksak ma’naviyatli, buyuk shaxslarni dunyoga keltirgan xalq hisoblanadi. Xususan, Imom Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Farg‘oniy, Forobiy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Alisher Navoiy kabi buyuk siymolar fan, madaniyat va islom olamida o‘chmas iz qoldirishgan. Bu komil insonlar o‘zlarining yuksak ma’naviyati, dunyoqarashi va salohiyati bilan o‘rnak bo‘lishgan, istedodli yoshlarni ma’naviyatli qilib tarbiyalashda faol ishtirok etishgan. Shuning uchun ham, mamlakatimizda yuksak ma’naviyatli insonlarni tarbiyalash, ularning sonini ko‘paytirish, ma’nan yaxshilash yosh avlodning ongida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, dinlararo bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik, komil inson g‘oyalarini shakllantirish davlat siyosatiga aylangan.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Komilov N. Tasavvuf.-T.:Movarounnahr, 2009.1-kitob.-B.142.
2. Komilov N. Tasavvuf.-T.:Movarounnahr, 2009. 2-kitob.-B.266.
3. Islom entsiklopediyasi.-T.:O‘zbekiston Milliy entseklopedisi, 2017.-B.390.

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT - MADANIYAT VA MA’RIFAT FIDOYISI

Shaxnazarova Mexrigul Xusanovna -
Navoiy Abu Ali Ibn Sino nomidagi
amoat salomatligi texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk ma’rifatparvar olim Is’hoqxon to‘ra Ibratning ta’lim-tarbiya, maorif rivoji va vatanparvarlik g‘oyalarining mohiyati xususida so‘z boradi. Shuningdek, buyuk ma’rifatparvarning madaniyat va ma’rifat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya, maorif, ma’rifatparvar, madaniyat, inson kamoloti, ma’naviy taraqqiyot.

ИСХАКХАН ТУРА ИБРАТ – ЖЕРТВОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

Аннотация: В данной статье рассказывается о сущности образования, развитии образования и идеях патриотизма великого учёного-просветителя Исхакхана Тура Ибрата. Также научно и теоретически анализируется вклад великого просветителя в развитие культуры и просвещения.

Ключевые слова: воспитание, воспитание, просвещение, культура, человеческое совершенство, духовное развитие.

ISHAKHKHAN TORAH IBRAT - SACRIFICE OF CULTURE AND ENLIGHTENMENT

Annotation: This article talks about the essence of education, educational development and patriotism ideas of the great enlightened scientist Ishaq Khan Tora Ibrat. Also, the great enlightener’s contribution to the development of culture and enlightenment is analyzed scientifically and theoretically.

Key words: education, education, enlightenment, culture, human perfection, spiritual development.

Ibrat ulamolarning ilm-ma’rifatga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilar ekan, ko‘rkam imoratlar chiroyli liboslar emas, aslida yangi kitoblar, yangi qoidalar yangiliklariga taraqqiyotga qarshi chiqqan ulamolarni qoralaydi. Eski usulda o‘qitib kelayotgan muallimlarning usuli jadid maktablariga qarshi bo‘lishlariga qaramasdan yangi usul muallimlarini usuli jadid maktablarini tashkil qilib, yoshlarga dunyoviy ilmlardan saboq berishdan to‘xtamadi. Xalq zamon bilan hamfikr, hamnafas bo‘lib yashashi zamonaviy fan-texnika bilan bir qatorda yangicha dunyoqarash orqali ilm berish va xalqqa xizmat qilish lozim ekanligini o‘zining falsafiy qarashlari orqali taraqqiyot sari yurmoqlik uchun zamonga qarab ilm, hunar egallash lozimligi, shu bilan birga bolalarga zamonaviy ilm o‘rgatishni foydalarini uqtirib o‘tgan va shunday yozgan: Usuli jadid demak - yangi qoida, yangi tartib demakdur desak, hama qabulga olmagan edilar. Gardishi ovon va xohishi zamon ila o‘zi-o‘zicha joriy bo‘lib ketti. Avvalgi vaqtdagi mahalla maktabida banda o‘zum necha yilda uch adad muallimda o‘qub, oxiri savodim chiqmay, keyin o‘z uyimizda joriy qizlar maktabida, volidai marhumamda o‘qub, savod chiqordim. Ikki sana qiblagohimda husnixat mashq etdum. Boqing, mahalla maktabida usuli qadimda yetti yil umrni zoyi’ etub, o‘quv-yozuvni bilgon edum. Mana emdi banda o‘zum usuli savtiyani(ng) avlodi islomg‘a yordamini ko‘rub, o‘z masjidimizg‘a maktab ochdim. Bir sanada ko‘b yoshlar, hattoki katta yoshga kirgan tujjorlardan o‘qub, xat-savodini chiqorub, ma’ishat va tijoratlarida osonliklar mushohada qildilar. Mana zamonni(ng) mezoni vazn bo‘ldi. Aliyyul-Murtazo maqolalarida aytur: “I’lamu avlodakum lizamoni g‘ayro zamonikum”, derlar. Har zamon (ning) o‘ziga qarab, ilmu hunar kasbi darkor”.

O‘z davrining hurfikr ijodkori Ibrat shuningdek to‘y-marosimlardagi ortiqchi sarf-xarajatlarni qattiq qoralagan holda, shunday yozadi: “Holi bulki, shul fotihaga besh yuz sarf bo‘lsa, nikoh to‘y kuni albatta ikki ming sarf bo‘lur. Bu sarflarni(ng) o‘g‘liga va qiziga biron tiyin naf’i yo‘q, o‘rtadagi kishilar yeydur, ichadur, kiyadur. Lozim edi, har ikkisi sarflarni yangi ro‘zg‘or bo‘lmishlarga xoh tijorat va xoh bo‘lak va amsok aytub qo‘ysalar. Bularga vaqtida dastgir o‘lib, ikki taraf avlodlariga qilgan marhamat va shafqat bo‘lsa kerak edi. Behuda sarf mustadrak bo‘lib, hech kim foydalanmadi. Bular erlar ichinda bo‘lgan ishini aytdum. Xotunlarni (ng) qiz to‘yiga qilgan mehnatlarini, ovoraliklarini aytsam, miya qolmaydur. [Is’hoqxon to‘ra Ibrat Tanlangan asarlar Toshkent “Ma’naviyat” 2005 175 bet]

Is’hoqxon to‘ra Ibrat yoshi ulug‘ insonlarga har kuni vaqtini choyxona, do‘konda o‘tirib choy ichib g‘iybat qilmasdan kitob yoki mas’ala o‘qib, ijtimo‘ qilsalar, hasana bo‘lsa kerak edi deya tanbeh berib o‘tgan. Gap sotib bekor o‘tirib hech bir hunar egallamaganlarga payg‘ambar va avliyolar ham kasb-hunar egallashgani, agar hech bir hunarni egallamasangiz nonga ham muhtoj bo‘lib qolish mumkinligi haqida nasihat qilgan.

Ibrat avlodlarni kelajak zamon ilmi bilan tarbiyalash lozimligi, bu esa hammasi zamon xohishi, zamonning har tarafdan keladiga qilmishlariga ilm-hunar kerakligini misollar orqali isbotlab koʻrsatadi va quyidagilarni ta'kidlab oʻtadi: "Zamon vaqt oʻtishi bilan insonlar yangiliklarga moslashganini e'tirof e'tib, gugurt yoqmang, chaqmoq chaqing desa, albatga ma'qul boʻlmas.

Ibrat Sharq va Gʻarb madaniyati, hayot tarzi haqida soʻz yuritarkan, bu mezonda ikkalasini solishtiradi. Ahli Sharq oʻz qarashi boʻyicha, ularni yangi dunyo deb nom qoʻydilar. Alholda ukalariga boʻyinlarin qisadurlar. Balki boʻlaklar, ya'ni qoʻshnilari ularga muhtojdurlar. Zamon ravishiga yurmaslik shunga oʻxsharki, bir hovli ichinda bir otadan oʻn farzand boʻlib, bularni(ng) ba'zisi ota amrida va ba'zilari boʻlak yerda yurub, otalarini(ng) soʻzini olmay, nifoq qilib, ittifoqni qoʻldan berib, yer-suv amloklaridan bermay, otalari bularni noqobil deb mahrumi meros qilib, boʻlaklarga oʻtkazgandek, bu zamon shu otadurki, bola akliga qarar va aql ham oʻrgatar.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1.Ibrat. Tanlangan asarlar. –Toshkent.: Ma'naviyat. 2005.
2.Dolimov U. Is'hoqxon Toʻra Ibrat. –T.: Sharq, 1994.
3. Is'hoqxon Toʻra Ibrat. Tanlangan asarlar. Mezon uz-zamon.

JALOLIDDIN RUMIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA ILMGA MUNOSABAT

Mirzayeva Nigina Olimovna –
SamDCHTI mustaqil tadqiqotchisi
mirzayeva.nigina@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning ilm xususidagi fikrlari va insonlarni ilm olishga davati bayon etilgan. Mutafakkir asarlarida ilm olishning muhimligi haqidagi qarashlari ham keltirilgan.

Kalit soʻzlar: bilim, ilm, ma'rifat, ma'naviyat, irfon, donishmandlik, ziyolilik.

ОТНОШЕНИЕ К НАУКЕ В ФИЛОСОФСКИХ ВОЗЗРЕНИЯХ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

Аннотация: В данной статье описаны мысли Джалалуддина Руми о науке и его призыв к людям учиться. Его взгляды на важность обучения изложены и в трудах мыслителя.

Ключевые слова: знание, познание, просветление, духовность, гнозис, мудрость, интеллект.

ATTITUDE TO SCIENCE IN THE PHILOSOPHICAL VIEWS OF JALALIDDIN RUMI

Annotation: This article describes Jalaluddin Rumi's thoughts on science and his call to people to learn. His views on the importance of learning are also presented in the thinker's works.

Key words: knowledge, knowledge, enlightenment, spirituality, gnosis, wisdom, intelligence.

Ma'lumki, Oʻrta asrlarda Movarounnahr va Xurosonda ilm-fan yuksak darajada taraqqiy etdi. Xususan, tasavvuf ilmi jadal rivojlandi. Bu ilmning jadal rivlojlanishiga asosiy sabab esa, tasavvuf ahlining Allohga iymon keltirishda inson mohiyatini anglashga e'tibor qaratgani diqqatga sazovordir. Muazzam Sharqning mutasavvif olimi Jaloliddin Rumiy ham oʻz davrining nihoyatda serqirra va mashhur allomalaridan hisoblanadi. Jaloliddin Rumiyning falsafiy-irfoniy qarashlarini oʻrganish va anglash barobarida biz falsafaning bir qator dolzarb masalalarini ham oʻzlashtira boshlaymiz. Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlarida gnoseologiya, ontologiya, dialektik kategoriyalar, etika-estetikaga oid nazariyalar va mantiq ilmiga xos koʻplab masalalar oʻz yechimini topgan.

Jaloliddin Rumiyning ilmiy merosida ilm va ma'rifat masalalariga nisbatan boʻlgan munosabat, ayniqsa, ibratlidir. Rumiyning falsafiy qarashlarida yetakchilik qiladigan asosiy gʻoyalardan biri shuki, borliqdagi har bir narsaning muayyan asosi mavjud. Shunga koʻra, bilishning asosi ilmdir. Rumiy ilm olish, bilish, oʻrganish va izlanishni insondagi asosiy xususiyatlardan biri deb talqin etadi. Demak, olamni bilish, ilmli va ma'rifatli boʻlish fikrlash orqali shakllanadi. Shunday ekan, olamni bilish barcha ezgulikning va jamiyat taraqqiyotining asosidir, har bir oʻzligini anglagan inson ilm egallashi lozimligi gʻoyasi alloma qarashlarida yetakchilik qiladi.

Rumiyga koʻra, insonda yemoq va uxlamoqdan boshqa yana bir oziq bor. Bu ilmdir. Inson koʻp hollarda bu oziqni unutadi, kecha-kunduz moddiy oziq ilinjida mehnat qiladi. Insonga ilm olish imkoni har

doim ham berilavermaydi. U mana shu imkoniyatdan unumli foydalana olsagina yuksaladi. Ilm cheksizdir. Inson har qancha o‘qib-o‘rgangani bilan, bilimi daryodan bir qatra bo‘lib qolaveradi. Ilm kelmaydi, uni istab boriladi.

Jaloliddin Rumiyda shunday hikmat bor: “Ilm bilan mashg‘ul bo‘lki, dunyo sening ortingdan chopsin”. Inson qachon ma’naviy tomondan to‘la yetuklikka erishadi, qachonki unda ilm bo‘lsa, aql bo‘lsa. Ilmli inson o‘z ilmi, salohiyati tufayli dunyoning barcha ne’matlaridan bahramand bo‘ladi. Inson agar ilmli bo‘lsa, davlat ham, hokimiyat ham unga muntazirdir. Muborak hadisi shariflarda shunday marhamat qilinadi: “Olim bo‘ling yoki ilm oluvchi bo‘ling yoki ilmni tinglovchi yo sevuvchi bo‘ling! Beshinchisi (ilm dushmani) bo‘lmang, halok bo‘lasiz”.

Mavlono Rumiy “Masnaviyi ma’naviy”ning 6 daftarida “Bilimli bo‘lib uxlamoq, bilimsiz bo‘lib ibodat qilmoqdin afzaldir” hadisiga ishorat tarzida shunday yozadi:

Yaxshidir toatdin olim uyqusi,
Chunki bedorlikni bilgay bilgisi. (3889 - bayt)

Ilm bilan shug‘ullanish eng avvalo ma’naviy huzurlanish demakdir. Insonda ma’naviy huzurlanish qachon paydo bo‘ladi. Qachonki u o‘z sevgan sohasi bilan shug‘ullansa, o‘z sevgan badiiy yoki ilmiy asarining mutolaa qilish jarayonida undan ma’naviy ozuqa ololsa, shubhasiz, mana shu ma’naviy huzurlanish demakdir. Mavlono Rumiy ta’biri bilan aytganda, ilm tafakkurni yangilaydi, odamlar ongini eskicha tushuncha, qoloq qarashlardan xalos etadi. Ilm-fan cheksiz dengiz, uning tubi ko‘rinmaydi. Ilm talabgorlari esa go‘yo g‘avvoslardir. Ilmga tashna qalb hech qachon bilim egallashda sarhad bilmaydi. Mustafo Salovati Alloh buyurmishlarkim, ikki haris bor, hech qachon to‘ymas: biri tolibi ilm, biri tolibi dunyodir. Ushbu hadisning sharhi sifatida “Masnaviyi ma’naviy”da Rumiy shunday satrlarni qayd etgan:

Tolib ud – dunyo va tavfirotiho,
Tolib ul – ilm va tadbirotiho. (3895 bayt)

Ilm istash yosh bilan chegaralanmaydi. Hadisi Shariflarda bejizga beshikdan qabrgacha ilm izla deb marhamat qilinmagan. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi, ilm olishning ham o‘ziga yarasha zalvori va mashaqqati bor. Mana shu mashaqqatlarga chidagan inson ilm oladi va xalq orasida obro‘-e’tibor qozonadi. Hoyu-havasga berilgan insonlar esa ilm ololmaydi. Chunki ular qarashlarida moddiy manfaat ustunlik qiladi. Har doim, xususan, ilm egallash yo‘lida sabrli bo‘lmoq ilm egallashning muhim shartlaridan biri deb e’tirof etiladi.

Aytish mumkinki, nodir ma’naviy meros qoldirgan buyuk donishmand Mavlono Jaloliddin Rumiyning falsafiy ta’limotini ilmiy tadqiq etib, uni o‘rganish inson ma’naviy va axloqiy kamolotining yangi va barqaror usullarini hozirgi zamonda tadbiq etishda, barkamol insonni tarbiyalashda munosib ma’naviy meros bo‘lib xizmat qiladi.

Rumiy nazdida ilm qalbdan o‘rin olgandagina yaxshi fazilatga aylanadi. Uning egasi yaratuvchidir. Ilm misli omonatdirki, uning ham vazifalarini bajarmoq kerak. Bu vazifa unga amal qilish va nasiba ulashish bilan yuzaga keladi. Kishi kamtarlik darajasiga ilm orqali erishadi. Ilmidan kibrlangan inson siyratsiz suratga o‘xshab qoladi. Shu sababli Mavlono Rumiy ilmning mohiyatini qalbda naqshlamoq lozimligini ta’kidlaydi. Ilm bilan to‘yingan qalb esa insonni kamtarlik darajasiga olib chiqadi. Zero, ilm qalb ko‘zi, aql chirog‘idir.

TURKIY XALQLAR TARIXI

Qodirov Abrorbek Alisher o‘gli
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’atshunoslik fakulteti tarix yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Tel:(+998 97)-165-03-23; E-mail:
abrorqodirov003@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiy xalqlarning kelib chiqishi tarixi va uning geografik joylashuvi, turkiy xalqlarning o‘rganilish tarixiga oid jahon va mahalliy tarixchilarning asarlari haqida va hozirgi zamondagi turkiy xalqlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Turkiy xalqlar, Tog‘li Oltoy, Ashin qabilasi, Xunlar, Prototurk, E.I.Eyxvald, L. N. Gumilyov, O‘rxun-Enasoy, Turo.

ИСТОРИЯ ТУРЕЦКОГО НАРОДА

Аннотация: В статье рассматриваются история происхождения тюркских народов и их географическое положение, работы мировых и местных историков по истории изучения тюркских народов, а также современных тюркских народов.

Ключевые слова: тюркские народы, Горный Алтай, племя Ашин, гунны, прототюрк, Э. И. Эйхвальд, Л. Н. Гумилев, Орхун-Энасой, Туро.

HISTORY OF THE TURKISH PEOPLE

Abstract: The article discusses the history of the origin of the Turkic peoples and their geographical location, the works of world and local historians on the history of the study of the Turkic peoples, and the current Turkic peoples.

Key words: Turkic peoples, Mountain Altai, Ashin tribe, Huns, Proto-Turk, E.I. Eichwald, L. N. Gumilyov, Orhun-Enasoy, Turo.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida qadimgi turklarning o‘rni muhim bo‘lgan. Jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shganliklari tarixshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Turkiy xalqlar qadimdan o‘zining tarixi, madaniyati, tili, yozuvi, san’ati va adabiyotiga ega bo‘lganlar. Turkiy qavmga mansub xalqlarning tarixiy ildizlari bir, tili, dini, urf-odat va an’analari, qadriyatlari mushtarak bo‘lgan, davrlar o‘tishi bilan ayrim o‘ziga xosliklar paydo bo‘la boshlagan. Tarixda birinchi navbatda, xalq tarixi birlamchi manbalarga asoslanadi. Xalq tarixining manbalari moddiy madaniyat va yozma manbalar bo‘lib, ulardan olingan ilmiy malumotlar asosida turkiy xalqlar tarixi bayon etilgan. Turkiy xalqlar Turkiy tillarda so‘zlashuvchi, shimoliy va markaziy Yevroosiyoda yashovchi xalqlardir. Bu xalqlar u yoki bu darajada umumiylashgan madaniyat va an’analarga ega. Turkiy xalqlar tayinli bir irqqa tegishli emas, ularni bog‘lovchi unsur asosan etnogenezlarida joy olgan. Turkiy xalqlar jahondagi turkiy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarga nisbatan ishlatiladigan nom. “Turk” so‘zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma’nolarni anglatadi. Qadimgi turklar genetik va fenotipik jihatdan Sharqiy osiyoliklar va sibirliklar bilan chambarchas bog‘liq. Genetik, arxeologik va lingvistik dalillar ilk turkiy xalqlarni shimoli-Sharqiy Osiyo bilan bog‘laydi, keyinchalik ko‘chmanchi turmush tarzini qabul qilgan va Sharqiy Mo‘g‘ulistondan g‘arbga tomon kengaygan. Bir necha ming yilliklar davomida turkiy qabilalar ko‘p marta birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi o‘zgarib turgan.

Qadimgi va o‘rta asr mualliflarining ko‘pchiligi turkiy xalqlar va qabilalar haqida yozgan. Biroq turkiy xalqlar tarixi bo‘yicha birinchi bo‘lib yevropaliklar ilmiy izlanishlar olib borishdi. Biz ularning ismlarini, shuningdek, qadimgi mualliflarni qayta yozmaymiz, chunki ularning xulosalari tarqoq, bir-biriga o‘xshamaydi va bizning haqiqatimiz uchun xulosalarining ahamiyati aniq emas. Yevropada bizning eramizdan ancha oldin turkiy qabilalar yashagan degan fikrni birinchi bo‘lib ilmiy asoslab bergan akademik E.I.Eyxvalddir. Turklar tarixini o‘rganishga vatandoshimiz L. N. Gumilyov katta hissa qo‘shgan. Uning “Qadimgi turklar”, “Kaspiy dengizi atrofida bir ming yillik” asarlari turkiy tilli xalqlarga maxsus bag‘ishlangan. Hattoki, uning asarlari ilmiy etnologiyaga asos solgan, deyish mumkin.

Sobiq sovet davri tarixiy tilshunoslik fanida Tog‘li Oltoy turkiy xalqlarining vatani, turkiy aholi aynan ana shu o‘lkada tarkib topib, so‘ng boshqa yurtlarga tarqalgan, degan tasavvur shakllangan edi. Bunday tasavvurni paydo bo‘lishida turk etnonimi ostida tog‘li oltoy hududlarida xonlikning ilk bor tarkib topishi ham katta rol o‘ynagan. XVIII-XIX asrlar davomida tog‘li oltoy mintaqasida olib borilgan etnolingvistik tadqiqotlar ham bunday ilmiy farazni asosli ekanligini tasdiqlaydi. Shunday qilib tog‘li oltoy turkiy xalqlarning ilk vatani sifatida tilga olinib jahon tarixiy tilshunosligida Oltoy tillar oilasi degan atama paydo bo‘ladi bunday tushunchani ilmiy asoslanishida etnograf va tilshunoslarning bu yerda olib borgan izlanishlari va ular tomonidan turklarning kelib chiqishi haqida to‘plangan rivoyatlar ham katta rol o‘ynagan. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarning mazmunidan kelib chiqadigan bo‘lsak gap qadimgi turklarning Oltoydan kelib chiqqanligi to‘grisida emas, balki tog‘li Oltoyda knyaz Ashina atrofida to‘plangan jangovar sipohiy yoshlar guruhining turk nomi ostida birlashishi haqida boradi.[1]

Qadimgi turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, urf-odatlari, o‘ziga xos betakror jihatlari haqida bir qator manbalarda ma’lumotlar mavjud. Turli xildagi yozuvlar,

---

[1]Ahmadali Asqarov. O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. O‘zbekiston NMIU. 2015.

narsa-buyumlar, ashyolarda, “Avesto”, “Bexistun”, O‘rxun-Enasoy kabi yozma yodgorliklarda, Beruniy, Narshaxiy, Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Muhammad Solih, Hofiz Tanish al-Buxoriy,

Bayoniy kabi tarixchilarning asarlarida, shuningdek, grek, xitoy, hind, arman tarixchilarining asarlarida ham ko‘plab ma’lumotlar berilgan. Tarixshunoslar I.V.Pyankov, N.G.Gorbunovalarning asarlari ham muhim manbadir. Qadimgi turkiylar haqidagi ma’lumotlar Xitoy yozma manbalarida ham keltiriladi. «Tarixiy guvohliklar» (mil.av.I asr), «Ulug‘ Xan xonadoni tarixi» (milodiy I asr), «Kichik Xan xonadoni tarixi» (milodiy V asr), «Vey xonadoni tarixi» (milodiy VI asr),«Shimoliy podshohliklar (Beyshi) tarixi» (milodiy VII asr) va boshqalar. Rus sharqshunoslari va turkologlarining ilmiy ishlari ham muayyan ahamiyatga ega. O‘zbek olimlarining bu boradagi ilmiy ishlari ham salmoqli o‘rinni egallaydi. Tarixshunoslar B.Ahmedov, T.Saidqulov, adabiyotshunoslardan akademik A.Qayumov, B.To‘xliev, N.Rahmonov, H.Boltaboevlarning asarlari diqqatga sazovordir. O‘tmishda har bir xalq o‘zining kelib chiqishini biror hayvon, jonzod, o‘simlik yoki buyumga bog‘lagan. Gumilyovning “Qadimgi turklar” kitobida ham ushbu masalaga to‘xtab o‘tilgan. Bunday totemistik dunyoqarash qadimgi dunyo odamlarining olam va borliq, tabiat va boshqa narsalar bilan munosabatini anglashga nisbatan, o‘zining kelib chiqishi, ibtidosiga bo‘lgan qiziqishi tufayli shakllangan. Ashin qabilasini xitoylar Tu-kyu deb ataganlar.

Xo‘jayevning xitoy manbalariga asoslanib bergan ma’lumotlariga ko‘ra miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning oxirgi choragida boshlab shimoliy Xitoy knyazliklarining tarixi o‘sha davrning yilnomachilari tomonidan yozila boshlagan ya’ni qadimgi xitoy kichik podsholiklarida “Shi” deb atalgan yilnomachilar bo‘lib ular shimoliy xitoy podsholiklarining shimoliy shimoli-g‘arbiy va shimoliy-sharqiy chegaralarida chorvador prototurk qabilalari yashaganliklarini tasdiqlaydi. Kichik hokimliklardan biri “Shya” podsholigi bo‘lib shimoliy xitoyda hukmronlik qilgan. Miloddan avvalgi 1766 -1122 yillarda “Shong” nomli kichik hokimlik hukm surgan ularning har ikkalasi devonida “Shi” lar faoliyati ko‘rsatib nafaqat o‘z podsholiklarini tarixini toshga, suyakka Xitoy qamishiga yozib borgan. Keyinroq prototurk qabilalar siyosiy uyushmasi qabilalar ittifoqiga xunlar yetakchilik qilganlar manbalarning guvohlik berishicha xunlar hokimiyati yemirilgandan keyin Atilla bilan g‘arbga ketmay o‘z joylarida qolib ketgan prototurk qabilalarga “Turo” qabilasi bosh bo‘lib ular tarkibida 40ta qabila bo‘lgan ularning nomlari shimoliy sulolalar tarixida keltiriladi.

Mil. av II asrdan — mil. III asrgacha bo‘lgan davrda turklar Hun xoqonligi tarkibida bo‘lganligi sababli Xitoy manbalarida shyunnu, hunnu deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiyekle (zamonaviy tilda tele) deb atashgan. VI asrda turklarda bo‘lgan Ashina avlodi kuchayib, Turk xoqonligi barpo etgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, 9-asrda tilga olinadigan turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan. Shulardan 22 tasi uyg‘ur (ittifoqchilar) deb nomlangan. Uyg‘ur xoqonligi tugatilganidan so‘ng bularning katta bir qismi Turkiston hududida joylashgan. Turkiya olimlari asarlarida turk qabilasi ko‘kturk deb xam ataladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, ko‘kturk so‘zi tangriga, ya’ni osmonga ishongan turklar, balandlik turklari, ko‘k bo‘ri totemi bo‘lgan turklar kabi ma’nolarni anglatgan. Markaziy Osiyoda turk toponim, etnonim, gidronim sifatida ko‘plab uchraydi. Turk xoqonligi davrida o‘z qabiladoshlarining izidan Movarounnahr va unga tutash viloyatlarga kirib kelgan turkiy ajdodlarimizning O‘rta Osiyo hududlarining biror nuqtasiga kirib bormagan joyi qolmagan bu haqda nafaqat arxeologik va antropologik materiallar balki turfa xil yozma manbalar ham dalolat beradi bu madaniy jarayonlar G‘arbiy Turk xoqonligi davrida Movarounnahrda turk-sug‘d etnomadaniy maydoni tarkib topishiga olib kelgan.

Turkiy qavmga mansub xalqlar deganda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq, uyg‘ur, tatar, boshqird, chuvash, ozarbayjon, qorachoy, turk, qo‘miq, balqar kabi qirqqa yaqin millatlarni nazarda tutamiz. Qadimda bu xalqlar O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo va Kichik Osiyoda, Rossiyaning kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechirganlar. Hozirgi kunda Turkiy aholi soni taxminan 200-250 million nafarga yetgan. Hozirda oltita mustaqil turkiy davlat mavjud bularga O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Turkmaniston kiradi.

Xulosa qilib aytganda shuni aytish kerakki, Har bir xalq o‘ziga qon-qarindosh bo‘lgan xalqning tarixini, madaniyatini, san’atini va adabiyotini chuqur bilish kerak, bu uning farovon kelajagi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Maqolada biz turkiy xalqlarning qay tariqa shakllanganligini va Yevroosiya hududiga qanday tarqalganligi haqida so‘z yuritdik. Turkiy xalqlar tarixidan xulosa chiqarib shuni aytish kerakki, turkiy xalqlar jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘shganligi, Turkiy xalqlar eng qadimgi davrdan to hozirgi kungacha o‘z o‘rnini yo‘qotmaganligi va boy tarixga ega ekanligidan biz turkiy xalqlar faxrlanishimiz kerak, va munosib avlod bo‘lib kelajagimizni farovon qilishimiz zarur.

ADABIYOTLAR / ЛИТЕРАТУРА/ REFERENCES

1. Ahmadali Asqarov. O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi. O‘zbekiston NMIU. 2015.
2. Dildoraxon Abdullayeva.Turkiy xalqlar adabiyoti. Toshkent. 2014
3. Babayar, G‘aybulla. "G‘arbiy Turk xoqonligi tangalaridagi imperator unvonlari". Zamonaviy o‘rta asr tadqiqotlarida Markaziy Osiyo tarixi. Toshkent: Yangi Nashr. 2013.

НЕКОТОРЫЕ СУЖДЕНИЯ О ГЕНДЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И СТЕПЕНИ ЕЁ ИЗУЧЕНИЯ

Буриева Шохсанам -
Студентка Ташкентсого государственного педагогического университета им. Низами

Гендерный стереотип - это чрезмерное обобщение характеристик и поведения индивидов в зависимости от пола. Обеспечение гендерного равенства в школьном образовании является глобальной проблемой. Так как на сегодняшний день лингвистами исследуется актуальный вопрос процесса речи и роль человеческого фактора и его сознания в нём. Речь и коммуникативное поведение мужчин и женщин в целом: изучаются, тем, какими средствами и в каких условиях она конструируется и как социальные факторы и коммуникативная среда влияют на этот процесс. В этой области теория социокультурного детерминизма и теория биодетерминизма все еще конкурируют. С этой точки зрения данная работа имеет практическое значение для вывода о важных особенностях гендерных стереотипов детей школьного возраста в когнитивном и прагматическом аспекте.

До нынешнего дня в мировом языкознании были изучены множество актуальных проблем относительно гендерной лингвистики. В частности, особое внимание уделяется применению влияния пола на язык, на необходимость рассмотрения гендерных характеристик в сочетании со статусом, социальной группой, уровнем образования, ситуационным контекстом и т. д., а также с учетом меняющейся ситуации в обществе. Так же в узбекском языкознании сегодня начали усердно работать лингвистическими гендерологическими исследованиями. Проведен ряд прагматических, когнитивных, лингвокультуралогических исследований по изучению лингвистических особенностей гендерных стереотипов.

С формированием гендерологии границы гендерных исследований были относительно расширены, а теоретическая база и спектр эмпирических материалов значительно богаче. Гендерный термин в западной социологии был введен Э.Окли [1] и Н. Земон Девисом [2]. З.Г.Рубин прокомментировал разницу в понятиях “гендер” и “пол”, таким образом, термин гендер (gender) стал использоваться для обозначения понятия “социальный гендер” [3].

Ученые, внесшие выдающийся вклад в исследование гендерных аспектов языка в Узбекистане, определили термин “гендер” следующим образом. По мнению М.И.Расуловой, гендер не является полностью застывшим понятием, но он постоянно меняется под влиянием людей, и это связано с социальной жизнью [4].

Д.У.Ашурова утверждает, что гендер в лингвистике - направление изучения языка в связи с социальными и культурными особенностями, характерными для мужчин и женщин [5].

Исследования по фольклорным текстам в лингвистике относятся к началу XX века. Одним из основоположников гендерных исследований в фольклоре является Д.Х. Ибрагимовой (“Отражение гендерных отношений воли в таджикских народных сказках”), которая ставит спорную точку в середине его поисков. По её мнению, если более точно проанализировать исследования, проведенные на основе этого мнения, “в области социально–гуманитарных наук гендерных исследований достаточно”, то в современной фольклористике становится ясно, что таких исследований недостаточно. Как вы знаете, к теме гендера фольклористы еще долго обращаются к литературоведам и лингвистам [6].

Пример, исследования Н.Л.Пушкаревой реальности чисто гендерных отношений в фольклористике и педагогике. Хотя и существуют исследования по выражению понятия гендер в чистом узбекском языке, но они проводятся на числовом уровне. Например, методы выражения понятия гендер в узбекском языке включают исследования по описанию гендера в узбекских существительных [7].

Кандидатская диссертация Т.А.Морозовой на тему “Лингвокогнитивная структура гендерных стереотипов маскулинности и элизма (на примере испанского языка)” [8], исследование номинации Г.Тлеумуратова “Категория рода в деривационной системе категории существительного-словосочетания в истории английского языка (на примере аффиксации и композиции)” [9], кандидатская работа Хасинова на тему “Лингвистические и гендерные характеристики сложных слов в художественном тексте (на примере английского и узбекского языков)”, докторские диссертации Н.З.Насруллаевой, озаглавленные “Гендерный концепт в семантике фразеологических единиц английского языка” и “Формирование гендерных концептов в мировом ландшафте английской и узбекской фразеологии”, были опубликованы в журнале “Чистая лингвогендерология”.

Однако работа Г.И.Эргашевой “Лингвистика и формирование гендерной терминологии в различных систематизированных языках экстралингвистические факторы” посвящена анализу терминов гендерного дискурса.Так же научные исследования Дулдуловой Н.А. на тему “Сравнительный анализ гендерного аспекта в паремиологии английского и узбекского языков”, была выполнена на паремиологическом уровне, рассматриваемом проблему гендерной лингвистики в аспекте ее возникновения и формирования, прежде всего в англоязычной лингвистической литературе а так же производится обзор научной литературы, ее анализ и краткое описание, осуществляется анализ специфики гендерной речи на материале узбекского языка [10].

Говоря о гендерней лингвистике нужно отметить, что гендерная лингвистика – (или лингвистическая гендерология) научное направление, использующее в рамках междисциплинарных гендерных исследований языковой понятийный аппарат, изучающий гендер, в этой области науки понятие гендер понимается как социокультурный пол, традиционная конструкция и является относительно автономным от биологического пола. В своей работе 1922 года о происхождении и развитии языка О. Есперсен исследует особенности женских лингвистических способностей. Его исследование показало, что женщины используют другую лексику, чем мужчины, и более склонны к эвфемизмам и менее склонны к ругательствам. По словам Есперсена, женщины консервативны в использовании языка, что можно увидеть на примере эмигрантских общин и других изолированных групп, где родной язык сохраняется и в то же время осваивается новый язык. Среди гендерных различий также присутствуют в овладении языком. Например, женщины с большей вероятностью останутся на одном языке, в рамках этой точки зрения мужчины быстрее выучат новый язык. Однако при формировании этой информации не учитывалось, что необходимость изучения иностранного языка мужчинами обусловлена необходимостью работы и общения на новом языке. У женщин, которые проводят много времени дома, такая потребность не возникает в закрытой среде [11].

Хотя Есперсен полностью интерпретировал вопрос о влиянии пола для своего времени, в более поздний период его взгляды подвергались критике только потому, что он делал свои собственные выводы, основанные на личных наблюдениях, многие из которых были недостаточно подтверждены.

Подводя итог нужно отметить, что сложное сочетание в гендерной сфере ряда аспектов жизни общества, в том числе культурных, психологических и социальных, делает эту сферу основным объектом исследований различных наук и дисциплин.

ЛИТЕРАТУРА/АДАБИЁТЛАР / REFERENCES

1.Оукли Э. Пол, гендер и общество. – М.: Просвещение, 1972. – С. 225

2.Земон Дэвис Н. Возвращение Мартена Герра. – М.: Прогресс, 1990. – С. 208.

3.Rubin G. The traffic in women: Notes on the ‘Political Economy’ of sex, in: Towards an anthropology of women. – NY: Monthly Review Press, 1975. – P. 157-210.

4. *Расулова М.И.* Проявление *гендера* на лексическом уровне // Филологиянинг долзарб муммолари. — Тошкент: НУУз, 2008. — С. 81–84;

5. Ашурова Д.У. Гендерные факторы в стилистике // Замонавий тилшунослик ва хорижий тиллар укитишнинг долзарб масалари: Илмий-амалий анжуман материалари.-Тошкент,2008.-С.337–342;

6. Ибрагимова Д.Х. Деньги, гендер, власть в домохозяйстве: концептуальные подходы // Экономическая социология. Т. 17. № 2. Март 2016.

7. Pushkareva, N.L. (2007), “Gender research in history and ethnology”, Gendernye issledovaniya, no. 15, pp. 123- 145, available at: www.gender.univer.kharkov/ua/gurnal/15 (accessed: 25.06.2008).

8. Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка). Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Самарканд: СамГИИЯ, 2011. – 25 с.

9. Тлеумуратов Г. Категория рода в деривационной системе категории существительного-словосочетания в истории английского языка (на примере аффиксации и композиции). дис. канд. филол. наук. Нукус . 2010. 184 с.

10. Эргашева Г.И. Applied linguistics: Terminology and Translation through gender discourse lens. – Tashkent: Navruz, 2018.

11. Jespersen O. Die Sprache, ihre Natur, Entwicklung und Entstehung. – Heidelberg, 1925. – 305 S.

TURKIY SIVILLIZATSIYANING YANGI DAVRI: UMUMIY TARAQQIYOTI VA FAROVONLIK SARI

Tojiboyev Maxmudjon Akbarjon o‘g‘li,
Turdiyev Xumoyon Xurshid o‘g‘li
1Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot vamenejment fakulteti
1-bosqich talabasi maxmudjonoff@gmail.com,
2Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot vamenejment fakulteti
1-bosqich talabasi xumoyunturdiyev97@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqoladan Turkiy davlatlar tashkiloti tarixiy tuzilishahamiyati hamda yangi sivilizatsiya davriga erishgani, shu bilan birgalikda2022-yil 11-noyabr kuni Samarqand shahrida tashkil qilingan TDT Sammiti natijalari haqida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Ashina, Turk xoqonligi, Naxchivan shartnomasi, B2B, G2B.

Turkiy davlatlar tashkiloti kecha yoki bugun paydo bo‘lgan emas. U qadimhamdo‘st va qardosh xalqlar birlashmasidir. Tarixga nazar soladigan bo‘lsak,milloddan avvalgi 6-asrda turkiy qabilalarning tashkil topishi yani, asl kelibchiqishi turkiy qavmdan bo‘lgan davr, Ashina1 davrida Turk xoqonligi2 sifatidashakllangan. Qadimiy manbaalarda qayd etilishicha, ushbu qabila nomi 58 xilturli atamalar bilan tilga olingan bo‘lib, milliy an’analarga sodiq, bir turdagi tildamuloqot qiluvchi yagona davlat bo‘lib shakllangan. Keyinchalik bu xalqlar birlashuvining mustahkamligi buyuk ajdodlarimizning o‘rni katta. Ushbu davlatlar birlashishi qadimgi urf-odatlar, millatlararo totuvlik bilano‘zining qardoshlik aloqalari azaldan shakllanib kelgan. Garchi ular tur xilbayroq, hudud, tillar, pul birlik, turli qarashlar hamda madaniyatga ega bo‘lsalarda, asli bir ulkan daraxt ildizidek jipslashgan elatdirlar. Shunday ekan, ularning qadim do‘stlik, yaqin qo‘shnichilik hamda uzoq qarindoshlik rishtalarini hech kim ayira olmagani kabi ulardagi taraqqiyotga bo‘lgan yaqin hamkorlik rishtalarini mustahkamlashlariga qarshi bo‘la ola olmaydilar. Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro tashkilot sifatida shakllanish jarayoniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1992-yilda Anqarada Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiya va O‘zbekiston prezidentlari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlari sammitidan keyin prezidentlar tomonidan bunday saviyadagi uchrashuvlar o‘tkazish amaliyoti maqullanib, buni keng qamrovda davom ettirish uchun 2009-yil 3-oktabrda “Naxchivan shartnomasi”3 imzolandi. Imzolangan shartnoma, eng avvalo, xalqlar o‘rtasidagi tarixiy rishtalar, do‘stlik va birodarlik qadriyatlarini mustahkamlash, istiqbolli loyihalarni tashkil qilish, umumiy til, madaniyat va an’analardan kelib chiqqan holda har tomonlama hamkorlikka kirish va bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko‘rinib turadi. Hamkorlik turlari, tashkilotning maqsad va vazifalari, tarkibidagi kengash va qo‘mitalar, imtiyozlar, budjet, xalqaro munosabatlar va nizolarni bartaraf etish to‘g‘risida ma’lumotlar ushbu shartnomaning ikkinchi moddasida to‘liq bayon etilgan. “Naxchivan shartnomasi” tomonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni va do‘stlikni mustahkamlash; tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha umumiy pozitsiyalarni ishlab chiqish; xalqaro terrorizm, separatizm, ekstremizm va transchegaraviy jinoyatlar bilan kurashish bo‘yicha harakatlarni muvofiqlashtirish; ummumiy manfaatdor bo‘lgan barcha sohalarda samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlik rivojlantirish; savdo va sarmoyalar uchun qulay sharoitlar yaratish; iqtisodiy har tomonlama va muvozanatli o‘sishni, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni maqsad qilish; ilm-fan, texnika, ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va turizm sohalarida o‘zaro aloqalarni kengaytirish; ommaviy axborot vositalari va boshqa aloqa vositalarining o‘zaro ta’sirini rag‘batlantirish; tegishli huquqiy ma’lumotlar almashinuviga ko‘maklashish va huquqiy hamkorlikni rivojlantirish kabi maqsad va vazifalardan iborat. Shartnomaning nega aynan “Naxchivan shartnomasi” deb nomlanishiga to‘xtaladigan bo‘lsak, mazkur shartnoma ilk marotaba Ozarbayjon Respublikasining Naxchivan avtonom respublikasida o‘tkazilgani bois, ushbu nom berilgan.

Darhaqiqat, kengashni tashkil etish g‘oyasini birinchi bo‘lib Qozog‘iston Respublikasining birinchi prezidenti bo‘lmish Nursulton Nazarboyev ilgari surgan. Avvallari “Turk tilli davlatlar tashkiloti hamkorlik kengashi” nomi bilan tashkil topgan bo‘lsa, keyinchalik Istanbulda bo‘lib o‘tgan VIII Istanbul sammitida ushbu kengashning nomi “Turkiy davlatlar tashkiloti”ga o‘zgartirilishi to‘g‘risida qaror imzolandi va Turkmaniston ham kuzatuvchi davlatlar safiga qo‘shildi. Tashkilotning tarixiga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, 2012-yil kengashning bayrog‘i qabul qilindi. 2018-yil 30-aprelga kelib esa O‘zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotiga qo‘shilishi e’lon qilindi va Bishkekda bo‘lib o‘tadigan sammitda ishtirok etdi. Rasmiy ravishda 2019-yil 12-sentyabr da a’zolikka ariza topshirdi. Hozirgi kunda ushbu tashkilotga 5 davlat, ya’ni Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya va O‘zbekiston a’zo, Vengriya va Turkmaniston esa

kuzatuvchi davlatlar hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu tashkilotning a’zo va kuzatuvchi davlatlarining umumiy aholi soni qariyb 160 million kishini tashkil etib, 4 million 200 ming kvadrat kilometrlik geosiyosiy hududni qamrab olgan. Garchi O‘zbekiston ushbu tashkilotga a’zo bo‘lganiga oz fursat bo‘lgan bo‘lsa ham ushbu 3 yil mobaynida bo‘lib o‘tgan: 2019-yil Boku, 2020-yil onlayn va 2021-yilda Istanbulda bo‘lgan sammitda davlatimiz rahbari faol qatnashib o‘zlarining 35 dan ortiq amaliy tashabbuslarini ilgari surdilar va bugungi kunga qadar 20 dan ortiq tashabbuslar amalga oshirildi. 2021-yil sentabr oyida bo‘lib o‘tgan Yosh tadbirkorlar forumini tashkil etish, transport va bojxona tartib-taomillarini raqamlashtirish bo‘yicha loyihalarning amalga oshirilishi va “ePermit” pilot loyihasini sinovdan o‘tkazish shular jumlasidandir. Undan tashqari O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘rtasida yashil yo‘lak ishga tushirilishi shuningdek O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida “raqamli tir” pilot loyihalarining ham yo‘lga qo‘yilishi yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan fikrlarimizning yaqqol isbotidir. 2021- yil 12- noyabr kuni turkiy davlatlar tashkilotining Istanbuldagi 8- sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu yig‘ilishda investitsiya fondini tashkil etish va ushbu fondning asosiy vazifalari , funksiyalari , vakolatlari, moliyaviy resurslari va uni tashkil etish hamda faoliyat yuritishi bilan bog‘liq bir necha masalalar ko‘rib chiqilgan edi . Sammidda davlatimiz rahbari ushbu tashkilot haqida o‘zining iliq fikrlarini bildirib shunday dedilar: “mustahkam tarixiy rishtalar, mushtarak til, madaniyat va ma’naviy qadriyatlar asosida shakillangan Turkiy davlat tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanib borayapti”. Sammitning yakunida tashkilot raisligi Ozarbayjonga o‘tishi va Turkiy davlatlar tashkilotining birinchi sammiti 2022-yilda O‘zbekistonda o‘tkazilishi to‘g ‘risida qaror qabul qilindi. 11- noyabr kuni Samarqand shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida Turkiy davlatlar tashkiloti davlat rahbarlarining “Turkiy sivillizatsiyaning yangi davri: ummumiy taraqqiyoti va farovonlik sari” mavzusidagi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bu uchrashuvda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mezbonligida Turkiya yetakchisi Rejep Tayyip Erdog‘an, Turkmaniston Milliy Kengashi Xalq Maslahati raisi Gurbanguli Berdimuhamedov, Ozarbayjon prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg‘iziston prezidenti Sadir Japarov, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban uchrashuvda ko‘p tomonlama savdo aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha keyingiqadamlarni, ya’ni Tashkilot doirasida o‘zaro savdoni oshirish bo‘yicha umumiy kompleks yondashuvlarni amalga oshirishni ko‘rib chiqdilar.

Dastlab, sammit doirasida imzolanishi rejalashtirilgan “Savdoga ko‘maklashish strategiyasi”ni amalga oshirish bo‘yicha eng faol chora-tadbirlarni ko‘rib chiqildi. Ishtirokchilar ushbu yo‘nalishning ustuvorligini hisobga olgan holda transport yo‘laklari, bojxona va chegara o‘tkazish punktlari va logistika markazlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash bo‘yicha a’zo davlatlar va Tashkilot kuzatuvchilarining yagona yondashuvi bo‘yicha kelishuvlarga erishdilar. TDT doirasida transport-logistika jihatidan o‘zaro bog‘liqligini yanada kengaytirish va rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. TDT iqtisodiyot va savdo vazirlarining Samarqandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida alohida tartibda iqtisodiyotga innovasiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shma rejalar ko‘rib chiqildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarni rivojlantirishda raqamlashtirish va elektron hukumat tizimini joriy etish darajasini o‘rganish va baholash bo‘yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, bu boradagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishning asosiy mezonlari va bosqichlar ko‘rib chiqildi. 2022-yil Turkiy davlatlar tashkiloti Investitsiya jamg‘armasi ta’sis etilgani barchamizga ma’lum.

Samarqandda tashkil qilingan 2022-yil 10-noyabrdagi Turkiy davlatlar tashkiloti iqtisodiyot va savdo vazirlarining 11-yig‘ilishida savdo-iqtisodiy, investisiyaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida, Turkiy davlatlar tashkiloti Investisiya jamg‘armasini ta’sis etish bo‘yicha Bitimni imzolanishini kelishib olindi. Samarqand shahrida o‘tayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban uchrashuvida qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mexanizmlar va qulay sharoitlar yaratish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekiston-Vengriya biznes forumi doirasida o‘zbekistonlik tadbirkorlar Vengriya tashqi savdo va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto boshchiligidagi 60 dan ortiq venger kompaniyalari vakillari bilan “B2B”4 va “G2B”5 shaklidagi muzokaralarni o‘tkazishdi. Ikki tomonlama muzokaralar natijasida investitsiyaviy va savdo kelishuvlari imzolandi. Bu Yangi O‘zbekistonimizning Turkiy mamlakatlari bilan Investisiya jamg‘armasini ta’sis etilishi ko‘p qirrali munosabatlarimizni rivojlanishida yangi zamin yaratadi. Sammit doirasida Qirg‘izistonning Turkiyadagi elchisi Kubanichbek Omuraliyev Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi etib tayinlandi. Qayd etish kerakki, tashkilot bosh kotibligi uch yil muddatga saylanadi. Shu paytga qadar bu vazifani Bog‘dod Amreyev bajarib kelayotgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-noyabr kuni 10-11 noyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti tadbirlarida ishtirok etish uchun Samarqand shaxriga tashrif buyurdi. Sammit dastlabki kunidayoq Rejep Tayyip Erdog‘an “Imom Al-Buxoriy ordeni”ning keyingi sovrindoriga aylandi. Eslatib o‘taman ushbu mukofotning dastlabki sovrindori

Saudiya Arabiston Podshoxi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud bo‘lgan edi. Shu bilan birgalikda navbatdagi 2023-yilgi sammitga Qozog‘iston Respublikasi mezbonlik qilishiga kelishildi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat investitsion, tashqi iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy balki ma’daniy-gumanitar va turizm aloqalari yaxshilanishiga ulkan tasir korsatdi, Turkiy mamlakat rahbarlarining turli sohalardagi taklif, tashabbus hamda loyihalari barcha mamlakatlari uchun umummanfaatli deya ayta olamiz.

PATRONAGE, IDENTITY AND SHAPING ISLAMIC ARCHITECTURE IN THE ELEVENTH-CENTURY SAMARQAND: THE CASE OF IBRAHIM IBN NASR TAWGHACH BUGHRA-KHAN

Dilrabo Tosheva
Yale University, United States of America,
dilrabotosheva@gmail.com

This paper is part of a wider research project on the role of the medieval Turkic dynasties in shaping Islamic architecture. The focus here is on Ibrahim ibn Nasr Tawghach Bughra-Khan (r. 1040 – 1067), who was the founder of the Western Qarakhanid Khaqanate, based on Transoxiana with Samarqand as its capital. He emerges as a crucial figure among the long list of the Qarakhanids, mainly because of his political activities as well as his ambitions and patronage for construction as reflected in the written sources. Using two Qarakhanid endowment deeds and Muhammad al-‘Awfi al-Bukhari (13th c.)’s the “Jawami‘ al-hikayat wa lawami‘ al-riwayat” (Collections of Stories and Illustrations of Histories), the research sheds light on the role of this Qarakhanid ruler in the architectural program of the eleventh-century Samarqand.

Key words: Qarakhanids, Qarakhanid architecture, Ibrahim ibn Nasr Tawghach Bughra-Khan, Islamic architecture.

Dastlab, sammit doirasida imzolanishi rejalashtirilgan “Savdoga ko‘maklashish strategiyasi”ni amalga oshirish bo‘yicha eng faol chora-tadbirlarni ko‘rib chiqildi. Ishtirokchilar ushbu yo‘nalishning ustuvorligini hisobga olgan holda transport yo‘laklari, bojxona va chegara o‘tkazish punktlari va logistika markazlarining uzluksiz ishlashini ta’minlash bo‘yicha a’zo davlatlar va Tashkilot kuzatuvchilarining yagona yondashuvi bo‘yicha kelishuvlarga erishdilar. TDT doirasida transport-logistika jihatidan o‘zaro bog‘liqligini yanada kengaytirish va rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olindi. TDT iqtisodiyot va savdo vazirlarining Samarqandda bo‘lib o‘tgan uchrashuvida alohida tartibda iqtisodiyotga innovasiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha qo‘shma rejalar ko‘rib chiqildi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari, ijtimoiy soha va hududlarni rivojlantirishda raqamlashtirish va electron hukumat tizimini joriy etish darajasini o‘rganish va baholash bo‘yicha kelishuvga erishildi, shuningdek, bu boradagi sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirishning asosiy mezonlari va bosqichlar ko‘rib chiqildi.2022-yil Turkiy davlatlar tashkiloti Investitsiya jamg‘armasi ta’sis etilgani barchamizga ma’lum. Samarqandda tashkil qilingan 2022-yil 10-noyabrdagi Turkiy davlatlar tashkiloti iqtisodiyot va savdo vazirlarining 11-yig‘ilishida savdo-iqtisodiy, investisiyaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish maqsadida, Turkiy davlatlar tashkiloti Investisiya jamg‘armasini ta’sis etish bo‘yicha Bitimni imzolanishini kelishib olindi. Samarqand shahrida o‘tayotgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban uchrashuvida qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun moliyaviy mexanizmlar va qulay sharoitlar yaratish masalalari muhokama qilindi. O‘zbekiston-Vengriya biznes forumi doirasida o‘zbekistonlik tadbirkorlar Vengriya tashqi savdo va tashqi ishlar vaziri Peter Siyyarto boshchiligidagi 60 dan ortiq venger kompaniyalari vakillari bilan “B2B”4 va “G2B”5 shaklidagi muzokaralarni o‘tkazishdi. Ikki tomonlama muzokaralar natijasida investitsiyaviy va savdo kelishuvlari imzolandi. Bu Yangi O‘zbekistonimizning Turkiy mamlakatlari bilan Investisiya jamg‘armasini ta’sis etilishi ko‘p qirrali munosabatlarimizni rivojlanishida yangi zamin yaratadi. Sammit doirasida Qirg‘izistonning Turkiyadagi elchisi Kubanichbek Omuraliyev Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi etib tayinlandi. Qayd etish kerakki, tashkilot bosh kotibligi uch yil muddatga saylanadi. Shu paytga qadar bu vazifani Bog‘dod Amreyev bajarib kelayotgan edi. Prezident Shavkat Mirziyoyev 9-noyabr kuni 10-11 noyabr kunlari bo‘lib o‘tadigan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti tadbirlarida ishtirok etish uchun Samarqand shaxriga tashrif buyurdi. Sammit dastlabki kunidayoq Rejep Tayyip Erdog‘an “Imom Al-Buxoriy ordeni”ning keyingi sovrindoriga aylandi. Eslatib o‘taman ushbu mukofotning dastlabki sovrindori Saudiya Arabiston Podshoxi Salmon bin Abdulaziz Ol Saud bo‘lgan edi. Shu bilan birgalikda navbatdagi 2023-yilgi sammitga Qozog ‘iston Respublikasi mezbonlik qilishiga kelishildi. Xulosa qilib aytganda, Turkiy davlatlar tashkiloti nafaqat investitsion, tashqi iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy balki ma’daniy-gumanitar va turizm aloqalari yaxshilanishiga ulkan tasir korsatdi, Turkiy mamlakat rahbarlarining turli sohalardagi taklif, tashabbus hamda loyihalari barcha mamlakatlari uchunumum manfaatli deya ayta olamiz.

References:

1.https://kun.uz/uz/news/time/samarkandda-turkij-davlatlar-sammiti
2.https://president.uz/oz/lists/view/5689
3.https://uz.wikidea.ru/wiki/Turkic_Council
4.https://daryo.uz/2022/11/11/turkiy-davlatlar-tashkiloti-birinchi-sammitiyakunida-samarqand-deklaratsiyasi-qabul-qilindi
5. https://mfa.uz/uz/
6.Tojiboyev.M.A, Turdiyev.X.X Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

БИЛИНГВИЗМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ЯЗЫКОВОГО АСПЕКТА

Рахимова Фируза Шавкатовна
старший преподаватель кафедры
«Ўзбек тили ва адабиёти» ТГТУ

Annotatsiya: Maqola ikki tillilikni, uning til kompetentsiyalarini shakllantirish tamoyillarini ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. "Ikki tillilik" atamasini mahalliy va xorijiy ilmiy muhit vakillari tomonidan talqin qilishga alohida e’tibor qaratildi. Ikki tilli turlarning tasnifi berilgan. Ushbu masalani o‘rganishning dolzarbligi uning tarqalishi va uning namoyon bo‘lishi va xususiyatlariga amaliy qiziqishi bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: bilingvizm, ikki tillilik, tilshunoslar, ikki tilda so‘zlasuvchilar, bilingvistik teoriyalar, bilingvizmning lingvistik jihatlari, bilingvizmning ijtimoiy jihatlari, bilingvizmning psixologik jihatlari.

Abstract: The article is devoted to the consideration of bilingualism, its trends in the formation of language competencies. Special attention is paid to the interpretation of the term "bilingualism" by representatives of the domestic and foreign scientific environment. There is a classification of types of bilingualism. The relevance of the study of this issue is due to its prevalence and practical interest in its manifestations and features.

Keywords: bilingualism, bilingualism, bilinguals, bilingualism, bilingual theories, linguistic aspect of bilingualism, sociological aspect of bilingualism, psychological aspect of bilingualism.

Аннотация: Статья посвящена рассмотрению билингвизма, его тенденции формирования языковых компетенций. Особое внимание уделено трактованию термина «билингвизм» представителями отечественной и зарубежной научной среды. Дается классификация видов двуязычия. Актуальность исследования данного вопроса обусловлена его распространенностью и практическим интересом к его проявлениям и особенностям.

Ключевые слова: билингвизм, двуязычие, билингвы, владение двумя языками, билингвистические теории, лингвистический аспект билингвизма, социологический аспект билингвизма, психологический аспект билингвизма.

На сегодняшнем этапе развития человечества на планете существует совсем мало мест, где население за весь период свой жизни сталкивается только с одним языком. Однако двуязычие распространено шире, чем одноязычие. В статье освещаются современные достижения науки в области теории билингвизма, выросшей на базе языковых контактов. Явления массового двуязычия и многоязычия стали нормой современного общества. Необычайная многогранность билингвизма породила множество билингвиальных теорий и аспектов. Расширяющиеся и углубляющиеся связи в политической, экономической, научной, производственной, культурной, спортивной и такдалее областях способствуют возникновению массового двуязычия и многоязычия. Речевое общение в рамках тесных языковых контактов интересует различных специалистов, в том числе лингвистов, психологов, педагогов. Слово «билингвизм» происходит от двух латинских: bi – «двойной», «двоякий» и слова lingua – «язык». Таким образом, билингвизм – это способность владения двумя языками. Отсюда, билингв – человек, который может разговаривать на двух и более языках. Однако к знанию более двух языков можно отнести и многоязычие, другими словами полилингвизм. «Особенность полилингвизма заключается в том, что оно бывает двух видов – национальное (употребление нескольких языков в определенной социальной общности) и индивидуальное (употребление индивидуумом нескольких языков, каждый из которых предпочитается в соответствии с определенной коммуникативной ситуацией)» Любое обучение – это обучение той или иной деятельности. Так, обучение русскому языку как иностранному – это обучение речевой деятельности при помощи этого языка. Если мы учим речевой деятельности, то наша основная задача – построить нужные речевые операции и «сложить» из них нужные речевые действия. [1]. О билингвизме вообще написано много. Подавляющее большинство ученых допускает возможность широкой трактовки явлений билингвизма в языковых коллективах: «Как правило, допускается, что двуязычие имеет место всякий раз, когда человек переключается с одного языкового кода на другой в конкретных условиях речевого общения, независимо от того, идет ли речь о переходе от одного национального языка к другому, от национального языка к диалекту или же языку межплеменного (межнационального, международного) общения и т. п. [2, с.10]. В зависимости от критериев, которые кладутся в основу классификации, выделяют несколько типов билингвизма:

1. «По возрасту, в котором происходит усвоение второго языка, различают

билингвизм ранний и поздний. Ранний билингвизм обусловлен жизнью в двуязычной культуре с детства (включает в себя родителей, говорящих на разных языках, или переезд из одной страны в другую); поздний билингвизм – изучение второго языка происходит в старшем возрасте уже после освоения одного языка.

2. По количеству осуществляемых действий, то есть сам человек почти не говорит и не пишет на иностранном языке, лишь приблизительно понимая иностранную речь. В таком случае выделяют репродуктивный (воспроизводящий) билингвизм, включающий восприятие (способность пересказывать) текст иностранного языка, и воспроизведение прочитанного или услышанного.

Продуктивный (производящий) билингвизм – способность понимать и воспроизводить иноязычные тексты, а также производить их самому. Другими словами, билингвист может конструировать слова, словосочетания и предложения, как устно, так и письменно при продуктивном билингвизме» [1].

Е.М.Верещагин [3] выделяет четыре критерия классификации билингвизма: Билингвизм оценивается по числу действий, выполняемых на основе данного умения. Соответственно данному критерию выделяются:

- рецептивный билингвизм, то есть когда билингв понимает речевые произведения, принадлежащие вторичной языковой системе. Такой вид билингвизма возможен при изучении мертвых языков;
- репродуктивный билингвизм, то есть когда билингв способен воспроизводить прочитанное и услышанное. Примером репродуктивного билингвизма является самостоятельное изучение неродного языка в качестве средства для получения информации. При этом текст понимается, но нередко неправильно произносится;
- продуктивный (производящий) билингвизм, то есть когда билингв понимает и воспроизводит речевые произведения, принадлежащие вторичной языковой системе, и порождает их.

Вторым критерием классификации билингвизма называется соотнесенность двух речевых механизмов между собой, когда обе языковые системы могут функционировать независимо друг от друга, или могут быть связаны между собой во время акта речи:

-чистый билингвизм (примером чистого билингвизма может быть случай, когда в семье используется один язык, а языком общения на работе, в магазине, транспорте и других общественных местах является другой язык);

- смешанный билингвизм, при котором языки свободно заменяют друг друга, а между двумя речевыми механизмами, относящимися к порождению разноязычной речи, возникает связь. Явления смешения языков наблюдаются давно, они значительно усиливаются в последние годы, так как процессы миграции населения планеты в целом становятся все интенсивнее. Необычайная многогранность билингвизма как объекта науки породила множество билингвистических теорий. Каждая из них сложилась на основе решения тех задач, которые ставились исследователями при изучении того или иного аспекта билингвизма:

- лингвистического
- психологического
- социологического
- педагогического
- литературно-художественного.

Ю. Д. Дешериев и И. Ф. Протченко полагают, что лингвистический аспект «двуязычия имеет дело с анализом соотношения структур и структурных элементов двух языков, их взаимовлияния, взаимодействия и взаимопроникновения на разных уровнях, разделах строя языка: фонологическом, морфологическом, синтаксическом, лексико-семантическом и стилистическом» [4, с.28]. Ученые отмечают, что для данного аспекта наиболее важным является исследование своеобразия проявления интерференции в процессе применения обоих языков. Психологический аспект билингвизма имеет обширную проблематику в современных исследованиях: иноязычные способности как психологическая

предпосылка формирования билингвизма; связь психолингвистических проблем билингвизма с методикой обучения неродному языку; мотивационные условия формирования билингвизма; взаимовлияние речевого развития на родном и иностранном языках и др. Социологический аспект изучения двуязычия состоит в определении «объема общественных функций и сфер применения каждого из двух языков, которыми пользуется двуязычное население» [4, с. 33].

Педагогический аспект основывается на лингвистическом, психологическом и социолингвистическом аспектах. Его задача состоит в разработке и применении «методов обучения двум языкам, методов изучения процесса овладения, владения двумя языками в условиях двуязычия»

[4, с. 38]. Педагогический аспект билингвизма включает в себя как вопросы пассивного (чтение и слушание), так и активного знания языка (говорение и
письмо). Литературно-художественный (литературоведческий) аспект билингвизма связан с изучением речевых характеристик персонажей в художественных произведениях, с анализом художественной литературы, созданной писателями – билингвами и воспринимаемой билингвальными социумами. Узбекистан – страна многонациональная. Жизнь сложилась так, что люди разных национальностей живут здесь в одной большой дружной семье, знакомятся с языками представителей других национальностей, изучают их языки. Итак, билингвизм предстает как динамичное явление, как способность использовать второй язык в целях коммуникации. Внутренняя неоднородность данного явления выражается в возможности его многоаспектного изучения, следовательно, в вариативности способов толкования и выделения качественно своеобразных типов, различающихся рядом существенных особенностей, но объединенных одним интегральным параметром – владением двумя или несколькими языками.

Использованная литература:

1. Акбарова Д.А. “Функциональные задачи преподавания русского языка как иностранного” ТермезГУ.// Таълим тизимида инновацион фаолиятни шакллантиришда хорижий тилларни укитишдан самарали фойдаланиш масалалари, международная научная конф. 2022 – 34с.

2. Розенцвейг В. Ю. Языковые контакты: Лингвистическая проблематика. Л.:
Наука, 1972. – 80 с.
3. Верещагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия. (билингвизма). М.: Изд-во МГУ, 1969. – 186 с.
4. Дешериев Ю. Д. Основные аспекты исследования двуязычия и многоязычия,Проблемы двуязычия и многоязычия. М.: Наука, 1972. С. 26-42.
5. Вишневская Г. М. Билингвизм и его аспекты: Учебное пособие. Иваново,
1997. – 98 с.
6. Истомина О. Б. Билингвизм: социальная типология языковых контактов. – Тамбов: Грамота, 2012. – № 1 (15): в 2-х ч. – Ч. I. – С. 70-74.

O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI - YOSHLAR IQTIDORINI NAMOYON QILISH IMKONIYATLARI

UMFT “Gumanitar fanlar” kafedrasi M.X.To‘xtayeva
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b
Oriental Universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi
Afro‘za Norboyeva

Annotatsiya:Ushbu maqolada yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilingan.Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni ochib berilgan.Yoshlarga oid davlat siyosatini davom etirishda yangicha go‘yalar tashkil etish kabi bir qator masalalar ko‘rilgan.

Kalitso‘zlar: Yangi O‘zbekiston,yoshlarga oid davlat siyosati,iqtidorli yoshlar,besh tashabbus,ma’naviy barkamollik,uchinchi Renesseans.

Государственная молодежная политика в Узбекистане – это возможность проявить таланты молодежи

Преподаватиель кафедра гуманитарнқх наук (PhD) доц.в.б.
Тухтаева Матлуба
Студент факультета педагогики и психологии Университета Oriental
Норбоева Афруза

Аннотация:В данной статье анализируются основные направления государственной молодежной политики в новом Узбекистане Роль повышения правовой культуры в обществе в воспитании молодежи.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, государственная молодежная политика, талантливая молодежь, пять инициатив, духовное совершенствование, третий ренессанс**.**

State youth policy in Uzbekistan is an opportunity to demonstrate the talents of young people.

Teacher of the Department of Social Humanities

To‘xtayeva Matluba
Student of the Faculty of Pedagogy and Psychology Oriental University
Afro‘za Norboyeva
Annotation: This article analyzes the main directions of state youth policy in the new Uzbekistan. The role of raising the legal culture in society in educating young people is considered. **Keywords:** New Uzbekistan, state youth policy, talented youth, five initiatives, spiritual perfection, the third Renaissance.

Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo‘lidan ma’lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo‘lishi o‘sha davlatda yoshlar ta’lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e’tibor darajasiga bog‘liq. Shu ma’noda, O‘zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilganganligi va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Hususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat’iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2018-yil 27-iyunda imzolangan «Yoshlar – kelajagimiz» Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmon bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim hujjat bo‘ldi. Farmon bilan «Yoshlar – kelajagimiz» jamg‘armasi tashkil etildi va ushbu jamg‘arma yoshlarning bisnes tashabbuslari, startaplari, g‘oyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berishi belgilab qo‘yildi. Ushbu hujjatga e’tibor qaratilsa, yoshlar tadbirkorligi va tashabbuskorligini kompleks rivojlantirish vazifalari aniq va tizimli belgilanganligini ko‘rish mumkin. Muxtasar aytganda, O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda, bosqichma-bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslangan holda izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtomoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi sa’y-harakatlarni tizimli asosda yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tasabbusning ilgari surilishi O‘zbekiston tarixida yoshlar ta’lim-tarbiyasi bo‘yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalari bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalar asosida barcha hududlarda Raqamli texnologiyalar o‘quv markazlari tashkil etiladi. Bu maskanlarda elektron tijorat va dasturlash bepul o‘rgatilishi, axborot texnologiyalari sohasida bisnes bo‘yicha innovatsion ko‘nikmalar shakllantirilishi bo‘yicha «startap» loyihalarga yordam ko‘rsatilishi. Shuningdek, 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, bosqichama-bosqich amalga oshirilishi. Yangi tashkil etiladigan kompyuter o‘yinlari markazlari yosh avlodning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan test, viktorina, rivojlanish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bilan ta’minlanadi va yoshlarimizni internetdan unumli foydalanishiga zamin yaratiladi desak ayni mudao bo‘ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston yoshlar forumida ta’kidlab o‘tgandek”Men har gal yoshlarimiz bilan uchrashganimda, sizlarning g‘ayrat-shijoatingizdan kuch-quvvat olaman, ko‘nglim tog‘day ko‘tariladi. Har biringiz jonajon Vatanimiz va xalqimizga sidqidildan xizmat qilish orzusi bilan yonib yashayotganingizni yaxshi bilaman. Sizlarni O‘zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida yuksak qadrlayman.Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz va azmu shijoatingizga suyanamiz.Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o‘z oldimizga ulkan marralarni qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Sizlar mustaqillik farzandlarisiz. Ota-bobolaringiz ko‘rgan to‘siq va qiyinchiliklarni ko‘rmay, ozod Vatanda erkin nafas olib voyaga yetayapsizlar.Yuksak maqsadlar yo‘lida siz – yoshlar hal qiluvchi kuch bo‘lishingiz kerak.

Men sizlarning zimmangizga yuklangan ana shunday ulkan mas’uliyatni, tom ma’nodagi tarixiy vazifani sharaf bilan ado etishingizga qat’iy ishonaman.Dunyoda globallashuv va raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda barcha sohalarda yuksak bilimli kadrlarni tayyorlamasak, taraqqiyotdan ortda

qolib ketishimiz mumkin.Sizlarga yana bir muhim yangilikni aytib o‘tmoqchiman. Keyingi yildan oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to‘plagan 200 nafar yoshlar uchun Prezident granti joriy etiladi. Agar mavjud Prezident stipendiyasi faqat bir o‘quv yili uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, ushbu grant talaba o‘qishni bitirguniga qadar, ya’ni, to‘rt yil davomida to‘lab boriladi. Shuningdek, kelgusi o‘quv yilidan boshlab, respublikamizdagi xorijiy oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalari uchun ham Prezident va davlat stipendiyalari joriy etiladi. Shunday ekan, ularga bugun g‘amxo‘rlik qilib, iste’dodini rag‘batlantirsak, o‘ylaymanki, bu ham adolatdan bo‘ladi”.

Xulosa

Davlatning qudratini belgilaydigan omillardan biri bu tili va dini bo‘ladigan bo‘lsa keyingi novbatda uning kelajagi va avlodi sanaladi.Shubhasiz ma’nan yetuk,jismonan sog‘lom,har tomonlama barkamol avlodni voyaga yetgazdirishdir.Shu ma’noda,bugungi kunda mamlakatimizda sog‘lom avlodni tarbiyalash naqadar muhum,ma’suliyatli vazifa ekani barchamizga aniq ayondir.Yoshlarga,bolalarga e’tibor,darhaqiqat,kelajakga qo‘yilgan sarmoyadir.Vaholanki kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy-demokratik davlat qurish yoshlarimizning faol ishtiroki,qo‘llab quvvatlashi orqaligina amalga oshadi,ma’naviyati yuksak,chuqur bilimli,zamonaviy fikrlaydigan,intelektual rivojlangan va professional tayyorgarlikga ega bo‘lgan o‘g‘il-qizlarni tarbiyalash buyuk kelajagimizni ta’minlashiga shubhamiz yo‘q.Sababi biz kabi yosh avlodning tomirida buyuk ajdodlarimiz qoni oqmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.2016 yil 14-sentyabrdagi<<Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida>>gi Qonun /https://lex.uz/docs/3026246
2.”Taraqqiyot strategiyasi”markazi……
3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi //https:uza.uz.uz/posts/zbekistan-prezidenti-shavkat-mirziyayev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlar forumid so‘zlagan ma’ruzasi //https:uza.uz.uz/posts/o‘zbekistan-prezidenti-shavkat-mirziyayevning-o‘zbekiston-yoshlar-forumida-so‘zlagan-nutqi.

TIL – MILLAT KO‘ZGUSI

Oydin Xotamova,
Zarafshon shahar hokimining
ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va
davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash
masalalari bo‘yicha maslahatchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son Farmonida shunday deyilgan: “Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”

Haqiqatan ham, o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish va mamalakatda til siyosatini amalga oshirish borasida tarix zarvaraqlarida muhrlanadigan ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanish yo‘lga qo‘yildi.

Shuning bilan birga, reklama sohasi ham tubdan isloh qilinib, mamlakatimizda reklamani tayyorlash, joylashtirish va tarqatish munosabatlari tartibga solindi.

Bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biri ham yoshlar nutqiy savodxonligi va nutq madaniyatini shakllantirishdir. Zero, dunyo sarhadlarida O‘zbekiston nomining yanada keng quloch yoyishi-har tomonlama yetuk va bilimdon, zamonaviy talablarga javob beradigan zukko va aqlli, nutq so‘zlaganda yuksak madaniyat sohibi bo‘lgan va tinglovchilarni o‘ziga qarata oladigan yoshlarning salohiyatiga bog‘liq. Chunki nutqiy savodxonlik va nutq madaniyati bevosita tilni, uning qonun qoidalarini ongli ravishda idrok etish, ifodali nutq tuza olish mahoratini egallash bilan birga, axloqiy madaniyatning negizi sifatida madaniy-ma’rifiy turmushning barcha sohalarida o‘zligini namoyon etadi. Nutq madaniyati-yoshlarning tarbiya madaniyati, odob va axloqning ajralmas bo‘lagidir. Nutqiy savodxonlik esa olam va fanlar haqidagi

bilimlarning darajasi, muayyan narsa va xodisalarga to‘g‘ri ilmiy yondashuv, bilim va ko‘nikmalar majmuidir.

Demak, nutq madaniyati faqat gapirish emas, tinglash, tushunish, odob bilan suhbatga qo‘shilish, o‘z fikr-mulohazalarini adabiy til me’yorlariga rioya qilgan holda bayon etishdir. Notiqlik, nutqiy savodxonlik va nutq madaniyatining ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi. O‘sha davrlardan bugungi kungacha nutq madaniyatida asosiy amal qilinadigan me’yor borlik, necha asrlardan buyon bunga rioya qilib kelinadi.

Chet tillardan o‘zlashgan so‘zlarni qo‘llash, ayniqsa, reklama matnini rus va ingliz tillarida tayyorlab tarqatilishiga reklama sohasida daromad topishning eng qulay va jo‘n yo‘llaridan biri sifatida qaralib, uning ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zbek tiliga tahdidi masalasi hech kimni, ayniqsa, reklama tarqatuvchini mutlaqo qiziqtirmas edi.

Mumtoz adabiyotda so‘zni gavharga qiyoslash an’anaga aylangan. Alisher Navoiy nazdida ham so‘z-gavhar, gavhar to‘la xazinadan ham ustunroq. Shoir ta’biricha, necha-necha xazinalar taqdirini birgina so‘z hal etishi mumkin. Shu bir so‘z davlatlar o‘rtasida do‘stlik sulhi tuzib yoxud urush olovini yoqib, mamlakatni vayron, xalqni sarson qilishi mumkin. Alisher Navoiy “Tilga ixtiyorsiz-elga e’tiborsiz”,-deganda ham masalaning ana o‘sha nozik jihatini hisobga olgan.

Fasohat mulkining sultoni so‘zga qayta-qayta murojaat qilar ekan, har gal tutilmagan toza tashbehlar, yangi fikrlar aytishga intiladi. Chunki shoirning o‘z ta’rificha “so‘z chu takror o‘ldi, dilkash emas”. Ayni talabga binoan shoir satrdan satrga ko‘chishda so‘zning turfa lug‘aviy ma’no qirralarini ochishga, mazmun va mohiyatini to‘laroq yoritishga harakat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Reklama to‘g‘risida” Qonunida reklamaning tili to‘g‘risida yangi modda kiritilib, “O‘zbekiston Respublikasi hududida reklama O‘zbekiston Respublikasining davlat tilida tarqatiladi.” jumlasining qo‘llanilishi bilan xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma’rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tilining qadri yanada tiklandi.

“Reklama to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasida Reklama mazmunining tarjimasi boshqa tillarda takror berilishi mumkinligi borasida aniq talablar belgilangan bo‘lib, belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan tovar belgilari (xizmat ko‘rsatish belgilari), bosma usulda terilgan bo‘g‘inli belgilar (logotiplar) asli qaysi tilda bo‘lsa, shu tilda keltirilishi mumkinligi qayd etilgan.

Xo‘sh, mazkur qonun hujjatining 6-moddasi bilan reklama tili borasida muammolarga barham berildi, deya olamizmi?

Reklama sohasini o‘rganar ekanmiz, bugun o‘zbek tilining lug‘at manbasidan noto‘g‘ri foydalanish, ya’ni so‘zni atay xato shakli orqali aholi diqqatini jalb qilish jarayoniga duch kelyapmiz.

“Mazzali patir”, “Daxxshat somsa”, “unutilmas t’am” kabi reklamalar tayyorlanib, ommaga tarqatilyapti. Ushbu jarayonga “shunchaki, imloviy xato bilan yozilgandir” degan xulosa qilish mumkin.

Aslida esa, so‘zning asliyatiga putur yetkazilib, uning jilosiga raxna solingan shakli orqali xaridor chaqirish, daromad topishni kasb qilib olgan tarqatuvchi tadbirkorlik subyektlari bilan insonni savollarga ko‘mib tashlaydi:

“Til sening shaxsiy mulking emas!”, “o‘zbek tili asrlar osha sayqallanib, ajdodlardan bizga qolgan omonat”, “tilimizning sofligini saqlash, uni kelgusi avlodlarga sof va omon holda yetkazish barchaning fuqarolik burchi”… kabi so‘rovlar, mana, uch yarim yildirki, nutqimda eng ko‘p ishlatilgan gaplardan hisoblanadi.

Tilimizni asraylik! Zero, Ayni maqsadni amalga oshirish uchun har bir yosh mutaxassis o‘z ustida tinmay izlanishi, dunyo tillarini o‘rganishi mumtoz va jahon adabiyoti durdonalarini mutolaa qilishi, og‘zaki hamda yozma nutqni rivojlantirishi, ommaviy axborot vositalari, radio hamda televideniyelarda chiroyli chiqishlar qilib, bilim va ko‘nikmalarini boyitishlari lozim.

MUNDARIJA

	So‘z boshi Bahodir Boypo‘latovich Sobirov	4
	BIRINCHI SHO‘BA **GLOBALLASHUV DAVRIDA TURKIY TILLAR:MUAMMO VA YECHIMLAR**	
1	**Necati DEMİR** Oğuz Türklüğü’nün Nevaî (Nur-I Buhara) şehrinden Anadolu’ya yürüyüşü	5
2	**Baxtiyor Mengliyev** Turkiy tillarning umumiy grammatikasini yaratish – davr talabi	9
3	**Sultonmurod Olim** O‘zbek tilining turkiy lisonlar o‘rtasidagi o‘rni va mavqei	10
4	**Abdiyev Murodqosim,** **Dilmanov Ilya** Turkiy tillarni qiyoslab o‘rganish – davr talabi	12
5	**Ibrohim Darvishov** Hududiy tilda sintagmatik munosabat	14
6	**Oripov O‘ralboy Axmedovich,** **Safarova Musallam** Nurota toponimiyasining lug‘aviy asoslari	17
7	**Oripov O‘ralboy Axmedovich,** **Xudjanazarova Saboat Fayzullayevna** “Boburnoma”dagi unvon va mansab nomlarining ma’no xususiyatlari	19
8	**Yuldashev Farrux Haqberdiyevich** **“Ma’naviyat” leksik kategoriyasining semantik strukturasi**	21
9	**Sadinova N.U.** Turkiy hujjatlarning tarixiy ildizlari	23
10	**Raxmonov Navro‘z** Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida ko‘plik shakllari	25
11	**Мардонова Ф.Б.** Языковая вариативность как универсиальное свойство языка	26
12	**Акбарова Дилором Ахатовна** Формирование лингвистической компетенции с помошью занимательной лингвистики на уроках русского языка	31
13	**Qarshiboyeva Dildora** Iboralarning lingvokulturologik tadqiqi xususida	34
14	**Rahimova M.** Tushuncha va ma’no	35
15	**Yuldosheva Mashhura** So‘zlashuv nutqida pragmatik ma’noning ifodalanishi	37
16	**Alimova Zarifaxon** O‘zbek tilidagi fors-tojikcha o‘zlashmalarda fonetik muvofiqlashuv	40
17	**Oripov O‘ralboy** Nurota etnotoponimlarining lisoniy tahlili	44
18	**Allaberdiyev Alijon** Buxoro o‘g‘uz shevalarida egalik va ko‘plik kategoriyasi	46
19	**Musayeva B.M.** O‘zbek va rus tillarida fe’lning infinitiv va tur tushunchalari	48

20	**Tursunov Akmal** So‘z yasalish ma’nosi va motivatsiya munosabatining boshqa ma’no turlaridan farqi	50
21	**Ne’matova Niginabonu** Xitoy tilida murakkab sintaktik qurilmalarning turlari xususida	52
22	**Мамадалиева Саидахон** Проблема обучения русскому языку студентов филологов на основе социокултурного подхода	54
23	**Абдуманнонов Хожиакбар** Анализ определения термина «Фразеологизм» и его классификаций	56
24	**Abduraximova Feruza Boxadirovna** So‘z yasalishining taraqqiyot yo‘li	59
25	**Жумаева Феруза Рузикуловна** Субстантивация в русском и узбекском языках	62
26	**Шодиева Ирода Саъдуллаевна** Типы неполных предложений в современном русском языке	66
27	**Умарова Шахноза** Отражение субстантивации в словаре омонимов русского языка	67
28	**Рахманова Маржона** Дифференциация глагольной лексики в русском языке	69
29	**Saidov Temurmalik** Bolalar adabiyoti asarlari tilida qo‘llangan ba’zi idish-tovoq nomlarining lisoniy xususiyatlari (X. To‘xtaboyev asarlari misolida)	72
30	**Darvishaliyeva Mahliyo** Zamonaviy o‘zbek she’riyatida frazeologizmlar va xalq maqollari lingvopoetikasi	75
31	**Boymatov Abdujabbor** Til aloqalariga doir ba’zi mulohazalar	79
32	**Davronova Surayyo Mardon qizi** Globallashuv davrida turkiy tillar:muammo va yechimlar	81
33	**Hamidova Munavvar -** Lingvopoetikada ekspressivlikni ta’minlovchi fonetik vositalar	84
34	**Mustafoyeva Mohichehra Mansur qizi** “Boburnoma” asarida uchraydigan ayrim toponimlarning lingvistik talqini	86
IKKINCHI SHO‘BA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI		
35	**Öğr. Gör. Gökhan ÜNLÜ** **Munzur Üniversitesi Çemişgezek MYO** Tunceli/türkiye Karluk grubu türk lehçelerinde bağlaçlarin görünümü	89
36	**Doç. Dr. Süleyman Kaan YALÇIN (Fırat Üniversitesi)** **Öğr. Gör. Remzi ÇALIŞIR (Fırat Üniversitesi)** Güneydoğu Grubu Türk Lehçelerinde Ünsüz Uyumu Bakımından İsim Hâl Ekleri	94
37	**Odilov Yorqinjon** Ismlarning sotsial xususiyatlari	100
38	**Murodova Nigora Quliyevna** Turkiy tillarning areali: tahlil va talqin	103
39	**Ibrohim Darvishov** Namangan shevalarida etnik rudimentlar	107

40	**Kurbonov Zaynidin Oltinovich, Bo‘riboyeva Muqaddas Zayniddin qizi** Qipchoq lahjasidagi sifat so‘z turkumiga oid ayrim so‘zlar izohi	111
41	**G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich** Qiziltepa etnotoponimlarin*--*ing areal-xronologik tahlili	113
42	**Zaripov B.P., Po‘latova S.B.** Aforizmlarda “G‘URUR” konseptining ifodalanishi va ularning lingvokulturologik tavsifi	118
43	**Turniyazova Sh.N.** Matn – yuqori pog‘onadagi sintaktik birlik	121
44	**Samandarov R.D.** Yana matn lingvistikasi xususida	122
45	**Abduvaliyeva Dilnoza Akramovna** Alisher Navoiy tarixiy asarlarida ismlarning morfologik-statistik tadqiqi	124
46	**Jumayeva Z.Sh.** Frazeologizmlardagi emotsional-ekspressiv xususiyatlar	129
47	**Yarashova Nasiba Jumayevna** Bolalar nutqining lingvopsixologik aspektda o‘rganilishi	131
48	**Maxammadov Bobir Isan o‘g‘li** Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari operatsion tizimlarining lingvistik terminlari va tarjima muammolari	134
49	**Muqumova Surayyo -***** O‘zbek xalq maqollari: til, madaniyat, adabiyot, tarix, falsafa va integratsiyasi	136
50	**Muqumova Surayyo** O‘zbek mentalitetiga xos urf-odatlarning lingvomadaniy talqini	138
51	**Boymanov Elyor G‘iyozovich** Eski o‘zbek adabiy tiliga doir yozma manbalarida qo‘llangan turizm terminlari	141
52	**Axmatova Intizora Hasan qizi** Olot tumani tarkibidagi etnonim asosli toponimlar tahlili	145
53	**Usmonova Shahnoza Erkinjonovna** Abdurauf Fitratning “She’r va shoirliq” maqolasida qo‘llangan ayrim so‘zlarning tahlili haqida	147
54	**Nurimova Diyora** Jahon tilshunosligida lirik diskursning o‘rganilishi	151
55	**Sa’dullayeva Mohira Sobirovna** Navoiy asarlaridagi so‘zlarning o‘zbek o‘g‘uz shevalarida ishlatilishi	152
56	**Abdurahmonova Gulira’no G‘aybidin qizi** Leksema va uning ma’nolari (T.Murodning “Ot kishnagan oqshom” qissasi misolida)	155
57	**Suyunova Sevara Xasan qizi** Nurobod tumani oykonimlari haqida ba’zi mulohazalar	157
58	**Jo‘raqulova Hulkar** Qoraqalpoq va o‘zbek xalq maqollarining qiyosiy tasnifi	160
59	**Izbasarova Shaxnoza** Zamonaviy o‘zbek adabiy dostonlarida dialektal qatlam birliklarining talqini	162
60	**Bobotayev Mirjalol** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ayrim dialektizmlarning semantik-struktur tasnifi	165
61	**Mansurova Zilola Bahodirovna** Anbar Otin she’riyatida forsiy va arabiy so‘zlarning qo‘llanishi	168
62	**Yigitaliyev Umidjon, Shohruhbek Umidjonov** Stilistik vositalar paradigmatikasi va unda “Jins” konseptining verbal ifodalanishi	171

63	**Muhammadiyev Nodir Rustamzoda** O‘zbek shevalarida so‘z yasalish tizimi	174
64	**Rasulova Istoda** Kontrastiv tilshunoslik hamda interferensiyani keltirib chiqaruvchi omillar	176
65	**Safarova Nigora Fahlavon qizi** Rus tilshunosligida “Ona” konseptining badiiy matnlar orqali o‘rganilishi	178
66	**Yusupova Orziboni Sunnatovna** Said Ahmadning “Ufq” asarida ajratilgan bo‘laklarning uslubiy xususiyatlari	181
67	**Sariyev Sherzod Norqo‘ziyevich** Turkiy tillarga xos kulolchilik terminlarining qiyosiy tahliliga doir	183
68	**Sattorova Muborak** Ona tili darslarida uzviylikni amalga oshirish yo‘llari	185
69	**Xaydarova Dilnoza Mamatqulovna** Turkiy tillarga xos qandolatchilik terminlari xususida	187
70	**Axmedova Zamira Abdiraxmonovna** Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridagi omonim so‘zlarning qo‘llanilishi	188
71	**Yuldashev Jo‘rabek Uralovich** Dialektizmlarning lingvopoetik xususiyatlari	190
72	**Shomurodov Shuhrat** Til – millatning muqaddas mulki, ma’naviy boyligi	192
73	**Tuxtarova Iroda** Badiiy matn xorijiy tillarni o‘qitish vositasi sifatida	193
74	**Tuxtarova Iroda** Ingliz va o‘zbek tillarida onomatopik so‘zlarning qo‘llanilish	197
75	**Jabborova Diyora** Epitetlarning lingvopoetik xususiyatlari	199
76	**Халикова Гульбахор Исановна** Дидактические особенности формирования межкультурной коммуникации при обучении русскому языку в доу	202
77	**Suyunova Xilola** Language learning through the activities	203
78	**Ne’matova Niginabonu Alisherovna** Xitoy tilida murakkab sintaktik qurilmalarning turlari xususida	207
79	**Буриева Шохсанам** Некоторые суждения о гендерной лингвистике и степени её изучения	208
80	**Hamroyev Umid** Yordamchi so‘zlar mavzusini o‘qitishda kognitiv-pragmatik yondashuv asosidagi topshiriqlar ustida ishlash	210
81	**Inamova Sayyora Axmad qizi** Bo‘lajak chet tilli o‘qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish	217
82	**Usmonov Musurmon** Singarmonizm Namangan qipchoq shevalari arealining asosiy qonuniyati	219
83	**Axmedova Maftuna Faxriddinovna** “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da texnika terminlarining ifodalanishi	221
84	**Алимсаидова С.А.** Обучение диалогической речи	223
85	**Ibragimova Latofat** Leksikologiya mavzusini o‘tishda grammatik o‘yin-topshiriqlar qo‘llash	225

86	**Ibragimov A.** Yasama otlar – o‘quvchilar so‘z boyligini oshiruvchi vosita	22
87	**Do‘stova Surayyo Savronovna** Munfasil harflar mavzusini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan o‘qitish	229
88	**Pardayeva Madixabonu Xakimovna** Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida mustaqil so‘z turkumlarining qay darajada qo‘llanilishi	233
89	**Davlatova Aziza Akmalovna** Bolalar nutqida qo‘llanilgan metonimiyalarning lingvokulturologik tadqiqi	236
90	**Islamova Dinara Azamatovna** Ko‘chim turlari va ularning transpozitsiyaga munosabati	237
91	**Sadinova Javohir Usmanovna** Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida sifat so‘z turkumining qo‘llanishi	239

UCHINCHI SHO‘BA
TURKIY ADABIYOT: TARAQQIYOT BOSQICHLARI, MOHIYATI, POETIKASI
ЭТНОГРАФИК ФОЛЬКЛОРИЗМЛАР

92	**Абдуҳамид ХОЛМУРОДОВ** Ўзбек ва умумтурк адабиётининг ҳозирги тараққиёт тамойиллари	241
93	**Баҳриддин Садриддинов** Аҳмад Югнакийнинг “ҳибат-ул ҳақойиқ” асарида илмга даъват	243
94	***Ражабова М. Б.*** Туркий назмда этнографик фольклоризмлар	247
95	**Suyunov H.M.** Tasviriy san’at asarlarining til va adabiyot o‘qitishdagi o‘rni va ahamiyati	249
96	**Axmedova Z.J.** Tabu adabiy element sifatida	252
97	**Fayziyeva Dilfuza** “Alpomish” dostonida ayrim eponim va epik obrazlarning qadimgi mifologik tasavvurlar bilan aloqadorligi xususida	254
98	**Qodirova Hamidaxon** Abdulla Qahhor shaxsiyati va ijodi Ibrohim Haqqul tadqiqotlari	256
99	**Mamadaliyeva Fazilat Yoqubjonovna** Hamza lirik merosida shakliy-uslubiy izlanishlar	257
100	**Xudayqulova Latifa Avazovna** “Yil boshi” marosimi haqida ba’zi mulohazalar	259
101	**Suyunov Husniddin** O‘quvchilarning imloviy savodxonligini oshirish yo‘llari	263
102	**Tursunova Nasiba** O‘rta Osiyo xalqlarining etnomadaniyati va irim-sirimlar xususida	266
103	**Xudoyorova Munira Baxronovna** Lutfiy qit’alari poetikasi	268
104	**Sharipova Nigora** “Hayrat ul- abror” strukturasida “Hayrat”larning o‘rni	270
105	**Imamova G.T.** Hamid Olimjon asarlari poetik leksikasi	273
106	**Ubaydullayev Normuhammad** Ijodkor shaxsi haqida yozilgan asarlarning genetik ildizlari va o‘ziga xos belgilari	275

107	**Mansurova Nodira Bobojonovna** Xalq ogʻaki ijodida oziqlangan milliy yozma adabiyot	277
108	**Nizomov Farxod** Qissada badiiy haqiqatning yangicha talqini	279
109	**Djaxangirova Zuxra Tursunovna** Nasriy asarlar orqali boshlangʻich sinflarda tadbirkorlikka oid bilimlarni oʻrganish	282
110	**Usmonova Shahnoza Erkinjonovna** Abdurauf Fitrat ijodida badiiy san'atlarning ilmiy tahlili	284
111	**Sultanova Zulxumor Sabatullayevna** Hayyom ruboiylari atrofidagi qarashlar	286
112	**Jonpoʻlatova Gulshoda** Usmon Nosir ijodida jadidchilik gʻoyalarining ifodalanishi	289
113	**Xamrakulova Xurshida** Hamza ijodida bolalar adabiyoti muammolari	291
114	**Rustamova Lobarxon Ibragimovna** Alisher Navoiy asarlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida oʻrganish	295
115	**Sharipova Raxima Muxtorovna** Tabiat ramzlarining badiiy san'atlarni yuzaga keltirishdagi oʻrni	302
116	**Nusratillayeva Dilnoza Nusratillayevna** Xurshid Davronning poetik mahorati	306
117	**Mansurjonova Gulbahor Muhammadsobir qizi** Tennssee Uillamsning "The glass menagerie" asarida "Yolgʻizlik" mavzusi	309
118	**Mahmudova Diyora** "Sab'ai sayyor"dostoni va xalq ogʻzaki ijodi	311
119	**IIIамуратов Марат** Создание исторических сюжетов в романе «Агабий»	312
120	**Rustamova Lobarxon Ibragimovna** Umumiy oʻrta ta'lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini oʻrganish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	317
121	**Ismoiljonova Nilufar** Psixogik tahlilda mimikaning tutgan oʻrni (Shukur Xolmirzayev hikoyalari asosida)	321
122	**Rizoyeva Mehriniso** Afsonalarda sakral personajlar talqini	325
	TOʻRTINCHI SHOʻBA **TURKIY XALQLAR ETNOGRAFIYASI, TARIXI, MADANIYATI**	
123	**Navroʻzova Gulchehra Nigmatovna** Akademik Ibrohim Moʻminov Yassaviya ta'limoti xususida	327
124	**Юнусова Г.С. -** Средневековая философия в центральной азии и на мусульманском востоке	331
125	**Choʻliyeva Vasila Erkinovna** – Turkiy xalqlar madaniyati assimlyatsiyalashuvida jaloliddin rumiyning tutgan oʻrni	334
126	**Umarov Shukurillo-** Ilm-ma'rifatni tarqalishida Markaziy Osiyo allomalarining buyuk xizmatlari	337
127	**Munavvarova Musfira** Turkiy xalqlar ma'naviyati tarixida Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarining ahamiyati	340

128	**Sanayeva Surayyo Bobonazarovna** Turkiy xalqlar tarixida yoshlar tarbiyasi masalalari	343
129	**Cho‘liyeva Vasila Erkinovna –** Markaziy Osiyo Islom Falsafasi taraqqiyotida Bahouddin Valadning tutgan o‘rni	345
130	**С.Абдуҳакимова, М.Норқобилов** Туркий халқлар тарихида Саъдуддин Тафтазоний илмий меросининг тутган ўрни	348
131	**Savriyev Jasur Faxriddinovich** O‘rta Zarafshon vohasi hukmdorlari saroyi va chorbog‘lari ta’mirlanishidagi muammo va yechimlar : Karmanadagi Mirzachorbog‘ misolida	350
132	**Bobomuradov Sobitjon Erkinovich -** Qadimgi turkiy xalqlar tarixi va madaniyati	359
133	**Gulamova Mavjuda Tashpulatovna** Turk olimlarining Kumushxonaviy haqidagi tadqiqotlarning falsafiy tahlili	363
134	**Казимова Г.Х. -** Просветительство в туркестане в XIX – начале XX веков	366
135	**Fayziyev Otabek Olimovich -** O‘zbek xalqining shakllanish davrida musiqa madaniyati	368
136	**Sharipova Nodira** Turkiy xalqlar og‘zaki ijodida mushtarak qadriyatlar	370
137	**Sadinova Nilufar Usmanovna,** **Rustamov Jo‘rabek Valijonovich** Sharq mutafakkirlari qarashlarida diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik masalalari	372
138	**Axmedov Sohib Saimovich –** Jaloliddin Rumiy ijtimoiy-falsafiy qarashlarida nafs tarbiyasi masalasi	373
139	**Mirzayeva Nigina Olimovna –** Jaloliddin Rumiy falsafasida axloq kategoriyasining mazmun-mohiyati	375
140	**Shaxnazarova Mexrigul Xusanovna -** Is’hoqxon To‘ra Ibratning ma’rifatparvarlik g‘oyalari	376
141	**Rasulov Rustambek Odilovich** Yoshlar tarbiyasida tarixiy-madaniy merosning aksiologik gneseologik asoslari	378
142	**Axmedov Sohib Saimovich –** Turkiy xalqlar madaniyati taraqqiyotida “Masnaviyi ma’naviy” asarining ahamiyati	382
143	**Yo‘ldoshova Gulchehra Muxtorovna –** Tasavvuf va madaniy meros	384
144	**Shaxnazarova Mexrigul Xusanovna -** Is’hoqxon To‘ra Ibrat - madaniyat va ma’rifat fidoyisi	386
145	**Mirzayeva Nigina Olimovna –** Jaloliddin Rumiyning falsafiy qarashlarida ilmga munosabat	387
146	**Qodirov Abrorbek Alisher o‘gli** Turkiy xalqlar tarixi	388
147	**Буриева Шохсанам -** Некоторые суждения о гендерной лингвистике и степени её изучения	391
148	**Tojiboyev Maxmudjon Akbarjon o‘g‘li** **Turdiyev Xumoyon Xurshid o‘g‘li** Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyoti va farovonlik sari	393
149	**Dilrabo Tosheva** Patronage, identity and shaping islamic architecture in the eleventh-century Samarqand: the case of Ibrahim ibn Nasr Tawghach Bughra-khan Yale University, United States of America, dilrabotosheva@gmail.com	395

150	**Avazberdiyeva Bahora** Mushtarak tarix yoxud turkiy xalqlar tarixidan	401
151	**Urakov Tuxamurod Muxiddinovich** **Hamroyev Bahodir Baxtiyorovich** Turkiy davlatlar tashkilotining xalqaro tashkilot sifatida shakllanish jarayoni	402
152	**Рахимова Фируза Шавкатовна** Билингвизм и его влияние на формирование языкового аспекта	405
153	**To‘xtayeva M.X.** **Norboyeva Afro‘za** O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati - yoshlar iqtidorini namoyon qilish imkoniyatlari	407
154	**Oydin Xotamova** Til – millat ko‘zgusi	409

“O‘RTA OSIYODAN ANADO‘LIGACHA: TURKIY XALQLAR TILI, TARIXI, MADANIYATI VA ETNOGRAFIYASI”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi
M A T E R I A L L A R I
Hajmi 52. 1/8 bosma taboq. Adadi 50 nusxa.
NavDPI bosmaxonasida chop etildi.
Navoiy shahri Ibn Sino-45.